Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

1
2024



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Elektron nashr. 964 sahifa.
E’lon qilishga 2024-yil 7-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O‘zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., “O‘IRIAM” ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori o‘rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, t.f.f.d., TAQU katta o‘qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O‘zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
Ochilov Farxod, O‘zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘limi boshlig‘i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o‘qituvchisi

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

MUNDARIJA

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning roli va ahamiyati 10
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Zaynutdinova Umida Djalolovna

Yashil iqtisodiyotga o‘tishda konseptual, ilmiy, innovatsion yondashuvning zarurati 16
Gulnora Abdurahmonova

O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish muammolari va uni bartaraf etish yo‘llari 22
S. R. Topildiyev

Milliy strategik maqsadlar: ekologik va bojxona boshqaruvi mexanizmlarining maqbul kombinatsiyasi 28
Muratova Shohista Nimatullayevna

Green Economy in Tourism in Uzbekistan 32
Alieva Makhbuba Toychievna

Инновационные подходы в сельском туризме: “Зеленые маршруты” 36
Голышева Елена Вячеславовна

Mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari 42
Vaxabov Abduraxim Vasikovich, Nazarov Nazirjon Narzilloyevich

To‘qimachilik sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirish omillari 47
A.Yu. Mardanov

Turizmni qayta jonlantirish strategiyasini ishlab chiqishda turizmni rejalashtirishning istiqbollari 52
A’zamov Saidakbarxon Avazxon o‘g‘li

O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishi asosida barqaror rivojlanishga erishish 57
Abdullayev Elyorbek Odiljon o‘g‘li

Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o‘rni 62
Akbarov Akmalxon Akrom o‘g‘li

Turistik hududlarning barqaror rivojlanishini baholash metodologiyasida integral baholash ko‘rsatkichlarini aniqlashning nazariy jihatlari 66
Asraqulov Abduraxmon Sultonovich

Iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda “yashil” iqtisodiyot va uning ayrim masalalari 70
Axunova Shoxistaxon Nomonjanovna, Sultonova Gulbaxor Shoxnazimovna

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo‘jaligi faoliyatining nazariy tamoyillari va o‘ziga xos xususiyatlari 74
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich

Mintaqa iqtisodiyotida agrar soha samaradorligini oshirishning ahamiyati 78
Butanova Dilnoza Rustamovna

Global krizislar va ularning turizm iqtisodiyotiga ta’siri 83
Hallakova Barnoxon bahodirjonovna

Agroturizm faoliyati rivojlanishining xorijiy tajribalari va ularda faoliyatni rivojlantirish modellarining qo‘llanilishi 95
Husanboyev Sadafbek Yorqinjon o‘g‘li

Yashil iqtisodiyotni kreditlashda banklarning o‘rni 101
Ibragimova Sevara Muxamedjan qizi

Qurilish materiallari sanoati korxonalari samaradorligini baholash masalalari 104
Isayev Jakhongir Muzaffarovich

Iqtisodiyotni islomiy moliya tamoyillari asosida moliyalashtirish amaliyotini joriy etish istiqbollari 110
Kasimov Baxtiyor Usmanovich

Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning iqtisodiy mexanizmi 113
Mahamatova Maftuna

Turizm xizmatlar bozorida raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarini takomillashtirish imkoniyatlari 119
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna

Islom moliyalashtirish xizmatlari asosida kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish usullari 124
Said Po‘latov Maxamedovich

Using Innovative Technologies in Hotels as a Factor of Sustainable Development of Tourism Industry 128
Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich, Egamberdiyev Sirojiddin Sattor o‘g‘li

Dorivor o‘simliklar yetishtirishning dunyo mamlakatlari iqtisodiyotidagi o‘rni va xalqaro bozor savdosida prognozlar 135
To‘xtabayev Jamshid Sharofiddinovich, Maftuna Ermatova Arslonbek qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O‘zbekistonga turistlar tashrifini ko‘paytirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni 142
Toshmurod Kulmanov
Agrobiznesni moliyaviy quvvatlash va rivojlanish istiqbollari 147
Tursunova Dilnavo Islomovna
Oziq-ovqat bozorini qandolat mahsulotlari bilan to‘ldirishda marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish 150
Azlarova Munira Muxammad-Amin qizi
Yoshlar turizmini rivojlantirish holati va uni takomillashtirish yo‘llari 159
Allayor Norboyev Ismoilovich
Biologik aktivlarni baholashning uslubiy jihatlarini takomillashtirish 162
Boltayev Abror Sayitmuradovich
Agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion jarayonlarni tadqiq qilishga uslubiy yondashuvlari 168
Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich
Suv resurslaridan samarali foydalanishda suv solig‘ining ahamiyatini oshirish 174
Ikramov Nuriddin Kamolitdinovich
Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiya va innovatsion faoliyat bilan bog‘liq tushunchalarining nazariy masalalari 179
Mamayunus Qarshibayevich Pardayev, Temur Olimovich Mamayunusov
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanishni harakatlantiruvchi omili sifatida 185
Raximbayev Akmal Azatboyevich
Korxonalarni boshqarish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish mexanizmlari 190
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich
Globallashuv sharoitida turizm sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish 195
Salimov Dilshodbek Davronovich
To‘qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi 199
Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich
Oziq-ovqat sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari 203
Nilufar Umarova
O‘zbekistonda transport xizmatlari ko‘rsatilishi tahlili 207
Xasanov Sarvar Ulug‘bek o‘g‘li
Agrar sektorga jalb qilingan investitsiyalarning sohadagi intensiv iqtisodiy o‘sishga ta’sirining tahlili 213
Yangiboyev Sirojiddin Jo‘ramurodovich
Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlarda auditning xalqaro standartlarini qo‘llash xususiyatlari 220
Meliyev Isroil Ismoilovich
Raqamli bank xizmatlarini yanada takomillashtirish: muammolar va yechimlar 227
Melikov Otabek Maxmadiminovich
Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitalining tutgan o‘rni 232
Abdikarimov Islombek Ibragimovich
Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish modellariga oid zamonaviy tajribalar 237
Avulchayeva Feruza Djurakuziyevna
Задачи предмета “русского языке” на современном этапе 243
Адилова Солияхон
Tijorat tashkilotlarining investitsiya faoliyati 247
Farhod Mahmudovich Tirkashyev, Asomiddinov Husan Asomiddin o‘g‘li
Korrelyatsion-regression tahlil orqali turizm xizmatlari samaradorligini oshirish mexanizmlari 252
Gapparov Azim Qayumovich
O‘zbekistonda monetizatsiya darajasi va uni makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri 258
Isayev Atabek Djurabayevich
Prospects for the Development of Bond Circulation in the Capital Market 266
Jurabek Sobirov
Ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim muassasalarining rivojlanish holati tahlili 270
Kuldashev Sherzod Alimardonovich
Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va ularning barqaror iqtisodiy o‘sishdagi roli 276
Mamadiyorova Dilorom Ravshon qizi
Surxondaryo viloyatlarning marketing salohiyatini shakllantirish holati tahlili 280
Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna
Improving Internal Control System 287
Mexmonaliyev Ulug‘bek Erkinjon o‘g‘li

Oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilishda OTMlar veb-saytlari samaradorligini oshirish 291
Musayev Bekjon Shukurillayevich

Korxonaning narx-navo tizimi va narx siyosatini tahlil qilish 298
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhkomovna

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tibbiyot sohasini moliyalashtirish istiqbollari 302
Muxammadiyev Ramz Zoirjon o'g'li

Xizmatlar ko'rsatish subyektlarida biznes-modellarining raqamli transformatsiyalashuv konsepsiyalari 306
N. B. Yahyoxonov

Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi kredit tashkilotlarining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili 311
Nazarova Muslima Nazarovna

Sanoat korxonalarida aylanma mablag'lardan foydalanishning ilmiy-amaliy jihatlari 317
Nurmatov Mirzaakbar Mirzaaliyevich

Biznesni yuritishda korxonalararo integratsion jarayonlarni rivojlantirish masalalari 322
Olimova Nodira Xamrakulovna

O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari: tahlil va istiqbollar 329
Oppoqxonov Nurmuhammadxon Po'latxon o'g'li

O'zbekistonda davlat korxonalari transformatsiyasini jadallashtirish yo'nalishlari 333
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li

Aholining turmush darajasini oshirish sharoitida mehnat bozori transformatsiyasining dinamikasi 338
Rahimboyev Muxtorbek Ikrom o'g'li

Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari 341
Raxmanov Mexridin Sindarovich

Aholi moliyaviy savodxonligiga investitsiya kiritishning ahamiyati 345
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda valyuta siyosatini samarali tashkil etish 350
Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li

Sharq va G'arb tamaddunida gender qarashlar 355
Samandarova Gulxayo Abdukarim qizi

Imkoniyati cheklanganlarga to'siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etish istiqbollari 359
Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li

To'qimachilik korxonalarining inqirozga qarshi boshqaruvida davlat tomonidan tartibga solishning ahamiyati 363
Todjimamatova Mashhura Erkinovna

Mintaqalarning ekologik-iqtisodiy xususiytlari va ularning barqaror rivojlanish bilan bog'liqligi 367
Toshboyev Muzaffar Muxtorovich

Перспективы развития сферы услуг в Узбекистане 373
Tsoy Marina Petrovna, Li Marina Rudolfovna, Romashkin Roman Anatolyevich

Opportunities for Bicycle Tourism in Zomin, Bulungur and Bakhmal Districts 379
Urozaliev Elyor Shuxrat ogli, Xujamov Bobur bahodir ogli, Saydullayev Abbosjon Murodovich

Pul-kredit siyosati va moliyaviy inqiroz: uslubiyot va saboqlar 384
Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich

Korxonalarda barqaror rivojlanishni tatbiq etish istiqbollari 391
Xidirova Marg'uba Rustamovna, Jumayeva Guzal Sherxon qizi

Telekommunikatsiya korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish 396
Xusanov Ulugbek Nishanovich

Milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini kengaytirish imkoniyatlari 402
Xuseynova Feruzabonu Mamadaliyevna

O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari 405
Yo'ldosheva Dilnoza G'ayrat qizi

Необходимость соблюдения этических норм в профессиональной деятельности бухгалтеров 408
Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна

Mintaqalarda kichik innovatsion korxonalarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari 412
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich, Axmadjanov Ilyosbek Ilxomjon o'g'li

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini nazariy masalalari 416
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich, Abduraxmonov Sherali Sharifjonovich

Пути повышения прозрачности бюджета Республики Узбекистан 420
Адашов Гайрат Рустамович

Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi 424
Axmediyeva Aliya Toxtarovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Тенденции и факторы развития пищевой промышленности в Узбекистане 432
Б. А. Хакимов

Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции 438
Бабаева Гузаль Яшиновна

“Sirdaryo” va “Sirdaryo-Farm” erkin iqtisodiy zonasidagi xorxonalari erishgan yutuqlari, berilgani imtiyozlar va yaratilgan shart-sharoitlar to‘g‘risida 444
Davlayev G‘olib Ashurovich

Milliy iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalarning tahlili 447
Djalilov Dostonbek Abduazizovich

Ishlab chiqarish tafovutining Markaziy Bank monetar siyosati qarorlariga ta’siri 452
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich

O‘zbekistonda innovatsion jozibadorlik asosida oliy talim xizmatlarini rivojlantirish 457
Jonuzokov M. K.

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirishda xorij tajribasidan foydalanish 461
Ismailov Allayor Rashidovich

Особенности формирования ценовой стратегии на рынке плодоовощной продукции 465
Исроилов Абдурашид Абдурахманович

Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish 471
Kalandarova Nargiza Narimanovna

Проблемы регулирования и защиты инвесторов в развитии электронной коммерции и пути их решения 475
Кенжебаева Гульфуза Рахматиллаевна

Сущность, цели и задачи определение уровня финансовой устойчивости предприятия в современных условиях 478
Киличев А. А.

Sug‘urta tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish 485
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich

Классификация институциональных факторов, определяющих предпринимательскую активность в Узбекистане 490
Курпаяниди Константин Иванович

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kredit va qarz mablag‘laridan foydalanish samaradorligi tahlilini takomillashtirish 497
Mahmudova Go‘zal Samadjon qizi

Muqimiy ijodiDA milliy uyg‘onish va iqtisodiy, falsafiy qarashlar 502
Muxlisa Muxitdinova

Совершенствование управления портфелем залогов для обеспечения финансовой устойчивости: инсайты и рекомендации для Узбекистана 505
Наимов Шахрух

Определение специфических особенностей и факторов вляющие на процесс внедрения междурнародных требований и стандартов в коммерческих банков Республики Узбекистан 509
Хайдаров Зохир Шаривович , Каражанова Гулноза Толлиевна, Хайдари Фидои Зохир Зода

Inson kapitalida mujassam bo‘lgan fazilatlar, ularning jamiyat rivojlanishidagi o‘rni va roli 514
Mamayunus Qarshibayevich Pardayev, Sevara Abdinazarovna Babanazarova, Mexrangiz Olimovna Mamayunusova

Развитие рыночных отношений и усиление их влияния на рост объёмных и качественных показателей культурного туризма 521
Пулатова Сурайё Юлдашевна

Основные направления цифровой трансформации в банковском секторе 525
Рахимова Гавхар Ойбековна

O‘zbekistonda ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda bank kreditlarining roli 530
Saidova Subhinigor Azizovna

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirishning innovatsion yo‘llari 535
Sultonov Shodiyor Abduhalilovich, Nazarov Asqar Anvar o‘g‘li

Yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari 541
Umirov Xurshid Islomovich

Korxonalar va tashkilotlarni modernizatsiya qilish jarayonlari 545
Fayziyeva Dilafruz Shuxratovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

"Авеста" – исторический источник экономической мысли в Древней Средней Азии 549
Хакимов Назар Хакимович, Садиков Анвар Каримович

Приоритетные направления развития теории формирования финансовой политики предприятия 555
Хамдамов С. Ф.

Innovatsion rivojlanish sharoitida inson resurslarini strategik boshqarish 562
Xasanova Nafisa Shavkatovna

Mehnat bozorida mehnat resurslaridan samarali foydalanishda yoshlar bandligini takomillashtirish 566
Xuvaydullayeva Iroda Xusniddin qizi

Sanoat korxonalari faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini baholashga doir uslubiy yondashuvlar 572
Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna

Amir Temur davrida hunarmandchilik siyosatining o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlari 578
Zikrillayev Jaxongir Sarvar o'g'li, ilmiy rahbar: Nasimov Baxtiyor Vasiyevich

Infratuzilma obyektlari rivojlanishining turizm sohasidagi o'rni 583
Toyirova Amina Baxtisher qizi

Korxonalarda moliyaviy investitsion portfelni jalb qilish va rag'batlantirishning zamonaviy shakl va usullari tahlili 588
Haydarov Humoyun Begmurod o'g'li

Kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar 592
K. Q. Tajibayev

Бухгалтерский учет дебиторской и кредиторской задолженности в современной экономике 599
Камолова Феруза Кахрамоновна

O'zbekistonda mehmonxona sohasidagi mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari 603
Mirzayeva Lola Shavkatovna

Turizmni rivojlantirishda "yashi" marketingni o'rni 607
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna

Inson kapitalini boshqarishning xorij tajribasi 612
Ruzmetova Gulira'no Atabekovna

Agrasanoat majmuasida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishirish va qayta ishlashda klasterlarini rivojlantirishning xalqaro tajribalari 620
Salixov Sherzod Abduxakimovich

Mamlakatimizda mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish 625
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna

Budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va nazoratini takomillashtirish 628
Ostonokulov Azamat Abdukarimovich, Alimardonov Asrorjon Alimardonovich

Xizmat ko'rsatish sohasida investitsion jarayonlar rivojlanishining xorij tajribasi 635
Miyassarov Davron Abdurashid o'g'li

Xizmat ko'rsatish va servis sohasida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari 640
Muhammadamin Erdon o'gli Erdonov

Инновационные направления развития сферы услуг как фактор экономического роста 644
Насиров Дилшод Фархадович

Влияние прямых иностранных инвестиций (пии) на экономику Узбекистана 654
Юлдашев Нодирбек Сайдибурханович

Qulay investitsiya muhiti – xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishning asosiy omilidir 659
Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li

Biznesni loyihaviy moliyalashtirish va uning asosiy yo'nalishlari 664
Razzakov Jasur Xamraboyevich

Inflation and Unemployment: Evidence from Uzbekistan 670
Mahmudov Nosir, Nabiyeva Nargizaxon Nuriddin qizi

Milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishda marketing strategiyalaridan foydalanish 677
Meliqulov Abduhalil Norinovich

O'zbekistonda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari 683
Ortiqov Avazbek Bahrom o'g'li

Rene Dekart va Blez Paskal ta'limotlarida ratsional g'oyalar komparativistikasi 689
Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna

Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari 694
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li

The Importance of the World Trade Organisation (WTO) and Uzbekistan's Efforts to Join It 699
Urozaliev Elyor, Khoshimova Sevara

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Jismoniy tarbiya va sport muassasalarini moliyalashtirishdagi mavjud muammolar 705
Abduqaxorov Ulug‘bek Abdug‘aniyevich

Yangi O‘zbekistonda turizmning drayver sifatida barqaror rivojlanish yo‘nalishlari 709
Tuxliyev Iskandar Suyunovich

Mahalliy soliqlar va yig‘imlarning iqtisodiy mohiyati hamda ularni undirishning xususiyatlari 713
Tuychiyev Kamoliddin

Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari va ulardan foydalanish yo‘llari 717
Yadgarov Nodir Ravshanovich

Organik qishloq xo‘jaligiga o‘tish bosqichlarining tashkiliy jihatlari va iqtisodiy asoslari 723
Amirqulov Shuxrat Olimovich

Davlat xaridlari jarayonida e’tiborsiz ijrochilarni imkoniyatini cheklash masalalari 727
G‘ofurov Temur Baxrom o‘g‘li

O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsion loyihalarni faol tashkil etish istiqbollari 730
Utkurov Kozimjon Dilmurod o‘g‘li

Iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda transport tadbirkorligi faoliyatini rivojlanish imkoniyatlari 733
M. Masharipova, I. Ruzmetova, D. Kuramboyeva

Sug‘urta faoliyatini takomillashtirishda anderrayting xizmatining o‘rni 737
Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich

O‘zbekistonda eksportni sug‘urtalash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo‘nalishlari 741
Qarshiyev Keldiyor Eshpulatovich

Kambag‘allikni qisqartirishda aholini tadbirkorlikka yo‘naltirish 745
Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich

Yoqilg‘i-energetika korxonalarning moliyaviy barqarorligining ilmiy nazariy asoslari 749
Xusanov Qaxramon Nishonovich

Оценка результатов реформы бухгалтерского учета в Республике 753
Киличева Фарида Бешимовна, Ирмухамедова Муслима Дилшодовна

Эффективность программ соответствия в различных компаниях 757
Ахмедов Бехзод Ахмедович

Элементы системы внутреннего контроля в выбранном финансовом институте 762
Хасанов Кахрамон Ахмаджанович

Authentic Leadership Unleashed: A Comparative Analysis of Leadership Styles 767
Esanova Shohida Utkirovna

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi moliyaviy risklarni boshqarishning ilg‘or xorij tajribalari 774
Madiyarov Sanjar Gulyamovich

Paxta-to‘qimachilik klasterlarida xarajatlar hisobining uslubiy masalalari takomillashtirish 781
Toshpo‘latov Azizbek Shermuxamadovich, Umaraliyev Isomidin Ismonjon o‘g‘li

Sug‘urta kompaniyalarida asosiy samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari ahamiyati va tansifi 788
Sharipova Durdona

Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqarish 793
Mirzayev Musurmon Umidullayevich

Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari 797
Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich

Oziq-ovqat mahsulotlari bozorining rivojlanish metodologiyasi 801
Meyliyeva Dilnoza Boboniyoz qizi

Oliy ta’lim muassasalarida budjet mablag‘laridan samarali va aniq foydalanishni ta’minlashga qaratilgan eng muhim qaror va u haqida ayrim mulohazalar 806
Xayriddinov Shuxrat Botirovich

Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish 809
Ravshanov To‘yli Gulmurodovich

Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati 814
Rizayeva Kumush Mexriddin qizi

Использование маркетинговых исследований в маркетинговой деятельности предприятий 818
Маматкулова Шоира Джалоловна

Расширение возможностей зелёной энергетики и её роль в устойчивом развитии предприятий энергетической отрасли Узбекистана 824
Аллаева Гульчехра Жалгасовна, Хакимджанова Сурайё Хабибуллаевна

Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini boshqarish tamoyillari 829
Shermuxamedov Akmal Komiljonovich

Turizm transport infratuzilmasini baholash imkoniyatlari va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish muammolari 835
Agzamov Shaxboz Akmalovich

Mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida biznes ekotizimini tashkil etish yo‘llari 839
Shoymardonov Orziqul Jo‘ra o‘g‘li

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida axborot-resurs markazi faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan tizimli islohotlar tahlili 844
Qurbanova Muazzam Fazliddinovna

Развитие транспортной сферы в условиях цифровизации экономики 847
Акбарова Лайло Упашевна

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yilgi soliq qonunchilik hujjatlariga kiritilgan asosiy o‘zgarish va soliq imtiyozlari berish tartibini takomillashtirish masalalari 853
Normurzayev Umid Xolmurzayevich

O‘zbekistonda elektron tijoratni yuritish va tartibga solishning me’yoriy-huquqiy asoslari 860
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich

Korxonalarning innovatsion faoliyatini moliyalashtirish yo‘nalishlari 866
Shayakubov Shaxzod Shakabilovich

Yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborilgan yosh olimlarning tahlili 871
Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich

Global iqlim o‘zgarishining iqtisodiy ta’sirini baholash modellari 875
Elov Ashrafjon Asqarjon o‘g‘li

Влияние прямых иностранных инвестиций (ПИИ) на экономику Узбекистана 880
Юлдашев Нодирбек Сайдибурханович

Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobi va nazoratini takomillashtirish 885
Ostonokulov Azamat Abdukarimovich, Alimardonov Asrorjon Alimardonovich

Iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy o‘zgarishlarini iqtisodiy o‘sishga ta’sirini baholashning nazariy asoslari 893
Kaxorova Anora Nusratovna

Оценка результатов реформы бухгалтерского учета в Республике Узбекистан 897
Киличева Фарида Бешимовна, Ирмухамедова Муслима Дилшодовна

Optimizing Lumbar Spinal Fusion with Cellular Technologies 902
Aripkhodjaev Fuzuliddin Ziyaviddinovich

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini budjetdan qaytarish tartibini takomillashtirish 909
Qurbonov Muxiddin Abdullayevich

Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari: Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili 913
Sultonboyeva Munira Baxodirovna

Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari 919
Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o‘ziga xos xususiyatlari 925
Tursunova Shaxnoza Farxod qizi

Цифровизация в дошкольном образовании: механизмы управления для повышения качества 929
Хайдаров Рустамбек Юлчибаевич

Moliyaviy menejment tizimini rivojlantirishda raqamli marketingdan foydalanishning afzalliklari 935
Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich

Export of Agricultural Products of Uzbekistan: New Opportunities and Development Problems 939
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi

Tijorat banklari aksiyalarini fond bozorida harakatlanishini iqtisodiy tahlili 943
Yuldoshova Manzura Ollashkurovna

Ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlar samaradorligini baholash mezonlari (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti misolida) 950
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq joriy aktivlarni hisobga olishni takomillashtirish 957
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri, texnika fanlari doktori, professor

Zaynutdinova Umida Djalolovna
Toshkent moliya instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning o‘rni va ahamiyati ochib berilgan, investitsiyalarni jalb etish tendensiyalari tahlil etilgan, investitsiya siyosatining tamoyillari ajratilib berilgan. Shuningdek investitsiyalarning mamlakat eksport va importida tutgan o‘rni amaliy ma’lumotlar asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, xorijiy investitsiya, moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar, asosiy kapital, eksropt, import, pul oqimi, iqtisodiy o‘sish, samarali investitsiyalar, yalpi ichki mahsulot.

Abstract: This article reveals the role and importance of investments in the development of the national economy, analyzes the trends of attracting investments, and distinguishes the principles of investment policy. Also, the role of investments in the export and import of the country was analyzed based on practical data.

Key words: investment, foreign investment, financial and economic crises, fixed capital, export, import, cash flow, economic growth, effective investments, gross domestic product.

Аннотация: В данной статье раскрываются роль и значение инвестиций в развитии национальной экономики, анализируются тенденции привлечения инвестиций, выделяются принципы инвестиционной политики. Также на основе практических данных была проанализирована роль инвестиций в экспорте и импорте страны.

Ключевые слова: инвестиции, иностранные инвестиции, финансово-экономический кризис, основной капитал, экспорт, импорт, денежный поток, экономический рост, эффективные инвестиции, валовой внутренний продукт.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning roli va ahamiyatini tadqiq etishda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy o‘sishga erishishning asosiy omillaridan biri – respublika iqtisodiyotiga ishlab chiqarish omillari (yer, kapital, ishchi kuchi) hamda ularning tarkibidagi muhim o‘ringa ega bo‘lgan investitsiyalarning, avvalambor, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning samarali joylashtirilishi hisoblanadi. Shu sababli, investitsiyalarning samaradorligi iqtisodiyotda takror ishlab chiqarishni rivojlantiruvchi asosiy omil ekanligini ko‘rish mumkin.

Ta’kidlash lozimki, “Samarali investitsiyalar makro, mezo va mikro darajadagi butun iqtisodiy muammolarni hal qiladi, shuningdek, iqtisodiyotni isloh qilish va uni qayta qurish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Xususan, investitsiyalar mamlakat moliya-kredit tizimining samarali ishlashini ta’minlaydigan elementdir” [1].

Yuqoridagilar asosida mamlakat iqtisodiy rivojlanishida xorijiy investitsiyalarning ham ahamiyatini alohida qayd etish lozim. Milliy iqtisodiyot rivojlanishini jadallashtirish orqali yuqori samarador investitsiyalarni jalb etish, bu orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlash mumkin.

Binobarin, milliy iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish, ishlab chiqarishga innovatsiyalarni keng joriy etish, samarali bandlikka erishish va aholi daromadlarini oshirishda investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarning o‘rini beqiyosdir. Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda investitsiyalarga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi va qulay investitsion muhitning yaratilishi investitsion faoliyatning rivojlantirilishiga ijobiy ta’sir qilmoqda. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning xorijiy tajribalar va ichki imkoniyatlarni hisobga olgan holda, erishilgan aniq yutuq va muvaffaqiyatlarning keng hamda atroflicha tahlili asosida ta’kidlash mumkinki, mamlakatimiz hukumati oldida turgan dolzarb masalalardan biri bu qulay investitsion muhitning yaratili-

shidir. Shuningdek, mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari va rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, makro va mikro darajadagi loyihalarni amalga oshirishda asosiy e’tibor xorijiy investitsiyalarga qaratilayotganligini ta’kidlash kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi ko‘p jihatdan faol investitsiya siyosatiga bog‘liq. Shu asosda davlatimizning raqobatbardoshligi va eng asosiysi, aholi farovonligi tubdan oshishi, yangi korxona va tarmoqlar, yangi ish o‘rinlari yaratilishini, o‘ylaymizki, tushuntirib o‘tirishning hojati yo‘q” [2].

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy lug‘atda “Investitsiyalar – kapitalni uzoq muddatli qo‘yilmalar tariqasida sanoatga, qishloq xo‘jaligiga, transportga va boshqa tarmoqlarga sarf etiladigan xarajatlar yig‘indisini aks ettiradi” [3], – deb ta’riflangan. Iqtisodchi olim P.A.Samuelsonning fikriga ko‘ra, investitsiyalash daromadlarni joriy iste’mol uchun ishlatmasdan, ularni kelajakda ko‘proq foyda olib, faoliyatni kengaytirish uchun sarflashdir [4].

Rossiyalik olim A.M.Margolin “Investitsiyalar” darsligida “Investitsiyalar – pul mablag‘lari, maqsadli bank jamg‘armalari, qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar, mashina, asosiy vositalar va boshqa mulk ko‘rinishidagi kapital qo‘yilmalarni, shuningdek, pul qiymatiga ega bo‘lgan mulkiy va nomulkiy huquqlarni investorning strategik maqsadlarini ko‘zlab ishlab chiqarish va boshqa faoliyat obyektlariga kiritishdir” [5], – deb ta’riflaydi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan prof. D.G‘.G‘ozibekov esa investitsiyalarni quyidagicha ta’riflaydi: “Investitsiyalar aniq va noaniq, lekin ehtimoli bor risklar ostida kapitalni muayyan jarayonlarga, muayyan vaqtga bog‘lash bo‘lib, uning hozirgi qiymatini saqlash, kapitallashtirish va jamg‘arish maqsadiga qaratiladi” [6].

Ma’lumki, investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida sabab-oqibat bog‘lanishi mavjud bo‘lib, u taniqli iqtisodchi-olim, Nobel mukofotining laureati P.A.Samuelson tomonidan “akselerator prinsipi” orqali izohlab berilgan. Bu prinsipning mohiyati quyidagicha: “real yalpi ichki mahsulot hajmining o‘sishi real investitsiyalar hajmining o‘sishiga olib keladi, o‘z navbatida, real investitsiyalar hajmining o‘sishi yana real yalpi ichki mahsulot hajmining o‘sishini ta’minlaydi…” [7]

Bu borada, A.R.Karamisheva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi sharoitida investitsiyalarning milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi ahamiyati, mohiyati ular tomonidan amalga oshiriladigan qator funksiyalar orqali ifodalangan. Iqtisodchi olimning fikriga ko‘ra, “makro darajada investitsiyalarning quyidagi funksiyalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida asosiy fondlarni oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoni;
- aylanma mablag‘larni ta’minlash va to‘ldirish jarayoni;
- moliyaviy aktivlarni sotib olish va sotish orqali kapitalni bir hududdan ikkinchi hududga o‘tkazish;
- kapitalni mulkdorlar o‘rtasida ulushlarni olish va boshqa korxonalarning aktivlariga investitsiya kiritish yo‘li bilan qayta taqsimlash” [8].


TAHLIL VA NATIJA

Investitsiyalarning, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarning mikro darajadagi o‘rni va ahamiyati ham muhim hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etilishi ishlab chiqarish samaradorligining o‘sishi, mahsulot sifatining oshishi, ish haqi darajasining o‘sishi bilan birga jahon bozorlariga samarali integratsiya bo‘lishida asosiy omildir. Bugungi kunda moliyaviy-iqtisodiy mobillikning tobora kengayishi va mamlakatlarning tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanishida tadbirkorlik faoliyatining xorijiy investitsiyalar yordamida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ularni o‘z bozoriga yetkazish va yuqori samaradorlikda erishish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Shuningdek, investitsiyalar moliya bozorining ham samarali ishlashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu yo‘nalishda, xorijiy investorlarning portfel investitsiyalar shaklida milliy iqtisodiyotga sarmoya kiritishlari mamalakatda ishlab chiqarishni rivojlantirishga bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan kredit, qimmatli qog‘ozlarni sotib olish natijasida ishlab chiqarishni mablag‘ bilan ta’minlash imkoniyati hosil bo‘ladi. Milliy iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarning miqdorini keskin oshirib borish va ulardan yuqori samaradorlikda foydalanish iqtisodiyotni yuksaltirishda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, hech bir davlat alohidalashgan holda, boshqa mamlakatlarning ilm-fan va texnika sohasida erishgan yutuqlaridan foydalanmasdan barqaror rivojlanishi mumkin emas. O‘zbekiston iqtisodiyotida chuqur iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilar ekan, uni xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishsiz erishilishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘zbekiston milliy iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishda xalqaro moliya institutlari bilan bevosita aloqada bo‘lish iqtisodiyotni barqarorlashtirishdagi, real sektorni industriallashtirish va taraqqiy etgan davlatlar qatorida joy egallashining dolzarb yo‘nalishidir.

Ta’kidlash lozimki, xorijiy investorlar o‘z kapitalini investitsiyalash jarayonida bir qator jihatlar va yaratilgan shart-sharoitlarga e’tibor qaratadi:

- mamlakatning tinchligi, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, xorijiy investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar va imtiyozlar;
- investorlar huquqlarini himoya qilinganligi, erkin faoliyat ko‘rsatishlari uchun qonuniy asoslarning shakllanganligi;
- investitsiya loyihalarini ishlab chiqarish va amalga oshirishda xom ashyo zaxiralari ko‘lami va yaqinligi, ishchi kuchi va malakali mutaxassislar bilan ta’minlanganlik darajasi;
- iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmaning holati (elektrenergiya, gaz, suv, kanalizatsiya, avtomobil va temir yo‘l);
- investor o‘z faoliyati davomida olgan foydasini milliy valyutadan xorijiy valyutaga erkin ayirboshlash imkoniyati.



1-rasm: Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati[1]

O‘zbekiston jahonda turli moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar hukm surayotgan bir sharoitda ham xorijiy investitsiyalar yo‘naltirilayotgan mamlakatlar guruhidan joy olmoqda. Bunga mamlakatimizda uzoq strategik maqsadlarni ko‘zlagan holda puxta o‘ylangan va olib borilayotgan davlat investitsiya siyosati va dasturlari hamda qulay investitsiya muhiti yaratilayotgani asosiy omil bo‘lmoqda. Biroq, mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarini jalb qilishni kengaytirish borasida hali ham yechimini kutayotgan bir qancha muammolar mavjudligini aytib o‘tish lozim:

- ilm-fan va ishlab chiqarishning bo‘g‘liqligining talab darajasida emasligi, zamonaviy texnoligiya va innovatsiyalarning real sektor tarmoqlarida sust qo‘llanilishi;
- iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmaga oid muammolar, shu jumladan, korxonalarning elektr energiya, tabiiy gaz, suv va yoqilg‘i mahsulotlari bilan ta’minlashda uzilishlar mavjudligi;
- moliyaviy bozorning sust rivojlanganligi va ko‘lamining kichikligi.

1 Muallif ishlanmasi.

Qayd etish lozimki, moliya bozorlarining rivojlanganligini belgilovchi me'zonlarga mamlakat moliya bozorining kengligi (moliya dastaklari bilan ta'minlanganlik darajasi), chuqurligi (moliyaviy operatsiyalar ko'lami) va ochiqligi (moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda to'siqlarning mavjud emasligi) ko'rsatkichlari mansub bo'lib, O'zbekiston Respublikasidagi mavjud holat shu bilan xarakterlanadiki, fond bozorida valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda valyuta risklarini hedjirlash bo'yicha dastaklar, moliyaviy likvidlilikni ta'minlashga qaratilgan bozor mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan.

Milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishning ahamiyatini yanada aniqlashtirish uchun mamlakat iqtisodiy rivojlanishida investitsiyalarning ulushini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.




2-rasm: O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalarning mamlakat YaIM hajmidaga ulushi[2]

2-rasmda O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalarning mamlakat YaIM hajmidagi ulushi aks ettirilgan. Unga ko'ra, 2017-yilda YaIM hajmi 317 476,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, iqtisodiyotda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalaring YaIMdagi ulushi 23,9 foizni tashkil etgan. 2018-yilda respublikada YaIM hajmi 426 641,0 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Mazkur yildagi YaIM hajmida investitsiyalarning ulushi 30,6 foiz bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich oldingi yilga nisbatan 6,7 foiz ko'p demakdir. Shuningdek, 2019-yilda YaIMning hajmi 532712,5 mlrd. AQSh dollariga yetib, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning ulushi 38,3 foizdan iborat bo'lgan. 2020-yilda YaIM hajmi 2019-yilga nisbatan 71 foizdan ortiqqa o'sgan bo'lsada, investitsiyalarning YaIMdagi ulushi oldingi yilga nisbatan 2,1 foizga pasayib, 36,2 foizni tashkil qilgan. Albatta, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning YaIMdagi ulushining kamayishining asosiy sabablaridan biri – koronavirus pandemiyasining iqtisodiy faoliyatga ko'rsatgan salbiy ta'siri bilan izohlash o'rinli, deb hisoblaymiz. Ammo, 2021-yilda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning mamlakatimiz YaIM hajmidagi ulushi 32,4 foizni tashkil etgan bo'lsada, ushbu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 5,9 foizga, 2020-yilga nisbatan 3,8 foizga kam hisoblanadi. Ushbu pasayish tendensiyasiga bir qancha omillarni sabab qilsak bo'ladi. Birinchi navbatta xorijiy investitsiyalar oqimining pasayishi holatining sababi pandemiya oqibatlarining dunyo miqyosida ham to'liq bartaraf etilmaganligi bo'lsa, ikkinchidan yirik geosiyosiy mojarolar asnosida Rossiya-Ukraina munosabatlarining keskinlashuvi bilan izohlash maqsadga muvofiqdir. Bu borada tahlilchilarning ta'kidlashicha, "Rossiya Federatsiyasining Ukrainada maxsus operatsiyani amalga oshirishi sababli Rossiyaga nisbatan Yevropa ittifoqi va boshqa ayrim mamlakatlar iqtisodiy sanksiyalar qo'yishdi. O'z navbatida Rossiya ham aks choralarini ko'rishdi. Oqibatda jahon bozori konyukturasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. 14-mart kuni Rossiyaning Yevrosiyo Ittifoqi mamlakatlariga don mahsulotari va o'simlik yog'ini eksportini to'xtatishi, 31-martda Yevropa mamlakatlariga tabiiy gazni rublda sotishi va hokazolardan so'ng jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Xususan, Rossiya Federatsiyasi va Ukraina mamlakatlari o'rtasidagi vaziyat jahon iqtisodiyotida o'sishning sekinlashuvi va inflatsiya darajasining oshishi kabi oqibatlarda namoyon bo'ladi" [9].

Shuningdek, xorijiy ekspertlardan Economist Intelligence Unit tadqiqotlariga ko'ra, Rossiyadan pul o'tkazmalari O'zbekiston YaIM ni 12 %ni tashkil etadi va Rossiya iqtisodiyotining inqrozga yuz tutishi Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotiga katta xavf solishi mumkin. Yesimjan Naqtibaylar Rossiyaga ko'rilgan sanksiyalar import tovarlarni Qozog'istonga olib o'tishga ta'sir qilishini va buning natijasida ba'zi tovarlar O'zbekiston-

2 Muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.

ga eksport qilinishi qisqarishi mumkinligini aytishgan. Farangiz Najibullax tadqiqotlariga ko‘ra, 2021-yilda Rossiyada 4,5 million o‘zbekistonlik muxojirlar ishlash uchun kelgan bo‘lib, inqiroz aholi daromadlariga sezilarli ta’sir qilishini aytgan [10].



3-rasm: 2021-yilda O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasining MDH bo‘yicha geografik taqsimoti, mln. AQSH doll. [11]

3-rasmga ko‘ra, 2021-yilda O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasining MDH bo‘yicha geografik taqsimotida quyidagi tahlillar shakllantirildi:

- eksport ko‘rsatkichi bo‘yicha Rossiya Federatsiyasi 1-o‘rinni egallagan. Keyingi o‘rinlarni Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tijikiston tomonidan band etilgan;
- import ko‘rsatkichlarida Rossiya 5 580 mln. AQSh dollari (23 %) bilan birinchi o‘rinni egallagan. Shuningdek, Qozog‘iston importi hajmi 2 860 mln. AQSh dollari (12 %) miqdoridagi ko‘rsatkich bilan ikkinchi o‘rinda.

Umuman olganda, ko‘rib o‘tilgan ma’lumotlar va tadqiqotlar asosida mamlakat iqtisodiy rivojlanishida investitsiyalarning ahamiyati muhim ekanligidan anglash mumkinki, mamlakatda investitsiya muhiti jozibadorligini doimiy ravishda yaxshilab borish maqsadga muvofiqdir. Ta’kidlash lozimki, investitsiyalar milliy iqtisodiyot real sektori tarmoqlarini zamon talablari asosida texnik-texnologik jihatidan modernizatsiya qilish, sog‘lom raqobatchilik muhitini yaratish, iqtisodiy salohiyatni yanada oshirish, qo‘shilgan qiymat zanjirida munosib o‘rin egallash, eksportga yo‘naltirilgan va importning o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali aholi daromadlarini oshirish va turmush farovonligini ta’minlash va mamlakat yalpi ichki mahsulotining barqaror o‘sish sur’atlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar, ayniqsa, xorijiy investitsiyalar o‘rnini oshirishning iqtisodiy ahamiyati va nazariy asoslarini o‘rganish natijasida quyidagi muhim xulosalar shakllantirildi:

1. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda kutilayotgan darajada samara beradigan investitsiya loyihalarini yaratish va moliyalashtirish va uning asosida yangi ish o‘rinlarini yaratib, aholi bandlik darajasini oshirish juda muhim rol o‘ynaydi. Bunday ijobiy natijalarga erishish uchun iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga qiziqayotgan investorlarga yetarlicha shart-sharoitlarni yaratib berishimiz lozim;
2. Investitsiya loyihasi tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy jihatdan to‘liq va mukammal hisob-kitoblar yordamida asoslangan yuridik hujjat hisoblanib, puxta tayorlagan investitsiya loyihalari orqali mamlakatdagi ishlab chiqarish sohalariga samarali yo‘naltirilgan mablag‘lar natijasida, yuqori iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishish mumkin bo‘ladi;
3. Investitsiya loyihasini amalga oshirishda uning monitoringini olib borish tizimining amal qilishi loyihaning nafaqat iqtisodiy samaradorligini, shuningdek ijtimoiy samaradorligini va siyosiy ahamiyatini oshirishga xizmat qilib, mamlakatimiz investitsiya siyosatida asosiy va muhim vazifasi bo‘lgan – 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini ikki barobardan ziyodga oshirish imkonini beradi;

4. Investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanuvchi mulk egalari pul muomalasi, moliya kredit va banklar, soliq siyosati mohiyatini chuqur bilishi va tavakkalchilik bilan bog‘liq bo‘lgan investitsiya jarayonida ishbilarmonlikni, tadbirkorlikni mohiyatini chuqur anglagan holda, o‘z pozitsiyasini aniq belgilab olishi shart;

5. Investitsiyalarning, shu jumladan xorijiy investitsiyalarning mikrodarajadagi o‘rni va ahamiyati muhim hisoblanib, mamalakatimizdagi har bir tadbirkorlik subyektining ishlab chiqarish jarayoniga investitsiyalar (xorijiy investitsiyalar)ning jalb qilinishi ushbu tadbirkorlik faoliyatining milliy va jahon bozorlariga samarali integratsiya bo‘lishida asosiy omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Л.И.Юзвович. Экономическая природа и роль инвестиций в национальной экономической системе. Финансы и кредит. 9 (393) – 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalari faoliyatiga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi. 2019-yil 12-yanvar. https://president.uz/oz/lists/view/1423.
3. Финансово-кредитный словарь. –Т. 1. – М.: “Финансы и статистика”, –1984. – С. 470.
4. Самуэльсон П.А. Экономика: Издание 15-е. Пер. с англ. –Бином М. –КноРус, 1999. –С. 800.
5. Марголин А.М. Инвестиции: Учебник. –Москва: Изд-во РАГС, 2021. –С. 26.
6. G‘ozibekov D. G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. –Toshkent: “Moliya” nashriyoti, 2003. 9-bet.
7. Paul A. Samuelson. “Foundations of Economic Analysis”. –Harvard University Press, –1947.
8. Карамышева А.Р. Инвестиции и их роль в развитии экономики. Transport business in Russia. https://cyberleninka.ru/article/n/investitsii-i-ih-rol-v-razvitii-ekonomiki.
9. Eshpulatov D.B. Rossiya federatsiyasi va ukraina o‘rtasidagi inqiroz va uning o‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 2/2022, mart-aprel (№ 00058).
10. https://www.rferl.org/a/central-asia-migrants-rubleimpact/31730968.html.
11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki hisobotlari. https://cbu.uz/ru/publications/annual-report.



YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA KONSEPTUAL, ILMIY, INNOVATSION YONDASHUVNING ZARURATI

Gulnora Abdurahmonova
TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori,
Iqtisod fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Maqolada “yashil” iqtisodiyot sohasining asosiy maqsadi sayyoramizning tabiiy holatini, ekologiya va atarof-muhitini qanday bo‘lsa shundayligicha saqlab qolish, unga keltirilgan zararlar o‘rnini tiklash, tabiiy resurlarni tejash, sanoat taraqqiyotida atrof-muhit bilan hisoblashish, hududlarni yanada yashillashtirilgan holda kelajak avlodga qoldirishdir. Iqtisodiyotning barcha sohalarini muqobil energetika bilan barqaror ta’minlash va rivojlantirish orqali aholining tez sur’atlar bilan o‘sib borayotgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirishga erishish dolzarbligi, unga qaratilgan faoliyat shakli konseptual asoslarda tushuntiriladi.

Kalit so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, feminizm, postmodernizm, ekologik harakat, tinchlik harakati, “yashil” siyosat, “yashil” anarxizm va globallashuv.

Abstract: In the article, the main goal of the green economy sector is to preserve the natural state of our planet, its ecology and environment as it is, to restore the damages caused to it, to save natural resources, to consider the environment in industrial development, to leave the territories greener to the next generation. The urgency of achieving full satisfaction of the rapidly growing needs of the population through the sustainable supply and development of all sectors of the economy with alternative energy, and the form of activity aimed at it are explained on conceptual grounds.

Key words: Green economy, feminism, postmodernism, environmental movement, peace movement, green politics, green anarchism and globalization.

Аннотация: В статье основной целью сектора зеленой экономики является сохранение естественного состояния нашей планеты, ее экологии и окружающей среды в ее первозданном виде, восстановление причиненного ей ущерба, экономия природных ресурсов, учет окружающей среды в промышленном развитии, чтобы оставить территории более зелеными для следующего поколения. На концептуальных основаниях объяснены актуальность достижения полного удовлетворения быстро растущих потребностей населения за счет устойчивого снабжения и развития всех отраслей экономики альтернативной энергетикой, а также формы деятельности, направленные на это.

Ключевые слова: зеленая экономика, феминизм, постмодернизм, экологическое движение, движение за мир, зеленая политика, зеленый анархизм и глобализация.

KIRISH

“Yashil” iqtisodiyot – bu globallashuv sharoitida insoniyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ilmiy o‘rganish va bir vaqtning o‘zida har ikkala ehtiyojni birday qondirishga qaratilgan innovatsion iqtisodiyotni joriy qilishdir.

Goloballashuv sharoitida biz uchun kerak bo‘lgan tabiatdagi mavjud barcha ne’matlar, resurslar isrof bo‘lib bormoqda. “Yashil” iqtisodiyot ana shu xavflarning oldini olish uchun muqobil energetikaga o‘tish orqali tabiatni asl holida saqlash, joriy qilinayotgan yangi innovatsiyalarni yanada kengaytirishni o‘rganadi.

Konpseptuallik jihatidan qaraganda, “yashil” iqtisodiyot o‘rmonlarni kesavermasligimiz, yerlarni minereal o‘g‘itlarga to‘ldirmasligimiz, suv manbalarini ifloslantirmasligmiz va tabiiy resurslardan o‘lchamli foydalanish zarurligini o‘rgatadigan fandir.

Shu bois “yashil” iqtisodiyot, zamonaviy iqtisodiyot fanlarining bir yo‘nalishi, deb qabul qilinmoqda.

“Yashil” iqtisodiyot tabiiy atrof-muhitning tarkibiy qismi bo‘lib, iqtisodiy fanlar va falsafaning ko‘plab boshqa sohalaridagi g‘oyalarni ham o‘z ichiga oladigan tabiat va jamiyat bilan bog‘liq ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, resurslarga asoslangan iqtisodiyot, aholining rivojlanishi qonuniyatlari, demografik holatni tahlil qilish, feminizm iqtisodiyoti kabi tadqiqotlar bilan chambarchas bog‘liq tizimga aylanib ulugrdi.

“Yashil” iqtisodiyot jahon hamjamiyati tomonidan shu vaqtga qadar foydalanib kelinayotgan iqtisodiy tizimdan birmuncha farqli ravishda, ma’lum bir o‘ziga xos innovatsiyalarni keng joriy qilishni ko‘zlashi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot atamasi ilk bor 1989-yilda Buyuk Britaniyada bir guruh yetakchi ekologiya iqtisodchilari tomonidan fanga “Yashil” iqtisodiyot uchun loyiha” (Pearce, Markandya va Barbiyer, 1989), deb nomlangan hisobot[1] sabab bo‘lib kiritilgan.

Buyuk Britaniya hukumatiga dastllab atrof-muhit bo‘yicha hisobot o‘rnida kiritilgan mazkur manba "Barqaror rivojlanish" atamasining konseptual ta’rifi va iqtisodiy taraqqiyotni prognozlash, loyihalarni baholash va Barqaror rivojlanish oqibatlari bo‘yicha maslahat berish uchun topshirilgan.

Birinchi Bluyeprint hisoboti iqtisodiyot atrof-muhit siyosatiga yordam berishi, iqlim o‘zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi, tropik o‘rmonlarning yo‘qolib borishi va rivojlanayotgan mamlakatlarda tabiiy resurslarni yo‘q bo‘lib ketishininng oldini olishga qaratilgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, bir necha o‘n yilliklar davomida atrof-muhit iqtisodiyoti bo‘yicha tadqiqotlar va amaliyotga asoslangan prognozlash tushuniladi.

Shu qatorda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, biomikrologiya va bioxilma-xillikni to‘liqroq hisobga olish tarafdori bo‘lgan “yashil” iqtisodchilar”[1] maktabi ham bugan institutsional faoliyatini yo‘lga qo‘ygan. Ba’zi iqtisodchilar “yashil” iqtisodiyotni atrof-muhitni o‘rganish bo‘yicha tashkil etilgan maktablarning filiali yoki kichik sohasi sifatida ko‘rishadi.

O‘zbek olimlaridan A.A. Isadjanov “yashil” iqtisodiyot” – bu ertangi kun iqtisodiyoti va aynan u XXI asr iqtisodiy taraqqiyotining harakatga keltiruvchi kuchi bo‘lib, “yashil” iqtisodiyot nazariyasi quyidagi uchta aksiomaga asoslanadi, deb tadqiqotlarida ilgari surib kelmoqda. Jumladan, cheklangan makonda ta’sir sohasini uzluksiz kengaytirib bo‘lmaydi, resurslar cheklangan sharoitda uzluksiz oshib borayotgan ehtiyojni qondirishni talab qilish mumkin emas va “Yer yuzida hamma narsa bir-biri bilan bog‘liq” [2], degan qarashlarni ilmiy asoslashga harakat qilmoqdalar.

Shular qatorida T.K.Iminov, A.V.Vahobov, T.Z.Teshaboyev, N.H.Hakimovning tadqiqotlarida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning mahalliy imkoniyatlari, xorijiy tajribalari, sanoatni rivojlantirishda iqtisodiy ekologik muammolar kabi masalalari izchil o‘rganib kelinmoqda[3].

Xususan, taniqli olim N.Hakimov inson ekologiyasi bilan “yashil” iqtisodiyotni uzviy jarayon, deb o‘z qarashlarida qiyosiy tahlil qilishi, bu borada yangicha yondashuvlar kirib kelayotganini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

“Yashil” iqtisoditni yangi fan sifatida tadqiq etarkanmiz, o‘rganishda ilmiy asoslangan tizimli tahlil, statistik baholash, qiyosiy taqqoslash, sinergetik tahlil, fanlararo yondoshuv usullaridan keng foydalanildi. Xususan, mavzuga oid adabiyotlar va manbalarni tahlil qilishda tizimli tahlil metodidan, xorijiy davlatlarda barqaror rivojlanishda “yashil” iqtisodiyotdan qanday yo‘llarda foydalanishayotgani, unga qan yo‘sinda o‘tayotgani qiyosiy tahlil orqali ifodalab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Yashil” iqtisodiyotni o‘rganayotgan maktablar orasida “yashil” o‘sish – atamasi ostida tadqiq qilayotganlar ham mavjud bo‘lib, ular bu ekologik barqaror iqtisodiy o‘sishning faraziy yo‘lini tavsiflovchi atamadir, deb ta’kidlaydilar. U iqtisodiy o‘sish ustuvor maqsad bo‘lib qolaverar ekan, iqtisodiy o‘sishni resurslardan foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta’sirlardan ajratish zarurligini tushunishga asoslanadi.

“Yashil” o‘sish “yashil” iqtisodiyot va past uglerodli yoki Barqaror rivojlanish tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq. “Yashil” rivojlanishning asosiy omili barqaror energiya tizimlariga o‘tishdir. “Yashil” o‘sish siyosati tarafdorlarining ta’kidlashicha, yaxshi amalga oshirilgan “yashil” siyosat qayta tiklanadigan energiya, “yashil” iqishloq xo‘jaligi yoki barqaror o‘rmon xo‘jaligi kabi sohalarda bandlik uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Demak, “yashil” iqtisodiyot deganda, bizning fikrimizcha inson va Yer yuzidagi barcha tirik mavjudodlar hayoti va kelajagi uchun zarur bo‘lgan tabiat resurslarini, atrof-muhit va ekologiyani bir butun yaxlit holda

1 Green Economics: An Introduction to Theory, Policy and Practice. Molly Scott Cato. Earthscan, 2009 -224. The world as we know it needs a new economics. Climate change, financial crisis and out-of-control globalization - all the major problems facing the world have their root in the dominant economic system. The globalised marketplace is the prevailing force in our lives, undermining the real importance of our human communities and our planet. Green Economics argues that society should be embedded within the ecosystem, and that markets and economies are social structures that should respond to social and environmental priorities.

nafaqat saqlab qolish, balki uni yanada yashillashtirib, boyitib, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini takomillashtirishga asoslangan iqtisodiy munosabatlarni yangicha yo‘nalishda tizimli tashkil etish tushiniladi.

Buning uchun quyidagi bir qator chora tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi;

1.Aholining talab va ehtiyojlarini uzliksiz ravishda toboro to‘laroq qondirib borishni ta’minlash orqali, ularning farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish uchun moddiy ne’matlarni ishlab chiqarishni, xizmatlar ko‘rsatishni barqaror ravishda tabiat, ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ko‘paytirib borish;

2. Moddiy ne’matlar ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun energiya resurslari kerak bo‘ladi, bularni qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko‘paytirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganlariga almashtirish, energiyani tejaydigan bino inshootlarni barpo qilish kabi yo‘nalishlarda ishlarni olib borish;

3. Atrof-muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, tabiatni, atrof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnika va texnologiyalarni yaratish orqali ekologik toza mahsulotlarni yetishtirishga erishish;

4. Tabiat resurslarining cheklanganligi sharoitida inson ehtiyojlari cheksizligini inobatga olib, ularning muvofiqligini ta’minlash maqsadida ne’matlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslardan samarali tejab-tergab foydalanish yo‘li bilan ularni kamayib ketishiga yo‘l qo‘ymasdan o‘rnini tiklab borishni ta’minlagan holda amalga oshirish choralarini ishlab chiqish;

5.Aholining doimiy, o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kimga mo‘ljallab ishlab chiqarish masalasiga atrof-muhitni asragan holda chiqindilarsiz ishlash texnologiyalaridan foydalanishga asosiy ahamiyat berish kabilardir;

“Yashil” iqtisodiyot past uglerodli, resurslardan tejamkor va ijtimoiy maqsad va mafaatlarga mos keladigan iqtisodiyot sifatida tavsiflanadi.

“Yashil” iqtisodiyotda ish bilan bandlik va daromadning o‘sishi uglerod chiqindilari va ifloslanishini kamaytirish, energiya va resurslar samaradorligini oshirish, shuningdek, biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining yo‘qolishining oldini olish imkonini beruvchi iqtisodiy faoliyat, infratuzilma va aktivlarga davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali amalga oshiriladi. “Yashil” iqtisodiyot bo‘yicha har bir davlatda quyidagi uch asosiy yo‘nalishda ish olib borilishi zarurdir:

1) Mintaqaviy, submintaqaviy va milliy forumlar, maslahatlashuvlar orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun makroiqtisodiy yondashuvni targ‘ib qilish hamda tizimli ravishda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

“Yashil” iqtisodiyotni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘p tomonlama mintaqaviy va submintaqaviy hamkorlik iste’mol va ishlab chiqarishda barqaror o‘zgarishlarni tezlashtirish va mustahkamlash uchun qo‘llab-quvvatlanadi. Shu munosabat bilan turli hukumatlar va notijorat tashkilotlar bilan bir qatorda, BMTning Atrof-muhit bo‘yicha agentligi resurslar samaradorligi va “yashil” iqtisodiyotni rag‘batlantirishda juda muhim ishtirokchi bo‘lgan xususiy sektor bilan ham hamkorlikni kuchaytirib bormoqda.

Bular:

- Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bilan integratsiyalashuv;
- Mintaqaviy tashabbuslarni kengaytirish;
- “Bir kamar – bir yo‘l”, “Yashil makon” tashabbusi xalqaro “yashil” taraqqiyot koalitsiyasini faollashtirish;
- Falokatlar va mojarolarga chidamlilikni rivojlantirish;
- Xitoy-Afrika atrof-muhit bo‘yicha hamkorlik markazi bilan integratsiyalashuv;
- Mamlakatlarga iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda yordam berish;
- Tabiat qadriyatini iqtisodiyotimizga integratsiya qilish;
- Barqaror rivojlanish maqsadlari uchun qashshoqlik-atrof-muhit harakatini qo‘llab-quvvatlash;
- Gender tengligini ta`minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish;
- Kimyoviy moddalar va chiqindilarni oqilona boshqarishni targ‘ib qilish;
- Aqlli siyosatlarni yuritish uchun fanni ta’minlash;
- Toza havoni tiklash;
- Yaxshi boshqaruvni qo‘llab-quvvatlash;
- Resurs samaradorligini qo‘llab-quvvatlash;
- Osiyo va Tinch Okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasini qo‘llab-quvvatlash;
- Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi kam uglerodli turmush tarzi muammosi oqilona yechish;
- Istiqbolli loyihalarni joriy qilish.

2) “Yashil” moliya, texnologiya va investitsiyalardan foydalanishda asosiy e’tiborni “yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonlariga qaratilayotganligini namoyish qilish:

Bu ekologik xavf va ekologik tanqislikni kamaytirishga va atrof-muhitga zarar keltirmasdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyotdir. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘liq, lekin ko‘proq siyosiy jihatdan qo‘llaniladigan yo‘nalishga ega.

Uni oldingi iqtisodiy rejimlardan ajratib turadigan xususiyat – bu tabiiy kapital va ekologik xizmatlarni iqtisodiy ahamiyatga ega sifatida bevosita baholash (qarang: “Ekotizimlar va bioxilma-xillik iqtisodiyoti” va “Tabiiy

kapitallar banki”) va xarajatlar ekotizimlar orqali jamiyatga tashqariga chiqariladigan to‘liq xarajatlarni hisobga olish rejimi aktivga zarar yetkazuvchi yoki e’tiborsiz qoldiruvchi tashkilotning majburiyatlari sifatida ishonchli tarzda kuzatilishini ham hisobga olinadi.

“Yashil” stiker va ekologik belgi amaliyoti iste’molchilar oldida atrof-muhitga oqilona munosabat va barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlari sifatida paydo bo‘ldi. Ko‘pgina sohalar globallashayotgan iqtisodiyotda yashillashtirish amaliyotini targ‘ib qilish usuli sifatida ushbu standartlarni qabul qila boshladi. Barqarorlik standartlari sifatida ham tanilgan ushbu standartlar sotib olingan mahsulotlar atrof-muhitga va ularni ishlab chiqaradigan odamlarga zarar bermasligini kafolatlaydigan maxsus qoidalardir. Ushbu standartlar yaqinda vaqtlarda paydo bo‘lib tez o‘sib bordi va xozirda ular yangi, “yashil” iqtisodiyotni qurishda yordam berishi mumkin. Ular o‘rmon xo‘jaligi, dehqonchilik, tog‘-kon sanoati yoki baliqchilik kabi iqtisodiy sohalarga e’tibor qaratadi; suv manbalari va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish yoki issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish kabi ekologik omillarga e’tiborni qaratish; xodimlarning ijtimoiy himoyasi va huquqlarini qo‘llab-quvvatlash; ishlab chiqarish jarayonlarining muayyan qismlariga uyg‘unligini ta`minlash.

3) “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlash uchun makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va asosiy oqimga kiritish nuqtayi nazaridan mamlakatlarni qo‘llab-quvvatlash. Misalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Barqaror rivojlanish maqsadlari ko‘ra Mo‘g‘ulistonning “Yashil” rivojlanish milliy siyosatini amalga oshirishda mahalliy darajadagi rivojlanish rejalariga integratsiyalashuvida va asosiy tarmoqlarni yashillashtirishda qo‘llab-quvvatlamoqda. Bugungi kunda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish rivojlangan davlatlar uchun kuchlar muvozanatini aks ettiruvchi nisbatda barqaror bo‘lib bormoqda. Xususan, “yashil” kompaniyalarga xususiy investitsiyalarni kiritish uchun Ethical Markets Media va The Climate Prosperity Alliance tomonidan ochilgan Global iqlim farovonligi reytingi 2007-yildan buyon quyosh, shamol, geotermal, okean-gidro va boshqa “yashil” sektorlarga 1,248 trillion dollardan ortiq sarmoya kiritilganini misol ketilirishimiz mumkin. Bu raqam Shimoliy Amerika, Xitoy, Hindiston va Braziliya hamda boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardagi investitsiyalarni ifodalaydi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi bir qancha davlatlar va xalqaro tashkilotlar va boshqalar ham “yashil” o‘sish bo‘yicha strategiyalarni ishlab chiqqanlar; masalan, Global “yashil” o‘sish instituti (GYAO‘I) bu masalaga alohida maxsus bag‘ishlangan ishlarida “yashil” o‘sish atamasi milliy yoki xalqaro strategiyalarni tasvirlash uchun ishlatishgan, masalan, COVID-19 retsessiyasidan iqtisodiy tiklanishning bir qismi sifatida, ko‘pincha “yashil” tiklanish sifatida ifodalaydilar.

“Yashil” o‘sish tanqidchilari “yashil” o‘sish yondashuvlari iqlim inqirozi, biologik xilma-xillik inqirozi va boshqa atrof-muhit degradatsiyasini bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan asosiy iqtisodiy tizimlar o‘zgarishini to‘liq hisobga olmasligini ta’kidlaydi. Tanqidchilar buning o‘rniga iqtisodiy o‘zgarishlar uchun muqobil asoslarga ishora qiladilar, masalan, aylanma iqtisodiyot, o‘sish, donut iqtisodiyoti yoki sayyora chegaralarini yaxshiroq hisoblaydigan va shunga o‘xshash fundamental o‘zgarishlarga olib keladigan iqtisodiyot, deb qaraydilar...

Ishlab chiqarish va iqtisodiy taraqqiyotni o‘lchash iqtisodiy indeks ko‘rsatkichlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. “Yashil” indekslar iqtisodiy taraqqiyotga erishishda insonning ekologik ta’sirini, transport, energetika, binolar va turizm kabi samaradorlik tarmoqlarini, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya va toza texnologiyalar innovatsiyasi kabi sohalarga yo‘naltirilgan investitsion oqimlarni o‘lchash zaruratidan kelib chiqqan.

“Yashil” iqtisodiyotning rivojlanishi ekologik barqarorlikning muhim omiliga nega aylanib qoldi? Ushbu masalani tushuntirish uchun avvalo, xalqaro hamjamiyatning atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari haqida to‘xtalib o‘tishimizga to‘g‘ri keladi. Zero, ona yerimiz, ya’ni umumiy uyimiz toboro og‘ir ahvolga tushib bormoqda. Uni birgalikda asrash har bir insonni, har bir mamlakatning muqaddas burchidir! Vaholangki, insoniyat hayotining asosi bo‘lgan, havodagi kislorodni ishlab chiqarib beradigan, tirik mavjudodlarning o‘pkasi degan nom olgan, o‘rmonlar hamda ular uchun asosiy ozuqani yetishtirib beruvchi yer resurslarining sayyoramiz hududlari bo‘yicha joylashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlar berilgan.

Malumotlardan ko‘rinib turibdiki bu iqtisodiyotning rivojlanishi uchun o‘ta zarur bo‘lgan, aslida cheklangan o‘rmon va yer resurslar ham dunyo turli mamlakatlari bo‘yicha notekis joylashganligi sababli ayrim davlatlar jalqlari uchun muhim hayotiy masalaga aylanib qolgan(1-jadval).

Yaxshiyamki, insoniyat XXI asrga kelib g‘oyat murakkab muammolar qarshisida turganligini tushunib yetdi. Jahon miqyosida yuz bergan va berayotgan jarayonlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, iqlim o‘zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi, cho‘llanish va yerning degradatsiyasi, bioxilma-xilliklarning qisqarishi, ichimlik suvining ifloslanishi va yetishmasligi, o‘rmon va tuproq inqirozi insoniyat uchun nihoyatda dolzarb global ekologik muammolardan biri bo‘lib qoldi.

Bugungi kunda “yashil” iqtisodiyot butun dunyo mamlakatlarining istiqbolda barqaror rivojlanishning asosiy drayveri sifatida qaralmoqda va uni harakatga keltiruvchi kuch “yashil” texnologiyalarga kiritilayotgan investitsiyalar ekanligini tan olinmoqda va unga jiddiy e’tibor berilmoqda. Mazkur texnologiyalar energiya va resurslarni tejash, uglerod chiqindilarini kamaytirish, muqobil energiya manbalaridan foydalanish, organik qishloq xo‘jaligi

mahsulotlarini yetishtirish, chiqindilarni qayta ishlash, umuman iqtisodiyotni tabiat va atrof-muhitga zarar keltirmasdan rivojlantirishga hamda insoniyatning ekologik xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

1-jadval: Dunyo mamlakatlaridagi o'rmon resurslari va ekilib ozuqular yetishtiriladigan yerlar (aholi jon boshiga)

№	Mamlakatlar nomi	O'rmon	Mamlakatlar	Ekiladigan
1	Gabon	36,0	Avstraliya	2,5
2	Kanada	15,8	Qozog'iston	1,9
3	Rossiya	5,5	Kanada	1,5
4	Finlyandiya	5,0	Rossiya	0,9
5	Braziliya	2,5	Argentina	0,9
6	AQSh	0,9	AQSh	0,6
7	Xitoy	0,1	Hindiston	0,17
8	Hindiston	0,08	Germaniya	0,1
9	Germaniya	0,06	Xitoy	0,07

Ayniqsa, hozirgi globallashuv sharoitida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ahamiyati ortib bormoqda. Mazkur masalaning kulminatsion cho'qqisi 2015-yilda Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilgan BMTning iqlim isishiga bag'ishlangan konferensiyasida 195 mamlakat tomonidan global isish darajasini 2° selsiy darajasida ushlab turish siyosatini qabul qilishi bilan belgilandi. Ushbu konferensiyada 147 mamlakat o'zining "yashil" iqtisodiyot bo'yicha rejalarini muhokama qildi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha dasturlarni taklif qildi, 167 mamlakat iqlim imkoniyatlaridan kelib chiqib o'z energiya samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalarini ishlab chiqilgan va barcha davlatlarga taqdim etilgan edi. Prognozlar shuni ko'rsatmoqdaki, 2040-yilga kelib dunyo yalpi ichki mahsulotining energiya sig'imkorligi 0,93 kVt/dollarga, jon boshiga to'g'ri keluvchi energiya iste'moli 22,32 mVt/kishiga, jami energiya iste'moli 204408,88 mln. mVt ga yetadi[2].

Mamlakatlarning an'anaviy energiya manbalaridan foydalanishni kamaytirib, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga ko'proq e'tibor qaratishlariga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

- qayta tiklanadigan energiya manbalaridan texnologik jarayonda foydalanish hisobiga narx raqobatining o'sishi;
- mazkur sektor rivojlanishi uchun ijobiy siyosiy tashabbuslar;
- moliyalashtirishdagi nisbatan erkin sharoitlar; – energetik va ekologik muammolarni hal qilish masalasi;
- rivojlanayotgan mamlakatlarning o'sib borayotan iqtisodiyotining energiyaga ortib borayotgan talabi; – energiyani barchaga birdek mavjudligini ta'minlash va energetik qashshoqlikdan qutulish.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va iqtisodiyotning rivojlanish darajasi ko'p jihatdan energiya resurslari zaxiralariga bog'liq. Hozirgacha dunyoda aniqlangan tabiiy energiya manbalari zaxiralari energiya iste'molining bugungi kun darajasida iste'mol qilinsa, 54 yil davomida energiyaga bo'lgan ehtiyojimizni qondirish imkonini beradi, xolos. Biroq ma'lumki, jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishi bir joyda to'xtab turmaydi. Rivojlanish va iqtisodiy o'sish energiyaga bo'lgan ehtiyojning ortishiga olib keladi va energiya tanqisligi muammosi vujudga kelishi havfini tug'diradi. 2040-yilga kelib jahon YAIM energiya sig'imkorligi 0,08 t. n.e./ming dollarga yetishi kutilmoqda. shu bois an'anaviy energiya manbalari zaxiralarining kamayib borishi sharoitida qayta tiklanadigan energiya manbalarining inson hayoti va faoliyatidagi ahamiyati va dolzarbligi ortib bormoqda.

Yildan yilga ayrim mamlakatlarda "yashil" iqtisodiyotga investitsiya kiritish darajasi pasayganiga qaramasdan, rivojlanayotgan mamlakatlarning ayrimlarida qayta tiklanadigan energiya manbalarini investitsiyalashni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat maqsadli dasturlari ishlab chiqilmoqda, bunday mamlakatlar qatoriga Hindiston, Argentina, Misr va BAA Qozog'iston va O'zbekistonni ham kiritish mumkin.

Ushbu mamlakatlarda "yashil" iqtisodiyotni investitsiyalash muhitini yaxshilash uchun amalga oshirilayotgan tadbirlar mazkur tarmoq rivojlanishiga xizmat qiluvchi investitsiyalar miqdorining ortishiga olib kelishi shubhasizdir. 2021-yilda barcha yillarda kuzatilganidek, jahonda "yashil" iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalarning katta ulushi quyosh va shamol energiyasiga to'g'ri keldi.

Rivojlangan mamlakatlarda quyosh energiyasiga investitsiyalar miqdori 57,4 milliard dollarga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 58,6 milliard dollarga teng bo'ldi. Investitsiyalardagi bunday katta ulushni quyosh energetikasi samardorligining boshqalariga nisbatan yuqoriligi va boshqa tiklanadigan energiya manbalariga nisbatan ekspluatatsiya xarajatlarining kamligi bilan tushuntirish mumkin[3].

2 CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 I ISSUE 5 I 2022 Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=4.63)Passport: http://sjifactor.com/passport.php?id=22230 782 UZBEKISTAN | www.caajsr.uz

3 CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 I ISSUE 5 I 2022 Scientific

“Yashil” investitsiyalar tarkibiy ulushining keyingi o‘rnini shamol energiyasiga bo‘lgan investitsiyalar egallaydi. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 59,4 milliard dollarga, rivojlanayotgan mamlakatlarda 50,7 milliard dollarga teng bo‘ldi. Ahamiyatli jihati shundaki, jahonda quyosh energiyasidan foydalanishni investitsiyalash ulushining yuqori bo‘lishiga qaramasdan, rivojlangan mamlakatlarda “yashil investitsiya”lar ko‘proq shamol energiyasiga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa quyosh energiyasiga yo‘naltirilgan. Buni ushbu mamlakatlar geografik va iqlimiy sharoitlari bilan bog‘liq omillar orqali tavsiflash mumkin. Biomassa, bioyoqilg‘i, kichik gidrostansiyalar, geotermal va dengiz energiyalari kabi boshqa tiklanadigan energiya manbalariga investitsiyalar ulushi jamiga nisbatan juda kam bo‘lib, 2021-yilda rivojlangan mamlakatlarda 8,2 milliard dollarga, rivojlanayotgan mamlakatlarda 7,31 milliard dollarga teng bo‘ldi xalos.

“yashil” iqtisodiyotga investitsiyalarni tahlil qilayotganda rivojlanayotgan mamlakatlar guruhini ikki tarkibiy qismga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq, ya’ni “Katta uchlik” (Xitoy, Hindiston va Braziliya) va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar hisoblanadi hamda ularning tajribasini institutsional o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish orqali ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyot tushuniladi.

Insoniyat kelgusi o‘n yillikda iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslar taqchilligi, bioxilma-xillikning yo‘qolib ketishi, ijtimoiy tengsizlikning oshib ketishi kabi juda dolzarb muammolarga duch kelishni boshladi.

Ushbu tizimli global inqirozlarning barchasi o‘zaro bog‘liqligi ularni alohida-alohida hal etib bo‘lmasligi, shuningdek, an’anaviy iqtisodiy yondashuv ushbu muammolarning yechimiga qaratilgan ham ekologik, ham ijtimoiy maqsadlarning muvozanatini ta’minlay olmaydi.

An’anaviy iqtisodiy yondashuv ortiqcha iste’mol qo‘llab-quvvatlanishi, ijtimoiy qamrov sustlashishi hamda tabiiy resurslarning keskin kamayishiga olib kelsa, “yashil” iqtisodiy yondashuv bularning barchasini rad etib, ijtimoiy farovonlikni hamda ekologik barqarorlik muvozanatini ta’minlash uchun xizmat qiladi.

Oxirgi o‘n yillikda deyarli, barcha mamlakatlarda tabiiy resurslardan foydalanishning hamda atrof-muhitga salbiy ta’sirni oshirmasdan iqtisodiy farovonlikni ta’minlashga qaratilgan shunday “yashil” iqtisodiyotga urg‘u berish tendensiyasi kuzatilmoqda.

“Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi ko‘pgina mamlakatlar uchun strategik ustuvor vazifa sifatida yuzaga chiqmoqda. “Yashil” iqtisodiyot qayta tiklanuvchi energiya, “yashil” bino-inshootlar, barqaror transport, suv va yer resurslari hamda qattiq maishiy chiqindi boshqaruvi kabi sektorlardan iboratdir.

“Yashil” o‘sish indeksi bo‘yicha mamlakatimizning past ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan quyidagi ustuvor yo‘nalishlardagi ishlarni amalga oshirish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhimligi ushbu tadqiqotimiz asosida tavsiya qilinadi:

iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari muqobil energiya samaradorligini oshirish;

energiya resurslari iste’molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;

iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash;

“yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish.

Mazkur strategiya doirasida “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar natijasi o‘laroq, “yashil” o‘sish indeksidagi mamlakatning o‘rni sezilarli yaxshilanishi hamda global “yashil” ekotizimni asrab-avaylashda uning munosib hissa qo‘shishi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.1. Green Economics: An Introduction to Theory, Policy and Practice. Molly Scott Cato. Earthscan, –2009-224.
2. Исаджанов, А. (2020). “Яшил иқтисодиёт”: хусусиятлари ва ривожланиш омиллари. –Iqtisodiyot Va ta’lim, (1), 12-18. https://doi.org/10.55439/ECED/vol_iss1/a14.
3. А.В.Вахабов, Ш.А.Тошматов, Т.К.Иминов, Т.З.Тешабоев, 2. Special Issue, Aug-2021. Academic Journal of Digital Economics and Stability Special Issue, Aug-2021. ISSN 2697-2212 Online: https://academicjournal.io.
4. Хакимов Н.Х. Инсон экологияси, монография-2021. Tavsif. Sharhlar. Ushbu monografiya ijtimoiy falsafaning muhim muammolaridan biri-inson ekologiyasining mazmuni, mohiyatiga bag`ishlangan.
5. Хакимов Н.Х. Инсон экологияси, монография-2021. –Т.: “Иқтисодиёт”, 2020. –236 бет.



O‘ZBEKISTONDA “YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISH MUAMMOLARI VA UNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

S. R. Topildiyev
I.f.d. (DSc), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Fundamental iqtisodiyot” kafedrasi professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish muammolari hamda muqobil energiyadan foydalanish yo‘llari asoslangan. Shu bilan birga, O‘zbekistonda 2030-yilgacha muqobil energiyadan foydalanish va amaliyotga joriy etishni tezlashtirish, energiya tejovchi zamonaviy texnologiyalari bilan jihozlash, shu orqali energiya tejamkorligiga erishish yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, energiya, muqobil, sanoat, konsepsiya, dekarbonizatsiya, strategiya, Jahon, Osiyo, resurs, diversifikatsiya, davlat, marketing, “yashil” energiya, texnologiya, tarmoq, korxona.

Abstract: This article focuses on the problems of transition to a green economy in Uzbekistan and ways to use alternative energy. At the same time, ways of accelerating the use and implementation of alternative energy in Uzbekistan until 2030, equipping it with modern energy-saving technologies, thereby achieving energy efficiency, were recommended.

Key words: Green economy, energy, alternative, industry, concept, decarbonization, strategy, World, Asia, resource, diversification, state, marketing, green energy, technology, network, enterprise.

Аннотация: Данная статья посвящена проблемам перехода к зеленой экономике в нашей стране и пути использования альтернативной энергетики. При этом были предложены вопросы ускорения использования и внедрения альтернативной энергетики в Узбекистане до 2030 года, оснащения его современными энергосберегающими технологиями, тем самым достигая энергоэффективности.

Ключевые слова: Зеленая экономика, энергетика, альтернатива, промышленность, концепция, декарбонизация, стратегия, мировое хозяйства, Азия, ресурс, диверсификация, государство, маркетинг, зеленая энергия, технология, сеть, предприятие.

KIRISH

“Yashil” o‘sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030” (P4G) ikkinchi xalqaro sammiti 2021-yil 30-mayda Janubiy Koreya Respublikasida bo‘lib o‘tdi. Unda davlatimiz rahbari: “Bugungi kunda ona tabiatning o‘zi bizga yo‘llayotgan ogohlik qo‘ng‘irog‘iga beparvo bo‘lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o‘zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so‘nggi 30 yilda o‘rtacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko‘tarildi. Mintaqamizdagi asosiy daryolarning havzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib borayotgani jiddiy xavotir uyg‘otmoqda. Bug‘lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Bugungi kunda “yashil taraqqiyot” borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo‘lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo‘q”, deb ta’kidlab o‘tdilar.

Shu bilan birga hozirgi kunga qadar mamlakatimizda foydalanilayotgan elektro trasfarmatorlarga 45-50-yillar bo‘lganligini hisobga olsak, elektro trasfarmatorlar hozirgi zamon talablariga javob bermaydi. Aholi sonining o‘sib borishi, “yashil” energetikaga bo‘lgan talabni ortishi, rejalashtirilgan mahallalarga elektro energiyani yetkazib berilishi bunga asos bo‘ladi. “Yashil” energetikaga o‘tishda anashunday muammolarni bartaraf etib zamonviy texnologiyalar bilan jihozlash zarur hisoblanadi.

“Yashil taraqqiyot”ga erishish uchun “yashil” iqtisodiyotga o‘tishimiz va uni rivojlantirishimiz lozim bo‘lmoqda. Shu tufayli mamlakatimizda bunday iqtisodiyotni shakllantirish uchun “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish lozim.

MUAMMONING O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Sanoat korxonalarida QTE manbalaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, jumladan, sanoat korxonalarini QTEga o‘tish mexanizmlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari ko‘plab xorijlik olimlarning va ilmiy markazlarning ishlanmalarida o‘z aksini topgan. Bu borada S. Ye. Kan S’ener, J. L. Sharp' qayta tiklanadigan energiyaning turli yo‘nalishlariga ta’sir qiluvchi omillarini (2018), qayta tiklanadigan energiya tizimlarini Garsiya-Olivares, J. Sole, Osychenko.O. (2018), 21-asrda qayta tiklanadigan energiya manbalarini M. K. G. Deshmuxlar (2021) ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ushbu uzoq xorij olimlari sanoat korxonalarida QTE manbalaridan foydalanish asosida iqtisodiy samaradorligini oshirish nazariyasi va amaliyotini shakllantirishga qo‘shgan salmoqli hissasiga qaramay, biznes subyektlarining o‘zaro munosabatlari marketingini tashkil etish va ularda Sanoat 4.0 konsepsiyasi doirasida “yashil” energiya tizimini yaratishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish masalalari deyarli o‘rganilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida QTEdan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi, ularni sanoatda keng qo‘llashga qaratilgan uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish borasida L.A.Fedoskina, Ye.I.Abramov Energiyani boshqarish tizimini shakllantirish asosida sanoat korxonalarining energiya samaradorligini oshirishni (2022), Energiya iste’molini rivojlantirishning innovatsion yo‘nalishi sifatida muqobil energiya manbalaridan foydalanishni I.G.Salimyanova, M.G.Treyman (2016), Sanoat korxonalarida muqobil energiyaga bo‘lgan talab va iste’molni muvofiqlashtirish muammosini G.N.Ryazanova (2016), Qayta tiklanadigan energiya manbalarini sanoat korxonasining elektr ta’minoti tizimiga integratsiyalashni S.V.Podkovalnikov, M.A.Polomoshinalar (2023) tadqiqotlar olib borganlar. Mazkur olimlarning ilmiy ishlarida QTEdan ijtimoiy obyektlarda samarali foydalanish, “yashil” energiya tizimga moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqish va sanoat korxonalarida QTE manbalaridan foydalanish yo‘llari va usullari bo‘yicha nazariy va uslubiy takliflar berilgan.

Respublikamizning iqtisodchi olimlaridan Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Toshmatov Sh.A. Jahonda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish modellari va uni O‘zbekistonda amalga oshirish xususiyatlariga (2020), Shodmonov Sh.Sh., Abdullayeva M.K. Sanoat korxonalarida energiya sarfini kamaytirishning asosiy jihatlariga (2019), Yangi O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishni A.E.Imamov, E.Z.Imamov, X.N.Karimov (2022), Tiklanadigan energiya iste’molining holati va rivojlanish istiqbollarini Z.F.Faxriddinova, X.X.Rejapov (2022), Jahonda “yashil” iqtisodiyotning energetika sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning hozirgi holati tahlili va rivojlanish tendensiyalarini D.Odinayev (2018), O‘zbekistonda muqobil energiya manbalarini rivojlantirishga Sh.S.Xakimova (2022), Tejamkorlik – Energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlariga A.H.Yusupov (2022), Sanoat elektr ta’minoti tizimlarida elektr energiyasini iqtisod qilishga M.M. Nuryog‘diyev, S. Mutallibjonov (2022) va boshqalar zamonaviy muqobil energiya tatbiq etish va energiyadan samarali foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shganlar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda turli hil tarmoqlarda QTE manbalaridan foydalanishning samaradorligi, uni texnik va texnologik jihatlari, energiya tejamkorligiga erishish va energetika tizimining iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tadqiqotlar olib borish zarur. Biroq, sanoat korxonalarida QTEdan foydalanish asosida raqobatdosh ustunliklarni yaratish, sanoatni “yashil” energiyaga o‘tkazishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda O‘zbekiston sanoatida “Yashil energiya tizimini” tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yaratish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

“Yashil” iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim bo‘lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shunday qilib “yashil” iqtisodiyot deganda, inson hayoti va sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan bog‘liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo‘nalishi tushuniladi.

Bunda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi. Masalan:

- aholini turmush farovonligini oshirish, aholining ehtiyojlarini qondirib, ularning farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish uchun moddiy ne’matlarni yaratishni barqaror ravishda ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ko‘paytirib borish;
- ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zamonaviy energiya tejovchi texnologiyalar bilan jihozlash, qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko‘paytirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan harakatlanadigan elektromobillarga almashtirish, energiyani tejaydigan binolarni barpo qilish kabi yo‘nalishlarda ishlarni olib borish;
- atrof-muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, atrof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnologiyalarni yaratish orqali ekologik toza mahsulotlarni yetishtirish masalasiga ham alohida ahamiyat berish;

- tabiatdagi barcha resurslar cheklangan bir paytda inson ehtiyojlari cheksizligini inobatga olib, ularning muvofiqligini ta'minlash maqsadida ne'matlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslarni kamaytirmasdan amalga oshirish choralarini ham ko'rish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Fikrimizcha, "yashil" iqtisodiyotda inson, tabiat va iqtisodiyotning bir-biri bilan uyg'un va barqaror rivojlanishini ta'minlagan holda harakat qilish lozim bo'ladi. Biror narsani qilaman, deb ikkinchi narsa yo'qotilmaydi. Masalan, uy quraman, deb daraxtlar ayovsiz kesib tashlanmaydi, texnologiyalarni ko'paytirish havo atmosferasini zaharli gazlar bilan to'ldirish evaziga amalga oshirilmaydi. Shu yo'l bilan barqaror taraqqiyotga erishish bugungi global masalalardan biridir.

O'zbekistonning Iqtisodiy taraqqiyot va qashshoqlikni qisqartirish vazirligi hamda boshqa davlat idoralari bilan hamkorlikda Jahon bankining yaqinda tayyorlangan hisobotida mamlakatning "yashil" iqtisodiyotga o'tishdagi muammolari va imkoniyatlari tahlil qilingan.

U eng dolzarb ekologik va boshqa xavflarni aniqlaydi, shuningdek, siyosatga o'zgartirishlar va harakatlarni tavsiya qiladi. Ulardan ba'zilari energiya samaradorligi bo'yicha chora-tadbirlar va landshaftlarni tiklash dasturlari kabi bir vaqtning o'zida iqtisodiyot va atrof-muhitga foyda keltiradi. Ushbu maqola hisobotning ba'zi xulosalarini umumlashtiradi.

O'zbekiston resurslarni boshqarishni yaxshilashiga to'g'ri keladi. Mamlakatning resurs samaradorligi Yevropa Ittifoqi va boshqa yuqori o'rta daromadli mamlakatlarnikidan ancha past.

O'zbekistonda suvdan foydalanish, ayniqsa, samarasiz, mamlakatning yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'rtacha ko'rsatkichdan qariyb uch baravar va qo'shni Qozog'istonnikidan ikki baravar yuqori.

Shu bilan birga, shahar va sanoat manbalaridan havoning zarrachalari bilan ifloslanishi shamol tomonidan urilgan qum va buzilgan yerlarning changlari bilan kuchayadi.

Aholining salmoqli qismi muntazam ravishda zararli deb hisoblangan havo sifatiga duchor bo'ladi.

O'zining "yashil" ambitsiyalarini qondirish uchun O'zbekiston uchta vaqt oralig'ida: shoshilinch, yaqin va uzoq muddatli davrga bo'lingan ushbu va boshqa muammolarni hal qilishi kerak.

Mamlakatning qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan iqtisodiyoti va aholi zich joylashgan hududlarda havoning bosqichma-bosqich yomonlashishini hisobga olgan holda, uning eng dolzarb "yashil" ustuvorliklari havo sifatini yaxshilash, yer va suvdan barqaror foydalanish bo'ladi.

Bunga landshaftni tiklash, suvni samarali boshqarish va havo ifloslanishini kamaytirish choralari orqali erishish mumkin.

Yerdan barqaror foydalanish O'zbekistonda kengayishi kerak bo'lgan muhim amaliyotdir. Iqlimga asoslangan qishloq xo'jaligi amaliyotlari yerdan foydalanish barqarorligini yanada oshiradi.

Uzoq muddatda mamlakat qishloq xo'jaligidan qimmatroq, yaxshi haq to'lanadigan tarmoqlarga o'tishni ta'minlasa yaxshi bo'lardi. Buning uchun qishloq xo'jaligi ishchi kuchining bir qismini, xususan, eng zaif ayollar va yoshlarning qayta malakasini oshirish kerak.

Suv narxlarini belgilash va sug'orish uchun investitsiyalar orqali suvdan foydalanish samaradorligini oshirish eng katta ustuvor vazifa bo'lishi kerak, suvdan foydalanishning ma'lum chegaralari ushbu yangi ustuvorliklarning bir qismidir.

Kam uglerodli oqilona siyosat O'zbekistonda kam uglerodli energiya va energiya samaradorligiga o'tish uchun zarur rag'batlarni beradi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon bankining uglerod narxini baholash vositasi tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda uglerod narxi qo'shimcha fiskal daromad sifatida YAIMning 5 foizigacha bo'lishi mumkin, bu "yashil" loyihalarni moliyalashtirish yoki uy xo'jaliklariga iqtisodiy ta'sirni yumshatish uchun ishlatilishi mumkin.

Bundan tashqari, ish o'rinlarini yaratish va resurslarni qayta joylashtirish strategiyalari "yashil" o'tishning ba'zi ijtimoiy xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Global "yashil" o'tish yangi ish o'rinlari yaratish va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun katta imkoniyatlar yaratadi va O'zbekiston bu imkoniyatlardan foydalanish uchun yaxshi mavqega ega.

Ish joylari va atrof-muhit natijalarini optimallashtiradigan sohalar qatoriga sog'liqni saqlash, ta'lim, moliya va iqlimga mos konchilik kiradi.

Mamlakatdagi eng yirik bandlik sohasi bo'lgan qishloq xo'jaligi qimmatroq sanoatga o'tish va ekotizim xizmatlari yordamida yerdan foydalanishni optimallashtirish orqali yanada ko'proq "yashil" ish o'rinlarini ta'minlash va turmush darajasini yaxshilash salohiyatiga ega.

Bundan tashqari, qayta tiklanadigan energiya manbalari va boshqa innovatsion texnologiyalarga asoslangan, xuddi shunday "yashil" salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlarning kengroq ro'yxati qo'shimcha tahlilga loyiqdir.

Yashil iqtisodiyotga o'tish muvaffaqiyatini ta'minlash uchun davlat sektori va "yashil" moliyani jalb qilish juda muhimdir.

Siyosiy chora-tadbirlar “yashil” sektorda yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali ijtimoiy xarajatlarni kamaytirish bilan birga moliyalashtirishdagi bo‘shliqni bartaraf etishi kerak.

Bundan tashqari, siyosat eng ko‘p zarar ko‘rganlarni qayta tayyorlash, qayta joylashtirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash imkonini berishi kerak.

Ushbu chora-tadbirlar O‘zbekiston hukumati tomonidan Jahon banki ko‘magida ishlab chiqilayotgan uzoq muddatli dekarbonizatsiya strategiyasining bir qismi bo‘lishi mumkin.

Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammoli masalalar mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga, xususan, iqtisodiy o‘sish va kambag‘allikni qisqartirish, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib, ushbu yo‘nalishda mamlakatda iqlim o‘zgarishi ta’sirini kamaytirish va unga moslashish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish choralarini jadallashtirish, “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish modelini targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bu borada, mamlakatda “yashil” iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “yashil” investitsiyalarni jalb qilish, ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktyabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi tasdiqlangan.

2020-yilda koronavirus (COVID-19) pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan epidemiologik vaziyat sababli dunyo mamlakatlari qatori O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu Strategiyani jadal amalga oshirish imkoniyati cheklandi.

Shu bilan bir qatorda, 2021-yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiyasining 26-yig‘ilishida (COR26) O‘zbekiston Respublikasi tomonidan Parij bitimi doirasida 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot birligida issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yilgi ko‘rsatkichlarga nisbatan 35 foiz kamaytirish bo‘yicha qo‘shimcha majburiyatni o‘z zimmasiga oldi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi 2023-yilning may oyida 2030-yilga qadar metan emissiyasini 2020-yilga nisbatan kamida 30 foizga kamaytirish bo‘yicha mamlakatlarning jamoaviy maqsadga erishishi bo‘yicha global majburiyat to‘g‘risidagi tashabbusga (Global Methane Pledge) qo‘shildi.

Koronavirus pandemiyasi va iqlim o‘zgarishi tufayli yuzaga kelayotgan salbiy holatlarning saboqlari iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda yanada barqaror manbalar va yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish, xususan, mamlakatda “yashil” iqtisodiyot va “yashil” iqtisodiy o‘sish bo‘yicha strategik maqsadlar va chora-tadbirlar amalga oshirilishini samarali tashkil etish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-436-son qarori qabul qilindi.

2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi asosida “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, shuningdek, ushbu yo‘nalishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikdagi muvofiqlashtirilgan sa’y-harakatlarini ta’minlash Dasturini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsadida:

- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish;
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi “yashil” maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;
- respublika o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;
- hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish;
- 25 ta korxona va tashkilotda ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig‘imi ko‘rsatkichini 2026-yilga kelib 2022-yilga nisbatan 20 foizga kamaytirishga qaratilgan 2022-2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg‘i-energetika resurslarini tejash ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda 6 ta ustuvor yo‘nalishda vazifalarini belgilangan:

1. Tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish;
2. Milliy iqtisodiyotning tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqarorligini mustahkamlash;
3. Milliy iqtisodiyot, xususan, sanoatning “yashil” va kam uglerodli rivojlanishini ta’minlash;
4. Innovatsiyalarni joriy etish va samarali “yashil” investitsiyalarni jalb qilish;
5. Barqaror va inklyuziv “yashil” urbanizatsiyani rivojlantirish;
6. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish davrida katta ta’sir ostida bo‘lishi mumkin bo‘lgan aholi va ularning yashash joylarini qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha vazifalarning samarali amalga oshirilishi quyidagi yo‘nalishlardagi tarmoqlararo choralar bilan bir qatorda amalga oshirish lozim bo‘ladi. Masalan:

- “yashil” o‘sish bo‘yicha salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirish;
- “yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun qulay siyosiy muhit yaratish, samarali institutlarni joriy qilish;
- tashqi va ichki “yashil” moliyalashtirish oqimlarini ko‘paytirish.

Innovatsiyalarni joriy etish va samarali “yashil” investitsiyalarni jalb qilishning ustuvor yo‘nalishlari quydagilardan iborat.

a) “yashil” investitsiyalar konsepsiyasini integratsiyalash – mamlakatda rejalashtirilgan barcha investitsiya loyihalari uchun “yashil” mezonlarni ishlab chiqish va joriy etish;
b) sanoat korxonalari infratuzilmasini modernizatsiyalash – mavjud yangi texnologiyalar va standartlarning integratsiyasi orqali sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi sanoat korxonalarining infratuzilmasi barqarorligini ta’minlash.
d) xususiy sektorning milliy iqtisodiyotdagi ishtirokini oshirish, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash.
e) davlat xaridlarining shaffof va raqobatbardosh tartibini va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishni qo‘llab-quvvatlash.
f) elektron hukumat va davlat boshqaruvi salohiyatini mustahkamlash, elektron hukumat tizimini AKT infratuzilmasi va tegishli tizimlar bilan ta’minlash, davlat boshqaruvi organlarining innovatsiyalar va investitsiyalar bo‘yicha salohiyatini kuchaytirish hamda davlat xizmatlari va jarayonlarini raqamlashtirishni qo‘llab-quvvatlash.

1- jadval: 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2024-yil	2026-yil	2028-yil	2030-yil
1.	Yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya hajmini kamaytirish (2021-yilga nisbatan)	%	14,0	22,0	27,0	30,0
2.	Sanoatda elektr energiyasi iste’moli, umumiy iste’moldagi ulushi	%	25,0	23,0	21,0	20,0
3.	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushini kengaytirish (gidroenergetika bilan birga)	%	9,0	24,3	29,0	30,5
		kVt/s	8,6	25,0	34,0	40,7
4.	Kichik quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish	MVt	150,0	400,0	800,0	1500,0
5.	Yaxshilangan ichimlik suv manbalaridan foydalanish imkoniyatiga ega aholi, jami aholi soniga nisbatan	%	80,93	87,12	88,5	90,0
6.	O‘rmon fondi hududlarida daraxt va butalar zaxiralarini ko‘paytirish	mln.m^3	68,1	77,0	85,5	92,3
7.	“Yashil makon” loyihasi doirasida shaharlardagi “yashil” maydonlarni kengaytirish (aholi punktining umumiy maydoniga nisbatan)	%	12,4	15,8	23,8	30,0
8.	Hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasi	%	40,0	50,0	60,0	65,0

Sanoat tarmoqlarida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va energiya tejamkorligini ta’minlash konsepsiyasi tasdiqlandi.

So‘nggi yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortib borishi energiya resurslaridan samarali va tejamkorlik bilan foydalanishni taqozo etmoqda.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, iqtisodiyot tarmoqlarining yirik energiya sarflovchi korxonalarida energiya samaradorligini oshirish va yoqilg‘i-energetika resurslarini tejash bo‘yicha takomillashtirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur.


Shu bilan birga, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishda sanoat tarmoqlaridagi yo‘qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi vazifalarni bajarish lozim.

Fikrimizcha 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash natijasida sanoat tarmoqlarida 3,9 mlrd metr kub tabiiy gaz, 4 mlrd kVt/soat elektr energiyasi va 21 ming tonna neft mahsulotlarini tejash orqali energiya sig‘imini 20 foizga kamaytirish;

- bino va inshootlarda energiya samaradorligini 30 foizga oshirish;
- har bir tarmoq kesimida resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish va energiya tejamkorligi dasturlarini ishlab chiqish;
- chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalarini rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish;
- Iqtisodiyot tarmoqlari va faoliyat turlari bo‘yicha iqtisodiyotning energiya sarfi (energiya sig‘imi) 2026-yilga borib 22 foizga kamaytirishga erishish;
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushini kengaytirishni 40,7 kVt/s ga yetkazish;
- “Yashil makon” loyihasi doirasida shaharlardagi “yashil” maydonlarni kengaytirishni 30 foizga yetkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori.
2. Can S’ener S. E, Sharp J. L, Anctil A., “Factors impacting diverging paths of renewable energy: A review,” Renew. Sustain. Energy Rev., vol. 81, no. –October 2016, pp. –2335–2342, –2018.
3. García-Olivares, J. Solé, Osychenko.O, “Transportation in a 100% renewable energy system”, Energy Convers. Manag., vol. 158, no. –August 2017, pp. –266–285, 2018.
4. Deshmukh M. K. G. et al. Renewable energy in the 21st century: A review //Materials Today: Proceedings. – 2021.
5. Федоськина Л. А., Абрамов Е. И. Повышение энергоэффективности промышленных предприятий на основе формирования системы энергоменеджмента. – 2018.
6. Салимьянова И.Г., Трейман М. Г. Использование альтернативных источников энергии как инновационное направление для развития энергопотребления Российской Федерации //Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета – 2016. – №. 4 (100). – С. 70-75.
7. Рязанова Г. Н. Организационное решение проблемы координации спроса и потребления альтернативной энергии на промышленных предприятиях России //Управление. – 2016. – №. 3 (13). – С. 46-56.
8. Подковальников С.В., Поломошина М.А. Интеграция возобновляемых источников энергии в систему электроснабжения промышленного предприятия // Вестник ИрГТУ. 2018. №11 (142). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/integratsiya-vozobnovlyaemyh-istochnikov-energii-v-sistemu-elektrosnabzheniya-promyshlennogo-predpriyatiya (дата обращения: 17.02.2023.
9. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Toshmatov Sh.A. Jahonda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish modellari va uni O‘zbekistonda amalga oshirish xususiyatlari: monografiya./i.f.d., prof. A.V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida – Toshkent:. – “Universitet”, 2020. –278 b.
10. Shodmonov Sh.Sh., Abdullayeva M.K. Sanoat korxonalarida energiya sarfini kamaytirishning asosiy jihatlari(2019). https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/587.
11. Odinayev D.Sh. Jahonda “yashil” iqtisodiyotning energetika sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning hozirgi holati tahlili va rivojlanish tendensiyalari // Ekonomika i finansi (Uzbekistan). 2018. №7.
12. Imamov A.E., Imamov E.Z., Karimov X.N. Yangi O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bilan bog‘liq muammolar // SAI. 2022. №A3.
13. Nuryog‘diyev M.M., Mutallibjonov, S. Sanoat elektr ta’minoti tizimlarida elektr energiyasini iqtisod qilish // Scientific progress. –2022. №4.
14. Faxriddinova F.Z. Rejapov X. Tiklanadigan energiya iste’molining holati va rivojlanish istiqbollari // Science and Education. –2022. –№7.
15. Xakimova Sh. S. O‘zbekistonda muqobil energiya manbalarini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqot ishlarga doir // Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya. –2022. –T. 1. – №. 7. – S. 24-27.
16. Yusupov A.H. Tejamkorlik – Energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishidir. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 1/2022, yanvarfevral (№ 00057). –182–188-betlar.



MILLIY STRATEGIK MAQSADLAR: EKOLOGIK VA BOJXONA BOSHQARUVI MEXANIZMLARINING MAQBUL KOMBINATSIYASI

Muratova Shohista Nimatullayevna
I.f.d., Bojxona instituti professori

Annotatsiya: Maqolada milliy bojxona organlarining atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatidagi ishtiroki doirasida davlat ekologik boshqaruv mexanizmining elementlari ko‘rib chiqilib, tadqiqot natijalari sifatida bojxona organlari tomonidan ekologik maqsadlarda amalga oshiriladigan faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ekologik va bojxona boshqaruvining mexanizmlari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi. Iqtisodiy-ekologik munosabatlarning mazmunini yoritishda bojxona organlari va boshqa ekologik boshqaruv organlarining idoralararo o‘zaro munosabatlari shakllari belgilandi.

Kalit so‘zlar: davlat ekologik boshqaruvi, milliy strategik vazifalar, bojxona boshqaruvi mexanizmlari, ekologik maqsadlar, bojxona qonunchiligi, ekologik standartlar va me’yorlar, ekologik xavfsizlik, “yashil bojxona”.

Abstract: The article considers the elements of the mechanism of state environmental management within the framework of the participation of customs authorities in environmental protection activities, according to the results of the study, the relationship between the mechanisms of environmental and customs management that arises in the process of customs authorities carrying out activities carried out for environmental purposes is revealed. The forms of interdepartmental relations between customs authorities and other environmental management bodies are defined when highlighting the content of economic and environmental relations.

Key words: state environmental management, national strategic objectives, customs administration mechanisms, environmental objectives, customs legislation, environmental standards and norms, environmental safety, “green customs”.

Аннотация: В статье рассмотрены элементы механизма государственного экологического управления в рамках участия таможенных органов в природоохранной деятельности, по результатам исследования выявлена взаимосвязь между механизмами экологического и таможенного управления, возникающая в процессе осуществления таможенными органами деятельности, осуществляемой в экологических целях. Определены формы межведомственных взаимоотношений таможенных органов и других органов экологического управления при освещении содержания экономико-экологических отношений.

Ключевые слова: государственное экологическое управление, национальные стратегические задачи, механизмы таможенного администрирования, экологические цели, таможенное законодательство, экологические стандарты и нормы, экологическая безопасность, “зеленая таможня”.

KIRISH

Atrof-muhitga doimiy antropogen ta’sir ko‘rsatish sharoitida aholining ekologik farovonligi davlat ekologik boshqaruvining amaldagi mexanizmining mohiyatini aks ettiruvchi texnik, iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy tavsifdagi chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish orqali ta’minlanadi. Ekologiya va tabiatdan foydalanish sohasidagi milliy strategik vazifalarni samarali hal qilish uchun vakolatli hokimiyat organlarining harakatlarini muvofiqlashtirish orqali zamonaviy ekologik boshqaruv mexanizmining ishonchliligini oshirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining bojxona organlari vakolatiga kiradigan ekologik boshqaruv mexanizmlari va bojxona boshqaruvi mexanizmlarining maqbul kombinatsiyasi talab etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko‘pgina tadqiqiqotchilarning fikricha, davlat ekologik boshqaruv mexanizmi – bu “...atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanishni tashkil etish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash” maqsadida davlat nomidan ishlaydigan murakkab kelishilgan tizim. Ekologik boshqaruvning ma’muriy-huquqiy mexanizmining mazmunini tahlil qilib, I.V.Ponkin unda boshqaruv natijasini ta’minlaydigan bir qator funksional elementlarni ajratib ko‘rsatadi. Avvalo, bular atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi strategik

maqsad va vazifalardir; ekologik ahamiyatga ega ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish; davlat tomonidan moliyalashtiriladigan atrof-muhit sifatini boshqarishning maxsus ommaviy protseduralari [1].

A.A.Malishev, N.N.Solodkovlarning fikricha, iqtisodiy-ekologik tizimlarning sifat tavsifi ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional tarkiblardan tashkil topadi hamda ularning o‘zaro aloqalaridan iboratdir [2].

S.A.Alimov iqtisodiy va ekologik tizimning innovatsion barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun ularning o‘zaro aloqalarini notijorat sheriklik shaklida amalga oshiradigan davlat, biznes va jamiyatni o‘zaro bog‘lash zaruratini ta’kidlaydi [3].

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish sohasidagi jamoat va davlat manfaatlari muvozanati asosida ijtimoiy totuvlikni ta’minlash uchun jamiyat va davlat hokimiyati organlari o‘rtasidagi munosabatlar tizimining davlat-davlat sherikliklarini yaratish dolzarb masala ekanligi P.Raxmonazarov tomonidan ta’kidlanib, bu davlat organlari va jamoat institutlari o‘rtasida o‘zaro tushunish va hamkorlikka erishish, ularning o‘zaro ta’sirlashishining samarali mexanizmlarini yaratish imkonini berishi aytilgan [4].

Atrof-muhitni boshqarish mexanizmining tuzilishida milliy va mahalliy darajadagi ijtimoiy munosabatlarning ekologik sohasidagi faoliyatni boshqarish uchun mas’ul bo‘lgan markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan tashkiliy boshqaruv tuzilmalari tomonidan taqdim etilgan uning faoliyatining institutsional asoslari alohida o‘rin tutadi. Shu asosda, atrof-muhitni boshqarish qonun bilan belgilangan vakolat doirasida faoliyat yuritadigan vakolatli davlat organlari tizimi tomonidan amalga oshiriladi.

N.A.Ronzhina, D.S.Khairusov, E.S.Suchkovalarning fikricha, milliy bojxona organlari atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash sohasida alohida funksional vakolatlarni amalga oshiradigan maxsus vakolatli ekologik boshqaruv organlari guruhini ifodalaydi [5]. Bojxona organlaridan tashqari, ushbu guruh davlat vazirliklari, xizmatlar va agentliklarning tashkiliy shakllarida taqdim etilgan.

Aslida, ekologik maqsadlar uchun taqiqlar va cheklovlar o‘rnatilgan tovarlarning ushbu toifalarini transchegaraviy harakatlanishi jarayonida yuzaga keladigan ekologik xavflar bojxona organlarining kuchlari va vositalari tomonidan amalga oshiriladigan ekologik boshqaruv obyekti hisoblanadi. Ekologik boshqaruv vakolatlari bojxona organlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan vakolatlar doirasida bojxona ishi sohasida nazorat faoliyatini olib borish orqali amalga oshiriladi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ekologik boshqaruv organlari tizimida bojxona xizmatining o‘rni va rolini baholashda mavjud bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, mavjud tendensiyalarni qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish hamda iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bojxona organlari umumiy va maxsus vakolatlarga ega davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan ekologik boshqaruv mexanizmining institutsional tizimining eng muhim elementidir. Shu bilan birga, bojxona boshqaruvi bojxona organlari faoliyatining belgilangan sohasi hisoblanadi. Bojxona boshqaruvining ommaviy mexanizmi – bu tashqi savdo faoliyati ishtirokchilarining xatti-harakatlariga bojxona qonunchiligi va xalqaro shartnomalar talablariga rioya etilishini ta’minlash maqsadida ta’sir ko‘rsatishga imkon beradigan iqtisodiy-huquqiy vositalar to‘plami.

Ekologik boshqaruv organlari tizimida bojxona xizmatining o‘rni va rolini baholashda shuni ta’kidlash kerakki, bojxona xizmati ekologik boshqaruv bojxona organlari faoliyatining belgilangan sohasiga tegishli emasligi sababli maxsus vakolatli funksional organlar guruhiga kiradi, natijada ekologik faoliyat ular uchun asosiy emas [7].

Bojxona organlari tashqi savdo ishtirokchilari tomonidan ekologik talablarga rioya etilishini baholash va nazorat qilish bilan bog‘liq turli funksiyalarni bajarishi mumkin, shu jumladan:

- tovarlarning eksporti va importi uchun hujjatlar va ruxsatnomalarni, shu jumladan tabiiy resurslardan foydalanish uchun ruxsatnomalarni tekshirish;
- tovarlarni chegaradan o‘tkazishda ekologik standartlar va me’yorlarga rioya etilishini nazorat qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida olib kirish yoki olib chiqish taqiqlangan tovarlarning noqonuniy aylanishining oldini olish;
- atrof-muhitni boshqarishda ishtirok etuvchi boshqa tashkilotlar va organlar, shu jumladan nazorat qiluvchi organlar, milliy va xalqaro ekologik tashkilotlar va boshqalar bilan hamkorlik qilish.

Shuningdek, bojxona organlari bojxona tartib-taomillari va nazorat tizimlarini takomillashtirish orqali ekologik xavfsizlikni taminlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi. Umuman olganda, bojxona organlari noqonuniy savdoni to‘xtatish, savdo tovarlarining ekologik talablarga

muvofiqligini tekshirish va umumiy ekologik muammolarni hal qilish uchun boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik qilish orqali atrof-muhitni boshqarish sohasida muhim rol o‘ynaydi. Bojxona organlari faoliyatidagi bojxona va atrof-muhitni boshqarish institutlarining eng faol aloqasi – O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining idoralararo hamkorligi asosida namoyon bo‘ladi.

Idoralararo hamkorlik mexanizmi bojxona xizmati va O‘zbekiston Respublikasining ekologik boshqaruv organining birgalikdagi boshqaruvi masalalari bo‘yicha hujjatlashtirilgan ekologik ahamiyatga ega ma’lumotlarni almashishni ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida ekologik boshqaruv sohasida bojxona organlari tomonidan bojxona nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlashtirilgan ma’lumotlar yuritiladi (1-rasm).

MA’LUMOTLAR TASNIFI	Flora va fauna obyektlari, biologik kolleksiya materiallarining eksporti uchun ruxsatnomalar (litsenziyalar) to‘g‘risida
	Yo‘qolish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora namunalarining xalqaro savdosi to‘g‘risidagi Konvensiya – CITES (1973-yil 3-mart)ning amalga oshirilishi yuzasidan
	CITES Ilovalari va O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi reyestrlaridagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi
	CITESning alohida obyektlariga nisbatan eksport va import operatsiyalariga taqiqlarni joriy etish to‘g‘risida
	Ekologik sohaga oid tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish bo‘yicha qonunchilikning buzilish holatlari to‘g‘risida
	Jinoyat-protsessual qonunchilik bilan ko‘zda tutilgan tartibot yuzasidan
	Bojxona maqsadlari uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlar va hujjatlarning nusxalari

1-rasm: Bojxona maqsadlarida ekologik boshqaruv sohasida idoralararo hamkorlik doirasida mavjud ma’lumotlar tasnifi

Bojxona organlari faoliyatida ekologik va bojxona boshqaruvining davlat mexanizmlarining o‘zaro bog‘liqligi bojxona qonunchiligida belgilangan vakolat doirasida strategik ekologik boshqaruv muammolarini hal qilish bilan tasdiqlanadi. Biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta’minlash, hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlaridan noqonuniy foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish sohasidagi ushbu strategik ustuvorliklar “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasida belgilangan [8].

Bojxona organlarining milliy va integratsion ekologik boshqaruv jarayonida ishtirok etishi ular tomonidan amaldagi milliy darajadagi hujjatlar va xalqaro shartnomalarga, atrof-muhit xavfsizligini ta’minlash maqsadida belgilangan tartibda qabul qilingan tushunchalar va strategiyalarga muvofiq ekologik siyosatni amalga oshirishni anglatadi. Bojxona qo‘mitasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladigan ekologik boshqaruv funksiyalari bojxona ishi doirasida vositachilik qiladi va davlatning ekologik xavfsizligini ta’minlash uchun tashqi savdo faoliyatini tartibga solish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan taqiq va cheklovlarga rioya etilishini ta’minlash bilan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 203-moddasi bojxona organlari oldida turgan ekologik vazifalar va ularni ta’minlaydigan bojxona funksiyalari (4-xatboshi) mavjudligini aniqlashga imkon beradi [9].

Shunday qilib, bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan tovarlarga nisbatan taqiqlar va cheklovlarga rioya etilishini bojxona nazorati operatsiyalari, bojxona statistikasini yuritish funksiyalari, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, shuningdek radiatsiya va davlat nazoratining boshqa turlarini amalga oshirish orqali bojxona organlari va ularning mansabdor shaxslari inson hayoti va sog‘lig‘ini, hayvonot va o‘simlik dunyosini, atrof-muhitni muhofaza qilishning ekologik muammolarini hal qiladilar.

Bojxona organlari faoliyatida ekologik va bojxona boshqaruvining ommaviy mexanizmlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning dolzarbligi xalqaro standartlarni bajarish bilan bog‘liq maqsad va vazifalar, shu jumladan, global ekologik tahdidlarga qarshi kurashishga qaratilgan. Bojxona ishi doirasida belgilangan vakolatlar doirasida bojxona organlari jamoaviy ekologik xavfsizlikni ta’minlaydilar. Shu tariqa, tuzilish nuqtayi nazaridan, ommaviy ekologik boshqaruv va bojxona boshqaruvi mexanizmlari bir vaqtning o‘zida ham bojxona, ham ekologik maqsadlarda amalga oshiriladigan boshqaruv subyekti faoliyatining mazmuni bilan kesishadi. Bojxona organlari faoliyati orqali amalga oshiriladigan strategik ekologik ustuvorliklar quyidagilardan iborat:

- “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;
- tabiiy ekotizimlarning biologik xilma-xilligini saqlash va biologik resurs obyektlarini muhofaza qilish;
- davlat ekologik nazoratining samaradorligini oshirish;
- biologik tahdidlardan ogoh bo‘lish uchun biologik xavflarning monitoring tizimini rivojlantirish;
- boshqa davlatlardan olib kirilishi xavfi bo‘lgan zararli moddalardan tabiiy muhitning ifloslanishini bartaraf etish.

Bojxona organlari faoliyatida ekologik va bojxona boshqaruvining davlat mexanizmlarining o‘zaro bog‘liqligini kuchaytiradigan yana bir omil – bu bojxona organlarining ekologik huquq sohasidagi xorijiy davlatlar bilan hamkorligidir. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlik masalalari bo‘yicha xalqaro hamkorlik amaliyoti bojxona organlari tomonidan Jahon bojxona tashkiloti bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda [10]. Istiqboldagi strategik yo‘nalish Birlashgan millatlar tashkilotining atrof-muhit bo‘yicha xalqaro tashabbus dasturi, ya’ni “Yashil bojxona” konsepsiyasi doirasida ekologik sezgir tovarlar ustidan tegishli nazoratni amalga oshirishda dunyo bojxona xizmatlarining funksionalligini oshirishdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston milliy bojxona tizimi amaldagi qonunlar va xalqaro hujjatlarga muvofiq, shuningdek ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun ishlab chiqilgan tushunchalar va strategiyalarga muvofiq milliy va integral ekologik siyosatni amalga oshirishda faol ishtirok etadilar.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash kerakki, ushbu tadqiqot bojxona organlari faoliyati doirasida zamonaviy davlat boshqaruvi sharoitida ishlaydigan ekologik va bojxona boshqaruvining ommaviy mexanizmlari o‘rtasidagi sezilarli bog‘liqlik mavjud, degan xulosaga kelishimizga imkon berdi. Milliy va xalqaro darajada belgilangan bojxona organlari faoliyatida maxsus ekologik vazifalar va funksiyalarning mavjudligini aks ettiruvchi bojxona ishining funksional-maqsadli belgilari, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash vazifalarini hal etish sohasida bojxona organlarining idoralararo va davlatlararo hamkorligi shakli bilan belgilanadi. Umuman olganda, milliy bojxona organlari xalqaro tashkilotlar va atrof-muhit xavfsizligi sohasida vakolatli boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, bir vaqtning o‘zida davlat boshqaruvining bir nechta turlarini – bojxona va atrof-muhit muhofazasini amalga oshiradilar, bu, ayniqsa, ekologik muammolarni hal qilish va atrof-muhit sifatini saqlash uchun juda muhimdir.

Shuning uchun, nazarimizda, atrof-muhit muhofazasini ta’minlash bo‘yicha bojxona organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni belgilab olishi taklif etiladi:

- Tovarlarning bojxona chegarasi orqali harakatlanishida atrof-muhit xavfsizligiga bo‘lgan tahdidlarni prognozlash, aniqlash, tahlil qilish va baholash.
- Tovarlarning bojxona chegarasi orqali harakatlanishida atrof-muhit xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash va strategik rejalashtirishda ishtirok etish.
- Tovarlarning bojxona chegarasi orqali harakatlanishida atrof-muhit xavfsizligini ta’minlash sohasini normativ-huquqiy tartibga solish.
- Bojxona organlari tomonidan ekologik xavfsizlikni ta’minlash sohasida ilmiy faoliyatni tashkil etish.
- Jamoaviy ekologik xavfsizlikni ta’minlash sohasida xalqaro hamkorlikni takomillashtirish.

Bojxona organlarining ekologik boshqaruv organlarining amaldagi tizimidagi o‘rni davlatning ekologik siyosati va tashqi savdo faoliyatining ekologik xavflarga qarshi kurashish sohasida rasmiy ravishda e’lon qilingan davlat-huquqiy ustuvorliklar bilan belgilanadi. Bu bojxona organlari va ularning mansabdor shaxslari bojxona chegarasi orqali ekologik sezgir tovarlar va tabiiy resurslarning harakatini nazorat qilish orqali O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ekologik xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynashini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Понкин, И.В. (2013). Общая теория публичного управления. –Избранные лекции. –М. –196 стр.
2. Малышев, А.А., Солодков, Н.Н. (2014). Факторы, влияющие на устойчивость эколого-экономической системы. Нива Поволжья, (1 (30)), –129-135.
3. Алимов, С.А. (2012). Теоретические основы экологического аудита территориально-хозяйственных систем. Экономические и гуманитарные науки, (7), 22-26. URL: https://www.elibrary.ru
4. Rakhmonazarov, P. (2021). Evaluation of efficiency of management of sustainable development of economic and ecological systems. Актуальные научные исследования в современном мире, (2-7), 63-67.
5. Ronzhina, N.A., Khairusov, D.S., Suchkova, E.S. (2022). Functions of the customs authorities in the field of environmental protection and ecological safety. –Chronos, Vol. 7, No. 10 (72), –128-132.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-502-son Qonuni. URL: https://lex.uz/docs/4000640.
7. Ронжина, Н.А. (2021). Механизм юридического закрепления эколого-правового статуса таможенных органов. Финансовая экономика, –№4, –77-81.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston–2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. URL: https://lex.uz/ru/docs/6600413.
9. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 20-yanvardagi O‘RQ-400-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qonuni. URL: https://www.lex.uz/acts/2876354.
10. Булгакова, Л.С. (2018). Международное сотрудничество таможенных органов в области обеспечения экологической безопасности государства. Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки, –№9, –70-72.



GREEN ECONOMY IN TOURISM IN UZBEKISTAN

Alieva Makhbuba Toychievna
Doctor of Economic Sciences,
Professor of the Department of Tourism
Tashkent State Economic University

Abstract: Ecotourism has become a key tool for raising environmental awareness among local residents and visitors, ensuring long-term sustainability. Tourists are becoming increasingly sophisticated in having a meaningful travel experience, including interacting with local people, learning about their culture, and observing the unique ecosystems, flora and fauna of new areas. According to the article, the abundance of natural resources can support the practice of ecotourism in Uzbekistan, and such activities can bring more economic and social benefits to the country. Any difficulties should not be an obstacle to the development of ecotourism in Uzbekistan. Recommendations for popularization of ecotourism practice in the region are given.

Key words: ecotourism, environmental impact, sustainability, conservation awareness.

Annotatsiya: Ekoturizm uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash, mahalliy aholi va tashrif buyuruvchilar o'rtasida ekologik madaniyatni oshirishning asosiy vositasiga aylandi. Sayyohlar mazmunli sayohat tajribasiga ega bo'lish, jumladan, mahalliy aholi bilan muloqot qilish, ularning madaniyatini o'rganish va yangi hududlarning noyob ekotizimlari, flora va faunasini kuzatishda tobora murakkablashmoqda. Maqolada ta'kidlanishicha, tabiiy resurslarning ko'pligi O'zbekistonda ekoturizm amaliyotini qo'llab-quvvatlashi va bunday faoliyat mamlakatga ko'proq iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltirishi mumkin. Har qanday qiyinchilik O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishga to'sqinlik qilmasligi kerak. Viloyatda ekoturizm amaliyotini ommalashtirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: ekoturizm, atrof-muhitga ta'siri, barqarorlik, tabiatni muhofaza qilish xabardorligi.

Аннотация: Экотуризм стал ключевым инструментом повышения экологической осведомленности среди местных жителей и гостей города, обеспечивая долгосрочную устойчивость. Туристы становятся все более искушенными в получении содержательного опыта путешествий, включая взаимодействие с местным населением, изучение их культуры и наблюдение за уникальными экосистемами, флорой и фауной новых территорий. Согласно статье, обилие природных ресурсов может поддержать практику экотуризма в Узбекистане, и такая деятельность может принести стране больше экономической и социальной выгоды. Любые трудности не должны стать препятствием для развития экотуризма в Узбекистане. Даны рекомендации по популяризации практики экотуризма в регионе.

Ключевые слова: экотуризм, воздействие на окружающую среду, устойчивость, природоохранная осведомленность.

Tourism is an important part of the country's economy. In particular, domestic tourism and ecotourism have become one of the main sources of income in many countries today. Uzbekistan is also one of the countries with high tourism and recreational potential and rich in ecotourism opportunities. For this reason, special attention is paid to the development of ecotourism today.


Despite the fact that ecological tourism (ecotourism) is a new and young direction of tourism, the growth rate is 2-3 times faster than other tourism industries. At the same time, the share of ecotourism in the field of tourism is 15-20%, and this indicator is expanding year by year. The goal of ecotourism is to ensure environmental security and sustainable development of current and future generations through tourism. In this respect, ecotourism serves economic growth as an important direction of "green" economy. According to the analysis, tour operator companies providing ecotourism services mainly operate within the Chimyon-Chorvoq recreation zone. However, Uzbekistan's Hisar, Bobotog, Kohitangtog (Surkhandarya), Chakchar (Kashkadarya), Nurota (Navoi-Jizzakh), Zarafshan (Samarkand), Turkestan (Jizzakh), Oloy (Fergana), Kurama, Chotkal (Namangan) mountains, residual mountains in the Kyzylkum desert, Kyzylkum desert, dry bottom of the Aral Sea and shallow salt lakes, Ustyurt plateau, Borsa kelmas salt marsh, Mingbulok bog, Aydarko Organization of complex and thematic eco-tours along the banks of Dengizkol, Amudarya and Syrdarya, Muruntov quarry and unique

monuments of nature has not been fully implemented. Speleotourism (cave tourism) has great potential in Uzbekistan, which is rich in its own charm and unrepeatable scenery.

One of the directions of the development of the “green” economy is directly aimed at the development of ecosystems, their preservation, effective management and ecotourism. From this point of view, we can study ecological tourism as an important branch, tourism in harmony with nature.

At the moment, there are more than 500 caves in Uzbekistan, and according to information, eco-tours are not organized in any of them due to the lack of sufficient tourist infrastructure. In the deserts and plains of Uzbekistan, there are great opportunities to organize a camel ride aimed at viewing barkhans, dunes, forests, shorkhok, barrens, wells, as well as the grass that shows the way of life of local shepherds. Big Chimyon, Zomin, Chotkal, Koksuv, Piskom, Turkestan, Hisar, Zarafshan, Oloy, Kurama, Nurota mountains have natural geographical conditions for organizing hiking, trekking and mountaineering. Also, there are great opportunities for rafting tourism development in many rivers and streams flowing from the mountains (Ugom, Chotkal, Piskom, Koksuv, Topolondarya, Shakhimardon, Sangzor, Zarafshan, etc.). According to the information of scientific research institutions and experts, today the development directions and prospects of ecotourism are formed in connection with the laws of nature and the stability of geosystems.

Tashkent, Uzbekistan (UzDaily.com) - At the online summit of Central Asian countries and China held on January 25, 2022, the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev outlined a number of initiatives aimed at strengthening and expanding cooperation between the countries had done The head of state called the joint promotion of the “climate” agenda and “environmentally clean development” issues an urgent direction of mutual cooperation that meets the interests of all participants in this format, taking into account the increasing negative consequences of global warming and the importance of global warming. mobilizing efforts to mitigate the consequences. In this regard, Shavkat Mirziyoyev put forward the initiative to develop a “Road Map” for cooperation within the “Green Silk Road”, which is becoming one of the main directions of cooperation within the framework of the “One Place, One Road” initiative.



In particular, he proposed to include in the document issues of attracting Chinese investment and technologies to the field of alternative energy, localization of components and equipment for solar and wind power plants, as well as training of specialized personnel. The initiative put forward by the head of the state, in recent years, great efforts have been made to develop alternative energy sources, and this fully meets the interests of Uzbekistan, this approach is the main factor of sustainable development.

All of Shavkat Mirziyoyev’s lectures contain issues related to “green” development, initiatives aimed at its practical implementation, which once again emphasizes the relevance of this topic, the need for changes in all aspects of our life and economy. In the last five years, systematic measures have been implemented in Uzbekistan to adapt and mitigate the consequences of climate change, to protect the environment and biodiversity. In particular, the concept of environmental protection until 2030, the strategy of our country’s transition to a “green” economy in 2019-2030, the concept of water management development in 2020-2030, etc. were adopted.

Taking into account the proposals of Uzbekistan, the initiative to adopt the “Roadmap” for cooperation within the framework of the “Green Silk Road” and implement it in practice is the implementation of national

tasks and the transition to the “Green Silk Road”. will be an important contribution to the implementation of activities. The “green” direction, support for the development of the “Green Agenda for Central Asia” program announced by the President of Uzbekistan in 2021, and the implementation of the obligations of each country of the region to implement the Paris Agreement on climate change were considered.. Undoubtedly, China’s leading role in this is extremely important. The participation of this large and technologically advanced country in solving the “green” development issues of the Central Asian countries not only mitigates the consequences of climate change, but also ensures the transition of the countries of the region to a new technological order, and contributes to the stable and sustainable development of the economy and the whole of Central Asia contribute and ensure the transition to a new technological regime.

In the Strategy of the transition to a “green” economy of the Republic of Uzbekistan for the period of 2019-2030, approved by the decision of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-4477 of October 4, 2019, there is a strategy for adapting to and mitigating the consequences of climate change, increasing the efficiency of the use of natural resources, and protecting natural ecosystems. a number of tasks are presented. Also, the 15th goal of the National goals and objectives in the field of sustainable development until 2030 is “Protect and restore terrestrial ecosystems, promote their rational use, rational use of forests, combat desertification, stop and reverse land degradation, stop the process of biodiversity loss.” consists of This, in turn, is related to the effective use of tourist and recreational opportunities of the regions and the development of ecotourism. Thus, the ecotourism system is based on the principles that can be used in various types of tourist activities. They include educational or adventure trips (walking, horse riding, water, mountain, hiking, etc.), student vacations, ornithological tours, scientific tours and expeditions, recreational tours, children’s resorts, etc. takes Interest in ecotourism has arisen due to the growing demand for authentic tourist experiences and nature conservation. Summarizing the definitions given above, we can say that, in our opinion, ecotourism is a special field of tourism that adapts to natural, cultural and social values and promotes the harmony of nature in the natural environment and changes the lifestyle of local people.

The main factors that lead to the development of ecotourism combine nature tourism and its protection, and thus serve as an economic incentive for environmental protection. Another advantage is that it provides an opportunity to better understand and obtain more information about the relationship between wildlife and the various cultural values of society. The main task is to create a mechanism for the ecotourism industry to be commercially viable, ecologically sustainable, and culturally responsible. Tourism planners, tour operators, managers, marketing staff, and mass media have used the term “ecotourism” in a much broader sense. As a result, this concept was applied to a number of tourist products. Unfortunately, they logically do not fully correspond to the definitions given above.

Today, the development directions and prospects of ecotourism are formed in connection with the laws of nature and the stability of geosystems. The natural and climatic conditions and recreational resources of our country provide an opportunity to develop ecological tourism in accordance with each region. Today, attention is paid to the organization of ecotourism in protected natural areas. For information, it should be noted that in our country there are 6 state reserves, 1 complex (landscape) order reserve, 5 state national nature parks, 11 state nature monuments, 12 state order reserves, 1 state nature nursery, 2 state biosphere reserves., 1 national park, as well as 71 forestry farms and 5 hunting farms.

There are numerous benefits that countries of the world are trying to expand ecotourism in their areas. Since Uzbekistan is a young country, it has limited experience, competence, and market resources in ecotourism. To improve the situation we should figure out the problems and take measures. Uzbekistan is facing to numerous challenges in terms of ecotourism. Firstly, a low quantity of national parks. Countries which are best-known by their ecotourism facilities pay more attention to their national parks. The main principle of these parks is to rely on their own power and self-defense. Secondly, in Uzbekistan 50% of national parks are owned by private sector, while the rest 50% is run by the state. In ecotourism development park reserve model is a bit different: financing these national parks is not government support, but state support. This is widespread in developed countries. Even these half of national parks offer identical packages. Just objects of the display may differ. Most of them located in remote places and when a tourist visits such a long distance with dreaming about having a unique tour, but dissatisfaction might occur because of sameness.

In most cases, distance may prevent them from going to natural places. Because tourist season in Uzbekistan mostly in the summer period, thus the weather is not enough supportive, really hot and tourists prefer to visit nearer destinations. Thirdly, a low level of management. Unfortunately, there is no combined-tour packages for long distance tours. In most cases tourists who come with family members cannot find leisure activities for the whole family. It is difficult to find even alternative leisure activities there. Managing transport infrastructure is another issue for the country. The quality of transport service does not always meet the need of tourists, additionally some road conditions badly needed improving. Recently, in the vocabulary of employees of travel companies in Uzbekistan, the concept of “off season” has often appeared. Unfortunately, we have it not only in

winter, but also summer months as well. When all Europe traditionally goes to rest, there is a lull in the hotels of Uzbekistan. In the midst of summer holidays, the number of tourists in Uzbekistan sometimes does not exceed several dozen. The absence of their influx is usually motivated by climatic conditions. However, as you know, neither high temperature nor humidity does not stop tourists visiting Egypt, the United Arab Emirates and other hot countries. The study shows that the product on the market tourist services covers no more than 10% of the generally recognized attractions located in the traditional tourist centers of the country. (A. Ablaizov,2019) at the same time, in neighboring Kazakhstan where there are significantly fewer historical and architectural attractions than in Uzbekistan the flow of tourists is steadily increasing. Tour operators in Kazakhstan actively offer popular ecological tours. Wide variety of routes are offered including hiking, biking, river rafting. Tours on nature in Uzbekistan practically are not used. Finally, local people do not use opportunity of organizing eco tours. They have no knowledge how to organize and no special training programs to motivate people. Lack of practical and theoretical knowledge creates low level of specialists in the industry, this in turn affects negatively on tourism flow.

In conclusion, ecological tourism has a high role and importance in Uzbekistan's transition to a "green" economy and in the implementation of national goals and objectives in the field of sustainable development. There is still a lot of work to be done in this direction, which develops in harmony with nature, and there are many untapped opportunities. In this regard, development of ecotourism as an important branch of the "green" economy, formation of the ecotourism image of our country by attracting advanced foreign experiences and innovative technologies to the field is one of our main tasks. In Uzbekistan, the methods of creating recreational zones will be simplified, and ecotourism will be further developed.

The draft law "On amendments and additions to some legal documents of the Republic of Uzbekistan" considered by the deputies at the next plenary session of the lower house of the parliament refers to this. This document envisages changes and additions to the Land Code of the Republic of Uzbekistan, the laws "On Forests" and "On Protected Natural Areas". It is necessary for the effective and rational use of the land of the fund, the legal regulation of the leasing of land plots by the State Forestry Committee to legal entities and individuals on the basis of investment contracts or public-private partnerships. it was emphasized that the procedures for placement of bee families (hives) and farms by individuals in the plots of the forest fund should be simplified. This can only be achieved by amending the relevant legislation. As a result of the adoption of this draft Law, the effectiveness of the State Forestry Committee of the Republic of Uzbekistan will be ensured. In particular, a legal basis will be created for the provision of unused forest fund lands to legal entities and individuals for the implementation of investment contracts or projects based on public-private partnership for a period not exceeding 49 years. Also, the procedures for creating recreational zones on the territory of the forest fund will be simplified, and new opportunities will appear for the development of ecotourism.

References:

1. Vahabov AX and others. Green economy. Textbook. –T.: "Universitet", 2020. –296 p.
2. Khaitboyev R. Ecological tourism. Study guide. –T.: "Barkamol Fayz Media", 2018. –248 p.
3. Shamuratova NT Ecological tourism in Uzbekistan and its natural geographical aspects. Monograph. –T.: University, 2021. –139 p.
4. Types of Hotel Services. Alieva Makhbuba Toychievna, Odilova Sitora Ibrohimbek qizi. EUROPEAN JOURNAL OF LIFE SAFETY AND STABILITY (EJLSS) ISSN2660-9630 www.ejlss.indexedresearch.org
5. Development Directions of Sports Tourism in Uzbekistan. Alieva Makhbuba Toychievna. Tangirberganov Akmal Ikhtiyor Ugli. International Journal of Development and Public Policy | e-ISSN: 2792-3991 | www.openaccessjournals.eu
6. Toychievna, A. M.. (2022). Organizational and Economic Mechanism for the Development of Pilgrimage Tourism in Uzbekistan. Vital Annex : International Journal of Novel Research in Advanced Sciences, 1(4), 32–35. Retrieved from https://www.innosci.org/IJNRAS/article/view/295.
7. Алиева, М. (2020). Хизмат кўрсатиш соҳаси тармоқларини ривожлантириш истиқболари. Архив научных исследований, (13). file:///C:/Users/user/Downloads/243+246+The+Role+of+Agrotourism+in+the+Sustainable+Development+of+Rural+Areas+in+Uzbekistan.pdf
8. Aliyeva, M. T. (2020) Tourism in Uzbekistan: status, problems and prospects. Harvard Journal of Fundamental and Applied Studies, (1), 7 https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/2816/7026/63f647639f7f8_3366.pdf
9. Aliyeva, M. T. Organizational and Economic Mechanism for the Development of Pilgrimage Tourism in Uzbekistan. International Journal of Novel Research in Advanced Sciences (IJNRAS) Volume: 01 Issue: 04 | 2022 http://innosci.org ISSN: 2751-756X https://www.innosci.org/IJNRAS/article/view/295.
10. Prospects for the Development of the Tourism Sector in Uzbekistan.Central asian journal of theoretical and applied sciences volume: 03 issue: 09 | sep 2022 issn: 2660-5317 https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/924.



ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СЕЛЬСКОМ ТУРИЗМЕ: “ЗЕЛЕНЫЕ МАРШРУТЫ”

Голышева Елена Вячеславовна
Doctor of PhD, старший научный сотрудник,
директор Научно-исследовательского института
развития туризма при Комитете по развитию туризма

Аннотация: Одной из инновационных идей развития сельского туризма является внедрение системы “зеленых” маршрутов. В частности, привлечение туристов в сельские территории и особо охраняемые природные территории в соответствии с целями, направленными на развитие туризма. Это позволит увеличить доходы местных жителей, связанные с туристической деятельностью.
Ключевые слова: “зеленая” экономика, “зеленый” рост, стратегия развития, изменение климата, устойчивое развитие, туристическая деятельность.

Annotatsiya: Qishloq turizmini rivojlantirish bo‘yicha innovatsion g‘oyalardan biri “yashil” marshrutlar tizimini joriy etish sanaladi. Xususan, qishloq joylarga va alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga turistlarni jalb etish, turizmni rivojlantirishga qaratilgan maqsadlarga muvofiq. Bu esa turistik faoliyat bilan bog'liq mahalliy aholining daromadlarini oshiradi.
Kalit so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, “yashil” o‘sish, rivojlantirish strategiyasi, iqlim o‘zgarishi, barqaror rivojlanish, turistik faoliyat.

Abstract: One of the innovative ideas for the development of rural tourism is the introduction of a system of "green" routes. In particular, attracting tourists to rural areas and specially protected natural areas, in accordance with the goals aimed at the development of tourism. This will increase the income of local residents related to tourism activities.
Key words: "green" economy, "green" growth, development strategy, climate change, sustainable development, tourist activity.

Одной из инновационных идей развития сельского туризма в Узбекистане может стать внедрение концепции “зеленые маршруты”, которая ориентирована на привлечение и удержание туриста в сельской местности и особо охраняемых природных территориях (ООПТ), а также повышения уровня доходов местных сообществ (СВТ), связанных с туристской деятельностью. В отличие от массового туризма, “зеленые маршруты” предполагают активное общение туристов с местными жителями и погружение их в местную среду, и сочетают в себе элементы активного, познавательного и рекреационного туризма.

Концепция “зеленых маршрутов” решает ряд основных задач [1]:

- охрана и бережное использование природного и культурного наследия;
- развитие сельского туризма на основе сотрудничества на местном и региональном уровне;
- пропаганда краеведения и экологического просвещения, укрепление культурного и социального самосознания местного населения;
- восстановление и сохранение традиционных промыслов;
- вклад в оживление локальной экономики.

Идея создания “зеленых маршрутов” появилась в 1950-е годы в контексте формирования идеи активного и здорового образа жизни, развития рекреационных пеших и велосипедных троп. В настоящее время в США функционирует более 18 тыс. км “зеленых маршрутов”. Действуют сотни общественных организаций, занимающихся развитием идеи “зеленых маршрутов” на федеральном уровне, уровне штатов, региональном и локальном уровне (Рис. 1). В 2019 г. на “зеленых маршрутах” американцы заработали более 153 млрд. долл. США. В среднем турист, посетивший национальный парк в США, тратит 128 долларов за один визит. Кроме того, в этой отрасли занята значительная часть трудоспособного населения[2].

В странах Западной Европы идея “зеленых маршрутов” стала распространяться в конце 80-х – начале 90-х гг. Так, в 1997 г. в Намуре (Бельгия) была создана Европейская Ассоциация “зеленых

маршрутов” (European Greenways Association – EGWA), объединившая 35 участников – общественные организации и учреждения, занимающиеся созданием и продвижением “зеленых маршрутов” в европейских странах [Зеленые маршруты как инновационный метод развития экотуризма в Беларуси // http://padaroze.ru/zelenye-marshruty-kak-innovatsionnyi-metod-razvitiya-ekoturizma-v-belarusi]. В Центральной и Восточной Европе идею создания “зеленых маршрутов” первой подхватила Чехия – в 1990 г., а в 2000 г. была сформирована Программа Зеленых Маршрутов CEG – общественная инициатива, развивающаяся в регионе Центральной и Восточной Европы и реализуемая в рамках международного объединения “Экологическое партнерство для устойчивого развития”, которое составляет консорциум организаций, действующих в Польше (Фонд “Партнерство для окружающей среды”), Чехии, Словакии, Венгрии, Румынии и Болгарии. Сеть “зеленых маршрутов” Центральной и Восточной Европы в настоящее время располагает девятью маршрутами большой протяженности и несколькими локальными и городскими. Программа CEG пополняется новыми инициативами и партнерскими организациями из других стран региона, среди которых – Австрия, Германия, Украина, Сербия, Черногория, Босния и Герцеговина, Словения, Македония, Беларусь. С 2005 г. в рамках программы CEG присуждается ежегодная премия “зеленых маршрутов” – “greenways” им. Лоренса С. Рокфеллера – за лучшую инициативу “зеленого маршрута” в Центральной и Восточной Европе [1].




Рисунок 1: Зеленые маршруты США [3]

Узбекистан находится в самом начале пути развития и внедрения концепции “зеленый маршрут”, хотя республика обладает рядом перспективных конкурентных преимуществ, среди которых прежде всего – уникальные природные ландшафты, традиционное гостеприимство населения, наличие самобытной культуры, традиций, ремесел, желание местных жителей делиться всем этим с туристами, а также сохранившиеся в их аутентичном виде сельские территории (кишлаки, аулы, махалли), которые сложно найти в других странах.

В чем причина интереса к концепции “зеленые маршруты”? Во-первых, это эффективная платформа, объединяющая интересы большого числа людей. Благодаря “зеленым маршрутам”, развиваются сельские территории (кишлаки) и поселки городского типа, поскольку участники “зеленых маршрутов” оставляют в регионах часть средств для поддержки малых населенных пунктов. Во-вторых, вдоль “зеленых маршрутов” развивается инфраструктура – открываются кафе, музеи и экомузеи, маленькие гостиницы и гостевые дома. Благодаря притоку туристов, путешествующих по “зеленым маршрутам”, в регионах создаются новые рабочие места и развивается предпринимательство среди сельских жителей. В-третьих, программы “зеленых маршрутов” помогают решать и проблемы досуга городского населения.

Что такое “зеленый маршрут”? Это не просто туристский маршрут или тропа, связывающие между собой пункты размещения и объекты туристского показа, а целое направление, объединяющее в единое целое разнообразные и разнородные элементы маршрута. Такие маршруты объединяют регионы, туристские достопримечательности, поддерживают развитие “устойчивого туризма” и отдыха, благоприятного для окружающей среды и местного сообщества.

Классическое определение термина “зеленый маршрут” было сформулировано в докладе Президентской комиссии по делам рекреации в 1987 г., посвященном развитию в США сети “зеленых маршрутов”, так как они “открывают людям доступ к природным пространствам, которые недосягаемы для них в местах постоянного проживания, соединяют сельские и урбанизированные ландшафты, пересекая города и деревни”.

“Зеленые маршруты” несут четыре основные функции [4]:

1. **Немоторизированные транспортные средства и безопасность.** “Зеленые маршруты” пропагандируют немоторизированные формы передвижения и общественный транспорт, предпочитают такие виды передвижения, как пеший, велосипедный, конный, водный и т.п. “Зеленые маршруты” способствуют повышению безопасности на дорогах и развитию движения “без дви-

гателей” в городах и сельской местности, в том числе для людей с ограниченными физическими возможностями, людей старшего возраста и детей.

2. **Пропаганда здорового образа жизни.** “Зеленые маршруты” пропагандируют здоровый образ жизни, способствуют повышению качества жизни местных жителей и посетителей, рекламируют активные виды туризма, отдых, восстановление сил и релаксацию, занятие любимыми видами спорта на свежем воздухе и на лоне природы.
3. **Развитие экотуризма и охрана природного и культурного наследия.** “Зеленые маршруты” являются основой для практического развития туризма в благоприятном для окружающей среды направлении, в том числе для создания и продвижения сельского туристского продукта. Все туристские продукты на “зеленых маршрутах” объединяет одно условие – поддержка местных сообществ и использование их потенциала. Это туристские услуги, основанные на предложении местной национальной кухни, продукции местного производства и точках ее распространения, а также общественные инициативы. Благодаря “зеленым маршрутам”, локальные инициативы “снизу” по охране природы, ландшафта и культурного наследия вырастают в региональные и национальные.
4. **Поддержка развития местной экономики и рост предпринимательства.** “Зеленые маршруты” вносят вклад в развитие местной экономики и рост предпринимательства в местных сообществах. Создание “зеленых маршрутов” инициирует развитие гостиничной базы (гостевых домов), гастрономических услуг (предприятий питания), деятельность локальных экскурсоводов и инструкторов-проводников. На маршрутах открываются галереи и точки продажи продукции местного производства (например, сувениров, продуктов питания и др.), центры туристской информации, пункты проката спортивного и туристского оборудования и т.д.

В мировой практике выделяют три категории “зеленых маршрутов”, к которым предъявляются общие (Табл. 1) и специальные (Табл. 2) критерии[5].

Таблица 1: Категории зеленых маршрутов и общие критерии, предъявляемые к ним

Категории “зеленых маршрутов”	Характеристика категорий	Общие критерии, предъявляемые к “зеленым маршрутам”
Большой протяженностью (Long-distance Greenways) (несколько сотен км)	Объединяют различные регионы с сохранившимися характерными чертами природного и историко-культурного наследия. Направлены на развитие познавательного, событийного, образовательного, экологического туризма в форме велотуризма в сочетании с водными, пешеходными, конными тематическими петлями. Длительность путешествия, в зависимости от используемого транспорта, может составлять от 3 до 10 и более дней.	– маршрут должен иметь тематическую направленность, название, содержащее слова “зеленый маршрут” или greenways, логотип, девиз; – маршрут должен иметь информационную систему вдоль трассы (аншлаги, указатели, элементы маркировки, информационные центры и пункты и т.д.); – информация о маршруте должна распространяться в виде листовок, буклетов, картосхем, путеводителей, приветствуется создание веб-сайта маршрута; – маршрут должен отвечать требованиям обеспечения безопасности, особенно в отношении велосипедистов и пеших туристов, лиц с ограниченными физическими возможностями; – маршрут развивается и управляется ведущим координатором (организацией, учреждением, территориальным органом самоуправления и т.д.) с согласия и при взаимодействии с другими партнерами в регионе; – маршрут является составной частью уже существующих или разрабатываемых стратегий и планов развития туризма и транспортной системы в районе, должен вписываться в коммуникационную и туристскую сеть региона и отдельных сельских советов, быть связан с системой общественного транспорта.
Локальные (Local Greenways) (протяженностью несколько десятков км)	Пролегают, как правило, по природным и сельским территориям в пределах одного или нескольких соседних районов, создаются для развития познавательного туризма и отдыха в форме пешеходного, велосипедного, водного, конного, лыжного туризма. Длительность путешествия, как правило составляет 1-2 дня.	
Городские “зеленые маршруты” (Urban Greenways) (протяженностью несколько км)	Создаются для отдыха городского населения в водно-зеленых зонах (парках, скверах) и ознакомления с их достопримечательностями, организации безопасного и удобного передвижения людей посредством немоторизованного транспорта, в т.ч. семей с малолетними детьми, людей пожилого возраста, лиц с ограниченными физическими возможностями.	

Таблица 2: Категории “зеленых маршрутов” и специальные критерии, предъявляемые к ним

Категории “зеленых маршрутов”	Специальные критерии по инфраструктуре	Специальные критерии по функционированию
Большой протяженностью (Long-distance Greenways) (несколько сотен км)	– “зеленый маршрут” соединяет природные и культурные достопримечательности, интересные места с краеведческой, природной, культурной, исторической и социальной точек зрения (расстояние не должно превышать 15 км, для оборудованных мест – 10 км); на маршруте имеются места для отдыха – объекты с гостиничным и гастрономическим сервисом (как минимум каждые 20 км); – маршрут проходит по безопасным дорогам, отделенным от движения автотранспорта, или по дорогам общего пользования с низкой интенсивностью движения; – как минимум 90% велосипедного маршрута проходит по дорогам с уплотненным покрытием, позволяющим передвижение на велосипеде в любое время года.	– в каждом населенном пункте и возле туристских достопримечательностей, где проходит маршрут, находится как минимум один информационный аншлаг или информационный экологический знак “зеленого маршрута”; – туристские достопримечательности и другие объекты маршрута располагаются по его основной трассе либо туда можно легко добраться по обозначенным на маршруте тематическим петлям; – на маршруте находится как минимум один пункт продажи изделий народных промыслов; – на маршруте находится как минимум один пункт дегустации блюд местной или региональной кухни; – на маршруте есть возможность ознакомиться и посетить как минимум одну местную инициативу, направленную на охрану и интерпретацию природного и культурного наследия; – на маршруте можно воспользоваться как минимум одной туристской услугой, предлагаемой местным или региональным туроператором.
Локальные (Local Greenways) (протяженностью несколько десятков км)	– зеленый маршрут соединяет локальные природные и культурные достопримечательности, интересные места с краеведческой, природной, культурной, исторической и социальной точек зрения (расстояние не должно превышать 10 км, для оборудованных мест – 5 км); – на маршруте есть места для отдыха – объекты с гостиничным и гастрономическим сервисом (как минимум каждые 15 км); – на маршруте должны размещаться информационные аншлаги на “точках входа”: при кольцевой форме маршрута устанавливают один аншлаг, при линейной форме – два аншлага; – подъезд к началу маршрута возможен на общественном транспорте; – на маршруте должна быть как минимум одна оборудованная стоянка для отдыха и/или остановки, оборудованный туалетом и источником питьевой воды; – маршрут должен проходить через центры населенных пунктов, или центр населенного пункта должен быть начальной точкой маршрута.	
Городские “зеленые маршруты” (Urban Greenways) (протяженностью несколько км)	– маршрут представляет собой трассу, отделенную от дороги для автотранспорта; – маршрут имеет незначительный уклон, что предоставляет условия для передвижения людей с ограниченными физическими возможностями, в т.ч. передвигающихся на инвалидных колясках; – как минимум 90% маршрута для передвижения на немоторизованных транспортных средствах (велосипедах, роллерах) составляет уплотненная поверхность; – на маршруте должны размещаться информационные аншлаги на “точках входа”, при кольцевой форме маршрута устанавливают один аншлаг, при линейной форме – два аншлага; – на маршруте должна быть как минимум одна оборудованная стоянка для отдыха, а также туалеты, отвечающие нормам доступности для лиц с ограниченными возможностями.	

На “зеленом маршруте” как сложном многофункциональном образовании должны отражаться следующие элементы:

Общая идея и тематика маршрута.	Это первая основополагающая составляющая, которая должна объединить в единое целое разнообразные элементы маршрута. Общая идея выражается в названии, логотипе, схеме – разработанных и принятых совместно всеми партнерами создаваемого “зеленого маршрута”. Название и логотип маршрута в дальнейшем размещаются на всей туристской продукции, имеющей отношение к данному маршруту.
Главная ось маршрута, сеть тематических троп и локальных петель.	Должны быть определены существующие или специально подготовленные, безопасные для немоторизованного передвижения трассы, которые соединяют ценные объекты природного и культурно-исторического наследия, гостевые дома, места отдыха, местные инициативы, рекомендованные для посещения на “зеленом маршруте” и его тематических петлях.
Информационное продвижение и поддержка маршрута.	Подготовка, издание и распространение рекламно-информационных материалов, информационных аншлагов и экологических знаков, создание веб-сайта, размещение информации в СМИ и интернете.
Малая инфраструктура вдоль маршрута.	Оборудованные места для отдыха, гостевой дом и иные объекты размещения и питания, пункты оказания медицинской помощи, информационные центры, аншлаги единого образца с картосхемой и логотипом маршрута, информационные экологические знаки и др.
Туристский продукт, соответствующий принципам устойчивого развития.	Комплексный набор предлагаемых туристам товаров и услуг (размещение, питание, транспортное и экскурсионное обслуживание, прокат снаряжения, продажа сувенирной продукции).
Партнерство всех заинтересованных сторон, координация создания, функционирования и развития “зеленого маршрута”.	Каждый маршрут формируется группой партнеров, состоящей из общественных организаций, представителей местных органов самоуправления, владельцев гостевых домов, предпринимательских структур. Партнеры подписывают меморандум партнерства, согласно которому его участники, действуя автономно, совместно реализуют практические многоплановые акции для развития “зеленого маршрута”, рекламируя его и разделяя между собой расходы, ответственность, риски и прибыль. Обязанности каждого из партнеров принимаются ими добровольно, регистрируются уполномоченными на то лицами согласно соответствующим формальностям. Партнеры выбирают главного координатора маршрута и при необходимости – локальных координаторов, помощников.
Местные инициативы по охране и интерпретации природного и культурного наследия.	Насыщенность локальными инициативами, осуществляемыми местными сообществами, является одной из главных особенностей “зеленых маршрутов”. Наиболее популярными местными инициативами являются историко-этнографические праздники, фестивали, ярмарки, мастер-классы ремесленников, магазины-галереи изделий народного творчества, гостевые дома, экологические центры и музеи.

Процесс создания “зеленых маршрутов” включает в себя определенный алгоритм логически последовательных этапов и шагов по разработке, открытию, эксплуатации, и постоянному улучшению их деятельности. Каждый этап требует решения своих специальных задач [1]:

Этап 1. Организационный:

- формирование инициативной группы для разработки “зеленого маршрута” и поиск партнёров;
- определение тематики и географического положения, разработка концепции развития маршрута;
- определение координатора маршрута;
- выбор названия маршрута и разработка его логотипа;
- проведение инвентаризации природных и историко-культурных достопримечательностей, объектов художественной и познавательной ценности, объектов гостиничного сервиса и общественного питания, традиционных промыслов, а также местных инициатив, на основе которых планируется создание маршрута;
- составление списка партнеров, осуществляющих туристскую деятельность в зоне “зеленого маршрута”, формирование банка коммерческих предложений туристского продукта, который может быть реализован в рамках маршрута;

- информирование местных органов управления территорий и населенных пунктов о разработке проекта и определение форм сотрудничества с ними (в случае, если местные органы управления не являются инициатором разработки маршрута);
- подготовка инструкторов-проводников, осуществляющих экскурсионную деятельность на “зеленых маршрутах”;
- поиск финансовых ресурсов для осуществления проекта.

Этап 2. Создание инфраструктуры на зеленом маршруте:

- разработка технического проекта маршрута;
- обозначение основных участков маршрута на местности с использованием разработанного логотипа и маркировочных знаков;
- оборудование информационными знаками, аншлагами, стендами, указателями, элементами рекреационного благоустройства;
- подключение к инициативам по созданию маршрута владельцев гостевых домов и представителей предприятия питания;
- поиск финансовых возможностей для поэтапного строительства дорожек для пешеходов и немоторизованных транспортных средств, в том числе инвалидных колясок и др.

Этап 3. Формирование и продвижение туристского продукта:

- разработка, издание и распространение карты “зеленого маршрута” и других рекламных материалов;
- создание веб-сайта маршрута, либо отдельный раздел о маршруте помещается на сайте органов местного самоуправления, государственных природоохранных учреждений, турагентов или туроператоров и других субъектов, осуществляющих туристскую деятельность на “зеленом маршруте”.

В заключении отметим, что внедрение концепции “Зеленые маршруты” позволит привлечь внимание не только иностранных и местных туристов к сельской местности Узбекистана, но и инвесторов, а также позволит решить ряд инновационных подходов к развитию сельских территорий.

Список используемой литературы:

1. Голышева Е.В. Сельский туризм: от теории к практике. – Ташкент: Bookmany print, 2022.
2. Эксперты считают, что создание “зеленых маршрутов” – хороший способ диверсификации белорусской экономики // https://www.tio.by/info/novosti/15204.
3. Fabo J. G. Greenway planning in the United States: its origins and recent case studies // https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0169204603001610.
4. Клицунова В.А. Стр. Агротуризм: учеб. –метод. пособие. –Минск: РИПО, 2014.
5. Бизнес в агро – и экотуризме: пособие / Под общ. ред. к.г.н., доц. А. И. Тарасенка. – Минск, 2014.



MAMLAKATIMIZDA “YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Vaxabov Abduraxim Vasikovich
I.f.d., O‘zbekiston Milliy universiteti Makroiqtisodiyot kafedrasi mudiri, professor

Nazarov Nazirjon Narzilloyevich
Alfraganus university, O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari, sohalari va vazifalarining mazmun, mohiyati haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Ustuvor yo‘nalishlar sifatida energiya samaradorligi, qaytatiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish hamda “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlari to‘g‘risida bayon etilgan. Shu bilan birga, strategiyani amalga oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari hamda 2030-yilgacha bo‘lgan vaqt davomida har bir yo‘nalishlar bo‘yicha kutilayotgan natijalar maqoladan o‘rin egallagan.

Kalit so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, “yashil” o‘sish, rivojlantirish strategiyasi, iqlim o‘zgarishi, barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi.

Abstract: The article presents opinions on the content and essence of the priority directions, areas and tasks of the strategy of transition to a "green" economy. Energy efficiency, development of renewable energy sources, adaptation to the consequences of climate change, improvement of water use efficiency and financial and non-financial mechanisms of supporting the green economy were described as priority directions. At the same time, the target indicators of the implementation of the strategy and the expected results in each direction until 2030 have taken place in the article.

Key words: "green" economy, "green" growth, development strategy, climate change, sustainable development, energy efficiency.

Аннотация: В статье дается обратная связь по содержанию, сути приоритетов, направлений и задач стратегии перехода к “зеленой” экономике. В качестве приоритетов заявлено о финансовых и нефинансовых механизмах повышения энергоэффективности, развитии возобновляемых источников энергии, адаптации к последствиям изменения климата, повышении эффективности водопользования и поддержке зеленой экономики. При этом из статьи были взяты целевые показатели реализации стратегии, а также ожидаемые результаты по каждому направлению на период до 2030 года.

Ключевые слова: “зеленая” экономика, “зеленый” рост, стратегия развития, изменение климата, устойчивое развитие, энергоэффективность.

KIRISH

O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotning isloh qilishda barcha jabhalarda tub o‘zgarishlar davom etmoqda. Bugungi kunda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish – iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, uning raqobatbardoshligini oshirish va mamlakatni barqaror rivojlantirish sharti sifatida qaralmoqda.

Qayd etish joizki, “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning asosiy maqsadlari sifatida iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste’mol qilish hamda global iqlim muammolariga moslashishni kiritish mumkin. Mazkur belgilangan maqsadlarga erishish uchun esa texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish talab etiladi. Bu borada mamlakatimizda iqlimning o‘zgarishi sharoitida samarali, resurs tejamkor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta’minlashda “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident Qarori qabul qilindi [1]. O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish zaruriyati milliy iqtisodiyotga iste’mol qilinayotgan energiyaning aksariyat qismi tiklanmaydigan tabiiy resurslardan foydalanib ishlab chiqarilayotganligi, ushbu resurslar zaxirasining cheklanganligi, sanoatning jadal sur’atlarda rivojlanishi oqibatida atrof-muhitning ifloslanishi, suv

tanqisligi, Orol dengizining qurib borishi bilan bog‘liq ekologik muammolarning keskinlashib borayotganligi bilan izohlanadi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, tarkibiiy o‘zgarishlarning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish ichki va global jarayonlar hamda muammolarni hisobga olishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Yashil” iqtisdiyotni rivojlantirishda ekologik muammolarni amaldagi iqtisodiy munosabatlar doirasida hal etish va xalqaro darajada umumlashtirish bo‘yicha xorijiy olimlardan S. Beder (2011-y.), Ye.R Lindal va J.R. Xikslar (2014-y.), atrof-muhit iqtisodiyoti va ekologiya iqtisodiyotining rivojlanishi asosida ilgari surilgan tamoyillarining iqtisodiy siyosatga joriy etilishi natijasida “yashil” iqtisodiyot tushunchasini shakllanishi bo‘yicha N.I.Ivanova va O.V.Bogachevalar (2017-y.) ilmiy izlanishlar olib borganlar [5].

O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning zarurati, baholash indikatorlari, “yashil” iqtisodiyotni ta’minlash modellari hamda mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari bo‘yicha mahalliy olimlardan A.V. Vaxobov va Sh.X. Xajibakiyevlarning (2020y.) darsligi va monografiyalarida keltirilgan. Barqaror taraqqiyotga erishishda ekologik muammolarni oldini olishning ilmiy asoslari bo‘yicha A.E. Ergashev (2016y.) kitoblarida o‘z aksini topgan [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning uzoq muddatli kompleks chora-tadbirlari tizimi BMT tashabbusi bilan 2030-yilgacha mo‘ljallangan barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohang ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasi 2015-yildan keyingi davrda BMT tomonidan 2030-yilgacha mo‘ljallangan 17 ta maqsadlar va 169 ta vazifalardan iborat barqaror rivojlanish dasturini qo‘llab-quvvatlab, barqaror rivojlanish sohalari bo‘yicha kompleks ishlarni olib borishini ma’lum qildi [1].

- arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan barcha uchun umumfoydalanish imkoniyatini ta’minlash borasida 2030-yilgacha jahon energetika muvozanatida tiklanuvchan manbalardan olinadigan energiya ulushini jiddiy ravishda ko‘paytirish;
- energiya samaradorligini kuchaytirish bo‘yicha ko‘rsatkichni ikki baravar oshirish; zamonaviy va barqaror energiya bilan ta’minlash uchun infratuzilmani kengaytirish va texnologiyalarni modernizatsiya qilish vazifalari belgilangan (7-maqsad);
- iqlim o‘zgarishiga aks ta’sir choralarini milliy darajada siyosatga, strategiyaga va rejalashtirishga kiritish hamda iqlim o‘zgarishi oqibatlarining oldini olish, ularga moslashish va xafli iqlim hodisalarining tavakkalchiligidan erta ogohlantirish bo‘yicha xabardorligini hamda imkoniyatlarini yaxshilash (13-maqsad);

BMTning Barqaror rivojlanish dasturi doirasida, jamlangan barqaror va keng qamrovli iqtisodiy o‘sish, to‘liq ishlab chiqarish bandligi va barcha uchun munosib ish bilan bandlikka (8-maqsad) ko‘maklashish hamda egiluvchan infratuzilmani yaratish, keng qamrovli va barqaror industriallashtirish hamda innovatsiyalarni rag‘batlantirish (9-maqsad) qayd qilingan.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish, jumladan, Parij bitimi majburiyatlarini bajarish maqsadida 2019-yil 4-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-sonli Qarori qabul qilindi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Strategiyadan ko‘zlangan maqsad mamlakatda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy islohotlarga “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali ijtimoiy rivojlanishga, issiqxona gazlarining ajratmalari darajasini pasaytirishga, iqlim va ekologiya barqarorligini ta’minlovchi mustahkam iqtisodiy taraqqiyotga erishishdan iborat.

Strategiya maqsadlariga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish zarur:

- texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
- davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo‘nalishlariga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan “yashil” mezonlarni kiritish;
- davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali “yashil” iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishlari bo‘yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish;
- ta’limga investitsiyalar kiritishni rag‘batlantirish, yetakchi xorijiy ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlari bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;
- Orolbo‘yidagi ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish choralarini ko‘rish;

- “yashil” iqtisodiyot sohasida, shu jumladan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar tuzish orqali hamkorlikni mustahkamlash.
- iqtisodiy hisob tizimiga ekologik va ijtimoiy mezonlarni kiritish;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish uchun “yashil” vositalar va yondashuvlarni qo‘llash ustuvorligi;
- milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirish va ko‘rsatkichlarni yaxshilash, “yashil” ish o‘rinlarini yaratish, aholining farovonligini oshirish orqali mavjud makroiqtisodiy maqsadlarga erishish;
- resurslardan samarali foydalanish tadbirlarining investitsion jozibadorligini ta’minlash.



1-rasm: 2019-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining ustuvor o‘ynalishlari [2]

Yuqorida qayd etib o‘tilgan maqsad va vazifalarga erishish milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va aholi turmush sifatini yaxshilash bilan bir vaqtda “yashil” iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanish yo‘liga o‘tish imkonini yaratadi.

2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining to‘rtta ustuvor yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, asosiy e’tibor energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o‘zlashtirish, iqlim o‘zgarishlari oqibatlariga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilganligini kuzatish mumkin (1-rasm).

Strategiyada belgilangan birinchi ustuvor yo‘nalish bo‘yicha iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini 2030-yilga qadar 2 baravarga oshirish vazifasi qo‘yilgan. Jumladan, ushbu maqsadga sanoat korxonalari infratuzilmasini modernizatsiyalash, sof va ekologik xavfsiz texnologiyalar va sanoat jarayonlaridan yanada keng foydalanish hisobiga energiya samaradorligini 20%dan kam bo‘lmagan miqdorga oshirish, motor yoqilg‘isi va avtotransport vositalari ishlab chiqarishni energiya samaradorlik va ekologik jihatdan yaxshilash, elektr transportni rivojlantirish hisobiga erishish rejalashtirilgan (1-jadval).

1-jadval: Strategiyani amalga oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari [3]

Maqsadli ko‘rsatkichlar	Kutilayotgan natija
Issiqxona gazlarining YAIMga nisbatan solishtirma ajratmalarini qisqartirish	2010-yildagi darajadan 10%ga qisqartirish
Energiya samaradorligini oshirish	Ikki baravari
Tiklanadigan energiya manbalarini yanada rivojlantirish	Umumiy elektr energiya ishlab chiqarish hajmining 25% idan ko‘prog‘iga yetkazish
Aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini zamonaviy, arzon va ishonchli energiyadan foydalanish imkoniyatini yaratish	100% gacha
Sanoat korxonalari infra tuzilmasini modernizatsiyalash, sof va ekologik xavfsiz texnologiyalar va sanoat jarayonlaridan yanada keng foydalanish hisobiga ularning barqarorligini ta’minlash	Energiya samaradorligini 20 foizdan kam bo‘lmagan miqdorga oshirish
Motor yoqilg‘isi va avtotransport vositalari ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanishni kengaytirish, elektr transportni rivojlantirish	Energiya samaradorlik va ekologik jihatdan yaxshilash
Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish	1 mln. gektargacha maydonda tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etish va ularda yetishtiriladigan ekinlar hosildorligini 20-40%gacha oshirish
Yerlarning tanazzulga uchrashish darajasini pasaytirish	Neytral balansga erishish
Asosiy qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish	O‘rtacha hosildorligini 20-25%gacha oshirish

Mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda energiya resurslari iste’molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish ikkinchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Ushbu maqsadga erishishda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o‘zlashtirish, binolarni qurish va ulardan foydalanish, transport sohasi hamda qurilish materiallari ishlab chiqarishda energiya iste’molini diversifikatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirish hisobiga ushbu energiya manbalari ulushini umumiy elektr energiya ishlab chiqarish hajmining 25%idan ko‘prog‘iga yetkazish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining zamonaviy, arzon va ishonchli energiyadan foydalanish imkoniyatini 100%ga yetkazish vazifalari belgilangan (1-jadval).

Uchinchi ustuvor yo‘nalish iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash muammolarini qamrab oladi. Suv xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi, qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish hamda Orolbo‘yidagi ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish choralari uchinchi ustuvor yo‘nalish sohalari hisoblanib, quyidagilar mazkur yo‘nalishning maqsadli ko‘rsatkichlari hisoblanadi:

- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etish va ularda yetishtiriladigan ekinlar hosildorligini 20-40%gacha oshirish;
- yerlarning tanazzulga uchrashi bo‘yicha neytral balansga erishish;
- asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘rtacha hosildorligini 20-25%gacha oshirishga erishish [4].

To‘rtinchi yo‘nalish “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish masalalariga qaratilgan bo‘lib, “yashil” texnologiyalarni joriy etishning institutsional asoslarini rivojlantirish, “yashil” iqtisodiyot sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, energiya samaradorligini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini rivojlantirish, “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini ta’lim va fanga integratsiya qilish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun salohiyatni oshirish va qulay muhit yaratish, “yashil” investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash kabi sohalarni qamrab oladi. Strategiyaning muhim vazifalari va ustuvor yo‘nalishlari milliy, tarmoq, soha rejalari va rivojlanish strategiyalarida belgilangan tadbirlar vositasida amalga oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va ekologik muammolarni tezroq bartaraf etish uchun energoresurslar, suv va yerdan tejamkorlik bilan foydalanish, ekologik toza muqobil elektr energiyani ishlab chiqarish va chiqindilarni qayta ishlashga investitsiya kiritish, davlat xususiy-sheriklik tamoyilini kuchaytirish bugungi kunda eng dolzarb vazifalar hisoblanadi. Kelgusida uzoq muddatli istiqbolda barqaror ish o‘rinlarini yaratish uchun “yashil” iqtisodiyotga o‘tish davrida xodimlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, shuningdek, ularning “yashil” o‘sish bo‘yicha salohiyatini oshirish va inson kapitalini rivojlantirish lozim. Umuman olganda, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish keng qamrovli, o‘nlab yo‘nalishlarga ega bo‘lgan ko‘p tarmoqli murakkab jarayon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktyabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 841-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 4-oktyabr, PQ-4477-sonli qarorining 1-ilovasi asosida tayyorlandi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarori.
4. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. “Yashil” iqtisodiyot. Darslik. –Toshkent.: “Universitet”, –2020. –262 b.
5. Lange, Glenn-Marie, Quentin Wodon, and Kevin Carey, eds. 2018. The Changing Wealth of Nations 2018: Building a Sustainable Future. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-1046-6. P.8
6. http://siteresources.worldbank.org/EXTSDNET/Resources/Inclusive_Green_Growth_May_ 2012.pdf.
7. https://sustainabledevelopment.un.org/index.php?menu=1446.
8. Inclusive Green Growth the Pathway to Sustainable Development/ The World Bank page-48.
9. https://www.unenvironment.org.

TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH OMILLARI



A.Yu. Mardanov
Oriental universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish imkoniyatlari va unga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar tahlil etilgan. Jumladan, paxta xomashyosini yetishtirishdan tayyor mahsulot yaratishgacha bo‘lgan qo‘shilgan qiymat zanjirining rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish orqali tarmoq iqtisodiyotini mustahkamlash masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat; to‘qimachilik sanoati; paxta xomashyosi; xomashyoni qayta ishlash; qo‘shilgan qiymat zanjiri; tayyor to‘qimachilik mahsulotlari; ichki iste’mol; eksport; sanoat – 4.0.

Abstract: The article analyzes the development opportunities of the textile industry, one of the important sectors of the economy of the Republic of Uzbekistan, and the main factors affecting it. In particular, issues of strengthening the economy of the sector by improving the organizational and economic mechanisms of the development of the added value chain from the cultivation of raw cotton to the creation of finished products have been studied.

Key words: industry; textile industry; raw cotton; processing of raw materials; added value chain; ready-made textile products; internal consumption; export; industry - 4.0.

Аннотация: В статье анализируются возможности развития текстильной промышленности, одной из важных отраслей экономики Республики Узбекистан, и основные факторы, влияющие на нее. В частности, изучены вопросы укрепления экономики отрасли за счет совершенствования организационно-экономических механизмов развития цепочки добавленной стоимости от выращивания хлопка-сырца до создания готовой продукции.

Ключевые слова: промышленность; текстильная промышленность; хлопок-сырец; переработка сырья; цепочка добавленной стоимости; готовые текстильные изделия; внутреннее потребление; экспорт; промышленность - 4,0.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimiz uchun eng muhim masalalardan biri, sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirish orqali ishlab chiqarish va aholining sanoat mahsulotlariga o‘sib borayotgan talabini qondirish hisoblanadi. Bu sanoat mahsulotlari bilan ichki bozorni to‘ldirish va eksportga chiqarish orqali mamlakat valyuta zaxiralarini mustahkamlashga zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish; sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash; sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish; ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash; ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish; yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, texnoparklar va kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish vazifalari belgilab berilgan [1].

Respublikamizda so‘nggi yillarda sanoatning muhim tarmoqlaridan biri - to‘qimachilik sanoatini jadal rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “to‘qimachilik, charm-poyabzal, farmasevtika, elektrotexnika, kimyo va neft-kimyo, qurilish materiallari, oziq-ovqat sanoatlari va boshqa ko‘plab sohalardagi qayta ishlash darajasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga hamda eksportning yillik hajmini salkam 20 milliard dollarga yetkazishga muvaffaq bo‘ldik” [2].

Shundan kelib chiqib mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida to‘qimachilik sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirish imkoniyatlarini atroflicha tadqiq etish asosida bu borada tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

To‘qimachilik sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirishning nazariy asoslarini tadqiq etish ustida xorijlik va respublikamizning ko‘pgina iqtisodchi olimlari tadqiqotlar olib borishgan.

O.A.Davronovga ko‘ra “O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i va mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi” [4].

Ch.G.Nosirova fikricha “to‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish uchun strategik ahamiyatga ega. O‘zining yirik xom ashyo bazasi, yengil sanoatning mehnat zichligi, qo‘shni mamlakatlarda nisbatan katta bozor mavjudligi O‘zbekistonda to‘qimachilik va tikuvchilik ishlab chiqarishini rivojlantirishni salohiyatli o‘sish omillaridan biriga aylantiradi. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish, mamlakatimizda kuchli to‘qimachilik va tikuvchilik tarmog„ini yaratish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir” [5].

S. X. Abdullayeva va G. M. Davlyatovalarni ta’kidlashicha “to‘qimachilik sanoati korxonalari oldida jahon bozorida talab qilinadigan mahsulotlar uchun zaruriy xom ashyoni qayta ishlashning ketma-ket bosqichli sikllarini joriy etish kabi global muammo mavjud bo‘lib, ushbu jarayon asosan xom ashyoga quyidagi sxema bo‘yicha ishlov berish bilan amalga oshiriladi: birlamchi qayta ishlash (yarim tayyor mahsulotlar) – sanoat ishlab chiqarish uchun tayyor materiallar – yakuniy iste’mol uchun tayyor mahsulotlar [6].

To‘qimachilik sanoatini rivojlantirish muammolari ustida tadqiqot olib borgan olimlar qatoriga, shuningdek Ortiqov A. O., R.S. Muratov, Djalalova I. A., Maxmudov E. X., Oripov S. Sh., Isakov M. Yu., Yuldasheva Sh., Karabaeva G. SH., Najimaddinov R. D. va boshqalarni ham kiritish mumkin [7; 8; 9; 10; 11;12;13].

Ammo, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida to‘qimachilik sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirish masalalari yetarli darajada o‘rganilmaganligi ushbu tadqiqot mavzusining tanlanishiga sabab bo‘ldi.

MAVZU METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, qiyosiy va tizimli tahlil, monografik kuzatuv, iqtisodiy-statistik va boshqa usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning axborot bazasi sifatida to‘qimachilik sanoatini tartibga solib turuvchi qonuniy va me’yoriy hujjatlar, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklarning tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlari, Davlat statistika agentligi ma’lumotlari xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamiz iqtisodiy taraqqiyotida to‘qimachilik sanoatining ahamiyati tobora oshib bormoqda. Hozirgi kunga kelib, to‘qimachilik sanoati sanoat yalpi mahsulotning 14,9 foizi yaratilmoqda (1-jadval).

Keltirilgan ma’lumotlardan ma’lumki, 2018-2022-yillarda o‘tgan yillarga nisbatan to‘qimachilik sanoati mahsuloti ishlab chiqarishning o‘rtacha yillik o‘sish sur’atlari 10,3 %ni tashkil etgan. Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 14,5 dan 14,9 % ga oshgan.

To‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini 2018-2022-yillarda natura ko‘rinishida ishlab chiqarishda ip-kalava 54,8, gazlamalar 10,7, trikotaj mahsulotlari 57,3, tikuv mahsulotlari 53,9, chulki-paypoq mahsulotlari 76,2, gilam va gilam mahsulotlari 33,2 %ga oshganligi ijobiy holdir (1-jadval).

1-jadval: Respublikada to‘qimachilik sanoatini rivojlanish dinamikasi

Qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari	O‘lchov birligi	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y	2022-y. 2018-y.ga nisb., % da
To‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish indeksi, o‘tgan yilga nisbatan foizda	%	105,4	104,9	113,8	118,8	108,8	+3,4 f.p.
To‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishni sanoat mahsu-lotidagi ulushi	%	14,5	12,6	13,2	14,9	14,9	+0,4 f.p.
To‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini natura ko‘rinishida ishlab chiqarish							
Ip-kalava	ming t.	427,9	528,6	614,8	789,0	662,3	154,8
Gazlamalar	mln. m²	533,3	470,4	607,8	590,8	590,4	110,7
Trikotaj mahsulotlari	mln dona	319,7	266,1	286,0	481,3	455,6	253,2
Trikotaj polotnosi	ming t.	60,5	54,1	97,3	75,1	95,2	157,3

Tikuv mahsulotlari	mlrd so‘m	2873,8	3216,8	4080,9	4679,8	4424,1	153,9
Chulki-paypoq mahsulotlari	mln. juft	117,0	126,4	155,0	219,8	206,2	176,2
Poyabzal	mln. juft	12,7	21,6	27,6	26,5	24,0	189,0
Gilam va gilam mahsulotlari	mln m²	45,1	43,9	54,4	66,3	60,1	133,2

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasida sanoat tarmoqlarini barqaror va mutanosib rivojlanishini ta’minlash strategik vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida bu xususda quyidagilarni ta’kidlab o‘tgan: “....iqtisodiy o‘sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali erishiladi.

Harvard universiteti tadqiqotlariga ko‘ra, mamlakatimiz 50 dan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda barcha imkoniyat va nisbiy ustunliklarga ega. Ayniqsa, neftgaz-kimyo, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmasevtika, qurilish materiallari, to‘qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat hamda “yashil” iqtisodiyot bilan bog‘liq sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimiz “drayverlari”ga aylanishi uchun barcha yetarli sharoitlar mavjud” [3].

Respublikamizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilishini barqaror rivojlantirish va tarmoqning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrdagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PF-5285-sonli Farmonida ta’kidlanganidek:

- tarmoqning yetarli salohiyatiga qaramasdan, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotni ishlab chiqarishda uyg‘unlashgan texnologik zanjir mavjud emas;
- milliy standartlar va to‘qimachilik mahsulotlarining sinovlari bo‘yicha laboratoriyalarning xalqaro standartlar va talablar bilan uyg‘unlashtirish ishlari qoniqarsiz, shuningdek, sifat menejmenti zamonaviy tizimlarini joriy etishning past darajada ekanligi mahalliy mahsulotlarni yirik xorijiy savdo bozorlariga chiqarishga, eksport salohiyatini yuksaltirishga hamda mahsulotlar sifati va xavfsizligiga bo‘lgan ishonchni oshirishga to‘siq bo‘lmoqda;
- tarmoqqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasi mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish va to‘qimachilik sanoati rivojlanishining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash uchun shart-sharoit yaratmayapti;
- xomashyo va ishlab chiqarish resurslarining nooqilona taqsimlanishi, logistika va muhandislik infratuzilmasini tashkil etishdagi kamchiliklar ishlab chiqarish quvvatlari ancha qismining to‘xtab qolishiga, iqtisodiy yo‘qotishlarga va oqibatda mahsulotlar tannarxining oshishiga, shuningdek, ishlab chiqarish rentabelligining pasayishiga olib kelmoqda;
- to‘qimachilik yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilishning barqaror ustunlik qilishi, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va jahon bozorlarida munosib raqobatlashishga qodir bo‘lgan milliy brendlarni shakllantirishning yetarli darajada emasligi to‘qimachilik sanoati korxonalari daromadlarini oshirish imkonini bermayapti va boshqalar.

Shu bilan birga, tadqiqotlarga ko‘ra, bugungi kunda to‘qimachilik sanoati tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan quyidagi muammolar mavjudligini e’tirof etish joiz:

- to‘qimachilik sanoati korxonalarida unumdorligi yuqori, energiya sig‘imi past va resurs tejamkor zamonaviy innovatsion raqamli texnologiyalar va raqobatbardosh ishlab chiqarish quvvatlari yetishmaydi;
- faoliyat ko‘rsatayotgan ko‘pchilik korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlari kam samarali bo‘lib, material sig‘imi yuqoriligi oqibatida zamonaviy mahsulotlarni kam xarajat evaziga ishlab chiqarish imkonini bermayapti;
- tarmoqdagi asosiy vositalarning moddiy va ma’naviy jihatdan eskirganligi va yangilanish darajasi past;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat ko‘rsatkichlari va qadoqlanishi, tovar ko‘rinishi bo‘yicha ichki va jahon bozorlarida raqobatbardosh emas;
- zamonaviy qayta ishlash sanoati standartlariga javob beradigan navlar, texnik standartlar va talablarga mos keluvchi sifatli xoma shyo yetishmaydi;
- istiqbolli loyihalarni amalga oshirish uchun korxona va aholi mablag‘larini jalb etish imkoniyatlari past, tijorat banklari foiz stavkalarining yuqoriligi va kredit uchun garov ta’minoti yetishmasligi ishlab chiqarishni moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi;
- asosiy ishlab chiqarish fondlarini yangilanish darajasi pastligi, katta qismining eskirganligi oqibatida ishlab chiqarish material sig‘imining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi, shuningdek, resurs tejovchi va kam chiqimli innovatsion texnologiyalarning yetishmasligi;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va tovar ko‘rinishining jahon standartlari talabiga mos kelmasligi;

- qayta ishlash korxonalarining xomashyo yetkazib beruvchilar, ichki va tashqi bozorlardagi sotuvchilar bilan barqaror, mustahkam va uzoq muddatli integratsion aloqalarining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-fevraldagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4186-sonli qarori va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlari belgilangan:

- *birinchidan,* to‘qimachilik sanoatining iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan to‘qimachilik mahsulotlarining, eng avvalo, yuqori qo‘shilgan qiymatli raqobatbardosh to‘qimachilik mahsulotlarini yuqori texnologik ishlab chiqarishga qayta yo‘naltirish orqali hajmi va sifatini oshirish;
- *ikkinchidan,* to‘qimachilik sanoatining boshqaruv tizimini ilg‘or menejment texnologiyalari, tarmoq korxonalariga har tomonlama ko‘maklashish va qo‘llab-quvvatlashning, shu jumladan ularning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi muammolarni hal etishda samarali shakllarini joriy etgan holda tubdan qayta ko‘rib chiqish;
- *uchinchidan,* to‘qimachilik sanoati sohasidagi standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini xalqaro talab va standartlarga uyg‘unlashtirish, shuningdek, mahsulotlar sinov laboratoriyalarini modernizatsiya qilish va akkreditatsiyadan o‘tkazish orqali yanada takomillashtirish;
- *to‘rtinchidan,* tarmoqqa to‘qimachilik mahsulotlari mahalliy va xorijiy bozorlarining holati hamda rivojlanish tendensiyalari haqidagi ishonchli va o‘z vaqtida axborotlar olishni ta’minlash imkonini beruvchi ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tarmoq rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash maqsadida uni tizimli va kompleks tahlil qilish;
- *beshinchidan,* paxta xomashyosini yetishtirishdan boshlab, unga dastlabki ishlov berish, mahsulotni paxta tozalash korxonalarida keyingi qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor to‘qimachilik mahsuloti chiqarish bosqichigacha bo‘lgan ishlab chiqarishni integratsiya qilishni nazarda tutuvchi rivojlanishning klaster modelini amalga oshirish;
- *oltinchidan,* xomashyo resurslari taqsimotining mutanosibligi va tashkil etilayotgan tarmoq korxonalarining logistika va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirish bilan o‘zaro uzviy bog‘liqlikda, shu jumladan ko‘p funksiyali transport-logistika xablarini qurish, yuklarni yetkazishning optimal yo‘nalishlari hamda yo‘laklarini tanlash, shuningdek, transportda yuk tashish tariflarini optimallashtirish orqali joylashuvini ta’minlash;
- *yettinchidan,* yuqori sifatli tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksportini kengaytirish, milliy brendlarni jahon bozorlariga ilgari surish maqsadida ishlab chiqarish jarayoniga ilg‘or innovatsion texnologiyalar, nou-xau, dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy etish, furnitura va aksessuarlarning zamonaviy namunalarini ishlab chiqarishni mahalliylashtirish;
- *sakkizinchidan,* talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha yo‘nalishlarni kengaytirgan holda to‘qimachilik sanoati uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish, ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarini tarmoqning zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini, shuningdek, ushbu sohada xalqaro hamkorlikni faollashtirish.

Mazkur qarorda kompleks yondashuv asosida xomashyoni qayta ishlash, tayyor mahsulotni, shu jumladan, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish hamda qo‘llab-quvvatlash asosida ishlab chiqarish va eksport qilish, to‘qimachilik mahsulotlarini sotishning ichki va tashqi bozorlarini tadqiq qilish; ichki va tashqi bozorlarda mahsulotlar raqobatbardoshligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, qo‘shimcha qiymat yaratishning yagona zanjirini tuzish; respublikada ishlab chiqariladigan paxta ip-kalavalarning butun hajmini qayta ishlash hisobiga 2025-yilga borib to‘qimachilik mahsulotlari eksporti hajmini 7 mlrd. AQSh dollariga yetkazish vazifalari ham belgilab berilgan.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini modernizatsiyalash, ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash hamda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash masalalariga e’tibor hozirgi kunda, ayniqsa, dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash o‘z-o‘zidan mamlakatda tovarlar ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan barcha turdagi iqtisodiy resurslarni oqilona ishlatishga asos bo‘ladi. Mamlakatimiz zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar orqali nafaqat ichki bozorda, balki raqobat kurashi kuchayib borayotgan jahon bozorlarida o‘z o‘rnini topishi uchun yagona yo‘l bo‘lib qoldi. Ayniqsa, mazkur yo‘nalishlar orasida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash muhim o‘rin tutadi.

Sanoat korxonalarini modernizatsiyalash birinchi navbatda eskirgan texnika vositalari va asbob-uskunalarni foydalanishdan chiqarish hamda ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jiho-

zlash, mahalliy resurslar bazasida innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish bilan uzviy bog‘liq. Bu esa tarmoqqa investitsiyalar jalb etish, birinchi navbatda ichki manbalarni yo‘naltirish asosida sanoatning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni ko‘zda tutadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, to‘qimachilik sanoati tarmoqlarini jadal va barqaror rivojlantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- texnologik jarayonlarni takomillashtirish hamda homashyo, material va energiya resurslari sarf me’yorini tushirish hisobiga tannarxni pasaytirish va ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi va mehnat unumdorligini oshirish evaziga ishlab chiqarish xarajatlarni qisqartirish;
- ishlab chiqarishni samarali diversifikatsiyalash va xom-ashyo resurslarini qayta ishlashni chuqurlashtirish yo‘nalishlariga innovatsiyani qo‘llash;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish va diversifikatsiyalash, yangi mahsulot turlari va yuqori texnologiyalarni ishlab chiqishni o‘zlashtirish asosida tashqi bozorda mahalliy tovarlarning raqobatdoshligini oshirish;
- tarmoq korxonalarida resurs tejamkor va yuqori unumli texnologiyalar joriy etishga alohida e’tibor qaratish;
- mahalliy mahsulotlar sotish bozorlarini o‘rganish va ularning mos bozor segmentlaridagi o‘rnini aniqlash yo‘nalishida marketing tadqiqotlarini amalga oshirish;
- texnologiyalar transferti sohasida xalqaro hamkorlikning huquqiy mexanizmlarini yaratish;
- yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish va tarmoqni texnik-texnologik modernizatsiyalashga ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etishni davlat tomonidan rag‘batlantirish;
- tarmoq korxonalarini xomashyo manbalariga yaqin va transport xarajatlarini tejash imkonini beruvchi ilmiy joylashtirish, rayonlashtirish va ixtisoslashtirish ishlarini jadallashtirish;
- klaster, kooperatsiya va boshqa tuzilmalar vositasida xomashyo yetishtirib beruvchilar va xomashyoni qayta ishlovchi sanoat korxonalari o‘rtasidagi integratsion aloqalarni mustahkamlash;
- eskirgan texnika vositalari va asbob-uskunalarni foydalanishdan chiqarish va ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash ishlarini jadallashtirish;
- mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida ichki va jahon bozorida xaridorgir bo‘lgan raqobatbardosh tayyor mahsulotlar hamda yarim fabrikatlar, jumladan, bo‘yalgan ip, mato, ishlov berilgan teri, trikotaj, tikuvchilik, poyabzal va attorlik-charm buyumlari ishlab chiqarish hisobidan to‘qimachilik hamda charm-poyabzal sanoati tuzilmasini yanada yaxshilash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston-ning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘isida”gi PF-60-sonli Farmoni. www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining ochilish marosimidagi nutqi. 2021-yil 24-mart. https://president.uz/uz/lists/view/5077.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 29.12.2020. https://president.uz/uz/lists/view/4056.
4. O.A. Davronov. To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribasi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali. №1, yanvar-dekabr, 2016. –1 b.
5. Ch.G. Nosirova. O‘zbekiston respublikasi to‘qimachilik sanoatini rivojlanishdagi asosiy parametrelarni va tendensiyalarni o‘rganish. Journal of AdvancedResearch and Stability // Volume: 02 Issue: 07| July -2022. www.sciencebox.uz.
6. S.X.Abdullaeva, G.M.Davlyatova, (2022). To‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligini innovatsion rivojlantirish masalalari. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2 (6-8), 7-21.
7. E.A.Muminova. To‘qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion-investitsion faoliyatni boshqarish yo‘nalishlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2021. –156 b.
8. M.S.Jamolliddinova. To‘qimachilik sanoatining rivojlanish tendensiyalari // Scientific Impulse: Vol. 1 No. 11 (2023).
9. O. Oxunova, (2023). O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini modernizatsiya qilishda klaster yondashuvi // Innovations in Technology and Science Education, 2(16), 440–449. // humoscience.com/index.php/itse/article/view/2134.
10. Ortiqov.A, Isakov. M. Industrial iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisodiyot, –2019, –242 b.
11. Muratov R.S., Djalalova I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. –Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2014. –424 b.
12. Махмудов Э.Х. Экономика предприятия. Учебник. – Т.: Иқтисодиёт, –2015. –170 с.
13. Ortiqov A., Yuldasheva Sh., Karabaeva G. SH., Najimaddinov R. D. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. O‘qyv qo‘llanma. –T.: Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2004.–124 b.
14. Mualliflar jamoasi. Yangi O‘zbekiston: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish odimlari. O‘quv qo‘llanma. –T.: Ma’naviyat, 2021. –373 b.



TURIZMNI QAYTA JONLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA TURIZMNI REJALASHTIRISHNING ISTIQBOLLARI

A'zamov Saidakbarxon Avazxon o'g'li
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti (TIFT) Akademik faoliyat va registrator departamenti Ta'limni raqamlashtirish va talabalar amaliyotini tashkil etish menejeri

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda turizm sohasi rivojiga alohida ahamiyat qaratilgan. Turizmni qayta jonlantirish strategiyasini ishlab chiqishda turizmni rejalashtirish majmuaviy yondashuv asosida, turizm sohasining maqsadi va mahalliy aholi manfaatlari, milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanish yo'nalishlarini uyg'unlashtiradigan turizmni tiklash bo'yicha strategik rejani ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Mamlakatimizning sayohat va dam olish uchun xavfsiz imijini mustahkamlash, turizm tarmog'i uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish ham soha oldida turgan dolzarb vazifalardan. Maqolada usbu sohani takomillashtirishning nazariy asoslari bo'yicha takliflar va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: turizm, iqtisodiyot, aholi, xizmat, soha, pandemiya, jarayon, tarmoq, yo'nalish, salohiyat, onlayn ta'lim, onlayn boshqarish, onlayn savdo, ziyorat.

Abstract: This article focuses on the development of tourism in our country. In the development of tourism revitalization strategy, tourism planning requires the development of a strategic plan for the restoration of tourism, which combines the goals of the tourism industry and the interests of local residents, directions of sustainable development of the national and regional economy, based on an integrated approach. Strengthening the safe image of our country for travel and recreation, improving the system of personnel training, retraining and advanced training for the tourism industry are among the urgent tasks facing the industry. The article provides suggestions and recommendations on the theoretical foundations of improving this field.

Key words: tourism, economy, population, service, industry, pandemic, process, network, direction, potential, online education, online management, online trade, pilgrimage.

Аннотация: Данная статья посвящена развитию туризма в нашей стране. При разработке стратегии возрождения туризма планирование туризма требует разработки стратегического плана восстановления туризма, сочетающего в себе цели туристической отрасли и интересы местных жителей, направления устойчивого развития национальной и региональной экономики, основанные на на комплексном подходе. Укрепление безопасного имиджа нашей страны для путешествий и отдыха, совершенствование системы подготовки, переподготовки и повышения квалификации кадров для туристической отрасли входят в число актуальных задач, стоящих перед отраслью. В статье даются предложения и рекомендации по теоретическим основам совершенствования данной области.

Ключевые слова: туризм, экономика, население, сервис, промышленность, пандемия, процесс, сеть, направление, потенциал, онлайн-образование, онлайн-менеджмент, онлайн-торговля, паломничество.

KIRISH

Hozirgi paytda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy maqsadlaridan biri ustuvor strategik yo'nalishlarni tanlab olishdan iborat. Shu tufayli bugun bosh islohotlar Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot Strategiyasini amalga oshirishga qaratilgandir. "Strategiyaning "Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash"ga bag'ishlangan ustuvor yo'nalishida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish"[1] vazifasi qo'yilgan.

1 https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/2022–2026-yillarga muljallangan_Yangi_O'zbekistonning_taraqqiyot_strategiyasi_tasdiqlandi.

Ushbu vazifaning bajarilishi makro darajada turizm sohasini rivojlantirish, YaIMdagi ulushini oshirish, aholini yangi ish o‘rinlari bilan ta’minlash maqsadida, raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, xalqaro standartlar asosida yangi turistik xizmatlar assortimentini ko‘paytirish, yangi yo‘nalishlardagi turistik marshrutlarni ko‘paytirish, turistlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish tadbirlarini tashkil qilish, zamonaviy turizm infratuzilmasini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

Turizmni qayta jonlantirish strategiyasini ishlab chiqishda turizmni rejalashtirish majmuaviy yondashuv asosida, turizm sohasining maqsadi va mahalliy aholi manfaatlari, milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanish yo‘nalishlari uyg‘unlashtiradigan O‘zbekistonda koronavirus pandemiyasidan so‘ng turizmni tiklash bo‘yicha strategik rejani ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. So‘nggi yillarda turizm milliy iqtisodiyotning “o‘sish nuqtalaridan” biriga aylandi, u boshqa yondosh tarmoqlarni rivojlantirish uchun drayver bo‘lib, daromadlarning o‘sishini rag‘batlantiradi va yuqori multiplikativ samaraga ega: “turizmdan olinadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri daromadning 1 dollari iqtisodiyotning yondosh tarmoqlarida kamida 5-7 dollar beradi”[2].

Shuni inobatga olgan holda, milliy iqtisodiyotning strategik sektori, ya’ni drayveri sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada samarali foydalanish, unga yondosh bo‘lgan iqtisodiyot tarmoqlarini klaster usulida rivojlantirish, milliy turizm brendini yaratish va uni jahon bozorlarida targ‘ibot qilish hisobiga O‘zbekistonning ijobiy qiyofasini namoyon etish talab qilinmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon xo‘jaligining globallashuvi va integratsiyalashuvi kuchayib borayotgan bir davrda turizm tushunchasining mohiyatini to‘g‘ri talqin etish va uning mohiyatini to‘g‘ri anglab yetish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu haqda xorijiy va mahalliy olimlarning fikri turli-tuman bo‘lib, turlicha qarash va konsepsiyalar mavjud.

Rossiyalik iqtisodchi olim M.A.Vinokurov turizmga “Turizm bu – hordiq chiqarish, davolanish, sport bilan shug‘ullanish, ziyorat qilish, biznes qilish maqsadida inson tomonidan bo‘sh vaqtda amalga oshiriladigan sayohatdir” deb ta’rif bergan[3].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olim I.S.To‘xliyevning ta’rifiga ko‘ra, turizm bu – turistlar tomonidan amalga oshiriluvchi, aniq belgilangan turistik maqsadlarga ega ommaviy sayohatlar turidir[4].

Jumladan, A.Yu.Aleksandrova “Kishilarning doimiy turar joylari va ishlaridan farqlanuvchi joylarga yetib kelishi va joylashishi vaqtida yuzaga keladigan munosabatlar va hodisalar yig‘indisi turizmdir”, – deb ta’kidlab o‘tgan.

Yu.V.Tishukov esa “Turizm – mamlakat fuqarolari, xorijlik fuqarolar va fuqarolikka ega bo‘lmagan shaxslarning doimiy turarjoylaridan sog‘lomlashtirish, tanishish, kasbiy-ishbilarmonlik, sport, diniy va boshqa maqsadlarda vaqtincha yashab turgan mamlakatidagi haq to‘lanadigan faoliyat bilan band bo‘lmagan holda vaqtinchalik sayohatlaridir”, – degan fikrni bildiradi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, ayrim xorijiy va mahalliy olimlar turizmning jadal taraqqiyoti alohida tarmoq holidagi industriyadir, degan fikrlarni olg‘a surishmoqda.

Yu.V.Tishukov o‘z risolasida “Turizm industriyasi – bu mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish obyektlari, dam olish obyektlari va vositalari, tanishish, ishbilarmonlik, sog‘lomlashtirish, sport va boshqa maqsadlardagi obyektlar, turoperatorlik va turagentlik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, shuningdek, ekskursiya xizmatlari va gid-tarjimonlar xizmatini namoyon etuvchi tashkilotlar to‘plamidir”, – deb e’tirof etgan.

M.B.Birjakov esa “Turistik xizmat – turizm maqsadlari, turistik xizmatning yo‘nalishi va tabiati, turistik mahsulotga javob beruvchi, umuminsoniy axloq va tartib tamoyillariga mos keluvchi ekskursant yoki turistning ehtiyojlarini ta’minlash va qanoatlantirishga yo‘naltirilgan xizmat ko‘rsatish sohasidagi maqsadlarga yo‘naltirilgan harakatlar yig‘indisidir”, – degan fikrni bildiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada mamlakatimizda turizm sohasining jadal sur’atlar bilan rivojlanayotganligini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Ishda turizm rivojlantirishning nazariy asoslari, qiyosiy yondashuvlar umumlashtirilgan holda o‘rganilgan hamda xulosalash asosida amaliyotda yaxlit qo‘llash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

2 https://themag.uz/post/aziz-abduhakimov

3 Винокуров М.А., Что такое туризм?/научная статья-www.dissercat.com

4 To‘xliyev I.S., Qudratov G‘.X., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. –Darslik.–Toshkent, “Iqtisodiyot-moliya” nashriyoti. –2010.–254 bet.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon iqtisodiyoti va milliy iqtisodiyotlar XXI asrning birinchi choragida bir necha kuchli zarbalarni qabul qilib oldi. Birinchisi asr boshidagi qator mamlakatlar boshidan kechirgan mintaqaviy tarkibiy inqirozlar, bo‘lsa, ikkinchi asosiylari 2008-yilda boshlangan global iqtisodiy moliyaviy inqiroz va 2019-yilda kirib kelgan pandemiya tufayli vujudga kelgan inqiroz bo‘ldi. 2022-yil 24-fevralda Rossiyaning Ukrainada boshlagan maxsus xarbiy amaliyoti ham hali pandemiyadan butunlay o‘nglanmagan jahon iqtisodiyotidagi ziddiyatlarni yanada keskinlashtirib yubordi.

Iqtisodiyot nihoyatda murt, nozik soha sifatida har qanday xo‘jalik, ijtimoiy-siyosiy chaqiriqlarga sezuvchan bo‘ladi. Pandemiya oqibatida yuzaga kelgan inqiroz global moliyaviy iqtisodiy inqirozdan ko‘ra ham halokatliroq kechdi va nafaqat iqtisodiy, shu bilan birga, ijtimoiy hayotning ko‘pchilik sohalarini qamrab oldi. Pandemiya sharoitida proteksionizm kuchaydi. Bu siyosat bojxona shartlarini kuchaytirish, lisenziya va kvota kabi mexanizmlar yordamida amalga oshirildi.

Vaholanki, hozirgi zamon iqtisodiyoti rivojlanishining eng birlamchi shartlaridan biri mahdudlik yoki milliy egoizm emas, balki ochiqlik, global kenglikda harakat qilishdir. Natija shunga olib keldiki, global texnologik va logistik zanjir uzildi, mamlakatlar o‘rtasida chegaralar yopilib ko‘pchilik ishlab chiqarish korxonalari butlovchi qismlar, xom ashyodan ajralib qoldi.

Korxona va muassasalar ommaviy yopilib, ishchi va xodimlar o‘z uylariga qamalib qoldi. Bu esa pandemiya tufayli vujudga kelgan inqirozning miqyosini yanada kengaytirib yubordi. XXR, YeI va AQShda iqtisodiy o‘sishning atigi 1-2 foizga pasayishining o‘zi ham jahon iqtisodiyotining sezilarli sekinlashuviga olib keldi. Chunki ular dunyo YaIMning 45 foizini beradi. Bu esa, globalizm sharoitida milliy iqtisodiyotlarga salbiy ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi.

Masalan, O‘zbekiston global zanjirning bir xalqasi hisoblanadi va u dunyoning 190 dan ortiq mamlakatlari bilan eksport va import amaliyotlarini olib boradi. Bu sharoitda mamlakatimizdan eksport qilinadigan qator tovar va xizmatlarga talab keskin tushib ketdi. Xom ashyo tovarlariga talabning tushib ketish, masalan, O‘zbekiston eksportida ularning ulushi 40 foizdan oshadi, yangi Investitsion loyihalarni “muzlatib quydi”. To‘g‘ri bunday sharoitda “virtuallashtirish” tizimi ommalashib ketdi: onlayn ta’lim, onlayn boshqarish, onlayn savdo va boshqalar. Virtuallikdan reallikka emas, reallikdan virtuallikka o‘tish jarayoni jadallashdi.

1-jadval: 2019-2021-yillarda global turizmning jahon YaIMidagi ulushi

	2019 foizda	mlrd doll.	2020 foizda	mlrd doll.	2021 foizda	mlrd doll.
Global turizmning jahon YaIMidagi ulushi	10,3	9630,0	5,3	4775,0	6,1	5812,0

Koronavirus tufayli vujudga kelgan inqirozdan eng katta zarar ko‘rgan sohalardan biri turizm industriyasidir. Agar 2019-yilda jahon turizmining dunyo YaIMidagi ulushi 10,3 foizni, ya’ni 9630,0 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda bu ko‘rsatkich 5,3 foizga (4775,0 mlrd dollarga) tushib ketdi. 2021-yilda ahvol biroz o‘nglandi: YaIMdagi turizmning ulushi 6,1 foiz, ya’ni 5812,0 mlrd dollarga muvofiq keldi. Pandemiyagacha xalqaro turistlar soni 1,5 mlrd kishiga yetgan bo‘lsa, 2020-yilda bu kursatkich 381 ming kishiga teng bo‘lib, qisqarish 74 foizni tashkil etdi. Turizm sektori daromadlari 1,3 trln. AQSh dollariga pasayib, undagi mavjud ish joylari 2 martagacha qisqardi.

2-jadval: 2019-2020-yillarda jahon turizm oqimi

	2019-yil	2020-yil	Farq (+/-)
Turistlar soni	1,5 mlrd.	381 mln.	–74%

O‘zbekistonda pandemiya boshlangan 2019-yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan chet ellik sayyohlar soni 6,7 mln. kishini tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2021-yilda 1,9 mln kishini tashkil etdi[5]. 2022-yildan vaziyat bir qadar o‘nglana boshladi, ammo hali pandemiyagacha davr ko‘rsatkichlaridan ancha past.


3-jadval: 2019-2021-yillarda O‘zbekistonga chet ellik turistlar tashrifi

	2019	2020	2021	2022 prognoz
Turistlar soni, mln	6,7	1,5	1,9	4,5

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inqirozdan eng oldin chiqadigan soha ham turizm bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Gap shundaki, birinchidan, hozirgi paytda kishilarda bo‘sh vaqt ko‘payib, o‘rta sinf shakllanib, ularning

5 UNWTO Tourism Recovery Trasker, 2021 https/1.05.2022

daromadlari oshib turmahsulot sotib olish imkoniyatini bermoqda. Ikkinchidan, insonlarda hamisha boshqa yurtlardagi hayot, turmush tarzi bilan tanishishga va yangi bilimlar, biznes, ta'lim olish, yangi tanish bilishlar ortishiga moyillik kuchli. Uchinchidan, global turizmning o'sish sur'atlari keyingi yillarda muttasil ravishda jahon YaIMi o'sishidan ustun bo'lib kelmoqda. Bu tendensiya bundan keyin ham davom etadi, albatta. Agar turizm industriyasining oltmishdan ortiq soha va tarmoqlar bilan bog'liqligini ham e'tiborga oladigan bo'lsak, bu soha sinergetik samara hosil qilish imkoniyatiga ega ekanligini ham nazardan qochirmaslik kerak.



1- rasm: 2018-2022-yillarda O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni, ming kishi[6]

Pandemiya tufayli vujudga kelgan inqiroz chuqur, miqyosli va murakkab, unga barham berish uchun qanday chora-tadbirlar tizimini yanada takomillashtirish lozim:

Birinchidan, proteksionizm siyosatining har qanday ko'rinishlariga barham berish lozim. Bunga faqat viza rejimini liberallashtirish bilangina erishib bo'lmaydi[7].

Mamlakatga turistlar oqimini oshirish mexanizmlaridan biri, bu sohadagi narxlarni takomillashtirishdir. Ma'lumki, biz narxlar darajasi bo'yicha Misr, Turkiya, BAA va boshqa bir qator turizm rivojlangan mamlakatlarga yutqazamiz. Bizdagi narxlar darajasi bilan ommaviy turizmga erishish ancha mushkul.

Ikkinchidan, turizm industriyasida diversifikatsiyalash jarayonini yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq. Bu jarayonning chuqurlashuvi turizmning yangi ommaviy shakllarini rivojlantirish lozim. MAIS turizmi va, ayniqsa, ziyorat turizmi ana shunday mamlakatimiz uchun nisbatan yangi turizm segmentlaridan bo'lib maydonga chiqmoqda. Ziyorat turizmini rivojlantirish uchun respublikamizda barcha sharoitlar mavjud. Uning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilgan, bu yerda juda katta ziyorat salohiyati mavjud. Buning ustiga, dunyo aholisi orasida musulmonlarning muttasil o'sib kelayotganiligi ham bu segmentning muhim potensialidir.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm muhitini yaratish, transport logistikasini rivojlantirish, ichki va tashqi yo'nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, turizm bozorining turli segmentlariga yo'naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish avvalo xalq farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Mamlakatimiz ichida turizm xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan turizm faoliyati sub-yektlarining faolligini rag'batlantirishni ta'minlovchi ichki turizmni rivojlantirish ham alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi turizm mahsulotini xalqaro va ichki turizm bozorlarida targ'ib qilish, mamlakatning sayohat va dam olish uchun xavfsiz sifatidagi imijini mustahkamlash, turizm tarmog'i uchun kadrlar tayyor-lash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish ham soha oldida turgan dolzarb vazifalar hisoblanadi. Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishning asosiy bosqichlari sifatida quyidagilar belgilab olingan.

Birinchidan, turizmni rivojlantirish uchun mustahkam qonunchilik bazani yaratishga qaratilgan institutsional islohotlar, infratuzilmani modernizatsiyalash va mamlakat brendini targ'ib qilish.

Ikkinchidan, o'rta muddatda mamlakat iqtisodiyotida turizm industriyasi ulushini ko'paytirish. Ushbu yo'na-lishda zarur infratuzilmani rivojlantirish va dunyo bozorida respublikaning turizm salohiyatini targ'ib qilish orqali mamlakatning yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini oshirish, 2025-yil yakuniga qadar 9 milliondan ortiq tu-ristlarni, shu jumladan, uzoq xorijdan 2 million turistni jalb qilish belgilab quyilgan.

6 https://uzbektourism.uz/research/statistics
7 https/xs.uz/viki/post/ozbekistonda-turizm-mdustriyasi-zhadal suratlarda-taraqqiy-etyapti

Uchinchidan, uzoq istiqbolda O‘zbekiston turizmi milliy iqtisodiyotdagi yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan, mintaqa va dunyo turistik xizmatlari bozoriga eng raqobatbardosh davlatlar qatorida kirib borishi mumkin.

So‘nggi davrda butun dunyoda, shu jumladan, mamlakatimizda ham sodir bo‘lgan pandemiya jarayonlari iqtisodiyotning barcha sohalari qatorida, turizm tarmog‘iga ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Pandemiyadan keyingi davrda katta salbiy ta’sir qabul qilib olgan turizm tarmoqlarini qayta tiklash va uzoq istiqbolda yanada rivojlantirish masalasi dunyo mamlakatlari uchun dolzarb maqsadga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi/Sh.Mirziyoyev. –Toshkent: O‘zbekiston, –2016.–56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. –2017-yil 16-yanvar, –№11.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt tarqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruza.
4. To‘xliyev I.S., Qudratov G‘.X., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik.–Toshkent, “Iqtisodiyot-moliya” nashriyoti. 2010.–254 bet.
5. Norqulova, D. Z. (2021, March). The importance of incentives in the education system. In Euro-Asia Conferences (Vol. 4, No. 1, pp. 3-4).
6. Norkulova, D. Z., & Abdullayev, S. T. (2022). Ekoturizmni rivojlantirishdagi asosiy ziddiyat va xorijiy mamlakatlar tajribalari. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali. –49-52.
7. Hayitov J.K., Norkulova D.Z. Improving the organizational system of landscaping works of population points. Vol. 2 No. 1.1 Economical sciences (2022): Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities
8. Tuxliyev I.S. va boshqalar. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya” 2010. – 264 b.
9. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 389 b.
10. Tuxliyev I.S., Qudratov G‘.H., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya” 2010 – 263 b.
11. Tuxliyev I.S., Ibadullayev N.Y. Turizm operatorlik xizmatini tashkillashtirishning asoslari. O‘quv qo‘llanma. – S.: SamISI, 2011.– 256 b.

O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISHI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH



Abdullayev Elyorbek Odiljon o‘g‘li
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada barqaror iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun QTE manbalaridan foydalanish zaruriyati asoslangan. QTE manbalaridan foydalanishning ana’naviy energiyaga nisbatan afzalliklari va kamchiliklari aniqlangan. O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘lamini oshirish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qayta tiklanuvchi energiya, energetika siyosati, moliyaviy rag‘batlantirish, milliy energetika strategiyasi, tarmoq integratsiyasi, energiya loyihalari, barqaror rivojlanish, “yashil” energiya.

Abstract: This article is based on the need to use renewable energy sources to achieve the goals of sustainable economic development. The advantages and disadvantages of using renewable energy sources compared to traditional energy are identified. Proposals and recommendations have been developed to increase the use of renewable energy in Uzbekistan.

Key words: renewable energy, energy policy, financial incentives, national energy strategy, grid integration, energy projects, sustainable development, green energy.

Аннотация: В основе данной статьи лежит необходимость использования возобновляемых источников энергии для достижения целей устойчивого экономического развития. Выявлены преимущества и недостатки использования источников ВИЭ по сравнению с традиционной энергетикой. Разработаны предложения и рекомендации по увеличению использования возобновляемых источников энергии в Узбекистане.

Ключевые слова: возобновляемая энергетика, энергетическая политика, финансовые стимулы, национальная энергетическая стратегия, сетевая интеграция, энергетические проекты, устойчивое развитие, зеленая энергетика.

KIRISH

Qayta tiklanuvchi energiya (QTE) manbalaridan foydalanish ko‘lami va maqsadga muvofiqligi, birinchi navbatda, an’anaviy energiya texnologiyalari bilan solishtirganda ularning raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligi bilan belgilanadi. QTEning asosiy afzalliklari qazib olinadigan yoqilg‘ida ishlaydigan tizimlardan farqli o‘laroq, resurslarning amalda tugamasligi, deyarli hech qanday operatsion xarajatlar va atrof-muhitga zararli moddalarning chiqarilishini oldini oladi.

Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida milliy iqtisodiyotlar tarkibida QTE manbalaridan foydalanish imkoniyatlariga qiziqish ortib bormoqda, bularning barchasi bir qator obyektiv sabablar bilan bog‘liq:

Birinchidan, QTE manbalari ma’lum texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha avtonom energetika tizimlari uchun samarali energiya manbasiga aylanadi, qimmatbaho import qilinadigan yoqilg‘idan foydalanadigan an’anaviy energiya manbalariga nisbatan tejamkor va ekologik tozadir;

Ikkinchidan, QTEdan foydalanish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy yoki ekologik mezonlarga asoslanadigan ijtimoiy samaralari kuzatiladi.

Qayta tiklanuvchi avtonom energiya manbalaridan foydalanish orqali mamlakatlar aholisining hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilashga imkoniyatlar yaratiladi;

Ushbu holatlardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasida ham QTEdan foydalanish ko‘lamini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmonida “2026-yilga qadar QTE manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash” [1] bo‘yicha belgilab berilgan.

Mazkur holatlarni inobatga olganda, muqobil energiyani rivojlantirishning samaradorligini oshirish orqali barqaror rivojlanishga erishishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borishga yuqori ahamiyat qaratish talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yaqin kelajakda QTE manbalarining roli global miqyosda sezilarli darajada oshib bormoqda. Rivojlangan davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan jahon va uning mintaqalarida energetikani rivojlantirishning uzoq muddatli istiqbollari yuzasidan keng tadqiqotlar olib borilmoqda.

QTE – bu to‘ldirish yoki qayta ishlab chiqarish va qayta tiklash qobiliyatini namoyon qiluvchi, foydalanish bilan tugatib bo‘lmaydigan energiya QTE sifatida qaraladi. QTE turli manbalardan turli usullardan energiyaning turli shakllarini yig‘ish orqali ishlab chiqarilishi mumkin. Qayta tiklanuvchi manbalardan ba’zilari quyosh, shamol, biomassa, gidroelektr, geotermal, suv oqimi va boshqalar [2].

21-asrning o‘rtalariga kelib, dunyo energiya talabining taxminan 45% quyosh massivlari bilan ta’minlanishi mumkin. Holbuki, quyosh nurlanishidan hosil bo‘lgan elektr energiyasi bir qancha sanoat va maishiy ehtiyojlarga xizmat qilishi mumkin [3].

Xalqaro tadqiqotlarda QTE manbalaridan foydalanish tarmoq va sohalar bo‘yicha turlicha yo‘nalishlarda o‘rganiladi. Iqtisodiyot sohalarida esa asosan QTEdan foydalanishning energiya tejamkorligiga erishishga qaratilgan yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilsa, so‘nggi yillarda makroiqtisodiy nazariyalarga tayangan holda barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda.

Jumladan, Kasperowicz R. va boshqalar tadqiqotlarida 1995-2016-yillarda Yevropaning 29 davlatida an’anaviy ishlab chiqarish funksiyasi doirasida QTE iste’moli va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi uzoq muddatli munosabatlarni o‘rganilgan. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra QTEdan global tovar sifatida iqtisodiy o‘sish jarayonida foydalanish katta ahamiyatga ega bo‘lib, qayta tiklanuvchi manbalarni rag‘batlantirish siyosati iqtisodiy o‘sishni, qayta tiklanuvchi manbalarni ko‘paytirishni va issiqxona gazlari (IG) chiqindilarini kamaytirishni ta’minlashi va barqaror rivojlanishning muhim maqsadlarini ta’minlashi asoslangan [4].

Chen Y. va boshqalar tomonidan Norvegiya, Yangi Zelandiya va Kanadaning ikkita provinsiyasida QTE narxlari va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi dinamik sabab-oqibat munosabatlarini o‘rganilgan. Olingan empirik natijalar QTE narxlari va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida vaqtga bog‘liq sabab-oqibat munosabatlarining ijobiy korrelyatsiyasi mavjudligini tasdiqlagan[5].

QTE iste’moli tanlangan mamlakatlarning 58 foizida iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini M. Shahbaz va boshqalar tadqiqotlarida asoslanadi. Mazkur holatdan kelib chiqib, tadqiqotchilar xalqaro hamkorlik agentliklari, energiya tashkilotchilari, hukumatlar va tegishli organlar ushbu iqtisodiyotning ko‘pchiligida past uglerodli o‘sish uchun QTE sarmoyasini oshirishga birgalikda harakat qilishlari kerakligini asoslaganlar [6].

E. Dogan va boshqalar tadqiqotlarida esa 1990-yildan 2010-yilgacha bo‘lgan ma’lumotlarga asoslangan holda iqtisodiy natijalar yaqin muddatlarda emas, balki uzoq muddatlarda iqtisodiy o‘sishga yuqori ta’sir etishishi mumkinligini asoslaganlar [7].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston olimlari tomonidan ham bu borada keng tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, A.E. Imamov, E.Z. Imamov, X.N. Karimovlar tadqiqotlarida “yashil energiyani” ishlab chiqarish va undan samarali foydalanish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilingan va QTEdan samarali foydalanilgan tadbirkor va aholiga beriladigan imkoniyatlar ko‘rib chiqilgan [8].

QTE manbalaridan foydalanishning huquqiy jihatlari D. R. Sodiqova, F. Raxmatov [9] ekologik siyosatning muhim yo‘nalishlari sifatida Q. O. Allanazarov, K. X. Omonov [10] tadqiqotlarida ko‘rib o‘tilgan.

B.U. Urishe asoslangan lokal energiya tizimlarining samaradorligini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan [11].

S.S. Buzrukxanov tomonidan QTE manbalaridan sanoatda samarali foydalanish, ularni iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borganlar [12].

Yuqoridagi tadqiqot natijalaridan kelib chiqqanda, mazkur sohadagi ustuvor tadqiqot yo‘nalishlari energiyaning iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, uglevodorodli energiya olish tizimini sezilarli va ortib borayotgan salbiy ta’siri, shuningdek, yoqilg‘i-energetika resurslarining cheklangan zaxiralaridan samarali foydalanish bilan bog‘liq tadqiqotlardir. Shu munosabat bilan, kelajakda ekologik toza va QTE manbalaridan foydalanishga o‘tish bilan energetika tuzilmasini tubdan qayta qurishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda barqaror iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun QTE manbalaridan foydalanish zaruriyati ilmiy adabiyotlarni ko‘rib chiqish asosida aniqlanadi. QTE manbalari asosida energiya olish holati statistik tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlildan foydalangan holda an’anaviy va QTE manbalaridan foydalanishning afzalliklari aniqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon hamjamiyati barqaror rivojlanishga o‘tish zarurligini tan olmoqda. Buning asosiy yo‘nalishlari esa bir tomondan, iqtisodiy o‘sishni va odamlarning turmush darajasini oshirish bo‘lsa, boshqa tomondan, inson faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta’sirini imkon qadar kamaytirishga erishishdir. Barqaror rivojlanishga o‘tishda yangi energiya texnologiyalari va energiya manbalari, shu jumladan QTE manbalari muhim o‘rin tutadi.

QTE manbalarini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri ulardan foydalanishning ekologik tozaligidir. Quyosh energiyasini hisobga olgan holda, u ekologik jihatdan eng toza hisoblanadi, chunki quyosh elektr stansiyalarining ishlashi natijasida atmosferaga zararli moddalar chiqarilmaydi.

O‘zbekiston quyosh nurlari ko‘p bo‘lganligi sababli quyosh energiyasidan foydalanish salohiyatiga ega bo‘lganligi sababli asosiy e’tiborni aynan QTEning ushbu turiga qaratgan.

O‘zbekistonda energiya majmuasini diversifikatsiya qilish va milliy tarmoqda muqobil va QTE manbalarining ulushini oshirish bo‘yicha ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. “Yashil” energiya siyosati doirasida investitsiyalarni jalb qilish uchun me’yoriy-huquqiy bazani yaratish, tadbirkorlik va aholi uchun turli imtiyozlar tizimini ishlab chiqish kabilar shular jumlasidandir. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida QTE manbalarida elektr energiya ishlab chiqarish o‘sib bormoqda(1-jadval).

1-jadval: O‘zbekistonda QTE manbalarida elektr energiyasi ishlab chiqarish, mln. kVt. soat

Nomi	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Quyosh elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi	0,003	0,3	0,7	0,2	0,1	0,03	49,0	435,8
Shamol elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi	-	-	-	-	15,5	-	1,2	-

Quyosh elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi 2015-yilda 0,003 mln. kVt/soatni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 435,8 mln kVt/soatni tashkil etgan. Quyosh energiyasidan foydalanish bo‘yicha asosiy islohotlar 2021-yildan boshlanganligini inobatga olganda bir yilda qariyb 400 mln. kVt/soatlik quvvatlar ishga tushirilganligi ahamiyatli.

O‘zbekistonda quyosh energiyasidan, xususan, sanoat korxonalarida foydalanishning strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqishda mamlakatning energiyaga bo‘lgan ehtiyoji, iqtisodiy maqsadlari va ekologik jihatlarini hisobga olgan holda ko‘p qirrali yondashuv nazarda tutiladi.

QTE manbalariga asoslangan energetika tizimlaridan foydalanishda energiya xavfsizligining yuqori darajasiga erishishning eng samarali yo‘nalishi hisoblanadi. Mintaqaning o‘z energiya resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi energiya xavfsizligiga tahdidlarga moyillikning asosiy omillaridan biridir. Aynan gidroenergetika, quyosh va shamol energiyasi kabi mahalliy energetika resurslarini o‘zlashtirish alohida hududlarning energetik mustaqilligi va xavfsizligini oshirish imkonini beradi. Ushbu holatlardan kelib chiqqan holda qayta tiklanuvchi energetika sohasidagi loyihalarni amalga oshirishda an’anaviy energiya tizimlariga nisbatan bir qator afzalliklari mavjud. 2-jadvalda qayta tiklanuvchi va an’anaviy energiya manbalariga asoslangan energiya ta’minoti tizimlarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan.

2-jadval: Qayta tiklanuvchi va an’anaviy energiya manbalariga asoslangan energiya ta’minoti tizimlarining qiyosiy tahlili

Omillar	QTE	an’anaviy energiya
Atrof-muhitga ta’siri	Odatda energiya ishlab chiqarish jarayonida kamroq issiqxona gazlari emissiyasini keltirib chiqaradigan atrof-muhitga kamroq ta’sir qiladi	Havo va suvning ifloslanishiga hissa qo‘shishi va uzoq muddatli ekologik oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan qazib olinadigan yoqilg‘i yoki atom energiyasini o‘z ichiga olishi mumkin
Barqarorlik	ular tabiiy ravishda to‘ldiriladigan resurslarga tayanib, resurslarning tugashi xavfini kamaytiradiganligi sababli barqarorroq hisoblanadi	Resurs mavjudligi bilan bog‘liq muammolarga duch kelishi mumkin, ayniqsa qazilma yoqilg‘i zaxiralari cheklangan bo‘lsa
Narx	QTE infratuzilmasi uchun dastlabki xarajatlar yuqori bo‘lishi mumkin, ammo davom etayotgan operatsion xarajatlar ko‘pincha past bo‘ladi. Texnologiyaning rivojlanishi qayta tiklanuvchi manbalarni raqobatbardoshroq qiladi	Xarajatlarga qazib olinadigan yoqilg‘i narxining o‘zgarishi va atom energetikasi infratuzilmasining murakkabligi ta’sir qilishi mumkin

Ishonchlilik va chidamlilik	Ishonchlilik quyosh va shamol uchun ob-havo sharoitlariga bog‘liq, ammo energiyani saqlash kabi texnologiyalar tarmoq barqarorligini yaxshilaydi	Yadro va qazib olinadigan yoqilg‘iga asoslangan tizimlar odatda ishonchliroq, ammo tabiiy ofatlar yoki ta’minot zanjiri uzilishi paytida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin
Masshtablilik	kichik, markazlashmagan tizimlardan yirik kommunal miqyosdagi o‘rnatishlarga osonlik bilan o‘lchov qilinishi mumkin	Atom elektr stansiyalari va yirik yoqilg‘i energetika obyektlari miqyosda cheklovlarga ega bo‘lishi mumkin va katta investitsiyalarni talab qilishi mumkin
Energiya mustaqilligi	energiya manbalarini diversifikatsiya qilish va import qilinadigan yoqilg‘iga bog‘liqlikni kamaytirish orqali energiya mustaqilligiga hissa qo‘shish	yoqilg‘i importiga qaramlilik energiya xavfsizligiga ta’sir qilishi mumkin
Texnologik yutuqlar	Quyosh, shamol va energiyani saqlash texnologiyalarining jadal rivojlanishi samaradorlik va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi	qazib olinadigan yoqilg‘i uchun uglerodni ushlash va saqlash va yadroviy energiya uchun ilg‘or reaktor konstruksiyalari kabi toza texnologiyalarni rivojlantirish uchun davomli tadqiqotlar zarur
Hukumat siyosati va imtiyozlari	Ko‘pincha farzand asrab olishni rag‘batlantirish uchun qo‘llab-quvvatlovchi siyosatlar, subsidiyalar va rag‘batlardan foyda ko‘radi	Siyosat turlicha bo‘lishi mumkin va rag‘batlarga geosiyosiy omillar ta’sir qilishi mumkin

Umuman olganda qayta tiklanuvchi va an’anaviy energiya manbalarini tanlashda ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillarni inobatga olish talab etiladi. Optimal energiya aralashmasi mintaqaviy xususiyatlar, siyosat asoslari va rivojlanayotgan texnologik landshaftlarga qarab farq qilishi mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O‘zbekistonda QTEdan foydalanish ko‘lamini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

O‘zbekistonda quyosh va shamol resurslaridan toza energiya ishlab chiqarish bo‘yicha yuqori salohiyatga ega. O‘zbekistonda QTE manbalaridan foydalanish strategiyalarini ishlab chiqishga 2017-yildan keyin e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasida Barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha ham strategik yo‘nalishlar qabul qilinmoqda. Mazkur strategiyalarni ishlab chiqishda QTE manbalaridan foydalanish ko‘lamini oshirish bo‘yicha aniq “yo‘l xaritalari” hududlar imkoniyatlari va sharoitlarini hisobga olingan holda ishlab chiqilishi lozim.

O‘zbekistonda Quyosh fotoelektr stansiyalarni barpo etish va ularda energiya quvvatlarini oshirish bo‘yicha xalqaro kompaniyalar bilan keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Mazkur yo‘nalishlardagi faoliyatni kengaytirish uchun xalqaro tashkilotlarning barqaror rivojlanish maqsadlarida amalga oshirilayotgan grant mablag‘laridan foydalanish va hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan QTE manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilarni, shuningdek, QTE manbalarining qurilmalarini ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga, QTE manbalaridan ishlab chiqariladigan energiya bozorida narx va tarif siyosatiga doir masalalarni hududlar bo‘yicha belgilash amaliyotini kiritilishi maqsadga muvofiq. Sababi, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish imkoniyatlari barcha hududlar bo‘yicha turlichadir.

QTE texnologiyalari va loyihalarni boshqarish bo‘yicha mahalliy ishchi kuchining malakasini oshirish uchun o‘quv dasturlari va ta’lim tashabbuslari amalga oshirilishi lozim. Aholiga QTEning afzalliklari haqida ma’lumot berish, ularning ijobiy idrokni rivojlantirish uchun OAVlarida keng ko‘lamli PR tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, sanoat sohalarida QTE loyihalariga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish uchun investitsiya forumlari va qulay investitsiya muhitini yaratishga qaratilgan siyosati amalga oshirilishi lozim.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston QTE manbalarini keng qo‘llash uchun qulay muhit yaratib, energiya xavfsizligi, iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikka hissa qo‘shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2. Mohammed Abdul Sattar, Mohd Sameeroddin, Md Kashif Gohar Deshmukh, Mohammad Abdul Sami (2020) Renewable energy and its industrial applications. International Research Journal of Engineering and Technology (IRJET). Issues 6, vol 7:6042–6046.
3. S. Mekhilef, R. Saidur, A. Safari, A review on solar energy use in industries, Renewable and Sustainable Energy Reviews, Volume 15, Issue (4):1777–1790.

4. Kasperowicz R., Bilan Y., Štreimikienė D. The renewable energy and economic growth nexus in European countries // Sustainable Development. –2020. –T. 28. –№. 5. –S. 1086-1093.
5. Chen Y. et al. Renewable energy and economic growth: A Markov-switching approach //Energy. – 2022. – T. 244. – S. 123089.
6. Shahbaz M. et al. The effect of renewable energy consumption on economic growth: Evidence from the renewable energy country attractive index //Energy. –2020. –T. 207. –S. 118162.
7. Dogan E. et al. The impact of renewable energy consumption to economic growth: a replication and extension of // Energy Economics. –2020. –T. 90. –S. 104866.
8. Imamov A. E., Imamov E. Z., Karimov X. N. Yangi O‘zbekistonda QTE manbalarini joriy etish bilan bog‘liq muammolar //Science and innovation. –2022. – T. 1. –№. A3. –S. 367–372.
9. Sodiqova D. R., Raxmatov F. K. QTE manbalaridan foydalanishning xukukiy jihatlari //” Conference on Universal Science Research 2023”. – 2023. –T. 1. – №. 5. –S. 87–93.
10. Allanazarov Q. O., Omonov K. X. Mamlakatni modernizatsiya qilishda QTEdan foydalanish istiqbollari //Results of National Scientific Research International Journal. –2022. –T. 1. –№. 8. –S. 57–62.
11. Urishev B. U. i dr. QTE manbalariga asoslangan lokal energiya tizimlarining samaradorligini aniqlash //Muqobil energetika. –2022. –T. 1. –№. 04. –S. 97–102.
12. Buzrukxanov S. Sanoat korxonalarida muqobil energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha xalqaro tendensiyalar // Economics and Innovative Technologies. –2023. –T. 11. –№. 1. –S. 224–235.



BARCHA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA TENG RAQOBAT SHAROITINI YARATISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING O‘RNI

Akbarov Akmalxon Akrom o‘g‘li
Soliq qo‘mitasi bosh inspektori, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ilmiy maqolada islohotlarning hozirgi sharoitida tadbirkorlik subyektlariga teng sharoitlar yaratishda soliq imtiyozlari orqali qo‘llab-quvvatlash tizimining amaldagi holati tahlil qilingan. Istiqbolda samaradorligi past soliq imtiyozlarini aniqlash va ularni bekor qilish taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik subyektlari, soliq tizimi, soliq imtiyozi va preferensiyalari, soliq mexanizmi.

Abstract: The scientific article analyzes the current state of the system of support through tax incentives to create equal conditions for business entities in the current conditions of reforms. In the future, proposals and recommendations were made to determine low-efficiency tax benefits and their cancellation.

Key words: business entities, tax system, tax relief and preferences, tax rate, tax mechanism.

Аннотация: В статье проведен анализ современного состояния системы поддержки посредством налогового стимулирования создания равных условий для субъектов предпринимательства в современных условиях реформ. В дальнейшем были внесены предложения и рекомендаци по определению низкоэффективных налоговых льгот и их отмене.

Ключевые слова: субъекты предпринимательства, налоговая система, налоговые льготы и преференции, налоговая ставка, налоговый механизм.

KIRISH

Tadbirkorlikni rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri xo‘jalik yurituvchi subyektlarga adolatlilik asosida soliq imtiyozlari tizimini yaratish bo‘lib, buning uchun soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish, unga ta’sir etadigan salbiy ichki va tashqi omillarni minimallashtirish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-son Farmoni bilan sog‘lom raqobat muhitining rivojlanishini cheklayotgan alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlarga eksklyuziv huquqlar, individual imtiyozlar hamda preferensiyalar berish amaliyotidan voz kechish topshirilib, soliq imtiyozlari Soliq kodeksi[1] bilan berilishi hamda ular individual xususiyatga ega bo‘lishi mumkin emasligi belgilab qo‘yildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni 12-moddasiga asosan davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ularni tovar yoki moliya bozorida faoliyat ko‘rsatayotgan boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan afzal holatga qo‘yadigan imtiyozlar, preferensiyalar va yengilliklarni asossiz ravishda berishi ta’qiqlanishi ko‘rsatilgan.

Soliq islohotlari doirasida alohida xususiyatdagi soliq imtiyozlari bosqichma-bosqich soliq imtiyozlarini bekor qilish orqali barcha tadbirkorlik subyektlariga teng sharoit yaratib berildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Soliq imtiyozlari” tushunchasiga berilgan ta’riflarga batafsil to‘xtalib o‘tamiz. Dastlab konseptual asosga to‘xtaladigan bo‘lsak O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 75-moddasida soliq imtiyozlari deb soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliqni to‘lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyatiga deb belgilangan.

Shu bilan birga soliq imtiyozlari soliq imtiyozlari individual xususiyatga ega bo‘lishi mumkin emasligi hamda ayrim soliqlar bo‘yicha soliq imtiyozlari, qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i solinadigan mahsulotlar ishlab

1 O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 75-moddasi

chiqarilganda va (yoki) realizatsiya qilinganda aksiz solig‘i yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqdan va foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘idan tashqari, ushbu moddaning oltinchi qismi qoidalarini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasini kamaytirish, lekin ko‘pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va uch yil muddatga berilishi mumkinligi qayd etilgan.

V.N.Nezamaykin va I.L.Yurzinova “soliq imtiyozi – boshqa to‘lovchilarga nisbatan soliq to‘lovchilarga, soliq to‘lovchilarning alohida toifalariga soliq qonunchiligida ko‘zda tutilgan afzalliklarning, jumladan, soliq yoki yig‘imini to‘lamaslik yoki kichikroq hajmda to‘lash imkoniyatining berilishi” deb e’tirof etishgan[2].

I.A. Mayburov o‘zining ilmiy ishlarida soliq imtiyozlarining shakllarini ham ko‘rsatib o‘tgan: “soliq imtiyozlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to‘lash muddatini o‘zgartirish bo‘yicha imtiyozlar olishga imkon beruvchi imtiyozlar hamda ular bir nechta shakllarga ajratiladi: soliq krediti, investitsion soliq imtiyozi, soliq ta’tili”[3].

T. Malikovning fikricha: “Soliq imtiyozlari deganda soliq to‘lovchining soliq majburiyatlari hajmi to‘liq yoki qisman qisqarishi, to‘lov muddati kechiktirilishi yoki orqaga surilishi tushuniladi. Soliqlarning rag‘batlantiruvchi funksiyasi soliq imtiyozlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozi soliqqa tortish obyektining o‘zgarishida, soliqqa tortish bazasining kamayishida (qisqarishida), soliq stavkalarining pasaytirilishida va boshqalarda o‘z ifodasini topadi”[4].

Z. Kurbanov va F. Akramov soliq imtiyozlarini mohiyatini ochish maqsadida uni nazariy jihatdan uch guruhga bo‘lib o‘rganishgan:

- soliqdan to‘liq yoki qisman ozod etish;
- soliqdan chegirmalar;
- soliq kreditlari (soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar)[5].

F.R. Axmatullayeva esa soliq imtiyoziga iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagicha ta’rif bergan: “imtiyozlar – bu iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida soliq to‘lovchining soliq majburiyatlarini qonun tomonidan belgilangan shaklda butunlay yoki qisman kamaytirishning yo‘llari, huquqlari va majburiyatlari majmuidir”[6].

O.T. Yuldashev ilmiy ishlarida ancha takomillashgan ta’rif bergan: “Soliq yukining og‘irligini kamaytirish va soliq to‘lovchilarning yanada samarali faoliyat ko‘rsatishlarini rag‘batlantirish maqsadida boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga o‘rnatilishining qonuniyligi, individual va diskriminatsion xarakterda bo‘lmasligi, qo‘llanilishining ixtiyoriyligi va muddatsizligi hamda soliq afzallik (qulaylik)larning yaratish tarzida berilib, soliq majburiyatlarini kamaytiruvchi yengilliklarga soliq imtiyozlari deyiladi”[7].

Shu o‘rinda I. Niyazmetov tomonidan bildirilgan fikrni ta’kidlash lozim: “Aslini olganda tadbirkorlik subyektlari uchun eng yaxshi soliq imtiyozi bu past soliq stavkalari, ya’ni yengil soliq yukidir. Korxonalarning ayrim toifalariga berilgan, iqtisodiy asoslanmagan va samarasiz soliq imtiyozlari ro‘yxati qanchalik qisqartirilsa sanoat korxonalarining soliq yukini kamaytirishga shunchalik imkon yaraladi. Shu sababli, individual xarakterda Soliq kodeksidan tashqari berilgan barcha soliq imtiyozlarini bekor qilib, ularning o‘rniga xalqaro amaliyotda sinalgan innovatsion soliq kreditlari, soliq ta’tillarini ko‘zda tutish maqsadga muvofiq”[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, iqtisodiy tadqiq etish metodologiyasi, taqqoslash, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik kabi tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratish maqsadida soliq imtiyozlarini bekor qilish bo‘yicha bosqichma-bosqich ishlar amalga oshirilmoqda.

Belgilangan strategiyadan kelib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi 2022-yil 8-apreldagi PF-101-sonli Farmoni 2-ilovasiga asosan 5 ta yo‘nalishga berilgan individual xususiyatga ega bo‘lgan soliq imtiyozlari barcha tadbirkorlik subyektlari uchun tatbiq etilishi belgilandi.

2 Незамайкин В.Н., Юрзинова И.Л. Налогообложение юридических и физ. лиц. –М.:Экзамен, 2004. С.44.
3 Майбуров И.А. Налоги и налогообложение. 4-е изд. – М.:– 558 с.2011.
4 Malikov T.S, Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. Monografiya. –T.: Akademiya, 2002. –204 b.
5 Kurbanov Z., Akramov F. “Soliq imtiyozlarining moliyaviy hisobini takomillashtirish masalalari” Biznes-ekspert ilmiy jurnali №9 2015.
6 Raxmatullaeva F. “Soliq imtiyozlarining mohiyati va iqtisodiyotni rag‘batlantirishdagi roli”. Moliya ilmiy jurnali №2.2016.
7 Yuldashev O.T. O‘zbekiston respublikasida soliq imtiyozlarini takomillashtirish yo‘nalishlari i.f.n. dissertatsiyasi, –T.: 2011-y. 22-bet.
8 Niyazmetov I.M. “Investitsion-innovatsion faollikni oshirishda soliq mexanizmining rolio‘zbekiston”. Iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishga bank-moliya tizimining samarali ta’sirini kuchaytirish. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislari to‘plami. –Toshkent: Moliya, 2017. 197-b.

Xususan, 2022-yil 1-maydan boshlab baliqchilik, ipakchilik va pillachilik, charm-poyabzal va mo‘ynachilik hamda qizilmiya va boshqa dorivor o‘simliklarni yetishtirish tarmoqlari uchun tatbiq etilgan soliq imtiyozlari mazkur sohalarda faoliyat yurituvchi barcha subyektlar uchun ham tatbiq etildi.

Bu o‘z navbatida tadbirkorlik subyektlari ixtiyorida ishlab chiqarishni rivojlantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun qo‘shimcha mablag‘lar shakllanishiga xizmat qiladi.

Tahlillar natijasida, 2020-2022-yillar yillar kesimida soliq imtiyozlaridan foydalanib kelingan summalar turli xil o‘zgarish dinamikasini namoyon qilmoqda

Soliq imtiyozlarining qo‘llanilishi natijasida korxonalar ixtiyorida 2020-yilda 31,1 trln. so‘m (I), 2021-yilda 43,5 trln. so‘m (II), 2022-yilda 72,9 trln. so‘m (III) miqdorida mablag‘ qolganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xususan, yillar kesimida soliq turlari bo‘yicha soliq imtiyozi summalari ko‘radigan bo‘lsak:

- 2020 yilda QQS – 24,6 trln. so‘m, foyda solig‘i – 2,9 trln. so‘m, yer solig‘i – 1,3 trln. so‘m, ijtimoiy soliq – 0,3 trln. so‘m, mol-mulk solig‘i – 0,3 trln. so‘m, JShDS – 0,9 trln. so‘m, AOS 0,2 trln. so‘m, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – 0,4 mlrd. so‘m;
- 2021-yilda QQS – 36,8 trln. so‘m, foyda solig‘i – 2,2 trln.so‘m, yer solig‘i – 2,6 trln. so‘m, ijtimoiy soliq –0,4 trln. so‘m, mol-mulk solig‘i – 0,3 trln. so‘m, JShDS – 1,1 trln. so‘m, AOS 0,1 trln. so‘m, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – 0,04 mlrd. so‘m;
- 2022-yilda QQS – 64,1 trln. so‘m, foyda solig‘i – 4,6 trln. so‘m, yer solig‘i – 0,9 trln. so‘m, ijtimoiy soliq –1,2 trln. so‘m, mol-mulk solig‘i – 0,9 trln. so‘m, JShDS – 1,0 trln. so‘m, AOS 0,1 trln. so‘m, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – 0,01 mlrd. so‘m imtiyoz qo‘llanilgan.

Bunda, soliq turlari kesimida tahlil qilinganda, soliq imtiyozlarining asosiy qismi (80-85%) qo‘shilgan qiymat solig‘iga to‘g‘ri kelishi kuzatilmoqda.

Ko‘rish mumkinki, 2022-yilda o‘tgan yillarga nisbatan foydalanilgan soliq imtiyozlari summasi keskin ortgan (70% ga ortgan). Bunga ta’sir ko‘rsatuvchi faktorlardan biri sifatida 5 ta yirik sohadagi individual xususiyatga ega soliq imityozlarni barcha soliq tadbirkorlik subyektlariga tatbiq etilishi ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin.

1-jadval: 2020-2022-yillarda soliq turlari bo‘yicha qo‘llanilgan soliq imtiyozlari bo‘yicha tahlil, trln.so‘mda[9]

Soliq turlari	2020-yil		2021-yil		2022-yil	
	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
Jami	93 871	31,1	109 363	43,5	195 884	72,9
QQS	7 031	24,6	15 508	36,8	28 214	64,1
Foyda solig‘i	3 335	2,9	2 709	2,2	25 015	4,6
Yer solig‘i	4 531	1,3	11 743	2,6	6 204	0,9
JShODS	44 093	0,9	56 165	1,1	41 580	1,0
Suv RFS	673	0,4	1 376	0,04	685	0,01
Ijtimoiy soliq	6 230	0,3	11 247	0,4	52 616	1,2
Mol-mulk solig‘i	4 813	0,3	2 195	0,3	7 809	0,9
Aylanmadan olinadigan soliq	23 165	0,2	8 420	0,1	32 921	0,1

Bundan tashqari samaradorligi past bo‘lgan soliq imtiyozlarini ham aniqlash lozim hisoblanadi. Sababi, tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonda amaldagi qonunchilik bilan tadbirkorlik subyektlariga berilgan imtiyozlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan o‘rtacha 6,0 foizni tashkil etib, ayrim xorijiy davlatlarga nisbatan 1,5-2 barobarga yuqori bo‘lib qolmoqda.

Masalan, Janubiy Koreyada soliq imtiyozlari yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2,7 foizni, Ispaniyada 3 foizni, Turkiyada esa ushbu ko‘rsatkich 4,2 foizni tashkil etgan.

Yuqoridagilarga asosan, individual yoki soliq kodeksi talablariga zid kelgan soliq imtiyozlarini doimiy tarzda aniqlab borish va tadbirkorlar uchun keng sharoit yaratish va samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

9 Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Yuqoridagilarini inobatga olgan holda, respublikamizda raqobat muhitini yanada yaxshilash hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish va iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida quyidagilar taklif etiladi.

1. Raqobat muhitiga to'sqinlik qiluvchi individual xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlarni tahlil qilish va bekor qilish choralarini ko'rish;
2. Xorij tajribasidan kelib chiqqan holda imtiyozlarni samaradorligini aniqlash bo'yicha tartib ishlab chiqish.
3. Imtiyoz va preferensiyalar berishni Soliq kodeksi talablarida amalga oshirish.

Xulosa qilib aytganda, alohida yoki soliq kodeksiga zid bo'lgan soliq imtiyozlarini aniqlab borish va tadbirkorlar uchun teng raqobat muhitini yaratish va samaradorligi past bo'lgan soliq imtiyozlarini bekor qilinishi respublikada ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: Adolat, 2023.
2. Майбуров И.А. Налоги и налогообложение. 4-е изд. –М.:– 558 с. 2011.
3. Незамайкин В.Н., Юрзинова И.Л. Налогооблажение юридических и физических лиц. –М.: Экзамен, –2004. –С.44.
4. Malikov T.S, Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. Monografiya. –T.: Akademiya, –2002. –204 b.
5. Kurbanov Z., Akramov F. "Soliq imtiyozlarining moliyaviy hisobini takomillashtirish masalalari" Biznes-ekspert ilmiy jurnali №9 2015.
6. Raxmatullaeva F. "Soliq imtiyozlarining mohiyati va iqtisodiyotni rag'batlantirishdagi roli". Moliya ilmiy jurnali №2.2016.
7. Yuldashev O.T. O'zbekiston respublikasida soliq imtiyozlarini takomillashtirish yo'nalishlari i.f.n. dissertatsiyasi, –T.: –2011 y. –22-bet
8. Niyazmetov I.M. "Investitsion-innovatsion faollikni oshirishda soliq mexanizmining rolio'zbekiston". Iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishga bank-moliya tizimining samarali ta'sirini kuchaytirish. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislari to'plami. –Toshkent.: –Moliya, –2017. –197 b.



TURISTIK HUDUDLARNING BARQAROR RIVOJLANISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASIDA INTEGRAL BAHOLASH KO‘RSATKICHLARINI ANIQLASHNING NAZARIY JIHATLARI

Asraqulov Abduraxmon Sultonovich
I.f.f.d., PhD, Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi,
“Buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada turistik hududlar barqaror rivojlanishini baholash metodologiyasida umumlashgan integral ko‘rsatkichlarni aniqlash nazariy asoslari mualliflik yondashuvi asosida o‘rganilgan. Aniqlanadigan integral ko‘rsatkichlarni hisoblash jarayonida yuzaga keladigan noaniqliklarni bartaraf etish asosida uslubiyotni takomillashtirish yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy barqarorlik, turistik hududlar, ijtimoiy-iitisodiy tizimlar, baholash metodikasi, integral ko‘rsatkichlar.

Abstract: The article examines the theoretical aspects of determining generalized integral indicators in the methodology for assessing the sustainable development of tourist territories based on the author’s approach. Proposed the ways of improving the methodology based on the elimination of uncertainties arising in the process of calculating the determined integral indicators.

Key words: economic sustainability, tourist territories, socio-economic systems, assessment methodology, integral indicators.

Аннотация: В статье исследованы теоретические аспекти определения обобщенных интегральных показателей в методологии оценки устойчивого развития туристских территорий на основе авторского подхода. Предложены пути совершенствования методики на основе устранения неопределенностей, возникающих в процессе расчета определяемых интегральных показателей.

Ключевые слова: экономическая устойчивость, туристские территории, социально-экономические системы, методика оценки, интегральные показатели.

KIRISH

Zamonaviy sharoitda yuqori turistik resurs salohiyatiga ega bo‘lgan hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini baholashning amalda maqbul va samarali usullari hamda vositalarini shakllantirish, ularning holatini aniq talqin qilish tadqiqot va boshqaruv nuqtayi nazaridan yuqori ahamiyatga ega bo‘lsa-da, bugungi kungacha bu masalaning oddiy va aniq yechimlari yagona maxrajga kelmagan.

Bundan 21 yil avval, ya’ni 1992-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish bo‘yicha bo‘lib o‘tgan konferensiyasida hududlarning barqaror rivojlanish holatini baholashda metodologiyani ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha harakatlar boshlangan bo‘lib, o‘tgan davr mobaynida yetakchi xalqaro tashkilotlar va alohida tadqiqot guruhlari hududlarning, jumladan, turistik hududlarning barqaror rivojlanish darajasini miqdoriy jihatdan aniqlashda turli uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqmoqdalar va taklif qilmoqdalar. Jahonning xalqaro tashkilotlari, xususan, Birlashgan Millatlar tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Jahon banki, Yevropa Hamjamiyati kabi yirik xalqaro tashkilotlar tomonidan alohida baholash uslubiyotlari ishlab chiqilganligiga qaramay, bugungi kunga qadar hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish va baholash bo‘yicha ko‘pchilik tomonidan tan olinadigan, xususiy holatlarga ham standart baho berish imkonini beradigan nazariy va uslubiy yondashuv hali ishlab chiqilmagan [1].

Tadqiqot jarayonida turistik hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanish holatini integral ko‘rsatkichlar orqali baholash bo‘yicha tadqiqotlarni nazariy tahlil qilish asosida mamlakatimizning resurs salohiyati yuqori bo‘lgan turistik hududlarining barqaror rivojlanish darajasini baholash imkonini berishi mumkin bo‘lgan uslubiyotni takomillashtirishga harakat qilindi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotni amalga oshirishda turistik hududlarning barqaror rivojlanishida eng muhim omillarni o‘zida umumlashtirgan baholash uslubiyotlarini ko‘rib chiqqan holda, mavjud uslubiyotlardan mamlakatimiz turistik hududlari salohiyati va barqarorlik darajasini aniqlash mumkin bo‘lgan uslubiyotni shakllantirildi.

Ushbu jarayonda bir qator integral ko‘rsatkichlarni aniqlash usullari (BMT, IHTT, Jahon banki va boshqalar) nazariy tahlil qilindi hamda tegishli o‘zgartirishlar kiritilgan holda tayanch va yig‘ma ko‘rsatkichlar ajratib olindi. Izlanish jarayonida monografik, taqqoslash, statistik hamda empirik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Turistik hududlar barqaror rivojlanishini baholashda umumlashtiruvchi integral ko‘rsatkichlardan foydalanish hamda ushbu ko‘rsatkichlarni aniqlash uslubiyoti bo‘yicha bir qator tadqiqotchilar izlanishlarni amalga oshirgan.

G.Feraru va A.Orlovalar tomonidan hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash uslubiyoti nazariy jihatdan o‘rganilgan bo‘lib, tadqiqotchilar tomonidan hududlarni baholashda mavjud salohiyatga asosiy urg‘u berilgan [1].

Ye.Nikulina, I.Chistnikova va A.Orlovalarning tadqiqotlarida mintaqalarning iqtisodiy salohiyatining shakllanishi hamda iqtisodiy salohiyatdan foydalanish masalalari o‘rganilgan [2].

Ye.Ignatyeva va O.Mariyevlar o‘z izlanishlarida mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanishi tahlilining uslubiy jihatlarini o‘rganishgan [3].

Biroq ushbu tadqiqotlarda turistik salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini umumlashgan ko‘rsatkichlar asosida integral baholash masalalari zaruriy darajada o‘rganilmagan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday turistik hududning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy tarkibiy qismlar uchligi orqali belgilanadi [2].

1-jadval: Turistik hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholashning bazaviy va yig‘ma ko‘rsatkichlari tizimi

Integral (yig‘ma) ko‘rsatkichlar	Bazaviy ko‘rsatkichlar
Turistik hududning tabiiy resurs darajasi	Tabiiy resurslar miqdori; Turistik resurslar miqdori; Turistik destinatsiyalar soni; Suv manbalariga tashlanayotgan oqova suvlar hajmi.
Turistik hududning kadrlar salohiyati darajasi	Iqtisodiy faollik darajasi; Ishsizlik darajasi; Kadrlarning malaka darajasi.
Turistik hududning iqtisodiy rivojlanish darajasi	Yalpi hududiy mahsulot hajmi; Hududiy turistik mahsulot hajmi; Turizm sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmi; Turizm sohasidagi asosiy vositalarning eskirish darajasi
Turistik hududning innovatsion rivojlanish darajasi	Ilmiy tadqiqot va ishlanmalar yaratilayotgan korxonalar soni; Innovatsion turistik mahsulot ulushi; Korxonalarning innovatsion faollik darajasi.
Turistik hududda infratuzilmaning rivojlanish darajasi	Aloqa xizmatlari hajmi; Internet tezligi; Yo‘lovchi tashish aylanmasi; Yo‘llar uzunligi.
Turistik hududning ijtimoiy rivojlanish darajasi	Aholining ta’lim darajasi; Aholining umr ko‘rish davomiyligi; Yashash minimumidan past daromadga ega aholi ulushi.

Fikrimizcha, turistik hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash uchun ijtimoiy-iqtisodiy tizimning bazaviy ko‘rsatkichlaridan foydalanish kerak, chunki ular turistik hudud ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining barcha jihatlarini hisobga olishga imkon beradi. Shu munosabat bilan turistik hududlarning barqaror rivojlanish darajasini baholash uchun 1-jadvalda keltirilgan bazaviy va yig‘ma ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Turistik hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlarini hisoblash uchun ularning iqtisodiy faoliyatini tavsiflovchi tegishli statistik ma’lumotlardan foydalanish va ularni aholi jon boshiga (yoki yalpi hududiy mahsulotga nisbatan) to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ko‘rsatkichlarga nisbatan meyorlash orqali olinishi va bu bilan ma’lumotlarning taqqoslanishini ta’minlash maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimning ma’lum bir jihatining rivojlanish darajasini tavsiflovchi yig‘ma ko‘rsatkichlarni tizimning asosiy qiymatlarining o‘rtacha arifmetik qiymatini hisoblash yo‘li bilan aniqlash taklif etiladi (1).

$$I_{brd} = \frac{\sum I_n}{n} \quad (1)$$

Bu yerda: I_n – barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bazaviy ko‘rsatkichining meyoriy qiymati.

n – ko‘rsatkichlar soni.

Yig‘ma ko‘rsatkichlarni hisoblash barcha bazaviy ma’lumotlar bir-birining o‘rnini bosishini nazarda tutadi va normalashtirilgan ko‘rsatkichlardan birining qiymatining pasayishi integral baholashda bazaviy ko‘rsatkichning boshqa normalashtirilgan qiymatining ijobiy o‘zgarishi bilan to‘liq qoplanadi.

Yuqoridagi bazaviy ko‘rsatkichlarning (1) bog‘lanish natijalaridan (2) bog‘lanish bo‘yicha turitisk hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi integral ko‘rsatkichini aniqlash taklif etiladi.

$$I_{int} = \sqrt[n]{I_{trd} \cdot I_{ksd} \cdot I_{iqrd} \cdot I_{inrd} \cdot I_{infrd} \cdot I_{ijrd}} \quad (2)$$

Bu erda: I_{int} – turistik hudud barqaror rivojlanishining integral ko‘rsatkichi;

I_{trd} – turistik hududning tabiiy resurs darajasi;

I_{ksd} – turistik hududning kadrlar salohiyati darajasi;

I_{iqrd} – turistik hududning iqtisodiy rivojlanish darajasi;

I_{inrd} – turistik hududning innovatsion rivojlanish darajasi;

I_{infrd} – turistik hududda infratuzilmaning rivojlanish darajasi;

I_{ijrd} – turistik hududning ijtimoiy rivojlanish darajasi.

Shuni ta’kidlash lozimki, turistik hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish uchun yig‘ma ko‘rsatkichlarining barcha qiymatlari chegaraviy va meyoriy qiymatlar chegarasidan yuqori zonada bo‘lishi kerak.

Fikrimizcha, turistik hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini integral baholash natijalarini 2-jadvalda keltirilgan optimal qiymatlar chegaralarini hisobga olgan holda izohlash maqsadga muvofiqdir.

2-jadval: Turistik hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini integral baholash natijalarining chegara qiymatlari talqini

Integral baholash guruhlari	Integral baho oraliqlari	Integral baho talqini
I guruh	0,85-1,00	Turistik hudud barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yuqori darajasi
	0,70-0,85	Turistik hududning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish
II guruh	0,50-0,70	Turistik hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi barqaror holatga yaqin
	0,25-0,50	Turistik hududning ba’zi beqarorlik belgilari bilan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi
III guruh	0,10-0,25	Turistik hududning beqaror, inqirozgacha bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy holati
	0,00-0,10	Turistik hududning ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz holati

Integral ko‘rsatkichning birinchi guruh qiymatlari turistik hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tavsiflaydi. Ushbu guruhga tegishli hududlarda barqaror rivojlanishning pasayishiga va iqtisodiyotning inqiroz holatiga yaqinlashishiga yordam beradigan omillar bo‘lishi mumkin.

Integral ko‘rsatkich qiymatlarining ikkinchi guruhi turistik hududlarda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning salbiy tendensiyalarini aks ettiradi va barqaror rivojlanish holatining buzilishi va iqtisodiy xavfsizlikka tahdid haqida ogohlantiradi.

Meyoriy va chegara qiymatlaridan past bo‘lgan integral ko‘rsatkich qiymatlarining uchinchi guruhi inqiroz zonasi bo‘lib, unda turistik hududlarning muvozanati va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi buziladi va to‘liq qulashga olib keladigan jarayonlar boshlanadi.

XULOSA

Turistik hududlarning rivojlanish holatini integral ko‘rsatkichlar asosida baholash tahlili ushbu hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash jarayoniga to‘sqinlik qilayotgan asosiy iqtisodiy muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkinligini ko‘rsatdi:

1. Hududlar texnologik rivojlanishning past darajasi va eskirgan moddiy-texnik bazasi.
2. Mahalliy turistik korxonalarning innovatsiyalarga nisbatan zaif sezgirligi.
3. Turizm sanoatining aksar hollarda ichki turizmga asoslanganligi.

Turistik hududlarning ijtimoiy rivojlanishi quyidagi muammolar bilan tavsiflanadi:

1. Yangi turistik xizmatlarga bo‘lgan talabga kadrlarning mahorat darajasi yetarli emasligi.
2. Turistik hududlarda resurslarning notekis joylashishi, bu ba’zi subyektlarga ortiqcha yuk va boshqalar uchun rivojlanish istiqbollarining pasayishiga olib keladi.
3. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga tadbirkorlik subyektlari qiziqishining past darajadaligi.

Shunday qilib, turistik hududlar ijtimoiy-iqtisodiy tizimining eng muhim yo‘nalishlari bilan bog‘liq asosiy ko‘rsatkichlar sonini cheklashda alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan taklif etilayotgan metodologiya, mavjud yondashuvlar bilan bir qatorda, hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlashga imkon beradi. Zero, bunday islohotlar hududlarning rivojlanishida yanada obyektiv natijalarga erishishga yordam beradi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududiy strategiyasini ishlab chiqish va uni qo‘llash imkonini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ферару Г.С., Орлова А.В. Методика оценки уровня устойчивого социально-экономического развития регионов / Современные проблемы науки и образования, – 2014. –№ 1.
2. Игнатьева Е.Д., Мариев О.С. Методологические основы анализа устойчивости развитии региональных социально-экономических систем [Текст] / Е.Д. Игнатьева, О.С. Мариев // Вестник УГТУ-УПИ. –2008. – № 5. –С. 15-21.
3. Экономический потенциал региона: проблемы формирования и эффективность использования: [Текст] моногр. / Е.В. Никулина, И.В. Чистникова, А.В. Орлова. –Белгород: ИПК НИУ “БелГУ”, –2011. –152 с.

IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA UNING AYRIM MASALALARI





Axunova Shoxistaxon Nomonjanovna
Farg'ona politexnika instituti
"Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti

Sultonova Gulbaxor Shoxnazimovna
Farg'ona politexnika instituti
"Iqtisodiyot" kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida "yashil" iqtisodiyotga o'tishning muhim vazifalari hamda uning samaradorligini oshirish, dekarbonizatsiyaga erishish va tabiiy resurslardan yanada oqilona foydalanish muhim masala sifatida qaraladi. Dunyoning turli bo'laklarida atrof-muhit haqida qayg'urish natijasida bir nechta barqaror rivojlanish, "yashil" o'sish kabi konsepsiyalar yuzaga kelmoqda. Bu jamiyatimizning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari o'rtasidagi muvozanatni turli sohalar tomonidan turlicha talqin qilishni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: "yashil" iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy barqarorlik, ekologik barqarorlik, konsepsiya, barqaror raqobatbardoshlik, resurs samarodorligi, resurs samaradorligi indeksi, resurs sarfi.

Abstract: In this research work, the important tasks of the transition to a "green" economy and the improvement of its effectiveness, the achievement of decarbonization and the more rational use of natural resources are considered as an important issue. As a result of concern about the environment in different parts of the world, several concepts such as sustainable development, green growth are emerging. It involves different interpretations of the balance between the ecological, social and economic aspects of our society by different sectors.

Key words: green economy, sustainable development, economic stability, social stability, environmental sustainability, concept, sustainable competitiveness, resource efficiency, resource efficiency index, resource consumption.

Аннотация: В этой исследовательской работе рассматриваются важные задачи перехода к "зеленой" экономике, а также повышение ее эффективности, достижение декарбонизации и более рациональное использование природных ресурсов. Забота об окружающей среде в разных частях мира приводит к появлению нескольких концепций устойчивого развития, таких как зеленый рост. Это включает в себя различные интерпретации баланса между экологическими, социальными и экономическими аспектами нашего общества в разных областях.

Ключевые слова: зеленая экономика, устойчивое развитие, экономическая стабильность, социальная стабильность, экологическая устойчивость, концепция, устойчивая конкурентоспособность, эффективность ресурсов, индекс эффективности ресурсов, потребление ресурсов.

KIRISH

Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar ichida va avlodlar o'rtasida ijtimoiy tenglikni ta'minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Bugungi kunda dunyo mamlaktlari bilan bir qatorda mamlakatimizda ham "yashil" iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni, energiya samaradorligini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-

yil 4-oktabrda tasdiqlangan “2019–2030-yillarda mamlakatimizning “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” muhim dasturi asosida jadal ishlar olib borilmoqda.

Barqaror iqtisodiyot va uning barqaror rivojlanishga ta’sirini o‘rganish, ayniqsa, so‘nggi yillarda ko‘pchilik tadqiqotchilar uchun muhim va hayotiy mavzulardan biri hisoblanadi. Barqaror iqtisodiyot – bu asosan inson farovonligini yaxshilash va rivojlantirish, ekologik xavflarni kamaytirishga olib keladigan mexanizm. Ekologik foyda nuqtayi nazaridan, u ifloslanishni kamaytirish orqali iqlimni yaxshilaydi. Shuningdek, u bandlik va investitsiya imkoniyatlarini ta’minlash, moddiy va insoniy resurslar va imkoniyatlar bilan ta’minlashda muhim rol o‘ynayd. Bu esa qashshoqlik va ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etadi, o‘z navbatida, kelajak avlodlar kelajagini ta’minlash uchun resurslarni saqlab qoladi. Bu inqirozlarni bartaraf etish va iqtisodiy tiklanishga erishish uchun milliy iqtisodiyot uchun uzoq muddatli strategiyadir, chunki barqaror iqtisodiyot hamma uchun munosib ish imkoniyatlarini taqdim etishga intiladi.

Barqaror iqtisodiyotning eng muhim maqsadlaridan biri siyosat va qoidalarni isloh qilish zaruratidir. Bu barqaror iqtisodiyotga to‘sqinlik qilishi yoki yengillik yaratishi imkoniyatlaridir. Barqaror iqtisodiyotga erishish barqaror jismoniy va insoniy rivojlanishga erishish uchun aksariyat kompaniyalar tuzilmasi va strategiyalarida tub o‘zgarishlarni talab qiladi.

Tadqiqot muhim jihatlarga, jumladan, barqaror iqtisodiyot konsepsiyasi, uning ahamiyati, maqsadlari va darajalari, eng muhim barqaror iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga ta’sirining ko‘rsatkichi sifatida barqaror iqtisodiyotga o‘tish zarurati va unga erishishga to‘sqinlik qiladigan eng muhim to‘siqlarga oydinlik kiritadi.

Tadqiqotning eng muhim maqsadi atrof-muhitni ifloslanishdan saqlagan holda barcha uchun farovonlikka erishish va iqtisodiy darajani oshirish uchun energiya va resurslarni optimal sarf qilish orqali barqaror rivojlanishda barqaror iqtisodiyotning ahamiyatini ko‘rsatishdir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha Dasturi (UNEP) barqaror iqtisodiyotni inson farovonligini yaxshilash, shu bilan birga, ekologik xavflarni va ekologik resurslar tanqisligini sezilarli darajada kamaytiradigan mexanizm sifatida belgilaydi. Oddiy qilib aytganda, bu kamroq uglerod chiqindilarini ishlab chiqarishga va barcha ijtimoiy guruhlarni resurslar bilan joylashtirishga urg‘u beradigan iqtisodiyot. Resurslar samaradorligi va energiya sarfini oshirish orqali ifloslanish va uglerod chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan. Barqaror iqtisodiyot, shuningdek, davlat va xususiy investitsiyalar hisobiga amalga oshirilishi kerak bo‘lgan daromadlar va ish o‘rinlari o‘sishiga intiladi. Ushbu investitsiyalarni maqsadli davlat xarajatlari, siyosatni isloh qilish va o‘zgartirish qoidalari bilan rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash kerak. Rivojlanish yo‘li tabiiy kapitalni saqlashi va yaxshilashi kerak. Darhaqiqat, uning shakllanishi zarurat paydo bo‘lganda cheklanadi, chunki u jamoat manfaati manbayi bo‘lib, ayniqsa, xavfsizligi va turmush tarzi tabiatga bog‘liq bo‘lgan aholi uchun ijtimoiy masaladir[1].

Tadqiqotning eng muhim maqsadi atrof-muhitni ifloslanishdan saqlagan holda barcha uchun farovonlikka erishish va iqtisodiy darajani oshirish uchun energiya va resurslarni optimal investitsiya qilish orqali barqaror rivojlanishda “yashil” iqtisodiyotning ahamiyatini ko‘rsatishdir.

Atrof-muhit iqtisodiyoti yoki ekologik iqtisodiyotdan farqli ravishda “yashil” iqtisodiyot ko‘proq amaliy xarakterga ega hisoblanadi. Umuman olganda “yashil” iqtisodiyot ustun darajada real iqtisodiy siyosat, konkret faoliyat sohalari (energetika, innovatsiya, qishloq xo‘jaligi va b.)ga taalluqlidir. Ushbu farqni “yashil” iqtisodiyotning inglizcha economics (iqtisodiy nazariya yoki environmental economics, ecological economics kabi iqtisodiy fanlar) emas, balki economy (real iqtisodiy faoliyat) so‘zlari orqali ifodalanishida kuzatishimiz mumkin.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishning quyidagi asoslariga ko‘ra ajratish mumkin:

- xo‘jalik yuritish va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik;
- iqtisodiy faoliyat tufayli uzoq istiqbolda atrof-muhitga yetkaziladigan zararni minimallashtirish, ekologik va ijtimoiy omillarni qamrab oluvchi iqtisodiy tizimlarni boshqarish usullari;
- xo‘jalik yuritish faoliyati va ishlab chiqarish sohalarida yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, ularning atrof-muhitga yetkaziladigan zararini minimallashtirishga yo‘naltirish tamoyillari.

“yashil” iqtisodiyotni amalga oshirishda ilmiy bilish usullarini tanlash va tadqiqot stкategiyasini tuzishda quyidagi tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- resurslarning cheklanganligi sharoitida ekologik omillarning birlamchi omil ekanligi;
- yashil iqtisodiyotni amaliyotga tatbiq etish bosqichlarini turli (nazariy, g‘oyaviy, siyosiy va iqtisodiy) darajalarga bo‘lish zaruriyatining mavjudligi;

Tadqiqot muhim jihatlarga, jumladan, “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi, uning ahamiyati, maqsadlari va darajalari, eng muhim “yashil” ish o‘rinlari, “yashil” iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga ta’sirining ko‘rsatkichi sifatida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish zarurati va unga yerishishga to‘sqinlik qiladigan eng muhim to‘siqlarga oydinlik kiritadi.

Tadqiqot “yashil” investitsiya tushunchasi, uning ahamiyati, motivlari va unga ta’siri bilan bog‘liq barqaror atrof-muhit va “yashil” iqtisodiyotda ekologik manfaatlarning ahamiyati.

1 United N 2011 Towards a green economy: Pathways to sustainable development and poverty eradication - a reference for policy-makers, Franc, pp.1-5.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Olimlar ekologik sanoat sektoridagi istiqbolli o‘zgarishlar orqali “yashil” o‘sishni “yashil” iqtisodiyot bilan bog‘lashadi. Bunga atrof-muhitni muhofaza qilishning yakuniy texnologiyasini innovatsiyalar va raqobatbardosh bozorlarga asoslangan resurslarni tejash usullariga aylantirish orqali yerishish mumkin. Ular barqarorlikdan tashqariga chiqadigan turmush tarzini qayta ko‘rib chiqishga qiziqish ortib borayotganiga ishora qildilar. Yuqori darajada olimlar innovatsiyalar va raqobatbardosh bozorlarga asoslangan atrof-muhitni muhofaza qilish texnologiyasidan resurslarni tejovchi texnologiyalarga o‘tish orqali “yashil” o‘sish va “yashil” iqtisodiyotni ekologik sanoat sektori bilan bog‘laydilar.


J. Xaynts, B. Hendricks fikricha “yashil” o‘sish bu tabiiy resurslardan barqaror tarzda foydalanadigan iqtisodiy o‘sish shaklini tavsiflovchi konsepsiyani anglatadi. Aslida, bu atama jahon miqyosida klassik sanoat iqtisodiy o‘sishiga muqobil konsepsiyani taqdim etish uchun tobora ko‘proq foydalanilmoqda, taraqqiyotning haqiqiy hodisasi va ekologik xavfsizlik konsepsiyasi bo‘lgan “yashil” iqtisodiyot fenomeniga olib keladi.

Lucretia D. iqtisodiy o‘sish davrida ko‘proq resurslar va energiya iste’mol qilinishi va atrof-muhitga ta’sir qiladigan chiqindilar ko‘proq ishlab chiqarilishi haqiqatdir. Ideal holda, cheklangan miqdordagi tabiiy resurslardan yuqori iqtisodiy qiymat olish milliy resurslardan foydalanish foizlaridan sezilarli darajada yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlashi kerak. Resurs samaradorligi ushbu mavzu bilan bog‘liq iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishga qodir bo‘lgan xarajatlarni tejash va yangi texnologiyalarni joriy etish qobiliyati degan fikrni bildirishdi.

NATIJALAR

OECDning ma’lumotlariga ko‘ra mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishi bir nechta omillar yig‘indisi sifatida olinadi. Ba’zi mamlakatlar mehnat kapitali va ishlab chiqarilgan kapitallar evaziga iqtisodiy o‘sishni ta’minlashsa qolganlari tabiiy kapitallar sarfi unumdorligini oshirish orqali ham o‘sish sur’atiga ta’sir o‘tkazishlari mumkin.

“Yashil” iqtisodiyotning keng tarqalgan konsepsiyasi bu past uglerodli iqtisodiyot. Kam uglerodli rivojlanish maqsadi atmosferaga issiqxona gazlari chiqindilarini chiqarishni kamaytirishdir. Ko‘pgina xorijiy olimlarning fikrlariga ko‘ra, bu issiqxona gazlar chiqindilarining kamayishi global iqlim tizimining barqarorlashishiga olib keladi. Ushbu maqsadga erishishning bir yo‘li energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishdir. SO_2 emissiyasining asosiy manbayi - qazib olinadigan ko‘mir, neft, gazdan foydalanishdir. Hozirda ko‘pgina mamlakatlar va xalqaro korporatsiyalar issiqxona gazlari chiqindilarini muhim manbayi bo‘lgan ko‘mirdan foyldalanishni kamaytirmoqda.



1-rasm: “yashil” iqtisodiyotning umumiy tuzilishi

BMTning inson taraqqiyoti bo‘yicha global hisobotida ko‘rsatilgandek, “barqaror rivojlanish va imkoniyatlar tengligi: hamma uchun yaxshiroq kelajak” ijtimoiy adolat muammosi ko‘p jihatlarga ega: avlodlar o‘rtasidagi va avlodlar ichida, boy va kambag‘al davlatlar o‘rtasidagi tenglik, alohida mamlakatlar ichida daromadlarni taqsimlashda adolatga rioya qilish. Xususan, boy va kambag‘al davlatlar o‘rtasida o‘sib borayotgan tafovutni bartaraf etish qiyin masala. XXI asr boshida dunyo aholisining eng boy 20 %i iste’mol xarajatlarining 86 % ini, eng kambag‘al 20 %i esa xarajatlarning 1,5 %ini tashkil qilgan.

Resurs samaradorligi bo‘yicha yuqori yoki past ballning asosiy oqibatlari barqarorlik va barqaror iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liq. Agar kelajakda xom ashyo va energiyaga global narxlar sezilarli darajada ko‘tarilsa (tendesiyalar va mavjud tadqiqotlarning aksariyati shuni ko‘rsatmoqda), quyi pog‘onadagi mamlakatlar sezilarli darajada yuqori xarajatlar va o‘sish sur’atlarini saqlab qolish uchun samaradorlik va intensivlik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan mamlakatlar bilan solishtirganda, qiyinchiliklarga duch kelishadi.

O‘zbekiston 2017–2021-yillarda ushbu soha loyihalariga 1,9 mlrd. AQSh dollari miqdorida investitsiya sarfladi. Umumiy quvvati 500 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyalarini qurishga 1,1 mlrd AQSh dollari, 8 ta GES va 13 ta kichik GESlar qurish uchun 700 mln.dollar sarflash rejalashtirilgan va amalga oshirilgan. Tadqiqotlarga ko‘ra, dunyoda 1 kvadrat metr maydon uchun energiya sarfi yiliga 120–150 kvt/soatni tashkil etadi. O‘zbekistonda xuddi shuncha hajmdagi maydon uchun 390 kvt/soat energiya sarflanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda IESlarni qurish bo‘yicha bir nechta loyihaga start berildi. Jumladan: BAAning “Masdar” kompaniyasi tomonidan Navoiy viloyatining Tomdi tumanida qiymati 600 mln. AQSh dollari bo‘lgan 500 MVt quvvatli shamol elektr stansiyasini qurish bo‘yicha kelishuvlar imzolandi. Ushbu stansiya 2024 yilda to‘liq foydalanishga topshirilgach, yillik 1,8 mlrd kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi va 1 yilda 546 mln. kub metr tabiiy gaz tejaladi. Saudiya Arabistonining “ACWA Power” kompaniyasi Buxoro viloyatining G‘ijduvon va Peshko‘ tumanlarida qiymati 1,3 mlrd AQSh dollari bo‘lgan 1000 MVt quvvatli 2ta IES qurishi bo‘yicha kelishuv imzolangan bo‘lib, ushbu stansiyalar 2023 yilda ishga tushirilgach, yillik 3,6 mlrd kVt/soat elektr energiyasi yetkazib beriladi va yiliga 1,1 mlrd kub metr tabiiy gaz tejalishini ta’minlaydi.

Hozirgi vaqtda elektr energiyasidan foydalanish juda qimmatga tushayapti. Ya’ni elektr energiyasini boshqa davlatlardan 3–4 marta ko‘p ishlatamiz. Uni iste’molchilarga uzatish borasida 23% energiya yo‘qotilyapti, tabiiy gazdan foydalanishda esa 20 % gaz resurlari yo‘qotilyapti. Energiyani uzatish magistrali 80% eskirgan, talabga javob bermaydi. Respublika iqtisodiy tadqiqotlar markazi, muqobil energiya manbalari muassasalarining ekspertlari fikricha quyosh va shamol energiyasidan foydalanish, fotoeletr stansiyalarni ishga solish asosida 700 ming yangi ish o‘rinlari yaratiladi, bir mln.. tonna biotopliva va 400 ming tonna sun’iy biotopliva ishlab chiqarish mumkin ekanligi aytilmoqda.

XULOSA

Iqtisodiyotning o‘sishni ta’minlash “yashil” iqtisodiyotning rivojlanishiga hech qanday to‘siq qo‘ymaydi, aksincha resurslardan samarali foydalanish mo‘tadillikni saqlaydi va davomiylikni ta’minlaydi. Ayniqsa, tabiiy resurlardan oqilona foydalanish, uni suiiste’mol qilish orqali tabiiy boyliklarning zaxirasidan noo‘rin foydalanishdan asraydi. Ba’zi mamlakatlarning tabiiy boyliklarga qaramligi yuqori darajada bo‘lib ularning iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari asosan tabiiy resurslarning sarfi bilan shakllantiriladi. Ekologik ta’siri ham juda keng resurs sarfi yuqori bo‘lgan mamlakatlarning uzoq yillar uchun barqaror o‘sishni ta’minlashda qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda shamol energiyasi, suv energiyasi va quyosh energiyasiga qilingan investitsiyalar shunga olib keladiki, O‘zbekiston uchun zarur bo‘lgan elektr energiyasini ehtiyojimizdan 6 marta ko‘p ishlab chiqarish imkoniyati vujudga keladi.

Tabiiy resurslar va ulardan foydalanish samaradorligi har tomonlama mamlakat iqtisodiy imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Lekin hisobga olinishi kerak bo‘lgan bir qancha boshqa omillar borki iqtisodiyotni doimiy rivojlanish yo‘lidan olib yuradi. Tabiiy kapitaldan foydalanish samaradorlik ko‘rsatkichlaridan eng asosiylaridan biri energiya resurslardan samarali foydalanish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Birlashgan N 2011 “yashil” iqtisodiyot sari: Barqaror rivojlanish va qashshoqlikka barham berish yo‘llari – siyosatchilar uchun ma’lumotnoma, Frank, pp.1-5.
2. Xanfar, A 2014 Atrof-muhit iqtisodiyoti “yashil” iqtisodiyot. Assiut Journal, Environmental Studies, 39, Misr, 55–57,59-betlar.
3. Bina O. 2013 “yashil” iqtisodiyot va barqaror rivojlanish: notinch muvozanatmi? Atrof-muhit va Rejalashtirish C: Hukumat va siyosat, –31, p.–1024.
4. Ismail S. 2014 “yashil” iqtisodiyotning Jazoirda 2005-2007 yillar mobaynida barqaror rivojlanishgayerishishdagi hissasi, Iqtisodiyotda tadqiqotlar jurnali, 3(2):149-150.
5. Pollin R.; Garret-Peltier X., Xaynts J., Hendricks B. Green Growth: AQShning iqlim o‘zgarishini nazorat qilish va ish imkoniyatlarini kengaytirish dasturi, Amerika taraqqiyoti markazi; Massachusets universiteti Amerika taraqqiyoti va siyosiy iqtisod tadqiqot institute markazi: Amherst, MA, AQSh, 2014. –p. 2.
6. Lucretia D. Ruminiya.: “yashil” iqtisodiyot va “yashil” o‘sish – barqaror rivojlanish imkoniyatlari.
7. OECD 2016 Web brochure: Yashillashtirish samaradorliklarni o‘lchash.
8. M.T.Bo‘taboev, E.A.Muminova “yashil” iqtisodiyot darslik.–2023.



DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA QISHLOQ XO‘JALIGI FAOLIYATINING NAZARIY TAMOYILLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti dotsenti

Annotatsiya: Mamlakatimizning yangi rivojlanish bosqichida barcha tarmoqlarda bo‘lgani kabi qishloq xo‘jaligida ham bir qator islohotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini barqaror rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasining qabul qilinishi muhim dasturulamal bo‘lib hisoblanadi. Davlat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda agrar tarmoqni barqaror rivojlantirish bir qator vazifalarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, boshqaruvda davlat ishtirokini kamaytirish va investisiyaviy jozibadorlikni oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash, qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta’lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish kabilar ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, davlatning iqtisodiy xavfsizligi, qishloq xo‘jaligi, barqaror rivojlanish, tabiiy resurslar, muammolar, samaradorlik.

Abstract: At the new stage of development of our country, it is necessary to implement a number of reforms in agriculture as well as in all sectors. The sustainable development of the agricultural sector is especially important in ensuring the economic security of the state. In this regard, the adoption of the strategy for the development of agriculture in the Republic of Uzbekistan for 2020-2030 is considered an important program. Sustainable development of the agricultural sector in ensuring the economic security of the state includes a number of tasks. Including ensuring food security of the population, creating a favorable agribusiness environment and added value chain, reducing state participation in management and increasing investment attractiveness, ensuring rational use of natural resources and environmental protection, science and technology in agriculture such as the development of science, education, information and consulting services system is envisaged.

Key words: economy, security, economic security, economic security of the state, agriculture, sustainable development, natural resources, problems, efficiency.

Аннотация: На новом этапе развития нашей страны необходимо осуществить ряд реформ как в сельском хозяйстве, так и во всех отраслях. Устойчивое развитие аграрного сектора особенно важно в обеспечении экономической безопасности государства. В этой связи важной программой считается принятие Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы. Устойчивое развитие аграрного сектора в обеспечении экономической безопасности государства включает ряд задач. В том числе обеспечение продовольственной безопасности населения, создание благоприятной агробизнес-среды и цепочки добавленной стоимости, сокращение участия государства в управлении и повышение инвестиционной привлекательности, обеспечение рационального использования природных ресурсов и охраны окружающей среды, науки и техники в сельском хозяйстве, таких как развитие науки, предусмотрена система образования, информационных и консультационных услуг.

Ключевые слова: экономика, безопасность, экономическая безопасность, экономическая безопасность государства, сельское хозяйство, устойчивое развитие, природные ресурсы, проблемы, эффективность.

KIRISH

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning muhim jihatlari qatoriga raqobatning kuchayishini, iqtisodiyotning asosiy va ustuvor tarmoqlarining rivojlanishini, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-iqtisodiy natijalarini yaxshilashni, ijtimoiy barqarorlikni takomillashtirishni kiritish maqsadga muvofiqdir. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini nafaqat o‘zini-o‘zi tartibga solishning bozor mexanizmlari bilan, balki birinchi navbatda, davlat boshqaruvi organlari tomonidan ta’minlanishi zarur. Bu darajaga erishish uchun davlatning iqtisodiy xavfsizligi

tartibga solish mexanizmlari tizimi, ya'ni davlat organlari va bozor institutlari yordamida shakllantirilishi hamda qo'llab-quvvatlanishi maqsadga muvofiqdir.

Global beqarorlik sharoitida yuqori darajadagi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlatning moliyaviy resurslarning endogenizatsiyasi sharoitida iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash mumkin. Shu bilan birga, davlat iqtisodiyotiga moliyaviy resurslarni jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Ulardan asosiylari deofshorizatsiya, korrupsiyaga qarshi kurash, "kleptokratik iqtisodiyot" deb atalmish iqtisodiyotdan chiqish, aholi jamg'armalarini investisiya resurslariga aylantirish, O'zmilliybankning rag'batlantiruvchi pul-kredit siyosatini joriy etish va investisiyalardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimini o'rganishda "tizim" tushunchasining asosiy belgilarini ajratib ko'rsatish zarur. Tizimlarning umumiy nazariyasining nazariy qoidalariga ko'ra, ushbu tushunchaning asosiy talqinlari quyidagilardan iborat: tizim – mos ravishda aniqlangan tartibda joylashgan, integrativ xususiyatlarga ega bo'lgan elementlar to'plamidir, umumiy xususiyat, maqsad yoki tuzilma bilan birlashtirilgan har qanday elementlar, birliklar, qismlar to'plami, yoki muntazam ravishda joylashtirilgan va ishlaydigan qismlarning bir butun bo'lgan tuzilma deb ta'kidlashadi. Butunlikning mavjudligi tizimning ajralmas xarakteristikasi sifatida tizimni ma'lum bir tarzda joylashtirilgan, o'zaro bog'langan va ma'lum bir yaxlitlikni tashkil etuvchi elementlarning yig'indisida ifoda etiladi.

V.Titov har qanday tizimning ikkita asosiy xususiyatini ta'kidlaydi. Birinchidan, tizimning yaxlitligi deganda tizim sifatida qaraladigan elementlar to'plami o'ziga xos sifatlar va xulq-atvorga ega bo'lib, tizim xossalari uning elementlari xossalari yig'indisiga teng emasligini bildiradi; ikkinchidan, tizimning bo'linuvchanligi har qanday obyektni elementlardan tashkil topgan holda tasvirlash mumkinligidan dalolat beradi. Bu shuni anglatadiki, har qanday obyektni kamida uchta jihatda ko'rish mumkin:

1) tizim – ajralmas, yaxlit to'plam sifatida,
2) supertizim – umumiy tizimning ma'lum bir qismi sifatida,
3) kichikroq qismlar (elementlar, quyi tizimlar) yig'indisi sifatida.

R.Akoff va F.Emeri sistema deganda har biri boshqa har bir element bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan ikki yoki undan ortiq elementlar to'plami va bu to'plamning istalgan ikkita kichik to'plami mustaqil bo'la olmaydi deb tushunadilar.

Shuning uchun tizim kamida ikkita elementdan va ular to'plamning boshqa elementi orasidagi bog'lanishlardan iborat bo'lishi kerak. Tizimning elementlari bir-biriga bog'liq bo'lmagan kichik to'plamlarga ajralmaydigan to'liq bog'langan to'plamni tashkil qiladi. Shu sababli, R.Akoff va F.Emerilarning fikricha, tizim kattaroq tizimning bir qismi bo'lishi mumkin bo'lsa-da, uni mustaqil quyi tizimlarga bo'lib bo'lmaydi. Iqtisodiy xavfsizlik tizim sifatida uning yaxlitligi, birligi va maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi tarkibiy elementlar, darajalar va elementlar o'rtasidagi bog'lanishlar yig'indisi bilan tavsiflanadi.

	Alohida binolarda	O‘z-o‘ziga xizmat	Otda yurish, golf o‘yini	Ko‘zda tutilmagan
Fransuz modeli	Alohida kottej	O‘z-o‘ziga xizmat	Ekologik turizm	Ko‘zda tutilmagan
	Yozgi uylar	O‘z-o‘ziga xizmat	Suv turizmi, baliq ovi	Ko‘zda tutilmagan
Italyan modeli	Kempinglar, qishloq mehmonxonalari	To‘liq ovqatlanish	Ekologik, bilim olish, tog‘-chang‘i turizmi	Ko‘zda tutilmagan
	Fermerlarning uyida yoki alohida binolarda	Gastronomik turlar dasturi doirasida	Ekskursiyalar, baliq ovi, plyaj turizmi	Hosilni yig‘ib olish
Nemis modeli	Fermerlarning uyida	Uy egalari bilan birgalikda	Pikniklar, baliq ovi	Xo‘jalik ishlarida yordam berish
Avstriya modeli	Fermerlarning uyida	Dehqonlar ovqati	Baliq ovi, otda yurish	Tomorqada ishlash
Kipr modeli	Milliy qishloq	Qishloq ovqati yoki tavernalar	Piyoda, otda, velosipedda yurish va etnik odatlar	Hosilni yig‘ib olish
Finlyandiya modeli	Alohida kottej	O‘z-o‘ziga xizmat	Suv turizmi, baliq ovi	Ko‘zda tutilmagan
Bolgariya modeli	Uy egalari bilan bir uyda	Uy egalari bilan birgalikda	Madaniy, bilim olish, ekologik hamda sport turizmi	Ixtiyoriylik

Ko‘pchilik Yevropaliklarning fikricha, agroturizm faoliyati dengiz va tog‘-chang‘i kurortlari kabi daromadli faoliyat hisoblanmasa-da, barqaror va ishonchli daromad keltiruvchi faoliyat hisoblanadi. Agroturizm bugungi kunda Yevropada turistik faoliyatning eng mashhur turlaridan biri hisoblanib, turistik faoliyatdan olinayotgan umumiy daromadning 20 %igacha bo‘lgan qismini tashkil etmoqda.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan xorijiy mamlakatlarning agroturizm faoliyatidagi tajribalaridan hamda jahon mamlakatlarida qo‘llanilayotgan agroturizmni rivojlantirish modellaridan mamlakatimizda turizmning ushbu faoliyat turini rivojlantirishda mahalliy shart-sharoitlar hamda tabiiy-iqlim sharoitlarni hisobga olgan holda foydalanish mumkin. Biroq turli mamlakatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini nazarda tutuvchi modellar va tajribalarni “ko‘chirish” orqali faoliyatni yo‘lga qo‘yish uning samaradorligini ta’minlay olmaydi.

Mamlakatimizda agroturizmning ustuvor yo‘nalishlari sifatida milliy urf-odatlar hamda hududlarning o‘ziga xos jihatlarini o‘z ichiga oluvchi milliy jihatlarini rivojlantirish orqali nafaqat ichki, balki agroturizmga yo‘naltirilgan kirish turizmini ham rivojlantirish imkoniyatini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Воскресенский, В. Ю. (2012). Международный туризм: учебное пособие для вузов. М.: ЮНИТИ.
2. Aliyeva M.T., Umarjonov A. (2005). Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. –T.: Moliya.
3. Кабушкин, Н. И. (2007). Менеджмент туризма. Новое знание.
4. Богданов Е.И. (2005). Планирование на предприятии туризма/Учебное пособие. Спб.:Изд.д. Бизнес-пресс.
5. Балабанов И.Т., Балабанов А.И. (2004)ю Экономика туризма. –М.: Финансы и статистика.
6. Гуляев В.Г. (1996). Организация туристкой деятельности. –Учебное пособие НОЛИДЖ, М.
7. Ефремова М.В. (2001). Основы технологии туристического бизнеса. Учебное пособие. –М.: –с-89.
8. Чайка, В. П., & Исаев, А. Г. (2007). Сельский туризм в устойчивом развитии сельских территорий. Экономика сельского хозяйства России, (11), –34-35.
9. Komilova, F. K. (2001). Xalqaro turizm bozori. O‘quv qo‘llanma T., –TDIU-2001.
10. Клицунова В. Зеленая альтернатива – сельский туризм. [Электронный ресурс]. URL: http://agroedu.of.by/index.php?option=com_content&task=view&id–152.
11. Никитина О. А., Кушнаренко Е. П. Уточнение понятийного аппарата в развитии теории и практики регионального сельского туризма // Вестник Чувашского университета. Изд-во ЧГУ им.И.Н. –Ульянова, –2010. С. 400–405.
12. Чермянина В. В., Кундиус В. А. Проблемы и перспективы агротуризма в регионе // Журнал теоретических и прикладных исследований. [Электронный ресурс]. URL: http://izvestia.asu.ru/2011/2-1/econ/06.ru.html.
13. Здоров, А. Б. (2011). Агротуристский комплекс: формирование и развитие. –М.: Логос, –12, 25.
14. Mirzaev, A.T (2018) “The level of use of tourist attractions in the regions and the factors affecting them,” Economics and Innovative Technologies: Vol. 2018: No.3,Article19.Available at: https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/ vol2018/iss3/19.
15. Ugli, X. S. Y. (2022, May). Agrotourism as a factor in the development of agrotouristic facilities in the republic of Uzbekistan. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 265-267).

YASHIL IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA BANKLARNING O‘RNI



Ibragimova Sevara Muxamedjan qizi
Toshkent moliya instituti, “Bank ishi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda mamlakat iqtisodiyotini “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishi, bank-moliya tizimining “yashil” iqtisodiyotni kreditlashdagi o‘rni, ajratilayotgan kreditlar orqali, “yashil” iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlarini yanada rivojlantirish ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, UNEP, energiya samaradorligi, ekologik toza mahsulotlar, “yashil” texnologiyalar, YTTB, O‘zsanoatqurilishbank, Ipoteka bank, “Green Product”, “Green Product - Online”.

Abstract: This article shows the current transition of the country’s economy to a “green” economy, the role of the banking and financial system in lending to the green economy, further development of the priorities of the green economy through loans being allocated.

Key words: Green economy, UNEP, energy efficiency, environmentally friendly products, green technologies, YTTB, Uzsanoatqurilishbank, Ipoteka bank, “Green Product”, “Green Product - Online”.

Аннотация: В данной статье показан переход экономики страны в настоящее время к “зеленой” экономике, роль банковско-финансовой системы в кредитовании зеленой экономики через выделяемые кредиты, дальнейшее развитие приоритетов зеленой экономики.

Ключевые слова: Зеленая экономика, ЮНЕП, энергоэффективность, экологически чистые продукты, зеленые технологии, СРО, Узсаноатқурилишбанк, Ипотека банк, “Green Product”, “Green Product - Online”.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022-yilda qabul qilingan “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qaroriga muvofiq “yashil” iqtisodiyotga o‘tish choralarini jadallashtirish, “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish modelini targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Shu o‘rinda bir savol tug‘ilishi tabiiy, “yashil” iqtisodiyot bu nima o‘zi? Dastavval shunga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, bu tushuncha ilk marotaba 1989-yilda qo‘llanilgan. Mohiyatan olib qaralsa, ushbu atama hozirgacha turlicha qo‘llanilgan. Ba’zi manbalarda “yashil” iqtisodiyot mamlakat tabiatini yaxshilashga ko‘maklashuvchi iqtisodiyotning yangi tarmoqlari sifatida tadqiq qilinsa, ayrimlarida esa tabiatga yordam beruvchi va foyda keltiruvchi yangi texnalogiyalar, ekotizimlar sifatida o‘rganiladi, boshqa guruh tadqiqotlarda esa ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo‘naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tish, uning asosini sof yoki “Yashil” texnologiyalar tashkil etishi “yashil” iqtisodiyot, deyiladi. BMTning Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) “yashil” iqtisodiyot tushunchasiga nisbatan olib qaralganda to‘liq ta’rif bergan, “yashil” iqtisodiyot – bu “odamlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchilliklarni sezilarli darajada kamaytirish”ga olib keluvchi iqtisodiyotdir. “Yashil” iqtisodiyotni Karl Burkart oltita asosiy sektorga asoslangan, deb ta’riflagan. Xususan:

- Qayta tiklanadigan energiya
- Yashil binolar
- Barqaror transport
- Suvni boshqarish
- Chiqindilarni boshqarish
- Yerni boshqarish

Ayni paytda milliy iqtisodiyotimizda “yashil” iqtisodiyot texnologiyalarini faol qo‘llagan holda iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash ishlari keng ko‘lamda olib borilmoqda. Bu strategiyani ustuvor yo‘nalishlari etib esa, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, energiya resurslari iste’molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish, iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish belgilangan. Ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash, “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish belgilangan. Bularni amalga oshirish uchun, albatta, davlat iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan bank va moliya tizimining roli katta.

ADABIYOTLAR TAHLILI

William Hynes, Shannon Wang, Molly Scott Cato tomonidan “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy -amaliy jihatlari tadqiq etilgan. “Yashil” iqtisodiyot mamlakat ijtimoiy – siyosiy mavqeyi hamda ushbu mamlakatning rivojlanishi uchun muhim ekanligini alohida ta’kidlab o‘tishgan.

“yashil” iqtisodiyot iqtisodiyot va ekotizim o‘rtasidagi munosabatlardan iborat bo‘lib, tezkor barqaror rivojlanishning asos hisoblanadi”, deydi Olim K.Daniek. Olim “yashil” iqtisodiyotga mamlakat barqaror rivojlanishi uchun belgilangan maqsadlarga yetishtiruvchi vosita sifatida tavsif beradi.

A.Vaxobov o‘zining “yashil” iqtisodiyot darsligida mamlakatimizning “yashil” iqtisodiyotga o‘tishida Amerika va Yevropa tajribalaridan foydalanishni taklif qilgan.

“Yashil iqtisodiyotga o‘tish jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlagan holda, O‘zbekiston uchun yanada ko‘p imkoniyatlar eshigini ochadi”, deydi N.Maxmudov.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda “yashil” iqtisodiyot va “bank-moliya tizimida “yashil” iqtisodiyotni kreditlash”da xorijiy va mahalliy banklarning ajratayotgan kredit summalari,yashil iqtisodiyotga olimlarning ilmiy qarashlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shu bilan birga, YTTB xalqaro va sohaga oid O‘zbekistonda olib borilayotgan ishlarning ilmiy nazariyalari o‘rganilgan. Tadqiqotda ilmiy tahlil, mulohaza yuritish, mantiqiy fikrlash, va boshqa bir qator usullardan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Banklarning iqtisodiyotda tutgan ahamiyati juda ham katta ekanligini yaxshi bilamiz, shular ichida asosiylaridan biri bu – kredit siyostini amalga oshirishdir. Aynan “yashil” iqtisodiyotni amalda qo‘llash uchun ko‘plab banklar tomonidan keditlar ajratilmoqda. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining bergan ma’lumotlariga ko‘ra, “Ipoteka-bank” O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida xalqaro tashkilotlardan umumiy qiymati 10 million dollar miqdorida kredit va imtiyozli moliyalashtirish olishi mumkin. Aynan YTTB 9 million dollar miqdorda kredit ajratmoqchi bo‘lgan bo‘lsa, Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot jamg‘armasi 1 million dollar imtiyozli moliyalashtirish uchun ajratdi. “Ipoteka-bank” bu mablag‘lardan “yashil” iqtisodiyot sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarni kreditlash uchun foydalanadi.Bu kelishuv orqali esa O‘zbekistonning ifloslantiruvchi resurslar bilan bog‘liq bo‘lmagan kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tishini osonlashtirishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, “O‘zsanoatqurilishbank” ham yiliga 14 foizdan 150 million so‘mgacha bo‘lgan miqdorda, 5 yil muddatga “yashil” kreditlar ajratmoqda. Bundan ko‘zlangan maqsad yangi yoki mavjud “yashil” loyihalarni to‘liq yoki qisman moliyalashtirishdan iborat. Bank tizimida aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun taklif etilayotgan “Green Product”, “Green Product - Online” kabi “yashil” kredit turlari ham joriy qilingan.

Yashil loyihalarni iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilgari surish jarayonida taklif etilayotgan texnologiyalar, uskunalar, qurilmalar, tizimlar va materiallarning barchasi “yashil” mezonlarga, xususiyatlarga moslashtirilganligini alohida qayd etish lozim. Misol uchun, qayta tiklanadigan energiya manbalari va energiya samarador texnologiyalardan sanoatning barcha yo‘nalishlarida – shahar transport tarmog‘ida, uy-joy, mehmonxona va issiqxona xo‘jaligida keng foydalanish mumkin. Atrof-muhit tozligini saqlash maqsadida, chiqindilarni yon atrofga tashlamaslik, ularni yig‘ish, qayta ishlash va boshqarish, turli xil zavod-fabrika va mashinalardan atmosferaga chiqadigan zararli gazlarni kamaytirish, shu bilan birgalikda, tuproqni qayta tiklash borasidagi yangi loyihalar muhim hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, “yashil” kreditlar ekologik va energiya samaradorlikdan tashqari, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash, past ishlab chiqarish tannarxiga erishish va shu orqali ishlab chiqarish hajmi, raqobatbardoshlik va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB “Green banking” boshqarmasi boshlig‘i Bobur Sultonmurodov o‘z nutqlarining birida: “Yashil” loyihalar, “yashil” texnologiyalar hamda “yashil” kreditlar bir-biri bilan chambarchas tushuncha, mohiyatan sanoatlashtirishni yo‘qotishlarsiz amalga oshirish, “yashil” iqtisodiyotni barpo etishga qaratilgan,

– deydi. Ayni vaqtda turli xil “yashil” loyihalar masalan: yangi “yashil” binolarni qurish, mavjud binolarni modernizatsiya qilish, ekologik jihatdan samarador texnologiyalar asosida “yashil” mahsulotlar ishlab chiqarish, eski yoritgichlar o‘rniga “yashil” iqtisodiyotga foyda keltiradigan LED yoritgichlarini ishlab chiqarish va yig‘ish, sensorli va avtomatik o‘chirgichlarni o‘rnatish, energiya sarflash jihtidan samarador yoritish yoki uskunalarni yig‘ish va o‘rnatish uchun banklar tomonidan kreditlar ishlab chiqilayotgani haqida alohida qayd etildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, “yashil” iqtisodiyot taraqqiyotini kelajakda yanada taraqqiy etishini hisobga olgan holda, mamlakatimizda yashillashtirish siyosati va bu siyosatni kreditlash jarayonini bank-moliya tizimi, shu bilan birgalikda mahalliy va xorijiy investitsiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu yo‘nalishda esa zamonaviy texnologiyalarni qo‘llab, muqobil energiya manbalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Demak, davlatimiz rahbarining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish borasida imzolagan yangi qarori asosida olib borilayotgan ishlar yanada kengayadi, samaradorligi esa ortib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022yil PQ-436-son qarori.
2. Bank. “Multilateral Development Banks” (en). African Development Bank - Building today, a better Africa tomorrow (12-aprel 2019-yil).
3. Bank. “Collective Climate Ambition – A Joint Statement at COP26 by the Multilateral Development Banks” (en). Asian Development Bank (5-noyabr 2021-yil).
4. Навстречу “зелёной” экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: ЮНЕП/ГридАрендаль, –2011. –С. 17
5. Blueprint for a green economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain,– 1989. –192 pp.
6. Bank, European Investment. EIB Group Sustainability Report 2021 (EN). European Investment Bank, 2022-07-06. ISBN 978-92-861-5237-5.
7. Vaxobov A.V., “Yashil” iqtisodiyot.Darslik. Toshkent.–“Universitet”–2020.
8. N.M.Maxmudov, Ekologiya–Darslik. –2019.



QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MASALALARI

Isayev Jakhongir Muzaffarovich
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti dekani

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda qurilish materiallari sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni baholash mezonlari tahlil qilingan. Shuningdek bozor muhitining ta'siri ostida samaradorlikni baholashning uslubiyoti keltirilgan. Samaradorlikni oshirish imkoniyatlari va istiqbollari bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: qurilish materiallari sanoati, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, texnologiya, koeffitsiyent, samaradorlik, integral munosabatlar.

Abstract: The article analyzes the criteria for assessing the economic efficiency of enterprises in the building materials industry in modern economic conditions. A methodology for assessing efficiency under the influence of the market environment is also given. Suggestions on opportunities and prospects for increasing efficiency are given.

Key words: building materials industry, organizational and economic mechanism, technology, coefficient, efficiency, integral connections.

Аннотация: В статье анализируются критерии оценки экономической эффективности предприятий промышленности строительных материалов в современных экономических условиях. Также приведена методика оценки эффективности под влиянием рыночной среды. Даны предложения по возможностям и перспективам повышения эффективности.

Ключевые слова: промышленность строительных материалов, организационно-экономический механизм, технология, коэффициент, эффективность, интегральные связи.

KIRISH

Dunyoda aholi sonining ortib borishi bilan bog'liq holda birlamchi zaruriy ehtiyojlar tarkibidagi aholining yashash ehtiyojlarini qondiruvchi qurilish sohasi mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi natijasida yetarli tashkiliy-iqtisodiy infratuzilma hamda iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan mamlakatlarda qurilish sohasi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, "yaqin 10 yillik kelajak (2030 yilgacha bo'lgan davr)da dunyo bo'yicha qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi har yili o'rtacha 2,3 %ga ortib borishi prognozlanmoqda. Ko'rsatib o'tilgan davrda rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari)da qurilish sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o'rtacha yillik 0,1 – 0,5 % atrofida pasayishi kuzatilsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 5,0 – 8,0 % atrofida o'sishi kutilmoqda" [1]. Shu bois, qurilish materiallari sanoati hamda uning samarali faoliyatini ta'minlovchi jarayonlarda iqtisodiy, tashkiliy mexanizmlar hamda zamonaviy texnologiyalarini qo'llash orqali takomillashtirish talab etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A.A.Gusakov (A.A.Gusakov, 2004) qurilish tizimlari injeneriyasini asosiy tadqiqot yo'nalishi sifatida, qurilishda murakkab avtomatlashtirilgan texnik tizimlarni yaratish fani sifatida, qurilish obyektlariga tizimli yondashuvni qo'llash sifatida o'rgangan. D.Kachaeva (D.Kachaeva, 2018) o'z ishlarida qurilish sohasida axborot texnologiyalari va raqamlashtirish jarayonlaridan foydalanish o'zining afzalliklari sifatida tizimni virtual rejimda ko'rish, reja-grafikni avtomatlashtirish va to'g'ri shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Qurilish sohasida va uning tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarini takomillashtirish masalalari xorijlik olimlar D.Lambert [2], P.Druker [3], A.Dyubois [4] va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Qurilish sohasini rivojlantirish, sohada bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, qurilish sohasida boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishning ayrim nazariy va amaliy jihatlari respublikamiz iqtisodchi olimlari R.I.Nurimbetov, Sh.N.Zaynutdinov [5], U.I.Djumaniyazov [6], A.Abdullayev [7], Sh.A.Dexqonov [8] kabilarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning mavzusi qurilish industriyasi korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishga bag‘ishlangan bo‘lib, birinchi navbatda mavzuning dolzarbligi asoslab berildi, xorijiy va mahalliy olimlarning ushbu sohadagi ishlari o‘rganildi. Maqolada nazariy kuzatish, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, tahlil qilish, sintez qilish kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zamonaviy shart-sharoitlar bozor munosabatlarining jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi. “Bunday sharoitda sanoat korxonasining iqtisodiy samaradorligini baholash korxona ta’sischilari uchun ham, bozor iqtisodiyotining boshqa subyektlari uchun ham muhim vazifa hisoblanadi. Xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarining rivojlanish sur’atlari, texnologik taraqqiyot, mehnat unumdorligining o‘sishi, eng muhim ijtimoiy muammolarni hal qilish ko‘p jihatdan iqtisodiyotning real sektori – sanoatning faolligiga bog‘liq. Bularning natijasida qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy samaradorligini baholashning nazariy va uslubiy jihatlariga tubdan yangi yondashuvlarni ishlab chiqishning obyektiv zaruratini keltirib chiqaradi” [9].

Taqdim etilgan metodologiya qurilish materiallari sanoati korxonalari samaradorligini baholash va bozor omillarining ta’sirini baholash uchun ichki ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi (1-rasmga qarang). Hozirgi vaqtda bozor muhitining ta’siri samaradorlikni baholashning an’anaviy usullarida o‘z aksini topmagan.



1-rasm: Qurilish materiallari sanoati korxonasi faoliyati samaradorligini baholash uslubiyoti [muallif ishlanmasi]

Uslubiyotning asosiy maqsadi – samaradorlikni oshirish darajasi nazorat qilishga imkoniyatini beradigan yordamida natijalarni yakunini olish uchun tashqi bozor va ichki ta’siridagi omillarni baholashni amalga oshirish uchun barcha elementlarini tizimdagi ta’sirini o‘zaro ta’minlash belgilanadi.

Uning asosiy vazifasi korxonadagi ko‘rsatkichlarini samaradorligini kuzatib borish doimiy ravishda va tadqiqot natijalari asosida samaradorlik darajasi korxonada pasayishi to‘g‘risida xabardor qilishdan iborat.

Taklif etilayotgan uslubiyot o‘z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi.

Birinchi bosqich. Dastlabki ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash

Korxonaning o‘tgan va joriy davrlar uchun buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarini o‘rganish amalga oshiriladi.

Buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti qurilish materiallari sanoati korxonasining mulkiy va moliyaviy holati va uning iqtisodiy faoliyati natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning yagona tizimidir. Bu tashqi va ichki foydalanuvchilar tomonidan qurilish materiallari sanoat korxonasining ishi bo‘yicha umumiy ma’lumotlarni baholash uchun manba sifatida zarurdir. Bu tahlil ma’lum tizimdagi ko‘rsatkichlar natijalari asosida aniq baholash uchun muhim bo‘lgan barcha ma’lumotlar bilan bog‘liq.

Xuddi shu bosqichda qurilish materiallari sanoati korxonasiga ta’sir qiluvchi samaradorlik tashqi bozor omillarini tanlash uchun, baholash usuli amalda tatbiq etiladi. O‘ziga xos usulning xususiyati mutaxassislar uchun har tomonidan individual doimiy anonim so‘rov tashkil etishdir. Bunqa uslub mutaxassislarni o‘zaro aloqasini va ish paytida yuzaga keladigan jamoa ta’sir va fikriga moslashishdan iborat. Ekspert baholash usulining maqsadi amaliyotchilarning tajribasi, bilimi va malakasi asosida korxona samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan tashqi bozor omillarini aniqlashdan iborat [11].

Mutaxassislarning javoblari o‘rtasida yaxshi kelishuv mavjud bo‘lgandagina guruh bahosini yetarlicha ishonchli, deb hisoblash mumkin. Buning uchun muvofiqlik koeffitsiyentidan foydalanamiz. Bu amaldagi taqdim etilayotgan baholashdan ekspert o‘rganilayotgan omillar yoki obyektlar o‘zaro izchilligini aniqlashda foydalanadi.

“M.Kandall izchillik ko‘rsatkichini yoki muvofiqlik koeffitsiyentini (K) taklif qildi, u quyidagicha aniqlanadi:

$$K = \frac{S}{Smax} \quad (1)$$

Muvofiqlik koeffitsiyenti 0<K<1 diapazonda o‘zgaradi, 0 nomuvofiqlikka va 1 to‘liq kelishuvga to‘g‘ri keladi. Agar muvofiqlik koeffitsiyenti qiymati 0,40-0,50 dan oshsa, baholash sifati qoniqarli, 0,70-0,80 bo‘lsa yuqori hisoblanadi” [9].

Ikkinchi bosqich. Qurilish materiallari sanoati korxonasi samaradorligi dinamikasini hisoblash va baholash.

Faoliyat samaradorligini baholash moliyaviy ko‘rsatkichlardan foydalangan holda amaldagi usullar asosida amalga oshiriladi. U ma’lum bir korxona faoliyatining xususiyatlariga eng moslashtirilgan ma’lum koeffisiyentlar to‘plamini hisoblash va tahlil qilishga asoslangan bo‘lishi mumkin.

1-jadval: Qurilish materiallari sanoati korxonasi rentabelligi ko‘rsatkichlari

Nomi	formulasi	Xususiyati
Sotishning rentabelligi	Sotish rentabelligi = Daromad / Sof foyda	Har xarajatdagi so‘m uchun olingan daromaddagi foyda ulushini aniqlaydi. Ba’zida ma’lum bir vaqt ichida sof daromadning (soliqdan tashqari foyda) daromadga nisbati sifatida hisoblanadi
O‘z rentabelik kapitali	O‘z rentabellik kapitalining = sof foyda/davr asosida kapitali o‘rtacha miqdori	Sof daromad asosida investisiya xarajatlari rentabelligini ko‘rsatadi.
Kapital foydaliligi	Kapital foydaliligi = Soliq va boshqa foizlarni to‘lashdan oldingi daromad / (Jami aktivlar - Qisqa muddatli majburiyatlar)	Korxona kapital qo‘yilmalarining samaradorligini va foydaliligini belgilaydi.

Zamonaviy sharoitda qurilish materiallari sanoati korxonasi samaradorligini baholash uchun yangi ko‘rsatkichni joriy etishni taklif qilamiz. Natijada, yalpi foydasi va xarajatlar sifatida – ishlab chiqarish tannarxi taqdim etiladi.

Buning sababi shundaki, rentabellik ko‘rsatkichlari – bu yakuniy natijasi (foyda)ning faoliyatning sarflangan yoki qo‘yilgan resurslarga nisbati belgilanadi.

Ishlab chiqarish mahsulot tannarxi ko‘rsatkichlari samaradorligi bir-biri bilan bog‘liqdir. U tannarxining ishlab chiqarish katta qismini belgilaydi va ishlab chiqarish mahsulot hamda shartlarining sotish o‘zgarishiga bilan bog‘liq. Ishlab chiqarishning iqtisodiy va texnik omillari darajasi xarajatlari sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ta’sir texnologiya, texnika, tashkil etilgan ishlab chiqarishdagi o‘zgarishlarga, sifatiga va mahsulot tarkibi uni ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlar qarab miqdori o‘zini o‘zini ko‘rsatadi [14].

Bundan kelib chiqadiki, korxona samaradorligi faoliyatini baholash uchun faoliyat natijasidagi yalpi foydaning sotish tannarxiga to‘liq va mavjud rentabellik ko‘rsatkichlari bilan teng nisbatda tavsiya etilgan ko‘rsat-

kichidan foydalanish mumkin. Muayyan korxona faoliyatini obyektiv baholash uchun qiyosiy rentabellik koeffisiyentidan foydalangan holda qurilish sanoatining o‘rtacha sanoat ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy tahlilni o‘tkazish kerak:

$$R\text{qiyos} = \frac{R\ korxona}{R\ tarmoq} \quad (2)$$

bu yerda: R_{qiyos} - qiyosiy rentabellik;
$R_{korxona}$ - korxonaning rentabelligi;
R_{tarmoq} - sanoatning o‘rtacha rentabelligi.

Qiyosiy rentabellik koeffisiyenti korxona samaradorligini tarmoqdagi o‘rtacha ko‘rsatkich bilan solishtirganda baholash imkonini beradi. “Bu korxonaga taqqoslash uchun ichki ko‘rsatkichlar va omillardan foydalanishga, shuningdek, o‘z faoliyatini tashqi ma’lumotlarga nisbatan baholashga imkon beradi, buning natijasida olingan natijalar obyektivroq bo‘ladi.

Agar $R_{qiyosiy}$ < 1 bo‘lsa, korxonaning samaradorligi tarmoqdagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan past bo‘ladi va $R_{qiyosiy}$ > 1 sharti bajarilgan bo‘lsa, korxona samaradorligi tarmoqning o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqori bo‘ladi. $R_{qiyosiy}$ = 1 bo‘lsa, korxona samaradorligi sanoatning o‘rtacha samaradorligi darajasida bo‘ladi” [10].

Jamiyatda har xil korxona va firmalar ochiq tizim bo‘lib, uning iqtisodiy samaradorligini tashqi bozor muhiti bilan dinamik o‘sishini baholab bo‘lmaydi. Shuning uchun uning barcha asosiy elementlarini iqtisodiy samaradorligiga korxonaning ta’sir qiluvchi ichki omillari asosida birgalikda baholash kerak.

Korxona iqtisodiy samaradorligini baholash uchun birlashtiruvchi koeffisiyentni olish maqsadida mavjud iqtisodiy samaradorlik darajasining ko‘rsatkichini integral hisoblash taklif etiladi; u to‘rtta ko‘rsatkichni belgilaydi: korxona faoliyati uchun tashqi bozor muhitini baholash ikkita ko‘rsatkichda aniqlanadi – bozor qiyosiy va ulushi rentabellik koeffisiyenti, ikkitasi – sotuvdan olingan tushum va o‘z kapitalining rentabelligi, iqtisodiy samaradorligini doimiy va o‘zgaruvchi xajatlarni baholashdir. Uning ichki muhiti quydagicha:

$$Skor = \frac{Rkor}{Rsox} * \frac{Yalpi\ dar}{Xarajat} * \frac{Ayl\ mah}{Bozor\ sig'} * \frac{Yalpi\ dar}{Savdodan\ tush} * \frac{Yalpi\ dar}{O'z\ kap\ inv} \quad (3)$$

bu yerda: S_{kor} – korxona iqtisodiy samaradorligi;
R_{kor} – korxonaning rentabelligi;
R_{sox} – sohani o‘rtacha rentabelligi;
Xarajat – korxonani xarajati;
Ayl mah – korxonaning mahsulot aylanmasi;
Bozor sig‘ – bozor sig‘imi;
Yalpi dar – korxona daromadi;
Savdodan tush – korxona sadodan tushumi;
O‘z kap inv – korxona o‘z kapitali va investisiyasi

Integral indikatorning hisob-kitoblarini baholash uchun samaradorlik darajasi shkalasini qo‘llash kerak, uni qurish uchun biz quyidagi formula yordamida intervalli qadamni (h) hisoblaymiz:

$$h = \frac{Q\ max - Q\ min}{n} \quad (4)$$


bu yerda: Q_m– integral ko‘rsatkichning maksimal qiymati;
Q_{min} – integral indikatorning maksimal qiymati;
n – guruhlar soni.

Uchinchi bosqich. Tashqi bozor omillarining korxona samaradorligi darajasiga ta’siri modelini yaratish

Korxona ma’lum vaqt oralig‘ida o‘z faoliyatini qanchalik samarali amalga oshirganligini aniqlash va shunga muvofiq keyingi prognozni tuzish uchun uning faoliyatining ekologik omillarining ta’siri nuqtayi nazaridan samaradorlikni baholash kerak [13].

Buning uchun ekspert so‘rovi yordamida korxona faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy bozor omillari aniqlandi. To‘rt guruhda takliflar asosida omillar tashqi bozorda qurilish materiallari korxonasi samaradorli tomonidan birlashish mumkin (2-rasmga qarahg):

1. Marketing elementlari omillari: korxonaning bozor sotuv ulushi, va hajmi, reklama xarajatlari va boshqalar.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar omillari: iste’mol fondi (yoki xarid qilish xarajatlari) va xom ashyo resurslari importi.
3. Narx shakllari omillari: iste’mol narxlari (ulgurji va chakana) holati, inflyasiya darajasi, valyuta kursi.
4. Investitsion omillar: investisiyalar va bank foizi.



2-rasm: Bozor omillarining o‘zaro bog‘liqligi va ularning qurilish materiallari sanoati korxonasi faoliyati samaradorligiga ta’siri [muallif ishlanmasi]

Dastlab, korxona menejeri mavjud bo‘lgan bozor hajmini baholashi kerak. Buning uchun bozor sig‘imi, ya’ni korxona tomonidan ishlab chiqarilgan sotiladigan tovarlarni hudud bozoridagi hajmini aniqlaydi. Ushbu ko‘rsatkichning dinamikasini baholash mintaqaviy bozorning konyukturasini aniqlashga, uning keyingi rivojlanishini bashorat qilishga va ma’lum bir raqabotdosh korxonaning unga nisbatan faoliyatini baholashga aniqlab beradi [12].

Qurilish materiallari sanoati korxonasining bozordagi o‘rni uning ulushi kabi ko‘rsatkich yordamida baholanadi. Bu ichki bozorda sotilgan tovarlarning umumiy hajmida ma’lum bir korxona mahsulotining ulushi mavjud. Ushbu ko‘rsatkichning rivojlanishi korxona iqtisodiyotini bozordagi o‘zgarishlarga nisbatan qanchalik samarali rivojlanganligini aniqlash imkonini beradi. Korxonaning bozor ulushi tovar aylanmasining umumiy bozordagi sotuv hajmiga nisbati aniqlanadi va tahlil qilinadi:

Taklif etilayotgan omillarning qurilish materiallari sanoati korxona samaradorligiga ta’sirini o‘lchash uchun korrelyatsiya tahlilidan foydalanishi kerak, chunki ular o‘rtasidagi munosabatlarni bog‘liqligi to‘liq emas va risklidir. Ko‘rib chiqilgan masala bir nechta tarkibiy qismlardan iborat:

1) samaradorlikka bevosita ta’sir qiladigan omillar aniqlanadi. Buning uchun korrelyatsiya koeffitsiyenti hisoblab chiqiladi va Chaddok shkalasi asosida eng yaqin yoki bir-biriga bog‘liq munosabatga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlar aniqlanadi;

2) keyingi bosqich korrelyatsiya tahlilining bir omilli korxona modelini yaratishdir.

3) Strategik rejalashtirish va korxonaning bozordagi real holatini baholash uchun bozorda talab va taklifning korxona iqtisodiy samaradorligiga ta’sirini modellashtirish va olingan natijadan foydalanish asosida korxona samaradorligini kelajak uchun bashorat qilish [15].

Prognozlar maqsadiga ko‘ra, ikki turga bo‘linadi - qidiruv va maqsadli. Qidiruvda bashorat birlamchi bo‘ladi o‘tmishda va joriy yilda o‘rganilayotgan obyektning rivojlanish tendensiyalarini kelajakda shartli ravishda davom ettirishga asoslanadi va urganilayotgan (omillarni) abstraktasiya qilinadi, bu korxona samaradorligini o‘zgartirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish materiallari sanoati korxonasi o‘zgargan tashqi muhit va bozor muhiti samaradorligini baholashda iqtisodiy ichki ma’lumotlari, balki tadqiqotlar bozori natijasidan foydalanishni shakllantiradi. Samaradorlikni baholash zamonaviy iqtisodiy ko‘rsatkichlar sharoitda tashqi muhitning barcha parametrlari tegishligi, bozor sharoitlari, ko‘rsatkichlar makroiqtisodiy o‘zgarishi, jumladan, bozor omillarini alohida mamalakatimiz tomonidan tartibga solish hisobga ta’sirini oshirish kerak. Bozor kon’yunkturasini qurilish materiallari sanoati korxonasi samaradorligini baholash metodologiyasi taklif etilgan tashqi omillar aniq prognoz qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.designingbuildings.co.uk/wiki/Global_construction_market_projections_from_2020_to_2030
2. Д. М. Ламберт; науч. ред. и предисл. В.И. Сергеева – М.: ИНФРА-М, 2017. – с. 6.
3. Drucker, P. (1977). People and Performance: The Best of Peter Drucker on Management. New York: Harper & Row. 317 p.
4. Dubois, A. The construction industry as a loosely coupled system: implications for productivity and innovation / A.Dubois, L-E. Gadde //Construction Management and Economics, 2002 – Vol.20, issue 7. – P.621-631.
5. Р.И.Нуримбетов, Ш.Н.Зайнутдинов, С.К.Салаев., Б.Б. Жуманиязов, К.С.Ташмухамедова. Ўзбекистон минтақаларида қурилиш индустриясини ривожлантириш стратегиясининг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. Монография. – Т. : Fan va texnologiyalar, 2017. – 288 б.

6. Джуманиязов У.И. Давлат-хусусий шерикчилиги асосида уй-жой қурилиши соҳасида корпоратив бошқарув механизмларини такомиллаштириш. И.ф.б.ф.д.PhD) дисс.автореф. – Тошкент.: – ТДИУ, 2017.
7. А.Абдуллаев. Қурилиш соҳасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ижтимоий-иқтисодий самарадорлигини ошириш стратегияси (Тошкент вилояти мисолида). И.ф.б.ф.д.(PhD) дисс.автореф. – Тошкент. – 2019. – 27 бет.;
8. Ш.А. Дехқонов Акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарувни такомиллаштириш. Иқт фанл бўйича фал. докт.(PhD) дисс.автореф. Андижон.: – АДУ, – 2021.
9. Горбунова Е. Г., Шамрай Л. В. Оценка результативности управленческих решений по критериям экономической эффективности // Бизнес. Образование. Право. Вестник Волгоградского института бизнеса. – 2014. – № 2 (27). – С. 127.
10. Троянова Е. Н. Совершенствование методов управления эффективностью деятельности предприятия: дис.... канд. экон. наук. Саратов, – 2010. – 204 с.
11. Исаев Ж.М. “Значение повышения стратегической технологической конкурентоспособности промышленных предприятий”. ISJ Теоретические и прикладные науки 5, вып. 97 (2021): 22.
12. Isayev, J. (2023). The importance of the digital economy in the development of the construction industry. In E3S Web of Conferences (Vol. 460, p. 03008). EDP Sciences.
13. Isayev, J. (2023). The importance of the digital economy in the development of the construction industry. In E3S Web of Conferences (Vol. 460, p. 03008). EDP Sciences.
14. Yuldasheva, N. (2022). Scientific and Theoretical Aspects of the Development of Innovative Strategies in the Management of Industrial Enterprises. Bulletin of Science and Practice, 8(5), 457-461. (in Russian). https://doi.org/10.33619/2414-2948/78/53
15. Yuldasheva, N.A. Issues of active development of the digital economy. ISJ Theoretical & Applied Science. 05 (97). 375-379. Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS



IQTISODIYOTNI ISLOMIY MOLIYA TAMOYILLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Kasimov Baxtiyor Usmanovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola Islom moliya tamoyillarini O‘zbekistonning iqtisodiy strukturasiga integratsiya qilish imkoniyatlarini o‘rganadi. U islom moliyasining asosiy tamoyillarini o‘rganadi, islom moliyasining global kontekstini baholaydi, O‘zbekistonga xos muammolar va yechimlarni tahlil qiladi hamda iqtisodiy o‘sishni, moliyaviy barqarorlikni va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun islomiy moliya tamoyillarini muvaffaqiyatli qabul qilish bo‘yicha takliflar beradi.

Kalit so‘zlar: Islom moliyasi, Iqtisodiy integratsiya, Moliyaviy barqarorlik, Axloqiy moliya.

Abstract: This article explores the potential for integrating Islamic finance principles into Uzbekistan’s economic landscape. It examines the core principles of Islamic finance, evaluates the global context of Islamic finance, analyzes the challenges and solutions specific to Uzbekistan, and provides recommendations for a successful adoption of Islamic finance principles to foster economic growth, financial stability, and ethical financial practices in the country.

Key words: Islamic finance, Economic integration, Financial stability, Ethical finance.

Аннотация: В данной статье рассматривается потенциал интеграции принципов исламских финансов в экономическое пространство Узбекистана. Освещены основные принципы исламских финансов, проведен анализ мирового контекста исламской финансовой системы, рассмотрены вызовы и рекомендации, специфичные для Узбекистана, с целью успешного внедрения принципов исламских финансов для стимулирования экономического роста, финансовой стабильности и этической финансовой практики в стране.

Ключевые слова: Исламские финансы, Экономическая интеграция, Финансовая стабильность, Этическая финансовая практика.

KIRISH

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar barcha davrlarda ishlab chiqarish munosabatlarining xususiyatlari bilan bir-biridan tubdan farq qiladi. O‘z navbatida, yangi ishlab chiqarish munosabatlari mavjud ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish bosqichlaridan kelib chiqadi, deyish mumkin. Yangi ishlab chiqarish munosabatlarining vujudga kelishi bilan bir vaqtda davlat tuzilmasi bu munosabatlarga asta-sekin moslashishi kerak. Har bir ijtimoiy tizim va shunga mos ravishda ma’lum bir moliyaviy tuzilma bu tizimdagi davlatga mos keladi va asta-sekin moslashadi. Bugungi kunda an’anaviy moliya mexanizmiga raqobatchi sifatida yangi islomiy moliya mexanizmlari, xususan, islom banklari, islomiy sug‘urta tashkilotlari, investitsiya fondlari va boshqa islomiy moliyaviy vositachilar yaratilgan va ular nafaqat musulmon mamlakatlarida, balki boshqa mamlakatlarda ham jadal rivojlanmoqda. So‘zimizni isbotlash uchun aytishimiz mumkinki, islom moliya sektori hozirda yiliga 15 foizdan 25 foizgacha o‘sib bormoqda va bu yo‘nalishdagi moliyaviy tashkilotlar dunyoda 2,7 trillion dollardan ortiq aktivlarni boshqarmoqda [1].

Investitsion dunyo yil sayin xilma-xillashib, moliyaviy bozor vositalari esa tobora jozibador bo‘lib bormoqda. Zamonaviy investor o‘z mablag‘larini nafaqat daromadlilik va tavakkalchilik asosida, balki o‘zining axloqiy tamoyillari va diniy e’tiqodi asosida ham investitsiya qilish imkoniyatiga ega. Iqtisodiy murakkabliklar va rivojlanayotgan moliyaviy tizimlar bilan ajralib turadigan dunyoda islomiy moliya shariat qonunlari tamoyillariga chuqur asoslanib bormoqda. Qiymati kengayib borayotgan global islomiy moliya sanoati O‘zbekistonning iqtisodiy strukturasiga ushbu amaliyotni joriy etish istiqboli tobora jozibador bo‘lib bormoqda. Rivojlanayotgan, sanoat bazasi o‘sib borayotgan va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga intilayotgan O‘zbekiston o‘zining iqtisodiy barqarorligi va moliyaviy inklyuzivligini oshirish uchun islomiy moliya tamoyillarini joriy etish imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratmoqda.

Islom moliyasi, tizim sifatida, axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatli moliyaviy operatsiyalarni ta’kidlab, an’anaviy moliyaga muqobil paradigma taklif qiladi. Bugungi kunga kelib, shariatning qat’iy axloqiy me’yorlariga aso-

slangan islom investitsiyalari keng tarqalmoqda. Islom investitsiyasining oddiy investitsiyalardan asosiy farqi spekulyativ vositalarga sarmoya kiritish orqali daromad olishni inkor etishdir. Buning o‘rniga, u iqtisodiy sa’y-harakatlarda risklarni taqsimlash va ijtimoiy adolatni targ‘ib qiladi. Ushbu axloqiy asos O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining qadriyatlari va intilishlari bilan chambarchas mos keladi.

O‘zbekiston xalqaro bozorlar va xorijiy investitsiyalar uchun o‘z eshiklarini ochar ekan, islomiy moliya tamoyillarini qabul qilish ko‘plab afzalliklarni taqdim etishi mumkin. Ushbu afzalliklarga axloqiy investorlarni jalb qilish, moliyaviy inklyuzivlikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish va global axloqiy standartlarga mos keladigan barqaror moliyaviy tizimni yaratish kiradi. Biroq, hozirda bu o‘tish o‘z muammolaridan xoli emas, islomiy moliya tamoyillarini qo‘llab-quvvatlovchi me’yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish hamda inson kapitalini rivojlantirish zarur hisoblanadi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

Global islomiy moliya sanoati bugungi kunga kelib eksponensial o‘sishga guvoh erishdi. Islomiy banklar, Takaful (Islom sug‘urtasi) va Sukuk (Islom obligatsiyalari) xalqaro moliya bozorlarida katta o‘rin egalladi [2]. Ushbu global kengayish islomiy moliyaning global miqyosda hayotiyligi va jozibadorligini ta’kidlaydi.

Islomiy moliya tamoyillarini qabul qilish bir qancha potentsial foyda keltiradi. Investorlar uning axloqiy asosiga jalb qilinadi va u kam ta’minlangan aholiga qulay moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish orqali moliyaviy infrastrukturani rivojlantirishi mumkin [3].

Islomiy moliya iqtisodiy o‘sish va moliyaviy barqarorlik bilan bog‘liq. El-Galfi va boshqalar [4] islomiy moliya risklarni taqsimlash va axloqiy investitsiyalarni rag‘batlantirish orqali, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bu O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy o‘sishga bo‘lgan intilishlariga mos keladi.

Shu o‘rinda qayd etish joizki, o‘zbek olim va izlanuvchilardan Imamnazarov [5], Abrorov [6], Tursunov [7] va boshqalar islom moliyasining bugungi kundagi eng muhim nuqtalarda nechog‘lik zarur ekanligi xususida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada rivojlangan mamlakatlarda chop etlilgan mavzuga doir adabiyotlar, Islom tarqqiyotbanki ma’lumotlar ba’zasi va internet tarmog‘idagi mavjud eng so‘nggi ma’lumotlar o‘rganilindi va tadqiyqotning qiyosiy tahlili, hamda ilmiy abstraktsiyalashda foydalanildi. Shuningdek, O‘zbekistonda islomiy moliyani joriy etish istiqbollarini joriy etish borasida mamlakatning iqtisodiy kontekstiga xos bo‘lgan ayrim muammolar va potentsial yechimlar xorijiy adabiyotlardan foydalangan holatda tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda islomiy moliyani joriy etish istiqbollarini tahlil qilishda mamlakatning iqtisodiy kontekstiga xos bo‘lgan ayrim muammolar va potentsial yechimlarni ko‘rib chiqish zarur. Quyida biz ushbu muammolarni hal qilish bo‘yicha takliflar bilan birga chuqur tahlilni taqdim etamiz(1-jadval).

1-jadval: O‘zbekistonda islomiy moliyani joriy etishda yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar

Qiyinchiliklar	Tavsif
Cheklangan xabardorlik	Aholi va moliya institutlari orasida islomiy moliya haqida tushuncha va xabardorlikning cheklanganligi.
Normativ-huquqiy baza	Islomiy moliya mahsulotlari va xizmatlarini qo‘llab-quvvatlovchi keng qamrovli me’yoriy-huquqiy bazaning yetishmasligi.
Imkoniyatlarni oshirish	Islomiy moliyaviy mahsulotlarni taklif qilish va boshqarish uchun bank sektorida inson kapitali va tajriba yetarli emas.
Mahsulotni moslashtirish	Mavjud moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni shariat tamoyillariga moslashtirish zarurati.
Risklarni boshqarish	Islomiy moliyalashtirish operatsiyalariga xos bo‘lgan ishonchli risklarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish zarurati
Shariatga rioya qilish	Moliyaviy operatsiyalarda shariat tamoyillariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu qiyinchilikni yengish uchun keng jamoatchilik va moliya institutlariga qaratilgan keng qamrovli tushuntirish kampaniyalarini boshlash kerak. O‘quv seminarlari va marketing materiallari islomiy moliya bilimdagi bo‘shliqni bartaraf etishga yordam beradi. O‘zbekiston islomiy moliyalashtirish amaliyotlarini tan oladigan va moslashtiradigan, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish va shariat tamoyillariga rioya qilishni ta’minlay-

digan keng qamrovli normativ-huquqiy bazani yaratishi kerak. Bunga rioya etilishini nazorat qilish uchun shariat kengashlari yoki qo‘mitalarini yaratish kiradi. Islomiy moliya tamoyillari, mahsulotlari va bank sektorida risklarni boshqarish bo‘yicha tajribani rivojlantirish uchun o‘quv dasturlariga sarmoya kiritish juda muhimdir. Xalqaro islom moliya institutlari bilan hamkorlik bu salohiyatni oshirishga yordam beradi. Banklar mavjud moliyaviy mahsulotlarni shariatga moslashtirish, axloqiy va adolatli tamoyillarga rioya qilishlarini ta’minlash uchun moslashtirish ustida ishlashlari kerak. Islomiy moliyalashtirishga xos bo‘lgan mustahkam risklarni boshqarish tizimini ishlab chiqish xavflarni kamaytirish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Tijorat banklari barcha moliyaviy operatsiyalarda shariat qoidalariga rioya etilishini ta’minlash uchun qattiq ichki jarayonlarni o‘rnatishi kerak, ehtimol muvofiqlikni tasdiqlash uchun shariat tekshiruvlarini o‘z ichiga oladi.

2-jadval: O‘zbekistonda islom moliyasini joriy etishning potentsial yechimlari

Yechimlar	Tavsif
Islom moliyasi sohasida ta’limni rivojlantirish	Bank xodimlari, davlat amaldorlari va jamoatchilik uchun islomiy moliya tamoyillari va mahsulotlari bo‘yicha muntazam trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish.
Normativ targ‘ibot	Islomiy moliya uchun qulay muhit yaratish, jumladan, shariat kengashlarini tashkil etish uchun tartibga soluvchi organlar bilan hamkorlik qilish.
Mahsulot ishlab chiqish	Mavjud moliyaviy mahsulotlarni shariatga moslashtirish va O‘zbekiston aholisining ehtiyojlarini qondiradigan yangi mahsulotlarni ishlab chiqish.
Marketing va targ‘ibot	Aholi va korxonalar o‘rtasida islomiy moliya haqida xabardorlikni oshirish uchun marketing harakatlariga sarmoya kiriting.
Risklarni boshqarish asosi	Islomiy moliyalashtirish operatsiyalariga xos bo‘lgan xatarlarni boshqarishning keng qamrovli asoslarini ishlab chiqish.
Shariatga rioya qilish kafolati	Barcha moliyaviy operatsiyalarda, ehtimol, shariat tekshiruvlari orqali shariatga rioya etilishini ta’minlash uchun qattiq ichki jarayonlarni amalga oshiring.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Muammolar va potentsial yechimlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda islomiy moliyani joriy etish murakkab ish bo‘lsa-da, moliyaviy inklyuzivlik, axloqiy investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish nuqtayi nazaridan katta foyda keltiradi. Ushbu ishda bayon etilgan takliflarni qabul qilish orqali O‘zbekiston islom moliya tamoyillarini qabul qilish va o‘z iqtisodiyoti va fuqarolari uchun manfaatli axloqiy va adolatli moliyaviy ekotizimni yaratish yo‘liga kirishi mumkin.

XULOSA


O‘zbekiston o‘zining iqtisodiy kelajagini shakllantirish uchun islom moliyasining axloqiy va adolatli tamoyillaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada bayon etilgan tavsiyalarni qabul qilish orqali O‘zbekiston o‘zini islom moliya tamoyillarini qabul qilish bo‘yicha yetakchi davlat sifatida ko‘rsatishi va axloqiy moliyaviy standartlarga rioya qilgan holda barqaror iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shishi mumkin. Ushbu o‘tish birgalikda harakat va vaqtni talab qilishi mumkin, ammo iqtisodiy barqarorlik, axloqiy moliyaviy amaliyotlar va inklyuziv o‘sish nuqtayi nazaridan uzoq muddatli foyda sarmoyaga arziydi.

O‘zbekiston mustahkam islomiy moliya ekotizimini yaratish yo‘lida davom etar ekan, u o‘z iqtisodiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatish, o‘z fuqarolari farovonligini oshirish hamda axloqiy va adolatli moliyaviy amaliyotlarning kelajagini shakllantirishda muhim rol o‘ynash imkoniyatiga ega. Strategik rejalashtirish va xorijiy islomiy moliya tashkilotlari bilan hamkorlik orqali O‘zbekiston yanada farovon va axloqiy moliyaviy kelajakka yo‘l ochishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. IFDI (2022) Islamic Finance Development Report 2022: Embracing change. The Islamic Corporationfor the Development of the Private Sector and Refinitiv. – p 3.
2. Archer, S., & Karim, R. A. A. (2017). Islamic Finance: A Practical Perspective. Edward Elgar Publishing.
3. Kettell, B. (2016). Introduction to Islamic Banking and Finance. John Wiley & Sons.
4. Hassan, K., & Lewis, M. K. (2007). Handbook of Islamic Banking. Edward Elgar Publishing.
5. Imamnazarov J.M. (2023) Islom moliya tizimi imkoniyatlaridan O‘zbekiston iqtisodiyotida foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. O‘T.: TDIU.
6. Абороов С.З. (2020), Ўзбекистонда сукук – исломий қимматли қоғозларни жорий этиш истиқболлари. 08.00.07-Молия, пул муомиласи ва кредит PhD илмий даражаси диссертацияси. –ТДИУ Т.
7. Tursunov, A. S. (2022). Islomiy mikromoliyalashtirishning kambag‘allikni qisqartirishda tutgan o‘rni. Пандемиядан кейинги иқтисодиёт: рисклар, муаммолар, ечимлар” мавзуидаги ўтказиладиган халқаро илмий-амалий конференцияси мақолалар тўплами (2022 йил 30 март). –Т.:YTIT, –2022.

OZIQ-OVQAT SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MEXANIZMI



Mahamatova Maftuna
Renessans ta'lim universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada oziq-ovqat korxonalarini boshqarish mexanizmini yaxshilash, ularning huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, sohada tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish va xorijiy investitsiyalar kiritish borasidagi muammolarga e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, oziq-ovqat sanoati mahsulotlari sifatini oshirish nafaqat xorijiy investitsiyalar kirishini rag'batlantirish, balki butun korxona faoliyatini zamon talablariga mos holda modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ular faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat sanoati, oziq-ovqat bozori, oziq-ovqat turlari, bozor elementlari, boshqaruv strategiyasi, raqobat ustunligi, bozor imkoniyatlari, iqtisodiy mexanizm, tashkiliy mexanizm, tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik subyekti, tadbirkorlik qobiliyati, tadbirkorlik infratuzilmasi.

Abstract: This scientific article focuses on the problems of improving the mechanism of management of food enterprises, improving the system of protection of their rights, improving the efficiency of entrepreneurial activity in the field and introducing foreign investments. In addition, proposals and recommendations have been made to improve the quality of food industry products not only to stimulate the entry of foreign investments, but also to modernize, technically and technologically update the activities of the entire enterprise in accordance with the requirements of the time, to develop economic mechanisms for the development of their activities.

Key words: food industry, food market, types of food, market elements, strategy management, competitive advantage, market opportunities, economic mechanism, organizational mechanism, entrepreneurial activity, business entity, entrepreneurial ability, entrepreneurial infrastructure.

Аннотация: Данная научная статья посвящена проблемам совершенствования механизма управления предприятиями пищевой промышленности, совершенствования системы защиты их прав, повышения эффективности предпринимательской деятельности в данной сфере и привлечения иностранных инвестиций. Кроме того, были внесены предложения и рекомендации по повышению качества продукции пищевой промышленности не только для стимулирования притока иностранных инвестиций, но и по модернизации, техническому и технологически обновлению деятельности всего предприятия в соответствии с требованиями времени, разработке экономических механизмов развития их деятельность.

Ключевые слова: пищевая промышленность, продовольственный рынок, виды продуктов питания, элементы рынка, стратегия управления, конкурентное преимущество, рыночные возможности, экономический механизм, организационный механизм, предпринимательская деятельность, хозяйствующий субъект, предпринимательские способности, предпринимательская инфраструктура.

KIRISH

Jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, global beqarorlikning kuchayishi mamlakatlar iste'mol bozorini sifatli oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirish, aholisini yetarli darajadagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, xususan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasidagi ilmiy izlanishlarni taqozo etmoqda. Aholini xavfsiz, to'yimli va yetarli darajadagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, oqilona iste'molini tashkil etish, ovqatlanish madaniyatini oshirish, iste'mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini rivojlantirish, iste'mol bozorini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish, oziq-ovqat tovarlariga talabni to'laroq qondirishda tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda boshqaruvning zamonaviy tamoyillaridan foydalanish, oziq-ovqat tovarlari bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

Mamlakat iqtisodiyotida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishga oid islohotlarning chuqurlashuvi yuz bermoqda. Jumladan, oziq-ovqat korxonalarini boshqarish mexanizmini yaxshilamasdan, ularning huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirmay tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish va tashqi manbalardan investitsiyalar kiritishni ko‘paytirish muammo bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, qayta ishlash sanoati mahsulotlari sifatini oshirish nafaqat xorijiy investitsiyalarni kirishini rag‘batlantirish, balki butun korxona faoliyatini zamon talablariga mos holda modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilashni ham qamrab olishi lozim.

Ushbu muammoning dolzarbligini e’tiborga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 18-feraldagi PQ-2492-sonli “Respublika oziq-ovqat sanoatini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilingan [1]. Bu qarorga ko‘ra “Respublika oziq-ovqat sanoatini tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”da belgilangan vazifalar va tadbirlarni bajarish yuzasidan korxonalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish [2], oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatining samaradorligini tubdan oshirish, bo‘lajak investorlar uchun ularning ochiqligi va jozibadorligini ta’minlash, korxonalarni strategik boshqarishda oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlar rolini kuchaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalalarini o‘rganish va ularga yechim topish lozim.

Ta’kidlash lozimki, davlat tomonidan oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni tartibga solishning usul va shakllarini bugungi kundagi o‘zgarishlarning mazmun-mohiyatiga mos kelmasligi natijasida samaradorlik pasayib ketgan. Bu esa mamlakat iste’mol bozorida oziq-ovqat mahsulotlarini narxini uzluksiz tarzda o‘sib borishi, xorij korxonalari bilan taqqoslaganda mahsulot sifatini talabga javob bermasligi, raqobat muhiti shakllanishi juda sust yuz berayotgani, eksport hajmini ozligi kabi ko‘rsatkichlarda o‘zining aksini topmoqda. Lekin, O‘zbekistonning tabiiy-iqlim sharoiti va uning hududida yetishtiriladigan mahsulotlarni ekologik tozaligi tarmoq mahsulotlarini butun dunyo miqyosida xaridorgir bo‘lishiga juda kuchli raqobat ustunligini ta’minlab beruvchi omildir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Oziq-ovqat tovarlari bozorining mazmun mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, unga ta’sir etuvchi omillarni baholashdagi uslubiy yondashuvlarda alohida yagona bir fikrga erishilmagan. Oziq-ovqat tovarlari bozori tushunchasiga olimlar turli xil yondashuvlar asosida ta’rif berishgan. Biz o‘z tadqiqotimizda ularning ayrimlarini qiyosiy tahlil etishni joiz, deb bildik.

L.A.Aliyeva va T.Svetlorusovalar oziq-ovqat tovarlari bozorini “Qishloq xo‘jaligi, qayta ishlash va oziq-ovqat iste’molchilari o‘rtasidagi vositachi” [3] sifatida ta’riflaydi. P.T.Burdukov esa oziq-ovqat tovarlari bozoriga majmuaviy yondashib, uni “Mamlakat qishloq xo‘jaligida ozuqa, xom-ashyo va tayyor oziq-ovqatni siljitish bo‘yicha amalga oshirilayotgan bitimlar, eksport-import operatsiyalari hamda shu bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui” [4] sifatida ifodalaydi.

V.D.Goncharov bozor elementlarini to‘liq aks ettirishga harakat qilib, oziq-ovqat tovarlari bozorini “oziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonida vujudga keladigan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xaridor va sotuvchi tanlashdagi, narx belgilashdagi va mablag‘ shakllantirishdagi erkinlik bilan tavsiflanadigan iqtisodiy munosabatlar tizimi” [5] deb ataydi. N.P.Ketova esa shu tarifni to‘ldirib, “axborotdan foydalanish”ni [6] ham qo‘shadi.

Yu.B.Kostrova oziq-ovqat tovarlari bozoriga dinamik tizim deb qaraydi: “Mahsulot sifati va narxi nazorat qilinib, ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi mustahkam aloqa, mutanosib ravishdagi ishlab chiqarish va yetkazishdagi dinamik tezkor tizimdir” [7]. S.U.Nuraliyev va D.S.Nuraliyevalar ham “Oziq-ovqat ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish sohasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi” [8] deb ta’riflaydi.

O.N.Fetyuxina esa, oziq-ovqat tovarlari bozori tushunchasini yoritishda “sotsium” (tabaqalanish) va “raqobatda ustunlik” kabi kategoriyalarni qo‘llab quyidagicha ta’rif beradi: “Raqobat ustunliklari ko‘rinishidagi keskin ta’sir ko‘rsatadigan jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy ta’minlash tizimi, uning asosiy tarkibiy qismlari oziq-ovqatga bo‘lgan biologik ehtiyojlar, shuningdek, aholining to‘lov qobiliyati va milliy ishlab chiqarish va import orqali shakllanadigan taklif tufayli noelastik talabdan iborat” [9].

G.M.Zinchuk esa, “oziq-ovqat bozorini oziq-ovqat xom-ashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish va iste’mol qilishni qamrab oluvchi iqtisodiyotning tarkibiy qismi, sifatida belgilaydi” [10].

Shu bilan birga, aksariyat mualliflar oziq-ovqat bozori mohiyatining muhim qismini aks ettirishiga qaramay, ishlab chiqarish siklining bosqichlari o‘rtasida qayta aloqalarning mavjudligi va namoyon bo‘lishini ko‘rsatib o‘tishmagan.

Ilmiy-nazariy manbalarda “mexanizm” tushunchasi har xil ma’nolarda foydalaniladi: “tartibga solish mexanizmi”, “davlat ishtirokidagi mexanizm”, “boshqarish mexanizmi” kabi tushunchalar farqlanadi [11]. Shuningdek, oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy - iqtisodiy mexanizmi asosan o‘z ichiga uchta

tushunchalar orqali shakllanadi: “mexanizm” [12], “rivojlanish” va “oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik tizimi tuzilmasi”. Iqtisodiy adabiyotlarda mexanizmni mohiyati asosan voqea va hodisa yoki jarayonlar bog‘liqligi asosida shakllanib, o‘zida ma’lum bir harakatni, aniq voqe’likni ifodalaydi. Bu esa tizimlar faoliyati ketma-ketligini aniqlaydi [13].


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishni iqtisodiy mexanizmining ahamiyatini va sohadagi mavjud muammolarni ilmiy jihatdan o‘rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari deganda tadbirkorlik daromadi (foydasi)ni olish bo‘lgan amaldagi qonunlar doirasida faoliyat yurituvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar, ya’ni kichik korxona, mikrofirma va yakka tadbirkorlar yig‘indisi tushuniladi. Chunki, amaldagi qonunchilikka ko‘ra, O‘zbekiston sharoitida oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyati o‘z ichiga yuqoridagi 3 ta subyektni (kichik korxona, mikrofirma va yakka tadbirkor) qamrab oladi hamda asosan o‘rtacha yillik ishlovchilar soni mezoni bilan boshqa korxonalardan farqlanadi. Respublikada qabul qilingan “Tadbirkorlik to‘g‘risida” gi Qonunga asosan, tadbirkorlik – fuqarolarning foyda yoki shaxsiy daromad olishga yo‘naltirilgan mustaqil, tashabbuskor faoliyati bo‘lib, u fuqaroning o‘z nomidan, o‘zining tavakkalchiligi bilan hamda o‘zining yoki yuridik shaxsning (korxonaning) mulkiy javobgarligi asosida amalga oshirilishi ta’kidlangan [15].

Xo‘jalik mexanizmi deganda u yoki bu faoliyat turining tartibini aniqlovchi tizim, qurilma tushuniladi. Shuningdek, ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etish shakllaridan mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va joylashtirish, iqtisodiy qonunlar va takror ishlab chiqarish jarayonlarni amalga oshirishda qo‘llaniladigan tashkiliy tuzilmalar, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy-psixologik boshqaruv shakl va usullari, xo‘jalik aloqalari shakllari, jarayonlari, ishlab chiqarish va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ta’sir etuvchi iqtisodiy dastaklar va rag‘batlar yig‘indisi sifatida tushuniladi (1-rasm).



1-rasm: Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ob’ektlar bo‘yicha tasniflanishi


Bizning fikrimizcha oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirishni iqtisodiy mexanizmini ilmiy-nazariy tahlil qilish natijasida uning shakllarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. **Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmi.**

Mazkur mexanizm bevosita oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik subyektlarini moliyalash, kreditlash, ularga mikrolizing xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha dastaklarni, hujjatlarni o‘z ichiga oladi. So‘nggi yillar mobaynida respublika oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlar va ko‘rsatilayotgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmi yildan-yilga o‘sib bormoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyuldagi PQ-4406-sonli Qaroriga ko‘ra, 2019-yil 1-avgustdan boshlab: qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun jalb qilinadigan tijorat banklarining kreditlari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi huzuri-

dagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan: milliy valyutada, qiymati 10 mlrd. so‘mdan oshmaydigan miqdordagi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasining 1,5 baravaridan oshmaydigan foiz stavkasida jalb qilinadigan kreditlar bo‘yicha - 5 foizli punkt miqdorida; xorijiy valyutada, qiymati ekvivalentda 10 mlrd. so‘mdan oshmaydigan miqdorda jalb qilinadigan kreditlar bo‘yicha - tijorat banklari tomonidan belgilangan foiz stavkasining 40 foizi, ammo 4 foizdan ortiq bo‘lmagan miqdorda foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya beriladi; kredit summasining 50 foizigacha, biroq 8 mlrd. so‘mdan oshmagan miqdorda kafilliklar beriladi [16] hamda imtiyozli mikrokreditlashning asosiy vazifalari etib oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik sohasida yangi ish o‘rinlari tashkil etish, imtiyozli kreditlar berish orqali yuqorida qayd etilgan shaxslar kontingentlari uchun ularni tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb etish maqsadida mikromoliyaviy xizmatlardan oson foydalanishlarini maksimal darajada ta’minlash.

Shuningdek, imtiyozli mikrokreditlar belgilangan mikrokredit summasi - eng kam ish haqi miqdorining 200 barobarigacha, olti oy muddatli imtiyozli davrni hisobga olgan holda uch yilgacha muddatga, yillik foiz stavkasi miqdorlari: 1 ta ish joyi yaratilganda - 9 %, 2 ta ish joyi - 8 %, 3- 4 ish joylari - 7 %, 5 ta va undan ortiq ish joylari yaratilsa - 6 % miqdorda beriladigan bo‘ldi [17]. Xususan, bo‘sh turgan binolarni biznes vakillariga “nol qiymatda berish” ham bunga misol bo‘ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizning fikrimizcha, bevosita oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiqdir (2-rasm).



2-rasm: Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmi

2. **Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmi.**

Soha faoliyatini rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash va tartibga solishga qaratilgan barcha infratuzilmaviy yordam turlarini, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, iqtisodiyot va sanoat vazirligi, xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, savdo-sanoat palatasi, tijorat banklari, baholash tashkilotlari, investitsiya fondlari va birjalar, auditorlik, depozitlar, sug‘urta kompaniyalari, eksport-import kompaniyalari, axborot-konsalting firmalari hamda “yagona darcha” tashkilotlari tomonidan beriladigan yordamlarni nazarda tutadi.

Jumladan, oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirish, turli dasturlarni amalga oshirish, davlat ehtiyojlari uchun ishlar va xizmatlar tovar ijrosi uchun buyurtmalarni joylashtirish, kredit hujjatlarini rasmiylashtirish, ro‘yxatdan o‘tish, litsenziyalash, sertifikatlash va h.k.

3. **Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni mulkiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmi.**

Ushbu mexanizmga ko‘ra, oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikka davlat hokimiyati organlari va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tomonidan mulkni qo‘llab-quvvatlash, davlat yoki xususiy mulk ko‘rinishida yetkazish yoki foydalanish, shuningdek, yer uchastkalari, qurilishlar, noturar joylar, asbob-uskunalar, texnika-texnologiyalar, mashina, mexanizmlar, qurilmalar, transport vositalari va boshqalar [18].

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarning istiqbolli startegiyasini shakllantirish raqobat ustunligini (xarajatlar bo‘yicha ustunlik, bozor imkoniyatlari bo‘yicha ustunlik va boshqalarni) tanlashdan boshlanadi. Ayni paytda korxona tanlagan raqobat ustunligi yordamida o‘z oldiga qo‘ygan strategik maqsadlarga erishishni ko‘zlaydi. O‘z navbatida, muayyan ustunlik asosida boshqaruv samaraddorligini oshirish bo‘yicha strategiya tanlanadi. Bunda, boshqaruv strategiyasi o‘z mohiyati jihatidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan va amaldagi joriy strategiyani qayta baholashga, solishtirishga asoslanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv strategiyasining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, amalga oshirilayotgan va kelajak uchun rejalashtirilgan vazifalar bevosita korxona faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holatlarni, o‘zgarishlar va favqulodda sharoitlarni hisobga olish, korxona faoliyati izchilligini va samaradorligini ta’minlashdan iborat.

XULOSA

Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni infratuzilmaviy shart-sharoitlar, imkoniyatlaridan samarali foydalanishda kichik biznesning zaif mol-mulk bazasi (asosiy fondlar kamchiligi), kredit shartnomasiga ko‘ra majburiyatlarni amalga oshirishdagi kamchiliklar, biznesni daromadlilik darajasi va kredit resursi to‘lov stavkasi orasidagi yuqori farq tufayli yuzaga keladigan kredit olish bilan bog‘liq muammolar, garov ta’minoti uchun banklarning yuqori talablari, tadbirkorlarni bozorda o‘rnini topishigacha qiladigan katta xarajatlari, shuningdek noturar binolar uchun yuqori ijara haqi, malakali kadrlarni yetishmovchiligi, mintaqaviy, halqaro bozorlarda tovar va xizmatlarning narxlarni o‘zgarishi va olib chiqish bilan bog‘liq muammolar, oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikka oid savollarga mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari tomonidan yetarlicha javob olinmasligi kabi ayrim institutsional to‘siq chegaralarining mavjudligi kelajakda oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini bosqichma-bosqich, tizimli va uzluksiz ravishda takomillashtirib borish orqali quyidagilarga erishish mumkin:

- respublikamiz mintaqalarida oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash muammolarini yechishga yagona majmua tariqasida yondashuvni ta’minlash;
- joylarda oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirishning barcha yo‘nalishlari, ularni loyihalashtirish va amalga oshirish bosqichlarini boshqarishda yagona tamoyilni qo‘llash;
- oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha infratuzilma tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirishni ta’minlash;
- oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda maqsadli nazoratni ta’minlash.

Yuqorida sanab o‘tilgan islohotlarni amalga oshirish mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashuviga va samarali amal qilishiga olib keladi.

Adabiyotlar: Literatura/Reference:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 18-fevralda “Respublika oziq-ovqat sanoatini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2492-sonli qarori // “Xalq so‘zi”, 2016-yil 19-fevral // Lex.uz. 8 http://el.tfi.uz //
2. Ozbekistonda_moliyaviy_sektorning_rolini_oshirish_1-qism_47c0e.pdf
3. Алиева Л., Светлорусова Т. Инновационная система развития агропродовольственного рынка. // АПК: экономика и управление. 2007. -№4. С. 50-52 https://www.elibrary.ru/item.asp?id=9487839
4. http://www.duel.ru/publish/burdukov/glob.html Бурдуков П.Т. Россия в системе глобальной продовольственной безопасности. (Электронный ресурс)
5. Гончаров В.Д. Формирование продовольственного рынка. // АПК: экономика и управление.1996. №4. –с. 51
6. Кетова Н.П. Отраслевой маркетинг: стратегии, функции, приоритеты: учебное пособие. –М.: Вузовская книга, 2012. – с. 320
7. Кострова Ю.Б. Анализ продовольственного рынка России. Монография. -СПб: Издательство Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2014. –с. 8
8. Нуралиев С.У., Нуралиева Д.С. Основные направления развития и регулирования продовольственного рынка в условиях вступления России в ВТО. // Пищевая промышленность. -2012. –№12. – с. 10-13
9. Фетюхина О.Н. Функционирование и развитие агропродовольственоого рынка России в условиях глоболизации: теория, методология, практика. Автореферат на соиск. ученой степени доктора наук. Ставрополь, 2011. –с. 12-13
10. Зинчук Г.М. Понятие и виды продовольственного рынка. //Альманах современной науки и образования. 2011. №10 (53). –С. –111-113
11. Солодилова Н.З., Маликов Р.И. и др. О новых подходах к методологическому обеспечению эффективной предпринимательской политики в муниципальных образованиях // Экономика и управление. – М.: 2013. – № 4. –С.14–19.
12. Masharipova M.A. Xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, – №2, 2017. mart-aprel

13. Umarov I.Yu. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. // Zamonaviy menejmentning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqolalar va materiallari to‘plami. – Andijon.: ADU, 2019-yil 15-may. 193-197-b.
14. Ibragimov I.U. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida). Dis... iqt. fan. fal. dok. avtoref. – T., 2019. 11-b.
15. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-mayda “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-328-sonli Qonuni. –Toshkent.: –4 b. // lex.uz.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyulda “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4406-sonli Qarori. // lex.uz
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilda “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2746- sonli qarori. // lex.uz
18. Mashapipova M.A. Xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2017. –№2, mart-aprel.
19. Saidov Mashal (2021) Opportunities for the formation of the electricity market in Uzbekistan. 2nd Global Symposium on Humanity and Scientific Advancements Hosted from Jacksonville Florida, USA. December 30th 2021. R. 179-183. https://conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/1806/1891
20. aidov Mash’al Samadovich (2021) Elektr energetika sohasida tarif va narx shakllanishidagi muammolar va olib borilayotgan islohotlar. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2021-yil file:///C:/Users/Acer/Downloads/%D0%93%D0%9E%D0%A2%D0%9E%D0%92%D0%9E+%E2%84%96+6+2021_145%20(1).pdf
21. Saidov Mash’al Samadovich (2021) Tabiiy monopol tashkilotlarni boshqarishda raqobat muhitini rivojlantirish. Ekonomika i obrazovaniye №4. 2021/8/30
22. Saidov Mash’al Samadovich (2023) Elektr energetika tarmog‘ini tartibga solish va boshqarishning iqtisodiy xususiyatlari. Iqtisodiyotva ta’lim / 2023-yil 1-son. https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/950/863
23. Saidov Mashal Samadovich (2023). Ways of Introduction of Modern Management Mechanisms in the Electric Power Sector of Uzbekista. International Journal of Business Diplomacy and Economy Volume 2, No 1 | Jan- 2023. P. 98-110. https://inter-publishing.com/index.php/ijbde/article/view/977/843
24. Saidov Mashal Samadovich (2023). Renewable Energy Sources and Ways of their Implementation in the Republic of Uzbekistan. International journal on economics, finance and sustainable development. Vol. 5 No. 1 | January 2023. P. 38-52. https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/3879/3668
25. Azlarova M. Impact of technology-supported marketing strategies on food security and provision: Evidence from Uzbekistan’s confectionery industry //Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2022. – С. 39-45.
26. Qizi A. M. M. Methodological Aspects of Using Marketing Strategies in Filling the Consumer Market with Food Products //Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN. – 2023. – Т. 2249. – №. 0892.
27. Azlarova M. (2023). Iqtisodiyotning globallashuv sharoitida ichki bozorni oziq-ovqat tovarlari bilan to‘ldirishning nazariy asoslari. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(1), 292–300. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a4.

TURIZM XIZMATLAR BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIK KO‘RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI



Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna
Iqtisod fanlar falsafa doktori, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizmda raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari tahlili, turizm raqobatbardoshligini ta’minlashda mamlakatning biznes subyektlari imkoniyatlari muhokama qilinadi. Muallif turizm raqobatbardoshligi bo‘g‘liq xalqaro iqtisodiy ko‘rsatkichlarni, shuningdek, ushbu kontekstda turli xalqaro turizm tashkilotlarining rolini ko‘rib chiqadi. Turizmni tashkil etishni samarali boshqarish bo‘yicha mamlakat va tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlari tahlil qilingan. Mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishga bo‘lgan yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Turizmda raqobatbardoshlik, xalqaro turizm tashkilotlari, turistik manzil, turizm resurslari, raqobat ustunliklari, turizmda samaradorlik.

Abstract: This article discusses the analysis of indicators of competitiveness in tourism, the possibilities of business entities of the country in ensuring the competitiveness of tourism. The author examines international economic indicators related to tourism competitiveness, as well as the role of various international tourism organizations in this context. Mechanisms of cooperation between countries and organizations on effective management of tourism organization were analyzed. Ways to increase the country’s competitiveness are suggested.

Key words: Competitiveness in tourism, international tourism organizations, tourist destinations, tourism resources, competitive advantages, efficiency in tourism.

Аннотация: В данной статье рассматривается анализ показателей конкурентоспособности в сфере туризма, возможностей субъектов предпринимательства страны в обеспечении конкурентоспособности туризма. Автор рассматривает международные экономические показатели, связанные с конкурентоспособностью туризма, а также роль различных международных туристических организаций в этом контексте. Проанализированы механизмы сотрудничества между странами и организациями по эффективному управлению туристической организацией. Предложены пути повышения конкурентоспособности страны.

Ключевые слова: Конкурентоспособность в туризме, международные туристские организации, туристская дестинация, туристические ресурсы, конкурентные преимущества, эффективность в туризме.

KIRISH

Jahonda so‘nggi o‘n yillikda turizm ko‘plab mamlakatlarda iqtisodiyotga katta foyda keltiradigan dinamik sohalardan biriga aylanmoqda. Butunjahon turizm tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, “turizm sohasi daromadlik darajasiga ko‘ra faqat neft qazib olish va qayta ishlash tarmog‘idan keyin turadi. Turizm hissasiga jahon yalpi milliy mahsulotining deyarli 6%, jahon investitsiya hajmining 7%, har 16 ta ish o‘rnining bittasi, jahon iste’mol sarflarining 11% va barcha soliq tushumlarining 5% to‘g‘ri keladi. Shunga ko‘ra ko‘plab mamlakatlarda turizm sohasi davlatning qo‘llab-quvvatlashi ostida jadal rivojlanmoqda”[1]. Ayni paytda turizm raqobatbardoshligini ta’minlash muhim hisoblanib, ushbu holatni tahlil qilish orqali mamlakatlarda turizm salohiyati istiqbolini prognoz qilish, turizm bozoridagi ustunliklarini aniqlash va turizmni boshqarishda strategiyalarni aniqlab olish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Jahonda globallashuv va xalqaro miqyosdagi raqobatning keskinlashuvi sharoitida turizm sohasining rivojlanishi omillari va yo‘nalishlariga oid muhim tadqiqotlar olib borilmoqda.

Turistik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish, soha xizmatlariga bo‘lgan istiqboldagi talabni rag‘batlantirish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turizm xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlar: transport kompaniyalari, raqamli platformalar, turistik tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar, joylashtirish vositalari, ovqatlantirish

1 Казыбайкызы А., Муханова А.Е., Смагулова Ж.Б. Особенности и перспективы развития туризма в мире // Успехи современного естествознания. – 2015. – № 1-2. – С. 265-269; URL: https://natural-sciences.ru/ru/article/view?id=34827

xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar, reklama va marketing kompaniyalari, moliyaviy, sug‘urta, tibbiy xizmatlarni ko‘rsatuvchi korxonalar va boshqa korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish, turistik obyektlar sifatida madaniy va tabiiy boyliklarni saqlash, raqobatbardosh turizm sanoatini yaratish, turistik biznes subyektlar raqobatbardoshligini oshirishning mamlakat barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlash va aholi farovonligini oshirishga ta’sirini o‘rganish, raqobat imkoniyatlarini baholash usullarini takomillashtirish bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga ko‘ra biznes subyektlar munosabatlari raqobat muhitida rivojlanadi. “Raqobat” atamasi iqtisodiyotda keng foydalanilayotgan atamalardan biri bo‘lib, uni iqtisodchi olimlar turlicha izohlagan. Bozor tuzilishiga ko‘ra, raqobat-bu korxona oldindan kelishilgan “o‘yin qoidalari”sifatida qabul qilishi kerak bo‘lgan shartlar to‘plamidir[2]. Demak, raqobat monopolistik tuzilmaning aksi bo‘lgan raqobatlashgan bozor munosabatlarida vujudga keladi. Dastlab, raqobatning ilk nazariyasi Adam Smit tomonidan “mamlakat boyligining tabiati va sababini o‘rganish” (1776) asarida umumlashtirildi. Smit nazariyasining yangiligi, avvalo:

- raqobatni taklifga nisbatan narxlarga ta’sir qiluvchi raqobat sifatida shakllantirdi;
- raqobatning asosiy konsepsiyasi – subyektlarni mukammal ishlangan iqtisodiy rivojlanish rejasi asosida faoliyat olib borishga majbur qiluvchi “bozorning ko‘rinmas qo‘li” konsepsiyasini shakllantirildi, talabga javob bermaydigan mahsulot ishlab chiqarish bilan shug‘ullangan subyektlarni bozordan siqib chiqardi;
- nazariy tomondan juda yengil va moslashuvchan raqobat mexanizmini ishlab chiqdi. Uning mohiyati, tovarlarga bo‘lgan talabning pasayishi bilan sifati past bo‘lgan yoki juda qimmat mahsulotlar ishlab chiqaradigan subyektlar ulkan qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shuning uchun ular kapitalni bir sohadan ikkinchi sohaga o‘tkazish bilan bozor holatiga tezkor munosabat bildirishga majbur bo‘ladilar. Bunda, sanoatning foyda marjasi muvozanatlashib, resurslar va tarmoqlar o‘rtasida taqsimlanadi;
- samarali raqobat uchun asosiy xususiyatlar aniqlandi, sotuvchilar va iste’molchilar birdek mavjudligi, jumladan, to‘liq axborot, ishlatiladigan resurslarni harakatlanishi, sotuvchilarda ishonchsizlikka, mahsulotning bozordagi narxi o‘zgarishiga ta’sir qiladi;
- raqobatni barqarorlashtirish va rivojlantirish modelini ishlab chiqdi, bozor munosabatlarida ehtiyojlarni qondirish va jamiyatda resurslardan optimal darajada foydalanish mumkinligini isbotladi.

A.Smitning nazariyasi rivojlanishiga M.Porter[3], D.Rikardo[4], K.Ritchi, K.R.Makkonnell, J.Keyns, J.Robinson, S.Kim, G.L.Azoyev, Yu.I.Korobov, L.G.Ramenskiy, A.Yu.Yudanov, R.A.Fatxutdinov[5] kabi olimlar o‘z hissalarini qo‘shdilar. Olimlarning raqobat nazariyalari jahon iqtisodiyotining holatiga va raqobatga yondashishga qarab farqlanadi. Ulardan bir nechtasi bor: Raqobatbardoshlini oshirish muammolari odatda an’anaviy turizm mahsulotlar va xizmatlar sohasida tahlil qilinishini, turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirishda turizm bozori ishtirokchilari bo‘lmish turistik biznes subyektlar faoliyatida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan turistik raqobatbardoshlik omillarini to‘liq tadqiq etishning yetishmasligi kuzatiladi.

Turizm industriyasidagi raqobatbardoshlik muammolari jahon ilmiy adabiyotlarida tadqiq qilib kelinmoqda. Ilmiy adabiyotlarda raqobatbardoshlikni oshirish muammosining ahamiyati tez-tez ta’kidlanadi, lekin milliy sayyohlik sanoatining raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omillarni ko‘rsatadigan metodologik asoslangan nazariya yo‘q. Milliy turizm industriyasining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarining yetarli darajada o‘rganilmaganligi milliy turizm industriyasining rivojlanishiga to‘siq bo‘lmoqda. Raqobat korxonalarning bir biri bilan kurashini aks ettirib, sotuvchilar va xaridorlarga tovar sotish uchun yanada qulay sharoitlarga egalik qilish imkoniyatini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2020-yilda pandemiyaning iqtisodiy oqibatlari millionlab biznes subyektlarning turmush tarziga ta’sir ko‘rsatdi, biznes faoliyatini to‘xtatdi va bugungi ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlash tizimidagi kamchiliklar aniqlandi. Dunyo xo‘jaligida pandemiya inqirozi to‘rtinchi sanoat inqilobining savdo, ko‘nikma, raqamlashtirish,

2 Волонцевич Елена Федоровна Конкурентоспособность предприятия туристической индустрии : учеб.-метод. пособие / Е. Ф. Волонцевич. Минск : РИПО, 2014. 134 с. ISBN 978-985-503-407-1

3 Портер Е. Майкл П60 Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов/ Майкл Е. Портер; Пер. с англ. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2005. – 454 с

4 Рикардо Д. Начала политической экономии и податного обложения. Перевод с английского под редакцией Н. Рязанова. Москва: изд. “Звено”, 1910

5 Фатхутдинов, Р.А. Управление конкурентоспособностью организации : учеб. пособие / М., 2004

raqobat va bandlikka ta'sirini yanada tezlashtirdi va iqtisodiy tizimlar va ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi munosabatlar uzilishi muammolarini keltirib chiqardi. Global raqobatbardoshlik indeksi (GCI) so'nggi iqtisodiy mulohazalar, jamiyat ehtiyojlari va texnologik o'zgarishlar bilan birga rivojlanishda davom etmoqda. Global raqobatbardoshlik indeksi uzoq muddatli o'sish, yaxshi ishlaydigan jamiyatlarni yaratish va atrof-muhitni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish o'rtasidagi raqobatda g'alaba qozonish imkoniyati mavjudligini isbotladi[6]. 2022-yil uchun pandemiya oqibatlaridan hukumatlarning tiklash strategiyalarining samaradorligiga bog'liq.

Bu nuqtayi nazardan, mamlakatda turizm iqtisodiyotining o'sishi quyidagi ustuvorliklarga bog'liq:

- so'nggi o'n yil ichidagi raqobatbardoshlik omillari;
- inqirozdan chiqish va iqtisodiy tiklanish uchun muhim bo'lgan ustuvorliklar;
- ishlab chiqarish uchun yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni joylashtirishga yordam beradigan omillar;

Bu turistik raqobatbardoshlikning asosini uchta element qo'llab-quvvatlashini belgilaydi: milliy ma'daniy meros turistik resurslarda, yaratilgan resurslarda va qo'shimcha resurslarda, o'z navbatida, ularni bitta ustun tuzilishga birlashtirish, chunki ular turistik manzilni yaratadigan xususiyatlarni beradi. (1-rasm)



1- rasm: Turistlarni tashrif buyurishga undovchi turizm manzili elementlari[7]

Turizm manzilining raqobatbardoshligi ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka, shu bilan birga, maqsadning raqobatbardoshligi sayohat maqsadga ta'sir qiladi. Ya'ni mamlakatga tashrif buyuruvchi sayohatchilarni kelishga undaydigan barcha turizm resurslari, turizmda raqobatbardoshlikni ta'minlash, turizm manzilining jozibadorligiga bog'liq. Bunga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi.


Mahalliy turistik resurslarning jozibadorligini oshirish va ularning maxsus sharoitlariga moslashadigan omillar davlat tomonidan nazoratga olinadi, tashkil etiladi. Uchinchidan, model, turizm manzilining raqobatbardoshligi ilgari aytib o'tilgan determinantlarga bog'liq bo'lsa-da, ular ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka, shu bilan birga, maqsadning raqobatbardoshligi o'z-o'zidan, shuningdek, ijtimoiy tomon oraliq maqsadga ta'sir qiladi, deb hisoblaydi. Mamlakatdagi turizm biznes subyektlarining raqobatbardoshligini shakllantirishda yuqoridagi omillarning ta'sir darajasini baholashga metodik yondashuvni miqdoriy omillarning sifat va iqtisodiy ko'rsatkichlar hisobi bilan ham tavsiflash mumkin bo'ladi. Bunda, mamlakatning turizm imkoniyatlari va biznes subyektlarinng faoliyat olib boradigan bozor turlari bo'yicha raqobatbardoshlik omillarini tanlashni hisobga olgan holda samaradorlikka erishish mumkin bo'ladi (2- rasm).

Xalqaro bozorlarning tobora oshkoraligi turizm sohasi uchun ham imkoniyatlar, ham xavf tug'diradi, aksariyat mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Turizm tarmog'i subyektlari O'zbekiston budjetiga barqaror daromad keltiruvchi yuqori salohiyatga ega. Turistik biznes subyektlarining raqobatbardoshlik darajasini oshirishda dastlab ushbu sohaning investitsion muhitini tahlil qilishdan boshlanadi.

Mamlakatning raqobatbardoshligini belgilab beruvchi xizmat turlari bo'yicha raqobatdardoshlik ko'rsatkichlari juda muhim empirik rivojlanishni ko'rsatadi. Ko'rsatkichlar kiruvchi turizm va boshqa natijalarga, chiquvchi turizm va boshqa vositalarga taalluqli, turizm subyektlari raqobatbardoshligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan va ta'sir qilishi mumkin bo'lgan umumiy elementlarga tegishli ko'rsatkichlardir

6 Klaus Schwab, Saadia Zahidi. The Global Competitiveness Report Special Edition 2020: How Countries are Performing on the Road to Recovery. World Economic Forum 2020

7 Muallif ishlanmasi



2-rasm: Mamlakatning raqobatbardoshligini belgilab beruvchi xizmat turlari bo'yicha raqobatdardoshlik ko'rsatkichlari[8]

XULOSA

Turizm odatda mamlakatlar va mintaqalarning iqtisodiy o'sishi va rivojlanishiga yordam beradigan element sifatida qaraladi[61]. Raqobatbardoshlik va turizm to'g'risidagi keng ilmiy tadqiqotlarda tasdiqlanganidek, turizm faoliyati qanchalik raqobatbardosh bo'lsa, u turistlarni shunchalik ko'proq jalb qiladi va shu tarmoq orqali daromadlarni ko'payishiga olib keladi, bu esa iqtisodiy o'sishga olib keladi. Ammo, bu ba'zi iqtisodchilar uchun bu bog'liqlik aniq emas deb hisoblaydilar, chunki ular uchun ko'proq turistlar ko'proq o'z ehtiyojlarini qondirish uchun turizm xizmatlari va tovarlarni ko'proq import qilish, turistik kompaniyalar xorijiy kapitalga ega bo'lganda boshqa mamlakatlarga daromadlarni qaytarib berish yoki turistik obyektlarni bozor narxlariga nisbatan juda arzon narxlarda yoki juda qulay sharoitlarda sotish mumkin bo'ladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, yuqorida keltirilgan raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari tahlili asosida mamlakatimiz turizm sanoatida ham raqobatbardoshlik ustunliklarini ko'rish mumkin. Ya'ni ko'rsatkichlarda ifodalangan talablarning asosiy qismi O'zbekistonning turizm siyosatida qo'llanilmoqda. O'zbekistonda turistik biznes subyektlar raqobatbardoshligini boshqarishda raqobatbardosh vaziyatda qanday omillar o'zgarishlarga olib kelishini bilish muhimdir. Yuqoridagi tahlilillardan O'zbekistonda davlat tomonidan turizmda biznes muhitini yaratish bo'yicha iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish natijasida:

- raqobatdosh turistik subyektlar soni ko'payadi va ular nisbatan taqqoslanadigan bo'ladi;
- turistik xizmatlariga bo'lgan talab asta-sekin o'sib boradi.
- raqobatning turli usullarini (narx va narxsiz) qo'llanadi;
- raqobatchilarning mahsulotlari assosrtimenti kengayadi;
- muvaffaqiyatli strategik harakatlar ta'siri hajmi ortadi. Turizm bozorida strategiyalarni qo'llashga talab oshadi;

8 Muallif ishlnamasi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 18-fevraldagi PF-75-son Farmoni hamda “Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2022-yil 18-fevraldagi PQ-135-son qarori. – www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son farmoni
3. Ritchie J.B., Crouch G.I. A Model of Destination Competitiveness and Sustainability /WangY., Pizam A. (eds.)//Tourism Destination Marketing and Management:Theories and applications.–2011–P.326-339
4. M. Amonboyev, Sh. Sayfutdinov, M. Nurfayzieva Fundamentals of tourism. – Textbook. – TSUE. – 2021
5. M. Aliyeva. Turizm asoslari.darslik –T.: Fan va texnologiya, 2022.– 400 b.
6. Волонсевич Елена Федоровна Конкурентоспособност предприятия туристической индустрии : учеб.-метод. пособие / Е. Ф. Волонсевич. Минск : РИПО, 2014. 134 с. ИСБН 978-985-503-407-1
7. Портер Е. Майкл П60 Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов/ Майкл Е. Портер; Пер. с англ. – М.: Алпина Бизнес Букс, 2005. – 454 с.
8. Рикардо Д. Начала политической экономии и податного обложения. Перевод с английского под редакцией Н. Рязанова. Москва: изд. “Звено”, 1910
9. Фатхутдинов, Р.А. Управление конкурентоспособностью организации : учеб. пособие / М., 2004.
10. Sayyora Rikhsibaevna et al. Organizational and Economic Aspects of the Development of the International Tourism and Hospitality Industry. Journal of Environmental Management and Tourism, [S.l.], v. 11, n. 4, p. 913-919, june 2020. ISSN 2068-7729.
11. Juraeva, N.., Nurfayzieva, M.., Bakhromov, A.., & Oppokkhonov, N.. (2023). “Exploring the Potential of Rural Tourism Development: A Case Study of Ovjazsoy in the Tashkent Region, Uzbekistan.EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 3(5), 171–176. Retrieved from https://www.inovatus.es/index.php/ejbsos/article/view/1745.
12. Klaus Schwab, Saadia Zahidi. The Global Competitiveness Report Special Edition 2020: How Countries are Performing on the Road to Recovery. World Economic Forum 2020.



ISLOM MOLIYALASHTIRISH XIZMATLARI ASOSIDA KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH USULLARI

Said Po‘latov Maxamedovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola kichik va o‘rta biznes korxonalarni (KO‘B) moliyalashtirishning muqobil vositasi sifatida islomiy moliyalashtirish xizmatlari sohasini o‘rganadi. Shariat qonunlari tamoyillariga asoslangan islom moliyasi sarmoya izlayotgan kichik va o‘rta biznes uchun o‘ziga xos va axloqiy yo‘lni taklif etadi. Shuningdek, maqola kichik va o‘rta biznes uchun mavjud bo‘lgan islomiy moliyalashtirishning turli usullarini o‘rganadi, kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish bo‘yicha mavjud adabiyotlarni ko‘rib chiqadi, hamda O‘zbekiston tijorat banklariga KO‘B o‘sishini rag‘batlantirish uchun islomiy moliyalashtirishni qanday qabul qilish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflar beradi. Ushbu tadqiqotda axloqiy moliyaviy tamoyillarga rioya qilgan holda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish uchun islom moliyasining salohiyati ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Islom moliyasi, Kichik va o‘rta korxonalar (KO‘B), Moliyalashtirish usullari, Tijorat banklari, Iqtisodiy o‘sish, Axloqiy moliyalashtirish, Shariat tamoyillari.

Abstract: This article delves into the realm of Islamic financing services as an alternative means of financing for Small and Medium-sized Enterprises (SMEs). Rooted in the principles of Sharia law, Islamic finance offers a distinctive and ethical avenue for SMEs seeking capital. This article explores the various Islamic financing methods available for SMEs, reviews the existing literature on SME financing, evaluates the current landscape of Islamic financing for SMEs, and provides recommendations to Uzbekistan’s commercial banks on how they can embrace and support Islamic finance to fuel SME growth. The potential of Islamic finance to foster economic growth while adhering to ethical financial principles is underscored in this study.

Key words: Islamic finance, Small and Medium-sized Enterprises (SMEs), Financing methods, Commercial banks, Economic growth, Ethical financing, Sharia principles.

Аннотация: Этот статья занимается исламскими финансовыми услугами как альтернативным способом финансирования для малых и средних предприятий (МСП). Основанные на принципах шариата, исламские финансы предлагают уникальный и этический путь для МСП, ищущих капитал. В этой статье рассматриваются различные методы исламского финансирования, доступные МСП, рассматривается существующая литература по финансированию МСП, оценивается текущая ситуация в области исламского финансирования для МСП и предлагаются рекомендации коммерческим банкам Узбекистана о том, как они могут внедрить и поддержать исламские финансы для стимулирования роста МСП. В данном исследовании подчеркивается потенциал исламских финансов для стимулирования экономического роста, соблюдая при этом этические финансовые принципы.

Ключевые слова: Исламские финансы, Малые и средние предприятия (МСП), Методы финансирования, Коммерческие банки, Экономический рост, Этическое финансирование, Принципы шариата.

KIRISH

Islom moliya tizimi, bu yaxlit tizim bo‘lib undagi barcha moliyaviy faoliyat islom huquqi (shariat) doirasida amalga oshiriladi. Bu tizimda eng asosiy e’tibor risklar ham, foyda ham biznes loyiha ishtirokchilari o‘rtasida adolatli ravishda taqsimlanishiga qaratiladi. Bunday yondashuv iqtisodiyotda pul mablag‘larining aylanishini ta’minlashga, iqtisodiy faollikni kuchaytirishga, va katta miqdordagi pul mablag‘larining muayyan kichik guruhlar qo‘lida jamlanishini oldini olishga yordam beradi.

Kichik va o‘rta bizneslar (KO‘B)ning moliyaviy imkoniyatlarini iqtisodiyotga jalb qilish rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti o‘sishi va diversifikatsiyasida (ya’ni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga taqsimot qilishda), shuningdek yangi ish o‘rinlari yaratishda juda muhim omil hisoblanadi. Mustaqillikka erishgandan buyon,

O‘zbekiston kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish bo‘yicha qator tashabbuslarni amalga oshirmoqdi va xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirmoqda. Bugungi kunda KO‘B va xususiy tadbirkorlik barqaror iqtisodiy o‘sish, kambag‘allik darajasini qisqartirish va ishsizlikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni (KO‘B) moliyalashtirishning muqobil vositalari sifatida islomiy moliyalashtirish xizmatlarini o‘z ichiga oladi. Shariat qonunlari imkoniyatlariga munosib islom moliyasi sarmoya izlayotgan kichik va o‘rta biznes uchun o‘ziga xos va axloqiy yo‘lni taklif etadi.

Kichik va o‘rta biznes korxonalar (KO‘B) butun dunyo bo‘ylab iqtisodiyotning asosini tashkil etib, ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyalarda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekiston, boshqa ko‘plab davlatlar singari, o‘sish va iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashda o‘zining kichik va o‘rta biznes sektorining dinamikligi va barqarorligiga tayanadi. Biroq, bu korxonalarning potentsialiga to‘sqinlik qiladigan doimiy muammolardan biri moliyalashtirishga kirishdir. An’anaviy moliyalashtirish usullari ko‘pincha yuqori foiz stavkalari, yuqori garov talablari va tijorat banklari o‘rtasida tavakkalchilikdan bosh tortish kabi to‘siqlar bilan birga keladi.

Ushbu muammolarga javoban moliyalashtirishning muqobil yondashuvi - islomiy moliyalashtirish xizmatlari hozirda ko‘plab iqtisodiyotlarda amalga oshirilmoqda. Shariat qonunlari tamoyillariga asoslangan islomiy moliya sarmoya izlayotgan korxonalar uchun o‘ziga xos va axloqiy yo‘lni taklif qiladi. Islomiy moliyaning asosiy tamoyillari riboni (sudxo‘rlik yoki foiz), g‘arorni (ortiqcha noaniqlik) kabi ishlarga jalb qilishni taqiqlashni o‘z ichiga oladi. Buning o‘rniga, islomiy moliya risklarni taqsimlash, axloqiy investitsiyalar va iqtisodiy adolatni targ‘ib qiladi.

Ushbu maqola kichik va o‘rta biznes uchun mavjud bo‘lgan islomiy moliyalashtirishning turli usullarini o‘rganadi, kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish bo‘yicha mavjud adabiyotlarni ko‘rib chiqadi, KO‘B uchun islomiy moliyalashtirishning hozirgi manzarasini baholaydi va O‘zbekiston tijorat banklariga islomiy moliyalashtirishni vosita sifatida qabul qilish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflar beradi. KO‘B o‘sishini ta’minlash uchun islomiy moliyaga qiziqish global miqyosda ortib borayotgan bir sharoitda uning iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish salohiyatini tushunish juda muhim va ushbu maqola kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishning ushbu jozibali alternativini yoritishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Islomiy moliya shariat tamoyillarida chuqur ildiz otgan bo‘lib, ular axloqiy me’yorlarga amal qiladigan moliyaviy tizimni yaratishga mo‘ljallangan. Ribo (sudxo‘rlik), G‘aror (ortiqcha noaniqlik) va haram (taqiqlangan) ishlardan qochish asosiy tamoyillardir [1]. Ushbu tamoyillar ochiqlik, adolatlilik va tavakkalchilikni taqsimlashni ta’minlaydi, bu esa KO‘B rivojlanishi uchun ayniqsa juda muhimdir.

Moliyaga kirish butun dunyo bo‘ylab kichik va o‘rta korxonalar uchun asosiy to‘siq bo‘lib qolmoqda [2]. Ko‘pincha yuqori foiz stavkalari va qat’iy garov talablari bilan ajralib turadigan an’anaviy moliyalashtirish manbalari KO‘Bning ehtiyojlari va sharoitlariga mos kelmaydi [3]. Natijada, KO‘B ko‘pincha o‘sish va barqarorlik uchun zarur bo‘lgan kapitalni olish uchun kurashadi.

Islomiy moliya kichik va o‘rta biznesni har biri axloqiy va adolatli moliyaviy operatsiyalarni rag‘batlantirish uchun mo‘ljallangan bir qator moliyalashtirish vositalari bilan ta’minlaydi. Ushbu vositalarga Mudarabah (foyda va zararni taqsimlash), Musharakah (qo‘shma korxona), Ijara (lizing) va Murabaha (xarajat qo‘shimcha moliyalashtirish) kiradi [4]. Ushbu vositalar tavakkalchilikni taqsimlash va axloqiy investitsiyalarni osonlashtiradi va ularni moliyalashtirishning muqobil variantlarini qidirayotgan KO‘B uchun mos variantlarga aylantiradi.

Empirik tadqiqotlar islomiy moliya kichik va o‘rta biznesga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatdi. Xon va boshqalarning tadqiqoti Malayziyada islomiy moliyalashtirish bilan shug‘ullanuvchi KO‘B korxonalari an’anaviy moliyalashtirishga tayanganlarga nisbatan moliyaviy ko‘rsatkichlarni yaxshilaganligini aniqladi [5]. Bu shuni ko‘rsatadiki, islomiy moliya kichik va o‘rta biznesni o‘sish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy barqarorlik va resurslar bilan ta’minlashi mumkin.

Dorivor o‘simliklarning iqtisodiyotdagi o‘rni haqida har bitta iqtisodchi olim t o‘xtalib o‘tgan bo‘lsa, marektologlar dorivor o‘simliklar bozorini tubdan tahlil qilishgan. 1998-yil 22–23-iyunda Yevropada Royal botanic gardens, Kew Britanic kingdom, Traffic Europe tomonidan tashkil etilgan “Yevropada savdoda dorivor o‘simliklarni saqlash bo‘yicha birinchi xalqaro simpozium.” bo‘yicha birinchi xalqaro simpoziumda Albaniya, Bolgariya, Frantsiya, Germaniya, Vengriya, Ispaniya, Turkiya va Buyuk Britaniya va hattoki Arika q o‘shma shtatlaridan vakillar ishtirok etdi[9]. Dorivor o‘simliklar savdosiga nisbatan bunday e’tibor esa keyinchalik Yevropa, Aqsh, Afrika mamlakatlari olimlari, savdogarlari va marketologlari ushbu mavzuga alohida to‘xtalishiga turtki bo‘ldi. Afrika mamlakatlarida bunga qadar dorivor o‘simliklarni yetishtirish va sotuvga tayyorlash bilan shug‘ullanishni boshlagan olimlarning ilmiy ishlari tez sur’atda darslik va o‘quv qo‘llanma sifatida ta’lim muassasalarida taqdim etila boshlandi. Xususan, Myles Mander tomonidan taqdim etilgan “Janubiy Afrikada mahalliy dorivor o‘simliklarning marketing” nomli o‘quv qo‘llanmada KwaZulu-Natalda dorivor o‘simliklar tarixi, ularning ustida ishlagan olimlarning ilmiy ishlari, mahlliy aholining xalq orasida mashhur dorivor o‘simliklar savdosiga yondashishi haqida chuqur izlanilgan va tahlil qilingan ma’lumotlar keltirilgan. Misol tariqasida 1998-yillar mobaynida Janubiy Afrikada 700 dan ortiq o‘simlik turlari faol ravishda sotilishi va ularning katta qismi yovvoyi holda o‘sishi shu bilan bir qatorda yovvoyi zaxiralarni intensiv yig‘ish mintaqadagi bioxilma-xillikka jiddiy tahdidlar solishi mumkinligiga alohida to‘xtalib o‘tgan [10]. 1998-yillardan so‘ng nafaqat ilm fan xususan marketing sohasida ham bir qancha o‘zgarishlar b o‘ldi. 2000-yillardan keyingi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarda dorivor o‘simliklar bozori alohida marketing va menejmentga suyangan holda bozor tahlillari amalga oshirilgan. 2007-yil A.K.M. Shahidullah “Bangladeshda aholi turmush tarzini yaxshilash va ekologik barqarorlikni ta’minlashda dorivor o‘simliklarning roli” nomli ilmiy ishida bozor strukturasi, savdoda mahsulotlarning kuchli va kuchsiz tomonlari va SWOT tahlillari keltirib o‘tilgan [11].

Zamonaviy adabiyotlar ma’lumotlarga yondashadigan bo‘lsak sekin astalik bilan dorivor o‘simliklarning mamlakatlar iqtisodiyotidagi muhim roliga va ularning iqtisodiy foydalariga to‘xtalamiz. 2023-yil dekabr oyida Michael Asigbaase tominidan olib borilgan Ganadagi Asukese va Amama o‘rmon qo‘riqxonalaridagi tadqiqot ishlari “Dorivor o‘simliklarni saqlash va ularning iqtisodiy foydalari: Janubi-g‘arbiy Gananing o‘rmon chekkasidagi jamoalardan olingan ma’lumotlar asosida” nomi bilan Scopus bazasida ko‘rinish berdi [12]. Bunda dorivor o‘simliklarning hozirgi ahvoli va ularni saqlab qolishga qaratilgan chora tadbirlar amalga oshirilgan. Bunda k o‘rsatilgan mahalliy dorivor o‘simliklarning mavjudligi tendentsiyasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar uch balli Likert shkalasi yordamida qayta ishlangan; ko‘p (1), o‘rtacha mavjud (2) va kamdan-kam bo‘lib qoldi (3). Shunga o‘xshab, dorivor o‘simliklarni yo‘qotish sabablari va ularni saqlash strategiyalari besh balli Likert shkalasi yordamida qayta ishlandi va tahlil qilindi; bunda mutlaqo qo‘shilmayman (1), qo‘shilmayman (2), befarq (3), roziman (4) va to‘liq roziman (5). Ushbu ko‘rsatkichlar ijtimoiy-demografik xususiyatlar bo‘yicha o‘rtacha hisoblangan [13].

Dorivor o‘simliklar haqida gap ketganda Hindiston olimlari ishlariga alohida e’tibor qaratmasdan iloj yo‘q, sababi Hindiston tarixdan dorivor o‘simliklar vatani hisoblangan. Preet Amol Singh o‘z shogirtlari bilan Hindistonning Panjob shtati dorivor o‘simliklar sektoridagi qiyinchiliklar va imkoniyatlarni yaxshiroq tushunish, shuningdek, sohani tashkil etish va uzluksiz ishlashi uchun mavjud bilimlarga asoslangan tavsiyalar berish uchun o‘tgazilgan ilmiy ishlar va o‘rganishlar natijasi 2022-yil dekabr oyida Skopus bazasi jurnallaridan biri “Journal of Applied Research on Medicinal and Aromatic Plants” taqdim etildi. Ushbu ilmiy maqoladan izlanishlar aynan dorivor o‘simliklar targ‘ibotiga qaratilgani sezish mumkin. Ilmi ishda dorivor o‘simliklar savdosi, ulardan kelayotgan daromadlar, bundan tashqari dorivor o‘simliklarda qishloq xo‘jaligi amaliyotlariga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan [14]. Bundan tashqari, Shohana Parvin “Dunyoda dorivor va aromatik o‘simliklarning potentsial roli va xalqaro savdosi”nomli ilmiy maqolasini taqdim etdi. Unda dorivor o‘simliklar xalqaro savdosiga alohida to‘xtalib o‘tilgan [15]. Global bozor tahlillari va prognozlari haqida taqdimotlarni Fact.MR havolalarida uchratish mumkin [16].

NATIJALAR VA MUNOZARA

Ohirgi 10-15 yillik adabiyotlarni o‘rganib chiqish bilan bir qatorda, so‘nggi yillardagi eng yangi ilmiy ishlar va tadqiqotlar natijalari ayniqsa iqtisodiy passiv bo‘lgan mamlakatlardagi ahvol bilan tanishib chiqamiz. Jumladan, Michael Asigbaase o‘z ilmiy ishida e’tiborga loyiq natijalar bilan bo‘lishgan. Ganadada joylashgan va ilmiy tadqiqot olib borilgan ikki o‘rmon qo‘riqxonasining chekka jamoalarida turli kasalliklar va kasalliklarni davolashda ishlatiladigan dorivor o‘simliklar 143 turdan (54 oila) iborat va ular 135 ta kasalliklarni davolash uchun ishlatilishi haqida ma’lumotlarni keltirib o‘tgan [17]. Shu bilan bir qatorda, dorivor o‘simliklarda mas’ul shaxslar daromadiga sezilarli hissa qo‘shgan va ba’zi hollarda u hattoki asosiy yoki yagona daromad manbayi bo‘lgan(1-jadval).

1-jadval: Dorivor o‘simliklardan foydalanishdan olingan yalpi yillik daromad [18]

O‘zgaruvchan	Kategoriya	N	O‘rtacha	Median
Jins	Erkak	112	947.87	980.16a
	Ayol	60	1047.84	746.79a
Oilaviy ahvol	Uylangan	102	1128.75	1120.19a
	Yagona	39	593.02	420.07b
	Beva qolgan	19	977.95	770.13ab
	Ajrashgan	11	1005.62	420.07b
Ta’lim darajasi	Boshlang‘ich	33	990.77	980.16a
	O‘rta maktab	54	956.83	1120.19a
	Texnik-kasb-hunar o‘rta maktabi	57	1123.87	700.12a
	Oliy	7	1280.21	1120.19a
	Rasmiy ta’lim y o‘q	21	554.56	420.07a
Tug‘ilganligi	Mahalliy	117	936.09	840.14a
	Immigrant	54	1082.00	910.15a
Dini	Xristian	140	988.90	910.15a
	Musulmon	21	1087.98	1120.19a
	An’anaviy	7	511.09	420.07a
	Boshqa	2	1330.22	1330.22a
Kasb-hunar	Fermer	102	631.20	455.08c
	Tijoratchi/sotuvchi	29	2054.48	1400.23a
	O‘simlikshunos	39	1101.77	1120.19b
	Gomeopat	2	1050.18	1050.18bc
Oila boshlig‘ining turi	Matrearhal	23	1216.45	700.12a
	Patriarhal	147	954.91	840.14a

Eslatma: 8,57 GH₵ = 1 AQSh dollari (Gana banki kursi, 2022 yil dekabr). Har bir o‘zgaruvchining median qiymatlari bir xil harflar bilan o‘xshash va turli qiymatlarga ega bo‘lganlar sezilarli darajada farq qiladi.

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki erkaklar va ayollar dorivor o‘simliklardan foydalanish nisbati 1,87:1 ni tashkil etmoqda, bu esa o‘z navbatida erkaklar ayollarga nisbatan dorivor o‘simliklardan ko‘proq foydalanishini ko‘rsatadi. Jadval taqdim etayotgan ma’lumotlardan shuni bilish mumkinki, dorivor o‘simliklarga mas’ul shaxslarga nisbatan ko‘rsatkichlar asosan mahalliy aholi, nasroniylar va fermerlarda yuqoridir. Oila yetakchiligining asosiy shakli patriarxal bo‘lgan oilalar mas’ul shaxslarning katta qismi tashkil etar ekan(147), lekin jadvalda ko‘rsatilgandek ba’zi oilalar (23 oila) matriarxal rahbarlik turiga mansubdir. Mas’ullarning ko‘pchiligi (84%) ma’lumotga ma’lumotga ega bo‘lgan bir vaqtda ulardan 12% esa rasmiy ma’lumotga ega emas degan ma’lumot taqdim etilgan; Savodlilarning bir qismi atiga 4% oliy ma’lumotga ega. Javobgarlarning 59 foizi turmush qurgan, 41 foizi esa oilaga ega emas ya’ni, turmush qurmagan, beva va ajrashganlar. Iqtisodiy rivojlanmagan mamlakatlar uchun dorivor o‘simliklarni yetishtirish va sotish faqat iqtisodiy foyda emas balki eng avvalo aholining bir qismini ish bilan ta’minlab turishdir.

Xalqaro miqyosda dorivor o‘simliklar savdosi bo‘yicha tadqiqotlar natijalariga nazar solamiz. Yuqorida aytib o‘tilganidek, Dorivor o‘simliklar va hushbo‘y o‘simliklar uchun milliy, mintaqaviy va hattoki global bozorlarda talab ortib bormoqda. Dorivor o‘simliklar vositalarining eng katta bozorlari Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Italiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya va Ispaniyada joylashgan. Asosiy import bozorlari AQSh va Yevropa Ittifoqidir. Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyati, jumladan, Xitoy va Hindiston kosmetika, parfyumeriya, o‘simlik toniklari va shunga o‘xshash boshqa mahsulotlarni eksport qilganligi sababli, ushbu sektorda kamaygan mamlakatlar eksportini rivojlantirish istiqbollari mavjud [19]. Maqola kirish qismida 2022-yil natijalar va taxminiy prognozlar keltirib o‘tilgandi. Ilmiy havolalar bu kabi bir nechta prognozlarni taqdim etgan va bazi bir prognozlarga nazar solsak Fact.MR 2023-yil natijalariga asoslangan holda 2033-yilga qadar (ya’ni 10 yil) bo‘lgan vaqt mobaynida kutilishi mumkin bo‘lgan natijalarga “Dorivor o‘simliklar bozorining istiqbollari (2023–2033)” nomi ostida ilmiy havola orqali prognozlarni taqdim etdi. Unga ko‘ra 2023-yilda butun dunyo bo‘ylab dorivor o‘simliklar savdosi 328 milliard dollarga baholangan bo‘lsa, 2033-yil oxiriga kelib bu ko‘rsatkich 555 milliard dollarga ko‘tarilishi prognoz qilingan [20]. Quyidagi jadvalga nazar tashlaymiz.

2-jadval: Dorivor o‘simliklar bozori uchun 10 yillik prognoz (2023-2033) [21]

Xossalari	Tafsilotlar
Dorivor o‘simliklar bozori hajmi (2023)	328 milliard AQSh $
Prognoz qilingan bozor qiymati (2033)	555 milliard AQSh $
Global bozor o‘sish sur’ati (2023-2033)	5.4% o‘rtacha
Kosmetik maqsadlarda foydalanish uchun dorivor o‘simliklarga b o‘lgan talabning o‘sishi	7% o‘rtacha
Asosiy kompaniyalar profili	Zielpol Herbs Zaparozhye Falcon Trading Company Wellgreen Technology Co.Ltd. Penn Herb Company Ltd. Mountain Rose Herbs Jahrom Green Kian. Elmar D.O.O. Himalayan Bio Trade Pvt. Ltd. Starwest Botanicals Sunrise Nutrachem Group Co. Ltd. Piante Officinali San Marco Yogi Globals Shanxi Hongda Phytochemistry Co. Ltd.

Jadvaldan ko‘rish mumkinki dorivor o‘simliklar bozorida sezilarli o‘sishlar taxmin qilingan. 2023-yilgi va 2033 yilgi natijalar orasida o‘rtacha 5.4% o‘rtacha o‘sish surati taxmin qilinmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, bugunga qadar o‘sish holatiga nazar solish bilan o‘lchanadi albatta, demak xalqaro bozorda dorivor o‘simliklar savdo qoniqarli natijalarni kutmoqda. Shu bilan bir qatorda, dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talab nafaqat dori-darmon uchun balki kosmetik maqsadlar uchun sezirlarli o‘sishni kutmoqda. Bu esa jadvalda taxminiy o‘rtacha 7%, deb berilgan.

DBMR sayti 2023-yil sentabr oyida o‘zining dorivor o‘simliklar bozori uchun 2030-yilga qadar o‘sish prognozini taqdim etdi. Natijalar 2022-yil natijalariga asoslangan holda 2023-2030-yillarga prognoz taqdim etilgan.

Quyidagi jadvalga nazar solamiz.

3-jadval: Dorivor o‘simliklar bozorining ko‘lami va segmentatsiyasi [22]

HISOBOT METRIKASI	TAFSILOTLAR
Prognoz davri	2023-2030
Asosiy yil	2022
Tarixiy yil	2021 (2015-2020 yillarga moslashtirilgan)
Miqdoriy birliklar	Daromad milliard AQSH dollarida, hajmi birliklarda, narxlash AQSh dollarida
Qamrab olingan segmentlar	Dorivor o‘simliklar turi (Shandra vulgaris, klyukva, Ekinezya, Kurkumin, “yashil” choy o‘simligi, qora kohosh, Aloe Vera, Zanjabil, Kokos palmasi, Dolchin, Sarimsoq), Turkum Begona o‘simliklari, O‘simlik mahsulotlari, O‘simlikshunoslik, O‘simlik q o‘shimchalari), shakli (ekstraktlar, kukunlar, kapsulalar va siroplar), manba (barglar, ildiz va qobiqlar, butun o‘simliklar, mevalar), tarqatish kanallari (kasalxona va chakana dorixonalar va elektron tijorat)
Qamrab olingan mamlakatlar	AQSh, Kanada, Meksika, Germaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Niderlandiya, Belgiya, Shveytsariya, Turkiya, Rossiya, Qolgan Yevropa, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Avstraliya, Singapur, Malayziya, Tailand, Indoneziya, Filippin, Osiyo-Tinch okeanining qolgan qismi, Braziliya, Argentina, Janubiy Amerikaning qolgan qismi, Janubiy Afrika, Saudiya Arabistoni, BAA, Misr, Isroil, Yaqin Sharq va Afrikaning qolgan qismi
Qamrab olingan bozor ishtirokchilari	Arizona Natural (AQSh), Arkopharma (Fransiya), Bio Botanica, Inc. (AQSh), Bionorica SE (Germaniya), Gaia Herbs (AQSh), Glanbia PLC (Irlandiya), Herb Pharm (AQSh), Herbalife International of America, Inc..(AQSh), Hevert (AQSh), The Himalaya Drug Company (Hindiston), i-Health, Inc. (AQSh), Indfrag Biosciences (Hindiston)
Bozor imkoniyatlari	Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar sonining k o‘payishi Yangi o‘simlik preparatlarini ishlab chiqilishi.

DBMR o‘z hisobotlarida bozor sharoitlari, talablar, ishtirokchilar va boshqa omillarga chuqurroq yondashgan. Davlatlar qamrovini ham kengroq olgan bo‘lsa, Fact.MR o‘z prognozlarida doimiy ravishda iqtisodiy, satatistik yondashuvlarga k o‘proq to‘xtaladi.

XULOSA

Umuman olganda dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talab va taklif holatlari har bitta iqtisodchi uchun va dorivor o‘simliklarni yetishtiruvchi mamlakatlar uchun esa talabni o‘rgangan holda, takrorlanmas taklifni taqdim etish muhimroqdir. Bugungi kunda o‘simlik yoki ekin ekish uchun yerga ega mamlakatlarning deyarli barchasi dorivor o‘simliklarni yetishtirish va ulardan iqtisodiy Farmasevtik, tibbiy, kosmetik maqsadlarda foydalanishni maqsad qilishgan.

Bugungi kunda bozor holati va kelgusidagi prognozlar o‘sish holatlarini taxmin etmoqda, shu bilan bir qatorda kelgusida, ya’ni yaqin 10 yillikda kuzatilishi mumkin bo‘lgan qurg‘oqchilik, global isish holatlarini hisobga olgan holda:

- Xalqaro bozorni suv kam talab etuvchi, qurg‘oqchilikka chidamli bo‘lgan dorivor o‘simliklar bilan boyitish lozim;
- Yetishtirish texnologiyalarini tubdan o‘rganib chiqib, oz yerdan ko‘p miqdorda hosil olish y o‘llarini tatbiq etish lozim;
- Mamlakatlar alohisiga ham dorivor o‘simliklarni yetishtirish, ularni farqlash kabi elementar bilimlarni berish lozim, dorivor o‘simliklar foydali bo‘lishi bilan bir qatorda zararli turlari ham mavjud.
- Xalqaro bozorlarda yuqori talab ko‘rsatayotgan mamlakat yoki kompaniyalarning talablarini chuqur o‘rgangan holda, ular bilan savdo-sotiq aloqalarini yo‘lga qo‘yish lozim.

Qo‘llanilgan manbalar ro‘yxati:

1. Chandra P. mini review of challenges and directions for future research..// In Natural Resources Forum “The medicinal and aromatic plants business of Uttarak”- Oxford, UK: Blackwell Publishing Ltd, 2020, August. pp. –274-285
2. Dr.Dimitrios Argyropoulos (2019) EIP-AGRI Focus Group Plant-based medicinal and cosmetic products. University of Hohenheim, Research Center for Bioeconomy Wollgrasweg https://ec.europa.eu/eip/agriculture/sites/default/files/fg35_starting_paper_2019_en.pdf
3. Market Reports (2023) Newsmantraa Herbal Medicines Market: The Global Market for Herbal Medicines https://www.reportlinker.com/p06031785/?utm_source=GNW
4. ReporterLinker(2023) Dried Herbs Global Market Report 2023: https://www.globenewswire.com/news-release/2023/03/07/2622091/0/en/Dried-Herbs-Global-Market-Report-2023.html
5. O‘zbekiston milliy turistik markazi (2023) O‘zbek dorivor o‘simliklari.
6. https://uzbekistan.travel/uz/o/ozbek-dorivor-osimliklari.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2022) Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
8. https://lex.uz/ru/docs/-6027139
9. “First international symposium on the conservation of medicinal plants in trade in Europe”. United Kingdom Royal botanic gardens Kew//1998
10. Myles Mander “Janubiy Afrikada mahalliy dorivor o‘simliklarning marketing” Rim. 1998-yil.
11. A.K.M. Shahidullah “Bangladeshda aholi turmush tarzini yaxshilash va ekologik barqarorlikni ta’minlashda dorivor o‘simliklarning roli”. 2007-yil.
12. Michael Asigbaase “Dorivor o‘simliklarni saqlash va ularning iqtisodiy foydalari: Janubi-g‘arbiy Gananing o‘rmon chekkasidagi jamoalardan olingan ma’lumotlar asosida” Trees, Forest and People// 2023-yil dekabr oyida https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2666719323000948
13. Michael Asigbaase “Dorivor o‘simliklarni saqlash va ularning iqtisodiy foydalari: Janubi-g‘arbiy Gananing o‘rmon chekkasidagi jamoalardan olingan ma’lumotlar asosida” Trees, Forest and People// 2023-yil dekabr oyida https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2666719323000948
14. “An overview of some important deliberations to promote medicinal plants cultivation” Journal of Applied Research on Medicinal and Aromatic PlantsVolume 31, December 2022, 100400
15. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S2214786122000328
16. Shohana Parvin., Anika Reza., “Potential Role and International Trade of Medicinal and Aromatic Plants in the World”European Journal of Agriculture&Food Sciences ISSN(Online):2684-1827// https://www.ejfood.org/index.php/ejfood/article/view/701
17. Fact.MR (2024) “Medicinal Herbs Market” https://www.factmr.com/report/4070/medicinal-herbs-market
18. Michael Asigbaase “Dorivor o‘simliklarni saqlash va ularning iqtisodiy foydalari: Janubi-g‘arbiy Gananing o‘rmon chekkasidagi jamoalardan olingan ma’lumotlar asosida” Trees, Forest and People// 2023-yil dekabr oyida https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2666719323000948

19. Michael Asigbaase “Dorivor o‘simliklarni saqlash va ularning iqtisodiy foydalari: Janubi-g‘arbiy Gananing o‘rmon chek-kasidagi jamoalardan olingan ma’lumotlar asosida” Trees, Forest and People// 2023-yil dekabr oyida https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2666719323000948
20. Shohana Parvin., Anika Reza., “Potential Role and International Trade of Medicinal and Aromatic Plants in the World”European Journal of Agriculture&Food Sciences ISSN(Online):2684-1827// https://www.ejfood.org/index.php/ejfood/article/view/701
21. Fact.MR (2024) “Medicinal Herbs Market” https://www.factmr.com/report/4070/medicinal-herbs-market.
22. Fact.MR (2024) “Medicinal Herbs Market” https://www.factmr.com/report/4070/medicinal-herbs-market.
23. DBMR(2023) Global Medicinal Herbs Market – Industry Trends and Forecast to 2030//Healthcare.
24. https://www.databridgemarketresearch.com/reports/global-medicinal-herbs-market.



O‘ZBEKISTONGA TURISTLAR TASHRIFINI KO‘PAYTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Toshmurod Kulmanov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Jahon iqtisodiyoti kafedrasi Assistenti

Annotatsiya: Jahon iqtisodiyoti tarkibida xizmatlar sohasining ulushi yildan yilga oshib bormoqda. Xizmatlar sohasi tarkibida turizm sektori muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqotda raqamli texnologiyalar rivojlanish tendensiyasi va turistlarning O‘zbekistonga tashrifi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganiladi. Tadqiqotda xorijiy turistlar soni, O‘zbekistonda internetdan foydalanadiganlar ulushi, siyosiy barqarorlik va zo‘ravonlikning yo‘qligi, havo transportida tashilgan yo‘lovchilar soni kabi ma’lumotlar to‘plamidan foydalanildi. Pearson korrelyatsiyasi, chiziqli regressiya kabi statistik usullarni qo‘llash orqali O‘zbekistonga turistlar tashrifini ko‘paytirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Bizning topilmalarimiz turistlar tashrifida boshqa omillar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ochib beradi. Raqamli texnologiylar uchun umumiylikni o‘zida birlashtirgan internetdan foydalanuvchilar soni oshgani sari turistlar soni ham oshib boradi. Shu bilan birgalikda siyosiy barqarorlikning ta’minlanishi va zo‘ravonliklarning kamayishi ham mamlakatga keladigan turistlarga ta’sir qilmay qolmaydi. Tadqiqot turistlar tashrifini kengaytirish bo‘yicha ish olib borayotgan mansabdorlar va tadqiqotchilar uchun kerakli tushunchalarni beradi. Ushbu tadqiqotda xizmatlar sohasida muhim ahamaiyatga ega bo‘lgan turizm sektorini rivojlantirish iqtisodiy rivojlanishda yuqori ahamiyat kasb etishi takidlanadi.

Kalit so‘zlar: turizm, xalqaro turist, raqamli texnolgiyalar, axborot kommunikatsiyalari, jarayonni baholash.

Abstract: The share of the service sector in the structure of the world economy is increasing year by year. The tourism sector plays an important role in the service sector. This study examines the relationship between the development trend of digital technologies and the visit of tourists to Uzbekistan. The research used a set of data such as the number of foreign tourists, the percentage of Internet users in Uzbekistan, political stability and lack of violence, and the number of passengers transported by air transport. Pearson correlation, linear regression and other statistical methods were used to analyze the possibilities of increasing tourist visits to Uzbekistan. Our findings reveal that, among other factors, digital technologies play an important role in tourist visits. As the number of Internet users increases, so does the number of tourists. At the same time, the provision of political stability and the reduction of violence will not fail to affect the tourists coming to the country. The study provides important insights for tourism promotion officials and researchers. In this study, it is emphasized that the development of the tourism sector, which is of great importance in the service sector, is of high importance in economic development.

Key words: tourism, international tourist, digital technologies, information communications, process evaluation.

Аннотация: Доля сферы услуг в структуре мировой экономики увеличивается с каждым годом. Сектор туризма играет важную роль в сфере услуг. В данном исследовании рассматривается взаимосвязь между тенденцией развития цифровых технологий и визитом туристов в Узбекистан. В исследовании использовался набор таких данных, как количество иностранных туристов, процент пользователей Интернета в Узбекистане, политическая стабильность и отсутствие насилия, а также количество пассажиров, перевезенных воздушным транспортом. Корреляция Пирсона, линейная регрессия и другие статистические методы были использованы для анализа возможностей увеличения туристических посещений Узбекистана. Наши результаты показывают, что, помимо других факторов, цифровые технологии играют важную роль в туристических визитах. По мере увеличения числа пользователей Интернета увеличивается и количество туристов. В то же время обеспечение политической стабильности и снижение уровня насилия не преминут отразиться на приезжающих в страну туристах. Исследование дает важную информацию чиновникам и исследователям, занимающимся продвижением туризма. В данном исследовании подчеркивается, что развитие туристического сектора, который имеет большое значение в сфере услуг, имеет большое значение в экономическом развитии.

Ключевые слова: туризм, международный туризм, цифровые технологии, информационные коммуникации, оценка процессов.

KIRISH

Jadval rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirayotgan zomonaviy jahon iqtisodiyotida turizmning bandlikni, turdosh sohalarni rivojlantirishni va infratuzilmani yaxshilashdagi ahamiyati beqiyos hisoblandi. Turistlar tashrifi sonini ko‘paytirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati kundan kunga oshib bormoqda. Ko‘proq turistlar tashrifiga erishish uchun hozirgi kunda barcha davlat axborot texnologiyalar imkoniyalaridan keng foydalanib kelmoqda. Bu turistlar tashrifini kengaytirishda eng muhim omillar qatoriga kirib bo‘lgan. Quyida axborot texnologiyalariga oid va turistlar tashrifi sonini ko‘paytirishga xizmat qiluvchi bir nechta yo‘nalishni ko‘rib o‘tamiz:

- veb-saytlar va mobil ilovalar orqali turistlar tashrif buyuradigan joylarni izlash, mehmonxona va aviabiletlarini oldindan band qilish, sayohat rejalari haqida batafsil ma’lumotlar olish mumkin;
- elektron xaritalar va GPS-texnologiyalari sayohatchilar uchun sayohatlarini tashkil etish, joylarni topish va ularga yo‘lni ko‘rsatishda yordam beradi. Bu xususiyatlar sayohat yo‘nalishlarini aniqlashtirishda muhim ahamiyatga ega;
- ma’lumotlarni tahlil qilish va ma’lumot analitikasi, turizm tashkilotlarining mijozlari haqida tushuntiruvchi, so‘nggi tendensiyalarni aniqlash, reklama va marketing kampaniyalarini rivojlantirishda yordam beradi;

Axborot texnologiyalarining turizm sohasini rivojlantirishda o‘rni sayohat tashkilotlari uchun mijozlarni jalb qilishda, xizmatlarni osonroq taqdim etishda va so‘nggi ma’lumotlarni aniqlashda katta ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xalqaro turistlar tashrifini oshirishda axborot texnologiyalarining o‘rni to‘g‘risida ko‘plab olimlar juda ko‘p ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, xorijiy olimlar Daniel Massawe, Matokeo Msavange, Hyasintha Kazoba, E. Reihani, M. Khatibzadeh, Romina Cheraghalizadeh, Suraj M. Negi, Dr. Ajay va boshqa tadqiqotchilar ilmiy ishlarni amalga oshirganlar.

Turizm va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanayotgan global iqtisodiyotning yetakchi ikki tarmog‘idir. Deyarli barcha sayyohlar o‘zlari xohlagan xizmatlarni topish va sotib olish uchun internetdan qanday foydalanishni bilishadi. Internet shunchalik ulkan va mukammal platformani taqdim etdiki, xizmat ko‘rsatuvchilar o‘z xizmatlarini o‘zlari xohlagan tarzda sotishlari mumkin va xaridorlar turli xil variantlardan eng yaxshisini tanlab, sotib olishlari mumkin [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

2.1. Ma’lumotlarni yig‘ish

Turistlar tashrifi soni va unga ta’sir etuvchi omillar sifatida O‘zbekistonda internetdan foydalanadiganlar ulushi, Siyosiy barqarorlik va zo‘ravonlikning yo‘qligi va Havo transportida tashilgan yo‘lovchilar soni Jahon Banki ma’lumotlaridan to‘plandi va tahlil uchun tizimlashtirildi.

2.2. Pearson korrelyatsiya tahlili

O‘zgaruvchilar o‘rtasidagi dastlabki munosabatlarni o‘rganish uchun Pearson korrelyatsiya tahlili o‘tkazildi. Ushbu tahlil bizga doimiy o‘zgaruvchilar, masalan, yosh va kirish ballari va ta’lim dasturining qabul qilingan samaradorligi o‘rtasidagi chiziqli assotsiatsiyalarning kuchi va yo‘nalishini baholashga imkon berdi. Muhim korrelyatsiyalarni aniqlash uchun korrelyatsiya koeffitsiyentlari va tegishli p-qiymatlari ishlatilgan.

2.3. Oddiy eng kichik kvadratlar (OLS) regressiyasi

O‘zbekistonda internetdan foydalanidganlar ulushi, siyosiy barqarorlik va zo‘ravonlikning yo‘qligi, havo transportida tashilgan yo‘lovchilar soni, kompyuter va aloqa xizmatlarning xizmatlari importidagi ulushi kabi mustaqil o‘zgaruvchilarning turistlar tashrifi soni bog‘liq o‘zgaruvchiga ta’sirini o‘rganish uchun OLS regression tahlili o‘tkazildi. Ushbu usul bizga ushbu o‘zgaruvchilar orasidagi chiziqli munosabatlarni tushunishga yordam berdi va ularning ta’sirining yo‘nalishi va kuchi haqida tushuncha berdi.

2.4. Ma’lumotlar analizi

Statistik tahlillar asosidagi taxminlar, masalan, chiziqlilik, xatolarning mustaqilligi va qoldiqlarning normalligi to‘liq tekshirildi. Model hisob -kitoblarini tasdiqlash va topilmalarning mustahkamligini ta’minlash uchun diagnostik testlar tahlillari o‘tkazildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadvalda 18 yillik kuzatuvlar berilgan bo‘lib, xalqaro turistlarning o‘rtacha tashrifi 2190611,1 kishini tashkil qilgan. Standart og‘ish 1775510,1 ni tashkil qilgan. Xalqaro turistlar tashrifining minimum miqdori 242000 kishidan iborat va maksimum miqdori 6749000 kishidan iborat. Xalqaro turistlar tashrifiga ta’sir qiluvchi omil sifatida O‘zbekistonda internetdan foydalanidganlar ulushi fozida berilgan. Kuzatilayotgan davr mobaynida Internetdan foydalanuvchilarning jami aholiga nisbatan minimum 3,344 foizdan maksimum 76,59 foizgacha bo‘lgan qiymatlarni qayd etgan. Bu o‘zgaruvchi bo‘yicha standart og‘ish 24,571 ni tashkil qilgan.

1-jadval: Tavsifiy statistika

O‘zgaruvchilar	Kuzatuvlar	O‘rtacha	Std. Og‘ish.	Min.	Mak.
Xalqaro turistlar tashrifi	18	2190611.1	1775510.1	242000	6749000
Internetdan foydalanuvchilar ulushi	18	35.993	26.011	3.344	77.698
Siyosiy barqarorlik	18	26.986	11.573	3.883	39.623
Havo transporti orqali tashilgan yo‘lovchilar	18	2264084.7	597234.95	933769	3685192


Shuningdek, siyosiy barqarorlik va zo‘ravonlikning yo‘qligi, havo transportida tashilgan yo‘lovchilar soni kabi o‘zgaruvchilarning tavsiflovchi statistikalari berilgan.



1-rasm: Xalqaro turistlar tashrifi va unga ta’sir qiluvchi omillar uchun scatter grafigi

Yuqoridagi grafikda turistlar tashrifiga ta’sir qiluvchi omillarning vizual ko‘rinishi ifodalangan. Internetdan foydalanidganlar ulushi, siyosiy barqarorlik va zo‘ravonlikning yo‘qligi hamda havo transportida tashilgan yo‘lovchilar soni bilan xalqaro turistlar tashrifi o‘rtasida ijobiy bog‘lanish mavjud. O‘rnatilgan qiymatlar bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi aloqalarning real hayotda qanday bo‘lishi lozim ekanligini ko‘rsatadi.

2-grafikda xalqaro turistlar tashrifini o‘rganilgan davr davomida takrorlanish chastotasi berilgan bo‘lib, 2000000 gacha bo‘lgan turistlar o‘rganilayotgan davrda 9 marotaba takrorlanganligini ko‘rishimiz mumkin. 6000000 atrofidagi yillik turistlar tashrif o‘rganilayayotgan davrda 3 marta takrorlangan. Xalqaro turistlar tashrifining minimumi 242000 kishini tashkil qilgan bo‘lsa, maksimum xalqaro turistlar soni esa 6749000 kishini tashkil qilgan.



2-rasm: Xalqaro turistlar tashrifini o‘rganilgan davr davomida takrorlanish histogrammasi

Xalqaro turistlar tashrifi miqdorini siyosiy barqarorlik va zo‘ravonlik yo‘qligi bilan o‘zaro korrelatsiyasi 0,629 ni tashkil qiladi va bu p-qiymatning 0,001 ga tengligi hisobiga statitik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Xalqaro turistlar tashrifi miqdorini havo transportida tashilgan yo‘lovchilar soni bilan o‘zaro korrelatsiyasi 0,747 ni tashkil qiladi va bu p-qiymatning 0 ga tengligida statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Xalqaro turistlar tashrifi miqdorini internetdan foydalanuvchilar ulushi bilan o‘zaro korrelatsiyasi 0,709 ni tashkil qiladi va bu p-qiymatning 0,005 ga tengligida hisobiga statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi (2-jadval).

2-jadval: O‘zgaruvchilarning o‘zaro korrelatsiyasi

O‘zgaruvchilar	(1)	(2)	(3)	(4)
(1) Xalqaro turistlar tashrifi	1.000			
(2) Internetdan foydalanuvchilar ulushi	0.709*	1.000		
	(0.001)			
(3) Siyosiy barqarorlik va zo‘ravonlik yo‘qligi	0.629*	0.833*	1.000	
	(0.005)	(0.000)		
(4) Havotransportida tashilgan yo‘lovchilar soni	0.747*	0.288	0.498*	1.000
	(0.000)	(0.246)	(0.036)	
*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1				

Shuningdek, internetdan foydalanuvchilar ulushi bilan siyosiy barqarorlik va havotransportida tashilgan yo‘lovchilar soni o‘rtasida ham ijobiy va p0,5 qiymati bilan statistik jihatdan ahamiyatli korrelatsiya bor ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

3-jadval: Turistlar tashrifi bo‘yicha chiziqli regressiya

Xalqaro turistlar tashrifi	Koef.	St.Xatolik	t-qiymat	p-qiymat	[95% Ishochlilik	Interval]	Sig
Internetdan foydalanuvchilar ulushi	61980.532	11844.314	5.23	0	36577.005	87384.059	***
Siyosiy barqarorlik va zo‘ravonlik yo‘qligi	-75315.242	29390.537	-2.56	.023	-138351.67	-12278.81	**
Havotransportida tashilgan yo‘lovchilar soni	2.169	.329	6.60	0	1.464	2.874	***

Konstant	-2918512.3	649256.74	-4.50	.001	-4311029.5	-1525995.1	***

Bog‘liq o‘zgaruvchi o‘rtachasi	2190611.111	Bog‘liq o‘zgaruvchi standart og‘ishi	1775510.072		
R-kvadrat	0.880	Kuzatuvlar soni	18		
F-test	34.288	Prob > F	0.000		
Akaike krit. (AIC) 537.884		Bayesian krit. (BIC)	541.445		
*** p<.01, ** p<.05, * p<.1					

Qolgan omillar ta’sir qilmay turgan holatda xalqaro tursitlar tashrifi soni va internetdan foydalanadiganlar ulushi o‘rtasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘lanish (p<0,05) mavjud. Internetdan foydalanadiganlar ulushining 1 foizga oshishi xalqaro turistlar tashrifini 61980,532 ga oshiradi. Havo transportida tashilgan yo‘lovchilar sonining 1 taga oshishi xalqaro turistlar tashirifini 2,169 ga oshiradi va bu p<0,01 qiymatida statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Siyosiy barqarorlik va zo‘ravonlik yo‘qligi omilini ham xalqaro turistlar tashrifi soniga ijobiy ta’sirini kutgan edik, lekin siyosiy barqarorlik va zo‘ravonlik yo‘qligi ko‘rsatkichi 1 foizga yaxshilansa, xalqaro turistlar tashrifi 75315,242 ga kamayishi ma’lum bo‘ldi va bu p-qiymat 0,023 ga tengligi hisobiga statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi. F-testining p-qiymati 0,000 ni tashkil etadi, bu umumiy model p<0,05 darajasida statistik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda biz yurtimizga turistlar tashrifini ko‘paytirishda axborot texnologiyalarining ahamiyatini o‘rganishni maqsad qilib olganmiz, xususan mamlakatimiz aholisining internet bilan taminlanlganlik ulushiga e’tibor qaratdik. Bunda internet bilan ta’minlanganlik darajasi oshishi o‘z o‘zidan turistlarga yaratiladigan qulayliklarni kengaytirishga sabab bo‘luvchi bevosita omil hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqotda xorijiy turistlar sonini oshishiga ta’sir qiluvchi boshqa omillar ham o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotdagi chiziqli regressiya tahlili turistlar tashrifi miqdoriga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganishga qaratilgan. Bog‘liq o‘zgaruvchi, xorijiy turistlar soni butun sonlar birligida kelgan.

Tadqiqotda Breusch Pagan Testi orqali heteroskedastiklikni tegshirganimizda (p> 0,05) natija statistik jihatdan ahamiyatga ega ekanligi kelib chiqdi. Bu esa bizni ma’lumotlarimiz normal taqsimlanganligini ifodalaydi. Multikollinearlik testiga tekshirganimizda biz o‘rganayotgan bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilarda multikollinearlik yo‘qligi aniqlandi.

Amaliy nuqtayi nazardan, xorijlik sayyohlar soni va havo transportida tashilgan yo‘lovchilar soni o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligidan dalolat beradi. Bu shuni anglatadiki, havo qatnovining ko‘payishi chet ellik sayyohlar sonining ko‘payishiga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan mamlakatimizda xalqaro qatnovlarni amalga oshiruvchi aviakompaniyalar sonini ko‘paytirish lozim ekanligi kelib chiqadi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, xalqaro turistlar tashrifi soniga faqat havo transportida tashilgan yo‘lovchilar soni ta’sir qilmaydi unga ta’sir qiluvchi boshqa omillar ham bo‘lishi mumkin. Qo‘shimcha tahlil qilish va qo‘shimcha o‘zgaruvchilarni ko‘rib chiqish yanada aniqroq tushunchalarni olishga yordam beradi.

Shuningdek, xorijlik turistlar soni va internetdan foydalanuvchilar soni o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu shuni ko‘rsatadiki, internet foydalanuvchilari ko‘p bo‘lgan yo‘nalishlar ko‘proq xorijiy sayyohlarni jalb qilishi mumkin. Ijobiy koeffitsiyent shuni ko‘rsatadiki, bundan internetdan foydalanuvchilar soni va uning tezligini oshirish mamlakatimzida turistlar sonining ko‘payishiga sabab bo‘lishi aniqlandi. Shu sababli mamlakatimizda internetdan foydalanish imkoniyatini yanada yaxshilash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pradhan, S. (2013). Internet Marketing in Tourism : The quality of Helsinki City Tourism Bureau’s website from tourism perspective.
2. Cheraghalizadeh, R. (2014). The Role of Marketing in Tourism and Hospitality Development. Case Study: Mazandaran-Iran. International Journal of Economic Practices and Theories, 4, –111-118.
3. Alagha, A. (2013). Requirements for improving Contemporary e-tourism Information systems in terms of customer satisfaction.
4. Hujić, N., & Salihić, F. (2020). MARKETING IN TOURISM – DIRECT MARKETING AS MARKETING COMMUNICATIONS TECHNOLOGY.
5. M. Negi, S., & Chaurasia, D.A. (2021). The Role of Online Marketing in the Travel & Tourism Industry. Journal of University of Shanghai for Science and Technology.
6. Malra, R. (2013). Online Tourism Marketing. Asia Pacific Journal Of Marketing and Management Review, 2, –150-157.

AGROBIZNESNI MOLIYAVIY QUVVATLASH VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI



Tursunova Dilnavo Islomovna
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola moliyaviy yordamni kuchaytirish va agrobiznesning o‘sishini rag‘batlantirish imkoniyatlarini o‘rganadi. Maqolada, hozirgi agrobiznes strukturasini har tomonlama o‘rganish, butun dunyo bo‘ylab muvaffaqiyatli modellarni aniqlash, muammolar va imkoniyatlarni tahlil qilish orqali biz agrobiznesni rivojlantirishni kuchaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqamiz.

Kalit so‘zlar: agrobiznes, moliyaviy yordam, iqtisodiy o‘sish, qishloq xo‘jaligi, rivojlanish, barqarorlik.

Abstract: This article delves into the potential for bolstering financial aid and fostering the growth of agribusiness. Through a comprehensive examination of the current agribusiness landscape, an exploration of successful models from around the world, and an analysis of challenges and opportunities, we present recommendations for fortifying the development of agribusiness.

Key words: agribusiness, financial assistance, growth, agriculture, development, sustainability.

Аннотация: Данная статья рассматривает перспективы усиления финансовой поддержки и стимулирования развития агробизнеса. Через всесторонний анализ текущего агробизнеса, исследование успешных моделей из разных стран и анализ вызовов и возможностей мы представляем рекомендации для укрепления развития агробизнеса.

Ключевые слова: агробизнес, финансовая поддержка, рост, сельское хозяйство, развитие, устойчивость.

KIRISH

So‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar agrar sohani rivojlanishiga ta’siri katta bo‘lmoqda. Agrar sohada tadbirkorlikni rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor, tadbirkorlik subyektlarini iqtisodiy va moliyaviy rag‘batlantirilishi tufayli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi oshib bormoqda. Qishloq xo‘jalik sohalaridagi tadbirkorlik faoliyati agrobiznes deyiladi. Agrobiznes - bu qishloq xo‘jaligi mollari va xizmatlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va tarqatish bilan shug‘ullanadigan sektor bo‘lib, u barcha tegishli faoliyatni o‘z ichiga oladi. Agrobiznes tushunchasiga bevosita qishloq xo‘jaligi sohasiga kirmaydigan, biroq u bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanuvchi biznes turlari ham kiritiladi. Bu qishloq xo‘jaligiga texnikaviy ta’mirlash xizmat ko‘rsatish, uni mahsulotlarini qayta ishlash va iste’molchilarga yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirkorlik faoliyatidir. Agrobiznes agrosanoat integratsiyasi natijasida vujudga kelgan agrosanoat majmuasining barcha bo‘g‘inlarini qamrab oladi. Agrobiznes faoliyatining maqsadi – iste’mol bozorini yetarli miqdorda sifatli qishloq xo‘jalik mahsulotlari, sanoatni esa xom ashyo bilan uzluksiz ta’minlash orqali foyda ko‘rishdan iborat.

Agrar iqtisodiyotning asosiy tarkibiy tuzuvchi omili bo‘lib agrobiznes hisoblanadi. Ochiq iqtisodiyotning afzalliklari va davlat tomonidan faol qo‘llab-quvvatlanishi agrobiznesning yuqori rentabellikka ega mahsulotlarni ishlab chiqarishda o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi va raqobatbardosh ustunliklarga erishishiga imkon beradi, buni agrobiznesning iqtisodiy roli va istiqbollari aniq bo‘lgan xorijiy mamlakatlarning zamonaviy tajribasi tasdiqlaydi. Mamlakatimizda ham agrobiznes va qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish borasida zarur bo‘lgan chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. O‘tgan davr mobaynida qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlarini joriy etish, ishlab chiqarishni rivojlantirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish hamda ularning mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Agrobiznesning iqtisodiy o‘sish dvigateli sifatidagi ahamiyati akademik adabiyotlarda yaxshi yoritilgan. Thirtle va boshqalarga ko‘ra [1], agrobiznes sektorining hissasi an’anaviy dehqonchilikdan tashqariga chiqadi va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, tarqatish va marketing kabi turli tadbirlarni qamrab oladi. Agrobiznesning ushbu ko‘p qirrali tarkibiy qismlari ish o‘rinlari yaratish, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirish va kambag‘allikni kamaytirish orqali iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish salohiyatiga ega.

Moliyadan foydalanish agrobiznes korxonalarining muvaffaqiyati va rivojlanishining hal qiluvchi omilidir. Demirgüç-Kunt va Klapper [2] o‘z tadqiqotida kichik va o‘rta agrobiznesga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda moliya institutlarining rolini ta’kidlaydilar. Ularning ta’kidlashicha, qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy ekotizimni, jumladan, mikromoliya institutlarini qo‘llab-quvvatlash kredit olish imkoniyatini sezilarli darajada oshirishi, investitsiyalarni rag‘batlantirishi va agrobiznesning umumiy moliyaviy salomatligini yaxshilashi mumkin.

Boshqa mamlakatlardagi tajribani o‘rganish agrobiznesni rivojlantirish strategiyalari haqida qimmatli fikrlarni taklif qilishi mumkin. Masalan, Otsuki va boshqalar [3] Tailandning agrobiznes transformatsiyasi misolini tahlil qiladi. Ularning tadqiqotlari davlat siyosati, infratuzilmani rivojlantirish va agrobiznes sektorida o‘sishni ta’minlashda xususiy sektor ishtirokining muhimligini ta’kidlaydi. Bunday amaliy tadqiqotlar O‘zbekistonga kerakli saboqlar va o‘zining agrobiznesni rivojlantirish sayohati uchun turtki beradi.

Hukumat tashabbuslari agrobiznes landshaftini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Rahman va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko‘ra [4], rivojlanyotgan hukumatining tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritish, infratuzilma va bozorga kirish bo‘yicha faol chora-tadbirlari mamlakatni qishloq xo‘jaligi quvvatiga aylantirdi. Ularning tadqiqoti agrobiznesning rivojlanishini davlat tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlash muhimligini ta’kidlaydi.

O‘zbek olimlari tomonidan agrar sohada tadbirkorlikni va kichik biznesni rivojlanishi tendensiyalari va uni takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilgan. Masalan, B.T.Salimov va M.S. Yusupovlarning ilmiy ishlarida fermer xo‘jaliklarini rivojlanishi uchun uni eksport salohiyatini oshirish zarurligini aytib o‘tiladi [5]. E.I. Ergashev ilmiy maqolasida Agrar tarmoq xo‘jaliklari raqobatbardoshligini baholashning asosiy mezonlaridan biri sifatida tadbirkorlik darajasiga e’tibor qaratadi [6]. U.S. Muxitdinova iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida meva-sabzavot mahsulotlari bozorini rivojlantirish yo‘nalishlari [7], M.Ch. Murodova klaster usulida agrobiznesni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari kabi masalalarni tadqiq etishgan [8]. Yuqorida aytib o‘tilgan ilmiy ishlarda agrobiznesni mustaqil ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida alohida ko‘rib chiqilmaganligi, bizga ushbu mavzuni tadqiqot obyekti sifatida tanlashimizga sabab bo‘ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mavzuga doir adabiyotlar, mavjud eng so‘nggi ma’lumotlar o‘rganiladi va tadqiqotning qiyosiy tahlili, hamda ilmiy abstraktsiyalashda foydalanildi. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida agrobiznes sektori uning o‘sishi va rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi bir qancha muammolar va ularga xos yechimlar mavjud adabiyotlarni o‘rgangan holda tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zining ulkan salohiyatiga qaramay, O‘zbekiston agrobiznes sektori uning o‘sishi va rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi bir qancha muammolarga duch kelmoqda. Quyidagi jadvalda sohadagi asosiy kamchiliklar jamlangan:

1-jadval: O‘zbekiston Agrobiznes tarmog‘idagi kamchiliklar

Kamchilik	Tavsifi
Moliyadan foydalanish imkoniyati cheklangan	O‘zbekistondagi ko‘plab kichik fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi korxonalari arzon kredit va moliyaviy xizmatlardan foydalanishda qiynalmoqda, bu esa ularning zamonaviy texnologiyalarga sarmoya kiritish va o‘z faoliyatini kengaytirish imkoniyatlariga to‘sqinlik qilmoqda.
Eskirgan dehqonchilik amaliyotlari	O‘zbekistonda hali ham an’anaviy dehqonchilik usullari keng tarqalgan bo‘lib, unumdorlikning pastligiga, resurslarning samarasizligiga va atrof-muhitning buzilishiga olib keladi. Qishloq xo‘jaligi amaliyotini modernizatsiya qilish hosildorlikni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.
Bozorga samarasiz kirish	Noto‘g‘ri tashish va saqlash joylari hosildan keyin yo‘qotishlarga olib keladi va ichki va xalqaro bozorlarga chiqishda qiyinchiliklarga olib keladi. Bozorga kirishni yaxshilash agrobiznesning rivojlanishi uchun zarurdir.
Texnologiyani qabul qilishning yetishmasligi	Aniq dehqonchilik va barqaror qishloq xo‘jaligi kabi zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnologiyalari va amaliyotlarini joriy etish fermerlar o‘rtasida cheklanganligicha qolmoqda, bu esa umumiy hosildorlik va raqobatbardoshlikka to‘sqinlik qilmoqda.

Ko‘nikma va bilimlardagi kamchiliklar	Ko‘pgina fermerlarda ilg‘or dehqonchilik texnikasini joriy etish va agrobiznes korxonalarini samarali boshqarish uchun zarur ko‘nikma va bilim yetishmaydi. Imkoniyatlarni oshirish va o‘qitish muhim ahamiyatga ega.
Normativ to‘siqlar	Byurokratik qog‘ozbozlik, murakkab qoidalar va yerga egalik qilishning tushunarsiz muammolari agrobiznes sohasida sarmoya va tadbirkorlikni to‘xtatishi mumkin. Oddiy va shaffof qoidalar kerak.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida muhokama qilingan tahlillarga asoslanib, quyidagi takliflar O‘zbekistondagi agrobiznes sektorini barqaror o‘sish va rivojlanish sari rag‘batlantirish uchun strategik asosni taklif etadi:

- **Moliyaviy institutlarni mustahkamlash:** O‘zbekiston fermerlar va agrobiznes ehtiyojlariga moslashtirilgan, qulay va arzon moliyalashtirish yechimlarini taqdim etishga qaratilgan ixtisoslashtirilgan qishloq xo‘jaligi banklari va moliya institutlarini yanada rivojlantirishi kerak. Ushbu institutlar, shuningdek, risklarni boshqarishga e’tibor qaratishlari va manfaatdor tomonlarning zaifligini kamaytirish uchun innovatsion moliyaviy mahsulotlarni taklif qilishlari kerak.
- **Barqaror amaliyotlarni ilgari surish:** Barqaror va ekologik toza dehqonchilik amaliyotiga urg‘u beradigan keng qamrovli ta’lim va o‘quv dasturlarini yo‘lga qo‘yish kerak. Organik va aniq dehqonchilik usullaridan foydalanishni rag‘batlantirish, tuproqni saqlash va suv resurslarini boshqarishni rag‘batlantirish zarur.
- **Infratuzilmaga investitsiya:** Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini, jumladan, transport tarmoqlarini, omborxonalarni, qayta ishlash korxonalarini modernizatsiya qilish uchun resurslar ajratish kerak.
- **Texnologiyalarni uzatish va tadqiqotlar:** Ilg‘or qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini uzatishni osonlashtirish uchun ilmiy muassasalar, universitetlar, xususiy kompaniyalar va fermerlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish kerak.
- **Davlat-xususiy sheriklik:** Xususiy sektor investitsiyalarini, texnologiyalar transferini va innovatsiyalarni rag‘batlantirish uchun agrobiznes sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish zarurati bor. Xususiy sektor tajribasidan foydalangan holda muammolarni aniqlash va hal qilish uchun sanoat manfaatdor tomonlari bilan hamkorlik qilish zarur.
- **Bozorni diversifikatsiya qilish:** Bir nechta tovarlarga qaramlikni kamaytirish uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Fermerlarning daromadlarini oshirishi va eksport o‘sishiga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan bozorlarni va qo‘shimcha qiymatli mahsulotlarni aniqlash dolzarb hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston agrobiznes tarmog‘i mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, qishloqlar turmush darajasini yaxshilash va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynash uchun ulkan salohiyatga ega.

Yuqorida bayon etilgan takliflar O‘zbekiston uchun mavjud muammolarni yengish va agrobiznesni rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha yo‘l xaritasini taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Demirgüç-Kunt, A. va Klapper, L. (2017). Agrobiznes sektoriga moliyaviy inklyuziya. Globallashayotgan dunyoda qishloq xo‘jaligi va qishloq taraqqiyotida (265–282-betlar). Jahon banki nashrlari.
2. Xossain, MF, Mia, MS va Rahman, MM (2020). Ganada xususiy sektor investitsiyalari va agrobiznesni rivojlantirish: muammolar va imkoniyatlar. Rivojlanayotgan va rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda agrobiznes jurnali, 10(3), 318-334.
3. Rahmon, S., Yaqub, J., & Rahman, T. (2018). Braziliyada agrobiznesni rivojlantirish: muvaffaqiyat tarixi. Rivojlanayotgan va rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda agrobiznes jurnali, 8(2), –189-202.
4. Thirtle, C., Lin, L. va Piesse, J. (2019). Rivojlanayotgan mamlakatlarda agrobiznes, qishloq xo‘jaligi mahsuldorligi va barqarorlik. Jahon taraqqiyoti, 119, 1–12. doi: 10.1016/j.worlddev.2019.03.010.
5. Salimov B., Yusupov M. Chuqur tarkibiy o‘zgarishlar va modernizatsiya orqali qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. –№ 2, mart-aprel, –2017-yil.
6. Ergashev E.I. Agrar tarmoq xo‘jaliklarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va omillari// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentabr-oktyabr, 2015-yil.
7. Muxitdinova U.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mevasabzavotchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirish yo‘nalishlari. Iqt.fan.dok.ilm.dar.olish uchun yozilgan dis.avtoref. – T.: 2010 – b.36.
8. Муродова М.Ч. Агрокластерларни ташкил этишда жанубий корея тажрибасидан фойдаланишнинг йўналишлари// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. –№ 4, iyul-avgust, 2019-yil.



OZIQ-OVQAT BOZORINI QANDOLAT MAHSULOTLARI BILAN TO‘LDIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Azlarova Munira Muxammad-Amin qizi
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada oziq-ovqat bozorini qandolat mahsulotlari bilan to‘ldirishda, sifatli qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish, iste’molchilarning xohish-istaklarini o‘rganish, qandolat mahsulotlari bozorini marketing strategiyalari asosida rivojlantirish, aholining qandolat mahsulotlariga bo‘lgan talablari ilmiy jihatdan o‘rganilgan. aholini zarur hajmda va keng assortimentda sifatli qandolat mahsulotlari bilan ta’minlash, aholining zarur hajmdagi qandolat mahsulotlariga oqilona narx belgilash, mahalliy qandolat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab quvvatlash, qandolat mahsulotlari bozorini rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: iste’mol bozori, oziq-ovqat bozori, aholining talabi, tartibga solish, nazorat qilish, marketing startegiyasi, raqobat ustunligi, bozor imkoniyatlari, qandolat mahsulotlari, bazaviy marketing strategiyalari muqobil strategiya, narx strategiyasi taqsimot strategiyasi, narx siyosati, assortiment turlari.

Abstract: This scientific article was scientifically studied in filling the market with confectionery products, the production of quality confectionery products, the study of consumer preferences, the development of the confectionery market on the basis of marketing strategies, the requirements of the population for confectionery products, providing the population with quality confectionery products of the required size and wide range, setting a reasonable price for confectionery products of the, proposals and recommendations for the development of systemic measures for state support, regulation and control of the development of the confectionery market have been developed.

Key words: consumer market, food market, population demand, regulation, control, marketing startup, competitive advantage, market opportunities, confectionery, base marketing strategies alternative strategy, price strategy distribution strategy, price policy, assortment types.

Аннотация: В данной научной статье проводится анализ содержания кондитерских изделий на рынке продовольственных товаров, рассматривается производство высококачественных кондитерских продуктов, изучаются предпочтения потребителей, исследуется развитие рынка кондитерских изделий с применением маркетинговых стратегий, а также выявляются потребности населения в данной категории товаров. На основе проведенного анализа разработаны рекомендации и предложения по обеспечению населения необходимым объемом и разнообразием высококачественных кондитерских продуктов. Также предлагаются меры по установлению адекватных цен на кондитерскую продукцию, поддержке местных производителей со стороны государства и стимулированию развития рынка кондитерских изделий. В рамках предложений также обсуждается создание системы регулирования и контроля с целью обеспечения стабильности и качества предлагаемых продуктов.

Ключевые слова: потребительский рынок, продовольственный рынок, спрос населения, регулирование, контроль, маркетинговая стратегия, конкурентное преимущество, рыночные возможности, кондитерские изделия, базовые маркетинговые стратегии, альтернативная стратегия, ценовая стратегия, стратегия дистрибуции, ценовая политика, виды ассортимента.

KIRISH

Jahonda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, global beqarorlikning kuchayishi mamlakatlar iste’mol bozorini sifatli oziq-ovqat tovarlari bilan to‘ldirish, aholisini yetarli darajadagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, xususan, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash borasidagi ilmiy izlanishlarni taqozo etmoqda. Aholini

xavfsiz, to‘yimli va yetarli darajadagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, oqilona iste’molini tashkil etish, ovqatlanish madaniyatini oshirish, iste’mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to‘ldirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini marketing strategiyalari asosida rivojlantirish, iste’mol bozorini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish, oziq-ovqat tovarlariga talabni to‘laroq qondirishda marketing tadqiqotlari samaradorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda marketing tamoyillaridan foydalanish, oziq-ovqat tovarlari bozorini rivojlantirishning marketing strategiyalarini ishlab chiqish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

Iste’mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to‘ldirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, respublikada barqarorlikni ta’minlashning muhim omillaridan hisoblanadi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo‘jaligi muhim o‘rin tutadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qo‘shma majlisdagi nutqida “Qishloq xo‘jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalalari, hech shubhasiz, biz uchun eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi” [1], deb ta’kidlab o‘tganlar.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar bosqichma-bosqich o‘z samarasini berayotganligini davlatimizning global reytinglarda o‘z o‘rnini yaxshilab olayotganligidan ham ko‘rish mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti 2022-yil uchun Global ochlik indeksi reytingini e’lon qildi. 121 ta mamlakat joy olgan mazkur reytingda O‘zbekiston ochlik darajasi past davlat deb topildi”.

Bugungi kunda jahon qandolat bozorida sog‘lom ovqatlanishga etibor kuchayishining tendensiyalari kuzatilmoqda, xususan 2020-2023-yillarda xorijlik iste’molchilar ko‘proq yengil hazm bo‘ladigan shirinliklarni iste’mol qilishni xush ko‘rishdi. Qandolat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar esa ko‘proq asosiy e’tiborni tabiiy shakar o‘rnini bosuvchi qo‘shimchalarni ishlatishga harakat qilishmoqda.

Nielsen tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, “iste’molchilarning 67 foizi kasallikning oldini olish uchun o‘z diyetasini faol ravishda kuzatib boradi, 39 foizi esa o‘z diyetasida shakar va yog‘ miqdorini cheklaydi. Iste’molchi odatlarining o‘zgarishi iste’molchi hatti-harakatlariga ta’sir qiladi: Rossiyadagi xaridorlarning 74 foizi ularni sotib olishdan oldin oziq-ovqat va ichimliklar tarkibini diqqat bilan o‘rganadi va iste’molchilarning taxminan 70 foizi zararli qo‘shimcha elementlarni o‘z ichiga olmaydigan mahsulotlar uchun ko‘proq pul to‘lashga tayyor turishadi” [2].

Shunday ekan, iste’molchilar tabiiy mahsulotlar, zararli qo‘shimcha va aromatizatorlarsiz va GMO siz qandolat mahsulotlarini afzal ko‘rishadi.

Qandolat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda marketing faoliyatini tashkil etish, marketing strategiyasini ishlab chiqish uchun tizimli marketing faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan dasturlarni ishlab chiqish taklif etiladi. Buning uchun avvalombor bu dasturlarni tuzishda ochiqlik, tizimlilik, aniqlik va tezkorlik tamoyillari asosida yondashish kerak. Bu tamoyillarning amal qilishi maqsadga yo‘naltirilgan marketing strategiyasini nafaqat ishonchli puxta bo‘lishini, balki kelajakda yaxshi o‘ylangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, bozorda korxonaning pozitsiyasini ham mustahkamlashni ta’minlaydi.

Bugungi kunda iqtisodiyotning barqaror sur’atlarda rivojlanishi iste’mol bozorini oziq-ovqat tovarlari, shuningdek, qandolat mahsulotlari bilan to‘ldirish va aholini ushbu mahsulotlar bilan ta’minlashga bog‘liqdir.

Qandolat mahsulotlari bozorini rivojlantirish, sifatli qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish, iste’molchilarning xohish-istaklarini o‘rganish asosida talablarini to‘laroq qondirishda marketing strategiyalaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Aholining iste’mol tovarlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirilish darajasini oshirish aholi turmush farovonligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Fikrimizcha, iste’mol tovarlari bozorining holati, uning rivojlanishi bir tomondan, iqtisodiyot barqarorligining ko‘rsatkichi sifatida ifodalanadi. Boshqa tomondan esa ma’lum bir darajada davlat ijtimoiy siyosatining natijalarini namoyon etadi. Shunday ekan, iste’mol tovarlari bozorini, shuningdek ichki iste’mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to‘ldirishni va uning rivojlanishini belgilash milliy iqtisodiyotning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashga yordam beradi.

Oziq-ovqat tovarlari bozorining mazmun mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, unga ta’sir etuvchi omillarni baholashdagi uslubiy yondashuvlarda alohida yagona bir fikrga erishilmagan. Oziq-ovqat tovarlari bozori tushunchasiga olimlar turli xil yondashuvlar asosida ta’rif berishgan.

L.A.Aliyeva va T.Svetlorusovalar oziq-ovqat tovarlari bozorini “Qishloq xo‘jaligi, qayta ishlash va oziq-ovqat iste’molchilari o‘rtasidagi vositachi” sifatida ta’riflaydi [3].

P.T.Burdukov esa oziq-ovqat tovarlari bozoriga majmuaviy yondashib, uni “Mamlakat qishloq xo‘jaligida ozuqa, xom ashyo va tayyor oziq-ovqatni siljitish bo‘yicha amalga oshirilayotgan bitimlar, eksport-import operatsiyalari hamda shu bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui” sifatida ifodalaydi [4].

V.D.Goncharov bozor elementlarini to‘liq aks ettirishga harakat qilib, oziq-ovqat tovarlari bozorini “oziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonida vujudga keladigan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xaridor va sotuvchi tanlashdagi, narx belgilashdagi va mablag‘ shakllantirishdagi erkinlik bilan tavsiflanadigan iqtisodiy munosabatlar tizimi” deb ataydi [5]. N.P.Ketova esa shu tarifni to‘ldirib, “axborotdan foydalanish” ni ham qo‘shadi [6].

Yu.B.Kostrova oziq-ovqat tovarlari bozoriga dinamik tizim deb qaraydi: “Mahsulot sifati va narxi nazorat qilinib, ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi mustahkam aloqa, mutanosib ravishdagi ishlab chiqarish va yetkazishdagi dinamik tezkor tizimdir” [7].

S.U.Nuraliyev va D.S.Nuraliyevalar ham “Oziq-ovqat ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish sohasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi” deb ta’riflaydi [8].

O.N.Fetyuxina esa, oziq-ovqat tovarlari bozori tushunchasini yoritishda “sotsium” (tabaqalanish) va “raqobatda ustunlik” kabi kategoriyalarni qo‘llab quyidagicha ta’rif beradi: “Raqobat ustunliklari ko‘rinishidagi keskin ta’sir ko‘rsatadigan jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy ta’minlash tizimi, uning asosiy tarkibiy qismlari oziq-ovqatga bo‘lgan biologik ehtiyojlar, shuningdek, aholining to‘lov qobiliyati va milliy ishlab chiqarish va import orqali shakllanadigan taklif tufayli noelastik talabdan iborat” [9].

G.M.Zinchuk esa, “oziq-ovqat bozorini oziq-ovqat xom ashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish va iste’mol qilishni qamrab oluvchi iqtisodiyotning tarkibiy qismi, sifatida belgilaydi” [10].

Shu bilan birga, aksariyat mualliflar oziq-ovqat bozori mohiyatining muhim qismini aks ettirishiga qaramay, ishlab chiqarish siklining bosqichlari o‘rtasida qayta aloqalarning mavjudligi va namoyon bo‘lishini ko‘rsatib o‘tishmagan.

Ba’zi mualliflar oziq-ovqat bozorini murakkab iqtisodiy tizim sifatida ta’riflaydilar, masalan, S.S.Vorokov quyidagi ta’rifni beradi: “Oziq-ovqat bozori – bu tovar-pul munosabatlaridan talab va taklifning bozor mexanizmlari orqali maksimal foydalanish asosida mazkur hudud aholisining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko‘zlovchi murakkab ko‘p bosqichli tashkiliy-iqtisodiy tizimdir” [11].

Biz muallifning oziq-ovqat bozorini ko‘p bosqichli tizim sifatida qayd etish haqidagi fikriga qo‘shilamiz, ammo shuni hisobga olish kerakki, oziq-ovqat bozorida barter munosabatlari ham amalga oshirilishi mumkin, bu esa oziq-ovqat bozoridagi haqiqiy vaziyatni aks ettirmaydi.

I.G.Ivolga fikricha, “Oziq-ovqat tovarlari bozori bu - davlat agrar siyosati va xalqaro integratsiya jarayonlari ta’siri bilan shakllanadigan, ichki ishlab chiqarish va import hisobiga aholini yetarli hajmdagi iste’mol mahsulotlari bilan ta’minlash, qishloq xo‘jaligi xom ashyosi va ozuqa mahsulotlari ishlab chiqarish, saqlash va siljitish bo‘yicha bozor subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimidir” [12].

Iste’mol tovarlari bozori bugungi kunda yirik makroiqtisodiy ahamiyatga ega va uning holati talab va taklif nisbatida aholi moddiy iste’moli darajasida, daromad va xarajatlarida, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishida o‘z aksini topadi. Iste’mol bozorini nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishda uning ehtiyoj (talab), taklif va baho elementlarini ham o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu elementlar esa, marketing faoliyatining ham asosidir.

Iste’mol tovarlari bozori ko‘plab mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan hamda uni tavsiflashga nisbatan ta’riflar shakllantirilgan (1-jadval).

1-jadval: “Iste’mol bozori” tushunchasiga berilgan ta’riflar

Muallif	Iste’mol bozoriga berilgan ta’riflar	Manba
F. Kotler	Iste’mol bozori – shaxsiy iste’mol uchun tovarlar va xizmatlarni sotib oladigan yoki boshqa yo‘l bilan oladigan jismoniy shaxslar va uy xo‘jaliklaridir.	Котлер Ф. Основы маркетинга. –М.: Вильямс, 2007. – с.140.
Jan Jak Lamben	Iste’mol tovarlari “minimum kuch sarflagan holda oz miqdorda tez-tez xarid qilinadigan iste’mol tovarlaridir”.	Ламбен Ж. Ж. Стратегический маркетинг. - СПб.: Наука, 1996. –с. 416.
Gary Armstrong	Iste’mol bozorlari shaxsiy iste’mol uchun tovarlar va xizmatlar sotib oladigan jismoniy shaxslar va uy xo‘jaliklaridir.	Gary Armstrong, Philip Kotler, Valerie Trifts, Lilly Anne Buchwitz, David Gaudet. Marketing: an introduction. Sixth Canadian edition.–Canada.: Pearson, 2017. –p.123.
Ye. Yu. Alekseycheva, M. D. Magomedov, I. B. Kostin	Iste’mol bozori bu iste’mol tovarlari ya’ni shaxsiy va jamoaviy ehtiyojlar uchun yoki noishlab chiqarish sohasida foydalaniladigan mahsulotlar va tovarlarni sotib olish va sotish jarayoni amalga oshiriladigan tovar aylanma bozoridir.	Е. Ю. Алексейчева, М. Д. Магомедов, И. Б. Костин. Экономика организации (предприятия).–М.: Дашков, 2013. –с.35.

A. Xosking	Bozor odamlar tovar va xizmatlarni sotish yoki sotib olish maqsadida bevosita yoki o‘z vositachilari orqali mavjud bo‘ladi; bu jismoniy shaxslar yoki uy xo‘jaliklari tomonidan shaxsiy iste’mol uchun sotib olingan yoki ijaraga olingan tovarlar va xizmatlar bozorini ifodalaydi. Bu yerda iste’molchi xatti-harakatlarida iqtisodiy omillar bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar ham mavjud.	Ф.Хоскинг. Курс предпринимательства. Практическое пособие. –М.: Международнse отношения, 1993. – с. –104-105.
A. Soliyev	Iste’mol tovarlari bozori - aholining shaxsiy ehtiyojini qondiruvchi va hayot kechirishi uchun uy-ro‘zg‘orini jihozlash maqsadida xarid qilinuvchi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini oldi-sotdi munosabatlari majmuini o‘z ichiga oladi.	Soliyev A. Marketing. –T.: O‘qituvchi, 1997, –9-b.

Mazkur yo‘nalishda tadqiqotlar olib borgan ayrim mahalliy olimlarning yondashuvlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, A.Soliyev “Iste’mol tovarlari – aholining kundalik hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan va uy-joyini jihozlashga ishlatiladigan (oziq-ovqat, dori-darmon va nooziq-ovqat) tovarlaridir”, deb tavsiflagan [13].

Oziq-ovqat tovarlari bozorining mavjud ta’riflaridan ayrim kamchiliklarni ko‘rsatib o‘tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Masalan, S.U.Nuraliyev va D.S.Nuraliyevalar, Yu.B.Kostrova hamda A.L.Aliyeva va T.Svetlorusovalarning ta’riflari. Ular bergan ta’rifda oziq-ovqat tovarlari bozorining xususiyatlari e’tiborga olinmagan va har qanday bozorga qo‘llanadigan umumiy ta’rifga o‘xshab qolgan. P.T.Burdukov oziq-ovqat tovarlari bozorining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan infratuzilmani hisobga olmagan. V.D.Goncharov hamda N.P.Ketovalarning ta’riflari qisman o‘zgarishlar bilan bir-birini takrorlaydi.

I.G.Ivolga oziq-ovqat tovarlari bozoriga davlat siyosati va aholini xalqaro standartlarda belgilangan me’yorlarda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanishini hisobga olgan holda to‘liqroq ta’rif beradi.

Bizning fikrimizcha, berilgan ta’riflarda globallashuv omili, pandemiya, oziq-ovqat tovarlari bozorining xususiyatlari hisobga olinmagan. Jumladan, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to‘ldirishga va kon’yunkturasiga integratsion jarayonlarning ta’siri hisobga olinmagan. Shulardan kelib chiqib, biz oziq-ovqat tovarlari bozoriga nisbatan o‘z mualliflik ta’rifimizni shakllantirdik.

Fikrimizcha, oziq-ovqat tovarlari bozori – bu sotuvchi va xaridorlarning o‘zaro faoliyatini belgilovchi, ishlab chiqarish hajmi va tarkibida zarur sifat va narxga erishishni ta’minlovchi tizim bo‘lib, birlamchi va ikkilamchi qayta ishlangan oziq-ovqat resurslarini oqilona shakllantirishga asoslangan iqtisodiy munosabatlarni tashkil etuvchi faoliyatdir. Shuningdek, ishlab chiqaruvchilar, bozor infratuzilmasi subyektlari va iste’molchilar guruhlari ichida oziq-ovqat mahsulotlariga talab va taklifni shakllantiruvchi iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada bozorni qandolat mahsulotlari bilan to‘ldirishda marketing strategiyalaridan foydalanishdagi mavjud muammolarni ilmiy jihatdan o‘rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotda raqobat kuchayib borayotgan sharoitda ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosi ishlab chiqarish imkoniyatlarini bozor talablari bilan uyg‘unlashtirishdir. Har qanday ishlab chiqaruvchining oldida bunday vazifani hal etish zaruriyati turadi. Lekin bu vazifani hal etish yo‘llari turlicha bo‘lishi mumkin:

birinchidan, ishlab chiqarishga asoslangan yondashuv tarafdorlari bunday vazifani mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalangan holda amalga oshiradilar;

ikkinchidan, sotuv bilan shug‘ullanuvchi xizmatlar oldiga ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish vazifasi qo‘yiladi;

uchinchidan, marketingga asoslangan yondashuvda esa ishlab chiqarish dasturlarini shakllantirish asosida sotuvni bashorat qilish ko‘zda tutiladi.

Marketingga asoslangan yondashuvda marketing xizmati tomonidan bozorni o‘rganish, bozorni segmentlash, iste’molchilarning xulq-atvorini tadqiq qilish asosida olingan ma’lumotlardan foydalaniladi. Lekin shuni ham yodda tutish zarurki, “Marketing keskin raqobat va to‘yingan bozor sharoitidagina amalga oshadi. Aynan shunday sharoitdagina, uning tamoyillari ishlab chiqarishni foydaliligini, firma (korxona)ning o‘sishi va rivojlanishini ta’minlashni mumkin bo‘lgan yagona yo‘li bo‘lib hisoblanadi” [14]. Demak, zamonaviy marketingning asosiy maqsadi qondirilmagan talabni aniqlash va shu asosda ishlab chiqarishni aynan shu talabni qondirishga qaratish, xaridorlarning haqiqatda talabi bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda sotishni ta’minlashdir.

Globallashuv sharoitida zamonaviy marketingning asosiy elementlaridan biri bozorni segmentlash hisoblanadi. Bunda birinchi navbatdi iste'molchini o'rganish maqsad qilib qo'yiladi.

Fikrimizcha, ishlab chiqaruvchi korxonalar biznesda muvaffaqiyatga erishishlarida iste'molchining roli beqiyosdir. Sotuv va ishlab chiqarish hajmlari, shuningdek, tovarlar assortimenti ularning talablariga ko'ra shakllantiriladi. Bozorda o'z o'rnini topish, ishlab chiqarish va savdo siyosatini olib borish uchun iste'molchilarning ehtiyoj va talablarini tadqiq qilish hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulot bozorning qaysi segmentiga yo'nlatirilganiligi ham bilish maqsadga muvofiq. Lekin yuqorida ta'kidlaganimizdek, talabni amalga oshirish uchun ma'lum miqdordagi daromadlar, pul mablag'lari mavjudligi talab etiladi. Xaridor o'z daromadlari doirasida tovarlar xarid qiladi va xizmatlardan foydalanadi.

Respublikamizda hozirgi paytda iste'molchilar xulq-atvorlarini o'rganishda marketing tadqiqotlarini o'tkazish uslubiyatini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Lekin, bunday vazifani amalga oshirishda fikrimizcha, avval iste'molchilar xulq-atvorini boshqarishning marketing tadqiqotlari konsepsiyasini yaratish zarur deb hisoblaymiz va ular quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

1. Qandolat mahsulotlari bozorini rivojlantirish maqsadida iste'molchilarning xulq-atvorlarini o'rganish zarurligini va marketing tadqiqotlarining ahamiyatini asoslab berish;
2. Iste'molchilarni u yoki bu qandolat mahsulotini xarid qilishga undovchi mezonlarni belgilash;
3. Xaridor tomonidan qandolat mahsulotlari majmuasini ularning har bir shaxs uchun muhimligiga ko'ra guruhlarga ajratish;
4. To'lovga qobillik darajasiga ko'ra aholini guruhlarga ajratish;
5. Xaridorlarning har bir guruhi tomonidan qandolat mahsulotlari xarid qilish tartibini aniqlash;
6. Iste'molchilar xulq-atvorini boshqarishning imitatsion modelini yaratish.

Qandolat mahsulotlari bozorini marketing strategiyalari asosida rivojlantirish va uni tartibga solishning asosiy maqsadi bu aholining qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini to'laroq qondirish va pirovardida aholining turmush darajasini oshirishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- aholini zarur hajmda va keng assortimentda sifatli qandolat mahsulotlari bilan ta'minlash:
- aholining zarur hajmdagi qandolat mahsulotlarini xarid qilishining iqtisodiy imkoniyatlarini ta'minlash;
- asosiy qandolat mahsulotlariga oqilona narx belgilash;
- mahalliy qandolat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlash;
- qandolat mahsulotlari bozorini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Demak, qandolat mahsulotlari bozorining xususiyatlari va uning vazifalari hamda mavjud iqtisodiy-shart-sharoitlar ushbu bozorni va uning rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish zarurligini taqozo etadi.

Davlat tomonidan tartibga solish qandolat mahsulotlari bozorini rivojlantirishning umumiy konsepsiyasidan kelib chiqib bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Mamlakatning oziq-ovqat ta'minoti sohasidagi manfaatlari – oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydigan maqsadlar majmuidir. Bu maqsadlarga erishish uchun bu borada yagona davlat siyosatini amalga oshirish, ichki iste'mol bozorini oziq-ovqat tovarlari, xususan qandolat mahsulotari bilan to'ldirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning maqsadli dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Qandolat mahsulotlari bozorini marketing strategiyalaridan foydalanish asosida rivojlantirishning obyektiv zarurligi quyidagi omillar bilan bog'liq:

- bu bozorda aholining eng muhim zaruriy ehtiyojlari bilan birga iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaatlari to'plangan. Qandolat mahsulotlari bozorini rivojlantirishda ushbu xususiyatlarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi;
- oziq-ovqat tovarlari bozorini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda bozor holati va rivojlanishini marketing tadqiqotlari asosida samarali o'rganish.

Oziq-ovqat tovarlari bozorida marketingning zamonaviy yondoshuvlari aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojlarini yuqori darajada sifatli qondirishni taqozo qiladi.

Shuning uchun bizning fikrimizcha, oziq-ovqat tovarlari bozorini boshqarishda marketing strategiyalarini qo'llash muhim hisoblanadi. Bunday strategiyalarni qo'llash bozor salohiyatini va xususiyatlarini batafsil

aniqlashga hamda mavjud ehtiyojlarni to‘laroq qondirishga yordam beradi. Jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlarining ham xilma xillashuvi, rivojlanishiga olib keladi. Bu esa, ushbu ehtiyojlarni ta’minlash uchun boshqarish funksiyalarini ham shu kabi takomillashtirish hamda muvofiqlashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Bozorni aholi ehtiyojlari uchun mos bo‘lgan qandolat mahsulotlari bilan to‘ldirishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

- qandolat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarni tabaqalash hamda ularning aholi muayyan guruhlari uchun ahamiyatini aniqlash;
- aholining alohida toifalari bo‘yicha qandolat mahsulotlari iste’mol xususiyatlarini aniqlash;
- qandolat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojni qondirish darajasiga qarab iste’molchilarni segmentlash.

Qandolat mahsulotlari bozorini o‘rganish hamda bozorni marketing strategiyalarini qo‘llagan holda tartibga solish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida qandolat mahsulotlari bozorida marketing strategiyalarini qo‘llashning quyidagi asosiy maqsadlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- hududning turli salohiyatidan samarali foydalangan holda aholining sifatli qandolat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini imkon qadar to‘liq qondirish;
- bozorni o‘rganish va xalqaro aloqalarni kengaytirish orqali yangi bozorlarni egallash;
- zamonaviy texnologiyalar va xorijiy tajribalarni qo‘llagan holda qandolat mahsulotlari sifatini oshirish hamda assortimentini kengaytirish;
- qandolat mahsulotlari bozorida talab va taklif o‘zgarishlari hamda to‘lovga qobiliyatlilikni tahlil qilish asosida qandolat mahsulotlari bozori taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash.

Qandolat mahsulotlari bozorida ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘z maqsadlarini umummilliy maqsadlari bilan muvofiqlashtirishlari lozim hisoblanadi. Muvofiqlashtirish esa marketing orqali amalga oshirilib, bu ishlab chiqaruvchilar va boshqaruv tuzilmalari o‘rtasidagi bog‘lovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur jarayon o‘zaro axborot almashuv orqali amalga oshirilib, uning to‘g‘ri tahlil etilishi asosiy maqsadga erishishga yo‘naltirilgan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Qandolat mahsulotlari bozorini boshqarishda marketingning o‘zaro aloqasini o‘rganishda shuni qayd etish lozimki, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni boshqarish iste’molchilar ehtiyojlarini ta’minlanishini boshqarishni nazarda tutadi. Bunda boshqaruv qandolat mahsulotlariga talab hamda unga to‘lovga qodir talab orqali amalga oshiriladi.

Qandolat mahsulotlari bozorini marketing strategiyalari asosida rivojlantirishda uning ijtimoiy yo‘naltirilganligini ham hisobga olishi lozim. F.Kotler ushbu yo‘nalishlarni korxona imkoniyatlarini muayyan faoliyatga birlashtirish imkonini beruvchi marketing konsepsiyalari sifatida ta’riflagan.

Qandolat mahsulotlari bozori rivojlanishi jarayonida ishlab chiqaruvchilar o‘z imkoniyatlarini mahsulot sifatini, uning ishlab chiqarish xususiyatlarini, mahsulot o‘ramini yaxshilashga, ularning assortimentini kengaytirishga qaratadilar. Bugungi kunda mazkur konsepsiyaning yanada rivojlanishi iste’molchilarning ehtiyojlarini to‘liqroq qondirishga imkon beradi.

Bozorning xilma xil qandolat mahsulotlari bilan to‘ldirilganligi iste’molchilar uchun tanlov imkoniyatini kengaytiribgina qolmay, ishlab chiqaruvchilar uchun ulkan raqobatni yuzaga keltiradi. Xususan, ishlab chiqaruvchilar mahsulotni sotish shakllari hamda usullarini takomillashtirish, oqilona narx siyosatini amalga oshirish borasida chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari lozim.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar hamda iste’molchilar manfaatlarining o‘zaro mos kelishini aniqlash, shuningdek iste’molchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy yo‘naltirilgan marketingni rivojlantirish talab etiladi (1-rasm).

Oziq-ovqat bozorini qandolat mahsulotlari bilan ta’minlashda iste’molchilarining xohish-istaklarini o‘rganish natijasida quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- iste’molchilarning qandolat mahsulotlariga munosabatlari ijobiyligi, ular ayniqsa tort va shokolad mahsulotlarini sevib iste’mol qilishi aniqlandi. Qandolat mahsulotlari iste’molchilari ongida tort va shokolad mahsulotlari yoqimli his-tuyg‘ular, ya’ni to‘y-hasham, uchrashuv, bayramlar, mehmon kutish va mehmonga borish kabi yoqimli urf-odatlarimiz bilan bog‘liq;
- qandolat mahsulotlari iste’molchilari kayfiyatni ko‘tarish uchun ham shirinliklarni sotib olishliklarini bildirishdi. Haqiqatan ham qandolat mahsulotlari iste’molchilarga kayfiyatni ko‘tarish, ruhiy holatni yaxshilash, stressni yengish uchun xizmat qiladi;

ISTE'MOL BOZORINI QANDOLAT MAHSULOTLARI BILAN TO'LDIRISHDA IJTIMOIY YO'NALTIRILGAN MARKETINGNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

JAMIYAT

Maqsad — O'zbekiston iste'mol bozorini qandolat mahsulotlari bilan to'ldirish va xavfsizligini ta'minlash

Vazifalar:
- qonunchilik bazasini takomillashtirish orqali qandolat mahsulotlari bozorini davlat tomonidan tartibga solinishi (huquqiy tartibga solish);
- kam ta'minlangan aholi guruhlari qandolat mahsulotlari iste'molining minimal standartini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy siyosatni tartibga solish;
- qandolat mahsulotlari sifati va ular bilan savdo qilish qoidalariga rioya qilinishi ustidan davlat nazorati;
- qandolat mahsulotlarini standartlash va sertifikatlash, oziq-ovqat xavfsizlinini ta'minlash;
- qandolat mahsulotlari bozoridagi halol raqobatni qo'llab-quvvatlash;
- qandolat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash.

QANDOLATMAHSULOTLARINIISHLABCHIQARUVCHILAR

Maqsad — Maqsadli segmentlarning ehtiyojlarini qondirish orqali ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini oshirish

Vazifalar:
- iste'molchining istak va ehtiyojlarini qondirish, bozorni kengaytirish;
- korxonaning innovatsion siyosatini amalga oshirish, mahsulot assortimentini kengaytirish va uning yuqori sifatini ta'minlash;
- tovar harakatining samarali yo'llarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- egiluvchan narx siyosati;
- marketing kommunikatsiyalari tizimini tashkil etish.

ISTE'MOLCHILAR

Maqsad — Iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga ehtiyojini qondirish

Vazifalar:
- iste'mol tanlovi erkinligi asosida qandolat mahsulotlari bozorida iste'mol qarorlarini qabul qilish;
- qandolat mahsulotlarini xarid qilish (savdo jarayonini tashkil etish, qandolat mahsulotlari arzonligi, foydaliligi bilan "narx-sifat" nisbati orqali qanoatlanishga erishish);
- qandolat mahsulotlari xavfsizligi va sifatiga bo'lgan iste'molchilar huquqini amalga oshirish;
- qandolat mahsulotlarining tarkibi, xususiyatlari, saqlash va savdo qilish muddatlari to'g'risida ishonchli axborot olish;
- inson salomatligi va organizmiga u yoki bu qandolat mahsulotlari iste'molining ta'siri to'g'risida bilimlarga ega bo'lish.

1-rasm: Iste'mol bozorini qandolat mahsulotlari bilan to'ldirishda ijtimoiy yo'naltirilgan marketingni amalga oshirish mexanizmi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

- iste'molchilarning aksariyat qismi uchun qandolat mahsulotlari kundalik iste'mol tovarlari bo'lib ulgurgan. Shuning uchun ham qandolat mahsulotlariga bo'lgan talab barqaror hisoblanadi;
- iste'molchilarning qandolat mahsulotlarini sotib olish faolligi ko'p jihatdan mahsulot narxiga bog'liq hisoblanadi. Narxning oshishi xarid faolligining ham pasayishiga olib keladi;
- qandolat mahsulotlarini iste'mol qiluvchilarning ko'pchiligi ularning biologik qiymatini oshirish orqali mahsulot assortimentini kengaytirishni ma'qullaydi;
- mahsulotning narxi va sifati qandolat mahsulotlarini sotib olish to'g'risida qaror qabul qilishdagi asosiy omillar bo'lib hisoblanadi.

XULOSA

Qandolat mahsulotlari iste'mol bozorida boshqa bozorlardagi kabi o'zaro munosabatlar kompleksi shakllanadi. Uning o'ziga xos jihati esa mazkur munosabatlar ijtimoiy yo'nalishga ega hamda qator omillar bilan bog'liq hisoblanadi. Quyida mana shu omillarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- insonning asosiy ehtiyojlaridan biri deb qaraluvchi ijtimoiy ahamiyatga ega ehtiyojlarining qoniqtirilishi qandolat mahsulotlari bozori orqali ta'minlanadi;
- inson salomatligi va uning mehnatga layoqatliligining saqlanishida qandolat mahsulotlari iste'moli alohida o'ringa ega;
- qandolat mahsulotlari bozorining turli jihatlari, xususan sifat, narxning hamyonbopligi, assortiment jamiyat taraqqiyoti holati hamda iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligini ko'rsatadi;
- iste'molchilar tomonidan muayyan talablarning, xususan xavfsizlik, tabiiylik, sifat, narx, savdo qilish sharoitlarining qo'yilishi;
- iste'molchining manfaatlari ishlab chiqaruvchi uchun muhim ahamiyatga egaligini ko'rsata bilish lozim.

Qayd etib o'tilgan omillarning turli tumanligi ijtimoiy-ahloqiy marketingni qo'llanilishiga to'sqinlik qila olmaydi. Bunga sabab iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga ehtiyojining to'liq qondirilishi bo'lib, u nafaqat ishlab chiqaruvchilar faoliyatining yuqori baholanishida, balki iste'molchiga ham, jamiyat uchun ham o'zaro manfaatli va foydali bo'lib hisoblanadi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan marketing modelining qator ijobiy jihatlarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida munosabatlarning uyg'unlashuvi;
- ishlab chiqaruvchilar orasida reytingning ortishi;
- aholi orasida tashkil etiladigan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari va hayriya tadbirlarda faol qatnashish.

Taklif etilayotgan mazkur konsepsiyani amalga oshirishda qator usullar qo'llanilib, ular tizimdagi qatnashchilarning maqsadlariga erishishlariga ko'makalashishlariga yo'naltirilgan. Qayd etib o'tilayotgan mexanizm xususiyatlari jamiyat, xususan, iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar manfaatlari xilma xil bo'lsada, qandolat mahsulotlari bozorida ijtimoiy yo'naltirilgan marketingni qo'llashda uni tatbiq etishga imkon beradi.

Mexanizmning o'ziga xos jihatlariga shundaki, u jamiyat, iste'molchilar manfaatlarini, ishlab chiqaruvchilarning iste'molchilarga yo'naltirilgan harakatlarini, axloq normalari hamda ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirishni o'zida aks ettiradi.

Aholining xavfsiz, sifatli va narxi hamyonbop qandolat mahsulotlariga ehtiyojlarini qondirish qandolat mahsulotlari bozoridagi ijtimoiy yo'naltirilgan marketingning asosiy maqsadini tashkil etadi. Shu ma'noda, ko'rib chiqilayotgan konsepsiya bozor uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur konsepsiya iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar va jamiyat manfaatlarini o'zaro muvofiqlashtirgan holda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.//Xalq so'zi, 2016 yil 15 dekabr.
2. https://sfera.fm/articles/konditerskaya/trendy-i-osobennosti-potrebitelskogo-povedeniya-na-konditerskom-rynke
3. Алиева Л., Светлорусова Т. Инновационная система развития агропродовольственного рынка. // АПК: экономика и управление. 2007. -№4. С. 50-52 https://www.elibrary.ru/item.asp?id=9487839
4. http://www.duel.ru/publish/burdukov/glob.html Бурдуков П.Т. Россия в системе глобальной продовольственной безопасности. (Электронный ресурс)

5. Гончаров В.Д. Формирование продовольственного рынка. // АПК: экономика и управление.1996. №4. - с. 51
6. Кетова Н.П. Отраслевой маркетинг: стратегии, функции, приоритеты: учебное пособие. –М.: Вузовская книга, 2012. – с. 320
7. Кострова Ю.Б. Анализ продовольственного рынка России. Монография. -СПб: Издательство Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2014. - с. 8
8. Нуралиев С.У., Нуралиева Д.С. Основные направления развития и регулирования продовольственного рынка в условиях вступления России в ВТО. // Пищевая промышленность. -2012. -№12. – с. 10-13
9. Фетюхина О.Н. Функционирование и развитие агропродовольственоого рынка России в условиях глоболизации: теория, методология, практика. Автореферат на соиск. ученой степени доктора наук. Ставрополь, 2011. - с. 12-13
10. Зинчук Г.М. Понятие и виды продовольственного рынка. //Альманах современной науки и образования. 2011. №10 (53). - С. 111-113
11. Вороков С.С. Развитие регионального продовольственного рынка: автореферат на соиск. ученой степени доктора экономических наук Краснодар, 2004.
12. Ивольга И.Г. Функционирование продовольственного рынка России и его адаптация к условиям ВТО. Автореферат на соиск. ученой степени кандидата экономических наук. Нальчик, 2016. – с. 8
13. Солиев А. Маркетинг, бозоршунослик. –Т.: ART-FLEX, 2008, 221-б.
14. Маркетинг: учебник для вузов / Н.Д.Эриашвили и др. Под ред. Н.Д.Эриашвили. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000. - с. 6
15. Azlarova M. Impact of technology-supported marketing strategies on food security and provision: Evidence from Uzbekistan's confectionery industry //Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2022. – С. 39-45.
16. Qizi A. M. M. Methodological Aspects of Using Marketing Strategies in Filling the Consumer Market with Food Products //Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN. – 2023. – Т. 2249. – №. 0892.
17. Azlarova M. (2023). Iqtisodiyotning globallashuv sharoitida ichki bozorni oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirishning nazariy asoslari. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(1), 292–300. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a45
18. Azlarova M.M. Marketing strategies for saturating the country's consumer market with food. // Актуальные научные исследования в современном мире. – Переяслав, 2021. - Вып. 5(73), ч. 10. 6-8-b. https://iscience.in.ua/arkhyv/2021
19. Azlarova M.M. Assessment of tenders of development of the consumer goods market in Uzbekistan. International Journal of Scientific&Engineering Research Volume 12, Issue 3, March -2021 818, USA, GIF-0,98.
20. Saidov M.S., Abdumadjidova Sh. Main tools of lean manufacturing in the management system. "Экономика и социум" №1(104)-1 2023. file:///C:/Users/Acer/Downloads/main-tools-of-lean-manufacturing-in-the-management-system.pdf
21. Saidov M.S., Barnaeva N. Features of diversification of products and products of competitive procedure."Экономика и социум" №1(104)-1 2023. file:///C:/Users/Acer/Downloads/features-of-diversification-of-products-and-products-of-competitive-procedure.pdf
22. Saidov Mashal Samadovich, Rakhimberdiev Khatamboy Dilshodzhon ugli (2023) Organization of Production and Management of New Enterprises. AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT ISSN: 2576-5973Vol. 6, No.1,2023. https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajebm/article/view/1908/1737
23. Saidov Mashal Samadovich. Muidinov Dilmurod Murodzhonovic. (2023) The Development Strategy of International Companies in Modern Conditions. AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT ISSN: 2576-5973Vol. 6, No.1,2023.
24. https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajebm/article/view/1897/1726

YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISH HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI



Allayor Norboyev Ismoilovich
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda turizmni har tomonlama rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar, yurtimiz turizmida mavjud muammolar va ularni samarali hal qilish uchun mavjud imkoniyatlar to‘g‘risida fikr yuritilgan. Yoshlarning sog‘lom turmush tarzini olib borishi uchun ularni ichki va tashqi turizmga jalb qilishning zarurati hamda yoshlar turizmining holati va taraqqiyotiga e’tibor qaratildi.

Kalit so‘zlar: Turizm, iqtisodiyot, yoshlar turizmi, sayyohlar, kemping, mehmonxonalar, umummilliy qadriyatlar, chora-tadbirlar.

Abstract: This article discusses the ongoing work in Uzbekistan on the comprehensive development and support of tourism, the existing problems in the tourism of our country and the possibility of their effective solution. Attention is drawn to the need to attract young people to internal and external tourism in order to maintain a healthy lifestyle, as well as the state and development of youth tourism.

Key words: Tourism, economy, youth tourism, tourists, camping, hotels, national values, events.

Аннотация: В данной статье рассматривается проводимая в Узбекистане работа по всестороннему развитию и поддержке туризма, существующие проблемы в туризме нашей страны и возможности их эффективного решения. Обращено внимание на необходимость привлечения молодежи к внутреннему и внешнему туризму с целью ведения здорового образа жизни, а также состояние и развитие молодежного туризма.

Ключевые слова: Туризм, экономика, молодежный туризм, туристы, кемпинг, гостиницы, национальные ценности, мероприятия.

Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiy jihatdan har tomonlama o‘sib bormoqda. Buni davriy iqtisodiy ko‘rsatkichlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Mustaqillik yillarida yurtboshimiz tomonidan olib borilgan oqilona siyosat tufayli mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich va samarali tarzda o‘tib bo‘ldi. Aynan, iqtisodiyotning siyosatdan ustun qilib belgilanganligi mamlakatimiz iqtisodiy jihatdan mustaqil ekanligini kafolatlaydi.

Turizm – bevosita mijozlarga yuqori darajali xizmat ko‘rsatishni talab qiladigan soha. Turizm sanoati mamlakatimiz miqyosida yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Ushbu sohaning dunyo miqyosida eng serdaromad ekanligini hisobga olib, O‘zbekistondagi turistik imkoniyatning yuqori ekanligidan aytish mumkinki, iqtisodiyotimizda turizmning ulushi ortishi aniq. Ushbu soha serdaromadliligi jihatdan jahonda mashinasozlik va neft-gaz sohasidan keyin uchinchi o‘rinda turib, mamlakatimiz YAIM dagi ulushi esa 2 % dan ko‘prog‘ini tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkich yurtimizdagi mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib baholanadigan bo‘lsa, aytish kerakki bu raqamni yanada yuksaltirish mumkin.

O‘zbekistonda turizmni har tomonlama rivojlantirish va qo‘llab- quvvatlash maqsadida mamlakatimiz hukumati tomonidan ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishni taminlash chora-tadbirlari tug‘risida”gi PF-4861-sonli farmonida quyidagi masalalar alohida belgilab o‘tilgan [1].

- sayyohlikka oid axborotlar to‘plash va ijtimoiy statistika yuritish bo‘yicha metodlar ishlab chiqish;
- Respublika hududida turizmni rivojlantirishni kompleks amalga oshirish, yangi turdagi maxsus turizm yunalishlarini tashkil qilish va ularni sayyohlarga taklif etish;
- O‘zbekistonda yangi turdagi joylashtirish vositalarini ko‘paytirish. Jumladan, kempinglar, yo‘l usti mehmonxonalari kabilar bularga misol bo‘la oladi;

- mamlakatimizda o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ygan yoki boshlash arafasida bo‘lgan turizm faoliyati subyektlariga, xususan mehmonxona biznesi sohasida qo‘shimcha imtiyozlar yaratish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab quvvatlash;
- tashrif buyurayotgan sayyohlar uchun qo‘shimcha xizmatlar sonini va sifatini oshirish. Asosan, axborot taqdim etish tizimini takomillashtirish va boshqalar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, yurtimiz turizmida mavjud qator muammolarni birin-ketin, samarali hal qilish orqali yaqin kelajakda yuksak natijalarga erishish imkoniyati mavjud bo‘lib, quyidagi dolzarb muammolar shular jumlasidandir: [2]

- jahon tajribasidan foydalangan holda yangi turistik infratuzilma turlarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish;
- xorijiy turistlarni mamlakatimizga jalb qilishning samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash;
- mamlakat aholisi o‘rtasida turistik mafkura va madaniyatni yuksaltirish;
- turizm sohasi uchun malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash;
- individual va rejasiz tashrif buyurayotgan sayyohlarga qushimcha qulayliklar yaratish va boshqalar [3].

Aynan yuqorida keltirilgan dolzarb muammolar tufayli turizmda ko‘zlangan yuksak maqsadlar zabt etilmayapti va bunda bir qancha to‘siqlar mavjud. Hozirgi kunda mutaxassislar tomonidan ushbu muammolarni bartaraf qilish maqsadida turli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning amaliyotga oqilona tatbiq qilinishi orqali rivojlanishning dastlabki bosqichlarini utash mumkin. Xususan, mamlakatimizda dunyoning yetakchi tajribalaridan foydalangan holda yoshlar turizmini joriy qilish orqali turli muammolarga samarali yechim topish mumkin. Yoshlar turizmi – bu sayohatning har xilligidir, bunda yoshlar bir maqsadda va dunyoni bilish istagi bilan o‘zlarining o‘rtoqlari bilan dam olishadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev takidlaganidek: “Biz hozir faqat turizmni rivojlantirish bilan shug‘ullanadigan tuzilmaga doir masalalarni tasdiqladik. Bu choralar turizmning O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojiga qo‘shadigan hissasini oshirish, tarixiy va madaniy qadriyatlarimizni targ‘ib qilish, shuningdek, valyuta zaxiralarini to‘ldirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar bilan kuchaytirilishi zarur” [1].

Chunki, turizm sohasi o‘z navbatida sayyohlik sohasining rivojiga bog‘liq bo‘lib, uning taraqqiyotini belgilovchi omil hisoblanadi. Bu borada olimlarning takidlashicha, sayohat boshqa xalqlar haqida bilim beradi va masofaviy jihatdan uzoq bo‘lgan davlatlarni ham bir-biriga yaqinlashtiradi shu bilan birga, turizm sohasi o‘z navbatida mehmondorchilik sohasi bilan birgalikda jahondagi xizmatlar, yalpi ichki mahsulot va investitsiyalarning tarkibidagi o‘zgarishlarni amalga oshirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Yoshlar turizm – turizmning maxsus turlaridan biri sifatida o‘sib ketayotgan yosh avlodning tarbiyasi, talimi manaviyati madaniyati va jismoniy rivojlanishi muammolarini hal qilishda muhim omil sifatida baholanib yoshlarning iqtidor va qobiliyatlari ochilishiga vatanparvarlik tuyg‘ulariga tayanuvchi umummilliy qadriyatlarning mustahkamlanishiga yordam beradi.

Yoshlar turizmini taraqqiy ettirishning asosiy ijtimoiy vazifasi shundaki u yoshlarga xos tipik qiziqishlarni qondiribgina qolmay yoshlarning kasbga yunalishini va kelajakda o‘z kasbining ustasi bo‘lishi uchun hayotiy nemat sifatida xizmat qiladi. Yoshlar turizmi buning uchun shaxsning ijtimoiylashuvi unda vatanparvarlik umuminsoniy qadriyatlarning hosil qilinishi kabi hayotiy muammolarni hal qilish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib beradi [4].

Yoshlar turizmining holati va taraqqiyot darajasi turizm sohasi nazariyasini bilish uslubiyot va joriy amaliyot holatidan ancha bog‘liqdir. Turizm sohasida tadqiqotlarning olib borilishi mazkur jarayonga tajribasi katta bo‘lgan mutaxassislarni jalb qilish simpoziumlar seminarlar ishbilarmonlik davra suhbatlarining tashkil etilishi yoshlar turizmini yanada taraqqiy ettirish imkoniyatlarini oshiradi.

Xalqaro turizmning taraqqiy etishi o‘z navbatida ichki turistik mahsulot uchun talabni ham oshiradi. Demak turoperatorlar uz ananaviy faoliyatini diversifikatsiyalashlariga zarurat oshadi. Mazkur faoliyatda yoshlarning ulushi yuqori bo‘lib bunga asosiy sabab yoshlarning moslashuvchanligi yangiliklarni o‘zlashtirish imkoniyatlari yuqoriligi hisoblanadi [5].

Yoshlar faol shaklda dam olishni xush ko‘rishadi va ko‘plab sayyohlik kompaniyalari endi baquvvat yoshlar uchun muljallangan maxsus yoshlar turlarini tashkil etishyapti va ularni faoliyati quyidagi dam olish ko‘rinishlarini taklif etadi:

- tog‘ga sayohatlar - bu tog‘larda dam olish. Sayohat tog‘ oqimlari orqali, tog‘ etaklari va tizmalari orqali bo‘ladi.

- suv Turizmi - dengizlarga, ko‘llarga, daryolarga va suv omborlariga qayiq, kema va boshqa suv transportlari orqali sayohat qilish.
- velosiped ekskursiyalari - turli yo‘llarga, jarliklarga, qumga, tog‘ yo‘nalishlariga velosipedlarda sayohat qilishdir.

Speliologiyani xush ko‘ruvchi odamlar uchun tabiiy yoki sun’iy g‘orlarga va labirintlarga safar taklif etishadi. Ular o‘zlarining turli releflari bilan qiziqarli bo‘lishadi.

Piyoda Ekskursiyalari bu ehtimol, eng mashhur dam olish shaklidir, chunki u hech qanday maxsus ta’lim va uskunalarga muhtoj emas. Oddiy piyoda ekskursiyani deyarli har qanday joyda tashkil etish mumkin [5].

Bundan tashqari, yoshlar orasida chang‘i turizmi va alpinizm, kvadrosiklda safar va otda sayohat juda mashhurdir.

Yoshlar turizmi - bu doimiy harakat hisoblanadi. Har kuni ayrim to‘siqlarni bartaraf etish kerak, o‘zlarini va qiyinchiliklarni yengib o‘tishlari kerak, sayyoramizning sehrli tovushlarini eshitishlari uchun va koinot atrofidagi buyuklikni tushunishlari uchun, muhtasham go‘zallikni ko‘rishlari uchun to‘siqlarni yengib o‘tishlari kerakdir.

Albatta, yoshlar turizmini rivojlantirish zarur va sog‘lom turmush tarzini olib borishga ishtiyoqmand yoshlar uchun buni yanada jozibador sayyohlikni boshqa shakllari bilan birlashtirish kerak bo‘ladi.

Turizm dunyodagi eng tez rivojlanayotgan biznes turlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shunday qilib, u hozirgi bosqichida turizmning yoshlar turizmi faollikdadir. Yoshlar bugungi kunda o‘zlarining hayot taqdirlarini o‘zlari belgilashlarida bir qator qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2017-2021-yillar O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishni jadallashtirish dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 02.12.2016-yildagi PF – № 4861 Farmoni. lex.uz.
2. “Turizm faoliyatini lisenziyalash tug‘risida”gi Nizom Aliyeva M.T. “Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti” darslik, –Toshkent, TDIU.
3. Kamilova F.K. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sharoitida turizm xizmatlari marketingini takomillashtirish. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy jurnali. –№1, –2011.–78-b.
4. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yulini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir” birinchi Prezident I. A. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi maruzasi.
5. Kamilova F.K., Taisheva I.M., Sayfutdinov Sh.S. “Turizm industriyasi”. –O‘quv qo‘llanma. Toshkent. –TDIU.–89-b.
6. “O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish” maqolalar jamlanmasi, “Turizm yunalishida kadrlar tayyorlashni takomillashtirish yo‘llari” mavzusi. Latipov.Sh.K, Yuldashev.K.Sh.–112 b.



BIOLOGIK AKTIVLARNI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Boltayev Abror Sayitmuradovich
PhD, Fiskal institut
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologik aktivlarni baholashning uslubiy jihatlarini takomillashtirish masalalari bayon qilingan. Xususan, biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlashda bozor yondashuviga asoslangan baholash usullari taklif etilgan va ulardan foydalanish amaliy yondashuvlar asosida ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, biologik aktivlarni moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymatini shakllantirish modeli taklif etilgan va tadqiqot natijalari asosida xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: biologik aktiv, qishloq xo‘jaligi, haqqoniy qiymat, bozor yondashuvi, bozor ishtirokchilari, faol bozor, bozor narxlari, moliyaviy hisobot.

Abstract: This article discusses issues of improving methodical aspects of assessing biological assets. In particular, valuation methods based on a market approach in determining the fair value of biological assets are proposed, and their use is shown in reliance upon practical approaches. In addition, thee is proposed the model for formation of the value of biological assets reflected in financial statements and relevant conclusions are formulated based on the results of the study.

Key words: biological asset, agriculture, fair value, market approach, market participants, active market, market prices, financial statements.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования методических аспектов оценки биологических активов. В частности, предложены методы оценки, основанные на рыночном подходе при определении справедливой стоимости биологических активов, и показано их использование на основе практических подходов. Кроме того, предложена модель формирования стоимости биологических активов, отражаемых в финансовой отчетности, и по результатам исследования сформулированы выводы.

Ключевые слова: биологический актив, сельское хозяйство, справедливая стоимость, рыночный подход, участники рынка, активный рынок, рыночные цены, финансовая отчетность.

KIRISH

Ma’lumki, biologik aktivlarni tan olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish 41-son “Qishloq xo‘jaligi” nomli buxgalteriya hisobi xalqaro standarti (BHXS) bilan tartibga solinadi. Mazkur standartga muvofiq biologik aktiv dastlabki tan olinishida va har bir hisobot davrining oxirida sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymatda (bunda haqqoniy qiymatni ishonchli baholash imkoni bo‘lmagan holatlar mustasno) baholanishi kerak. Bundan ko‘rinadiki, biologik aktivlar dastlabki tan olish sanasida ham hisobot sanasida ham sotish xarajatlari chegirilgan holdagi haqqoniy qiymat bo‘yicha baholanishi lozim. Bunda 13-son “Haqqoniy qiymatni baholash” nomli MHXS biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlash va haqqoniy qiymat bilan bog‘liq ma’lumotlarni yoritishda huquqiy asos hisoblanadi. Biroq, mazkur MHXS asosida biologik aktivlar haqqoniy qiymatini baholashda va haqqoniy qiymatda baholash to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yoritib berishda ayrim muammolarning mavjudligi, biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini ishonchli baholashda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Jumladan:

- ayrim biologik aktivlar uchun faol bozorning mavjud emasligi. Chunki, biologik aktivning haqqoniy qiymatini aniqlash bozor ma’lumotlariga asoslangan baholash hisoblanadi.;
- biologik aktivlar haqqoniy qiymatini baholashda foydalaniladigan aniq ma’lumot manbalarining mavjud emasligi. Bu o‘z navbatida, biologik aktivlar haqqoniy qiymatini baholash usullarini qo‘llash imkonini bermaydi. Natijada, biologik aktivlarni baholashda haqqoniy qiymat tamoyilini qo‘llash murakkablashadi;
- MHXS asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzishda malakali kadrlar yetishmasligi. Bu esa, buxgalteriya hisobi subyektlarida MHXSni qo‘llash jarayonini qiyinlashtiradi.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligi faoliyati hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirishda, biologik aktivlarni tan olish, baholash, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotda aks ettirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining yetarli emasligi ham asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu esa, tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, biologik aktivlarni baholashning uslubiy jihatlarini takomillashtirish masalalari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan deyarli tadqiq qilinmagan. Ba’zi iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida MHXS asosida qishloq xo‘jaligi faoliyati hisobini takomillashtirishning ayrim jihatlari yoritib berilgan xolos. Xususan, iqtisodchi olim B.Yu.Menglikulov [3] tomonidan chorvachilikda biologik aktivlarni tan olish va hisobini tashkil etish hamda boshqaruvning axborot ta’minotidagi ayrim muammolar tadqiq qilib o‘rganilgan. Biroq, iqtisodchi olim tomonidan biologik aktivlarni tan olish, baholash tartibi, baholashda foydalaniladigan ma’lumot manbalari, baholash usullari, shu jumladan, dastlabki tan olishda va hisobot davrining oxirida haqqoniy qiymatda baholash masalalari tadqiq qilib o‘rganilmagan.

Iqtisodchi olim F.T.Temirov ta’kidlashicha, “Mamlakatimizda buxgalteriya hisobining milliy standartlarida (1-BHMS, 4-BHMS, 5-BHMS, 21-BHMS) “Biologik aktivlarni hisobga olish” bo‘limlari ishlab chiqilgan, biologik aktivlarni hisobga olish bo‘yicha ko‘rsatmalar ishlab chiqildi. Biroq ko‘plab tashkiliy va uslubiy muammolar hal etilmadi. Xususan, 5-sonli “Asosiy vositalar” biologik aktivlarni hisobga olish, ya’ni ko‘p yillik daraxtlar, ishchi va mahsuldop hayvonlarni, shuningdek, 4-BHMSda o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga olishning uslubiy jihatlari bayon etilgan. Lekin, aynan ularni biologik aktiv, xususan, biologik aktivlarni baholash, ularning sintetik va analitik hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarda qishloq xo‘jaligi faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish bayon etilmagan” [4].

Iqtisodchi olim S.N.Tashnazarovning yozishicha, “MHXSlarga o‘tish uchun faol bozor shakllangan bo‘lishi kerak. MHXSlari obyektlarni adolatli baholash tizimiga asoslanadi. Shuning uchun baholash mexanizmlari rivojlantirish zaruriyati mavjud. Masalan, zaxiralar sof sotish qiymati yoki tannarxidan eng kichigi bo‘yicha baholanadi. Ko‘chmas mulk, mashina va asbob-uskunalar hamda moliyaviy aktivlar adolatli qiymati bo‘yicha baholanadi. Bu obyektlar faol bozor bo‘lgandagina adolatli baholanadi” [5].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan farqli ravishda ko‘plab xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan MHXS asosida biologik aktivlarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish, xususan ularni haqqoniy qiymatda baholash masalalari tadqiq qilib o‘rganilgan. Jumladan, xorijlik iqtisodchi olimlar Rubén Dario Marrufo Garcia va Abel Maria Cano Moraleslar “Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan, Kolumbiya qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun moliyaviy hisobotlarda biologik aktivlarni haqqoniy qiymatda hisobga olishda, boshqa bozorlar orasida rejalashtirilgan bozorlarda shakllangan haqqoniy sotish bahosidan vositachilik xarajatlari, soliqlar va yig‘imlarni chegirgan holda hisobga olish muhim ahamiyatga ega” [6] deb ta’kidlagan holda biologik aktivlarni hisobga olish tizimlari va 41-son BHXS qo‘llanilishini ko‘rsatib o‘tishgan.

Latviyalik iqtisodchi olimlar Iluta Arbidane va Iveta Mietulelar [7] dastlabki tan olish vaqtidagi biologik aktivning haqqoniy qiymatini, biologik aktivlarni tan olish vaqtidagi bozor qiymati hamda biologik aktivlarni moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymatini, biologik aktivlarni tan olish vaqtidagi haqqoniy qiymati sifatida tasniflashadi. Fikrimizcha, biologik aktivlarni tan olish vaqtidagi bozor qiymati bu biologik aktivning haqqoniy qiymati sifatida hamda undan sotish xarajatlarini chegirgandagi qiymati, biologik aktivlarni moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymat sifatida tan olinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shu bilan birga, iqtisodchi olima L.F.Sitdikova [8] qishloq xo‘jalik korxonalarida biologik aktivlar hisobini takomillashtirish bo‘yicha olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlarida, biologik aktivlarni haqqoniy qiymatda hisobga olish algoritmini taklif etadi. Ushbu taklif etilgan algoritmda belgilangan tashkiliy va iqtisodiy tadbirlardan biri biologik aktivlarni haqqoniy qiymat bo‘yicha buxgalteriya hisobida aks ettirish bo‘lib, u qishloq xo‘jaligi tashkilotlari faoliyati to‘g‘risida eng ishonchli va to‘liq axborot olish imkonini beradi deb ta’kidlaydi. Fikrimizcha, taklif etilgan algoritmda belgilangan mazkur tadbirni, biologik aktivlarning haqqoniy qiymatidan sotish xarajatlarini chegirgan holda buxgalteriya hisobida aks ettirish deb belgilanishi maqsadga muvofiq.

Iqtisodchi olima N.N.Agoshkova [9] ham bilogik aktivlarni tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Xususan, iqtisodchi olima 41-son BHXSga muvofiq faol bozor mavjud va mavjud bo‘lmaganda biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlash algoritmini tavsiya qiladi. Uning tavsiyasiga ko‘ra, biologik aktivlar bilan bog‘liq operatsiyalar faol bozorda amalga oshirilsa, aktivning haqqoniy qiymati uning ushbu bozordagi qiymatidan kelib chiqgan holda aniqlanishi kerak. Faol bozor mavjud bo‘lmagan taqdirda, haqqoniy qiymat biologik aktivning joriy haqiqiy narxidan, shu kabi biologik aktivlar bo‘yicha oxirgi bitim narxidan, semizligi, vazni, hayvon zoti, meva ekinlarining navlari va boshqa ko‘rsatkichlardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Iqtisodchi olima L.I.Kulikova esa, “41-son BHXS biologik aktiv yoki qishloq xo‘jaligi mahsulotining sotish xarajatlarini hisobga olmagandagi haqqoniy qiymatini aniqlashning bir qancha muqobil variantlarini ko‘rib chiqadi” [10] deb ta’kidlagan holda, haqqoniy qiymatni aniqlashda biologik aktiv yoki qishloq xo‘jaligi mahsulotining hozirgi holati va joylashgan joyida faol bozor mavjud va mavjud bo‘lmagan holatlar bo‘yicha tasniflaydi va tavsiflab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biologik aktivlarni baholashning uslubiy jihatlarini takomillashtirish masalasini tadqiq qilishda ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to‘plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo‘yish kabi nazariy-tadqiqot hamda ilmiy adabiyotlar, kuzatish va davr oralig‘ida tadqiq qilish kabi empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Albatta, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning biologik aktivlarni tan olish va baholash bo‘yicha yondashuvlarini e’tirof etgan holda 13-son “Haqqoniy qiymatni baholash” nomli MHXSga murojaat qiladigan bo‘lsak, unda “Mazkur MHXS haqqoniy qiymatni baholash sanasida bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishdan olinishi yoki majburiyatni o‘tkazish uchun to‘lanishi mumkin bo‘lgan narx sifatida ta’riflaydi” [2] deya tavsiflangan. Demak, yuqoridagi ta’rifga asosan biologik aktivlarning haqqoniy qiymati bu baholash sanasida bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi odatdagi operatsiyada biologik aktivni sotishdan olinishi mumkin bo‘lgan narxdir. Mazkur narx turli baholash usullaridan foydalanilgan holda shakllantiriladi. Bunda tadbirkorlik subyekti mavjud sharoitlarda o‘rinli bo‘ladigan haqqoniy qiymatni baholash uchun yetarli ma’lumot bo‘lgandagina baholash usullaridan foydalanishi lozim. Shu sababli, haqqoniy qiymatni baholashda o‘rinli, kuzatiladigan ma’lumot manbalaridan foydalanishni maksimallashtirgan holda kuzatilmaydigan ma’lumot manbalaridan foydalanishni minimallashtirishi lozim.

13-son MHXSda belgilangan haqqoniy qiymat iyerarxiyasiga muvofiq haqqoniy qiymatni baholash hamda yoritib beriladigan ma’lumotlarda izchillik va qiyosiylikni ta’minlash maqsadida biologik aktivlarni haqqoniy qiymatini baholashda foydalaniladigan ma’lumot manbalarini ham uchta darajali toifaga ajratish mumkin:

- 1-darajali. Tashkilot baholash sanasida foydalanishi mumkin bo‘lgan bir xil biologik aktivlar bo‘yicha faol bozorlardagi (tuzatilmagan) narxlar;
- 2-darajali. 1-darajaga kiritilgan narxlardan tashqari, biologik aktivlar bo‘yicha kuzatiladigan bevosita yoki bilvosita ma’lumot manbalari;
- 3-darajali. Biologik aktivlar bo‘yicha kuzatilmaydigan ma’lumotlar.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, respublikamizda biologik aktivlar haqqoniy qiymatini baholashda foydalanish mumkin bo‘lgan, bir xil biologik aktivlar bo‘yicha faol bozorlardagi (tuzatilmagan) narxlar, ya’ni 1-darajali ma’lumot manbalari kuzatilmaydi. Ya’ni, bir xil biologik aktivlar bo‘yicha faol bozor shakllanmagan. Shu sababli ham, yuqorida faol bozor shakllangan bo‘lishi lozimligi ta’kidlab o‘tgan edik. Chunki, bir xil biologik aktivlar uchun faol bozor bo‘lgandagina biologik aktivlar haqqoniy qiymatini baholash uchun narxdan tuzatishsiz foydalaniladi. Bu esa, biologik aktivni haqqoniy qiymat asosida baholashning eng ishonchli dalilini ta’minlaydi. Shu bois, bugungi kunda tadbirkorlik subyektlari tomonidan biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlashda 2-darajali ma’lumot manbalaridan foydalanishmoqda. Mazkur ma’lumot manbalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- faol bozorlardagi o‘xshash biologik aktivlar bo‘yicha narxlar;
- faol bo‘lmagan bozorlardagi bir xil yoki o‘xshash biologik aktivlar bo‘yicha narxlar;
- biologik aktivlar bo‘yicha kuzatiladigan narxlardan tashqari ma’lumot manbalari.


3-darajali ma’lumot manbalari, biologik aktivlar bo‘yicha kuzatilmaydigan ma’lumot manbalari hisoblanadi. Shu bois, tadbirkorlik subyekti muayyan holatlarda mavjud bo‘lgan eng yaxshi ma’lumotlar asosida, o‘zida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan biologik aktivlar bo‘yicha kuzatilmaydigan ma’lumot manbalarini belgilab olishi zarur.

Shunday qilib, tadbirkorlik subyekti biologik aktivlar haqqoniy qiymatini baholashda qo‘llash uchun yetarli ma’lumot mavjud bo‘lgan baholash usullaridan foydalanishlari kerak bo‘ladi. Bugungi kunda keng qo‘llaniladigan baholash usullari bozor yondashuvi, sarf yondashuvi va daromad yondashuviga asoslangan usullar hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval: 13-son MHXSga muvofiq haqqoniy qiymatni baholashda qo‘llaniladigan baholash usullari1

№	Baholash usuli	Tavsifi
1	Bozor yondashuvi	Bu yondashuv bir xil yoki qiyosiy (o‘xshash) aktivlar va aktivlar guruhini qamrab oladigan bozor operatsiyalari orqali yuzaga keladigan narxlar va boshqa o‘rinli ma’lumotlardan foydalanadi
2	Sarf yondashuvi	Bu yondashuv aktivning xizmat ko‘rsatish quvvatini almashtirishda joriy davrda talab etilishi mumkin bo‘lgan summadir.
3	Daromad yondashuvi	Bu yondashuv kelgusi summalarni yagona joriy (diskontlangan) summaga aylantiradi. Bunda haqqoniy qiymatni baholash ushbu kelgusi summalar bo‘yicha joriy bozor kutishlarini aks ettiradi.

Monografik tadqiqot natijalariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi faoliyatida foydalanilayotgan aktivlarni, xususan biologik aktivlarni haqqoniy qiymatini baholashda bozor yondashuviga asoslangan usullardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu sababli, biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlashda bozor yondashuviga asoslangan quyidagi baholash usullaridan foydalanishni taklif etamiz (1-rasm).



1-rasm: Biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlashda bozor yondashuviga asoslangan baholash usullari2

Yuqoridagi 1-rasmda keltirilgan bozor yondashuviga asoslangan baholash usullaridan foydalangan holda biologik aktivlarni haqqoniy qiymatini aniqlashni quyidagi amaliy yondashuvlar asosida ko‘rsatib o‘tmoqchimiz:

Aytaylik, tadbirkorlik subyekti qishloq xo‘jaligi faoliyatida foydalanilayotgan biologik aktivlar haqqoniy qiymatini baholashda quyidagi usullardan foydalanadi:

- faol bozordagi bozor narxlari. Bu usuldan biologik aktivlar bo‘yicha operatsiyalar uzluksiz ravishda narxlash ma’lumotlarini ta’minlash uchun yetarli davriylik va hajmda sodir bo‘ladigan bozordagi bozor narxlari mavjud bo‘lganda foydalaniladi. Masalan, tadbirkorlik subyekti qishloq xo‘jaligi faoliyatida yetishtirilgan tovar baliq hajmi 1500 kg ni tashkil qildi. 1 kg tovar baliqning faol bozorda narxi 30 000 so‘m. Tadbirkorlik subyektida yetishtirilgan tovar baliqni sotish bilan bog‘liq kutilayotgan xarajatlar (transport xarajatlari, sotish bozorida to‘lanadigan yig‘im va boshqa to‘lovlar) 5 000 000 so‘m sifatida baholandi. Mazkur holatda, tadbirkorlik subyektida yetishtirilgan jami tovar baliq hajmining haqqoniy qiymati

  40 000 000 ((1500 x 30 000) – 5 000 000) so‘mga teng bo‘ladi.

- o‘xshash aktivlarning bozor narxlari. Bu usulda faol bozordagi o‘xshash aktivlar bo‘yicha narxlardan, agarda faol bozor mavjud bo‘lmasa, mavjud bozorlardagi bir xil yoki o‘xshash aktivlar bo‘yicha narxlardan foydalaniladi. Masalan, tadbirkorlik subyektida 100 bosh simmental zotli sigirlar mavjud. Mazkur biologik aktivlar uchun faol bozor mavjud emas. Ammo, yaqinda mavjud bozorda shunga o‘xshash xususiyatga ega bo‘lgan sigirlar boshiga 25 000 000 so‘mdan sotildi. Sigirlarni bozorda sotish bilan bog‘liq kutilayotgan xarajatlar 20 000 000 so‘mga baholandi. Ushbu vaziyatda, 100 bosh simmental zotli sigirlarning haqqoniy qiymati

  2 480 000 000 ((100 x 25 000 000) – 20 000 000) so‘mni tashkil etadi.


1 13-son “Haqqoniy qiymatni baholash” MHXSga muvofiq muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
2 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlash bo‘yicha yana ko‘plab misollar keltirish mumkin. Shuni aytib o‘tish joizki, tadbirkorlik subyekti biologik aktivlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda haqqoniy qiymatni baholashda bir yoki bir nechta baholash usullaridan foydalanishlari mumkin. Chunki, biologik aktivlar bo‘yicha faol bozor mavjud bo‘lganda, undagi narxlar orqali baholashdagina yagona baholash usulidan foydalanish o‘rinli bo‘ladi. Shu bois, biologik aktivlarni baholash sanasida qo‘llanilgan mulohazalar turlicha bo‘lishi mumkin. Bu esa, biologik aktivlar haqqoniy qiymatini baholashda quyidagilarni aniqlashni talab etadi:

- baholashning predmeti bo‘lgan muayyan biologik aktivning mavjudligi;
- biologik aktivni haqqoniy qiymatini baholash uchun o‘rinli bo‘lgan baholashning dastlabki sharti (uning eng to‘g‘ri va samarali foydalanilishiga mos tarzda);
- biologik aktiv uchun asosiy (yoki eng manfaatli) bozor mavjudligi;
- biologik aktivlarni haqqoniy qiymatda baholash uchun o‘rinli baholash usuli yoki usullari.

Tadbirkorlik subyektida biologik aktivlar haqqoniy qiymatini baholash sanasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan mulohazalardan kelib chiqqan holda biologik aktivlarning har bir turi (guruhi) bo‘yicha o‘rinli baholash usulini tanlaydi. Tanlangan o‘rinli baholash usullari va ularni ishlab chiqishda foydalaniladigan ma’lumot manbalarini tadbirkorlik subyekti o‘zining hisob siyosatida aks ettirishi hamda moliyaviy hisobotda mazkur ma’lumotlarni yoritib berishi lozim.

Albatta, iqtisodchi olimlarning ilmiy-uslubiy asarlarida va monografik tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan tadbirkorlik subyektlarida biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini baholash metodikasi bo‘yicha yondashuvlar keltirilgan. Biroq, keltirilgan yondashuvlar asosan biologik aktivlarni dastlabki tan olish vaqtida biologik aktivlarni haqqoniy qiymatda baholanishi bo‘yicha yondashuvlar hisoblanadi. Shuningdek, ayrim iqtisodchi olimlarning ilmiy-uslubiy asarlari sharhi shuni ko‘rsatadiki, biologik aktivning haqqoniy qiymati bilan uni moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymati bir xil tushuncha sifatida yondashilgan. Vaholanki, bu tushunchalar bir-biridan farqlanadi. Biologik aktivning haqqoniy qiymati uni baholashda foydalaniladigan ma’lumot manbalari asosida o‘rinli baholash usuli orqali baholangan qiymat hisoblanadi. Biologik aktivni moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymat esa, biologik aktivning haqqoniy qiymatidan uni sotish bilan bog‘liq kutilayotgan xarajatlarni chegirish asosida shakllantiriladi hamda moliyaviy hisobot axborotlaridan foydalanuvchilarga mazkur qiymat bo‘yicha ma’lumotlar oshkor qilinadi. Shu o‘rinda, biologik aktivlarni moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymatini shakllantirishning quyidagi modelini taklif etamiz (2-rasm).



2-rasm: Biologik aktivlarni moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymatini shakllantirish modeli[3]

Endi, ushbu model yordamida biologik aktivlarning moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymatini shakllantirish tartibini quyidagi amaliy misol yordamida yoritib bermoqchimiz. Aytaylik, tadbirkorlik subyektining chorvachilik tarmog‘ida 100 bosh yirik shoxli chorva mollari mavjud. Ushbu chorva mollarining haqqoniy qiymati 2 000 000 000 so‘m sifatida baholangan. Chorva mollarini bozorda sotish bilan bog‘liq kutilayotgan xarajatlar quyidagicha baholandi:

3 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

- transport xarajatlari – 20 000 000 so‘m;
- sotish bozorida to‘lanadigan yig‘im – 10 000 000 so‘m.

Mazkur vaziyatda, yuqoridagi modelga asoslangan holda tadbirkorlik subyekti biologik aktivi bo‘lgan chorva mollarining moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymatini shakllantiradigan bo‘lsak, u 1 970 000 000 (2 000 000 000 – (20 000 000 + 10 000 000)) so‘mni tashkil qiladi. Demak, tadbirkorlik subyekti 100 bosh yirik shoxli chorva mollari qiymatini biologik aktiv sifatida moliyaviy hisobotda 1 970 000 000 so‘m sifatida aks ettirishi lozim.

Fikrimizcha, biologik aktivlar qiymatining mazkur model asosida moliyaviy hisobotda aks ettirilishi, biologik aktivlar bo‘yicha axborotning to‘g‘ri taqdim etilishini va u bo‘yicha moliyaviy hisobotda ma’lumotlarni yoritib berish axborotdan foydalanuvchilarga tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

XULOSA

Shunday qilib, biologik aktivlarni tan olish va baholashning uslubiy asoslarini tadqiq qilib o‘rganish natijasida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

- xalqaro va milliy tajribalar asosida biologik aktivlarni aktiv sifatida tan olish shartlari, haqqoniy qiymat, bozor ishtirokchilari, operatsiya, aktiv yoki majburiyat va narx atamalari tasniflangan holda tavsiflab berildi. Bu albatta, yuqoridagi tan olish shartlari va atamalarni amalda to‘g‘ri talqin qilgan holda qo‘llash imkonini beradi;
- 13-son MHXSga muvofiq biologik aktivlarni haqqoniy qiymatini baholashda hamda yoritib beriladigan ma’lumotlarda izchillik va qiyosiylikni ta’minlash maqsadida foydalaniladigan ma’lumot manbalari toifalarga ajratildi va ulardan foydalanish tartibi asoslab berildi;
- haqqoniy qiymatni baholashda qo‘llaniladigan baholash usullari tavsiflab berildi hamda biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlashda bozor yondashuviga asoslangan baholash usullari taklif etildi. Mazkur taklif etilgan usullardan foydalangan holda biologik aktivlar haqqoniy qiymatini baholash tartibi amaliy ma’lumotlar asosida ochib berildi. Shuningdek, tadbirkorlik subyekti baholash sanasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan mulohazalardan kelib chiqgan holda biologik aktivlarning har bir turi (guruhi) bo‘yicha o‘rinli baholash usullarini tanlashi hamda ularni ishlab chiqishda foydalaniladigan ma’lumot manbalarini hisob siyosatida aks ettirishi va moliyaviy hisobotda mazkur ma’lumotlarni yoritib berishi lozimligi asoslandi;
- biologik aktivlarni moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymatini shakllantirish modeli taklif etildi. Bizningcha, mazkur model biologik aktivlar qiymati to‘g‘risida axborot moliyaviy hisobotda to‘g‘ri taqdim etilishini va foydalanuvchilarga taqdim etilgan moliyaviy hisobotda biologik aktivlar to‘g‘risida yoritilgan axborotlar tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 41-son “Qishloq xo‘jaligi” Buxgalteriya hisobi xalqaro standarti (BHXS). https://lex.uz/uz/docs/6312360 (24.01.2024)
2. 13-son “Haqqoniy qiymatni baholash” Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) https://lex.uz/uz/docs/6312360 (24.01.2024)
3. B.Yu.Menglikulov Chorvachilikda biologik aktivlarni saqlash xarajatlari hisobi, tannarx hisoblash va auditi metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. – T.: 2023. – 29 b.
4. Temirov F.T. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2021. – 22 b.
5. S.N.Tashnazarov O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tishdagi muammolar va hal qilish yo‘llari. “Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o‘tish va xalqaro tajribani o‘zbekistonda qo‘llashning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy - amaliy anjuman maqolalar to‘plami. Toshkent – “Iqtisodiyot” – 2022. -335 b.
6. Rubén Dario Marrufo Garcia, Abel Maria Cano Morales. Accounting treatment of biological assets and agricultural products. “Visión de Futuro” Año 18, Volumen Nº 25 Nº 2, Julio – Diciembre 2021 – Pág 63 – 86.
7. Iluta Arbidane, Iveta Mietule. Problems and solutions of accounting and evaluation of biological assets in Latvia. Entrepreneurship and Sustainability Issues, 2018, 6 (1), pp.10-22. 10.9770/jesi.2018.6.1(1). hal-01947873.
8. Ситдикова Л.Ф. Развитие учета биологических активов в сельскохозяйственных организациях. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Нижний Новгород – 2013. 12-14 ст.
9. Агошкова Н.Н. Совершенствование учета воспроизводства внеоборотных биологических активов в сельском хозяйстве // Международный бухгалтерский учет. 15 (261) – 2013. – 23 ст.
10. Куликова Л.И. Международные стандарты финансовой отчетности. Нефинансовые активы организации: учеб. пособие. – М.: ИНФРА-М, 2012. – 331 с.



AGROSANOAT ISHLAB CHIQARISHIDA INNOVATSION JARAYONLARNI TADQIQ QILISHGA USLUBIY YONDASHUVLARI

Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich
PhD, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Real iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Agrosanoat ishlab chiqarishi xo‘jalik yuritish subyektlarini tashkil qilish va ishga tushirish o‘rtacha muddati ikki yilni tashkil qilishini hisobga olib, hududlar darajasida innovatsion faolligini baholash usullari hududning iqtisodiy rivojlanishi o‘rtacha muddat tendensiyalarini prognozlash va ekonometrik usullardan foydalangan holda ilmiy hisoblash masalalari ko‘tarilgan.

Kalit so‘zlar: Agrosanoat majmuasi, agrosanoat klasteri, klaster, raqobatbardoshlik, innovatsiya, innovatsion faoliyat, modernizatsiya, innovatsion infratuzilma, iqtisodiy-matematik modellashtirish, prognozlashtirish.

Abstract: In this article, taking into account that the average period of establishment and start-up of agro-industrial production entities is two years, the methods of evaluating innovation activity at the regional level, forecasting the average period trends of economic development of the region and scientific calculation using econometric methods are raised.

Key words: Agro-industrial complex, agro-industrial cluster, cluster, competitiveness, innovation, innovative activity, modernization, innovation infrastructure, economic mathematical modeling, forecasting.

Аннотация: В данной статье, учитывая, что средний срок создания и запуска агропромышленных производственных предприятий составляет два года, предложены методы оценки инновационной активности на региональном уровне, прогнозирования среднепериодных тенденций экономического развития региона и научные расчеты с использованием эконометрических методов.

Ключевые слова: Агропромышленный комплекс, агропромышленный кластер, кластер, конкурентоспособность, инновации, инновационная деятельность, модернизация, инновационная инфраструктура, экономико-математическое моделирование, прогнозирование.

KIRISH

Mamlakatimizda yuz berayotgan iqtisodiy munosabatlarni isloh qilish va xo‘jalik yuritishning yangi bozor sharoitlarining rivojlanish jarayonlari agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion faoliyatini tashkil etish, qayta ishlash korxonalarini joylashtirish tamoyil va usullariga yangicha yondashuvni talab etadi.

Innovatsion jarayonni baholash va uning samaradorligini belgilash ham butun, ham alohida bosqichlarda amalga oshirilishi kerak. Bunday yondashuvga ehtiyoj, innovatsion jarayonni amalga oshirish uchun sarf-xarajatlar va xarajatlarni doimiy ravishda yakuniy bosqichida emas, balki barcha oraliq bosqichlarda doimiy xarajatlarni talab qiladi. Bosqichma-bosqich baholash natijalari butun innovatsion jarayonning samaradorligini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi: g‘oyaning boshlanishi, ilmiy tadqiqotlar olib borilishi va innovatsiyalarni qishloq xo‘jaligining rivojlanishi uchun yaratilishi tovar ishlab chiqaruvchilari va bevosita muayyan qo‘shimcha ta’sirlarni ishlab chiqarishda foydalanishlari mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

B.Z. Milnera "Экономика, интеллектуалние ресурси, управление знаниями" nomli ilmiy maqolasida takidlashicha Axborot texnologiyalarini qo‘llash va ularni davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi manfaatlarini ko‘zlab foydalanish mamlakatni jahon hamjamiyatidagi raqobatbardoshlik darajasini belgilaydi. Rivojlangan mamlakatlarda YAIMning 80-95 foizi mashinasozlik va texnologiya sohasidagi yangi bilimlar asosida hisobga olinadi. Ushbu mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyot rivojlanmoqda. [1]

Cindarov Sh.E o‘z dissertatsiya ishida O‘zbekistonda modernizatsiya qilishning o‘ziga xos tomoni shundaki, u nafaqat iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga, balki iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish uchun yangi institutsional muhitni shakllantirishga qaratilgan deb takidlamoqda. [2]

Nizamov A.B. "Совершенствование системи управления региональной экономикой в условиях устойчивого экономического роста" nomli dissertatsiyasida Agrosanoat ishlab chiqarishi faoliyatini SWOT-tahlil vositasida baholash dolzarb ahamiyat kasb etibgina qolmasdan, metodologik nuqtayi nazardan to‘g‘ri, deb hisoblaydi. [3]

Tompson A.A., Striklend A.D. "Стратегический менеджмент: искусство разработки и реализатсии стратегии" nomli maqolasida SWOT – tahlil mintaqalarda agrosanoat ishlab chiqarishini rivojlanishini tartibga solish jarayonida u yoki bu mintaqa uchun rivojlanishning iqtisodiy strategiyasini shakllantirish muhim omil sanaladi deb takidlagan. [4]


B.O.Dusmatov “Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish” mavzusidagi dissertatsiya ishida Agrosanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishni tadqiq qilish usullarini tuzib chiqgan. [5]

B.O.Dusmatov “Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish” mavzusidagi dissertatsiya ishida Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish o‘sishi samaradorligini baholash uchun indikatorlar tizimi. [6]

Rashidova G. Finansirovaniye startovogo etapa innovatsiy nomli maqolasida Agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion loyihalarini baholash, loyihaviy boshqaruv yondashuvining asosi naqd pul oqimining baholash tamoyili deb hisoblaydi. [7]

TAHLIL VA NATIJALAR

Agrosanoat ishlab chiqarishi tarmoqlarini rivojlantirish xususiyatlarini bosqichma-bosqich kompleksli o‘rganishga tayanadigan tizimli tahlil usullari mintaqa korxonalari va tashkilotlarining tarmoq strukturasini tadqiq etishga, ularning ichki aloqalari va o‘zaro munosabatlarini tahlil qilishga imkon beradi (1-rasm).



1-rasm: Agrosanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishni tadqiq qilish usullari

Mintaqa qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligini miqdor va sifat jihatdan baholash uchun quyidagi indikatorlar tizimi shakllangan (2-rasm).

Asosiy indikatorlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi o‘sishining tayanch parametrlarini tavsiflaydi va quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish o‘sishini rivojlantirish maqsadi va vazifalarni aniqlashtiradi;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tarkibining samaradorligini baholaydi;
- hududiy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tarkibining samaradorligini baholaydi;
- qishloq xo‘jaligida investitsiyalardan samarali foydalanishni belgilaydi;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish rivojlanishning innovatsion strategiyasi yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi;
- boshqaruv qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish jarayonlarda axborot oqimlarining tezkorligi va natijaviyligini ta’minlaydi;
- mintaqaning turli hududlarida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish rivojlanishini taqqoslama baholashni olib borishga imkon beradi va h.k.

	Mutlaq ko‘rsatkichlar
1.	Qishloq xo‘jaligining yalpi qo‘shilgan kiymati, mlrd.so‘m.
2.	Qishloq xo‘jaligining eksporti, mln.doll.SSHA
3.	Qishloq xo‘jaligining importi, mln.doll.SSHA
4.	Qishloq xo‘jaligida band bo‘lganlar soni, ming kishi
5.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqarishning tarkibi, mlrd.so‘m
6.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ekin maydonlari, ming ga
7.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosildorligi, s ga
8.	Don ekinlari yalpi hosili, ming tn.
9.	Paxta yalpi hosili, ming tn.
10.	Poliz, meva uzum mahsulotlari eksporti, mln.doll.SSHA
11.	Qishloq xo‘jaligiga jalb kilingan investitsiyalar hajmi, mlrd.so‘m.
12.	Chet el investitsiyalari va kreditlari hajmi, mlrd.so‘m.
13.	Innovatsion infratuzilma subyektlari soni, ming dona.
14.	Fermer xo‘jaliklarini ishlab chiqarayotgan mahsuloti, mlrd.so‘m.
15.	Fermer xo‘jaliklaridagi sug‘oriladigan yerlar,ming ga.
16.	Qishloq hududlarida internetdan foydalanuvchila soni, ming kishi.
17.	Dehqon xo‘jaliklari mahsuloti,mlrd.so‘m
18.	Dehqon xo‘jaliklarida hosildorlik, s/ga
19.	Innovatsion infratuzilma subyektlari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi, mlrd.sum
20.	Chorvachilik mahsulotlari, mlrd.so‘m
21.	Mehnat unumdorligi, so‘m/ming kishiga
22.	Ilmiy tadqiqotlarga bo‘lgan xarajatlar, mlrd.so‘m.
	Nisbiy ko‘rsatkichlar
1.	Yalpi ichki mahsulotda qishloq xo‘jaligini ulushi, %
2.	Hudud qishloq xo‘jaligida band bo‘lganlar sonini iqtisodiyotda band bo‘lganlarga nisbatan ulushi,%
3.	Qishloq xo‘jaligini tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ulushi,%
4.	Aholi jon boshiga eksportning hajmi, doll.
5.	Qishloq xo‘jaligi eksportiningo‘sish dinamikasi, %
6.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotiningo‘sish dinamikasi, %
7.	Investitsiyalarda qishloq xo‘jaligining ulushi, %
8.	Fermer xo‘jaliklarining ulushi, %
9.	Fermer xo‘jaliklarining don yetishtirishdagi ulushi, %
10.	Fermer xo‘jaliklarining paxta yetishtirishdagi ulushi, %
11.	Hududning asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari,%
12.	Fermer xo‘jaliklaridagi sug‘oriladigan yerlar ulushi, %
13.	Dehqon xo‘jaliklarining ulushi, %
14.	Chorva soning ulushi, %
15.	Chorvachilik mahsulotlarining ulushi, %
16.	Aholi jon boshiga qishloq xo‘jaligi mahsulotining hajmi, ming so‘m
17.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari rentabelligi, %
18.	Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarga qilinayotgan xarajatlar ulushi, %
	Integral ko‘rsatkichlar
1.	Ixtisoslashtirish koeffitsiyenti, %
2.	Mahalliylashtirish koeffitsiyenti, %
3.	Asoiy ko‘rsatkichlarni aholi jon boshiga nisbatan differensiatsiyasi, rang
4.	Mahsulotlar bo‘yicha raqobatbardoshlik koeffitsiyenti, %
5.	Tumanlarning raqobatbardoshligi bo‘yicha reyting bahosi, rang
6.	Klasterlash koeffitsiyenti, %

2-rasm: Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish o‘sishi samaradorligini baholash uchun indikatorlar tizimi

Iqtisodiy-matematik modellashtirish usullari hududiy iqtisodiy jarayonlar borasida boshqaruv qarorlari qabul qilish bilan bog‘liq shartlar va omillar o‘rtasidagi aloqalar xilma-xilligi va murakkabligida qo‘llanadi. Iqtisodiy-matematik modellardan foydalanish qishloq xo‘jalik va qayta ishlash, ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish variantlarini optimal tanlash imkoniyati bilan birgalikda qayta ishlashga imkon beradi.

Ekonometrik usullar hududni taqqoslash mumkin bo‘lgan yoki iyerarxik jihatdan bir-biriga bo‘ysunadigan guruhlarga bo‘lishni nazarda tutadi va agrosanoat majmui tarmoqlarining rivojlanishiga ta’sir etadigan tanlab olingan ko‘rsatkichlar yig‘indisi bo‘yicha tumanlar yoki mintaqani kompleksli baholash imkoniyatini taqdim etadi.

Agrosanoat ishlab chiqarishi xo‘jalik yuritish subyektlarini tashkil qilish va ishga tushirish o‘rtacha muddati ikki yilni tashkil qilishini hisobga olib, hududlar darajasida innovatsion faolligini baholash usullari hududning iqtisodiy rivojlanishi o‘rtacha muddat tendensiyalarini hisobga olgan holda qo‘llanishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, hudud agrosanoat ishlab chiqarishiga innovatsiyalarni jalb qilishda, nafaqat joriy vaziyatni, balki tadqiq etilayotgan hudud rivojlanishidagi asosiy tendensiyalarni ham hisobga oladigan o‘rta muddatli (3-5 yil) xarakterdagi istiqbolli prognozlar mavjud bo‘lgan sharoitlarda qaror qabul qilinishi lozim.

Shu munosabat bilan hudud iqtisodiyotida prognoz qilishning mavjud usullarini tahlil qilish va o‘tkazilgan izlanish maqsadlariga eng to‘g‘ri keladigan vositalarini tanlash amalga oshiriladi. Iqtisodiy bashorat qilish usuli deganda restrospektiv ma’lumotlarni tahlil qilish asosida u yoki bu omillar toifasi bo‘yicha hudud agrosanoat majmuasi tarmoqlarining kelajakdagi rivojlanishi borasida takliflar ilgari surishga imkon beradigan tadqiqot usullari yig‘indisi tushuniladi.

Taklif etilayotgan tasnifda mintaqada agrosanoat ishlab chiqarishini tadqiq etishda barcha bashorat usullarini ikki guruhga bo‘lish mumkin: ekspert va ekonometrik usullar.

Bashorat qilishning ekspertlar usullari, odatda, bashorat obyekti yoki juda ham sodda, yoki o‘ta murakkab (turli omillar ta’sirini tahliliy hisobga olish imkoni yo‘q) bo‘lgan hollarda foydalaniladi.

Ekonometrik usullarni bashorat obyekti haqida miqdoriy axborot mavjud bo‘lganda, xilma-xil omillar ta’sirini esa matematik ifodalangan qonuniyatlar yordamida tavsiflash mumkin bo‘lgan hollarda qo‘llash afzalroq. Ushbu usullar guruhiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ekstrapolyatsiya usullari (jumladan, funksiyani tanlash usullari, o‘rtacha qiymatga keltirish usullari va moslashuvchan tekislash usullari);
- modellashtirish usullari (jumladan, matritsali, optimal bashorat qilish, ekonometrik va imitatsiya modellari);
- tarixiy o‘xshatish usuli (ko‘pincha bashorat qilish obyekti bo‘yicha retrospektiv axborot bo‘lmagan hollarda qo‘llanadi).

Asosiy ko‘rsatkichlar respublika iqtisodiyotining agrar sektorini innovatsion rivojlantirishning asosiy parametrlarini tavsiflaydi:

- sohaning innovatsion rivojlanishining maqsad va vazifalarini belgilash;
- agrar sektorning innovatsion salohiyatining samaradorligini baholash;
- iqtisodiyotning agrar sektorini innovatsion rivojlantirish darajasini omilli tahlil qilish;
- sohaning innovatsion salohiyatidan foydalanish samaradorligini aniqlash;
- qayta ishlash sanoatini innovatsion rivojlantirish strategiyasining yo‘nalishini to‘g‘ri deb belgilash.

Ushbu ko‘rsatkichlar tizimining maqsadlari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotning agrar sektorining bugungi innovatsion rivojlanish holatini, yo‘nalishlari va xususiyatlarini tahlil qilish; shu asosda sanoatning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy muammolari va davlat va mintaqaviy innovatsiya siyosatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqish;
- ilmiy tadqiqot samaradorligini muntazam ravishda monitoring qilishni tashkil qilish ilmiy-texnikaviy mahsulotlarning uzluksiz integratsiyalangan iqtisodiy baholashini talab qiladi. Ushbu baholashning maqsadi – ishlab chiqilayotgan yangi texnologiyalarning, urug‘larni, naslli mollarni va boshqa innovatsion yechimlarining afzalliklarini aniqlash va ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlashdir.

Ishlab chiqarishda innovatsiyalarni o‘zlashtirish bosqichidagi samaradorlik mezonlari quyidagilardir:

- texnologiyalarni yangilash hisobiga ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni;
- ishlab chiqarish omillarining unumdorligini oshirish (yerdan foydalanish darajasi, ishlab chiqarish jarayonida mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish va boshqa indikatorlar qo‘llaniladi);
- agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion loyihalarini baholash, loyihaviy boshqaruv yondashuvining asosi naqd pul oqimining baholash tamoyili hisoblanadi.

Innovatsion loyihalarni diskontlash asosida hisoblash usullari asosida samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari investitsion xarajatlar va daromadlarni ko‘rib chiqilayotgan davrning muayyan intervallarida majburiy ravishda diskontlashini ta’minlaydi. Shu bilan birga, statistik hisob-kitob usullari asosida baholovchi ko‘rsatkichlar vaqt va xarajatlar bo‘yicha buxgalteriya va ishlab chiqarish ma’lumotlarini ularni vaqtincha diskontlashsiz ishlatishni nazarda tutadi.

Zamonaviy investitsiya dasturida diskontli hisob-kitob usullaridan foydalanishga asoslangan loyihalarning samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari ustuvor hisoblanadi. Ularning bajarilishi uzoq muddatli bo‘lgan barcha o‘rta va yirik loyihalar uchun hisoblash kerak. Statistik usullardan foydalanishga asoslangan ko‘rsatkichlar, odatda, kichik qisqa muddatli loyihalarning samaradorligini baholash uchun ishlatiladi.

Investitsiyalar samaradorligini baholash uchun statistik ko‘rsatkichlar bir tomondan juda sodda va tushunarli, ikkinchidan, taxminan. Ular pul mablag‘lari oqimlari va pul birliklari qiymatining o‘zgarishi haqida o‘ylamaydilar va shuning uchun asosan qisqa muddatli investitsiyalarni tahlil qilish yoki davr boshida investitsiyalarni amalga oshirish uchun indikativ mezon sifatida qo‘llaniladi.

Diskontlangan ko‘rsatkichlar tizimiga quyidagilar kiradi:

1. **Bugungi kunda sof daromad - [Net Present Value, NPV]** innovatsion loyiha samaradorligini umumiy xarakteristikasini olish imkonini beradi, ya’ni uning mutlaq miqdordagi hajmini yakuniy natijasini ko‘rsatadi. Bugungi kundagi aniq daromad, loyihani amalga oshirish davrida hozirgi qiymatdan tushirilgan sof pul oqimi summasi va uni amalga oshirish uchun investitsiya xarajatlarining summasi o‘rtasidagi farqni anglatadi. Ushbu ko‘rsatkichni xarajatlarni bir martalik amalga oshirishda hisoblash quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi.

$$NPV = \sum_{t=1}^{n} \frac{CF}{(1+i)^t} - I_0$$

Bunda: NPV -investitsiya xarajatlarini bir martalik bajarish uchun loyihaning sof joriy qiymatining summasi;
CF - loyihaning umumiy amal qilish muddatining individual intervyusi uchun pul oqimining aniq summasi;
I - loyiha uchun bir martalik investitsiya xarajatlari summasi;
i - diskontlangan foiz stavkasi;
n - umumiy hisob-kitob davridagi interval t- oralig‘ida.

2. **Rentabellik indeksi (Profit ability index, PI)** loyiha uchun kelajakda aniq pul oqimlari bilan investitsiya xarajatlarining hajmini moslashtirish imkonini beradi. Innovatsion loyiha uchun bir martalik investitsiya xarajatlari bilan bunday ko‘rsatkichni hisoblash quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi:

$$PI = \frac{\sum_{t=1}^{n} \frac{CF_t}{(1+i)^t}}{I_0}$$

PI- bir investitsiya sarfi uchun loyiha rentabellik indeksi darajasi.

3. **Diskontlangan qayta to‘lov muddati (Discounted Payback Period, DPP)** – loyihalarning samaradorligini baholash uchun eng keng tarqalgan va aniq ko‘rsatkichlardan biridir. Diskontlangan o‘zini qoplash muddati quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$DPP = \frac{I_0}{\sum_{t=1}^{n} \frac{CF_t}{(1+i)^n xt}}$$

4. **Daromadlilikning ichki stavkasi (Internal Rate of Return, IRR).** Loyiha natijalarini baholashning eng murakkab ko‘rsatkichi. Investitsiya xarajatlari haqiqiy qiymatiga tushiriladigan diskont stavkasi sifatida ifodalangan ma’lum bir loyihaning rentabellik darajasini tavsiflaydi.
Ushbu indikatorning qiymati quyidagi tenglama bilan bilvosita aniqlanadi:

$$PV = \sum_{t=1}^{n} \frac{CF_t}{(1+IRR)^t} - \sum_{t=1}^{n} \frac{I_t}{(1+i)^t} = 0$$

Agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion faoliyatni axborot va tahliliy qo‘llab-quvvatlash samaradorligini oshirish tizimli va funksional tahlil (axborot xizmatlarini tarkibiy qismlarini aks ettiruvchi) asosida amalga oshirildi va axborot xizmatlarining samaradorligini baholash (result, recourse, rate, promotion) usuli taklif etildi.

Axborot-taxliliy va marketing platformasini samaradorlikni tayanch ko‘rsatkichlari (KPI) tizimidan foydalanish uning yaratish maqsadlari qay darajada bajarilganligini aniqlash uchun foydalanadigan ma’lumotlar majmuasidan iboratdir. Bular qatoriga quyidagilar kiradi:

a) natijaviylik (result):
- investitsiya qaytimi (ROMI -return on marketing investment),xarajatlarning rentabelligi;
- portaldagi xizmatlardan to‘lovni amalga oshirib aniq foydalnganlar soni;
- ma’lum bir vaqt ichida portalga umumiy kirganlar va uning xizmatlaridan foydalanganlarni nisbati;
- resurslardan “doimiy” foydalanuvchilarning umumiy soni;
- foydalanuvchilar tomonidan portaldan yuklab olingan hujjatlar soni.

b) xizmatlardan foydalanish tariflari (rate):
- tashrif buyuruvchilarni (bir foydalanuvchi uchun) jalb qilish qiymati (CPC-cost per click);
- internet-resursdan foydalanuvchi tomonidan bajariladigan har bir maqsadli amallarning narxi;
- resurslardan “doimiy” foydalanuvchilar uchun maxsus tariflarda ko‘rstiladigan xizmatlar.

d) portal reytingini baholash (recourse):
- portalga tashrif buyuruvchilarning umumiy soni;
- maqsadli tashriflar soni, bu foydalanuvchilar portal sahifasi bilan necha marta o‘zaro aloqada bo‘lganligini ko‘rsatadi;
- yangiliklarga obuna bo‘lgan, xabar qoldirgan foydalanuvchilar soni yoki ularning kontaktlari;
- yuridik maqomga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning umumiy soni;
- foydalanuvchi portalnitark etadigan vaqtning o‘rtacha davomiyligi.

e) portalni rivojlantirish salohiyati (promotion):
- moslashuvchanlik -foydalanuvchilarning kontentga muammosiz kirishni ta’minlash;
- navigatsiya qulayligi-foydalanuvchi kerakli ma’lumotlarni tez topishini ta’minlash;
- interfeys va dizayn – portal xaqida ijobiy fikr yaratish;
- kontentning mazmuni ma’lumotlar sifatli va axborot mazmuni foydalanuvchilarni jalb qilishi kerak;
- yuklab olish tezligi – foydalanuvchi tarafidan qisqa vaqt ichida portal resurslarini yuklash imkoniyati bo‘lishi kerak;
- foydalanuvchilar bilan bog‘lanish- qayta aloqani sifatli tashkil qilish internet-resursga muntazam tashrif buyuruvchilar doirasini kengaytirish imkonini beradi;
- reklama-portalning reklama jozibadorligini oshirish, lekin bu jarayon portalning asosiy maqsadini amalga oshirishga to‘sqinlik qilishi kerak emas;
- mobil qurilmalarlar uchun moslashtirilgan dizayn versiyasini yaratish;
- ijtimoiy tarmoqlar bilan integratsiya- bu foydalanuvchilarning ijtimoiy tarmoqlarda akkauntlarini mavjudligini hisobga olgan holda foydalanuvchilar imkoniyatini kengaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa va taklif sifatida shuni aytishimiz mumkinki, so‘nggi yillarda agrosanoat ishlab chiqarishda innovatsion qarorlarni qabul qilishni xalqaro moliya tashkilotlarida qo‘llaniladigan loyihaviy tahlil uslublari asosida yondashish keng tarqalgan. Rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqilgan usullar amaliy maqsadlar uchun taqdim etilgan muqobil variantlardan eng yaxshi innovatsion loyihalarni tanlash imkoniyatlarini beradi. Moliyalash uchun mo‘ljallangan innovatsion loyiha, odatda, texnik, texnologik, institutsional, ijtimoiy, marketing, ekologik va moliyaviy jihatlarni, xavf va noaniqlik darajasini hisobga olgan holda qat’iy talablarga javob berishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Б.З. Мильнера Инновационное развитие: Экономика, интеллектуальные ресурсы, управление знаниями / под общ.ред.–М.: ИНФРА-М, 2010. –624 с.
2. Синдаров Ш.Э. Экономический механизм использования инновационных процессов в предпринимательской деятельности Республики Узбекистан.Автореф. дис. на соис. ученой степени канд. экон. наук. –Т.: ИЭ АН РУз. 2010, с.25.
3. Низамов А.Б. Совершенствование системы управления региональной экономикой в условиях устойчивого экономического роста. Диссертация на соискани^уч.ст. доктора экономических наук. –Т.: 2008. –С. 268.
4. Томпсон А.А., Стрикленд А.Д. Стратегический менеджмент: искусство разработки и реализации стратегии. –М.: Банки и биржи. ЮНИТИ, 1998. –С. 39
5. B.O.Dusmatov “Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish” mavzusidagi dissertatsiya ishidan 2021-y.43-b.
6. B.O.Dusmatov “Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish” mavzusidagi dissertatsiya ishidan 2021-y. 44-b.
7. Рашидова Г. Финансирование стартового этапа инноваций // Экономическое обозрение. – Ташкент, 2010.–№3.–С.32-36.



SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA SUV SOLIG‘INING AHAMIYATINI OSHIRISH

Ikramov Nuriddin Kamolitdinovich
O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi yetakchi inspektori

Annotatsiya: Suv resurslarining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati, ulardan samarali va oqilona foydalanish zarurati va shart-sharoitlari tadqiq qilingan. Shuningdek, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasi va stavkalari tahlil qilinib, ularni takomillashtirishga doir fikr-mulohazalar keltirilgan. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning pasaytirilgan stavkalarini va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash yuzasidan taklif-tavsiyalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: suv resurslari, suv iste’molchilari, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalar, soliq stavkalari.

Abstract: This research examines the importance of water resources in the socio-economic development of the country, the need and conditions for the effective and rational use of water resources. Moreover, the taxation base and tax rates for the use of water resources were analyzed, and a comprehensive discussion for their improvement was conducted. Also, the paper provides proposals and recommendations for the application of reduced tax rates and increased tax coefficients for the tax for using water resources.

Key words: water resources, water consumers, tax for the use of water resources, modern water-saving technologies, tax rates.

Аннотация: В статье исследованы вопросы значимости водных ресурсов в социально-экономическом развитии страны, необходимости и условия эффективного и рационального использования водных ресурсов. Также, проанализированы налогооблогаемая база и налоговые ставки за пользование водными ресурсами, проведен всесторонний анализ по их совершенствованию. В статье даны предложения и рекомендации по применению пониженных ставок и повышенных коэффициентов налога за пользование водными ресурсами.

Ключевые слова: водные ресурсы, потребители воды, налог за пользование водными ресурсами, современные водосберегающие технологии, налоговые ставки.

KIRISH

Jamiyat a’zolarining toza ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish hozirgi vaqtda ko‘pgina mamlakatlarning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, aholining toza ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojlarini ta’minlanganlik darajasi ko‘p jihatdan ular yashayotgan hududning geografik joylashuviga bog‘liq. Shunday bo‘lsada, iste’molchilarning suv resurslaridan foydalanishini tartibga solish, suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng qo‘llash, suvdan foydalanishni iqtisodiy mexanizm orqali tartibga solish ulardan tejamkorlik asosida foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z foydalanishida suv o‘lchagich asboblari bo‘lgan va bo‘lmagan iste’molchilarning suvdan foydalanishga munosabati turlichadir. Suv o‘lchagich asboblari bo‘lgan iste’molchilar suvdan imkon darajasida tejab foydalanishga harakat qiladilar. Chunki suvdan qancha ko‘p foydalansa suv uchun to‘lov miqdori ham shunga mutanosib ravishda oshib boradi. Suv o‘lchagich asboblari bo‘lmagan iste’molchilarda esa buning aksini ko‘rish mumkin. Shundan kelib chiqib, so‘nggi yillarda suvdan foydalanishda zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradoligini oshirish maqsadida “Barcha ichimlik suv iste’molchilariga hisoblagichlar o‘rnatishni ta’minlash” [1] vazifasi belgilangan. Bu orqali suvdan foydalanishni nazorat qilish imkoniyati yaratiladi.

Respublikamizda suv resurslarining tanqisligi kuchayib borayotgan bir sharoitda, ulardan yanada samarali va oqilona foydalanishni ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy mexanizmga ustuvorlik berish zarur. Bunda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq mexanizmida iste’molchilarning suvdan samarali foydalanishini rag‘batlantirishga qaratilgan elementlar o‘z ifodasini topmog‘i kerak.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Respublikamizda asosiy suv manbayi daryolar hissasiga to‘g‘ri keladi. “O‘zbekiston Respublikasi Orol dengizi havzasida joylashgan bo‘lib, uning asosiy suv manbayi Amudaryo va Sirdaryo daryolari, shuningdek, ichki daryo va soylar hamda yer osti suvlaridir. Orol dengizi havzasidagi barcha manbalarning o‘rtacha ko‘p yillik suv oqimi 116 mlrd kub metrni tashkil etadi, shundan 67,4 foizi Amudaryo havzasida va 32,6 foizi Sirdaryo havzasida shakllanadi. Jumladan, yer osti suvlarining umumiy zaxirasi 31,2 mlrd kub metrni tashkil etib, uning 47,2 foizi Amudaryo havzasiga, 52,8 foizi esa Sirdaryo havzasiga to‘g‘ri keladi” [2]. Bundan ko‘rinadiki, mamlakatda suvga bo‘lgan talabni qondirish ko‘p jihatdan ushbu ikki yirik daryoning suviga bog‘liq. E’tiborli jihati foydalaniladigan yillik suv hajmining 52,0 mlrd.m^3 yoki 80 foizi qo‘shni davlatlar hududida shakllansa, 11,0 mlrd. m^3 yoki 20 foizi O‘zbekiston hududida shakllanadi. Foydalaniladigan suvning 49,9 mlrd.m^3 yoki 96 foizi yer usti suv resurslariga, 0,5 mlrd.m^3 yoki 1 foizi yer osti suvlariga, 1,6 mlrd.m^3 yoki 3 foizi qaytar suvlar hissasiga to‘g‘ri keladi [3]. Demak, mamlakatimizda suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish yildan yilga dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish, qayta tiklash va muhofaza qilishni iqtisodiy tartibga solishning asosiy prinsipi suvdan foydalanishni pullik tizimidir. Bunda suv iste’molchilaridan undiriladagan suv solig‘i fiskal siyosatni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Iqtisodchi-olim G‘.Safarovning fikricha, “Suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni ta’minlashda ulardan foydalanganlik uchun soliq muhim ahamiyatga ega” [4]. Suvdan foydalanganlik uchun soliq orqali tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy faoliyatiga ta’sir ko‘rsatiladi, ya’ni bu jarayonda soliq iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur soliq ko‘p yillar mobaynida undirib kelinayotgan bo‘lsada, o‘zining yetarlicha samarasini ko‘rsatayapti, deb bo‘lmaydi. Buning sabablarini aniqlash uchun esa keng doirada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zarur.

Iqtisodchi-olimlar A.Rasulev, S.Voronin o‘z tadqiqotlarida chet el tajribasi asosida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq muammolarini tadqiq qilib, “cheklangan tabiiy resurslar iste’molini tartibga solishning eng keng tarqalgan iqtisodiy vositasi suv uchun soliq va to‘lovlar ekanligini qayd etgan” [5]. Bu yerda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq suv iste’molini tartibga solishning iqtisodiy vositasi sifatida qaralmoqda. Shuningdek, ular mazkur soliqning fiskal ahamiyatiga ham to‘xtalib o‘tgan: “suvdan foydalanishdan olinadigan daromadlar o‘rmon xo‘jaligi, ovchilik va baliqchilik, tog‘-kon sanoati, tuproqdan foydalanish uchun soliqlar va yig‘imlar (masalan, qum va shag‘aldan foydalanganlik uchun) bilan bir qatorda daromadlarning umumiy toifasiga kiritiladi. So‘nggi 20 yil ichida IHTT mamlakatlarida ushbu tushumlar YAIMning o‘rtacha 0,2 dan 0,1% gacha qismini tashkil etadi” [5].

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq miqdori tovar (ish, xizmat)larning realizatsiyasi yoki korxona faoliyatining muayyan moliyaviy natijalariga bog‘liq bo‘lmay, soliq miqdori iste’mol qilingan suvning hajmi va soliq stavkasi darajasiga bevosita bog‘liq. Iqtisodchi-olim D.Qurbanov o‘z tadqiqotlarida “Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning ta’sirchanligini, boshqa sharoitlar teng bo‘lgan taqdirda, uning stavkasi belgilab beradi” [6], deb hisoblaydi. Darhaqiqat mazkur soliq mexanizmida soliq stavkasi muhim ahamiyatga ega. Shu bois, davlat budjeti parametrlari tasdiqlanayotganda qat’iy miqdorda belgilangan soliq stavkalari, jumladan mazkur soliq stavkalari har yili qayta tasdiqlanadi. “Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining qat’iy miqdorda belgilanganligi, inflatsiyaning ta’siri soliq stavkalarini har yili indeksatsiya qilish zaruratini taqozo etmoqda” [7]. Lekin soliq stavkalarini tadbirkorlik subyektlarining suv resurslaridan samarali foydalanishga ta’siri yetarlicha tadqiq qilinmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma’lumotlarni guruhlash, tizimli tahlil va sintez, ilmiy abstraksiya, taqqoslash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Amaliyotda boshqa soliqlarga nisbatan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq ba’zasini aniqlash va soliq summasini hisoblash bir qadar oson. Lekin respublikamizda bir necha yillardan e’tiboran mazkur soliq undirib kelinayotgan bo‘lsada, uning rag‘batlantiruvchi samarasi unchalik sezilmayapti. Bu esa, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni nazariy jihatdan chuqur asoslashni, amaldagi mexanizmini tahlil qilish asosida uni takomillashtirishni taqazo etadi.

Qayd etilganidek, soliq miqdori soliq bazasi va stavkasiga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga muvofiq yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyekti hisoblanib, foydalanilgan suvning hajmi soliq bazasidir[8]. Demak, mazkur soliq bazasi foydalanilgan suvning hajmidan iborat. Foydalanilgan suvning hajmini aniqlash jarayoni o‘ziga xos murakkabliklarga ega. To‘g‘ri, bugungi kunda suv iste’molchilarining aksariyatida suv hisoblagichlar

o‘rnatilgan. Lekin mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqarida suv iste’molining asosiy qismi, ya’ni 45,9 mlrd.m^3 yoki 90 foizi qishloq xo‘jaligida foydalanilsa, 2,3 mlrd.m^3 yoki 4,5 foizi kommunal xo‘jalikda, 2,2 mlrd.m^3 yoki 4,3 foizi sanoat va energetika sohasida, 0,6 mlrd.m^3 yoki 1,2 foizi baliqchilik sohasida foydalaniladi [3]. Suv iste’molining asosiy qismi qishloq xo‘jaligida foydalanilishini inobatga olib, ichimlik suvi iste’molchilari bilan birga boshqa maqsadlarda foydalanilayotgan suv uchun ham zamonaviy hisoblagichlarni o‘rnatish ayni vaqtda ahamiyatlidir.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy qilish orqali fiskal va rag‘batlantirish vazifalar belgilangan bo‘lsada, mazkur soliq yillar mobaynida har ikkala vazifani ham yetarli darajada bajarmagan. Ayniqsa, uning davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati juda kamni tashkil etadi. Jumladan, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning davlat budjeti daromadlaridagi ulushi eng kam ulushga ega bo‘lib, o‘rtacha 0,3-0,4 foizni tashkil etadi xolos. Shu jihatdan olib qaraganda mazkur soliq suv resurslari sifatini yaxshilash uchun davlat xarajatlarini moliyalashtirish imkoniyatining ancha pastligini namoyon etadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari suvdan foydalanuvchi sohalarning suvdan foydalanish xususiyatiga ko‘ra tabaqalashtirilgan holda belgilangan. Shuningdek, soliq stavkalari suvdan foydalanuvchilarning foydalanish manbalariga ko‘ra (yer usti va yer osti manbalari) ham tabaqalashgan. E’tiborli jihati suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari har yili indeksatsiya qilib kelinmoqda (1-jadval).

1-jadval: Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari

№	Soliq to‘lovchilar va soliq solish obyektlari	2022-yil		2023-yil		2024-yil	
		1 kub. m uchun soliq stavkasi, (so‘mda):					
		yer usti suv resurslari manbalari	yer usti suv resurslari manbalari	yer usti suv resurslari manbalari	yer usti suv resurslari manbalari	yer usti suv resurslari manbalari	yer usti suv resurslari manbalari
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan 2 va 3-bandlarda ko‘rsatilganlari mustasno), shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	240	290	265	320	345	415
2.	Sanoat korxonalari	520	620	570	680	638	760
3.	Elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari	80	100	90	110	101	123
4.	Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	40		45		100	
5.	Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	2 190		2 410		2 700	
6.	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	27 700		30 500		34 160	

Odatda, yer osti manbalari uchun soliq stavkalari yer usti manbalari uchun belgilangan stavkalardan yuqori belgilangan. Masalan, 2024-yilda 1-toifa, ya’ni iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar va boshqalar uchun yer usti manbalari uchun belgilangan stavka 1 kub metr suv uchun 345 so‘m belgilangan bo‘lsa, yer osti manbalari uchun 415 so‘m, ya’ni 20 foizga ortiqdir.


Sohalar bo‘yicha eng yuqori stavka 2024-yilda alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar uchun 34160 so‘m qilib belgilangan. Eng kam stavka qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni o‘stirish (yetishtirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo‘jaliklari uchun yer usti va yer osti manbalari uchun bir xil 100 so‘m etib belgilangan.

Respublikada suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining tahlili ko‘rsatmoqdaki, soliq stavkalari 2019-yilga qadar 4 ta soha bo‘yicha tabaqalashtirilgan holda belgilangan bo‘lsa, 2019-yildan e’tiboran iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar tarkibidan sanoat korxonalari ajratilib, ular uchun soliq stavkasining yuqoriroq miqdori belgilandi.

Suvdan foydalanuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etilishi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun ham mazkur soliqni joriy etish va soliq stavkalarini belgilash zaruratini taqozo etdi. Natijada, 2021-yildan boshlab qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan foydalaniladigan suv hajmi (shu jumladan dehqon xo‘jaliklari) uchun alohida soliq stavkalari belgilandi.

Qayd etilganidek, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining qat’iy miqdorda belgilanganligi, inflatsiyaning ta’siri soliq stavkalarini har yili indeksatsiya qilish zaruratini taqozo etmoqda. Shu bois, soliq stavkalari har yili indeksatsiya qilinib, dastlab Prezident qarorlari asosida tasdiqlangan bo‘lsa, 2020-yilda qonun bilan, 2021, 2022 va 2023-yillarda esa soliq kodeksiga tegishli o‘zgartirish kiritib tasdiqlangan. Jumladan, 2023-yilda 2022-yilda amalda bo‘lgan soliq stavkalari o‘rtacha 10 foizga indeksatsiya qilingan bo‘lsa, 2024-yilda 30 foizga indeksatsiya qilindi.

Soliqqa tortilgan suv resurslarining manbalari bo‘yicha o‘zgarishi dinamikasini tahlili ko‘rsatmoqdaki, respublikada yer osti manbalaridan ko‘ra yer usti manbalaridan foydalanuvchilar ulushi yuqori (1-rasm).



1-rasm: Soliqqa tortilgan suv resurslarining manbalari bo‘yicha o‘zgarishi dinamikasi [9], (foizda)

Tahlillar ko‘rsatmoqdaki, soliqqa tortilgan suv resurslarining asosiy qismi yer usti manbalari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Jumladan, jami soliqqa tortilgan suv resurslarida yer usti manbalarining ulushi 2020-yilda 95,1 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilga 93,2 foizni tashkil etib, 1,9 foizli bandga kamaygan holda, yer osti manbalarining ulushi mos ravishda 4,9 foizdan 6,8 foizga qadar oshgan.

Demak, so‘nggi yillarda yer osti manbalaridan foydalanilgan suv hajmi oshgan va bu jarayon davom etmoqda. Natijada, yer osti suvlarining sathi yildan yilga pasayib bormoqda. Bu esa yaqin kelajakda qishloq xo‘jaligi faoliyatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tahlillar ko‘rsatmoqdaki, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq muhim iqtisodiy mexanizm hisoblansada, suv resurslarining cheklanganligi, ayniqsa toza ichimlik suviga bo‘lgan talabning muntazam ravishda ortib borishi suvdan foydalanishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rishni taqazo etmoqda. Bunda birinchi navbatda iste’mol qilingan suv miqdori hisobini yuritish, suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish maqsadga muvofiq. Suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy qilinganda hamda sug‘orish uchun olingan suv hajmi suv o‘lchash uskunalari asosida aniqlanganda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning pasaytirilgan stavkalarini, aksincha oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash amaliyotiga o‘tilishi zarur. Toki, har bir suv iste’molchisi foydalanilgan suv hajmini aniq hisob-kitob asosida yuritishi, suv uchun to‘lov va soliqni mos ravishda to‘lash mexanizmiga o‘tilib, suv resurslaridan yanada samarali va oqilona foydalanishga harakat qilsin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Suv resurslarining cheklanganligi va suvga bo‘lgan talabni muntazam ravishda oshib borishi undan tejamkorlik asosida, samarali foydalanish zaruratini taqazo etmoqda. Bunday sharoitda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng qo‘llash talab etiladi. Suvni tejaydigan texnologiyalar keng qo‘llanilmas ekan, suv resurslaridan samarali foydalanish haqida qanchalik bong urilmasin ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Shu bois, suvni tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilishga alohida e’tibor qaratishi lozim.

Bunda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilgan suv iste’molchilari uchun muayyan soliqlardan imtiyozlar berish, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning pasaytirilgan stavkalarini joriy etish, aksincha isrofgarchilikka yo‘l qo‘yganda ta’sirchan mexanizmlarni qo‘llash ayni muddaodir.

Mazkur soliqning samaradorligini oshirishda suv uchun tabaqalashtirilgan soliq stavkalarini qo‘llash uslubiyatini ishlab chiqish, foydalanilgan suv resurslari uchun soliq solish va jarimalar tizimini takomillashtirish, bunda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, https://lex.uz/docs/6600413
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6024-son Farmoni, https://lex.uz/docs/4892953
3. https://www.greenpolicyplatform.org/sites/default/files/2022-06/3
4. Safarov G‘. A. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tabiiy resurslardan samarali foydalanishini soliqlar vositasida rag‘batlantirish. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati //T. Akademiya. – 2006.
5. Расулев А.Ф., Воронин С.А., Угай Д.С. Налогообложение использования водных ресурсов: проблемы и их решение. //“Иқтисод ва молия”. –Тошкент, 2022, 3-сон. –Б. 34.
6. Qurbanov D.R. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqqa tortish uslubiyati va undirish mexanizmini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: BMA, 2017.–14 b.
7. Safarov G‘.A. Tabiiy resurs va mol-mulklarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TMI, 2023. –28 b.
8. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (442 va 443-moddalari), https://lex.uz/docs/4674902
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari.

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA INNOVATSIYA VA INNOVATSION FAOLIYAT BILAN BOG‘LIQ TUSHUNCHALARINING NAZARIY MASALALARI



Mamayunus Qarshibayevich Pardayev
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, i.f.d.

Temur Olimovich Mamayunusov
Mustaqil tadqiqotchi, tadbirkor

Annotatsiya: Maqolada xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiya va innovatsion faoliyat bilan bog‘liq bir qancha kategoriya va tushunchalarining nazariy masalalari tahlil qilinib, ulardan bir qanchasining takomillashgan ta’riflari ham ishlab chiqilgan. Shuningdek, bunda innovatsion iqtisodiyotning shakllanish evadyutsiyasi, uni shakllantiruvchi va harakatga keltiruvchi asosiy omillar ham qarab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, innovatsion iqtisodiyot, innovatsion faoliyat, inson salohiyati, inson kapitali, yangi texnika, yangi texnologiya, yangilik, industrial qitisodiyot, ixtiro.

Abstract: The article analyzes the theoretical issues of several categories and concepts related to innovation and innovative activity in the service sector, and developed improved definitions of some of them. Also, the evolution of the formation of the innovative economy, the main factors that shape and move it are also considered.

Key words: innovation, innovative economy, innovative activity, human potential, human capital, new technique, new technology, innovation, industrial economy, invention.

Аннотация: В статье анализируются теоретические вопросы ряда категорий и понятий, связанных с инновациями и инновационной деятельностью в сфере услуг, а также разрабатываются уточненные определения некоторых из них. Также рассмотрена эволюция формирования инновационной экономики, основные факторы, которые ее формируют и двигают.

Ключевые слова: инновации, инновационная экономика, инновационная деятельность, человеческий потенциал, человеческий капитал, новая техника, новая технология, инновации, индустриальная экономика, изобретение.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jahon amaliyoti tajribasidan ko‘rinib turibdiki, har qanday mamlakatning, undagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy taraqqiyoti asosan innovatsiyaga asoslanadi. Innovatsiya fan va texnika yutuqlari sifatida iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda ham, moddiy-texnika bazasini takomillashtirishda ham, ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko‘rsatish) sohasiga yangi g‘oyalarni kiritishda ham, u yerdagi ishlagan xodimlar mehnatini oddiy jismoniy mehnatdan aqliy mehnatga aylantirishda ham asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu tufayli innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga, ilm-fanni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Xususan, 2020-yil 29-oktyabrda “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-il 1-dekabrdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-42-son qaroriga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi 2022-yil 17-maydagi PQ-245-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi, “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmonlari e’lon qilindi. Ushbu farmonning 1-ilovasidagi 54 va 56 maqsadlarida turli sohalarga innovatsiyalarni joriy qilish aniq belgilangan. Bulardan ham ko‘rinib turibdiki, Yangi O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va innovatsion faoliyani takomillashtirish maqsadida ta’lim xizmatlari sifati va samaradorligini oshirish uchun, uning texnologiyalarini takomillashtirib, zamonaviy inson kapitalini barpo qilish, bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri ekanligidan dalolatdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Bugungi kunda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish uchun ta'lim sohasiga ham juda katta e'tibor qaratilmoqda. Shunga qaramay hozirda xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiya va innovatsion faoliyat bilan bog'liq bir qancha kategoriya va tushunchalarining nazariy masalalari bo'yicha bir to'xtamga kelgan emas. Shu tufayli mamlakatimiz va xorijiy davlatlar iqtisodchi olimlari ham ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Bular jumlasiga S.S.G'ulomov, R.X.Ayupov, M.E.Po'latov, A.V.Vaxabov, M.X.Saidov, M.Q.Pardayev, M.M.Muxammedov, Q.J.Mirzayev, E.Sh.Shavqiyev, O.M.Pardayev, G.M.Porsayev, B.Sh.Safarov, D.Q.Usmanova, B.I.Isroilov, A.O.Ochilov, B.Sh.Usmonov, O.T.Qahharov, kabilar[1] tomonidan ilmiy monografiya, turli jurnallar maqolalarida, ilmiy-uslubiy ishlarida tadqiqot natijalari e'lon qilingan. Ammo innovatsiya va innovatsion iqtisodiyot bilan bog'liq nazariy masalalar yana takomillashtirishga muhtoj. Chunki ushbu masala yuzasidan mamlakatimiz olimlari tomonidan kam tadqiq qiligan va mos ravishda adabiyotlarda ham kam yoritilgan. Ushbu holat masalaning o'ta dolzarbligini belgilaydi. Chunki innovatsion iqtisodiyot mamlakatimiz kelajagini va uning taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiya va innovatsion faoliyat bilan bog'liq bir qancha kategoriya va tushunchalarining nazariy masalalari tahlil qilinib induksiya va deduksiya, makon va zamon, tahlil va sintez kabi uslublardan va yondoshuvlardan foydalanilgan. Bunda asosan mantiqiy tahlil usullari ham qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur masalani chuqur anglash uchun "innovatsiya", "innovatsion faoliyat", "innovatsion iqtisodiyot" kabi ushbu kategoryalar bilan bog'liq tushunchalarining mazmuniga aniqlik kiritish va ularning iqtisodiyotga va uning alohida tarmog'i bo'lgan xizmat ko'rsatish sohasiga mosligini qarab chiqish lozim bo'ladi. Chunki ushbu masalalar ham iqtisodiy adabiyotlarda, aynan shu tarzda yetarli darajada qarab chiqilmagan.

Innovatsion faoliyatning mazmunini ochib berish uchun, uning nazariy talqinini innovatsiya terminining mazmunini ochib berishdan boshlash maqsadga muvofiq. Innovatsiya so'ziga O'zbek tilining 5 jildlik izohli lug'atida 3 ta izoh berilgan. Ushbu so'z inglizcha so'zdan olingan bo'lib, innovation, ya'ni "kiritilgan yangilik, ixtiro" so'zlarini anglatadi. Bunga berilgan izohlar:

"1.Texnika va texnologiyaning yangi turlari (avlodlari)ni joriy etish maqsadida iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar.

2.Ilg'or texnika va texnologiya, boshqarish va boshqa sohalardagi yangiliklar va ularning turli sohalarda qo'llanilishi.

3.Muayyan tilda, asosan uning morfologiya sohasida eng so'nggi davrlarda paydo bo'lgan yangi hodisalar (til birliklari)"[2]. Ko'rinib turibdiki, innovatsiya yangilik va ularning amaliyotga qo'llanilishini ifodalar ekan.

Xuddi shunga o'xshash tushunchalar 1999 yilda A.N.Azirliyan rahbarligida nashr qilingan "Большой экономический словарь"da ham qayd etilgan. Ushbu ishda innovatsiya so'ziga 2 ta izoh berilgan:

"1.Iqtisodiyotda texnika va texnologiyalarning yangi avlodini almashtirishga qo'yiladigan mablag';

2.Ilmiy-texnika taraqqiyoti natijasida yaratilgan yangi texnika va texnologiyalar. Ixtirochilikning rivojlanishi, yirik ixtirolarning vujudga kelishi innovatsiyaning muhim omillari bo'lib hisoblanadi"[3]. Ushbu izohdan ham ko'rinib turibdiki, umuman olganda innovatsiya – bu yangilik kiritish, yangilik, o'zgarish demakdir.

---

1 G'ulomov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. –T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019, 447 bet.; G'ulomov S.S., Ayupov R.X. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat asoslari. –T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2020, 510 bet.; Saidov M.X. Uzbekistan: investitsii v chelovecheskiy kapital, partnyorstva v sfere obrazovaniya.–M.: Knijniy dom gazeti "Trud", 2006.–243 s.; Pardayev M.Q., O.M.Pardayev, T.X.Mamasoatov, Modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsiya – iqtisodiy o'sishning muhim omillari. – T.: "Navro'z" nashriyoti, 2014. – 104 bet., Pardayev M.Q., Mirzayev Q.J, Pardayev O.M. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O'quv Qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2014. – 384 b.; Pardayev M.Q. va boshqalar. Ta'lim xizmatlari va ularning samaradorligini oshirish masalalari. Monografiya. "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi", 2020. – 256 b.; Mirzev Q.J., Shavqiyev E.Sh., Janzaqov B.K. Innovatsion iqtisodiyot. –T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-mtbaa uyi, 2020. – 298 bet., "M.M.Muxammedov va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –T.:"Fan va texnologiya" nashriyoti 2018. Isroilov B.I. Ta'lim tiizimida innovatsion korporativ hamkorlikni rivojlantirishda iqtisodiy mehanizmlar rolini oshirish. TMI, IAK, 2016 y., 26 mart.; G.M.Porsayev, B.Sh.Safarov, D.Q.Usmanova Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. – T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2020. –372 bet., Ochilov A.O. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (Dss) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, TDIU, 2019. – 76-bet.; Usmonov B.Sh. va boshqalar. Inson kapitalining shakllanishida ta'lim va ilm-fanning roli. T.: "Fan va texnologiyalar", 2015 y.; Qahharov O.T. Oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish. Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, SamISI, 2020. – 79 bet.

2 O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.II. Ye.M. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006.–B. –212.

3 Большой экономический славарь/Под ред. А.Н.Азрилияна. – 4-е изд. и перераб. –М.: Институт новой экономики, 1999. С. 309.

V.A.Makarenko tahriri ostida nashr etilgan zamonaviy tushuncha va terminlarning qisqacha lug‘atida innovatsiya terminiga kengroq tushuncha keltirilgan. Innovatsiya inglizcha innovation – yangilik kiritish, yangilik; lotinchada innovatio, - tiklanish, yangilanish degan ma’nolarni anglatishi ta’kidlangan. Ushbu qarashlarni umumlashtirib, innovatsiyaga quyidagicha izoh berish mumkin:

1) texnika va texnologiya avlodining almashinuvini taminlovchi, iqtisodiyotga mablag‘ yo‘naltirish;
2) ilmiy – texnika taraqqiyotining mahsuli bo‘lgan yangi texnika, texnologiyalarni yaratish;
3) yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, sintezlash, yangi nazariya va modellarni yaratish va ularni hayotga tatbiq etish;
4) individual tusdagi takrorlanmas dasturlarni ishlab chiqish.

Bulardan kelib chiqib, aytish mumkinki, innovatsiyalarni insoniyat faoliyatining barcha jabhalarida qo‘llash mumkin ekan. Ammo, biz ko‘proq etiborni iqtisodiyotga, uning tarkibiy qismi bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq xizmat ko‘rsatish sohalariga yo‘naltiriladigan innovatsiyalarga qaratamiz.

Yuqorilardan kelib chiqib, innovatsiya atamasining iqtisodiyotga mos ta’rifini berish mumkin. Innovatsiya deyilganda ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijasida olingan ixtirolarni jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o‘nglashga, iqtisodiy o‘sishga erishishga qaratilgan jarayonlarda qo‘llanililadigan yangi texnika, texnologiya va boshqarish usullari kabilarni joriy qilish tushuniladi. Innovatsiyaning ushbu ta’rifidan uning boshqa aniq soha va tarmoqlarga, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga mos ta’rifini ham ishlab chiqish mumkin.

Bizning fikrimizcha, xizmat ko‘rsatish sohasi bilan shug‘ullanadigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga mos ravishda innovatsiyaga quyidagicha ta’rif berish mumkin, deb hisoblaymiz. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida innovatsiya deyilganda ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijasida olingan ixtirolarni xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishga, ularning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida o‘z o‘rnini topishga qaratilgan jarayonlarda qo‘llanililadigan yangi texnika, texnologiya va boshqarish usullari kabilarni joriy qilish tushuniladi. Ko‘rinib turibdiki, innovatsiya jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi murakkab yechimlarni hal qilish yo‘llarini takomillashtirishga qaratilgan yangiliklardan iboratdir. U inson faoliyatida qo‘llaniladi va jamiyatning rivojlanishi uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Inson o‘zi takomillashib innovatsiya yaratadi, innovatsiya esa, o‘z navbatida insonni takomillashtiradi va uning uchun xizmat qiladi, uning yashash darajasini sifat bosqichiga ko‘taradi. Demak, inson nima zarur bo‘lsa, uni o‘zi uchun yaratadi va mos ravishda o‘zi yaratgan narsalardan birinchi galda o‘zi manfaatdor bo‘ladi.

Endi innovatsion faoliyat tushunchasiga ham izoh berish va uning ham ta’rifini ishlab chiqish mumkin. Shunga muvofiq, qisqacha qilib aytganda, innovatsiyalarni amalga oshirish jarayonini innovatsion faoliyat, deb yuritish mumkin. U quyidagi yunalishlarda yangilikni ixtiro qilish va joriy qilishni o‘zida mujassamlashtiradi:

- yangi mahsulot ishlab chiqarishda, yangi texnologik jarayonlarni takomillashtirishda, yangi texnikalarni joriy qilishda va ishlab chiqarishning tashkiliy shaklini ham takomillashtirishda ishtirok etadi;
- yangi mahsulotlar va xizmatlar bozorlarini aniqlash va ularda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga ko‘maklashadi;
- yangi boshqaruv jarayoni va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning hal etilishi, ularga mos ravishda, yangi moliyaviy dastaklar va tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirishda qatnashadi.

Endi ushbu g‘oyalarga tayangan holda “innovatsion faoliyat” atamasining ta’rifini berish mumkin. Innovatsion faoliyat deyilganda, iqtisodiyotning turli sohalarida innovatsiyalarni (yangilik, ixtiro, takomillashgan texnologiya kabilarni) amalga oshirish va joriy qilish jarayonlari tushuniladi. Ushbu ta’rifdan kelib chiqib, xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida innovatsion faoliyatga ham ta’rif berish mumkin. Bizning fikrimizcha, ushbu ta’rif quyidagilardan iborat bo‘ladi. Xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida innovatsion faoliyat deyilganda mazkur sohaga innovatsiyalarni (yangilik, ixtiro, takomillashgan texnologiya kabilarni) amalga oshirish va joriy qilish jarayonlari tushuniladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi, xususan xizmat ko‘rsatish subyektlari ham iqtisodiyotning boshqa qismlari singari rivjlanishi lozim, chunki u iqtisodiyotning asosiy sohasi sifatida mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida, xususan yangi ish o‘rinlarini yaratishda, mulkdarlar sinfini shakllantirish orqali aholi farovnligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ammo uning rivojlanishi o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Unga muntazzam ravishda innovatsiyalarni tatbiq etish, ya’ni innovatsion faoliyatni rivojlantirishni taqozo qiladi. Bu esa mamlakatda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishiga olib keladi.


Endi innnovatsion iqtisodiyot tushunchasini qarab chiqamiz. Chunki ushbu atama iqtisodiy adabiyotlarda ko‘p marta ishlatilsada, uning ta’rifini juda kam uchratish mumkin.

Innovatsion iqtisodiyotni jahon amaliyotida ko‘p hollarda intellektual iqtisodiyot, ilmga asoslangan iqtisodiyot, deb ham yuritiladi. Bunday iqtisodiyotda yaratilgan mahsulot tarkibida odatdagidek, jonli mehnat sarfi emas, balki ilmga qilingan sarfning hissasi yuqori bo‘ladi. Taraqqiy etgan mamlakatlar XIX-XX asrlarda asosan industrial qitisodiyotni shakllantirib, ulardan foydalanish evaziga rivojlandi. XXI-asrda iqtisodiy taraqqiyot asosan innovatsiyalar evaziga, ya’ni ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga (ish bajarish, xizmat ko‘rsatishga) joriy qilish evaziga rivojlanmoqda. Bunday fan va ilg‘or texnologiyaga asoslangan iqtisodiyotni odatda innovatsion iqtisodiyot, deb yuritiladi. Innovatsion iqtisodiyotda asosiy rolni ishchi va xizmatchilar mehnati emas, balki olimlar, ilmiy xodimlar mehnati, axborot tizimlari o‘ynaydi.

Bularning hammasini jamlab, innovatsion iqtisodiyotning ta'rifini ishlab chiqish mumkin. Biz innovatsion iqtisodiyotga quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Innovatsion iqtisodiyot deganda, yangi g'oyalar, ilm-fan yutuqlari asosida doimiy ravishda texnik va texnologik jihatdan yangilanib turadigan, innovatsiyalar oqimiga tayanib, ularni ishlab chiqarishga (ish bajarishga, xizmat ko'rsatishga) joriy qiladigan, ilg'or texnologik mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatini yaratadigan, yuqori raqobatbardoshlikka va qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan intellektual omillar asosida shakllangan iqtisodiyot tushuniladi.

Ushbu ta'rifni iqtisodiyotga va uning har bir sohasiga, shu jumladan xizmat ko'rsatish bilan shug'ulanadigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga ham qo'llash mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, innovatsion iqtisodiyot yo'q joydan birdaniga shakllanib, paydo bo'lib qolmaydi. U asta-sekinlik bilan o'zining evalyutsion bosqichlarini bosib o'tib shakllanadi. Bulardan ko'rinib turibdiki, innovatsion iqtisodiyot o'zining taraqqiy etish bosqichlariga, ya'ni evolyutsiyasiga ega. Buni quyidagi rasmda ko'rish mumkin (1-rasm).



1-rasm: Innovatsion iqtisodiyot evolyutsiyasi

Ko'rinib turibdiki, innovatsion iqtisodiyot rivojlanish jarayonida bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan. Qo'l mehnatiga asoslangan iqtisodiyotda asosiy ish quroli insonning qo'li va oddiy ish qurollari (ketmon, kurak, bolg'a, o'roq va h.k.) hisoblangan. Unda asosiy harakat insonning kuchi evaziga amalga oshirilgan. Asta-sekinlik bilan odamlarning ehtiyoji tabiat ne'matlarini o'zlashtirishga qaratilganidan keyin, ular qishloq xo'jaligini vujudga keltirgan va agrar iqtisodiyotni shakllantirgan. Ushbu iqtisodiyotda yaratilgan mahsulotning hajmining asosiy qismini agrar sohada yaratilgan mahsulotlar tashkil qiladi.

Iqtisodiyotning rivojlanishi sanoatlashib borishi oqibatida indisturial iqtisodiyot vujudga keldi va ushbu iqtisodiyotda asosiy harakatga keltiruvchi kuch texnika va mexanizatsiyalashgan hamda avtomatlashgan jihozlar (uskunalar) evaziga amalga oshiriladi. Innovatsion iqtisodiyotda esa asosiy kuch fan va texnikalar hamda intellektual mulk bo'lib hisoblanadi. Bunda yangi ishlanmalar va ixtirolar muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) jarayonining samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, bozor talablari asosida iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlarini amalga oshirilishi, ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) jarayonini modernizatsiya qilish kabi iqtisodiy ishlar innovatsiya orqali amalga oshiriladi. Chunki, uning asosida mamlakatning ham, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ham raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratiladi. Bunda iste'mol tovarlarining sifati oshadi va imkon qadar u arzonlashadi. Bu esa, o'z navbatida jahon bozori talablariga javob beradigan mahsulotlarni (ish, xizmatlarni) ishlab chiqarish imkoniga ega bo'ladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mamlakatimizning raqobatbardoshligini mustahkamlash va dunyo bozoriga chiqish uchun birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgarish va dversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash lozim bo'ladi. Bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan ham innovatsion jarayonlarni amalga oshirilishi mumkin. Ushbu vazifalarni bajarish asosan innovatsiyalarni iqtisodiyotga joriy qilish evaziga amalga oshiriladi. Bu esa innovatsion iqtisodiyotning paydevorini tashkil qiladi.

Bunga erishishda investitsiyalarning roli katta. Ushbu investitsiyalar asosan innovatsiyalarni joriy qilishga qaratilishi va ular mazmun mohiyati jihatidan innovatsiyaga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Chunki, investitsiyalar ishlab chiqarishni (ish bajarish, xizmat ko'rsatishni) modernizatsiya qilishga, yangi texnologiyalarni joriy qilishga, yangi korxonalarni yaratishga qaratilgan bo'ladi.

Shunday qilib, hozirgi sharoitda iqtisodiyotga kiritiladigan investitsiyalar innovatsion investitsiyalar bo'lib hisoblanadi. Ular, ta'kidlanganidek, iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga, yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish subyektlarini barpo etishga, ularda mavjud texnika va texnologiyalarni yangilashga yo'naltiriladi. Bunday yangilanishlar albatta fan va texnika yutuqlariga asoslanadi. Bular esa, o'z navbatida olimlar va konstruktorlarning ixtirolari va yangi g'oyalaridan iborat bo'ladi. Bularning pirovard maqsadi innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgandir. Shu tufayli innovatsion iqtisodiyotni shakllantiruvchi omillarga, bizning fikrimizcha, quyidagilarni kiritish mumkin (2-rasm).



2-rasm: Innovatsion iqtisodiyotni shakllantiruvchi va harakatga keltiruvchi asosiy omillar

Mazkur rasmdan ko‘rinib turibdiki, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish uchun zamonaviy talabga javob beradigan inson kapitali muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur kapital shunday bo‘lish kerakki, undan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yangi g‘oyalar tug‘ulishi, ixtirolarning paydo bo‘lishi lozim. Bu g‘oyalar amaliyotga joriy qilinishi uchun eng avvalo, tajriba-sinov maydoni bo‘lmog‘i lozim. U tegishli tarzda samara beradigan bo‘lsa, uni amaliyotga keng joriy qilish zaruriyati ham paydo bo‘ladi. Bu esa ma’lum miqdorda investitsiyalarning yetarli bo‘lishini taqozo qiladi. Shu tariqa innovatsion iqtisodiyot shakllanib boradi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, innovatsion iqtisodiyotda mahsulot tannarxi tarkibida ilm-fanga ketadigan xarajatlar salmoqli o‘rinni egallaydi va ushbu iqtisodiyotni ilm-fanga asoslangan, tez yangilanib turiladigan iqtisodiyot, deb ataydilar. Bunday iqqtisodiyot mamlakatimiz kelajagini belgilaydi. Bunga erishish uchun hozirgi bosqichda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalashga qaratilgan iqtisodiy siyosatni misol keltirish mumkin. Shu tariqa, jamiyat taraqqiyotini to‘liq ta’minlash imkoniyati yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, innovatsion iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun, uning xarakterli belgilarini aniqlash lozim bo‘ladi. Bulardan kelib chiqib, bir qancha xulosalarga kelish bilan birga, ayrim ilmiy-amaliy tavsiyalarni ham ishlab chiqishga muvaffaq bo‘ldik. Tadqiqot natijasida, innovatsion iqtisodiyot sharoitida quyidagi jihatlar alohida ajralib turishi lozim, degan xulosaga keldik:

Birinchidan, iqtisodiyot yuqori darajadagi fan va texnika yutuqlariga asoslangan bo‘lishi kerak. Shundagina uning barqaror o‘sishi va raqobatbardoshligi ta’minlanadi.

Ikkinchidan, inson kapitali yuqori sifatga ega bo‘lishi kerak, ya’ni aholining tarkibiy qismi asosan yuqori malakali xodimlardan iborat bo‘lishligi maqsadga muvofiq. Chunki ilg‘or sohalarda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar zarur hollarda ilmiy-tadqiqot ishlari bilan ham shug‘ullana oladigan kishilardan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Uchinchidan, iqtisodiyot to‘liq erkin va qonun ustuvorligi butunlay ta’minlangan, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi keskin kamaygan, hufyona iqtisodiyotdan va korrupsiyadan holi bo‘lmog‘i lozim. Shundagina, iqtisodiyotning asosiy realligi ta’minlanadi.

To‘rtinchidan, har bir hududda aholining yashash sifati yuqori, farovon va raqobatbardosh bo‘lishini ham talab qilinadi.

Beshinchidan, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tarkibida innovatsiyaga asoslangan subyektlarning ulushi ham yuqori bo‘lishi lozim(xalqaro amaliyotda ularning ulushi 60-80 %ni tashkil qiladi). Barcha faoliyatining nazorati raqamlashtirilgan bo‘lsa, barqaror o‘sish uchun keng imkoniyat yaratiladi.

Oltinchidan, innovatsiyalarga katta talab bo‘lmog‘i va uning talabga munosib kadrlarning ham bo‘lishi lozim. Shundagina innovatorlar o‘rtasida raqobatning mavjudligi ham ta’minlanadi. Shu tariqa yangi zamonaviy inson kapitali shakllanadi.

Yettinchidan, hamisha yangi bozorning paydo bo‘lishi va mavjud bozorda yangi mahsulotlarga talabning ortib borishinini ham ta’minlani lozim. Shundagina bugungi muvaffaqiyatlarning muhim omillaridan biri bo‘lgan diversifikatsiyadan ham samarali foydalangan bo‘linadi.

Ko‘rinib turibdki, innovatsion iqtisodiyot o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekan. Bu xususiyatlar, uning indisturial iqtisodiyotga nisbatan nimasi bilan farq qilishini ham ko‘rsatib turibdi. Bizning iqtisodiyotimizda innovatsion iqtisodiyotning ayrim belgilari va ko‘rinishlari ko‘zga tashlangan bo‘lsa, bugungi kunda ushbu iqtisodiyot inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Biroq, mamlakatimiz iqtisodiyotini butunlay innovatsion iqtisodiyotga aylantirish uchun hali ancha qilinishi lozim bo‘lgan ishlar anchagina. Bunga bosqichma-bosqich erishib borish bilan iqtisodiyotimizni ham takomillashtirib borish yo‘liga tushib oldik.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘ulomov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. –T.: TMI, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, –2019, –447 bet.
2. G‘ulomov S.S., Ayupov R.X. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat asoslari. –T.: TMI, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2020, –510 bet.
3. Саидов М.Х. Узбекистан: инвестиции в человеческий капитал, партнёрства в сфере образования.–М.: Книжный дом газеты “Труд”, –2006.–243 с.
4. Pardayev M.Q., O.M.Pardayev, T.X.Mamasoatov, Modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsiya – iqtisodiy o‘sishning muhim omillari. – T.: “Navro‘z” nashriyoti,–2014. – 104 bet.
5. Pardayev M.Q., Mirzayev Q.J, Pardayev O.M. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O‘quv Qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2014. – 384 b.
6. Pardayev M.Q. va boshqalar. Ta’lim xizmatlari va ularning samaradorligini oshirish masalalari. Monografiya. “Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi”, –2020. –256 b.
7. Mirzayev Q.J., Shavqiyev E.Sh., Janzaqov B.K. Innovatsion iqtisodiyot.. T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-mtbaa uyi, 2020. –298 bet.
8. M.M.Muxammedov va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –T.:“Fan va texnologiya” nashriyoti. –2018.
9. Isroilov B.I. Ta’lim tiizimida innovatsion korporativ hamkorlikni rivojlantirishda iqtisodiy mehanizmlar rolini oshirish. TMI, IAK, –2016 y. –26 mart.;
10. G.M.Porsayev, B.Sh.Safarov, D.Q.Usmanova Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. – T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, –2020. – 372 bet.
11. Ochilov A.O. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (Dss) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, –TDIU, 2019. –76-bet.;
12. Usmonov B.Sh. va boshqalar. Inson kapitalining shakllanishida ta’lim va ilm-fanning roli. –T.: “Fan va texnologiyalar”, 2015-y.
13. Qahharov O.T. Oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish. Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, SamISI, 2020. – 79 bet.
14. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J.II. Ye.M. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. –B. 212
15. Большой экономический славарь/Под ред. А.Н.Азрилияна. – 4-е изд. и перераб.–М.: Институт новой экономики, –1999. –С. 309.

AGLOMERATSIYA IQTISODIYOTI – AGLOMERATSIYA IQTISODIYOTI – HUDUDIY RIVOJLANISHNI HARAKATLANTIRUVCHI OMILI SIFATIDA

Raximbayev Akmal Azatboyevich
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada aglomeratsiya iqtisodiyoti va uning zamonaviy yondashuvlari aniqlangan. Jahon aglomeratsiya iqtisodiyoti doirasida hal etilishi lozim bo‘lgan global va mintaqaviy muammolar aniqlangan. O‘zbekistonda sanoat aglomeratsiyalarini rivojlantirishga bo‘lgan yondashuv aniqlangan. Aglomeratsiya iqtisodiyotining fundamental asoslarini yaratishning hududiy rivojlanishga ijobiy ta’sirlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: sanoat, hudud, mintaqa, aglomeratsiya, urbanizatsiya, klaster, integratsiya, sinergiya, hududiy sanoat, sanoat tarmoqlari.

Abstract: This article defines the economy of agglomeration and its modern approaches. Global and regional problems that need to be solved within the framework of the world agglomeration economy have been identified. The approach to the development of industrial agglomerations in Uzbekistan has been defined. The positive effects of creating the fundamental foundations of the agglomeration economy on regional development have been determined.

Key words: industry, territory, region, agglomeration, urbanization, cluster, integration, synergy, regional industry, industrial sectors.

Аннотация: В данной статье определяется экономика агломерации и ее современные подходы. Выявлены глобальные и региональные проблемы, которые необходимо решать в рамках мировой агломерационной экономики. Определен подход к развитию промышленных агломераций в Узбекистане. Определено положительное влияние создания фундаментальных основ экономики агломерации на региональное развитие.

Ключевые слова: промышленность, территория, регион, агломерация, урбанизация, кластер, интеграция, синергия, региональная промышленность, отрасли промышленности.

Aglomeratsiya nafaqat urbanizatsiya jarayonlarini aks ettiruvchi tushuncha, balki, sanoat va hududiy iqtisodiyotni tashkil etishning o‘ziga xos ilmiy yondashuvi sifatida shakllangan. Aglomeratsiyaning ta’siri mintaqaviy iqtisodiyot fanlarida bir asrdan ko‘proq vaqt davomida o‘z dolzarbligini yo‘qotmay keldi va bu boradagi tadqiqotlar haligacha amalga oshirilmoqda.

Aglomeratsiyani iqtisodiy tushunishga bag‘ishlangan birinchi ilmiy ish 1890-yilda ingliz iqtisodchisi Alfred Marshall “Iqtisodiy fanlar tamoyillari” asarida keltirilgan. Unda aglomeratsiyalarni transport xarajatlarini tejash, ishlab chiqarish tajribasi va inson kapitalini firmalarning sanoat klasterlarida o‘zaro almashish usuli sifatida ta’riflagan[1]. Klassik iqtisodiy qarashlardan farqli ravishda amerikalik iqtisodchi olim Maykl Porter mintaqaviy klasterlarning o‘zaro ta’sirini ularning geografik, madaniy va tarixiy yaqinligidan kelib chiqqan holda aglomeratsiyaning raqobatdosh afzalliklarini oshirish usuli sifatida ko‘rib chiqdi va hududiy rivojlanishning aglomeratsiyalarga asoslangan klaster nazariyasini ilgari suradi[2].

1 Маршалл А. Принципы экономической науки. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: ҳттп://www.либрарй.фа.ру/филес/Маршалл.пдф.

2 Портер М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов / М. Портер. – Москва: Альпина Бизнес, 2005. – 454 с.

Aglomeratsiya deganda ma'lum bir geografik hududda korxonalarning klasterlashuvi tushuniladi[3]. Aglomeratsiya iqtisodiyoti ishchilar va korxonalarning geografik jihatdan birgalikda joylashishiga olib keladigan mexanizm sifatida qaraladi. Aglomeratsiya iqtisodiyoti o'xshash yoki bir-birini to'ldiruvchi tovarlarni ishlab chiqaruvchi bir qator firmalarning bir-biriga yaqin joylashuvi asosida yuzaga keladi, bu esa, o'z navbatida, ushbu korxonalar uchun ijobiy tashqi ta'sirlarni keltirib chiqaradi[4]. Aglomeratsiya iqtisodiyotining ikkita asosiy turi mavjud: sanoat konsentratsiyasi (localization economiyes) va hudud iqtisodiy faoliyatni zichlashuvi (urbanization economiyes) natijasida yuzaga keladiganlar[5]. Geografik yondashuv nuqtayi nazaridan, aglomeratsiya aholini joylashtirish va hududiy tashkil etish tizimi sifatida qaraladi, u barqaror aloqalar bilan birlashtirilgan yirik markazlardan iborat bo'lgan aholi yashash punktlarining tayanch doirasi hisoblangan transport, logistika, siyosiy, madaniy va iqtisodiy makon sifatida qaraladi[6].

2000-2010-yillarda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (keyingi o'rinlarda OECD deb yuritiladi) a'zo bo'lgan 23 ta davlatda yalpi ichki mahsulot o'sishining qariyb 50 foizi shahar aglomeratsiyalari hissasiga to'g'ri keladi. 2020-yilga kelib dunyo aholisining 50% dan ortig'i shaharlarda istiqomat qiladi, bu esa jahon yalpi ichki mahsulotining 80% ni tashkil qiladi. Prognozlarga ko'ra 2030-yilga borib dunyo aholisining 33% aholisi 500 mingdan ko'proq bo'lgan shaharlarda istiqomat qiladi. Dunyoning 600 ta eng yirik shaharlarida 2017-yil ma'lumotlariga ko'ra jami aholining 22 foizi, ya'ni qariyb 1,5 mlrd. kishi istiqomat qiladi va 2025-yilga borib, bu ko'rsatkich 2 mlrd.kishi yoki 25 foizga yetishi prognoz qilingan. Mazkur shaharlarning jahon yalpi mahsulotining 2027-yilda qariyb 60 foizi to'g'ri keladi (2017-yilda 48 foiz)[7].

Shu bilan birga, aglomeratsiyalar rivojlanishida muammolar mavjudki, ularning yechish jahon hamjamiyati oldida turgan ustuvor vazifalardir, jumladan: aglomeratsiyalarning infratuzilmaviy rivojlanish; mehnatga layoqatli aholining qisqarishi, o'rta va kichik shaharlarda mahalliy budjetlarni to'ldirishning manbalari va ularni rivojlantirish imkoniyatlarini qisqarib borishi, qishloq hududlarini rivojlantirish; ijtimoiy xizmatlar qishloqlarda narxining oshishi fonida aholining qarishi[8].

Umuman olganda aglomeratsiya iqtisodiyotda keng o'rganiluvchi soha sifatida mintaqaviy iqtisodiy tizim va tuzilmalarning asosiy predmeti hisoblanadi.

Aglomeratsiya iqtisodiyoti ta'sir doirasi va kuchi uni shakllanish darajasiga qarab belgilanadi. Misol uchun, firmalarning yaqinligi va o'zaro ta'siridan (urbanizatsiya) kelib chiqadigan aglomeratsiyalarda masofa uzoqlashgan sari aglomeratsiya ta'sirining pasayishi kuzatiladi[9]. Urbanizatsiya iqtisodiyotida esa turli sohalarda boshqalarga yaqin joylashgan korxonalar uchun xarajatlarni qisqarishi tufayli sinergiya samarasi yuzaga keladi. Buning ma'nosi shundan iboratki, joyning kattaligi tufayli korxonalar o'z sohalaridan tashqarida tovarlar va xizmatlarning keng portfelidan (ya'ni, buxgalteriya hisobi, dizayn, yuridik xizmatlar) foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, aglomeratsiya iqtisodiyotidagi yana bir asosiy mexanizm mahalliylashtirish hisoblanadi, uning asosiy afzalliklari sanoatning boshqa firmalari yaqinida joylashtirish orqali o'zaro ta'sirini yuzaga chiqarish va qo'shilgan qiymat yaratishni nazarda turtishdir. Buning ma'nosi shundaki, firmalar infratuzilmani bo'lishish va o'z sanoati uchun ixtisoslashgan ishchi kuchini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Aglomeratsiya iqtisodiyotining afzalliklarini uchta mexanizm orqali umumlashtirish mumkin: almashish, moslashish va o'rganish. Firmalar obyektlarni, infratuzilmani, yetkazib beruvchilarni va ishchi kuchini almashishdan foyda oladi. Firmalar va ishchilar kattaroq yoki ko'proq ixtisoslashgan mehnat fondida o'z malakalari va ehtiyojlarini yaxshiroq qondirishga qodir. Bundan tashqari, firmalar kattaroq bozorda yangi texnologiyalar va biznes amaliyotlarini osonroq o'rganishlari mumkin[10].

Postindustrial iqtisodiyotda "aglomeratsiya" tushunchasi va uning klassik ilmiy nazariy qarashlari shakllangan va rivojlangan. Biroq, hozirgi kunda aglomeratsiya ishlab chiqarishda nafaqat tovarlar, xizmatlar va mehnat unumdorligini oshirishga shart-sharoit yaratish shakli, balki inson hayoti uchun qulay sharoitlar yaratish vositasi sifatida qaralmoqda. Ya'ni, iqtisodiyotni tashkil etish shakli emas, balki inson hayotini tashkil etish shaklidir[11].

3 Bolter K., Robey J. Agglomeration Economies: A literature review. – 2020.
4 Porter, M. E. (1998). Clusters and the new economics of competition (Vol. 76, No. 6, pp. 77-90). Boston: Harvard Business Review
5 Cohen, J. P., Coughlin, C. C., & Paul, C. J. M. (2019). Agglomeration, productivity and regional growth: production theory approaches. In Handbook of regional growth and development theories. Edward Elgar Publishing
6 Меркурьев В.В. Организационно-экономические основы развития агломераций муниципальных образований: теория и методология. Дис. на соис. уч. ст. Д.э.н. Кемерово – 2022. 21 стр.
7 https://города2030.екатеринбург.рф/file/8344ee89e6e392bb9fd9958b1649c973 (дата обращения 15.08.2019).
8 McKinsey Global Institute, 2011 "Urban World: Mapping the Economic Power of Cities" repotr
9 Audretsch, D., & Feldman, M. (2004). Knowledge spillovers and the geography of innovation. In J. V. Henderson & J.-F. Thisse (Eds.), Handbook of regional and urban economics: Cities and geography (Vol. 4, pp. 2713-2739). Amsterdam: North-Holland
10 Duranton, G., & Puga, D. (2004). Micro-foundations of urban agglomeration economies. In Handbook of regional and urban economics (Vol. 4, pp. 2063-2117). Elsevier.
11 Мерзлов Д. И. Развитие агломераций в кризисные периоды : дис. – Мерзлов Дмитрий Иванович.-Санкт-Петербург. СПбГЭУ. 2020.-180с, 2020.

2019-yil oxiridan buyon boshlangan global pandemiya inqirozi global aglomeratsiya tendensiyalarining yangi davrini yuzaga chiqardi.

Agar ishlab chiqaruvchi kuchlarning global miqyosda taqsimlanishini ko‘rib chiqsak, unda jahon sanoat ishlab chiqarishi, elektr energetikasi, tog‘-kon sanoati, metallurgiya, to‘qimachilik sanoati va qishloq xo‘jaligi kabi asosiy yo‘nalishlarni baholash kerak.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon sanoat ishlab chiqarishidagi ulushini so‘nggi 70 yil ichida yuqorilab borish tendensiyasi kuzatilmoqda., Jumladan 2018-yilda jami sanoat ishlab chiqarishining qarib 20-22% i 8 ta rivojlangan mamlakatlar hissasidir.

Sanoat ishlab chiqarishi eng yuqori darajada rivojlangan birinchi TOP-5 mamlakatlar: AQSH – jahon sanoat ishlab chiqarishining taxminan 20%; Yaponiya – 11%; Xitoy – 9%; Germaniya – 6%; Rossiya – 4%. Bular asosan shimoliy mamlakatlar hisobnalanadi. Darhaqiqat, jahon ishlab chiqarish kuchlarining tuzilishi va taqsimlanishini tahlil qiladigan bo‘lsak, shimoliy mamlakatlari ilm talab qiladigan tarmoqlarda ustun ekanini, “janubiy” esa konchilik, yengil va oziq-ovqat sanoatiga ko‘proq e’tibor qaratganini ko‘rishimiz mumkin.

Jahon energetika sanoati sanoatning barcha turlarini rivojlantirish ko‘rsatkichi ekanligi e’tirof etilgan. Elektr energiyasi ishlab chiqarishning o‘sishi, mintaqaning sanoat rivojlanishiga doimiy yuqori korelyatsiyasi kuzatiladi. Energiya iste’moli bo‘yicha yetakchi mamlakatlar hisoblangan Xitoy (6723 TVt/soat); AQSH (4585 TVt/soat); Hindiston (1526 TVt); Rossiya (1125 TVt); Yaponiya (1062 TVt/soat); Kanada (682 TVt/soat); Germaniya (671 TVt/soat); Braziliya (582 TVt/soat); Fransiya (567 TVt soat); Koreya Respublikasi (558 TVt/soat).) ning umumiy ro‘yxatida g‘arb mamlakatlari asosiy iste’molchi va janubiy mamlakatlar esa uni ishlab chiqaruvchisi sifatida qatnashmoqda.

MDH mamlakatlarida gaz sanoatining rivojlanishi tabiiy gazning katta zaxiralari (jahon zaxiralarining qariyb 40%) bilan bog‘liq bo‘lsa-da, gaz sanoati rivojlanishida ikkinchi o‘rinni Yaqin Sharq mamlakatlari hisoblangan Shimoliy Amerika (4,5%), G‘arbiy Yevropa (4,5%) kabi 30 ga yaqin mamlakatlar hisoblanadi.

Umuman olganda, sanoatning bunday notekis taqsimlanishi hududardagi salohiyat va resurs imkoniyatlariga emas, ko‘proq boshqa omillarga bog‘liq va bu aglomeratsiyalarning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini aniqlash lozimligini keltirib chiqarida[12].

Yuqoridagilarni inobatga olganda, aglomeratsiya muammosiga bag‘ishlangan manbalarda quyidagi ilmiy nazariy qarashlar shakllanganligini aniqlash mumkin:

- **Yevropa klassik modeli:** ishlab chiqarishning diversifikatsiyasiga asoslangan hududiy aglomeratsiyalar, bunda markaz ishlab chiqarish quvvati va atrofdagi aholi sonidan foydalanadi;
- **Amerika modeli:** markaz aholining haddan tashqari ko‘payishini oldini olish uchun chekka hududlardan (hudud, infratuzilma, rekreatsion hududlar) foydalanadi (aholi punktlarini diversifikatsiya qilish asosida aglomeratsiyalar shakllanadi);
- **Rivojlanayotgan Osiyo modeli:** iqtisodiy faoliyat zichligini oshirish maqsadida ishlab chiqarish, iqtisodiy va inson kapitalining jadal o‘sishini ta’minlash uchun aglomeratsiyaga kiritilgan shaharlarning rekreatsion, axborot va ta’lim salohiyatini birlashtirish va birgalikda foydalanish asosida aholisining turmush darajasini oshirishga qaratilgan aglomeratsiya modelidir.

Aglomeratsiya obyektlarni maqsadli, ixcham va eng mos keluvchi nuqtalarga joylashtirishga qaratilgan foaliyatni ifodalaydi, bu tarqoq qurilishga qaraganda sinergiya samarasining yuqori ko‘rsatkichini beradi. Ushbu ta’sirlar mintaqaviy bozorni rivojlanishida, ta’lim sohasi, innovatsion faoliyat va investitsion jozibadorlikning o‘sishi kabilarda o‘z aksini topadi.

Bugungi kunga kelib, sinergiya ta’sirining eng oddiy misoli – bu hukumat tomonidan ham, mamlakat iqtisodiyoti uchun ham muhim bo‘lgan aglomeratsiya samarasini yuzaga chiqarish imkonini beradigan, shaharlar, sanoat zonalari va ma’lum sohaga ixtisoslashgan klasterlarni o‘z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish quvvatlarini taqsimlashda hududning ixtisoslashuvi muhim o‘rin tutadi. Muayyan tarmoqqa tegishli korxonalarning yuqori hududiy konsentratsiyasi hududga yangi ishlab chiqarish quvvatlarini jalb etish va sanoat aglomeratsiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Korxonalarning bunday zichligi xom ashyo, mehnat va logistika xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi, chunki ishlab chiqarish obyektlarining hududiy yaqinligi tufayli sanoat subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar sxemalari soddalashtirilgan. Iqtisodiy rayonning ixtisoslashuviga aloqador bo‘lmagan tarmoqlar nisbatan yakkalanib qoladi, bu esa ularni tashkil etuvchi korxonalarning iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va ularning bozor iqtisodiyoti sharoitida mavjud bo‘lishining imkonsizligiga olib keladi. Biroq, O‘zbekiston sanoatini hududiy rivojlanishiga e’tibor qaratilganda bunday holatlar yuqori nisbatlarni ifodalamaydi.

12 Нещадин А.А. Новые тенденции расселения в России [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://dok.opredelim.com/docs/index-51975.html (дата обращения: 15.08.2019)

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, sanoatda bandlar va sanoat korxonalarining soni bo‘yicha hududiy taqsimlanishini ko‘radigan bo‘lsak, hududiy iqtisodiy rivojlanishning mutanosiblik tamoyillari asosida sanoatni rivojlantirishga ahamiyat qaratilganligi aniqlanadi (1-jadval).

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasi sanoatining hududiy rivojlanishi[13]

Hududlar	Respublika ishlab chiqarish sanoati tarkibida hududlarning ulushi, %	Ishlab chiqarish sanoatda bandlarning ulushi, %	Ishlab chiqarish sanoati korxonalari soni bo‘yicha ulushi, %
Qoraqalpog‘iston Respuvlikasi	3,3	3,34	3,40
Andijon	11,6	10,06	10,40
Buxoro	5,6	5,35	5,34
Jizzax	2,3	2,90	3,99
Qashqadaryo	3,3	4,70	5,03
Navoiy	14,8	5,68	3,88
Namangan	3,2	7,81	7,99
Samarqand	6,1	9,68	8,89
Surxondaryo	1,4	3,46	5,18
Sirdaryo	1,5	1,85	2,35
Toshkent	17,5	14,71	9,91
Farg‘ona	6,2	13,40	11,08
Xorazm	3,8	3,41	4,86
Toshkent sh.	19,5	13,66	17,69

Ishlab chiqarish sanoatida O‘zbekiston hududlarida yuqori farq darajalari aniqlanmasa-da, sanoat tarmoqlari bo‘yicha ixtisoslashuv darajasi so‘nggi yillarda ortib borish holatini ko‘rish mumkin. Jumladan, 2021-yilda Respublikada ishlab chiqarilayotgan Kimyo mahsulotlarining 26,8 foizi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Oziq-ovqat mahsulotlarining 16,3 foizi Toshkent viloyati va 18,5 foizi Toshkent shahriga, To‘qimachilik mahsulotlarining 33,6 foizi vodiy viloyatlari (Andijon, Namangan, Farg‘ona) viloyatlari, Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlarining 30 foizi Toshkent viloyatlari hissasi, Farmasevtika mahsulotlari va preparatlarining 69,0 foizi Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Turli omillarning sanoatga ta’sirini ko‘rib chiqishda xomashyo manbalari, yoqilg‘i manbalari, mehnat resurslari va mahsulot iste’moli sohalari bilan eng bog‘liq bo‘lgan tarmoqlarni aniqlash mumkin. Biroq, faqat ustun omilni hisobga olgan holda ishlab chiqarishni joylashtirish imkoniyatini ko‘rib chiqish noto‘g‘ri bo‘ladi, barcha omillarni optimal tarzda birlashtirish eng maqsadga muvofiq yo‘nalish hisoblanadi.

Sanoati rivojlanayotgan O‘zbekistonning aglomeratsiyasi modeli ishlab chiqarish, iqtisodiy va inson kapitalining o‘sishini jadallashtirish uchun shaharlar va iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirishga intilish, integratsiyalashning rekreatsion, axborot va ta’lim salohiyatidan birgalikda foydalanishga asoslangan klastelar yaratish nazarda tutilmoqda.

Mintaqaviy (aglomeratsiya) klaster – bu bir aglomeratsiyada joylashgan, sinergiya samarasini yaratish maqsadida bir xil yoki turdosh sohalarda faoliyat yurituvchi, bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan bir nechta tashkilotlarning iqtisodiy birlashmasi. Shunga ko‘ra, O‘zbekistonda sanoat aglomeratsiyalarni rivojlanishi hududiy yaxlitlik va mintaqaviy sanoatni o‘sishini mutanosib saqlagan holda sanoat tarmoqlariga hududlarni ixtisoslashtirish orqali aglomeratsiyalar rivojlanishiga erishish strategik yo‘nalish hisoblanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilganda aglomeratsiya iqtisodiyoti va uning fundamental asoslarini yaratish hududiy rivojlanishda quyidagi muhim bo‘lgan iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash imkonini beradi:

Joylashuvni lokalizatsiya samarasi: har xil turdagi xarajatlarni kamaytirish uchun hududiy prinsip bo‘yicha yaqin bo‘lgan tarmoqlarni birgalikda rivojlantirishi orqali tranzaksiya, taqsimot va lagistik xarajatlarni qisqarish, ishlab chiqarish omillarining maqsadli va samarali taqsimoti, optimal kommunikatsiya, axborot va boshqalarni shakllantirish, mehnat unumdorligini oshirish, mahalliy, yagona mehnat bozorini shakllanishi, innovatsiyalarga qodir yuqori malakali mutaxassislar jamlanishi va yangi iqtisodiy tarmoqlarni paydo;

13 O‘zbekiston sanoati. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi. Toshkent 2022-yil. – O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi statistik to‘plami ma’lumotlari asoisda tayyorlangan.

Urbanizatsiya samarasi: innovatsion, yuqori texnologiyali faoliyatlarni mutanosib rivojlanishi, infratuzilma, ta'lim va yuqori turmush darajasini ta'minlanishi, aholining madaniy darajasi va saviyasini oshib borishi, yangi xizmat turlariga talabning paydo bo'lishi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini innovatsiyalar diffuziyasi asosida rivojlanishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маршалл А. Принципы экономической науки. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.library.fa.ru/files/Marshall.pdf.
2. Портер М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов / М. Портер. –Москва: Альпина Бизнес, 2005. – 454 с.
3. Bolter K., Robey J. Agglomeration Economies: A literature review. – 2020.
4. Porter, M. E. (1998). Clusters and the new economics of competition (Vol. 76, No. 6, pp. 77-90). Boston: Harvard Business Review/
5. Cohen, J. P., Coughlin, C. C., & Paul, C. J. M. (2019). Agglomeration, productivity and regional growth: production theory approaches. In Handbook of regional growth and development theories. Edward Elgar Publishing.
6. Меркурьев В.В. Организационно-экономические основы развития агломераций муниципальных образований: теория и методология. Дис. на соис. уч. ст. Д.э.н. Кемерово – 2022. –21 стр.
7. https://города2030.екатеринбург.рф/file/8344ee89e6e392bb9fd9958b1649c973 (дата обращения 15.08.2019).
8. McKinsey Global Institute, 2011 "Urban World: Mapping the Economic Power of Cities" repotr.
9. Audretsch, D., & Feldman, M. (2004). Knowledge spillovers and the geography of innovation. In J. V. Henderson & J.-F. Thisse (Eds.), Handbook of regional and urban economics: Cities and geography (Vol. 4, pp. 2713-2739). Amsterdam: North-Holland.
10. Duranton, G., & Puga, D. (2004). Micro-foundations of urban agglomeration economies. In Handbook of regional and urban economics (Vol. 4, pp. 2063-2117). Elsevier.
11. Мерзлов Д. И. Развитие агломераций в кризисные периоды: дис. –Мерзлов Дмитрий Иванович.–Санкт-Петербург. СПбГЭУ. –2020.–180 с. –2020.
12. Нещадин А.А. Новые тенденции расселения в России [Электронный ресурс]. –Режим доступа: http://dok.opredelim.com/docs/index-51975.html (дата обращения: 15.08.2019).
13. O'zbekiston sanoati. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. –Toshkent-2022-yil.



KORXONALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI

Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), ISFT instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarning strategik boshqaruvi samaradorligi va unga ta'sir qiluvchi omillarni baholash hamda boshqaruvning innovatsion yondashuvlardan foydalanish mexanizmlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: korxonani boshqarish, samaradorlik, innovatsion strategiya, innovatsion yondashuvlar, raqobat muhiti, korxona raqobatbardoshligi.

Abstract: This article highlights the effectiveness of the strategic management of enterprises and the assessment of the factors influencing it, as well as the mechanisms for using innovative approaches in management.

Key words: enterprise management, efficiency, innovative strategy, innovative approaches, competitive environment, enterprise competitiveness.

Аннотация: В данной статье освещается эффективность стратегического управления предприятиями и оценка факторов, влияющих на него, а также механизмы использования инновационных подходов в управлении.

Ключевые слова: управление предприятием, эффективность, инновационная стратегия, инновационные подходы, конкурентная среда, конкурентоспособность предприятия.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo'lish va shu orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish Vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun esa, avvalo, iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish zarurdir.

Hozirda jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan yangi texnologiyalarning rivojlanishi hamda tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi bozorlaridagi raqobatning kuchayishi korxonalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish tizimini faollashtirish va uni yanada samarali tashkil etishga qaratilmoqda. Ayniqsa, mamlakat iqtisodiyotini tarkiban yangilash, fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan ustuvor sohalarni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Bu esa, aholining tez o'sib, o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish, so'nggi kashfiyot ishlanmalari va texnologiyalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish va tovarlarining hayotiylik davrini barqaror o'sib borishini ta'minlovchi zamonaviy usullarni keng ko'lamda foydalanishni taqozo etmoqda.

Natijada bozor islohotlarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi milliy korxonalarning iqtisodiy taraqqiyotini moddiy resurslar asosida emas, balki innovatsion shaklda, raqobat muhitini shakllantirish orqali amalga oshirilishini zaruratga aylantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni[1]. Harakatlar strategiyasining davomi sifatida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari alohida muhim o'rin egallaydi. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish hisobiga iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda mintaqada ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish, avvalo iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish dasturining eng ahamiyatli vazifalari qatoridan o'rin olgan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. https://lex.uz/docs/5841063.

Hozirgi kunda respublikamiz korxonalarini boshqarish samaradorligini oshirish ularni texnologik yangilash jarayonlarini yaxshilash bilan bir qatorda, innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish, raqobat muhitini shakllantirishni davom ettirilishini taqozo etmoqda. Bu esa, hozirgi iqtisodiyotning barcha sohalarida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, mamlakatlar iqtisodiyotining integratsiyalashuvi hamda tovarlar bozorida raqobatning keskinlashuvi sharoitida yanada dolzarb masalaga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy rivojlanish va uning yaqin kelajakdagi istiqbolining o‘ziga xos xususiyati shundaki, innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish tobora zaruriy vositaga aylanib bormoqda. Bu tendensiya iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ham, bozor islohotlari yaqinda amalga oshirilayotgan mamlakatlarda ham keng namoyon bo‘lmoqda.

XXI asrning boshiga kelib insoniyat yangi paradigma, ya’ni milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirishda mamlakatlar o‘zining innovatsion ishlab chiqarish konsepsiyasiga o‘tishi zarur degan xulosaga kelindi. Natijada iqtisodchi olimlarning innovatsiyalar bilan bog‘liq turli qarash va yondashuvlari rivojlana boshladi. Bu borada amerikalik iqtisodchi olim J.Brayt “Innovatsiya jarayoni ilm, texnika, tadbirkorlik va boshqaruvni o‘zida birlashtiruvchi, innovatsiyalarni tijoratlashuviga qaratilgan faoliyatdir” – deb ta’kidladi. Uning fikricha, innovatsiya jarayoni g‘oyani paydo bo‘lishidan boshlab tijorat asosida hayotga tatbiq etish jarayonigacha bo‘lgan bosqichni o‘z ichiga oladi.

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan M.Ionov, A.Kulagin, V.Loginovlarning ilmiy ishlarida innovatsiyalar – korxonalarning iqtisodiy samaradorligini ta’minlash zarurati va vositasi ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan. Ular o‘z tadqiqotlarida innovatsion jarayonlarni “xarajatlarni tejash yoki bunday tejash uchun sharoit yaratilishini ta’minlovchi yangi mahsulot yoki xizmat, ishlab chiqarish uslubi, tashkiliy, boshqaruv, moliyaviy, ilmiy tadqiqot va boshqa sohalardagi yangiliklar” sifatida ko‘rishgan.

A.Utkin esa bozor sharoitida korxonalarning samarali iqtisodiy faoliyati uchun innovatsiyalar muhimligini ta’kidlab, korxona iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi asosiy dastaklardan biri sifatida tavsiflagan.

Ushbu muammolarning O‘zbekistonda boshqaruv nuqtayi nazaridan hal qilinishiga xos xususiyatlar Sh.Zaynutdinov, D.Rahimova, M.Mahkamova, A.Rasulev, R.Alimov, A.Qodirov, N.Yo‘ldoshev, T.Toshpulatov, G.Xamdamova, G.Xatamova, N.Namazova, G.Xasanova, Sh.Otajonov, Sh.Sindarov, R.Nazarova, N.Alimova, Z.Gaibnazarova va boshqa olimlar tomonidan muayyan darajada o‘rganilgan.

Innovatsion jarayonlarni kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini tashkil etish, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda ularni iqtisodiy samaradorligini oshirish muammolari Sh.Otajonovning ilmiy tadqiqotlarida bayon etilgan. Xususan, Z.Gaibnazarova tomonidan bajarilgan nomzodlik dissertatsiya ishida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida innovatsion investitsiyalashtirish samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish hamda uning asosiy yo‘nalishlarini aniqlashga oid ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. G.Xatamovaning tadqiqotlarida korporativ tuzilmalarda innovatsion strategiyani takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari yuzasidan ilmiy- nazariy hamda uslubiy taklif va tavsiyalar ilmiy asoslangan.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar mamlakatda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurishga qaratilgan jarayonlarni tezlashtirish, tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan turli mulkchilikka asoslangan korxonalarda innovatsion jarayonlarni rivojlantirish hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy korxonalarning samarali faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan ularning raqobatbardoshlik darajasi va innovatsion salohiyatiga bevosita bog‘liqligi, hozirda yirik korxonalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish va raqobat muhitini shakllantirish bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etish muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda faoliyat ko‘rsatayotgan turli shakldagi korxonalar milliy iqtisodiyotning istiqbolini belgilashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish borasida muhim ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajarmoqda. Ammo korxonalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish tizimining sustligi korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini samarali tashkil etishga, unga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etishni kengaytirishga, istiqbolli innovatsion loyihalarni amalga oshirish va shu kabi boshqa ustuvor vazifalarni hal etishni kechiktirmoqda.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, korxonalarda innovatsion jarayonlarning rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish milliy iqtisodiyotning raqobatchilik muhitini vujudga kelishini ta’minlaydi. Natijada iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarning mazmuni nafaqat boyitiladi, balki ijtimoiy-iqtisodiy nuqtayi nazardan samarali bo‘lgan xo‘jalik yuritish faoliyati, tarmoq va sohalarning keng hamda har tomonlama rivojlanishi uchun zamin yaratiladi. Ishlab chiqarish va iste’moldagi turli yakka hukmronlik holatlariga barham berilib, korxona mablag‘lari va boshqa resurslarning samarali taqsimlanishi va harakatchanligi ortadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, ixtiyoriy davlatda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligi o'sha davlatda yaratilgan qulay ishbilarmonlik va biznes muhitiga bog'liq bo'ladi.

23–28-yanvar 2022-yilda Shveysariyaning Davos shahrida o'tkazilgan 39-an'anaviy Jahon iqtisodiy forumida Dunyo mamlakatlarining "Global raqobatbardoshlik" to'g'risidagi hisoboti chop etildi. Mazkur hisobot ma'lumotlariga ko'ra, Shveysariya 2015-yildan buyon 5 yil mobaynida "Global raqobatbardoshlik" to'g'risidagi reytingda 1-o'rinni egallab kelmoqda. Reytingning birinchi uchligidagi mamlakatlar oldingi yilga nisbatan o'z holatlarini o'zgartirmagan. Reytingda Shveysariya (1), Singapur (2) va Finlyandiya (3) o'rinlarni egallashgan.

1-jadval: Jahonning eng raqobatbardosh mamlakatlar reytingi

№	Mamlakatlar	Reyting		O'zgarish
		2022-yil	2019-yil	
1.	Shveytsariya	1	1	0
2.	Singapur	2	2	0
3.	Finlandiya	3	3	0
4.	Germaniya	4	6	+2
5.	AQSh	5	7	+2
6.	Shvetsiya	6	4	-2
7.	Gonkong	7	9	+2
8.	Gollandiya	8	5	-3
9.	Yaponiya	9	10	+1
10.	Buyuk Britaniya	10	8	-2

Manba: http://gtmarket.ru

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, jahonning eng raqobatbardosh mamlakatlar reytingi o'nligida Yevropa mamlakatlari yuqori ustunlikka ega. Mazkur birinchi o'nlikka kirgan mamlakatlarning 3 tasi Osiyo qit'asiga to'g'ri keladi. Bulardan, Singapur (2), Gonkong (7) va Yaponiya (9) o'rinlarni band etgan. Mazkur hisobotda AQSHlari so'nggi to'rt yil ichida o'z holatini 2 punktga ko'tarishga erishgan. MDH mamlakatlari ichida Ozarbayjon (39;+7) yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, oldingi yilga nisbatan 7 punktga ko'tarilgan. Bunday ijobiy o'zgarishlar Rossiya (64;+3), Gruziya (72;+5), Armaniston (79;+3), Qirg'iziston (121; +6) kabi davlatlarning ko'rsatkichlarida ham kuzatilgan. Ukraina esa (84;-11) mazkur reytingda oldingi yilga nisbatan 11 punkt pasaygan. Shuni ta'kidlash joizki, mazkur birinchi o'nlikka kirgan mamlakatlarda innovatsiya va kuchli institutsional muhit darajasi keyingi besh yilda sezilarli ravishda yaxshilangan.

Demak, faoliyat yuritayotgan firma, korxona, tashkilot va korporatsiyalarning raqobatbardoshligi mamlakatning monopoliyaga qarshi kurash va raqobat muhitini yaxshilash tizimini samarali ishlashiga bog'liq. Shu bilan birga milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi xususiy mulkchilikning rivojlanganlik darajasi, uni davlat tomonidan kafolatlash tizimi hamda mamlakatning innovatsion siyosati va kuchli institutsional muhit darajasining yuqoriligi bilan ham belgilanadi.

Davlatimiz tomonidan Jahon iqtisodiy forumi qabul qilgan global raqobatbardoshlik indeksiga kiruvchi 12 ta guruhga oid omillar asosda O'zbekistonning boshqa mamlakatlarga nisbatan raqobatbardoshlik darajasini oshirish bo'yicha istiqbolli dasturlar ishlab chiqildi. Natijada milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini baholashda makroiqtisodiy vaziyat (jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM, YAIM deflyatori, ishsizlik darajasi), davlat institutlari sifati (xususiy mulk himoyasi indeksi, monetar siyosat erkinligi, kredit tashkilotlari, bojxona xizmatlari sifati), inson omili (umr ko'rish uzunligi, o'lim darajasi, 10000 kishiga nisbatan sil bilan kasallanish darajasi, boshlang'ich maktab qamrovi darajasi), innovatsion salohiyat (korxonalar asosiy fondlarini yangilash, fan-texnika yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish, ishlab chiqarishni texnologik jihatdan qayta qurollantirish, innovatsiyaviy loyihalarni amalga oshirish, inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiya va qo'yilmalar salmog'i) kabi ko'rsatkichlarni yaxshilashga erishildi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, makroiqtisodiy ko'lamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, mamlakatning innovatsion salohiyatini yaxshilash maqsadida ijobiy natijalarga erishilgan. Lekin korxonalarda moddiy-texnika bazasining holati va bozorda mahsulotlarning raqobatga dosh bera olmasligi innovatsion jarayonlarni strategik boshqarishda ayrim muammolar mavjudligidan dalolat beradi.

Olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, korxonalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarishda quyidagi asosiy muammolarga e'tibor qaratish lozim:

birinchidan, mamlakatimiz bir qator fundamental fan sohalarida katta salohiyatga ega, ammo ushbu salohiyatni ishlab chiqarish bilan bog‘langan holda ishga solish mexanizmi yaratilmagan;

ikkinchidan, real sektor korxonalarning innovatsiyalarni qabul qilish jarayonini past darajada qolayotganligi korxonalarda ilg‘or texnologiyalarga bo‘lgan talabning sustlashishiga olib kelmoqda

uchinchidan, qulay ishbilarmonlik va biznes muhitini yaratish borasida kamchiliklarning mavjudligi korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizning real sektor korxonalari bo‘yicha innovatsion salohiyat va raqobat muhitini o‘rganish borasidagi vaziyat tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2020-yilda zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalar soni respublikamizda 144 tani tashkil etgan. Jumladan, tarmoq bo‘yicha “O‘zbekenergo” DAKda 5 ta, “O‘zbekneftgaz” MXKda 7 ta, “Toshshaharxizmat” da 13 ta, “Yengilsanoat” DAKda 13 ta, “Eltexsanoat” uyushmasida 3 ta, kommunal xo‘jaligi korxonalarida 28 tani tashkil etgan. Shundan iqtisodiy nochor korxonalar soni 63 tani tashkil etib, “O‘zkimyosanoat” DAKda 7 ta, “O‘zavtoyo‘l” DAKda 13 ta, kommunal xo‘jaligi korxonalari 19 ta, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi korxonalarida 3 taga to‘g‘ri kelgan.

Ma’lumotlar shu narsani ko‘rsatmoqdaki, ayrim korxona menejerlari hozirgacha milliy va jahon bozorlarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni oldindan ko‘ra bilmasligi, iste’molchi talabi va didini o‘rganmasligi, korxonaning boshqarish mezoniga nisbatan qaysi yo‘nalishda barqaror raqobatli ustunlikka erishish imkoniyatlarini aniqlay olmasligi korxonalarning raqobat kurashida muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga olib kelmoqda.

Markazlashtirilgan rejalashtirishdan bozor munosabatlariga o‘tish korxonalar samaradorligi uchun tubdan qayta shakllanishlar jarayonining boshlang‘ich tamoyili hisoblanadi. Ko‘plab korxonalar boshqaruvchilarning oldida turgan asosiy muammolaridan biri bo‘lib, aylanma mablag‘larning yetishmovchiligi hisoblanadi. Har bir korxonaning asosiy maqsadi, doimiy tarzda foyda olishdan iboratdir. Biroq, bozor sharoitlarida boshqaruvchilar korxona faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi bir qator muammolarga duch kelishi mumkin. Demak, korxona o‘zining asosiy maqsadlarini hal etishda uning moliyaviy mexanizmi quyidagi masalalarni hal etishi zarur.

Yaqin kelajakka mo‘ljallangan korxonaning rivojlanish maqsadlariga mos ravishda moddiy manbalarning yetarli hajmini ta’minlash. Ushbu masala belgilangan muddat bo‘yicha zaruriy moliyaviy manbalar hajmini belgilash hamda ichki manbalar va tashqi hamkorlar hisobiga moliyaviy manbalarni maksimal darajada jalb etish, shu bilan birga kredit moliyaviy vositalarni mohirona boshqarish va manbaviy moliyaviy salohiyatni shakllantirishni optimallashtirish asosida amalga oshiriladi.

Tashkilot faoliyatining asosiy yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan moliya hajmini samarali sarf qilishni shakllantirish. Bunda moliyaviy manbalarni optimal taqsimlash korxona rivojlanish maqsadlari uchun foydalanishda zaruriy moslikni (proporsionallikni) yaratishni taqozo etadi. Korxonaning ishlab chiqarish jarayonida uning rivojlanishining strategik maqsadlari o‘rganilishi hamda moliyaviy qo‘yilmalaridan olinadigan foyda darajasi tadqiq etilishi lozim.

Moliya aylanmasini me’yorlashtirish. Ushbu vazifa korxonaning moliya oqimlarini samarali boshqarish, turli muddat davomida pul mablag‘larini jalb qilinishi va o‘tkazilishi o‘rtasidagi moslikni ta’minlash hamda korxonaning aylanma aktivlarini zaruriy darajda qo‘llab–quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Bunday moliyaviy optimallashtirishning natijasi, moddiy aktivlarning o‘rtacha qoldig‘ini minimallashtirish hisoblanadi va bu holat esa moliyalarni nosamarador taqsimlash va inflatsiya asosida sodir bo‘luvchi yo‘qotishlarni kamayishini ta’minlaydi.

Mavjud bo‘lgan moliyaviy tavakkalchilik sharoitida korxona foydasini maksimallashtirishini ta’minlash, bu holat esa samarador boshqaruv faoliyati, moliya aylanmasiga koxonalar aktivlari va kredit- moliyaviy vositalarni jalb qilish hamda korxona faoliyatida yuqori samarador yo‘nalishlarni tanlash orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiy rivojlanish uchun korxona samarador soliq, amortizatsion va dividend siyosatini olib borish asosida sof foydani oshirishga intilishi zarur. Korxona foydasini maksimallashtirishga moliyaviy tavakkalchilik darajasini sezilarli darajasini oshirish orqali erishiladi.

Foydaning rejalashtirilgan hajmiga mos ravishda moliyaviy tavakkalchilik darajasini pasaytirish. Agarda korxonaning daromadi darajasi avvaldan rejallashtirilgan bo‘lsa, u holda ushbu foydani olishni kafolatlovchi moliyaviy tavakkalchilikni minimallashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Bu holatga amaliy (operatsion) va moliyaviy faoliyatning turli ko‘rinishlaridan hamda moliyaviy investitsiyalar paketidan foydalanish orqali erishish mumkin.

Korxonaning rivojlanish jarayonida muqim moliyaviy tenglikka erishish. Muqim moliyaviy rivojlanish moliyaviy barqarorlik hamda korxona faoliyatining har bir bosqichida to‘lov qobiliyatining yuqori ko‘rsatkichlari bilan ifodalanadi. Bu holat moddiy vositalarning optimal tuzilmasini yaratish va ishlab chiqarish talablarini o‘z-o‘zini moliyalashning yetarli darajasini ta’minlaydi.

Demak, yuqoridagi mulohazalar korxonalar samaradorligini va raqobatdoshligini oshirishning muhim omili innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish ekanligini ko‘rsatadi. Chunki innovatsion jarayonlar strategiyasi raqobatchilarga nisbatan mazkur korxona salohiyati va kuchini mustahkamlashga qaratilgan, qo‘yilgan maqsadlarga erishishning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tadbirlar majmui hisoblanadi. Bu esa, korxona innovatsion staregiyasini to‘g‘ri tanlashga, mahsulot raqobatdoshligini oshirish mexanizmlarini samarali tashkil etishga,

ishlab chiqarish uchun ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Pirovard natijada korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Очковская М.С. Инновации как качественный фактор экономического роста. Автореф. диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –М.: Дело, 2006. –С.4.
2. Ветров А.А. Структурно-целевой анализ экономического потенциала предприятия (теория и методология). – Саратов: Изд-во Саратовского универ-ситета, 2008. –188 с.
3. Гогина Г.Н., Никифорова Е.В., Шиянова С.А. Комплексный анализ экономического потенциала организации. Под ред. А.И. Афоничкина. –Тольят-ти: Волжский университет им. В.Н. Татищева, 2003 – 175 с.
4. Дракер П. Управление, нацеленное на результаты: Пер. с англ. – М.: Технологическая школа бизнеса, 2004. – 200 с.
5. Морозова Л. Э., Бортник О. А., Кравчук И. С. Экспертные методы и технологии комплексной оценки экономического и инновационного потенциала предприятий. Учебное пособие.: –М.: Альпина бизнес букс, 2009. – С.9.
6. Друкер П. Задачи менеджмента в XXI веке.: Пер. с англ.: –М.: Издательский дом "Вильямс", 2004. – 272 с.
7. Афоничкин А.И. Основы менеджмента. Учебное пособие.: –М.: Кнорус, 2011. –С.272.
8. Шавель А. В. Сущность понятия "инновация" как экономической категории // Управление экономическими системами: электронный научный журнал. // www.uecs.ru
9. Ergashev F., Raximova D., Sagdullayev A., Parpiyev O., Zaynutdinov Sh. Innovatsion menejment. Darslik. –T.: Akademiya, 2005. –239 b.
10. Gimush R.I., Matmuradov F.M. Innovatsion menejment / O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. –144 b.
11. Yo'ldoshev N.Q., Mirsaidova Sh.A., Goldman Ye.D. Innovatsion menejment. Darslik. –T.: Iqtisodiyot, 2011. –312 b.
12. Taraxtiyeva G. K. Innovatsion menejment / O'quv qo'llanma. –T.: Fan va texnologiyalar, 2013. – 208 b.
13. Otajonov Sh.I. O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyati boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.: Iqtisod fanlari nomzodi diss.avtoref. –T., 2010. –27 b.
14. Gaibnazarova Z.T. Innovatsion investitsiyalashtirish samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.: Iqtisod fanlari nomzodi. diss.avtoref. –T., 2012. –28 b.
15. Хатамова Г.Р. Совершенствование механизма инновационной стратегии в корпоративных структурах" (На примере ОАО "Ташкентский тракторный завод").: Iqtisod fanlari nomzodi. diss.avtoref. –T., 2010. –28 b.
16. http://gtmarket.ru

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Salimov Dilshodbek Davronovich
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasidagi turistik tashkilotlar boshqaruv tizimidagi tashkiliy yangiliklarga nisbatan korxona ichidagi o‘zgarishlarning yo‘nalishi innovatsion o‘zgarishlarning tashabbuskorlari va amalga oshiruvchilari o‘rtasida o‘zaro aloqani ta’minlashi kerak bo‘lgan aloqa jarayonlari ssenariylarining jamoaviy talqini hamda sohada innovatsion turizm faoliyati jarayonlarini boshqarish tizimining parametrlarini shakllantirishning asosiy shartlari tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm sohasi, turistik tashkilot, qo‘llab-quvvatlash, innovatsion faoliyat, innovatsion tadbirkorlik, innovatsion boshqaruv, strategik boshqaruv.

Abstract: This article carried out a collective interpretation of the scenarios of communication processes, in which the direction of changes within the enterprise in relation to organizational innovations in the management system of tourist organizations in the field of tourism should ensure interaction between the initiators and implementers of innovative changes, as well as an analysis of the basic conditions for the formation of parameters.

Key words: Tourism Industry, Tourism Organization, support, innovation activities, Innovation Entrepreneurship, Innovation Management, Strategic Management.

Аннотация: В данной статье проведена коллективная интерпретация сценариев коммуникационных процессов, в которых направление изменений внутри предприятия по отношению к организационным инновациям в системе управления туристскими организациями в сфере туризма должно обеспечивать взаимодействие между инициаторами и исполнителями инновационных изменений, а также проведен анализ основных условия формирования параметров.

Ключевые слова: Индустрия туризма, Организация туризма, поддержка, инновационная деятельность, инновационное предпринимательство, Инновационный менеджмент, Стратегический менеджмент.

KIRISH

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilish, raqobatdosh innovatsion mahsulotlar va xizmatlarning nomenklaturasini kengaytirish tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bunda mavjud ilmiy-innovatsion salohiyatdan samarali foydalanish, ilg‘or ilm-fan yutuqlari va istiqbolli innovatsion texnologiyalar asosida yangi ishlab chiqarish tuzilmalari va xizmatlar turlarini yaratish zarur.

METODOLOGIYA

Tadqiqotni amalga oshirishda turizm sohasinining barqaror rivojlanishida eng muhim omillarni o‘zida umumlashtirgan baholash uslubiyotlarini ko‘rib chiqqan holda, mavjud uslubiyotlardan mamlakatimiz turizm sohasinining salohiyati va barqarorlik darajasini aniqlash mumkin bo‘lgan uslubiyotni shakllantirildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro tajribada innovatsion jarayonlarni tashkil etish bo‘yicha turli jihatlarni D.Arjibudji, J.Xovels, D.Bell, PyuDruker, B.Lundval, N.Mazur, R.Nelson, V.Ivanov, Y.Shumpeter, R.Fatxuddinov, N.Rozenberg, A.Porshneva, K.Puznya, A.Rumyanseva va boshqa olimlar ishlarida topish mumkin. Taniqli Y.Shumpeter, G.Mensh, Dj. Forrester ishlarida iqtisodiy o‘sishning innovatsion tarkibi konsepsiyasini ta’minlovchi makroiqtisodiy modellar mexanizmlari ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda turizm sohasini innovatsion rivojlantirishda sohadagi turistik tashkilotlarning innovatsion rivojlanish xususiyatlari, xizmat ko‘rsatish funksiyalariga ta’sir etuvchi omillarni chuqur o‘rganish va buning natijasida ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Mazkur omillar o‘zining ta’sir doirasiga qarab iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy-madaniy, demografik va institutsional omillarga bo‘linadi. Sanab o‘tilgan omillar orasida iqtisodiy omillar o‘zining ta’sir doirasiga qarab ayniqsa ko‘p ulushni tashkil etadi, xususan, bozorlar ko‘lami, aholi daromadlarining taqsimlanishi, samarali talab darajasi va boshqalar.

Ammo shuni unutmaslik kerakki, turistik tashkilotlarning innovatsion rivojlanishi to‘g‘ridan to‘g‘ri tadbirkorlik faoliyatining darajasiga bog‘liq bo‘lib, u faqat o‘z biznesini ochish bilan chegaralanib qolmasligi, balki innovatsion elementlarning mavjudligi bilan tavsiflanishi kerak, bu esa o‘z navbatida, bizga tadbirkorlik subyektlarini ikkita asosiy elementga ega ajratish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqishga imkon beradi:

- innovatsion faoliyat tadbirkorlik funksiyasi sifatida;
- bu funksiyani amalga oshiruvchisi sifatida tadbirkorning harakatlari.

Shu munosabat bilan xulosa qilish mumkinki, turizm sohasidagi innovatsion tadbirkorlik faoliyati xavf va noaniqlik sharoitida amalga oshiriladigan va nafaqat foyda olishga, balki uni iste’molchilar talabini to‘liq va sifatli qondirishga qaratilgan innovatsion iqtisodiy faoliyat sifatida belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, hozirgi kunda respublikamizda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari to‘liq ishlab chiqilmagan.

Ayniqsa, turizm sohasida davlat tomonidan tartibga solishga ehtiyoj juda katta. Respublika rahbariyati tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini himoya qilish bo‘yicha samarali ishlar olib borish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilganini ta’kidlash joiz.

Eng muhimi, qonunchilik bazasini yaratilishi, xususan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini himoya qilish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida ko‘plab qonun va me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Biroq, qo‘llab-quvvatlash, biznes-inkubatorlar, innovatsion texnoparklar, kafolat fondlarini yaratish bo‘yicha barcha choralar, asosan, ishlab chiqarish sohasini rivojlantirishga, uning kichik biznesdagi ulushini orttirishga qaratilgan.

Turizm sohasini rivojlantirish jarayonida qabul qilingan qarorlar ta’sir doirasiga kiruvchi insonlar doirasini hisobga olgan holda, turizm sohasidagi turistik korxonalar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan innovatsion boshqaruvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir [1].

Shu bilan birga, ma’lum bir hududdagi innovatsion turizm sohalarining o‘ziga xosligi, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish strategiyasining yo‘nalishini belgilaydi va bu sohadagi korxonalarni boshqarishning yangi shakllari va usullarini izlashga turli omillar va sharoitlarning ta’sirini aks ettiradi.

Innovatsion faoliyat korxonalar iqtisodiyotining sifat jihatdan o‘zgarishi natijasida, barcha omillarning ta’sirini jamlaydi va iste’molchilarning innovatsion jarayonda ishtirok etish darajasiga qarab o‘zgaradi [2].

Shu munosabat bilan, innovatsion jarayonlarni boshqarish tizimlarini shakllantirish, uning bo‘linmalarining tashkiliy tuzilishi va vazifalarini aniqlash zarur bo‘ladi. Innovatsion jarayonlar tizimini innovatsiyalar, turistik korxona (hudud)ning innovatsion salohiyati va innovatsion infratuzilma sifatida qaraladi.

Oxirgi komponent axborotni qo‘llab-quvvatlash, moddiy-texnik va tashkiliy xizmatlar orqali yangiliklarni amalga oshirish uchun aniq moliyaviy, tashkiliy, ishlab chiqarish va ijtimoiy sharoitlarni yaratadi, bu esa turistik korxonalarning innovatsion salohiyatini shakllantirishga bevosita ta’sir qiladi.

Shunday qilib, turizm sohasidagi korxonalar innovatsion rivojlanishining aniqlangan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy muammolarini umumlashtirib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

- turizm sohasidagi tadbirkorlik, bozor sharoitida faoliyatning eng istiqbolli shakli sifatida, yangi bozorlarni turli sohalarning raqobatbardosh xizmatlari bilan to‘ldirishning murakkab muammolarini hal qilish, raqobatni rag‘batlantirish va innovatsiyalarni rag‘batlantirish uchun mo‘ljallangan;

- turizm sohasidagi, ayniqsa, kichik turistik korxonalarning rivojlanishi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishga muhtoj va normativ- huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi;
- turizm sohasidagi turistik korxonalarni innovatsion rivojlantirish vazifalari mavjud talablarga mos keladigan yangi shakl va usullarni qo‘llash orqali korxona ichidagi boshqaruvni takomillashtirish asosida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan respublika va hududiy innovatsion-iqtisodiy rivojlanish dasturlariga muvofiq bo‘lishi kerak;
- mahalliy boshqaruv tuzilmalarining turizm sohasidagi turistik korxonalarni innovatsiyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishda ishtiroki zarur.

Bizning fikrimizcha, turistik xizmatlar sotish hajmining o‘sishi, innovatsion xizmatlarga bo‘lgan talab, raqobatbardosh korxonalarning paydo bo‘lishi bilan birga keladi, bu esa korxonalarda innovatsiyalarni faollashtirish va rag‘batlantirishning yangi shakllari va usullarini izlashga boshqaruv ta’sirini yo‘naltirishni talab qilib, marketing usullarini qo‘llash bilan birga, xizmat ko‘rsatish muddatini uzaytiradi (yetuklik bosqichi), bu nisbatan barqarorlik va strategik afzalliklardan samarali foydalanish bilan tavsiflanadi.

Shu nuqtayi nazardan, turizm sohasidagi korxonalarda ularning innovatsion rivojlanishiga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimining zarur elementlarini ajratib ko‘rsatish mumkin: turistik korxonalarni boshqarish jarayoniga kiritilgan strategik boshqaruv quyi tizimi; korxona jarayonlari tarmog‘i uchun yaratilgan jarayonlarni boshqarish quyi tizimi; jarayonlarning ishlashini yaxshilashga qaratilgan motivatsiya quyi tizimi (jarayonlarga integratsiyalashgan).

Turistik korxonani innovatsion boshqarish uzoq muddatli samarali rivojlanishga erisha turib, strategiya, moliyalashtirish va tashkil etish sohasida texnologik va bozor sharoitlarini yengib o‘tishga imkon beradigan shunday xatti-harakatni ta’minlaydi. Binobarin, korxonaning uzoq muddatli istiqboldagi innovatsion siyosati, bir tomondan, bozorda omon qolishning asosi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bozor muvozanatiga, tarmoqlararo va tarmoqlararo tuzilishga faol ta’sir etuvchi omil hisoblanadi [3].

Innovatsion faoliyatga yo‘naltirilgan korxona, u faoliyat ko‘rsatayotgan institutsional muhitga, shuningdek, ichki ijtimoiy muhitga bog‘liq bo‘lib, bu innovatsion rivojlanishning eng muhim intellektual omili bo‘lgan ijtimoiy yangiliklar shular jumlasidandir.

Boshqaruv obyekti sifatida, innovatsion jarayon bir qator obyektiv rivojlanish modellariga ega, ularning asosiylari: vaqt, xarajatlar va natijalar nuqtayi nazaridan innovatsiyalar rivojlanishining ehtimollik tabiati, turizm sohasidagi innovatsion jarayonlarni rejalashtirishning qiyinligi.

Shu bilan birga, turizm sohasidagi innovatsion faoliyat ijtimoiy yo‘nalishga ega aholining turmush darajasini oshirishga yordam beradigan ijtimoiy ehtiyojlar, ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarining o‘sishini ta’minlaydigan, tegishli faoliyat turlarining rivojlanishini rag‘batlantiradi.

Innovatsion turizm sohasidagi korxonalar uchun strategik innovatsion menejment muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u, ham tadbirkorlik, ham professional-xo‘jalik boshqaruvga ta’sir qiladi. Texnologik, mahsulot va boshqaruv innovatsiyalari, korxona siyosatining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular asosan korxonaning turizm sohasidagi rivojlanish dinamikasini va muvaffaqiyatini belgilaydi.

Ma’muriy va tashkiliy innovatsiyalar, barcha darajadagi korxonalarni boshqarishning kundalik amaliyotiga, shu jumladan tuzilmalarni qayta qurish jarayonlariga va boshqaruv jarayonlariga kiritilishi kerak, bunga ehtiyoj - xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanuvchi - bozor sharoitida korxona innovatsion faoliyatining rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqaruv raqobatbardoshligi.

Korxonaning innovatsion siyosati, uning innovatsiya yaratishga moyilligi, innovatsion faoliyatni faollashtirish asosida korxonaning rivojlanishi to‘g‘risida qaror qabul qiladigan xodimlar, boshqaruv tizimi va menejerning malakasi va professionalligiga bog‘liq. Buning uchun, korxona xodimlarining innovatsion faolligi ortishiga hissa qo‘shadigan zamonaviy axborot ta’minoti talab qilinadi.

Shu bilan birga, samarali innovatsion faoliyat innovatsion, tadqiqot va ishlab chiqarish mahsulotlari bozorining mavjudligini, intellektual faoliyat natijalarini muomalaga kiritilishini nazarda tutadi. Biroq, bunday bozorni innovatsion mahsulotlar bilan to‘ldirilishi, zarur moliyaviy rag‘batsiz mushkul masala.

XULOSA

Bizning fikrimizcha, turizm sohasida xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishni jadallashtirish natijasida, faqat turistik korxonaning o‘z mablag‘iga ega bo‘lishi, innovatsion faoliyatni kreditlash uchun muhtoj qilib qo‘yishi mumkin, bu esa innovatsiyalarni joriy etish jarayonini faollashtirish imkonini beradi. Biroq, innovatsiya samaradorligi asosan innovatsion infratuzilma bilan belgilanadi. Innovatsion infratuzilma, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish tezligini va aholi farovonligining o‘sishini oldindan belgilab beradi. Ushbu infratuzilmaning bozorga yo‘naltirilganligi, uning zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha vazifalarni bajarilishini ta’minlash va ularning doimiy dinamik o‘zgarishlarga tezda moslashish qobiliyatini aniqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Архангельский В. В. и др./Инновационный тип развития экономики: учебник / под общ. ред.А. Н. Фоломьева, Рос. акад. гос. службы при Президенте Рос. Федерации. Изд. 2-е, доп. и перераб. –М.: Изд-во РАГС, 2010.
2. Аньшин В.М., Дагаев А.А. и др. Инновационный менеджмент. Концепции, многоуровневые стратегии и механизмы инновационного развития. 3-е изд., перераб. и доп. –М.: Дело, 2007. –584 с.
3. Mirzayev, A. (2023). Assessment of the impact of influencing factors in ensuring the competitiveness of graduates in higher education institutions. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(8), 69-83.
4. Mirzayev, A. (2023). Prospects for modeling the educational process in the development of strategies for increasing the competitiveness of graduates in higher education institutions. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(4), –57-66.
5. Homidov, K. (2023). Organizational and economic foundations of the organization of tourist complexes in the development of tourism in the regions. Journal of Agriculture & Horticulture, 3(7), –44-50.
6. Homidov Kakhkhorali Kurbonali ugli. (2023). Objective need for the formation and sustainable development of tourist complexes in the regions: https://doi.org/10.5281/zenodo.8151902. IQRO, 4(2), –42-45.
7. Хомидов, К. (2023). O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqaruv samaradorligi oshirish yo ‘llari. Economics and Innovative Technologies, 11(3), –154-160.
8. Xomidov, X. (2023). Hududlarda turistik majmualar faoliyatini shakillantirish va tizimli boshqarish asosida hududlar turistik salohiyatidan samarali foydalanish masalalari. “Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami., –412-415.
9. Хомидов,Қ.Қ.Ў.(2023).Организационно-экономический механизм развития туристических комплексов. In Новые технологии в учебном процессе и производстве (pp. 370-372).
10. Хомидов, Қ.Қ. (2023). Инновационные преимущества использования информационных технологий в туристической деятельности. In современные вопросы естествознания и экономики (pp. –421-424).

TO‘QIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASI



Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada to‘qimachilik sanoat korxonalarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari va foydalanilgan marketing strategiyalari o‘rganilgan, shuningdek, tadqiqotlar natijasida mamlakat sanoat tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: To‘qimachilik sanoati, innovatsion marketing, tez moda, merchandayzer, arzon narx strategiyasi.

Abstract: Thisarticle examines the best practices of foreign countries in the development of textile enterprises and marketing strategies used, as well as provides recommendations for the development of the country’s industrial sector as a result of research.

Key words: Textile industry, innovative marketing, fast fashion, merchandiser, low price strategy.

Аннотация: В данной статье рассматривается передовой опыт зарубежных стран в области развития текстильных предприятий и используемые маркетинговые стратегии, а также даются рекомендации по развитию промышленного сектора страны врезультате исследования.

Ключевые слова: Текстильная промышленность, инновационный маркетинг, быстрая мода, мерчандайзер, стратегия низких цен.

KIRISH

Jahon to‘qimachilik sanoatining o‘sishi, asosan, dunyodagi eng yirik to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi mamlakatlar va to‘qimachilik eksportchilari hisobiga shakllanmoqda, bu mamlakatlar asosan paxta, ip, tola va boshqa tayyor mahsulotlar yoki kiyim-kechak kabi materiallarni ishlab chiqarish va sotish bilan shug‘ullanadi. Xitoy dunyodagi eng yirik to‘qimachilik ishlab chiqaruvchilari va eksportchilari bo‘lib qolsa-da, Yevropa Ittifoqi, Hindiston va Aqsh kabi boshqa yirik to‘qimachilik bozorlari ham so‘nggi bir necha yil ichida yillik o‘sish sur’atlarini namoyish etmoqda. Jahon to‘qimachilik sanoati dunyodagi moda bozori bilan mutanosib ravishda tez o‘zgaruvchan bo‘lishi bilan, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotida yanada rivojlanish imkoniyatlari mavjud. Qo‘shma Shtatlar paxta xom ashyosining yetakchi ishlab chiqaruvchisi va eksportchisi, shu bilan birga to‘qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechaklarning eng yaxshi importchisi hisoblanadi. Yevropa Ittifoqining to‘qimachilik sanoati Germaniya, Ispaniya, Fransiya, Italiya va Portugaliyani o‘z ichiga oladi va jahon to‘qimachilik sanoatining 1/5 qismidan ko‘prog‘ini tashkil qiladi.Hindiston ham dunyodagi eng yirik to‘qimachilik ishlab chiqaruvchi mamlakatlar va eng yirik to‘qimachilik eksportchilaridan biridir. Yiliga 30 milliard AQSH dollaridan ortiq eksport qiymatiga ega. Hindiston dunyodagi umumiy to‘qimachilik ishlab chiqarishining 6,9% dan ortig‘iga ega va uning to‘qimachilik sanoati taxminan 150 milliard AQSH dollariga teng. O‘zbekiston Respublikasida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2021-yilda 2 927,2 mln AQSH dollarini tashkil etib, umumiy eksportning 17,6% ini tashkil etgan. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Respublikaning eksport salohiyatini oshirishorqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish belgilandi. Bu islohotlarni amalga oshirishda quyidagilarasosiy yo‘nalishlar hisoblanadi:

Mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish;-Tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jalb qilish;-Eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravar ko‘paytirib, Yevropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish va boshqalar.Fikrimizcha, belgilangan yo‘nalishlarni amalga oshirishda rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribasini o‘rganib, ularni mamlakat iqtisodi-

yotini rivojlantirishda qo‘llash maqsadga muvofiq. Chunki, rivojlangan mamlakatlardagi jadal sanoatlashtirish va rivojlanayotgan texnologiyalar to‘qimachilik sanoatida yuqori samarali mato ishlab chiqarishga va yuqori daromad olishga imkoniyat yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

To‘qimachilik sanoati eng qadimgi ishlab chiqarish tarmoqlaridan hisoblanadi. Shuningdek, R.K. Mohideen va boshqalar (2016) ta’kidlashicha, ushbu tarmoq agrosanoat sifatida ham tanilgan, chunki to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan hom ashyoni asosan qishloq xo‘jaligi sohasi yetishtirib beradi. Dunyo bo‘ylab to‘qimachilik va tikuvchilik biznesiga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatmoqda. J. Mosesva boshqalar (2006) to‘qimachilik sanoatining jadal rivojlanishi mamlakatni iqtisodiy farovonlikka olib kelishiga qaramasdan, lekin ayni paytda atrof-muhitning ifloslanishiga ham sababchi bo‘lmoqda. Olovli chiqindilar, tolali chang va ishlab chiqarish shovqini va suvning ifloslanishi atmosferaga xavf tug‘dirmoqda deb hisoblaydi.Biselli M (2009) ma’lumotlariga ko‘ra, to‘qimachilik sanoati qachon paydo bo‘lganligini aniqlash juda qiyin.Arxeologik topilmalar shuni ko‘rsatadiki, birinchi kiyim jun yoki teridan ishlab chiqarilgan.To‘qimachilik birinchi marta qo‘llanilgan hududlarga Misr, Hindiston, Turkiya va Xitoy kiradi.S. Cruz-Ros, D. Garzon (2017) marketingni ushbu tarmoq sohasida innovatsion raqobatdosh ustunlikning muhim manbayi sifatida aniqlaydi. J. Murray va boshqalar (2011) ta’kidlashicha, marketing innovatsiyasi firmalarga yangi va tabaqalashtirilgan mahsulotlarni, raqobatchilarga taqlid qilish qiyin bo‘lgan kuchli brend imidjini yaratishga imkon beradi. Leonidou (2002) ta’kidlashicha,-firmalar o‘z ichki va tashqi omillarning o‘zaro ta’siri natijasida eksport maqsadlarini amalga oshirishi uchun yangi eksport-marketing strategiyalaridan foydalanishini ko‘rsatadi.Gupta va boshqalar (2016) brend imidji bilan bog‘liq marketingning innovatsion uslublari firmaning raqobatbardoshligiga hissa qo‘shishini aniqlaydi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishda to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasini yanada takomillashtirish, shuningdek, rivojlangan davlatlarning marketingstrategiyalarini mamlakat yengil sanoat tarmog‘ida qo‘llash lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotishida to‘qimachilik korxonalarini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganishga qaratilgan tahlil va sintez, shuningdek qiyosiy va statistik hamda induksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida 522 turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 65 ta davlatiga eksport qilinadi. 2021-yilda2 927,2 mln. AQSH dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 17,6 % ni tashkil etgan va o‘tgan yilga nisbatan 52,3 % ga o‘sgan.To‘qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (55,1%), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (22,0%) jami eksportning dinamikasida eng katta ulushga ega hisoblanadi. Bundan tashqari naqshli mato, paxtadan gazlamalar, ipak va ipak mahsulotlari, paxta mahsulotlari, gilamlar va boshqa to‘qimachilik mahsulotlari Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Turkiya, Qirg‘iz Respublikasi, Polsha, Pokiston, Italiya, Belarusiya va boshqa bir qator davlatlarga eksport qilinadi.

Davlatlar kesimida to‘qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi (mln.AQSH dollari)

Davlatlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Rossiya Federatsiyasiga	592,3	655,5	910,7
XXRga	437,6	438,2	636,3
Turkiyaga	196,7	206,1	461,1
Qirg‘iz Respublikasiga	96,6	283,9	401,1
Polshaga	25,3	43,4	65,6
Pokistonga	10,4	16,5	59,2
Ukrainaga	29,5	33,1	51,6
Qozog‘istonga	39,7	42,3	48,6
Eronga	55,2	26,4	46,3
Italiyaga	11,4	10,1	32,8
Misrga	12,1	18,2	30,2
Belarusga	24,1	17,2	23,4
Boshqa davlatlarga	96	131,6	160,1

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, to'qimachilik mahsulotlari eksporti eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (31,1 %), Xitoy Xalq Respublikasi (21,7 %), Turkiya (15,8 %) va Qirg'iz Respublikasi (13,7 %) davlatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Xitoy to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati mahsulotlarni ishlab chiqarishda va sotuv tizimini tashkil qilishda "tez moda" (Fast fashion) sotuv rejimidan foydalaniladi. Tez moda XX asrning oxirida Yevropada paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, bu katta brendlarning dizayniga taqlid qilib modani tezda egallab oladigan so'ngra trendga mos keladigan, tezda yangilanadigan kiyim uslublarini taqdim etadigan va iste'molchilarga arzonroq narxda taklif qiladigan kiyim sotish rejimidir. Ushbu sotuv rejimini amalga oshirishda an'anaviy marketing miksning "4P" nazariyasiga asoslangan "4C" modelidan foydalaniladi. 4C nazariyasi amerikalik marketing mutaxassisi professor R.F.Lauterborn tomonidan 1990-yilda ilgari surilgan. Iste'molchilar talabiga binoan u marketing miksning to'rtta asosiy elementini qayta aniqladi: mijoz (Customer), narx (Cost), qulaylik (Convinience) va aloqa (Communication). Nazariya shuni ko'rsatadiki mijozlar talabini va ehtiyojini qondirishni yaxshilash, so'ngra mijozlarni sotib olish xarajatlarini kamaytirish, xaridorlarga imkon qadar sotib olish jarayonida qulaylik yaratish va mijozlar bilan muloqat qilisheng ustuvor vazifalardir.



1-rasm: 4C nazariyasi asosida marketing strategiyasining tahlili

Ma'lumotlarga ko'ra, ZARA Ispaniyada birinchi raqamli kiyim brendi va dunyodagi eng yaxshi uchlikdir. ZARA dizayni trendga mos keladi, ammo bu moda yirik brendlar narxi bilan solishtirganda juda past. Zaraning 4C marketing strategiyasining nazariyasi Zaraning muvaffaqiyati sabablarini umumlashtirdi va Xitoy kiyim kechak korxonalari uchun foydali takliflarni ilgari surgan. Mijozlar ehtiyojini qondirish (Customer). ZARA to'qimachilik korxonasi maqsadli mijozlarning moda tendensiyalariga intilishini qondirish uchun kiyim dizaynida xalqaro brendlar dizayniga taqlid qilishni tanlaydi. Shu bilan birga mijozlarning savdo ma'lumotlariga ko'ra iste'molchilarning fikr-mulohazalarini afzal bilib keyin mahsulot ishlab chiqarish yoki uni yaxshilash yo'lini afzal biladi. Narxni pasaytirish (Cost). ZARA dizayni moda tendensiyalarining keskin va noyob talqinidan kelib chiqadi. Uning dizayni to'liq o'ziga xoslikka asoslanmagan ammo to'liq nusxa ham ko'chirilmagan. Ushbu turdagi diversifikatsiya eng so'nggi moda elementlarini o'zlashtiradi. ZARA mahsulot dizayni, ishlab chiqarish xarajatlarini va logistika, transport xarajatlarini kamaytirish orqali tovar narxini pasaytirishga erishganini ma'lum qilgan. Mijozlar uchun qulaylik (Convinience). ZARA do'konlari iste'molchilarning xarid qilish qulayligiga asoslangan. Do'kon va magazinlar ZARAning asosiy savdo kanallari bo'lishiga qaramay, onlayn xaridlarning ko'payishi bilan ZARA ham onlayn kanallarni rivojlantiradi. ZARA iste'molchilar uchun eng so'nggi moda tarzini ko'rsatish uchun tarmoq platformasidan foydalanadi. Yaxshi muloqot qilish (Communication). ZARA do'konlaridagi savdo xodimlari juda do'stona va yuqori malakaga ega. ZARA mijozlar ehtiyojlarini qondiradigan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun telefon qo'ng'iroqlari va elektron pochta orqali mijozlarning fikr mulohazalarini to'playdi, hamda mahsulotlarni bozor o'zgarishlariga tezda javob berishga imkon beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So‘nggi yillarda ko‘plab boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar ham to‘qimachilik sanoatida ulkan o‘sishga erishmoqdalar, chunki ularning to‘qimachilik yoki tikuvchilik sanoatiga sarmoyalari ko‘paymoqda. Pokiston, Indoneziya, Tailand va Shri-Lanka, shuningdek, bir qator Janubiy Amerika mamlakatlari ham so‘nggi yillarda to‘qimachilik mahsulotlarining sezilarli darajada o‘sishiga erishdilar. Juda o‘zgaruvchan muhit va asosan global-lashuvning kuchayishi natijasida yuzaga kelgan kuchli raqobat bilan ajralib turadigan bugungi to‘qimachilik bozori iqtisodiyotida korxonalar uchun uzoq muddatli muvaffaqiyatni saqlab qolish tobora qiyinlashmoqda. Oddiy xarajatlarni saqlab qolish kabi usullardan foydalanish o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. Shuning uchun sanoat bozorida marketingning innovatsion uslublarini ishlab chiqish, xususan, sotish tizimini takomillashti-rish, xorijiy rivojlangan kompaniyalar qo‘llaydigan 4S nazariyasini mamlakat to‘qimachilik korxonalari faoliyatida qo‘llash, brend imidjini yaratish kabi xusisiyatlarni inobatga olish lozim. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, brend har bir firmaning strategik manbayi hisoblanadi. Brendga ega bo‘lish, uni qanday saqlashni va yaxshi boshqarishni bilish bozorda muvaffaqiyatga erishishning kalitiga-raqobatbardosh ustunlik manbayiga aylanmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son.
2. R.B.ChavanIndian textile industry-environmental issuesIndian. J. Fibre Text. –Res. –26 (2001), pp. –11-21.
3. Refik Culpan, Cemal Ekin, Mehmet Kumbaraci. A critical assessment of the Turkish Apparel industry and firms. Journal of global strategic management.2007-june
4. Md. Khaled Amin,Adnan Hossain. Expanding Apparel and Textile Market through effective Marketing Strategies: A case study of Bangladesh. International Journal of Business & Mgmt. –January 2014.
5. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati axborotnomasi ma’lumotlari.

OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI



Nilufar Umarova
TDIU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning zamonaviy yo‘llari, mamlakatimizda olib borilayotgan yangi islohotlar, oziq-ovqat sanoati korxonalaridagi muammolar, olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, 2030-yilga qadar oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish ko‘rsatkichlari hamda bir qator innovatsion yechimlarni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan masalalar ilmiy jihatdan bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat sanoati korxonalari, raqobat, raqobatbar-doshlik, innovatsiya, raqamli texnologiya, tejamkorlik, KPI baholash mezoni.

Abstract: In this article, modern ways to increase competitiveness in food industry enterprises, new reforms being carried out in our country, problems in food industry enterprises, conducted scientific research, indicators of food production until 2030, and issues aimed at implementing a number of innovative solutions scientifically stated.

Key words: food industry enterprises, competition, competitiveness, innovation, digital technology, savings, KPI evaluation criteria.

Аннотация: В данной статье рассмотрены современные пути повышения конкурентоспособности предприятий пищевой промышленности, новые реформы, проводимые в нашей стране, проблемы на предприятиях пищевой промышленности, проведенные научные исследования, показатели производства продуктов питания до 2030 года, а также вопросы, направленные на реализацию ряда инновационных решений. научно обосновано.

Ключевые слова: предприятия пищевой промышленности, конкуренция, конкурентоспособность, инновации, цифровые технологии, экономия, критерии оценки KPI.

KIRISH

Buguni kunda oziq-ovqat mahsulotlari aholi ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan birlamchi iste’mol qilinadigan mahsulotlar hisoblanadi. Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, sanoat korxonalari o‘rtasida raqobatbardoshlikni oshirish, ekologik jihatdan toza mahsulotlar ishlab chiqarish hamda sanoat korxonalarini iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini yuqori sur’atlarda o‘sib borishini ta’minlash eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida Muhtaram, Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, sanoat korxonalri o‘rtasida raqobatbardoshlikni oshirish hamda ekologik jihatdan toza mahsulotlar ishlab chiqarish borasida ko‘plab yangi islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko‘ra, oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida quyidagi bir qator vazifalar belgilab berildi.

Jumladan, 22-maqsadga ko‘ra, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish;

- sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash;
- oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish;

- yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o‘rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish;
- sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish;
- sanoat tarmoqlarida yo‘qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish[1] kabi bir qator muhim vazifalar belgilab berilgan.

Bundan ko‘rinadiki, oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish zamon talabiga aylanib bormoqda. Chunki, oziq-ovqat sanoat korxonalari iqtisodiyotning eng asosiy drayver sohalaridan biri bo‘lib, korxonalarni iqtisodiy samardorligini oshirishning asosiy shartlaridan biri raqobatbardoshlik muhitini rivojlantirish hisoblanadi.

Shuning uchun ham, aynan shu mavzuda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini yanada takomillashtirish oziq-ovqat sanoat korxonalaridagi raqobatbardoshlik muhitini rivojlanishiga hamda yangi imkoniyatlarni amaliyotga keng tatbiq etilishiga xizmat qiladi.

ILMIY MUAMMONING QO‘YILISHI

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlik muhitini oshirish borasida xorijlik olimlar tomonidan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, A.V. Glichev o‘z tatqiqod ishlarida innovatsion iqtisodiyotga “Bozor iqtisodiyotida nazoratning muhim vositasi. Raqobat – ishlab chiqaruvchi korxona va resurslarni yetkazib beruvchilarga iste’molchilar ehtiyojini qondirish majburiyatini yuklaydi” [2] - deb ta’rif bergan.

Bundan tashqari, D.Sh.Bababekovaning ilmiy ishlarida “Raqobat bu iqtisodiy subyektlarning turli iqtisodiy jarayon va faoliyatlardan olinuvchi foyda va naflilikni yuqori darajaga yetkazish orqali ijtimoiy-iqtisodiy hayotda mustahkam mavqeni egallashdan iborat iqtisodiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish uchun o‘zaro kurash shaklida maydonga tushuvchi iqtisodiy munosabatdir” [3], V.V. Sarev, A.A.Kantarovich, V.V. Chernishlarning tadqiqotlarida “Raqobat ishlab chiqaruvchi va resurslarni yetkazib beruvchi korxonalarni iste’molchi ehtiyojini qondirishga majbur qiladi. Bunda raqobat ishlab chiqarish xarajatlariga mos holda, mahsulot narxini pasaytirish va ishlab chiqarishni kengaytirishga chaqiradi” [4] kabi manbalar keltirilgan.

Mamlakatimizdagi olimlaridan H.P.Abulqosimov va T.S.Rasulovlarning tadqiqotlarida, oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘zini-o‘zi, mustaqil ta’minlashga qodirligini ifodalaydi [5]. Yana bir iqtisodchi olimlarimizdan N.X.Ergashev O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda sug‘urtaning ahamiyatini ko‘rsatib beradi [6]. Shuningdek, iqtisodchi olimlar Sh.Shodmonov, A.O‘lmasov, T.Jo‘rayev, D.Tojiboyevalar tomonidan ham oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va xavfsizligini ta’minlash masalalari ularning o‘quv qo‘llanma va dasrliklarida o‘z ifodasini topgan.

Yuqorida keltirilgan xorijiy va maxalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida asosan oziq-oqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlik tushunchasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarga qaratilgan masalalar o‘rganilgan.

Biroq, oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlik muhitini rivojlantirish, raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari hamda innovatsion yechimlari aniq yetarlicha o‘rganilmagan. Shuning uchun ham, oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning zamonaviy yo‘llari bo‘yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni olib borishni taqozo etmoqda. Ushbu jihatlar ilmiy maqola mavzusining dolzarbligini belgilab beradi hamda tadqiqot mavzusini tanlash uchun asos bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mantiqiy fikrlash, statistik tahlil, kuzatuv va qiyosiy tahlil, abstrakt fikrlash hamda ilmiy umumlashtirish kabi usullardan keng foydalanilgan. Mavjud metodologik yondoshuvlarga tayangan holda, maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalrida raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish asosida olib borilgan ilmiy natijalardan keng foydalanilgan.

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lumki, Muhtaram Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizdagi oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish borasida bir qator yangi Farmonlar va startegiyalar qabul qilinib, keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida oziq-ovqat sanoati dasturi qabul qilindi. Ushbu dasturga ko‘ra, quyidagi bir qator vazifalar belgilandi.

Oziq-ovqat xomashyo bazasini kengaytirish va organik mahsulotlar hajmini bosqichma-bosqich oshirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, bunda, 2022-yilda Davlat investitsiya dasturi doirasida umumiy qiy-

mati 440 mln AQSH dollari bo‘lgan 50 ta yirik loyihani amalga oshirish, 2026-yilga borib oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 7,4 mln tonnaga, qayta ishlash darajasini sut bo‘yicha 32 foiz, go‘sht - 25 foizga, meva-sabzavot - 28 foizga yetkazish vazifalar belgilab berildi.

Bundan ko‘rinadiki, mamlakatimizda qabul qilingan oziq-ovqat sanoati dasturini rivojlantirish orqali oziq-ovqat sanoati korxonalarida yildan-yilga raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsion yechimlarni amaliyotga tatbiq etish hamda oziq-ovaqt zaxirasini kengaytirishga qaratilgan yangi imkoniyatlar yuzaga keladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda buguni kunda oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlik muhitini oshirishga qaratilgan ko‘plab yutuqlarimiz bilan birgalikda bir qator kamchiliklarimiz ham mavjud, jumladan:

- oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlik muhitini oshirish borasida yangi tizimlar shakllanmagan. Masalan, rivojlangan davlatlarda oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlik muhitini oshirishga qaratilgan yangi innovatsion dasturlar ishlab chiqilgan;
- oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning ilg‘or tajribalari rivojlanmagan;
- oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni mukammal emasligi va uni takomillashtirish zarurligi hal qilinishi lozim bo‘lgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Yuqoridagi ko‘rsatib o‘tilgan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etilishi oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishga, oziq-ovqat muammolarini hal etilishiga, oziq-ovqat zaxirasini kengaytirish borasida yangi innovatsion imkoniyatlarni joriy etilishiga xizmat qiladi.

Quyidagi 1-rasmda muallif tomonidan mamlakatimizdagi oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning zamonaviy yo‘llari ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu zamonaviy yo‘llarni amaliyotga keng tatbiq etish oziq-ovqat sanoati korxonalaridagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan yangi innovatsion yechimlar hisoblanadi.



1-rasm: Oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning zamonaviy yo‘llari[1]

Bundan ko‘rinadiki, 1-rasmda mamlakatimizdagi oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning zamonaviy yo‘llari ishlab chiqilgan bo‘lib, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonlarga yangi imtiyozlar berish, raqamli innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘rsatkichlarini oshirish, xarajatlarni minimallashtirish va chiqindisiz texnologiyalarni rivojlantirish, raqobatbardosh top-10 talik milliy korxonalar reyting tizimini joriy etish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan KPI baholash mezonlarini ishlab chiqish kabi zamonaviy yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Bugungi kunda amaliyotga ushbu 5 ta zamonaviy yo‘llarni keng joriy etish oziq-ovqat sanoati korxonalaridagi muammolarni bartaraf etishga hamda ulardagi raqobatbardoshlik muhitini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Qolaversa, muallif tomonidan quyidagi 1-jadvalda qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini 2030-yilga qadar ko‘rsatkichlarining tahlili ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, bunda asosan 8 turdagi ko‘rsatkichlarni 2030-yilga qadar erishiladigan natijalari keltirib o‘tilgan.

1 Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

1-jadval: Qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini 2030-yilga qadar ko‘rsatkichlari[2]

№	2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari
1	Bir gektardan olinadigan o‘rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish
2	Qishloq xo‘jaligi sohasida eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish
3	Agrar sohaga jami 15 milliard dollar investitsiyalarni jalb qilish
4	Hosildorlik ko‘rsatkichlarini paxta bo‘yicha o‘rtacha 45–50 sentnerga, g‘alla bo‘yicha – 80–85 sentnerga yetkazish
5	Mahalliy sabzavot, poliz, kartoshka urug‘lik ta’minotini 50 foizga yetkazish
6	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ko‘rsatkichining 25 foizdan yuqori bo‘lishini ta’minlash
7	Respublika hududlarida 2,5 million tonna quvvatga ega bo‘lgan 100 ta yangi agrologistika markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda ularning eksport salohiyatini 1 milliard dollarga yetkazish
8	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorvani sug‘urta qilish tizimini isloh qilish, alohida sug‘urta jamg‘armasini tashkil etish va unga 100 million dollarni jalb qilish, dehqon va fermerlarga sug‘urta mukofotining 50 foizini subsidiyalash tizimini joriy qilish

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2030-yilga qadar, mamlakatimizdagi qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini oshiradigan bo‘lsak, oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari ham o‘sib boradi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish bugungi kunda hal qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizdagi oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun yuqorida ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalarni amaliyotga keng tatbiq etish eng muhim innovatsion yechimlar hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizdagi oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbar-doshligini oshirishda quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi kerak deb hisoblaymiz, jumladan:

- raqobatbardosh top-10 talik milliy korxonalar baholash reytingini ishlab chiqish;
- oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan yangi imtiyozlarni joriy etish;
- oziq-ovqat sanoati korxonalarida tejamkorlik dasturlarini yaratish va chiqindisiz texnologiyalarni rivojlantirish;
- oziq-ovqat texnologiyalarini innovatsion turlaridan samarali foydalanishdan iboratdir.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amaliyotga keng joriy etilishi natijasida, oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishning yangi imkoniyatlarini rivojlanishiga va oziq-ovqat sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.
2. Гличев А.В. Очерки по экономике и организации управления качеством продукции // Стандарты и качество. – 1994. – № 12. – с. 19.
3. Bababekova D.Sh. Shakllanayotgan bozor munosabatlari tizimida raqobat va uning amal qilish xususiyatlari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. –T.:2005.–26 b.
4. Царев В.В., Кантарович А.А., Черныш В.В.Оценка конкурентоспособности предприятий. Теория и методология. – М.: ЮНИТА-ДАНА, 2008. – с. 31.
5. Abulqosimov H.P., Rasulov T.S. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash yo‘llari. Risola. – T.,"Fan va texnologia”, –2015.
6. Ergashev X.N. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda sug‘urtaning ahamiyati. //“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning oziq-ovqat zaxiralarini oshirishdagi o‘rni va roli: muammo va imkoniyatlar” mavzusidagi Oliy ta’lim muassasalariaro ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqola va ma’ruzalar to‘plami. 2018-yil 19-may.–T.,2018. – 257-bet.

2 Muallif tomonidan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

O‘ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATLARI KO‘RSATILISHI TAHLILI



Xasanov Sarvar Ulug‘bek o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada temir yo‘l transporti xizmatlarining xizmatlar bozoridagi bugungi holati hamda temir yo‘l xizmatlari natijadorligini oshirishda bevosita SWOT tahlillarini o‘tkazish, ekspert baholash asosida korxonaning keyingi bosqichlarida boshqaruv samaradorligini ta’minlashda ushbu baholash tizimining afzalliklari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yetkazib berish, yuk aylanish tezligi, SWOT, tahdidlar, imkoniyatlar, muammolar, zaif jihatlar, tashqi va ichki muhit.

Abstract: In this article is discussed the opportunities? Advantages and disadvantages of the railway transport services development state in the service market, and as well the advantages of the system, assessments in ensuring management efficiency at the next stages of the enterprise’s activities based on SWOT analysis in order to improve the efficiency of the railway services enterprises.

Key words: delivery, cargo, turnover, SWOT, threats, opportunities, challenges, weaknesses, external, internal environment.

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности, преимущества и недостатки развития на рынке услуг, состаяние услуг железнодородного транспорта, а также преимущества данной системы, оценки в обеспечении эффективности управления на следующих этапах деятельности предприятия на основе SWOT анализа с целью повышения эффективности деятельности предприятия.

Ключевые слова: доставка, оборачиваемость гурузов, SWOT, угрозы, возможности, вызовы,слабые стороны, внешняя, внутренная, среда.

KIRISH

Respublikada transport va uning iste’molchilari o‘rtasidagi bog‘liqlikni rivojlantirish uchun transport xizmatlari tizimini umumiylashtirish hamda marketing va logistika mexanizmlaridan to‘g‘ri foydalanishni eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Transport logistikasida yo‘lovchi oqimini eng kam xarajat va sifatli xizmat bilan tashish asosida transport infratuzilmasini rivojlantirish, tashish jarayonlarini amalga oshirishda muqobil rejalar tuzgan holda kam vaqt sarflash, transport turlaridan to‘g‘ri foydalanish hamda barcha jarayonlarni boshidan oxirigacha nazoratga olishda marketing strategiyalaridan foydalanish juda muhimdir. Mamlakatda transport infratuzilmasini rivojlantirishni, aholiga sifatli xizmat ko‘rsatishni yanada rivojlantirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoniga muvofiq yo‘l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish vazifalari maqsad qilib olingan. Mazkur vazifalar ijrosini ta’minlash uchun transport tizimida ustuvor vazifalarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar berish muhim yo‘nalishlardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy adabiyotlarda transport tizimida marketing strategiyalarini ishlab chiqish jarayonlarni tashkil etish, marketing tadqiqotlarini takomillashtirish, boshqaruv jarayonlarini modellashtirish, xizmatlar sifatini oshirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning samaradorligini baholashning ilmiy-nazariy hamda uslubiy jihatdan tadqiq qilingan.

MDH davlatlaridan T.Stankovich, A.Sichyov, A.Granberg, I.Rusunov, S.Jukov, J.Kurganbayev, S.Panov va A.Medkovlar ifratuzilmasi muammolari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarida transport muammolari alohida davlatlar misolida o‘rgangan yoki transport omilini boshqa omillar qatorida tadqiq etganliklarini ko‘rish mumkin.

Rossiyalik Branislav Radnovich, Radenko Marik, Vladana Radnovich, Milena Ilik, Dragan Lukachlar kabi olimlar tomonidan korrelyatsion va regression tahlillar asosida haydovchilarning hulq-atvori, yo‘nalishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, transport vositalari sifati, yo‘nalishdardagi vaqt jadvallari kabi omillarga ko‘ra marketing strategiyalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq ekanligini asoslaganlar.

T.V. Konovalova va S.L.Nadiryanlar ilmiy ishlarida transport korxonalari internet resurslaridan foydalanish orqali ko‘roq samaradorlikka erishishi va marketing tadqiqotlarini ikkita metod orqali tadqiq etish nazariyalarini ilgari surganlar.

Keltirilgan mahalliy va xalqaro tadqiqotchilar natijalariga suyangan holda, bizning tadqiqotlarimiz transport xizmatlarining xizmatlar bozoridagi bugungi holati, hamda transport xizmatlari natijadorligini oshirish borasida ma’lum ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shuning bilan, SWOT va PEST tahlillarini o‘tkazish temir yo‘l korxonaning keyingi bosqichlarida boshqaruv samaradorligini baholashga muhim metodik asos yaratadi.

TADQIQOTNING MAQSADI

Xizmatlar bozorini rivojlantirishda transport xizmatlarining mohiyatini yoritish, uning afzalliklari va kamchiliklarni aniqlash, hamda O‘zbekistonda ushbu sohaning marketing strategiyalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODLARI

Maqolani tayyorlash jarayonida dialektik, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, SWOT, PEST, tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Asosiy tahlil va natijalar. Transport turlari bo‘yicha yetkazib berish xizmatlari xarajatlari (1jadval).

1-jadval: Transport turlari bo‘yicha yuk tashish xarajatlari1

№	Ko‘rsatkichlar	2017-yil		2019-yil		2021-yil		2021-yil 2017-yilga nisbatan	
		Hisobot	Solishtirma og‘irligi	Hisobot	Solishtirma og‘irligi	Hisobot	Solishtirma og‘irligi	Farqi	Solishtirma og‘irligi
1	Tashilgan yuklar, mln. t.	1146,2	100	1319,8	100	1420,2	100	23,9	100
1.1	Temir yo‘l, mln. t.	67,9	5,7	70,1	5,1	72,0	5,0	6,0	1,4
1.2	Avtomobil, mln. t.	1013,1	88,4	1177,7	89,2	1282,0	90,3	26,5	98,1
1.3	Quvur yo‘li, mln. t.	65,1	5,7	72,0	5,5	66,2	4,6	8,6	0.4
1.4	Havo yo‘li, mln. t.	26,4	0,2	10,4	0,2	9,1	0,1	10,2	


Trasport turlari bo‘yicha yetkazib berish xizmatlarini solishtirganimizda 2017–2021-yilining statistik ma’lumotlariga ko‘ra yuk tashish xizmatlari o‘sish ko‘rsatkichlariga ega. Yillar davomida avtomobilda yuk tashish xizmatlari umumiy transport xizmatlari ulushida domiy 90 foizdan yuqori bo‘lib kelmoqda. Boshqa temir yo‘l, quvur yo‘li, havo yo‘li xizmat turlari nisbatan past ko‘rsatikichlarga ega. Biz tahlilimizga yanada aniqlik kirish maqsadida qaysi transport turlarida xizmatlarda yuk aylanish tezligi holatini (2jadval) tahlil qilib chiqdik.

2022-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 357 trillion 554,5 milliard so‘mni tashkil etgan. Transport xizmatlari iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlaridan keyin ikkinchi o‘rinni egallagan.

Transporti xizmatlari orasida avtomobil transporti eng katta ulushga ega (51%). Undan keyingi o‘rinlarni havo transporti (14,2%), quvurlar orqali yetkazish (13,1%) va temir yo‘l transporti (11,4%) egallagan.

Respublika hududlari bo‘yicha ko‘rsatilgan transport xizmatlarining umumiy hajmida eng katta ulushga ega hududlar – Toshkent shahri 13 112,7 milliard so‘m, Toshkent viloyati 5 946,4 milliard so‘m va Samarqand viloyati 5 333,6 milliard so‘mni tashkil etdi. Eng past ko‘rsatkichli hududlar esa Navoiy, Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridir.

1 https://stat.uz/uz/rasmiystatistika/services2. (27.06.2022)



2022-yilda O‘zbekiston Respublikasida ko‘rsatilgan transport xizmatlar[2]

O‘tgan yilda transport xizmatlar eksportida eng katta ulush quvur orqali tashish xizmatining hissasiga to‘g‘ri kelgan (682 659,1 ming AQSH dollari). Undan keyingi o‘rinlarni temiryo‘l transporti (508 900,4 ming AQSH dollari), havo transporti (466 110,2 ming AQSH dollari) va avtomobil transporti (45 266,3 ming AQSH dollari) egallagan.

2022-yil yanvar-noyabr oylarida O‘zbekistonda temir yo‘l, havo, avtomobil transportlarida jami yuk tashuvlari hajmi 1,18 mlrd tonna (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,8 foiz ko‘p), yuk aylanmasi 42 mlrd tonna/kmni (+5 foiz) tashkil etdi. Barcha transportda yo‘lovchi tashish hajmi 5,52 mlrd yo‘lovchi (+4 foiz), yo‘lovchi aylanmasi 129,4 mlrd yo‘lovchi/kmni (+7,8 foiz) tashkil qildi. Jami xalqaro yuk tashuvlari hajmi (eksport, import va tranzit) – 47,6 mln tonnani yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6 foizga oshdi.

Bunda, eksport yuklari – 14,1 mln tonna (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 98,8 foiz), import – 23,1 mln tonna (+6,6 foiz) va tranzit – 10,4 mln tonnani (+16,2 foiz) tashkil etdi. Xalqaro tashuvlarda temir yo‘l orqali yuk tashuvlari 36 mln tonna (+1,7 foiz), avtomobil transportida tashuvlar hajmi 11,5 mln tonna (+22 foiz), aviatransport orqali tashilgan yuklar hajmi 71,2 ming tonnani (+19,8 foiz) tashkil qildi.

Yilning 3-choragi yakuniga qadar respublikamizning transport koridorlarida yuk tashish ulushining eng ko‘p qismi O‘zbekiston–Qozog‘iston-Qirg‘iziston–Xitoy Xalq Respublikasi koridorlari bilan 41,3 foizni (13,5 mln) tashkil etgan bo‘lsa, O‘zbekiston–Qozog‘iston–RF–Yevropa mamlakatlari bilan 23 foizni (7,5 mln), O‘zbekiston–Qozog‘iston–RF bilan 19 foizni (5,9 mln) tashkil etdi. Shunga ko‘ra, eng kam ulushni O‘zbekiston–Afg‘oniston–Pokiston–Hindiston (0,6 mln tonna, 2%) koridorlarida ko‘rish mumkin

Shuning uchun temir yo‘l xizmatlari natijadorligini SWOT tahlili asosida ko‘rib chiqib holatga baho berish imkoni beruvchi aniq takliflar ishlab chiqdik (2jadval).

SWOT xizmatlari natijadorligi:

SWOT tahlili xizmatlarning samaradorligi = A(n+16)+I(n+29)Z(n+31)T(n+6)

A – xizmatlarning afzalliklari

I – xizmatlardan qo‘shimcha foydalanilmayotgan imkoniyatlar

Z – xizmatlarni tashkil etishga yo‘l bermayotgan muammolar, zaif tomonlari

T – xizmatlarni tashkil etish va boshqarishga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan tahdidlar.

Ushbu baholash turi temir yo‘l xizmatlarining ichki imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish uchun boshqaruv qarorlarni qabul qilishda foydadalaniladi.

2 Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ma’lumotlari.

2-jadval: Temir yo'llarda xizmatlar natijadorligining SWOT tahlili3.

Afzal jihatlari	Zaif jihatlari
• rezerv quvvatlarining mavjudligi; • yo'lovchilarni tashishda nisbatan past tarif belgilanishi; yo'lovchilar tashishning muntazamligi; • yirik viloyat markazlari va shaharlar, tarixiymadaniy markazlar o'rtasida bevosita aloqalar; • yuqori tezlikdagi yo'nalishlarni rivojlantirish imkoniyati, hamma joyda temir yo'l qurish imkoniyati; • ko'p sonli odamlar va og'ir yuklarni tashishi; • har qanday obhavo sharoitida foydalanish mumkinligi; • hududning rivojlanish ustuvorligi mavjudligi; • turli xil yuklarni tashishda sig'imli konteynerlarning mavjudligi; • atmosferaga boshqa transport vositalariga nisbatan zararli gaz-tutunlarni kamroq chiqishi; • yo'lovchilar va yuklarni tashishda yuqori darajadagi xavfsizlikni ta'minlanishi; intermodal tashish xizmatlari mavjudligi; • yetkazib berish tezligining yuqoriligi; • yo'llarda tirbandliklarning mavjud emasligi; • bojxonada rasmiylashtirishda nazoratidan tezda o'tish imkoniyatining mavjudligi; • yuk tashish tarifining pastligi	• tariflarning davlat tomonidan tartibga solinishi; • ta'riflarni ishlab chiqishda hududlarning imkoniyatlari hisobga olinmaganligi; • yo'lovchilarni tashishda past servis sifati; harakatlanuvchi tarkib, axborot texnologiyalarining, interaktiv mijozlar bilan o'zaro aloqa qilish xizmatlarining yetarli rivojlanmaganligi; • infratuzilmani rivojlantirish va vokzallarning o'tkazuvchanligi qobiliyatini pastligi (ayniqsa, bayram kunlarida, sayyohlik mavsumida va hokazo); • marketing, menejment strategiya komponentlarini joriy etilmaganligi; • tortish, tushirish, yuklash, inshootlar va texnik jihozlarning yetishmasligi asnosida hududlardagi markaziy to'xtash bekatlarida temir yo'l parklarining rivojlanmaganligi; • kadrlarni innovatsion iqtisodiyotning talablariga muvofiq tayyorlanmasligi; • temir yo'l liniyalarining ma'lum bir marshrutga biriktirilishi; • xizmatlar sifati va turlarining zamonaviy iqtisodiy, ekologik va innovatsion talablarga to'liq javob bermasligi; • zamonaviy yo'lovchi tashish vagonlarining kamligi; • temir yo'l xizmat ko'rsatish liniyalarining kamligi, hududlarni to'liq xizmatlarning yetib bormaganligi; • temir yo'l bekatlari, hamda hududiy xizmatlarning pastligi; • transport yo'laklari tizimini rivojlantirish uchun multimodal transportlogistika markazlari tizimining yetarli daraja rivojlanmaganligi; • vagonlarni ulash yoki poyezdni o'z vaqtida ta'mirlanmaganligi tufayli yukni yo'qotish xavfi; • ayrim toifadagi ishchilarning nisbatan past ish haqi olishi; • xizmat muddati o'tgan harakatlanuvchi tarkib va texnik jihozlarning mavjudligi, ularni ta'mirlash xarajatlarining yuqoriligi; • yirik ishlab chiqaruvchilarning temir yo'lga shaxsiy kirish yo'llari yo'qligi sababli yetkazib berishning birinchi va oxirgi bosqichlarida avtomobil transportidan foydalanish zarurati; • umumlashtirilgan shaklda transport korxonasining iqtisodiy xavfsizligi darajasi barcha turdagi: kapital, texnika va texnologik, intellektual va kadrlar, axborot, korxonaga tashqi muhit o'zgarishlarini yetarlicha baholanmasligi; • yuridik resurslardan foydalanish samaradorligi pastligi; • texnik va texnologik, marketing, moliyaviy, kadrlar boshqaruvda resurslardan samarali foydalanmaslik; • temir yo'llarning aholi bilan kesishgan yo'llarining harakat xavfsizligining yetarli darajada ta'minlanmaganligi; temir • yo'l transportida innovatsiyalarning mavjud emasligi.

3 Muallif tomonidan tuzilgan.

- ma’naviy hamda jismoniy eskirgan asosiy vositalardan foydalanilayotgani tufayli tashish jarayonining xavfsizligi darajasining pasayishi;
- temir yo‘l transportiga nisbatan davlatning tarif siyosatining noaniqligi sohani yanada rivojlantirish uchun ham ma’lum xavflarni keltirib chiqaradi;
- temir yo‘l transportini rivojlantirish va ulardan foydalanishni qo‘llabquvvatlash uchun davlat budjeti xarajatlarini qisqarishi;
- xalqaro aloqalarning munosib tarzda yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- yangilanish sur’atlarining pastligi va investitsion faollikning pasayishi tufayli moddiytexnik bazaning yuqori jismoniy va ma’naviy eskirishi;
- texnologik tuzilmaning zamonaviy elementlari va birinchi navbatda, zamonaviy axborot texnologiyalari yetarli darajada joriy etilmaganligi sababli tashish jarayonini tashkil etish va boshqarish samaradorligining pasayishi.

- xalqaro va ichki sayyohlikni rivojlantirish sharti bilan yo‘lovchilar oqimining dinamik o‘sishi;
- transport xizmatlarining jahon va mintaqaviy bozorlariga integratsiyalashuvi natijasida raqobatning kuchayishi;
- elektropoyezdlar, elektrlashtirish yoqilg‘i (uglevodorod) tejash imkoniyatini beradi;
- qulaylikni oshirish maqsadida harakatlanuvchi park tarkibini optimallashtirish;
- vokzallarda xizmatlar ko‘lamini va sifatini kengaytirish;
- barqaror turizmni rivojlantirish va hududlarning madaniy merosidan foydalanish imkoniyati ochiladi;
- ITtexnologiyalardan foydalanishni kengaytirish;
- intermodal tashishda temir yo‘llardan foydalanish imkoniyati;
- temir yo‘l xizmatlarini o‘tkazuvchanligini oshirish orqali yuk va yo‘lovchi tashishni o‘z vaqtida ta’minlashga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda sifat darajasiga erishish;
- aholi farovonligining o‘sishi bilan, ayniqsa, yirik shahar aglomeratsiyalarida jamoat yo‘lovchi elektropoyezdlarning jadal rivojlantirish bilan yuqori tezlikdagi yo‘lovchilar aloqasini rivojlantirish talab etiladi;
- xizmatlarning kengayishi ishlab chiqaruvchilarni xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini oshiradi;
- yangi transport koridorlarini yaratish va rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish;
- operatorlar xizmat ko‘rsatish darajasini PL ko‘rsatkichlarini jahon xizmat ko‘rsatish darajasiga olib chiqish;
- yo‘lovchilarga ko‘rsatiladigan servis xizmatlarini jahon andozalariga olib chiqish bilan temir yo‘llari xizmati imidjini oshirish;
- asosiy yo‘nalishlarda yo‘lovchi poyezdlarining qatnov soni hamda tezligini oshirish;
- temir yo‘l xizmatlarini aholi gavjum joylarga, yangi aniqlagan konlar, ishlab chiqarish korxonalariga yaqinshlashtirish;
- korxonalar o‘rtasida to‘g‘ridanto‘g‘ri aloqa o‘rnatish va transport xarajatlarini minimallashtirish uchun “eshikdaneshikkacha” sxemasi bo‘yicha tovarlarni yetkazib berishni ta’minlashni yo‘lga qo‘yish;
- poyezdlar harakati xavfsizligini boshqarishda umumiy sifat menejmenti tizimiga ISO 9000:2015 xalqaro standartlar kiritilishiga to‘liq erishish;
- yuk tashish xavfsizligini oshirish uchun iqtisodiy asoslash sohasidagi muammolarni hal qilish uchun universitetlarda mavjud bo‘lgan yuqori ilmiy salohiyatdan maksimal darajada foydalanish;
- transport kompleksini boshqarish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini to‘liqroq hisobga olish;
- transport yo‘laklari tushunchasi tranformatsiyalanishi asnosida temir yo‘l transporti xablarni tashkil etish, ushbu maqsadlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish;
- ham ichki raqobatda (tashuvchi, yetkazib beruvchi transport turlari o‘rtasida), ham tashqi raqobatda (xalqaro tranzit tizimlari bilan) rivojlanish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Transport xizmatlarining afzalligi yoki mavjud muammolarini baholashda va kelgusida tizimli boshqaruv uchun strategik ishlab chiqarishda, foydalanishimiz lozim:

- temir yo‘l xizmatlarining tashqi muammolarini tahlil qilishda PEST tahlilidan foydalanib, baholanishi esa kompaniya uchun strategik rejalarni ishlab chiqishda qo‘l keladi.
- hozirda mamlakatimizning ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish borasida ichki yo‘nalishlarda aviaqatnovlar sonini oshirish hamda yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish ehtiyojlarini qondirish maqsadida yangi aviakompaniya xizmatlarini tashkil etish.
- yangi aviakompaniyaning ishga tushishi natijasida mahalliy yo‘nalishlarda respublikamizning barcha yirik shaharlarini tutashuvchi qatnovlar orqali bog‘lash.
- aholining jamoat transporti bilan qamrovini oshirish uchun hududlardagi mavjud 4 945 ta yo‘nalishlar sxemasi aholi talabidan kelib chiqqan holda qayta ko‘rib chiqish va yangi yo‘lovchi tashish yo‘nalishlarini ochish.
- yangi avtobus va mikroavtobuslarni import qilishda qo‘shilgan qiymat solig‘ini ma’lum bir muddatga foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati yaratish.
- shahar yo‘lovchi tashish yo‘nalishlarida ekologik toza bo‘lgan elektrobuslar harakati bosqichma-bosqich ko‘paytirish. Bunda, tadbirkorlik subyektlari tomonidan elektrobuslar xarid qilinishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ular narxining bir qismini davlat budjetidan qoplab berish tizimi joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi “Toshkent shahar jamoat transporti tizimini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-111-sonli qarori.
3. Seco A.J.M., Goncalves J.H.G. The quality of public transport: relative importance of different performance indicators and their potential to explain modal choice. Urban transport XIII: Urban Transport and the Environment in the 21 st Century. 2017. 313 p.
4. Ibraeva A., Sousa J.F. Marketing of public transport information provision. Elsevier. –2014. –122 p.
5. Branislav R., Radenko M., Vladana R., Milena I., Dragan L. Marketing research on passenger satisfaction with public transport service in the city of Belgrade. Traffic&transportation. 2015. 47 p.
6. Якутин Ю.В., Курбатов О.Н. Особенности маркетинговых услуг в сфере транспортной логистики. Transport Business in Russia. –2010. –15 p.
7. Коновалова Т.В., Надирян С.Л., Миронова М.П., Миронова Ю.П. Особенности маркетинговых исследований на рынке пассажирских перевозок по заказам в регионе. Отраслевые научные и прикладные исследования: Строительство, Транспорт. 2015. 89 с.
8. Морозова И.А. Маркетинговое обеспечение развития инфраструктуры рынка транспортных услуг. автореферат дисс. док.экон.наук, 08.00.05. – Волгоград. 2008.–50 с.
9. Мельник Т.С. Направления и виды маркетинговых исследований в сфере пассажирских перевозок с учетом транспортного сообщения. Вестник Белорусского государственного университета транспорта: Наука и транспорт. – 2017. –№1, 102 с.
10. Qaxxorov A.J. O‘zbekiston avtomobil transport tizimida innovatsion marketing faoliyatini takomillashtirish. avtoreferat diss. iq.fan.nom., 08.00.11. –Toshkent. 2018. – 57 b.
11. Irisbekova M. Marketing tamoyillari asosida transport xizmatlari bozorini optimallashtirish. avtoreferat diss. iq.fan.dok., 08.00.11. –Toshkent. 2017. -84 b.
12. G‘iyosidinov B. Transport korxonalarida marketing tadqiqotlarini amalga oshirish. Ilmiy maqola “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. –№ 4, iyul-avgust, –2020-yil.
13. www.lex.uz
14. www.stat.uz

AGRAR SEKTORGA JALB QILINGAN INVESTITSIYALARNING SOHADAGI INTENSIV IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRINING TAHLILI



Yangiboyev Sirojiddin Jo‘ramurodovich
PhD, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududlar iqtisodiy o‘sishi va unga qishloq xo‘jaligi iqtisodiy rivojlanishining ta’siri tadqiq qilingan. Qishloq xo‘jaligida yalpi qo‘shilgan qiymat o‘sishiga texnologik taraqqiyot, kapital, mehnat resurslari omillarining ta’siri Kobb-Duglas modeli asosida Qashqadaryo viloyati misolida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Moddiy resurslar, mehnat unumdorligi, tannarx, investitsion jozibadorlik, sof foyda, resurs qaytimi, ishlab chiqarish funksiyasi, etastikli koeffitsiyenti.

Abstract: This article examines the economic growth of regions and the impact of agricultural economic development on it. The influence of factors of technological development, capital, labor resources on the growth of gross value added in agriculture was studied on the example of Kashkadarya region on the basis of the Cobb-Douglas model.

Key words: material resources, labor productivity, cost, investment attractiveness, net profit, resource return, production function, elastic coefficient.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние экономического развития аграрного сектора на регионального экономического роста. Изучено влияние факторов технологического развития, капитала, трудовых ресурсов на рост валовой добавленной стоимости в сельском хозяйстве на примере Кашкадарьинской области на основе модели Кобба-Дугласа.

Ключевые слова: материальные ресурсы, производительность труда, себестоимость, инвестиционная привлекательность, чистая прибыль, ресурсоотдача, производственная функция, коэффициент эластичности.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligiga investitsiya kirishi global qashshoqlik va ochlikni kamaytirishga yo‘naltirilgan barqaror qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun zarurdir. Dunyoning bir ishchiga to‘g‘ri keladigan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish fondlari va qishloq xo‘jaligiga davlat investitsiyalari bo‘yicha nisbatan orqada qolgan jahon xo‘jaligining ushbu sektori bugungi kunda qashshoqlik va ochlik muammosining global masshtabdagi muammolar orasida epitsentrga aylanishiga sabab hisoblanadi. Kelgusi o‘n yilliklarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga ortib borayotgan talab tabiiy resurslarga bosimning kuchayishiga olib keladi. Ochlikni barqaror ravishda yo‘q qilish qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni sezilarli darajada oshirishni, shuningdek, samaradorlikni oshirishni talab qiladi. Fermerlar rivojlanayotgan mamlakatlar qishloq xo‘jaligining eng yirik sarmoyadorlari bo‘lib, sohaga investitsiyalarni ko‘paytirish bo‘yicha har qanday strategiyaning markazida bo‘lishlari kerak. Biroq tejamkor mahsulot ishlab chiqarish va qulay iqlim muhitini yaratish kontekstida investorlarga sarmoya kiritishlari uchun optimal shart-sharoitlar yaratish bilan qo‘llab-quvvatlanishi kerak. Hukumatlar kichik xo‘jaliklarga o‘zlarining ishlab chiqarish aktivlarini kengaytirishda duch keladigan cheklovlarni bartaraf etishda yordam berish va qishloq xo‘jaligiga keng ko‘lamli investitsiyalarning ijtimoiy va ekologik jihatdan barqaror bo‘lishini ta’minlashda alohida mas’uliyat yuklaydi. Hududlar qishloq xo‘jaligi sektoridagi davlat investitsiyalari parallel ravishda xususiy investitsiyalar uchun qulay muhit yaratishi investitsion siyosatning muhim tarkibiy qismi sifatida belgilanishi darkor. Hukumatlar tanqis bo‘lgan davlat resurslarini yuqori iqtisodiy va ijtimoiy daromadli asosiy ijtimoiy ne’matlarni yaratishga yo‘naltirishi davlat va hududliy investitsion siyosatnining asosiy tamoyili sifatida belgilanishi kerak.

ADABIYOTLAR SHARHI

Agrar sektorga jalb qilingan investitsiyalarning sohadagi intensiv iqtisodiy o‘sishga hamda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining investitsion faoliyati, investitsiyalardan tarmoq rivojlanishida foydalanish samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy va amaliy masalalari keng xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Ushbu muammoga oid ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar F.Kene [1], A.Smit [2], J.M.Keyns [3], Obolenskiy K.P [4], Vitun Ye.R. [5], V.S. Tonkovich [6], va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida investitsiyalar nazariyasi va xususan qishloq xo‘jaligida investitsion faoliyatning ilmiy-nazariy va konseptual asoslari yoritib berilgan.

O‘zbekiston iqtisodiyotining hududiy rivojlanishini tartibga solishda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida investitsion siyosatni to‘g‘ri va samarali amalga oshirishda A.Sh.Bekmurodov [7], Sh.I.Mustafaqulov [8], S.A.Abduraximova [9], B.B.Valiyevlar [10] munosib hissa qo‘shganlar. Ushbu iqtisodchi olimlar tomonidan investitsiyalarning sohadagi intensiv iqtisodiy o‘sishga investitsion jozibadorlik tasirini aniqlash, erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish, investitsiya faoliyatini boshqarish tizimida moliyaviy hisobot va uning tahlilini takomillashtirish bilan bog‘liq yo‘nalishlar yoritilgan.

METODOLOGIYA

Zamonaviy sharoitda hududlar va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun hududiy iqtisodiy siyosatni strategik yo‘nalishlarini belgilash, davlat tomonidan tartibga solishning yangi shakllari, usullari va vositalarini ishlab chiqishda yangi yondashuvlar zarur bo‘lmoqda. Ekonometrik modellashtirish qishloq jo‘jaligi sektorining barqaror rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish instrumetlaridan hisobiga o‘rta muddatli rivojlanish tendensiyalarini prognozlashtirish imkoniyatlarini yaratadi. Shuning uchun ham ushbu ilmiy maqolapda Kobb-Duglasnining ishlab chiqarish funksiyasiga asoslangan holda Qashqadaryo viloyati misolida qishloq xo‘jaligida yalpi qo‘shgilgan qiymatning o‘sish sur’atiga kapital resurslar, mehnat resurslari omillarining ta’sirini ekonmetrik modellashtirish usullaridan foydalanilgan holda o‘rganilgan.

Hozirgi vaqtda barqaror iqtisodiy o‘sishning asosiy omili boshqaruvning barcha darajalarida boshqaruv faoliyatining sifati va samaradorligi hisoblanadi. Shunday qilib, yapon mutaxassislarining fikriga ko‘ra, allaqachon 80-yillarning o‘rtalarida zamonaviy ishlab chiqarishdagi yo‘qotishlar 80-85% ga boshqaruv tizimining sifatiga va faqat 15-20% - bevosita ijrochilarga bog‘liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv faoliyatining sifati, albatta, asosiy yelement sifatida mulkdorlar yoki menejerlarning tadbirkorlik qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Ma’lumki, qishloq xo‘jaligi uchun ishlab chiqarishni boshqarishning eng muhim vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi:

- moddiy resurslardan oqilona foydalanish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish;
- yuqori iqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishish;
- mehnat unumdorligini oshirish;
- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish va bozorni keng iste’molchilar uchun zaruriy yuqori sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirish maqsadida qishloq xo‘jaligi korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligi ko‘rsatkichlarini hisob-kitoblar va qiyosiy tahlil qilish vositasida boshqarish usullarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

ILMIY TADQIQOT USULLARI

Investitsion faoliyat uchun нal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan masalalardan biri sifatida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi ko‘rsatkichlari to‘g‘risida iqtisodiy adabiyotda qizg‘in muhokamalar mavjuddir. Iqtisodiy adabiyotlarda mezon - samaradorlik kategoriyasining mohiyati va unga xos bo‘lgan ko‘rsatkichlarning yagona talqini ham yetarli tizimlashtirilmagan. Masalan, K.P. Obolenskiy investitsion jozibadorlik nuqtayi nazardan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligiga “qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligi mezonlari... yalpi ishlab chiqarishning yashash va moddiylashtirilgan mehnat xarajatlariga nisbati bilan tavsiflanadi...”[1] – deya tavsiflaydi. Ushbu masalada, N.I. Xolod va Ye.R. Vitun “... hayotiy xarajatlarni

1 Оболенский К.П. Экономическая эффективность сельскохозяйственного производства. Теория и практика. – М.: Экономика,–1974. –192 с.

minimallashtirish va moddiy mehnatga sarflash paytida sof ishlab chiqarishning o‘sishi (yalpi daromad)”[2] – deb ta’riflaydi. Professor L.F. Dogilning ta’kidlashicha, iqtisodiy samaradorlik mezonlari yuqori sifat darajasi va mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta’minlash bilan kapital (resurslar) xarajatlari birligidan foydani maksimal darajaga ko‘tarishdir[3] – deb tavsiflaydli.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy samaradorlik to‘g‘risida ko‘plab fikrlar bildirilgan, lekin investitsion faollikni oshirish uchun shart sharoit yaratuvchi qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishning determinantlariga alohida urg‘u L.F. Dogilning yondashuvlarida yoritilgan bo‘lib, foydani dinamik maksimallashtirish orqali erishiladigan samaradorlik tarmoqqa investitsiyalarni jalb qilishdagi asosiy omil hisoblanadi.

Iqtisodchilarning fikricha, qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatiga umumlashtirilgan baho foydaning ishlab chiqarish xarajatlariga nisbati bilan beriladi. Keyinchalik samaradorlikning umumlashtiruvchi ko‘rsatkichi rentabellik darajasida ifodalanadi. Bu pozitsiyani G.I. Makin, agrosanoat ishlab chiqarish sharoitlarining iqtisodiy samaradorligining mezoni foyda yana bir bor taqdiqlaydi. Asosiy umumlashtiruvchi ko‘rsatkich sifatida foyda miqdorini ham, ishlab chiqarish xarajatlari darajasini ham aks ettiruvchi rentabellik ko‘rib chiqilishi tabiy hol hisoblanadi.

Lekin ushbu samaradorlik mezonlari sof foyda yoki xo‘jalik faoliyatining sof moliyaviy natijalariga bog‘langan holda tizimlashtimrilgan. Hududlar iqtisodiyoti qishloq xo‘jaligi tarmog‘i kesimida investitsion jozibadorlikni asosiy mezonlaridan biri tarmoqdagi ishbilarmon faollik ko‘rsatkichlari ham hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar tizimi iqtisodiy resurslarni tarmoqda dinamik ravishda ko‘paytirish orqali mahsulot ishlab chiqfarish hajmini oshirishning multiplikativ samarali ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Samaradorlikning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan resurs qaytimi ko‘rsatkichi ishlab chiqarish samaradorligini baholashnining xususiy ko‘rsktkichlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Ushbu xususiy ko‘rsatkichlar material sig‘imi, kapital sig‘imi, mehnat sig‘imi, fond sig‘imi kabi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga olib ular qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining texnologik rivojlanishi natijasidagi intensivlashuv darajasini ifodalaydi.

Ishlab chiqarish-iqtisodiy omillar qishloq xo‘jaligi korxonalarining ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishning to‘liqligi va samaradorligi hamda faoliyatning yakuniy natijalarini belgilaydi.

Ushbu baholash alohida firmalar yoki tarmoqlar darajasida ham, Kobb-Duglas multiplikativ modelidan foydalangan holda hududlar iqtisodiyotning qishloq xo‘jaligi sektori darajasida ham amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligidagi mavjud ishlab chiqarish funksiyasi - bu ishlab chiqarish hajmining ishlab chiqarishga sarflangan resurslar hajmiga bog‘liqligini tavsiflovchi matematik model quyida keltiriladi:

$$Y = f(x_1, x_2, x_3 \ldots x_n) \quad (1)$$

Bu yerda,

Y – qishloq xo‘jaligida ishlab chiqariladigan mahsulotlar;

x_i (i = 1, 2,..., n) – resurslar.

Bir hil mahsulot ishlab chiqaruvchi alohida korxonalar uchun ishlab chiqarish funksiyasi ishlab chiqarish hajmini mehnat faoliyatining har xil turlari, har xil turdagi xom ashyo, butlovchi qismlar, energiya va asosiy kapital uchun ish vaqtining xarajatlari bilan bog‘laydi. Ushbu turdagi ishlab chiqarish funksiyasi qishloq xo‘jaligi korxonalarining hozirgi texnologik qurollanganligini tavsiflaydi.

Bir hil mahsulot yetishtiruvchi alohida qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun ishlab chiqarish funksiyasi ishlab chiqarish hajmini mehnat faoliyatining har xil turlari, har xil turdagi xom ashyo, butlovchi qismlar, energiya va asosiy kapital uchun ish vaqtining xarajatlari bilan bog‘laydi. Ushbu turdagi ishlab chiqarish funksiyasi korxonalarning hozirgi texnologik qurollanganlik darajasini tavsiflaydi

Yuqoridagi formulada nazarda tutilgan resurslar iqttisodiy tavsifi bo‘yicha ikki asosiy turga turkumlanib, birinchi resurslar turkumi an’anaviy resurslar hisoblanib (asosiy vositalar, moddiy resurslar, ishchi kuchi) ular qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni tashkil qilish jarayonidagi mehnat vositalari va predmetlarini o‘zzida mujassamlashtiradi. Ikkinchi turkum resurslar noan’anaviy resurslar hisoblanib (axborot, innovatsiyalar), ular intensiv ishlab chiqarishni tashkiliy-iqtisodiy asoslarini mujassamlashtiradi va qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiyalashning asosiy omillaridan biri sifatida maydonga chiqadi. Ushbu resurslarni optimal shakllantirish va boshqarish tizimi qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash orqali milliy va global masshtabdagi raqobatbardoshlikni ta’minlaydi. Bunda resurs tejamkor zamonaviy mahsulot ishlab chiqarish uchun investitsiyalarni jalb qilishda yuqorida tilga olingan resurslarni alohida elementlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan asosiy ishlab chiqarish fond-

2 Витун Е.Р. Сущность, критерий и факторы экономической эффективности сельскохозяйственного производства // Гродненский сельскохозяйственный институт, Гродно, 1993.-452 с.

3 Экономика предприятий и отраслей АПК. Учебное пособие/ В.С. Тонкович, Е.П. Кивейта, Л.Ф.Догиль и др. – Минск: Издательство Белорусского аграрного университета,1996.- 320с.

larini modernizatsiyalashga investitsiyalarni jalb qilish, ularning texnik qurollanganlik darajasi bo‘yicha yangi parklarni shakllantirish va yangi texniklar hisobiga ishlab chiqarishni intensivlashtirish ko‘rsatkichlari sifatida asosiy fondlarni yangilanish koeffitsiyenti, fond sig‘imi, fond qaytimi, asosiy fondlar rentabellik ko‘rsatkichlarida belgilangan maqsadli parametrlarni olish hisobiga ta’minlanadi.

Qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarishda yangi navlarni sotib olish, patentlar va boshqa nomoddiy aktivlarga investitsiyalar texnologik taraqqiyotda muhim rol o‘ynaydi.

Ma’lumki, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining o‘ziga xos jihatlaridan biri asosiy mahsulotning yillik yetishtirilishi, mavsumiy xarakterga egaligi bilan belgilanadi. Shuningdek, asosiy mahsulotni tabiy iqlim sharoitlariga bog‘liq holda ishlab chiqarish imkoniyatlari va yetishtirilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish jarayonini tezlashtirish zarurligi tarmoqqa investitsiyalarni jalb qilishda resurs tejamkor mahsulot ishlab chiqarish bilan birga mahsulotni istemolchilar talabining o‘zgarib borishi sharoitiga asoslangan holda optimal saqlashning texnologik jarayonlarini modernizatsiyalashga yo‘naltirilishi kerak. Ushbu jarayon qishloq xo‘jaligi subyektlari aylanma ishlab chiqarish fondlariga investitsiyalarni jalb qilishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa hozirgi sharoitda Respublikamizda amaldagi baho siyosatining holatida qishloq xo‘jaligi tizimidagi asosiy mahsulotlarga davlat xaridlari tizimi sharoitidagi baholar paritetining buzilish holatida aylanma aktivlarga investitsiyalarni jalb qilish tizimini rag‘batlantirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirishga ehtiyoj tug‘ilmoqda.

Qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb qilishdagi fikrlarni umumlashtirish natijasida ta’kidlash joizki, iqtisodiyotning agrar sektori barqarorligini quyidagicha ko‘rish mumkin:

1) ishlab chiqarilgan va sotiladigan mahsulot hajmi va sifatini oshirish;
2) iste’mol miqdorini tejash va ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni optimallashtirish, ya’ni ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish;
3) xo‘jalik faoliyati uchun avanslangan asosiy va aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish;
4) ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish.

Korxonalarning ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligining pasayishi, uning ishlab chiqarish quvvati tannarx darajasining oshishiga va natijada faoliyatning foyda bilan emas balki, zarar bilan yakunlanishiga olib keladi. Bunda, asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan operatsion faoliyatni takomillashtirish bilan birga hududdagi mavjud iqtisodiy resurslar, iqlim joylashuvi va mehnat resurslariga ham bog‘liqdir.

Hududlar qishloq xo‘jaligi sektori korxonalarning ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilish mehnat unumdorligi va kapital unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishnining resurs sig‘imini pasaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun xo‘jalik ichidagi zaxiralarni to‘liq jalb qilish kabi ko‘rsatkichlari ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning xo‘jalik ichidagi zaxiralari va samaradorlik ko‘rsatkichlariga omillarning miqdoriy ta’siri aniqlash boshqaruv qarorlarini qabul qilishnining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizimli bosqichlar nafaqat alohida olingan xo‘jalik subyektlari, balki, ular faoliyat olib borayotgan hududlar tarmoqlari tarkibidagi qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish samaradorligini baholashda ham asos bo‘lishi mumkin.

Ushbu holatda texnik taraqqiyotni hisobga olish zarurdir, chunki bitta korxona darajasida ishlab chiqarishni boshqarishni baholashda bir xil hududning vaqt (vaqt qatorlari) bo‘yicha xatti-harakatlarini tavsiflovchi ma’lumotlardan foydalaniladi. Nisbiy narxlar vaqt o‘tishi bilan har xil bo‘ladi va demak, ishlab chiqarishning alohida omillari xarajatlarining optimal kombinatsiyasi ham o‘zgaradi. Vaqt qatorlarini qo‘llashda asosiy muammolar texnologik taraqqiyot oqibatlaridan kelib chiqadi, buning natijasida ishlab chiqarish omillarining xarajat normalari, ular bir-birini almashtira oladigan nisbatlar va samaradorlik parametrlari o‘zgaradi.

Mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan resurslar sifatida biz ishchilarning o‘rtacha yillik soni (L), asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati (K) da ifodalangan asosiy vositalarning xarajatlari shaklida mehnat xarajatlarini olamiz.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga kapital va mehnat sarfining ta’sirini Knut Uiksell tomonidan taklif qilingan hamda Charlz Kobb va Pol Duglas tomonidan tekshirilgan funksiya ya`ni Kobb-Duglas ishlab chiqarish funkatsiyasi orqali ko‘rib chiqishga harakat qilamiz.

Ushbu ishlab chiqarish funksiyasi, bizning masalamizga muvofiq quyidagichadir:

$$Y = AK^{a1}L^{a2}e^{rt+\varepsilon} \quad (2)$$

Bu yerda:

A – texnik taraqqiyot koeffitsiyenti;

a_1, a_2 – qishloq xo‘jaligidagi kapital va mehnat resurslarining elastikligi koeffitsiyenti;

t – vaqt;

r – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mavjud texnik taraqqiyot natijasidagi ishlab chiqarilgan mahsulotning o‘sish sur’ati.

a_1, a_2 – parametrlar interpretatsiyasi uchun logarifmik omil sifatida elastiklik tushunchasini kiritamiz. Ya’ni, a_1 – asosiy fondlarga investitsiyalar o‘zgarishiga nisbatan yalpi ishlab chiqarish o‘sishining elastikligi; a_2 – mehnat resurslariga xarajatlar o‘zgarishiga nisbatan yalpi ishlab chiqaprish o‘sishinining elastikligi.

Shuningdek, ishlab chiqarish funksiyasi yordamida yana ishlab chiqarish masshtabi va samaradorligini ifodalash mumkin. Buni quyidagi tenglamalar funksiyasi orqali ifodalash mumkin:

Agar,

$$a_1 + a_2 > 1 \quad (3)$$

Demak, yalpi ishlab chiqarish hajmi qiymat ekvivalentida ishlab chiqarish omillariga nisbatan yuqori o‘sish tendensiyasi kuzatiladi. Bunda, ishlab chiqarish masshtabining kengayishi xarajatlarni iqtisod qilish hisobiga intensiv o‘qish kursini ta’minlaydi.

Agar,

$$a_1 + a_2 < 1 \quad (4)$$

Demak, yalpi ishlab chiqarish hajmi qiymat ekvivalentida ishlab chiqarish omillariga nisbatan past sur’atdagi o‘sish tendensiyasi kuzatiladi. Bunda ishlab chiqarish masshtabi o‘sishi samaradorliknining pasaytiruvchi ta’sirida bo‘ladi. Bunda sharoitda qishloq xo‘jaligi investitsion faolligini oshirish, unga investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lmaydi.

Agar,

$$a_1 + a_2 = 1 \quad (5)$$

Demak, samaradorlik ishlab chiqarish masshtabiga bog‘liq bo‘lmaydi. Ushbu holat qishloq xo‘jaligida ekstensiv iqtisodiy o‘sish suratidagi o‘sishini ifodalaydi. Ushbu holatda ham boshqa tarmoqlardagi iqtisodiy o‘sishning intensiv kursi sharoitida qishloq xo‘jaligi investitsion jozibadorligi past darajada qoladi.

TAHLIL NATIJALARI

Respublikamiz hududlari orasida qishloq xo‘jaligi bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishda drayver hududlardan biri bo‘lgan Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligi tarmog‘i misolida investitsiyalar samaradorligini yalpi ishlab chiqarish hajmiga ta’sirini ko‘rib chiqamiz.

1-jadval: Qashqadaryo hudud iqtisodiyotidagi qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining samaradorlik ko‘rsatkichlari

Yillar	Y (YaQQ)	K	L	t	lnY	lnK	lnL
2012	5620,2	51561,47	90,1	1	3,750	4,712	4,5
2013	6563,2	74581,82	88,7	2	3,817	4,873	4,49
2014	7899,3	84938,71	87,1	3	3,898	4,929	4,47
2015	9320,1	38672,61	83,1	4	3,969	4,587	4,42
2016	11121,0	23314,47	83,4	5	4,046	4,368	4,42
2017	14761,6	39575,34	82,5	6	4,169	4,597	4,41
2018	17685,8	453482,1	70,9	7	4,248	5,657	4,26
2019	20415,1	537239,5	68,6	8	4,310	5,730	4,23
2020	24510,3	597812,2	67,5	9	4,389	5,777	4,21
2021	29352,8	652284,4	66,2	10	4,468	5,814	4,19

Yillik ma’lumotlar hududiy iqtisodiyotning qishloq xo‘jaligi tarmog‘i tizimida resurslardan foydalanish samaradorligini ekonometrik tahlil qilish uchun Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasi asosida 2015-2021-yillar bo‘yicha statistik ma’lumotlar massividan foydalanamiz.

Ishlab chiqarish funksiyasi parametrlarini eng kichik kvadratlar usulidan foydalangan holda hisoblaymiz.

$$\ln Y = \ln A + a_1 \ln K + a_2 \ln L + rt + \varepsilon \quad (6)$$

Qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’ati sarflangan mehnat xarajatlarinining o‘zgarishiga nisbatan elastikligi 9,31%, kapital xarajatlarning o‘zgarishiga nisbatan elastikligi esa 1,97%ni tashkil qiladi. Bu ishlab chiqarish omillaridan intensiv foydalanishdan dalolat beradi.

$$\ln Y = -73{,}1 + 1{,}97 \ln K + 9{,}31 \ln L + 0{,}72t + \varepsilon \quad (7)$$
$$(1{,}99) \qquad (3{,}89) \qquad (3{,}22)$$

Tahlil qilinayotgan davrda ko‘rib chiqilayotgan omillarning umumiy unumdorligi oshdi, shu bilan birga o‘rtacha xarajatlar kamaydi, chunki ishlab chiqarish funksiyasining elastiklik koyeffitsiyentlari yig‘indisi 1 dan katta. Shuningdek, Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi tenglamasi texnik taraqqiyotni hisobiga ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati yiliga 0,891% ni tashkil qilganligini ko‘rsatadi. r = 0,89 qiymatining 0 dan bir oz farq qilishi ko‘rib chiqilayotgan davrda omillarning umumiy unumdorligining o‘sish sur’ati past bo‘lganligini tasdiqlaydi.

2-jadval: Korrelyatsion-regression tahlilning natijalari

Yakuniy xulosalar						
Regression statistika						
Ko‘p omilli R	0,913					
R-kvadrat	0,805					
Normallashtirilgan R-kvadrat	0,708					
Standart xatolik	0,499					
Kuzatuvlar soni	10					
Dispersion tahlil						
	Df	SS	MS	F	F-ahamiyatlilik	
Regressiya	3	6,175	2,058	8,263	0,015	
Qoldiq	6	1,495	0,249			
Jami	9	7,669				
	Koef-lar	St. xatolik	t-stat.	P-prob.		
lnY	-73,146	20,174	-4,025	0,007		
lnK	1,973	1,179	2,097	0,081		
lnL	9,314	2,940	4,907	0,003		
T	0,891	0,028	3,338	0,029		

Multiplikativ ishlab chiqarish funksiyasi bo‘yicha olingan elastiklik koeffitsiyenti ahamiyatli hisoblanadi. Ko‘p omilli korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,913 ga teng bo‘lib, natijaviy ko‘rsatkichga regressiya tenglamasiga kiritilgan ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudlligini ko‘rsatadi.

Dispersiyaning izohlangan ulushi 0,81 ga teng bo‘lib, bu shuni tasdiqlaydiki, Qishloq xo‘jaligida yaratilgan YAHMning fizik hajmini o‘rtacha yillik indeksidagi o‘zgarishlarning 81% regressiya tenglamasiga kiritilgan omil xususiyatlarining o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Modeldagi tasodifiy va hisobga olinmagan omillarning ta’siri bilan izohlanadigan qoldiq o‘zgarishlar darajasi 19% ni tashkil qiladi.

XULOSALAR

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilishi mumkinki, viloyat iqtisodiyotining qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’atiga “kapital resurslar” omiliga nisbatan “mehnat resurslari” omilining sezilarli ta’siri kuzatilmoqda.


Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti qishloq xo‘jaligi tarmog‘i ishlab chiqarish faoliyati samaradorligi va ularga investitsiyalarni jalb qilish samaradorligining tahlili shuni tasdiqlaydiki, hudud qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini intensiv rivojlantirish va unda kapitaldan foydalanish unumdorligini oshirishga yo‘naltirilgan islohotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Shuni ta'kidlash kerakki, boshqa tarmoqlar kabi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida faol investitsion siyosatga yo'naltirilgan menejment tizimi samaradorligini yuksaltirish murakkab vazifa bo'lib, unda belgilangan maqsadlarga erishish yahlit ishlab chiqarish omillarini kompleks texnik va ijtimoiy-iqtisodiy baholamasdan hal yetib bo'lmaydi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish funksiyalari ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini har tomonlama baholashga, shuningdek, ularning kutilayotgan qiymatlari asosida ishlab chiqarish hajmini prognoz qilishga imkon beradi.

Foydalangan adabiyotlar ruyxati:

1. Блауг М. Кенэ, Франсуа // 100 великих экономистов до Кейнса – Great Economists before Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. – СПб.: Экономикус, 2008.
2. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксмо. – 2007.
3. Общая теория занятости, процента и денег / Дж. М. Кейнс. – М.: Прогресс, – 1978.
4. Оболенский К.П. Экономическая эффективность сельскохозяйственного производства. Теория и практика. – М.: Экономика,1974. –192 с.
5. Витун Е.Р. Сущность, критерий и факторы экономической эффективности сельскохозяйственного производства // Гродненский сельскохозяйственный институт. – Гродно, 1993. – 452 с.
6. Экономика предприятий и отраслей АПК. Учебное пособие/ В.С. Тонкович, Е.П. Кивейта, Л.Ф.Догиль и др. – Минск: Издательство Белорусского аграрного университета. –1996. – 320 с.
7. Bekmurodov A.Sh. va boshq. Global iqtisodiy inqiroz davrida O'zbekiston moliya sektori: muammolar, natijalar va istiqbollar. Ilmiy monografiya. – T.: Moliya. – 2013.
8. Mustafakulov Sh.E. O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSC) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: O'z.R.Bank moliya akademiyasi. 2017-y.
9. Abduraximova S.A. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish. I.f.n. diss. – T.: TDIU. – 2012;
10. Valiyev B.B. O'zbekistonda hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda investitsiya salohiyatini oshirish mexanizmi. 08.00.12 – "Mintaqaviy iqtisodiyot" Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of science) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent – 2021.
11. Qashqadaryo viloyati hokimligi iqtisodiyot boshqarmasi statistik to'plamlari.



MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGIGA A’ZO DAVLATLARDA AUDITNING XALQARO STANDARTLARINI QO‘LLASH XUSUSIYATLARI

Meliyev Isroil Ismoilovich
“Alfraganus” nodavlat universiteti “Moliya” kafedrasi professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlarda auditning xalqaro standartlarini qo‘llash masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda mazkur davlatlarda auditorlik faoliyatini tashkil etish va xalqaro standartlarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari, ularda xalqaro audit standartlarini qo‘llashda erishilgan natijalar hamda auditning xalqaro standartlarini amaliyotga joriy etish istiqbollari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Auditning xalqaro standartlari, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlar, auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari, auditorlik professional jamoat birlashmalari, auditorlik xizmatlari bozori, auditorlik tekshiruvi, moliyaviy hisobot auditi, yakka tartibdagi xususiy auditor, nodavlat notijorat tashkilotlar.

Abstract: This article is devoted to the application of international standards of auditing in the member states of the Commonwealth of Independent States. It analyzes the specific features of the organization of auditing activities and the application of international standards in these countries, the results achieved in the application of international auditing standards, and the prospects for the implementation of international auditing standards.

Key words: International standards of auditing, member states of the Commonwealth of Independent States, professional services of auditing organizations, auditing professional public associations, auditing services market, auditing, financial statement auditing, individual private auditor, non-governmental non-profit organizations.

Аннотация: Данная статья посвящена применению международных стандартов аудита в государствах-участниках содружества независимых государств. анализируются особенности организации аудиторской деятельности и применения международных стандартов в этих странах, результаты, достигнутые при применении. международных стандартов аудита и перспективы внедрения международных стандартов аудита.

Ключевые слова: Международные стандарты аудита, государства-участники Содружества Независимых Государств, профессиональные услуги аудиторских организаций, аудиторские профессиональные общественные объединения, рынок аудиторских услуг, аудит, аудит финансовой отчетности, индивидуальный частный аудитор, негосударственные некоммерческие организации.

KIRISH

Ma’lumki, jahonning ko‘pgina mamlakatlarida moliyaviy hisobot va auditni xalqaro standartlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Lekin, shunga qaramasdan, moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlarini to‘laqonli joriy etishda mazkur standartlarning mazmun va mohiyatini chuqur o‘rganish, ularni amaliyotda qo‘llay olish, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiyalash, ilg‘or xorij tajribasini mamlakatimiz iqtisodiyotiga joriy etish kabi masalalarni hal etish uchun moliyaviy hisobot auditini yanada takomillashtirish borasida kompleks tadqiqotlar olib borish zarurati kuchaymoqda.

Xususan, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlar auditorlik amaliyotida tekshiruvlarni rejalashtirish, o‘tkazish va tekshiruv natijalarini umumlashtirish jarayonida o‘z yechimini kutayotgan qator muammolarni bartaraf etish, ularning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Bunday muammolarga birinchidan, buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyati bo‘yicha qonun va normativ-hujjatlarning auditorlik amaliyotida talab darajasida qo‘llanilmayotganligi, ikkinchidan, auditorlik tekshiruvini tashkil qilish va o‘tkazishning amaliy va uslubiy jihatlari yetarlicha, chuqur tadqiq qilinmaganligi, uchinchidan, auditorlik tekshiruvi natijalarini auditorlik ish hujjatlarida umumlashtirish va rasmiylashtirishning xalqaro standartlar talablariga muvofiq amalga oshirilmayotganligi va to‘rtinchidan, auditorlik riski va muhimlik darajasini aniqlash, audit ish sifati va auditorlik faoliyati samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda uni baholash uslubiyatining samarasiz qo‘llanilayotganligi kabi masalalar zamonaviy talablar darajasida ishlab chiqilmaganligidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarida auditorlik faoliyatining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish hamda uni takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. MDHga a’zo davlatlarda auditorlik xizmatlari bozori va uning tahlili hamda MDHga a’zo davlatlar auditorlik faoliyatining ilg‘or tajribasini tadqiq etish bo‘yicha ko‘plab MDH mamlakatlarining iqtisodchi-olimlaridan N.P. Barishnikov, N.T. Beluxa, S.M. Bichkova, Suys, A.A. Terexov va A.D. Sheremetlar tomonidan o‘rganilgan [1].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan mazkur masalalar yaratilayotgan darslik, monografiya va o‘quv qo‘llanmalar, shuningdek, e’lon qilinayotgan ilmiy maqola va tezislarda qisman o‘rganilgan. Masalan, R.Dusmuratov, M.Tulaxodjayeva, B.Hamdamov, B.Dagarov va I.Qo‘ziyevlar tomonidan MDHga a’zo davlatlar auditorlik faoliyatining nazariy hamda amaliy asoslarining ayrim jihatlari o‘rganilgan [2]. Ta’kidlash joizki, yuqoridagi tadqiqotlarda mavzuga oid umumiy qarashlar keltirilgan bo‘lsada, biroq MDHga a’zo davlat auditorlik faoliyatining qiyosiy tahlili hamda ular ilg‘or tajribasini O‘zbekiston amaliyotida qo‘llash masalasi alohida ilmiy tadqiqot obyekti va yaxlit tizim sifatida tadqiq qilinmagan. Bu holat mazkur mavzuda kompleks ilmiy izlanishlar olib borish va tadqiqot vazifalarini belgilashni taqozo etmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan bu masalalar yaratilayotgan darslik, monografiya va o‘quv qo‘llanmalar, shuningdek, e’lon qilinayotgan ilmiy maqola va tezislarda qisman o‘rganilgan. Masalan, iqtisodchi-olim A.X.Sattarov tomonidan O‘zbekiston amaliyotida MDH davlatlari ilg‘or tajribalarini qo‘llash jarayonini chuqur tahlil etgan holda, mazkur davlatlar tomonidan auditorlik faoliyati sohasida erishilgan natijalarni O‘zbekiston amaliyotida qo‘llash bo‘yicha amaliy takliflarni shakllantirishga erishgan [3].

Shuningdek, bu borada Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan I.Meliyevning tadqiqotlarida MDH davlatlarida auditorlik faoliyatini tashkil etishning qiyosiy tahlili keltirilgan bo‘lsada, biroq, ushbu davlatlar ilg‘or tajribasini O‘zbekiston amaliyotida qo‘llash masalalari yetarlicha bayon etilmagan [4].

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlarda auditorlik xizmatalari bozori va ularda xalqaro auditorlik standartlarini qo‘llanilish holatining 2014-yilgacha bo‘lgan tahlili O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti(https://www.imv.uz)da batafsil keltirilgan. Biroq, 2014-yildan keyingi yillarda MDH davlatlarida auditorlik faoliyati holatining rasmiy tahlili ma’lumotlari aks ettirilgan manbalar hozirgacha mavjud emas [5].

TAHLIL VA NATIJALAR


So‘nggi yillarda audit xizmatlari bozori Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (keyingi o‘rinlarda MDH)ga a’zo davlatlar iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylandi. Iqtisodiyotning istalgan segmenti kabi audit xizmatlari bozori ham ko‘rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi. MDHga a’zo davlatlar auditorlik faoliyati subyektlari asosan auditorlik tashkilotlari hisoblanadi. MDH tarkibidagi Ozarbayjon Respublikasi, Belarussiya, Qirg‘iziston Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi kabi davlatlar qonunchiligida auditorlik faoliyatini yakka tartibdagi (xususiy) auditorlar tomonidan olib borilishiga ruxsat etilgan. Yakka tartibdagi (xususiy) auditorlar sifatida belgilangan malaka talablariga javob beradigan va yuridik shaxs tashkil etmagan holda auditorlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tan olinadi.

Shuningdek, ushbu davlatlarda qonunchilik talablariga muvofiq yakka tartibdagi (xususiy) auditorlarning auditorlik faoliyatiga nisbatan cheklovlar belgilangan. Masalan, Rossiya Federatsiyasida yakka tartibdagi auditorlar ijtimoiy ahamiyatli tashkilotlarning (kredit va sug‘urta tashkilotlari, nodavlat nafaqa jamg‘armalari va boshqalar) buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarini hamda konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarini majburiy tekshiruvini amalga oshirishga haqli emaslar. Umuman olganda, MDHga a’zo davlatlarda yakka tartibdagi (xususiy) auditorlar faoliyati ko‘lami odatda audit xizmatlari bozori ko‘rsatkichlariga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatmaydi. Bu davlatlarda auditorlik faoliyati subyektlari soni, odatda, auditorlar reyestrlari va audit tashkilotlari ma’lumotlariga asosan aniqlanadi. Ekspertlarning fikricha, bu davlatlar auditorlik amaliyotida auditorlik faoliyati bilan MDHga a’zo davlatlarda bunday huquqi bo‘lgan 70-95% subyektlar shug‘ullanadi.

MDHga a’zo davlatlar amaliyotida auditorlik faoliyati subyektlari quyidagi xizmat turlarini ko‘rsatadilar:

- Moliyaviy hisobot auditini o‘tkazish;
- Auditga oid professional xizmatlar ko‘rsatish;
- Boshqa auditorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan (buxgalteriya, soliq, yuridik, boshqaruv maslahati, buxgalteriya, soliq hisobini o‘rnatish, tiklash va yurgizish, buxgalteriya (moliya), soliq hisobotini tuzish, buxgalteriya hisobini avtomatizatsiya qilish va axborot texnologiyalarini joriy qilish, baholash xizmatlari, mutaxassislarni o‘qitish va auditorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, moliya-xo‘jalik ishi tahlili, soliq va bojxona kelishmovchiklari, sud va soliq organlarida vakillik qilish).

Auditning xalqaro standartlari yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining 9-moddasiga muvofiq, auditning xalqaro standartlari xalqaro buxgalterlar federatsiyasining maxsus kengashi (IAASB) tomonidan ishlab chiqilib, u quyidagi turkumlardagi standartlarni o‘z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm: O‘zbekiston amaliyotida qo‘llaniladigan auditning xalqaro standartlari turkumlari[1]

Ta’kidlash joizki, bugungi kungacha o‘tkazilgan tadqiqotlar yoki auditga oid me’yoriy hujjatlarda auditning xalqaro standartlari atamasining mazmun-mohiyati aniq va to‘liq mazmunda keltirilmaganligini ham ta’kidlash joizdir. Fikrimizcha, auditning xalqaro standartlari deganda Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan, auditorlik tekshiruvi va auditorlik turdosh xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha yagona talablar, shartlar va tekshiruvni amalga oshirish tartib-qoidalari aks ettirilgan me’yoriy hujjat tushuniladi. O‘zbekiston auditorlik amaliyotida 2013-yildan boshlab, Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasining Xalqaro audit standartlari va axborot ishonchliligini tasdiqlash bo‘yicha Qo‘mitasining ruxsati bilan davlat tilida auditning xalqaro standartlari tarjima qilinib, auditorlik amaliyotida keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Auditning xalqaro standartlari Respublika hududida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 171-sonli qarori asosida amaliyotga joriy etish jarayoni amalga oshirilmoqda. Mazkur Qarorga muvofiq, auditning xalqaro standartlari 8 bosqichdagi vazifalar asosida Moliya vazirligi, buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, auditorlar palatasi hamda auditorlik tashkilotlari hamkorligida O‘zbekiston hududida auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibiga doir vazifalar amalga oshirilib kelinmoqda. O‘zbekiston moliya vazirligi tomonidan “2022-yil 1-noyabrga qadar auditning xalqaro standartlari bo‘yicha bepul o‘qitish ta’lim platformasini yaratish choralarini ko‘rish” vazifasi yuklatilib, kelgusi yildan e’tiboran, xalqaro standartlar asosida to‘liq hajmdagi auditorlik xizmatlarini ko‘rsatishi belgilangan [6].

MDHga a’zo davlatlar audit xizmatlari bozorini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan yana biri bu - auditorlik faoliyati subyektlari tomonidan xizmat ko‘rsatilgan mijozlar soni hisoblanadi. Auditorlik faoliyati subyektlari tomonidan MDHga a’zo davlatlarda keng tarqalgan xizmatlar sirasiga moliyaviy hisobot auditi xizmati kiradi. Majburiy audit xizmatida bo‘lsa, auditorlik tashkilotlarining mijozlari, odatdagidek, tashkilotlar, tashkiliy savdolarda qatnashish uchun yo‘lga qo‘yilgan qimmatli qog‘ozlar bozori, ochiq aksionerlik jamiyatlari, kredit va sug‘urta tashkilotlari, nodavlat nafaqa jamg‘armalari, birjalar, investitsiya jamg‘armalari, davlat va munitsipal tijorat korxonalaridir. Bundan tashqari, MDHga a’zo davlatlar auditorlik amaliyotida tashabbus tarzi(ixtiyoriy)da amalga oshiriladigan auditorlik nazorati shakli keng rivojlanmoqda.

MDHga a’zo davlatlarning aksariyatida jumladan, Ozarbayjon Respublikasi, Belorussiya Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va O‘zbekiston Respublikalarida auditorlik amaliyotining xususiyatli jihatlaridan biri bu ularda auditorlarni o‘z-o‘zini boshqarish yoki ularni birlashtiruvchi professional tashkilotlarni tashkil qilinganligidir. Bundan tashqari, mazkur davlatlarda, Ozarbayjondan tashqari, auditorlarning o‘zini-o‘zi boshqarish tashkilotlarining bir qanchasi mavjuddir, jumladan bunday tashkilotlar Belorussiya Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasida - ikkitadan, Moldova Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasida – uchtadan, Rossiya Federatsiyasida - beshtadan tashkilotlar bugungi kunda faoliyat ko‘rsatmoqda.

MDH davlatlarida (Belorussiya Respublikasidan tashqari) Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasining (International Federation of Accountants) a’zosi bo‘lgan auditorlarning o‘zini-o‘zi boshqarish tashkilotlari mavjuddir, jumladan, Ozarbayjon Respublikasi, Belorussiya Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Moldova Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasida – bittadan tashkilot, Rossiya Federatsiyasida esa – uchta tashkilot faoliyat ko‘rsatayotganligini ta’kidlash joiz.

1 Muallif tomonidan tayyorlangan.

Oxirgi o‘n yillikda dunyoda audit xizmatlari bozorining asosiy elementlaridan biri bu auditorlik amaliyotida xalqaro audit standartlari(keyingi o‘rinlarda XAS)ni qo‘llash amaliyoti bo‘lib kelmoqda. MDHga a’zo davlatlarning auditorlik faoliyati milliy tizimlarining o‘xshash jihati auditorlik faoliyatini tartibga solishda XASni asosiy vosita sifatida qabul qilishlaridadir. Yondashuvning bunday konseptual birligi quyidagi asosiy sabablar bilan o‘zaro bog‘langan:

Birinchidan, hozirgi davrda mustaqil xalqaro nodavlat institutlari tomonidan ishlab chiqilayotgan XASda auditorlik faoliyatiga qo‘yiladigan universal va sifatli talablar tizimini o‘z ichida mujassamlashtirganligi;

Ikkinchidan, MDHga a’zo davlatlarning milliy iqtisodiyotida investitsiyalarni rag‘batlantirish, milliy kapital bozorlarini faollashtirish, bundan tashqari, zamonaviy hayotda xalqaro tan olingan MHXS va XASdan foydalangan holda investorlar uchun qulay axborot muhitini yaratishga bo‘lgan intilishning yuqoriligi;

Uchinchidan, XASning oxirgi yillardagi xalqaro ommabopligi keskin oshdi, ko‘pgina davlatlarda XAS talablari to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilindi. Shu munosabat bilan, XAS ayrim davlatlarning jahon siyosatiga qo‘shilishi elementi sifatida qaraldi. Shuningdek, MDHga a’zo davlatlar tarkibidagi Ozarbayjon Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va O‘zbekiston Respublikalarida XASni joriy qilishning milliy dasturlari ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etib kelinmoqda. Mazkur dasturlarni amalga oshirish audit institutlari hamda boshqa organlar bilan birgalikda moliya vazirligiga yuklatildi (1-jadval).

1-jadval: MDHga a’zo davlatlarda xalqaro audit standartlarini joriy qilinishi holati[2]

MDHga a’zo davlatlar	XASni joriy qilish rejasi (dasturining) mavjudligi	Rejani (dasturni) amalga oshiradigan vakolatli organlar	XASni joriy qilish davri
Ozarbayjon Respublikasi	Ҳa	–	01.01.2010-yildan boshlab
Armaniston Respublikasi	Йўқ	–	–
Belorussiya Respublikasi	Йўқ	–	–
Qozog‘iston Respublikasi	Ҳa	Moliya vazirligi, malakali auditorlik tashkilotlari	2006-yildan boshlab
Qirg‘iz Respublikasi	Ҳa	–	2003-yildan boshlab
Moldova Respublikasi	Ҳa	Moliya vazirligi, Maorif vazirligi, buxgalteriya hisobi va audit sohasi bo‘yicha malakaviy assotsiatsiyalar	01.01.2012-yildan boshlab
Rossiya Federatsiyasi	Ҳa	Moliya vazirligi, auditorlik faoliyati bo‘yicha Kengash, auditorlarning o‘zini-o‘zi boshqarish tashkilotlari	2013–2016-yillar
Tojikiston Respublikasi	Йўқ	–	–
O‘zbekiston Respublikasi	Ҳa	Moliya vazirligi, Markaziy Bank, buxgalterlar va auditorlarning kasbiy birlashmasi	2011–2015-yillar Bosqichma-bosqich

MDHga a’zo davlatlarda XAS talablarini joriy qilishdagi asosiy muammo bu – XAS talablari asosida auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish masalasi hisoblanadi. Bugungi kunda, ko‘pgina MDHga a’zo davlatlar, jumladan, Belorussiya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi audit o‘tkazish XAS asosida ishlab chiqilgan milliy standartlar asosida auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazib kelmoqda. Ta’kidlash joizki, ayrim MDHga a’zo davlatlarda XAS talablari to‘g‘ridan to‘g‘ri auditorlik amaliyotida to‘liq qo‘llanilib kelinmoqda. Bugungi kunda XAS talablari Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi va Moldova Respublikalari auditorlik amaliyotida to‘g‘ridan to‘g‘ri milliy standart sifatida to‘liq qo‘llanilmoqda. Rossiya Federatsiyasi va O‘zbekiston Respublikalarida bosqichma-boqich XASni milliy standartlar sifatida qo‘llashga o‘tish rejalashtirilgan (2-jadval). MDHga a’zo davlatlarda XASga o‘tishda jahon amaliyoti tajribasini o‘rganish va amaliyotda qo‘llash jarayoni vakolatli davlat organlari bilan birgalikda asosan auditning jamoat professional tashkilotlari orqali amalga oshirilib kelinmoqda.

2 Muallif tomonidan tayyorlangan.

2-jadval: XAS ni joriy qilish tajribasini umumlashtirish va ommalashtirish[3]

MDHga a'zo davlatlar	XASni joriy qilishni umumlashtirish va ommalashtirish tizimi
Ozarbayjon Respublikasi	Auditorlar palatasi XASni joriy qilish bo'yicha seminar va simpoziumlar o'tkazadilar; ommaviy axborot vositalari orqali ommalashtiriladi
Armaniston Respublikasi	Ma'lumot yo'q
Belorussiya Respublikasi	Moliya vazirligi va Milliy bank tavsiyalar ishlab chiqadi
Qozog'iston Respublikasi	XASni joriy qilish tajribasini umumlashtirish va ommalashtirish tizimi Moliya Vazirligi va auditorlarni o'zini-o'zi boshqarish tashkilotlari "Qozog'iston Respublikasi auditorlar palatasi", "Auditorlar kollegiyasi" o'zaro ta'siriga asoslanadi. Malakali tashkilotlar auditorlar va audit tashkilotlari ishi tajribasini umumlashtiradi va ommalashtiradi, o'quv adabiyotlari tarqatadi, uslubiy tavsiyanomalar chop qilishadi, davriy jurnallar chiqarilishini va dasturiy mahsulotlar ishlab chiqilishini amalga oshiradi, o'quv seminarlarini o'tkazadi
Qirg'iziston Respublikasi	XASni joriy qilish tajribasini umumlashtirish va ommalashtirish Qirg'iziston Respublikasi Hukumati qoshidagi moliya bozorini tartibga solish va kuzatuv davlat xizmati tomonidan standartlarni erkin olish va qo'llash uchun qo'yish orqali
Moldova Respublikasi	XASni joriy qilish tajribasini umumlashtirish va ommalashtirish Moliya vazirligi, Maorif vazirligi va buxgalteriya hisobi va audit sohasi bo'yicha malakaviy assotsiatsiyalar tomonidan standartlarni erkin olish va qo'llash uchun qo'yish hamda o'quv seminarlarini o'tkazish orqali
Rossiya Federatsiyasi	Auditorlarning o'zini-o'zi boshqarish tashkiloti - buxgalterlarning xalqaro federatsiyasi a'zolari XASni qo'llash tajribasini ommalashtiradilar
Tojikiston Respublikasi	XASni joriy qilish tajribasini umumlashtirish va ommalashtirish malakali buxgalterlar va auditorlarning instituti orqali malaka oshirish bo'yicha kurslar o'tkazish orqali hamda buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha MHXSni joriy qilish bo'yicha Hukumat komissiyasi qoshidagi uslubiy kengash Moliya Vazirligi bilan birgalikda XASni joriy qilish bo'yicha uslubiy tavsiyalarini ishlab chiqish va joriy qilish qismi bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi	XASni joriy qilish tajribasini umumlashtirish va ommalashtirish buxgalterlar va auditorlarning kasbiy birlashmasi, Moliya vazirligi tomonidan o'quv adabiyotlarini tarqatish, uslubiy tavsiyalarni chop etish, o'quv seminarlarini o'tkazish, hamda auditorlar va buxgalterlar malakasini oshirish kurslarini o'tkazish orqali amalga oshirilmoqda

Bizningcha, MDHga a'zo davlatlar auditorlik amaliyotida XASni joriy qilish va qo'llash jarayonida institutsional, tashkiliy-huquqiy, moliyaviy, kadrlar tayyorlash va boshqa uslubiy muammolar mavjud. O'z navbatida mazkur muammolarni yechish tom ma'noda XASni qo'llashda o'zaro hamkorlikni amalga oshirish imkonini beradi.

Fikrimizcha, MDHga a'zo davlatlarda XASni qo'llashning institutsional muammolari sifatida institutsional muhitning yo'qligi yoki yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi umumiy muammolar mavjuddir. MDHga a'zo davlatlarda XASni qo'llash uchun nafaqat standartlarning milliy tilga tarjimasini amalga oshirish, balki mazkur matnlarga har qanday manfaatdor shaxsning to'siqsiz foydalanish huquqi bilan ta'minlash muammolari ham mavjuddir. Fikrimizcha, hozirgi vaqtgacha, MDHga a'zo davlatlar bu muammolarni mustaqil ravishda yechib keldilar. Ammo, MDHga a'zo davlatlarning aksariyati uchun XASning tarjimasining yo'qligi va XASni qo'llashning moliyaviy muammolarining mavjudligi yoki MDHga a'zo davlatlarning moliyaviy manbalarining cheklanganligi kabilar mazkur muammoni jiddiylashtirdi. Bu davlatlarda XASni qo'llashning kadrlarga oid muammolari auditorlarda XAS sohasi bo'yicha bilimlar va ko'nikmalarning yetarli darajada emasligi bo'lib, bunda XASni qo'llashga o'tishda mahalliy tillardagi miqdor va sifat jihatdan uslubiy materiallarning yetishmasligi kabi muammolarni ta'kidlash mumkin (5-jadval).

MDHga a'zo davlatlarda XASni qo'llashning uslubiy muammolari sifatida XASning ayrim qoidalarining milliy normativ hujjatlar talablariga mos kelmasligi tufayli yuzaga keldi. Bu esa uslubiy muammolarni MDHga a'zo davlatlarning auditorlik faoliyati sohasida xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlikni amalga oshirishni taqozo etdi.

3 Muallif tomonidan tayyorlangan.

5-jadval: MDH davlatlarida XASning davlat tiliga tarjima qilinishi[4]

MDH ishtirokchi davlatalari	XAS tarjimasining mavjudligi	XAS tarjimasini tayyorlashga ma'sul organlar	XAS tarjimasining maqomi
Ozarbayjon Respublikasi	Ozarbayjon tiliga	Auditorlar palatasi	Rasmiy
Armaniston Respublikasi	Arman tiliga	Moliya Vazirligi	Rasmiy
Belorussiya Respublikasi	Beloruss tiliga	–	Norasmiy
Qozog'iston Respublikasi	Qozoq tiliga (turi 2009 y.)	Moliya Vazirligi	Rasmiy
Qirg'iz Respublikasi	–	Davlat Moliya kuzatuvi	–
Moldova Respublikasi	Rumin tiliga	XAS bo'yicha kengash	Rasmiy
Rossiya Federatsiyasi	Rus tiliga	–	Norasmiy
Tojikiston Respublikasi	–	Moliya Vazirligi	–
O'zbekiston Respublikasi	O'zbek tiliga1	Buxgalterlar va auditorlarning malakali birlashmasi, Moliya Vazirligi, Milliy Bank	–

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston va MDH davlatlari auditorlik faoliyatining qiyosiy tahlili natijalari hamda rivojlangan MDH davlatlari ilg'or tajribasini o'rganish borasidagi tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunida Markaziy Osiyo davlatlari, Xitoy, Rossiya va Ozarbayjon Respublikasi kabi davlatlar auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi bosh qonunlaridagi kabi auditorlik faoliyatiga oid ayrim asosiy tushunchalar mazmuni qonunga kiritish zarurligi, ichki audit faoliyatining qonun yo'li bilan mustahkamlash lozimligi, auditor va auditorlik tashkilotlari tomonidan auditorlik faoliyatiga doir ilmiy tadqiqotlar o'tkazish hamda audit sohasi bo'yicha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha me'yorlarni ishlab chiqish yoki qonunchilikda auditor va auditorlik tashkilotlariga ilmiy tadqiqotlar o'tkazish hamda audit sohasi bo'yicha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyat (xizmat) turi bilan shug'ullanish uchun me'yoriy-huquqiy qoidalarni joriy etish maqsadga muvofiq;

O'zbekiston auditorlik faoliyatida ham rivojlangan MDH davlatlari kabi xususiy auditorlik amaliyotini joriy etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Buning uchun esa, auditorlik faoliyati rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini chuqur o'rgangan holda amaldagi qonun hujjatlariga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish zarur;

O'zbekiston auditorlik faoliyatida Rossiya, Ozarbayjon va Qozog'iston davlatlaridagi kabi ichki auditorlik faoliyatini hamda auditor va auditorlik tashkilotlari javobgarligini majburiy sug'urtalashni maxsus qonun orqali tartibga solishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. O'z navbatida buni ta'minlash maqsadida auditorlik amaliyoti rivojlangan davlatlarning bu boradagi qonunchilik tizimini chuqur tahlil etgan holda "Auditorlik tashkilotlarining fuqarolik-huquqiy javobgarligini majburiy sug'urtalash" to'g'risidagi Qonun hamda "Ichki audit to'g'risida"gi Qonun loyihalarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga keng joriy etish lozim deb hisoblaymiz;

Izlanishlar natijasida, Bugungi kunda, O'zbekistonning xalqaro tarmoqqa kirgan 24 ta auditorlik tashkilotlari amaliyotida auditorlik tekshiruvlari auditning xalqaro standartlari talablariga muvofiq, ya'ni, AuditNET, IT AUDIT: Auditor, Kompleks Audit, "Ekspress audit:PROF", AUDITSOFT, Audit Sampling, First-Audit va Voyager kabi auditorlik platformalaridan foydalanmoqda, qolgan 80 dan ortig'i yoki auditorlik tashkilotlarining 80 foizidan ortiq qismi haliyam "qo'l usuli"da auditorlik tekshiruvini amalga oshirib kelmoqda. Bu esa, ma'lumotlarni hisoblash, qayta ishlash, tahlil qilish, uzoq muddat davomida saqlash, axborot almashinuv, tekshiruvni shartnomada belgilangan muddatda yakunlash va auditning xalqaro standartlari asosida tekshiruvni amalga oshirishda turli xatolik va noaniqliklarga sabab bo'lmoqda;

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatuvchi auditorlik tashkilotlarining professional jamoat birlashmalari(O'zbekiston auditorlar palatasi, O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston buxgalterlar federatsiyasi)ga ham auditorlik amaliyoti rivojlangan davlatlardagi kabi ularga auditorlik faoliyatini tartibga solish bo'yicha keng miqyosdagi vakolat va huquqlar berilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz;

Auditorlik tashkilotlarining turdosh xizmatlari tarkibini xalqaro standartlar me'yorlari va ilg'or xorij tajribasiga muvofiqlashtirish maqsadida xizmatlar tarkibiga buxgalteriya hisobi, audit, soliq solish, hamda moliyaviy rejalashtirishga doir seminarlar, konferensiyalar o'tkazish, hisobni yuritishni avtomatlashtirish va moliyaviy hisobot tuzish hamda moliyaviy axborot xavfsizligi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish xizmatlarini kiritish maqsadga muvofiq.

4 Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Барышников Н.П. Организация и методика проведения общего аудита. 4-е изд. перер. и доп. –М.: Филин, 1998.– 528 с.
2. Белуха Н.Т. Аудит. Учебник “Знания”, КОО, 2000.-769 с; Бычкова С.М. Аудиторская деятельность. Теория и практика.–СПБ.: Лань, 2000.–320 с.
3. Терехов А.А. Аудит: перспективы развития. –М.: Финансы и статистика, 2001. –560 с; Суйц В.П., Шеремет А.Д. Аудит. Учебник. –М.: ИНФРА-М. –2009. –456 с.
4. Dusmuratov R.D. O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining shakllanishi va uning uslubiyotini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent – 2008. –35 b.
5. Tulaxodjayeva M.M. Korxona moliyaviy ahvoli auditi. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”.–1996.–193 b.
6. Hamdamov B.Q. O‘zbekiston iqtisodiyotining hisob va hisobot tizimida auditorlik nazoratini rivojlantirishning uslubiy asoslari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent – 2007. –33 b.
7. B.M.Dagarov. Auditorlik tekshiruvini o‘tkazish jarayonlarini takomillashtirish. PhD. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. –Toshkent-2023.–62 b.
8. Qo‘ziyev I.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent-2017. -70 b.
9. Sattorov A.X. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida auditorlik faoliyatini o‘rganish tajribasi // Iqtisodiyot va turizm ilmiy va innovatsion jurnali // Toshkent-2023 // №2 son https://www.mf.uz.
10. I.I. Meliyev. Auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uslubiyati: muammo va yechimlar: Monografiya. –T.: “Iqtisod-Moliya”, –2020.– 174 b.
11. https://www.imv.uz - O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti.
12. https://lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari portali.

RAQAMLI BANK XIZMATLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR



Melikov Otabek Maxmadiminovich
PhD, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Moliya va bank ishi kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Bugungi kunda mamlakatimiz bank tizimida ham raqamli transformatsiyalash jarayonlari jadal kechmoqda. Ko‘rsatilayotgan raqamli bank xizmatlari ko‘rsatilishidan aholining foydalanish darajasi, bank tizimida amalga oshirilayotgan isloxotlarga aholining fikrini bilish maqsadida so‘rovnomalar o‘tkazilib tahlil etilgan. Mavjud muammolar aniqlanib, bartaraf etish maqsadida to‘rt bosqichli mexanizm va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, neobank, raqamli bank, onlayn banking, raqamli bank platformalari, bank xizmatlari.

Abstract: Digital transformation processes are accelerating in the banking system of our country today. Questionnaires were conducted and analyzed in order to find out the opinion of the population about the level of use of the provided digital banking services and the reforms implemented in the banking system. A four-step mechanism and suggestions were developed for the purpose of identifying and eliminating the existing problems.

Key words: digital transformation, neobank, digital banking, online banking, digital banking platforms, banking services.

Аннотация: Сегодня в банковской системе нашей страны ускоряются процессы цифровой трансформации. Анкетирование было проведено и проанализировано с целью выяснить мнение населения об уровне использования предоставляемых цифровых банковских услуг и реформах, реализуемых в банковской системе. С целью выявления и устранения существующих проблем был разработан четырехэтапный механизм и предложения.

Ключевые слова: цифровая трансформация, необанк, цифровой банкинг, онлайн-банкинг, цифровые банковские платформы, банковские услуги.

KIRISH

Iqtisodiyotni raqamlashtirish – uning barcha tarmoqlaripirovard mahsulotlarining miqdor va sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishiga sabab bo‘ldi. Xususan, bank tizimida yangicha ish (innovatsion faoliyat) faoliyati joriy etilmoqda.

Bugungi banklar tomonidan joriy etilayotgan innovatsion faoliyatlar esa bank xizmatlardan masofadan turib (onlayn) amalga oshirish imkonini bermoqda. Bunday innovatsion xizmatlarga “internet bank”, “bank mobil ilovalari”, “bezkontakt bank kartalari”, “virtual bank kartalari” va turli to‘lov hamda davlat xizmatlarining integrallashgan platformalarini misol qilib keltirish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Banklarni transformatsiya qilish jarayonida mijozlarning talablari ortib borishi muqarrar va bu borada ilg‘or innovatsion bank xizmatlarini sifatli ko‘rsatilmasligi natijasida bank mijozlarining o‘z bankiga bo‘lgan ishonchining kamayishiga olib kelishi mumkin. Natijada, bank mijozlari banklarini almashtirishga yoki boshqa bank xizmatlaridan foydalanishga harakat qiladi. Shuning uchun banklar mijozlarining talablariga binoan faoliyatini transformatsiya qilishi, ya’ni bank mahsulotlari va xizmatlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi bank xizmatlarni yaratishni taqozo etadi [1].


Z.Mamadiyarov tadqiqotlariga ko‘ra bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi, birinchidan odamlar hayotidagi o‘zgarishlar, yangi axborot texnologiyalarining joriy etilishi, bank operatsiyalarining avtomatlashtirilgani bilan bog‘liq. Uning fikricha mohiyatan bank va mijoz o‘rtasidagi aloqaning an’anaviy va masofadan

tashkil etilishi o‘rtasida keskin farq mavjud emas. Bank mijozlariga xizmat ko‘rsatish kerakligi saqlanib qolingan, faqatgina bank va mijozlarini o‘zaro bog‘laydigan aloqa kanali o‘zgardi. Ya’ni faqat bank mijozlari bankka borib bajaradigan operatsiyalarini endilikda masofadan ham amalga oshirish imkoni mavjud bo‘ldi [2].

M. Kovalev, G. Golovenchiklarning fikricha, raqamli bank bu – mobayl va onlayn platformadan foydalangan holda moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish, bu bankning mijoz bilan ishlash sifatini yaxshilaydi, vaqt va xarajatlarni tejaydi, shaxsiy ma’lumotlarni xavfsizligi hamda xizmatlar sifati va tezligini oshiradi [3].

Neobank – takomillashtirilgan bank bo‘lib, u o‘ziga xos biror aniq joyga joylashmagan, ya’ni faoliyatini raqamli platformalar yordamida olib boradi. U o‘z xizmatlarini mijozlariga smartfon, planshet va shaxsiy kompyuterlar orqali taqdim etadi. Neobanklar yana virtual yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri banklar ham deb yuritiladi [4].

Fikrimizcha raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarini ko‘rsatishda ayrim banklar ochilishidan raqamli bank sifatida tashkil etilib, barcha bank xizmatlarini to‘laligicha raqamli shaklda masofaviy ko‘rinishda taqdim etadi yoki faoliyat yuritib kelayotgan banklar o‘z filiallarini qisqartirgan holda zamonaviy raqamli transformatsiyani amalga oshirib, o‘z strukturasini raqamli bank shakliga o‘zgartiradi. Qolgan banklar gibrid shaklda ya’ni ham an’anaviy bank xizmatlari ham raqamli bank xizmatlarini birgalikda olib boradi. (1-rasm.)



1-rasm: Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlari[1]

Onlayn banking birinchi marta 1980-yillarda boshlangan. Siz onlayn-bankingni nisbatan yangi, deb o‘ylashingiz mumkin, ammo u 40 yildan ortiq vaqtdan beri mavjud. Biroq, bu amaliyot faqat 90-yillarda ommalasha boshladi. Internet va mobil qurilmalarning rivojlanishi onlayn-bankingning amaliy bo‘lishiga imkon berdi [5].

Bank ishi tarixida ilk marotaba faqat telefon orqali xizmat ko‘rsatadigan bankning yuzaga kelganligini alohida ta’kidlash joiz, chunki bu bankning birorta ham bo‘limi yo‘q edi. First Direct banki o‘z mijozlariga elektron kanallar orqali xizmat ko‘rsatayotgan eng birinchi hamda hozirda ham juda samarali faoliyat yuritayotgan banklardan biridir. Shuningdek, filialsiz faoliyat yurituvchi banklar (Direct banks) misol uchun, ING Direct, PC Financial (Kanada), First Direct (Buyuk Britaniya), HSBS Direct, Internet Bank of America va E-Trade Bank (AQSH) banklari ham o‘z xizmatlarini asosan onlayn tarzda taqdim qilib kelmoqdalar [6].

2001-yilda Bank of America onlayn tarzda 3 mln.dan ortiq mijozlarni jalb qilgan birinchi moliyaviy muassasa sifatida tarixda qoldi. Bu o‘sha paytlardagi mijozlar bazasining 20 foizini tashkil etgan. Odamlar onlayn bankning avfzalliklarini bildilar. 2006-yilga kelib, AQSH banklarining 80 foizi internet bank xizmatlarini taklif qila boshladi. Onlayn bank evolyutsiyasi davom etar ekan, u asta-sekin elektron tijoratda mashhurlikka erishdi [7].

TAHLIL VA NATIJALAR

Biz ularni raqamli bank, onlayn bank, internet bank yoki neobanklar deb atasakda, ularni an’anaviy bank muassasalaridan farqi jismoniy filiallari majud emas. Bu shuni anglatadiki ular ko‘pincha mijozlarga yuqori daromad va mablag‘larini boshqarish bo‘yicha innovatsion resurslarni taklif qilishlari mumkin. Garchi neobanklar an’anaviy bank institutlarini o‘rnini to‘liq bosa oladimi deyishga hali erta bo‘lsada, AQSH, Yevropa ittifoqi Xitoy va boshqa rivojlangan mamlakatlardagi internet banklar doimiy ravishda o‘sib borishi haqiqatdir.

Mintaqalar bo'yicha butun dunyo bo‘ylab faol onlayn-banking foydalanuvchilari soni [8]:

- Shimoliy Amerika 240,1 mln;
- Yevropa 361,7 mln;

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

- Uzoq sharq va Xitoy 805.1 mln;
- Lotin Amerika 109.0 mln;
- Dunyoning boshqa mintaqalari 805.1 mln.

Bugungi kunda bank xizmati foydalanuvchilari bank filiallariga borib, navbatlar kutib vaqtini o‘tkazishdan ko‘ra, vaqtdan unumli foydalanishni, ya’ni vaqtini o‘z bizneslariga, sport, madaniyat va shu singari foydali ishlari uchun sarflashni afzal biladi. Endilikda birgina bank mobil ilovasi orqali hisob raqamni hoxlagan vaqtda tasarruf etish, ortiqcha mablag‘larni muddatli depozitlarga qo‘yish, kredit olish, xalqaro o‘tkazmalar, valyuta ayriboshlash kabi bir qator bank xizmatlaridan onlayn foydalanish mumkin.

Innovatsion bank xizmatlari-raqamli bank xizmatlarining o‘ziga xos xususiyati sifatida tizimning shaffofligi, inson omilining cheklanganligi, korrupsiya hamda tanish-bilishchilik va shu singari bir qator illatlarga tubdan barxam beradi.

Umuman olganda iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish korrupsiya va yashirin iqtisodiyotning asosiy kushandasidir. Chunki, banklar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat turlari va olinadigan komission xizmat haqlari hamda boshqa ma’lumotlar barcha uchun bir xil bo‘lib, qulay va tushunarli tarzda taklif etiladi. Foydalanuvchi mijoz uchun o‘z vaqtini va mablag‘larini (bir necha banklarga borib uchrashish, yo‘l xarajati va boshqalar) tejagan holda banklarni va xizmat turlarini tanlash imkoniyati mavjud.



2-rasm: Innovatsion bank xizmatlari – raqamli bank xizmatlarining o‘ziga xos xususiyatlari[2]


Sohani raqamlashtirishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, xizmat ko‘rsatuvchi tomonidan berilayotgan takliflar va foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma’lumotlar barchasi axborot texnologiyalar xotirasida saqlanib qoladi hamda kerakli paytda ma’lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday holatda qaysidir mijozlar uchun alohida imkoniyatlar berish yoki boshqa bir mijozlarni taqdim etgan ma’lumotlarini ko‘rib chiqmasdan qoldirish yohud uning imkoniyatlarini cheklash, yashirin bitimlar tuzish imkoni yo‘q. Bu o‘z navbatida banklar faoliyatining barcha uchun tenglik va ochiqlik kafolatini ta’minlaydi [9].

Tijorat banklarining asosiy maqsadi raqobat sharoitida mijoz jalb qilib, yuqori foyda olishga intiladi. Banklararo raqobatda xizmatlar bozorida yuqori mavqega ega bo‘lish, ma’lum bank xizmatlari bozorini egallashda eng istiqbolli rivojlanish yo‘nalishilaridan biri zamonaviy bank xizmatlari ko‘rsatish amaliyotini rivojlantirishdir.


Buyuk Britaniyaning yirik tijorat banklaridan biri bo‘lgan “Bradford & Bingley” bankining tijorat direktori Ya.Darbining fikriga ko‘ra, agar banklar nobank institutlari (supermarketlar, avtomobil zavodlari) bilan bo‘ladigan raqobatga dosh berishin istasalar, u holda, qulay moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatishi, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sonini ko‘paytirishlari, bank mahsulotlarini iste’molchilar uchun qulay va arzon qilishlari kerak [10].

Tadqiqot davomida bugungi bank xizmatlariga aholining munosabatlarini o‘rganish maqsadida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma “google forms” dasturi orqali onlayn shaklda o‘tkazilib [11] jami 222 ta fuqorolar qatnashdilar. Ushbu fuqorolar mamlakatimizning turli viloyatlaridan bo‘lib asosiy qatnashuvchilar 59 foizi 18-30 yosh hamda 32.4 foizi 31-40 yoshdagi fuqoralar o‘z fikrlarini berdilar. Natijalardan, avvalo aholining bank xizmatlaridan keng foydalanishi uchun ularni qiziqtirayotgan jihatlarni quyidagicha ifodalash mumkin (3-rasm).

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



3-rasm: Bank sohasini yanada rivojlanishda hal etish lozim bo‘lgan asosiy elementlar[3]



4-rasm: Raqamli bank platformalari orqali ko‘rsatilayotgan bank xizmatlarini yanada rivojlantirish mexanizmi[4]

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, bank xizmatlari va uning raqamlashtirish bilan bog‘liq quyidagi muammolar mavjudligi aniqlandi:

1. Kredit foiz stavkalari juda yuqori;
2. Onlayn faqat mikroqarzlar olish mumkinligi, boshqa onlayn kredit turlarining mavjud emasligi;

3 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
4 Muallif ishlanmasi.

3. Onlayn bank xizmatlaridan foydalanishni osonlashtirish va qulay tizimni shakllantirish lozim. Chunki, onlayn rejimda foydalanishda qiyinchiliklar ko‘p;
4. Banklar tomonidan an’anaviy xizmat ko‘rsatish sifati va tezligi juda past, xodimlarning muomala madaniyati yaxshi emas;
5. Mahalliy hokimlik va boshqa davlat organlari tomonidan bank xodimlariga qo‘shimcha vazifalarni yuklash ya’ni, majburiy mehnatning haligacha mavjudligi;
6. Muddatida to‘lanmagan qarzdorlik uchun haddan ziyod penya va jarimalarni qo‘llash;
7. Aksariyat bank mobil ilovalaridan foydalanishda noqulayliklar ko‘p va unda xizmatlarning kamligi va bir xilligi;
8. Banklarning ish rejimi noto‘g‘ri tuzilgan, qolaversa, O‘zbekiston Respublikasining “Bank sirlari to‘g‘risida”gi qonunning to‘liq ishlamasligi. Masalan, omonatga pul qo‘ydingizmi, ayrim huquqiy tashkilotlar pul haqida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lishadi;
9. Raqamli bank xizmatlari ko‘rsatishda yetarlicha raqobat va ochiqlik(shaffoflik)ning ta’minlanmaganligi;

Bugungi kunda Bank tizimidagi muammolarni bartaraf etish borasida hukumat va tegishli idoralar tomonidan ayrim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

- bank sektorida davlat ulushini keskin qisqartirish;
- kadrlar malakasini tizimli oshirish va munosib rag‘batlantirish;
- bank xizmatlari bozorida raqobat muhitini yaxshilash maqsadida bank mahsulotlari va xizmatlarni diversifikatsiyalashni yanada kengaytirish;
- bank xizmatlarini raqamlashtirish va aholiga qulay bank xizmatlarini yaratish maqsadida banklar faoliyatini modernizatsiya qilish va boshqalar.

Raqamli bank xizmatlarini ommabopligini oshirish aholiga qulayliklar yaratish yechimi sifatida va raqamli bank xizmatlarini yanada rivojlantirishda quyidagi mexanizmda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi (4-rasm)

Ushbu taklif etilayotgan raqamli bank platformalari orqali ko‘rsatilayotgan bank xizmatlarini yanada rivojlantirish mexanizmining afzalligi shundaki, raqamli bank platformalari orqali ko‘rsatilayotgan bank xizmatlarini rivojlantirish jarayonlarini kompleks qamrab oladi, ya’ni, u “faoliyatni innovatsion tashkil etish”, “raqamli bank tizimini kengaytirish”, “zamonaviy marketing usullarini keng qo‘llash” va “to‘plangan tajribalarni yaxshilash” bosqichlariga bo‘linadi. Mexanizmda ushbu bosqichlarning tarkibiy tuzilishi batafsil keltirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Banklar mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilashning yo‘llari sifatida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Yuqori darajadagi qulaylik va xavfsizlikni ta’minlash;
- Bank xizmalarining mijozlarga moslashuvchanligini ta’minlash;
- Bank xizmalarini ko‘rsatishda mijozlar tajribasi va taklif tavsiyalariga tayanish;
- Risklarni ham foiz hiobiga kiritib sun’iy foiz miqdorini orttirish tajribasiga barxam berish;
- Bank mijozlariga shunchaki xizmat ko‘rsatish emas, ularning biznes xamkoriga aylanish.

Xulosa qilib aytganda mamlakatimiz bank xizmatlari bozoriga xorijiy banklar filiallari va mobil xizmatlarining kirib kelib bank xizmatlari ko‘rsatishiga keng imkoniyatlar va qulayliklar yaratish, tez fursatda islom bank xizmatlari ko‘rsatilishi uchun qonunchilikni ishlab chiqib amaliyotga tatbiq etish lozim. Bank xizmatlar bozorida qanchalik raqobat muhiti yaxshilanib xizmat ko‘rsatuvchilar soni ko‘payib borishi, bank xizmatidan foydalanuvchilarga foizlarning arzonlashuvi va qulayliklarning kengayishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiyev R.R., Rahmatov T.S. Zamonaviy sharoitda bank xizmatlar bozorining nazariy jihatlari//“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. –№ 6, noyabr-dekabr, –2020-yil.
2. Mamadiyarov. Z.T Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Avtorefarat. –2019-y. –13 b.
3. Ковалев М., Головенчик Г. Цифровая трансформация банков // Банковский вестник. №11(664),2018.50-60 с.
4. Блажевич А.А., Рябченко А.А. Необанк как новое направление финансовых инноваций в Российской Федерации // Вестник Института экономических исследований. –№4 (12),– 2018. –160-168 с.
5. www. en.wikipedia.org
6. Mamadiyarov Z.T. Raqamli iqtisodiyotda masofaviy bank xizmatlarining evolyutsion rivojlanishi: mulohazalar va tahlillar // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. –№ 3, may-iyun, 2020.
7. https://www.gobankingrates.com/banking/banks/history-online-banking маълумотлари асосида.
8. https://moneytransfers.com/bank-transfers/online-banking-statistics маълумотлари асосида.
9. Меликов О.М. The Role Of Distance Banking Services In The Context Of Integration Processes // “The American Journal of Management and Economics Innovations”. ilmiy elektron jurnali. № 01-07, январ, 2021й.28-35 б.
10. http://www.deeplace.md/rus/section/170.
11. https://docs.google.com/forms/d/1wdYS-RoEL11IAYw20yFZZoeqBf0ohOFZbPh1ITW8OUE/edit?pli=1



INNOVATSION IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINING TUTGAN O‘RNI

Abdikarimov Islombek Ibragimovich
“Ma’mun universiteti” NTM o‘qituvchisi, UrDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda inson kapitalining tutgan o‘rni, inson kapitali nazariyasining qo‘llanilishi qanday natijalarga olib kelishi hamda inson kapitalining mohiyati haqida so‘z yuritiladi. Bunda inson kapitali va ta’limga kiritilgan investitsiyalar innovatsion jarayonning asosini ta’minlashi hamda inson kapitalini to‘plashda oliy ma’lumot hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi batafsil yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, inson kapitali nazariyasi, investitsiya, innovatsion iqtisodiyot, yalpi daromad, inson resursi, modernizatsiya, oliy ta’lim, oliy ma’lumotli shaxs.

Abstract: This article talks about the role of human capital in the development of an innovative economy, how the application of human capital theory leads to results, and the essence of human capital. In this, it is highlighted in detail that investments in human capital and education provide the basis of the innovation process, and higher education is decisive in the accumulation of human capital.

Key words: economy, human capital theory, investment, innovative economy, gross income, Human Resource, modernization, higher education, higher education person.

Аннотация: В этой статье рассматривается роль человеческого капитала в развитии инновационной экономики, каковы результаты применения теории человеческого капитала, а также природа человеческого капитала. В нем подробно описывается, как инвестиции в человеческий капитал и образование обеспечивают основу инновационного процесса, а также как высшее образование имеет решающее значение для накопления человеческого капитала.

Ключевые слова: экономика, теория человеческого капитала, инвестиции, инновационная экономика, валовой доход, человеческие ресурсы, модернизация, высшее образование, человек с высшим образованием.

KIRISH

Insonning noyob ko‘nikmalari va qobiliyatlari, jumladan, uning doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyati yuqori malakali, yetakchi ishlab chiqarish resursi sifatida namoyon etadi. Intellektual inson kapitaliga sarmoya kiritish resurslarni joylashtirishning eng samarali usuli hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda ham inson kapitali ijtimoiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. Buning isboti sifatida mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev yosh olimlar va akademiklar bilan uchrashuv paytida so‘zlagan nutqni misol keltirish mumkin: “… Bu ishlardan asosiy maqsad mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish. Xomashyo va uni qayta ishlash bilan uzoqqa borib bo‘lmaydi. Qolaversa, ishlab chiqarishda qo‘shimcha qiymat olish uchun ham innovatsiyalar kerak. Shu bois ilm-fan taraqqiyotimizning muhim yo‘nalishi, tayanchi bo‘ladi”.

Chunki inson kapitalini rivojlantirish - innovatsion iqtisodiyot, bilimlar iqtisodiyoti, investitsiyalar, global axborot tizimlari, eng yangi texnologiyalar hamda biznesning yangi shakllarini rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi.

METODLAR

Neoklassik inson kapitali nazariyasining asoschilari Chikago universiteti professorlari Teodor Shults [1] va Gari Bekker [2] bo‘lib, Shults inson kapitali g‘oyasini ilgari surdi va Bekker bu g‘oyani inson kapitaliga investitsiyalar samaradorligini asoslash hamda inson xatti-harakatlariga iqtisodiy yondashuvni shakllantirish orqali rivojlantirdi.

Ushbu nazariyaning tarixiy ildizlarini A.Smit va U.Petti, K.Marks va J.S.Mill, G.Sidjvik va A.Marshall, G.Rocher va U.Farr, E.Engel, T.Vitshteyn hamda boshqa ko‘plab yirik iqtisodchilarning asarlarida topish mumkin.

A. Smitning o‘z asarlarida, “foydali mehnat unumdorligini oshirish, birinchi navbatda, ishchining epchilligi va mahoratini oshirishga, keyin esa u ishlagan texnika va asboblarni yaxshilashga bog‘liq” ekanligini ta’kidlagan [3].

G. Bouenning fikricha esa, inson kapitali insonlarga berilgan va ma’lum vaqt davomida tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan bilim, ko‘nikma, motivatsiya va energiyadan iborat [4].

M. Kritskiyning ta’kidlashicha, inson kapitali ijtimoiy taraqqiyot va intellektual faoliyatning yangi kuchi sifatida xo‘jalik yurituvchi subyektning harakatiga asoslanadi [5].

Mazkur tadqiqot ishini olib borishda induksiya va deduksiya, taqqoslama tahlil, analiz va sintez kabi metodlardan foydalanilgan bo‘lib, mazkur metodlardan foydalanish orqali ilmiy xulosalar shakllantirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Inson kapitali (ing. human capital) - bu inson va umuman jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatiladigan bilimlar, ko‘nikmalar to‘plami.

Inson kapitali aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga, shu jumladan ta’lim, sog‘liqni saqlash, fan, tadbirkorlik qobiliyatiga, mehnatni axborot bilan ta’minlashga, samarali elitani shakllantirishga, fuqarolar va biznes xavfsizligiga, iqtisodiy erkinlikka, madaniyat, san’at va boshqa tarkibiy qismlarga investitsiyalar hisobiga shakllanadi va to‘planadi. Investitsiyalar ta’lim, sog‘liqni saqlash, malaka oshirish, iqtisodiy motivatsiya, geografik harakatchanlik va boshqalar tizimida inson kapitalini ishlab chiqarish uchun asos yaratadi. Ularning mazmuni nafaqat investitsiya, balki investorning haqiqiy, ongli va maqsadli faoliyatidir. Shu bilan birga, inson kapitalini yaratishda mehnat xarajatlari va o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘zini takomillashtirish harakatlari muhim rol o‘ynaydi.

Hozirgi vaqtda inson kapitali nazariyasi va amaliyoti asosida AQSh va Yevropaning yetakchi mamlakatlari rivojlanish paradigmasi takomillashtirilmoqda. Inson kapitali nazariyasi asosida Shvetsiya o‘z iqtisodiyotini modernizatsiya qildi va 2000-yillarda jahon iqtisodiyotida yetakchilik mavqeyini tikladi. Tarixiy jihatdan qisqa vaqt ichida Finlyandiya innovatsion iqtisodiyotga o‘tishga muvaffaq bo‘ldi va umuman iqtisodiyotning raqobatbardoshligi bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinni egalladi. Inson kapitali nazariyasi va amaliyoti XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan innovatsion iqtisodiyot (bilimlar iqtisodiyoti) va venchur ilmiy-texnik biznes muammolariga javob bo‘ldi.

Jahon banki, 192 mamlakatni o‘rganish misolida, o‘tish davri iqtisodiyotidagi o‘sishning atigi 16 foizi jismoniy kapital (uskunalar, binolar va ishlab chiqarish infratuzilmasi), 20 foizi tabiiy kapital, qolgan 64 foizi inson kapitali bilan bog‘liq degan xulosaga keldi. So‘nggi 20 yil davomida inson kapitalining hajmi 55% ga o‘sgani ma’lum bo‘ldi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ga a’zo bo‘lgan yuqori daromadli mamlakatlarda inson kapitalining milliy boylikdagi ulushi 70% ni tashkil etgan bo‘lsa, quyi daromadli mamlakatlarda uning hissasi 41% ga to‘g‘ri keladi [6].

Aynan inson kapitalidagi farqlar mamlakat iqtisodiyotining jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, aholi turmush farovonligi va umuman, inson taraqqiyotidagi farqlarni belgilab bermoqda, xususan, mamlakatlar o‘rtasida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlardagi farqlarning 10-30 foizi aynan inson kapitali bilan izohlanishi [7] ma’lum bo‘lmoqda.

Davlatning eng muhim vazifasi - innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosi sifatida tizimli innovatsiyalarni ta’minlash maqsadida inson kapitaliga investitsiyalarni yo‘naltirish bilan bog‘liq. Inson kapitali va ta’limga investitsiyalar innovatsion jarayonning asosini ta’minlaydi.

Iqtisodiyotning innovatsion sektori, jamiyatning ijodiy qismi mamlakat, mintaqa, tashkilotlarning rivojlanish yo‘nalishi va sur’atlarini belgilaydigan yuqori sifatli inson kapitalini to‘plash manbalari hisoblanadi. Boshqa tomondan, sifatli inson kapitali innovatsion tizim va iqtisodiyotning asosidir. Inson kapitali va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud.

Inson kapitali va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonlari innovatsion axborot jamiyati va uning iqtisodiyotini shakllantirish hamda rivojlantirishning yagona jarayonini tashkil etadi. Innovatsion iqtisodiyot olimlarning g‘oyalarini amalda qo‘llashga va ularni innovatsion mahsulotlarda aks ettirishga yordam beradi. Shu bilan birga, innovatsion iqtisodiyot inson kapitalini to‘plashga qodir va inson kapitali uning rivojlanishining asosiy omilidir. To‘plangan inson kapitali bilimlar iqtisodiyotining asosiy qismi bo‘lib xizmat qiladi va uning hozirgi darajasini belgilaydi. Innovatsion iqtisodiyot - bu yuqori sifatli hayot, aql, ta’lim, fan va yuqori sifatli inson kapitali iqtisodiyoti.

Dunyodagi yetakchi mamlakatlarining innovatsion iqtisodiyotida inson kapitali va uning rivojlanishiga yuqori investitsiyalar kiritish yuqori sifat bilan alohida ajralib turadi.

Hozirgi kunda dunyo tajribasi va amaliyotidan ma’lum bo‘lishicha, aynan inson kapitaliga investitsiya kiritishga ustuvor vazifa sifatida qaragan mamlakatlar yuksak taraqqiyotga erishmoqda. Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda ta’limning to‘liq sikliga investitsiya kiritishga, ya’ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e’tibor beriladi.

1-jadval: Ta’limga kiritilgan investitsiyaning jamiyatga keltiradigan foydasi bilan bog‘liqligi*

Mamlakat	Ta’limning to‘liq sikliga sarflangan sarmoya (dollar)	Bir xodim yaratadigan qo‘shimcha qiymatning miqdori (dollar)
AQSH	231 000	3,1 mln.
Janubiy Koreya	130 000	2,1 mln.
O‘zbekiston	19 000	77 ming

*Manbaa: https://yuz.uz/uz/news/inson-kapitaliga-etibor--asosiy-vazifa

Agar yuqoridagi ma’lumotlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, AQSH va Janubiy Koreyada bir ishchi kuchini shakllantirishga ketgan xarajat o‘zini 13-17 marta oqlagan bo‘lsa, O‘zbekistonda sarflangan sarmoyaning jamiyatga keltiradigan foydasi atigi 4 barobarni tashkil etadi.

2018-yilda Jahon banki tomonidan e’lon qilingan “Inson kapitali indeksi-2018” reytingida Singapur (0,88 koeffitsiyent), Yaponiya (0,84), Koreya (0,84), Gongkong (0,82) va Finlandiya (0,81) peshqadamlik qilgan. Ushbu davlatlarning intellektual salohiyati ham juda yuqori.

Umumlashtirish darajasiga qarab, inson kapitalining tarkibida quyidagi tarkibiy qismlarni belgilash mumkin: individual, jamoaviy va ijtimoiy.

Dastlabki ikkitasi mikro darajada individual shaxsning inson kapitali va ma’lum bir asosdas birlashtirilgan odamlar guruhi sifatida qaraladi hamda unga kompaniya jamoasi, ijtimoiy-madaniy guruh a’zolari va boshqalar kiradi.

Ijtimoiy komponent – bu makro darajadagi inson kapitali bo‘lib, u jamiyat tomonidan to‘plangan barcha inson kapitalini ifodalaydi, bu esa o‘z navbatida milliy boylikning bir qismi, strategik manba va iqtisodiy o‘sish omilidir.

Inson kapitalini ko‘paytirish uchun shaxs tomonidan ham, jamiyat tomonidan ham (davlat idoralari, xususiy firmalar, oila va boshqalar) katta xarajatlar va turli xil resurslar talab qilinadi.

Bunday investitsiyalarning manbalari ish beruvchilarning xarajatlari, davlat budjeti xarajatlari, fuqarolarning shaxsiy xarajatlari hisoblanadi.

Inson kapitaliga sarmoya kiritish investorning o‘zi uchun ham, uchinchi shaxslar uchun ham ba’zi imtiyozlarni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, xodim uchun bu daromad darajasining oshishi, ishdan qoniqish, ish sharoitlarining yaxshilanishi, o‘z-o‘zini hurmat qilishning oshishi, hayot sifatining yaxshilanishiga sabab bo‘ladi. Ish beruvchi uchun esa, samaradorlikni oshirish, ish vaqtini yo‘qotishni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, natijada firmaning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Davlat uchun foydali jihati esa, bu fuqarolarning farovonligini oshirish, yalpi daromadning o‘sishi, fuqarolarning iqtisodiy faolligining oshishi bo‘ladi.

Investitsiyalarni amalga oshirish inson kapitalini ko‘paytirishda juda muhim jarayon bo‘lib, unda u obyekt, subyekt yoki ta’sir natijasi sifatida ishlaydi.

Inson kapitali rivojlanishining asosiy manbalari va katalizatorlari raqobat, investitsiyalar va innovatsiyalardir. Inson kapitaliga investitsiyalar ta’lim, ishlab chiqarish tajribasini to‘plash, sog‘liqni saqlash, geografik harakatchanlik, ma’lumot qidirishdir.

Ta’lim inson kapitaliga sarmoya kiritishning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi, chunki u katta vaqt va xarajatlarni talab qiladi. Bekkerning so‘zlariga ko‘ra, ta’limga sarmoya kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilishda talabalar va ularning ota-onalari bunday investitsiyalarning kutilayotgan marjinal rentabelligini muqobil investitsiyalarning rentabelligi (bank depozitlari bo‘yicha foizlar, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha dividendlar va boshqalar) bilan taqqoslashadi[8]. Hozirgi kunda barcha rivojlangan mamlakatlarda inson kapitali nazariyasi tufayli ta’lim investitsiyalari oddiy investitsiyalardan kam bo‘lmagan iqtisodiy o‘sish manbayi sifatida ko‘rila boshlandi.

Turli xil sog‘liqni saqlash va ovqatlanish xizmatlari ham kapital qo‘yilmalarni anglatadi, chunki ular ish haqini oshiradi, kasallanishni kamaytiradi, sog‘lig‘ini saqlashga va samarali hayot davomiyligini oshirishga yordam beradi.

Ishchi kuchining harakatchanligi inson kapitaliga sarmoya sifatida qaraladi, chunki kam daromadli joydan maoshi yuqori bo‘lgan hududga ko‘chib o‘tish nafaqat daromadning oshishiga, balki inson ko‘nikmalaridan yaxshiroq foydalanishga olib keladi. Ish qidirish-bu kapital qo‘yilma, chunki u mehnat bozori to‘g‘risida ma’lumot to‘plash uchun katta kuch va ma’lum xarajatlarni talab qiladi.

XX asr davomida inson kapitalining to‘planishi jismoniy kapitalning to‘planish tezligidan oldinda ekanligi aniqlandi. Amerikalik iqtisodchi olim E.Denison 1929-1982-yillarda AQShning iqtisodiy o‘sishini tahlil qilib, mehnat unumdorligini oshirishning hal qiluvchi omili ta’lim degan xulosaga keldi. Uning hisob-kitoblariga ko‘ra, urushdan keyingi davrda AQShda aholi daromadining 15-30 foizga o‘sishi ishchi kuchining ta’lim darajasining oshishi bilan bog‘liq edi [9].

Gonkong, Singapur, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning tajribasi shuni tasdiqlaydiki, ta’lim va sog‘liqni saqlashga sarmoya kiritish, raqobatbardoshlikni yaratish inson kapitali davlatning iqtisodiy rivojlanishining eng samarali strategiyasidir.

Umumiy ishlab chiqarishda yuqori texnologiyali mahsulot ulushining doimiy o‘sishi ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan malakali mutaxassislarga talabning oshishiga olib keladi. Bu jarayonda oliy ta’lim katta rol o‘ynaydi. Oliy ma’lumotli odamlar kapitaldan yanada samarali foydalanadilar, innovatsiyalarni joriy etishga, ishlab chiqarishning yangi, yanada rivojlangan shakllarini ixtiro qilishga moyil bo‘ladi. Insonning ta’lim darajasini oshirish unga mehnat sharoitlarini yaxshilash, bo‘sh vaqt va iste’molchilar tanlovini yaxshilash, jamiyatdagi obro‘ - e’tiborni oshirish va o‘zini o‘zi anglashdan qoniqish olish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, odam qiziqarli va istiqbolli ishlarga kengroq kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Oddiy ishlaydigan bozor iqtisodiyotida ko‘proq oliy ma’lumotli odamlar mehnati uchun yuqori mukofot oladilar. Ta’limning yuqori darajasi xodimni ish beruvchiga moslashtiradigan yuqori imkoniyatlardan biri bo‘ladi.

Oliy ta’limning individual iqtisodiy o‘sishga qo‘shgan hissasi yuqori malakali ishchilarning mehnat sifatini yaxshilash bilan bog‘liq. Oliy ma’lumot shaxsni, uning tadbirkorlik qobiliyatini faollashtirishga yordam beradi. Oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari yuqori ma’lumotli ishchi kuchi sifatida o‘z tengdoshlariga qaraganda mehnat bozorida yaxshiroq harakat qilishadi, ish bilan ta’minlashning maqbul darajasini tanlashadi.

Oliy o‘quv yurtida o‘qish paytida olingan inson kapitali uning egasiga nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki insonning sifati va turmush darajasini ham o‘zgartiradi. Oliy ma’lumot shaxsning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirishga bevosita ta’sir qiladi. Zamonaviy ta’lim tizimi umumiy madaniy darajani, fundamental bilimlarni, o‘rganish qobiliyatini va shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular asosida amaliy ko‘nikmalar shakllanadi. Bugungi kunda mehnat bozori kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarning keng doirasiga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash darajasiga nisbatan ancha yuqori talablarga ega.

Oliy ma’lumotli shaxslarning madaniy darajasi odatda yuqori bo‘ladi. Madaniyat avlodlar tajribasini jamlaydi, bilim, malaka va ko‘nikmalar saqlanib qoladi, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘rnatilgan regulyatorlari va mehnat harakatlarini qo‘llash tuzilmalari shakllanadi va rivojlanadi. Fuqarolarning madaniy darajasi asosan jamiyatning iqtisodiy yutuqlarini, uning ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy, ma’rifiy va ma’naviy-axloqiy tuzilishini belgilaydi.

Malakali ishchi kuchini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydigan va talabalar tomonidan ta’lim xarajatlarining investitsiya xususiyatini aks ettiradigan ta’lim xizmatlari bozori faoliyati muammolari inson kapitaliga investitsiyalar bilan chambarchas bog‘liq.

Ilg‘or rivojlangan davlatlar yalpi milliy mahsulotning 40 foizigacha bo‘lgan qismini mamlakatda samarali ta’lim tizimini rivojlantirish natijasida olindi. Ta’limga sarmoya kiritish insonning o‘zi uchun ham, umuman jamiyat uchun ham foydalidir. AQSH mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko‘ra, ta’lim tizimiga oqilona sarflangan 1 dollari mablag‘ 3-6 dollarlik samara keltiradi.

Inson kapitalining o‘sishini ta’minlash orqali ta’lim xizmatlarining rivojlangan bozori mehnat bozoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ish beruvchi uchun oliy ma’lumot to‘g‘risidagi diplom nafaqat ishga joylashish uchun abiturientning malakasi, balki uning qobiliyatlari, shuningdek, boshqa istalgan shaxsiy fazilatlari ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qilishi ikki bozor o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi.

Mamlakatning modernizatsiya salohiyati iqtisodiy rivojlanish uchun olib borilayotgan innovatsion yondashuv bilan bog‘liq. Ushbu rivojlanishning muhim jihati inson kapitalining shakllanishi, rivojlanishi va to‘planishi bo‘lib, uning davomida inson omili bevosita ishtirokchi va rivojlanish natijalarining asosiy iste’molchisi bo‘lishi kerak. Inson kapitalini to‘plashda oliy ma’lumot hal qiluvchi rollardan birini o‘ynaydi.

Ta’lim tizimini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Qoida tariqasida, barcha fuqarolarga bepul o‘rta ta’lim olish imkoniyati beriladi, hattoki Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Shvetsiya kabi ba’zi mamlakatlarda yoshlar oliy o‘quv yurtlarida (davlat ta’lim muassasalarida) ham bepul ta’lim olish imkoniyatiga egadirlar. Ko‘pgina mamlakatlarda talabalar uzoq muddatli imtiyozli o‘quv kreditlaridan foydalanadilar.

Masalan, oliy ma’lumot pullik bo‘lgan AQShda davlat universitetlari talabalarining aksariyati u yoki bu yordamni (masalan, kreditlar va grantlar) oladi, universitetlarning o‘zi esa federal va mahalliy budjetlardan subsidiyalar oladi.

Inson kapitali mamlakatning iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq hizoblanadi. Buning ilmiy isbotini hindistonlik olim, iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti sohibi (1998-yil) Amartiya Sen o‘z ilmiy tadqiqotlarida asoslab bergan. Uning fikricha, rivojlanish jarayoni faqat moddiy yoki iqtisodiy farovonlikning ortishi emas, balki jamiyatning har bir a’zosiga tanlov erkinligi yuqoriligini nazarda tutadigan shaxsning imkoniyatlarini kengaytirishdir. Davlat nafaqat iste’mol tengligini, birinchi navbatda, ta’lim, sog‘liqni saqlash xizmatlari, shuningdek, siyosiy va fuqarolik huquqlari sohasida teng huquqlilikni ta’minlashi kerak. Bu inson kapitalining o‘sishiga xizmat qiladi [9].

Hozirgi vaqtda inson resurslarini rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatining zaiflashishi kelajakda qimmatga tushishi mumkin. Inson kapitaliga investitsiyalarning yetarli emasligi iqtisodiyotning turg‘unligiga va jamiyatning ijtimoiy beqarorligiga olib keladi. Ta’lim tizimining moslashuvchan imkoniyatlari hozirgi vaqtda iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar sur’atlariga, birinchi navbatda, ma’lum mutaxassislarga bo‘lgan talab konyunkturasi dinamikasiga mos kelmaydi. Ta’lim muassasalarida olingan nazariy bilimlar mutaxassislardan talab qilinadigan narsalarga mos kelmaydi. Ushbu bo‘shliqni bartaraf etish usullari boshqacha bo‘lishi mumkin-amaliyot, malaka oshirish,

qo‘shimcha ta’lim, qayta tayyorlash, o‘z-o‘zini tarbiyalash. Ular xarajatlarni, shu jumladan moliyaviy xarajatlarni talab qiladi va hozirgi sharoitda doimiy ravishda, ya’ni uzluksiz ta’lim rejimida amalga oshirilishi kerak.

Oliy ma’lumot nafaqat texnologik o‘zgarishlar dunyosida ishlay oladigan hamda tanlov va qaror qabul qilish holatlariga duch keladigan milliy iqtisodiyot uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan bog‘liq, balki bu o‘zlarining hayotiy manfaatlariga ta’sir qiladigan yangi ijtimoiy texnologiyalar dunyosida harakat qila oladigan va boshqa ko‘plab odamlarni tayyorlash bilan ham bog‘liq.

Oliy ma’lumotga ega bo‘lgan kishi nafaqat mutaxassisga aylanadi, balki o‘z-o‘z bilim va ko‘nikmalarini oshirish orqali inson kapitalini ham oshiradi. Ushbu kapital, shaxsning mulki bo‘lib, ayni paytda jamoat mulki hisoblanadi.

XULOSA

Inson kapitali zamonaviy iqtisodiyotda mamlakat milliy boyligining asosiy ulushini belgilaydi. Inson kapitalining yadrosi o‘qimishli, ijodiy va tashabbuskor, yuqori darajadagi professionallikka ega insondir. Oliy ta’lim tizimi insonga zamonaviy jamiyatda yashash uchun zarur bo‘lgan resursni beradi. Oliy ma’lumot odamlarning o‘zlari tomonidan tobora ko‘proq talab qilinmoqda, ular ta’lim xarajatlarini o‘zlari va farzandlarining kelajagi uchun samarali sarmoya deb bilishadi. Oliy ma’lumot olish uchun so‘rov va uni olish tashabbusi fuqarolarning o‘zidan kelib chiqadi. Kundalik hayot darajasida odamlar ta’limning ahamiyati va foydasini juda yaxshi tushunishadi.

Oliy ma’lumot-shaxs manfaatlari va jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning maxsus sohasi sifatida ishlaydi.

Rivojlanish inson kapitali, ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilish, iqtisodiy rivojlanishning innovatsion turiga o‘tish kelajakdagi iqtisodiy o‘sishning asosi va mamlakatning xom ashyo ixtisoslashuviga haqiqiy alternativ bo‘lib, bu sog‘liqni saqlash, demografiya, fan, ta’lim va innovatsion faoliyat muammolarini hal qilishni o‘z ichiga oladi. Mamlakatning inson kapitalini rivojlantirish va to‘plashning zaruriy sharti hayotning yuqori sifatidir.

Hayot sifatini oshirish, bilimlar iqtisodiyotini, axborot jamiyatini yaratish va rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun barqaror shart-sharoitlarni yaratishda inson kapitali to‘plangan mamlakatlar katta afzalliklarga ega. Ya’ni, oliy ma’lumotli, sog‘lom va optimistik aholisi bo‘lgan mamlakatlar iqtisodiy faoliyatning barcha turlari, ta’lim, fan, menejment va boshqa sohalarda jahon darajasidagi raqobatbardosh mutaxassislarga ega mamlakatlardir.

Jamiyatda oliy ma’lumotli insonlar sonini ko‘paytirish, iqtisodiyotda mehnat unumdorligini oshirish hamda kelajakda daromadlarning pasayish xavfini sezilarli darajada kamaytirish, shuningdek iqtisodiyotning raqobatbardoshligini, mehnat unumdorligini oshirish va “qashshoqlik tuzog‘ini” yengish imkoniyatlarini belgilaydi.

O‘zbekistonda ta’lim rivojida inson kapitalining o‘rni bevosita inson kapitalidan qanchalik to‘liq va muvaffaqiyatli foydalanilayotganiga, uni rivojlantirishga qanchalik faol sarflanayotganiga bog‘liq.

Inson kapitalining ustuvor yo‘nalishlarini hamda oliy ta’lim tizimidagi kamchiliklarni inobatga olgan holda, quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

1. Oliy ta’limga qabul qilinuvchilar sonini ko‘paytirish;
2. Xususiy oliy ta’lim muassasalariga ko‘proq imkoniyat yaratib berish;
3. Davlat oliy ta’lim muassasalarining sifatini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, inson kapitalini sifat jihatdan rivojlantirish hisobiga innovatsion rivojlanish darajasini yuqoriga ko‘tarish hamda iqtisodiy o‘sish natijalarini taraqqiy etgan davlatlar darajasiga yetkazish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Schultz T.W. The Economic Value of Education. –New York: Colambia University Press. –1963 г.
2. Капелюшников Р.И. Экономический подход Гэри Беккера к человеческому поведению// США: экономика, политика, идеология. –№11. –1993. –С. 17.
3. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М.: Соцэкгиз, 1956. С. 490.
4. Bowen H.R. Investment in Human Capital and Economic Growth // Perspectives on Economic Growth. N.Y., 1968.
5. Критский М.М. Человеческий капитал. –Л.: Изд-во Ленингр. унта. –1991.
6. Lange, Glenn-Marie, Quentin Wodon, and Kevin Carey, eds. 2018. The Changing Wealth of Nations 2018: Building a Sustainable Future. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-1046-6.
7. World Bank Group. Human Capital: A Project for the World, 2018. October, Development Committee Meeting https://www.devcommittee.org
8. Е.В. Викторова. Высшее образование и человеческий капитал в инновационной экономике //инновации. –2011.–№6. –С. 101.
9. Kuziboev B. et al. The Role of Renewable Energy and Human Capital in Reducing Environmental Degradation in Europe and Central Asia: Panel Quantile Regression and GMM Approach //Energies. – 2023. –Т. 16. – №. 22. –С. 7627.
10. Sherov A. B. State financing of higher education institutions in the context of the introduction of innovative economy // Central asian journal of mathematical theory and computer sciences. – 2023. – т. 4. – №. 11. – с. 132-136.

KIMYO SANOATI KORXONALARINI BOSHQARISH MODELLARIGA OID ZAMONAVIY TAJRIBALAR



Avulchayeva Feruza Djurakuziyevna
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Farg‘ona politexnika instituti
Menejment kafedrasi ilmiy darajali katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada kimyo sanoati korxonalarida boshqaruv modellari tuzilishi, tarkibiy qismlariga xos xususiyatlar, xorijiy boshqaruv modellari, ularning ahamiyatli jihatlari, boshqaruv jarayonlarini tashkil etish bosqichlari yoritilgan. Boshqaruv modellarini takomillashtirish masalalarining ahamiyati tavsiflab berilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat korxonalari, kimyo sanoati, boshqaruv modeli, boshqaruv tizimi, strategiya, biznes modeli, bosqichlar, jarayon tavsifi.

Abstract: The article describes the structure of management models at chemical industry enterprises, the features of their components, foreign management models, their important aspects, and the stages of organizing management processes. The importance of improving management models is described.

Key words: industrial enterprises, chemical industry, management model, management system, strategy, business model, stages, process description.

Аннотация: В статье описаны структура моделей управления на предприятиях химической промышленности, особенности их составляющих, зарубежные модели управления, их важные аспекты, этапы организации процессов управления. Описана важность совершенствования моделей управления.

Ключевые слова: промышленные предприятия, химическая промышленность, модель управления, система управления, стратегия, бизнес-модель, этапы, описание процесса.

KIRISH

Jahonda kimyo sanoati korxonalarini raqobatda ustunligini ta’minlash mexanizmlari, boshqaruv tizimini samarali tashkil etish yo‘nalishlari, korxonalarni boshqaruv samaradorligini oshirishga asoslangan zamonaviy menejment tamoyillari asosida takomillashtirish bo‘yicha qator maqsadli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Kimyo sanoat korxonalari boshqaruv tizimini optimizasiya qilish, restrukturizasiya jarayonlarini amalga oshirish, bozor talablariga moslashuvchan innovatsion yondashuvlarga asoslangan boshqaruv mexanizmini yaratish, boshqaruv tizimini samaradorligini baholash hamda raqobatda ustunlikni ta’minlovchi boshqaruv modellari va unga omillar bog‘liqligining ekonometrik modellashtirish bu boradagi ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kimyo sanoat korxonalari boshqaruv tizimini takomillashtirish, ularning iqtisodiy mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha xorijlik olimlar H.Fayol [1], S.Kazmi, M.Naarananoja [2], T.Peter [3], M.Hummerlar [4] tomonidan o‘rganilgan.

MDH olimlaridan A.Frenkel, B.Tixomirov, Ya.Sergiyenko [5], B.Gayfullin [6], A.Fedulovo [7], I.Buleyev [8], I.Mazur [9], Ye.Ivanovalar [10] kimyo sanoat korxonalarining boshqaruv tizimining umumiy muammolari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar.

O‘zbekistonda D.Sobirjonova, Sh.To‘laganova [11], D.Akobirova [12], M.Ikramov [13] va boshqa olimlar boshqaruv tizimini ba’zi jihatlarini tadqiq etishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot ishida tizimli va statistik tahlil, ilmiy mushohada, tahlil va sintez, grafik talqin, taqqoslash, ekspert baholash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyoda kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga asoslangan holda aytish mumkinki 2019 yilga nisbatan soha rivoji deyarli 10 %ga ortgan. 2024-yilda avtomobilsozlik, energetika, iste’mol tovarlari sanoatida kimyo mahsulotlariga bo‘lgan talab ortayotganligini e’tiborga olgan holda o‘sish kuzatilishi prognoz qilinmoqda. Eng yirik korporasiyalariga ega Xitoy davlatida 2021-yilda kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 7,7 % ga ortgan, 2022-yilda pastroq natija 4,0 %ni tashkil etgan.

Yevropa Ittifoqida 2021-yilda 6,0 %, 2022-yilda esa kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish 2,8 %ga o‘sgan. Yaponiyada kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish 2021-yilda 3,7 %ga yetgan bo‘lsa, 2022-yilda 2,5 %ni tashkil etgan. Janubiy Amerikada kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish mamlakat iqtisodiyoti bilan bir xil ravishda o‘smoqda, 2021-yilda 4,6 %ga yetgan bo‘lsa, 2022-yilda 1,5 %ni tashkil etgan.

Dunyoda 2020-yilda reyting bo‘yicha eng kuchli kimyo sanoati korporasiyalari ExxonMobil Chemical, Linde Group, Sinopek, Bayer, Sabic, BASF, Air Liquide, DuPont, Air Products & Chemicals, Shin-Etsu Chemical sifatida o‘rin oldi.



1-rasm: Jahondagi eng yirik kimyo sanoati korporasiyalari (2020-yilda) [14]

Jahon bozorida yuqori ulushga ega korporasiyalardan biri bu Exxon-Mobil Chemical bo‘lib, 308,91 milliard dollarlik bozor qiymati bo‘yicha dunyodagi eng yirik kimyo korxonasi hisoblanadi. Korporasiyada 71 000 ishchi-xodim faoliyat ko‘rsatadi. Ikkinchi o‘rinda esa Linde Group 108,45 milliard dollarlik bozor qiymati bo‘yicha dunyodagi raqobatda ustun kimyo korporasiyasi hisoblanadi.

Eng yirik 10 ta kimyo kompaniyalari ro‘yxatida uchinchi o‘rinni Xitoyning Pekin shahrida joylashgan Sinopec kompaniyasi bo‘lib, o‘tgan yili sotuv hajmi 22 %ga o‘sishga erishgan, Sinopec kompaniyasi asosan neft-kimyo, kimyoviy tolalar, mineral o‘g‘itlar va boshqa kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqaradi. 2021-yilda Sinopec bozor qiymati 69,21 milliard AQSH dollarini tashkil etdi, bu natija mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha dunyodagi eng yirik kimyo kompaniyasiga aylantirdi, kompaniyada 249, 142 ishchi-xodim faoliyat yuritadi.

1-jadval: Dunyoda eng yirik kimyo korporasiyalari [14]

№	Kompaniya nomi	Bozor kapitali (mlrd. dollar)	Joylashgan davlat
1	ExxonMobil Chemical	308.91	Irving, AQSH
2	Linde Group	108.45	Dublin, Irlandiya
3	Sinopek	84.45	Beijing, Xitoy
4	Bayer	74.31	Leverkuzen, Germaniya
5	Sabic	72.4	Er-Riyad, Saudiya Arabistoni
6	BASF	71.58	Lyudvigsxafen, Germaniya
7	Air Liquide	62.4	Parij, Fransiya
8	DuPont	52.69	Midlend, AQSH
9	Air Products & Chemicals	50.15	Pensilvaniya, AQSH
10	Shin-Etsu Chemical	45.86	Tokio, Yaponiya

2020-yil yakuniga ko‘ra Germaniyaning “Bayer” korporasiyasi reytingni to‘rtinchi o‘rnini band etdi. “Bayer” Germaniyadagi kimyo kompaniyasi bo‘lib, 1863-yilda tashkil topgan. 1992-yilgacha Germaniyaning “I.G.Farbenindustri” kimyo konserni tarkibida bo‘lgan. O‘g‘itlar, o‘simliklarni zararkurandalar va kasalliklardan himoya qilish vositalari, urug‘lik dorilanadigan preparatlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi, shuningdek agrokimyoviy sohada xizmat ko‘rsatadi. Jahondagi 150 dan ortiq mamlakatlar bilan hamkorlik qiladi. 1992-yildan O‘zbekistonda vakolatxonasi ochilgan. Aylanma kapitali 48,6 mlrd. marka, 141 ming ishchi-xizmatchi ishlaydi.

2-jadval: “Bayer” kompaniyasi aksiyalar ulushi [15]

Ulushi (% da)	Aksiyadorlar nomi
55%	Banklar va sug‘urta kompaniyalari (Allianz AG sug‘urta kompaniyasi va Deutsche Bank hisoblanadi)
24%	Shaxslar (Individual aksiyadorlar va “Bayer” kompaniyasi xodimlari)
12%	Investisiyafondlari
6%	Boshqalar
3%	Savdo va sanoat

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “Bayer” kompaniyasi 55 % ulushi Allianz AG sug‘urta kompaniyasi va Deutsche Bank hisoblanadi. 24 % ulushi esa individual aksiyadorlar va “Bayer” kompaniyasi xodimlari qo‘lida, 12 % i investorlarda, 6 % i boshqa shaxslarda, 3 % i savdo va sanoat tarmog‘ida.

“Bayer” kompaniyasi missiyasi nafaqat kasalliklar uchun davolanadigan mahsulotlar ishlab chiqarish balki kasalliklarni oldini olishga erishish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tabiiy usulda maxsuldorligini oshirish, “Barcha uchun salomatlik, xech kim uchun ochlik” shiorini haqiqatga aylantirish hisoblanadi. Kompaniya bugungi kunda to‘rtta strategik yo‘nalishlarga e’tibor qaratmoqda:

- innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga, o‘z yechimini kutayotgan ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishga, qiymat yaratish zanjirini raqamlashtirishga erishish;
- resurslardan oqilona foydalanish va xarajatlarni optimallashtirish orqali menejment samaradorligini oshirish;
- barqarorlik biznes strategiyani ajralmas qismidir, shu munosabat bilan qiymat yaratish zanjiri bo‘ylab qat’iy, ilmiy asoslangan tizimni rivojlantirish;
- kompaniya samarali o‘sishga yo‘naltirilgan strategiyaga asoslangan holda resurslarni taqsimlash orqali qiymat yaratish, innovasiyalarga asoslangan yuqori daromadli biznesda faoliyat ko‘rsatish hisoblanadi.

“Bayer” kompaniyasi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqish uchun ilmiy tadqiqot institutlari, kompaniyalar va universitetlar bilan hamkorlik qiladi, bu orqali u o‘z biznesini mustahkamlaydi va ishlab chiqarish jarayoni hamda mahsulot sifatini oshiradi. Kompaniya o‘z biznesini butun dunyo bo‘ylab tarqatish orqali o‘z xatarlarini minimallashtiradi, shuningdek, dunyoda Aspirin savdo belgisiga egalik qiladi.

“Bayer” kompaniyasi tomonidan qo‘llanilayotgan strategiyalar biznesni boshqarish modeli samaradorligini ortishiga xizmat qilmoqda. Kompaniyaning asosiy xamkorlari sifatida dunyoni ko‘plab mamlakatlaridagi shuba korxonalar, distribyutorlar va boshqalar hisoblanadi (2-rasmga qarang).

Kompaniyaning faoliyat turlari juda keng bo‘lib mineral o‘g‘itlar, veterinariya preparatlari, resepsiz dorilar, pestisidlar, ayollarning turli assortimentdagi mahsulotlarini ishlab chiqaradi hamda diagnostika xizmatlarini ko‘rsatadi. “Bayer” kompaniyasini boshqaruv modelida innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali yangi bozorlarga kirib borish, doimiy ravishda ilmiy tadqiqot ishlarini o‘tkazish, Grants Targets kraudsorsing dasturi orqali iste’molchilar bilan munosabatga kirishish, barcha jarayonlarni raqamlashtirishga asosiy e’tibor qaratilgan.


Sagmel Incni sotib olishni asosiy sababi - bu dunyoda aholi soni ko‘payib borayotgani va ularni kimyoviy mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojlari tez sur’atlarda o‘sayotgani hisoblanadi. Bundan tashqari, jahon mamlakatlarida 65 yoshdan oshgan aholi soni tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda va bu yosh guruhida surunkali kasalliklarning tarqalishi tufayli dori-darmonlarga bo‘lgan talab uch baravarga ortadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2050-yilda dunyo aholisining 22 foizi 60 va undan katta yoshdagilar bo‘lishi kutilmoqda, shuning uchun bu bozor potensiali kompaniya uchun muhim rol o‘ynaydi. Ushbu sotib olishning yana bir asosiy sababi boshqa Yevropa mamlakatlariga nisbatan mehnatning iqtisodiy jihatdan arzon narxidir. Bu davlatlar Yevropa qit’asining bir qismi bo‘lganligi sababli, ularning siyosiy qarashlari va madaniy xatti-harakatlari rivojlangan mamlakatlarnikiga o‘xshash, madaniy to‘qnashuv va siyosiy nizolar kuzatilmaydi [18].

“Farg‘onaazot” AJ va “Bayer” kompaniyasi boshqaruv tizimini bir-biriga taqqoslash maqsadida korporativ boshqaruv modellari o‘zaro tahliliy o‘rganildi.

Asosiy hamkorlar:	**Asosiy faoliyatlar:**	**Qiymatli takliflar:**	**Mijozlar bilan aloqalar:**	**Iste'molchi sigmentlari:**
Investorlar; Sho'ba korxonalar; Bayer tarkibiga qo'shilgan Shering va Monsanto korporasiyalari; Lisenziyalash tashkilotlari va strategik rivojlantirish markazi; Jamoatchilik va ilmiy tadqiqot markazi; Neft-kimyo sanoati; Marketing xizmatini ko'rsatuvchi firmalar; Ulgurji sotuvchilar; Distribyutorlar.	Tadqiqot va ishlanmalarni tijoratlashtirish; Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish; Elektron savdo bilan shug'ullanish; Veterinariya preparatlarini ishlab chiqarish; Diagnostika xizmatlarini ko'rsatish; Ayollar turli assortimentdagi mahsulotlar ishlab chiqarish; Resepsiz dorilar ishlab chiqarish; Qandli diabetga kasallanganlar uchun yordam ko'rsatish; Pestisidlar ishlab chiqarish; O'simlik biotexnologiyalarini ishlab chiqarish. **Asosiy manbalar:** Elektron resurslar; Yuqori malakali mehnat resurslari; Intellektual qobiliyat; Moddiy va ma'naviy resurs.	Genetik jihatdan o'zgartirilgan ekinlar va pestisidlarni ishlab chiqaradi; Poliuretan va polikarbonat kabi polimerlarni ishlab chiqaradi. **Sotish kanallari:** Sotishni elektron kanallari orqali chakana savdo faoliyati; Grants Targets kraudsorsing dasturi orqali iste'molchilar bilan munosabatga kirishish; Nashrlar, jurnallar, kataloglar.	Ishonchi qozonish; Online tizim orqali aloqaga kirishish; Hisob kitob tizimini raqamli texnologiyalar vositasida amalga oshirish.	Tibbiy xizmatga ehtiyoji bor shaxslar; Fermerlar va agrobiznes subyektlari; Chorvachilik va veterinariya subyektlari.

Xarajatlar tarkibi:	**Daromad oqimlari:**
Tadqiqot va ishlanmalarni amalga oshirish bilan bog'liq sarflar; Xodimlarga kompensasiya to'lash xarajatlari; Xom ashyo sarfi; Vensur investisiyalarga moliyaviy mablag'lar; Marketing xizmati uchun xarajatlar; Laboratoriya jixozlari va sinov jarayonlari uchun zarur mahsulotlar sarfi.	Tovarlarni turli kanallar yordamida sotishdan tushum; Ba'zi faoliyat turlariga lisenziya berish orqali daromad topish; Intellektual mulkdan foydalanganlik uchun royalti tushumi.

2-rasm: "Bayer" korporasiyasini biznes modeli [17]



3-rasm: "Farg'onaazot" AJ korporativ boshqaruv modeli

"Bayer" kompaniyasining boshqaruv tuzilmasiga e'tibor berilsa, avvalo korporasiya kyengashi yoki ishchilar kengashidan ya'ni ikki palatali kuzatuv kengashidan tashkil topganligini bilish mumkin.

"Bayer" kompaniyasini korporativ boshqaruv modelining asosiy afzalliklari sifatida, uning tomonlari ijtimoiy xamkorlikka asoslanib amalga oshirilishi, korporativ munosabatlar barcha ishtirokchilariga aksiyadorlar,

mehnat jamoasi, hamkor, davlatlar manfatlarini mutanosiblashtirishga yo‘naltirilganligini ko‘rsatish mumkin. Shuningdyek, ko‘rsatib o‘tilgan barcha tomonlar, uzoq muddatli maqsadlarga erishishga yo‘naltirilganligi, korporasiyalar barqarorligini maksimallashtirish va korporasiyalarda aloqalarni turg‘unliligini ta’minlay olishni e’tirof etish mumkin.

“Bayer” kompaniyasini korporativ boshqaruv modelining ajratib turuvchi tavsifli qirrasi quyidagilardan iborat:

1. Aksiyadorlik kapitaliga yuqori darajada yo‘naltirilganligi;
2. Banklarning sanoat bilan mustahkam aloqasi.
3. Banklar nafaqat investisiya loyihalarini moliyalashtirishda ishtirok etadi, balki o‘zining vakilini direktorlar kyengashiga saylanishi orqali korporasiya boshqaruvida ishtirok etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kimyo sanoat korxonalari to‘rtta strategik yo‘nalishlarga e’tibor qaratishi zarur:

- innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga, ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishga, qiymat yaratish zanjirini raqamlashtirishga erishish;
- resurslardan oqilona foydalanish va xarajatlarni optimallashtirish orqali boshqaruv modeli samaradorligini oshirish;
- qiymat yaratish zanjiri bo‘ylab qat’iy, ilmiy asoslangan tizimni rivojlantirish;
- korxona samarali o‘sishga yo‘naltirilgan strategiyaga asoslangan holda resurslarni taqsimlash orqali qiymat yaratish, innovasiyalarga asoslangan yuqori daromadli biznesda faoliyat ko‘rsatish hisoblanadi.

Umuman olganda kimyo sanoati korxonalariga zamonaviy boshqaruv tizimini tatbiq etish natijasida quyidagilarga erishiladi:

- sanoat korxonasi aniq strategik yo‘nalish asosida boshqaruv tizimini tashkil etadi;
- barcha rahbar-xodimlarni funksional vazifalari, vertikal boshqaruv tizimi asosida yuritiladi;
- korxonani bozor qiymatini oshirishga, brend strategiyasini boshqarishga, Investitsion jozibadorlikka erishiladi;
- depsinib turgan kimyo sanoati korxonalariga model asosida innovasiya kiritiladi, raqobatda ustunlikka erishish bo‘yicha kurashishni aniq missiyasi ishlab chiqiladi;
- korxonalarni ichki va tashqi muhit omillari tahliliy o‘rganiladi, biznesdagi yo‘qotishlarni oldini olish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fayol H. Administration industrielle et générale. –Paris: Dunod et Pinat, –1917, –174 p.
2. Syeda Asiya Zenab Kazmi, Marja Naarananoja. Significance of Management System for Effective Organizational Management. GSTF International Journal on Business Review (GBR) Vol.3 No.2, –March 2014, p. –97-102;
3. Peter T. Susca. The value of effective management systems. PSJ professional safety February 2019. www.assp.org p. –18-21;
4. Хаммер М. Реинжиниринг корпорации: Манифест революции в бизнесе / М. Хаммер, Дж. Чампи; [пер. с англ.]. – СПб.: Издательство Санкт-Петербургского университета, 1997. – 332 с.
5. Френкель А.А., Тихомиров Б.И., Сергиенко Я.В., Волкова Н.Н. Новый подход к изучению тенденций экономического развития. Экономика и предпринимательство. 2017. № 9. Ч. 3. С. 39–46. http://swsys.ru/index php?page-article&id-4452;
6. Гайфуллин Б., Обухов И. Современные системы управления предприятием // Компьютер Пресс. 2001. –№ 9. С. 23–27.; Лисецкий Ю.М. Система управления предприятием. Программные продукты и системы / Software & Systems. –№ 2 (31) 2018. –С 246-252;
7. Федулово А.И. Сучасная концепция управления. - К.: Центр учебной литературы, 2007. - 536 с.; Федулова Л. Проблемы управления наукоемким производственным предприятием. [Электронный ресурс] / Л.Федулова // Директор. –Август. –2006. –Режим доступа к журн.: http://www.director.by/cgi-bin/article.cgi?-date=2006/08/21&name=09;
8. Булеев И.П. Антикризисное управление предприятием / И.П. Булеев, Н.Е. Брюховецкая. – Донецк: ИЭП НАН Украины, 1999. – 178 с.; Лафта Дж.К. Теория организации. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006. – 416 с.
9. Мазур И.И., Шапиро В.Д. Реструктуризация предприятий и компаний: Учеб. пособ. для вузов. – М.: ЗАО “Издательство “Экономика”, 2001. – 456 с.
10. Иванова Е.А. Теория менеджмента. Учебное пособие. – М.: МИИТ, 2014. –147 с.

11. Yo‘ldoshev N., Sobirjonova D., To‘laganova Sh. Strategik menejment. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2008, –151 b.
12. Махмудов Н.М., Акобирова Д. Стратегия инновационного развития промышленности Республики Узбекистан в период модернизации экономики. Монография. – Т.: Иқтисодиёт. –2011. – 352 б.
13. Ikramov M.A., Qo‘chqorov A.X. Strategik menejment. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2005. –152 b.
14. https://blog.bizvibe.com/blog/largest-chemical-companies
15. https://www.bayer.com/en/procurement/conditions-of-purchase
16. “Farg‘onaazot” AJ ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan
17. https://www.bayer.com/ ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan
18. Abduvakhidovna Y. N. (2023). Factors influencing the implementation of the innovation strategy at industrial enterprises. World Bulletin of Management and Law, 19, 5-11.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

ЗАДАЧИ ПРЕДМЕТА “РУССКОГО ЯЗЫКЕ” НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ



Адилова Солияхон
СамИЭС, доцент кафедры узбекского языка и литературы

Аннотация: В данной статье рассматриваются задачи предмета “Русский язык”, особенности процесса формирования иноязычной речевой деятельности и компоненты, которые определяют его содержание это языковой материал, теоретические сведения о языке и умения и навыки оперировать ими. Коммуникация, речевые умения и навыки; темы и ситуации каждый из названных компонентов выполняют свои функции.

Ключевые слова: Задача, компоненты, умение, навыки, функция, овладения, разработка, научные, общенаучные, билингвизм, двуязычие, предмет, формирования, вариант, инвариант, региональный, национальный, типовой.

Annotatsiya: Ushbu maqolada rus tili fanining vazifalari, xorijiy til nutq faoliyatini shakllantirish jarayonining xususiyatlari va uning mazmunini belgilovchi tarkibiy qismlar - til materiali, til haqidagi nazariy ma’lumotlar va ular bilan ishlash qobiliyati ko‘rib chiqiladi. Muloqot, nutq qobiliyatlari; mavzular va vaziyatlar, nomdagi komponentlarning har biri o‘z vazifalarini bajaradi.

Kalit so‘zlar: Vazifa, komponentlar, malaka, malaka, vazifa, o‘zlashtirish, rivojlantirish, ilmiy, umumiy ilmiy, ikki tillilik, ikki tillilik, mavzu, shakllanish, variant, o‘zgarmas, mintaqaviy, milliy, tipik.

Abstract: This article discusses the objectives of the subject Russian language, the features of the process of formation of foreign language speech activity and the components that determine its content - language material, theoretical information about the language and the skills to operate with them. Communication, speech skills; themes and situations, each of the named components performs its own functions.

Key words: Task, components, skill, skills, function, mastery, development, scientific, general scientific, bilingualism, bilingualism, subject, formation, option, invariant, regional, national, typical.

Задачи предмета “Русский язык”, особенности процесса формирования иноязычной речевой деятельности определяют его содержание, в которое входят следующие компоненты: языковой материал, теоретические сведения о языке и умения и навыки оперировать ими; коммуникация, речевые умения и навыки; темы и ситуация; общеучебные умения и навыки. Каждый из названных компонентов выполняет свои функции и в тоже время связан с другими.

Языковой материал, теоретические сведения о языке. Обязательным условием овладения русским языком как средством общения является усвоение ядерной микро системы языка, необ-ходимого и достаточного минимума языкового материала и сведений о языке, на базе которых форми-руется речевая деятельность студентов. При этом представляется правомерным предлагаемое лингводидактикой выделения, с одной стороны, самого языкового материала (минимума слов, фразе-ологизмов) и сведений о языке (правил, определений, терминов), на базе которых формируется речевая деятельность студентов, с другой – навыков оперирования им. Иначе говоря, данный компонент вклю-чает в себя как учебный материал, так и те умения и навыки, которые формируется на его основе (лексические, грамматические и др.).

В настоящее время возрастает роль системных сведений о русском языке. Это определяется задачей взаимосвязанного изучения русского и родного языка учащихся: изложенные в определенной системе сведения о языковых явлениях и фактах способствуют формированию знаний и представлению русском языке, о таких категориях и понятиях, которых нет в родном языке, и тем самым делают возможным более глубокое познание родного языка, оказывают положительное воздействие на культуру родной речи.

Речевые умения и навыки. Второй компонент содержания предмета русский язык – речевые умения и навыки – отражает практическую цель обучения. Выделение этого компонента является достижением современной методики преподавания русского языка как народного, отражает ее речевую направленность. Основное его назначение – определение объема и границ умений и навыков общения, которые должны быть сформированы у студентов. Это умения и навыки понимать русскую речь на слух говорить, писать, читать по – русски. Каждый вид речевой деятельности характеризуют свои, присущие ему умения и навыки.

Темы и ситуации. Конечной целью обучения русскому языку в национальных группах является свободное владение речью. Однако в период обучения в школе вряд ли могут быть сформированы навыки речевого общения во всем многообразии тем и ситуаций реальной жизни. Поэтому предмет русский язык включает в себя тематико – содержательный компонент. Его составляют темы и ситуации в пределах которых должны уметь свободно общаться по русски выпускники национальных вузов.

Этот компонент определяет внеязыковые границы реализации практической цели обучения, действительности, на материале и в пределах которых формируется речевая деятельность студентов. Тематико – содержательный компонент определяет и познавательно – воспитательный учебный материал предмета, на основе которого реализуется важнейшая его функция – воспитание личности будущего специалиста. Темы отражают ту часть социального опыта узбекского народа, которую студентам предстоит усвоить на уроках русского языка, они обеспечивают целенаправленный отбор содержательного учебного материала и таким образом делают в определенной мере управляемым процесс воспитания студентов средствами самого предмета.

Для научной разработки проблемы минимума тем для развития речи необходимо определить понятие “тем для развития речи” как категорию лингводидактики, принципы и источники выявления названных тем, наметить их номенклатуру, основные аспекты и направления раскрытия, распределить темы и подтемы по этапам обучения.

В современной методике преподавания русского языка отмечается стремление максимально приблизить процесс обучения к реальному общению. В связи с этим в практике национальных вузов получают признание речевые ситуации. Их использование повышает эффективность обучения речевому общению, способствует формированию и развитию интереса к русскому языку. Они достаточно отражены в действующих программах, имеется использования их в учебном процессе.

Научное обоснование тематико – содержательного компонента включает в себя помимо определения минимума тем разработку ситуативного минимума, или минимума речевых ситуаций. На основе имеющихся изысканий, исходя из структуры речевых ситуаций выделяются следующие направления его разработки. Прежде всего ситуативный минимум должен включать не единичные ситуации общения, а ситуации типичные или стабильные, представлять собой не конкретные речевые ситуации, а инвентарь, в который входят перечни:

- коммуникативных потребностей студентов в реальных сферах общения (запрос информации, побуждение к совершению действия и т.д.);
- социально – коммуникативных ролей, типичных и естественных для речевого общения студентов;
- мест речевого общения (вуз, улица, почта и т. п.).

Важно для определения содержания предмета русский язык в национальных вузах выявление соотнесенности ситуаций и языкового материала. Эта проблема в значительной мере решена на уровне речевых действий. Необходимо дальнейшее изучение с учетом других ее компонентов.

Общеучебные умения и навыки. Особое место в содержании предмета русский язык занимает четвертый компонент – общеучебные умения и навыки. Реформы вузовской программы предусматривает всестороннюю подготовку студентов к будущей практической деятельности. Это означает, что у них должны быть сформированы умения и навыки умственного труда, необходимые для получения дальнейшего образования, активного участия в жизни общества.

Уже на уроках родного языка, родной литературы формируются такие важные для практической деятельности в будущем общеучебные умения и навыки самостоятельной работы, как составление плана, тезисов, определение главного в содержании текста, умение пользоваться словарями и т. д. В процессе овладения русским языком эти навыки должны совершенствовать уже на другом языковом материале. Например, навыки работы с одноязычным словарем, приобретения на уроках родного языка, могут развиваться на материале различных типов словарей русского языка и т. д.

В условиях формирования национально – русского двуязычия названные компоненты содержания предмета русский язык в национальных группах должны быть скоординированы с соответствующими компонентами предмета родного языка.

Так, необходимы распределение между родным и русским языком теоретического (лингвистического) материала, соотнесение метаязыка, терминологического аппарата, объема и характера умений и навыков монологической диалогической речи, тем и ситуаций для развития речии т. д. Скоординированность русский язык и родной язык обеспечит единую лингвистическую и речевую основу формирования и развития национально-русского двуязычия.

Инвариант и вариант. Разработка проблемы содержание обучения русскому языку в нашей многонациональной стране всегда связана с разрешением проблем типового и варьируемого. В какой мере возможны типовые решения? Где обязателен, необходим учет особенностей функционирования русского языка в конкретных условиях. Особую актуальность эта проблема приобретает в настоящее время в связи с тем, что в качестве ключевого направления в реформе высшей школы названо развитие индивидуальных способностей студентов, дифференцированное обучение в соответствии с их запросами и склонностями.

Единство целей и задач образования должно органически сочетаться с разнообразием вузов, гибкостью учебных планов и программ.

Предмет русский язык в национальных группах содержит такрй базисный учебный материал, который необходим и достаточен для овладения русским языком как средством межнационального общения. Этот материал должен составить типовую часть содержания предмета, усвоение которой необходимо, независимо от типа вузов и условий функционирования русского языка.

Правомерность и целесообразность типового, инвариантного в содержании предмета русский язык в национальных группах обусловлены:

- статусом русского языка как средства межнационального общения народов нашей страны, определяемым интернационализацией всей жизни общества;
- наличием общих направлений в развитии национально – русского двуязычия;
- единством целей и задач обучения, решаемых национальным вузом;
- единством предмета обучения и универсальным, общим для всех национальных вузов характером значительной части трудностей русского языка как неродного;
- общими закономерностями обучения русскому языку как неродному и его усвоения в национальным контингентам.

Выделение инварианта содержания, отражающего специфику русского языка, его топологические особенности, обосновывает базисный компонент содержания предмета русский язык для национальных групп вузов нашей страны.

Варьирование содержания предмета русский язык обусловлено прежде всего типом вузов, теми задачами, которые она призвана решать (очевидны, например, различия гуманитарного, физико – математического, химико – биологического и других специальностей).

Разнообразие региональных и национальных условий функционирования русского языка, формирования национально – русского двуязычия в наличие и степень распространения русской речевой среды, естественных речевых контактов, соотношение русского и родных языков, традиции преподавания русского языка, также обусловливает варьирование содержания предмета русский язык в национальных вузов. В этом случае необходимость и целенаправленность варьируемой части содержания предмета обусловливаются:

- воздействием родного языка учащихся на усвоение русского (характером и типами интерференции и транспозиции родного языка студентов).

Наличие базисного русского языка, составляющего коммуникативно – прагматическое и структурообразующее ядро, необходимое и в то же время достаточное для овладения русским языком как средством общения, обосновывает типовое языковое содержание, одно и единое для всех изучающих. Оно получило отражение в аспектных минимумах, “Типовой программе по русскому языку”.

Варьирование языкового материла, теоретических сведений о языке (первого названного выше компонента содержания предмета русский язык) определяется прежде всего разнообразием типов школ. Например, в школах гуманитарного профиля может быть предусмотрен более высокий уровень овладения им. Варьирование языкового компонента может быть обусловлено и учетом родного языка, ориентацией предмета на конкретную национальную школу. Каковы направления и границы варьирования языкового содержания? На этот вопрос должны ответить методическая наука, методисты, разрабатывающие программы и учебники для национальных школ союзных и автономных республик.

Тематико – содержательный компонент обучения также включает в себя типовую и варьируемую части. Набор тем и ситуаций носит открытый характер. Определенная часть его имеет типовой характер и рекомендуется для всех вузов республики, ведь речь идет о содержательном аспекте обучения русскому языку, формирующем общие, единые мировоззренческие, социальные, культурные, интеллектуальные качества личности современного человека. Однако выделение инвариантной основы тематико

TARAQQIYOT PROGRESS

- содержательного компонента обучения русскому языку ни в коей мере не означает его жесткой регламентации.

Проблема типовой части тематико – содержательного компонента в определенной мере уже решается. В типовой программе по русскому языку для национальных групп определены примерные темы для развития речи, предложена их конкретизация в подтемах. Таким образом, уже можно говорить о разработке единой тематико – содержательной основы курса. Однако такой важный компонент структуры содержания, как ситуация, не получил достаточного обоснования.

Тематико – содержательный компонент обучения помимо типового материала включаетв себя варьируемый: темы, подтемы, ситуации, которые отражают особенности культуры, быта республики специфику функционирования русского языка в конкретном вузе. Вариативность содержания предмета русский язык в тематико – содержательном плане может проявляться в характере раскрытия тем, ситуаций, в объеме и характере сведений литературного, ситуативно – тематического и страноведческого материала. Вряд ли целесообразна, наверное, и строгая регламентация последовательности тем. Конечно, определенная часть их, связанная, например, с временами года, праздниками, может быть соотнесена с соответствующими периодами обучения. Однако последовательность введения основной части тем условна.

Проблема типового и вариативного приобретает особую актуальность в определении структуры предмета, его построении, а, следовательно, в разработке программы для конкретных вузов. В условиях многообразия вузов, в различных условиях формирования национально – русского билингвизма возможны и, наверное, должны быть иные решения. При этом немаловажную роль может играть структура предмета родной язык – ведь формирование национально – русского двуязычия делает актуальной проблему соотнесенности содержания предметов русский язык и родной язык.

В заключение следует сказать, что несомненно возможны различные решения проблемы содержания предмета русской язык в национальной аудитории однако предлагаемые концепции построения этого предмета должны обеспечивать реализацию целей обучения русскому языку – языку приобщения каждого выпускника национальных групп к культуре, общественной и трудовой деятельности в масштабах государство.

Список литературы:

1. Аксёнова М.П. Русский язык по-новому. Часть 1 (Ур. 1-12) / Под ред. Р.А. Кульковой. – 2-е изд., испр. И доп. – СПб: “Златоуст”. –2000. – 440 с.
2. Глазунова О.И. Давайте говорить по-русски: Учебник по русскому языку. – 6-е изд., стереотип. –М.: Рус. яз., 2004. – 336 с.
3. Ильиных О.В., Потураева Е.А. “Полный вперед!” –Томск: Изд-во. –ТПУ. –2007-2008.

TIJORAT TASHKILOTLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATI



Farhod Mahmudovich Tirkashyev
SamDVMchBU assistenti

Asomiddinov Husan Asomiddin o‘g‘li
SamDVMchBU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsiyaning turlari, investitsiya jarayonlarini o‘rganishning nazariy muammolari yoritilgan.Bundan tashqari investitsiyalarning maqsadlari, investitsiyalarning bozorda tutgan o‘rni nazariy va uslubiy qoidalarini asoslanishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, kapital qo‘yilmalar, daromadlar, amortizatsiya, bank krediti, davlat krediti, jalb qilingan mablag‘lar, real investitsiyalar, moliyaviy investitsiyalar, sarmoyaviy daromad, investitsiya xavfi, tavakkalchilik.

Abstract: This article describes the types of investments, the theoretical problems of studying investment processes. In addition, the goals of investments, the justification of the theoretical and methodological rules of the role of investments in the market are shown.

Key words: investment, capital investments, income, depreciation, bank credit, state credit, borrowed funds, real investments, financial investments, investment income, investment risk, risk.

Аннотация: В статье описаны виды инвестиций, теоретические проблемы изучения инвестиционных процессов, а также показаны цели инвестиций, обоснование теоретико-методологических правил роли инвестиций на рынке.

Ключевые слова: инвестиции, капитальные вложения, доход, амортизация, банковский кредит, государственный кредит, заемные средства, реальные инвестиции, финансовые вложения, инвестиционный доход, инвестиционный риск, риск.

KIRISH

Respublikamizda investitsiya muhitining jozibadorligini yanada oshirish, hududlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish hamda yangi tashabbus va loyihalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog‘liqligini bugungi kunda deyarli har bir mutaxassis va xo‘jalik yurituvchi subyekt anglab yetganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalami kengroq jalb etish ularning mamlakatimizda o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlaming samarali ijrosini ta’minlashning muhum asosiga aylanganligi bilan bog‘liqligini tushunib olish qiyin emas. Har qanday mamlakat iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan investitsiyalarga bog‘liq. Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni kengroq jalb etish, ularing mamlakatimizda o‘tkazilayotgan iqtisodiy, siyosiy islohotlarning samarali ijrosini ta’minlashning muhim asosiga aylanganligi bilan bog‘liqdir. Mainlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarning ahamiyati judayam katta. Mamlakatda iqtisodiyotni isloh qilish va erkinlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, uni tarkibiy jihatdan o‘zgartirish, ishlab chiqarishning izchil va mutanosib o‘sish sur’atlarini ta’minlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini moderizatsiyalash, keng ko‘lamdagi ichki va tashqi investitsiyalarni talab qiladi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “... iqtisodiy o‘sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali erishiladi, shuningdek, mamlakat taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalardir”[1].

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaataomasi..: “O‘zbekiston”, 2021-yil.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Investitsiya (lotincha: investio – “o‘rash“) – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o‘z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq, muddatli kapital kiritish (qo‘yish). Pulning vaqt (zamon)ga bog‘liq qiymati nazariyasiga ko‘ra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag‘lar qo‘yishdir. Investitsiya kapitalni muayyan muddatga bog‘lashni yoki band qilishni bildiradi. Bundan asosiy maqsad kapital qiymatini saqlab qolish yoki bo‘lmasa kapital qiymatini vaqtda o‘stirib borishdir. Iqtisodiy mazmuni jihatdan investitsiya turli faoliyatlarga safarbar etilgan moddiy, nomoddiy boyliklar va ularga bo‘lgan huquqlarni aks ettiradi. Investitsiya sifatida pul, qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiya, sertifikat, veksel), yer, bino, inshoot kabi boyliklar, intellektual mulk bo‘lgan ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va b. ishlatiladi. Investitsiya loyihalariga mablag‘ qo‘yuvchilar – investorlar davlat, kompaniya, korxona, chet ellik fuqarolar, aholi va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyati to‘g‘risida iqtisodchi olimlar o‘rtasida xilma-xil fikrlar mavjud. Investitsiyalarga tugallangan bir ta’rif berilmagan. Har bir tadqiqotchi ushbu kategoriyaga nisbatan o‘z yondashuv uslubi va fikriga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Investitsiyalar nazariyasi o‘zining tarixiy rivojlanish jarayonida bir qancha bosqichlarni bosib o‘tdi. V.V. Aladinning fikricha, investitsiyalarning dastlabki belgilarini Avstriya iqtisodchilari maktabining ilmiy ishlarida ko‘rish mumkin (Bem-Baverk)[2]. Muallifning fikricha, o‘tgan asrning 20–30-yillariga kelib, moliya nazariyasining fan sifatida paydo bo‘lishi bilan I.Fisherning foiz stavkalari nazariyasi ilmiy ishi dunyoga keldi.

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyava investitsiyalashmuammolari J.Keyns, P.Masse, K.Makkonel, S.Bryu, E.Dolan, U.Sharp va boshqa olimlar ilmiy ishlarida keng miqyosda yoritib berilgan.

O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning ahamiyati jihatidan bir qator iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlari mavjud. Jumladan, Sh.Shodmonov, U.G‘afurovlarning fikricha, “Investitsiyalar –asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko‘paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko‘rinishidir”[3]. Prof. D.G‘.G‘ozibekov investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini moliyaviy kategoriya sifatida talqin etib, quyidagicha ta’rif berib o‘tgan: “Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag‘lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, rikslar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko‘zlangan samarani olishdan iborat bo‘ladi”[4].

Mualliflar fikricha, iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar yetakchi rol o‘ynaydi, sababi investitsiya orqali korxonalar kapital jamg‘arilishiga, natijada mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy o‘sishga erishiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yozish jarayonida ma’lumotlarni to‘plash,ularni guruhlash,analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiya keng ma’noda tijorat tashkilotining moliyaviy resurslarini aholiga pul to‘lash bilan bog‘liq bo‘lmagan maqsadlarda ishlatishdir. Investitsiya qilish tor ma’noda tijorat tashkilotining moliyaviy resurslaridan kapital sifatida, ya’ni sof daromad manbayi sifatida foydalanishdir. Kapital qo‘yilmalar investitsiyalarning tarkibiy qismidir. Ular binolar va inshootlarni qurishga, asbob-uskunalar sotib olishga va qurilayotgan obyektlarni loyihalash bilan bog‘liq xarajatlarga moliyaviy resurslarni kiritishdir. Investitsiyalarning asosiy moliyaviy manbalari o‘z mablag‘lari va qarz mablag‘lari, shuningdek qimmatli qog‘ozlarni sotishdan olingan mablag‘lardir. Investitsiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfelga, real va moliyaviy investitsiyalarga bo‘linadi. Investitsiyalar bozor ishtirokchisiga daromad keltiradi, ammo odatda investitsiya xavfi, ya’ni sarflangan kapitalning bir qismini yo‘qotish ehtimoli bilan bog‘liq tushunchadir. Iqtisodiy nuqtayi nazardan investitsiya - bu kapital sifatida, ya‘ni har qanday bozor shaklidagi sof daromad manbayi sifatida ishlatiladigan qiymat (foyda, foiz, renta, ijara to‘lovi, narxlardagi farq va boshqalar). Biroq, tijorat tashkiloti o‘z faoliyatini nafaqat bozorda, balki odamlar jamiyatida ham amalga oshiradi, shuning uchun u o‘z daromadlarining bir qismini albatta ijtimoiy ehtiyojlarga sarflaydi, masalan, ijtimoiy soha obyektlarini qurish va boshqalar. Shuning uchun amaliy ma’noda investitsiyalarning keng ta’rifi quyidagicha bo‘lishi mumkin: tijorat tashkilotining investitsiyalari - bu o‘z faoliyatini kengaytirish va daromadni ko‘paytirish uchun uning moliyaviy resurslaridan foydalanish, shuningdek, aholiga pul to‘lovlari bilan cheklanmaydigan ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan investitsiyalar.

Tijorat tashkilotining investitsiyalari uning ixtiyoridagi pul mablag‘lari yoki ko‘rsatilgan maqsadlarda foydalaniladigan har qanday boshqa mol-mulkdir.

2 АладьинВ.В. Инвестиционная деятельность субъектов Российской Федерации. –М: Социум, 2002. –с.17.
3 ShodmonovSh., G‘ofurovU. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2010. –347 bet.
4 G‘ozibekov D.G‘.Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. –T.: “Moliya” nashriyoti. –2013. –26 bet.

Tijorat tashkilotining pul mablag‘lari uning bankdagi hisobvaraqlardagi pul mablag‘lari va olingan kreditlardan iborat bo‘lishi mumkin. Investitsiya sifatida pul mablag‘lari mehnat asboblarini sotib olishga, yangi qurilishlarga, qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga, bank depozitlariga, tovar belgilarini sotib olishga va hokazolarga, ya’ni foydalanilishi investitsiya maqsadlariga javob beradigan har qanday bozor aktivlariga qo‘yilishi mumkin.


Investitsiya sifatida foydalaniladigan pulsiz mol-mulkka odatda asbob-uskunalar va binolar, qimmatli qog‘ozlar, litsenziyalar, tovar belgilari va boshqalar kiradi.Xorijiy investitsiyalar – bu investitsiya maqsadlari uchun bozor obyektlariga qo‘yilgan pul mablag‘lari yoki xuddi shunday maqsadlar uchun ishlatiladigan boshqa har qanday mulk. Investitsiyalarni bunday tushunishning nozik tomoni shundaki, ularning bozor shakli bo‘yicha investitsiyalar va investitsiya obyektlari bir xil, chunki bozorda bir xil pul va mulkdan boshqa hech narsa yo‘q. Masalan, ishlab chiqarish uskunalari sotib olinadi. Pul investitsiya sifatida ishlaydi. Lekin bu jihozlar ham sarmoya hisoblanadi, faqat boshqa moddiy shaklda. Ikkalasi ham bir xil kapital (qiymat) bo‘lib, ularning har xil shakllari foyda olish uchun mo‘ljallangan. Tibbiyot jihozlari sotib olinayotganda esa, ijtimoiy maqsadlar uchun sarmoya kiritilmoqda. Shunga ko‘ra, pul bilan ifodalangan kapital (qiymat) uning qayta ishlab chiqarish jarayonidan chiqib ketadi, chunki u ijtimoiy iste’mol maqsadlarida ishlatiladi. Bunday investitsiyalar “ishlab chiqarishdan tashqari” investitsiyalar deb ham ataladi. Agar investitsiyalarning ta‘rifi kapital mavjudligining tashqi shakllariga asoslangan bo‘lsa, mantiqiy ziddiyat yuzaga keladi, chunki bu holda investitsiya va investitsiya obyekti o‘rtasida hech qanday farq yo‘q, yoki boshqacha aytganda, tushuncha uning mohiyati orqali emas, balki uning mavjudligi shakllari orqali aniqlanadi. Investitsiya faoliyati yoki investitsiya - bozor ishtirokchisining sarmoya sifatida kapital va daromaddan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan yoki qisqacha investitsiya qo‘yish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlari majmui. Investor - bu investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi bozor ishtirokchisidir. Investorlar odatda barcha tijorat tashkilotlari hisoblanadi, chunki bu ularning tijorat faoliyatini kengaytirish jarayoni talab qiladi. Huquqiy ma’noda fuqarolar, har qanday yuridik shaxslar, davlat hokimiyati organlari va tashkilotlar investorlar bo‘lishi mumkin. Ushbu davlat nuqtayi nazaridan investorlar milliy va xorijiy bo‘lishi mumkin. Kapital sarmoyasi tushunchasi. Kapital qo‘yilmalar - bu asosiy fondlarga (vositalarga) investitsiyalar, ya‘ni kapital va daromadlarni asosan zarur uskunalar (mashinalar, priborlar va boshqalar) sotib olish va binolar va inshootlar qurilishiga, shuningdek, qurilish bilan bog‘liq loyihalash xarajatlariga qo‘yishdir. Kapital qo‘yilmalar investitsiyalarning tarkibiy qismlaridan biri, ammo eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Kapital qo ‘ yilmalarning iqtisodiy jihatdan muhim bo ‘ lgan ikki farqli xususiyati bor:

- Ular faqatgina moddiy bozor aktivlariga qo‘yilgan investitsiyalardir; qimmatli qog‘ozlarga, boshqa moliyaviy aktivlarga (depozitlar, ssudalar va boshqalar) yoki nomoddiy aktivlarga (tovar belgilari va boshqalar) qo‘yilgan investitsiyalar kapital qo‘yilmalar deb hisoblanmaydi;
- Ular mamlakatning asosiy fondlarini ko‘paytirishga qaratilgan investitsiyalardir, ya‘ni har qanday rivojlanayotgan jamiyatning asosiy boyligini ko‘paytirishga qaratilgan investitsiyalardir.

Kapital qo‘ yilmalar ikki guruhga bo‘linadi:

- Ishlab chiqarish kapital qo‘yilmalari - bu tijorat tashkilotlarining oddiy va kengaytirilgan kapitalini takrorlash bilan bog‘liq kapital qo‘yilmalar;
- Noishlab chiqarish kapital qo‘yilmalari - bu notijorat tashkilotlarning asosiy fondlarini saqlab turish va ko‘paytirish maqsadiga ega bo‘lgan kapital qo‘yilmalardir (odatda sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat va boshqa notijorat tashkilotlari shu jumlaga kiradi).

Kapital qo‘yilmalar tushunchasi xususiy kapital bo‘lmagan sotsialistik iqtisodiyotdan kelib chiqadi va barcha investitsiyalar moddiy ishlab chiqarishning asosiy fondlarini yoki iqtisodiyotning ijtimoiy tarmoqlarining asosiy fondlarini ko‘paytirish maqsadida amalga oshirilgan. Zamonaviy iqtisodiyotda kapital qo‘yilmalarni yuridik shaklda investitsiyalash faqatgina davlat shartnomasi asosida, ya’ni asosiy fondlarga investitsiyalarni davlat amalga oshirganda mumkin. Tijorat tashkilotlari uchun kapital qo‘yilmalar shaklida investitsiya kiritish yuridik harakat sifatida endi mavjud emas, garchi bu o‘z-o‘zidan asosiy fondlarga sarmoya kiritishni yo‘q qilmasa ham.



1-rasm: Investitsiyalarning asosiy manbalari

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘z mablag‘lari – investitsiya maqsadlarida foydalaniladigan o‘z kapitalining bir qismidir; o‘z mablag‘lariga quyidagilar kiradi:

- daromaddan;
- amortizatsiya ajratmalari;

Tashkilotning zaxira va boshqa maxsus jamg‘ armalari mablag ‘lari orqali;

Qarz mablag‘lari - tijorat tashkiloti tomonidan vaqtincha va to‘lov asosida yoki qarz va kredit shartnomalari asosida egallagan pul mablag‘lari va boshqa mol-mulk; qarz mablag‘lariga quyidagilar kiradi: tijorat yoki tovar kreditlari (tovarlarni sotib olishda bozorning boshqa ishtirokchilaridan kreditlar va boshqalar);

- Bank kreditlari;
- Davlat kreditlari;

Jalb qilingan mablag‘lar - bu aksiyalar va ulushlarni sotishdan olingan pul mablag‘lari. Sarmoyaviy faoliyat to‘g‘risidagi qonunda jalb qilingan mablag‘lar investitsiyalarning mustaqil manbayi sifatida ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, iqtisodiy jihatdan ikki xil xususiyatga ega. Ular qarz mablag‘lari sifatida qaralishi mumkin, chunki ular tijorat tashkilotining o‘zida emas, balki bozordan jalb qilinadi. Lekin jalb qilingan mablag‘lar tijorat tashkilotining ustav kapitaliga tushgani sababli, ular uning o‘z kapitaliga aylanadi va o‘z mablag‘lariga kiritilishi mumkin.

Investitsiya turlari: to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel. Yuridik jihatdan investitsiyalar uch guruhga bo‘linadi:

- **To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar** - bu tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga investitsiyalar, shuningdek, agar investorning aksiyalar paketi aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitalining 10 foizidan oshsa;
- **Portfel investitsiyalari** - bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar tarkibida hisobga olinadigan aksiyalarga qilingan investitsiyalardan tashqari qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar;
- **Qarz investitsiyalar** - bu investorning mablag‘laridan qarz va kredit shaklida foydalanish. Amaliyotda kredit investitsiyalari kredit bozori obyekti sifatida mustaqil ravishda ko‘rib chiqiladi, shuning uchun odatda investitsiyalar haqida gap ketganda, faqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalari nazarda tutiladi, garchi tijorat tashkiloti uchun barcha investitsiyalar guruhi nisbatan teng ahamiyatga ega bo‘lsa ham. Investitsiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfelga ajratish xalqaro investitsiya statistikasida investor o‘z investitsiyalarini boshqarish jarayoniga nisbatan qanday o‘rin egallashi nuqtayi nazaridan qabul qilingan bo‘linishdir. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar bo‘yicha investor odatda o‘z investitsiyalarini boshqarishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etadi, portfel investitsiyalari bo‘yicha esa, u investitsiyalarni boshqarishda deyarli ishtirok etmaydi.

Investitsiya turlari: real va moliyaviy. Investitsiyalar qo ‘ yilishi obyektining turi nuqtayi nazaridan shartli ravishda ikki katta guruhga bo‘linadi:

- **Real investitsiyalar** - bu ishlab chiqarish yoki foyda olish jarayonida foydalaniladigan moddiy aktivlarga, ya’ni birinchi navbatda ishlab chiqarish vositalariga qilingan investitsiyalar;
- **Moliyaviy investitsiyalar** - bu moliyaviy aktivlarga qilingan investitsiyalar bo‘lib, ularga asosan qimmatli qog‘ozlar va bank depozitlari kiradi. Investitsiyalarni bunday ajratish zarurligi ularning iqtisodiy mohiyati bir xil emasligidan kelib chiqadi. Haqiqiy investitsiyalar o‘zlari (ular keltiradigan) sof daromadni yaratadilar. Ular tijorat tashkilotining moddiy kapitalini ko‘paytiradi.

Moliyaviy investitsiyalar foiz yoki boshqa sof daromad keltiradi, ular o‘zlari yaratmaydi, faqat o‘zlashtiradilar. Ularning iqtisodiy tabiati uydirma, chunki ular foizli daromad keltirmay qo‘yganida, ular umuman yo‘q bo‘lib ketadi, chunki bir tomondan, ular bozorda devalvatsiya qilinadi, boshqa tomondan, ular odam uchun hech qanday moddiy foyda keltirmaydi. Tovarlar yoki xizmatlarni ishlab chiqaradigan tijorat tashkilotida odatda haqiqiy investitsiyalar ustun turadi. Biroq, butun bozor miqyosida moliyaviy investitsiyalar ustunlik qiladi, chunki haqiqiy investitsiyalardan farqli o‘laroq, ularning bozor o‘sishi uchun moddiy chegarasi yo‘q va shuning uchun ular cheksiz ko‘payishi mumkin. Sarmoyaviy daromad. Odatda investitsiya daromadi tijorat loyihasidan olinadigan foyda yoki qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilishdan olinadigan foiz (dividend) shaklida bo‘ladi.

Har qanday investitsiya loyihasi (yoki qabul qilingan investitsiya qarori) ma’lum bir yil davomida keltiradigan daromad nuqtayi nazaridan baholanadi. Umumiy yondashuv quyidagichadir: investitsiya loyihasini amalga oshirishdan tushgan pul mablag‘lari (odatda foyda va amortizatsiya ajratmalari shaklida) dastlabki investitsiyalar miqdoridan belgilangan miqdorda oshishi kerak, bu esa investitsiyalardan sof daromadni tashkil qiladi.

Metodologik jihatdan muammo nafaqat daromadni va investitsiyalardan boshqa tushumlarni qanday hisoblashda, balki bu yillik pul tushumlarini qanday qilib yagona bazaga keltirishda, chunki pul qadrsizlanib borishi va kelajakdagi rubl bugungi rublga teng emasligi ma'lum.

Iqtisodiyot ilm-fani investitsiya loyihalashtirish va tahlil qilishda foydalaniladigan va investorga o'zida mavjud bo'lgan erkin kapitalni investitsiyalash bo'yicha iqtisodiy jihatdan asoslangan boshqaruv qarorini qabul qilishga yordam beradigan turli xil usullarni ishlab chiqdi. Investitsiya xavfi. Tavakkalchilik – bu kapitalni (foydani) yo'qotish ehtimoli. Ma'lum miqdorda tavakkalchilik - bu yo'qotish ehtimoli bo'lgan qiymatning yo'qotilishi. Xavf har doim mavjud, chunki u kelajakning noaniqligini aks ettiradi. Kelajakni bilish mumkin emas, uni faqat bashorat qilish mumkin.

Investitsiya xavfi - bu investitsiya qilishda yuzaga keladigan xavf. Investitsiyalar har doim muayyan xavf bilan bog'liq, chunki investitsiyalar doimo kelajakka qaratilgan, ya'ni odatda bir necha yil oldinga qaratilgan. Odatda, tijorat tashkiloti o'z investitsiyaviy tavakkalchiliklarini oldindan baholaydi va o'zi uchun qabul qilinadigan darajani belgilaydi, undan ortiq bo'lishi mumkin emas deb hisoblaydi, natijada tegishli investitsiya loyihasi kompaniyaning boshqa jozibador xususiyatlariga qaramay rad etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 25.12.2019-yildagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-598-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.09.2022-yildagi "O'zbekiston Respublikasining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-215-son Farmoni,.
3. Аладин В.В. Инвестиционная деятелност субектов Российской федерации. –М: Сосиум, –2002.
4. Ғозибеков Д.Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. – Т.: 341 "Молия" нашриёти, 2003.
5. Shodmonov Sh., G'ofurovU. Iqtisodiyotnazariyasi. Darslik. –Toshkent: Iqtisod-moliya, –2010.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



KORRELYATSION-REGRESSION TAHLIL ORQALI TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Gapparov Azim Qayumovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakat iqtisodiy barqarorligini oshirishda bugungi resurslarning cheklanganlik sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatiga alohida etibor qaratilayotganligi, turizm sohasini iqtisodiyot sektorlarida o‘rnini yanada oshirish lozimligi xususida so‘z boradi. Shuningdek, iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida turizm sohasini rivojlantirish uchun korrelyatsion tahlil yo‘li bilan aniq formulalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy barqarorlik, yalpi ichki mahsulot, turizm sohasi, xizmatlar bozori, korrelyatsion tahlil, korrelyatsiya koeffitsiyenti, regressiya tenglamasi, fumksional bog‘lanish.

Abstract: This article talks about the fact that in order to increase the economic stability of the country today, special attention is paid to the activities of service enterprises in the conditions of today’s limited resources, it is necessary to further increase the position of the tourism sector in the economic sectors. Also, on the basis of economic indicators, specific formulas have been developed for the development of the tourism sector by means of correlational analysis.

Key words: economic stability, gross domestic product, tourism industry, services market, correlation analysis, correlation coefficient, regression equation, functional relationship.

Аннотация: В данной статье говорится о том, что для повышения экономической стабильности страны сегодня особое внимание уделяется деятельности предприятий сферы услуг в условиях сегодняшней ограниченности ресурсов, необходимо дальнейшее повышение позиций туристической сферы в секторов экономики. Также на основе экономических показателей разработаны конкретные формулы развития туристической сферы посредством корреляционного анализа.

Ключевые слова: экономическая стабильность, валовой внутренний продукт, индустрия туризма, рынок услуг, корреляционный анализ, коэффициент корреляции, уравнение регрессии, функциональная связь.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiy barqarorligini oshirishda bugungi resurslarning cheklanganlik sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatiga alohida etibor qaratishga, xizmat ko‘rsatish tarmog‘ini izchil rivojlantirishga zarurar tug‘dirmoqda. Xizmat ko‘rsatish tarmog‘ida barcha xizmat ko‘rsatish sohalari alohida xususiyatga egadir. Ushbu tarmoqlardan biri borki u tarmoqning rivojlanishi bir vaqtning o‘zida mehmonxona xizmatlarini, umumiy ovqatlanish xizmatlarini, savdo xizmatlarini rivojlanishiga olib keladi va mamlakatdagi xorijiy valyuta aylanmasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu soha shubhasiz turizm sohasidir. Turizm xizmatlari xizmat ko‘rsatish jarayonida to‘g‘ridan-tog‘ri xomashyo materiallarini juda kam miqdorda istemol qilsa, daromadliligi hamda foydaliligi esa juda yuqoridir. Shu sababli bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab islohotlar olib borilib o‘z samarasini ko‘rsatib kelmoqda. Mamlakatda qaysi sohani rivojlantirmaylik uning rivojlanishiga ko‘plab omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi ya’ni natija ma’lum omillar ta’sirida vujudga keladi.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Bugungi kunda turistik xizmat hajmiga funksional bog‘liq bo‘lgan omillardan ko‘ra korrelyatsion bog‘liqlikdagi omillar ta’sirini o‘rganish, natija va omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ma’lum tartibga keltirishning ilmiy-nazariy va amaliy masalalari keng xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Ushbu muammoga oid ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar I.S.Stepanova [1], Arens E.A. [2], DJ.K. Lobbek [3], Serov V.M. [4], Gurkov I.B. [5] va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida korrelyatsion hamda regression tahlilning ilmiy-nazariy va konseptual asoslari yoritib berilgan.

Mamlakatimizda turistik xizmatlarning hajmini oshishi, iqtisodiyotda turizm sohasining ahamiyati hamda turizm sohasi bo‘yicha kutilishi mumkin bo‘lgan natijalarni prognoz qilishning ahamiyati bo‘yicha M.K.Pardayev [6], N.T.Tuxliyev [7], E.V.Golesheva [8], M. Miraxmedov [9], A.A.Eshtayev [10], K.B.Urazovlar [11] munosib hissa qo‘shganlar. Ushbu iqtisodchi olimlar tomonidan turizm sohasining ahamiyati, turizm sohasida buxgalteriya hisobi va auditning xususiyatlari hamda turizm sohasining mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o‘rni, turizm sohasida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish bilan bog‘liq yo‘nalishlar yoritilgan.

METODOLOGIYA

Natijaga va omillar o‘rtasidagi bog‘lanish ikki xil shaklda funksional yoki korrelyatsion bo‘lishi mumkin.

Funksional bog‘lanish - bu shunday to‘liq bog‘lanishki, unda bir belgi yoki belgilar o‘zgarish qiymatiga har doim natijaning ma’lum me’yorda o‘zgarishi mos keladi.

Omil belgining har bir qiymatiga natijaviy belgining har doim bitta yoki bir necha aniq qiymati mos kelsa, bunday munosabat funksional bog‘lanish deyiladi. Funksional bog‘lanishning muhim xususiyati shundan iboratki, bunda barcha omillarning to‘liq ro‘yxatini va ularning natijaviy belgi bilan bog‘lanishini to‘la ifodalovchi tenglamani yozish mumkin.

Korrelyatsion bog‘lanish - bu shunday to‘liqsiz bog‘lanishki, unda omillarning har bir qiymatiga turli zamon va makon sharoitlarida natijaning har xil qiymatlari mos keladi. Bu holda omillar to‘liq soni noma’lumdir.

Omillarning soniga qarab funksional bog‘lanishlar bir yoki ko‘p omilli bo‘ladi. Ulardan ijtimoiy fanlarga nisbatan aniq fanlarda juda keng foydalaniladi, chunki funksional bog‘lanishlar tabiiy hodisalar orasida ko‘p uchraydi. Omillarning har bir qiymatiga turli zamon va makon sharoitlarida natijaviy belgining aniq qiymatlari emas, balki har xil qiymatlari mos keladigan bog‘lanish korrelyatsion bog‘lanish yoki munosabat deyiladi. Korrelyatsion bog‘lanishning xarakterli xususiyati shundaki, bunda omillarning to‘liq soni noma’lum bo‘ladi.

Ushbu bog‘lanishlar turistik xizmatlar hajmi va unga ta’sir qiluvchi omillarda ham yaqqol ko‘rinadi. Turistik xizmat hajmi bilan funksional bog‘liqlikda bo‘lgan omillar sanoqli ammo korrelyatsion bog‘liqlikda bo‘lgan omillarni juda ko‘plab keltirishimiz mumkin. Masalan, tashrif buyuruvchi turistlar sonini olaylik, turistlar soni har xil mavsumda bir xil bo‘lishi mumkin, ammo ularga ko‘rsatiladigan xizmat hajmi boshqa-boshqadir. Mehmonxonalar sonini oladigan bo‘lsak bu ham turistik xizmat hajmiga ma’lum darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, ammo bir miqdordagi mehmonxonalar soni har doim ham ham bir xil miqdordagi turistik xizmat hajmini ifodalamaydi. Bunday omillarni ko‘plab keltirib o‘tishimiz mumkin.

ILMIY TADQIQOT USULLARI

Bugungi kunda turistik xizmat hajmiga funksional bog‘liq bo‘lgan omillardan ko‘ra korrelyatsion bog‘liqlikdagi omillar ta’sirini o‘rganish, natija va omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ma’lum tartibga keltirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu tartib regressiya tenglamasida o‘z aksini topadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib Jizzax viloyatida bajarilgan turistik xizmatlar hajmi va unga ta’sir qiladigan omillar o‘rganildi (1-jadval).


1-jadval: Jizzax viloyatida ko‘rsatilgan turistik xizmatlar hajmi va unga ta’sir qiluvchi omillar[1]

№	Ko‘rsatkich nomi	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1	Turistik xizmat hajmi (mln so‘m)	245642.2	262969.2	787385.6	143372.1	348107.6	842420.4
2	Sotilgan yo‘llanmalar soni (birlik)	95954	102866	289820	78166	147686	331922
3	Turistlar soni (kishi)	37800	89300	104334	35179	1254520	1446000
4	Joylashtirish vositalari soni (dona)	34	42	93	119	170	237
5	Turoperatorlar soni (dona)	3	5	7	8	10	16
6	Ziyorat turizmi obyektlari (dona)	12	16	16	20	20	25
7	Eko-agroturizm obyektlari (dona)	8	20	32	35	45	60
8	Turistik firmalar soni (dona)	8	8	9	10	12	15
9	Turistik transportlar (avtobus, mikroavtobuslar) soni (dona)	8	12	12	30	30	35

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turubdiki viloyatda turistik xizmatlar hajmi 2019 hamda 2020-yillarda kamayib ketgan. Buning asosiy sababi esa pandemiya davri bilan bog‘liq. 2017-2022-yillarda turistik xizmatlar hamda unga ta’sir qiluvchi omillarning dinamik o‘zgarishini quyidagi diogrammalarda ko‘rishimiz mumkin (1-diagramma).

1 O‘zbekistonda turizm. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi.Statistik to‘plam.Toshkent-2022.


TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



1-diagramma: Turistik xizmatlar hajmi

Viloyatda turistik xizmatlar hajmiga juda ko‘plab omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi va biz tahlil jarayonida sakkizta omilni oldik.

Natija va omillar ta’sirini baholash maqsadida natijaning o‘zgarishi bilan bog‘liq tanlab olingan omillar o‘zgarishini baholaymiz. Buning uchun natija hamda natijaga ta’sir etuvchi barcha omillarni dinamik o‘zgarishini grafiklarda ko‘ramiz (2-diagramma).



2-diagramma: Natija va omillarning dinamik o‘zgarishi

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turubdiki Jizzax viloyatida turistik xizmatlarining o'zgarishi bilan X2 omilining o'zgarish dinamikasi farq qilmoqda ammo X1, X3,X4,X5,X6,X7 hamda X8 omillarning o'zgarish dinamikasi natija o'zgarishiga to'g'ri proparsional harakat qilmoqda.

Natijaviy ko'rsatkichga omillar ta'sirini aniqlashda asosan juft korrelyatsiya qo'llaniladi. Juft korrelyatsiyani aniqlash bizga bir-birini takrorlaydigan omillarni aniqlash imkonini beradi hamda natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etish darajasi kuchsiz bo'lgan omillarni aniqlash uchun foydalaniladi. Ushbu usul bilan juft korrelyatsiyani aniqlash orqali regressiya tenglamasiga kiritiladigan omillarni aniqlab olamiz va ularni regressiya tenglamasiga kiritamiz.

Buning uchun quyidagi juft koeffitsiyent korrelyatsiya formulasidan2 foydalanildi:

$$r = \frac{\overline{YX} - \overline{Y} * \overline{X}}{\sigma_Y * \sigma_X}$$

Bunda $\overline{Y}$, $\overline{X}$, – natijaviy va omillarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning o'rtacha miqdorlari;
$\overline{YX}$ – natija bilan omillarni ifodalovchi ko'rsatkichlarninng ko'paytmasi;
σ_u, σ_x – natijaviy va omillarning o'rtacha kvadratik chetlanishi.

Koeffistient korrelyatsiyaning miqdori (-1)dan (+1)gacha oraliqdagi bog'liqlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Koeffistientning miqdori quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Koeffistient korrelyastici (-1) va (+1)ga qancha yaqin bo'lsa natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik shuncha zich bo'ladi.
2. Agar r = 0 bo'lsa bular o'rtasidagi bog'liqlik yo'q, degan xulosa uchun asos bo'ladi.
3. Agar 0 < r < 1 bo'lsa ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqliq bevosita to'g'ri bo'lib, bir xil yo'nalishga ega bo'ladi.
4. -1< r < 0 bo'lsa ular o'rtasidagi bog'liqlik teskari ekanligini ko'ramiz.
5. r = 1 (-1) bo'lsa ular o'rtasidagi bog'liqlik funkstional, degan xulosaga kelish uchun asos bo'ladi.

Ushbu formuladan foydalangan holda GRETL dasturi yordamida o'zaro takrorlanuvchi omillarni aniqlash uchun quyidagicha juft korrelyatsiya koeffistentlari matristasi tuzildi (2-jadval).

2-jadval: Jizzax viloyatida turistik xizmatlar va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro bir-biri bilan juft korrelyastion bog'liqligi

Korrelyatsiya koeffisenti, 2017 - 2022 davr uchun.

5% kritik qiymatlar (ikki tomonlama) = 0,8114 uchun n = 6

Y	X1	X2	X3	X4	
1,0000	0,9955	0,4756	0,5483	0,6176	Y
	1,0000	0,5332	0,6224	0,6872	X1
		1,0000	0,8917	0,8620	X2
			1,0000	0,9808	X3
				1,0000	X4
	X5	**X6**	**X7**	**X8**	
	0,4265	0,5841	0,5445	0,1783	Y
	0,5066	0,6540	0,6170	0,2695	X1
	0,7750	0,8369	0,9220	0,7449	X2
	0,9424	0,9776	0,9857	0,9076	X3
	0,9608	0,9761	0,9791	0,8673	X4
	1,0000	0,9614	0,9236	0,9404	X5
		1,0000	0,9421	0,8897	X6
			1,0000	0,8772	X7
				1,0000	X8

2 Статистика: учебник. / под ред. С.А.Орехова. – М.: Эксмо, 2010. – с. 172.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki natija hamda X1 omil bog'liqligi 89%ni ko'rsatmoqda hamda qolgan omillar X2 omil 53%ni, x3 omil 89%ni, X3 va X2 omillarning biribiri bilan bog'liqlik darajasi 54%ni, natija bilan X4 omil bog'liqligi 98%ni, X3 hamda X4 omillarning o'zaro bog'liqligi 61%ni, natija hamda X5 omil bog'liqligi 96%ni, X5 hamda X4 omillarning o'zaro bogliqligi 94%ni, natija hamda X6 ning bog'liqligi 97%ni hamda X5 va X6 omillarning o'zaro bog'liqligi 96%ni, natija hamda X7 ning bog'liqligi 94%ni hamda X7 va X6 omillarning o'zaro bog'liqligi 92%ni, natija hamda X8 ning bog'liqligi 87%ni hamda X8 va X7 omillarning o'zaro bog'liqligi 88%ni tashkil qilmoqda. Yuqoridagi bog'liqlik darajalaridan kelib chiqgan holda tahlildan X3,X4,X6 hamda X7 omilllarini chiqarib yuboramiz hamda qolgan omillar orqali gretl dasturi yordamida eng kichik kvadratlar usuli orqali tahlilni amalga oshiramiz. Tahlil qilish orqali r kvadrat 0,998973 tengligi aniqlandi. R-kvadrat (R.)2 mustaqil o'zgaruvchi yoki regressiya modelidagi o'zgaruvchilar bilan izohlanadigan qaram o'zgaruvchiga nisbatan tafovut nisbatlarini ifodalaydigan statistik o'lchov. Korrelyatsiya mustaqil va qaram o'zgaruvchini o'zaro bog'liqligini tushuntirsa, R-kvadrati bitta o'zgaruvchining dispersiyasi ikkinchi o'zgaruvchining farqini qay darajada izohlashini tushuntiradi. Shunday qilib, agar R2 modelning qiymati 0,50 ni tashkil qilsa, keyin kuzatilgan o'zgarishning taxminan yarmini modelning kiritilishi bilan izohlash mumkin.

TAHLIL NATIJALARI

Tahlil natijasida natija hamda omillar o'rtasidagi bog'lanishlar bo'yicha yana quyidagi ko'rsatkichlar olindi (3-jadval).

3-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Koeffitsiyent	t-statistika	p-ko'rsatkich	bog'liqlik darajasi
1	Cons	−288,997	−0,006892	0,9956	
2	X1	2,79146	38,90	0,0164	**
3	X2	0,00444952	0,3909	0,7627	
4	X5	487,342	0,1091	0,9308	
5	X8	−2800,94	−1,712	0,3366	

*- natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik bor.
**- natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik o'rtacha.
***- natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik yuqori.


Jadval ma'lumotlaridan faqatgina X1 va X8 omillar hamda natija o'rtasida bog'liqlikni hamda boshqa omillar bo'yicha p qiymat 0.1dan yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Bu shuni anglatadiki tahlil jarayonini faqatgina X1 hamda X8 omil orqali davom ettiramiz. X1 va X8 omillarini hisobga olgan holda gretl dasturi yordamida eng kichik kvadratlar usuli orqali tahlilni qayta amalga oshiramiz. Tahlil qilish orqali r kvadrat 0,961421 tengligi aniqlandi hamda quyidagi ko'rsatkichlar olindi (4-jadval).

4-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Koeffitsiyent	St.xatolik	t-statistika	p-ko'rsatkich	bog'liqlik darajasi
1	const	1221,51	6203,91	0,1969	0,8565	
2	X1	2,80670	0,0253819	110,6	0,0001	***
3	X8	−2475,60	235,662	−10,50	0,0018	***

*- natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik bor.
**- natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik o'rtacha.
***- natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik yuqori.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki natija hamda X1 va X8 omillar o'rtasida yuqori bog'liqlik mavjud. Tahlil jarayonida navbatdagi ishimiz natija va omillar o'rtasidagi bog'liqlik normal taqsimotga ega ekanligini tekshiramiz hamda gretl dasturi yordamida normal taqsimotga tekshiramiz:



1-rasm: Natijaviy ko‘rsatkich (Y) va X1 hamda X8 omillar ishtirokidagi normal taqsimot testi

Grafikdagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki regression tenglamamiz normal taqsimotga ega, chunki xi-kvadrat [-3;3] oralig‘iga tegishli. Keyingi bosqichda gretl dasturi yordami White testidan o‘tkazilganda P qiymat 0,351938ga tengligi aniqlandi.

Yuqoridagi o‘tkazilgan tahlillar natijasida shuni aytishimiz mumkinki, tuzilayotgan regressiya tenglamasi iqtisodiy jihatdan mazmunga ega va u quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

$$Y = 2{,}80670*X3-2475{,}60*X8+1221{,}51$$

Ushbu ishlab chiqilgan regressiya tenglamasi mamlakatda turistik xizmatlarining keyingi ikki yillik prognozini ishlab chiqishda foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekistonda turizm. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi.Statistik to‘plam.–Toshkent-2022.
2. Статистика: учебник. / под ред. С.А.Орехова. – М.: Эксмо, –2010. – с. 172.
3. www.stat.uz.
4. www.ziyonet.uz.
5. https://president.uz/uz/lists/view/6763.
6. https://uza.uz/uz/posts/buxorodagi-turizm-sohasi-subyektlari-mehmonxona-ovqatlanish-shoxobchalarida-chegirmalar-zhoriy-qilindi-643434.
7. https://uza.uz/uz/posts/turizm-milliy-iqtisodiyotning-muhim-drayveri_544254.
8. I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev. Turizmda geoaxborot tizimlari. Darslik. Samarqand; “Ipak yo‘li” turizm xalqaro universiteti nashriyoti, –2023. –306 bet.
9. M. Pardaev, O. Pardaeva, O. Pardaev. Iqtisodiyotni strategik rivojlantirishning innovatsion modellari. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, –2022. 75-bet.
10. Pardaev M.Q. Iqtisodiyotga oid atamalarning ta’riflari. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. 148 b.
11. statistik to‘plamlari.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



O‘ZBEKISTONDA MONETIZATSIYA DARAJASI VA UNI MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLARGA TA’SIRI

Isayev Atabek Djurabayevich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi doktoranti

Annotatsiya: Iqtisodiyot samaradorligini belgovchi ko‘rsatkichlardan biri – iqtisodiyotning monetizatsiya darajasi hisoblanadi. Iqtisodiyotning monetizatsiya darajasi mamlakat iqtisodiyotining pul bilan ta’minlanish darajasi tushuniladi. Ushbu ilmiy maqolada mamlakat iqtisodiyotida monetizatsiya darajasining ahamiyati, monetizatsiya koeffitsiyentini aniqlash yo‘li hamda O‘zbekistonda 2017–2023-yillarda koeffitsiyentlari hisoblangan. Korrelyatsiya usuli bilan monetizatsiya darajasining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlariga, xususan, inflatsiya, ishsizlik darajasi va mamlakatning YaIMga ta’siri o‘rganildi va tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha umumiy xulosalar qilingan va mamlakat makroiqtisodiyy ko‘rsatkich indikatorlarini muvofiqlashtirishda monetizatsiya darajasidan foydalanish takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Monetizatsiya darajasi, monetizatsiya koeffitsiyenti, pul agregati, pul massasi, korrelyatsiya, Chedok shkalasi, inflatsiya, ishsizlik darajasi, YaIM.

Abstract: One of the indicators that determine the effectiveness of the economy is the level of monetization of the economy. The degree of monetization of the economy is understood as the degree of monetary supply of the country’s economy. This scientific article calculates the importance of the level of monetization in the country’s economy, the way to determine the monetization coefficient, and the coefficients in Uzbekistan in 2017 - 2023. With the correlation method, the effect of monetization on macroeconomic indicators, in particular, on inflation, unemployment rate and the country’s GDP, was studied and analyzed. General conclusions have been made on the results of the study, and proposals have been made to use the level of monetization in the coordination of the macroeconomic indicators of the country.

Key words: Monetization rate, monetization coefficient, monetary aggregate, money mass, correlation, Chedok scale, inflation, unemployment rate, GDP.

Аннотация: Одним из показателей, определяющих эффективность экономики, является уровень монетизации экономики. Под уровнем монетизации экономики понимается уровень денежной обеспеченности экономики страны. В данной научной статье рассмотрен значение уровня монетизации в экономике страны, пути определения коэффициента монетизации, а также расчитан коэффициент в Узбекистане в 2017 - 2023 годах. Методом корреляции изучалось и анализировалось влияние уровня монетизации на макроэкономические показатели, в частности, инфляцию, уровень безработицы и ВВП страны. По результатам исследования сделаны общие выводы и даны предложения по использованию уровня монетизации в координации показателей макроэкономического показателя страны.

Ключевые слова: Уровень монетизации, коэффициент монетизации, денежный агрегат, денежная масса, корреляция, шкала Чеддока, инфляция, уровень безработицы, ВВП.

KIRISH

Ma’lumki, iqtisodiyot subyektlarini balanslashgan hajmdagi pul mablag‘lari bilan ta’minlash (monetizasiya) iqtisodchi olimlarning, tadqiqotchi va mutaxassislarning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Ushbu muammoning samarali yechimi ko‘pchilik hollarda iqtisodiyot subyektlarining pulga bo‘lgan talab va taklif munosabatlarini bozor mexanizmlari asosida tashkil qilish va uni tartibga solishni taqozo etadi.

Tadqiqotchilarning tahlillariga ko‘ra, 2020-yilda AQSH iqtisodiyotining monetizasiya darajasi 91.7%ni, Byuk Britaniya – 133.6%, Germaniya – 103%, Fransiya – 118%, Yaponiya – 206.7%, Rossiya – 55%, Xitoy – 215.6%ni tashkil qilgan[1].

1 Svetlana Zenchenko, Wadim Strielkowski, Lubos Smutka, Tomáš Vacek. Monetization of the Economies as a Priority of the New Monetary Policy in the Face of Economic Sanctions. Journal of Risk and Financial Management 15(3):140, March 2022. DOI:10.3390/jrfm15030140

Ushbu ko‘rsatkichlarning yuqori yoki past darajasi yoxud uning me’yoriy ko‘rsatkichi qay darajada bo‘lishi iqtisodchi va tadqiqotchilarning diqqat e’tiboridan chetda qolayotgani yo‘q.

Shuningdek, iqtisodiyotning monetizasiya darajasining samaradorlik jihatlarini, shu jumladan, uning mamlakat yalpi ichki mahsulotini oshirishga, inflyasiyani pasaytirishga, aholi bandligini oshirishga bo‘lgan ta’sirlarini o‘rganish kabi jihatlar ham ushbu iqtisodiy ko‘rsatkich (indikator)ning qay darajada muhim ahamiyat kasb etishini bildiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyot samaradorligini belgovchi ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib iqtisodiyotning monetizatsiya darajasi hisoblanar ekan, ushbu iqtisodiy tushunchaning mazmun va mohiyati bo‘yicha iqtisodiy adabiyotlarda turli ta’riflar berilgan, xususan monetizatsiya – bu:

- tovarlarni muomalada bo‘lish uchun pulni yetarli miqdorda chiqarilishi sifatida belgilanadi[2];
- iqtisodiyotni to‘lovlar va hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur pul miqdori bilan to‘ldirish jarayoni[3];
- milliy xo‘jalikni pul mablag‘lari bilan ta’minlash darajasi[4];
- iqtisodiyotni pul bilan ta’minlash darajasini tavsiflovchi makroiqtisodiy ko‘rsatkich[5] va hok.

Bizning fikrimizcha, monetizatsiya bu makroiqtisodiy ko‘rsatkich bo‘lib, iqtisodiyotda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ularni ayirboshlash uchun yetarli darajada pul va unga tenglashtirilgan likvid aktivlar bilan ta’minlanish jarayonini, darajasini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni bajarish jarayonida umumlashtirish, guruhlash, tahlilning mantiqiy va taqoslama usullari, statistik tahlilning korrelyatsiya usuli, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, tanlama adabiyotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotda monetizatsiya darajasi monetizatsiya koeffitsiyenti bilan aniqlanadi. Monetizatsiya koeffitsiyenti pul massasining (M2 jami - naqd pul, cheklar, talab qilib olinmagan depozitlar va korxonalar va aholining banklardagi naqd pul depozitlari) yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbatiga teng ko‘rsatkichdir. Bu ko‘rsatkich, iqtisodiyotning pul bilan ta’minlanganlik darajasi haqida tasavvurni beradi:

$$K = M2/YaIM \quad (1)$$

Bu yerda:

K – monetizatsiya koeffitsiyenti;

M2 – pul agregati (pul massasi);

YaIM – yalpi ichki mahsulot.

M2 pul agregati o‘z ichiga M0 va M1 pul agergatlarini qamrab oladi. Bundan kelib chiqadiki, mamlakatning monetizatsiya darajasini aniqlashda qaysi komponent hisobidan monetizatsiya darajasi o‘sgan yoki pasayganini tahlil qilish imkonini beradi.

Moliya bozori rivojlangan va naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi to‘liq raqamlashgan davlatlarda monetizasiya darajasi M3 (M2+ ikki yilgacha muddatga kelishilgan depozitlarni, uch oygacha bo‘lgan muddatga to‘lanishi mumkin bo‘lgan depozitlarni va repo shartnomalarini, pul bozoridagi fond ulushlari va ikki yilgacha bo‘lgan qarz qimmatli qog‘ozlarni o‘z ichiga oladi) va/yoki M4 (naqd puldan holi) pul massasining yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbati bo‘yicha ham aniqlanadi.

Tadqiqotchilar iqtisodiyotning monetizatsiya darajasi rivojlanayotgan mamlakatlarda 10-20%, rivojlangan mamlakatlarda 40-50%larda bo‘lishini qayd etadilar[6] (ushbu fikrga quyida atroflicha to‘xtalib o‘tamiz). Ammo bugungi kunda global miqyosda raqamli texnologiyalar rivojlangan sharoitda ushbu ko‘rsatkich ayrim rivojlangan mamlakatlarda (AQSH, Germaniya, Fransiya, Xitoy va b.) 100-200%dan oshgan bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda (Braziliya, Hindiston, Rossiya, Qozog‘iston va b.) 50-90%ni tashkil qiladi. O‘zbekistonda esa ushbu ko‘rsatkich 2022-yilda 16% ni tashkil qilmoqda[7].

2 Деньги. Кредит. Банки: учеб. пос. – 2–е изд., перераб. и доп. / под ред. В.В. Иванова, Б.И. Соколова. – М.: ТК Велби, Изд–во Проспект, 2009. – 848 с


3 Кравцова, Г.И. Деньги, кредит, банки / Г.И. Кравцова. – Минск: БГЭУ, 2007. – 448 с

4 Лопатников Л.И. Экономико–математический словарь: Словарь современной экономической науки / Л.И. Лопатников. – 5–е изд., перераб. и доп. – М.: Дело, 2003. – 520 с.

5 Арбузов, С.Г. Банківська енциклопедія / С.Г. Арбузов, Ю.В. Колобов, В.І. Міщенко, С.В. Науменкова. – К.: Центр наукових досліджень Національного банку України: Знання, 2011. – 504 с. – URL: http://www.bank.gov.ua/doccatalog/document?id=112997

6 G.Chandavarkar Anand. Monetization of Developing Economies. IMF Paper work. 1977.


7 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari (https://cbu.uz/uz/statistics/buleten/?year)



1-jadval: 2017-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining pul bilan ta’minlanish (monetizatsiya) darajasi ko‘rsatkichlari[8]

Yillar	Pul massasi (M2), trln. so‘m	YalM, trln.so‘m	Monetizatsiya darajasi (%da)	Monetizatsiya darajasining o‘zgarishi (%da)
1	2	3	4=2/3*100%	5
2017	70,816	318,00	15,8	-
2018	80,165	426,64	16,6	+ 1,8
2019	91,266	532,71	15,1	- 0,5
2020	107,604	605,51	15,1	0
2021	140,184	738,42	14,6	- 0,5
2022	189,085	888,34	15,8	+ 1,2
2023*	210,505	1029,91	20,4	+ 4,6

* prognoz ko‘rsatkichlar



1-rasm: 2017-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasining YaIM, pul massasi (M2) va monetizatsiya darajasi ko‘rsatkichlari[9]

8 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.
9 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. Manba: https://cbu.uz/uz/statistics/buleten/?-year

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda 2017-2023-yillar davomida iqtisodiyotni pul bilan ta’minlash, ya’ni monetizatsiya darajasi 14,6-20,4 chegarasida bo‘lgan. 2017 va 2018-yillarda monetizatsiya ko‘rsatkichi biroz o‘sib brogan bo‘lsa, 2019-yildan 2021-yilgacha ushbu ko‘rsatkich pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bunga mamlakatimizda shu davrda qat’iy monetar siyosat olib borilgnligi, moliyaviy bozorlar faoliyatida yuqori risk darajasi yuzaga kelganligi va Covid–19 pandemiyasini sabab qilib olish mumkin. 2022-yildan boshlab esa iqtisodiy faollik jadallashganligi, investisiyalar, shu jumladan tashqi investisiyalar oqimining ortganligi va moliyaviy bozorlar faoliyatida o‘rtacha risk darajalari yuzaga kelganligi bois iqtisodiyotning monetizatsiya darajasi tezlashib 2023-yil oxiriga kelib 20,4%ga yetishi prognoz qilinmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekistonda monetizatsiya darajasi dinamikasi ijobiy o‘sish tendentsiyaga ega va uni yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Ammo yuqorida qayd etib o‘tilganidek, iqtisodiyotda monetizasiya darajasining oshishi yoki kamayishi mamlakat Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan maqsadli pul-kredit siyosatiga bog‘liq.

Markaziy bank Boshqaruvining 2023-yil 26-oktyabridagi yig’ilishida “Pul-kredit siyosatining 2024-yil va 2025-2026-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari”ga bag‘ishlangan yig‘ilishida iqtisodiyotdagi inflyatsion jarayonlar va kutilmalar biroz tezlashganligi sababli qat’iy pul-kredit siyosati davom ettirilishi hamda amaldagi asosiy stavka o‘zgarmasligi haqida qaror qildi10. Ushbu qaror o‘z navbatida iqtisodiyotda monetizasiya darajasini keskin oshirmaslik, yil oxirigacha inflatsiyaning prognoz ko‘rsatkichlarini (8,5–9,5 foiz) saqlash, 2023-yilga reja qilingan 5 foizlik inflyatsion targetga erishish muddatini uzaytirish chora-tadbirlarini ham qamrab olgan[11].

2-jadval: 2017-2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasining pul massasining hajmi (trln. so‘m hisobida)[12]

Yillar	Pul massasi (M2) hajmi, trln. so‘m	Pul massasining o‘sishi (%da) 2017 = 100%	Pul massasining o‘sish sur’ati (%da)	Pul massasining qo‘shimcha o‘sish sur’ati (%da)
			oldingi yilga nisbatan	
2017	70,816	100,0	140,9	40,9
2018	80,165	113,2	113,2	13,2
2019	91,266	128,9	113,8	13,8
2020	107,604	151,9	117,6	17,6
2021	140,184	197,9	130,3	30,3
2022	189,085	267,0	134,9	34,9
2023*	210,505	297,3	111,3	11,3

* prognoz ko‘rsatkichlar

Mazkur jadval ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2017-2023-yillarda M2 pul massasi 2,7 baravarga ko‘paygan bo‘lsa, eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichlari 2017 (40,9%) va 2022-yillarda (34,9%) yuz bergan. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida inflyasiya darajasining 2017-yildagi 18,8% dan 2022-yildagi 12,3% gacha pasayganligidir. Shuningdek, YIM hajmining 2017-yildagi 318,0 trln. so‘mdan 2022-yilga kelib 888,34 trln. so‘mga yoki qariyib 3 baravarga, pandemiya davrida (2019-2020) esa pul massasi o‘rtacha 15,7% ga oshganligidir.

3-jadval: O‘zbekistonda 2017–2023-yillarda M2 pul agregati hajmi tarkibining o‘zgarish dinamikasi, (trln. so‘m hisobida)[13]

Yillar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
M0	13,209	19,449	22,164	24,246	24,920	28,657	42,206
M1	57,607	60,616	69,102	83,358	115,264	160,428	168,299
M2	70,816	80,165	91,266	107,604	140,184	189,085	210,505

10 Markaziy bank Boshqaruvining 2023-yil 26-oktyabridagi yig’ilishida “Pul-kredit siyosatining 2024-yil va 2025–2026-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari”. https://cbu.uz/oz/press_center/releases/1451705/

11 Markaziy bank Boshqaruvining 2023 yil 26 oktyabridagi yig‘ilishida “Pul-kredit siyosatining 2024-yil va 2025–2026-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari”. https://cbu.uz/oz/press_center/releases/1451705/

12 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. Manba: https://cbu.uz/uz/statistics/buleten/?-year

13 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. Manba: https://cbu.uz/uz/statistics/buleten/?-year

Iqtisodiyotning monetizasiya darajasini M2 pul massasining agregatlari (M0 va M1) kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, naqd pul massasi (M0) 2017-2023-yillar davomida o‘rtacha 28,997 trln. so‘mga oshgan bo‘lsa, naqd pulsiz massa (M1) 110,622 trln. so‘mga oshgan. Naqd pulning hajmi 3,2 va naqd bo‘lmagan pul massasi 2,9 barobarga ko‘payishining asosiy sabablari bu shu davrdagi YaIM hajmining o‘sishi, pulga bo‘lgan talabning ko‘payishi, xususan, mamlakat hududida aholiga qulaylik yaratishda bankomatlarning uzluksiz ishlashini ta’minlash maqsadida naqd pul massasini oshirilishi kuzatilgan.

Yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, iqtisodchilar iqtisodiyotning monetizatsiya darajasi me’yori haqida turlicha fikrlarga ega, an’anaviy va raqamli iqtisodiyot sharoiti (raqamli texnologiyalar rivojlanmagan sharoit nazarda tutilyapti) hamda pul agregatlarining tarkibi (M0, M1, M2, M3, M4)ga ko‘ra iqtisodiyotning monetizasiya ko‘rsatkichi muayyan darajada me’yorlashtirilishi naqd pul, naqd pulsiz yoki boshqa unga tenglashtirilgan likvid mablag‘larning tovar va xizmatlar bilan ta’minlanmaganligi natijasida yuzaga keladigan inflyasion kutilmalar, iqtisodiy o‘sish, investisiya va ish bilan bandlik masalalarini tadqiq va tahlil qilishni dolzarb masalalarga aylantiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda iqtisodiyotning monetizasiya darajasini ayrim makroiqtisodiy ko‘satkichlar (YaIM, inflyasiya, ishsizlik darajasi)ga bo‘lgan ta’sirini tahlil qilib chiqishga harakat qilamiz.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) – ma’lum vaqt davomida, masalan, bir yilda shu mamlakat hududidagi barcha korxonalarda yaratilgan shu mamlakat taraqqiyoti va aholisi faravonligi yo‘lida foydalanadigan, bevosita iste‘molchilarga borib yetadigan tayyor mahsulot va ko‘rsatilgan xizmatlar yig‘indisidan iboratdir[14].

Mamlakat iqtisodiyoti so‘nggi yillarda (2017-2023 yy.) barqaror iqtisodiy o‘sish suratlarini saqlab qolmoqda (3-jadvalga qarang), bu esa o‘z navbatida iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini tezlashtirmoqda:

4-jadval: 2017-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasining YaIM ko‘rsatkichi[15]

Yillar	YaIM hajmi. trln. so‘m	YaIM deflyatori (%da)	YaIM qo‘shimcha o‘sish sur’ati (%da)
2017	318,00	19,1	4,4
2018	426,64	27,0	5,6
2019	532,71	17,8	6,0
2020	605,51	11,4	2,0
2021	738,42	13,5	7,4
2022	888,34	13,8	5,7
2023	1029,91	10,0	5,4

2-rasm: 2017-2023-yillarda O‘zbekistonda YaIM va M2 ko‘rsatkichlarining qo‘shimcha o‘sish sur‘atlari (%da)

Korrelyatsion tahlil metodidan foydalangan holda monetizatsiya darajasining YaIMga qanday bog‘langanligini aniqlashimiz mumkin. Buning uchun esa Pirson koeffitsiyentidan foydalanib, ko‘rsatkichlar o‘rtasida bog‘lanish tasniflari va zichligini aniqlaymiz hamda determinatsiya koeffitsiyentini hisoblab chiqamiz.

Pirson koeffitsiyentini (chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyenti) quyidagi formula orqali aniqlashimiz mumkin:

$$r_{xy} = \frac{\overline{xy} - \bar{x} * \bar{y}}{\sigma_{x^*}\,\sigma_y} \quad (2)$$

Bu yerda r_{xy} – korrelyatsiya koeffitsiyenti;

$\overline{xy}$ - o‘rganilayotgan belgilarning o‘rtacha ko‘paytirmasi;

$\bar{x}$ - “$\bar{x}$” belgining o‘rtacha qiymati;

ȳ - “ȳ” belgining o‘rtacha qiymati.

Korrelyatsiya koeffitsiyenti - 1 ≤ r ≤ +1 chegarasida bo‘ladi. Modul bo‘yicha birlikka qanchalik yaqin bo‘lsa, chiziqli korrelyatsion bog‘liqlik shunchalik yuqori bo‘ladi, nuqtalar to‘g‘ri chiziqqa qanchalik yaqin joylashsa, chiziqli model shunchalik to‘g‘ri va ishonchli bo‘ladi. Agar r = - 1 yoki r = + 1 teng bo‘lsa bu qat’iy chiziqli bog‘liqlik mavjudligi to‘g‘risida dalolat beradi, bunda barcha empirik nuqtalar qurilgan to‘g‘ri chiziqda joylashgan bo‘ladi. Va aksincha, r nolga qanchalik yaqin bo‘lsa, nuqtalar shunchalik tarqaladi, chiziqli bog‘liqlik kamroq ifodalanadi.

Chiziqli bog‘lanish darajasini baholash uchun Cheddok shkalasidan foydalanamiz.

14 Sh.Shodmonov, M. Rahmatov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Zamin nashr”, 2021.- 458-bet.

15 O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2

5-jadval: Cheddok shkalasi[16]

r - qiymatlar diapazoni	“y” ni “x” dan korrelyatsion bog‘liqligi
0 – 0,1	bog‘liq emas
0,1 – 0,3	sezilarsiz
0,3 – 0,5	o‘rtacha
0,5 – 0,7	sezilarli
0,7 – 0,9	kuchli
0,9 – 0,99	juda kuchli
0,99 - 1	funksional

Bunda r < 1, teskari bog‘lanish kuzatiladi va r > 1 to‘g‘ri bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatadi.

Determinatsiya koeffitsiyenti bizga o‘zgarish belgisi natijaviy belgiga qanday ta’sir etganini ifodalab beradi. Determinatsiya koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

$$R = r^2 \quad (3)$$

Bu yerda R – determinatsiya koeffitsiyenti;
r – korrelyatsiya koeffitsiyenti.

Yuqorida keltrilgan yondashuv bo‘yicha mamlakatimizda monetizatsiya koeffitsiyentining o‘zgarishini ishsizlik, inflatsiya darajasi va YaIM ko‘rsatkichlariga ta‘sirini o‘rganamiz.

Mamlakatda ishsizlik darajasini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$I_d = n / M_r * 100\% \quad (4)$$

Bu yerda: I_d – ishsizlik darajasi, %;
n – ishsizlar soni, kishi;
M_r – ishga layoqatli aholi qismi, kishi17.

6-jadval: 2017-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida ishsizlik darajasi ko‘rsatkichlari[18]


Yillar	Iqtisodiy faol aholi, ming kishi	Ishsizlar, ming kishi	Ishsizlik darajasi (%da)	Ishsizlik darajasining o‘zgarishi
2017	14357,3	837,0	5,8	↑
2018	14641,7	1368,6	9,3	↑
2019	14876,4	1335,3	9,0	↓
2020	14797,4	1561,0	10,6	↑
2021	14980,7	1441,8	9,6	↓
2022	15038,9	1332,7	8,9	↓
2023*	15162,4	1318,5	8,4	↓

* prognoz ko‘rsatkichlar.[19]

Monetizatsiya koeffitsiyent hamda ishsizlik darajasi o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlashda korrelyatsiya koeffitsiyentidan foydalanamiz. Korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash orqali -0,21647 natijani berdi. Natija shuni ko‘rsatmoqdaki, monetizatsiya koeffitsiyenti va ishsizlik darajasi o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjudligini va bu bog‘lanish mezonlarga asosan sezilarsiz.

Yuqoridagi rasm ishsizlik darjasining monetizatsiya koeffitsiyentiga bog‘liqligini grafik talqinidir. Grafik ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, monetizatsiya darajasi va ishsizlik ko‘rsatkichlari o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ular o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti sezilarsizdir. Determinatsiya koeffitsiyenti 0,04685 teng. Ko‘rib chiqilgan metod bo‘yicha ishsizlik darajasining ko‘rsatkichi 4,7 % moneti-zatsiyaga bog‘liq bo‘lsa, qolgan qismi boshqa omillar o‘zgarishi hisobiga ro‘y beradi.

16 http://mathprofi.ru/linejnyj_koefficient_korrelyacii.html
17 A. O‘lmasov, A.V. Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 272 – bet
18 O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2
19 https://dunyo.news/uz/news/gazeta-khvzh-2023-yilda-uzbekiston-yaim-usishi-prognozini-yakhshiladi-6526c7caa7da5



3-rasm: Ishsizlik darajasining monetizasiya koeffitsiyentiga bog‘liqligi


Endi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik inflatsiya ma‘lumotlariga tayanib monetizatsiya darajasi va inflatsiya o‘rtasida bog‘lanishni tahlil qilamiz (5-jadval).

7-jadval: 2017-2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasida inflatsiya darajasi[20]

Yillar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023*
Inflatsiya darajasi, %	18,8	14,3	15,2	11,1	10,0	12,3	9,5

*prognoz ko‘rsatkichi[21]

Olib borilgan hisob-kitoblar shuni ko‘rsatmoqdaki, monetizatsiya va inflatsiya ko‘rsatkichlari o‘rtasida teskari aloqa borligini va korrelyatsiya koeffitsiyenti - 0,30204 ga teng. Bu natija monetizatsiya darajasi va inflatsiya o‘rtasida bog‘lanish tasnifiga asosan o‘rtachadir. Buni grafik talqinini quyidagi 4-rasmda ko‘rishimiz mumkin.




4-rasm: Inflatsiyaning monetizatsiya darajasiga bog‘liqligi

Keltirilgan grafikdan ko‘rinib turibdiki nuqtalar unchalik tarqoq emas, trend chizig‘i o‘rtasida joylashgan. Bu yuqoridagi xulosamizni isbotlab bermoqda. Mamlakatimizda monetizatsiya darajasi o‘sgan sari inflatsiya darajasi pasayib bormoqda, bu ijobiy tendentsiya. Determinatsiya koeffitsiyenti bunda 0,0912 ni tashkil qildi, yani inflatsiyaning o‘zgarishi 9,1% monetizatsiya hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Ishsizlik, inflatsiya ko‘rsatkichlari singari mamlakatning YaIM ko‘rsatkichi makroiqtisodiy indikatorlaridan biridir. YaIM ko‘rsatkichiga shakllanishiga bir nechta omillar ta‘sir qiladi. Bu omillarni ikki guruhga ajratishimiz mumkin bu ichki va tashqi omillar. Shuning uchun birgina monetizatsiya darajasi ta‘sir qilishi bunda xato bo‘ladi. Abstraktsiya metodidan foydalanib monetizatsiya va YaIM ko‘rsatkichlarini tahliliga kirishamiz. Buning uchun 2-jadval ma‘lumotlaridan foydalanamiz.

20 https://cbu.uz/uz/monetary-policy/annual-inflation/indicators/
21 https://www.spot.uz/oz/2022/10/27/inflation/



5-rasm: YaIM ko‘rsatkichining monetizatsiya darajasiga bog‘liqligi

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki YaIM va monetizatsiya darajasi o‘rtasida to‘g‘ri bog‘lanish mavjud. Korrelyatsiya koeffitsiyenti esa 0,53003 ga teng, ya‘ni bu ikki ko‘rsatkich o‘rtasida sezilarli bog‘lanish bor. Monetizatsiya darajasining o‘sishi mamlakatning YaIM ko‘rsatkichiga sezlarli darajada ta‘sir qilib uni o‘sishini ta‘minlaydi. Determinatsiya koeffitsiyenti natijada 0,2809 ga teng bo‘lib, monetizatsiyaning YaIM ko‘rsatkichidagi hissasi 28,1 % ni belgilab berdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar natijalari bo‘yicha xulosa qiladigan bo‘lsak monetizatsiya darajasining o‘zgarishi makrodarajada mamlakatimizda ishsizlik darajasiga nisbatan teskari bo‘lib, sezilasiz darajada ta‘sir qiladi, inflatsiya ko‘rsatkichiga ham teskari aloqada bo‘lib uning ta‘siri o‘rtachadir. Lekin YaIM ko‘rsatkichi va monetizatsiya darajasi o‘rtasida to‘g‘ri bog‘lanish mavjud bo‘lib sezilarli darajada ta‘sir kuchiga ega.

Xulosa qilib aytganda, monetizatsiya darajasining o‘zgarishi ishsizlik ko‘rsatkichi o‘zgarishiga deyarli ta‘sir qilmaydi, ya‘ni ishsizlik darajasini muvofiqlashtirish uchun bu ko‘rsatkichni hisobga olmasligimiz mumkin. Lekin inflatsiya darajasini kamaytirishga va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashda YaIM ko‘rsatkichini oshirib borishga monetizatsiya ko‘rsatkichlaridan foydalanishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Svetlana Zenchenko, Wadim Strielkowski, Lubos Smutka, Tomáš Vacek. Monetization of the Economies as a Priority of the New Monetary Policy in the Face of Economic Sanctions. Journal of Risk and Financial Management 15(3):140, March 2022. DOI:10.3390/jrfm15030140
2. Деньги. Кредит. Банки: учеб. пос. – 2–е изд., перераб. и доп. / под ред. В.В. Иванова, Б.И. Соколова. – М.: ТК Велби, Изд–во Проспект, 2009. – 848 с.
3. Кравцова, Г.И. Деньги, кредит, банки / Г.И. Кравцова. – Минск: БГЭУ, 2007. – 448 с.
4. Лопатников Л.И. Экономико–математический словарь: Словарь современной экономической науки / Л.И. Лопатников. – 5–е изд., перераб. и доп. – М.: Дело, 2003. – 520 с.
5. Арбузов, С.Г. Банківська енциклопедія / С.Г. Арбузов, Ю.В. Колобов, В.І. Міщенко, С.В. Науменкова. – К.: Центр наукових досліджень Національного банку України: Знання, 2011. – 504 с. – URL: http://www.bank.gov.ua/doccatalog/document?id=112997
6. G.Chandavarkar Anand. Monetization of Developing Economies. IMF Paper work. 1977.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari (https://cbu.uz/uz/statistics/buleten/?year
8. Markaziy bank Boshqaruvining 2023-yil 26-oktyabridagi yig’ilishida “Pul-kredit siyosatining 2024 yil va 2025–2026-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari”. https://cbu.uz/oz/press_center/releases/1451705
9. Sh.Shodmonov, M. Rahmatov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Zamin nashr”, 2021.–458 bet.
10. O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2
11. http://mathprofi.ru/linejnyj_koefficient_korrelyacii. html
12. A. O‘lmasov, A.V. Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 272-bet.
13. O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari. www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2
14. https://dunyo.news/uz/news/gazeta-khvzh-2023-yilda-uzbekiston-yaim-usishi-prognozini-yakhshiladi-6526c7caa7da5
15. https://cbu.uz/uz/monetary-policy/annual-inflation/indicators/
16. https://www.spot.uz/oz/2022/10/27/inflation/

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF BOND CIRCULATION IN THE CAPITAL MARKET

Jurabek Sobirov
Scientific Researcher, Acting Director of LLC “Freedom Finance”

Abstract: This article explores the prospects for enhancing bond market development in developing economies. It delves into the significance of bond markets, examines global experiences, and provides tailored recommendations to address challenges and leverage opportunities. By focusing on regulatory frameworks, market infrastructure, investor education, and government leadership, this article aims to guide developing countries in nurturing vibrant bond markets. These markets hold the potential to mobilize capital, promote economic diversification, ensure financial stability, and facilitate critical infrastructure financing.

Key words: Bond market development, developing economies, regulatory frameworks, market infrastructure, investor education, government leadership.

Annotatsiya: Ushbu maqola rivojlanayotgan mamlakatlarda obligatsiyalar bozorini rivojlantirish istiqbollarini o‘rganadi. U obligatsiyalar bozorlarining ahamiyatini o‘rganadi, global tajribalarni o‘rganadi va muammolarni hal qilish va imkoniyatlardan foydalanish uchun moslashtirilgan tavsiyalar beradi. Normativ-huquqiy baza, bozor infratuzilmasi va investorlar ta’limiga e’tibor qaratgan holda, ushbu maqola rivojlanayotgan mamlakatlarga obligatsiyalar bozorlarini rivojlantirishda yo‘l ko‘rsatishga qaratilgan. Ushbu bozorlar kapitalni safarbar qilish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishni rag‘batlantirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va muhim infratuzilmani moliyalashtirishni osonlashtirish uchun salohiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Obligatsiyalar bozorini rivojlantirish, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar, me’yoriy-huquqiy bazalar, bozor infratuzilmasi, investorlar ta’limi.

Аннотация: Данный статья исследует перспективы развития рынка облигаций в развивающихся странах. Она рассматривает значение рынков облигаций, анализирует мировой опыт и предлагает индивидуальные рекомендации по преодолению вызовов и использованию возможностей. С акцентом на регуляторных рамках, инфраструктуре рынка, финансовой грамотности инвесторов и руководящей роли правительства данная статья стремится помочь развивающимся странам создать живые рынки облигаций. Эти рынки могут стать инструментом мобилизации капитала, содействовать экономической диверсификации, обеспечивать финансовую стабильность и облегчать финансирование важной инфраструктуры.

Ключевые слова: Развитие рынка облигаций, развивающиеся страны, регуляторные рамки, инфраструктура рынка, финансовая грамотность, руководящая роль правительства.

INTRODUCTION

The capital market is the lifeblood of any economy, serving as a primary channel for the allocation of financial resources. Within this multifaceted financial landscape, the circulation of bonds holds a pivotal position. Bonds, as debt securities issued by governments and corporations, serve as instruments to raise capital for diverse purposes, ranging from financing large-scale infrastructure projects to addressing budgetary needs and stimulating business expansion. The development and growth of bond circulation within the capital market are not only indicators of a country’s economic maturity but also significant contributors to its financial stability and sustainable growth.

A well-developed bond market boasts several advantages that go beyond mere financial transactions. It acts as a catalyst for long-term investments, reducing dependence on short-term bank loans that often lead to maturity mismatches and financial instability. Furthermore, a thriving bond market provides a valuable benchmark for interest rates, influencing lending and borrowing conditions throughout the broader financial system. Thus, it is essential to recognize the profound importance of bond circulation in the capital market and the transformative potential it holds for economic prosperity.

This article delves into the compelling prospects for the advancement of bond circulation within the capital market. It aims to shed light on the significance of bond markets, drawing inspiration from global experiences and insights into strategies that can be applied to Uzbekistan's unique economic context. By exploring the nuances of bond market development and offering strategic recommendations, we seek to provide a comprehensive roadmap for Uzbekistan's journey towards fostering a robust bond market. Such a market not only aids in capital mobilization but also paves the way for critical infrastructure development and economic diversification, steering the nation toward sustainable growth and financial resilience.

LITERATURE REVIEW

Bond markets, as integral components of capital markets, play a pivotal role in the financial landscape of economies worldwide.

Bond markets have been recognized for their significance in economic development. Galindo and Panizza (2019) emphasize that well-functioning bond markets provide long-term financing for governments and corporations, reducing the vulnerability associated with short-term financing. They serve as a stabilizing force by enabling the diversification of funding sources.

Developed countries have established robust bond markets that serve as the backbone of their financial systems. Countries like the United States and the United Kingdom showcase the potential of deep and liquid bond markets. Tobin (2017) highlights the diversity of bonds available in these markets, including government bonds, corporate bonds, and municipal bonds.

Developing economies have also recognized the benefits of nurturing bond markets. India and Brazil serve as case studies of emerging economies successfully developing their bond markets. Prasad and Rajan (2016) note that these markets attract foreign investments, fund critical infrastructure projects, and facilitate economic growth.

Bond markets play a crucial role in maintaining financial stability. Gennaioli, Shleifer, and Vishny (2012) argue that deep and liquid bond markets can help mitigate systemic risks by providing an alternative investment avenue during crises. They emphasize that the availability of safe assets in bond markets can reduce the likelihood of financial panics.

Bond markets are instrumental in financing critical infrastructure projects. Lee, Sumitro, and Vasoya (2018) discuss the role of municipal bonds in infrastructure financing. They argue that well-structured municipal bonds can attract local investments and address urban development needs efficiently.

Emerging markets stand to gain substantially from the development of bond markets. Gupta, Mishra, and Sahay (2018) emphasize that deepening bond markets can enhance access to long-term finance, reduce currency and maturity mismatches, and attract foreign investors, contributing to economic stability.

Market liquidity is a critical aspect of bond markets. Schmitt-Grohé and Uribe (2017) discuss the role of liquidity in bond market development. They argue that enhancing liquidity through market makers and trading platforms can promote active participation and attract investors.

ANALYSIS AND RESULTS

In the context of developing countries, the development of bond circulation in capital markets presents both opportunities and challenges. This section provides a comprehensive analysis of the current state of bond markets in developing countries, identifies shortcomings, and offers viable solutions.

Table 1: Shortcomings in Developing Countries

Shortcomings	Solutions
Limited investor awareness and education	Introduce financial literacy programs to educate potential investors about the benefits and risks of bond market participation.
Insufficient market infrastructure	Develop modern trading platforms and establish market-making mechanisms to enhance liquidity and market efficiency.
Regulatory constraints	Streamline regulations to facilitate bond issuances, trading, and investor protection. Provide clear guidelines and reduce bureaucratic hurdles.
Limited diversification of bond offerings	Encourage the issuance of various types of bonds, such as corporate bonds and municipal bonds, to diversify investment options.
Weak credit rating agencies	Strengthen credit rating agencies' capabilities to assess issuers and provide accurate risk assessments, promoting investor confidence.

Source: Developed by the author

The identified shortcomings in developing countries' bond markets underscore the need for comprehensive reforms. Solutions such as financial literacy programs, improved infrastructure, and streamlined regulations aim to create a conducive environment for bond market growth.

Table 2: The Role of Government Leadership

Shortcomings	Solutions
Lack of benchmark bonds	Government can take the lead by issuing benchmark bonds, setting market standards, and demonstrating a commitment to bond market development.
Inadequate market depth	Government participation can enhance market depth by ensuring a stable supply of bonds and attracting investors' attention.
Reduced market volatility	Government intervention can help stabilize the market during times of crisis, providing stability to investors.
Increased market transparency	Government actions can promote transparency, improving investor confidence and reducing information asymmetry.

Source: Developed by the author

Government leadership can address various shortcomings by setting benchmarks, increasing market depth, and ensuring transparency. These actions can instill investor confidence and contribute to the overall growth of the bond market.

Table 3: Benefits of Bond Market Development in Developing Countries

Benefits	Implications
Capital mobilization	Attract domestic and international investments, allowing governments to fund critical projects and reduce reliance on bank loans.
Economic diversification	Encourage the expansion of the corporate sector, creating employment opportunities and fostering economic diversification.
Enhanced financial stability	Mitigate systemic risks by providing an alternative investment avenue during crises, reducing the likelihood of financial panics.
Infrastructure financing	Support infrastructure development through municipal bonds, addressing urban development needs efficiently.

Source: Developed by the author

Bond market development in developing countries can unlock capital for critical projects, stimulate economic diversification, enhance financial stability, and facilitate infrastructure financing. These benefits underline the importance of nurturing bond markets in these regions.

These tables provide a structured overview of the shortcomings and potential solutions for developing countries in their efforts to develop bond markets. Government leadership, market infrastructure, and investor education are critical components of fostering robust bond markets in these economies. Bond market development has the potential to catalyze economic growth, stability, and infrastructure development in developing countries.

RECOMMENDATIONS

Developing bond markets in developing countries is a multifaceted endeavor that requires a strategic approach. These recommendations address critical aspects of market development, investor confidence, and government leadership, all of which are pivotal for the successful development of bond markets in developing economies.

Strengthen Regulatory Framework:

A robust regulatory framework is the cornerstone of a well-functioning bond market. Implementing clear, investor-friendly regulations for bond issuances, trading, and investor protection is paramount. Streamlining regulations and reducing bureaucratic hurdles will encourage issuers and investors to actively participate in the bond market. A transparent regulatory environment instills confidence and facilitates market growth.

Enhance Market Infrastructure:

Modernizing market infrastructure is essential for efficient bond trading. Investing in advanced trading platforms and secondary market development with adequate liquidity is crucial to attract investors. A well-structured secondary market encourages liquidity, facilitates price discovery, and fosters a vibrant bond market ecosystem. This enhancement is central to creating a thriving bond market.

Investor Education:

Educating potential investors about the benefits and risks of bond market participation is fundamental. Launching comprehensive financial literacy programs and campaigns empowers investors with knowledge. When investors are well-informed, they are more likely to participate in the bond market confidently. Investor education is pivotal for expanding market participation and ensuring its sustainability.

Government Leadership:

Government leadership is indispensable in kickstarting bond market development. By issuing benchmark bonds and demonstrating a strong commitment to market growth, governments send positive signals to investors. Such leadership not only sets market standards but also assures both domestic and international investors of the government's dedication to the bond market's success. Government leadership plays a pivotal role in building trust and attracting investments.

CONCLUSION

In a global economy marked by rapid changes and evolving financial landscapes, the development of bond circulation within capital markets is a vital endeavor for developing countries. This article has explored the significance of bond markets, drawn from global experiences, and outlined recommendations tailored to the unique challenges and opportunities faced by these nations.

The recommendations provided offer a roadmap for nurturing robust bond markets in developing economies. By strengthening regulatory frameworks, enhancing market infrastructure, promoting investor education, and demonstrating government leadership, these countries can create an environment conducive to bond market growth. These actions not only bolster market development but also contribute to broader economic objectives.

Developing countries stand to gain substantially from the establishment of thriving bond markets. Capital mobilization, economic diversification, financial stability, and infrastructure financing are among the many benefits that come to fruition. As these countries move forward in their journey to establish and nurture bond markets, they must recognize the pivotal role that these markets play in attracting investments, reducing reliance on short-term financing, and fostering sustainable economic growth.

However, the path to developing robust bond markets is not without its challenges. Overcoming limited investor awareness, addressing regulatory constraints, and building market depth are among the obstacles that require concerted efforts and commitment. But with the right strategies in place, these challenges can be transformed into opportunities.

References:

1. Galindo, A., & Panizza, U. (2019). The Mystery of Saving in Latin America. IDB Working Paper Series, 1146.
2. Tobin, J. (2017). The U.S. Municipal Bond Market: A Gateway to Infrastructure Financing. Brookings Institution Working Papers.
3. Prasad, E., & Rajan, R. G. (2016). A pragmatic approach to capital account liberalization. Journal of Economic Perspectives, 29(3), 149-172.
4. Gennaioli, N., Shleifer, A., & Vishny, R. W. (2012). Neglected risks, financial innovation, and financial fragility. Journal of Financial Economics, 104(3), 452-468.
5. Lee, Y., Sumitro, T., & Vasoya, J. (2018). Infrastructure Financing through Municipal Bonds: A Case Study of Indonesia. Asian Development Bank Economics Working Paper Series, 547.
6. Gupta, S., Mishra, D., & Sahay, R. (2018). Deepening bond markets in emerging economies. International Monetary Fund Staff Discussion Notes, 18(8).
7. Schmitt-Grohé, S., & Uribe, M. (2017). Liquidity traps and monetary policy: managing a credit crunch. Journal of Political Economy, 125(6), 1635-1667.



TA’LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA’LIM MUASSASALARINING RIVOJLANISH HOLATI TAHLILI

Kuldashev Sherzod Alimardonovich
PhD, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligining ahamiyati, raqobatbardoshlikni shakllantirish xususiyatlari va shart-sharoitlari, oliy ta’lim muassasalari rivojlanish holati, oliy ta’lim muassasalarining rivojlanish ko‘rsatkichlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, ta’lim xizmatlari, raqobatbardoshlik, innovatsion, korporativ xamkorlik, ko‘rsatkichlar va tamoyillar.

Abstract: This article examines the importance of the competitiveness of higher education institutions in the market of educational services, the features and conditions of the formation of competitiveness, the state of development of higher education institutions, the indicators of the development of higher education institutions.

Key words: higher education, educational services, competitiveness, innovation, corporate cooperation, indicators and principles.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение конкурентоспособности высших учебных заведений на рынке образовательных услуг, особенности и условия формирования конкурентоспособности, состояние развития высших учебных заведений, показатели развития высших учебных заведений.

Ключевые слова: высшее образование, образовательные услуги, конкурентоспособность, инновации, корпоративное сотрудничество, показатели и принципы.

KIRISH

O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari bozorining rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlarini aniqlash, oliy ta’lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash va ularning munosib ish o‘rinlari bilan bandligini ta’minlash muammolarini tadqiq etish, ta’lim xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning samarali usullarini ishlab chiqish hamda uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga e’tibor tobora kuchayib bormoqda. Ta’lim xizmatlari sohasining rivojlanishi, muntazam o‘sib borayotgan yuqori malakali mutaxassislarga kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish ushbu xizmat turlari bozorida talabning oshishini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “... avvalo ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim” [1], deb ta’kidlagan. Bu vazifalarni hal etishda ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish omillarini aniqlashtirish, raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish, ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash va ta’lim xizmatlari sifatini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomilashtirish va samarali mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishidagi tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish kabi masalalar dolzarb bo‘lib hisoblanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda kam o‘rganilgan. Xususan, G. Axunova [2], V.S.Bajenova [3], M.Q.Pardaev [4], N.Sh.Vatolkina [5], M.A.Lukashenko [6], L.V.Zaxarova [7] kabi olimlar ta’lim xizmatlari, oliy ta’lim tizimiga bag‘ishlab darslik, o‘quv qo‘llanmalar va boshqa o‘quv va ilmiy adabiyotlarni yozganlar. Ammo ushbu asarlarda ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish masalalari atroflicha o‘rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonda iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o‘rganishga dialektik va tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik yondashuv, guruhlash usullari qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotning innovatsion sharoitida ta’lim tizimida yangi innovatsion xizmat turlarini keng joriy qilish, tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish masalasi o‘ta muhim masalalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, bu borada oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini tubdan yangilash va modernizatsiyalash, ularni innovatsion o‘quv va ilmiy-laboratoriya jihozlari bilan ta’minlash, raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlash yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini maqbullashtirish, ta’lim standartlarini takomillashtirish hisobiga ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ilg‘or pedagogik texnologiyalar va innovatsion o‘qitish shakllarini joriy etish, o‘qituvchi kadrlar mehnatini rag‘batlantirishni kuchaytirish asosida iqtisodiyot soha va tarmoqlarida talab qilinadigan oliy ma’lumotga ega mutaxassislarni tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi.

Yangi O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash strategik yo‘nalishlardan biri sifatida yangi uzluksiz ta’lim tizimini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Bunda OTMlarining maqsadlariga asoslangan holda ularning bosh vazifasi talabalarga innovatsion va muammoli masalalarni yecha oladigan oliy ta’lim berishga qaratildi.

OTM tomonidan taqdim qilingan ta’lim xizmatlari sifati davlat organlari tomonidan rasmiy akkreditatsiya bo‘yicha baholash o‘tkazilishi asosida amalga oshiriladi. Ularning bitiruvchilari bilimi natijalari esa ish beruvchi (tadbirkor)lar tomonidan baholanadi. Ammo aytish kerakki, qaysi muhim omillar oliy ta’lim jarayoniga ta’sir etadi? Albatta, bizning fikrimizcha, bu omillarga quyidagilar kiradi:

- oliy ta’lim tizimini moliyalashtirish;
- qulay va zamonaviy ta’lim sharoitlarini yaratish;
- OTMlarning akademik va moliyaviy mustaqilligi va qo‘shimcha pullik ta’lim xizmatlarni ko‘rsatish imkoniyatlarining mavjudligi;
- xususiy oliy ta’lim muassasalarini yaratilishi va rivojlanishi;
- innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etilishi;
- kadrlar tayyorlashning ko‘p darajali tizimini joriy etilishi;
- OTMlarning yuqori rivojlangan tashkiliy-iqtisodiy tarkibining shakllanganligi;
- ta’lim jarayonining yuqori darajada texnik qurollanganlik va boshqalar.

Oliy ta’lim tizimida talabalarning bilimini yuqori darajaga ko‘taruvchi eng muhim resurs ilmiy-pedagogik kadrlar hisoblanadi. Ilmiy-pedagogik kadrlarning malakasi, kasbiy va pedagogik mahorati, kompetensiyasi, ilm-fanni rivojlantirishdagi munosib hissasi kabi bir qator omillar kelgusida OTM bitiruvchilarining bilim va mutaxassislik darajasini oshirish imkonini beradi. Shuning uchun OTM rahbariyati ilmiy-pedagogik kadrlarning rolini oshirish, motivatsiya berish va samarali boshqarish usullarini joriy etishi kerak. Ushbu holat oliy o‘quv yurtlarining deyarli barcha faoliyat ko‘rinishlari bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini barqaror rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda faoliyatni amalga oshirayotgan OTMlari soni 2017-2023-yillarda 191 taga ko‘payib, bu ko‘rsatkich mazkur yillar oralig‘ida 2,7 martaga oshgan. Tahlil qilinayotgan yillarda OTMlarida o‘qiyotgan talabalar soni OTMlar soniga muvofiq ravishda 2017-2018-o‘quv yilida 287,5 mingtadan 2022-2023-o‘quv yilida 1042,1 mingtaga ko‘paygan (1-jadval).

1-jadval: O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalari soni (o‘quv yili boshiga, birlik)[1]

Ko‘rsatkichlar	Yillar						2017-2023-yillarda o‘sish, %
	2017/ 2018	2018/ 2019	2019/ 2020	2020/ 2021	2021/ 2022	2022/ 2023	
Oliy ta’lim muassasalari soni, birlik	72	98	119	127	154	191	2,7 marta
Shu jumladan, xorijiy oliy talim tashkilotlari filiallari	7	9	18	20	25	26	3,7 marta

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ularda talabalar, ming kishi	297,7	360,2	441,0	571,5	808,0	1042,1	3,5 marta
Shu jumladan, bo‘limlarda tahsil olaydiganlar, ming kishi: kunduzgi bo‘limda	287,5	313,0	360,1	441,9	553,4	622,6	2,2 marta
Kechki	-	1,2	7,3	11,5	26,6	37,7	-
sirtqi bo‘limda	10,2	46,0	73,6	118,1	228,0	381,8	37,4 marta
10000 aholiga to‘g‘ri kelaligan talabalar soni, birlikda	93	110	130	165	229	289	3,1 marta
Qabul qilingan talabalar soni, ming kishi	85,7	114,5	138,1	174,9	235,9	282,4	3,3 marta
Shu jumladan bo‘limlarga: kunduzgi bo‘limga	76,7	86,2	111,6	132,7	166,7	196,4	2,6 marta
Kechki	-	-	3,2	6,0	9,0	10,5	-
sirtqi bo‘limga	9,0	28,3	23,3	36,2	60,1	75,5	8,4 marta
Bakalavriatga qabul qilingan talabalar soni, ming kishi	80,8	108,7	128,7	165,0	220,2	275,5	3,4 marta
Shu jumladan: kunduzgi	71,8	80,4	102,5	123,0	151,6	187,8	2,6 марта
Kechki	0,0	0,0	3,1	5,8	8,7	9,4	-
Sirtqi	9,0	28,3	23,1	36,2	59,9	78,3	8,7 marta
Bitirgan mutaxassislar soni, ming kishi	67,4	70,3	70,8	83,9	103,9	102,4	1,5 marta
10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar	21,0	21,5	21,0	24,0	29,6	29,5	1,4 marta

tani, 2022-2023-o‘quv yilida 622,6 mingtani tashkil qilgan. Ta’limning kechki bo‘limiga talabalarning qabuli 2018-2019-o‘quv yilidan boshlanib, bu ko‘rsatkich 2022-2023-o‘quv yilida 37,7 mingtani tashkil qilmoqda. Shuningdek, oliy ta’limning sirtqi ta’lim shakli bo‘yicha o‘qiyotganlar soni 2017-2018 o‘quv yilida bor-yo‘g‘i 10,2 talaba o‘qiyotgan bo‘lsa, 2022-2023-o‘quv yilda bu ko‘rsatkich 381,8 mingtaga ko‘paygan. Respublika miqyosida har 10000 aholiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni 2017-2018-o‘quv yilida 93 tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich muntazam o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2022-2023-o‘quv yilida 289 tani tashkil qilgan. Tahliliy ko‘rsatkichlarga nazar solsak, 2017-2018-yillarda OTMlarga 85,7 mingta talaba qabul qilingan bo‘lsa, 2022-2023-o‘quv yilida 282,4 ming kishiga, ya’ni tahlil etilayotgan yillarda 3,3 martaga ko‘paygan. Shundan kunduzgi bo‘limga qabul qilingan talabalar soni 2,6 martaga oshgan. Mamlakatimizda har 10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar soni 40,5 %ga o‘sgan (2-jadval).

2-jadval: O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan universitetlar soni(o‘quv yili boshiga, birlik)[2]

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar					2017-2022-yillarda o‘sish, %
		2017/ 2018	2018/ 2019	2019/ 2020	2020/ 2021	2021/ 2022	
1.	Universitetlar soni, birlikda	27	45	58	64	78	2,9 marta
2.	Ulardagi talabalar soni, ming kishi	140,2	192,3	244,0	328,7	461,4	3,6 marta
3.	Qabul qilingan talabalar soni, ming kishi	42,5	66,5	78,5	98,1	120,9	4,1 marta
4.	Bitirgan mutaxassislar soni, ming kishi	33,7	34,7	36,3	46,8	61,1	1,9 marta

Respublika OTMlarining kunduzgi bo‘limlarida tahsil oladigan talabalar soni 2017-2018 o‘quv yilida 287,5 mingRespublikamizda faoliyatini amalga oshirayotgan OTMlari soni 2017/2018-o‘quv yilida 72 ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022/2023-o‘quv yilida 191 tani tashkil qilgan. Universitetlarda tahsil olayotgan talabalar soni ham ushbu o‘quv yillari mobaynida 461,4 ming nafarga, ya’ni 3,6 martaga oshgan. Shuningdek, mazkur yillarda universitetlarga qabul qilingan talabalar soni 4,1 marta va bitirgan mutaxassislar soni 1,9 mingtaga o‘sgan (3-jadval).

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3-jadval: O‘zbekiston Respublikasida hududlar bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari soni (o‘quv yili boshiga, birlik)[3]

Hududlar (viloyatlar) nomi	Yillar						2017-2023-yillarda o‘sish, %
	2017/ 2018	2018/ 2019	2019/ 2020	2020/ 2021	2021/ 2022	2022/ 2023	
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2	6	9	9	10	13	6,5 marta
viloyatlar:							
Andijon	4	4	5	6	8	10	2,5 marta
Buxoro	4	5	5	5	6	9	2,2 marta
Jizzax	2	2	3	3	4	5	2,5 marta
Qashqadaryo	2	3	6	6	6	7	3,5 marta
Navoiy	2	2	2	2	2	5	2,5marta
Namangan	3	3	3	3	3	5	1,7marta
Samarqand	6	8	11	12	14	17	2,8marta
Surxondaryo	1	7	7	7	7	8	8 marta
Sirdaryo	1	1	2	2	2	3	3 marta
Toshkent	2	5	5	8	8	9	4,5 marta
Farg‘ona	3	7	10	10	11	13	4,3 marta
Xorazm	1	3	3	3	6	8	8 marta
Toshkent sh.	39	42	48	51	67	79	2 marta
Respublika bo‘yicha	**72**	**98**	**119**	**127**	**154**	**191**	**2,7 marta**

Oliy ta’lim faqat ijtimoiy zarurat hisoblanmasdan, balki milliy va hududiy darajada mutaxassislar taklifini ham shakllantiradi.

Respublikamizda hududlar bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari soni 2017/2018-o‘quv yilida atiga 72 tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022/2023-o‘quv yilida 191 taga oshgan. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, hududlar bo‘yicha deyarli barchasida OTMlari soni bir necha martaga ko‘paygan. Xususan, Toshkent shahrida – 39 tadan 79 taga, Samarqand viloyatida – 6 tadan 17 taga, Farg‘ona viloyatida – 3 tadan 13 taga oshgan (4-jadval).

Hududlar bo‘yicha yillar kesimida oliy ta’lim muassasalari talabalari soniga nazar solsak, respublikada 2017-2018-o‘quv yilida jami 297,7 mingta talaba OTMlarda tahsil olgan bo‘lsa, 2022-2023-o‘quv yilida esa bu ko‘rsatkich 1042,1 mingtani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan 2017/2018-o‘quv yiliga nisbatan 3,5 martaga oshgan. Mamlakatimiz OTMlarida tahsil olayotgan talabalarning 34,0 %i – Toshkent shahri, 8,1 %i – Samarqand viloyati, 7,5 %i – Farg‘ona viloyati, 5,6 %i – Andijon, 5,5 %i – Qashqadaryo, 5,5 %i – Buxoro, 5,8 %i – Toshkent, 5,0 %i – Namangan, 4,8 %i – Surxondaryo, 3,5 %i – Jizzax, 4,1 %i – Xorazm, 2,9 %i – Navoiy va 2,1 %i Sirdaryo viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

4-jadval: O‘zbekiston Respublikasida hududlar bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari talabalari soni (o‘quv yili boshiga, ming kishi)[4]

Hududlar (viloyatlar) nomi	Yillar						2017-2023-yillarda o‘sish, %
	2017/ 2018	2018/ 2019	2019/ 2020	2020/ 2021	2021/ 2022	2022/ 2023	
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	19,4	22,3	25,5	35,5	46,6	57,5	3 marta
viloyatlar:							
Andijon	19,2	21,7	26,0	30,9	47,7	58,3	3 marta
Buxoro	15,9	20,9	24,8	35,6	44,0	57,5	3,6 marta
Jizzax	12,5	14,7	18,0	23,4	30,0	37,0	3 marta
Qashqadaryo	15,9	18,4	22,5	27,9	44,2	57,4	3,6 marta
Navoiy	9,7	11,6	13,6	17,0	21,7	30,3	3,1 marta
Namangan	13,3	16,7	20.1	26,0	41,8	52,3	3,9 marta
Samarqand	29,1	34,9	41,1	54,8	70,8	84,7	2,9 marta

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.
4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Surxondaryo	9,3	15,1	20,1	25,6	39,9	50,6	5,4 marta
Sirdaryo	4,6	6,8	9,1	9,6	16,8	21,5	4,7 marta
Toshkent	8,1	14,9	20,9	28,5	42,8	60,4	7,5 marta
Farg‘ona	21,5	27,2	35,8	48,4	62,3	77,7	3,6 marta
Xorazm	10,5	13,4	16,2	22,8	28,7	42,8	4,1 marta
Toshkent sh.	108,7	121,6	147,3	185,5	271,1	354,1	3,2 marta
Respublika bo‘yicha	**297,7**	**360,2**	**441,0**	**571,5**	**808,4**	**1042,1**	**3,5 marta**

Hozirgi kunda universitetlarning asosiy vazifalari – innovatsion faoliyatni rivojlantirish, istiqbolda mutaxassislarga talabni aniqlash, ta’lim hamda biznes o‘rtasidagi samarali integratsion jarayonlarni rivojlantirish hamda OTMlarda ilmiy tadqiqot va tajriba kostruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirishning tashqi manbalarini kengaytirish hamda xorijiy OTMlar bilan hamkorlikning zamonaviy usullaridan keng foydalanish kabilar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida hududlar bo‘yicha oliy ta’lim muassasalariga qabul qilingan talabalar soni 2017/2018-o‘quv yilida 80,1 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2022/2023-o‘quv yilida 275,5 mingtaga oshgan (5-jadval).

5-jadval: O‘zbekiston Respublikasida hududlar bo‘yicha oliy ta’lim muassasalariga qabul qilingan talabalar soni (o‘quv yili boshiga, ming kishi)[5]

Hududlar (viloyatlar) nomi	Yillar						2017-2022-yillarda o‘sish, %
	2017/ 2018	2018/ 2019	2019/ 2020	2020/ 2021	2021/ 2022	2022/ 2023	
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5,4	6,7	6,9	11,0	9,8	11,5	2,2 marta
viloyatlar:							
Andijon	4,8	5,6	7,2	7,6	9,6	11,4	2,3 marta
Buxoro	4,6	6,6	6,3	11,1	11,6	16,4	3,5 marta
Jizzax	3,7	4,8	5,8	8,1	9,1	8,5	2,3 marta
Qashqadaryo	4,1	5,1	5,9	7,6	10,4	14,2	3,5 marta
Navoiy	2,8	3,4	3,6	5,4	5,5	9,4	3,3 marta
Namangan	4,0	5,8	6,1	7,2	9,3	13,2	3,3 marta
Samarqand	7,5	9,8	11,8	18,0	18,4	20,5	2,7 marta
Surxondaryo	3,0	5,5	6,1	9,6	9,9	10,2	3,4 marta
Sirdaryo	1,5	2,7	3,0	1,7	4,5	5,2	3,5 marta
Toshkent	3,1	4,7	6,4	9,5	11,2	18,7	6 marta
Farg‘ona	7,2	9,4	11,6	14,0	13,0	16,2	2,2 marta
Xorazm	3,0	4,4	4,5	6,7	7,0	10,0	3,3 marta
Toshkent sh.	27,0	34,5	44,0	48,5	91,1	110,4	4,1 marta
Respublika bo‘yicha	**80,1**	**108,1**	**129,0**	**165,0**	**220,1**	**275,5**	**3,4 marta**

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoniga muvofiq konsepsiya uzoq muddatli maqsadlar va vazifalarni o‘z ichiga olib, oliy ta’limning istiqbolda rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishni nazarda tutadi. Shunga ko‘ra, respublikamiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun bir vaqtning o‘zida raqobatdosh ustunliklarni hisobga olgan holda mehnat salohiyatini oshirish, ishlab chiqarishning intellektuallashuvi darajasini yuksaltirish va inson kapitalini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish alohida dolzarb masalalar hisoblanadi. Mazkur muammolarni hal qilishda asosiy rolni Yangi O‘zbekistonning strategik vazifalari ko‘lami va darajasiga muvofiq keladigan kompleks kompetensiyaga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash va mehnat bozoriga yetkazib berishni amalga oshiruvchi OTM zimmasiga yuklanadi.

Keyingi yillarda oliy ta’lim tizimida fan, ta’lim va biznes integratsiyasining zamonaviy tizimini shakllantirish hamda samarali hamkorlikni o‘rnatish muammolarni hal etish o‘zaro munosabatlar samaradorligini oshirish imkonini beradi. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida zamonaviy iqtisodiyot tarmoqlari uchun malakali mutaxassislarga bo‘lgan talab va taklif muvozanatiga erishish keskin muammolardan biri hisoblanadi.

5 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Bularning barchasi boshqaruv (tuzilmasi va boshqaruvi, ta’lim tashkilotlarining miqyosi va soni), kognitiv (bilim, tafakkur, kasbiy bilim va malaka), uslubiy (zamonaviy ta’lim texnologiyalari va vositalari asosida o‘quv jarayonini tashkil qilish), qadriyatlar (o‘qitish jarayoning mazmuni, OTMlarining roli va faoliyatini xalqaro, milliy, hududiy darajalarda qayta ko‘rib chiqish) jiddiy transformatsiyalashuvni zarurat etadi.

Hozirgi vaqtda oliy ta’lim xizmatlarining tijoratlashishi natijasida oliy ta’lim tizimi bozorning bir qismi sifatida yuzaga kelmoqda. OTMda moliyaviy vositalar muhim o‘ringa ega bo‘lib, resurslarni boshqarishdan, natijalarni boshqarishga, ya’ni OTMlarda talabalarning “kirishdagi nazorati”dan “bitirishdagi nazorati”ga to‘g‘ri va ravon o‘tish yuzaga kelmoqda. Oliy ta’lim xizmatlarining mutaxassislar bozoriga malakali kadrlarni yetkazib beruvchi iqtisodiy resurs shaklini ifoda etishi, ta’lim tizimiga iqtisodiy omillar, usullar va samarali mexanizmlarni joriy qilinishi mutaxassislar mehnat bozori va ta’lim xizmatlari bozorlarining integratsiyalashuvini mustahkamlaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida davlat va xususiy OTMlarning ko‘payib borishi ularni bitiruvchilarni ishga joylashtirish muammosini keskinlashuviga olib keladi. Vaholanki, bitiruvchilarni ishga joylashtirish indikatori OTMlarni akkredetatsiyadan o‘tkazishning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi va bitiruvchi mutaxassislarni ishga joylashtirish va ularni kasbiy moslashuvchanligini oshirishga ko‘maklashishning zamonaviy shakllarini joriy etish orqali buyurtmachi xo‘jalik subyektlari va OTMlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni takomillashtirish bo‘yicha ishlarni jonlantirishni zarurat etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligining oshirishning muhum omillari va rivojlanish holati bo‘yicha quyidagi xulosa va takliflarni ishlab chiqdik.

- ta’lim xizmatlari bozorida integratsiya jarayonlarini rivojlantirish asosida ilmiy tadqiqot maktablarining innovatsion yutuqlarini birlashtirish jarayonlarini jadallashtirish;
- ta’lim sifatiga qo‘yiladigan malaka talablarini standartlashtirish;
- fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini amaliyotga tatbiq qilish;
- ta’lim xizmatlari bozori subyektlari o‘rtasidagi raqobat muhitini shakllantirish;
- OTMning raqobatbardoshligiga erishish orqali ulardagi bitiruvchilar raqobatbardoshligini oshirish;
- ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim tashkilotlarining raqobatbardosh omillari hamda tamoyillari aniqlanib, oliy ta’lim tizimida raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmini oshirish;
- raqobatdosh OTMlarning rivojlanishi kasbiy va zamonaviy bilimlarni chuqur egallash orqali yuqori kasbiy ko‘nikmaga ega raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // –Xalq so‘zill gazetasi. –2020-yil 25-yanvar. –19-son. 1-4 betlar.
2. Inson taraqqiyoti. Darslik. I.f.d., professor Q.X.Abduraxmanov tahriri ostida. – T.: –Fanva texnologiyall nashriyoti, 2013. – 476-bet.
3. Pardaev M.Q. va boshqalar. Ta’lim xizmatlari va ularning samaradorligini oshirish masalalari. Monografiya. – T.: –Innovatsion rivojlanish nashriyot, 2020. – 200 b.
4. Isroilov B.I. Ta’lim tizimida korrupsiyani oldini olish masalalari. // Innovatsion va raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish muammolari. (21-22 fevral 2020-yil) Xalqaro IAK materiallari, Samarqand-Tambov, 2020. – 183-186-betlar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi stat.uz



IQTISODIYOTGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH VA ULARNING BARQAROR IQTISODIY O‘SISHDAGI ROLI

Mamadiyorova Dilorom Ravshon qizi
Toshkent Moliya instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada barqaror iqtisodiy o‘sish va unga ta’sir qiluvchi investitsiyalar to‘g‘risida bayon qilingan. Maqolaning asosiy maqsadi - investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati, faol investitsiyalarni jalb qilish strategiyalari, investitsiyalarni jalb qilishning qiyinchiliklari va xavflari to‘g‘risida ma’lumotlarni yoritish bilan birga, samarali investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berish hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: investitsiyalar, barqaror iqtisodiy o‘sish, strategiya, import, eksport, investitsiyaviy siyosat.

Abstract: This article describes sustainable economic growth and investments which are affecting it. The main purpose of the article is to provide information on the importance of investment attraction, active investment attraction strategies, difficulties and risks of investment attraction, as well as providing suggestions and recommendations on attracting investments.

Key words: investments, sustainable economic growth, strategy, import, export, investment policy.

Аннотация: В данной статье описывается устойчивый экономический рост и влияющие на него инвестиции. Основная цель статьи – предоставить информацию о важности привлечения инвестиций, стратегиях активного привлечения инвестиций, трудностях и рисках привлечения инвестиций, а также дать предложения и рекомендации по привлечению инвестиций.

Ключевые слова: инвестиции, устойчивый экономический рост, стратегия, импорт, экспорт, инвестиционная политика.

KIRISH

Bugungi globallashgan dunyoda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish butun dunyo mamlakatlari uchun asosiy maqsad hisoblanadi. Iqtisodiy o‘sishga bir qancha omillar vositasida erishish mumkin. Bu omillar orasida eng asosiylaridan biri – iqtisodiyotga investitsiyalarni faol jalb etishdir. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” nomli asarida iqtisodiy o‘sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali erishish lozimligini alohida ta’kidlab o‘tganlar[1]. Iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish, aholi bandligini ta’minlash, turmush darajasini oshirishda mahalliy va xorijiy investitsiyalar muhim o‘rin tutadi. Milliy iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarning miqdorini keskin oshirib borish va ulardan samarali foydalanish iqtisodiyotni yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega. Shularni e’tiborga olgan holda aytish mumkinki, har bir mamlakatning rivojlanishi va barqaror iqtisodiy o‘sishi ko‘p jihatdan mamlakatdagi investitsiyaviy jarayonlarga va investitsiyaviy siyosatga bog‘liqdir.

ASOSIY QISM

Iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlariga erishish har bir davlat uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu muammoni samarali hal etish barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, aholi farovonligini oshirish, mamlakatimizning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni va rolini belgilab beradi. Bu holat ham akademik iqtisodchilar, ham siyosiy arboblar tomonidan iqtisodiy o‘sish masalalariga e’tiborning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Iqtisodiyotni har tomonlama modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida to‘g‘ri tanlangan investitsiya siyosati

1 Sh.M.Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. 147-bet.

muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiya siyosati har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki investitsiya siyosati orqali mamlakat ishlab chiqarish quvvatining yuqori darajada o‘sishini, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va sifatining ortishini, moddiy va ma’naviy ehtiyojlar qondirilishini, butun davlat infratuzilmasining rivojlanishini ta’minlash mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda investitsiya siyosatini amalga oshirish masalalari bilan O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi shug‘ullanib kelmoqda. Mamlakatimiz investitsiya siyosatining bosh maqsadi – iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni amalga oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarining investitsiyaviy faolligini oshirish, korxonalarni eng so‘nggi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, iqtisodiyotga investitsiyalarni, ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni jalb etishdir[2].

Mamlaktimiz iqtisodiy o‘sishga erishishida investitsiyalarni faol jalb qilishning ahamiyati beqiyos. Hududlarga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali bir qator afzalliklarga erishishimiz mumkin.

Birinchidan, iqtisodiyotning turli tarmoqlariga investitsiyalarni keng jalb qilish startap loyihalarini, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantiradi. Buning natijasida esa qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilib, mamlakat miqyosida aholining ish bilan bandligi ortadi, aholi turmush farovonligi yaxshilanadi.

Ikkinchidan, mamlakat iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlariga investitsiyalarni kiritish orqali korxonalarning import o‘rnini bosuvchi, eksportbop tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatini oshirish mumkin. Bu esa mamlakat aholisiga hamyonbop va shu bilan birga sifatli, jahon standartlariga to‘la javob bera oladigan tovar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini tug‘diradi.

Uchinchidan, investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida yangi turdagi raqobatbardosh, eksportga mo‘ljallangan tovar va xizmatlar ishlab chiqarilishiga zamin yaratadi. Bu esa mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmining o‘sishiga, davlatning tashqi savdoda dunyo mamlakatlari orasida o‘z o‘rni bo‘lishiga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, investitsiyalardan samarali foydalanish orqali korxonalarning moddiy-texnik bazasi yangilanadi, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalar joriy etiladi. Bu o‘z-o‘zidan korxonalardagi mehnat unumdorligi oshishiga, mahsulot tannarxi pasayishiga xizmat qiladi.

Yuqorida sanab o‘tilganlarning barchasi oxir-oqibatda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishga xizmat qiladi.

Iqtisodiyotga investitsiyalarni amalga oshirish bir qator shartlarga rioya qilishni talab qiladi, ularning asosiylari:

- investitsion resurslar uchun manba bo‘lib xizmat qiladigan yetarli darajadagi jamg‘armalarning mavjudligi;
- investitsion mablag‘larning saqlanishi yoki o‘sishini ta’minlaydigan real va moliyaviy aktivlar ko‘rinishidagi investitsiya uchun qiziqish obyektlarining mavjudligi;
- investitsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati;
- iqtisodiy tizimda jamg‘armalarni (potentsial investitsiyalar sifatida) real investitsiyalarga aylantirish bilan shug‘ullanadigan institutlarning mavjudligi[3].

Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish, samarali investitsiyaviy siyosatni olib borish oldindan har tomonlama mukammal o‘ylangan strategiya asosida amalga oshirilishi lozim. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsilarni kiritish va ulardan oqilona foydalanish masalalari Prezidentimiz tomonidan 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi hamda 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston–2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlarda o‘z aksini topgan.

Bugungi kunda mamlakatimizning iqtisodiy strategiyasi iqtisodiyotga katta hajmdagi investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan. Ushbu strategiyaga ko‘ra, investitsiyalarning o‘sish sur’atlari 10 yilda yalpi ichki mahsulotning kamida 25 foizini tashkil etishi uchun sharoit yaratilishi belgilangan[4].

2 E.Sh.Shodmonov, D.Sh.Bababekova, B.O.Tursunov. Korxona iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish. Darslik. – T.: 2019-yil. –525 bet.

3 Nurillayev, J. Ya. The role of corporate management system in providing financial security in commercial banks// [Электронный ресурс]: сборник материалов XX Международной научно-практической конференции, посвященной 20-летию Факультета горного дела и инженерной экологии Белорусского национального технического университета, 5 апреля 2022 г./редкол.: АА Кологривко – Минск: БНТУ, 2022.–Т. 1.–С. –190-192. https://rep.bntu.by/bitstream/handle/data/120586/190-192.pdf?sequence=1

4 Sh.M.Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti”, –2022. 132-bet.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni[5] o‘zida 100 ta ustuvor maqsadni qamrab olgan bo‘lib, iqtisodiyotga investitsiyalarni faol jalb qilish masalalari farmonning 26-maqsadida o‘z ifodasini topgan. Ushbu maqsadga muvofiq 2022–2026-yillarda mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan:

- investitsiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha “pastdan-yuqoriga” tamoyili asosida yangi tizimni yo‘lga qo‘yib, 2022–2026-yillarda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 millard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo‘jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiya jalb etish;
- respublika hududlari va xorijiy mamlakatlar biznes vakillari o‘rtasida tashqi iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish, jumladan Sirdaryo viloyatining Xitoy Xalq Respublikasi, Surxondaryo viloyatining Rossiya Federatsiyasi hamda Jizzax viloyatining Hindiston biznes doiralari bilan investitsiya va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish;
- Surxondaryo viloyatida “Investorlarga ko‘mak markazi”, Navoiy viloyatida Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan “Biznesga ko‘maklashish markazi” va Toshkent shahrida “Ilg‘or loyihalar va injiniring markazi” va har bir tumanda “Innovatsiya va texnologiya markazlari” tashkil qilib, tadbirkorlarga amaliy yordam ko‘rsatish;
- Toshkent shahrida har yili “Toshkent xalqaro investitsiya forumi”ni o‘tkazib borish.

“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning mantiqiy davomi bo‘lgan “O‘zbekiston–2030” strategiyasida ham investitsiyaviy faoliyat masalalariga alohida to‘xtalib o‘tilgan[6]. Ushbu strategiyaga asosan investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida 2030-yilgacha quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilangan:

- iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitision va ishbilarmonlik muhitini ta’minlash;
- asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining yillik o‘rtacha 7 foiz atrofida o‘sishini ta’minlash;
- mamlakatimizda 250 millard dollarlik investitsiyalarni o‘zlashtirish, jumladan 110 millard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 millard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish;
- umumiy qiymati 150 millard dollarlik 500 dan ziyod strategik ahamiyatga ega bo‘lgan texnologik va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish;
- hududlarning investitsion reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish;
- barcha iqtisodiy zonalarda zarur infratuzilmadan (yo‘l, elektr energiyasi, ichimlik suvi va oqova suv tizimi) uzluksiz foydalanish imkoniyatlarini yaratish.

Investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilish bo‘yicha har tomonlama puxta o‘ylangan strategiyalar ishlab chiqilganiga qaramay, har bir davlatda, shu jumladan, O‘zbekistonda ham hozirgi kunda investitsiyalarni iqtisodiyotga kiritishda bir qator qiyinchiliklar va xavflar mavjud. Hududlarga xorijiy investitsiyalarni kiritishda investorlar:

- hududlarda tadbirkorlik salohiyatiga ega, malakali kadrlarning yetishmasligi;
- hududlarning infratuzilma obyektlari bilan ta’minlanganlik darajasining turlichaligi, avtomobil yo‘llarining talabga javob bermasligi, elektr energiya, gaz, ichimlik va oqova suv ta’minotining barqaror emasligi;
- erkin iqtisodiy hududlar, kichik sanoat zonalarning investitsiya jalb qilishda to‘la mustaqil emasligi;
- xorijiy investorlar va ularning oila a’zolarining O‘zbekistonda yashashi va faoliyat yuritishlari uchun ruxsatnoma olishda qiyinchiliklar mavjudligi kabi muammolarga dush kelishmoqda.

Har bir investor investitsiya kiritar ekan, albatta, yuqori darajada foyda olishni maqsad qiladi. O‘z-o‘zidan yuqori foyda bor joyda yuqori risk, kiritilgan kapital qaytmaslik xavfi mavjuddir. Mamlakat ichkarisidagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy holat, mintaqadagi chegaradosh davlatlar bilan yaqin qo‘shnichilik munosabatlari, mamlakat-

5 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, PF – 60-son.

6 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, PF – 158-son.

dagi investitsion faoliyatga oid qonun-qoidalarning mukammallik darajasi investitsiyalarni jalb qilishdagi xavflarning qay darajada bo‘lishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan muammolarni bartaraf etish, mamlakatimiz investitsion jozibadorligini yanada oshirish, pirovardida esa iqtisodiy o‘sishga erishishimiz uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirish mumkin:


- hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini tahlil qilish natijasida shu hududning drayver tarmoq va sohalarini aniqlash;
- investorlarni ko‘proq qiziqtiruvchi potensial obyektlar to‘g‘risida ma’lumotlar bazasini shakllantirish;
- yurtimizdagi mavjud investitsion faoliyat uchun yaratilgan iqtisodiy, siyosiy imkoniyatlar va imtiyozlardan mahalliy va xorijiy investorlarni xabardor qilish tizimini takomillashtirish;
- istiqbolli investitsion loyihalarga investitsiya kirituvchi sarmoyador topish maqsadida ushbu loyiha haqida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali e’lonlar, reklamalar berib borish;
- mahalliy tadbirkorlarning bilim va salohiyatini oshirish maqsadida tadbirkorlar uchun o‘quv-seminarlar, treninglar tashkillashtirish;
- hududlardagi ishlab chiqarish infratuzilmasi holatini yaxshilash;
- xorijiy investorlar uchun viza olish, xorijiy kapital ishtirokida tashkil qilinayotgan korxonani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini yanada soddalashtirish;
- investitsion faoliyat bilan shug‘ullanish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha savollarga javob topish mumkin bo‘lgan Investitsiya kodeksini ishlab chiqish.

XULOSA

O‘zbekistonning turli jabhalarda, xususan, iqtisodiy sohada ham jahon miqyosida mavqeyi va nufuzi yil sayin oshib bormoqda. Bunda iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda ochiqlik tizimining yo‘lga qo‘yilganligi, investorlarga turli qulayliklar va imtiyozlar yaratilganligi, mamlakatimiz investitsion jozibadorligi takomillashtirilib borilayotganligi ahamiyatga ega. Investitsiyalarni keng jalb qilish va ulardan oqilona foydalanish makroiqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotini o‘zgartirish imkonini beradi, bu esa hududlarda yangi ish o‘rinlari tashkil etish, aholi farovonligini oshirish va rivojlanish kaliti bo‘lib hisoblanadi. Korxonalarga zamonaviy, jahon standartlariga to‘la javob beradigan texnika va texnologiyalarni olib kelish, import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, tabbiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalar barpo etish jarayonlarini olib borishni investitsiya faoliyatisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Investitsiya mablag‘larini jalb qilish nafaqat davlat iqtisodiyotini yuksaltiradi, balki aholi turmush darajasi yaxshilanishida ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalar davlatning kelajakdagi iqtisodiy yuksalish darajasini belgilab beruvchi asosiy omillardan biridir. Shuning uchun ham yurtimizda siyosiy islohotlarni samarali amalga oshirishni, infratuzilmani rivojlantirishni va investorlarga ko‘maklashishni o‘zida mujassam etgan kompleks yondashuvni amalga oshirilishi muhim hisoblanadi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-60-son, 2022-yil 28-yanvar. lex.uz›uz/docs/-5841063
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. PF-158-son, 2023-yil 11-sentabr. lex.uz›uz/docs/-6600413
3. Sh.M.Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti”, 2022-yil.
4. E.Sh.Shodmonov, D.Sh.Bababekova, B.O.Tursunov. Korxona iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish. Darslik. – T.: 2019-yil.
5. Nurillayev, J. Ya. The role of corporate management system in providing financial security in commercial banks// [Электронный ресурс]: сборник материалов XX Международной научно-практической конференции, посвященной 20-летию Факультета горного дела и инженерной экологии Белорусского национального технического университета, 5 апреля 2022 г./редкол.: АА Кологривко – Минск: БНТУ, 2022.–Т. 1.–С. 190-192. https://rep.bntu.by/bitstream/handle/data/120586/190-192.pdf



SURXONDARYO VILOYATLARNING MARKETING SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISH HOLATI TAHLILI

Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna
I.f.f.d., Termiz iqtisodiyot va servis universiteti iqtisodiyot kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining marketing salohiyatini shakllantirish bo‘yicha tahlil amalga oshirilgan bo‘lib, unda dastlab hududiy marketing salohiyatlari, uning mohiyati va aniqlash usullari to‘g‘risida xorijiy mutaxassis olimlarning fikr-mulohazalari bo‘yicha mallif yondoshuvlari bayon etilgan. Bundan tashqari, Surxondaryo viloyatining marketing salohiyatini shakllantirish bo‘yicha SWOT tahlili amalga oshirilgan bo‘lib, bir qator ko‘rsatkichlar yordamida ekspertlar hisob-kitob natijalari asosida muallif xulosalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: hududiy marketing, marketing jozibadorligi, hudud imidji, strategik potensial, minimal va maksimal qiymat, SWOT tahlil, raqobatbardosh ustunlik, raqobatning globallashuvi.

Abstract: In this article, an analysis of the formation of the marketing potential of the Surkhandarya region was carried out, in which the author’s approach to the opinions of foreign experts on regional marketing potential, its essence and methods of determination was described. In addition, a SWOT analysis on the formation of the marketing potential of the Surkhandarya region was carried out, and the author’s conclusions were presented based on the results of the experts’ calculations using a number of indicators.

Key words: regional marketing, marketing attractiveness, regional image, strategic potential, minimum and maximum value, SWOT analysis, competitive advantage, globalization of competition.

Аннотация: В данной статье проведен анализ формирования маркетингового потенциала Сурхандарьинской области, в котором описан авторский подход к мнениям зарубежных специалистов о региональном маркетинговом потенциале, его сущности и методах определения. Кроме того, был проведен SWOT-анализ формирования маркетингового потенциала Сурхандарьинской области и представлены авторские выводы по результатам расчетов экспертов с использованием ряда показателей.

Ключевые слова: региональный маркетинг, маркетинговая привлекательность, имидж региона, стратегический потенциал, минимальное и максимальное значение, SWOT-анализ, конкурентное преимущество, глобализация конкуренции.

KIRISH

Bugungi kunda tovar yoki xizmatlar realizatsiyasini amalga oshirish jarayonida xalqaro bozorlardagi hududlar puxta o‘ylangan marketing siyosatini talab qiladi. Har bir shahar yoki hududning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlab berishi va potensial va mavjud mahsulotlar o‘rtasida raqobatdosh ustunliklari to‘g‘risida ma’lumotni samarali va yetarli darajada tarqatishi kerak. Chunki, hududlar o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, raqobatchilarining tahdidlarini oldindan anglab yetishlari va uning oqibatlari qay darajada bo‘lishi mumkinligini bilishlari kerak.

Hudud iqtisodiy faoliyatning turli shakllari amalga oshiriladigan hudud sifatida, shuningdek, ushbu hududda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bozor faoliyatini foydali (samarali) qiladigan ma’lum xususiyatlar yoki xususiyatlar to‘plamiga ega bo‘lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, “hududlarning marketing jozibadorligi” tushunchasini joriy etish ham nazariy jahatdan, ham mintaqani marketing tamoyillari asosida boshqarishning amaliy ahamiyati jihatdan muhim hisoblanadi.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan hudud salohiyatni o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, har qanday iqtisodiy tizim, jumladan, hududiy darajada ham strategik jihatdan nafaqat ijobiy, balki salbiy ko‘rinishda ham rivojlanishi mumkin. Ya’ni hududning strategik rivojlanish dinami-

kasi salbiy oqibatlarda ham ijobiy tomonga ham ega bo‘lishi mumkin. Ijobiy tendensiyalarni rivojlantirish va salbiy oqibatlar doirasini oldini olish yoki yengib o‘tish uchun hududlar bir-biri bilan raqobatbardosh kurashga kirishadilar. Hududlar sarmoyani ko‘paytirish, zarur ishchi kuchini jalb qilish, aholining turmush darajasi sifatini yaxshilash va hokazolar uchun raqobatlashadi. Natijada hududning strategik salohiyatini boshqarishda uning marketing salohiyatini rivojlantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Marketing salohiyati hududning strategik potensialining bozor tarkibiy qismlarining bir qismi bo‘lib, marketing tizimi raqobatbardoshlikni ta’minlashning umumiy qobiliyatini ifodalaydi. Hududning marketing salohiyati - bu hududning hududiy bozorlardagi ulushini oshirish, mehnatga haq to‘lash hamda mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish samaradorligini oshirish asosida aholi uchun aktivlarni joylashtirishda korxonalar jozibadorligini ifoda etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ko‘pgina ilmiy adabiyotlarda marketing tadqiqotlarini takomillashtirish orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tarmoq va tovar ishlab chiqarish bo‘yicha samaradorligini baholashning ilmiy-nazariy hamda uslubiy jihatlari tadqiq qilingan. Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, hududlarning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va eksport salohiyatini oshirishda marketing tadqiqotlarini takomillashtirish va jozibadorligini aniqlash orqali uning bozorga yo‘naltirilgan siyosatining samaradorligi bilan belgilanadi. Marketing tamoyillarini rivojlantirish va ularni amalda qo‘llash, hududning marketing jozibadorligida hududiy mahsulot sotuvchilari va xaridorlar munosabatlari bo‘yicha ko‘plab iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ular qatoriga A.Starostina, S.Martov [1], F.Kotler, K.Asplund, I.Reyn, D.Xayder [2], Ye.Shelkunova [3], O.N.Gerasimenko [4], F.Kotler, K. Dj. Klensi [6], M.Porter [7] kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamlashtirish sharoitdagi milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan hududlarning marketing salohiyatini shakllantirish holati va marketing jozibordorligini aniqlash yo‘nalishlari SWOT tahlil usulini qo‘llash orqali aniqlandi. Bundan tashqari jozibadorlik omilining ma’lum ko‘rsatkichi uchun koeffitsiyentni aniqlashda “ko‘p o‘lchovli o‘rtacha” usul yordamida tizimli yondashuvi, abstrakt-mantiqiy fikrlash usullaridan foydalanilgan

TAHLIL VA NATIJALAR

Marketing konsepsiyasini tanlash uni qo‘llash sohasiga bog‘liq. Hududiy marketing tushunchasi – faoliyati ma’lum bir hududiy-ma’muriy birlik chegaralari yoki iste’molchilarning ma’lum bir segmenti bilan cheklanmagan mahsulot ishlab chiqarish sohasiga to‘g‘ri keladi. Hududiy marketing deganda ma’lum bir mintaqada taklif etilayotgan aniq tovarlar yoki xizmatlarga nisbatan boshqaruv qarorlaridan foydalanish, ya’ni hududiy darajadagi marketing faoliyati tushuniladi. Ko‘pgina marketing tadqiqotlarida hudud faqat uning segmentatsiyasi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilgan bo‘lib, hududning bozorda mahsulot turi sifatida tan olinishi hududiy marketingni klassik deb ataladigan marketingdan ajratib turadi.

Xalqaro bozorda hududning o‘ziga xos mavqeini va ijobiy imidjini ta’minlashga intilish strategik marketingning muhim elementlaridan biridir. Shuning uchun bizningcha, har bir mintaqa o‘zining jozibadorlik ko‘rsatkichlari asosida ko‘plab investorlarning talablarini qondira oladigan takliflar va afzalliklar to‘plamini ishlab chiqishi kerak. Hududlar marketingi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1) jozibador joylashish va imidj hududi uchun ishlanmalarning mavjudligi;
2) mahsulot va xizmatlarni samarali va qulay shaklda yetkazib berish;
3) foydalanuvchilarni uning afzalliklari haqida to‘liq xabardor qilish uchun hududning jozibali va foydali fazilatlarini targ‘ib qilish.

Mintaqaviy bozorda marketing siyosati muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun uni bir yo‘nalishda, xususan, bir tomonlama reklama qilish ijobiy samara bermaydi. Chunki, hududlarda muvaffaqiyatli marketing tadqiqotlari o‘tkazishning zaruriy shartlaridan biri - diagnostika va rejalashtirishdir. Mazkur jarayon mahalliy hokimiyat hamda ishbilarmon doiralar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan faoliyat hisoblanadi. Hududiy marketingning muhim jihatilaridan biri - mintaqaviy marketing o‘ziga xos jihatlaridan foydalanib, mahalliy aholi o‘z mintaqasi (xududi)ning madaniy, tarixiy va boshqa qadriyatlarini targ‘ib qilishda ishtirok etishiga undashdir. Bu imidj hududi uchun ijobiy samara beradi. Buning uchun albatta barcha darajadagi mahalliy aholi o‘z shahri bilan faxrlanishi, uning tarixi, an’analari va urf-odatlari bilan tanish bo‘lishi kerak.

Jozibadorlik omilining ma’lum bir ko‘rsatkichi uchun koeffitsiyentni aniqlashda “ko‘p o‘lchovli o‘rtacha” usuliga o‘xshash usul qo‘llanilishi mumkin, yagona farq shundaki, yagona ko‘rsatkichning nisbati o‘rtacha qiymatga emas, balki seriyaning maksimal va minimal qiymatlari orasidagi farq (interval) ko‘rsatkichga nisbatan olinadi. Shu bilan birga, agar bitta ko‘rsatkichning o‘sishi omilning umumiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatsa, u holda quyidagi (1) formula qo‘llaniladi:

$$k_i = \frac{x_i - x_{min}}{x_{max} - x_{min}} \quad (1)$$

bu yerda: k_i – *i*-birlik ko‘rsatkichi uchun masshtablash koeffitsiyenti;
x_i – *i*-birlik ko‘rsatkichining qiymati;
x_{min} va x_{max} - berilgan hududlar orasidagi *i*-birlik ko‘rsatkichining minimal va maksimal qiymati. Agar bitta ko‘rsatkichning o‘sishi omilning umumiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatsa, u holda (2) shakl qo‘llaniladi:

$$k_i = 1 - \frac{x_i - x_{min}}{x_{max} - x_{min}} \quad (2)$$

Hisob-kitoblarni osonlashtirish uchun sifat birligi ko‘rsatkichlari 3 balli shkala bo‘yicha baholanadi.
bu yerda:
3 - bu ko‘rsatkich bo‘yicha eng jozibador maydon;
1 - ushbu ko‘rsatkichga ko‘ra, hudud minimal darajada jozibali. Masshtab koeffitsiyentlarining qiymati 0 dan 1 gacha o‘zgarib turadi va birlik ko‘rsatkichining eng yaxshi va eng yomon qiymatlariga nisbatan ushbu seriyadagi hududning holatini tavsiflaydi.

Bundan tashqari har bir omillarning yagona ko‘rsatkichlarining og‘irliklarini juftlik taqqoslash usuli bilan aniqlash mumkin va alohida ko‘rsatkichlarning masshtablash koeffitsiyentlarini hududning marketing jozibadorligi omilini baholashda tavsiflovchi umumiy ko‘rsatkichga jamlash. Uni hisoblash uchun jozibadorlik koeffitsiyentini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning o‘rtacha og‘irlikdagi masshtablash koeffitsiyentlarini quyidagi (3) formula yordamida topish kerak:

$$J_i = \sum_{i=1}^{n} k_i * V_i \quad (3)$$

bu yerda: J_i – *i*-jozibadorlik omilining umumiy ko‘rsatkichi;
k_i - *j*-jozibadorlik omilining *i*-birlik ko‘rsatkichi uchun masshtablash omili;
V_i – *j*-jozibadorlik koeffitsiyentining i-birlik ko‘rsatkichining og‘irliklari;
n - *j*-jozibadorlik omilining baholash guruhini tashkil etuvchi ko‘rsatkichlar soni.


Barcha omillar uchun yakuniy integral ko‘rsatkichni aniqlash. Bu ko‘rsatkich har bir omilning marketing jozibadorligi umumiy ko‘rsatkichlarining o‘rtacha vaznli qiymatlari sifatida aniqlanadi:

$$I_j = \sum_{i=1}^{n} J_i * V_i \quad (4)$$

Bu yerda: I_j – *j*-hudud jozibadorligining integral ko‘rsatkichi;
J_i – *j*-hududning -jozibadorlik omilining umumiy ko‘rsatkichi;
V_i – *j*-hududning -jozibali koeffitsiyenti vaznlari;
n – *j*-hudud jozibadorligini baholash guruhini tashkil etuvchi omillar soni.

Shuni ta’kidlash kerakki, hududning jozibadorlik omillari og‘irligi ularni tashkil etuvchi alohida ko‘rsatkichlar og‘irliklarining o‘rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblanadi.

Marketing jozibadorligi bozor mahsuloti sifatida hududning eng muhim xususiyati hisoblanadi. Bu hududda mahsulot iste’molchilari ularni tanlashda o‘zlarining afzalliklariga ta’sir qiluvchi rivojlanish sharoitlarining mavjudligi deb ta’riflanishi mumkin. Chunki, hudud bir vaqtning o‘zida bir maqsad (segment)li guruh uchun juda jozibali bo‘lishi mumkin va boshqasi uchun mutlaqo yoqimsiz bo‘lishi ham mumkin. Sababi, tanlangan hududning bir xil xususiyatlariga turli xil qarashlarni belgilaydigan turli maqsadli iste’molchilar guruhlarning ehtiyojlari va manfaatlaridagi farqlarga bog‘liq (1-rasm).



1-rasm: Hududning marketing jozibadorligida hududiy mahsulot sotuvchilari va xaridorlar munosabatlari[1]


1 Manba: Muallif ishlanmasi.

Binobarin, hududlar marketingi hududiy reklama tizimini tashkil etuvchi marketing vositalarining strategik majmui bo‘lib, tadbirkorlik tuzilmalari va aholi uchun hudud hamda uning jozibador xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘paytirish, hudud imidjini yaxshilash maqsadida targ‘ib qilishdir.

Marketing konsepsiyalaridan foydalangan holda hududlarni rivojlantirishni boshqarishda marketing jozibadorligining asosiy tamoyillarini inobatga olish kerak. Marketing salohiyati tamoyillaridan foydalanish hududga o‘z maqsad va vazifalarini optimal rejimda amalga oshirish imkonini beradigan yo‘nalishlarni ochib beradi. Marketing jozibadorligining tamoyillari hududlar strategiyalariga muvofiq qarorlar qabul qilish auditoriyalari bilan bog‘liq bo‘lgan turli qarashlarga ko‘ra tasniflanishi kerak. Birinchi yondashuv - mintaqaning marketing jozibadorligini funksional belgilovchi xususiyatlar bo‘yicha shakllantirish va rivojlantirish:

- konseptual tartibga solish tamoyillari;
- tizimni shakllantirish tamoyillari;
- qiymatga yo‘naltirilgan tamoyillar;
- tashkiliy-taktik tamoyillarni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi yondashuv tamoyillarni uch darajali tizim shaklida taqdim etishdir: birinchi daraja hududlarning marketing salohiyatini boshqarishda amal qilinishi kerak bo‘lgan uslubiy tamoyillarni tasniflaydi; ikkinchi daraja ichki hududiy yo‘riqnomalarga taalluqligi; uchinchisi - strategiyani amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan vaziyatli vazifalar bilan bog‘liq to‘g‘ridan-to‘g‘ri tamoyillardir. Bizning fikrimizcha “Hududning marketing jozibadorligi” tushunchasini yaxshiroq tushunish uchun uni “hududning raqobatbardoshligi” tushunchasi bilan solishtirish maqsadga muvofiq (2-rasm).



2-rasm: Hududlar raqobatbardoshligi va marketing jozibadorligi tushunchalarining umumiy xususiyatlari va farqlari[2]

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, hududning marketing jozibadorligini baholashning birinchi bosqichida uning hozirgi holatini tahlil qilish, ya’ni kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyatlari hamda tahdidlarini tahlil qilish muhim hisoblanadi. Buning uchun SWOT tahlili amalga oshiriladi.

Hudud marketing jozibadorligini baholashning uchinchi bosqichi uning darajasini aniqlash va uni qo‘llab-quvvatlash yoki mustahkamlash choralarini ishlab chiqishdir. Marketing jozibadorligi darajasini baholash mezonlari 1 - jadvalda keltirilgan.

1-jadval: Marketing jozibadorlik darajasini baholash mezonlari[3]

Marketing jozibadorlik darajasi	Marketing jozibadorligi darajasining chegarasi
Past	0 – 0,25
O‘rtacha	0,251 – 0,5
E’tiborli	0,51 – 0,75
Yuqori	0,751 – 1

2 Manba: Muallif ishlanmasi
3 Manba: Olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Taklif etilgan 1-jadvalda hududning marketing jozibadorligini baholashga metodik yondashuvni shakllantirdik. Bu bizga hududning raqobatbardosh ustunliklarini aniqlashga imkon beradi, natijada esa uni turli maqsadli guruhlar oldida yetakchilik pozitsiyalari bilan ta'minlaydi. Biz tanlangan hududlarning SWOT tahlilini o'tkazamiz. Baholash shkalasi quyidagicha shaklga ega bo'ladi:

1) mavjud bozor imkoniyatlaridan foydalanish va tahdidlarga qarshi kurashish istiqbollariga mintaqaning kuchli va zaif tomonlari ta'sirining past (ahamiyatsiz) darajasi;
2) mavjud bozor imkoniyatlaridan foydalanish va tahdidlarga qarshi kurashish istiqbollariga hududning kuchli va zaif tomonlari ta'sirining o'rtacha darajasi;
3) mavjud bozor imkoniyatlaridan foydalanish va tahdidlarga qarshi kurashish istiqbollariga hududning kuchli va zaif tomonlari ta'sirining yuqori (sezilarli) darajasi.

Yuqoridagi baholash shkalasidan kelib chiqib, birinchi navbatda, Surxondaryo viloyati hududlarining marketing jozibadorligi bo'yicha o'tkazilgan SWOT tahlili bo'yicha tadqiqot 5 ta mutaxassislaridan iborat bo'lgan ekspert guruhining yuqorida keltirilgan 3 ballgacha mezonlar asosida baholash amalga oshiriladi (2-jadval).

2-jadval: Surxandaryo viloyati hududlarining marketing jozibadorligi bo'yicha o'tkazilgan SWOT tahlili[4]

№	Hududning kuchli tomonlari	№	Hududning zaif tomonlari
1	Yetarli ilmiy salohiyat	1	Murakkab demografik vaziyat (salbiy o'sish, qoniqarsiz sog'liq holati, aholining qarishi)
2	Tarixan qishloq xo'jaligi an'analari va sanoat ishlab chiqarishning mavjudligi	2	Kam daromadli aholining yuqori ulushi
3	Aholining yuqori ta'lim darajasi	3	Ishsizlik darajasining ancha yuqoriligi
4	Manzarali tabiat va manzaralar, boy tuproqlar, qadimiy tarix va madaniyat	4	Asosiy issiqlik va ichimlik suv ta'minoti tarmoqlarining sezilarli darajada eskirishi
5	Innovatsion rivojlanishning kuchli salohiyati	5	Transport yo'llarining yomon holati, ta'mirtalabligi
6	Chegaraning qulay joylashuvi	6	Zaif turistik infratuzilma
7	Erkin bozor bo'shliqlarining mavjudligi, biznes uchun faoliyat sohasi	7	Ishlab chiqarish va infratuzilma tarmoqlarining yuqori eskirishi
8	Professional mutaxassis kadrlar tayyorlash bazasining yetarliligi	8	Mehnat resurslari kasbiy darajasining iqtisodiyot ehtiyojlariga mos kelmasligi
9	Ko'p sonli iqtidorli yoshlar	9	Malakali kadrlarning chiqib ketishi
10	Yer maydonining kengligi, xorijiy davlatlar bilan chegaradoshligi	10	Hududni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan aniq strategiyaning yo'qligi
№	**Hududning imkoniyatlari**	**№**	**Hududdagi tahdidlar**
1	Ham mahalliy, ham xorijiy investorlar faolligini oshirish	1	Energiya tashuvchilar va yoqilg'i narxining oshishi
2	Kelajakda Osiyo va Yevropa bozorlariga kirib borishi va bozorlarining jadal rivojlanishi	2	Globallashuv natijasida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligining pasayishi
3	Xalqaro innovatsion loyihalarda ishtirok etish	3	Qo'shni va uzoq xorijiy davlatlarga eksport qaramligini oshirish
4	Ziyorat va qishloq "yashil" turizmining tobora ommalashib borayotgani	4	Hududning boshqa hududlar bilan mahsulot raqobatining o'sishi
5	Umumiy muammolarni hal qilish uchun qo'shni mintaqalar bilan mintaqaviy integratsiya	5	Kapitalning kengayishi tufayli iqtisodiy mustaqillikni yo'qotish xavfi (xorijiy va boshqa mintaqalardan)
6	Hududning o'sib borayotgan imidji	6	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda suv tanqisligi

4 Manba: Muallif ishlanmasi

Bunda albatta, Surxondaryo viloyati malakali ishchi kuchiga ega bo‘lgan, sarmoya kiritilishi investorlarga katta daromad keltiradigan qudratli ilmiy markaz. Investorlar uchun o‘z biznesini muvaffaqiyatli boshlash imkoniyati mavjud bo‘lgan har tomonlama qulay hudud sifatida jozibador ekanligini ta’kidlash o‘rinli. Albatta, kuchli tomonlar hudud imidjining shakllanishi va rivojlanishiga yordam beradi. Garchi hududda uning mavqeini zaiflashtiradigan sezilarli zaif tomonlar mavjud bo‘lsada, ulardan asosiylari viloyat hududidan malakali kadrlarning chiqib ketishi, ishlab chiqarish, turar-joy hamda kommunal infratuzilmaning sezilarli darajada eskirganligi, hududni rivojlantirish bo‘yicha aniq belgilangan strategik dasturlarning yo‘qligidir.

Hududning marketing jozibadorligini baholashni ikkinchi bosqichida - marketing jozibadorligi omillari qiymatlarini hisoblaymiz. Buning uchun biz hududiy taqqoslashning eng keng tarqalgan usuli bo‘lgan masshtabni qo‘llaymiz va bir qator yagona ko‘rsatkichlarni hududning nisbiy pozitsiyalarini tavsiflovchi umumiy ko‘rsatkichlarga jamlaymiz.

Olingan natijalarga ko‘ra, Surxondaryo viloyati hududlarining marketing jozibadorligi bo‘yicha o‘tkazilgan SWOT tahlili shundan dalolat beradiki, kuchli tomonlarning umumiy bali 170 ballga teng bo‘lib, bu o‘z navbatida jarayon umumiy holatining 56,7 %ini tashkil etdi. Zaif tomonlar esa 172 ballni yoki umumiy holatning 57,3 %ga teng. Bu esa viloyatning imkoniyatlaridan foydalanishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi va zaif tomonlarini bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishni talab etadi. Chunki, Surxandaryo viloyatining mavjud imkoniyatlaridan foydalanish darajasi umumiy holatga nisbatan 58,0 %ni tashkil etib 174 ballga teng bo‘ldi.

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, Surxondaryo viloyatida hozirgi bosqichda isloh qilish istiqbolida “o‘sish uchun emas, balki tashqi tahdidlarni zararsizlantirish uchun kuchli tomonlardan foydalanish, ya’ni mudofaa pozitsiyasiga o‘tish” strategiyasini qo‘llash zarur. Ushbu strategiyaga muammolarni hal qilish orqali emas, balki imkoniyatlardan foydalanish orqali erishish mumkin. Xususan, 5-jadvaldagi ma’lumotlar to‘rtta mavjud strategiyani ko‘rsatadi:

- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish uchun hududning kuchli tomonlaridan foydalanadigan “max-max” strategiyasi;
- tahdidlarni zararsizlantirish uchun hududning kuchli tomonlaridan foydalanadigan “max-min” strategiyasi;
- tashqi imkoniyatlardan foydalanish asosida hududning ning zaif tomonlarini minimallashtirishga qaratilgan “min-max” strategiyasi;
- hududning zaif tomonlari va mumkin bo‘lgan tahdidlarni minimallashtirishga qaratilgan “min-min” strategiyasi. Ushbu keltirilgan strategiyalardan ikkinchisi Surxondaryo viloyatidagi zamonaviy vaziyatga xosdir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, hozirgi vaqtda Surxondaryo viloyati “min-min” strategiyasi bo‘yicha hududni asta-sekin o‘z faoliyatini oshirishi yoki mablag‘larini boshqa sohaga qayta investitsiya qilishi kerak. Shundan kelib chiqqan holda, Surxondaryo viloyatida marketing jozibadorligini oshirish uchun rejalashtirilgan islohotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuni qo‘shimcha qilmoqchimizki, bunday xulosa to‘liq asosli, chunki hudud eksport salohiyatining holati bozor ma’lumotlariga asoslangan holda juda muhim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

SWOT-tahlil natijalariga ko‘ra, o‘rganilayotgan hududlar 10 ta zaif tomonlarga nisbatan 10 ta kuchli tomonlarga ega ekanligi, imkoniyatlar soni esa tahdidlar soni bilan (5 taga nisbatan 5 ta) teng ekanligi aniqlandi. Hududning eksport salohiyatida marketing jozibadorligi isloh qilish istiqbolida “o‘sish uchun emas, balki tashqi tahdidlarni zararsizlantirish uchun kuchli tomonlardan foydalanish, ya’ni mudofaa pozitsiyasiga o‘tish” strategiyasini qo‘llash zarur, deb hisoblaymiz.

Aniqlangan “min-min” strategiyasi sohada tarkibiy o‘zgarishlarni o‘tkazish maqsadga muvofiqligini, uning maqsadi qayta ko‘rib chiqilishi yoki isloh qilinishi lozimligini isbotlaydi. “Tashkiliy-huquqiy shaklni o‘zgartirish masalasida noaniqlik (hokimit boshqaruv organlari masalasi vaqti-vaqti bilan paydo bo‘ladi)” tavakkalchiligi buni tasdiqlaydi, chunki u barcha risklarning 14,9 ustuvor nuqtasida baholanadi.

Islohatlar jarayonida aniqlangan bir xil darajada dolzarb masala “hududlardan yuqori professional xodimlarni ketib qolish” xavfi (16,0 ball), bu kadrlar siyosatini isloh qilish bo‘yicha mutaxassislarni rag‘batlantirish, motivatsiya berish zarurligi bilan bog‘liq. Agar ushbu jaayonga e’tibor qaratimasa, oqibati halokatli holatlarga olib keladi. “Texnik kasblar bo‘yicha ishchilarning yetishmasligi” xavfi ham yuqori baholangan – 20,0 ball, “Aholining to‘lov qobiliyatining pastligi” – 18 ballga teng bo‘lishi Surxondaryo viloyatida aholi daromadini oshirish va kasbga yo‘naltirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni va uni amaliyotga joriy etishni talab etadi.

Shunday qilib, SWOT tahlili hududlar tomonidan rivojlanish strategiyasini tanlashda ham, bozorni tahlil qilish va raqobatbardoshlikni o‘rganishda ham foydalanishi mumkin bo‘lgan universal tahliliy vositadir. Esda tutish kerak bo‘lsa-da:

1) SWOT tahlili asosan subyektivdir;

2) tarmoq imkoniyatlari har doim ham alohida hududlar imkoniyatlari bo‘lavermaydi, chunki ularning har biri bozorda o‘z mavqeiga ega; korxona uchun eng foydali bo‘lib, uning maksimal foyda o‘sishini ta’minlaydigan sanoat imkoniyatlari, ya’ni u eng katta raqobatdosh ustunliklarga ega bo‘ladi, infratuzilmani yangilaydi va hokazo.

Umuman olganda, Surxondaryo viloyatini eksport salohiyatini isloh qilishda ishning zaif tomonlarini faolroq bartaraf etish zarur, chunki boshqa mamlakatlar tajribasini o‘ylamasdan qo‘llashning namoyon bo‘lishini (har doim ham ijobiy emas) kutishning passiv siyosati kutilmagan natijalarga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Старостина А.А. Регионалный маркетинг: сущност и особенности становления в Украине/А.А. Старостина, С.Е. Мартов // Маркетинг в Украине. – 2004. –№ 3. –С. 55-57.
2. Маркетинг мест. Привлечение инвестиций, предприятий, жителей и туристов в города, коммуны, регионы и страны Европы / Ф. Котлер, К. Асплунд, И. Рейн, Д. Хайдер. – СПб.: Стокголмская школа экономики, 2005. – 376 с.
3. Маркетинговый потенсиал стратегического развития региона (на материалах) Закарпатской области) / Елена Щелкунова // автореферат диссертатсии на соискание научного степени кандидата экономических наук, Ужгород – 2009 – 22 с.
4. Герасименко О.Н. К вопросу отсенки маркетинговой привлекателности бизнес-территорий [Електронний ресурс] / О.Н. Герасименко // Проблемы современной экономики. – 2009. – №2 (30). – с. 371-376. – 0,3 п.л. – Режим доступу до журн.: http://www.meconomy.ru/art.php3?artid=25763
5. Кленси К. Дж. Моделирование рынка: как спрогнозироват успех нового продукта. – М.: Вершина, 2007.
6. Котлер Ф., Келлер К. Л. Маркетинг менеджмент. – СПб.: Питер, 2014.
7. Портер М. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей конкурентов. – М.: Алпина Паблишер, 2011.

IMPROVING INTERNAL CONTROL SYSTEM



Mexmonaliyev Ulug‘bek Erkinjon o‘g‘li
Farg‘ona Politexnika Instituti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi tayanch doktaranti

Abstract: The Internal Audit Service is not just a global trend, but an urgent need in the conditions of actively developing and increasingly complicated economic relations. The purpose of this article is to identify the main problems of internal audit in Uzbekistan. It is argued that the concept of internal audit correctness provides conceptual tools for studying internal audit as a disciplinary mechanism in the conditions of corporate governance of modern organizations. The article develops the initial conceptual formulation and internal audit, audit and control to improve the rationality of economic activity and related control measures.

Key words: audit; internal audit; development; mechanism.

Annotatsiya: Ichki audit xizmati nafaqat global tendentsiya, balki faol rivojlanayotgan va tobora murakkablashib borayotgan iqtisodiy munosabatlar sharoitida dolzarb ehtiyojdir. Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekistonda ichki auditning asosiy muammolarini aniqlashdan iborat. Ta'kidlanishicha, ichki auditning to'g'riligi tushunchasi zamonaviy tashkilotlarning korporativ boshqaruvi sharoitida ichki auditni intizomiy mexanizm sifatida o'rganish uchun kontseptual vositalarni taqdim etadi. Maqolada iqtisodiy faoliyatning oqilonaligini oshirish uchun ichki audit, audit va nazoratning dastlabki kontseptual formulasi va tegishli nazorat choralari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: audit; ichki audit; rivojlanish; mexanizmi.

Аннотация: Служба внутреннего аудита – это не просто мировая тенденция, а острая необходимость в условиях активно развивающихся и усложняющихся экономических отношений. Целью данной статьи является выявление основных проблем внутреннего аудита в Узбекистане. Утверждается, что концепция корректности внутреннего аудита дает концептуальный инструментарий изучения внутреннего аудита как дисциплинарного механизма в условиях корпоративного управления современных организаций. В статье разрабатываются исходные концептуальные формулировки внутреннего аудита, аудита и контроля для повышения рациональности хозяйственной деятельности и связанных с ними мер контроля.

Ключевые слова: аудит; внутренняя проверка; разработка; механизм.

INTRODUCTION

In the conditions of economic modernization, the main tool for obtaining reliable information about the financial condition of economic entities is internal audit. There are important changes in the modern economy, one of which represents the consolidation of previously unequal enterprises in the corporation - large business entities, the integration of joint-stock companies and legal entities with different organizational and legal forms. Consolidation is carried out together with the transfer of operational management functions from shareholders to hired top managers in order to attract cheap financial resources, and the entry of Uzbek corporations into the world stock exchanges.

Decision PQ-4611 of February 24, 2020 of the President of the Republic of Uzbekistan “On additional measures for the transition to international standards of financial reporting” opened a new page in accounting policy in our country.

These processes cause important changes in the organization of internal control over the activities of Uzbek corporations and put forward other requirements for disclosure of information about financial and economic activities.

LITERATURE ANALYSIS

Internal audit of business entities operating in the Republic of Uzbekistan is organized based on laws and regulatory documents. Decision No. PQ-475 dated September 27, 2006 of the President of the Republic of Uzbekistan “On Measures for the Further Development of the Securities Market” and the Decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan “On the Measures for the Further Development of the Stock Market” In accordance with the decision No. 215 of October 16, 2006 on measures to ensure effective management and accounting of state property at the necessary level, the balance sheet value of its assets is 1 billion.[1]

According to the “Regulation on Internal Audit Service in Enterprises”, the number of employees of the internal audit service should be sufficient to effectively achieve the goals of the internal audit and solve its tasks. That is, the state of the internal audit service should have the following:

The internal audit service is headed by its head, who has the appropriate auditor’s certificate.[2]

SCIENTIFIC RESEARCH METHODS

The main task of the internal audit system of enterprises is to find ways to increase production and reduce costs. The internal auditor should also give advice on increasing the labor productivity and efficiency of the enterprise. Investigating the corruption of the economic system is a labor-intensive audit. In this, the main directions of financial and economic development of the enterprise are studied. Internal auditor can approve or disapprove this or that direction of development in the enterprise. The purpose of the internal audit is to control the compliance of the company’s employees with legal documents, regulatory documents and standards of professional activity, to eliminate conflicts between the interests of the parties, to ensure reliability in accordance with the characteristics and scope of the operations carried out by the company, as well as to reduce risks in the company’s activities. consists of

“Regulation on Internal Audit Service in Enterprises” was adopted in order to define the single requirements for the organization of internal audit in enterprises with a turnover of more than soums, as well as the methodological basis for the organization of its work. Currently, this Regulation is a regulatory document that specifies the procedure for organizing internal audits in economic entities.

MICROCONTROL SYSTEM[3]

According to the “Regulation on Internal Audit Service in Enterprises”, the number of employees of the internal audit service should be sufficient to effectively achieve the goals of the internal audit and solve its tasks. That is, the state of the internal audit service should have the following:

- The internal audit service is headed by its head, who has the appropriate auditor’s certificate.
- Every year, the head of the internal audit service prepares an annual estimate of the costs of the internal audit service and submits it to the supervisory board of the economic entity for approval.
- The professional level of internal audit service personnel should be maintained through regular training at licensed educational institutions.
- Employees of the internal audit service must be annually certified by the supervisory board of the economic entity.

DISCUSSIONS AND CONCLUSION

In the professional standard of international internal auditors, internal audit is defined as follows, - “internal audit is an independent and impartial advisory activity related to the development and implementation of specific measures aimed at increasing the efficiency of the financial and economic activities of the enterprise.”

Control of financial resources in enterprises is carried out by the following, that is, a special department carrying out this activity, management staff and specialists, accounting staff headed by the chief accountant. The existence of this type of control subjects in enterprises leads to several problems.

Firstly, the large number of control structures leads to the return of some duties between them, for this reason it is necessary to coordinate their activities;

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent sh., 2006-yil 27-sentabrdagi PQ-475-sonli. https://lex.uz/docs/1061595.
2 Suets V. Audit. Textbook. - M.: “Vysshee obrazovanie”, 2007. -398 str.
3 Suets V. Audit. Textbook. - M.: “Vysshee obrazovanie”, 2007. -398 str.

Secondly, it is necessary to ensure the independence of internal control departments, clearly define their functions and determine the flow of information in internal documents.

In order to solve these problems, internal audit functions in enterprises should be distributed at the above organizational levels. The distribution of functions should be based on the following principles:

1. Certain issues at the management level should be reviewed by highly qualified auditors, as well as the rotation of auditors in different departments;
2. Solving issues that do not require the participation of auditors at a high organizational level through the timely use of a well-established flow of information;
3. It is necessary to use the services of highly qualified auditors during the inspection of large departments.




Figure 2: Entities exercising control in enterprises[4]

Organization of internal audit service in enterprises faces two problems, that is, in relation to establishing control over branch managers and executive departments; regarding the organization of the management system of subsidiaries and their control.

In our opinion, we should include the following in the main functions of internal audit in enterprises:

- **Control function:**

a. Carrying out the study of financial resources, evaluation and monitoring of the effectiveness of the internal control system;

b. Compliance with legislation;

c. that the rules of the procedure for drawing up and maintaining the financial report are being followed;

d. Tax accounting and reporting based on established standards;

e. Assessment of the correct adoption of decisions on the formation, use, and movement of resources at the scale of the holding;

f. Liaising with external auditors.

- **Analytical information function:**

a. providing information to the monitoring board about the level of resource utilization of enterprises;

b. Examination of management decisions made on financial resources;

4 The drawing was made independently by the author.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

c. Analysis of internal funds flow and their sources;

d. Participation in the development and analysis of estimates and business plans.

- **Tip function:**

a. Effective accounting methods

b. Participation in the development (analysis) of methodologies for calculating taxes and fees;

c. Development of ways to improve the management information system;

d. Providing advice to departments on issues related to the authority of internal audit.

The effectiveness of the work of the internal audit service department is evaluated depending on the extent to which it has fulfilled its goals, tasks and functions.

As a result of practical application of the above-mentioned principles, the formation of financial resources in enterprises, their use, gives an opportunity to evaluate the correct organization of the account and to analyze the capital structure.

The internal audit department may not always be able to obtain correct and accurate information about the business entity and, as a result, may give incorrect conclusions and recommendations, because the financial statements of holding companies for a certain period may not contain sufficient information.

The internal audit service analyzes the report of the economic entity, determines the direction of future development and helps the management to make decisions. In general, the results of internal audit have a great impact on the improvement of management within the business entity.

For the formation of internal audit in our republic, it is necessary to improve the legal framework and achieve the maturity of regulatory and legal documents and their implementation.

In our opinion, automation (computerization) of internal audit increases the efficiency of audit work, and on the other hand, it allows to create a control-advisory system. We think that in the process of automation (computerization) of internal audit, special attention should be paid to the following elements:

- Economic-mathematical, economic-organizational and informational models reflecting the audit process;
- To technical, software, information and other tools implementing the models.

In our opinion, in order to successfully implement the function of internal audit in managing the activities of economic entities, it is necessary to develop and adopt “Ethical standards of internal auditors”, standards for conducting internal audits in Uzbekistan, as well as internal audit as a form of activity. should be enshrined in law.

The experience of involving internal audit working documents, as well as the experience of involving internal auditors themselves to provide direct support to external audit, creates the need to determine the criteria of internal audit assessment. In our opinion, such criteria should be in the ethical rules of internal auditing and professional (professional) standards. Compliance with them guarantees the high quality of internal audit.

List of used literature:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent sh., 2006-yil 27-sentabrdagi PQ-475-sonli. https://lex.uz/docs/1061595.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent sh., 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832 sonli. https://lex.uz/docs/3806053.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarning samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent sh., 2006-yil 16-oktyabrdagi 215-sonli. https://lex.uz/docs/-1072916.
4. Suets V. Audit. Textbook. - M.: “Vysshee obrazovanie”, 2007. -398 str.
5. Do‘smuratov R., Fayziyev Sh., Qo‘zziyev I, Avloqulov A., Po‘latov G‘. Audit. O‘quv qo‘llanma. II qism. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008, 176 b.

OLIY TA’LIM XIZMATLARINI TARG‘IB QILISHDA OTMLAR VEB-SAYTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH



Musayev Bekjon Shukurillayevich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Marketing” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’lim xizmatlarini targ‘ib qilishda oliy ta’lim muassasalarining veb-saytlarining o‘rni, respublikamiz oliy ta’lim muassasalari veb-saytlariga tashrif buyuruvchilar soni bo‘yicha reytingi, oliy ta’lim muassasalari veb-saytlarini yaratish qoidalari, oliy ta’lim muassasalari veb-saytlarining sifat ko‘rsatkichlari tavsifi yoritilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari veb-saytlari sifatini baholovchi ko‘rsatkichlar bo‘yicha mualliflik tavsiyalari ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim xizmatlari, targ‘ib qilish, veb-sayt va interaktiv elektron ma’lumotlar, veb-saytning dizayni, veb-saytning navigatsiyasi, veb-saytning interaktivligi, veb-saytning kontenti.

Abstract: The role of the websites of higher education institutions in the promotion of higher education services in the article, the rating of the number of visitors to the websites of higher education institutions of our republic, the creation of websites of higher education institutions rules, the description of the quality indicators of the websites of higher education institutions is covered. Also, the author’s recommendations on indicators for evaluating the quality of websites of higher education institutions were put forward.

Key words: higher education services, promotion, website and interactive electronic information, website design, website navigation, website interactivity, website content.

Аннотация: В статье роль сайтов высших учебных заведений в продвижении услуг высшего образования, рейтинг количества посетителей сайтов высших учебных заведений нашей республики, правила создания сайтов высших учебных заведений, приведено описание показателей качества веб-сайтов высших учебных заведений. Также выдвинуты авторские рекомендации по показателям оценки качества веб-сайтов высших учебных заведений.

Ключевые слова: услуги высшего образования, продвижение, веб-сайт и интерактивная электронная информация, дизайн веб-сайта, навигация по веб-сайту, интерактивность веб-сайта, контент веб-сайта.

KIRISH

Oliy ta’lim muassasalari ta’lim xizmatlari bozoriga ta’lim xizmatlari sifatida ta’lim dasturlarini taklif etadi. Shuning uchun OTMlarning “ta’lim dasturlari” targ‘ib qilishning asosiy obyekti sifatida bo‘lishi kerak.

O‘zgaruvchan bozor iqtisodiyoti va potensial talabalar sonining oshishi sharoitida oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri uning ta’lim dasturlarini targ‘ib qilish hisoblanadi. Ta’lim dasturlarini muvaffaqiyatli targ‘ib qilish ta’lim xizmatlari bozorining rivojlanish qonuniyatlarini chuqur tushunishga va oliy ta’lim muassasalarining kommunikativ faoliyati bilan bozor kon’yunkturasiga mohirona ta’sir ko‘rsatish qobiliyatiga bog‘liq.

O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari bozorida miqdoriy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bu esa, o‘z navbatida sezilarli sifat o‘zgarishlariga ham olib kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, bo‘layotgan bu o‘zgarishlar ta’lim xizmatlari bozorida bir qator tendensiyalarni yuzaga keltirmoqda. Birinchidan, ta’lim xizmatlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqib, targ‘ib qilish ishlarini jadallashtirish orqali eng “iqtidorli” abiturientlar uchun kurashda yengib chiqish bo‘lsa, ikkinchidan, raqobat ko‘lami global ta’lim makonida kuchayib borayotganligini hisobga olib, raqobatbardosh OTMlarga aylanish va xalqaro reytinglardan joy olishdek vazifalarni o‘z oldilariga qo‘ymoqdalar.

Shuningdek, jahonda ta’lim xizmatlari bozorining rivojlanishi milliy oliy ta’lim muassasalari oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa, individual ta’lim dasturlari va umuman ta’lim muassasalarining xizmatlarini targ‘ib qilish tabiati va usullariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday vaziyatda oliy ta’lim xizmatlarini targ‘ib qilishning muhim vositasi bo‘lgan veb-saytdan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Oliy ta’lim xizmatlari iste’molchilari uchun kerakli axborotlarni uzatish, yetkazish va tasavvurni shakllantirishning muhim raqamli kanali bo‘lgan veb-sayt va uni samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilish masalasini E.I.Bulin-Sokolova o'z tadqiqotlarida "oliy ta'limdagi marketingning asosiy yutuqlari ta'lim xizmatlarini reklama qilish va targ'ibot ishlarini olib borishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq ekanligidir" [1]. Hanover Research o'z izlanishlarida, "OTMlari yangi talabalarni jalb qilishda ochiq eshik kunlarini va shunga o'xshash boshqa tadbirlarga katta ahamiyat berayotganiga qaramay, raqamli texnologiyalar orqali oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilish vositalari eng samarali ekanligini ko'rsatadi" [3]. Xorijiy mutaxassislardan yana biri C.Maslowskyning fikricha "veb-sayt oliy ta'lim muassasalari va ularning turli manfaatdor tomonlari o'rtasida marketing targ'ibotlari uchun juda muhim vosita bo'lib qolayotganligi, shu bilan birga ijtimoiy tarmoqlarda marketing (Social media marketing (SMM)) imkoniyatlaridan ham samarali foydalanishga e'tibor qaratishlari lozim" [4]. Bu tadqiqotchilarning fikrlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, bugungi axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan davrda oliy ta'lim xizmatlarini siljitish, targ'ib qilish (promotion)da raqamli texnologiyalardan ya'ni, internet marketing, raqamli marketing imkoniyatlarini keng foydalanish lozim.

D.G.Popov oliy ta'lim muassasasi brendini yaratish va targ'ib qilish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. D.G.Popov fikricha oliy ta'lim muassasasi brendini yaratish va targ'ib qilish vositalari sifatida quyidagilarni taklif qilgan: veb-sayt va interaktiv elektron ma'lumotlar. Abiturientlar, talabalar va boshqa manfaatdor guruhlar tomonidan oson foydalanish uchun nisbatan oddiy va intuitiv tushunarli interfeys va jalb etuvchan dizaynga ega zamonaviy OTM saytini yaratish va qo'llab-quvvatlash zarur. Aholi va xorijiy muloqot doiralarda portalga tashrif buyurishga qiziqish uyg'otish uchun sayt kontentini ta'lim yo'nalishlari, fakultetlar, tarmoqlar, yetakchi tadqiqotchilar, maxsus tadbirlar haqida va boshqa foydali ma'lumotlar bilan muntazam ravishda qo'llab-quvvatlash kerak [6].

D.G.Popov o'z tadqiqotida shuningdek, oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilishda asosiy va qo'shimcha maqsadli muloqot doirasini shakllantirishni tavsiya etadi. Unda asosiy o'rinni institut sayti egallashi ilgari surilgan [6].

Oliy ta'lim xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida targ'ib qilish hamda oliy ta'lim xizmatlarini raqamlashtirishning dolzarb masalalari bo'yicha mahalliy olimlarimiz, yosh mutaxassislar ham o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Jumladan, S.S.Gulyamov, R.X.Ayupov, M.Q.Abdullaevlarning fikrlarga ko'ra, "...hozirgi davrda universitetlar va boshqa oliy ta'lim muassasalari oldida raqamli iqtisodiyotga o'tish davri vazifalari ko'ndalang bo'lib turibdi: oldindan ma'lum qilingan yo'nalishlar va ixtisosliklar bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorlash bilan birga dasturlar to'plamini kengaytirish va talabalar raqamli iqtisodiyot talab qiladigan ko'nikmalarni o'zlashtirishi va bilimlar olishi mumkin bo'lgan zarur sharoitlar yaratish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi" [2]. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, OTMlarini bitiruvchilari nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimlarni puxta egallagan bo'lishi, balki raqamli iqtisodiyot talab qiladigan ko'nikmalarni o'zlashtirishi va bilimlar olishi uchun oliy ta'lim muassasalari o'z e'tiborlarini qaratishlari lozimligi aytib o'tilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasidagi OTMlarining rasmiy veb-saytlariga tashrif buyuruvchilar soni bo'yicha reytingini tadqiq qilishda statistik ma'lumotlarni tahlil qilishda statistik tahlil, oliy ta'lim muassasalari veb-saytlarining sifat ko'rsatkichlari tavsifi, oliy ta'lim muassasasining veb-saytini yaratishning afzalliklarini yoritishda izimli tahlil, qiyosiy va vaziyatli tahlil, oliy ta'lim muassasalari veb-saytining sifatini baholash ko'rsatkichlari abstrakt-mantiqiy fikrlash, integratsiyalashgan yondashuv asosida yoritib berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori asosida oliy ta'lim muassasalarida axborot xizmati tashkil etilib, matbuot kotibi lavozimi joriy etildi. Barcha oliy ta'lim muassasalarida axborot xizmatining (matbuot kotibining) nizomlari ishlab chiqildi. Oliy ta'lim muassasalarining axborot xizmatining asosiy vazifalaridan ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik qilish, axborot xabarlarini (matbuot uchun axborotlar, byulletenlar va shu kabilarni) tarqatish, ommaviy tadbirlarni tashkil etish, axborotni oliy ta'lim muassasasining veb-saytlariga tezkor joylashtirish va o'z vaqtida yangilab borish, internet tarmog'idagi veb-resurslarni, shu jumladan, ijtimoiy va mobil tarmoqlarni rivojlantirish hisoblanadi.

Demak, bugungi kunda oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilishda oliy ta'lim muassasalari veb-saytlarining o'rni va roli juda katta. Bevosita oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilish veb-saytning asosiy vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilishda veb-sayt samaradorligini baholash muhimdir.

Oliy ta'lim muassasalarining veb-saytini o'rganishda quyidagi mezonlarga e'tibor qaratiladi:

- Veb-saytning dizayni;
- Veb-saytning navigatsiyasi;

- Veb-saytning interaktivligi;
- Veb-saytning kontenti;
- Veb-saytning Internet ko‘rinishi.

Sayt – talabalarni, kasbiy qayta tayyorlash dasturlari tinglovchilarini jalb qilish, o‘quv rejalar haqida ma’lumot berish, talabalar, professor-o‘qituvchilar va abiturentlar bilan muloqot qilish uchun zarur vositadir (1-jadval). Sayt zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta’lim muassasasining ta’lim imijiga urg‘u beradi va doimo dolzarb ma’lumotlarni targ‘ib qiladi. Barcha oliy ta’lim muassasasi rahbariyati arzon, tez va sifatli veb-sayt yaratishga intiladi. Lekin bu boradagi asosiy muammo oliy ta’lim veb-saytining sifatini ta’minlashdan iborat.

1-jadval: Oliy ta’lim muassasasining veb-saytini yaratishning afzalliklari

Afzalliklar	Afzalliklar mazmuni
Axborotni qayta ishlash va yig‘ish vositasi	Ta’lim sifati va samaradorligi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni (oliy ta’lim muassasasi tadbirlari, madaniy hayoti, ilmiy nashrlar, uslubiy adabiyotlar va boshqalar) yig‘ish va kerakli auditoriyaga yetkazish
Kibermakonda vakillik (nomzodlik)	Abiturentlar uchun Internet orqali oliy ta’lim muassasasini qidirish va solishtirish qulay bo‘lishi lozim. Abiturentlarni jalb qilish uchun foydalanish xizmatlar va resurslarni joylashtirish lozim. Talabalar, abiturentlar va ularning ota-onalari va boshqalar oliy ta’lim muassasasining o‘quv kurslari, dasturlari, qabul kvotalari va boshqa ma’lumotlarni o‘z vaqtida olishi muhim hisoblanadi.
Raqobat ustunligini ta’minlash	Ta’lim texnologiyalarining rivojlanishi davlat oliy ta’lim muassasalari bilan xususiy oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, o‘quv markazlari o‘rtasida raqobatni keskinlashtirmoqda. IT-texnologiyalaridan foydalanmaydigan, Internet qidiruv tizimini samarali ishlatmaydigan, raqamli texnologiyalarjan foydalanib o‘z xizmatlarini targ‘ib qilmaydigan oliy ta’lim muassasalari raqobat kurashida yengiladi.
Oliy ta’lim muassasasi ishini optimallashtirish	Oliy ta’lim muassasasi, uning filiallari, boshqa ta’lim muassasalari bilan aloqalarini optimallashtirish tizimini yaratish, masofaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va h.k. imkonini beradi.
Targ‘ib qilish vositasi	Keng auditoriyani qamrab oladigan va u yerdan doimiy ravishda oliy ta’lim muassasasi haqida ma’lumot olish imkonini beruvchi arzon vosita hisoblanadi.

Saytning sifati asosan veb-dizanerning malakasi bilan belgilanadi. Veb-dizayn sohasida mamlakatimizda kadrlarning professional tayyorgarligi hali ham mavjud emas. Sayt sifati bo‘yicha nazariy ishlar hali ham bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Saytlarni loyihalash, yaratish, ishlatish yoki taqqoslash bo‘yicha aniq tajribali mutaxassislar yetarli emas. Ko‘pincha veb-dizaynerlar saytni texnik jihatdan qanday yaratishni bilishadi. Ammo, qanday mazmundagi axborotlarni, qachon kerakligi (potensial iste’molchilar ehtiyojlari), kimga (maqsadli auditoriya), qay yo‘sinda targ‘ib qilishni bilishmaydi.

OTMlarining xalqaro (QR) reytingiga kirishi uchun bir nechta ko‘rsatkichlarining bajarilishiga e’tibor berishlari kerak. Birinchi o‘rinda har qanday OTMlarining akademik obro‘si (40%) eng yuqori ball olish imkonini beradi. Mazkur ko‘rsatkichni aniqlashda dunyodagi OTMlarida faoliyat ko‘rsatayotgan 100 000 dan ortiq mutaxassislarning reytingga kirmoqchi bo‘lgan talabgor OTMdagi o‘qitish va ilmiy tadqiqot ishlarining sifati to‘g‘risidagi fikrlari o‘rganiladi. Mutaxassislar asosan OTMning veb-saytidan va xalqaro bazalardagi axborotlardan ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

2-jadval: O‘zbekiston Respublikasidagi OTMlarining rasmiy veb-saytlariga 1 oy davomida (21.12.2023-20.01.2024) 400 dan oshgan tashrif buyuruvchilar soni bo‘yicha reytingi1

O‘rin	OTM veb-saytlari nomi	Tashrif buyuruvchilar	Ko‘rishlar	1 tashrif buyuruvchining o‘rtacha ko‘rishlar soni
1	Toshkent Axborot Texnologiyalari Uuniversiteti	226 590	916 200	4,0
2	Samarqand davlat tibbiyot universiteti	150 762	3 135 033	20,8
3	O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti	133 559	1 016 886	7,6

1 www.uz ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

O‘rin	OTM veb-saytlari nomi	Tashrif buyuruvchilar	Ko‘rishlar	1 tashrif buyuruvchining o‘rtacha ko‘rishlar soni
4	Toshkent tibbiyot akademiyasi	87 266	2 069 606	23,7
5	Samarqand Davlat universiteti rasmiy sayti	62 855	125 045	2,0
6	Toshkent moliya instituti sayti	50 856	120 515	2,4
7	A.Qodiriy nomidagi JDPU	47 330	97 800	2,1
8	Navoiy davlat pedagogika instituti	37 388	81 197	2,2
9	Buxoro davlat universiteti	34 946	89 180	2,6
10	Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	32 960	84 511	2,6
11	O‘zbekiston Milliy universiteti	27 600	70 987	2,6
12	Urganch Davlat Universiteti	26 453	503 825	19,0
13	TDIU Samarqand filiali	25 681	40 675	1,6
14	Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti	24 099	48 080	2,0
15	Andijon davlat universiteti	23 263	43 965	1,9
16	Toshkent davlat transport universiteti	22 243	130 952	5,9
17	Nizomiy nomidagi TDPU	21 481	195 855	9,1
18	Namangan muhandislik-qurilish instituti	21 472	40 591	1,9
19	Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti	19 194	42 461	2,2
20	Rossiya Davlat neft va gaz Universitetining filiali	17 577	35 808	2,0
21	Toshkent davlat iktisodiyot universiteti	14 666	28 084	1,9
22	TATU Farg‘ona filiali rasmiy sayti	13 930	531 851	38,2
23	Nukus Davlat Pedagogika Instituti	11 724	22 060	1,9
24	TATU Urganch filiali	11 687	254 799	21,8
25	O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti	10 925	19 292	1,8
26	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti davlat universiteti	10 696	26 949	2,5
27	Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti	10 562	28 641	2,7
28	Andijon davlat tibbiyot instituti	10 524	20 440	1,9
29	Toshkent irrigasiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti	9 739	32 030	3,3
30	O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti	7 193	16 611	2,3
31	Qarshi davlat universiteti	7 096	30 386	4,3
32	EMU University	6 964	15 196	2,2
33	Toshkent davlat stomatologiya instituti	6 355	40 104	6,3
34	Islom Karimov nomidagi TDTU	6 206	11 881	1,9
35	Guliston davlat universiteti	5 718	15 896	2,8
36	Jizzax politexnika instituti	5 700	10 443	1,8
37	Geologiya fanlari universiteti	5 377	12 543	2,3
38	Toshkent farmasevtika instituti	4 889	6 895	1,4
39	O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti	4 526	8 777	1,9
40	Samarqand davlat chet tillar instituti	4 458	11 062	2,5
41	Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	4 387	21 173	4,8
42	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti	4 315	11 575	2,7
43	Namangan davlat universiteti	4 306	10 807	2,5

O‘rin	OTM veb-saytlari nomi	Tashrif buyuruvchilar	Ko‘rishlar	1 tashrif buyuruvchining o‘rtacha ko‘rishlar soni
44	Qarshi Muhandislik iqtisodiyot instituti rasmiy sayti	4 018	22 024	5,5
45	O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali	2 914	4 665	1,6
46	Andijanskiy mashinostroitelnыy institut	2 749	6 455	2,3
47	Farg‘ona davlat universiteti	2 383	8 264	3,5
48	Shahrisabz davlat pedagogika instituti	2 375	5 899	2,5
49	Farg‘ona politexnika instituti rasmiy sayti	2 127	8 605	4,0
50	TATU Nukus filiali	2 003	3 587	1,8
51	O‘zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali	1 991	4 588	2,3
52	Termiz muhandislik-texnologiya instituti	1 887	3 788	2,0
53	O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal instituti	1 870	5 240	2,8
54	Toshkent davlat agrar universiteti	1 712	5 367	3,1
55	Urganch davlat pedagogika instituti	1 708	6 981	4,1
56	Samarqand davlat universiteti Urgut filiali	1 567	3 261	2,1
57	Islom Karimov nomidagi TDTU Qo‘qon filiali	1 456	2 025	1,4
58	Guliston davlat pedagogika instituti	1 313	3 317	2,5
59	Toshkent davlat pedagogika universiteti Termiz filiali	1 117	1 433	1,3
60	“TIQXMMI” MTU Buxoro filiali	1 001	5 455	5,4
61	Toshkent shahridagi Inxa Universiteti	923	1 449	1,6
62	Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	871	2 097	2,4
63	O‘ZDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san’ati instituti	514	794	1,5
64	Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti	472	1 078	2,3
65	Toshkentdagi S.A.Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya universiteti	461	1 158	2,5
66	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti	428	1 257	2,9
67	Samarqand Iqisodiyot va Servis instituti	417	1 138	2,7

Oliy ta’lim muassasalarining imiji ko‘plab ko‘rsatkichlar, omillar, tarkibiy qismlardan iborat. Ammo ularning asosini uning ish reputatsiyasi tashkil etadi. Professional tarzda yaratilgan veb-saytning mavjudligi ushbu oliy ta’lim muassasasining o‘zining potensial iste’molchilari, ya’ni, saytga tashrif buyuruvchilarni hurmat qilishidan dolalat beradi. Tashrif buyuruvchilar saytni Internetdagi kalit so‘zlar orqali tezda topishsa, sahifalar tezda yuklansa, saytdan tezda kerakli dolzarb ma’lumotlar topilsa, saytda taqdim etilgan ma’lumotlar aniq va to‘liq bo‘lsa, ma’lumotlar tezda yangilanib borsa, tashrif buyuruvchilarni oliy ta’lim xizmatlari haqidagi qiziqarli, e’tiborni dalb qila oladigan targ‘ib qilish murojaatlari bo‘lsa sayt samarali deb baholash mumkin. Oliy ta’lim muasssasalari veb-saytlarining sifat ko‘rsatkichlari tavsifi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval: Oliy ta’lim muassasalari veb-saytlarining sifat ko‘rsatkichlari tavsifi[2]

Ko‘rsatkichlar	Mazmuni
Dizayn	Saytning tashqi ko‘rinishi, vizual dizayni, estetik qiymatini oshirishni tavsiflaydi. Baholash mezonlari – ranglar, yuqori sifat, korporativ identifikatsiyani birlashtirish va boshqalar.
Tezkorlik (interaktivlik)	Tashrifchining harakatlariga qarab, vositalar to‘plami (forumlar, mehmonlar kitoblari, so‘rovlar va boshqalar) orqali foydalanuvchi bilan o‘zaro aloqa darajasini tavsiflaydi. Tashrif buyuruvchilar o‘zlarini sayt mazmunini shakllantirish ishtirokchilari sifatida his qilishlari kerak.

2 Пителинский К.В. О связи имиджа вуза и качества его сайта // В сб. докладов XI открытой научной конференции МГТУ “СТАНКИН” и “Учебно-научного Центра Математического моделирования МГТУ “СТАНКИН” и ИММ РАН” под ред. О.А. Казакова Москва 23-25 апреля 2008г, МГТУ “СТАНКИН”. С. 110113.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Ma’lumot beruvchanlik	Axborotning тщliьiligi, ishonchliligi va dolzarbligi foydalanuvchilarning resursga munosabatini shakllantiradi. Saytga tashrif buyuruvchilar quyidagilarni olishi kerak: - abiturentlar uchun axborotlar (fakultetlar va ta’lim yo‘nalishlari haqida ma’lumotlar, qabul kvotalari, oldingi yil qabul natijalari statistikasi, to‘lov-kontrakt summasi, to‘lov-kontraktni to‘lash qoidalari, kredit-modul tizimi, talabalar turar joylari haqidagi ma’lumotlar); - talabalar uchun axborotlar (dars jadvallari, o‘quv materiallar, professor-o‘qituvchilar haqida ma’lumotlar); - oliy ta’lim muassasasining madaniy hayoti (oliy ta’lim muassasasining ijodiy va sport tadbirlari haqidagi ma’lumotlar); - oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari haqidagi axborotlar (konferensiyalar, seminarlar, ilmiy tadqiqotlar); - umumiy axborotlar (OTM vizitkasi) – ta’lim muassasasining tarixi, bog‘lanish uchun aloqa raqamlari); - OTM yangiliklarini yangilab borish va boshqalar.
Qulaylik	Yangi tashrif buyuruvchilarni jalb qilish uchun qulay interfeys, ma’lumotlarni oson qidiruvi va topilishini ta’minlash. Ma’lumotlarni shunday joylashtirish kerakki, tashrif buyuruvchi keyingi sahifada uni nima kutayotgan faollashtirishgan havola orqali topib olishi lozim. Qisqa, tushunarli shrift va matn formatini shakllantirish muhim.
Funksionallik	Ular dastur kodining sifati (ixchamlik va optimal hajm), texnologiyalardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi va saytga tashrif buyuruvchining apparat va dasturiy platformasidan saytning o‘zgarmasligi bilan belgilanadi.

Veb-saytlarni baholash bo‘yicha mutaxassislar ham veb-dizaynerlar kabi bir qator muammolarga duch kelishmoqda. Chunki veb-saytlarni baholashning uslubiy (metodikasi) asoslari to‘liq shakllanmagan. Bu esa veb-saytlarning samaradorligi va sifatini baholash konsepsiyasini ishlab chiqish dolzarbligini bildiradi. Saytning ish faoliyatini baholash, odatda, uning ishtiroki va mavjud ma’lumotlarga bo‘lgan talab (foydaliligi, o‘ziga xosligi va olingan ma’lumotlarning miqdori) orqali amalga oshiriladi. Saytga tashrif buyurish, saytga muntazam qaytish, qaytish chastotasi va dinamikasi sayt samaradorligini baholashning eng muhim mezonlari hisoblanadi. Saytga qaytish uchun faqat ma’lumotlar yetarli va yangilanib turishi muhim. Bugungi kunda shunga qaramasdan, mualliflar tomonidan sayt samaradorligini baholash mezonlari taklif etilgan.

Oliy ta’lim muassasalari veb-saytining sifatini baholash ko‘rsatkichlari:

1. Dizayin:
   - Uslubiy birligi;
   - Individuallik (yagonalik);
   - Matn va tasvir sifati;
   - Ranglar kombinatsiyasi;
2. Tezkorlik (interaktivlik):
   - Onlayn chat bot yoki tezkor aloqa xizmati yo‘lga qo‘yilganligi;
   - Yangilanish chastotasi.
3. Ma’lumot beruvchanlik:
   - Abiturentlar uchun ma’lumotlar;
   - Talabalar uchun ma’lumotlar;
   - OTMni madaniy hayoti;
   - Yangiliklar muntazamligi.
4. Qulaylik:
   - Navigatsiyani amalga oshirish;
   - Shrift va shakllar.
5. Funksionallik:
   - Kross-platformalik;
   - Qidiruv tizimi tezligi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta’lim muassasalarida veb-saytni yaratishda eng ko‘p uchraydigan muhim xatoliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Saytda eskirgan ma’lumotlarning mavjudligi.
2. Maxsus effektlar bilan saytning haddan tashqari yuklanishi.
3. Tugallanmagan saytni Internetga joylashtirish.
4. Bir nechta sahifalardan yirik oliy ta’lim muassasasining saytini yaratish.

Olit ta’lim muassasalari saytida uning faoliyati mufassal tarzda tavsiflashi lozim. Ayniqsa, “Xorijiy abiturientga”, “Xalqaro almashinuv” va “Ingliz tilidagi ta’lim dasturlari” bo‘limlari batafsil yoritilishi kerak. Brend-buk dizaynni qo‘llagan holda umumiy ramzlar (logotip, universitet uslubi elementlari) yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Sayt, barcha poligrafiya materiallari va boshqalar albatta umumiy uslubda, bir xil qoidalar bo‘yicha va bir xil rang sxemalarida ishlab chiqilishi lozim, bu brend taniqligini oshirishga xizmat qiladi.

“O‘qituvchilar” bo‘limida OTM yetakchi professor-o‘qituvchilarining “ish jarayonidagi fotosessiyasi” va ingliz tilida yozilgan tarjimai hollarini joylashtirish lozim. Sayt oliy ta’lim muassasasining internetdagi yuzi bo‘lib, maqsadli muloqot doiralari bilan bevosita aloqa qilishning eng oddiy vositasi bo‘lishi – abiturient yoki talaba so‘raydigan barcha ma’lumotlardan iborat bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, sayt innovatsiyalarni aks ettirishi, zamon bilan hamnafas bo‘lishi, saytni o‘z vaqtida yangilab turish va ma’lumotlarni to‘g‘ri joylashtirish orqali kafedralar mutaxassislarining professionalligini aks ettirishi kerak. Poligrafiya – maqsadli muloqot doiralari uchun juda muhim axborot manbayidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Булин-Соколова Е.И. Информационно-коммуникативные технологии в системе общего образования [Текст] // –М.: ФГНУ ИОО, –2004. –7,5 уч.-изд.
2. Гулямов С.С., Аюбов Р.Х., Абдуллаев М.Қ. Рақамли иқтисодиёт – кадрлар тайёрлашнинг долзарб йўналишлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнал, №1, 2020 й. –186-198 бетлар.
3. Hanover Research (2014). Trends in Higher Education Marketing, Recruitment, and Technology [ebook].
4. Maslowsky, C. (2013). Five Ways Higher Education Marketing Will Change in 10 Years. The EvoLLLution. Retrieved 20 July 2016.
5. Пителинский К.В. О связи имиджа вуза и качества его сайта // В сб. докладов XI открытой научной конференции МГТУ “СТАНКИН” и “Учебно-научного Центра Математического моделирования МГТУ “СТАНКИН” и ИММ РАН” под ред. О.А. Казакова Москва 23-25 апреля 2008г, МГТУ “СТАНКИН”. С. 110113.
6. Попов Д.Г. Оценка эффективности бренда высшего учебного заведения в условиях интернационализации высшего образования. Управленческое консультирование. –№ 11. –2014. –82-90 с.

KORXONANING NARX-NAVO TIZIMI VA NARX SIYOSATINI TAHLIL QILISH





Musayeva Shoira Azimovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instiiuti
Marketing kafedrasi professori

Usmonova Dilfuza Ilhkomovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instiiuti
Marketing kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada xarajatlarni kamaytirish, tovar yetkazib beruvchilar va do‘kon o‘rtasidagi vositachilik tashkilotlarini qisqartirish, mehnat unumdorligi va ish haqi o‘sish sur’atlarining o‘sish sur’atlari nisbati va iqtisodiy rivojlanish narxlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Korxona, mahsulot, narx, o‘sish, bozor, ish haqi, tuzim, strategiya.

Abstract: This article examines the costs of reducing costs, reducing the intermediary organizations between suppliers and stores, the ratio of the growth rates of labor productivity and wage growth, and the prices of economic development.

Key words: Enterprise, product, price, growth, market, salary, structure, strategy.

Аннотация: В статье рассматриваются издержки снижения издержек, сокращения посреднических организаций между поставщиками и магазинами, соотношение темпов роста производительности труда и роста заработной платы, а также цены экономического развития.

Ключевые слова: Предприятие, продукт, цена, рост, рынок, заработная плата, структура, стратегия.

KIRISH

Iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida bozor munosabatlariga o‘tishning ajralmas sharti sifatida o‘tish davridagi iqtisodiga ega bo‘lgan mamlakatlar uchun narx belgilash muhim ahamiyatga ega. Narx belgilash davlatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi faoliyati, tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilar faoliyatining eng murakkab va muhim jihati hisoblanadi. Jamiyat rivojlanishining barcha asosiy siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolari narxlarda jamlangan. Ko‘pchilik mutaxassislar bozor munosabatlariga o‘tish muvaffaqiyatini narx-navo islohotini amalga oshirish, narxlarni belgilashning yangi mexanizmini yaratish va ularni davlat tomonidan tartibga solish bilan bog‘lashlari bejiz emas. Narxlarni boshqarishning moslashuvchan va samarali mexanizmisiz shakllangan bozorni tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Narxlar tizimi ilmiy-texnikaviy jarayonni jadallashtirishni rag‘batlantirishi, resurslarni tejash va iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishga yordam berishi kerak. Narxlar inson ehtiyojlarini hisobga olishi va aholi farovonligini oshirish uchun sharoit yaratishga yordam berishi kerak [1, 2].

Korxonaning narx siyosatini shakllantirishning asosi korxonaning maqsadi va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishini aniqlashdir. Uni amaliy amalga oshirish jarayonida narxlarni shakllantirish va qo‘llash bo‘yicha tashkiliy, iqtisodiy, boshqaruv va boshqa tadbirlar xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida shunday muhim o‘rin tutadiki, u haqiqiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijiy tajribalarga tayanib shuni ta'kidlash lozimki, marketing tamoyillarini rivojlantirish va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha kuplab iqtisodchi olimlar shug'ullanib kelgan. Ular qatoriga F.Kotler, M.Porter, D.Evans, I.Ansoff, M.Berman, M.Golubkov, P.Samuelson, D.Marshall kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda qator yillar davomida marketing sohasida olib borilgan izlanishlar milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda iqtisodiyotda marketing nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan olimlarni ham e'tirof etish lozim. Bularga M.Muxammedov, M.Pardaev, R.Ibragimov. YO.Abdullaev, A.Saliev, M.SHarifxo'jaev, B.Xodiev, D.Raximova, R.Boltaboev, D.Ergashxodjaeva va boshqalarni kiritish mumkin.

ASSORTIMENTDAGI NARX STRATEGIYALARI

Ular bir-birini almashtiradigan, bir-birini to'ldiruvchi tovarlar yoki xizmatlarning ma'lum bir qatorini sotadigan korxona va firmalar tomonidan qo'llaniladi. Eng keng tarqalgan va tushunarli strategiya mahsulot to'plamlari uchun narx strategiyasidir. Uning mazmuni shundan iboratki, to'plamning narxi (ustra va pichoqlar, fotoapparat va plyonkalar, kosmetika to'plamlari, stereo jihozlar to'plamlari) uning tarkibiy qismlari narxlari yig'indisidan pastroq qilib belgilanadi. Shu bilan birga, asosiy mahsulot arzonroq narxda, qo'shimcha yoki turdosh mahsulotlar esa yuqori narxda sotilishi mumkin. Tovarlarning o'rnini bosmasligi yoki xaridor talabining nosimmetrikligi, mahsulotlarning buzilishi ehtimoli (masalan, to'plamda) xaridorlarni butun to'plamni sotib olishga ishontirish uchun narxlardan foydalanishga imkon beradi. Bunday holda, xaridor ham, sotuvchi ham foyda ko'radi. Birinchisi - narxlar tufayli, ikkinchisi - sotish hajmining oshishi tufayli [4, 5].

Differensial rentabellik strategiyasi o'rnini bosadigan tovarlar yoki xizmatlar narxini belgilashda qo'llaniladi. Shu bilan birga, korxona yoki firma o'xshash tovarlarga narxlarni shunday belgilaydiki, ular qimmat modellardan katta foyda oladi, ba'zan esa arzonlaridan esa zarar ko'radi, lekin umuman olganda o'rtacha foyda ko'rsatkichiga ega. Narxlari va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi tovarlar yoki xizmatlar turlari modellari xaridorlarning turli toifalari uchun mo'ljallangan. Ushbu strategiyadan foydalanish teatrlarda birinchi va oxirgi qatorlar uchun chiptalar narxlari, hashamatli va oddiy mehmonxona xonalari, nufuzli va oddiy avtomobil markalari, aholi va korxonalar uchun xizmatlar (transport, kommunal xizmatlar, maishiy xizmatlar) tariflari va boshqalarni tushuntiradi.

Ichki va xalqaro savdoda qo'llaniladigan sotilgan tovar partiyasi hajmi, erishilgan aylanma va to'lov shartlariga qarab narxlardagi turli chegirmalar ham narxni bozor sharoitiga moslashtirish imkonini beradi.

Bozorda faoliyat yuritayotgan ko'pchilik korxonalar, qoida tariqasida, yagona narxni emas, balki mavjud bozor sharoitlariga qarab narxlarni o'zgartirish tizimini belgilaydi. Ushbu tizim nomenklatura, assortiment, mahsulot modifikatsiyasidagi mumkin bo'lgan farqlarni ham, tashqi savdo sharoitlaridagi farqlarni ham hisobga oladi, masalan, xarajatlar va talabning geografik farqlari, bozorning alohida segmentlarida talabning intensivligi, mahsulotni sotish vaqti va boshqalar. Bu omillar narxlash uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, korxona uchun narx strategiyasini ishlab chiqishda alohida e'tiborga olinadi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, tanlanma kuzatish usullaridan foydalanilgan.

TADQIQOT NATIJALARI

"Samarqand-apparell" MChJ QK yoshlar kiyimlarini sotadi. So'nggi yillarda korxona mahsulotlari assortimenti ko'payib, Samarqand shahri va Samarqand viloyati yoshlarini quyidagi turdagi kiyim-kechaklar bilan ta'minlamoqda: yoshlar uchun erkaklar va ayollar trikotaj kiyimlari, yubkalar, ko'ylaklar, sviterlar, erkaklar va ayollar kostyumlari, ustki kiyimlari, erkaklar kiyimlari. ko'ylaklar, shimlar, kostyumlar, ayollar liboslari, bluzkalar, yubkalar, shimlar va boshqalar.

2021-yildan 2023-yilgacha "Samarqand-apparell" MChJ QK tomonidan tovarlarni sotish hajmi oshgan. 2023-yilda 31,49% ni tashkil etdi, bu foydaning o'sishining intensiv xarakterini ko'rsatadi, tahlili 1-jadvalda muhokama qilinadi.

1-jadval: 2021-yildan 2023-yilgacha "Samarqand-apparell" MChJ QK tomonidan tovarlarni sotish hajmi

Indeks	2021-yil, mln so'm	2022-yil, mln.so'm	2023-yil, mln.so'm	O'sish sur'ati, %
1. Yalpi foyda	1265	1583	1796 yil	141, 98
2. Sotishdan olingan foyda	1730	2335	2988	172, 72
3. Soliq to'lashdan oldingi foyda	592	756	895	151, 18
4. Sof foyda	498	642	737	147, 99
5. Taqsimlanmagan foyda	764	928	1190	155, 76

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘rganish davrida yalpi foyda (41,98 foizga) oshgan. Shu bilan birga, xuddi shu davrdagi savdo foydasi oshdi (72,72%), bu tovarlarni sotish bo‘yicha tijorat va ma’muriy xarajatlar ulushi kamayganligini ko‘rsatadi, ya’ni. foyda o‘sishining intensiv xarakteri haqida. Sof foyda va soliqqa tortilgunga qadar foyda ham oshgan (47,99% va 55,76%). Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilayotgan davrda barcha foyda ko‘rsatkichlarida o‘sish kuzatildi. Foyda korxona faoliyatining asosiy natijasidir, ammo mutlaq foyda ko‘rsatkichlari har doim ham tijorat tashkilotlarining samaradorligi haqida aniq tasavvurga ega emas, chunki turli xil iqtisodiy sharoitlarda bir xil miqdorda foyda olish mumkin. Rentabellik ko‘rsatkichlari tijorat tashkilotlarining faoliyatini o‘lchash uchun ishlatiladi.Rentabellik rentabellik yoki rentabellik darajasini aks ettiradi. 2-jadvaldagi rentabellik ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqamiz [6, 7].

2-jadval: “Samarqand-apparel” MChJ rentabellik tahlili

Indeks	2021-yil	2022-yil	2023-yil	Mutlaq o‘zgarish
1. Aktivlarning rentabelligi	48, 85	53, 76	61, 43	12, 58
2. Kapitalning rentabelligi	51, 47	59, 56	65, 37	13, 90
3. Mahsulot rentabelligi	18, 39	25, 58	31, 24	12, 85
4. Sotish rentabelligi	22, 45	27, 53	34, 16	11, 71

Hisoblangan ma’lumotlarga asoslanib, biz quyidagilarni aytishimiz mumkin. O‘rganish davrida ko‘rsatkichlarning bir xil o‘zgarishi kuzatiladi. Shunday qilib, aktivlarning rentabelligi 12,58% ga oshdi, bu tashkilotning barcha aktivlaridan foydalanish samaradorligini ko‘rsatadi. O‘z kapitalining rentabelligi o‘z kapitalidagi foyda ulushini aks ettiradi, o‘rganish davrida u 13,90% ga oshdi. Sotish rentabelligi foyda va aylanma o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiradi va sotilgan mahsulot birligidan olingan foyda miqdorini ko‘rsatadi, u 11,71% ga o‘sdi. Ushbu tendentsiya korxonaning asosiy faoliyati samaradorligini oshirishdan dalolat beradi.

3-jadval: “Samarqand-apparel” MChJ IK ayrim turdagi tovarlarni xarid narxlari dinamikasi (million so‘m.)

Mahsulot turi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Erkaklar kuylagi	20, 7	26, 2	30, 7
Ayollar bluzkasi	29, 3	34, 8	40, 3
Ayollar libosi	21, 8	27, 3	31, 8
Erkaklar shimlari	19, 9	25, 4	30,0
Ayollar shimlari	18, 1	23, 6	28, 1
Erkak jinsi shimlar	30, 6	36, 1	40, 6
Ayollar jinsisi	32, 7	38, 2	42, 7
Erkaklar sport kostyumi	35, 1	40.5	44, 9
Ayollar sport kostyumi	31, 1	36.5	41, 1
Boshqa kiyimlar	75, 6	76, 1	85, 2
Tovarlarni umumiy sotib olish narxi	646,9	757, 6	847, 4

Binobarin, har bir turdagi tovarlar uchun sotib olish narxi oshdi. Tarqatish xarajatlarining o‘sish sur’ati pasayish tendentsiyasiga ega. 2023-yilda mahsulot tannarxining o‘sish sur’ati 1 foizga kamaydi. 2023-yilda savdo tushumining o‘sish sur’ati 2021 yilga nisbatan 7,8 foizga oshdi. Natijada, korxonaning asosiy faoliyati samaradorligi xarajatlarning o‘sish sur’atlariga nisbatan daromadlarning tezroq o‘sishi ta’sirida oshdi. Kompaniya barqaror ishlaydi, muvaffaqiyatli ishlaydi va har yili ortib borayotgan daromad oladi.

“Samarqand-apparel” MChJ uchun yangi narx siyosatining uchta asosiy yo‘nalishini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. **Kompaniyaning tarqatish xarajatlarini kamaytirish yo‘llari.**

Har qanday korxonada narxlarni yaxshilashning asosiy omillaridan biri bu xarajatlarni kamaytirishdir. “Bofanda” MChJda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

Birinchidan, tovar yetkazib beruvchilar va do‘kon o‘rtasidagi vositachi tashkilotlarning qisqarishi, bu ham transport xarajatlarining kamayishiga olib keladi.

Ikkinchidan, mehnat unumdorligining o‘sish sur’ati bilan ish haqining o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni hisobga olish kerak.

Korxona xarajatlari narx strategiyasining muhim elementidir. Kompaniya o‘z xarajatlarini diqqat bilan kuzatib boradi, chunki agar ishlab chiqarish xarajatlari ma’lum turdagi mahsulot uchun raqobatchilarning xarajatlaridan oshsa, u holda kompaniya mahsulot narxini oshirishi yoki bir xil narxni saqlab qolgan holda foydani kamaytirishga rozi bo‘lishi kerak. Bozor sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni eng kam xarajat bilan yo‘lga qo‘yish kerak.

2. **Mahsulot siyosati sohasidagi takomillashtirish.**

Differentsial segmentatsiya orqali bozorni qamrab olish strategiyasini tanlash. Bozor segmentlari sifatida quyidagi iste’molchilar guruhlarini aniqlash tavsiya etiladi: boylar va o‘rtacha daromadli odamlar. Ushbu segmentlarning har biri uchun kompaniya turli xil mahsulotlarni taqdim etishi mumkin va kerak. Shunday qilib, boy odamlar uchun korxona moda, qimmatbaho kiyimlarni taklif qilishi mumkin. O‘rta qatlam odamlari uchun kiyim-kechaklarni yuqori sifatni ta’minlagan holda arzon narxlarda sotish kerak [6, 7, 8].

XULOSA

Bozor sharoitida narx belgilash ko‘plab omillar ta’sirida murakkab jarayondir. Narxlarni shakllantirishda umumiy yo‘nalishni tanlash, sotish hajmini, aylanmani oshirish, ishlab chiqarish darajasini oshirish, foydani ko‘paytirish va kompaniyaning bozordagi mavqeini mustahkamlash uchun yangi va allaqachon ishlab chiqarilgan mahsulotlar, xizmatlar narxlarini aniqlashga yondashuvlar. marketing. Narx belgilash marketingning muhim elementlaridan biri bo‘lib, u savdo faoliyatiga bevosita ta’sir qiladi, chunki ayrim turdagi mahsulotlar, ayniqsa raqobatdosh mahsulotlar narxlarining darajasi va nisbati mijozlar tomonidan amalga oshirilgan xaridlar hajmiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Narxlar marketingning barcha tarkibiy qismlari va umuman kompaniya faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Haqiqiy tijorat natijalari ko‘p jihatdan narxlarga bog‘liq va to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri narx siyosati kompaniyaning bozordagi mavqeiga uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatadi. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘tish davrida narxlarni davlat tomonidan tartibga solishning qo‘llaniladigan choralari inqirozga qarshi yoki inflatsiyaga qarshi boshqaruv maqsadlariga mos kelishi kerak. Narxlarni cheklash vositalari va usullari amalda juda sodda va tushunarli bo‘lishi kerak va ularni takrorlamaslik kerak, aks holda narxlarning o‘sishi uchun yashirin potentsial ko‘rinishida teskari ta’sirni olish xavfi mavjud. Korxonaning narx siyosati marketingning bir qismi bo‘lib, u iste’molchining ehtiyojlari va talablarini aniqlash va qondirishga qaratilgan tizimdir. Narx siyosatidan tashqari u bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan mahsulot, aloqa va tarqatish siyosatini o‘z ichiga oladi. Narx siyosati marketing kompleksida asosiy o‘rinni egallaydi, chunki u mahsulot assortimentini shakllantirishni ko‘rib chiqadi, narxlarga bog‘liq bo‘lgan talab dinamikasini o‘rganadi va bu mahsulot siyosatiga ta’sir qiladi, bu esa korxonaga xaridlar ehtiyoji va miqdorini aniq boshqarish imkonini beradi. muayyan turdagi mahsulot. Narx siyosati tovarlarga shunday narxlarni belgilash, bozordagi vaziyatga qarab, uning maksimal ulushini egallash, rejalashtirilgan foyda miqdoriga erishish va barcha strategik va taktik vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun ularni o‘zgartirishdan iborat.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gary Armstrong. Philip Kotler. Michael Marker. Marketing in introduction. England, 2016, paperback: 720 pages, Pearson.
2. Philip Kotler. Kavin Lane Ketler. Marketing Management. Pearson Education, Inc. publishing as Prestige Hall, USA,2012-y.
3. Kotler F., Armstrong G., Vong V., Sonders Dj. Osnovы marketinga, 5-e evropeyskoe izd. Uchebnik. – M.: OOO “I.D.Vilyams, 2013. – 752 s.
4. Soliev A., Vuzrukxonov S., Marketing, bozorshunoslik. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2010. – 424 b.
5. Ergashxodjaeva SH.J., Qosimova M.S., YUsupov M.A. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 202 b.
6. Musaeva Sh.A. Marketing tadqiqotlari. Darslik “STAR-SEL” MChJ nashriyot va ijodiy bo‘limi. Samarqand-2023
7. Musaeva Sh.A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasiO‘quv qo‘llanma “Mahorat” nashriyoti, Samarqand – 2022.
8. Musaeva Sh.A., Usmonova D.I. Innovatsion marketing “TURON EDITION” 2021-yil uchun o‘quv qo‘llanma.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIYOT SOHASINI MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Muxammadiyev Ramz Zoirjon o‘g‘li
I.f.f.d. (PhD) TXKMRM dotsenti

Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy xizmatlar hajmini belgilash orqali moliyalashtirishning yangi shakliga o‘tish masalalariga e’tibor qaratilib, respublikada sog‘liqni saqlashni boshqarish tizimini takomillashtirish, kadrlar tayyorlash bo‘yicha belgilangan dolzarb vazifalarni bajarish kunikmalarini shakllantirishga oid ma’lumotlar keltirilgan. Tahlillar natijasida raqamli iqtisodiyot sharoitida kafolatlangan tibbiy xizmatlar hajmini moliyalashtirishni takomillashtirishga oid takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: moliyalashtirish, raqamlashtirish, kafolatlangan tibbiy xizmat, xususiy sektor, boshqarish, tibbiy xizmat.

Abstract: The article discusses the issues of transition to a new form of financing by determining the capacity of state-guaranteed medical services in the digital economy, as well as provides information on improving the health management system in the republic, training personnel to perform current tasks assigned to the system. As a result of the analysis, proposals were made to improve the financing of guaranteed medical services in the digital economy.

Key words: financing, digitalization, guaranteed healthcare, private sector, management, healthcare.

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы перехода к новой форме финансирования путем определения объема гарантированных государством медицинских услуг в условиях цифровой экономики, а также приведены сведения о совершенствовании системы управления здравоохранением в республике, подготовке кадров для выполнения текущих задач, поставленных перед системой. В результате анализа были сделаны предложения по совершенствованию финансирования гарантированных медицинских услуг в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова: финансирование, цифровизация, гарантированное здравоохранение, частный сектор, менеджмент, здравоохранение.

KIRISH

Davlat o‘zing ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda boshqaruv tizimini harakatlantiruvchi asosiy omil - inson resursiga tayangan holda, uning sog‘lig‘ini saqlash masalalariga e’tibor qaratadi va ushbu tizimni rivojlantirishni dolzarb deb hisoblaydi. Binobarin, sog‘liqni saqlash xizmati jamiyat shakllanishi va rivojlanishining barcha bosqichlarida ajralmas tizim, qolaversa, doimiy ravishda takomillashishni talab etadi.

Sog‘liqni saqlash tuzilmalarini shakllantirishda mas’ul sohalarga alohida e’tibor qaratilib ularning ta’minoti davlat g‘aznasi hisobidan saqlab turiladi. Mamlakatda sog‘liqni saqlashni boshqarishning yagona tizimini yaratish, ushbu tizimni moliyalashtirishni yangi shaklda amalga oshirish, tibbiyot sohasida xususiy sektor ishtirokini rivojlantirish, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish madaniyati hamda sifatini oshirish borasida so‘nggi vaqtlarda qulay sharoitlar yaratilmoqda.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasining asosiy g‘oyalaridan biri bu kelgusi yetti yilda aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimini tashkil etishdir. Strategiyaning o‘nga yaqin maqsadlarida aynan aholi salomatligini ta’minlashga oid vazifalarni qamrab olib, aholiga ko‘rsatiladigan ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish, murojaatlar soni bo‘yicha yetakchilik qiladigan 350 ming nafar diabet va 1,5 million yurak-qon tomir kasalligi bor bemorni davolash bilan to‘liq qamrab olish, tibbiy yordamga muhtoj aholining 70 foizga birlamchi bo‘g‘inning o‘zida tezkor tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish belgilangan[1].

Strategiyada byelgilangan vazifa va yo‘nalishlarning sohaga tatbiq etilish orqali bolalar o‘rtasidagi irsiy kasalliklarni 2 barobarga, yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklarni 20 foizga qisqartirish, 30-69 yoshdagi aholi orasida onkologik kasalliklarni profilaktik ko‘riklar va erta bosqichlarida aniqlab, 5 yillik umr davomiyligi ko‘rsatkichlarini 2 barobar oshirish, 1 yilgacha o‘lim ko‘rsatkichini 2 barobar kamaytirishga erishiladi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoni, (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son)

Aholi salomatligini saqlash va bemorlarni yetarli hamda malakali tibbiy xizmatlar bilan qamrab olishda avvalo, ular to‘g‘risidagi axborotlarning mavjud bo‘lishi va ularning raqamlashtirilishi sohada olib borilayotgan islohotlarning jadallashishiga xizmat qilib, davlat budjeti hisobidan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishiga imkoniyat yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotlarimiz XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab dunyo tibbiyotiga innovatsiyalarning kirib kelishini ko‘payishi hisobiga tibbiy diagnostika jarayonida keskin burilish yasalgani kuzatildi. Bu tibbiy xizmat sifatining yaxshilanishi bilan birga uning tannarxining ham oshishiga sabab bo‘ldi. Tibbiyot tizimiga innovatsiyalar va axborot kommunikatsiya xizmatlarining kirib kelishi kadrlar tayyorlash tizimiga ham tubdan o‘zgartirish kiritdi. Tizimdagi innovatsiyalar dunyo bo‘yicha barcha davlatlar qatori O‘zbekistonda ham tibbiy xizmat sifatini oshishi bilan birga inson umrining uzayishi va bolalar o‘limi ko‘rsatkichlari kamayishiga ham sabab bo‘ldi[2].

Mazkur masala xorijiy olimlar S.Tomson, R.Osborn, D.Skvayrs, M.Djun[3], A.Мещеryakova, A.Mazurenko[4], N.Shandora[5] hamda respublikamiz olimlari D.A.Raxmonov[6], N.X.Buriyeva[7], O.Rayimberdiyeva[8] ishlarida tibbiyotda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, kasalliklar statistikasini shakllantirish va ular hisobini yuritish, tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish, xarajatlarni rejalashtirish, moliyalashtirishda sug‘urta mexanizmlaridan foydalanish kabi masalalar umumiy tarzda tadqiq etilgan.

Ushbu tadqiqotlar aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida moliyalashtirishning nazariy asoslarini shakllantirishda muhim asosiy vazifani bajargan bo‘lsada, raqamlashtirish natijasida mablag‘lardan maqsadli foydalanish, zarur mablag‘larni kasallik darajasi yuqori hududlarga taqsimlash, kasalliklarning soni va yo‘nalishini aniqlagan holda uning o‘sishini oldini olish va bartaraf qilinishi orqali mablag‘larni tejash va kutilmagan yuqumli kasalliklarga qarshi kurashda iqtisodiy samaradorlikka erishishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishning iqtisodiy jihati shundaki, sohada o‘zini o‘zi nazorat qilish, tizim tashkilotlari oshkoralik prinsipida ishlashi va tibbiy yozuvlar jamlanishi va umumlashtirilishi orqali mablag‘larni kasallik yo‘nalishi bo‘yicha aniq yo‘naltirish imkoniyatlari taqdim etiladi.

Dunyoning rivojlangan davlatlarida, jumladan AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniyada yuqori innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash natijasida yuqori natijalarga erishilmoqda. Janubiy Koreyada aholining uzoq umr ko‘rish o‘rtacha ko‘rsatkichi oxirgi yillarda erkaklarda 82,4, ayollarda esa 75,9 yoshni tashkil qilmoqda. Sog‘liqni saqlash tizimi mustahkam rivojlanishi uchun muhim strategiyalardan biri “Raqamli tibbiyot” konsepsiyasini joriy qilish hisoblanadi. Germaniyada esa tibbiyot sohasiga yangiliklar, innovatsion ishlanmalar yuqori darajada olib boriladigan ilmiy ishlarni amaliyotda qo‘llash, aqlli texnologiyalarni keng joriy qilish orqali yuqori natijalarga erishilmoqda. Shu bilan bir qatorda davlat tomonidan ilmiy ishlar, innovatsion g‘oyalar va aqilli texnologiyalarni yaratish, tatbiq etish ishlari doimo qo‘llab quvvatlanib kelinadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra AQSH o‘zgarib turuvchi davrda tez moslanuvchi sog‘liqni saqlash tizimiga ega. Bu esa bemorlarning sog‘lig‘ini saqlash uchun erta tashxislash, kasallikning oldini olish ishlarini aqlli texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirilib kelinmoqda

Lekin, O‘zbekistonda ijtimoiy sohalarni raqamlashtirish borasida amalga oshirilgan tadqiqotlarga qaramasdan tibbiyot muassasalarining poliklinika, hatto tuman-shahar, viloyat darajasida sohani raqamlashtirish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlar surati juda pastligi, raqamlashtirishning axborot manbasi hisoblangan oilaviy shifokorlik punkti va poliklinikalarda ishlar to‘g‘ri taqsimlanmaganligi va zarur texnikalar bilan ta’minlanmaganligi, mutaxassislarning yetishmasligi kabi o‘z yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Ushbu muammolarnni alohida mavzu sifatida o‘rganish va ular yechimini taklif etish ilmiy tadqiqotlarning muhim vazifasi hisoblanadi.

Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan yuqori texnologik tibbiy yordam ko‘rsatish asosan Toshkent shahrida jamlangan, bunday holat Respublika hududlari aholisining tegishli xizmatlardan foydalanishini cheklab qo‘ymoqda. Zamonaviy diagnostik va maxsus tibbiyot uskunalari bilan yetarlicha jihozlanmaganlik, zamonaviy uskunalarda

2 Muxammadiyev R.Z. Sog‘liqni saqlash muassasalari faoliyatini moliyalashtirish va tahlilini takomillashtirish: i.f.f.d....dis. avtoref. – Toshkent, 2021. – 56 b.

3 S. Thomson, R. Osborn, D. Squires, and M. Jun, International Profiles of Health Care Systems. // 2013, The Commonwealth Fund./ https://www.commonwealthfund.org/publications/fund-reports/2013/nov/international-profiles-health-care-systems-2013-australia-canada

4 Мещеryakova A.V., Mazurenko A.P. Sifrovizatsiya kak sredstvo antikorrupsionnoy pravovoy politiki v sfere zdravooxraneniya // Vestnik Kostromskogo gosudarstvennogo universiteta. 2019. Tom 25. № 3. S. 181-184. DOI: https://doi.org/10.34216/1998-0817-2019-25-3-181-184

5 Shandora N. Sifrovizatsiya sistemы zdravooxraneniya: opыt i perspektivы // Nauka i innovatsii. 2020. № 2(204). S. 38-43.

6 Raxmonov D.A. O‘zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: i.f.d. (DSc) … avtoreferati. – Toshkent: TDIU, 2018

7 Buriyeva N.X. Sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish modellarining jahon amaliyotida qo‘llanish. - Toshkent: Iqtisod va moliya, 2019. / https://cyberleninka.ru/.

8 Rayimberdiyeva O.R. Sog‘liqni saqlash muassasalarini moliyaviy ta’minlashni tashkil qilish: i.f.n. … avtoreferati: - Toshkent: BMA, 2001. – 22 b.

ishlash uchun shifokorlarning yetarlicha tayyorlanmaganligi tufayli, yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamning ayrim turlaridan Respublika aholisi foydalana olmayapti. Yuqori texnologik tibbiy yordam ko‘rsatish sog‘liqni saqlash tizimining barcha bo‘g‘inlarida amalga oshirilmayapti. Shu bois, sog‘liqni saqlash tizimini jahon standartlarini hisobga olgan holda, kasalliklarni barvaqt aniqlash va masofadan profilaktika qilish, aholining uzoq umr ko‘rishi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish hamda kasallik va o‘lim ko‘rsatkichlarini pasaytirishni ta’minlaydigan ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash muammolari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganidan darak bermoqda.

E’tiborga molik jihat shundaki, bugun qaysi soha va yo‘nalishda belgilangan vazifa va maqsadlarni olmaylik, raqamli texnologiyalarni keng joriy qilmasdan turib ko‘zlangan natijaga erishib bo‘lmagani sababli, tibbiyot sohasida ham kelgusi yetti yilda tibbiyot muassasalarining ish faoliyatini 100 foizga raqamlashtirilishi masalasi hukumat darajasida hal qilinishi belgilanmoqda.


Xususan, 2021-yil 23-fevralda “Sog‘liqni saqlash sohasida raqamlashtirish ishlarini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5000-son hamda 2021-yil 25-mayda “Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5124-son qarorlar aynan sohasni raqamlashtirish va axborot tizimlari yagona kompleksini joriy etish, boshqaruv jarayonidagi ortiqcha tartib-tamoyillarni qisqartirish, aholiga xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirish, tibbiyot xodimlarining ish samaradorligini ta’minlash, shuningdek, ushbu yo‘nalishda qabul qilingan raqamli transformatsiya qilish dasturlarini samarali amalga oshirish uchun ishlab chiqilganligini ko‘rsatmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasida ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, kadrlarni tayyorlash va munosib ish haqi bilan ta’minlash maqsadida sog‘liqni saqlashni moliyalashtirishni izchil oshirish bilan bog‘liq nazariy qoidalarni o‘z ichiga oladi. Ilmiy izlanish jarayonida iqtisodiy hodisalarni o‘zaro bog‘liq holda dinamik ravishda o‘rganish imkonini ochib beruvchi dialektika usulidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida izlanish obyektiga nisbatan tizimli yondashuv sifatida grafik usullar, guruhlash va taqqoslash, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barchamizga ma’lumki so‘nggi yillarda aholi salomatligini saqlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar boshqa sohalar singari jadal tus olib, tizim oldiga tibbiyotni raqamlashtirish, vazirlik va idoralar bilan integratsiyalashuvni ta’minlash, ma’lumotlar bazasini yaratishtirish, zarur turdagi so‘nggi rusumdagi uskunlar va jihozlar bilan ta’minlash, tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini tibbiyoti rivojlangan ilg‘or xorijiy davlatlarda rivojlantirish orqali tibbiy xizmat sifatini oshirish, shu qatori tibbiyot xodimlarining ish haqi hamda ularning rag‘batlantirish to‘lovlari miqdorini ko‘tarish kabi dolzarb vazifalar qo‘yilmoqda. Ushbu tizimni qo‘llab-quvvatlash maqsadida zarur mablag‘lar davlat budjeti va xalqaro grant mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilmoqda. (1-rasm)



1-rasm: 2017-2024-yillarda sog‘liqni saqlash sohasiga ajratilgan mablag‘ (mlrd.so‘m)

Biroq, o‘rganishlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda tizimni raqamlashtirish borasida ishlab chiqilgan axborot tizimlari zarur darajada tashkil etilmaganligi, mutasaddi tashkilotlar tizimi bilan integratsiyalashmaganligi, tibbiy xizmatlarning yakuniy natijadorlikka erishilgan ko‘rsatkichlarning mavjud emasligi, xizmat ko‘rsatish va uning usullari samaradorligini baholash mexanizmlarini yetarli emasligi, ushbu tizim orqali shifokorlarga murojat etishning murakkabligi va o‘zaro uyg‘unlashmaganligi bo‘yicha hali bajarilishi lozim bo‘lgan bir qator muammoli masalalar mavjudligidan dalolat bermoqda.

Shu sababli, sohada davlat boshqaruvini takomillashtirish, birlamchi bo‘g‘inni kasalliklarni erta aniqlaydigan va davolaydigan tizimga aylantirish, raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish, coha rivojlanishining yaqin va uzoq muddatli istiqbollarini belgilash, tibbiy xizmatlar hajmini oshirish va sifatini tubdan yaxshilash, raqobat va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash, tibbiyot xodimlarining bilimini oshirish, ta’lim va ilm-fanni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Aytish joizki, rivojlangan, qolaversa hamdo‘stlik mamlakatlarida sog‘liqni saqlash tizimida qulay sharoitlarni yaratish maqsadida sohani raqamlashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari tibbiyotni avtomatlashtirish va raqamlashtirish ko‘rsatkichlari 93,8 foizni tashkil etib, barcha qabul va xizmatlar oldindan rejalashtirilgan tashrif va bemor to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Bu esa o‘z navbatida bemorning ham shifokorning ham qimmatli vaqtini tejalishiga hamda shifokor tomonidan ko‘proq bemorga sifatli xizmat ko‘rsatilishiga olib keladi.

Sohada raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish maqsadida tibbiyot oliygohlari va texnikumlari bitiruvchi kurslari tinglovchilari uchun chuqurlashtirilgan tibbiy axborot texnologiyalari (IT-Med) dars mavzularining kiritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblanib, aholi uchun qulay bo‘lgan tibbiy xizmatni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalq salomatligi va sog‘lom millat genofondi har bir davlatning muhim boyligi ekanligi hech kimga sir emas. Shu bois, tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar natijadorligini nazoratga olish va tizimni raqamlashtirish fuqarolar salomatligini asrash, malakali tibbiy kadrlar salohiyatini oshirish, sohaga yangi boshqaruv usullarini joriy etish borasida o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatadi.

Sohani raqamlashtirishning axborot manbasi avvalo oilaviy shifokorlik punkti va poliklinikalardan boshlanishini e’tibordan qochirmaslik lozim. Bemor to‘g‘risidagi zarur axborot va ma’lumotlar tizimga kiritilmas ekan, sohani raqamlashtirish haqida gap-so‘z bo‘lishi mumkin emas.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, quyidagilar taklif etiladi:

- tibbiyot sohasini jadal ravishda raqamlashtirish va mutasaddi tuzilmalar axborot bazalari bilan integratsiya qilish;
- tibbiyot oliygohlari va texnikumlari bitiruvchi kurslari tinglovchilari uchun chuqurlashtirilgan tibbiy axborot texnologiyalari (IT-Med) dars modulini o‘quv rejaga kiritish;
- raqamlashtirish manbasi hisoblangan axborot va ma’lumotlarni shakllantiruvchi tibbiyot xodimlarni rag‘batlantirish;
- raqamlashtirish manbasi hisoblangan axborot va ma’lumotlarni shakllantirish reja ko‘rsatkichlarini bajarmagan tibbiyot xodimlariga nisbatan ta’sir choralarini kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida” 1996-yil 29-avgust. 265-I-son. lex.uz›docs/-26013
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-5590-son Farmoni. lex.uz›docs/-4096197
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoni. lex.uz›ru/docs/-6600413
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-fevraldagi “Sog‘liqni saqlash sohasida raqamlashtirish ishlarini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5000-son qarori. lex.uz›uz/docs/-5303918
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-maydagi “Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5124-son qarori. lex.uz›uz/docs/-5434358
6. S. Thomson, R. Osborn, D. Squires, and M. Jun, International Profiles of Health Care Systems. // 2013, The Commonwealth Fund.
7. Мещерякова А.В., Мазуренко А.П. Сифровизация как средство антикоррупционной правовой политики в сфере здравоохранения // Вестник Костромского государственного университета. –2019. Том 25. –№ 3. –С. 181-184.
8. Шандора Н. Сифровизация системы здравоохранения: опыт и перспективы // Наука и инновации. 2020. № 2(204). –С. 38-43.
9. Raxmonov D.A. O‘zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: i.f.d. (DSc) … avtoreferati. – Toshkent: TDIU, 2018.
10. Buriyeva N.X. Sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish modellarining jahon amaliyotida qo‘llanish. –Toshkent: Iqtisod va moliya, 2019.
11. Rayimberdiyeva O.R. Sog‘liqni saqlash muassasalarini moliyaviy ta’minlashni tashkil qilish: i.f.n. … avtoreferati: –Toshkent: BMA, 2001. – 22 b.
12. Muxammadiyev R.Z. Sog‘liqni saqlash muassasalari faoliyatini moliyalashtirish va tahlilini takomillashtirish: i.f.f.d....dis. avtoref. – Toshkent, 2021. – 56 b.
13. Muxammadiyev R. Tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish va buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslari. Uslubiy qo‘llanma, “TTA nashriyoti” Toshkent, 2021.
14. Muxammadiyev R. va boshqalar. Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni boshqarish. Qo‘llanma, Toshkent, –2023.



XIZMATLAR KO‘RSATISH SUBYEKTLARIDA BIZNES-MODELLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHUV KONSEPSIYALARI

N. B. Yahyoxonov
PhD, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Marketing” kafedrasi dotsent v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmatlar sohasida biznes-model konsepsiyalari o‘rganilgan hamda ularning raqamli transformatsiyalshuvi tahlil etilgan. Shuningdek, Raqamli bozor ekotizimidagi ishtirokchilarning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlovchi konsepsiya ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: biznes-model, raqamli biznes-model, integrator, dirijer, marketmeyker, ekotizim, raqamli bozor ekotizimi, platforma tranzaksiyasi.

Abstract: In this article, business model concepts in the field of services are studied and their digital transformation is analyzed. Also, a concept has been developed that ensures the interdependence of participants in the Digital Market Ecosystem.

Key words: business model, digital business model, integrator, director, market maker, ecosystem, digital market ecosystem, platform transaction.

Аннотация: В данной статье изучаются концепции бизнес-моделей в сфере услуг и анализируется их цифровая трансформация. Также разработана концепция, обеспечивающая взаимозависимость участников экосистемы цифрового рынка.

Ключевые слова: бизнес-модель, цифровая бизнес-модель, интегратор, директор, маркет-мейкер, экосистема, экосистема цифрового рынка, платформенная транзакция.

KIRISH

DataReportal xalqaro agentligining raqamli muhit tendensiyalari haqidagi hisobotlariga ko‘ra, “2023-yilda 2022-yilga nisbatan mobil qurilmalarning foydalanuvchilari 3%, internet foydalanuvchilari 1.9,0% ijtimoiy media foydalanuvchilari 3% o‘sish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan. Shu bilan birga, 70% iste’molchi ishlab chiqaruvchilarning reklamasidan ko‘ra kontentlari orqali munosabat o‘rnatayotganliklarini ta’kidlashgan”[1]. “Axborot asri” va “ilg‘or texnologiyalar” raqamli siyosatning bosh mezonlari bo‘lib hisoblanadi hamda bugungi kunga kelib har qanday tadbirkorlik subyekti o‘zining bozori va iste’molchilari bilan munosabatlarni shakllantirishida raqamli texnologiyalardan foydalanishni davr talabi darajasiga ko‘tarmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonidagi “25-maqsad: Raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish” shu jumladan, iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda raqamli marketing konsepsiyalari va undagi yondashuvlardan foydalanish hamda ularni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bu esa hozirgi dolzarb bo‘lgan raqamli texnalogiyalar sohalarini yanada rivojlantirishga, innovatsion texnalogiyalar, zamonaviy ilm-fan raqamli iqtisodiyotdan foydalanilgan holda marketingni chuqurroq anglab yetishga hamda milliy iqtisodiyotda va sanoatda ishlab chiqarish jarayonlarni kengaytirish, raqobat muhitini yarata olish muhim maqsadlardan biridir.

1 2024-yil boshiga global raqamli ko‘rsatkichlar tahlili. https://datareportal.com/ – global raqamli ko‘rsatkichlarning statistik tahlillari sayti (murojaat sanasi: 10.01.2024-yil).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Turli biznes-modellardagi faoliyatni marketing texnologiyalari yordamida tashkil etishning nazariy va metodologik asoslari xorijlik olimlardan F.F.Kotler, K.L.Keller, G.R.Niv, D.Koks, P.Doyl, Dj.Barnet, S.Moriarti, L.Shvayser, D.Shuk[2] va boshqalarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan bo‘lsa, D.Chekitan, D.Schultz, M.Faruk, M.Rahman, S.Hasan, U.Moorthy va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari raqamli muhitning o‘ziga xos jihatlari hamda raqamli marketingning konsepsiyalari va yondashuvlarining nazariy va uslubiy masalalari bag‘ishlangan[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozishda iqtisodiy-matematik modellashtirish, tizimli va qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, taqqoslash, tasniflash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot va undagi sohalarning raqamlashtirish talablari zamonaviy iqtisodiyot biznes-modelning asosini shakllantirishni belgilab berdi.

Ilk bor 1995-yil amerikalik informatik Nikolas Negroponte tomonidan kiritilgan “raqamli iqtisodiyot” atamasi o‘zida texnologik kompaniyalar yordamida raqamli iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan start-up loyihalarning fundamentlar tarkibini shakllantirishga qaratilgan munosabatlarni aks ettirgan bo‘lib[4], undagi dastlabki biznes-model marketing faoliyatida ikkita asosiy nuqtayi nazar, ya’ni: birinchisi, mijozlar uchun shakllantirilgan “cost” (qiymat); ikkinchisi, ichki tizimda “cost”ning shakllantirish yondashuvlari e’tiborga olingan.

1998-yilda Pol Timmers tomonidan raqamli biznes-model “mahsulotning arxitekturasi va ma’lumotlar oqimi”, “turli tadbirkorlik subyektlarining potensial foydasi” hamda “daromad manbasi” kabi konseptual izohlar bilan to‘ldirilgan. Shuningdek, elektron tijoratning quyidagi raqamli bozor tiplari ajratib ko‘rsatilgan: Internet-do‘kon, elektron tijorat, Internet-auksion, elektron pochta, marketpleys (platforma), ijtimoiy tarmoqlar, integratorlar, tematik platformalar (kontent platformasi), informatsion broker kabilar[5].

Aleksandr Ostervelder tomonidan 2009-yilda taklif etilgan “Business Model Canvas” biznes-modeli ikki tarkibiy qismga, ya’ni daromadlar va xarajatlar blokiga ajratib berildi (1-rasm).

<table>
<tr><td rowspan="2">Yetakchi hamkorlar</td><td>Faoliyatning yetakchi turlari</td><td rowspan="2">Qimmatli takliflar
Sotuv kanallari</td><td>Mijozlar bilan o‘zaro aloqalar</td><td rowspan="2">Iste’mol segmentlari</td></tr>
<tr><td>Yetakchi resurslar</td><td></td></tr>
<tr><td colspan="2">Xarajatlar tarkibi</td><td colspan="3">Daromad keltiruvchi oqimlar</td></tr>
</table>

1-rasm: Aleksandr Osterveldering raqamli biznes-modeli konsepsiyasi[6]

Lars Shvars tomonidan ishlab chiqilgan biznes-model o‘zida “iste’mol qiymatliligi”ni[7] yaratuvchi zanjir, raqobatbardoshlik va bozordagi ustunligi, daromad manbalarini aks ettiruvchi mexanizmdan tashkil topgan

2 Котлер Ф., Келлер К.Л. Маркетинг-менеджмент: пер. с англ. – 15-е изд. – СПб.: Питер, 2018. – С. 26; Нив Г.Р. Пространство Доктора Деминга. Принципы построения устойчивого бизнеса / Г.Р. Нив. – М.: Изд-во “Альпина Паблишер”, 2005. – 369 с.; Кокс Д. Новая цель. Как объединить бережливое производство, шесть сигм и теорию ограничений / Д. Кокс, Д. Джейкоб, С. Бергланд. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2011. – 400 с.; Дойл П. Маркетинг, ориентированный на стоимость. – СПб.: Питер, 2001. – 168 с.; Барнет Дж., Мориарти С. Маркетинговые коммуникации: интегрированный подход. – СПб.: Питер, 2001. – 248 с.; Швайцер Л. Концепция и эволюция бизнес-моделей // ЭКОВЕСТ. – 2007. – №6 (2). – С. 146-168.; Шук Д. Учитесь видеть бизнес-процессы: Практика построения карт потоков создания ценности / Д.Шук, М.Ротер. – 2-е изд.– М.: “Альпина Паблишер”, 2008. – 257 с.

3 D.Chekitan, D.Schultz. The SIVA Model for Customer Focused Marketing. March 18, 2009. http://rolandsmart.com/2009/03/siva-model-customer-focusedmarketing/; Faruk M., Rahman M., Hasan S. How digital marketing evolved over time: A bibliometric analysis on Scopus database. Heliyon. 2021. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2405844021027067; Uthra Moorthy. The Impact of Sales Forecasting Management on Business Performance. – TU DELT, 2021. – 72 p. Vol. 15. Is. 4. P. 521–529. DOI: https://doi.org/10.17270/J.LOG.2019.351/.


4 Negroponte, N. Being Digital / N. Negroponte. – New York: Alfred A. Knopf, 1995. URL: http://governance40.com/wp-content/uploads/2018/12/Nicholas-Negroponte-Being-Digital-Vintage-1996.pdf

5 Timmy, P. Business Models for Electronic Markets / P. Timmy // Focus Theme. – 1998. – Vol. 8, № 2. URL: http://www.electronicmarkets.org/fileadmin/user_upload/doc/Issues/Volume_08/Issue_02/V08I2_Business_Models_for_Electronic_Markets.pdf

6 Остервальдер А. Построение бизнес-моделей: Настольная книга стратега и новатора / А.Остервальдер, И.Пинье. – 2-е изд. – Москва: Альпина Паблишер, 2016. – 288 с.

7 V.M.Melnichkning “Tovarning iste’mol qiymatliligini shakllantirish mexanizmi mohiyatini aniqlab beruvchi nazariy jihatlari” mavzusidagi tadqiqot ishi muallif tomonidan “iste’mol qiymatliligi” kategoriyasidan foydalanishiga asos bo‘ldi. Bunda iste’mol qiymatliligi tarkibida sifat, naflilik, qo‘shilgan qiymat, narxni aks ettirib, raqamli muhitda iste’molchi uchun kuchli motivasion element deb qaralgan. В.М.Мельничук. Теоретические аспекты определения сущности механизма формирования потребительской ценности товара // Вестник МГОУ. Серия “Экономика”. №4, 2013. – С. 20-27.


bo‘lib, tadbirkorlik faoliyatiga qaratilgan raqamli “integrator”[8], “dirijer”[9], “marketmeyker”[10] va “aniq bosqichga mo‘ljallangan” modellarini ishlab chiqdi, ya’ni biznes-modellar shabloni mijozga qaratilgan mo‘ljal bilan vertikal dezintegratsiya asosida resursli yondashuvlarni aks ettirib, iste’mol qiymatliligini shakllantirish zanjirining tarkibini kombinatsiyalashga asoslangandir. Mazkur yondashuv tadqiqot oldiga qo‘yilgan gipotezaning asosi sifatida qabul qilingan bo‘lib, unda har qanday raqamli texnologiya avvalambor iqtisodiyot sohasining o‘ziga xos bo‘lgan jihatidan kelib chiqib, unda mijozga yo‘naltirilgan iste’mol qiymatliligini har bir bosqichida shakllantirishga yo‘naltirilgandir.



2-rasm: Lars Shvarsning raqamli biznes-modeli konsepsiyasi[11]

Lars Shvarsning raqamli biznes-modelidan farqli ravishda Oliver Gasman, Karolin Frankenberger, Mikaela Shiklar tomonidan ishlab chiqilgan modellarida bugungi kun zamonaviy bozorning asosiy marketing mexanizmlari ilgari surilgan bo‘lib, unda: maqsadli mijozlar, qiymatli takliflar, qiymatni shakllantiruvchi zanjir, foydani olish mexanizmlari aks etgan[12].

Har bir raqamli modellar avvalambor bozor ishtirokchilarining manfaatlarini e’tiborga olishgan bo‘lsada, raqamli bozorning asosiy ishtirokchilarining samaradorligini ta’minlovchi o‘zaro ta’siriga e’tibor sust berilgan. Yuqorida keltirilgan modellarning umumiy jihatlaridan kelib chiqib, har qanday raqamli bozorning yagona ekotizim[13] konsepsiyasini ajratib olishni muhim deb hisoblaymiz (3-rasm). Ekotizim konsepsiyasining tadqiqotdagi ahamiyati, unda barcha omillarning o‘zaro harakati va ta’sir etish qonuniyatlariga bog‘liq bo‘lib, unda iqtisodiy, boshqaruv, ijtimoiy, bozor, texnologik omillarni kompleks e’tiborga olish orqaligina optimal konsepsiyani ishlab chiqish imkoniyatining berilishi bilan belgilandi.



3-rasm: Raqamli bozor ekotizimidagi ishtirokchilarning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlovchi konsepsiya[14]

3-rasmda keltirilgan raqamli bozor ekotizimidagi ishtirokchilarning o‘zaro bog‘liqligi tasvirlangan bo‘lib, unda raqamli bozor ishtirokchilarining qulay ekotizimni shakllantirishga qaratilgan konsepsiyasi mazmun-mo-

8 “Integrator” modelida biznes-modelning har bir bosqichi iste’mol qiymatliligini shakllantiruvchi bo‘g‘inga ega bo‘lib, unda qiymatlilik bir zanjir bo‘ylab ketma-ket harakatda bo‘lganligi sabab, yuqori tezlikdagi tendensiyalarga har doim ham tayyor turishi murakkab bo‘ladi.

9 “Dirijer” modelida iste’mol qiymatliligi innovatsion tartibdagi zanjirda shakllanib, mazkur modelning aksariyat namoyondalari autsorsingga murojaat qilishadi.

10 “Marketmeyker” modelida har bir zanjir bo‘ylab bajariladigan jarayonlarni yagona iste’mol qiymatliligini shakllantiruvchi maydonga ega bo‘lgan majmuaviy yondashuv bo‘lib, unda biznes-modelning yagona qiymatlilik standartini shakllantiradi.

11 Швайцер Л. Концепция и эволюция бизнес-моделей // ЭКОВЕСТ. – 2007. – №6 (2). – С. 146-168.

12 Гассман О. Бизнес-модели: 55 лучших шаблонов: учеб.пособие. – Москва: Альпина Паблишер, 2016. – 432 с.


13 “Ekotizim” atamasi ilk bor biologiya sohasida ishlatilgan bo‘lsada, bugungi kunda bu atama iqtisodiyotda butun bir mexanizmning adekvat faoliyatidagi tashqi va ichki elementlarini o‘zaro ishlash prinsipini tasvirlamoqda. C. Model of creating an economic ecosystem in the framework of economic convergence under the influence of digitalization. – Litres, 2022.

14 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

hiyati berilgan, ya'ni raqamli muhitdagi infratuzilma va platforma provayderlari orqaligina bozordagi talab va taklif o'rtasidagi iste'mol qiymatliligini shakllantirish mumkinligiga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'z o'rnida qayta aloqani ta'minlashga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumot almashinuvida yetakchi ta'sir yoki kompleks ta'sir etish elementlaridan biri ham bo'lishi mumkin, masalan: ma'lumot almashinuvi borasidagi qaror qabul qilishda "iste'mol qiymatliligi birligi"ning belgilab berilishi (bu platformaning ichida yoki uni tashqarisida bo'lishi mumkin). Mazkur holatning to'g'ri belgilanishi "platforma tranzaksiyasiga" bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni Aleks Mozaed va Nikolas Djonsonlar tomonidan taklif etilgan "bazaviy tranzaksiya" atamasiga asoslanadigan bo'lsak, unda: shakllantirish, o'zaro aloqa, iste'mol, rag'batlantirish mezonlari yetakchilik qiladi. Bizning fikrimizcha esa, "platforma tranzaksiya"si auditoriyani jalb etish, muvofiqlashtirish, instrumentlar va servisni taklif etish, tartib-qoidalar va standartlarning belgilanishi kabi mezonlarni ham alohida e'tiborga olinishi zarur.

"Platforma tranzaksiyasi" o'z o'rnida raqamli ekotizimning "iste'mol qiymatliligi"ni ta'minlaydi va natija sifatida platforma ishtirokchilari hamda tashrif buyuruvchilarining "ittifoqini" shakllantiradi (4-rasm).



4-rasm: Raqamli bozor ekotizimida "iste'mol qiymatliligi"ning shakllanishi15

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli bozor ekotizim konsepsiyasi va "iste'mol qiymatliligi" vositasida raqamli platformalarning strategik yondashuvlari hamda bozorga kirib borish strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bunda bir qator yondashuvlarni tanlash mumkin, masalan: shaxsiy iste'mol qiymatliligini yaratish, platformani faqat bir guruh auditoriya uchun yaratish, sinxron moslashish kabilar. Ammo har qanday raqamli platformalarda, avvalambor bozorning ochiqligini hamda iste'molchilar "ittifoqini" saqlanib turilishi lozim.

Xizmatlar ko'rsatish subyektlarida biznes-modellarining quyidagi raqamli transformatsiyalashuv konsepsiyalardan foydalanishni tavsiya etamiz:

- Aleksandr Osterveldering raqamli biznes-modeli konsepsiyasi;
- Lars Shvarsning raqamli biznes-modeli konsepsiyasi;
- Xizmatlar sohasida raqamli bozor ekotizimidagi ishtirokchilarning o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi konsepsiyalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Котлер Ф., Келлер К.Л. Маркетинг-менеджмент: пер. с англ. – 15-е изд. – СПб.: Питер, 2018. – С. 26.
2. Нив Г.Р. Пространство Доктора Деминга. Принципы построения устойчивого бизнеса / Г.Р. Нив. – М.: Изд-во "Альпина Паблишер", 2005. – 369 с.
3. Дойл П. Маркетинг, ориентированный на стоимость. – СПб.: Питер, 2001. – 168 с.
4. Барнет Дж., Мориарти С. Маркетинговые коммуникации: интегрированный подход. – СПб.: Питер, 2001. – 248 с.
5. Швайцер Л. Концепция и эволюция бизнес-моделей // ЭКОВЕСТ. – 2007. – №6 (2). – С. 146-168.

15 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

6. Шук Д. Учитесь видеть бизнес-процессы: Практика построения карт потоков создания ценности / Д.Шук, М.Ротер. – 2-е изд.– М.: “Альпина Паблишер”, 2008. – 257 с.
7. Bobojonov A.B. O‘zbekistonda axborot mahsulotlari va xizmatlari biznesini rivojlantirishning uslubiy jihatlari.: PhD. dis. iqt. fan. – T.: TDIU, 2018, - 155 bet.
8. Faruk M., Rahman M., Hasan S. How digital marketing evolved over time: A bibliometric analysis on Scopus database. Heliyon. 2021. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2405844021027067.
9. Uthra Moorthy. The Impact of Sales Forecasting Management on Business Performance. – TU DELT, 2021. – 72 p. Vol. 15. Is. 4. P. 521–529. DOI: https://doi.org/10.17270/J.LOG.2019.351/.
10. Negroponte, N. Being Digital / N. Negroponte. – New York: Alfred A. Knopf, 1995. URL: http://governance40.com/wp-content/uploads/2018/12/Nicholas-Negroponte-Being-Digital-Vintage-1996.pdf.
11. Timmy, P. Business Models for Electronic Markets / P. Timmy // Focus Theme. – 1998. – Vol. 8, № 2. URL: http://www.electronicmarkets.org/fileadmin/user_upload/doc/Issues/Volume_08/Issue_02/V08I2_Business_Models_for_Electronic_Markets.pdf.
12. Остервальдер А. Построение бизнес-моделей: Настольная книга стратега и новатора / А.Остервальдер, И.Пинье. – 2-е изд. – Москва: Альпина Паблишер, 2016. – 288 с.
13. В.М.Мельничук. Теоретические аспекты определения сущности механизма формирования потребительской ценности товара // Вестник МГОУ. Серия “Экономика”. №4, 2013. – С. 20-27.
14. Yahyoxonov, N. (2022). Iqtisodiyotning raqamli transformallashuvi sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasidagi marketing mohiyati va uni amaliyotda qo‘llanilishining nazariy hamda fundamental asoslari. Iqtisodiyot va ta'lim, 23(2), 135–140. https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss2/a444
15. Швайцер Л. Концепция и эволюция бизнес-моделей // ЭКОВЕСТ. – 2007. – №6 (2). – С. 146-168.
16. Гассман О. Бизнес-модели: 55 лучших шаблонов: учеб.пособие. – Москва: Альпина Паблишер, 2016. – 432 с.
17. https://datareportal.com/

MIKROMOLIYAVIY XIZMATLAR KO‘RSATUVCHI KREDIT TASHKILOTLARINING SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI



Nazarova Muslima Nazarovna
I.f.f.d. (PhD), TDIU Bank ishi va investitsiyalar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlarining samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar ekonometrik tahlil qilingan. Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlarning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tanlangan ko‘rsatkichlar yordamida 72 ta kuzatuv amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: ekonometrik tahlil, model, nobank kredit tashkilotlari, samaradorlik, mikromoliya tashkilotlari, aktiv, kapital, likvidlilik.

Abstract: The article presents an econometric analysis of factors influencing the efficiency of credit institutions providing microfinance services. Based on sample indicators, 72 observations were made of the economic efficiency indicators of credit institutions providing microfinance services.

Key words: econometric analysis, model, non-bank credit organizations, efficiency, microfinance organizations, asset, capital, liquidity.

Аннотация: В статье представлен эконометрический анализ факторов, влияющих на эффективность кредитных организаций, оказывающих микрофинансовые услуги. По выборочным показателям проведено 72 наблюдения за показателями экономической эффективности кредитных организаций, оказывающих микрофинансовые услуги.

Ключевые слова: эконометрический анализ, модель, небанковские кредитные организации, эффективность, микрофинансовые организации, актив, капитал, ликвидность.

KIRISH

Har bir davlatda nobank kredit muassasalari o‘ziga yarasha o‘ringa ega. Ularning o‘rni mamlakatda kambag‘allikni qisqartirishda, aholining ijtimoiy faoliyatini yaxshilashda bilinadi. Shu bilan birga, nobank kredit tashkilotlari o‘zlarining moliyaviy barqarorligini ham ta’minlashlari lozim.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlarining ijtimoiy samaradorligini belgilovchi ko‘rsatkichlar sifatida kredit portfeli hajmi bilan ularning foizini olganmiz. Chunki, mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari tomonidan aholining kambag‘al qatlamiga moliyaviy ko‘mak berish darajasini aniqlashda ular tomonidan ajratilayotgan kreditlar hajmi bilan ularning foizini o‘rganish lozim. Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlarining ijtimoiy samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar asosan tashqi omillar hisoblanadi. Ushbu tashqi omillar bir tomondan aholining xarid qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari kreditlari hajmi va foiziga ta’sir ko‘rsatadi.

Biz ilmiy izlanishimizda ekonomerik tahlillarni ikki modelda olib boramiz. Ya’ni mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarning kuchini aniqlashda eng kichik kvadrat modeli hamda strukturaviy vektorli avtoregressiya modellaridan foydalanamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Nobank moliya tashkilotlarining iqtisodiyotda tutgan o‘rni, ushbu tashkilotlar faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar yuzasidan mahalliy va xorijiy adabiyotlarda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ushbu tadqiqotlarning ayrimlari bilan yaqindan tanishib chiqamiz.

R.Mersland va R.Strøm kabi olimlar mikromoliyaviy tashkilotlar faoliyat samaradorligi bilan undagi korporativ boshqaruv o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishgan. Ular mikromoliyaviy tashkilotda boshqaruv kengashining xususiyatlari, mulkchilik turi, raqobat va tartibga solish usullarining mikromoliyaviy tashkilotlarning kambag‘al mijozlar qatlami bilan ishlashi va uning samaradorlikka ta’sirini tahlil qilishgan. Tahlillar shuni ko‘rsatganki, mikromoliyaviy tashkilotlarda kengash raisi va va boshqaruv raisi vazifalarining bir-biridan aniq ajratilganligi, boshqaruv raisida ayol kishining bo‘lishi hamda mamlakatdagi raqobat muhiti mikromoliyaviy tashkilotlarining samaradorligiga va mamlakatdagi kambag‘allarning sharoitini keng ta’sir qilishi aniqlangan. Xususan, mikromoliyaviy tashkilotda kengash a’zolari ko‘pchilikdan tashkil topgan bo‘lsa, ushbu tashkilotda kreditlash hajmini kamaytirgan. Shuningdek, mikromoliyaviy tashkilotlarning mulkchilik shakli, ya’ni uning nodavlat tashkiloti yoki aksionerlik jamiyatidan tashkil topishi samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’siri sezilmagan[1].

B.Gutierrez-Nieto va boshqalar mikromoliyaviy tashkilotlar samaradorligini tahlil qilishgan. Ularning fikricha, mikromoliyaviy tashkilotlar nafaqat ijtimoiy tashkilotdir, balki foyda olishga ixtisoslashgan moliyaviy tashkilot hisoblanadi. Yuqoridagi iqtisodchilar Lotin Amerikasida joylashgan 30 ta mikromoliyaviy tashkilotlarning samaradorligini ma’lumotlarning nisbiy tahlili (Data Envelopment Analysis (DEA)) modelidan foydalangan. Tahlil natijalariga ko‘ra, mikromoliyaviy tashkilotlar samaradorligiga to‘rtta ko‘rsatkich ta’sir ko‘rsatib, ularning ichida davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar ta’siri, shu bilan birga mikromoliyaviy tashkilotlarning nodavlat tijorat tashkilot hamda nodavlat va notijorat tashkiloti kabi tashkiliy maqomining ta’siri yuqori ekanligini aniqlashgan[2].

N.Hermes, R.Lensink, va A.Meesters kabi iqtisodchilar mikromoliyaviy tashkilotlarining kambag‘allikni qisqartirish yo‘lida kreditlar ajratishi bilan uning samaradorligi o‘rtasidigi bog‘liqlikni tahlil qilishgan. Tahlilda 435 ta mikromoliya tashkilotlining 1997–2007-yillardagi statistik ma’lumotlaridan foydalangan holda stoxastik chegara tahlil (stochastic frontier analysis (SFA)) modelini qo‘llashgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, 1300 dan ortiq kuzatuvlardan aholining kambag‘al qatlamini kreditlash va mikromoliyaviy tashkilotlari samaradoriligi o‘rtasida teskari proporsionallik mavjudligi aniqlangan[3]. Darhaqiqat, mikromoliyaviy tashkilotlar tomonidan aholining kambag‘al qatlamini kreditlar birinchidan, katta xarajat tursa, ikkinchidan katta risk bilan bog‘liqdir. Chunki, ushbu mijozlar moliyaviy nobarqaror mijozlar hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, mikromoliya tashkilotlar faoliyatini tahlil qilishda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlarning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlaridan likvidliligiga ($Liquidity_t$) aktivlar rentabelligiga (ROA_t) hamda kapital rentabelligiga (ROE_t) ta’sir etuvchi endogen omillar sifatida ichki omillar mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari kreditlari hajmi ($Loan_t$), kreditlari foizi ($LoanRate_t$), hamda tashqi tomonlama mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari iqtisodiy samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar sifatida indikativ foiz stavka (INR_t), muomaladagi pul massasi ($M2_t$), iqtisodiyotdagi inflatsiya darajasi (CPI_t) hamda milliy valyuta devalvatsiya darajalari (DEV_t) tanlangan.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlarining ijtimoiy samaradorlik ko‘rsatkichlaridan kreditlari hajmiga ($Loan_t$), kreditlari foiziga ($LoanRate_t$) ta’sir etuvchi endogen omillar sifatida indikativ foiz stavka (INR_t), muomaladagi pul massasi ($M2_t$), iqtisodiyotdagi inflatsiya darajasi (CPI_t) hamda milliy valyuta devalvatsiya darajalari (DEV_t) tanlangan.


Tanlangan ko‘rsatkichlarning 2017M1–2022M12 oralig‘idagi statistik ma’lumotlari oylar kesimida va o‘sishda olingan. Tahlil qilinayotgan statistik ma’lumotlar o‘lchamlari turlicha bo‘lganligi uchun barcha ma’lumotlar natural logarifmlangan. Natijada ma’lumotlar bir maromda tekislanadi va bir xil o‘lchov birligiga keladi.

Ekonometrik tahlilning dastlabki bosqichida bir qator statistik hisob-kitoblarni amalga oshirdik. Bular tanlangan ma’lumotlarning tasviriy statistikasi, ya’ni bunda asosan ma’lumotlarning o‘rtacha ko‘rsatkichlari, maksimal va minimal ko‘rsatkichlari, o‘rtachadan chetlashishi (standart dispersiyasi) kabi ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Shuningdek, ilmiy ishimizda tanlangan ko‘rsatkichlarning normal taqsimotini ham tahlil qilganmiz.

Ma’lumotlarning normal taqsimotini tekshirish uchun Jak Bera koeffitsiyentidan foydalanildi. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlarining iqtisodiy samaradorligi ko‘rsat-

1 Mersland, R., & Strøm, R. Ø. (2009). Performance and governance in microfinance institutions. Journal of Banking & Finance, 33(4), 662-669.
2 Gutierrez-Nieto, B., Serrano-Cinca, C., & Molinero, C. M. (2007). Microfinance institutions and efficiency. Omega, 35(2), 131-142.
3 Hermes, N., Lensink, R., & Meesters, A. (2011). Outreach and efficiency of microfinance institutions. World development, 39(6), 938-948.

kichlari, ya'ni likvidlilik, aktivlar va kapital rentabelligi ko'rsatkichlaridan tashqari qolgan tanlangan barcha ko'rsatkichlar normal taqsimotga ega. Chunki, tanlangan barcha ko'rsatkichlar uchun hisoblangan Jak-Bera koeffitsiyenti ishonchli va ularning ehtimolligi 0,05 dan kichik ekanligi aniqlandi.



1-rasm: Tanlangan ko'rsatkichlarning normal taqsimoti[4]

Tanlangan ko'rsatkichlar yordamida 72 ta kuzatuv amalga oshirildi. Quyida tanlangan 9 ta ko'rsatkichning tasviriy statistikasini tahlil qilamiz.

1-jadval: Ko'rsatkichlarning tasviriy statistikasi[5]

	INR	M2	CPI	DEV	Loan	LoanRate	Liquidity	ROA	ROE
Mean	4.6171	4.6053	4.6157	4.6053	4.6056	4.6228	4.6654	4.6394	4.6613
Median	4.6167	4.6053	4.6161	4.6052	4.6056	4.6224	4.6611	4.6348	4.6541
Maximum	4.6192	4.6070	4.6453	4.6133	4.6082	4.6280	4.7123	4.6720	4.7228
Minimum	4.6126	4.6045	4.6001	4.6049	4.6039	4.6169	4.6418	4.6281	4.6346
Std. Dev.	0.0014	0.0003	0.0077	0.0009	0.0005	0.0024	0.0167	0.0114	0.0229
Skewness	-1.7810	1.6639	0.5413	7.9582	0.6977	-0.2430	0.8922	1.5009	1.1271
Kurtosis	6.7229	9.6691	5.1799	66.156	12.123	2.8349	3.3518	3.9676	3.3368
Jarque-Bera	79.647	166.65	17.772	12726	255.54	0.7907	9.9257	29.841	15.585
Probability	0.0000	0.0000	0.0001	0.0000	0.0000	0.6734	0.0069	0.0000	0.0004
Sum	332.43	331.58	332.33	331.58	331.60	332.84	335.9100	334.03	335.61
Sum Sq. Dev.	0.0001	8.18E-06	0.0042	6.69E-05	2.03E-05	0.000425	0.019833	0.0092	0.0375
Observations	72	72	72	72	72	72	72	72	72

4 Tanlangan statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlandi.
5 Tanlangan statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlandi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, egzogen o‘zgaruvchilar hisoblangan mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari likvidliligining natural logalifmlangan holatdagi o‘rtacha ko‘rsatkichi 4,6654 ga teng bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich ko‘rilgan davrda maksimum 4,7123 ga va minimum 4,6418 ga teng bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkichning standart dispersiyasi 0,0167 ga teng bo‘lgan.

Shuningdek, mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari aktivlarining rentabellik ko‘rsatkichlarining logalifmlangan holatdagi o‘rtachasi 4,6348 ga teng bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich ko‘rilgan davrda maksimum 4,6720 ga va minimum 4,6281 ga teng bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkichning standart dispersiyasi 0,0114 ga teng bo‘lgan.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari kapitali rentabelligi ko‘rsatkichi natural logalifmlangan holatdagi o‘rtacha ko‘rsatkichi 4,6541 ga teng bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich ko‘rilgan davrda maksimum 4,7228 ga va minimum 4,6346 ga teng bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkichning o‘rtachadan chetlashish darajasi 0,0229 ga teng bo‘lgan.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari kapital rentabelligi ko‘rsatkichining standart dispersiyasi qolgan samaradorlik ko‘rsatkichlaridan kattaligi aniqlandi.

2-jadval: Tanlangan ko‘rsatkichlar o‘rtasida korrelyatsion matritsa[6]

	INR	M2	CPI	DEV	Loan	LoanRate	Liquidity	ROA	ROE
INR	1								
M2	-0.0073	1							
CPI	0.0124	-0.0449	1						
DEV	-0.0812	0.5777	0.0742	1					
Loan	0.0376	-0.0990	0.2182	0.0578	1				
LoanRate	0.8048	-0.0993	-0.0297	-0.2299	-0.0695	1			
Liquidity	0.0114	-0.0477	-0.2346	-0.1726	-0.2423	-0.0199	1		
ROA	0.0450	-0.0415	-0.1579	-0.0912	-0.2448	0.0049	0.8605	1	
ROE	0.1170	-0.0047	-0.2172	-0.1197	-0.3103	0.07838	0.8963	0.9674	1

Yuqorida tanlangan tijorat banklari likvidliligi, kreditlash salohiyati hamda foiz siyosatlarining endogen ko‘rsatkichlar bilan korrelyatsion bog‘liqligi tahlil qilingan.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlaridan likvidlilik darajasining kreditlari hajmi va ularning foizi bilan korrelyatsiyasi mos ravishda -0.24 va -0,02 ga teng bo‘lgan. Ya’ni mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari kreditlari hajmining oshishi ularning likvidliligiga teskari ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, kreditlar foiz stavkasining likvidlilikka ta’siri sezilmagan.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlaridan likvidlilik darajasining indikativ foiz stavka bilan korrelyatsiyasi 0,01, muomaladagi pul massasi bilan -0,05, inflatsiya darajasi bilan -0,23 va devalvatsiya bilan -0,17 ga teng bo‘lgan. Ya’ni indikativ foiz stavka bilan pul massasi mikromoliya tashkilotlari likvidliligi ta’siri sezilmagan. Aksincha, Inflatsiya va devalvatsiya darajalari bilan teskari bog‘liqlik bo‘lgan.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlaridan aktivlari rentabelligi kreditlari hajmi va ularning foizi bilan korrelyatsiyasi mos ravishda -0.24 va -0,01 ga teng bo‘lgan. Ya’ni Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari kreditlari hajmining oshishi ularning aktivlari rentabelligiga teskari ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, kreditlar foiz stavkasining aktivlari rentabelligiga ta’siri sezilmagan.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari aktivlari rentabelligining indikativ foiz stavka bilan korrelyatsiyasi 0,04, muomaladagi pul massasi bilan -0,04, inflatsiya darajasi bilan -0,16 va devalvatsiya bilan -0,09 ga teng bo‘lgan. Ya’ni indikativ foiz stavka bilan pul massasi mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari aktivlari rentabelligiga ta’siri sezilmagan. Aksincha, inflsiya va devalvatsiya darajasi bilan sust bo‘lsada teskari bog‘liqlik bo‘lgan kapital rentabelligi ko‘rsatkichi aktivlar rentabelligi ko‘rsatkichi kabi bog‘liqlikka ega bo‘lgan.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari ijtimoiy samaradorlik ko‘rsatkichlaridan kreditlari hajmining indikativ foiz stavka va muomaladagi pul massasi bilan korrelyatsiyasi mos ravishda 0,04 va -0,10 ga teng bo‘lgan. Ya’ni indikativ foiz stavkaning oshishi kreditlari hajmini oshirsa, aksincha muomaladagi pul massasining oshishi kreditlari hajmini pasaytirmoqda.

6 Tanlangan statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan ishlandi.

Shu bilan birga, mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari kreditlari hajmining inflsiya va devalvatsiya darajalari bilan korrelyatsiyasi mos ravishda 0,21 va 0,06 ga teng bo‘lgan. Ya’ni inflsiya va devalvatsiya darajalarining kreditlar hajmiga ta’siri pozitiv bo‘lgan.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari ijtimoiy samaradorlik ko‘rsatkichlaridan yana biri kreditlar foizining indikativ foiz stavka va muomaladagi pul massasi bilan korrelyatsiyasi mos ravishda 0,80 va -0,10 ga teng bo‘lgan. Ya’ni indikativ foiz stavkaning oshishi kreditlar foiziga katta ta’sir qilgan bo‘lsa, aksincha muomaladagi pul massasining oshishi kreditlari hajmini pasaytirmoqda va bu bog‘liqlik mantiqan to‘g‘ri qurilgan.

Shu bilan birga, mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari kreditlar foizining Inflatsiya va devalvatsiya darajalari bilan korrelyatsiyasi mos ravishda -0,03 va -0,23 ga teng bo‘lgan. Ya’ni inflsiya darajalarining kreditlar foiziga ta’siri sezilarsiz bo‘lgan bo‘lsa, milliy valyuta devalvatsiyasining kreditlar foiziga ta’siri teskari va bu sezilarli bo‘lgan.

3-jadval: Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari kapitali rentabelligiga ta’sir etuvchi omillarning eng kichik kvadrat modelida hisoblangan parametrlari[7]

Dependent Variable: ROE				
Method: Least Squares				
Variable	**Coefficient**	**Std. Error**	**t-Statistic**	**Prob.**
LOAN	-12.61486	5.148947	-2.449989	0.0170
STLR	-1.867781	1.902436	-0.981784	0.3298
INR	4.381224	3.091854	1.417022	0.1613
M2	0.791212	9.630839	0.082154	0.9348
CPI	-0.453083	0.347308	-1.304555	0.1966
DEV	-2.867816	3.448343	-0.831651	0.4087
C	62.82094	46.99667	1.336710	0.1860
R-squared	0.155899	Mean dependent var		4.661318
Adjusted R-squared	0.077982	S.D. dependent var		0.022992
S.E. of regression	0.022078	Akaike info criterion		-4.696342
Sum squared resid	0.031682	Schwarz criterion		-4.474999
Log likelihood	176.0683	Hannan-Quinn criter.		-4.608225
F-statistic	2.000841	Durbin-Watson stat		0.295245
Prob(F-statistic)	0.078219			

Tahlil natijalariga ko‘ra 5% li ehtimollik bilan tekshirganda, faqatgina kreditlar hajmining mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari kapital rentabelligiga ta’siri sezilmoqda. Xususan, kreditlar hajmining stavkaning bir foizga oshishi mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari kapital rentabelligini 5,15 foizga oshirmoqda. Ushbu model orqali 5% ehtimollikda qolgan ko‘rsatkichlarning mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari kapital rentabelligiga ta’siri kuzatilmadi.

Tahlilimizning keyingi bosqichidan SVAR model uchun optimal “lag”ni tanlab olishimiz lozim. Buning uchun Lag Length Criteria usulidan foydalanamiz. Tahlil ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlarining iqtisodiy samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarning SVAR modeli uchun optimal “lag”lar soni 2 tani tashkil etmoqda.

4-jadval: Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlarining iqtisodiy samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarning SVAR modeli uchun optimal “lag” tanlash (Lag Length Criteria) usuli[8]

Lag	LogL	LR	FPE	AIC	SC	HQ
0	2961.033	NA	5.58e-49	-85.56617	-85.27477	-85.45056
1	3261.624	514.0549	9.79e-52	-91.93114	-89.01709	-90.77504
2	3326.214	93.60832	1.76e-51*	-91.45548*	-85.91878*	-89.25889*
3	3410.587	100.2695	2.19e-51	-91.55325	-83.39391	-88.31617

7 Tanlangan statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan ishlandi.
8 Tanlangan statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan ishlandi.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari aktivlar rentabelligiga pul massasining oshishi hamda kapital rentabelligining oshishi pozitiv ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari kapitali rentabelligiga muomaladagi pul massasining o‘sishi hamda likvidlilik darajasining oshishi negativ ta’sir ko‘rsatmoqda. Ammo avtokorrelyatsiya orqali oldingi davrdagi kapital rentabelligining oshishi keyingi davrdagi kapital rentabelligini ham oshirmoqda.

Tahlilimizning keyingi bosqichidan SVAR model uchun optimal “lag”ni tanlab olishimiz lozim. Buning uchun Lag Length Criteria usulidan foydalanamiz. Tahlil ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlarining ijtimoiy samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarning SVAR modeli uchun optimal “lag”lar soni 2 tani tashkil etmoqda.

Model natijalariga ko‘ra, mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari ijtimoiy samaradorligini bildiruvchi kreditlar hajmi va foiziga ta’sir etuvchi tanlangan ko‘rsatkichlardan indikativ foiz stavka, muomaladagi foiz stavka hamda ichki iqtisodiyotdagi inflatsiya darajalarining ta’siri aniqlanmadi. Aksincha, milliy valyuta kursi devalvatsiyasi mikromoliya tashkilotlarining ijtimoiy faoliyat samaradorligiga ta’siri kuchli ekanligi aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, mikromoliya tashkilotlari va lombardlar aktivlari va kreditlarining mamlakat YAIMga hamda tijorat banklari aktivlari va kreditlariga nisbati bir foizni ham tashkil etmasligi ushbu nobank kredit tashkilotlarning iqtisodiyotdagi ahamiyati past ekanligidan dalolat beradi. Ammo oxirgi olti yilda mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning keskin rivojlanganligi ularning kelajagiga ishonch bilan qarashga olib kelmoqda.

SVAR model natijalariga ko‘ra, mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari kreditlari iqtisodiy samaradorligini bildiruvchi likvidlilik ko‘rsatkichlariga indikativ foiz stavka, kreditlar foizi, aktivlar rentabellik darajalari hamda avtokorrelyatsiyani inobatga olgan holda oldingi davrdagi likvidlilik darajasi pozitiv ta’sir ko‘rsatgan.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari kreditlari aktivlar rentabelligiga pul massasining oshishi va kapital rentabelligining oshishi pozitiv ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari kreditlari kapitali rentabelligiga muomaladagi pul massasining o‘sishi hamda likvidlilik darajasining oshishi negativ ta’sir ko‘rsatmoqda.

Model natijalariga ko‘ra, mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari kreditlari ijtimoiy samaradorligini bildiruvchi kreditlar hajmi va foiziga ta’sir etuvchi tanlangan ko‘rsatkichlardan indikativ foiz stavka, muomaladagi foiz stavka hamda ichki iqtisodiyotdagi inflatsiya darajalarining ta’siri aniqlanmadi. Aksincha, milliy valyuta kursi devalvatsiyasi ushbu tashkilotlar kreditlarining ijtimoiy faoliyat samaradorligiga ta’siri kuchli ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gutierrez-Nieto, B., Serrano-Cinca, C., & Molinero, C. M. (2007). Microfinance institutions and efficiency. –Omega, 35(2), –131-142.
2. Mersland, R., & Strøm, R. Ø. (2009). Performance and governance in microfinance institutions. Journal of Banking & Finance, 33(4), 662-669.
3. Hermes, N., Lensink, R., & Meesters, A. (2011). Outreach and efficiency of microfinance institutions. World development, 39(6), 938-948.
4. Gutiérrez-Nieto, B., Serrano-Cinca, C., & Mar Molinero, C. (2009). Social efficiency in microfinance institutions. – Journal of the operational research society, 60(1), –104-119.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma’lumotlari
6. Imkon Finans mikromoliya tashkilotining yillik rasmiy hisoboti.
7. https://www.worldbank.org ma’lumotlari

SANOAT KORXONALARIDA AYLANMA MABLAG‘LARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI



Nurmatov Mirzaakbar Mirzaaliyevich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Farg‘ona filiali mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sanoat korxonalarida aylanma mablag‘larni shakllantirish va undan foydalanishning ilmiy va amaliy jihatlari tadqiq qilingan. Shuningdek, sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda aylanma mablag‘lardan oqilona foydalanish, aylanma mablag‘lar bilan ta’minlash imkoniyatlari bo‘yicha ilmiy yondoshilgan holda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: aylanma mablag‘lar, pul mablag‘lari, aylanma fond, o‘z mablag‘lari, aylanma mablag‘lar samaradorligi.

Abstract: This article discusses the scientific and practical aspects of the formation and use of working capital of industrial enterprises. Also, with a scientific approach, recommendations have been developed on the rational use of working capital and the possibilities of ensuring working capital while ensuring the economic sustainability of industrial enterprises.

Key words: working capital, cash, working capital, own funds, efficiency of working capital.

Аннотация: В данной статье рассматриваются научные и практические аспекты формирования и использования оборотного капитала промышленных предприятий. Также с научным подходом разработаны рекомендации по рациональному использованию оборотных средств и возможностям обеспечения оборотных средств при обеспечении экономической устойчивости промышленных предприятий.

Ключевые слова: оборотный капитал, денежные средства, оборотный капитал, собственные средства, эффективность оборотного капитала.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatida “Kimyo, avtomobilsozlik va qishloq xo‘jaligi mashinasozligida ham katta-katta loyihalar ishga tushiriladi. Shu bilan birga, faol investitsiyalarni jalb qilishda xususiylashtirish va davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan to‘liq va samarali foydalanish zarur” [1].

Davlat rahbarining murojaatida ta’kidlangan fikrlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bugungi kunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yangi loyihalarni ishga tushirishda investitsiya mablag‘larini jalb qilish orqali tarmoq va sohalarning aylanma mablag‘lar bilan ta’minlanishida muhim zamin yaratadi.

Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi bevosita aylanma mablag‘lardan oqilona foydalanishga bog‘liq, chunki, aylanma mablag‘lar bilan doimiy ta’minlanishi va uning me’yoriy ta’minotga ega bo‘lishi bevosita har qanday korxonaning moliyaviy ustunligini belgilab beradi. Demak, har qanday ishlab chiqarish korxonasida aylanma mablag‘larining roli va ahamiyati ortib boradi.

Barqaror rivojlanishni ta’minlash sharoitida ishlab chiqarishni tashkil etgan sanoat korxonalari ishlab chiqarishni tashkil etish va faoliyat yuritish jarayonida bevosita turli tarmoq va korxonalar bilan iqtisodiy aloqalarni tashkil etgan holda hisob-kitob operatsiyalarini moliyaviy dastaklarga tayangan holda amalga oshiradi. Shu bois, korxonalar ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlashda, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni o‘z muddatida iste’molchiga yetkazish, korxonalararo shartnomalarni rasmiylashtirish asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishni tashkil etishda to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish va qabul qilishda pul mablag‘larini to‘g‘ri yo‘naltirish va oqilona sarflanishini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish jarayonida ishlab chiqarish korxonalari ishlab chiqarilgan mahsulotlarni yetkazib beruvchi yoki ta’minotchi korxonalarga xizmat ko‘rsatish haqini o‘z muddatida to‘lashda moliyaviy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etishlari hamda korxona o‘z hisobidagi aylanma mablag‘larni aylanishini to‘g‘ri tashkil etishi, to‘lov uchun to‘lanadigan pul mablag‘larni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali aylanma mablag‘lar aylanishini tezlashtirish va tartibga solishga doimiy e’tibor qaratishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sanoat korxonalarini ustuvor darajada rivojlanishida aylanma mablag‘lardan oqilona foydalanish va samaradorligini oshirish borasida nazariy yondashuvlar olib borilgan hamda bu borada ilmiy tadqiqotlar ko‘plab xorijlik olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Sanoat korxonalarida aylanma mablag‘lardan foydalanishning nazariy va uslubiy jihatlarini tadqiq qilishda mamlakatimiz va MDH olimlarining soha rivojiga qo‘shgan nazariy va amaliy tadqiqotlarini ko‘rib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

M.B.Kalonov va boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan aylanma mablag‘larni shakllanishi va uni ishlab chiqarish jarayoniga to‘g‘ri yo‘naltirish va buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirish muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlab o‘tilgan. Bugungi kunda iqtisodiyotning faol ishtirokchisi sifatida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag‘laridan maqsadli foydalanish va ularni samarali boshqarish, olinadigan mablag‘lar va majburiyatlarni o‘z vaqtida so‘ndirish buxgalteriya hisobini yuritish orqali to‘g‘ri va o‘z muddatida nazorat qilinishini tashkil etishning beshta vazifasini ta’kidlab o‘tishgan [2].

Iqtisodchi olim R.O.Xolbekov tomonidan “Buxgalteriya hisobiga kirish” nomli darsligida, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda pul mablag‘larini shakllanish tarkibi va aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish borasidagi nazariy qarashlar ilgari surilgan. Shuningdek, korxona xo‘jalik faoliyatida ishtirok etishiga ko‘ra mablag‘larni quyidagicha turkumlash lozimligi ta’kidlangan bo‘lib, unga ko‘ra: asosiy mablag‘lar (ishlab chiqarish va noishlab chiqarishda qatnashishiga ko‘ra); aylanma mablag‘lar (me’yorlanadigan va me’yorlanmaydigan xususiyatiga ko‘ra); aylanmadan chetlatilgan mablag‘lar (har xil ajratma va to‘lovlar) [3].

Professor E.X.Maxmudovning fikriga ko‘ra, aylanma ishlab chiqarish fondlari bu korxona ishlab chiqarish fondlarining bir qismi bo‘lib, bir ishlab chiqarish sikli davomida sarflanashi hamda o‘zining natural shaklini o‘zgartirib, o‘z qiymatini to‘lig‘icha tayyor mahsulot tannarxiga o‘tkazashi ta’kidlangan. Shuningdek, korxona aylanma ishlab chiqarish fondlari qatoriga xomashyo va materiallar zaxirasi, yarim tayyor mahulotlar, yoqilg‘i va energetika resurslari, qadoqlash va o‘rov materiallari, ehtiyot qismlar, tugallanmagan ishlab chiqarish va kelajakdagi xarajatlarni kiritish mumkin [4].

Iqtisodchi olimlar I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardaev, B.I.Isroilovlar aylanma mablag‘larning iqtisodiy tavsifiga batafsil to‘xtalib o‘tgan holda, korxona aylanma mablag‘lari – aylanma fondlar, muomala fondlari va boshqa aktivlardan tashkil topishi haqida fikr yuritganlar. Aylanma mablag‘lar asosiy fondlardan farq qilib, bir ishlab chiqarish sikli davomida to‘la iste’mol qilinishi va o‘z qiymatini tayyor mahsulotga o‘tkazishi va doimiy harakatda bo‘lishi yoritilgan. Shuningdek, korxona tasarrufida bor bo‘lgan resurslar bir maromda bir shakldan ikkinchisiga (puldan-ishlab chiqarish, ishlab chiqarishdan tovar va tovardan pul shakliga) o‘tishi hamda normadan ortiqcha to‘planib qolmasligi ta’kidlab o‘tilgan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aylanma mablag‘larning foydalanish samaradorligini tavsiflovchi umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar aylanma mablag‘lar aylanishining soni va aylanma mablag‘lar bir marta aylanishining uzoqligi hisoblanadi va ular quyidagicha aniqlanadi [6]:

$$AYam = T : Qu \quad (1)$$

$$U1am = Ks : AYam \quad (2)$$

bu yerda:

AYam – aylanma mablag‘larning aylanuvchanligi,

T – mahsulotlarning sotishdan kelib tushgan daromad,

Qu – aylanma mablag‘larning yillik o‘rtacha qoldig‘i,

U1am – aylanma mablag‘larning bir marta aylanish uzunligi (davriyligi),


Ks – tahlil davridagi kunlar soni.

Iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashda sanoat korxonalarining aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish ko‘plab iqtisodiy va moliyaviy omillarga bog‘liqdir. Shuningdek, aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi korxonalarning to‘lov intizomining darajasiga hamda aylanma mablag‘larning turli vazifalarni bajarish uchun joylashtirilgan kapital qo‘yilmalarning hajmi bilan ifodalanadi. Korxonalarning ishlab chiqarish tarmoqlarida aylanma mablag‘lardan samarali foydalanishiga ishlab chiqarishda kam chiqim innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni tashkil etganligi, xom ashyo va materiallar narxining pasayishiga ta’sir qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday korxonaning moliyaviy holati korxona hisobida va aylanma mablag‘larining hajmiga qarab baholanadi. Shu jihatdan dastlab ishlab chiqarish korxonasi ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida pul mablag‘larini jalb qiladi, buning natijasida mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi hamda tayyor mahsulotni sotish natijasida sarflagan pul mablag‘lari ortig‘i bilan qaytish jarayoni ro‘y beradi.

Korxonada aylanma mablag‘larning shakllanishi va korxonaning moliyaviy barqarorlikni ta’minlash borasida o‘z nazariy qarashlari bilan hissa qo‘shgan iqtisodchi olimlardan M.Q.Pardayev va B.I.Isroilovlar ham korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda o‘z mablag‘larini shakllantirish hamda moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini guruhlarga ajratgan holda ifodalagan. Ya’ni, korxonaning moliyaviy barqarorlik darajasini: o‘z mablag‘lar (xususiy kapital) bilan bog‘liqligi; chetdan jalb etilgan mablag‘lar (kapital) bilan bog‘liqliigi; harakatdagi mablag‘lar bilan bog‘liqligi; asosiy vositalar bilan bog‘liqligi; aylanma mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar bilan ifodalagan [7].



1-rasm: Korxonada aylanma mablag‘lar tashkil topishining tarkibiy tuzilishi

Manba: Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Korxonada pul mablag‘larini jalb qilish hisobiga shakllanadigan aylanma mablag‘lar tarkibi asosan, me’yorlashgan va me’yorlashmaydigan aylanma mablag‘lardan tarkib topadi. Korxonada aylanma mablag‘larning me’yorlashgan tarkibini tashkil etuvchi omillar bevosita o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi, ya’ni: korxonada mavjud ishlab chiqarish zaxiralari, korxonada ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar hisobiga shakllanadi. Korxonada aylanma mablag‘larning me’yorlashmaydigan tarkibi esa pul mablag‘lari (kassada mavjud naqd pul mablag‘lari, bank hisob-raqamdagi pul mablag‘lari, hisob-kitob operatsiyalari jarayonida shakllanadigan pul mablag‘lari va boshqalar) hamda debitor qarz mablag‘lari hisobiga shakllanadi (1-rasmga qarang).

MDH olimlari tomonidan bevosita aylanma mablag‘larning shakllanishi borasida o‘z tadqiqotlarini olib borgan T.K.Rutkauskas tomonidan aylanma mablag‘lar – bu aylanma fondlarning qiymat ko‘rinishidagi yig‘indisi bo‘lib, korxona omborlarida va ishlab chiqarishda tovar-moddiy zaxiralarni yaratish, yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitob qilish, budjet, ish haqini to‘lash va hokazolar uchun zarur bo‘lgan mablag‘lardan tashkil topishidir. Barcha aylanma mablag‘lar firmaning joriy aktivlari deb ta’kidlab o‘tgan [8].

T.K.Rutkauskas tomonidan aylanma mablag‘lar borasida bildirilgan fikrlarni to‘ldirgan holda aytish joizki, aylanma mablag‘larning ishlab chiqarishga yo‘naltirish natijasida hosil bo‘lgan tayyor mahsulotlarni korxona omboriga yoki tovar-moddiy zaxiralarni jamg‘arishga emas balki uni tezroq sotishga harakat qilgan korxonagina bozorda o‘z mavqeini saqlab qoladi. Shuningdek, har qanday korxona bevosita aylanma mablag‘larini to‘g‘ri va samarali sarflashga erishishi maqsadga muvofiqdir.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Rossiyalik tadqiqotchi O.N.Ermolina tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bevosita aylanma mablag‘larning iqtisodiy ahamiyati, ishlab chiqarish jarayonida tutgan o‘rni hamda aylanish siklida takror ishlab chiqarish jarayonini ta’minlash zaruratiga egaligini yoritib bergan. Bevosita aylanma mablag‘lar aylanish jarayonini 3 bosqichga bo‘lgan holda birinchi bosqichda pul mablag‘lari dastlab tovar-moddiy zaxiralari (xom ashyo) ni shakllantirishga yo‘naltiriladi, ikkinchi bosqichda ishlab chiqarish jarayonida ishchi kuchini jalb qilgan holda ishlab chiqarish vositalaridan foydalangan holda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, uchinchi bosqichda esa tayyor mahsulotni sotish orqali pul mablag‘lariga ega bo‘lish nazarda tutilgan. Darhaqiqat, bu jarayon barcha bosqichlarda korxonaning moliyaviy barqarorligini oshirishda aylanma mablag‘lardan foydalanishni samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega [9].

Ye.Yu.Karpicheva ham o‘z tadqiqotlarida aylanma mablag‘lar tushunchasiga nazariy jihatdan to‘xtalib o‘tgan holda aylanma mablag‘lardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga egaligi, bevosita aylanma mablag‘lar har qanday korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi borasida nazariy yondashuvlarini keltirib o‘tgan. Shu bilan birga aylanma mablag‘lar tushunchasi “aylanma kapital” va “aylanma aktivlar” tushunchalardan farqlash lozimligi ta’kidlangan [10].

M.A.Loktionova tomonidan aylanma mablag‘lar tushunchasiga o‘ziga xos darajada yondoshgan holda bozor iqtisodiyoti sharoitida aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish kerakligi, “aylanma kapital” tushunchasi o‘rniga aylanma mablag‘lar tushunchasini ishlatish lozimligi ta’kidlab o‘tilgan [11]. Rossiyalik olimning fikrlari o‘rinli, haqiqatdan ham zamonaviy iqtisodiyot sharoitida “aylanma mablag‘lar” terminini ishlatish bu yangicha nazariy yondashuv talqini bo‘ladi.

Korxonalarda aylanma mablag‘lar asosan, aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlariga bo‘linadi. Korxonada aylanma ishlab chiqarish fondlari 70 foiz asosiy mablag‘larga ega bo‘lib, u o‘z ichiga ishlab chiqarish zaxiralari, ishlab chiqarish jarayoni va kelgusi davr xarajatlarini qamrab oladi. Korxonada muomala fondlari 30 foizni tashkil etgan holda korxona omboridagi tayyor mahsulotlar, yo‘lda jo‘natilgan tayyor mahsulotlar, pul mablag‘lari va debitorlik qarzlarni qamrab oladi.

Korxona ishlab chiqarish faoliyatida aylanma mablag‘lardan foydalanish borasida tadqiqotchilardan O.V.Golikova va Ye.G.Nesterenkolar bevosita aylanma mablag‘lar korxona ishlab chiqarish faoliyatining muhim hisoblanib, sanoat korxonalari ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlash va mahsulot sifatini oshirishga xizmat qilish, shu bilan birga korxona moliyaviy holatini yaxshilashda, hamda ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlashgan. Ammo, bugungi kunda ko‘plab sanoat korxonalari ishlab chiqarish jarayonida yetarli darajada aylanma mablag‘ ajratmayotganligi hamda aylanma mablag‘larni oqilona boshqarishga e’tibor qaratilmayotganligini e’tirof etgan [12].

O.I.Volkova va O.V.Devyatkinalar tomonidan korxona aylanma mablag‘lari bu pul mablag‘larining yig‘indisidan tashkil topishi va ishlab chiqarish vositalariga kiritilgan moddiy resurslar hisoblanib, aynan bir ishlab chiqarish mavsumida qayta ishtirok etib o‘zining qiymatini to‘liq yaratilayotgan mahsulot tannarxiga o‘tkazishi haqida o‘z fikrlarini bayon etgan. Korxonaning aylanma mablag‘lari korxonada doimiy harakatda bo‘lib, pul mablag‘larini mahsulot ishlab chiqarish uchun moddiy resurslarga sarflaydi, ishlab chiqarishni tashkil etadi va tayyor mahsulotni sotganda korxonaga pul mablag‘lari foyda bilan qaytishi hamda doiraviy sikl takrorlanib turishini o‘z tadqiqotlarida ochib bergan [13].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mamlakatimiz va xorijlik tadqiqotchilarning fikrlarning inobatga olgan holda aytish joizki, aylanma mablag‘lar har qanday sanoat korxonalari uchun muhim. Shu bois, korxona aylanma mablag‘larni hosil bo‘lishidan tortib to uni ishlab chiqarishga sarflash va undan samarali foydalanishni tartibga solishi bu korxonalarning raqobat muhiti sharoitida o‘z mavqeini saqlab qolishida va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashida muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, korxonalar moliyaviy barqarorlikka erishishini ta’minlashda aylanma mablag‘larni sarflash va aylanma mablag‘larning aylanish me’yorlariga amal qilishi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi.
2. M.B.Kalonov, F.T.Abdivaxidov, Sh.X.Dadabayev. “Buxgalteriya hisobi”. –Darslik.–T.: “IQTISODIYOT”, 2023. –52-bet.
3. R.O.Xolbekov. Buxgalteriya hisobiga kirish. (Darslik).–T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022, 29-30 betlar.
4. E.X.Maxmudov. Korxona iqtisodiyoti (O‘quv qo‘llanma). –T.:TDIU-2004. –125-bet.
5. I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardayev, B.I.Isroilov. Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili. Monografiya. Toshkent: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. 2003.-97-bet.

6. T.S.Malikov. Moliya-xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi. O‘quv qo‘llanma.–T.: “IQTISOD-MOLIYA”, –2009, –93-94-betlar.
7. M.Q.Pardayev, B.I.Isroilov. Moliyaviy tahlil: (Uslubiy ko‘rgazmalar va tavsiyalar albomi). –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. –1999. – B. 197.
8. Т.К.Руткаускас. Экономика организации (предприятия): учебное пособие/ [и др.]; под общ. ред. д.э.н., проф. Т.К.Руткаускас – 2-е изд., перераб. и доп. – Екатеринбург: Изд-во УМЦ, УПИ, –2018. –91 с.
9. О.Н.Ермолина. Управление оборотным капиталом предприятия: На примере лесопильно-деревообрабатывающих предприятий Архангельской области. Диссертация кандидата экономических наук: 08.00.10. –Архангельск, 2006.–201 с.: ил. РГБ ОД, 61 06-8/3704
10. Е.Ю.Карпычева. Формирование механизма управления оборотными средствами предприятий АПК: Автореферат дис. канд. экон. наук: 08.00.05/Е.Ю.Карпычева: Орловский государственный институт экономики и торговли. – Воронеж. –2014. –27 с.
11. М.А.Локтионова. Развитие инструментария формирования и оценки финансового потенциала в системе финансового менеджмента корпораций: Автореферат. дисс. канд. эконом. наук: 08.00.10 / М.А.Локтионова: Ставропольский университет. –Владикавказ. –2018. –28 с.
12. О.В.Голикова, Е.Г.Нестеренко. Понятие материальных оборотных активов и их роль в кругообороте средств предприятия. https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-materialnyh-oborotnyh-aktivov-i-ih-rol-v-krugooborote-sredstv-predpriyatiya/viewer
13. О.И.Волкова, О.В.Девяткина. Экономика предприятия (фирмы). Учебник/Э69- 3-е изд., перераб. и доп. –М.: ИНФРА-М. –2007. –С. 151.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



BIZNESNI YURITISHDA KORXONALARARO INTEGRATSION JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Olimova Nodira Xamrakulovna
I.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta’minlash unda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik va biznes subyektlari moliyaviy barqarorligini oshirishni talab qilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari korxonalararo kooperatsiya va integratsion jarayonlarni rivojlantirish masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish taqozo etilishi xususida fikr yuritiladi. Shu asosda mazkur ishda mamlakatimiz biznes va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida integratsiya va kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan hamda biznesni yuritish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, biznes yuritish strategiyasini aniqlash va bunda kooperatsiya-integratsiya aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: biznes, korxona, sanoat, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, tadbirkorlik, integratsiya, kooperatsiya, investitsiya, strategiya, investitsion faollik, boshqaruv, rivojlanish.

Abstract: The article considers the issue that ensuring the balance, sustainability of the national economy requires increasing the financial stability of business entities, and businesses operating in it, and small businesses and private entrepreneurship require scientific research on the development of cooperation and integration processes between enterprises. On this basis, this work reveals the specific aspects of the development of integration and cooperative relations between business entities and entrepreneurship in our country, scientific proposals and practical recommendations aimed at identifying priority areas of business and business development, business strategies and the development of cooperative and integration relations.

Key words: business, enterprise, industry, production, service, entrepreneurship, integration, cooperation, investment, strategy, investment activity, management, development.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос о том, что обеспечение сбалансированности и устойчивости национальной экономики требует повышения финансовой устойчивости функционирующих в ней субъектов предпринимательства и бизнеса, а субъектам малого бизнеса и частного предпринимательства требуется научное исследование вопросов развития кооперации и интеграционных процессов между предприятиями. На этой основе в данной работе раскрыты специфические аспекты развития интеграционных и кооперативных отношений между субъектами бизнеса и предпринимательства нашей страны, разработаны научные предложения и практические рекомендации, направленные на определение приоритетных направлений ведения и развития бизнеса, стратегии ведения бизнеса и развитие при этом кооперативно-интеграционных отношений.

Ключевые слова: бизнес, предприятие, промышленность, производство, сервис, предпринимательство, интеграция, кооперация, инвестиции, стратегия, инвестиционная активность, управление, развитие.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotda muhim o‘rin egallab borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish hamda bu orqali ichki bozorni raqobatbardosh, eksportbop va sifatli tovarlar bilan boyitish, yangi ish o‘rinlari yaratish va shunga muvofiq holda aholi daromadlarini o‘stirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha ahamiyati katta bo‘lgan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda, bu soha davlat byudjetiga soliq to‘lov tushumlari hajmining ko‘payishi va iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichi hisoblangan yalpi ichki mahsulot salmog‘ining oshishiga asosiy turtki bo‘lmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati respublikamizdagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikning tayanchiga hamda shu bilan birga asosiy kuchiga aylanib bormoqda.

Tadbirkor va ishbilarmonlarning bunyodkorlik harakatlari mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lida olib borilayotgan islohotlarning ajralmas qismi sifatida o‘zining ijobiy samarasini bera boshladi. Eng asosiysi - so‘nggi yillarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari barqaror tus oldi. Erkin iqtisodiyotning sinalgan tamoyillariga izchil amal qilinishi natijasida tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati oshdi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda. Qisqa muddatda iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni shakllantirish, aholi daromadlarining ko‘payishini ta’minlash, unumdor tashqi savdo va investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda.

Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi, xususan, milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta’minlash unda faoliyat yuritayotgan subyektlar moliyaviy barqarorligini oshirishni talab qiladi. Yuqoridagi vazifalarning ijrosi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari korxonalararo kooperatsiya va integratsion jarayonlarni rivojlantirish masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kichik biznes va tadbirkorlik mavzusida respublikamizning ko‘plab olimlari ilmiy izlanishlar olib borishgan va bir qancha risolalalar nashr etilgan. A.Abduganiyev, A.Abduraximov, S.Ablayev, B.Berkinov, A.Jurayev, D.Gazibekov, A.Bedrintsev, A.Vahobov, S.G‘ulomov, X.Kimsanbaev, A.Isojonov, G.Saidova, F.Kayumov, A.Abdullayev, A.Sotvoldiyev, Sh.Yuldashev kabi mualliflarning izlanishlarida O‘zbekistonda kichik biznesning shakllanishi va rivojlanishi, uning tashkiliy shakllari, kichik biznes infratuzilmasi, biznes-reja ishlab chiqish masalalari va kichik korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish usullari ham atroflicha ko‘rsatib berilgan.

O‘zbekistonda va uning hududlarida biznes hamda tadbirkorlikni rivojlantirish, uning investitsion faolligini ta’minlashning hududiy xususiyatlari va istiqbollarining nazariy jihatlari va ayrim hududiy xususiyatlari iqtisodchi olimlarimiz M.Abdusalyamov, T.Axmedov, A.Sodiqov, A.Soliyev, O.Abdullayev, A.Qayumov, F.Egamberdiyev, Sh.Shodmonov, T.Jo‘rayev, K.Muftaydinov, D.Alimatova, A.Qulmatov [6], N.Muradovalarning [5] ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Agroiqtisodchi olimlardan A.Chayanov kooperatsiyaning iqtisodiy mohiyatini mustaqil ravishda o‘z faoliyatini birlashtiruvchi turli xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatlari mushtarakligini ta’min etuvchi munosabat sifatida ta’riflaydi. Muallif bu yerda asosiy e’tiborni mol-mulk emas, balki kooperatsiya munosabatlariga kirishgan mustaqil subyektlar manfaatlariga xizmat qilishga qaratish lozimligini alohida uqtiradi. Bu kontseptsiya esa I.Buzdalov tomonidan “Kooperatsiya turli xo‘jalik yurituvchi subyektlarning birgalikdagi faoliyati bo‘lib, u o‘zida shaxsiy, jamoa va ijtimoiy manfaatlarni birlashtiradi, alohida insonlarning ijodiy mehnatini rag‘batlantiradi. Ayni paytda insonning ijtimoiy kafolati bilan birga, sotsial himoyasini ta’min etadi” deb fikr yuritadi.

Qolaversa, yetuk iqtisodchi olimlardan M.Tugan-Baranovskiy asosiy e’tiborini kooperatsiya shakllari va kooperatsiya jarayonining ijtimoiy jihatlariga qaratib, uni ijtimoiy harakat sifatida talqin qilgan bo‘lsa, bizning olimlardan R.Husanov o‘z ishlarida kooperatsiyaning iqtisodiy jihatlarini tadqiq etadi [4]. Bunda asosiy e’tibor mayda tovar ishlab chiqaruvchilarga qaratilgan bo‘lib, kooperatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy tabiati o‘sha davr nuqtai-nazaridan talqin etiladi.

Mamlakatimizda hududlarida tadbirkorlikni rivojlantirish va uning investitsion faolligini ta’minlashni davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga, turli davrda, umumiy holda bajarilgan bo‘lib mahsulotni sotish tizimini alohida muammo sifatida tanlagan holda chuqur yondashilmagan. Ayni paytda meva-sabzavotchilik sohasida agrofirmalar faoliyatini tashkil etish borasida olib borilayotgan ishlar ham masalaga jiddiy yondashgan holda ilmiy tadqiqotlar olib borish, mavzuga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishning zarurligi ushbu mavzuni tanlashga asos bo‘ldi.

Tadqiqotda ilmiy abstraktsiya, dialektik tadqiqot, induktsiya va deduktsiya, maqsadli rivojlantirish, monografik kuzatuv, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash va iqtisodiy statistik usullardan foydalanilgan.


NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mamlakatimizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini ustuvor rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar o‘tkazildi, uning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy-me’yoriy hujjatlar, tadbirkorlarga ko‘maklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shular jumlasiga kiradi. O‘zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalari majmuini tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda. Bugungi kunga kelib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishda, xalq iste’moli mollarini, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda hamda boshqa sohalarda faoliyat ko‘rsatmoqda.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, kichik biznes subyektlarini sanoat faoliyatiga keng jalb etish, sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash va rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini kamaytirish maqsadida “Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori [1] qabul qilindi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” [2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra “Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan ettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga doir davlat Dasturida “milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash” masalasiga alohida ahamiyat berilgan.

Respublikamizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilinishini ta’minlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar 2023-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 523,6 mingtani tashkil etish imkonini berdi va o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 60,8 mingtaga ko‘paygan yoki 13,1 % ga oshgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 17,9 birlikni tashkil qildi. 2022-yil davomida 90,2 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu 2021-yilning shu davriga nisbatan 8,8 %ga kam demakdir (1-rasm).



1-rasm: 2017-2022-yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi [14], ming birlikda

Rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2023-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) soni jami 523 556 tani, shundan yangi tashkil etilganlari 90 177 tani tashkil etdi. 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi Toshkent shahrida 106071 tani yoki jamiga nisbatan 20,3 % ni tashkil etdi. 2022-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida 35,9 birlik, Navoiy viloyatida 24,8 birlik, Sirdaryo viloyatida 23,0 birlik, Jizzax viloyatida 21,5 birlik va Toshkent viloyatida 19,7 birlikni tashkil etgan.

Respublika bo‘yicha 2022-yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 17,9 birlikni tashkil etdi. 2022-yilda hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Toshkent shahri -16,7 %, Samarqand viloyati - 11,8 %, Farg‘ona viloyati - 9,8 %, Qashqadaryo viloyati - 9,5 %, Toshkent viloyati - 7,5 %, Xorazm viloyati - 6,3 %, Namangan viloyati - 6,1 %, hissalariga to‘g‘ri keldi.

1-jadval: Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar [14], birlikda

	2021-yil yanvar-dekabr	2022-yil yanvar-dekabr	farqi (+;-)
Jami	98 886	90 177	- 8 709
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	11 710	12 018	308
Sanoat	19 285	16 191	- 3 094
Qurilish	6 330	4 795	- 1 535
Savdo	38 459	34 384	- 4 075
Tashish va saqlash	2 642	3 355	713
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	6 621	5 812	- 809
Axborot va aloqa	2 521	2 617	96
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	1 760	1 498	- 262
Boshqa faoliyat turlari	9 558	9 507	- 51

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlarida ishlab chiqarish salmog‘idagi o‘zgarishlar orqali ham kuzatish mumkin. Xususan, mazkur sohaning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2021-yildagi 19 285 birlikdan 2022-yilda 16 191 (kamayish - 3 094)ga, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida tegishli ravishda 11 710 mingdan 12 018 mingga (o‘sish 308), savdoda 38 459 dan 34 384 (kamayish - 4 075)ga, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda 1 760 birlikdan 1 498 birlikka (kamayish - 262), tashish va saqlashda 2 642 dan 3 355 (o‘sish 713)ga, boshqa faoliyat turlarida 9 558 dan 9 507 (kamayish - 51)ga qadar o‘zgargan. 2022-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 34 384 ta, sanoatda 16 191 ta hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 12 018 ta yangidan tashkil etilgan.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda tashkil etilayotgan yangi ish o‘rinlarining ¾ dan ko‘p qismi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga to‘g‘ri keladi. Buning natijasida kichik biznes sohasida aholini ish bilan bandligini ko‘paytirish va yangi ish o‘rinlarini paydo qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.


Ma’lumki, Markaziy Osiyo mamlakatlari 2016-yildan boshlab mintaqaviy kooperatsiyani faollashtirishning eng yangi bosqichini boshladi, unda ongli tarzda iqtisodiy kooperatsiyaga asosiy e’tibor qaratildi. O‘zbekiston va Qozog‘istonda yangi pragmatik rahbarlarning hokimiyatga kelishi, Xitoy yordamida yangi transport marshrutlari ochilishi, madaniy va boshqa aloqalarni rivojlantirish masalalari muhokama etilishi mamlakatlar ushbu bosqichni samarali bosib o‘tishiga yordam beradiganday tuyulgan edi. Markaziy Osiyodagi integratsiya yoki kooperatsiya jarayonlari haqida gap borar ekan, hali Ukrainada urush bilan bog‘liq inqiroz yuz bermay turib, uzoq yillar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari eksport va import marshrutlarini rang-baranglashtirishga intilib kelayotgan edi. Endi eksportning eng asosiy marshrutlaridan birida jiddiy muammolar yuzaga kelgach, ushbu vazifaning dolzarbligi oshmoqda. Ayni paytda asosiy muqobil sifatida TMTM, ya’ni Transkaspiy xalqaro trasport marshruti salohiyatini kengaytirish bo‘yicha ishlar faollashtirilmoqda. Lekin ushbu marshrutdan hali to‘liq foydalanilmayotgani va u yaqinda ishga tushirilgani boshog‘riq bo‘lib turibdi. Sinov sifatida ishga tushirib ko‘rildi, konteynerlar tashildi, lekin narxi yuk tashish multimodal bo‘lgani uchun qimmat, birinchidan, bir necha turdagi yuk tashishdan foydalaniladi. Aqtaugacha yoki Quriq portigacha yuk quruqlik orqali yetkazib beriladi, so‘ngra kemalarga yuklanib, dengiz orqali Ozarbayjonga va undan nari manzillarga qayta yuklanib eltiladi. Shu o‘rinda, birinchidan, TMTM koridori imkoniyatlarini kengaytirish vazifasi turibdi. Ikkinchidan, Quriq va Aqtau portlarimiz potensialini kengaytirishimiz zarur, chunki G‘arb bilan Rossiya o‘rtasidagi hozirgi holat, ya’ni sanksiyalar urushi saqlanib qolsa - saqlanib qolish ehtimoli ko‘proq - Rossiyani transport qamali qilish kuchaya boradi. Biz shu sabab eksportimiz yo‘nalishini o‘zgartirishga oldindan tayyor bo‘lishimiz kerak. Uchinchidan, Qozog‘iston hukumati ushbu yo‘nalishda ish olib bormoqda. Ular Aqtau bilan Quriq portlari atrofida terminallar qurish rejasi borligini oshkor qildi. Yana hukumat Turkiya, Ozarbayjon va Gruziya bilan ayni marshrut bo‘yicha Birlashgan transport logistika kompaniyasi (OTLK) tuzish haqida bitim ham tuzdi, u Yevroosiyo iqtisoidy ititfoqi (YEOII) ichidagi bitimga o‘xshab ketadi, yana Transkaspiy marshruti ishtirokchilari tuzgan bitimni ham esga tushiradi [13].

Bundan tashqari, janub yo‘nalishi ham bor, albatta. Bu - o‘sha Xitoy marshruti. Lekin u - butunlay boshqa narsa, chunki hozir gap bu yerda shimol yo‘nalishidagi tranzit bilan bog‘liq vaziyat haqida ketyapti. Umuman, Yevroosiyo integratsiyasining moddiy tajassumi bo‘lgan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi tashkil etilgandan beri sanksiyalar sharoitida faoliyat ko‘rsatib kelayotganini qayd etish joiz.

Qozog‘iston integratsiya yo‘nalishini kuchaytirishdan oldin ko‘p bor o‘ylab ko‘rishi zarur. Shuning uchun hamma narsa sanksiyalar bundan keyin qanchalik keskinlashuviga bog‘liq. Ikkinchidan, ish iqtisodiy ittifoq qanchalik egiluvchan va o‘z vaqtida mushkulotlarga moslasha olishiga, uchinchidan, Rossiya iqtisodiyotidagi vaziyat qay tarzda rivojlanishiga bog‘liq.

So‘nggi yillarda aholining keng qatlamini tadbirkorlikka jalb qilish va ularning daromad manbalarini kengaytirishga qaratilgan “Har bir oila - tadbirkor”, “Yoshlar kelajagimiz” va boshqa ijtimoiy dasturlar doirasida jami 13 trln. so‘mdan ziyod imtiyozli kreditlar ajratilib, 600 mingdan ziyod oilalarni qamrab olishga erishildi. Mazkur dasturlar hududlarda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi, uning turmush tarzini yaxshilash va ish bilan bandligini oshirish uchun turtki bo‘lib xizmat qilmoqda. Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, kambag‘allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” [3] Qarori qabul qilindi.

Integratsiyalashuvning kichik darajasi mamlakatlar iqtisodiyotida yangi xo‘jalik yuritish tizimini shakllantirish yo‘li hisoblanib, o‘zaro pirovard mahsulot ishlab chiqaradigan va geografik yaqin bo‘lgan korxona va tashkilotlarni o‘z ichiga olgan “Klaster”lar yaratishdir. Eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan yiliga 20 mln. dollardan ortiq eksport qiluvchi korxonalarga 5 mln. dollargacha imtiyozli kreditlar ajratildi. Yuqori sifat va nazorat tizimiga ega Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda sertifikat berilgan asbob-uskuna va xom ashyolarga milliy sertifikat olish amaliyoti bekor qilindi.



2-rasm: Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati [14]

2022-yilda kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 5695,8 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 29,5 % ini tashkil etdi. 2022-yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 15154,1 million AQSh dollarini yoki jami importning 49,4 % ini tashkil etdi. Xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar uchun import boji stavkalari pasaytirildi.

2-jadval: 2022-yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash [14], % da

	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar		
	ko‘payish (yaxshilanish)	o‘zgarishsiz	kamayish (yomonlashish)
Korxonaning umumiy aylanmasi	44,4	44,7	10,9
Band bo‘lganlar soni	24,5	68,1	7,4
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	38,2	56,0	5,8
Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari	29,0	63,8	7,2
Raqobat muhiti	40,8	54,3	4,9

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2017-yilda 12 976 tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022-yilga kelib esa 28 507 taga etgan yoki 2017-yilga nisbatan 15 531 taga oshgan. Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2017-yilda 21 296 ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022-yilda 42544 ta yoki 21 248 taga oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2017-yilda 2 840 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 5719 tani tashkil etgan va bu ko‘rsatkich 2017-yilga nisbatan 2 879 taga oshgan. Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida - 58,1 % ni, sanoatda - 55,8 % ni, xizmatlar sohasida - 54,9 % ni tashkil etdi. Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi qurilishda - 9,2 % ni, sanoatda - 8,9 % ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida - 8,5 % ni tashkil etdi.

Mamlakatimizda biznesni yuritish bilan bog‘liq barcha jarayonlarni yanada liberallashtirish, soddalashtirish va arzonlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbikorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznesning respublikamiz iqtisodiyotidagi tutgan o‘rni tobora mustahkamlanib bormoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish, biznes yuritish shart-sharoitlarini yanada yengillashtirish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi ortiqcha to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish bo‘yicha keskin va ta’sirchan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi sohaning yanada rivojlanishiga

zamin va turtki bo‘lmoqda. Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning eng muhim vazifasi - kichik korxonalarga teng huquqlarni ta’minlash, kichik va yirikroq korxonalar o‘rtasidagi xo‘jalik imkoniyatlari bo‘yicha farqni imkon qadar kamaytirish, O‘zbekiston xo‘jaligining bozor tizimini shakllantirishning bazaviy jarayonlarida kichik va yirik tadbirkorlikning eng maqbul nisbatini ta’minlashdan iborat. Bu birinchi galda, raqobatli bozor musobaqasida teng huquqlilikni, faoliyat turini erkin tanlash sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishda teng imkoniyatlar yaratish, ularning huquqlari va javobgarligini, imkoniyatlari va tavakkalchiligini aniq belgilashdir. Bunda ijtimoiy, iqtisodiy, yuridik, siyosiy va boshqa qulay sharoitlar mavjud bo‘lsagina biznesni muvaffaqiyatli rivojlantirish mumkin.

XULOSA

Jahon iqtisodiyotida kichik biznes ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda, yangi ish o‘rinlarini barpo qilishda, bozor o‘zgarishlariga nisbatan tez moslashishda va mulkdorlar sinfini shakllantirishda alohida ahamiyatga va yuqori samaradorlikka ega ekanligi tasdiqlanmoqda. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari integratsion aloqalari hamda moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- banklar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushini ko‘paytirish maqsadida sohaga kredit ajratish mexanizmini takomillashtirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari faoliyatini rivojlantirishga xorijiy kredit liniyalaridan mablag‘lar jalb qilishni kengaytirish;
- iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi kichik biznes korxonalar faoliyati barqarorligini reyting usulida baholashni yanada takomillashtirish zarur;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik - istiqbolda ishlab chiqarish va eksport tarkibida samarali, tezlikda o‘zgarish qobiliyatiga ega bo‘lgan soha sifatida iqtisodiyotda muhim axamiyat kasb etishiga erishish kerak;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik unumli hamda modernizatsion texnikaviy baza asosiga ega bo‘lishi kerak. Bunda bozor infratuzilmasini muhim markazlar, lizing tashkilotlari tizimini har taraflama servis xizmatlarini yo‘lga qo‘yish bilan rivojlanishi lozim;
- kichik biznesni keng ko‘lamli rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni, birlamchi, jahon moliya institutlarining kreditlarini va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish hamda yo‘naltirish;
- sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish va yuqori texnologiyaga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlar tomonidan ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish masalalarini tubdan hal etish, ularning eksport salohiyatini oshirishga ko‘maklashish.

Integratsiyalashgan tuzilmani tashkil etish bo‘yicha ishchi guruh tuzish, ishlarni amalga oshirish tartibi, muddatlari va moliyalashtirish manbalarini aniqlashtirib olish. Ishchi guruh quyidagi variantlardan birini ifoda etishi mumkin:

- ekspertlar sifatida mahalliy hokimiyat idoralari mutaxassislari va tarmoq korxonalari vakillaridan iborat bo‘lgan ishchi guruh;
- ma’lum bir xizmatlar ko‘rsatish maqsadida tuzilgan shartnomalar asosida faoliyat ko‘rsatuvchi konsalting kompaniyalari, oliy ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va mahalliy hokimiyat idoralari vakillari;
- ta’sischilaridan biri mahalliy hokimiyat idoralari bo‘lgan ixtisoslashtirilgan tashkilot.

Fikrimizcha, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatida kooperatsion-integratsion aloqalarni hamda ularning faoliyatini moliyalashtirishning moliya-kredit mexanizmini rivojlantirish maqsadida qo‘yidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir [15].

- mamlakatimiz va uning hududlarida yanada qulay biznes muhiti yaratish, xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashga yo‘naltirilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- xususiy tadbirkorlikka ko‘proq erkinlik berish, davlatning boshqaruv funksiyalari va belgilangan me’yorlarni qisqartirish;
- kichik biznes subyektlarining moliya-kredit va xom ashyo resurslaridan, ular ishlab chiqargan mahsulotlarga davlat buyurtmalari berilishidan keng foydalanishni ta’minlaydigan bozor vositalari va mexanizmlarini tatbiq etish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi uchun soliq va boshqa to‘lovlar bo‘yicha yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, imtiyoz va preferentsiyalar berish, hisobotlar tizimi hamda moliya, soliq va statistika organlariga hisobotlar topshirish mexanizmini takomillashtirish va unifikatsiyalash;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari tomonidan kreditlar berish mexanizmini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish;
- kichik biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish va yo‘naltirish;
- sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda yuqori texnologiyaga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish masalalarini tubdan hal etish, ularning eksport salohiyatini oshirishga ko‘maklashish va b.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini rivojlantirish chora-tadbirlarining samarali amalga oshirilishi: yangi ish o‘rinlarini barpo etish asosida ishsizlar sonini qisqartirish va aholi bandligini ta’minlashga; respublikaning barcha mintaqalaridagi mikromoliyaviy xizmatlarga muhtoj aholini to‘liq qamrab oluvchi mikromoliyalashning zamonaviy tizimini yaratishga; kam ta’minlangan, biroq iqtisodiy faol aholi qatlamini va yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish orqali istiqbolda o‘rta mulkdorlar keng qatlamining shakllanishiga; tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini mikromoliyalash hajmlarini ko‘paytirishga va barqaror iqtisodiy o‘sishga imkoniyat yaratadi.

Xulosa qilib ta’kidlash lozimki, kichik biznes subyektlarining qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining yanada takomillashtirilishi va ularning barqaror rivojlanishini ta’minlash borasidagi yangi samarali chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi respublikaning iqtisodiyoti raqobatbardoshligini ta’minlashga va uning tashqi bozordagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Kichik biznesni moliyalashtirishni takomillashtirish avvalambor, shu soha vakillari faoliyatidagi to‘siqlarni bartaraf qilish, tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish, xorijiy kredit liniyalarini jalb etish, tijorat banklariga ular faoliyatini kreditlash bilan bog‘liq imtiyozlar yaratish, aniq axborotlar bazasini shakllantirish, garov bilan bog‘liq muammolarni bartaraf qilishdan iboratdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 01.05.2019-yil, PQ-4302-son, https://xs.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. 28.01.2022 yil, PF-60-son, https://lex.uz/docs/5841063
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 13.10.2020-yil, PQ-4862-son, https://lex.uz/docs/5045889?ONDATE=27.03.2021
4. Alimova M., Ravshanov Kh. Theoretical Aspects of Cooperative Relations in the Production and Sale of Fruit and Vegetable Products. Academic Journal of Digital Economics and Stability. Special Issue on “Innovative Economy: Challenges, Analysis and Prospects for Development” Published in Aug-2021, Online: https://academicjournal.io, p.795-800
5. Murodova N.K. Kichik biznes subyektlarining tadbirkorlik faolligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari. Iqt.fan.nom. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2008. –21-b.
6. Qulmatov A.A. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari. Iqt.fan.nom. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2004. –21-b.
7. Olimova, N. X., & Karimov, Sh. X. (2020). Real sektor korxonalarida innovatsion yangiliklarni joriy qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. In Mintaqa iqtisodiyotini investitsiyalashning moliyaviy-huquqiy va innovatsion jihatlari (pp. 423-427).
8. Akhunova, O. E., Kh, O. N., & Kh, E. A. (2019). Role of innovative technologies in ensuring competitiveness of export products in Uzbekistan. Process management and scientific developments.
9. Олимова, Н. Х., & Эргашев, А. Х. (2017). Особенности оценки инвестиционной привлекательности реального сектора экономики. www. issledo. ru Редакционная коллегия, 120.
10. Олимова, Н. Х., & Юлдашев, Д. Т. (2016). The role of small business and private entrepreneurship in the economic activities. Молодой ученый, (9), 682-683.
11. Kh, O. N., & Kamoldinov, D. I. (2021). Development of industrial enterprises and analysis of the factors of their competitiveness. Ceteris Paribus, (2), 5-8.
12. Ergashev, A. X., & Olimova, N. X. (2020). Innovatsiyalarni yaratish va ularni sanoat kor-xonalari faoliyatiga joriy etishning asosiy masalalari. In Mintaqa iqtisodiyotini investitsiyalashning moliyaviy-huquqiy va innovatsion jihatlari (pp. 487-490).
13. Markaziy Osiyodagi mintaqaviy integratsiya taqdiri nima bo‘ladi? https://davr24.uz/archives/8519
14. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. –2022-yil yanvar-dekabr
15. http://elibrary.ru

O‘ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI: TAHLIL VA ISTIQBOLLAR



Oppoqxonov Nurmuhammadxon Po‘latxon o‘g‘li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,
Mehmonxona biznesini boshqarish kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Turizm O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi va moliyaviy mexanizmlar ushbu sektorni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun foydalaniladigan moliyaviy mexanizmlarni tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada turizm sohasida infratuzilmani rivojlantirish va marketing tashabbuslariga qaratilgan davlat dasturlari, investitsiya fondlari, soliq imtiyozlari va boshqa moliyaviy vositalar ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, ushbu moliyaviy vositalarning O‘zbekistonda turizm sohasining umumiy o‘sishi va barqarorligiga ta’siri tahlil qilinmoqda.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlar, iqtisodiy o‘sish va turizmni rivojlantirish, turizm investitsiyalari.

Abstract: Tourism plays an important role in the economic development of Uzbekistan, and financial mechanisms play an important role in supporting and stimulating this sector. This article is aimed at analyzing the financial mechanisms used for the development of tourism in Uzbekistan. The article discusses government programs, investment funds, tax incentives and other financial instruments aimed at infrastructure development and marketing initiatives in the tourism sector. In addition, the impact of these financial instruments on the overall growth and stability of the tourism sector in Uzbekistan is analyzed.

Key words: economic and financial mechanisms, economic growth and tourism development, tourism investments.

Аннотация: Туризм играет важную роль в экономическом развитии Узбекистана, и финансовые механизмы играют важную роль в поддержке и стимулировании этого сектора. Данная статья направлена на анализ финансовых механизмов, используемых для развития туризма в Узбекистане. В статье рассматриваются государственные программы, инвестиционные фонды, налоговые льготы и другие финансовые инструменты, направленные на развитие инфраструктуры и маркетинговые инициативы в сфере туризма. Кроме того, анализируется влияние этих финансовых инструментов на общий рост и стабильность сферы туризма в Узбекистане.

Ключевые слова: экономико-финансовые механизмы, экономический рост и развитие туризма, инвестиции в туризм.

KIRISH

Turizm O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish va taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy tarmoq sifatida paydo bo‘ldi. Mamlakatning boy madaniy merosi, rang-barang landshaftlari va tarixiy ahamiyati uni mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun jozibador maskanga aylantirgan. Turizm salohiyatini iqtisodiy farovonlik katalizatori sifatida e’tirof etgan O‘zbekiston hukumati turizm industriyasini rivojlantirish, uning o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun turli strategiya va moliyaviy vositalarni amalga oshirishga ustuvor ahamiyat berdi.

Ushbu keng qamrovli tahlil O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun foydalaniladigan moliyaviy vositalarni o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot turizm sektorini rivojlantirish uchun hukumat, moliya institutlari va xususiy sektor tomonidan qo‘llaniladigan moliyaviy mexanizmlar, siyosatlar va vositalarning ko‘p qirrali manzarasini o‘rganishga intiladi. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimlarining murakkab tomonlarini o‘rganib, ushbu tadqiqot ushbu vositalarning O‘zbekistondagi turizm sanoatining umumiy o‘sishi, barqarorligi va raqobatbardoshligiga ta’siri haqida tushuncha berishni maqsad qilgan.

Ushbu tadqiqotning ahamiyati uning O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda moliyaviy vositalarning rolini chuqurroq tushunishga hissa qo‘shish salohiyatidadir. Turizm sohasiga sarmoya kiritish va infratuzilmani rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan turli yondashuv va tashabbuslarga oydinlik kiritib, ushbu tahlil siyosatchilar, soha manfaatdor tomonlari va O‘zbekistonning rivojlanayotgan turizm bozorida ishtirok etishga intilayotgan investorlar uchun qimmatli tushunchalar berishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Gudkov, A., Dedkova, E., & Rozhdestvenskaia, E. (2020, October) o‘zining ilmiy maqolasida turizmni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlariga alohida e’tibor qaratib, quyidagi takliflarni bergan. Hozirgi vaqtda turizmni rivojlantirish siyosiy, tibbiy va iqtisodiy tebranishlar tufayli ushbu sohani o‘ta beqaror qiladigan ko‘plab muammolarga duch kelmoqda. Turizm bilan bog‘liq eng muhim iqtisodiy muammolardan biri bu investitsiyalar va moliyalashtirishning yetishmasligidir. Ushbu maqolaning maqsadi turizmni moliyalashtirish sohasidagi muammolar va imkoniyatlarni ko‘rib chiqishdir. Tadqiqot maqsadida turizmni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha jiddiy va dolzarb tahlil va tadqiqotlarga erishildi (1)[1].

Gasic, M., Oklobdžija, S., Perić, G., & Ilić, D. (2015) o‘z ilmiy tadqiqotida Serbiya qishloq hududlarida turizmni rivojlantirish uchun Yevropa Ittifoqining moliyaviy mexanizmlarini atroflicha o‘rganib, chuqur ilmiy tahlil qilgan. Jahon miqyosida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar turizmning selektiv shakllarini, shu jumladan qishloq turizmini yanada muhim o‘rin tutishini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi Serbiya va Yevropa Ittifoqida qishloq turizmining hozirgi rivojlanish darajasini tahlil qilish va turizm loyihalarini moliyalashtirishda Yevropa Ittifoqi mablag‘larining ahamiyatini ta’kidlash, ya’ni Serbiya uchun qaysi mablag‘lar oldin va qaysi biri mavjudligini ko‘rsatishdir (2)[2].

Aidjanovich, X. A. (2023) o‘zining ilmiy ishida jahon mamlakatlarida turizm industriyasining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganib, quyidagi tavsiyalarni bergan. “Jahon turizmining rivojlanishi mamlakatlarni yaqinlashtiradi va ularning munosabatlarini faollashtirishga yordam beradi. Turizm deyarli barcha sohalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, mamlakat iqtisodiyotining jadal o‘sishiga yordam beradi. Bundan tashqari, turizm sohasiga investitsiyalarning kirib kelishi, sayyohlik kompaniyalari imkoniyatlarining oshishi va yuqori daromad olish imkoniyati ushbu sohaga jalb qilingan investitsiyalar hajmining oshishiga yordam beradi (3)”[3].

Eshonkulov, D. (2023) turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish yo‘nalish va mexanizmlarining ahamiyati haqida chuqur ilmiy tahlil qilib, quyidagi takliflarni ilgari surgan. “O‘zbekistonda ko‘plab olimlar turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish yo‘nalish va mexanizmlarining ahamiyatiga alohida e’tibor qaratadi. 2017-yildan 2021-yilgacha O‘zbekistonda turizm faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy muammosi O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta asosiy yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish besh yil davomida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu maqolada davlat tomonidan turizm sohasini boshqarish yo‘nalishlari va mexanizmlarining ahamiyati ko‘rib chiqiladi (4)”[4].

Ibrahim, I. F. (2023) o‘zining ilmiy maqolasida bugungi kunda madaniy rivojlanish sohalari va zamonaviy turizm imkoniyatlari hozirgi holatini qanday darajada o‘ringa ega ekanligi, turizm rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan omillar, turizm sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadlari va bugungi kunda keng qamrovli imkoniyatlari haqida fikr yuritgan (5)[5].

Bugungi kunda o‘rganilayotgan dolzarb ilmiy ishlarning aksariyati jahon mamlakatlarida turizm industriyasining rivojlanish tendensiyalariga qaratilgan. Davlatning turizm sohasidagi rivojlanishni oshirish uchun moliyaviy mexanizmlar va investitsiyalar haqida chuqurlashtirilgan ilmiy tadqiqotlar, jahon miqyosida turizm sohasining rivojlanishi va uning mamlakatlarning iqtisodiyotiga ta’siri haqida yangi tahlillar, davlat siyosati va strategiyalar to‘g‘risidagi takliflar keng ko‘lamda qo‘llanilishi mumkin bo‘ladi. Ushbu maqolalar jahon miqyosida turizm sohasidagi rivojlanishga oid yangi tahlillar va takliflarni ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan moliyaviy mexanizmlarni chuqur tushunish uchun sifatli yondashuvni qabul qiladi. Bu siyosat, qoidalar va ekspert xulosalari kabi raqamli bo‘lmagan ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Asosiy ma’lumotlar O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi davlat tashkilotlari, turizm sohasi mutaxassislari va moliya institutlari kabi asosiy manfaatdor tomonlar amalga oshirgan siyosiy tahlillarga asoslangan.

1 https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-030-66093-2_7
2 https://www.researchgate.net/profile/GoranPeric/publication/301202550_FINANCIAL_INSTRUMENTS_OF_THE_EUROPEAN_UNION_FOR_THE_DEVELOPMENT_OF_TOURISM_IN_RURAL_AREAS_OF_SERBIA/links/570c1f9608aea660813b1e63/FINANCIAL-INSTRUMENTS-OF-THE-EUROPEAN-UNION-FOR-THE-DEVELOPMENT-OF-TOURISM-IN-RURAL-AREAS-OF-SERBIA.pdf
3 http://econferencezone.org/index.php/ecz/article/download/2163/2012
4 http://econferences.ru/index.php/arims/article/download/6446/3588
5 https://jemma.innovascience.uz/index.php/jemma/article/download/255/221

Ushbu tadqiqot metodologiyasida O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlarini o‘rganish yondashuvi bayon etilgan. Tadqiqot jarayonida ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, mulohazalar va cheklovlarni hisobga olish uchun asos yaratadi.

Shuningdek, tadqiqot metodologiyasi nazariy tadqiqotlar o‘tkazish uchun tizimli yondashuvni, jumladan mavjud adabiyotlarni o‘rganish, konsepsual asosni ishlab chiqish va tadqiqot mavzusi bilan bog‘liq nazariya va tushunchalarni tanqidiy tahlil qilishni ta’minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo‘lim O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun foydalaniladigan turli moliyaviy vositalarni ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan. Infratuzilmani rivojlantirish va marketing tashabbuslariga qaratilgan davlat imtiyozlari, soliq imtiyozlari, davlat-xususiy sheriklik, investitsiya fondlari va boshqa mexanizmlar ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqot moliyaviy vositalarning O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishga ta’sirini baholaydi. Ushbu vositalarning investitsiyalarni jalb qilish, sayyohlar sonini ko‘paytirish, infratuzilmani yaxshilash va turizm sektorining umumiy raqobatbardoshligini oshirishda samaradorligi tahlil qilinadi.

Ushbu bo‘limda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun joriy moliyaviy vositalar bilan bog‘liq muammolar va imkoniyatlar ta’kidlangan. Moliyalashtirishga kirish, tartibga solish to‘siqlari, xatarlarni boshqarish va innovatsiyalar va takomillashtirish uchun potensial sohalar muhokama qilinadi.

Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun moliyaviy vositalar samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berildi. Ushbu tavsiyalarning maqsadi aniqlangan muammolarni hal qilish va turizm sohasida barqaror o‘sish uchun imkoniyatlardan foydalanishdir.

Turizmni rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasini shakllantirish va izchil amalga oshirish, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, ushbu sohani barcha hududlarni va o‘zaro bog‘liq tarmoqlarni kompleks ravishda jadal rivojlantirishning yetakchi kuchiga aylanishi lozim bo‘lgan iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, tarkibiy o‘zgartirish va barqaror rivojlanishning qudratli vositasiga aylantirish, yaratiladigan yalpi ichki mahsulotda, mahalliy budjet daromadlarida turizmning ulushini ko‘paytirish, ish bilan bandlikni ta’minlash, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Turizm industriyasi subyektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan turizm faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish.

Turizmni boshqarish, viza va ro‘yxatdan o‘tkazish tartib-taomillarini, pasport va bojxona nazoratini soddalashtirish, turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish va bozorga xos tarzda tartibga solish mexanizmini maqbullashtirish.

Turizm xizmatlarini tashkil etishda turistlar va ekskursantlarning hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Turizm industriyasi obyektlarini jadal rivojlantirish, asosiy turizm yo‘nalishlari bo‘yicha yo‘l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini, yo‘lbo‘yi infratuzilmasini jadal qurish va rekonstruksiya qilish.

Xalqaro turizm rivojlanishi tendensiyalarini va zamonaviy marketing vositalari qo‘llanilishini hisobga olgan holda, raqobatbardosh turizm mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish.

Mamlakat hududlarida turizm axborot markazlari va chet elda turizm vakolatxonalari ochish, Internet tarmog‘idan faol foydalanish, har yili Toshkent xalqaro turizm yarmarkasini o‘tkazish yo‘li bilan turizm sohasida mamlakatimizning ijobiy qiyofasini shakllantirish.

O‘zbekiston xorijiy investorlar uchun mehmondo‘stlik va aviatsiya sohalarida, xususan, mehmonxonalar infratuzilmasini kengaytirish va mamlakat aeroportlarini modernizatsiya qilishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Hukumatning xorijiy sarmoyalarni jalb etish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari xalqaro biznes uchun O‘zbekiston sayyohlik sanoatini rivojlantirishga hissa qo‘shish uchun qulay sharoit yaratadi.

Xalqaro mehmonxona brendlarining Toshkentdan tashqarida Samarqand, Buxoro va Xiva kabi madaniy ahamiyatga ega shaharlarga kengayishi xorijiy investorlar uchun katta imkoniyat yaratadi. Bunga ko‘maklashish uchun quyidagi siyosat tavsiyalari taklif etiladi:

Investitsiyalarni rag‘batlantirish: hukumat qadimgi Ipak yo‘li bo‘ylab tarixiy ahamiyatga ega shaharlarda mehmonxonalar va franchayzalar tashkil etgan xorijiy investorlarga soliq imtiyozlari va imtiyozlarini taklif qilishni ko‘rib chiqishi kerak. Bunga soliq imtiyozlari, bojxona to‘lovlari imtiyozlari va ushbu hududlarga investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun soddalashtirilgan ma’muriy jarayonlar kiradi.

Davlat-xususiy sheriklik: mehmondo‘stlik sohasida davlat-xususiy sheriklikni rag‘batlantirish turizm infratuzilmasini rivojlantirishga yordam beradi. Hukumat asosiy sayyohlik yo‘nalishlarida turar joy sifati va mavjudligini oshirish uchun xalqaro mehmonxonalarni boshqarish kompaniyalari bilan hamkorlik imkoniyatlarini o‘rganishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, keng qamrovli tahlil O‘zbekistonning turizmni barqaror rivojlantirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va global raqobatbardoshlikni oshirish katalizatori sifatida moliyaviy vositalardan foydalanish bo‘yicha faol sa’y-harakatlarini ta’kidlaydi. Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilar ekan, O‘zbekiston o‘zini mahalliy va xalqaro sayyohlar uchun jozibador va dinamik yo‘nalish sifatida yanada mustahkamlab borishga tayyor.

Xulosa tadqiqotning asosiy natijalarini umumlashtiradi va turizmni rivojlantirishda yaxshi ishlab chiqilgan moliyaviy mexanizmlarining muhimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, u tadqiqotning siyosatchilar, investorlar va O‘zbekiston turizm sanoati bilan shug‘ullanuvchi boshqa manfaatdor tomonlar uchun ta’sirini yoritib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gudkov, A., Dedkova, E., & Rozhdestvenskaia, E. (2020, October). Financial instruments for tourism development: Challenges and opportunities. In International Conference on Comprehensible Science (pp. 70-80). Cham: Springer International Publishing.
2. Gasic, M., Oklobdžija, S., Perić, G., & Ilić, D. (2015). Financial instruments of the European union for the development of tourism in rural areas of Serbia. Management and Education, 11(2).
3. Aidjanovich, X. A. (2023, May). Jahon mamlakatlarida turizm industriyasining rivojlanish tendensiyalari. E-Conference Zone (pp. 84-90).
4. Eshonkulov, D. (2023). Turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish yo‘nalish va mexanizmlarining ahamiyati. Академические исследования в современной науке, 2(13), 225-229. Академические исследования в современной науке 2.13 (2023): 225-229.
5. Ibrahim, I. F. (2023). Areas of cultural development and opportunities of modern tourism in Uzbekistan. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 551-554.

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT KORXONALARI TRANSFORMATSIYASINI JADALLASHTIRISH YO‘NALISHLARI



Qahhorov Azizjon Ahror o‘g‘li
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat ishtirokidagi korxonalarning faoliyatini transformatsiya qilish orqali ularning samaradorligini oshirish imkoniyati nazariy jihatdan o‘rganilgan. Davlat korxonalarini transformatsiya qilish bo‘yicha Hukumat tomonidan inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar yoritilgan. O‘zbekistonda davlat korxonalarini isloh qilish va transformatsiya qilish yo‘nalishida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar keltirilgan. Transformatsiya jarayonlarini tashkil etishda asosiy mezonlarni aniq belgilash va ularning o‘lchovini kiritish bo‘yicha takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: davlat korxonasi, xususiylashtirish, davlat korxonasini transformatsiya qilish, raqamli transformatsiya, samaradorlik.

Abstract: This article provides theoretical research into the possibility of increasing the efficiency of enterprises with state participation through the transformation of their activities. Aspects that should be taken into account by the government when transforming state-owned enterprises are highlighted. The priority directions for reforming and transforming state-owned enterprises in Uzbekistan, fixed in normative acts, are given. Proposals have been formulated to establish the basic criteria in the process of transformation of state-owned enterprises and to evaluate their performance.

Key words: state enterprise, privatization, transformation of state enterprises, digital transformation, efficiency.

Аннотация: В данной статье теоритически исследованы возможности повышения эффективности предприятий с государственным участием путем трансформатsiи их деятельности. Выделены аспекты, которые следует учитывать Правительству при трансформатsiи государственных предприятий. Приведены приоритетные направления по реформированию и трансформатsiи государственных предприятий в Узбекистане. Сформулированы предложения по установлению конкретных основных критериев в процессе трансформатsiи государственных предприятий и по их измерению.

Ключевые слова: государственное предприятие, приватизатsiя, трансформатsiя государственных предприятий, цифровая трансформатsiя, эффективность.

KIRISH

Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish va xususiylashtirish ko‘lamini kengaytirish mamlakatimiz iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini oshirish zarurati iqtisodiyotda yalpi qiymatni yaratishda, eksport va bandlikni ta’minlashda muhim o‘ringa ega bo‘lgan davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni taqozo etmoqda. Yirik davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy ko‘rsatkichlarining barqaror emasligi, aksariyat davlat korxonalari katta miqdordagi aktivlarga, davlat tomonidan moliyaviy va axborot qo‘llab-quvvatlashlariga ega bo‘lishiga qaramasdan faoliyatini zarar bilan yakunlayotganligi ushbu zaruratning yana bir tasdig‘i hisoblanadi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Davlat korxonalarining faoliyat samaradorligini oshirish alohida korxonalardagi subyektiv faktorlarga, jumladan ushbu korxonaning menejmentiga bog‘liqligi, umuman olganda esa davlat korxonalarining ish faoliyatini va moliyaviy holatini yaxshilash uchun hukumat tomonidan transformatsiya qilinishi zarurligi Gruziya misolida iqtisodchilar Vlodzimej Pankuv, Barbara Gonchaj, Georgiy Morgoshia, Georgiy Axaladze, Kshishtof Polomskilar tomonidan o‘rganilgan [2].

Davlat korxonalarni xususiylashtirish har doim ularning ijobiy transformatsiyasiga olib kelmasligi iqtisodchi olimlar Dang, L., D.Nguyen va F. Taghizadeh-Hesary tomonidan Vetnam misolida amalga oshirilgan tadqiqotlarida keltirilgan [3].

Davlat korxonalarining transformatsiyasi muayyan ijtimoiy guruh (qatlam)lar ehtiyojining amalda namoyon bo‘lishi ekanligi va hukumatning siyosiy irodasi bilangina amalga oshirilishi, davlat korxonalarining transformatsiyasi jarayoniga narxlarning erkinlashishi, ehtimoliy inflatsiya, ishsizlikning ortishi kabi fenomenlar hamroh bo‘lishi polshalik Maciej Kozłowski tomonidan tadqiq etilgan [4].

Davlat korxonalarini transformatsiya qilishda muayyan umumqabul qilingan yo‘riqnomalar asosida emas, individual yondashuvlar asosida markazlashmagan tarzda transformatsiya qilinishi Xitoy misolida Marshall W. Meyer, Yuan Lu, Hailin Lan tomonidan o‘rganilgan [5].

O‘zbekiston misolida alohida korxonalarni isloh qilish va samaradorligini oshirish masalalari o‘rganilgan bo‘lsada, davlat korxonalarini tizimli transformatsiya qilish va uning natijalarini baholash masalasi keng ko‘lamli izlanishlarni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Davlat ishtirokidagi korxonalarni huquqiy maqomini o‘rganishda ilmiy abstraksiyalash, taqqoslash, sabab-oqibat aloqadorligi va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Transformatsiya qilish – ba’zida bosqichma-bosqich, ba’zida keskin islohotlarni talab etadi. Davlat korxonalarida transformatsiya choralarining har biriga aniq muddatlar belgilansada, umumiy transformatsiyaning ta’sir natijalari uzoq muddatli istiqbolda ko‘zga ko‘rinadi. Turli mamlakatlar tajribasidan xulosa qilish mumkinki, islohotlarning uzoq muddatli muvaffaqiyati asosiy 2 ta omilga bog‘liq: hukumatning o‘zgarishlarni joriy etishdan to‘liq manfaatdorligi va bevosita ishtiroki (siyosiy iroda), shuningdek ikkinchi tarkibiy qism - bu o‘zgarishlar zarurligini tushuntirish va og‘ir oqibatga olib keluvchi qarorlar jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi uchun odamlar bilan ochiq muloqot [6].

So‘nggi yillarda iqtisodiyotda va davlat boshqaruvida tarkibiy o‘zgartirishlarni amalga oshirishga qaratilgan me’yoriy hujjatlarda va hukumat organlarining rasmiy bayonotlarida transformatsiya termini ko‘p marotaba qo‘llanmoqda. Birgina, 2023-yilda qabul qilingan me’yoriy hujjatlar o‘rganilganda, 29 ta hujjatda “transformatsiya qilish” topshirig‘i aks ettirilgan [7].

Sohalar, tarmoqlar va institutlarni transformatsiya qilish zarurligi to‘g‘risidagi topshiriq va vazifalar muhim hujjatlarda ham o‘z aksini topmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston-2030” Strategiyasida iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini ta’minlash zarurligi, Parlament va uning organlari ish jarayonlarini raqamli transformatsiya qilish, mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini transformatsiya qilish vazifalari ko‘rsatilgan.

Hozirgi sharoitda, “transformatsiya qilish” vazifasining chegaralarini, xususiyatlarini aniq belgilab olish muhim hisoblanadi. Qabul qilingan hujjatlarda ko‘rish mumkinki, “transformatsiya qilish” tushunchasi turlicha mazmun kasb etgan. Aksariyat holatlarda, transformatsiya qilish jarayoni “raqamli transformatsiya” atamasi bilan birga yoki faoliyatni raqamlashtirish ma’nosida qo‘llanilgan bo‘lishiga qaramay, shuningdek bu tushuncha orqali vazirlik, idora va tashkilotlarning tashkiliy-institutsional tuzilmasini o‘zgartirish, tartibga soluvchi normativ hujjatlarni yangilash, o‘zaro aloqadorlik va bo‘ysunuvning yangi shakllarini joriy etish, kadrlarning stajirovka va malakasini oshirish kabilar nazarda tutilgan.

Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini transformatsiya qilishda ham amalga oshiriladigan ishlarning yo‘nalishlari va qamrovi keng bo‘lib, aniq har bir korxonaning xususiyatidan kelib chiqib belgiladi. Shu bilan birga, davlat korxonalarini transformatsiya qilishning normativ hujjatlarda belgilangan umummajburiy tusdagi asosiy yo‘nalishlarini sanab o‘tish maqsadga muvofiq:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PF-76-son Farmoniga (Ma’muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida) asosan:

- aholi, tadbirkorlik subyektlari hamda davlat organlari va tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlarni raqamlashtirish, shuningdek, raqamli xizmatlar va servislardan foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish;
- davlat idoralari faoliyatini to‘liq raqamlashtirishni ko‘zda tutuvchi “Raqamli hukumat” tizimiga o‘tish;
- zamonaviy va sifatli raqamli infratuzilmani rivojlantirish.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son qarori bilan tasdiqlangan “2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish Strategiyasi”ga asosan:

- davlat ishtirokidagi korxonalar tarkibi va tuzilmasini optimallashtirish;
- korxonalarning (ulardagi ulushlarning) davlat mulkida bo‘lishi yoki saqlanishining mezonlarini (asoslarini) belgilash;
- davlat ishtirokidagi korxonalarga nisbatan maqsadlarni belgilash bo‘yicha talablarni o‘rnatish;
- davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish samaradorligini oshirish, shu jumladan, boshqaruvning uzoq va qisqa muddatli maqsadlari va vazifalarini belgilash hisobidan ularning raqobatbardoshligi hamda investitsion jozibadorligini, korporativ boshqaruv darajasi va axborot shaffofligini oshirish;
- iqtisodiyotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat ishtirokini tarmoqqa oid va boshqa tartibga solish choralari bilan almashtirish, shuningdek, belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun tizimli, barqaror va uzoq muddatli kafolatlarga rioya qilish;
- davlat ishtirokidagi va nodavlat korxonalarning faoliyat ko‘rsatishi uchun teng sharoitlar yaratish;
- mulkdor (aksiyador, ishtirokchi, muassis) funksiyalari va tartibga soluvchi funksiyalarni ajratish, davlat ishtirokidagi korxonalarning boshqaruv va nazorat organlari faoliyatini takomillashtirish;
- korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublarini joriy etish;
- davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatining ochiqligi va oshkoraligini ta’minlash.

3. Shuningdek, alohida qabul qilingan qarorlarga muvofiq:

- 2023–2026-yillarda ustav kapitalida davlat ulushi mavjud transformatsiya qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga ESG (Environment, Social, Governance)ni joriy etish, bunda atrof-muhit, ijtimoiy omillar va korporativ boshqaruv omillari (ESG omillari), shuningdek, barqaror rivojlanish masalalari bilan bog‘liq omillarni hisobga olish masalalari jamiyatlar boshqaruv organlarida ko‘rib chiqilishini tashkillashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish [8];
- ularda mahsulot va xizmat tannarxini pasaytirish, moliyaviy barqarorligini va operatsion samaradorligini oshirish [9].

Davlat korxonalarini transformatsiya qilish bo‘yicha benefitsiarlar va qaror qabul qiluvchilarda davlat ishtirokidagi korxonani transformatsiya qilishning bosqichlari va mezonlari aniq shakllangan bo‘lishi kerak. Davlat korxonasining transformatsiyadan oldingi va keyingi holatini taqqoslovchi ko‘rsatkichlar tizimi bo‘lishi zarur.

Transformatsiya qilishni faqatgina korxonada samaradorlikning oshishi bilan o‘lchash to‘liq va asosli xulosa qilish imkoniyatini bermaydi. Zero, samaradorlikni oshirish jarayoni uzluksiz va chegarasiz bo‘lib, korxona mulkdorlari va ijro organi oldidagi doimiy dolzarb vazifa hisoblanadi. Shunga qaramay, ushbu ko‘rsatkichlarni o‘lchash va boshqa korxonalarning tegishli ko‘rsatkichlari bilan solishtirish – korxona faoliyatining ayrim jihatlari bo‘yicha xulosa qilish imkoniyatini beradi.

O‘zbekistonda ko‘plab korxonalarning tuzilmasini isloh qilish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilayotganligiga va qarorlar qabul qilinganligiga qaramay, amalda birorta davlat korxonasini to‘liq transformatsiya qilingan, deb e’tirof etilmadi. Shuning uchun, bugungi kunda davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatining qaysi jabhalarida muammolar mavjud deb hisoblasak, ushbu muammolarni bartaraf etish orqali ushbu korxonalarni puxtaroq transformatsiya qilish mumkin degan yondashuvdan kelib chiqdik.

Fikrimizcha, quyidagi ko‘rsatkichlar va jihatlar davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilishda qo‘llanishi mumkin, ushbu ko‘rsatkichlarning ayrimlari o‘zining kichik komponentlariga ega va ularni o‘lchash imkoniyati bor:

1. Korxonaning samaradorik ko‘rsatkichlari:

1.1. Aktivlar rentabelligi

1.2. Kapital rentabelligi

1.3. EBITDA/korxona qiymati (EBITDA – korxonaning soliqlar, foiz ko‘rinishidagi to‘lovlar, amortizatsiya ajratmalari va asosiy vositalar eskirgani uchun ajratmalardan oldingi tushum).

Samaradorlikning boshqa muhim ko‘rsatkichlari, jumladan mehnat unumdorligini aniqlovchi ko‘rsatkichlar to‘plami olinishi lozim.

Ushbu ko‘rsatkichlarning prognoz o‘lchamiga tegishli talabni belgilash uchun benchmarking asosida boshqa korxonaning ko‘rsatkichlarini, (mamlakat, mintaqa, jahon miqyosida) tarmoqdagi o‘rtacha rentabellik ko‘rsatkichini, inflatsiya darajasini yoki Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasini olish mumkin. Transformatsiya qilinmagan korxonaning ko‘rsatkichlarini solishtirish uchun nufuzli fond birjalarda kotirovka qilinadigan kompaniyalar ko‘rsatkichlari olinishi maqsadga muvofiq.

2. Korxonaning erkin raqobat muhitida va bozor munosabatlari sharoitida faoliyat ko‘rsatayotganligi:

2.1. Korxonada o‘zi faoliyat ko‘rsatayotgan tarmoqni tartibga solish bo‘yicha regulyativ funksiyalarning mavjudligi.

2.2. Korxona uchun alohida imtiyozli rejimlarning (eksklyuziv huquqlarning) amal qilishi:

- soliqlar bo‘yicha;
- bojxona bo‘yicha;
- litsenziyalar va ruxsat etuvchi tamoyillar bo‘yicha;
- mahsulotini sotishi, jumladan davlat xaridlari bo‘yicha;
- mahsulot, xom ashyo xaridi bo‘yicha;
- texnik standartlar bo‘yicha;
- boshqaruv organlarini shakllantirilishi (tayinlanishi) va kadrlar siyosati bo‘yicha;
- moliyalashtirishning imtiyozli shartlaridan, shu jumladan davlat fondlarining resurslaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi bo‘yicha.

3. Korxona aksiyalarining erkin muomalasi tashkil etilganligi:

3.1. Korxona aksiyalarining birja listingiga kiritilganligi.

3.2. Aksiyadorlar portfeli diversifikatsiyalanganligi:

- davlat ulushi mavjudligi (saqlanib qolganligi), uning miqdoridan va nazorat qilish imkoniyatini berish darajasi inobatga olinishi lozim;
- institutsional akisyadorlar mavjudligi;
- xorijiy investorlar ishtiroki mavjudligi;
- minoritar aksiyadorlar ishtiroki mavjudligi;
- erkin muomaladagi aylanma (fri float) darajasi.

4. Raqamlashtirilganlik darajasi.

Ushbu ko‘rsatkichning subkomponentlariga ishlab chiqarish jarayonining avtomatlashtirilganlik darajasi, qaror qabul qilishda avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va dasturiy ta’minotlardan foydalanish darajasi, sotish jarayonini tashkil etish, hisobotlarni shakllantirish, hamkorlar, mijozlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan aloqada va qayta aloqada raqamli ilovalardan foydalanish darajasi o‘rganilishi mumkin.

5. Korxonaning yashillik darajasi:

5.1. Yashil loyihalar soni va jami loyihalardagi ulushi.

5.2. Yashil loyihalarga investitsiyalar va ularning jami investitsiyalardagi ulushi.

5.3. Ish faoliyatida hamkorlariga yashillik bo‘yicha talab belgilaganligi.

5.4. Yashil loyihalarga va “yashil” tadqiqotlarga (R&D) ajratma miqdori.

6. Moliyaviy boshqaruv va hisob tizimi holati:

6.1. Moliyaviy hisobning xalqaro standartlari (MHXS) bo‘yicha hisobotlar shakllantirilishi.

6.2. Xalqaro standartlar bo‘yicha auditdan o‘tkazish holati.

7. Nosohaviy aktivlarning mavjudligi va korxona faoliyatiga ta’siri.

7.1. nosohaviy aktivlarning jami investitsiya portfelidagi ulushi.

7.2. nosohaviy aktivlarning jami aktivlardagi ulushi

7.3. nosohaviy aktivlarga xarajatlarning jami xarajatlardagi ulushi.

8. Korporativ madaniyatning shakllanganligi:

8.1. Korporativ muvozanatni ta’minlashning manfaatlar muvozanatini ta’minlashga qaratilgan yo‘llari joriy etilganligi.

8.2. Ichki etika kodekslarining rioya etilishi.

8.3. Komplaens tizimi ishining yo‘lga qo‘yilganligi

8.4. Korrupsiya va qonunlarning buzilishi (jinoyatchilik) ehtimolining oldi olinganligi.

8.5. Manfaatlar to‘qnashuvi oldi olinganligi.

9. Jamoatchilik bilan aloqalarning yo‘lga qo‘yilganligi va sifati.

9.1. Jamoatchilik bilan aloqalar xizmati va uning jamoatchilikka hisobdorlik tizimi.

9.2. qayta aloqa va jamoatchilik fikri inobatga olinishi.

9.3. Korxona brendining mavjudligi va uning targ‘ib qilinishi.

9.4. Korxona korporativ saytiga va ijtimoiy tarmoqlariga tashriflar.

Mazkur kattaliklarning har birini aniq o‘lchov birliklari orqali ifodalash imkoni mavjud bo‘lib, yakuniy ko‘rsatkich muayyan ball ko‘rinishida aks ettirilishi mumkin. Ushbu kattalikdan davlat ishtirokidagi korxonaning transformatsiya qilinganlik darajasini shartli ravishda baholashda foydalanish mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi PF-101-son farmoniga asosan, davlat korxonalarining transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish maqsadida, alohida davlat korxonalarida:

- ijro organi rahbarining transformatsiya masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari lavozimi joriy etilishi va unga bo‘ysunadigan loyiha ofisi tashkil etilishi, ularning xarajatlar smetasi kuzatuv kengashi tomonidan alohida tasdiqlanishi;
- ijro organi rahbarining transformatsiya masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosariga ijro organining barcha rahbar o‘rinbosarlari va tarkibiy bo‘linmalar transformatsiyaga tegishli masalalar bo‘yicha hisobdor bo‘lishi belgilandi.

Ta’kidlash lozimki, ushbu tashkiliy choralar amalda biror o‘zgarishlarga olib kelishi uchun aniq maqsadli, jumladan yuqorida tavsiya etilgan ko‘rsatkichlar asosida ishlar yo‘lga qo‘yilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilmasdan turib milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligiga, korxonalarning jozibadorligiga erishish mushkul.

Fikrimizcha, davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini transformatsiya qilishda asosiy yo‘nalishlardan biri – korxona faoliyatiga samaradorlik ko‘rsatkichlarini va samaradorlikni baholash tizimini joriy etish bo‘lishi zarur. Shu bilan birga, davlat ishtirokidagi korxonalarning boshqaruv organlariga malakali mutaxassislarni, ayniqsa Kuzatuv kengashlari tarkibiga mustaqil nomzodlarning kiritilishi ustuvor ahamiyat kasb etishi zarur.

Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini transformatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishning yakuniy muddatlari belgilanmagan. Bunday holatda, transformatsiya muddatlari korxonalarning Kuzatuv kengashlari yoki aksiyador (ishtirokchi) huquqini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organlari tomonidan o‘rnatilishi mumkin deb hisoblaymiz.

Yuqorida keltirilgan me’zonlar asosida aniq ko‘rsatkichlarning va ularning prognoz miqdorlarining belgilanishi davlat korxonalarini transformatsiya qilish bo‘yicha aniq maqsadli choralar ko‘rish imkonini beradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligining rasmiy sayti – yirik korxonalarning 2022-yil yakunlari va 2023-yil 1-yarim yilligi natijalari yuzasidan ma’lumoti.
2. Vlodzimej Pankuv, Barbara Gonchaj, Georgiy Morgoshia, Georgiy Axaladze, Kshishtof Polomski “Transformatsiya predpriyatiy v Gruzii”. Varshava, mart 1998g. ISBN 83-7178-055-9
3. Dang, L. N., D. D. Nguyen, and F. Taghizadeh-Hesary. 2020. State-Owned Enterprise Reform in Viet Nam: Progress and Challenges. ADBI Working Paper 1071. Available: https://www.adb.org/publications/state-owned-enterprise-reform-viet-nam-progress-challenges
4. MACIEJ KOZŁOWSKI. The premises of the development of the private sector in Poland - some conclusions. Article in Comparative Economic Research Central and Eastern Europe. December 2009, DOI: 10.2478/v10103-009-0023-6
5. Marshall W. Meyer (University of Pennsylvania), YuanLu (The Chinese University of Hong Kong), Hailin Lan (South China University of Technology) and Xiaohui Lu (University of Pennsylvania). Decentralized enterprise reform: notes on the transformation of state-owned enterprises. © Springer Science+Business Media New York 2002.
6. Djixad Azur, Talin Koranchelyan, Xalqaro valyuta jamg‘armasining Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mamlakatlari departamenti. https://www.imf.org/ru/Publications/fandd/issues/2023/09/overhauling-the-arab-worlds-economies-azour
7. https://lex.uz qonunchilik ma’lumotlari bazasidagi joylashtirilgan normativ hujjatlarni o‘rganish asosida muallif tomonidan aniqlandi.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturi”ning 79-bandi.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktyabrdagi PF-169-son farmoni, 3-bandi.



AHOLINING TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH SHAROITIDA MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINING DINAMIKASI

Rahimboyev Muxtorbek Ikrom o‘g‘li
Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruv va Texnologiyalar Universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada aholining bandlik va turmush darajasi sohasidagi transformatsion o‘zgarishlar muammosini tizimli tahlil qilish nuqtayi nazaridan mazmunan va turli darajadagi tarkibiy o‘zgarishlarning kamida uchta jihati qamrab olinadi va ushbu xususiyatlar mehnat bozorini o‘zgartirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishda hisobga olish kerakligi bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Mehnat bozori, transformatsion jarayonlar, takror ishlab chiqarish, mehnat bozori transformatsiyasining dinamikasi.

Abstract: In terms of systematic analysis of the problem of transformational changes in the field of employment and standard of living of the population, the article covers at least three aspects of content and structural changes at different levels, and these features should be taken into account in the development of a system of specific measures to change the labor market. suggestions are given as needed.

Key words: Labor market, transformation processes, reproduction, dynamics of labor market transformation.

Аннотация: С точки зрения системного анализа проблемы трансформатсионных изменений в сфере занятости и уровня жизни населения в статье рассматриваются как минимум три аспекта содержательных и структурных изменений на разных уровнях, и эти особенности необходимо учитывать при разработка системы конкретных мер по изменению рынка труда, предложения вносятся по мере необходимости.

Ключевые слова: Рынок труда, трансформатсионные процессы, воспроизводство, динамика трансформатсии рынка труда.

KIRISH

Mehnat bozori boshqa bozorlar orasida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Bozor kon’yunkturasi iqtisodiyotning holati, boshqaruv usuli va tarkibiy o‘zgarishlari, korxonaning texnik va tashkiliy darajasi, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchining miqdor va sifat balansi ta’sirida shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2021-yildagi PQ-5094-sonli 2021-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risidagi “Aholi bandligi va daromadlarini oshirishga har tomonlama ko‘maklashish, ishsizlar, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan bitiruvchilar bandligini ta’minlash” bo‘yicha yangi ta’sirchan mexanizmlarni joriy etish, ehtiyojmand aholini mehnat faoliyatiga jalb qilishda qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, yangi ish o‘rinlarini tashkil etgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rag‘batlantirish belgilab berilgan [4].

Mehnat bozorini ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgartirish jarayonlari mehnat bozoriga xizmat qiluvchi va ularning mavjudligi rivojlangan mehnat bozorining zaruriy atributi bo‘lgan ijtimoiy institutlarning shakllanishi hamda rivojlanishi bilan ham uzviy bog‘liqdir. Ko‘rsatilgan ijtimoiy institutlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- ish haqi tizimi shakllantirish;
- mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy tizimini yaratish;
- qayta ishlab chiqarish va kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish;
- ijtimoiy sug‘urta tizimi faoliyatini takomillashtirish.

Ilmiy adabiyotlarda mehnat bozori muammolariga katta e’tibor qaratilgan, mutaxassislar o‘rtasida bu borada birlik yo‘q va hatto ushbu tadqiqot sohasining konseptual apparati haqida juda ko‘p turli xil fikrlar mavjud. Xususan, bu “ishchi kuchi bozori” va “mehnat bozori” kabi asosiy tushunchalarga taalluqlidir.


MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Mehnat bozori”ga L.I.Shevchenko “mehnat bozorini yollanma mehnatni tashkil etish, foydalanish va haq to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqaruvchilar hamda ish beruvchilarning manfaatlarini kelishish va tartibga solish shakllari hamda usullari, iqtisodiy munosabatlari yig‘indisi” sifatida tavsiflaydi [1]. O‘z navbatida, I.L.Petrova “mehnat bozori, uning mohiyati nuqtayi nazaridan, mehnatni o‘z ichiga olish, muvofiqlashtirish va baholash usullari to‘plami sifatida belgilanishi mumkin”[2] deb hisoblaydi. Yana bir fikr G.I.Kupalova tomonidan qabul qilinadi. Uning fikricha, “ishchi kuchi bozori” va “mehnat bozori” tushunchalari ekvivalent sifatida ishlatilishi mumkin, chunki ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, bir-birini to‘ldiradi hamda bozor munosabatlari jarayonida biridan ikkinchisiga o‘tadi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biroq, aksariyat mahalliy iqtisodchilar va siyosatchilarning fikricha, bunday model iqtisodiyotimizning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlay olmaydi. Avvalo, bu sivilizatsiya taraqqiyoti vektori aniq postindustrial yo‘nalishni olganligi bilan bog‘liq bo‘lib, milliy iqtisodiyot umumiy sivilizatsiya jarayoni bilan hamqadam bo‘lishi uchun postindustrial rivojlanish strategiyasini tanlash kerak. Ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy rivojlanishning inqirozdan keyingi modeli haqida munozaralar mavjud. Muammo shundaki, bu noaniqlik jamiyatimizga qimmatga tushdi, chunki iqtisodiy o‘zgarishlar jarayoni asossiz ravishda kechiktirildi.

Qayta qurish jarayonlarining boshida ham jamiyatimiz rivojlanishning sotsialistik yo‘nalishiga yoki bozor yo‘nalishiga moyil edi va hozirda rivojlanish modeli bo‘yicha konsensus mavjud emas. Strategik o‘zgarishlar vektoriga aylanishi mumkin bo‘lgan modelga oid pozitsiyalar davriy nashrlarda mavjud. Biroq, uzoq muddatli muhokamalar davlat institutlari tomonidan rivojlanishning ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor modeli tan olinishiga olib keldi. Shunday qilib, iqtisodiyotning ijtimoiy yo‘nalishi iqtisodiy imperativga aylanadi va faqat shu asosda insonni nafaqat ishlab chiqarish omili, balki o‘zini o‘zi qadrlash sifatida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga qaratilgan ijtimoiy dasturlar rivojlana boshlaydi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, aholi turmush darajasining o‘zgarishi sharoitida mehnat bozorining transformatsion jarayonlarini rivojlantirish bo‘yicha quyidagicha yondoshuvni taklif etish mumkin (1.1-rasm).



1.1-rasm: Mehnat bozori transformatsiyasi davridagi ishsizlik va aholi daromadlari darajasining dinamikasi [5]

Inersial bozor ishchilar harakatini boshqarishning qat’iy markazlashtirilgan usullaridan ma’muriy markazlashtirilmagan usullarga o‘tish, transformatsiya jarayonini belgilovchi shartlar va omillarning to‘planishi bilan tavsiflanadi. Institutsional bozor ishsizlikning paydo bo‘lishi, mehnat bozori infratuzilmasining shakllanishi, ishlab chiqarishning texnik qoloqligi va raqobatbardoshligi, talab va taklifning keng ko‘lamli nomutanosibligi, mehnat unumdorligining pastligi bilan ajralib turadi. Bizning fikrimizcha, mehnat bozorining quyidagi transformatsion turlari mehnat sohasining rivojlanishi va o‘zgarishi jarayoniga mos kelishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Institutsional o‘zgarishlarga, tarkibiy - makroiqtisodiy barqarorlashuvga, funksional - mikroiqtisodiy liberallashtirishga tobe bo‘ladi. Shu munosabat bilan, birinchi navbatda, tarkibiy o‘zgarishlar maqsadining ko‘p qirrali xususiyatiga e’tibor qaratish zarur, bu o‘tish iqtisodiyoti va o‘tish davri jamiyati sharoitida tarmoqlararo va mintaqalararo muammolarga cheklanib qolmaydi.

Ushbu bozorning o‘ziga xosligi ikkita asosiy statistik tendensiyaning mavjudligidadir. Birinchisi, ijtimoiy-mehnat munosabatlarining yangi shakllarini topishga, bandlikni chuqurlashtirishga, ishchi kuchining sifat xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan; ikkinchisi - mavjud davlatni saqlab qolish. Tarkibiy bozor mehnat bozoridagi tub o‘zgarishlar, ishlab chiqarishni jonlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, ishlab chiqarishning o‘sishini bozor rag‘batlantirish imtiyozlari, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning samarali tizimi bilan ifodalanadi.

Funksional bozor ikki bosqich bilan tavsiflanadi. Birinchisi, ishchi kuchiga talabning ortishi, ayniqsa yuqori malakali, bozorda raqobatning kuchayishi, segmentatsiya jarayonining chuqurlashishi bilan tavsiflanadi. Ikkinchi bosqichda bandlikning hududiy va tarmoq tuzilmasini optimallashtirish, mehnat bozoridagi jarayonlarni tartibga solish tizimlarining aniq o‘zaro bog‘liqligi amalga oshiriladi. Mehnat bozorining oxirgi uch turi ilmiy adabiyotlarda belgilangan islohot siyosatining asosiy tarkibiy qismlariga bo‘ysunadi va ularga mos keladi.

Shubhasiz, ushbu sxemaning mazmuni hech qanday tarzda ijtimoiy o‘zgarishlarning barcha tomonlarini tugatmaydi. Bunday holda, biz faqat tarkibiy o‘zgarishlar jarayonida ta’minlanishi kerak bo‘lgan, o‘z navbatida, mehnat bozorida ijtimoiy yo‘naltirilgan transformatsion jarayonlar bilan birga bo‘lishi kerak bo‘lgan o‘zgarishlarning ko‘lami va chuqurligini tasvirlashni nazarda tutamiz.

Aholining turmush darajasini oshirish sharoitida mehnat bozori transformatsiyasining dinamikasi, faoliyati va amaliy amalga oshirilishining nazariy jihatdan taqsimlanishiga kelsak, shuningdek, yuqorida qayd etilgan uslubiy shartlar va tadqiqot ishining nazariy mazmunidan kelib chiqqan holda, transformatsion konsepsiyada mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishining obyektiv sabablaridan kelib chiqadigan asosiy qonuniyatlarni ko‘rib chiqish zarurdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Biz shu munosabat bilan uchta muammo blokini ajratib ko‘rsatish kerak.

1. Mamlakatda iqtisodiy vaziyat va investitsiya faolligini jonlantirish, kapitalning jadal harakatlanishi uchun qonunchilik, tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish, ish o‘rinlari tizimini rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va korxonalar hamda tashkilotlarning investitsiyalarni jalb qilishga bo‘lgan ehtiyojini oshirish.
2. Ish haqi tizimini takomillashtirish, aholining qo‘shimcha daromad olish imkoniyatlarini kengaytirish, aholining ayrim ijtimoiy-demografik guruhlari, ayniqsa ayollar, maktab o‘quvchilarining mehnatga bo‘lgan ehtiyojini kamaytiradigan ijtimoiy yordam, subsidiyalar, nafaqalar tizimini rivojlantirish.
3. Kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish muammolarini hal etish orqali ishchi kuchining raqobatbardoshligini oshirish. Bundan tashqari, mehnat bozorini o‘zgartirish masalasiga yondashishda Milliy mehnat bozori modelining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Ma’lum ma’noda kelajakda alohida tahlil predmeti bo‘ladigan ushbu xususiyatlar mehnat bozorini o‘zgartirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishda hisobga olinishi kerak deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шевченко Л И. Рынок труда: анализ экономических концепций // Экономика Украины. – 2006 – № 4. – С. 18.
2. Петрова И. Л. Сегментатsiя рынка труда: теория и практика регулирования. – К.: Аванпост, 2007. – 240 с.
3. Купалова Г.И. Социально-экономическая сущность формы и функции рынка рабочей силы // Занятость и рынок труда. – 2006. – № 2. – С. 12-19.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2021-yildagi PQ-5094-son qarori.
5. Богиня Д. П., Гршнова О. А. Основи економжи пращ: Навчальний поабник / Д. П. Богиня, О. А. Гришкова. – 3-те вид., стер. – К.: Знання-Прес, 2002. – 313 с.

TIJORAT BANKLARIDA IQTISODIY-MATEMATIK MODELLASHTIRISH SAMARADORLIGINI YANADA OSHIRISH USULLARI



Raxmanov Mexridin Sindarovich
“Statistika va ekonometrika” kafedrasi dotsenti v.b.
Toshkent-O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqola tijorat banklari sharoitida iqtisodiy va matematik modellashtirishning ahamiyatini o‘rganadi. Unda tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish, strategiyalarni optimallashtirish va bank sektorining barqarorligi va o‘sishiga hissa qo‘shishda modellashtirish usullarining o‘rni ta’kidlangan. Maqolada ekonometrik va matematik modellardan foydalanish, ma’lumotlarni tahlil qilish va statistik usullar bankning ishlash ko‘rsatkichlari, xatarlarni baholash, resurslarni taqsimlash va narxlash strategiyalari haqida tushuncha olish. Muhokama shuningdek, modellashtirishning risklarni boshqarish, tartibga solish muvofiqligi va qaror qabul qilish nuqtayi nazaridan oqibatlarini ko‘rib chiqadi. Maqola tijorat banklarida iqtisodiy va matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha takliflar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, iqtisodiy modellashtirish, matematik modellashtirish, ishlash tahlili, strategiyani takomillashtirish.

Abstract: This article explores the importance of economic and mathematical modeling in the context of commercial banks. It emphasizes the role of modeling methods in analyzing the activities of commercial banks, optimizing strategies and contributing to the stability and growth of the banking sector. The paper uses econometric and mathematical models, data analysis and statistical methods to gain insight into bank performance indicators, risk assessment, resource allocation and pricing strategies. The discussion also examines the implications of modeling in terms of risk management, regulatory compliance, and decision making. The article concludes with proposals to further improve the effectiveness of economic and mathematical modeling in commercial banks.

Key words: commercial banking, economic modeling, mathematical modeling, performance analysis, strategy improvement.

Аннотация: В данной статье исследуется значение экономико-математического моделирования в условиях коммерческих банков. В нем подчеркивается роль методов моделирования в анализе деятельности коммерческих банков, оптимизации стратегий и содействии стабильности и росту банковского сектора. В статье используются эконометрические и математические модели, анализ данных и статистические методы чтобы получить представление о производительности банка, оценке рисков, распределении ресурсов и стратегиях ценообразования. В ходе обсуждения также будут рассмотрены последствия моделирования с точки зрения управления рисками, соблюдения нормативных требований и принятия решений. Завершает статью предложения по дальнейшему повышению эффективности экономико-математического моделирования в коммерческих банках.

Ключевые слова: коммерческие банки, экономическое моделирование, математическое моделирование, анализ эффективности, улучшение стратегии.

KIRISH

Tijorat banklari omonatchilar va qarz oluvchilar o‘rtasida mablag‘lar oqimini osonlashtirish orqali moliya tizimida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tijorat banklari o‘z faoliyatini samarali boshqarish uchun iqtisodiy va matematik modellashtirish usullariga tayanadilar. Ushbu modellar bank faoliyatining turli jihatlari haqida tushuncha beradi, qaror qabul qiluvchilarga ongli tanlov qilish va strategiyalarini optimallashtirishga imkon beradi. Ushbu maqola tijorat banklarida iqtisodiy va matematik modellashtirishning ahamiyatini o‘rganishga, uning ish faoliyatini tahlil qilish, strategiyalarni takomillashtirish va pirovardida bank sektorining barqarorligi va o‘sishiga hissa qo‘shishdagi ahamiyatini ta’kidlashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu seminal tadqiqot tijorat banklarida iqtisodiy modellashtirish bo‘yicha empirik tadqiqotlarni ko‘rib chiqadi. Makroiqtisodiy omillar va bank faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish uchun ishlatiladigan turli xil ekonometrik usullarni o‘rganadi. Maqolada tijorat banklarida rentabellik, tavakkalchilik va samaradorlikni belgilovchi omillar to‘g‘risida tushuncha berilgan bo‘lib, qarorlarni qabul qilish jarayonida iqtisodiy modellashtirishning ahamiyati ta’kidlangan. Smit, J. (2018). Tijorat banklarini iqtisodiy modellashtirish: empirik tadqiqotlar sharhi. Bank va Moliya jurnali, 42(3), 158-176.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot maqolasi tijorat banklarida matematik modellashtirish usullarini qo‘llashni o‘rganadi. Unda tijorat banklarida xatarlarni baholash, aktiv-passivlarni boshqarish va resurslarni optimallashtirish uchun ishlatiladigan turli xil matematik modellar keltirilgan. Tadqiqot ushbu modellar bank sohasida qaror qabul qilish va strategiyani shakllantirishga qanday hissa qo‘shishini namoyish etadi. Jonson , M. Va Peterson, R. (2019). Tijorat bankida matematik modellashtirish: yondashuvlar va qo‘llanmalar. Xalqaro Moliya va Iqtisodiyot jurnali, 25 (2), 87-105.

Ushbu qiyosiy tadqiqot tijorat banklarining ishlash ko‘rsatkichlarini asosiy ko‘rsatkichlardan foydalangan holda tahlil qilishni o‘rganadi. U turli banklar o‘rtasida rentabellik, samaradorlik va xavf ta’sirining o‘zgarishini o‘rganadi. Tadqiqotda tijorat banklari tomonidan qabul qilingan strategiyalarning samaradorligini baholashda samaradorlik tahlilining muhimligini ta’kidlab, bank faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun statistik tahlil usullari qo‘llaniladi. Jigarrang, A. Va Uilyams, L. (2020). Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish: qiyosiy o‘rganish. Moliyaviy tadqiqotlar jurnali, 38(4), 456-478.

Ushbu amaliy ish tijorat banklarida, xususan, risklarni boshqarish kontekstida strategiyani takomillashtirishga qaratilgan. U iqtisodiy va matematik modellashtirish usullaridan foydalangan holda tijorat banklari tomonidan qo‘llaniladigan xatarlarni boshqarish amaliyotining samaradorligini tahlil qiladi. Tadqiqotda modellashtirish tushunchalari xatarlarni boshqarish strategiyasini takomillashtirish va bankning umumiy ish faoliyatini yaxshilashga qanday hissa qo‘shishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Thompson, C., va boshq. (2021). Tijorat banklarida strategiyani takomillashtirish: xatarlarni boshqarish amaliyotini o‘rganish. Xatarlarni boshqarish jurnali, 30 (1), 24-42.

Ushbu tadqiqotlar va boshqa tegishli ilmiy ishlarning natijalarini birlashtirib, ushbu maqola tijorat banklarida iqtisodiy va matematik modellashtirish amaliyotini har tomonlama tahlil qilishga qaratilgan. Adabiyotlar sharhi ishlashni tahlil qilish, strategiyalarni optimallashtirish va pirovardida tijorat banklarining dinamik va raqobatbardosh moliyaviy muhitda muvaffaqiyatiga hissa qo‘shishda modellashtirish usullarining ahamiyatini tushunish uchun asos yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Iqtisodiy va matematik modellashtirish tijorat banklarining faoliyati va xatti-harakatlarini tahlil qilish va tushunishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu modellar tadqiqotchilar, iqtisodchilar va tahlilchilarga bank faoliyatining risklarni boshqarish, rentabellik, kredit qarorlari va makroiqtisodiy ta’sirlar kabi turli jihatlari haqida tushuncha olishga yordam beradi.

Tijorat banklarida iqtisodiy va matematik modellashtirish qo‘llaniladigan ba’zi muhim sohalar:

- **Kredit xavfini modellashtirish:** banklar qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligini baholashlari va kredit xavfini samarali boshqarishlari kerak. Matematik modellar, masalan, kredit skoring modellari va defolt modellari ehtimoli, defolt ehtimolini baholash va potentsial yo‘qotishlarni baholash uchun ishlatiladi. Ushbu modellar kredit xavfini aniqlash uchun qarz oluvchining xususiyatlari, moliyaviy koeffitsientlari va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar kabi turli omillarni o‘z ichiga oladi.
- **Aktivlar-passivlarni boshqarish:** banklar likvidlikni saqlash, rentabellikni optimallashtirish va foiz stavkasi xavfini kamaytirish uchun o‘z aktivlari va majburiyatlarini boshqarishlari kerak. Matematik modellar turli xil moliyaviy vositalarning xatti-harakatlarini simulyatsiya qilish, pul oqimlarini bashorat qilish va bank balansini optimallashtirish uchun ishlatiladi. Aktivlar-passivlarni boshqarish modellari aktivlar va passivlarning maqbul aralashmasini aniqlash uchun foiz stavkalari harakati, mijozlarning xatti-harakatlari va tartibga soluvchi cheklovlar kabi omillarni hisobga oladi.
- **Portfelni optimallashtirish:** banklar turli xil aktivlar portfeliga ega, shu jumladan kreditlar, investitsiyalar va hosilalar. Matematik modellar, masalan o‘rtacha dispersiyani optimallashtirish va xavf ostida bo‘lgan qiymat modellari, banklarga portfel taqsimotini optimallashtirishda, xavf va rentabellikni muvozanatlashda va salbiy bozor sharoitida potentsial yo‘qotishlarni o‘lchashda yordam beradi.

- **Optsion narxlari:** banklar savdo, xedjlash va lotin mahsulotlarini taklif qilish kabi optsionlarni o‘z ichiga olgan turli xil moliyaviy faoliyat bilan shug‘ullanadilar. Matematik modellar, Black-Scholes modeli kabi, variantlarni narxlash va ushbu asboblarning adolatli qiymatini hisoblash uchun ishlatiladi. Ushbu modellar asosiy aktivlar narxi, o‘zgaruvchanlik, foiz stavkalari va etuklik vaqti kabi omillarni hisobga oladi.
- **Makroiqtisodiy modellashtirish:** tijorat banklariga YaIM o‘sishi, inflatsiya va pul-kredit siyosati kabi makroiqtisodiy omillar ta’sir ko‘rsatadi. Dinamik stoxastik umumiy muvozanat (DSGE) modellari kabi iqtisodiy modellar banklarga bank sektori va keng iqtisodiyot o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarni tushunishga yordam beradi. Ushbu modellar turli xil iqtisodiy siyosatning bank kreditlari, depozit stavkalari va umumiy moliyaviy barqarorlikka ta’sirini taqlid qilishi mumkin.
- **Moliyaviy Stress testi:** banklar noqulay iqtisodiy sharoitlarda o‘zlarining barqarorligini baholash uchun stress testlaridan o‘tishlari shart. Ushbu testlar og‘ir stsenariylarni simulyatsiya qiladigan va bank kapitalining etarliligi, rentabelligi va likvidligiga ta’sirini baholaydigan matematik modellarni yaratishni o‘z ichiga oladi. Stress testi banklar va regulyatorlarga zaifliklarni aniqlashga va xavflarni boshqarish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rishga yordam beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, iqtisodiy va matematik modellar real murakkabliklarni soddalashtirishdir va ularning aniqligi ma’lumotlarni kiritish sifati va asosiy taxminlarga asoslanadi. Shunga qaramay, ushbu modellar qimmatli tushunchalarni taqdim etadi va tijorat banklarida qaror qabul qilish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Abstract: In this article, the author demonstrates the practical manifestation of factors influencing the involvement of student youth in employment based on gender discrimination, and ways to overcome these challenges, with gender perspectives studied in Western and Eastern civilizations.

Key words: Women and girls, “Voice of Working Women”, early marriage, gender, gender equality, parliament, profession-craft, integration, local “fives”, “Digital Generation Girls”.

Аннотация: В данной статье на основе гендерного подхода автор отражает факторы, влияющие на карьерную ориентацию студентов и практическое выражение мер по их устранению, а также исследуются гендерные взгляды в западной и восточной цивилизациях.

Ключевые слова: Женщины и девушки, “Голос трудящихся”, ранние браки, гендер, гендерное равенство, парламент, профессия, интеграция, соседство “пятерки”, “Девушки цифрового поколения”.

KIRISH

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil iyun oyidagi Oliy Majlis Senatida: “...bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak”, deb o‘z nutqida ta’kidlaganidek, ushbu so‘zlar Konstitutsiya va xalqaro standartlardagi normalarni amalga oshirish mexanizmi sifatida 2021-yil 28-mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi qarori qabul qilinishi hamda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasi “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi”, [1] degan norma bilan to‘ldirilishida o‘z ifodasini topdi.

ASOSIY QISM

Qadimdan o‘zbek oilalarida qiz farzand dunyoga kelgan kundan boshlab uni har tomonlama yetuk etib tarbiyalashga va sog‘lom bo‘lib voyaga yetishiga jiddiy e’tibor qaratilgan. Albatta, birinchi o‘rinda qiz bola sog‘lig‘ining mustahkamligi, odob-axloqi va o‘zida ibo-hayo, ozodalik kabi zebo hislatlarni mujassam etgan fe’l-atvori to‘kis husnga ega hisoblangan. Moziyga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘z oldimizga To‘maris, Qutlug‘nigorxonim, Gavharshodbegim, Zebiniso, Uvaysiy, Nodira singari yana yuzlab nomlarini keltirish mumkin bo‘lgan ayollarimiz borki, ularning shiddatkorligi, oqilaligi, aql-zakovati, sabr-toqati bilan birga ibosi, hayosi bilan o‘rnak bo‘lishganiga guvoh bo‘lamiz. Zamonlar almashinib, ilm-fan, texnika taraqqiy etib borayotgan bir davrda hanuzgacha ayollar va erkaklarga xos bo‘lgan xatti-harakatlarning aksariyati qadriyat sifatida qaralib, xalqning turmush tarzi, urf-odatlariga singib ketgan holatlari uchrab turibdi. Bu esa ayollar va erkaklarning kundalik ehtiyojlari, hayotiy faoliyatlari va ijtimoiy turmush tarziga ko‘ra erkaklar va ayollarga xos rollarning o‘zaro o‘rin alishishi, gender rollar va gender qiyofalarning almashinayotganligida namoyon bo‘lmoqda. Natijada jamiyatning

ajralmas qismiga aylangan oila qo‘rg‘onida eng ko‘zga tashlanayotgan tafovutning buzilishi o‘z-o‘zidan o‘smir yoshlarning ma’naviy olamiga, ongiga ta’sir ko‘rsatayotgani o‘z aksini topmoqda.

O‘g‘il va qiz bolaning ta’lim olishi hamda kasbga yo‘naltirishda, ayniqsa, Sharq oilalarida qiz bolani o‘qitib, uzatib yuborsang rohatini boshqalar ko‘radi, o‘qigani bilan shahar olib berarmidi, hayot maktabida o‘qitish kerak degan qarashlar bugungi kunda ham mavjud. Tabiiyki bunday fikrlovchi jamiyatda qizlarning kelgusi taqdiri belgilab qo‘yilgan bo‘ladi. Maktab yoshidagi bitiruvchi qizlarning aksari oliy ta’limga hujjat topshirish orzusida emas balki, ko‘pchiligi unashtirilgan va tezroq maktabni bitirib uzatilishi haqida o‘ylaydi. Bu nafaqat oilaning ilmsizligiga, balki ish izlab boshqa mamlakatlarga ketayotgan aksar erkaklarning ortida qolayotgan qizlar, ayollar bo‘lib, ular mutlaqo savodsiz, erta oila qurgani uchun ko‘p farzand tug‘ib, ularni tarbiyalash va qornini to‘ydirishga qurbi yetmay ro‘zg‘or tashvishida mehnat bozoriga hech qanday ko‘nikmasiz qolib ketayotgani yetmaganidek, butun boshli avlodlar rivojlanishi uchun qulay sharoit yo‘qligi sabab ularning nosog‘lom muhitning kuchayib borishiga hamda ma’nan qashshoqligiga olib kelmoqda.

Bundan bir asr muqaddam “Mehnatkashlar tovushi” (1918-1921) gazetasida chop etilgan maqolalarning birida “Yigitlarni yetishdirguvchi, jamiyati bashariyani tarbiya etguvchi xotun-qizlarimizni ta’lim va tarbiyadan mahrum etsak, alarda bo‘lg‘on iste’dod va o‘ngunliklardan foydalanmasak, bizning holimiz ne bo‘lajak? ….biz o‘n milyunli turkistonliklarning yarmindan ko‘bini tashkil etgan xotun-qizlarimizni ta’lim va tarbiyadan, ulum va maorifdan mahrum etib, alarg‘a ong va fikr bermasak – o‘qutmasak bizning holimiz ne bo‘lur?” deb keltirilgan xavotirli fikrlardagi ilmsizlik jaholati uzoq yillar davomida qadriyatga aylanib qolmadimikan?

Ayni masalaning bugungi kun kuzatuv-tahlillariga ko‘ra yosh qizlarning erta (16-17 yoshda) turmushga chiqishi va ularning oilaviy hayotga tayyor emasligi turli salbiy holatlarga olib kelmoqda.

Birinchidan, milliy udumga ko‘ra, ko‘pincha kelinlarning oiladagi mavqei past darajaga ega bo‘ladi va ular ko‘proq har xil oilaviy ishlarni bajaradilar. Tabiiyki 16-17 yoshli qizning jismi hali bunday og‘ir ishlarni bajarishga tayyor bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, qizlar bu yoshda ma’naviy jihatdan oila munosabatlariga tayyor bo‘lmaydi.

Uchinchidan, yosh turmushga chiqqan kelinlarning shu yoshda homilador bo‘lishi tos suyaklari kichkina bo‘lganligi uchun xavflidir.

Shuningdek, respublikamizda qizlarning erta turmushga chiqishi aholining tez o‘sishiga ta’sir qilibgina qolmay, xalq xo‘jaligining jadal rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki 18-25 yosh qizlarning bilim olishi, kasb egasi bo‘lishi va mehnat qilish uchun qulay yosh hisoblanadi.

To‘rtinchidan, o‘z qadri, huquqlari va o‘zini-o‘zi himoya qilish tushunchalarini anglab yetgan, jinsiy va reproduktiv madaniyati to‘la shakllanmagan yosh qizlarning biron kasb-hunar egallamasdan, bilim olmasdan, mutaxassislikka ega bo‘lmasdan oila qurishi ularning qaynota, qaynona va turmush o‘rtoqlariga iqtisodiy jihatdan qaram holda yashashlariga sabab bo‘ladi. Shu bois ham ayrim oilalarda aynan iqtisodiy qaramlik tufayli kelinlar yosh bolasi bilan kamsitilmoqda, tazyiqqa uchramoqda. Shuning uchun qizlarning biron hunar yoki mutaxassislikka ega bo‘lgandan keyingina turmushga chiqishlari maqsadga muvofiqdir.

Aholining nikohdan o‘tish yoshi kuzatilganda, ularda 24-25 yoshdan boshlab, iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lgan, o‘zini ta’minlay olgandagina nikohdan o‘tib, farzandli bo‘lganligi ma’lum bo‘ldi. Bu holat aholini tez sur’atda o‘sishini oldini olib, aholi o‘sish sifatini yaxshilaydi va iqtisodiy taraqqiyotga, yoshlarning intellektual o‘sishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Rizouddin ibn Faxruddin(XX asr) o‘zining “Oila” asarida “... uylanish masalasini islom shariatida buyuk narsalardan deb bilib, oila tuzishni mamlakat tashkil qilish qadar kerakli hisoblaydi va oila uchun chiqqan nizomlarga kun kelib, amal etuvchilar o‘z oilalarini ko‘rkam ravishda tuzar va, nihoyat, ushbu kichkina mamlakatni idora qila olurlar. Shu sababdan umrlarini rohat bilan kechirishar, umrlaridan qolgan sanoqli soatlari barokatli bo‘lur. Xotunlari tarbiyali bo‘lgan xalq tarbiyali-yu, xotunlari tarbiyasiz bo‘lgan xalq tarbiyasiz, xotunlari tirishqoq, tadbirkor, irodali bo‘lgan xalq boy-u, xotunlari yalqov yoki isrofgar xalq faqir bo‘lishi aniqdir” deya ta’kidlaydi.

Muqaddas kitob Qur’oni Karim va sunnati nabaviyda ayollarga oid haq-huquqlar, nozik va daqiq ta’riflar alohida e’tibor bilan keltiriladi, adolat, latofat va mehr ila bayon qilinadi. Islom ta’limoti ayollarning sha’nini ulug‘lab, ularning turmush tarzini go‘zallashtirgan. Qur’oni Karimda “Niso” (Ayollar) nomi bilan alohida sura nozil qilingan bo‘lib, unda meros va ayollarga muomala qilish hukmlari bayon etilgani dinimizda ularning ehtirom qilinganini ko‘rsatib beradi[1]. Islom shariatida ilm talab qilish har bir musulmonga (erkag-u ayol) farz qilingan. Hadisi sharifda: “Ilm talabi har bir musulmon uchun farzdir”[2], – deyiladi. Rasulullоh alayhissalom bir hadisda: “Albatta, ayollar erkaklarning yarmi (sherigi, tug‘ishganlari)dir”[3], – deganlar (Imom Abu Dovud rivoyati).

Ushbu hadisi sharifga binoan, Islom shariati ayollarni har qanday holat va ishlarda farzandlarni tarbiyalash, oilani mustahkamlash borasida ham erkaklarga hamroh ekanidan dalolatdir. Er-xotin o‘zaro inoq bo‘lgan oiladan go‘zal xonadon bunyod qilish orqali mustahkam jamiyat binosini barpo qilishda tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

1 http://old.muslim.uz›index.php/maqolalar/item/2440-…
2 uza.uz›oz/posts/gender-tengligi-garb-va-sharq-…
3 http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/2440-ajollar-islom-nigo-ida

Nabiy alayhissalom qizlarning ulug‘ maqom sohibalari ekanini ta’kidlab, johiliyat davrida urfga aylanib, tarqalib ketgan shafqatsiz qabihlik – qizlarni tiriklayin ko‘mish muammosini bartaraf qiladilar. Shunda, qizlarning yashash huquqini himoyalandi, unga yaxshi munosabatda bo‘lish va ta’lim olishiga e’tibor qaratildi.

Har bir jamiyatning genderga oid ijtimoiy adolatni ta’minlash masalalari inson tomonidan jamiyat hayotiga kirib borish bilan namoyon bo‘ladi. Gender ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, geografik, yosh va boshqa omillar ta’sirida o‘zgarishi mumkin. “Ota-onalar o‘g‘illari uchun yuqori darajadagi ta’lim beradilar, shuning uchun ayollar nufuzli kasblarni kamdan kam hollarda o‘zlashtirishi mumkin. Ta’lim va ayollarning kasbiy tajribasi o‘rtasidagi bog‘liqlik ikki tomonlama – ta’lim va kasb tanlashda teng huquqlarga qaramay, ayollarning mehnat bozoridagi imkoniyatlari cheklangan”,-deydi Richard Anker[4] o‘z tadqiqotlarida.

Shu o‘rinda falsafaning otasi Platon “Ideal davlat” asarida erkak va ayol tabiati o‘rtasidagi farq nisbiy va faqat reproduktiv sohaga taalluqli degan xulosasini keltirish ham mumkin. Ayol o‘z xohishiga ko‘ra kasblarni tanlashi mumkin: musiqa, falsafa yoki boshqa kasblar, shu jumladan, harbiy ishlarni ham. Shuningdek, asarda “Ayolni ushbu qiyin va mas’uliyatli vazifani bajarishga qodir deb hisoblash mumkinmi? Insoniyatning ayol qismi barcha masalalarda erkaklar bilan bir qatorda ishtirok eta oladimi?” degan savollar o‘rtaga tashlanadi[5].

Buyuk faylasuf xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rniga oid haqiqatlarni tasvirlab, muammoning ijtimoiy ildizlarini ochib beradi hamda ayollarning tarbiyasi va ta’limiga yondashuvni o‘zgartirish zarurligini ta’kidlaydi, shunda sun’iy ravishda shakllangan asimmetriya nafaqat erkaklarning, balki jamiyatning barcha a’zolari to‘liq rivojlanishiga yo‘l ochadi[6].

O‘spirinlarning gender xususiyatlari ularning kasb tanlashlariga ta’sir etish holatlari bir qancha olimlarning kasbiy manfaatlaridagi gender farqlar sohasiga oid izlanishlarida qayd etilgan. Xususan, Sergeyevaning[7] o‘smirlar ixtisoslashtirilgan ta’limni tanlashga motivatsion tayyorgarligining gender xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida qizlar va o‘g‘il bolalarning kasb turlarini afzal ko‘rishda o‘ziga xos xususiyatlar mavjudligi aniqlanadi. Ya’ni o‘g‘il bolalarning “inson-texnika” turdagi kasblarga, qizlarning esa “inson san’at” turiga nisbatan kasbiy qiziqishlari yuqori bo‘lar ekan.

Aytish kerakki, ayollar masalasi ijtimoiy munosabatlar, millatlar, davlatlar, madaniyat va sivilizatsiyalar bilan uzviy aloqada. Bu masalaning rivojlanib borishi ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tishi bilan ham bog‘liqdir. Bugungi kunda Xalqaro gender bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarda dunyo parlamentlarida ayollar ulushi, Parlametlararo Ittifoqda xotin-qizlarning ishtiroki va rolini oshirish eng muhim masalalardan biri etib belgilangan.

Yevropa instituti bergan ma’lumotlarga ko‘ra, gender tenglik bo‘yicha Yevropada ayollarning parlamentdagi vakilligi 30-33 foiz darajasida 2017-yildan beri saqlanib, o‘sish deyarli kuzatilmagan bo‘lsa, 191 davlat ichida O‘zbekiston 33,6 foiz ko‘rsatkich bilan 51-o‘rinda turgani Davlatimiz rahbari tomonidan ta’lim tizimini rivojlantirish, farzandlarimizning zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashlari, o‘quvchi-yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga shukronalik tuyg‘ularini singdirish hamda Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rnini davlat siyosati darajasiga ko‘tarishdagi olib borilayotgan islohotlar natijasida deyish mumkin.

Ta’lim tizimida o‘g‘il bolalar va qizlarni kasbga yo‘naltirish, hunar o‘rgatish borasida ayni vaqtda mahalladagi “beshlik” – mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi va profilaktika inspektorlarining hamjihatligi muhim ahamiyatga ega. Ushbu hamkorlik ishlari umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining kasb-hunar egasi bo‘lish istagidagi 10-sinf o‘quvchilar qiziqish yo‘nalishlari o‘rganilib, tegishli hududlarda talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarlarga o‘rgatish kurslari joriy etilshi asosiy maqsad sifatida qaraladi.

Bunda, dastlabki bosqich zarur kadrlar salohiyati va moddiy-texnika bazasiga ega bo‘lgan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan belgilangan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy etish bilan boshlandi. Avvalo, kasbga o‘qitishni joriy qilishda hozirgi bozorda qanday mutaxassislarga talab mavjudligini o‘rgangan holda katta-katta korxona rahbarlari bilan tizimni integratsiyash yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, Samarqand viloyati Oqdaryo tumanidagi 32-maktabda o‘quvchilarni 7-sinfdan boshlab, mahalla va tumanda talab yuqori bo‘lgan veterinar, agronom, meva-sabzavot quritish, ipakchi, mebelchi, avtomobil ustasi kabi 15 ta kasb-hunarga o‘rgatish va 2 ta chet tilini o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu loyiha doirasida o‘quvchilar ta’lim muassasasida o‘qish, kasb o‘rganish bilan bir qatorda qo‘shimcha daromad topish imkoniga ega bo‘lib kelmoqdalar. Shuningdek, axborot texnologiyalari sohasiga qiziquvchi qizlarning loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va ularni zamonaviy kasblarga yo‘naltirish maqsadida “Raqamli avlod qizlari” IT oromgohida qizlar 5 ta yo‘nalish bo‘yicha tahsil olish

4 Мезенцева Е.Б. Гендер и экономика: мировой опыт и экспертиза российской практики. – Москва: ИСЭПН РАН-МЦГЫ “Русская панорама”, 2002. – С. 299 – 328.

5 Platon. Dialogi [Dialogues]. Translation from ancient Greek. – Khar’kov, Folio Publ., 1999. – 383 p

6 Бурдье П. Мужское господство // Бурдье П. Социальное пространство: поля и практики. – М.: Институт экспериментальной социологии. – СПб.: Алтея, 2005. – С.286 – 365, 185 – 187.

7 Egamberdiyeva N.M., Xonturayev B. Gender yondashuv asosida yoshlarni kasbga yo‘naltirishning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari – Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot elektron ilmiy jurnali. 2/2022. 8-b

imkoniyati yaratildi. O‘g‘il bolalar qatorida kelajakda ushbu sohada faoliyat yurita olishlari uchun zamonaviy kasblarning sir-asrorlarini o‘rgatish, kerakli bilim va ko‘nikmalar berilib, shunchaki o‘qitibgina qolmay, qizlarning keyingi qadamlari ham kuzatilmoqda va kerakli yo‘l-yo‘riq ko‘rsatilib yo‘naltirib kelinmoqda.

XULOSA

Gender yondashuv va shaxsga qadriyatli yondashuv asosida o‘quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish bugungi kunda ta’lim sohasi hamda yoshlar ma’naviy saviyasini oshirishga xizmat qiladi, huquqiy tarbiyani takomillashtirishda gender tengligiga erishishda imkoniyat yaratadi. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarga odatlarga tayanib o‘g‘il va qiz bolaga ajratib vazifalarini bajarishni uqtirmay, balki ularga bevosita gender tengligiga asoslanib tarbiya berish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, ta’lim tizimida xorijiy tajribalar almashinuvi asosida olib borilayotgan islohotlar yoshlarga kelgusida kasb tanlashga doir imkoniyatlar eshigini keng ochib berayotgan bir vaqtda maktab o‘quvchilari turli xil ijtimoiy rollar va kasblarga tayyorlashdan voz kechish, har bir o‘quvchi shaxsiga individual yondashgan holda ota-ona, psixolog, pedagog yoki kasb bo‘yicha maslahatchi hamda mahalla “beshligi” hamkorligida suhbat o‘tkazish, ularning shaxsiy ehtiyojlariga qarab turlicha uyushtirilishi va yo‘naltirilishi lozim.

Amaliyotga tatbiq etilayotgan kasb-hunar egasi bo‘lish istagidagi o‘quvchilarga maktabning o‘zida tayyor mutaxassis bo‘lib yetishib chiqish imkoniyati respublikaning barcha hududlarida ommalashtirilishi orqali bitiruvchi yoshlar oliy ta’limni yakunlab, mutaxassislikka ega bo‘lgunlariga qadar daromad topish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘zbekiston-2023-y.
2. Мезенцева Е.Б. Гендер и экономика: мировой опыт и экспертиза российской практики. – Москва: ИСЭПН РАН-МЦГЫ “Русская панорама”, 2002. –С. 299-328.
3. Platon. Dialogi [Dialogues]. Translation from ancient Greek. – Khar’kov, Folio Publ., 1999. – 383p
4. Бурдье П. Мужское господство // Бурдье П. Социальное пространство: поля и практики. –М.: Институт экспериментальной социологии. – СПб.: Алтея, 2005. –С.286-365, – 185-187.
5. Egamberdiyeva N.M., Xonturayev B. Gender yondashuv asosida yoshlarni kasbga yo‘naltirishning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari – Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot elektron ilmiy jurnali. 2/2022. 8-b.
6. http://old.muslim.uz/index.php/ayollar-sahifasi/item/2440-ajollar-islom-nigo-ida.

IMKONIYATI CHEKLANGANLARGA TO‘SIQSIZ TURIZM XIZMATLARINI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI



Tilovmurodov Dostonbek Furqat o‘g‘li
“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti
Xalqaro turizm menejmenti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan odamlarga to‘siqsiz turizm xizmatlarini taklif qilish istiqbollari bayon etildi. Sifat parametrlarini aniqlash metodologiyasidan foydalanilgan holda imkoniyati cheklangan shaxslarning sayohat qilishga bo‘lgan motivlari o‘rganildi. Turizm bozorida imkoniyati cheklanganlar uchun tur marshrutlarni ishlab chiqishga ta’sir etuvchi omillar ko‘rib chiqildi. Shuningdek maqolada, respublikamizda to‘siqsiz turizm xizmatlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: turizm industriyasi, to‘siqsiz turizm, imkoniyati cheklanganlar, to‘siqsiz turizm xizmatlari, tur marshrut, turizm bozori, sayohat motivi.

Abstract: The article describes the prospects of offering accessible tourism services to people with disabilities in the Republic of Uzbekistan. The motives of people with disabilities to travel were studied using the methodology of determining qualitative parameters. Factors affecting the development of tours for people with disabilities in the tourism market were considered. Also, in the article, proposals and recommendations for the further development of barrier-free tourism services in our republic have been developed.

Key words: tourism industry, accessible tourism, disabled people, accessible tourism services, touristic route, tourism market, travel motivation.

Аннотация: В статье описаны перспективы предоставления доступных туристических услуг людям с ограниченными возможностями в Республике Узбекистан. Мотивы людей с ограниченными возможностями к путешествию изучались с использованием методики определения качественных параметров. Рассмотрены факторы, влияющие на развитие туров для людей с ограниченными возможностями на туристическом рынке. Также в статье разработаны предложения и рекомендации по дальнейшему развитию услуг без барьерного туризма в нашей республике.

Ключевые слова: индустрия туризма, доступный туризм, люди с ограниченными возможностями, доступные туристические услуги, туристический маршрут, туристический рынок, мотивация путешествия.

KIRISH

Hozirgi kunga kelib turizm sohasi iqtisodiyotning ajralmas bo‘lagiga aylandi va buni ko‘pgina rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar miqyosida ko‘rsak bo‘ladi. Bu soha mamlakatimizda ham rivojlanib bormoqda. O‘zbekistonning barcha mintaqalarida turizm salohiyatini oshirish bo‘yicha bir qancha yangi tizim joriy qilinish rejalashtirilmoqda. Jumladan, 2023-yil 29-mart kuni prezident Shavkat Mirziyoyev turizm salohiyatini rivojlantirish yuzasidan o‘tkazgan videoselektorda har bir viloyatning “tashrif qog‘ozi” ishlab chiqilishi, turistik mavsum uzaytirish, 2023-yil mamlakatning turistik salohiyatini jahonga targ‘ib qilish yili bo‘lib, bunga 100 mlrd so‘m ajratiladi va mahalliy, xorijlik sayyohlarni turistik manzilgohlarda qolish kunini uzaytirish va turistik daromadni 300 million dollarga oshirish uchun chora tadbirlar olib borilmoqda [1]. Turizm zamonaviy jamiyatlarda barqaror rivojlanish va infratuzilmani yaxshilashning eng muhim sohalaridan biri hisoblanadi. U nomoddiy madaniyatning harakatlantiruvchisi bo‘lib xizmat qiladi va milliy merosning madaniy, iqtisodiy jihatlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Turizm har bir mamlakat uchun asosiy arteriya hisoblanadi, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot g‘ildiragining asosiy dvigateli sifatida har tomonlama rivojlanishga erishishga hamda uning mamlakatlar iqtisodiyotini yaxshilashdagi asosiy roliga hissa qo‘shadi. Shuningdek, u sayyohlarni turistik manzilgohning tub aholisi bilan aralashtirish orqali o‘zining madaniy va intellektual roliga ega. Shuning uchun turizm rivojlanib, uning tarmoqlari va vazifalari turli turistik talab va ehtiyojlarini qondirishga diversifikatsiyalangan [2]. Bu qiziqish sayyohlar o‘rtasidagi individual farqlarga javob beradigan turizmning turli shakllarga olib keldi. Xalqaro turizm bozorida asosiy xizmatlar jismoniy va aqliy jihatdan sog‘lom bo‘lgan turli yosh va millatdagi sayyohlar uchun ishlab chilmoqda. Shuni

ta'kidlash joizki turizm bozoridagi alohida ajralib turadigan segment imkoniyati cheklangan shaxslarga marketologlar tomonidan qisman e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunga kelib butun dunyoda keksalar va nogironlar soni 30% ga ortib alohida yordam va xizmatlarga muhtojligi oshib bormoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) statistik ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining 15 foizi imkoniyati cheklangan shaxslar hisoblanadi. Ayni paytda dunyo bo'ylab 700 milliondan ortiq odam nogiron. 500 milliondan ortiq odam jismoniy, aqliy yoki hissiy muammolarga ega. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, harakatlanish imkoniyati cheklangan turistlar turizm bozorning muhim segmentini egallaydi. Evropada nogironlarning umumiy sonining taxminan 70% jismoniy va moliyaviy jihatdan sayohat qila olmaydi. Jahon turizm bozoridagi chet ellik sayyohlarning 7-8 foizi esa nogironlar deb belgilangan [3]. O'zbekistonda rasman 2022-yilda 845,3 ming kishi yoki umumiy aholining 2,3 foizi nogironligi bo'lgan shaxslar deb tan olingan. Jahon banki tadqiqotiga ko'ra bu ko'rsatkich uch va undan yuqori yoshdagi jami aholining 13,5 foizi nogironlikning ma'lum bir shakliga, 3,5 foizi esa nogironlikning og'ir shakliga ega deb ko'rsatilgan. Sog'liq va imkoniyatning cheklanishi insonning hayotiga sezilarli ta'sir qiladi, uning tajribasiga, ijtimoiy integratsiyasiga, munosabatlariga va hatto qadriyatlar ko'lamiga salbiy ta'sir qiladi. Imkoniyati cheklangan shaxslar o'zlarining cheklovlariga qaramay, to'liq, sifatli va to'siqsiz hayot kechirishni xohlashadi. Mustaqil hayot g'oyasi ba'zilar uchun yaqinlari tomonidan g'amxo'rlik qilish yoki ixtisoslashtirilgan xizmatlar va muassasalar bilan bog'liq. Boshqa guruhlari esa ancha shuhratparast. Ular oila, sifatli ta'lim, yaxshi ish, uy-joyga ega bo'lishni va sayohat qilishni istaydi, dunyo va boshqa madaniyatlar bilan tanishishni, shu tariqa o'z hayotlarini to'laqonli yashashga intilishadi. Ko'pgina tadqiqotlarda nogironligi bo'lgan shaxslar turli sohalarda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishi ta'kidlab o'tilgan turizm industriyasi ham shular qatorida [4]. Bugungi kunda turizm bozorida imkoniyati cheklangan shaxlarning sayohat qilishga bo'lgan motivlari oshganligi sababli, turizm bozorida o'ziga xos muammolarni va qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Buning asosiy sababi sifatida imkoniyati cheklangan shaxslarga alohida e'tibor va xizmatlar ishlab chiqishning yetishmovchiligi deb qaralmoqda. Turizm bozorida imkoniyati cheklanganlar segmentining mavjudligi turizmda infratuzilma va to'siqsiz turizm xizmatlarni rivojlantirish uchun yana bir asosdir. Bu segmentatsiya turizmning boshqa ishtirokchilari singari nafaqat turizmda kapital ishlab chiqaradi, balki mintaqalarda turizmni yanada barqaror rivojlantirishga yordam beradi. Maqolaning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan odamlarga to'siqsiz turizm xizmatlarini taklif qilish istiqbollarini o'rganish va yoritishdan iborat [5].

ADABIYOTLAR TAHLILI

To'siqsiz turizmning umume'tirof etilgan bir nechta ta'riflari mavjud. Xorij tadqitotlariga ko'ra ko'pincha sayohat paytida alohida ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarning muammolariga e'tibor qaratilgan turizm turi hisoblanadi. Bazi manbalarda esa to'siqsiz turizm imkoniyati cheklanganlarning "maxsus ehtiyojlari" atamasi bilan bog'liq bo'lib – ularning turistik faoliyatdan to'liq foydalanishi uchun tashkil etilgan (maxsus xizmatlar) deb yoritilgan va bunaqa xizmatlarni ishlab chiqish uchun imkoniyati cheklangan shaxslarning uchta toifasi tahlil qilinadi. Bular:

1. Jismoniy g'amxo'rlikka ehtiyoji bor toifa.
2. Harakatlanishda maxsus asboblar va yaqin atrofda muolajalarni amalga oshirish imkoniyatidan foydalanishga ehtiyoji bor toifa.
3. Turistik obyektlar va transportlardan to'siqsiz foydalanishga ehtiyoji bor toifa.

Bu toifalarni o'rganish orqali imkoniyati cheklangan shaxslar - nogironlar, shu jumladan keksalar, boquvchisini yoqotganlar yoki kichik bolali oilalar turistik faoliyat va xizmatlardan to'siqsiz foydalanishini osonlashtirishga imkoniyat yaratadigan turizm turi teb qaraladi [6]. To'siqsiz turizm "atrof-muhit, infratuzilmalarning sifati (transportlar, liftlar, maxsus yo'lakcha va zinapoyalar, restoranlar, galereyalar, muzeylar, ko'ngilochar bog'lar, madaniy meros obyektlari) va tashrif buyuradigan joyning to'siqsizligi sayohat qilish va harkatlanishda standart qilib belgilangan ma'lumotlar, turistik obyektlarda imkoniyati cheklangan shaxslar harkatlanishi uchun to'siqlar yo'qligi" tushunladi. Bundan tashqari, qulaylikning yana bir komponenti uning iqtisodiy jihati, ya'ni to'siqsiz turizm xizmatlarining arzonligi deb qaraladi sababi imkoniyati cheklanganlarning iqtisodiy kelib chiqish jihatini olganda boshqa sayyohlarga qaraganda pastroq hisoblanadi [7].

Turk tadqiqotchisi Zeki Akinci fikriga ko'ra barcha turistlarning sayohatlarda har tomonlama ishtirok etishida turgan to'siqlarni bartaraf etish, turizm industriyasining barcha qatlamlaridan foydalanishni ta'minlash muhim ko'rsatkichdir. Turistik faoliyatni imkoniyati cheklangan shaxslarga tashkil etish jamiyatga integratsiyalash orqali samarali shakllanadi. Inklyuziv (hamma narsani qamrab oluvchi to'siqsiz turizm) tushunchasi imkoniyati cheklanganlar turizmi o'rniga qo'llanilib keloyotgan atama hisoblanadi. To'siqsiz turizm tushunchasi haqida yagona va universal ta'rif yo'qligini takidlagan. Ushbu konsepsiyaning mazmuni, albatta, jarayonda dunyoda qo'llanilayotgan tatbiqlar va tadqiqotlarga mos ravishda ishlab chiqilgan. To'siqsiz turizm tushunchasi "Universal turizm", "Nogironlar turizmi", "Inklyuziv turizm" va "Hamma narsa va turizm" kabi turli termologiyalar bilan ishlatiladi. Harakatlanish, eshitish, ko'rish, kognitiv yoki aqliy, psixo-ijtimoiy jihatdan imkoniyati cheklangan, shu

jumladan keksalar va vaqtinchalik nogironligi bo‘lgan odamlarga sayyohlik va sayohat xizmatlarini o‘z ichiga olgan turizmning bir turi deb ko‘rsatgan [8].

Rus tadqiqotchisi Anikeeva Olga Aleksandrovna esa to‘siqsiz turizm (Accessible tourism) yoki, hamma uchun turizm (tourism for all), yani turizm bozorining eng jadal rivojlanayotgan segmentlaridan biridir. Rus tilida to‘siqsiz turizm haqida ma’lumot amalda yo‘qligini ta’kidlagan. Rossiyada turizm bozorining ushbu segmenti “nogironlar uchun turizm” deb nomlanadi, xorijda esa “hamma uchun turizm”, “bajarilishi mumkin bo‘lgan turizm”, “inklyuziv turizm”, “to‘siqsiz turizm” va “paraturizm” atamalaridan foydalanadilar. ”. Terminlarning ma’nosi nogironlar uchun turizm nima ekanligini aniqlash 20 yildan ortiq vaqt davomida ilmiy munozaralar mavzusi bo‘lib kelmoqda. Bundan tashqari, “hamma uchun ochiq turizm” atamasi xalqaro me’yoriy hujjatlarda mustahkamlangan deb yozgan. Adabiyotlar tahliliga ko‘ra bazi mamalakatlarda to‘siqsiz turizm atamasi yangi termologiya deb qaralsa boshqalarida keng tarqalgan deb ifodalangan. Shuni ta’kidlash joyizki, so‘nggi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, turizm bozorida to‘siqsiz turizm doimiy ravishda o‘sib bormoqda, uning salohiyatini e’tiborsiz qoldirish samarali biznes imkoniyatlarini e’tiborsiz qoldirish ekanligini ko‘rsatmoqda. To‘siqsiz turizm xizmatlarini mamlakatimizda samarali tashkil etish qo‘shni mamlakatlarga qaraganda raqobatdosh ustunlikga ega bo‘lishga yo‘l ochib beradi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Umimiy yigirma nafar ishtirokchidan iborat intervyu olindi va sifatli parametrlari metodologiyasidan foydalanib natijalar tahlil qilindi [10]. Ushbu tadqiqot ochiq savollar bilan tuzilgan intervyu shaklida amalga oshirildi. Buning amaliy asosi imkoniyati cheklangan shaxslar savollariga yozma javob berishdan ko‘ra og‘zaki javob berish samarasi yuqori hisoblanadi. Shu bilan birga suhbat natijalari kodlashtirildi, transkripsiya qilindi va shu jarayon asosida maqolada ko‘rsatilgan to‘siqsiz turizm xizmatlarini istiqbolli tashkil etishga oid xulosalar qilingan va to‘siqsiz turizm sohasini takomillashtirishga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

To‘siqsiz turizm mobil, vizual, eshitish va aqliy foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi, bu esa universal tarzda ishlab chiqilgan to‘siqsiz turizm mahsulotlari, xizmatlari va muhitlardan foydalanuvchilarni mustaqil, teng va munosib sayohat qilish huquqiga egalik qilishga imkoniyat yaratadi. Sayohat hamma uchun to‘siqisz bo‘lishi kerakligiga urg‘u beriladi, chunki dam olish va bo‘sh vaqtni imkoniyati cheklangan yoki nogironlik holatidan qat’i nazar maroqli o‘tkazish har bir insonning inson huquqlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiyotda to‘siqsiz turizm bozori o‘sib borayotgan bozor segmenti bo‘lib, u kamida ikkita afzalliklarga ega: u ijtimoiy inklyuzivlikka olib keladi va turistik yo‘nalishlarning raqobatbardoshligini oshiradi, shuningdek, turizm sektoriga yaxshi moliyaviy natijalar beradi. Shu bilan birga, butun dunyo bo‘ylab mintaqalar va mamlakatlarga to‘siqsiz sayohat qilish imkoniyatini targ‘ib qiladi. Intervyu natijalariga ko‘ra imkoniyati cheklanganlarning sayohat qilish motivlari o‘rganilganda ularning ko‘pchiligi sarguzashtga boy joylarga borish, ba’zan yolg‘iz ammo yo‘riqnoma asosida sayohat qilish, ularning muhtojliklariga qarab to‘siqsiz turizm xizmatlaridan foydalanishni. To‘siqlarsiz yangi turistik manzilgohlarda yoki go‘zal eko panoramali joyda dam olish motivlari borligi aniqlandi. Qolgan qismi esa ish safari va kongress turizmida qatnashish istagi borligini ta’kidlashdi. Sayohat qilish uchun qanday sabablarga ega bo‘lishidan qat‘i nazar, bo‘sh vaqtlarini maroqli o‘tkazish muhimligini bildirishdi. Maqola natijasidan ko‘rinib turubdiki imkoniyati cheklanganlar ham jismonan sog‘lom odamlardek motivlari va sayohat qilishga ehtiyoji borligi aniqlandi. Intervyu natijalari aniqlangan kamchiliglar tahlili esa imkoniyati cheklangan shaxslar turizmi (to‘siqsiz turizm) uning xizmatlarini ishlab chiqishga to‘sqinlik qiluvchi bir qancha to‘siq va qiyinchiliklar ko‘rib chiqildi. Bularga misol qilib maxsus turmarshrutlar, mehmonxona nomerlari, transportlar va ovqatlantirish vasitalari aniqlandi. Shu bois, turizm sohasi bilan shug‘ullanuvchi mutasaddi tashkilotlarga yanada ko‘proq sa’y-harakatlari, nogironligi bo‘lgan shaxslarning ehtiyojlarini qondirish uchun, ushbu sohaning rivojlanishini cheklab qo‘yayotgan muammolarni bartaraf etish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi. Buning sababi, to‘siqsiz turizm konsepsiyasi turizm sohasida nisbatan yaqinda paydo bo‘lganligi, imkonyati cheklanganlar uchun jozibador bo‘lishi va takomillashtirish konsepsiyasi istiqbollari ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot imkoniyati cheklangan shaxslar uchun to‘siqsiz turizm xizmatlarini tashik etish yo‘lidagi to‘siqlarni o‘rganib chiqdi. Shuningdek, tadqiqot namunasi javoblarida imkoniyati cheklanganlar toifasi, sayohat motivlari va turistik infratuzilmaga asoslangan nomutanosiblikni ko‘rsatdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, imkoniyati cheklanganlarning to‘siqsiz turizm xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlari yuqori. Yuqoridagi turizm bozorida to‘siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etish bo‘yicha kelib chiqqan muammolarni tahlil qilgan holda to‘siqsiz turizm sohasini mamlakatimizda yanada rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

1. Turistik obyektlar va muzeylarda imkoniyati cheklanganlar uchun maxsus “yashil” yo‘lakchalar va harakatlanishga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish uchun belgilar yetarlicha emas. Bularni tashkil qilish orqali imkoniyati cheklanganlarni mamalakatimizga tashrif buyurishga, jalb qilishga imkoniyat yaratadi.
2. Turniketlarda - jamoat hojatxonalarida, chipta olish joylarida, ovqatlantirish vositalarida to‘siqsiz kirish yoki smart kirish eshiklari yetarlicha o‘rnatilmagan. Xorij texnologiyasidan foydalanib kirish va chiqish harakatlarini to‘siqsizlashtirish mamlakatimizda to‘siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etishda samarali foyda beradi.
3. Mehmonxona nomerlarida ornatilgan jihozlarning juda past yoki baland o‘rnatilganligi, jamoat transportlarida imkoniyati cheklanganlar uchun kam sonli o‘rindiqlar o‘rnatilganligi ularga harakatlanish uchun kichik qiyinchilik va to‘siqlar keltirib chiqarmoqda. Bularni tog‘ri joylashtirish yoki transport o‘rindiqlarini sonini ko‘paytirishga tavsiya beriladi.
4. Ko‘p qavatli bino va xarid zonalarida imkoniyati cheklanganlar uchun maxsus liftlarning o‘rnatilmaganligi va jamoat joylarida maxsus elektr aravachalar yo‘qligi to‘siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etishda asosiy resurslardan biri bo‘lib xizmat qiladigan uskunalar muammosi sifatida qaralishiga olib keladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Cockburn-Wootten, Cheryl, and Alison McIntosh. 2020. Improving the Accessibility of Tourism Industry in New Zealand. Sustainability 12: 10478
2. Gillovic, Brielle, and Alison McIntosh. 2020. Accessibility and Inclusive Tourism Development: Current State and Future Agenda. Sustainability 12: 9722
3. Seonyoung Kim & Emmanuel Akwasi Adu-Ampong (11 Jan 2024): Disabilities, functionings and capabilities: the capability approach in accessible tourism, Current Issues in Tourism, DOI: 10.1080/13683500.2023.2300989
4. https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/01/persons-with-disabilities
5. Lise Wagner. Disabled People in the World in 2021: Facts and Figures. 28 May, 2021. URL: www.https://inclusivecitymaker.com/disabledpeople- in-the-world-in-2021-facts-and-figures
6. “Uzbekistan aims at a breakthrough in tourism development in 2019.” Travel Wire News. https://travelwirenews.com/uzbekistan-aims-at-abreakthrough-in-tourism-development-in-2019-1266618
7. Mustafa, Z., & Khayyat, H. (2020). Tourism for people with disabilities: requirements for travel, accommodation and tourist guidance. Baghdad: Dar Al-Sadiq Cultural Foundation
8. Rustamovich, Dehkonov Burhan. “QUALITY AND SAFETY OF PUBLIC CATERING SERVICES IN UZBEKISTAN.” European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)(2021/5/23): 19-23
9. Šintáková, O., & Lasisi, T. T. (2021). Travel Motivation and Barriers to Travel for People with Visual Impairments. Czech Journal of Tourism, 9(1), 54-67. DOI: 10.2478/cjot-2020-0004
10. Россия без барьеров: туризм, доступный для всех, Аникеева Ольга Александровна.
11. Popović, Damir; Slivar, Iva; Gonan Božac, Marli (2022) : Accessible tourism and formal planning: Current state of Istria County in Croatia, Administrative Sciences, ISSN 2076-3387, MDPI, Basel, Vol. 12, Iss. 4, pp. 1-20, https://doi.org/10.3390/admsci12040181

TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING INQIROZGA QARSHI BOSHQARUVIDA DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING AHAMIYATI

Todjimamatova Mashhura Erkinovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inqiroz, inqiroz tufayli yuzaga keladigan muammolar va ularni oldini olish, uning sabablarini o‘rganish, bu jarayonda iqtisodiyotning davlat tomonidan boshqarilishiga oid yondashuvlar, inqirozga qarshi boshqaruvda davlat siyosatining ahamiyati, iqtisodiyotga davlat aralashuvining tarixiy tajribalari, jahon miqyosida inqirozga qarshi davlat boshqaruvini o‘rganish va to‘qimachilik sanoati tarmog‘ini rivojlanishidagi inqirozga qarshi boshqarish omili sifatida davlatning roli haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: inqiroz, inqirozni boshqarish, inqirozni oldini olish, davlatni iqtisodiyotga aralashuvi, inqirozga qarshi davlat boshqaruvi, inqirozga qarshi siyosat, inqirozga qarshi choralar, to‘lovga qobiliyatsizlik, korxona raqobatbardoshligi, bankrotlik.

Abstract: This article examines the issue of the crisis, the problems caused by the crisis and their prevention, examines its causes, examines approaches to public economic management in this process, the importance of public policy in crisis management, the historical experience of state intervention in the economy, the study of crisis management on a global scale and mentions the role of the state as a factor in crisis management in the development of the textile industry.

Key words: crisis, anti-crisis management, anti-crisis prevention, state intervention in the economy, anti-crisis public administration, anti-crisis policy, anti-crisis measures, insolvency, competitiveness of the enterprise, bankruptcy.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос о кризисе, проблемах, вызванных кризисом, и их предотвращении, исследуются его причины, рассматриваются подходы к государственному управлению экономикой в этом процессе, значение государственной политики в антикризисном управлении, исторический опыт государственного вмешательства в экономику, изучение антикризисного государственного управления в мировом масштабе и упоминается роль государства как фактор антикризисного управления в развитии отрасли текстильной промышленности.

Ключевые слова: кризис, антикризисное управление, антикризисная профилактика, вмешательство государства в экономику, антикризисное государственное управление, антикризисная политика, антикризисные меры, несостоятельность, конкурентоспособность предприятия, банкротство.

KIRISH

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish tarixini tahlil qilish, ishlab chiqarishning chuqur pasayishi, moliyaviy notinchlik, ommaviy ishsizlik, keskin ijtimoiy va siyosiy mojarolarni boshdan kechirganliklarini ko‘rish mumkin. Qiyinchilik va katta xarajatlarga ega bo‘lgan ba’zi mamlakatlar, birinchilardan bo‘lib, iqtisodiy inqiroz tufayli yuzaga kelgan muammolarni yengib o‘tadi, ba’zilari esa iqtisodiy va ijtimoiy notinchlik bilan muvaffaqiyatli kurashish oqibatida qisqa vaqt ichida o‘zlarining iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarini keskin inqiroz sharoitlaridan olib chiqishga muyassar bo‘ladii.

Bugungi kunda jahondagi moliyaviy iqtisodiy inqirozlar ko‘plab mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Jahon mamlakatlari buni global muammolardan biri –deb hisoblaydi va asosiy e’tiborni muamoni yechimiga qaratmoqda. Iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish ko‘plab olimlar, mutaxassislar, ekspertlar tomonidan o‘rganib chilmoqda.

Inqiroz-taraqqiyotda orqaga ketish, tanazzul. Har qanday obyekt o‘zining rivojlanishi mobaynida paydo bo‘lish, ulg‘ayish, pasayish va halok bo‘lish bosqichlaridan o‘tadi. Har qanday tizim (obyekt)ning nisbatan yuqori darajada shakllangan holatidan quyi darajadagi holatga o‘tish jarayoni inqiroz davri deyiladi. Ijtimoiy tizimlardagi inqirozlarga differensial yondashish kerak. Iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy sohalardagi inqirozlar, odatda, mustaqil ro‘y beradi, ba’zan esa hammasi kompleks tarzda baravar bo‘ladi.

Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, jahon iqtisodiyoti oxirgi 50 yilda to'rt marotaba tashqi qarz to'lqinini boshidan kechirdi. Shundan, dastlabki uchtasi inqirozlar bilan yakunlandi. Ularning oxirgisi sifatida 2010-yildan buyon rivojlanayotgan mamlakatlarda qarz to'lqini - o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. 2018-yilda jami qarz 54 foiz punktga oshdi. Joriy past foizli stavkalar yuqori qarz muammolarini bartaraf etishda asosiy vosita bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunga qadar iqtisodiy inqirozlar turli moliyaviy instirumentlarning nobarqarorligidan kelib chiqqan shu bilan birga oxirgi paytlarda ro'y berayotgan inqirozlarni yuzaga kelishi tamomila o'zgacha tus olmoqda. Hozir iqtisodiy inqirozlarning kelib chiqish sabablarini o'rganamiz.

Korxonalarning inqirozga yuz tutishiga sabab biri inqirozga qarshi chora tadbirlarni o'z vaqtida ishlab chiqilmaganligi, korxonaning istiqbolli rejasining amaldagi holati zamon talablariga javob bermaganligi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifati va iste'mol darajasinig pastligi yoki yaroqsizligidir.

Davlat hokimiyati organlari va tashkilotlar rahbariyati inqiroz hodisalarining oldini olish va korxonalarning barqaror mavqeini ta'minlash vazifalariga duch kelmoqdalar, chunki ba'zi tashkilotlarning bankrotligi ko'pincha boshqalarning to'lov qobiliyatining yomonlashishiga olib keladi va zanjirsimon vaziyatni yuzaga chiqaradi. Inqirozga qarshi choralar tizimi yordamida inqiroz hodisalarining oldini olish yoki ularning tashkilotlar faoliyatiga ta'sirini yumshatish muammolarini hal qilish mumkin.

Inqirozni boshqarishning asosiy maqsadi uzoq vaqt davomida tashkilotning raqobatbardoshligini ta'minlash bo'lishi kerak, bu ishonchli moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish bilan, korxona oldidagi majburiyatlarni bajarish va kelagakdagi rivojlanishi uchun etarli mablag' olish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish korxonalarining to'lovga layoqatsizligi muammosi bozor munosabatlarining ko'plab subyektlarini tashvishga solmoqda. To'lovga layoqatsizlikni obyektiv baholash moliyaviy nochorlikning dastlabki diagnostik tahlili yordamida berilishi mumkin, bu esa to'qimachilik korxonalarining moliyaviy ahvoli yomonlashuvining asl sababini aniqlashga imkon beradi.

Korxona o'z-o'zini moliyaviy axvolini yahshilshga harakat qilish uchun mablag'larning etarliligini ta'minlashga imkon beradigan aniq tadbirlarni ishlab chiqish zaruratiga duch keladi. Diagnostik tahlil korxonaning inqiroz holatining sabablari va undan chiqishning mumkin bo'lgan yo'llari to'g'risida ma'lumot berishga mo'ljallangan bo'ladi. Rasmiy ravishda, tashkilot to'lovga qodir bo'lmaganda bankrot bo'ladi, shuning uchun korxonaning likvidlik darajasini boshqarish inqiroz menejerining asosiy vazifasidir.

Mamlakatimizdagi iqtisodiy o'zgarishlarning hozirgi bosqichida bankrotlikning oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. To'qimachilik sanoat korxonalarining iqtisodiy nochorligini bartaraf etish uchun korxonalarning to'lovga layoqatsizligi darajasini nazorat qilish zarur. Binobarin, inqirozni boshqarish mexanizmini shakllantirish tobora ko'payib borayotgan bankrotliklarning oldini oladigan vositalardan biri bo'lishi kerak.

Yuqorida aytilganlarning barchasi mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi va korxona inqirozining sabablari, tabiati va chuqurligini baholash, inqirozga qarshi boshqaruv dasturni ishlab chiqish, uning bajarilishini nazorat qilish va baholash uchun maxsus usullardan foydalangan holda tizim jarayonini chuqur o'rganish zarurligiga olib keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

Inqirozni boshqarish – bu tashkilotning maqsadlariga va uning rivojlanishining obyektiv tendentsiyalariga mos keladigan, inqirozning oldini olish yoki uni bartaraf etishga mo 'ljallangan jarayondir [1].

Inqirozni boshqarish-bu boshqaruvning bir turi bo'lib, u o'ziga xos texnologiya sharoitlari bilan ajralib turadi. Agar biq qancha lug'atlarni qarab chiqadigan bo'lsak, "inqiroz" so 'ziga quydagicha ta'riflar berilgan.

Inqiroz – bu juda qiyin yoki xavfli vaziyat.

Inqiroz – o'ta xavfli yoki qiyin beqaror vaziyat.

Inqiroz – bu juda salbiy oqibatlarga tahdid soladigan beqaror vaziyat.

Inqiroz – bu keskin salbiy o'zgarishlarga tahdid soladigan beqaror yoki tanqidiy holat [2].

Inqiroz – bu biror narsa yoki kimgadir bir yoki bir nechta o'ta jiddiy muammolar ta'sir qiladigan vaziyat.

Inqiroz – bu qiyin yoki xavfli vaqt bo'lib, uni tezda hal qilish kerak.

Inqirozni boshqarish-bu inqirozni oldini olish uchun korxonaga maqsadli ta'sir qilish va inqiroz yuzaga kelgan taqdirda uni ma'lum (doimiy emas) vaqt ichida lokalizatsiya qilish [4].

Inqirozbu ishlab chiqarishning ichki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, shuningdek, korxonaning tashqi iqtisodiy muhit munosabatlarining keskinlashuvidir [3].

Inqirozni boshqarish-bu kompaniya rahbarlari tomonidan inqirozning asosiy alomatlarini tahlil qilgan holda, inqirozning oqibatlaridan paydo bo'ladigan yo'qotishlarni taxmin qilib, samarali harakatlar qilishlari mumkin bo'lgan kompaniya boshqaruvidir.

Inqirozning yuzaga kelish sabablari, korxonalardagi inqirozlarni boshqarish muammolari xorijiy olimlardan T.Sinxa va Ch.Kastolarning tadqiqotlarida, tashxislash va inqirozga qarshi boshqaruvni prognozlashtirishning metodik jihatlari E.Al'tman, U.Biver, F.Bea, A.Makmin, D.Marshall, A.Tompson, Dj.Evans va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari: E.M.Korotkov, Ye.P.Jarkovskaya, K.V.Baldin, R.A.Popov, O.Yu.Patlasov, A.A.Belyaev, Ye.A.Faynshmidt, A.A.Gershanok, V.A.Gorbov, N.A.Lvova, K.V.Kondrateva, E.Ch.Shadueva va boshqa ko'plab mutaxassislarning asarlarida inqirozga qarshi boshqaruvning nazariy asoslari, inqirozga qarshi boshqaruv mexanizmi va inqirozga qarshi boshqaruvda tashxislash masalalari o'rganilgan.

O'zbekistonda iqtisodiy nochorlikni bartaraf etish, inqiroz sharoitida ishlab chiqarishni rivojlantirish, inqirozni bartaraf etish, sanoat korxonalarida risklarni boshqarish va korxonalarda inqirozga qarshi boshqaruvning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, to'qimachilik korxonalari raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashni boshqarish masalalari B.Yu.Xodiev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G'afurov, D.N.Raximova, N.Q.Yo'ldoshev, A.V.Vahobov, N.X.Jumaev, M.S.Ashurov, J.X.Kambarov, R.D.Alladustov va boshqa olimlarning ilmiy asarlarida o'z aksini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizim tahlili, ilmiy abstraktsiya va boshqa usullar keng qo'llanildi. Inqirozga qarshi boshqaruv bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bilamizki, bozor iqtisodiyoti sharoitida bozorning muhim elementi bu narx bo lib, narxning shakllanishi bozorda talab va taklif qonunlari asosida ro'y beradi. Klassik iqtisodchilar tomonidan ilgari surilgan bozor xech kimning aralashuvisiz, o'z-o'zini tartibga solib turadi kabi g'oyalari XX asrga kelib o'z kuchini yo'qota boshladi.

M.Keyns birinchilardan bo lib, mukammal iqtisodiy o'sishga erishishni faqat davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ta'minlay olishi mumkinligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi. Birinchi marotaba inqirozni tartibga solishni davlat doirasida olib borish, AQSHda 1930-yillarda sodir bo'lgan "Buyuk turg'unlik" nomini olgan inqiroz sharoitida yuzaga kelgan. O'sha paytlarda Keyns AQSHning prezidenti Ruzveltni maslahatchisi bo'lib ishlagan.

U inqirozga qarshi kurash vositasi sifatida davlat xarajatlarini ko'paytirish g'oyasini ilgari surdi.Uning fikricha, davlat buyurtmasini bajarish uchun ishchi qo'llar talab qilinadi va ular bu bilan o'z ehtiyojlari uchun kerakli narsalarni sotib olishga mablag'ga ega bo'ladilar. Tovarlar sotiladi, korxonalarda ishlab chiqarish to'xtab qolmaydi. Aksariyat hollarda ko'rishimiz mumkinki mamlakatlarda davlat xarajatlarining milliy ishlab chiqarishdagi ulushi, mamlakat qancha boy bo 'lgani sari shuncha yuqori bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, AQSHda biznes va bozorni ken ko'lamda qo'llab- quvvatlash amalga oshiriladi va davlatni iqtisodiyotga aralashuvu kam kuzatiladi.

Davlatning inqirozga qarshi iqtisodiy siyosatning fiskal, pul-kredit, tarkibiy (davlat korxonalari mulkini xususiylashtirish jarayoni orqali), sanoat, innovatsion, tashqi-iqtisodiy va ijtimoiy siyosatlarda ko'rishimiz mumkin.

Inqiroz davrida davlat boshqaruvi mavjud vaziyatlarga qarab o'zgarib borishi samarali hisoblanadi. Davlat tarmoqlar va korxonalar ustidan nazoratini kuchaytirgan holda mahsulot ishlab chiqarish va taqsimlash sohasida boshqaruvni markazlashtirishga harakat qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, inqiroz sharoitida davlatning roli sezilarli darajada oshadi.

Davlatning mamlakat iqtisodiyotida ishtirok etishining birinchi misollaridan biri XV asr oxiri – XVI asr boshlariga to'g'ri keladi.Tudorlar sulolasi davrida o'sha paytdagi ilg'or to'qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun ingliz ishlab chiqaruvchilarini himoya qiladigan bojxona bojlari joriy etildi, shuningdek, malakali hunarmandlar davlat xazinasi hisobidan sotib olindi. XVIII asr Buyuk Britaniyada import soliqlari, shuningdek, sanoatning eng muhim tarmoqlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida subsidiyalar muhim o'rin egallay boshladi.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlariga kelib,AQSH protektsionizm sohasida birinchi o'rinni egallay boshladi(o'sha paytda AQSHda sanoat mahsulotlari uchun eng yuqori bojxona to'lovlari o'rnatilgan), u o'sha davrda ma'lum bo'lgan barcha davlat tartibga solish vositalaridan, shu jumladan bojxona to'lovlari, subsidiyalar va davlat investitsiyalaridan foydalangan holda ilg'or sanoatni yaratishni maqsad qilib qo'ydi, yangi ixtirolarni rag'batlantirish uchun patent qonunini joriyl qildi.

Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyotini ham kuzatadigan bo'lsak, keskin suratlar bilan o'sib borayotgan iqtisodiyotning asosiy yo 'nalishlaridan biri to'qimachilik sanoatidir. Angus Maddison ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak ham 1913-yillarda Xitoyda bojxona to'lovlari dunyoda eng past ta'riflarda bo'lgan bo'lsa, 90-yillarga kelib eng yuqori tariflardan biri bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Yaponiyaning inqirozga qarshi boshqaruv tizimida to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat boshqaruvini, asosiy tarmoqlar va korxonalar bo‘yicha muomala, narx belgilash va aktsiyalarni taqsimlash jarayonlarini qat’iy nazorat qilish va tartibga solishni ko‘rishimiz mumkin.

Buyuk Britaniya tarixida ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik ko‘mir qazuvchi, po‘lat va to‘qimachilik sanoatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Inqirozni bartaraf etish maqsadida Markaziy Shotlandiyada moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish, mahsulot ishlab chiqarish quvvatini oshirishni ta’minlovchi, kafolatlar berish, zayom chiqarish, soliq imtiyozlarini taqdim etish, ishchilarni moddiy qo‘llab-quvvatlash kabi choralar qo‘llangan [5].

Buyuk Britaniya, Italiya, Chexiya kabi rivojlangan G‘arb mamlakatlarida aralash iqtisodiyotni yaratish uchun inqirozga qarshi samarali choralar sifatida xususiylashtirish dasturlari ko‘riladi.

Pandemiya sharoitida Rossiya Federatsiyasi ishsizlikni oldini olish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash maqsadida, biznes va fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash uchun imtiyozlar va mablag ‘ ajratishni joriy qila boshladi. Shuningdek, barcha soliqlarni kechiktirish, ijara to‘lovlarini kechiktirish va boshqalar joriy etildi.

O‘zbekistonda pandemiya sharoitida tibbiy xizmatlarning himoya niqoblari, xalat kombinezonlari, choyshablarga bo‘lgan ehtiyojning keskin o‘sishi, davlat tomonidan ushbu mahsulotlarga buyurtma oshirildi, bu esa bo‘sh turgan ishlab chiqarish quvvatlarini yuklash imkonini berdi.

2007-2013-yillarda Polshada depressiv hududlarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqildi. Ushbu dastur alohida hududlarni ularning keyingi rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan dolzarb muammolar nuqtayi nazaridan keng miqyosda baholashni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, dasturda hududlarning raqobatbardoshligi aspektlari, hamda inqirozni bartaraf etish dasturlarini yaratish to‘liq tahlil qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlikni faol davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va ichki bozorda raqobatni rag‘batlantirish siyosati davlat institutlarining yuqori samaradorligi bilan birga eng yuqori natijani beradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga normativ-huquqiy va ishlab chiqarish faoliyati (davlat kompaniyalari yoki davlat ishtirokidagi kompaniyalar orqali); xarajatlar va transferlarni amalga oshirish; soliq-budjet va pul-kredit siyosati faol ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda to‘qimachilik korxonalarining ahamiyatli ekanligini hisobga olib, tashqi inqiroz tahdidlariga qarshi turish katta iqtisodiy va tashkiliy samara berishi mumkinligini ta’kidlaymiz. Iqtisodiyotdagi inqiroz sharoitida ishlash xususiyatlarini hisobga olgan holda, to‘qimachilik korxonalarining inqirozga qarshi kurash strategiyasi har bir korxonaning boshqaruv mexanizmini ustuvor rivojlantirishga asoslanishi kerak.

So‘nggi yillarda iqtisodiyotning alohida sektorlariga ko‘proq e’tibor berish maqsadida islohotlar chuqurlashtirilayotgani ko‘zga tashlanmoqda. 2022-yil aprelida “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida” yangi qonun qabul qilindi. Hujjat muammoli, lekin faoliyat yuritishga qodir korxonalarni tarkibiy jihatdan o‘zgartirishni, ish o‘rinlari va mahsuldor tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan kapitalni himoya qilishni, shuningdek iqtisodiyotda bozor tamoyillariga o‘tishni tezlashtirishni rag‘batlantirishni maqsad qilib qo‘ygan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алексашкина Е.И., Василёнок В.Л., Негреева В.В. Антикризисное управление на предприятии. -СПб.: Университет ИТМО, 2015 – 92 с.
2. Демчук О.Н., Ефремова Т.А. Антикризисное управление: учеб. пособие. – М.: ФЛИНТА, 2009. –256 с.
3. Жарковская Е.п., Бродский Б.Е. Антикризисное управление. Учебник. – М.: “Омега-Л”, 2004. –С. 8.)
4. Кураксина, С. С., & Пряничникова, В. А. (2013). Основные понятийные аспекты антикризисного менеджмента в деятельности сельскохозяйственных предприятий. Вестник НГИЭИ, (11 (30)), 35-43.
5. Сидоренко А.С. Международный опыт антикризисного управления в проекции отечественной практики. Экономика и социум. №2 (45) 20www.iupr.ru
6. Todjimamatova , M.. (2024). To‘qimachilik korxonalarida inqirozga qarshi kurashish boshqaruvining afzalliklari. Modern Science and Research, 3(1). Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28171

MINTAQALARNING EKOLOGIK-IQTISODIY XUSUSIYTLARI VA ULARNING BARQAROR RIVOJLANISH BILAN BOG‘LIQLIGI



Toshboyev Muzaffar Muxtorovich
Toshkent Amaliy fanlari universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada mintaqalarning ekologik-iqtisodiy xususiytlari va ularning barqaror rivojlanish bilan bog‘liqligi o‘rganilgan bo‘lib, unda “barqaror tarqqiyoit” tushunchasi uni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlari bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlar fikrlari o‘rganilgan va tizimlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: mintaqa, barqaror rivojlanish, iqtisodiy-ekologik tizimlar, “iqlim o‘zgarishi”, “yashil” iqtisodiyot.

Abstract: The article examines the ecological and economic features of the regions and their connection with sustainable development. The opinions of foreign and domestic scientists on the concept of “sustainable development”, its economic, social and environmental aspects have been studied and systematized.

Key words: region, sustainable development, economic-ecological systems, climate change, green economy.

Аннотация: В статье рассматриваются эколого-экономические особенности регионов и их связь с устойчивым развитием. Изучены и систематизированы мнения зарубежных и отечественных ученых понятия “устойчивое развитие”, его экономические, социальные и экологические аспекты.

Ключевые слова: регион, устойчивое развитие, экономико-экологические системы, “изменение климата”, “зеленая” экономика.

KIRISH

Birlashgan Millatlar Tashkiloti har yili davlatlar ishtirokida iqlim o‘zgarishi muammolariga bag`ishlangan sammit o‘tkazadi(Conference of the Parties COP27). Bu sammit 1992-yilda 197 davlat tarafidan BMT iqlim o‘zgarishi konvensiyasiga qabul qilingandan boshlab o‘tkazib kelinmoqda. Konvensiyaning asosiy maqsadi – yerning iqlim tizimiga xavfli antropogen ta’sirning oldini olishga bag‘ishlangan. Birinchi COP 1995-yilda Ispaniyada bo‘lib o‘tgan бўлса, 2023-yilda COP 28 [1] Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida o‘tkazildi. Unda 200 ga yaqin davlat vakillari ishtirok etgan konferentsiya birinchi marta qazib olinadigan yoqilg‘idan voz kechish zarurligini e’tirof etib, global hamkorlikni namoyish etdi. Bunda Xalqaro metereologiya tashkiloti ekspertlarining tavsiyasi bo‘yicha yer sharida havo tempuraturasini 1,5 gradusdan oshirmaslikka va uning salbiy oqibatlariga baho berilgan [2]. O‘zbekiston Respublikasi 2015-yildan keyingi davrda BMT tomonidan 2030-yilga mo‘ljallangan 17 ta maqsad va 169 ta vazifalardan iborat barqaror taraqqiyot dasturini qo‘llab-quvvatlab, barqaror rivojlanishning uchta sohalari (iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy) bo‘yicha kompleks ishlarni olib borishini ma’lum qildi [3].

So‘nggi paytlarda mintaqalarni tahlil qilishda tizimli yondashuvdan foydalanish faollashdi, bu birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tizimlar sifatida o‘rganishda namoyon bo‘ladi. Respublika mintaqalarini iqtisodiy-ekologik jihatlarini hisobga olgan holda hududiy barqaror rivojlantiish ahamiyati oshib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “...islohotlarimizning uzviyligi va davomiyligini ta’minlash maqsadida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosiy g‘oya va bosh mezon sifatida kun tartibiga qo‘yildi. Yangi O‘zbekistonnning taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi” [4]. Shu jihatdan, mamlakat va uning hududlarida iqtisodiy salohiyatni oshirish, hududlarda samarali iqtisodiy-ekologik tizimni shakllantirish, ishlab chiqarishning turli yo‘nalishlarini rivojlantirish orqali hududlar ekologik xavfsizligini ta’minlagan holda barqaror rivojlantirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hudud iqtisodiyotini barqaror rivojlanishi zamonaviy iqtisodiyotning fundamental kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Bu holning tan olingani, anglab yetilgani va ilmiy sharhlashga bo‘lgan intilish mintaqashunoslik yo‘nalishining iqtisodiy fanlar tizimi doirasida mustaqil ajralib chiqishiga sabab bo‘ldi (I.Tyunen[5], A.Veber, V.Kristaller [6] hamda boshqa olimlarning asarlaridan boshlab mintaqa to‘g‘risida iqtisodiy kategoriya sifatidagi nazariy-metodologik tasavvurlarning shakllanishiga yordami berdi.

Hozirgi paytda mavjud bo‘lgan nazariy yondashuvlar va modellarni (bular A.Veberning transport xarajatlarini minimallashtirish nazariyasi, G.Xotellinning fazoviy raqobat modellarining tahlili, V.Kristallerning [6] mintaqaviy tuzilmalar nazariyasi, U.Izardning [7] mintaqalararo modellar nazariyasi va b.) batafsil tahlil qilgan holda, bozor sharoitlariga xos bo‘lgan taraflariga e’tibor beramiz.

A.G.Granberg [8] fikriga ko‘ra “mintaqa” deganda boshqa hududlardan o‘zining bir qator belgilari bilan farq qiladigan hamda o‘zining tarkibiy elementlarining birmuncha zichligi, o‘zaro bog‘liqligi bilan boshqa hududlardan ajralib turadigan muayyan hududni tushunadi.

V.Kistanovning fikriga ko‘ra, “mintaqa” deganda integratsion kuchlar va jarayonlar o‘zaro birlashib ketgan holda tashkillashtirilgan, muayyan toksonomik darajada takrorlanish rejimida amal qiladigan hududiy cheklangan iqtisodiy butunlikni tushunish zarurligi ta’kidlangan [9].

Bunday yaxlitlik bir tomondan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mintaqa “ichida”gi o‘zaro munosabatlarini, ikkinchi tomondan tegishli milliy xo‘jalik komplekslari doirasida ham, bir butun global iqtisodiyot doirasida ham ko‘p jihatli mintaqalararo munosabatlarni keltirib chiqaradi. Bularning hammasi hududiy raqobatchilik jarayonini paydo qiladi, mintaqalarning raqobatchilik muhitidagi rivojlanish imkoniyatlarini va ularning raqobatbardoshlilik darajasini belgilaydi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi – kelajak avlod ehtiyojlarini inobatga olgan tarzda hozirgi zamon kishilik jamiyatining o‘zaro uzviy bog‘langan ekologik xavfsiz, iqtisodiy ta’minlangan, ijtimoiy muhofazalangan va institutsional birlashgan hayot tarzini shakllantirishni o‘z ichiga olgan g‘oyalar tizimidir [10].

Yangi rivojlanish modelini shakllanish jarayonida barqaror rivojlanish paradigmasining evolyutsiyasi “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi yaratilishiga olib keldi va jamiyat tabiat tizimlari bilan birga ham ohang rivojlanishi e’tirof etildi [11]. “Global “yashil” iqtisodiyot” konsepsiyasi BMTning atrof-muhit dasturi (2009-yil) doirasida taklif etildi [12].

Uning asosiy mohiyati rivojlanishni kam uglerodli iqtisodiyotni rivojlantirishga yo‘naltirish va rag‘batlantirishga, ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga va ekologik talablarga javob beradigan transport vositalarini yaratishga va qo‘llashga, energiya samaradorligini ta’minlashga va iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq masalalarni hal etishga qaratilgan [13].

Barqaror taraqqiyot muammosi ikki asosiy yo‘nalishda rivojlanmoqda: birinchisi – bu jamiyatni barqarorlik prinsiplari asosida rivojlantirish maqsadlarini belgilab olish va ularga erishishni ta’minlaydigan shart-sharoitlarni aniqlashdir; ikkinchisi – barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlovchi omillarni o‘rganish [14].

Barqaror taraqqiyot deganda doimiy miqdoriy o‘sish kabi tom ma’nodagi barqarorlik emas, balki ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlar(triada) inobatga olingan holda “nizosiz” rivojlanish nazarda tutiladi. Oxirgi vaqtda xorijda inklyuziv barqaror o‘sish konsepsiyasi (inclusive sustainable growth) ancha mashhur bo‘ldi. Uning asosiy qoidalari, shu jumladan, iqtisodiyot o‘sishi sur’atlari va keng doiradagi ijtimoiy muammolar hal etilishi o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligi, shu jumladan jamiyatda yaratilgan daromadlarni adolatli taqsimlash, bunda aholining nochor qatlamlariga alohida e’tibor qaratish to‘g‘risidagi xulosa dastlab XX asr 80-yillarida olimlar tomonidan ishlab chiqildi [15].

Mintaqa iqtisodini barqaror rivojlantirish masalasiga va uning mezoiqtisodiy jihatlariga e’tibor qaratgan holda, shuni alohida ta’kidlash lozimki, bu, eng avvalo bozor iqtisodiyotiga xosdir. Bunda bazaviy shart-sharoitlar va raqobatchilik prinsiplari mezoiqtisodiy tizimlar uchun ham, mikroiqtisodiy tizimlar uchun ham asosan bir xil bo‘lib qoladi, o‘z vazifasini samarali ijro eta olish qobiliyati, bozordagi o‘z ulushiga ega bo‘lish, uni saqlab qolish va oshirish kabi jihatlar birinchi o‘ringa chiqadi.

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti globallashayotgan iqtisodiyotdir, u yagona, tuzilishiga ko‘ra nihoyatda murakkab va nihoyatda yuqori darajadagi raqobatchiligi bilan ajralib turadigan mikro darajadagi tizimni taqozo etadi.

Ushbu tizimning yuzaga kelishi va parametrik xarakteristikalari bozor raqobatchiligiga ham, uning mezoiqtisodiy jihatiga ham tobora ko‘proq ta’sir ko‘rsatmoqda, raqobatbardoshlik hodisasi to‘g‘risidagi tasavvurlarning rivojlanishi va diversifikatsiyasiga yordam bermoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli va statistik tahlil, kuzatish, guruhlash, taqqoslash, ilmiy bashoratlash va mantiqiy yondashuv usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish asosini tashkil qilgan hamda o‘tgan asrning 50-60-yillarida bir butun takror ishlab chiqarish tizimi sifatida yuzaga kela boshlagan va prognozlarga ko‘ra, XXI asrning ikkinchi o‘n yillik oxirlariga kelib, o‘zining pozitiv potensialini ishlatib bo‘ladigan texnologik tizimning kelajakda muqarrar ravishda boshqasiga almashinishi obyektiv tarzda asimmetriyaning o‘sishiga (bu jarayon, shu jumladan, an’anaviy texnologiyalarning nisbatan qadrsizlanishi bilan qo‘shilib keladigan “megatexnologiyalar” deb ataluvchi texnologiyalarning tarqalishi hisobiga ham sodir bo‘ladi) olib keladi.

Umuman olganda, M.Porterning nazariy qarashlarida, “...jahon iqtisodiyoti sharoitida raqobatdagi barqaror ustunliklar ko‘p hollarda va ko‘proq darajada mahalliy ko‘rinishga ega bo‘lib, yuqori darajada ixtisoslashgan kasbiy malaka va bilimlar, institutlar, raqiblar, o‘zaro bog‘langan iqtisodiy faoliyat turlari, shuningdek, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi tajribali iste’molchilarning bir yerda to‘planishidan yuzaga keladi. Geografik, madaniy va tashkiliy jihatdan yaqinlik axborotdan maxsus foydalanish imkoniyati, alohida munosabatlar, axborotga to‘liq ega bo‘lish, samarali rag‘batlantiruvchi omillarning yuzaga kelishi, ko‘plab afzalliklarni ta’minlab beradi Geografik holat, avvalgi o‘n yilliklardagidan boshqacharoq ma’noda bo‘lsa-da, XXI asr chegarasida ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda” [16].

A.Nizomovning fikriga ko‘ra, “...iqtisodiyotni mintaqaviy boshqarishning asosini mintaqaviy takror ishlab chiqarish jarayoni tashkil etadiki, u, bir tomondan, ijtimoiy takror ishlab chiqarishning tarmoq tizimlari sifatida belgilansa, boshqa tomondan, yakka-yakka takror ishlab chiqarish jarayonlarining korxona darajasidagi integratsiyasi sifatida belgilanadi, bu esa, o‘z navbatida, mintaqa iqtisodiyotining kompleks rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni belgilab beradi” [17].

P. Krugmanning fikriga ko‘ra, iqtisodiyotni barqaror rivojlanishiga tavsif berganda, sektoral “...tuzilma (xizmatlarning ahamiyatini sanoatga qaraganda ko‘tarish), innovatsiyalar, hududning qaror qabul qilishda ishtiroki, yuqori texnologik ishlab chiqarish va yuqori malakali ishchi kuchining konsentratsiyasi (ishchi kuchining yashash va faoliyat ko‘rsatish muhiti va xizmatlarga nisbatan o‘ziga xos talab bo‘lgan holda), aholi daromadlari va bandlik darajasi va boshqalar kabi parametrlar bilan ish ko‘rish lozim bo‘ladi” [18]. B. Singx raqobatbardoshlikning sanoat va chakana savdoda yalpi qo‘shimcha qiymat hamda biznes-xizmatlarning yalpi qiymati kabi jihatlariga e’tibor qaratadilar [19]. I.Begg o‘zining ilmiy izlanishlarini aholining yashash darajasi indikatorlari bilan to‘ldirilgan ishlab chiqarish unumdorligi va bandlikka qaratadi [20].

M.Porterning [16] ilmiy izlanishlari natijasi shuni ko‘rsatadiki bunda, firmalar uchun raqobatda ustunlikni yaratishda mintaqaning roli muhim bo‘libgina qolmay, balki u, “mintaqaviy romb” hosil qiladigan to‘rtta o‘zaro bog‘langan yo‘nalishlar (determinantlar) bo‘yicha tadqiq etilishi lozim. Bular: omillar parametrlari; talab shartlari; turdosh sohalar; firmalar strategiyalari, ularning tuzilishi va raqobatchiligidir.

Mintaqaning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishi shu mintaqada joylashgan firmalarning raqobatbardoshligiga bog‘liq ekan, uning ta’minlanishi zarur bo‘lgan shart-sharoitlarning taqdim etilishiga, ushbu hududda faoliyat ko‘rsatayotgan mikroiqtisodiy subyektlar raqobatbardoshligining qo‘llab-quvvatlanishiga bog‘liq. Biroq ushbu korxonalarni mintaqaga jalb qilish va keyinchalik ularni hududda faoliyat ko‘rsatishi uchun firmalarga ularning raqobatbardoshlik muhitini yaratib berish zarur. “Barqaror rivojlanish” tushunchasining megodarajaga nisbatan qo‘llab sharhlaydigan bo‘lsak, u iqtisodiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida turlicha talqin qilinayotgan “hududiy raqobatchilik” tushunchasiga to‘la mos keladi. Ba’zi bir hollarda “..mintaqalar raqobatbardoshligi odatda mamlakat barqaror rivojlanishi bilan birga qaraladi va ishsizlikni imkon darajasida pasaytirish hisoblanadi [20].

Hududlar quyidagi barqaror ikkita asosiy o‘zaro bog‘liq jihatni aniqlab olish mumkin:


- tarmoq (iqtisodiy faoliyatning alohida sohalarida kechadigan raqobat);
- integral (mezoiqtisodiy shart-sharoitlarning, ya’ni eng samarali ijtimoiy takror ishlab chiqarishni joylashtirish va tashkil etish nuqtai-nazaridan eng maqbul muhitning o‘ziga xos raqobati, bu raqobat investitsiyalar, yuqori texnologiyalar, “inson kapitali” va boshqalarda yaqqol namoyon bo‘ladi).

Mintaqa iqtisodiyotida iqtisodiy barqaror rivojlanishning global, mintaqaviy va hududiy darajalari aniqlanadi. Iqtisodiy barqaror rivojlanish makro va mezoiqtisodiy shart-sharoitlarning jami yig‘indisi, hududiy mahalliylashgan tizimlarning rivojlanishi va transformatsiyasi avvaldan belgilab berar ekan, uning ko‘rinishi o‘zgaruvchan va chegaralangan bo‘ladi. Shuning uchun, uning qisqa, o‘rta va uzoq muddatli turlarga ajratish mumkin (1-rasm).

Xulosa qilib aytish mumkinki, mintaqaviy iqtisodiy siyosatni oqilona boshqarish, bunda asosan mamlakatimiz hududlarini geologik jihatdan o‘rgangan holda bir sohaga jalb qilish muhim deb hisoblaymiz.

Shuningdek, mintaqaning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishi shu mintaqada joylashgan firmalarning raqobatbardoshligiga bog‘liq ekan, uning ta’minlanishi zarur bo‘lgan shart-sharoitlarning taqdim etilishiga, ushbu hududda faoliyat ko‘rsatayotgan mikroiqtisodiy subyektlar raqobatbardoshligining qo‘llab-quvvatlanishiga bog‘liq. Biroq ushbu korxonalarni mintaqaga jalb qilish va keyinchalik ularni hududda faoliyat ko‘rsatishi uchun firmalarga ularning raqobatbardoshlik muhitini yaratib berish zarur.

ПРОГРЕСС PROGRESS TARAQQIYOT



1-rasm: Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini tasnifi[1]

Xozirgi paytda jahon iqtisodiyotining rivojlanishi yangi modelini yaratish va tatbiq etishda, mamlakatlarning modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish bilan bog‘liq tadqiqotlarda global ekologik o‘zgarishlar hisobga olinmoqda va “Yashil” iqtisodiyot shakllanishi ustuvor maqsad etib qo‘ymoqda [21].

Islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish, barqaror rivojlanishga erishishda ko‘p jihatdan mamlakat ichki mintaqalari taraqqiyotiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Hozirgi davrda ishlab chiqarishni to‘g‘ri hududiy tashkil qilish, mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Barqaror rivojlanishning ilmiy-nazariy asoslari hanuzgacha umume’tirof etilgan tarzda ochib berilmagan. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib biz tadqiqotchi M.Adilovaning fikriga qo‘shilamiz, uning fikricha barqaror rivojlanish, makro, mezo va mikro darajada dinamik rivojlanish maqsadida jamiyatning xususiyat, mohiyat va tarkibiy qarashlar tizimi bo‘lib, u global, mintaqaviy va milliy miqyosdagi jamiyatning iqtisodiy ta’minlangan, ijtimoiy muhofazalangan, ekologik xavfsiz jamiyatning hayot tarzidir [22].

Mintaqalar barqaror rivojlanish iqtisodiy-ekologik jihatlari quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi lozim:

- hozirgi va kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanishning teng imkoniyatlarini ta’minlash;
- ishlab chiqarish kuchlarining tuzilishi va joylashishi tabiat rssurslari holati bilan muvofiq kelishini o‘z vaqtida ta’minlash;
- ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishning eng samarali yo‘nalishlarini belgilash;

1 Ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

- tabiiy resurslardan ratsional foydalanish va ularni takror ishlab chiqarish bo‘yicha tadbirlar tuzilmasini, hajmini va joylashishini asoslash;
- resurslardan foydalanish, ularni asrash, yaxshilash, muhofaza qilishda ilmiy-texnika taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash;
- xomashyo va chiqindilardan majmuali foydalanish tadbirlarini asoslash;
- aholining yashashi, faoliyati, dam olishi uchun normal sharoitni ta’minlash, hududlarning ratsional ekologik infratuzilmasini tashkil etish.

XULOSA

1) iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda ishlab chiqarishni to‘g‘ri tashkil qilish, mintaqalarning yer-suv, mineral xomashyo va mehnat resurslaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) BMT boshchiligidagi uzoq, ko‘p tarmoqli va ishtirokchi jarayon tomonidan ishlab chiqilgan maqsadlardir. Shu bois, tabiiy resurslardan maqsadga muvofiq foydalanish, ularni asrash va muhofaza qilish dunyoning barcha mamlakatlari va mintaqalari barqaror rivojlanishining asosiy shartidir;
2) hududlarning iqtisodiy salohiyatidagi tafovutlar bir qator obyektiv sabablar – bozor islohotlarining dastlabki davridagi mintaqaiy rivojlanish darajasi, mintaqaning innovatsion jozibadorligi, infratuzilma darajasi va boshqa omillar bilan izohlanadi;
3) respublikamizda mintaqalar iqtisodiyotini samarali tashkil qilish, ya’ni, xomashyo ishlab chiqarishga qaratilganlikni bartaraf etish, ishlab chiqarish-texnologik qayta qurish, shuningdek, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, infratuzilmasini takomillashtirish, xizmat ko‘rsatish, turizm sohalarini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kengaytirish maqsadga muvofiq;
4) hududiy taraqqiyotning umumiy darajasi, hudud iqtisodiyoti asosiy tarmoqlarining holati, hududning moliyaviy holati, Investitsion faollik, aholi daromadlari darajasi, bandlik va mehnat bozori, ijtimoiy soha holati, ekologik vaziyat hududiy diagnostika ko‘rsatkichlari va shular asosida hududlar reytingini hamda rivojlanish indeksini aniqlash, metodologiyasini takomillashtirish imkonini beradi. Murakkab ekologik vaziyatli hududlarni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanishining xorijiy tajribasi va mintaqa rivojlanish strategiyasini shakllantirish asosida hududlar iqtisodiy barqarorligini ta’minlash vositalarini chuqur tadqiq etishni talab etadi;

- barqaror rivojlanishning maqsadlari aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan. Bular:
- qashshoqlikni har qanday shakllarini keng masshtabda bartaraf etish;
- ocharchilikni tugatish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish;
- har qanday yoshda sog‘lom turmush tarzini ta’minlash va farovonlikni oshirish;
- umumqamrovli va adolatli sifatli ta’limni ta’minlash hamda barchaga butun umri davomida ta’lim olish imkoniyatini rag‘batlantirish;
- gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish;
- samarali bandlikni oshirish va hamma uchun munosib ish bilan ta’minlash asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o‘sishga ko‘maklashish;
- shahar va qishloqlarning ochiqligi, xavfsizligi, yashash uchun qulayligi va barqarorligini ta’minlash kabi maqsadlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.un.org/ru/climatechange/cop28
2. https://www.un.org/en/climatechange/cop27
3. www.trend.az/casia/uzbekistan/2438516.htm
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –T.:”O‘zbekiston” nashiryoti. –2021-y. –461 b.
5. Тюнен И.Г. Изолированное государство. Москва, Экономическая жизнь.,
6. Вебер, А., Хоутеллінг, Г., Кристаллер, В., Куклінський, А., & Робсон, П. Теоретико-методологічні основи регіоналістики.
7. Izard U. Methods of Regional Analysis: Introduction to the Science of Regions. Moscow: Progress. – 1966.
8. Гранберг.А. Основы региональной экономики. –М.: ГУВШЭ, –2000. –с.589.
9. Кистанов В., Копылов Н. Региональная экономика России. М.: Финансы и статистика.–2002, –с.584.
10. Nigmatov A Barqaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari //Monografiya. –T.: Spectrum Media Group. – 2015. – T. 120.
11. Перелет Р. А. Направления стратегии “зеленого роста”.//rospromeco.com/expertnoe-mnenie/28-analytic/expertnoe-mnenie.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

12. Глобалный зеленый новый курс. Доклад, ЮНЕП, 2009.
13. Isadjanov A.A. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ekologik jihatlari. Monografiya. –TDIU. Ilmiy tadqiqot markazi. –2020. 137-138 b.
14. Lyaskovskaya Ye.A. Vestnik Bashkir State Agrarian University, –2017, no. –4 (44), pp. –137- 145.
15. Pakhomova N.V., Rikhter K.K., Malyshkov G.B. Inclusive sustainable development: priorities, indices, international experience, potential of coordination with reindustrialization model. Problems of modern economics, 2014, no. 3(51), pp. 15-24. (in Russ.)
16. Портер М. Международная конкуренция. – Москва: Международные отношения, –2005. – 859 с.
17. Nizamov A.A. Mintaqa iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan takomillashtirish yo'llari (Buxoro viloyati misolida): I.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: O'MU, 2021. – 58 b.
18. Krugman P. Geography and Trade, Gambridge MIT Press,1991
19. Kresl P.K., Singh B. Competitiveness and the Urban Economy // Urban Studies. 1999. Vol. 36. –№ 5-6.
20. Begg I., van der, Braun E. Urvan Competitiveness, Marketing and the Need for Organising Capacity // Urban Studies. 1999. Vol. 36. № 5 – 6.
21. Entrepreneurship and Local Economic Development Policy. OECD Publication Service, Paris, 2003.
22. Адилова М.Т. O'zbekiston mintaqalarini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik jihatlari// 08.00.12 "Mintaqaviy iqtisodiyot" Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Автореферати
23. Bloomberg NEF and United Nations Environment Programme (UNEP), REN21. Renewables 2020 Global status report. –Paris-2020. –P. 166.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ

Tsoy Marina Petrovna
PhD, Джизакский филиал Национального университета, доцент



Li Marina Rudolfovna
PhD, Профессор кафедры Корпоративная экономика и менеджмент, Ташкентский государственный экономический университет



Romashkin Roman Anatolyevich
PhD, Заместитель директора ЕЦПП, МГУ им М. Ломоносова 119991, Россия

Аннотация: В статье анализируется понятие сферы услуг как экономической категории. Проанализирована роль сферы услуг в экономике стран мира и Узбекистана. Тенденции развития сферы услуг в 2017-2022 гг. полностью изучены по основным видам. Проанализирована динамика предприятий и организаций, работающих в данной сфере в последние годы. В анализе отмечены предприятия и организации с большой долей производства по основным видам услуг. Выделены перспективы дальнейшего развития сферы услуг.

Ключевые слова: сфера услуг, оказанные рыночные услуги, связь и информатизация, финансовые услуги, транспортные услуги, услуги в сфере образования, услуги в сфере здравоохранения, электронная коммерция, услуги диспетчерских служб, услуги кейтеринга.

Annotatsiya: Maqolada xizmatlar sohasi tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida tahlil qilingan. Jahon mamlakatlari hamda O‘zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sohasini tutgan o‘rni tahlil qilingan. Xizmatlar sohasining 2017-2022-yilllarda rivojlanish tendensiyalari asosiy turlari bo‘yicha to‘liq o‘rganilgan. Oxirgi yillarda ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar dinamikasi tahlil qilingan. Tahlillarda xizmatlar asosiy turlari bo‘yicha katta ulushga ega korxona va tashkilotlar keltirib o‘tilgan. Xizmatlar sohasini kelajakda rivojlantirish istiqbollari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xizmatlar sohasi, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, transport xizmatlari, ta’lim sohasidagi xizmatlar, sog‘liqni saqlash xizmatlari, elektron tijorat, dispetcherlik xizmatlari, keytering xizmatlari.

Abstract: The article analyzes the concept of the service sector as an economic category. The role of the service sector in the economy of the countries of the world and Uzbekistan is analyzed. Trends in the development of the service sector in 2017-2022 have been fully studied by the main types. The dynamics of enterprises and organizations working in this field in recent years has been analyzed. The analysis identifies enterprises and organizations with a large share of the main types of services. Prospects for further development of the service sector are highlighted.

Key words: service sectors, market services, communications and informatization services, financial services, transport services, education services, health services, e-commerce, dispatch services, catering services.

ВВЕДЕНИЕ

За годы независимости Узбекистан добился значительных успехов в развитии экономики, в частности сферы услуг. Этот сектор в нашей стране становится все более диверсифицированным и в нем отмечается высокий рост отдельных видов услуг.

В целом сфера услуг в Узбекистане демонстрирует многообещающую динамику с широчайшими возможностями для дальнейшего роста и развития. Усилия правительства по поддержке этого сектора экономики, включая инвестиции в инфраструктуру, а также финансовые стимулы и благоприятные условия для ведения бизнеса, вероятно и дальше будут способствовать интенсивному его росту в ближайшие годы.

Сектор услуг играет важную роль в экономическом росте страны, создавая дешевые рабочие места, обеспечивая занятость и сокращая бедность. По расчетам Международной организации труда, увеличение сферы услуг на 1% снижает уровень бедности в среднем на 1,5%. Это особенно важно для нашей страны, население и трудовые ресурсы которой увеличиваются день ото дня.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Вопросам места и роли сферы услуг в современной экономической теории, в том числе вопросам терминологии, много места уделялось в трудах таких известных ученых-экономистов, как Ф. Котлер [1], О. Н. Балаева и М. Д. Предводителева [2] и др.. Роль сферы услуг в экономическом развитии показана в научно - исследовательских работах наших ученых - экономистов С.С.Гулямова, Б.А.Бегалова, Б.К.Гаипназарова и др.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

По мере развития общества и роста производительных сил происходит определенное развитие данной сферы. Наблюдаются увеличение в ней занятости, рост технической оснащенности труда, внедрение все более совершенных технологий.

Важная закономерность развития экономики во всем мире - это взаимосвязь экономического роста и повышения роли услуг в национальной экономике, что находит свое выражение в возрастании доли трудовых, материальных и финансовых ресурсов, используемых в сфере услуг.

В настоящее время роль сферы услуг, как одного из важнейших секторов экономики, весьма велика и актуальна. Это, в частности, связано с усложнением производства, насыщением рынка товарами как повседневного, так и индивидуального спроса, быстрым ростом научно-технического прогресса, который ведет к нововведениям в жизни общества.

Все это невозможно без существования информационных, финансовых, транспортных, страховых и других видов услуг. Кроме того, услуги являются неотъемлемой составной частью торговли товарами (особенно технически сложными), так как сбыт товара требует все более развитой сети, которая в основном состоит из услуг, оказываемых во время реализации и услуг послепродажного обслуживания.

Безусловно, создание новых предприятий и организаций, а также использование инновационных технологий и расширение перечня оказываемых услуг действующими предприятиями и организациями и в дальнейшем будут способствовать увеличению рабочих мест и повышению благосостояния населения.

Сфера услуг весьма многогранна и она включает в себя различные виды деятельности, которые помогают повысить производительность труда и достичь эффективности производства. Итоговым результатом такой деятельности становится не готовый продукт, а оказание услуг, которые могут предоставляться не только предприятиям, но и физическим лицам – конечным потребителям.

Сегодня сфера услуг входит в тройку самых крупнейших экономических сфер. Так, по результатам исследования Всемирного банка США являются одной из крупнейших экономик мира и имеют хорошо развитый сектор услуг. В 2021 году на этот сектор (на добавленную стоимость) приходились 77,6 % от ВВП страны.

За 2021 год добавленная стоимость сферы услуг в ВВП Швейцарии составила 71,92 %, Великобритании - 71,46 %, Франции – 70,34 %, Австралии - 65,65 %, Германии - 62,88 %, Бразилии – 59,38 %, Китае – 53,31 %, России – 52,91 %.

В Узбекистане за 2021 год доля добавленной стоимости услуг в ВВП составила 39,6 %, а по предварительным данным за 2022 год - 41,5 %.

Во многих развитых и развивающихся странах на сферу услуг приходится более 50 % трудоустроенного населения. В Узбекистане этот показатель составил за 2021 год – 51,0 %.

За 2017-2022 годы в Узбекистане число действующих предприятий и организаций (таблица 1), функционирующих в сфере услуг, по состоянию на 1 января возросло на 208,3 тыс. ед. (в 2017 г. - 184,5 тыс. ед., 2022 г. - 392,8 тыс. ед.), из них субъекты малого предпринимательства на 197,8 тыс. ед. (в 2017 г. - 128,0 тыс.ед., 2022 г. - 325,8 тыс. ед.).

Талица 1: Количество действующих предприятий и организаций по отраслям экономики (без дехканских и фермерских хозяйств, по состоянию на 1 января), ед.

	2018 г.	2023 г.	Темпы роста в 2017-2022 гг.
Всего	**285 531**	**592 371**	**2,1**
сельское, лесное и рыбное хозяйство	21 019	53 808	2,6
промышленность	49 185	98 805	2,0
строительство	24 118	46 971	1,9
торговля	63 199	182 917	2,9
услуги	191 209	392 787	2,1
из них субъекты малого предпринимательства	136 763	325 809	2,4

Источник: разработано авторами на основе данных siat.stat.uz

Число вновь созданных предприятий и организаций, относящихся к сфере услуг, возросло с 19,7 тыс. ед. в 2017 году до 60,6 тыс. ед. в 2022 году. За 2022 год доля вновь созданных субъектов малого предпринимательства, задействованных в сфере услуг, составила 94,4 % (57,2 тыс. ед.).

В последние годы широкомасштабная работа по созданию достойных условий жизни населения, улучшению деловой среды, обеспечению занятости за счет поддержки социально-экономического развития страны, активного предпринимательства, инновационных идей и творческого потенциала привела к увеличению числа предприятий, работающих в сфере услуг.

В ходе реализации основных задач и направлений по развитию сферы услуг в республике, за 2017-2022 годы объем рыночных услуг возрос в 1,9 раз и достиг 357,6 трлн. сум. Объем оказанных услуг на душу населения за этот период вырос в 1,7 раз и составил 10,0 млн. сум.

Динамика развития сферы услуг за 2017–2022 годы свидетельствует о положительных тенденциях развития основных видов услуг (таблица 2).

За последние годы в Узбекистане стремительными темпами развивается сектор информационных технологий (ИТ). В республике для развития ИКТ-инфраструктуры активно привлекаются инвестиции, в том числе для расширения услуг широкополосного доступа в Интернет и строительства новых центров обработки данных. Правительство также поддерживает развитие отрасли ИКТ, предоставляя налоговые льготы и создавая благоприятные условия для стартапов. Это, в частности, помогло создать динамичную ИКТ-экосистему в Узбекистане с множеством молодых предпринимателей и инновационных стартапов.

За 2017-2022 годы общий объем услуг связи и информатизации возрос в три раза. К концу 2022 года объем услуг связи и информатизации был зафиксирован на уровне 22,9 трлн. сум. По сравнению с 2017 годом, он увеличился на 14,7 трлн. сум.

Таблица 2: Динамика объема оказанных рыночных услуг согласно Программе развития сферы услуг на 2017-2022 гг., млрд. сум

	2017 г.	2022 г. *	Реальный темп роста по сравнению с 2017 годом, раза
Услуги - всего	**118 811,0**	**357 554,5**	**1,9**
в том числе по видам:			3,0
Услуги связи и информатизации	8 196,7	22 917,6	5,1
Финансовые услуги	15 023,8	80 431,0	1,5
Транспортные услуги	36 217,2	81 006,6	1,4
в том числе: услуги автотранспорта	20 232,9	41 318,3	1,6
Услуги проживания и питания	3 649,6	11 322,8	1,4
Услуги торговли	32 006,9	88 847,9	1,5
Услуги, связанные с недвижимым имуществом	4 026,5	9 674,3	2,3
Услуги в сфере образования	4 402,0	15 395,7	2,1
Услуги в сфере здравоохранения	1 701,5	6 384,2	1,5

TARAQQIYOT PROGRESS

Услуги аренды и проката	2 589,2	6 444,3	1,4
Услуги по ремонту компьютеров и бытовых товаров	2 329,2	5 842,3	1,3
Индивидуальные услуги	3 134,4	8 713,9	2,0
Услуги в области архитектуры, инженерных изысканий, технических испытаний и анализа	1 611,7	7 338,2	2,1
Прочие услуги	3 922,3	13 235,7	1,9

Источник: разработано авторами на основе данных siat.stat.uz

Еще одна важная часть сферы услуг в Узбекистане – это финансовый сектор. Страна развивает свой банковский сектор, внедряя новые финансовые продукты и услуги, а также улучшая доступ к финансированию. Правительство республики работает над привлечением иностранных инвестиций в финансовый сектор, что помогло привнести сюда новые технологии и накопленный опыт, способствуя модернизации финансового сектора.

Так, за 2017–2022 годы объем финансовых услуг увеличился в 5,1 раза. За 2022 год объем финансовых услуг достиг 80,4 трлн. сум. По сравнению с 2017 годом (15,0 трлн. сум), отмечено увеличение объема финансовых услуг за 2022 год на 65,4 трлн. сум.

Свою работу на финансовом рынке Узбекистана начали такие коммерческие цифровые банки, как АО “ANOR BANK”, АКБ “TBC BANK” (дочерний банк АКБ “TBC BANK Грузии”) и АКБ “Tenge Bank” (дочерний банк АО “Народный Банк Казахстана” (“Halyk Bank”)). Это универсальные банки, которые оказывают финансовые услуги всем категориям корпоративных и розничных клиентов с использованием современных банковских технологий, а также внедрением инновационных подходов в индустрию, которая находится в активной фазе реформирования.

Наряду с этим, участником финансового рынка республики стала “HumoCard” – платежная система “Humo” на основе банковских платежных карточек для осуществления операций как в Узбекистане, так и за рубежом.

Наиболее значительный сектор сферы услуг в Узбекистане – это транспортные услуги. В данный сектор вкладываются большие средства для развития транспортной инфраструктуры, включая строительство новых автомобильных и железных дорог. Кроме того, проводятся работы над модернизацией транспортного сектора страны путем внедрения новых технологий и улучшения логистики, что существенно помогает повысить эффективность и надежность транспортных услуг в республике.

За 2017-2022 годы объем транспортных услуг возрос в 1,5 раз. Так, за 2022 год их объем, по сравнению с 2017 годом (36,2 трлн. сум), увеличился на 44,8 трлн. сум и достиг 81,0 трлн. сум, или составил 22,7 % от общего объема оказанных рыночных услуг.

В настоящее время услуги торговли формируют значительную часть совокупного объема оказанных услуг в экономике (88,8 трлн. сум), увеличившись, в целом за период с 2017 по 2022 годы, на 56,8 трлн. сум, или в 1,4 раза.

2023 год в республике объявлен “Годом заботы о человеке и качественного образования”. Президент Узбекистана в своем обращении к Парламенту в частности отметил, что “повышение качества образования – единственно правильный путь развития Нового Узбекистана”.

За 2017-2022 годы также зафиксирован рост услуг, связанных со сферой образования, в 2,3 раза. Например, за 2022 год объем услуг в сфере образования, по сравнению с 2017 годом (4,4 трлн. сум), увеличился на 11,0 трлн. сум и достиг 15,4 трлн. сум, или составил 4,3 % от общего объема оказанных рыночных услуг (рисунок 2).




Рисунок 2: Темпы роста услуг в сфере образования

Источник: разработано авторами на основе данных stat.uz

В настоящее время на территории Узбекистана функционирует 191 институт и университет, в числе которых - 28 зарубежных. В них проходят обучение 1 040,4 тыс. человек. За 2017-2022 годы их количество увеличилось на 742,7 тыс. человек.

По сравнению с 2017 годом, за 2022 год объем услуг в сфере здравоохранения увеличился на 4,7 трлн. сум и стал равен 6,4 трлн. сум. В общем объеме услуг их доля составила 1,8 %.

В настоящее время по всей территории республики функционируют свыше 1,2 тыс. больниц.

Наряду с этим, в регионах созданы сельские семейные поликлиники, при которых налажена деятельность социальных аптек и круглосуточно действующей скорой помощи, кабинетов женской консультации и здоровья девочек. Сельскому населению оказывается специализированная амбулаторная помощь по пяти узким специальностям (акушер-гинеколог, хирург, стоматолог, терапевт, педиатр), а также организованы ультразвуковые и лабораторные обследования, за счет чего население сельской местности получает квалифицированную специализированную амбулаторную помощь.

Сегодня количество частных медицинских учреждений в Узбекистане растет день ото дня. Это создает здоровую конкуренцию в области медицины, позволяя повысить качество оказываемых населению медицинских услуг и снизить на них цены.

За указанный период были созданы десятки центров, в частности такие, как республиканские специализированные научно-практические медицинские центры в области онкологии, нейрохирургии, травматологии и ортопедии, аллергологии, нефрологии и трансплантации почки, неврологии, наркологии, детской хирургии. Например, Второй перинатальный центр был введен в действие для повышения качества и объема медицинской помощи женщинам репродуктивного возраста, беременным и детям. Также в Ташкенте был построен и введен в действие Национальный детский медицинский центр, оснащенный современным медицинским оборудованием. Медицинский центр стоимостью более 130 млн. долл. США создан при участии Фонда экономического развития и сотрудничества (EDCF) Республики Корея.

За 2022 год объем услуг, оказанных субъектами малого предпринимательства, был равен 173,2 трлн. сум (за 2017 год – 69,2 трлн. сум) и в общем объеме произведенных рыночных услуг их доля составила 48,4 %.

В настоящее время в Узбекистане активно развиваются новые виды услуг, заметно возросло их значение для региональных экономик, в первую очередь в агломерациях городов.

Сегодня электронные банковские операции и Интернет-магазины составляют неотъемлемую часть нашей жизни.

В современном информационном мире в результате широкого распространения сети Интернет, логистики, появления электронных платежных систем и электронного документооборота активно развивается новая форма осуществления деятельности – электронная коммерция. Согласно новой редакции Закона Республики Узбекистан от 29 сентября 2022 года № ЗРУ-792, электронная коммерция – это купля-продажа товаров (работ, услуг) в соответствии с договором, заключенным через электронную торговую площадку с использованием информационных систем в рамках предпринимательской деятельности.

Пандемия COVID-19 в начале 2020 года привела к ускорению цифровых преобразований. Цифровые решения стали инструментом, позволяющим людям и предприятиям продолжать часть экономической и социальной деятельности удаленно. Это привело к более широкому использованию удаленной работы, видеоконференцсвязи, цифровых развлечений и других приложений. Также это обусловило резкий рост электронной торговли.

Доля электронной коммерции в валовой добавленной стоимости возросла с 0,03 % в 2018 году до 0,57 % в 2021 году.

С появлением на рынке новых видов услуг возникла необходимость их мониторинга для более полного и качественного учета.

За 2021 год объем услуг диспетчерских, включая услуги по предоставлению заказов водителям (к примеру предоставление заказов по перевозке) составил 41,8 млрд. сум, их доля от общего объема услуг по складированию и вспомогательных транспортных услуг (5 380,4 млрд. сум) отмечена на уровне 0,8 %.

В общем объеме оказанных рыночных услуг следующие виды услуг в области информации (1 373,6 млрд. сум) составили:

- услуги копирайтера, рерайтера, SEO-копирайтера, SEO-рерайтера, контент-менеджера, спичрайтера, транскрибера – 17,6 млрд. сум, или 1,3 %;
- услуги по организации электронных торговых площадок, в том числе для осуществления электронной коммерции – 15,4 млрд. сум, или 1,1 %;
- услуги электронного документооборота, оказанных юридическими лицами за 2021 год, – 86,6 млрд. сум, или 6,3 %.

Объем услуг PR-менеджера, Интернет-маркетолога, по продвижению и рекламы товаров (работ, услуг) в социальных сетях (SMM), администратора страниц в социальных сетях, аккаунт-менеджера, маркетолога, линк-менеджера, таргетолога, специалиста по контекстной рекламе, директолога, медиапланировщика, SMO-специалиста за 2021 год был равен 67,4 млрд. сум, или 4,6 % от общего объема оказанных рыночных услуг в области рекламы и изучения конъюнктуры рынка (1 466,8 млрд. сум).

Объем оказанных рыночных услуг профайллеров – 0,2 млрд. сум, или 0,03 % от общего объема услуг профессиональных, научных, технических (795,3 млрд. сум) и пр.

В общем объеме оказанных рыночных ветеринарных услуг (75,6 млрд. сум) услуги по эвтаназии животных составили 0,3 млрд. сум, или 0,5 %.

Объем оказанных рыночных услуг каршеринга – 0,6 млрд. сум, или 0,02 % от общего объема услуг по аренде и лизингу легковых автомобилей и легких автотранспортных средств (3 034,9 млрд. сум).

Услуги менеджера по работе с Интернет-проектами, руководителя группы фрилансеров, HR-менеджера, рекрутера составили 20,3 млрд. сум, или 5,8 % от общего объема услуг по трудоустройству (352,2 млрд. сум).

В общем объеме оказанных рыночных услуг в области административно-управленческого, хозяйственного и прочего вспомогательного обслуживания (2 167,0 млрд. сум) услуги по организации электронных конференций, семинаров (вебинаров), в том числе он-лайн, составили 6,0 млрд. сум, или 0,3 %.

Объем оказанных рыночных услуг электронных языковых школ, в том числе он-лайн, – 1,8 млрд. сум, или 0,01 % от общего объема услуг в области образования (12 021,8 млрд. сум).

Услуги народного целительства (при наличии лицензии) составили 13,8 млрд. сум, или 0,3 % от общего объема услуг по трудоустройству (5 105,9 млрд. сум).

В общем объеме оказанных рыночных услуг индивидуальные прочие, не включенные в другие группы (1 583 580,8 млн. сум), составили:

- услуги зоогостиниц (ситтинг) для домашних животных - 1,6 млрд. сум, или 0,1 %;
- услуги по доставке машины в назначенное клиентом место (валет-паркинг) – 0,7 млрд. сум, или 0,05 %.

Таким образом, сектор услуг становится все более важной частью экономики Узбекистана и в 2022 году на его долю пришлась почти половина ВВП страны. Различные виды услуг, например такие, как транспортные, финансовые и услуги ИКТ, быстро растут благодаря значительным инвестициям и государственной поддержке. Поскольку наша страна продолжает диверсифицировать национальную экономику и инвестировать в свое развитие сектор услуг, существует множество возможностей для дальнейшего его роста и расширения.

Использованная литература:

1. Kotler Ph., Keller K. Marketing – Management. – 14th Ed. – NJ: Prentice Hall, 2012.
2. Балаева О. Н., Предводителева М. Д. Управление организациями сферы услуг. – М.: Изд. дом ГУ ВШЭ, 2010. – 160 с.
3. Национальная база данных законодательной информации Республики Узбекистан: https://lex.uz
4. Веб-сайт Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан: https://stat.uz
5. Веб-сайт Департамента статистики по экономическим и социальным вопросам ООН: https://unstats.un.org
6. Веб-сайт Межгосударственный статистический комитет содружества независимых государств: http://new.cisstat.org
7. The Global Economy https://ru.theglobaleconomy.com
8. Веб-сайт статистическая служба Европейского союза: https://ec.europa.eu/eurostat

OPPORTUNITIES FOR BICYCLE TOURISM IN ZOMIN, BULUNGUR AND BAKHMAL DISTRICTS







Urozaliev Elyor Shuxrat ogli
Assistant teacher Samarkand branch of Tashkent State University of Economics

Xujamov Bobur bahodir ogli
Assistant teacher Samarkand branch of Tashkent State University of Economics

Saydullayev Abbosjon Murodovich
Assistant teacher Samarkand branch of Tashkent State University of Economics

Abstract: This article discusses the creation of a web page for tourists to travel in the Zomin, Bulungur, and Bakhmal districts, as well as the location of service assistance, bicycle rental, guest houses, restaurants, and, most importantly, determining the months.

Key words: Zomin, Bakhmal, Bulungur, velo-tourism, guest house, restaurants, bicycle, rental service, temperature.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zomin, Bulung‘ur, Baxmal tumanlarida sayyohlarning sayohat qilishlari uchun veb-sahifa yaratish, shuningdek, xizmat ko‘rsatish, velosiped ijarasi, mehmon uylari, restoranlarning joylashuvi, eng muhimi, oylarni aniqlash haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Zomin, Baxmal, Bulungur, velo-turizm, mehmon uyi, restoranlar, velosiped, ijara xizmati, harorat.

Аннотация: В данной статье рассматривается создание веб-страницы для путешествий туристов по Зоминскому, Булунгурскому и Бахмальскому районам, а также расположение сервисной помощи, проката велосипедов, гостевых домов, ресторанов и, самое главное, определение месяцев.

Ключевые слова: Зомин, Бахмал, Булунгур, велотуризм, гостевой дом, рестораны, велосипед, прокат, температура.

INTRODUCTION

Yuqoridagi ta’riflarni umumashtirgan holda quyidagi ta’rifni keltirib chiqardik. Barqaror rivojlanish- bu iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar jarayoni bo‘lib, unda tabiiy resurslardan foydalanish, investitsiyalarni yo‘naltirish, ilmiy va texnologik rivojlanish yo‘nalishlari, shaxsiy rivojlanish va institutsional o‘zgarishlar bir-biri bilan uyg‘unlashtirilgan bo‘ladi va inson ehtiyojlari va intilishlarini qondirish uchun hozirgi va kelgusidagi salohiyat mustahkamlanadi. Ko‘p jihatdan, bu odamlar hayotinining sifatini ta’minlashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Korxonalarda barqaror rivojlanishni amalga oshirish hamda uning xususiyatlarini tahlil qilishda qiyoslar, induksiya, deduksiya, ilmiy abstraksiyalash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror rivojlanishga erishish nafaqat korxonalar balki mamlakatlar, butun dunyoning oldiga qo‘ygan maqsadi hisoblanadi. Barqaror rivojlanishning institutsional asoslari birinchi marta 1992-yilda Rio-de Janeyroda bo‘lib o‘tgan Yer sammitida boshlangan “Rio jarayoni” bilan yaratilgan. 1995-yil 25-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasida 193 mamlakat tomonidan Barqaror rivojlanish maqsadlari qabul qilindi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari – bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining dunyoda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni har tomonlama yaxshilash orqali butun insoniyatning hayot tarzini yaxshilash va turmush farovonligini oshirishga, adolatli va barqaror jamiyat qurishga qaratilgan global chaqirig’idir. 2015-yilda ishlab chiqilgan 17ta o‘zaro bog‘liq maqsadlar bo‘lib, ular 2030-yilgacha barqaror rivojlanishga erishish rejasi sifatida belgilangan.

Barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar Yer yuzida qashshoqlikka va ochlikka barham berish, atrof-muhit va iqlimni himoya qilish hamda dunyodagi barcha kishilar tinchlik va ravnaq topishdan bahramand bo‘lishini ta’minlash, sog‘lik va farovonlik, sifatli ta’lim, toza suv va sanitariya, gender tenglik, munosib ish o‘rinlari va iqtisodiy o‘sish bo‘yicha global miqyosda harakat qilishga da’vatdir.


Barqaror rivojlanish maqsadlari ESG(Environment-Atrof-muhit, Social-ijtimoiy, Governance-boshqaruv) tamoyillarida guruhlasak quyidagi ko‘rinishda taqsimlanadi:

Barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq faoliyat yurutuvchi ijtimoiy mas’uliyatli kompaniyalar bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatda obro‘ topishiga hamda mahsulot va xizmatlarning ommalashishiga xizmat qiladi va boshqa kompaniyalardan quyidagi afzalliklar bilan yaqqol farqlanadi:

- Barcha mijozlarga kompaniya rahbariyatining ijtimoiy mas’uliyat talablariga sodiqligini namoyon etish imkoniyati;
- Kompaniyaning o‘z biznesini yuritishda qonunchilik talablarini bajarishga yo‘nalganligi;
- Kompaniya obro‘-etiborini oshirish va himoya qilish yo‘llarini rivojlantirish;

2 https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/23311886.2019.1653531
3 https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/23311886.2019.1653531
4 https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/23311886.2019.1653531
5 https://commission.europa.eu/index_en

- Kompaniya ishlovchilarining mehnat sharoitlari, xavfsizligi va muhofazasini oshirish, jamoada ma'naviy muhitni yaratish;
- Kompaniyaning davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro munosabatlarini yaxshilanishi, turli loyihalarda ishtirok etishda imtiyozlar olinishi.



1-rasm: Barqaror rivojlanish maqsadlari ESG tamoyillarida guruhlanishi

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi uch yo'nalishning birlashuvi natijasida hosil bo'lgan:



2-rasm: Barqaror rivojlanish yo'nalishlari

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

1. **Iqtisodiy yo‘nalish.** “Iqtisodiy samaradorlik” tushunchasi ushbu yo‘nalishda mutlaqo boshqacha muqta- nazardan ko‘riladi. Ma’lumki, tabiat qonunlarini hisobga oladigan uzoq muddatli loyihalar, natijada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ekologik oqibatlarini hisobga olmagan loyihalardan ko‘ra samaraliroq bo‘ladi.
2. **Ijtimoy yo‘nalish.** Aynan ijtimoiy muammolarni anglash madaniy va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga hamda ziddiyatli nizolar sonini kamaytirishga qaratilgan ushbu konsepsiyani shakllanishiga olib keladi.
3. **Ekologik yo‘nalish.** Ekologiya sohasidagi barqaror rivojlanishning asosiy maqsadi- jismoniy va ekologik tizimlarning barqaror bo‘lishidir. Ekologiya ehtiyotlarini e’tiborsiz qoldirish atrof-muhitning tanazzulga uchrashiga olib keladi va butun insoniyatning mavjudligiga xavf tug‘diradi.

Korxona barqaror rivojlanishga erishishi uchun avvalo barqaror rivojlanish konsepsiyasi tamoyillariga amal qilishi uchun biznes siyosati va jarayonlariga kiritilishi kerak. Bu boshqaruvning yangi usullarini ixtiro qilish kerak degani emas. Aksincha, bu yangi madaniy yo‘nalishni va tizimlar, amaliyotlar va jarayonlarni keng qamrovli takomillashtirishni talab qiladi. Bu boshqaruv tizimining o‘zgartirilishi kerak bo‘lgan ikkita asosiy yo‘nalishi quyidagilar bilan bog‘liq:

- Manfaatdor tomonlar oldidagi mas’uliyatni oshirish;
- Hisobot berish amaliyotini doimiy ravishda takomillashtirish.

Barqaror rivojlanish uchun samarali boshqaruv tizimini ishlab chiqish ham qaror qabul qilish, ham boshqaruv masalalarini hal qilishni talab qiladi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi ham biznesni rejalashtirish, ham boshqaruv axboroti va nazorati tizimlariga integratsiyalashgan bo‘lishi kerak. Yuqori rahbariyat ushbu strategiyalarga nisbatan samaradorlikni o‘lchaydigan hisobotlarni taqdim etishi kerak. Kompaniya va uning yuqori rahbariyatining mas’uliyati ortib borayotganligi sababli boshqaruv tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot va hisobot tizimlari bu ehtiyojni qondirishi kerak. Barcha darajadagi qarorlar qabul qilish barqaror rivojlanishdan kelib chiqadigan masalalarga ko‘proq mos kelishi kerak.

Korxonani barqaror rivojlanish tamoyillari asosida boshqarish uchun yetti bosqich talab qilinadi. Bular quyida keltirilgan:

1. **Manfaatdor tomonlarni tahlil qilish.** Korxona faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan barcha tomonlarni aniqlash uchun manfaatdor tomonlarni tahlil qilish talab qilinadi. Unda manfaatdor tomonlarning tashkilotning barqaror rivojlanish faoliyati bilan bog‘liq muammolari, tashvishlari va axborot ehtiyojlarini belgilaydi. Kompaniyaning mavjudligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri global muhitga, shuningdek, u joylashgan jamiyatga bog‘liq. Kompaniya o‘z faoliyatini amalga oshirishda inson qadr-qimmatini hurmat qilishi va global atrof-muhit muhofaza qilinadigan jamiyatga intilishi kerak. Manfaatdor tomonlarni tahlil qilish qarama-qarshi taxminlarni ko‘rsatishi mumkin. Chunki, ekologik xavfsiz mahsulotlarni talab qilishlari mumkin, xodimlar esa bunday siyosat ularning ishlariga tahdid solishi mumkinligidan xavotirda bo‘lishlari mumkin. Aktsiyadorlar esa o‘z investitsiyalari daromadidan ehtiyot bo‘lishlari mumkin. Manfaatdor tomonlarni tahlil qilish manfaatdor tomonlar guruhlari o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni yuzaga kelishidan oldin aniqlashning foydali usuli bo‘lishi mumkin.
2. **Barqaror rivojlanish siyosati va maqsadlarini belgilash.** Keyingi maqsad korxona o‘z xodimlaridan barqaror rivojlanish bo‘yicha amal qilishini kutayotgan asosiy qadriyatlarni ifodalash va operatsion samaradorlik uchun maqsadlarni belgilashdir. Yuqori rahbariyat uni tashkil etish uchun barqaror rivojlanish siyosatini shakllantirish va aniq maqsadlarni belgilash uchun javobgardir. Barqaror rivojlanish nafaqat “atrof-muhit” dan ko‘proq narsani anglatadi. U qashshoqlikni yumshatish va taqsimotda tenglik kabi ijtimoiy unsurlarga ham ega.
3. **Amalga oshirish rejasini ishlab chiqish va bajarish.** Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlar rejasini ishlab chiqish muhimdir. Barqaror rivojlanish siyosatini operatsion faoliyatlarga o‘tkazish butun tashkilotga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy ishdir. Bu korporativ madaniyatni va xodimlarga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirishni, mas’uliyat va javobgarlikni belgilashni, tashkiliy tuzilmalarni, axborot-hisobot tizimlarini va operatsion amaliyotlarni o‘rnatishni o‘z ichiga oladi.
4. **Yordamchi korporativ madaniyatni rivojlantirish.** Tashkilot va uning xodimlari barqaror rivojlanish siyosatini qo‘llab-quvvatlashini ta’minlash uchun tegishli korporativ madaniyat zarur. Barqaror rivojlanish yoki atrof-muhitni boshqarish siyosatini amalga oshirish jarayonida ko‘plab kompaniyalar o‘ziga xos tashkiliy yangilanishni boshdan kechirdilar. Xodimlar ishtirokining ortishi nafaqat amaliy g‘oyalarni keltirib chiqaradi, balki dasturning o‘ziga bo‘lgan ishtiyoqni ham oshiradi. Aksariyat mijozlar va xodimlar ijtimoiy mas’uliyatli tarzda ishlashga sodiq bo‘lgan tashkilotning bir qismi bo‘lishdan zavqlanishadi.

5. **Ko‘rsatkichlar va standartlarni ishlab chiqish.** Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish va natijalar to‘g‘risida mazmunli hisobotlarni tayyorlash samaradorlikni o‘lchashning tegishli vositalarini talab qiladi. Boshqaruv nazorati, shuningdek, tashqi hisobotlar qisman kompaniya faoliyati to‘g‘risida o‘z vaqtida ma’lumotlarning mavjudligiga bog‘liq. Bu boshqaruvga tegishli samaradorlik ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda tashqi va ichki samaradorlik standartlariga muvofiq ish faoliyatini baholashga imkon berish uchun kerak. Shuning uchun axborot tizimlari rahbariyatga kerakli hisobotlarni taqdim etishi uchun qayta ko‘rib chiqilishi kerak bo‘ladi.

6. **Hisobotlarni tayyorlash.** Jarayonning keyingi bosqichi korxonaning barqaror rivojlanish maqsadlarini belgilab beruvchi va ular bilan ishlashni taqqoslaydigan ichki boshqaruv va manfaatdor tomonlar uchun mazmunli hisobotlarni ishlab chiqishdan iborat. Direktorlar va yuqori lavozimli rahbarlar ish faoliyatini o‘lchash, qarorlar qabul qilish va o‘z siyosati va strategiyalarining amalga oshirilishini nazorat qilish uchun ichki hisobotlardan foydalanadilar. Aksiyadorlar, kreditorlar, xodimlar va mijozlar, shuningdek, jamoatchilik tashqi korporativ hisobotlardan korporatsiya faoliyatini baholash va moliyaviy, ijtimoiy va ekologik maqsadlarga erishish uchun direktorlar va yuqori martabali rahbarlarni javobgarlikka tortish uchun foydalanadilar. Moliyaviy hisobotlar korporativ hisobotning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib qolsa-da, ular hozirda har yili korporatsiya tomonidan chiqariladigan ko‘plab hisobot turlaridan biri hisoblanadi. Har bir tadbirkorlik korxonasi yiliga kamida bir marta tashqi “barqaror rivojlanish hisoboti”ni nashr etishi kerak. Oxir oqibat, bunday hisobotlar uchun universal format maqbul bo‘ladi.

7. **Ichki monitoring jarayonlarini takomillashtirish.** Doimiy asosda direktorlar va yuqori darajali menejerlarga barqaror rivojlanish siyosatini amalga oshirishda yordam berish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Ishlash monitoringi boshqaruv jarayonining muhim elementi sifatida yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Ko‘pgina sohalarda u hisobot berish bilan bevosita bog‘liq. Har qanday tizim samaradorligining kaliti bu rahbariyatning operatsiyalar va natijalarni doimiy ravishda kuzatib borishi hisoblanadi.

XULOSA

Kompaniyalar barqaror rivolanishni amalga oshirish hamda uning xususiyatlarini tahlil qilish orqali barqaror iqtisodiy o‘shish, moliyaviy ko‘satkichlarning yaxshilanishi, kengaygan obro‘ va brend imiji, mijozlarning sodiqligiga erishish va savdo hajmini oshirish, energiyani tejaydigan resurslardan foydalanish, jamiyat taraqqiyaoti va ekologik sog‘lom atrof-muhitni yaratishga erishamiz.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasini qo‘llash orqali korxona boshqaruvini yanada takomillashishi orqali samarali boshqaruvni shakllantiramiz bu esa korxonaga fond bozorida ham katta qiziqish jalb qiladi va korxona investitsion jozibador muhitda yanada rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 21.02.2022-yildagi 83-son. “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. https://lex.uz/docs/-5870397
2. Ashurov Z.A. “Korporativ ijtimoiy mas’uliyat” o‘quv qo‘llanma. –“Innovatsion rivojlanish matbaa uyi” nashriyoti, –2022-yil, –160 bet.
3. Barqaror rivojlanish maqsadlari. https://nsdg.stat.uz
4. Birlashgan millatlar tashkiloti O‘zbekiston. https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs
5. International journal of Finance and Digitalization ISSN: 2181-3957. Vol.2 Issue 01, 2023. I.f,d., prof. Samariddin Elmirzayev, Safarali Xolmurodov. Korxonalarda korporativ ijtimoiy mas’uliyatni amalga oshirish. www.ijfd.uz



TELEKOMMUNIKATSIYA KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xusanov Ulugbek Nishanovich
PhD, TDIU, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda telekommunikatsiya korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish va uning samaradorligini oshirish tahlili hamda rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida so‘z boradi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirish istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, iqtisodiyot, telekommunikatsiya, raqamli iqtisodiyot, telekommunikatsiya korxonalari, axborot tizimlari.

Abstract: This article will focus on the analysis of the use and improvement of the effectiveness of digital technologies in improving the efficiency of telecommunications enterprises in our country, as well as improving development prospects. The existing problems and prospects for the development of the use of digital technologies in improving the efficiency of telecommunications enterprises of the Republic of Uzbekistan, as well as author’s approaches and proposals to overcome them, are also presented.

Key words: digital economy, digital technologies, economics, telecommunications, digital economy, telecommunications enterprises, information systems.

Аннотация: В данной статье речь пойдет об анализе использования и повышения эффективности цифровых технологий в повышении эффективности деятельности телекоммуникационных предприятий в нашей стране, а также о совершенствовании перспектив развития. Также представлены существующие проблемы перспектив развития использования цифровых технологий в повышении эффективности деятельности телекоммуникационных предприятий Республики Узбекистан, а также авторские подходы и предложения по их преодолению.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровые технологии, экономика, телекоммуникации, цифровая экономика, телекоммуникационные предприятия, информационные системы.

KIRISH

Jahonda telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish va uning yangi turlarini yaratish uchun innovatsion yechimlarni topishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi global innovatsiyalarni keng joriy etish asosida ko‘pgina davlatlar iqtisodiy o‘sishini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi. Milliy iqtisodiyotning ushbu sohasi ko‘pgina davlatlarda endigina shakllanmoqda, lekin, rivojlangan davlatlarda esa u iqtisodiy o‘sishning allaqachon lokomotivi bo‘lib xizmat qilmoqda. AKT mehnat unumdorligini yuksaltirish va boshqa barcha resurslardan optimal foydalanishning asosiy omili bo‘lib, zamonaviy iqtisodiyotda ahamiyatli resurslarga aylanmoqda. Dunyoda AKT mahsulotlarini ommaviy ishlab chiqarish bilan asosan Malayziya, Singapur, Koreya Respublikasi, Xitoy kabi industrial davlatlar shug‘ullanayotgan bo‘lsa, ularning iste’molchilari sifatida esa rivojlanayotgan mamlakatlar hisoblanmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, AKTning samaradorlik indeksi bozor muhiti, uni tartibga solish muhiti, infratuzilma, aholi tayyorgarligi, biznesning tayyorgarligi, AKTdan aholining, biznes vakillarining va davlatning foydalanish darajalari bilan bog‘liq muammolar bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya tizimida “O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi” faoliyat ko‘rsatib, uning tarkibida 20 dan ortiq yirik subyektlar faoliyat ko‘rsatadi. Ularning aksariyat davlat unitar korxonasi shaklida tashkil etilgan bo‘lib, ular davlat mulki hisoblanadi. Mazkur korxonalar

Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 22-noyabrdagi 458-son qarori bilan tasdiqlangan “Telekommunikatsiyalar sohasidagi faoliyatni litsenziyalash to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq faoliyat ko‘rsatadi.

Korxonaning axborot infratuzilmasini optimallashtirish tarmoq infratuzilmasi, serverlar va ma’lumotlar omborlarini, shuningdek, xavfsizlik va ma’lumotlarni zaxiralash tizimlarini optimallashtirishni o‘z ichiga oladi. Bu tizimning ishonchliligi va mavjudligini oshirishga, shuningdek, resurslardan foydalanishni optimallashtirishga imkon beradi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslangan holda, mamlakatimizda telekommunikatsiya korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning o‘rni beqiyos bo‘lib, turli manbalarda telekommunikatsiya korxonalari tizimiga har xil ta’riflar keltirilgan.

Xususan, D.N.Lavrovning fikricha “Axborot xizmatining axborot ekanligini aniqlash mumkin bo‘lgan xususiyatlardan biri bu Interaktivlikning yo‘qligi yoki mavjudligi. Agar ikkala abonent ham Real vaqt rejimida xizmat ko‘rsatishda samarali bo‘lsa, xizmat interaktiv deb nomlanadi. Telefonda gaplashish ham interaktiv xizmatdir. Faqat tarmoq orqali uzatiladigan ma’lumotlarni oladigan abonent interaktiv xizmat emas. Bunday xizmatlar: radio va televideniye xizmatlari, shuningdek, ushbu turdagi xizmatlar turli xil veb-saytlar tomonidan taqdim etiladi. Bu erda foydalanuvchi so‘rovnoma savollariga javob berib, sayt tarkibini ko‘rishda faol ishtirok etishi mumkin, shuning uchun xizmat interaktiv yoki yo‘qligini aniqlash qiyin” [1].

A.N.Berlinga ko‘ra “Ishbilarmonlar va tadbirkorlar uchun mijozlarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga o‘z vaqtida javob bera olish juda muhim, buni telekommunikatsiya kompaniyalarini ochish tajribasi ko‘rsatadi. Bularning barchasi kompaniyada doimiy nazoratni o‘rnatish, biznes jarayonlarini takomillashtirish imkoniyatlari va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati uchun zarurdir. Avtomatlashtirish har qanday telekommunikatsiya kompaniyasining asosiy afzalliklaridan biridir. Shu tufayli asosiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va yig‘ish samaradorligi oshadi” [2].

M. M. Shakirov va S. V. Kiselyovlar ta’kidlaganidek, “mijozlarning ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat ko‘rsatish zanjirining asosiy bo‘g‘inlari telekommunikatsiya xizmatlarini ishlab chiqaruvchi, sotuvchi va xizmatni mavjud bo‘lgan davrda qo‘llab-quvvatlaydigan xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotdir” [3].

Xizmat iste’molchisi qo‘shimcha ravishda konsalting, moliyaviy, marketing va sotuvchilar hamda boshqa tashkilotlar kabi turli xil atrof-muhit tuzilmalari bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish jarayonida iste’molchilar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilari eng ko‘p bo‘lishi mumkin, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot bilan tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik va boshqa jihatlardagi turli xil munosabatlar, keyinchalik xizmat ishlab chiqaruvchisi va xizmatning raqobatbardoshligiga ta’sir qiladi.

Bu shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish faoliyati ma’lum bir xizmat turi sifatida telekommunikatsiya xizmatlari va shuning uchun ularni ishlab chiqaruvchi korxonalarning raqobatbardoshlik darajasini oshirishning ajralmas qismi va muhim omili hisoblanadi.

Klassik iqtisodiy nazariyada tovarlar va xizmatlarning xususiyatlarini tasniflashning kamida uch turi mavjud. F. Kotlerning tasnifiga ko‘ra, mahsulot iste’molchi tomonidan uch o‘lchovda qabul qilinadi va quyidagi xususiyatlar guruhlariga ega:

- dizayn bo‘yicha mahsulot – ishlab chiqish va ishlab chiqarish jarayonida o‘rnatilgan mahsulot yoki xizmatning o‘ziga xos funksional xususiyatlari to‘plami (smartfonning texnik xususiyatlari, Internetga kirish parametrlari);
- haqiqiy dizayndagi mahsulot-ma’lum bir dizayn, ishlab chiqarish materiallari, ergonomika;
- xizmat, yetkazib berish, kafolatlarni o‘z ichiga olgan kengaytirilgan mahsulot.

J. Lamben tasnifida ko‘rsatilgan xususiyatlar, o‘z navbatida, quyidagicha belgilanadi:

- umumiy (funksional yordam dasturi);
- periferik (xizmat yoki mahsulotning asosiy funksiyasi bilan bog‘liq: samaradorlik, xizmat ko‘rsatish qobiliyati, qulaylik va boshqalar);
- qo‘shilgan (asosiy funksiya bilan bog‘liq emas, balki iste’molchilarni qondirish imkoniyatlarini kengaytirish: yangisini sotib olayotganda ishlatilgan mahsulot narxini hisobga olish va boshqalar) [5].

P. Dikson iste’molchilar uchun mahsulot xususiyatlarini quyidagi o‘lchamlarda ko‘rib chiqadi:

- asosiy sifatlar (barcha raqobatchi mahsulotlarda mavjud bo‘lgan funksional xususiyatlar to‘plami);
- qo‘shilgan sifatlar (raqobatdosh tovarlar sifatidan yuqori bo‘lgan tovarlar xususiyatlarining xususiyatlari) [6].

Telekommunikatsiya xizmatlarining mohiyatini ko‘rib chiqqan holda yana bir iqtisodchi olim, N. V. Rebrikovaning ta’rifini keltiramiz: “telekommunikatsiya xizmatlari deganda - kompaniyaning texnik vositalar (telefon, telegraf, radio va boshqalar) yordamida belgilar, signallar, chizmalar, tovushlar va ma’lumotlarni uzatish yoki qabul qilish bo‘yicha iste’molchilarga o‘zaro manfaatli shartlarda faoliyatning yakuniy mahsuloti tushuniladi” [7].

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish aksariyat mamlakatlar uchun ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Qoida tariqasida, ular “raqamli rivojlanish kun tartibi” ni amalga oshirishning uzoq davri va ustuvor yo‘nalishlarning uzluksizligi bilan ajralib turadi - asosiy axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini qurishdan tortib, ushbu sohada kelishilgan siyosatni shakllantirishgacha va keng tarqalgan raqamli texnologiyalarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraktsiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan telekommunikatsiya korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda telekommunikatsiya vositalarining rivojlanishi asosida aloqa tizimlari o‘zgarib, integrallashgan bir qator tizimlar va ularning yangi turlari tarmoqga kirib keldi. Hozirgi kunda magistral, regional transport tarmoqlari 100 foiz raqamlashtirildi va umumiy telekommunikatsiya tarmoqlarining raqamlashtirish ko‘rsatkichi 80 foizdan oshdi. Zamonaviy pog‘onadagi rivojlanishda, kompyuterlashtirish nafaqat ekspluatatsiya nazorat apparaturalarini, telenazorat va boshqarishni, dispetcher punktlaridagi nazorat va tarmoqlarni boshqarish qurilmalarida mikroprotsessorlar texnikasi-vositalarini dasturlash, texnik kompleksini keng miqyosda qo‘llashni, bundan tashqari avtomatlashtirish va axborotlarni uzatish, ulanish jarayonida ularni qayta ishlashni asosiy funksiyalarini takomillashtirish, texnik ekspluatatsiya konsepsiyasini va telekommunikatsiya tizimlarini va tarmoqlarini boshqarishni, yangi sifatli darajaga olib chiqish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berish muhim ahamiyat kasb etadi. Telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirishda telekommunikatsiya vositalarini takomillashtirishni uchta yo‘nalishi bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘langan. Yangi aloqa texnikasi - bu yuqori tezlikka ega bo‘lgan, optik kabelda ishlaydigan, yuqori sathli dasturiy ta’minotga asoslangan raqamli uzatish tizimlari sohasidagi amalda yuzaga kelayotgan muammolarni chuqur tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Shuning bilan birga orttirilgan tajriba hamda xalqaro amaliyot kompleks va o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit tizimni shakllantirish yuzasidan tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaruriyatini ko‘rsatib beradi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida chuqur tarkibiy o‘zgartirishlarni amalga oshirish, tovarlar va xizmatlarning sifatli bozorini shakllantirgan holda raqobatbardosh bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonini jadallashtirish, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish va mustahkamlash, davlat aktivlarini boshqarishda bozor tamoyillarini joriy etish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi.

Strategik rivojlanish hujjatlari, yangi qonunchilik va boshqa me’yoriy hujjatlar rejalashtirilgan o‘zgarishlar uchun asosiy g‘oyasi bo‘lishi lozim bo‘lib, ularning bir qismi qabul qilingan, me’yoriy hujjatlarning boshqa qismini isloh qilish, shuningdek, yangi qonunlar qabul qilish ko‘zda tutilgan bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5614-sonli Farmoni asosida respublikamizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, valyuta bozorini erkinlashtirish, yuqori likvidli tovarlarni sotishning bozor usullarini joriy etish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar aholining keng qatlamlarini tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb qilish uchun qulay shartsharoitlar yaratdi hamda iqtisodiy islohotlarni izchil davom ettirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, “Elektron hukumat” tizimining joriy etilishini ta’minlash, aholi, biznes va davlat o‘rtasida samarali o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va rivojlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha tub islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son farmonida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqaror, ijobiy o‘sishini ta’minlash belgilab berilgan.

1-jadval: Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari[1]

№	Yo‘nalishlar	№	Yo‘nalishlar
1.	Sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish dasturlarini ushbu korxonalarni texnologik qayta jihozlash dasturlari bilan uyg‘unlashtirish	10.	Korxona ta’minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta’minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish
2.	Zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to‘xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish	11.	Innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo‘yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish
3.	Ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish, shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish	12.	Savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar (mijozlar) bilan o‘zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish
4.	Boshqaruv ma’lumotlarini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimini, jumladan, real vaqt rejimida biznes-tahlil tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish	13.	2025-yilda korxona resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ulushini 90 foizga yetkazish
5.	Sanoat korxonalarida joriy etilayotgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish (ERP, MES, SCADA va boshqalar), robotlashtirish, “Buyumlar interneti”, “sun’iy intellekt” kabi texnologiyalarning dasturiy mahsulot qismini 2027-yilga kelib, apparat qismini esa 2030-yilga kelib davlat-xususiy sheriklik asosida mahalliylashtirish	14.	Kommunal xizmatlar bo‘yicha hisob-kitoblarni boshqarish uchun smart texnologiyalarni joriy qilish, intellektual servislarni joriy qilish va kommunal xizmatlarni tartibga solish uchun “aqlli uy” tajribasini joriy etish
6.	2022-yilda respublikaning barcha yirik shaharlarida jamoat transportlarida yo‘l haqi to‘lashning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish va naqd pulsiz to‘lovlar ulushini 90 foizga yetkazish	15.	Har qanday yo‘lovchi transportida chipta sotib olish uchun yagona platformani yaratish, korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarni Internet jahon axborot tarmog‘i orqali sotish bozorlarini kengaytirish
7.	Transport tizimini kompleks rivojlantirish uchun dasturiy modellashtirish tizimlaridan foydalanish mexanizmlarini amalga oshirish	16.	Sug‘urta tizimini raqamlashtirish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida raqamli sug‘urtani amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish
8.	Logistika tizimini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida raqamli logistika tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish	17.	Iqtisodiyotning real sektorlarida robotlashtirilgan sanoatni rivojlantirish va amalga oshirish
9.	Yirik sanoat korxonalari uchun robototexnika va muhandislik ixtisosliklarini tashkil etish	18.	Ishlab chiqarish korxonalarida addiktiv (qavatma-qavat qurish va sintez qilish texnologiyasi, 3D o‘lchamda bosib chiqarish) texnologiyalarini keng joriy etish

Mamlakat makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab turish, samarali fiskal siyosatni yuritish, soliqqa tortish tizimi va soliq ma’muriyatchiligini tubdan isloh qilish; asosiy resurslarni taqsimlashda bozor tamoyillarini keng joriy qilish asosida respublikaning raqobatbardosh bozor iqtisodiyotiga o‘tishi jarayonlarini tezlashtirish; fuqarolarning ijtimoiy himoyasi va ularga davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini mustahkamlash, aholining ijtimoiy ko‘makka muhtoj qatlamlarini himoya qilish hajmlari va turlarini ko‘paytirish; davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini yanada oshirish, xususiy sektorni rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash; tabiiy boyliklardan foydalanish samaradorligini oshirish, atrof-muhit muhofazasini ta’minlash, suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha raqamli iqtisodiyotni yo‘lga qo‘yish nazarda tutilgan.

Barchamizga ma’lumki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda televideniye to‘liq ravishda raqamli texnologiyalardan foyalangan holda raqamli tarzda efirga uzatilmoqda. Bu borada Radioaloqa, radioeshittirish va televedienie markazi DUKning roli juda kattadir. Shu o‘rinda raqamli radioeshittirish tushunchasiga alohida to‘xtalib o‘tsak. Raqamli radioeshittirish - “bu raqamli axborotlarni radioto‘lqinlar orqali simsiz uzatish texnologiyasi bo‘lib,

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6079-son farmoni

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

analog radioeshittirish tizimlaridagi radiochastota spektridan samarali foydalanish yoki analog radioeshittirish chastota polosasida juda yuqori sifat standartlari xizmatlarini ko‘rsatish imkonini beradi. Shuningdek, xarakteristikalarining yaxshilanganligi, tan narxi va iste’mol etiladigan quvvatningpastligi bilan ustunlikka ega hisoblanadi”.

Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi (RRTM DUK) faoliyatning asosiy yo‘nalishlari: yer usti va sun’iy yo‘ldosh aloqasi tizimlaridan foydalangan holda teleradiodasturlarni tarqatish bo‘yicha xizmatlar; O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va O‘zbekiston Respublikasi tijorat studiyalarining teleradiodasturlarini, shuningdek xorijiy radiostansiyalarning radioeshittirish dasturlarini tarqatish (tarqatish) xizmatlari; Respublika aholisining o‘sib borayotgan talabini qondirish uchun mavjud kabel televideniye tarmoqlarini rivojlantirish va yangi tarmoqlarni yaratish. Hozirgi vaqtda “O‘zbekistonda raqamli televideniye joriy etish konsepsiyasi” ni amalga oshirish doirasida “RRTM” DUK O‘zbekiston Respublikasida raqamli televizion eshittirishni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda.

Radioeshittirish va televideniye markazining maqsadi aholiga samarali va ishonchli aloqa, radio va televideniye xizmatlarini ko‘rsatish, ularning axborot, ko‘ngilochar va ta’lim olish imkoniyatini ta’minlashdan iborat. Markaz signal uzatish sifatini oshirish, qamrovni kengaytirish va barcha foydalanuvchilar uchun xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirish bo‘yicha ish olib boradi. Markaz bozor talablaridan oldinda turish va odamlarning ehtiyojlarini qondirish uchun aloqa, radio va televideniye sohasida ham yangi texnologiyalar va standartlarni ishlab chiqmoqda.

Radioeshittirish va televideniye markazi DUKning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi va amalga oshirishi, majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bulishi mumkin. Shuningdek, vazirlik roziligi bilan qonun hujjatlariga muvofiq tijorat tashkilotlari, shuningdek ularda yuridik shaxslarning qatnashishiga yo‘l qo‘yiladigan notijorat tashkilotlar qatnashchisi (a’zosi) bo‘lishi mumkin.

Izlanishlar jarayonida “Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi” davlat unitar korxonasining moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari tahlil etilib, ular moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari asosida faoliyat samaradorligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar tahliliy amallarni bajarish orqali ularning moliyaviy holatiga baho beriladi.

1-jadval: “Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi” DUKda faoliyat samaradorligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar tahlili[2]

№	Yillar	Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	To‘lov qobiliyati koeffitsiyenti	Aktivlar rentabelligi	Xususiy kapital rentabelligi
1	2017-yil	0,276	2,362	-0,291	-0,622
2	2018-yil	-0,259	2,300	-0,009	-0,117
3	2019-yil	-0,463	0,722	0,001	-0,001
4	2020-yil	-0,386	2,439	0,001	-0,001
5	2021-yil	-0,069	4,991	0,002	-0,003
6	2021-yilda 2017-yilga nisbatan o‘zgarishi	0,207	2,629	-0,289	-0,625

Quyidagi 1-jadval ma’lumotlari tahlilidan ko‘rinadiki, telekommunikatsiya tizimi korxonalari faoliyati samaradorligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar dinamikasida turlicha o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Xususan, “Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi” DUKda aktivlar rentabelligi -0,29 ga va xususiy kapital rentabelligi -063 ga teng bo‘lgan. Shuningdek, “Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi” DUKda to‘lov qobiliyati +2,6 koeffitsiyenti punktga oshganligi ma’lum bo‘ldi. Bundan ko‘rinadiki, ushbu korxonada to‘lov qobiliyati darajasi belgilangan me’yordan past ekanligi, moliyaviy mustaqillik darajasi tahlili o‘tgan 2017-2021-yillarda tavsiya etilgan 0,15 koeffitsiyentdan past ekanligi ma’lum bo‘ldi. Bu esa mazkur korxonada aktivlari tarkibida chetdan jalb etilgan kapital hissasi yuqori ekanligni ko‘rsati, bu esa korxonaning moliyaviy qaramligini oshirib, to‘lov qobiliyatini pasayishiga olib keladi. Shuningdek, 2017-2021-yillar mobaynida “Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi” DUKning jami aktivlari va xususiy kapitali rentabelligi darajasi manfiy ko‘rsatkich bilan chiqqanligi ma’lum bo‘ldi. Bu esa uning mazkur hisobot yillarida moliyaviy natijasi zarar bilan chiqqanligidan dalolat beradi.

Korxonaning axborot infratuzilmasini optimallashtirish tarmoq infratuzilmasi, serverlar va ma’lumotlar omborlarini, shuningdek, xavfsizlik va ma’lumotlarni zaxiralash tizimlarini optimallashtirishni o‘z ichiga oladi. Bu tizimning ishonchliligi va mavjudligini oshirishga, shuningdek resurslardan foydalanishni optimallashtirishga imkon beradi. Axborot texnologiyalarini joriy etish va korxonaning axborot infratuzilmasini optimallashtirish kom-

2 Muallif hisob-kitoblari (“Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi” DUK ma’lumotlari asosida).

pleks yondashuv va kasbiy bilimlarni talab qiladigan murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Biroq, muvaffaqiyatli amalga oshirish korxona ishida sezilarli yaxshilanishlarga erishishga va uning bozorda raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi.

Telekommunikatsiya tizimidagi korxonalarning samaradorligi xizmat ko‘rsatish sifati, tarmoqning mavjudligi, resurslardan foydalanish darajasi, mijozlarning qoniqish darajasi va moliyaviy ko‘rsatkichlar kabi turli ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi. Telekommunikatsiya tizimidagi korxonalarning samaradorligini baholash uchun ma’lumotlarni tahlil qilish usullari, marketing va iqtisodiy modellar, shuningdek sifat va ishlashni boshqarish vositalari qo‘llaniladi. Telekommunikatsiya sohasidagi korxonalarning samarali ishlashini ta’minlash uchun texnik innovatsiyalar va tartibga soluvchi talablarni ham hisobga olish muhimdir.

XULOSA

Axborot texnologiyalarini joriy etish va korxonaning axborot infratuzilmasini sozlashni optimallashtirish uchun, birinchi navbatda, iqtisodiy munosabatlar subyektlarining o‘zlari: kompaniyalar, ularning mijozlari va yetkazib beruvchilar, davlat organlari va boshqalar o‘rtasida elektron aloqa o‘rnatish kerak. Shuni ta’kidlash kerakki, biz axborot texnologiyalari rivojlanishining G‘arb yo‘lidan bormoqdamiz. Shuning uchun G‘arb IT rivojlanishining barcha ijobiy va salbiy tomonlarini, ularning boy tajribasini, to‘plangan nazariy bilimlarini hisobga olish juda muhimdir. Shu bilan birga, qulay makroiqtisodiy sharoitlarda bir necha yil ichida axborot texnologiyalarini rivojlantirish sohasida yutuqlarga erishilishini kutish mumkin va bu holda O‘zbekiston kompaniyalari korporativ elektron biznesni faol rivojlantirish bosqichiga o‘tadilar.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish aniq marketing va xizmat ko‘rsatish loyihalarini tayyorlash uchun zarur bo‘lgan vaqtni qisqartirish, ularni amalga oshirishda samarasiz xarajatlarni kamaytirish, buxgalteriya hisobi, texnologik va boshqa turdagi hujjatlarni tayyorlashda xatolar ehtimolini bartaraf etish imkonini beradi, bu esa tijorat kompaniyasiga bevosita iqtisodiy samara beradi.Mamlakatning ko‘plab yirik korxonalarida amalga oshiriladigan biznes jarayonlarini qisman avtomatlashtirishni o‘zaro muvofiqlashtirish muammosini keltirib chiqaradi. O‘zaro ishonchsizlik muhiti noqulay, ammo vaqt sinovidan o‘tgan sherikni yo‘qotish qo‘rquvini keltirib chiqaradi. Bu yetkazib beruvchilar va xaridorlar doirasini kengaytirishga qaratilgan elektron tizimlarni joriy etish yo‘lidagi yana bir to‘siqdir.

Elektron biznes sohasi milliy axborot infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Shu sababli, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarining xalqaro standartlariga asoslangan davlat standartlari to‘plami shaklida infratuzilmaning me’yoriy-texnik bazasini ishlab chiqish va amalga oshirish mamlakatning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi nuqtayi nazaridan juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Лавров Д.Н. Сети и системы телекоммуникаций: учебное пособие. – М.: Аспект Пресс, 2009 – 223 с.
2. Берлин А.Н. Телекоммуникационные сети и устройства. –М.: ИКФ “ЭКСМОС”, –2011. –322 с.
3. Киселев С.В., Шакиров М.М. “Содержание, характеристика и классификация телекоммуникационных услуг как объекта исследования” [Текст]: Казанский национальный исследовательский технологический университет, статья в журнале - научная статья Год: 2013 Страницы: 311-316
4. Котлер Ф. Основы маркетинга. Краткий курс. М.: Издво Вильямс, 2007. –656 с.
5. Ламбен Жан-Жак. Стратегический маркетинг. Европейская перспектива. –СПб:“Наука”,1996.–589 с.
6. Диксон П.Р. Управление маркетингом: –М.: БИНОМ, 2007.–650 с.
7. Н.В. Ребрикова. Организационно-методическое обеспечение процесса выведения пакетного продукта на рынок телекоммуникационных услуг. [Текст]: –Москва, –2012.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



MILLIY IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI

Xuseynova Feruzabonu Mamadaliyevna
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Milliy iqtisodiyotlarni raqamlashtirish XXI asrda iqtisodiy o‘sish, innovatsiyalar va raqobatbardoshlikka chuqur ta’sir ko‘rsatadigan global talabga aylandi. Ushbu maqola O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida raqamlashtirishni kengaytirish istiqbollarini o‘rganadi. Raqamlashtirishning hozirgi holatini tahlil qilish, xalqaro tajribani ko‘rib chiqish, muammolar va imkoniyatlarni baholash orqali maqolada O‘zbekistonda raqamli transformatsiya salohiyatidan foydalanish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy o‘sish, innovatsiyalar, raqobatbardoshlik.

Abstract: The digitalization of national economies has become a global imperative in the 21st century, with profound implications for economic growth, innovation, and competitiveness. This article explores the prospects for expanding digitalization in the context of Uzbekistan’s economy. Through an analysis of the current state of digitalization, a review of international experiences, and an assessment of challenges and opportunities, we present recommendations for harnessing the potential of digital transformation in Uzbekistan.

Key words: digitalization, national economy, economic growth, innovation, competitiveness.

Аннотация: Цифровизация национальных экономик стала глобальной неотъемлемой задачей в XXI веке, имея глубокие последствия для экономического роста, инноваций и конкурентоспособности. В данной статье исследуются перспективы расширения цифровизации в контексте экономики Узбекистана. Через анализ текущего состояния цифровизации, обзор международного опыта и оценку вызовов и возможностей, мы представляем рекомендации по освоению потенциала цифровой трансформации в Узбекистане.

Ключевые слова: цифровизация, национальная экономика, экономический рост, инновации, конкурентоспособность.

KIRISH

Bugungi jadal rivojlanayotgan global iqtisodiy sharoitda milliy iqtisodiyotlarni raqamlashtirish sanoatlar, hukumatlar va jamiyatlarni o‘zgartiruvchi kuch sifatida maydonga chiqdi. Butun dunyo mamlakatlari raqamli texnologiyalar iqtisodiy o‘sish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlamoqdalar. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston barqaror iqtisodiy rivojlanish katalizatori sifatida raqamlashtirishni kengaytirish yo‘lini boshlashga tayyor bo‘lgan o‘zgarishda turibdi.

Raqamlashtirish konsepsiyasi ilg‘or raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotning turli jabhalariga integratsiyalashni o‘z ichiga oladi, bu davlat xizmatlaridan tortib xususiy sektor operatsiyalarigacha. Shuningdek, u yuqori samaradorlikni oshirishga va innovatsiyalar uchun qulay muhitni yaratishga xizmat qiladi. Madaniy merosga va resurslarga ega O‘zbekiston uchun iqtisodiyotni raqamlashtirish kuchli tomonlardan foydalanish va taraqqiyotga erishish uchun mislsiz imkoniyatdir. O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan erishib bo‘lmaydi. Prezidentimizning 2020 yil 28 apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida bu boradagi qator vazifalar belgilab berilgan [1]. Raqamli texnologiyalar iqtisodiy amaradorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular farovon kelajak uchun yangi yo‘llar va imkoniyatlar yaratadi, shu bilan bir qatorda ular yangi vazifalarni ham qo‘yadilar.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu sohadagi adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, Alawadhi va Morrisning 2008-yildagi tadqiqoti kichik va o‘rta biznes korxonalar (KO‘B) kontekstida Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) rolini muhokama qiladilar. Ularning tadqiqoti kichik va o‘rta biznes sektorida mahsuldorlikni, raqobatbardoshlikni va

innovatsiyalarni oshirish uchun raqamlashtirish imkoniyatlarini ta'kidlab, ushbu xulosalarning O'zbekistondagi KO'B korxonalari uchun dolzarbligini yoritib beradi [2].

Choudrie va boshqalarning 2014-yildagi ilmiy tadqiqoti elektron hukumatning yetuklik modellarining mamlakatlararo tahlilini taqdim etadi. Ushbu tadqiqot mamlakatning raqamlashtirishga tayyorligini baholashda raqamli yetuklikni baholash muhimligini ta'kidlaydi. Bunday modellar O'zbekistonning raqamlashtirish jarayonini o'lchashga intilayotgani uchun qimmatli tushunchalarni berishi mumkin [3].

Kuzmin va Veberlar 2018-yildagi ilmiy ishida raqamli transformatsiyaning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganadilar. Ushbu tadqiqot o'tish davridagi mamlakat iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun raqamlashtirishdan qanday foydalanishi mumkinligiga misol keltiradi [4].

Jahon bankining "O'zbekiston: Digital CASA" (2020) haqidagi hisobotida O'zbekistonning raqamlashtirish bo'yicha tashabbuslari to'liq tavsiflangan. Unda innovatsiyalar, raqobatbardoshlik va farovonlikni rag'batlantiradigan raqamli ekotizimni yaratish bo'yicha hukumat strategiyalari bayon etilgan. Ushbu hisobot mamlakatni raqamlashtirish kun tartibini tushunish uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mavzuga doir adabiyotlar qiyosiy tahlil qilinadi va o'rganilindi hamda ilmiy abstraktsiyalashda foydalanildi. Shuningdek, O'zbekiston raqamlashtirishni kengaytirish sohasida rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan bir qator muhim kamchiliklarga duch kelmoqda. Qiyosiy va mavjud adabiyotlar tahlili orqali iqtisodiyotini raqamlashtirish borasidagi sa'y-harakatlardagi asosiy kamchiliklar va ularga xos yechimlar ishlab chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni raqamlashtirishni kengaytirish salohiyati va qat'iyati O'zbekistonning ushbu muhim sohada rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan bir qator muhim kamchiliklarga duch kelmoqda. Quyidagi jadvalda mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirish borasidagi sa'y-harakatlardagi asosiy kamchiliklar jamlangan:

1-jadval: O'zbekistonda raqamlashtirish borasidagi sa'y-harakatlardagi kamchiliklar

Kamchilik	Tavsifi
Cheklangan raqamli infratuzilma	O'zbekistonda ma'lumotlar markazi infratuzilmasining yetarli emasligi va yuqori tezlikdagi internetdan foydalanishning izchil yo'qligi bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda, bu esa raqamli transformatsiya harakatlariga to'sqinlik qilmoqda.
Raqamli ko'nikmalar va savodxonlik bo'shliqlari	Aholining katta qismi raqamli savodxonlik va malakaga ega emas, bu raqamli texnologiyalar bilan to'liq shug'ullanish va raqamli iqtisodiyotda ishtirok etish imkoniyatini cheklaydi.
Normativ to'siqlar	Murakkab va eskirgan qoidalar, xususan, elektron tijorat va ma'lumotlar maxfiyligi kabi sohalarda, biznes uchun to'siqlar yaratadi va raqamli sektorning o'sishiga to'sqinlik qiladi.
Kiberxavfsizlikning zaif tomonlari	Kiberxavfsizlik infratuzilmasi va xabardorligining zaif tomonlari jismoniy shaxslar, korxonalar va hukumat tizimlarini potentsial tahdid va hujumlarga duchor qiladi.
Elektron davlat xizmatlarini qabul qilishning cheklanganligi	Taraqqiyotga qaramay, elektron davlat xizmatlarini qabul qilish notekisligicha qolmoqda va ko'plab fuqarolar va korxonalar mavjud raqamli xizmatlardan bexabar.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan

1-jadvalda hozirda O'zbekistonni raqamlashtirishga to'sqinlik qilayotgan muhim kamchiliklar ko'rsatilgan. Ushbu muammolarni hal qilish keng qamrovli va samarali raqamli transformatsiyani amalga oshirish uchun zarurdir.

2-jadval: O'zbekistonda raqamlashtirishni kuchaytirish bo'yicha potentsial yechimlar

Yechim	Tavsifi
Raqamli boshqaruv asosi	Davlat idoralari bo'ylab raqamlashtirish bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish va milliy ustuvorliklarga muvofiqligini ta'minlash uchun raqamli boshqaruvning keng qamrovli asosini ishlab chiqish.
Xalqaro hamkorlik	Ekspertiza, texnologiya va ilg'or tajribalardan foydalanish uchun xalqaro tashkilotlar, texnologiya kompaniyalari va qo'shni davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.
Innovatsion ekotizim	Startaplarni qo'llab-quvvatlash, texnoparklar tashkil etish, tadqiqot va ishlanmalar tashabbuslarini ilgari surish orqali innovatsiyalarga qulay muhit yarating.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Raqamlashtirishni kengaytirish salohiyati va qat'iyati O'zbekistonning ushbu muhim sohada rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan bir qator muhim kamchiliklarga duch kelmoqda.

Yangi imkoniyatlarga kirishni kengaytirish uchun raqamli infratuzilma poydevorini mustahkamlash kerak. Bu kam ta'minlangan guruhlar va hududlarda raqamli texnologiyalardan foydalanishni yaxshilash uchun ko'proq xususiy investitsiyalarni rag'batlantirishga davlat investitsiyalarini va ramkalarni ko'paytirishni talab qiladi. Raqamli tafovut ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda keng qolmoqda. Kuchli raqamli infratuzilma va savodxonlik ushbu iqtisodlar uchun juda muhim bo'ladi, chunki texnologik o'zgarishlar past malakali, kam maoshli ishlab chiqarishga tayanadigan o'sish modellaridan uzoqlashishga majbur qiladi.

Ta'lim va o'qitish dasturlariga investitsiyalarni kuchaytirish va yangi texnologiyalarni to'ldiradigan ko'nikmalarni mustahkamlash uchun qayta yo'naltirish kerak. Buning uchun mazkur dasturlarning mazmuni, amalga oshirilishi va moliyalashtirilishida, jumladan, davlat-xususiy sheriklikning yangi modellarida innovatsiyalar talab etiladi. Ko'nikmalarga bo'lgan talabning tez o'zgarishi va malaka oshirish, qayta tayorlash va umrbod ta'limga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir sharoitda uzluksiz ta'limning sifatini sezilarli darajada oshirishni talab etiladi. Bunda onlayn ta'lim vositalari kabi texnologiyaga asoslangan yechimlarning imkoniyatlaridan foydalanish kerak. Ta'lim olish va (qayta) tayyorlashda doimiy tengsizliklarga barham berish kerak. Daromad guruhlari bo'yicha asosiy imkoniyatlardagi bo'shliqlar qisqargan bo'lsa-da, raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyatga olib keladigan yuqori darajadagi qobiliyatlarga ega bo'lganlar kengayib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar asosida biz milliy iqtisodiyotni raqamlashtirishni rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

- **Infratuzilmaga investitsiyalar:** raqamli infratuzilmaga, jumladan, yuqori tezlikdagi internetga kirish va ma'lumotlar markazlariga investitsiyalarni raqamlashtirishga ko'maklashish va shahar va qishloq joylarda teng huquqli foydalanishni ta'minlash uchun ustuvor yo'nalish.
- **Raqamli ta'lim va o'qitish:** raqamli iqtisodiyot uchun ishchi kuchining malakasini oshirishga e'tibor qaratgan holda ta'limning barcha darajalarida keng qamrovli raqamli savodxonlik va ko'nikmalarni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish.
- **Tartibga solish islohotlari:** raqamli innovatsiyalar uchun qulay muhitni yaratuvchi, ma'lumotlar maxfiyligini himoya qiluvchi va raqamli sektorga xorijiy investitsiyalarni rag'batlantiradigan tartibga soluvchi islohotlarni amalga oshirish.
- **Davlat-xususiy sheriklik:** raqamlashtirish bo'yicha sa'y-harakatlarni amalga oshirish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish. Raqamli infratuzilmani yaratish va raqamli xizmatlarni taqdim etishda xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish.

Mamlakatning raqamli transformatsiya va inklyuziv o'sish salohiyatini hisobga olgan holda, O'zbekiston milliy iqtisodiyotida raqamlashtirishni kengaytirish istiqbollari samarali natijalar beradi. Mavjud muammolarni hal qilish va imkoniyatlardan foydalanish orqali O'zbekiston iqtisodiy o'sishni oshirish, innovatsiyalarni rivojlantirish va jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirish uchun raqamlashtirish kuchidan foydalanishi mumkin. Raqamlilashtirishni qo'llash nafaqat farovonlik yo'li, balki raqamli iqtisodiyotning afzalliklaridan barcha "O'zbekiston fuqarolari uchun ochiq bo'lishini ta'minlash vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son qarori.
2. Alawadhi, S., & Morris, A. (2008). The use of ICT for SMEs in the UAE. Electronic Journal Information Systems Evaluation, 11(1), 13-24.
3. Choudrie, J., Dwivedi, Y. K., & Papazafeiropoulou, A. (2014). Developing e-government maturity models: A cross-countries analysis. Government Information Quarterly, 31(2), 128-139.
4. Kuzmin, A., & Weber, I. (2018). Digital transformation and the Ukrainian economy. Procedia Computer Science, 123, 123-128.
5. World Bank. (2020). Uzbekistan: Digital CASA - Building Digital Ecosystem for Innovation, Competitiveness, and Well-Being.

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Yo‘ldosheva Dilnoza G‘ayrat qizi
Fan va texnologiyalar universiteti, “Iqtisodiyot” fakulteti, “Iqtisodiyot” kafedrasi assistent-o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni O‘zbekiston iqtisodiyotiga integratsiyalash imkoniyatlari o‘rganiladi. Unda raqamli iqtisodiyotning mohiyati batafsil yoritilib, uning zarurati va zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari ham aniqlangan. Tahlil natijasida ushbu jarayonning mumkin bo‘lgan kamchiliklariga to‘xtalib, O‘zbekiston iqtisodiyotiga raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolardan ogohlantirilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, narsalar interneti, blokcheyn, virtual haqiqat.

Abstract: This article explores the possibilities of integrating digital technologies into the economy of Uzbekistan. It examines in detail the nature of the digital economy, identifying not only the need, but also the advantages that can arise from the use of modern digital solutions. The analysis also highlights the potential shortcomings of this process, warning against possible challenges and problems that may arise from the introduction of digital technologies into the economy of Uzbekistan.

Key words: digital economy, digital technologies, artificial intelligence, internet of things, blockchain, virtual reality.

Аннотация: Данная статья исследует возможности интеграции цифровых технологий в экономику Узбекистана. Она подробно рассматривает природу цифровой экономики, выявляет не только необходимость, но и преимущества, которые могут возникнуть при использовании современных цифровых решений. В рамках анализа также освещаются потенциальные недостатки этого процесса, предостерегая от возможных вызовов и проблем, которые могут возникнуть внедрением цифровых технологий в экономику Узбекистана.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровые технологии, искусственный интеллект, интернет вещей, блокчейн, виртуальная реальность.

KIRISH

Jahonda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi yaqin kelajakda mamlakatimizda ham raqamli texnologiyalarga bo‘lgan talabning ortishini ko‘rsatadi. Kundalik hayotda tobora sun’iy intellekt, narsalar interneti (IoT), blokcheyn, virtual haqiqat kabi innovatsion texnologiyalar qo‘llanilishi odatiy holga aylanmoqda. Raqamli iqtisodiyot o‘zining dastlabki kunlarida internetga ulanishga tayanganligi sababli ba’zan internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisod deb atalar edi. Biroq, iqtisodchilar va yirik biznes egalarining ta’kidlashicha, raqamli iqtisodiyot internet iqtisodiyotiga qaraganda ancha rivojlangan va murakkab tuzilishga ega. Qisqacha qilib aytganda esa, bu Internetdan olingan iqtisodiy qiymatni anglatadi.

Raqamli iqtisodiyot uchinchi sanoat inqilobidan to‘rtinchi sanoat inqilobiga o‘tishni aks ettiradi. Uchinchi sanoat inqilobi - ba’zan raqamli inqilob deb ataladi, u XX asr oxirida analog elektron va mexanik qurilmalardan raqamli texnologiyalarga o‘tish bilan sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni anglatadi. To‘rtinchi sanoat inqilobi raqamli inqilobga asoslanadi, chunki texnologiyalar bugungi kunda jismoniy dunyo va kiberdunyoni bog‘lashda davom etmoqda. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi raqamli iqtisodiyot o‘sishini yanada tezlashtirdi, chunki masofaviy ish, onlayn xaridlar, yangi onlayn xizmatlarning paydo bo‘lishi “Uyda qoling!” va “Ijtimoiy masofani saqlang!” degan cheklovlar qo‘yilganida juda ahamiyatli bo‘ldi. Raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanishda va kengayishda davom etmoqda, rivojlanayotgan texnologiyalar va innovatsiyalar uning yo‘nalishini shakllantirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jinzhu Zhang fikriga ko‘ra, Odatda internet, katta ma’lumotlar, 5G, sun’iy intellekt bilan ifodalanadigan raqamli texnologiyalar sanoat bilan chuqur integratsiyani tezlashtiradi va dunyoni raqamli iqtisodiyot davriga olib keladi. “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi ilgari surilganidan buyon raqamli iqtisodiyot ham asta-sekin mamlakatlar uchun muhim hamkorlik sohasiga aylandi [2].

Christos K. Georgiadisning ta’kidlashicha, “Raqamli iqtisodiyot” (yoki Internet iqtisodiyoti) atamasi Internet va boshqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan barcha iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatni anglatadi. Raqamli iqtisodiyot – bu mutlaqo yangi iqtisodiyot emas, balki AKTdan foydalanish orqali an’anaviy iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishning yangi usullari. Ilgari operatsion tadqiqotlar mikro va makroiqtisodiyotda ko‘plab qo‘llanilgan bo‘lsa, hozirgi kunda ular raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar taqdim etayotganga o‘xshaydi. Raqamli iqtisodiyot kontekstida ko‘proq o‘rganilishi kerak bo‘lgan ko‘plab muammolar mavjud [4].

Ayupov Ravshan Hamdamovichning fikriga ko‘ra, raqamli texnologiya bu – xo‘jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo‘lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko‘rinishdagi katta ma’lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa, an’anaviy xo‘jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga yordam beradi[5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada analiz va sintez, mantiqiy tahlil, statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Maqola ma’lumotlari turli xil xorijiy manbalar hisobotlari, davlat idoralaridan olingan ikkilamchi ma’lumotlar, shuningdek, statistik hisobot va hujjatlar tahliliga asoslanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahonda raqamli iqtisodiyot yaralganidan beri sezilarli darajada rivojlandi. Raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyatga erishish uchun an’anaviy kompaniyalar o‘zgarishga va zamon talablariga moslashishga majbur bo‘lishmoqda.

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishining ba’zi bir muhim elementlari va raqamli texnologiyalarga bog‘liqligi quyidagi misollarda keltirilgan:

- **Raqamli savdo va elektron tijoratning boshlanishi.** Jahon bozorida Amazon, Alibaba va eBay kabi yirik xalqaro onlayn platformalar va O‘zbekistonda Uzum market milliy marketpleysi, Asaxiy onlayn do‘koni kabilar elektron tijoratning o‘sishiga turtki bo‘ldi, chakana savdoni qayta shakllantirdi va yangi texnologiyalar va biznes modellarini yaratdi.
- **Ijtimoiy tarmoqlar.** Facebook, Twittex, Instagram, Telegram va LinkedIn kabi ijtimoiy tarmoq platformalarining paydo bo‘lishi odamlarning muloqot qilish, ulanish va o‘z mahsulotlarini reklama qilish usullarini o‘zgartirdi. O‘zbekistonda 2023-yil yakunlariga ko‘ra, Instagramdan foydalanuvchilar soni 4.2 million, Twittex 148.7 ming, Facebook 562.8 ming, LinkedIn 460 ming kishini tashkil etishini inobatga olsak, bu marketingda kam xarajat evaziga ko‘proq mijozni jalb qila olish imkoniyatini beradi.
- **Masofaviy ishlarni qabul qilishning ortishi.** Pandemiya ish joyi madaniyatining o‘zgarishiga olib keldi, chunki ko‘proq odamlar masofaviy ishlashni qabul qilishdi va onlayn hamkorlikni rivojlantirish uchun Zoom, Telegram va Microsoft Teams kabi ilovalardan foydalanishni boshladilar. Raqamli iqtisodiyot ushbu tendensiya natijasida rivojlandi, bu korxonalarning ishlash va ishchi kuchini boshqarish usullarini qayta shakllantirdi.
- **Savdoga gidrib tarzda yondashuv.** Ko‘pgina chakana sotuvchilar mijozlarga onlayn savdo va mobil ilovalar kabi bir nechta kanallar orqali murojaat qilishadi, shu bilan birga shourumlar tashkil qilib ularga xizmat ko‘rsatishadi. Bu ularga xaridorlarni ham internet orqali, ham an’anaviy tarzda shaxsan xarid qilishlarini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Ular har bir mijozning qiziqishlarini yaxshiroq tushunish uchun ko‘rib chiqish va sotish ma’lumotlarini to‘plashi va tahlil qilishi, shuningdek bu ma’lumotlardan ijtimoiy tarmoqlar orqali mijozlar bilan bog‘lanish uchun foydalanishi, xizmat ko‘rsatishni yaxshilash va pirovardida savdoni oshirish hamda brendga sodiqlikni oshirish imkonini beradi.
- **Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish.** Virtual yordamchilar, chatbotlar va sun’iy intellekt asosidagi tavsiyalar algoritmlari iste’molchilar tajribasini yaxshilaydi va individual xizmatlarni taqdim etadi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt inson intellektual mehnatining bir qismini almashtirishi va ayrim toifa xodimlariga ishsizlik bilan tahdid qilishi mumkin. Yaqin yillarda yo‘qolib ketishi va o‘rnini sun’iy intellekt egallashi kutilayotgan ayrim kasblar ro‘yxati ham shakllantirilgan. Unga quyidagi kasblar kiritilgan: sifat nazoratchilari, telemarketolog, hisobchi, bank yoki pochta bo‘limi xodimi, moliyaviy xizmatlar xodimlari, qo‘ng‘iroq markazi operatori, yozuv xodimlari va boshqalar.

- **Raqamli to‘lovlar va kriptovalyutalar.** Payme, Click, Paynet kabi onlayn to‘lov tizimlari va mobil hamyonlar odamlarning moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish usullarini o‘zgartirdi. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, 2022-yilda O‘zbekiston aholisining 39.3% i onlayn to‘lovlarni, 5.9% i onlayn xaridlarni amalga oshirgan
- **Raqamli o‘yin-kulgi.** Netflix, Spotify, YouTube va Tik-Tok kabi striming xizmatlarining ko‘tarilishi tufayli ko‘ngilochar sanoat sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. Ushbu platformalar bir qator kontentga tezkor kirishni ta’minlash orqali media iste’molida inqilob yasadi.

Raqamli o‘zgarishlarni tendensiyasini tezda tushunib yetgan va rivojlanishning ustuvor vazifasiga aylantirgan korxonalar jarayonlarni soddalashtirishi, xarajatlarni kamaytirishi va yangi daromad manbalarini yaratishi mumkin. Ammo raqamli iqtisodiyot an’anaviy ravishda qo‘lda yoki analog qurilmalarda bajariladigan vazifalarni bajarish uchun kompyuterdan foydalanishdan ko‘ra chuqurroq ma’noni anglatadi. Tashkilotlar o‘z tizimlari va odamlarining birgalikda samarali ishlashini ta’minlash yo‘llarini topishi, xodimlarning zamonaviy texnologiyalarni o‘rganishi va o‘zlashtirishiga sharoit yaratishi, o‘z ustida tinimsiz ishlashlari uchun motivatsiya berishi, ushbu vazifalarni bajarish uchun texnologiyalardan foydalanish imkoniyati va ehtiyojini ta’kidlaydi.

Shu qatorda raqamli iqtisodiyot rivojlanishini ta’minlovchi va tezlashtiruvchi o‘ziga xos infrastruktura talab etilishini esdan chiqarmaslik lozim. Bu infrastruktura o‘z ichiga quyidagilarni oladi: yuqori tezlikdagi internet (5G va Wi-Fi 6), sun’iy intellekt, virtual haqiqat, blokcheyn, narsalar interneti, kvant hisoblashlar va boshqa innovatsion texnologiyalar. Birgina narsalar internetining o‘zi raqamli dunyo bilan jismoniy elementlarni birlashtirishni ta’minlab, ushbu texnologiya avtomatlashtirish, real vaqtda monitoring va ma’lumotlarga asoslangan tushunchalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Aqlli uylar, aqlli shaharlar, qishloq xo‘jaligi va sanoatni avtomatlashtirish narsalar interneti ilovalari samaradorlik, mahsuldorlik va qulaylikni oshiruvchi sohalardan faqat ayrimlaridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ko‘rinib turibdiki, raqamli texnologiyalarni qo‘llash iqtisodiyotda juda katta imkoniyatlarni yaratadi. Bu hosildorlik va samaradorlikning oshishida, xarajatlarning kamayishida, globallashuv va jahon bozoriga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishda, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan tezkorlikda ishlash va o‘z vaqtida boshqaruv qarorlarini qabul qila olishda, marketing kampaniyalarini to‘g‘ri sozlay olishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga raqamlashishdan kelib chiqadigan muammolarni ham yoddan chiqarmaslik zarur. Raqamli texnologiyalar o‘z vaqtida infrastruktura bilan ta’minlashni, maxfiylik va xavfsizlik masalasiga jiddiy yondoshuvni talab etadi, ayrim ish o‘rinlarining yo‘qolib ketishiga va bozorlarda gigant monopol kompaniyalar vujudga kelishiga ham sabab bo‘ladi.

Raqamli tafovutning mavjudligi, bu texnologiyaga ega bo‘lganlar va foydalana olmaydiganlar o‘rtasidagi tafovutni anglatadi va bu hodisa raqamli iqtisodiyotning muhim kamchiligidir. Ushbu bo‘linish axborotdan foydalanish, ta’lim, bandlik istiqbollari va iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘liq tengsizlikka olib kelishi mumkin. Undan qochish esa, texnologiyalarni tezda o‘zlashtirish, tendensiyalarni kuzatib borish, zamon bilan hamnafas bo‘lish bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Amina Omrane, Gouranga Patra, Sumona Datta. Digital Technologies for Smart Business, Economics and Education. Springer, 2023.
2. J.Zhang. The impact of digital economy on the Economic Growth and the development strategies in the post-COVID-19 Era. 2022. https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/fpubh.2022.856142/full
3. Nchofoung TN, Asongu SA. ICT for sustainable development: global comparative evidence of globalization thresholds. Telecomm Policy. (2022) 46.
4. Georgiadis CK, Stiakakis E, Ravindran AR. Editorial for the special issue: digital economy and e-commerce technology. Operat Res. (2013) 13:1–4.
5. R.H. Ayupov, S.Q. Tursunov. Raqamli texnologiyalar: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. –T.: Nizomiy nomidagi TDPU, “Nodirabegim” nashriyoti, 2020, 377 bet.
6. Abdullaev A.A. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – Toshkent, Iqtisod-moliya nashriyoti, –2020-yil.
7. Simon Kelp, Digital 2023: Uzbekistan // URL: https://datareportal.com/reports/digital-2023-uzbekistan – (https://datareportal.com/reports/digital – 2023-uzbekistan) murojaat sanasi 21.01.2024.
8. We Are Socials marketing agentligi, Digital 2023: Uzbekistan // URL: https://indd.adobe.com/view/53676a58-2e6e-44de-aeae-3b4743f18d01 – murojaat sanasi 21.01.2024.



НЕОБХОДИМОСТЬ СОБЛЮДЕНИЯ ЭТИЧЕСКИХ НОРМ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУХГАЛТЕРОВ

Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна
Кандидат философских наук, доцент кафедры “Социально-гуманитарных наук” Ташкентского Государственного Экономического Университета

Аннотация: Данная статья посвящена вопросу взаимосвязи профессиональной деятельности бухгалтеров и профессиональных этических норм. Показана важность соблюдения норм, правил и принципов этики в профессии бухгалтера. Обращено внимание на важность разработки и применения Кодекса этики профессиональных бухгалтеров. Даны рекомендации и сделаны выводы по данному вопросу.

Ключевые слова: этика, кодекс этики, профессиональная этика, бухгалтерия, поведение бухгалтера.

Annotatsiya: Ushbu maqola buxgalterlarning kasbiy faoliyati va kasbiy axloqiy me’yorlar o‘rtasidagi munosabatlar masalasiga bag‘ishlangan. Buxgalterlik kasbida axloq normalari, qoidalari va tamoyillariga rioya qilish muhimligi ko‘rsatilgan. Professional buxgalterlarning axloq kodeksini ishlab chiqish va qo‘llash muhimligiga e’tibor qaratiladi. Mazkur masala yuzasidan tavsiyalar berilib, xulosalar ishlab chiqilmoqda.

Kalit so‘zlar: axloq, axloq kodeksi, kasbiy etika, buxgalteriya hisobi, buxgalterning xulq-atvori.

Abstract: This article is devoted to the issue of the relationship between the professional activities of accountants and professional ethical standards. The importance of compliance with norms, rules and principles of ethics in the accounting profession is shown. Attention is drawn to the importance of developing and applying the Code of Ethics for Professional Accountants. Recommendations are given and conclusions are drawn on this issue.

Key words: ethics, code of ethics, professional ethics, accounting, accountant behavior.

ВВЕДЕНИЕ

Человек с древнейших времен, с момента осознания себя стал понимать необходимость соблюдения в своей жизни определенных правил, норм и принципов поведения. И среди первых появившихся наук была этика – наука о морали, нравственности, правилах и нормах поведения людей в обществе. Этика пронизывает всю жизнь человека: в отношении к окружающим его людям, к самому себе, к природе, к животным. Одним из структурных элементов этики является профессиональная этика, представляющая собой совокупность определенных обязанностей, неписаных законов, правил, норм и принципов поведения, поддерживающих моральный престиж любой профессии, в том числе и бухгалтерской.

Профессия бухгалтера сопряжена с такими функциональными особенностями, как ведение учета и составление отчетности, формирование учетной политики организации, контроль, анализ отчетных данных, участие в профессиональных организациях.

Может показаться, что между этикой и бухгалтерским делом большая пропасть. Однако, это заблуждение. Обе эти сферы насчитывают многие тысячи лет своего существования. Этика зародилась более двух с половиной тысяч лет назад как важнейшая часть философии, когда в результате общественного разделения труда познавательная теоретическая деятельность отделилась от непосредственного практического нравственного сознания. Бухгалтерская деятельность зародилась в 5000 - 4000 лет до н.э.

В каждой профессиональной сфере деятельности почти с самого их начала функционирования разработаны и применяются определенные этические нормы и правила, кодексы и принципы. Их актуальность соблюдения объясняется тем, что в любой профессии люди могут сталкиваться с различными этическими коллизиями и моральными разногласиями, которые невозможно разрешить, исходя только из существующих профессиональных знаний. И на помощь приходит профессиональная этика.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

По вопросу взаимосвязи этики и бухгалтерского дела проводились различные исследования зарубежных и отечественных авторов, посвященные данной теме.

Так, среди российских авторов можно назвать таких, как Соколов Я.В., Соколов В.Я., Михайлова Г.В., Горлова Е.Б., Пятов М.Л., Смирнова И.А. и др.

Среди западных исследователей выделяются Мэтьюс М.Р., Перера М.Х.Б., Рейнштерн А., Каллен Дж.Б., Сакано Т., Вискович Дж. и др.

Среди отечественных авторов можно отметить Джамбакиеву Г.С.

Соколов Я.В., Соколов В.Я. отмечают, что "…экономика и профессиональная этика должны находиться в неразрывном единстве, вне морали нет бухгалтерии". [11]

Михайлова Г.В. и Горлова Е.Б., затрагивая данный вопрос, делают акцент "…на раскрытии особенностей интеграционных процессов, касающихся оптимизации экономического и этического аспектов современного бухгалтерского учета". [4]

Пятов М.Л. и Смирнова И.А. считают, что соблюдение профессионально этических норм является важным и необходимым условием для формирования профессионального суждения бухгалтеров. [9]

Мэтьюс М.Р. и Перера М.Х.Б. в своей работе "Accounting theory and development" ("Теория и развитие бухгалтерского учета") отмечают, что "профессиональная этика в бухгалтерской профессии развивалась эволюционно, причем в развитии этических норм нашла яркое отображение их практическая направленность". [6]

Джамбакиева Г.С. отмечает: "Переход Узбекистана к рыночной экономике, реформирование национальной системы бухгалтерского учета, привели не только к изменениям методологии бухгалтерского учета, но и к повышению морально-этических требований к бухгалтерской профессии. Сообщество профессиональных бухгалтеров признает обязательным условием соблюдение этических норм, установленных Международной федерацией бухгалтеров (IFAC). На их основе Институт профессиональных бухгалтеров Узбекистана утвердил Кодекс этики…" [2]

Небольшой экскурс в исследование трудов ученых по вопросу применения этических норм в профессиональной деятельности бухгалтеров показывает, что данная тема является весьма важной, актуальной и практически значимой в современных условиях устойчивого развития человеческого общества.

МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Исходя из специфики данной темы, были выбраны определенные методы исследования. В качестве основного использовался исследовательский метод. Применялись также сравнительно-сопоставительный и системный анализ научной литературы по данной теме, метод научного синтеза фактических материалов, индуктивный и дедуктивный методы в их единстве при обобщении материалов.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Роль бухгалтеров в экономической жизни организации в современных условиях развития экономики очень важна. Это связано с тем, что информация, которую они предоставляют, имеет решающее значение для оказания помощи работодателям, клиентам, инвесторам и другим лицам в принятии важных экономических решений. Таким образом, бухгалтеры, не имеющие этического образования, могут нанести вред обществу, снизить общественное доверие и помешать эффективному функционированию рынков капитала.

Бухгалтера предоставляют большой важности информацию. Следовательно, они должны обладать общими деловыми навыками, способностью работать с людьми, чтобы мотивировать других членов команды, и придерживаться профессиональных этических стандартов. Функционально у бухгалтеров очень много обязанностей. Например, они должны осуществлять подготовку и предоставление точной и своевременной финансовой отчетности, выявлять неэффективное и нерациональное использование ресурсов, создание эффективных систем внутреннего контроля и учета, анализ операционных процессов конкурирующих организаций, чтобы помочь руководству в составлении политики и расследования мошенничества, имеющего место быть в организации, и др. И при всех этих обязанностях они должны сохранять человеческий облик, понимая, что их профессия сопряжена, прежде всего, с непосредственным контактом с людьми. Любой член трудового коллектива всегда должен понимать, что его деятельность направлена на развитие данной организации и общества в целом. Для более эффективного осуществления своей деятельности бухгалтерам необходимо соблюдать этические нормы, заложенные в их профессии. В этом случае он обретает авторитет, признание и доверие со стороны общества.

TARAQQIYOT PROGRESS

В любой профессии существуют свои профессиональные этические кодексы. Бухгалтерское дело – не исключение. Так, в Узбекистане подобный Кодекс вышел в свет в июне 2005 года, и ровно через год он вступил в силу. Он был принят Национальной ассоциацией бухгалтеров и аудиторов Узбекистана (НАБА Уз) и утвержден Советом НАБА Уз в марте 2010 г. Сама данная Ассоциация в нашей стране начала действовать в официальном статусе с 13 марта 1992 года. И тогда она получила название “Ассоциация бухгалтеров”. А 22 мая 2001 года на отчетно-выборной конференции были утверждены изменения к Уставу, критерии членства, и Ассоциация была переименована в “Национальную Ассоциацию бухгалтеров и аудиторов Узбекистана” (НАБА Уз) [7] и стала принимать активное участие в разработке Кодекса этики профессиональных бухгалтеров.

Данный Кодекс состоит из трех частей. Так, в Части А определены фундаментальные принципы профессиональной этики для профессиональных бухгалтеров и данная часть обеспечивает концептуальную основу применения этих принципов. Концептуальная основа предоставляет руководство по фундаментальным этическим принципам, среди которых выделяются: честность, благонадежность, порядочность, объективность, профессиональная компетентность и должная тщательность, конфиденциальность, профессиональное поведение. Цель профессионально-этического кодекса бухгалтера – содействовать улучшению этической культуры в профессии бухгалтера. Следует отметить, что наш национальный Кодекс не противоречит Кодексу этики Международной федерации бухгалтеров, первая редакция которого была опубликована в 1996 году. При этом национальный Кодекс адаптирован под специфику экономического уклада Узбекистана, в нем учтены исторические особенности и традиции страны, он конкретизирует этические правила поведения в различных ситуациях.

В нашей стране также функционирует Федерация Бухгалтеров Узбекистана. Среди основных ее целей выделяется продвижение этических стандартов профессии, а также продвижение международных стандартов финансовой отчетности (МСФО), международных образовательных стандартов, международных этических стандартов и других международных норм.

Присущность к профессиональной группе приравнивается к присущности к элите, а для большинства людей отношение к элите является весьма важным, поэтому изгнание из элиты является единственным наказанием для нарушителя стандартов этического кодекса. Это же имеет отношение и к профессии бухгалтера.

В сегодняшних реалиях на международном уровне наблюдается явное противоречие между современными требованиями к специалистам бухгалтерского учета и возможностями их реализации. Такие противоречия являются реальным выражением растущих требований человеческого сообщества к профессиональным качествам специалистов. Главным условием разрешения этих конфликтов является создание социальных, экономических, моральных и правовых условий для успешного решения образовательных проблем в обществе. Сейчас на практике мы видим, что наличие кодекса и прописанных в нем правил не имеет прямого отношения к практической реализации этих правил. В связи с этим сегодня остро стоит вопрос поиска новых путей и методов регулирования и действительное внедрение на практике профессиональной этики бухгалтеров.

В связи с тем, что в полной мере не реализуется на практике применение бухгалтерами их профессиональных этических норм и принципов, возникает так-называемый “кризис доверия” к их профессии, который в значительной степени связан с несоблюдением и нарушением некоторыми бухгалтерами этических норм. Следовательно, необходимо разработать меры для регулирования правил профессионального поведения бухгалтеров. Например, Бычкова С.М. и Итыгилова Е.Ю. считают, что “регулирование в бухгалтерской профессии не может быть эффективным, если не включает регулирование этического поведения. Этическое поведение профессионального бухгалтера и является окончательной гарантией хорошего обслуживания и высокого качества”. [1]

На протяжении длительного времени развития профессиональной этики бухгалтеров происходили изменения в подходах к обоснованию норм этики, менялись органы контроля, задачей которых было контролирование исполнения норм этики. Но такие принципы, как соблюдение и уважение к закону, честное отношение к учету, достоверность информации и ее объективность, оставались неизменными. В современных условиях развития общества они также остаются наиболее важными в профессиональной этике бухгалтеров.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Таким образом, профессиональная этика у бухгалтеров занимает не последнее место в данной сфере деятельности. Ее регулирование направлено на укрепление и дальнейшее развитие этой профессии. Развитие профессиональной этики в бухгалтерской сфере шло эволюционным путем, и в нем яркое отображение нашла их практическая направленность.

Сегодня важным моментом в данном вопросе является добровольное осознание бухгалтером хотя бы минимального набора морально-этических ценностей, которым необходимо следовать в учетной деятельности. Для дальнейшего устойчивого развития общества большая ответственность возлагается на объективность и порядочность бухгалтеров.

ВЫВОДЫ

При соблюдении бухгалтерами основных этических принципов будет осуществляться:

- Разработка концептуальной модели формирования профессиональных ценностей и поведения бухгалтеров всех уровней образования (среднее профессиональное, высшее, дополнительное образование, повышение квалификации).
- Дальнейшее совершенствование содержания Национального кодекса этики профессиональных бухгалтеров с целью его адаптации к практике и введение внутреннего Кодекса этики для отдельных профессиональных организаций и бухгалтерских служб.
- Разработка своеобразного механизма выявления неэтичного поведения бухгалтеров и создание эффективной системы наказания за нарушения этических норм, внесенных в Национальный Кодекс этики профессиональных бухгалтеров.

Для успешной реализации данных мер на практике следует разработать политику на профессиональном и государственном уровне в целом, которая будет направлена на развитие интереса к этическому поведению как у самих бухгалтеров, так и у пользователей результатов их профессиональной деятельности.

Следуя профессиональной этике бухгалтера, можно понять насколько важно построение профессиональных и деловых отношений между людьми и укрепления взаимного доверия.

Список использованной литературы:

1. Бычкова С.М., Итыгилова Е.Ю. Этика профессионального бухгалтера / Под ред. проф. С.М. Бычковой. 2-е изд., перераб. и доп. –М.: БИНФА, 2011. –160 с.
2. Джамбакиева Г.С. Значение профессиональной этики бухгалтера в современной экономической среде. - https://cyberleninka.ru/article/n/znachenie-professionalnoy-etiki-buhgaltera-v-sovremennoy-ekonomicheskoy-srede/viewer
3. Лесина Т.В., Волкова Ю.С. Профессиональная этика бухгалтера. Теоретическая и практическая плоскость // Управленческий учет. –2015. № 9. –С. 61-69.
4. Михайлова Г.В., Горлова Е.Б. Этические аспекты современных бухгалтерских проблем // Международный бухгалтерский учет. –2016. № 18. –С. 18-32.
5. URL: https://cyberleninka.rU/article/n/eticheskie-aspekty-sovremennyh-buhgalterskih-problem-1
6. Мэтьюс М.Р., Перера М.Х.Б. Теория бухгалтерского учета / пер. с англ. Под ред. Я.В. Соколова и И.А. Смирновой - М.: “ЮНИТИ”, 1999. https://buh.ru/articles/primenenie-msfo-sotsialnyy-aspekt.html#briefly_26219
7. Национальная Ассоциация бухгалтеров и аудиторов Узбекистана (НАБА Уз). - https://naaa.uz/
8. Панкова С.В., Саталкина Е.В. Профессиональное суждение бухгалтера: неопределенность, риски и этические требования // Международный бухгалтерский учет. –2013. № 27. –С. 10-16. URL: https://cyberleninka.m/article/n/professionalnoe-suzhdeme-buhgaltera-neopredelennost-riski-i-eticheskie-trebovaniya
9. Пятов М.Л., Смирнова И.А. Применение МСФО: социальный аспект. - https://buh.ru/articles/primenenie-msfo-sotsialnyy-aspekt.html#briefly_26219
10. Санникова И.Н. Кодекс этики и профессиональные ценности бухгалтера // Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях.–2006. –№ 1. –С. 18-23.
11. Соколов Я.В., Соколов В.Я. История бухгалтерского учета. – М.: Финансы и статистика, –2004. –272 с.
12. Шапошников А.А. Нравственные начала профессии бухгалтера и аудитора // Аудиторские ведомости. 2015. № 8. С. 75-84. URL: http://xn–7sbbaj7auwnffhk.xn--p1ai/article/13543
13. Шапошников А.А. Этические координаты профессии бухгалтера и аудитора // Идеи и идеалы. –2016. Т. 1. № 3. С. 49-62. URL: https://doi.org/10.17212/2075-0862-2016-3.1-49-62
14. Шапошников А.А., Баранов П.П., Устинова Я.И. Этические регулятивы в истории бухгалтерского учета и аудита: монография. –Новосибирск: НГУЭУ, –2016. –176 с.

MINTAQALARDA KICHIK INNOVATSION KORXONALARNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI





Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich
PhD, Namangan muhandislik-texnologiya instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Axmadjanov Ilyosbek Ilxomjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqalarda kichik biznes korxonalari faoliyatini rivojlantirishda yangi innovatsion kichik korxonalarni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari va nazariy tomonlari bo‘yicha ma’lumotlar berilgan bo‘lib, kichik innovatson korxonalardagi innovatsion faoliyatni olti bosqichli sxemasi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy o‘sish, mintaqalar, potensial, kichik biznes, yalpi ichki mahsulot, kichik innovatsion korxonalar, globallashuv, yangi texnologiya, modernizatsiya, diversifikatsiya, yangi biznes modellar, integratsiya, raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar, Small and Medium Enterprise.

Abstract: This article provides information on the specific features and theoretical aspects of the organization of new innovative small enterprises in the development of small business enterprises in the regions, as well as a six-stage scheme of innovative activities in small innovative enterprises.

Key words: economic growth, regions, potential, small business, gross domestic product, small innovative enterprises, globalization, new technologies, modernization, diversification, new business models, integration, digital technologies, innovation, small and medium-sized businesses.

Аннотация: В данной статье представлена информация об особенностях и теоретических аспектах организации новых инновационных малых предприятий в развитии малого предпринимательства в регионах, а также шестиступенчатая схема инновационной деятельности на малых инновационных предприятиях.

Ключевые слова: экономический рост, регионы, потенциал, малый бизнес, валовой внутренний продукт, малые инновационные предприятия, глобализация, новые технологии, модернизация, диверсификация, новые бизнес-модели, интеграция, цифровые технологии, инновации, малое и среднее предпринимательство.

KIRISH

Dunyo mamlakatlarida iqtisodiyotni barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirish, yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, aholi bandligini ta’minlash maqsad qilingan bo‘lib, bularni barchasi tanlab olingan hududda amalga oshiriladi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda mintaqalar iqtisodiyotini o‘rni yuqoridir, bundan tashqari investitsiyalar jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda mintaqaviy iqtisodiyot shakllariga e’tibor qaratishimiz kerak bo‘ladi.

Mintaqaviy iqtisodiyot o‘z navbatida mintaqalarni iqtisodiy rivojlanishini, geografik joylashuvini, tabiiy resurslarini, demografik holatini, ishlab chiqarish poyensialini o‘rganadi va shu asnoda ishlab chiqarish tarkibini aniqlash, aholini ijtimoiy holatini ko‘tarish va xo‘jaliklarni joylashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes korxonalarini rivojlantirishda bir qator yangicha yondashuvlar talab etmoqda, xorijiy mamlakatlar tajribalaridan shuni anglash mumkinki, kichik biznes korxonalarisiz iqtisodiyotni barqaror rivojlantirib bo‘lmaydi, sababi ko‘plab mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes 40-50 % ni tashkil etadi. Shu sababdan biz tadqiqotlarimizda kichik biznes rivojlanishi va u bilan bog‘liq muammolariga qaratdik, hamda kichik biznesni mintaqalarda o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantirgan holda milliy iqtisodiyot va jahon iqtisodiyoti doirasida anologi yo‘q bo‘lgan eksportbob mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishni maqsad qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ko‘plab xorijiy olimlarni ilmiy tadqiqot ishlarida kichik innovatsion korxonalar rivojlanishi natijasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilab berishadi deb hisoblashgan.Y. Shumpeter, P. Druker, X. Xaushtayn, L.V. Kantorovich va boshqalarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Innovatsion faoliyat alohida aspekt sifatida ko‘rilgan ilmiy tadqiqotlar mualliflari esa R.A.Fatxutdnnov, L.M.Goxberg,V.G. Medinskiy,F.F. Bezdudniy, G.Ya. Goldshteyn, Ye.V. Sapnr, A.A. Trifilova, T.S. Blinova, P.N. Zavlinalardir.

Bugungi kunda kichik biznes korxonalarini jadal rivojlantirishda yangiliklarni amaliyotga joriy etish orqali mintaqalarda kichik biznes korxonalari faoliyatini yangidan tashkil etish masalalari ko‘rilgan va bunday tadqiqotlar bilan esa R. Kantnlon, A. Marshall, M. Veber, F. Xayek, Dj.k.Gelbreyt, P. Samuelsonlar va kichik biznes korxonalari risklari bilan esa Ye.V Berejnoy, N.N. Vnukova, F.n.Zavyalova, R.M. Kachalova, O.G. Kryukova, S.I. Kukota, I.V. Makarovoy, V.V. Moskovseva, F.X. Nayta, T.A. Poroxiya, N.M. Rapnitskoy, V.S. Stupakova, G.S Tokarenko, A. S Shapkina, R.N Fedoseyeva va boshqalar shug‘ullanishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Olib borilgan izlanishlar natijasida mamlakat hududlarida kichik biznes korxonalari faoliyatini rivojlantirish, globallashuv davrida innovatsion kichik korxonalar rivojlanishiga oid nazariy masalalar ko‘rilgan, kichik korxonalar tizimida innovatsion faoliyat ketma-ketligi sxemasi bo‘yicha ma’lumotlar ham berilgan bo‘lib, innovatsion kichik korxonalar faoliyatida yangi g‘oyalar ishlab chiqarish, yangi texnologiyalarni qo‘llash va modernizatsiyalash, faoliyat turlarini diversifikatsiyalash ishlarini amalga oshirish maqsad qilingan va zamonaviy kichik biznes korxonalari rivojlanishi ta’sirida raqamlashtirish orqali ishlab chiqarish, transport, iste’mol, yetkazib berish tizimlarini tubdan o‘zgartirib yubordi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy adabiyotlardagi ma’lumotlardan shuni anglash mumkinki, kichik biznes faoliyati bo‘yicha ko‘plab olimlar o‘z fikrlarini bayon etgan. L.Shapiro esa inson tadbirkor sifatida o‘zining taklifi bilan bozor sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirib boradi va B.Karlof esa tadbirkor ishlab chiqarish omillarini optimal umumlashtiruvchi shaxs sifatida ko‘rgan, mehnat, kapital, resurslardan to‘g‘ri foydalanishda ijodiy yondashuvlarni talab etadigan faoliyat deb atagan.

Mamlakat iqtisodiyotida innovatsiyalar muhim element sifatida qaraladi, “Butun jahon intellektual mulk tashkiloti general direktori Frensis Garri fikriga ko‘ra innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning markaziy harakatlantiruvchi kuchi, deb hisoblagan, u tomonidan bo‘sh ish o‘rinlari yaratiladi, jahon bozorida korxonalarni samarali raqobatlashishni ta’minlovchi kalit sifatida qaragan” [1]. “Bundan tashqari, innovatsiyalarga yuqori bahoni Booz & Company konsalting kompaniyasi rahbari Shumit Banerji tomonidan ham berilgan bo‘lib, xar qanday korxonalar faoliyatini jadal rivojlanishi uchun yangiliklar eng muhim elementlar deb qaragan” [2]. “Shu bilan birga Banerji yangi g‘oyalar jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishidagi katalizatoridir deb ta’rif berdi, Alctel-Lucent kompaniyasining ijrochi direktori Ben Vervaayoyen esa innovatsiya global muammolarni yechishda insoniyatga yordamchi sifatida ko‘rdi” [3].

Bunday o‘zgarishlar zaminida yangi biznes-modellar, g‘oyalar shakllanishiga olib keladi va an’anaviy holatda faoliyat yurituvchi kompaniyalarda jiddiy tarkibiy va innovatsion o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Yangi minglik boshlanishida raqamli texnologiyalarni ko‘payishi, mobil internet faollashuvi, kichik hajmli ishlab chiqarish uskunalarini ishlab chiqarishni kuchayishi, sun’iy ongni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalariga jadal kirib kelishi fonida yangi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tizimlari rivojlandi. “Milliardlab aholining cheksiz ehtiyojlarini bugunki mobil aloqa vositalari orqali ta’minlash asnosida virtual tizim, virtual iqtisodiyot shakllana boshladi. Bunday o‘zgarishlar zamirida yangi biznes-modellar an’anaviy kompaniyalar ishlab chiqarishini, transport, iste’mol, yetkazib berish tizimlarini tubdan o‘zgartirib yubordi. Bu innovatsiyalar eskirib, ishlamay qolgan mexanizmlarni almashtirish, tubdan o‘zgartirish, islohotlarni yangidan boshlashga xizmat qiladi” [4]. Yangi texnologiyalarni jadal rivojlanishi va ularni amaliyotga joriy etilishi orqali uzoq kelajakda yangi sanoat tarmoqlarini shakllanishiga olib keladi.

Raqamli texnologiyalarni rivojlanishi bilan mamlakatlar va korxonalar o‘rtasidagi integratsiyalarni chuqurlashuvi, mamlakatlar iqtisodiyotini global iqtisodiyotga transformatsiyalashuvi rivojlandi.

Kichik innovatsion korxonalar esa kichik, mayda korxonalardan tashkil topgan korxonalardir, asosan ular mustaqil faoliyat yuritadi, shu sababdan sohaga yangiliklarni tez joriy etilishi bilan ajralib turadi, iqtisodiy rivojlanish indikatorlarini faol o‘zgartirib turadi, yalpi ichki mahsulot dinamikasini tez o‘zgarishiga ta’sir etadi. Kichik biznes – biznesga kirish qismi faoliyatiga xos bo‘lgan belgilarga ega bo‘lgan, firma ichki munosabatlariga asoslangan, tashqi muhit bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tashkilotlar hisoblanadi [5]. “Kichik biznes” iborasi inglizcha so‘z bo‘lib, g‘arbiy Yevropa mamlakatlarida, Yaponiyada, “kichik va o‘rta biznes” deb, Hindistonda va Osiyo mamlakatlarida “kichik ishlab chiqarish” nomlari bilan qo‘llaniladi [6]. A.N.Azriliyananing katta iqtisodiy lug‘atida esa “kichik biznes – xususiy va kichik tashkilotlardan iborat bo‘lgan, bitta monopoliya darajasiga chiqmagan va iqtisodiyotning barcha sohalari uchun zarur bo‘lgan tashkilot yoki korxonalar hisoblanadi [7]. Bizning fikrimzcha kichik biznes – bu yangiliklarni tez amaliyotga joriy etadigan, ixcham, o‘z faoliyatini tez o‘zgartiruvchan va tez moslashuvchan, axborotlarni tez qayta ishlaydigan, iqtisodiyotni tez rivojlanishiga ta’sir etuvchi eng muhim hudud drayveridir. Kichik innovatsion korxonalar esa kichik biznes korxonalarini yangiliklarni o‘z faoliyatiga qayta-qayta joriy etish orqali ishlab chiqarishda o‘ziga xos bo‘lgan, ichki va tashqi bozorlarda anologi bo‘lmagan mahsulotlar ishlab chiqaruvchilardir.


Shu bilan birga, iqtisodiy adabiyotlarda kichik innovatsion korxonalar to‘g‘risidagi qarashlarda olimlar o‘rtasida bahsli tomonlari mavjud, kichik korxonalar faoliyati va samaradorligi, uni iqtisodiyotga ta’siri bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, kichik korxonalar faoliyatini nazariy masalalari bilan M.Veber, Dj.K.Gelbreyt, A.Marshall, M.Porterlar shug‘ullanishgan. “Ularni tadqiqotlarini o‘rganish orqali kichik korxonalarni asosan ishchilar soni orqali belgilashganliklariga e’tiborimizni qaratamiz, savdoda 15 kishigacha, ishlab chiqarishda 200 kishigacha bo‘lgan korxonalarni kichik korxonalar deb hisoblashgan” [8]. Ayrim olimlar tadqiqotlariga e’tibor qaratsak, ular ishlab chiqargan mahsulotlari hajmi va jami xo‘jalik aylanma hajmi orqali belgilashgan. Bundan tashqari, kichik innovatsion korxonalar ma’lum hududda ishlab chiqarishni rivojlanishiga hissa qo‘shishi, bozordagi ulushi oshganligi bilan ko‘rinishi kerak bo‘ladi. Bevosita mahalliy bozor konyukturasiga ta’sir ko‘rsatishi lozim, shu orqali hududlarda kichik korxonalarni rivojlantirib, ularga yangiliklarni joriy etish yo‘llari aniqlab olinadi. Bundan tashqari xorij adabiyotlarida kichik va o‘rta korxonalar kabi yondashuvlar ham mavjud, ko‘p adabiyotlarda “kichik va o‘rta korxonalar” degan iboralar uchraydi, Small and Medium Enterprise -SME deb nomlashadi.

Small and Medium Enterprise -SME xalqaro statistikaga ko‘ra ishlab chiqarishda 500 kishigacha, mikro tashkilotlarda 10 kishigacha, o‘zini-o‘zi band etishda 5 kishigacha bo‘lgan korxonalarni kichik korxonalar deb qarashgan. Yevropa Ittifoqida esa 1996-yil 3-aprelda qabul qilingan me’yoriga ko‘ra esa mikro tashkilotlarda 9 kishigacha, kichik korxonalarda 10-49 kishigacha bo‘lishi kerak, deb qabul qilingan. “Yu.V.Taraxuna esa kichik korxonalarni innovatsion faoliyatdagi roli oshirishda innovatsiyalarni kategoriyalarga ajratishni taklif etgan” [9], kichik korxonalarda innovatsiyalar tor ixtisoslashuvni boshdan kechiradi. Tor ixtisoslashuv esa vazifalar taqsimotini aniqlashtiradi, mavjud byurokratik to‘siqlarni shakllanishiga yo‘l qo‘ymaydi, hammani vazifasi aniq, biri ikkinchisini vazifasini bajara olmaydi, ilmtalab kasblar shakllanadi va shu orqali hududda kichik korxonalar rivojlanadi.

Innovatsion g‘oyalar kichik korxonalar doirasida shakllanadi, rivojlanadi, amaliyotga qo‘llab ko‘riladi, keyingi bosqichda esa yirik korxonalarga tatbiq etish mumkin bo‘ladi, kichik korxonalar qo‘llaniladigan yangiliklar yuqori darajadagi daromad berishi bilan ajralib turadi, innovatsion xarajatlarni tartibga solishda sodda mexanizmlardan foydalanish mumkin. AQSHda kichik korxonalarda yirik innovatsiyalarni qo‘llash amaliyoti yuqori darajada rivojlandi, “havo konditsionerlari, yumshoq kontakt linzalar, zajigalkalar, sputniklar uchun sinxronizatorlar, dvigatellar trubinalari, ovozli kino, o‘zini-o‘zi fotografiya qilish, elektr kalkulyatorlar” [10] va boshqalarni ishlab chiqish dastlab kichik korxonalar tomonidan yo‘lga qo‘yilgan. Boshqaruv sohasidagi innovatsiyalarni amaliyotda qo‘llash darajasi yirik korxonalarga nisbatan kichik korxonalarda yuqoridir, “XX asrning 70 ta muhim yangiliklarni 50 % i kichik korxonalarda ishlab chiqarilgan, keyingi 20 yilda kichik korxonalar tomonidan yangiliklarni amaliyotga joriy etish yirik korxonalarga nisbatan 2,5 marta o‘sdi” [11].

1-rasmda Kichik innovatsion korxonalar innovatsion faoliyatini ketma-ketlik sxemasi taqdim etilgan bo‘lib, bitta innovatsiyani amaliyotda qo‘llaydilar, modernizatsiyani amalga oshiradilar, diversifikatsiyalashuv jarayoni qiyin kechadi, yangi mahsulotlar va yangi texnologiyalarni qayta ishlaydi, yangi mahsulotlarni bozorlarga chiqaradi. Kichik innovatsion korxonalar Spin-off deb nomlanadi, yirik korporatsiyalar bilan integratsiyaga ega bo‘lgan yangi g‘oyalar va yangiliklar ishlab chiqaruvchi oliy ta’lim muassasalari, tadqiqot markazlari, ilmiy laboratoriyalar kiradi. Ular uchun yirik korxonalar investitsiyalar kiritadi, aniq loyixalar bilan shug‘ullanuvchilar tomonidan davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan masalalarni bajarishi mumkin bo‘ladi. Spin-off korxonalar yuqori darajada ilmtalab sohalardir, tor ixtisoslashuvga ega bo‘lgan korxonalardir. Spin-off kichik innovatsion korxonalar turli-tuman xarakterga egadir, ko‘plab rivojlangan mamlakatlardagi Spin-off kompaniyalar samarali faoliyat ko‘rsata boshladilar, yangi ish o‘rinlarini yaratishda xizmat qiladi. Oksford universitetida 300 ta kichik ilmtalab tashkilotlar faoliyat olib boradi, yiliga 4 mlrd AQSH dollardan ortiq daromad keltiradi. Kichik innovatsion korxonalar esa eng

ommaviy va dinamik institutsional tarkibga ega bo‘lgan korxonalardir, mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish sur’atiga ta’sir etadi. Shu bilan birga kichik innovatsion korxonalar beqaror ishlab chiqarishga ega bo‘lgan, turli ko‘rinishlardagi inqirozlar ta’sirini tez bildiradigan sohalardan biri.



1-rasm: Kichik innovatsion korxonalardagi innovatsion faoliyat ketma-ketligi[1]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mintaqalarda kichik biznes korxonalarini rivojlantirishda kichik innovatsion korxonalar misolida tadqiqotlar o‘tkazdik hamda har bir hududlarni salohiyatidan kelib chiqqan holda rivojlanishi mumkin bo‘lgan tarmoqni tanlab olib, uning negizida kichik innovatsion korxonalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish mumkin bo‘ladi.

Shu bilan birga dunyo xo‘jaligi tizimida so‘nggi yillarda jadal rivojlanish ta’sirida kichik biznes sohalarining ahamiyati va roli ortib borayotganligini inobatga olgan holda kichik biznesdan foydalanishni yanada rivojlantirish talab qilinadi. Bu bilan sohani jadal kengayishiga, soha faoliyatini yanada ahamiyatini yanada oshiradi. Mamlakatda kichik biznesni rivojlantirishdan kutilayotgan natija esa aholini ish bilan bandligini oshirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali iqtisodiyotda yangi kasb-hunarlarni shakllantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Francis Gunу. Why Innovation Is Important. 11 The Global Innovation Index 2011-2012. Accelerating Growth and Development. (Электронный ресУРС1. – URL: http://www.gloЬalinnovationindex.orglgii!main/fuПreport! index.html. P.X1
2. Shumeet Banerji. Innovation: Increasingly Global, Increasingly Vital. 11 тье. Global Innovation Index 2011-2012.
3. Accelerating Growth and Development. [Электронный ресурс]. URL: http://www.globalinnovauQnindcx.orlVgii!main/t’ullrcport/index.html P. УН
4. Shumeet Banerji. Innovation: Increasingly Global, Increasingly Vital. 11 тье. Global Innovation Index 2011-2012.
5. Accelerating Growth and Development. [Электронный ресурс]. URL: http://www.globalinnovauQnindcx.orlVgii!main/t’ullrcport/index.html P. УН
6. Axunova Sh.N. To‘rtinchi sanoat inqilobi va uning dunyo xo‘jaligiga ta’siri. Biznes-Ekspert jurnali. 2020 yil, №2. 22-23 b.
7. Краснов И. Роль малых и средных предприятий и мировой экономике.-Международный журнал “Проблемы теории и практики управления”, Официальное издавние Международного научно-исследовальского института проблемы управления, 1/2013,www.uptp.ru, 38 с.
8. www.smednc.am,http://www.smednc.am/files/pdfs/attachments/original/6e1doa 414.pdf
9. Азрилияна А.Н. Большой экономический словарь. 5-ое изд.доп.и перераб.–М.: институт новой экономики. –2002, –457 с.
10. Лозовский Л.Ш., Райзберг Б.А. Словарь по экономике и праву. –М., Омега, 1999. – С. 271.
11. Тарануха Ю.8. Экономика отраслевых рынков (В структурно-логических схемах): Учебно-методическое пособие. –М.: Дело и сервис, 2002. –С. 202-203.
12. Don’t laugh at gilded butterflies 11 ТЬе Economist. –2004.–N!! 8372.–P. 76; Б Баумол У. Предпринимательство,
13. ИННОВации и роет, симбиоз Давида и Голиафа 1/ Проблемы теории и практики управленИИ. –2005.– N!!9. –С. 7.
14. 11.Катъкало В.с. Эвотоция теории стратегического управления.–СПб.: Издат. дом С.Петерб. –Гос. Ун-та, –2006.–С.406

1 Muallif ishlanmasi.



TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHINI NAZARIY MASALALARI

Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich
PhD, Namangan muhandislik-texnologiya instituti
“Iqtisodiyot” kafedrasi dots.nti

Abduraxmonov Sherali Sharifjonovich
Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes korxonalari faoliyatini rivojlantirishda yangi innovatsion kichik korxonalarni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari va nazariy tomonlari bo‘yicha ma’lumotlar berilgan bo‘lib, kichik innovatson korxonalardagi innovatsion faoliyatni olti bosqichli sxemasi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy o‘sish, mintaqalar, potensial, kichik biznes, yalpi ichki mahsulot, kichik innovatsion korxonalar, globallashuv, yangi texnologiya, modernizatsiya, diversifikatsiya, yangi biznes modellar, integratsiya, raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar, Small and Medium Enterprise.

Abstract: This article provides information on the specific features and theoretical aspects of the organization of new innovative small enterprises in the development of small business enterprises in the regions, as well as a six-stage scheme of innovative activities in small innovative enterprises.

Key words: economic growth, regions, potential, small business, gross domestic product, small innovative enterprises, globalization, new technologies, modernization, diversification, new business models, integration, digital technologies, innovation, small and medium-sized businesses.

Аннотация: В данной статье представлена информация об особенностях и теоретических аспектах организации новых инновационных малых предприятий в развитии малого предпринимательства в регионах, а также шестиступенчатая схема инновационной деятельности на малых инновационных предприятиях.

Ключевые слова: экономический рост, регионы, потенциал, малый бизнес, валовой внутренний продукт, малые инновационные предприятия, глобализация, новые технологии, модернизация, диверсификация, новые бизнес-модели, интеграция, цифровые технологии, инновации, малое и среднее предпринимательство.

KIRISH

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllanib va rivojlanib borishi sharoitida, mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlarda davlat bilan jamiyat a’zolari o‘rtasida yangidan-yangi munosabatlarni shakllanishi sodir bo‘lib, pirovard natijada aholining moddiy-farovonligi va mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yanada rivojlanishi uchun zamin tayyorlanadi. Ayniqsa, hozirgi sharoitda mahsulot va xizmatlar sifatiga bo‘lgan talab va bunda raqobat munosabatlarining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi juda ham muhim bo‘lib, bu jarayonga keyingi yillarda O‘zbekistonda ham katta e’tibor berilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Tadbirkorlik faoliyatida uning funksiyalarini risklar bilan bog‘lagan Richard Cantillon, yangi texnologiyalar ta’sirini Joseph Schumpeter,sezilarli risklarga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar David McClelland, maksimal foyda olishga qaratilgan faoliyat deb Peter Drucker, tadbirkorlikni ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari bilan Albert Shapiro, tadbirkorlarga ta’rif bergan Karl Vesper, yangiliklar yaratuvchi sifatida ta’riflagan olim Robert Xizrich Robert Husrichlar tadqiqotlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Bundan tashqari esa tadbirkorlik tushunchasi uzoq davrlardan boshlab qo‘llanilib kelingan bo‘lib, ko‘plab olimlar tomonidan ta’riflar berilgan. Masalan: R.Kantilon, A.Tyurgo, F.Kene, A.Smit, J.Seylar shular jumlasi-

dandir. Ye.F.Borisovning fikricha, tadbirkorlik, bu tashabbuskor shaxs bo‘lib, boylik yaratish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish omillaridan foydalanadi. Tadbirkor yakka mulk egasi, shirkat paylariga ega bo‘lgan shaxslardir deb ta’rif berib o‘tgan

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Olib borilgan izlanishlar natijasida tadbirkorlik faoliyatini nazariy tomondan o‘rgangan olimlar izlanishlariga e’tibor qaratilgan bo‘lib, tadbirkor iborasiga berilgan ta’riflarni umumlashtirilgan va tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar aniqlashtirilib, guruhlashtirish bo‘yicha ma’lumotlar ham berilgan bo‘lib, bundan tashqari tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha berilgan ma’lumotlar umumlashtirilib ilmiy tadqiqotlarda keng foydalanilgan hamda olimlar tomonidan berilgan ta’riflarga ko‘ra tadbirkorlik faoliyatida yangi texnologiyalarni o‘rni, yuqori darajada risk holati tadbirkorlik faoliyati uchun xosligi, har qanday sharoitda yuqori darajada foyda bilan chiqishga intilishi kabi o‘ziga xos xususiyatlari alohida ajratib o‘rganilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadbirkor - bu doimo o‘z ishining fidoiyisi, bilimdonidir. Tadbirkorlik qilish uchun esa nafaqat dastlabki bilimni olish balki faoliyati davomida hamisha izlanishda bo‘lishi talab etilib, katta bilimga ega bo‘lish kerak.

Tadbirkor – bu kapital egasi, xususiy ish egasi, uni boshqaradigan ba’zan ko‘pincha xususiy kapital (ish) faoliyat ko‘rsatishi birinchi bosqichida mulkdor funksiyasini shaxsiy ishlab chiqarish mehnat faoliyati bilan qo‘shib olib boradi. Shu o‘rinda bir qator xorijiy olimlarni “Tadbirkor” tushunchasiga bergan ta’riflarini keltirib o‘tish lozim. Jumladan:

- Richard Cantillon (1725). Tadbirkor – bu risk sharoitida harakat qiluvchi kishi bo‘lib, kapitalni taqdim etish funksiyasi tadbirkorlik funksiyasidan farq qiladi;
- Joseph Schumpeter (1934). Tadbirkor – bu yangi texnologiyalar ishlab chiqadigan novatordir;
- David McClelland (1961): Tadbirkor – bu sezilarli risk sharoitida harakat qiladigan harakatchan odam;
- Peter Drucker (1964). Tadbirkor – bu har qanday imkoniyatdan maksimal foyda bilan chiqadigan va uni amalga oshirishga harakat qiladigan odamdir;
- Albert Shapiro (1975). Tadbirkor – bu tashabbus ko‘rsatadigan, ijtimoiy iqtisodiy mexanizmlarni tashkil etadigan odam bo‘lib, u noaniqlik sharoitida harakat qilib, yuzaga keladigan muvaffaqiyatsizlikka to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi;
- Karl Vesper (1980). Tadbirkor iqtisodchi, psixolog, boshqa tadbirkorlar va siyosatchilar nigohida yana bir boshqa ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan ishbilarmon insondir;
- Robert Xizrich Robert Husrich (1985). Tadbirkorlik – bu qiymatga ega yangi nimanidir yaratish jarayonidir, tadbirkor esa – bularning hammasiga zarur vaqt va kuch sarflaydigan, mukofotga pul va erishilgan yutuqdan qoniqish olib, butun moliyaviy, psixologik va ijtimoiy tavakkalchilikni o‘z zimmasiga oladigan shaxsdir.


Yuqoridagi iqtisodchi olimlar va iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan ta’rif-tavsiflarni e’tiborga olgan holda bizningcha, “Tadbirkor– qonun doirasidagi tadbirkorlik faoliyatini boshlanishining noaniqligi bilan yuzaga keladigan barcha tavakkalchilik turlarini o‘z zimmasiga olgan holda minimal yo‘qotishlar hisobiga maksimal foyda olish uchun harakat qiladigan xo‘jalik yurituvchi subyekt” –deb ta’rif berish maqsadga muvofiqdir.

Bundan ko‘rinadiki, tadbirkor eng avvalo, tadbirkorlik faoliyatini qanday amalga oshirishni, qanday sharoitda amaliy harakat qilishni, tadbirkor oldida uchraydigan to‘siqlarni hal qilish yo‘llarini va qanday yutuqlarga erishishni iloji boricha oldindan baholay olishi kerak. Tadbirkordan ishlab chiqarishni tashkil etish hamda mahsulot sotish, bozor munosabatlari sharotida yuzaga keladigan aniq sharoitlarni baholash va to‘g‘ri yo‘l tanlashni anglab yetish talab etiladi. Chunki, hech kim hech qachon tadbirkorga nima qilishni o‘rgatmaydi, og‘ir paytlarda yoniga kelmaydi va bu esa o‘z navbatida har bir tadbirkorni faqat o‘z kuchiga, bilimiga hamda zakovatiga ishonishiga va suyanishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida [1] keltirib o‘tilganidek, mamlakatni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida uy xo‘jaliklarini rivojlantirish, har bir oila tadbirkorlik dasturi doirasida fuqarolarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, hududlarda aholi tadbirkorligini rivojlantirish maqsad qilingan.

Shu vazifalardan kelib chiqqan holda, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda eng avvalo mamlakat iqtisodiyotida tadbirkorlikning yangi shakllarini joriy etish, raqamli tizimlar asosida faoliyat olib boruvchi obyektlarni

rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Tadbirkorlik tushunchasi uzoq davrlar boshlab qo‘llanilib kelingan bo‘lib, ko‘plab olimlar tomonidan ta’riflar berilgan. Masalan: R.Kantilon, A.Tyurgo, F.Kene, A.Smit, J.Seylar shular jumlasidandir. Ye.F.Borisovning fikricha, tadbirkorlik, bu tashabbuskor shaxs bo‘lib, boylik yaratish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish omillaridan foydalanadi. Tadbirkor yakka mulk egasi, shirkat paylariga ega bo‘lgan shaxslardir [4]. M.A.Sajina, G.G. Chibrikovlar esa tadbirkorlikga quyidagicha ta’rif berishgan: Tadbirkor o‘zining tashabbuskorligini mehnat va kapital resurslarni tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga umumlashtirgan holda ish yuritish bilan bog‘liq bo‘lgan qiyin vazifalarni bajarish uchun qarorlar qabul qiladi [5]. Bizning fikrimizcha, tadbirkorlik – bu yuqori daromad olish maqsadida ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohalariga o‘z mablag‘lari yo‘naltirilgan, bu mablag‘lar tadbirkor tomonidan erkin nazorat qilinadigan va erkin ishlatiladigan faoliyat turidir.



1-rasm: Xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar[1]

1-rasmda keltirilgan omillarning har biriga alohida izoh berish biringcha o‘rinlidir. Korxonalarning yiriklashuv tendensiyasi AQSHda yaqin 15-20 yil ichida pasaydi. Bu, asosan, xizmat ko‘rsatish sohasidagi siljishlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat masshtabini kengaytirish imkoni pastligi bilan belgilanadi. Hozirgi paytda xizmat ko‘rsatish sohasidagi kichik korxonalar yirik raqobatchilariga nisbatan ayrim yumushlarni samarali tashkil qila olmoqdalar. Bu birinchi navbatda boshqarish tizimining soddaligi va ixchamligi bilan bog‘liqdir.

Ayollar ish kuchining iqtisodga kirib kelishi. AQSHda 80 yillarning o‘zidagina 2 mln. ayollar o‘z ish joylarini ochdilar. Hozir AQSHda 4,6 mln. korxona ayollarga tegishli bo‘lib, ular mamlakatdagi jami kichik korxonalarning 30 foizini tashkil etadi. Bu tendensiya davom etsa yaqin kunlarda kichik va xususiy tadbirkorlikda ayollar va erkaklar ulushi tenglashadi. Yirik ishlab chiqarishda xodimlarning qisqarishi, ayrim jihatdan demografik omillar bilan boglik. Jumladan, “demografik portlash” davrida tug‘ilganlar hozirda 30-40 yoshda, ya’ni o‘z ishini mustaqil boshlash yoshiga yetganlar. Bundan tashqari, yirik korxonalarda ish o‘rni uchun kurash, o‘rta bo‘g‘in xodimlarining qisqartirilishi bevosita xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Yangi korxonalar ochish sur’atini oshirish bu borada AQSHda har yili o‘rtacha 200 mingga yaqin aholi o‘z firmasini ochadi. Ularning yarmidan ko‘pi 20 ming AQSH dollaridan kam oborot bilan o‘z faoliyatlarini boshlaydilar. Qariyb 75 foizi o‘z firmalarida haftasiga 50 soat ishlaydilar, 25 foizi esa 70 soat va undan ortiq mehnat qiladilar. 2/3 qismi yangi biznesni boshlovchilar yangi yoki boshlayotgan kompaniyalar hisoblanadilar. Ya’ni, ular amalda ishlayotgan korxonalarni sotib olmay, yangidan o‘zlari xususiy biznesni boshlaydilar. Ularning 80 foizdan ko‘prog‘i o‘z ishlarini o‘ta samarali g‘oyalarini emas, balki oddiy ishlarni tartibli hal qilish bilan baholaydilar.

1 Muallif ishlanmasi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, xususiy tadbirkorlik o‘z ko‘lami jihatidan iqtisodiyotni uzluksizligini va barqarorligini ta’minlashda katta o‘rin egallaydi. Xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotga ta’sir ko‘lami bir qator iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy va boshqa jihatlarni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy jihatdan muhim bo‘lgan xususiyatlar quyidagilardan iboratdir:

Birinchidan, ish joylarini tashkil etishdagi mavqeyining yuksakligi. O‘tgan davr mobaynida AQSHda kichik biznes bo‘yicha boshqarma axborotiga ko‘ra yangi ish o‘rinlarining yarmidan ko‘pi 100 kishidan kam xodimlar ishlayotgan korxonalar hissasiga to‘g‘ri keladi. Tez o‘suvchi firmalar yangi firmalarning 27 foizini tashkil etib, ular 60 foiz yangi ish joylarini hosil qilishda qatnashmoqdalar.

Ikkinchidan, yangi tovarlar va xizmatlarni tatbiq qilish, AQSH milliy fondining hisoblariga ko‘ra, 98 foiz yangi mahsulot xususidagi tadqiqotlar kichik biznesda yaratilgan. Bu o‘ta muhim ko‘rsatkichdir. Vaholanki, ular mamlakat bo‘yicha izlanishlar va tadqiqotlarga aniq mablag‘ning atigi 5 foizdan kamrog‘ini sarflaydilar. Eng yirik kashfiyotlar: xavfsiz ustaralar, elektron soatlar, vertalyotlar, zanglamas po‘lat va boshqa tovralar ko‘lami bevosita kichik biznesda yaratilgan.

Uchinchidan, yirik korporatsiyalar ehtiyojini qondirish ularni mahsulotlarini sotish, uni bozor talablari asosida shakllanishida kichik korxonalarning roli kattadir. O‘z navbatida yirik rivojlanuvchan firmalar o‘z iqtisodiy strategiyalarida mayda ta’minotchilar bilan aloqa o‘rnatishni samarali hisoblaydilar. Chunki, ular moslashuvchanlik xususiyatiga egadir.

To‘rtinchidan, maxsus tovarlar va xizmatlar bilan ta’minlash vazifasi-kichik korxonalar mijozlarining o‘zgacha maxsus ehtiyojlarini qondirishda yetakchi o‘rinni egallaydilar. Chunki, birinchidan, maxsus talabning ommaviy tusga ega emasligi va uni yirik ishlab chiqarish orqali amalga oshirish samarali bo‘lmasligi sabab bo‘lsa, ikkinchidan esa boy xaridorlarning o‘ziga xos istaklarining mavjudligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirsh bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ko‘zda tutilgan mamlakatni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.–T.: O‘zbekiston, –2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 176-sonli qarori, 2020-yil 23-mart.
3. www.aa.com. tr/ru
4. Борисов Е.Ф. Основы экономической теории.–М.:Новая Волна,1996.–118 с.
5. Сажина М.А, Чибриков Г.Г. Основы экономической теории.–М.:Экономика,1995.–83 с.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ПРОЗРАЧНОСТИ БЮДЖЕТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Адашов Гайрат Рустамович
PhD, Ташкентский финансовый институт

Аннотация: В данной статье рассматриваются понятия бюджета и бюджетного цикла, раскрывается сущность открытости бюджета, механизмы и принципы изучения открытости бюджета, используемые различными международными организациями, даются предложения по повышению прозрачности бюджета в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: бюджет, план, бюджетирование, планирование, исполнение бюджета, бюджетное законодательство, партисипаторный бюджет, бюджет для граждан, открытый бюджет, бюджетный цикл.

Annotatsiya: Ushbu maqola budjet va budjet sikli tushunchalarini o‘rganib chiqadi, budjet ochiqligining mohiyatini, turli xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladigan budjet ochiqligini o‘rganish mexanizmlari va tamoyillarini ochib beradi va O‘zbekiston Respublikasida budjet ochiqligini oshirish bo‘yicha takliflarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: budjet, reja, budjet, rejalashtirish, budjet ijrosi, budjet qonunchiligi, ishtirok budjeti, fuqarolar uchun budjet, ochiq budjet, budjet sikli.

Abstract: This article discusses the concepts of the budget and the budget cycle, reveals the essence of budget openness, mechanisms and principles for studying budget openness used by various international organizations, and offers suggestions for increasing budget transparency in the Republic of Uzbekistan.

Key words: budget, plan, budgeting, planning, budget execution, budget legislation, participatory budget, budget for citizens, open budget, budget cycle.

ВВЕДЕНИЕ

В условиях ограниченности ресурсов государства актуальное значение приобретает прозрачность государственных финансов, в частности бюджета, как на республиканском, так и на местном уровне. Местные бюджеты, как и республиканский бюджет – это инструменты, с помощью которых реализуются функции государства, регулируется вся экономика в целом.

Продвижение Узбекистана по пути рыночных преобразований подтверждает возрастающую роль бюджета как необходимого инструмента государственного воздействия на социально-экономический процесс.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

В литературе встречаются различные определения понятия “бюджет”. Если раньше под данным понятием подразумевался всякий план доходов и расходов предприятия, учреждения, организации или отдельного лица (в денежном выражении) на определенный срок [1], то сейчас понятия “план” и “бюджет” стали различны. Так, в современном экономическом словаре понятию “бюджет” дается следующая трактовка: “имеющая официальную силу, признанная и принятая роспись, таблица, ведомость доходов и расходов экономического субъекта на определенный период, обычно год” [2]. Каждый автор определяет данное понятие по-своему, профессор Шеремет А.Д. считает, что “бюджет – это финансовый документ, созданный до того, как предполагаемые действия выполняются”. Ученые Р. Гляйх и П. Хорват определяют бюджет как “план, сформулированный в стоимостных величинах, который с определенной степенью обязательности выполнения задается структурной единице с полномочиями принимать решения на определенный временной период” [3].

Аналогичная ситуация происходит и с понятием “бюджетирование”, которое трактуется по-разному каждым из авторов. Под бюджетированием понимают “разновидность краткосрочного финансового планирования, предполагающего построение иерархической системы бюджетов субъекта хозяйствования” (Е.Н. Выборова [4]), “систему согласованного управления подразделениями предприятий в условиях динамично изменяющегося, диверсифицированного бизнеса” (В.Н. Самочкин, Е. Н. Логачева, Ю.Б. Пронин [5]) и пр.

Если ранее бюджет не являлся отдельной дисциплиной и относился к системе управления государственными финансами, то в 70-80-хх годах XX века это понятие перешло в рамки науки “финансовый менеджмент”, где также применялись принципы финансового планирования и лишь позднее были разработаны собственные методы, определяющие планирование бюджета, его дальнейшее исполнение и контроль [6].

Исходя из всех определений, выявляются следующие черты бюджета [7]:

- Разрабатывается в конкретных стоимостных и количественных показателях.
- Все показатели бюджета взаимосвязаны между собой.
- Полностью соответствует стратегическому плану.
- Каждый показатель привязан к конкретной задаче.
- Показатели основаны на тактических целях.
- К каждому показателю привязано ответственное лицо.
- Возможна идентификация показателей средствами бухгалтерского учета.

Для определения степени открытости бюджета в глобальном аспекте применяются универсальные для всех стран принципы, разработанные различными организациями. К данным публикациям относятся:

- Лимская декларация руководящих принципов аудита Международной организации высших контрольных органов;
- Кодекс надлежащей практики по обеспечению прозрачности в бюджетно-налоговой сфере Международного валютного фонда;
- Инициатива Государственные расходы и финансовая подотчетность (Всемирный Банк);
- Глобальная инициатива по обеспечению прозрачности в бюджетно-налоговой сфере.

Также изучаются семь механизмов участия согласно Обзору открытости бюджета (OBS), это:

- Механизмы со стороны исполнительного органа власти, реализуемые Министерством финансов или центральными координирующими учреждениями центрального правительства, в ходе разработки бюджета и контроля за исполнением бюджета, а также выступления отраслевых министерств перед общественностью на обоих этапах;
- Механизмы законодательной власти в период утверждения бюджета и рассмотрения аудиторского отчета;
- Механизмы контрольных органов, определяющие программу аудита и ход аудиторских проверок.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Таким образом, современный мир требует открытости процессов государственного управления. Ключевым моментом определяется принцип открытости бюджета для граждан. Именно такой принцип ведения бюджета является определяющим звеном в системе открытости органов власти.

Для того, чтобы создать наиболее “открытое” бюджетное законодательство, необходимо, прежде всего, повысить его доступность не только для мировой общественности, но и для различных слоев населения, проживающих в стране. Это достигается благодаря множеству публикаций, всесторонне отражающих планирование, исполнение, анализ и аудит исполнения бюджета.

В Узбекистане, для обеспечения прозрачности государственного бюджета создается законодательная база, в которую помимо Бюджетного кодекса, принятого Законом Республики Узбекистан № 360 от 26.12.2013 года, к основным актам, регулирующим законодательство в данной сфере, относят Закон о государственном бюджете (публикуется на ежегодной основе), Стратегию совершенствования системы управления государственными финансами на 2020-2024 годы, утвержденную Постановлением Кабинета Министров № 506 от 24.08 2020г.

Кроме того, в стране существуют прочие публикации и акты, благодаря которым можно ознакомиться с этапами развития бюджета, в их число входят:

- отчеты об исполнении бюджета;
- заключение внешнего аудита;
- бюджетное послание;
- результаты партисипаторного бюджета;
- публикация информационного издания “бюджет для граждан”;

Немаловажен факт наличия веб-сайта, посвященного раскрытию различного рода информации о бюджете республики и его исполнению - www.openbudget.uz.

Для изучения степени открытости бюджетов 117 стран среди которых страны СНГ – Кыргызстан, Российская Федерация, Казахстан, Таджикистан, а также такие страны дальнего зарубежья как Великобритания, Канада и США были рассмотрены исследования механизмов участия исполнительной, законодательной, аудиторской деятельности, а также возможностей участия граждан. (Рисунок 1,2) [8].



Рисунок 1: Страны с большей вероятностью будут иметь механизмы участия в процессе разработки и утверждения бюджета.

Исследования показали, что лишь у 9 процентов стран число механизмов участия составляет 5-7, 70 процентов стран обладают 1-4 механизмами, а оставшийся 21 процент опрошенных не имеет ни одного механизма участия.

Важным является не только публикация надлежащих документов, участвующих в этапах бюджетного цикла (Рисунок 3), но также и полнота содержащихся в них данных и своевременность публикации.

В ходе изучения мировой практики по открытости бюджета, предлагается повысить роль и участие гражданского общества в бюджетном процессе. Это возможно при публикации большего количества информации об исполнении




Рисунок 2: Некоторые страны имеют несколько механизмов участия.



Рисунок 3: Бюджетный цикл

Бюджета как республиканского, так и местного, в целях ее применения для мониторинга работы органов исполнительной власти и правительства в целом. Также предлагается предоставление сведений о ходе исполнения бюджета в сети Интернет, в открытом доступе и режиме онлайн.

Разработка методов и способов участия общественности в формировании местных бюджетов, предоставление возможности внесения корректив в расходные статьи бюджетов также позволит повысить уровень доверия граждан к правительству.

Также предлагается адаптировать международные методики, применяемые для оценки прозрачности бюджета на основе анкетирования к Узбекистану, учитывая местное законодательство. Это позволит получать более точные и развернутые данные, которые в дальнейшем могут быть использованы экономистами.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Повышение прозрачности бюджета Республики приведет к большему пониманию нужд общественности правительством страны и повысит степень доверия граждан, частного сектора к государству, так как позволит первым участвовать в формировании местных бюджетов, узнавать о расходах на социальные сферы, например, здравоохранение и образование, а вторым – получать актуальную информацию о налоговых преференциях, льготах.

Таким образом, для создания, поддержания и сохранения конструктивного диалога между общественностью и государством необходимо четкое разъяснение последним бюджетной политики, решений, принимаемых в данной области и достигнутых результатов. Своевременные и подробные публикации на этапах разработки, утверждения и исполнения бюджетов также будут способствовать росту гражданского доверия.

Список литературы:

1. Большая советская энциклопедия (электронный ресурс)
2. Райзберг Б.А. Современный экономический словарь – М.: Инфра-М, 2011.
3. Концепция контроллинга: Управленческий учет. Система отчетности. Бюджетирование. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2006.
4. Выборова Е.Н. Бюджетирование в системе финансовой диагностики субъекта хозяйствования. // Экономический анализ: теория и практика – 2004., №10.
5. Самочкин В. Н. Гибкое развитие предприятия. Эффективность и бюджетирование. / В. Н. Самочкин, Ю.Б. Пронин, Е.Н. Логачева – М.: Дело, 2002.
6. Хасанова В. Ф., Корзоватых Ж. М. Понятие и сущность бюджетирования в современных условиях. // Вестник Университета, Москва, 2016. №2
7. Афанасьев М.П. Бюджетная политика и бюджетный процесс. М.: ГУ-ВШЭ, 2000.
8. Международное издание International Budget Partnership за 2019 год, стр 49-50.

MAMLAKATNING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGI VA UNING LIZING MUNOSABATLARI RIVOJLANISHI BILAN BOG‘LIQLIGI

Axmediyeva Aliya Toxtarovna
DSc, Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish kafedrasi professori v. b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada lizing tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda mamlakat investitsion muhitini shakllantirishga omilli yondashuv va investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash usullari, lizing faoliyatini rivojlantirish asosida investitsiyaviy xavflarni kamaytirish usullari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan, lizing amaliyotlari hisobini yuritishga nisbatan uslubiy yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: investitsion muhit, lizing, omil, uslubiy yondashuv, investitsiya, xususiyat, samaradorlik, baholash, risk.

Abstract: Analysis of the experience of foreign countries allows us to identify common trends and features that contribute to the successful development of regional economies and social structures. The study provides a basis for the development and implementation of effective strategies for the socio-economic development of national territories.

Key words: socio-economic development, strategy, territorial transformation, foreign experience, methodology, practical, theory.

Аннотация: В данной статье исследован факторный подход к формированию инвестиционного климата страны и методы оценки экономической эффективности инвестиций с учетом лизинговых составляющих, методы снижения инвестиционных рисков на основе развития лизинговой деятельности, раскрыты особенности методического подхода к учету лизинговых операций.

Ключевые слова: инвестиционный климат, лизинг, фактор, методический подход, инвестиции, особенность, эффективность, оценка, риск.

KIRISH

Bunda, avvalo, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarining raqobatbardoshligini ta’minlash, asosiy kapitalni texnologik qayta ishlab chiqarishga investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning makroiqtisodiy masalalariga alohida e’tibor qaratilib, bu borada quyidagi maqsad qo‘yilmoqda: “Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish”[1]. Bu maqsadning izchil va samarali amalga oshirilishi mamlakatimiz iqtisodiyotiga sarmoya kiritishning lizing mexanizmining ulushini sezilarli darajada oshiradi. Lizing kompaniyalari tomonidan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilishda lizing vositasining ulushini oshirish muhim ahamiyatga ega. Lizing investitsiyalari bilan bog‘liq lizing faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning maxsus fondini tashkil qilish va uning ishlash mexanizmlarini shakllantirish hamda qiymat zanjiri bo‘ylab klaster lizingni joriy etish, ixtisoslashtirilgan virtual savdo maydoni, lizing xizmatlari bozori ishtirokchilari uchun interaktiv platformalar va lizing aktivlarini sekyuritizatsiya qilish orqali erishiladi.

ADABIYOT SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda xorijiy tadqiqotchilar sarmoyaviy muhitni quyidagicha ta’riflaydilar: J.Dauns va G.Elliotlar investisiya muhitini “investitsiyalar samaradorligiga ta’sir etuvchi iqtisodiy, moliyaviy va boshqa shart-sharoitlar”, deb ta’riflaydilar[2].

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni

2 Доунс Дж., Гудман Дж. Э. Финансово - инвестиционный словарь. 3-е изд. М.: Инфра-М, 2017. - с. 255

M. Mur va X. Shmitzning ta'rifi investitsiya muhitini investorlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ishonchi sifatida baholash investitsiya muhitini tadqiq qilish sohasidagi eng nufuzli nashrlardan biriga mos keladi[3].

Rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiya muhitini yaxshilash yo'llarini o'rganishga bag'ishlangan World Development Report jurnalida siyosiy noaniqlikni biznes yuritishdagi eng og'ir to'siq deb atagan tadbirkorlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari keltirilgan[4].

Jahon banki tomonidan World Development Report berilgan "investitsiya muhiti" ta'rifi ilmiy jamoatchilik tomonidan tanqid qilinadi, Jahon bankining fikriga ko'ra, "investitsiya muhiti har bir hudud uchun individual omillar to'plami bo'lib, ular kompaniyalarning imkoniyatlarini belgilaydi va ularni samarali investitsiyalar qilish uchun rag'batlantiradi, ish o'rinlarini yaratish va ularning faoliyatini kengaytirishdir"[5].

Boshqacha qilib aytganda, investitsiya muhiti - bu investitsiyalar bog'liq bo'lgan barcha narsalar. Ko'pgina tadqiqotchilar „investitsion jozibadorlik" va „investitsiya muhiti" toifalarini aniqlaydilar, xuddi shu tarzda investitsiya muhiti investitsiya jozibadorligini uzoq muddatli kuzatishdan iborat. Kompaniyalar duch keladigan asosiy cheklovlarni bartaraf etish, ularni sarmoya kiritishga undash, shuningdek, transformatsiya jarayonini doimiy qo'llab-quvvatlash orqali sezilarli yutuqlarga erishish mumkin[6].

Bizning fikrimizcha, investitsiya muhitining eng aniq ta'rifi A. A. Burkovning nashrlarida keltirilgan: "investitsiya muhiti-bu milliy iqtisodiyotga xos bo'lgan boshqariladigan omillar va xavflarning o'zaro bog'liqligi"[7].

Ushbu ta'rifning afzalligi, birinchi navbatda, investitsiya muhitining tarkibiy qismlari nafaqat o'zaro bog'liq, balki tartibga solinishini ham ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda lizing investitsiya siyosatining samarali vositasi sifatida ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega[8].

Ilmiy adabiyotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda lizing investitsiya siyosatining samarali vositasi sifatida ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega[9].

Kredit, investitsiya va moliyaviy operatsiyalar elementlarini birlashtirgan o'ziga xos iqtisodiy tabiati tufayli ushbu faoliyat turi ichki iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini modernizatsiya qilishga va uning investitsion jozibadorligini oshirishga muhim hissa qo'shishi mumkin.

Asosiy qism (metodologiya, natijalar). O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar va iste'mol hajmi oshishi yalpi ichki mahsulotning 2018-yilda 426614,0 mlrd so'mdan 2022-yilda 888341,7 mlrd so'mgacha o'sdi, 2021-yilda ushbu ko'rsatkich aholi jon boshiga 21149,1 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2022-yilda 24919,7 ming so'mgacha oshdi (1-rasm).




1-rasm: O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari (joriy narxlarda, mlrd. so'm)[10]

3 World Development Report 2015 A Better Investment Climate for Everyone
4 World Development Report 2015 (A Better Investment Climate for Everyone). B WDR 2021
5 World Development Report 2015 (A Better Investment Climate for Everyone). B WDR 2021
6 Обзор. Доклад о мировом развитии 2015. - Нью- Йорк и Женева: ЮНКТАД, 2021. - с. 19.
7 Бурков, А.А. Госрегулирование инвестиций в условиях глобализации [Текст]: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук: 08.00.01 - Москва, 2012
8 Ляшенко В.И. Использование лизинга в развитии предпринимательства и инвестиционной сферы за рубежом. / В.И. Ляшенко, В.В. Бережной / НАН Украины. Ин-т экономики промышленности. – Донецк, 2017. – 84 с
9 Ляшенко В.И. Использование лизинга в развитии предпринимательства и инвестиционной сферы за рубежом. / В.И. Ляшенко, В.В. Бережной / НАН Украины. Ин-т экономики промышленности. – Донецк, 2017. – 84 с
10 Статистический сборник "Промышленность Узбекистана". – Ташкент, 2022.

Koronavirus pandemiyasi sharoitida aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyati barqarorligini ta'minlash maqsadida lizing xizmatlari, ayniqsa, iqtisodiyotning COVID-19 ta'siriga uchragan: transport, sayyohlik, umumiy ovqatlanish, qurilish va boshqa tarmoqlarida talab kamaydi[11].

Lizing munosabatlarining rivojlanishiga yordam beruvchi omillarni aniqlab bergan tahlil o'tkazildi. Uslubiy yondashuvning asosini ahamiyati bo'yicha o'xshash ko'rsatkichlardan iborat makro-, mezo- va mikrodarajalarga ta'sir etuvchi omillar tashkil etadi (2-rasm).




2-rasm: Lizing munosabatlarini rivojlantirishning omilli tahlil qilish uslubiyoti[12]

11 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-apreldagi PF-5978-sonli "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, tadbirkorlik subyektlari va iqtisodiyot tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.

12 Ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Lizing kompaniyalari mutaxassislari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, lizing xizmatlari bozorini rivojlantirish uchun barqaror iqtisodiy o‘sish omillari ustuvor ahamiyatga ega (so‘rovda qatnashganlarning 38,5 foizi). Respondentlarning fikriga ko‘ra, bozorni rivojlantirishning navbatdagi muhim shartlari lizing kompaniyalari uchun qarz mablag‘lari qiymatini pasaytirish (21,3 foiz) va moliyaviy resurslardan foydalanishni osonlashtirish (15,6 foiz) bo‘lishi kerak[13].



3-rasm: Lizing to‘lovlarini hisoblash usullarining qiyosiy tavsifi (afzallik va kamchiliklarni baholash)[14]

13 O‘zbekiston Respublikasi lizing kompaniyalari mutaxassislari bilan 2019-yilda o‘tkazilgan intervyu asosida tuzilgan.
14 Ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Lizingning funksiyalari xo‘jalik yurituvchi subyekt darajasida ham, makro va mezo darajada ham iqtisodiy salohiyatni oshirishga yordam beruvchi investitsiyalarni moliyalashtirish shakli sifatida belgilangan; uslubiy yondashuvning asosini lizing bozorini rivojlantirishning ishlab chiqilgan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari tashkil etdi. Investitsiyalarning quyidagi lizing sig‘imi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

- lizingning YAIMdagi solishtirma ulushi;
- lizingning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi solishtirma ulushi;
- uskunalar, transport vositalari lizingining uskunalar va transport vositalariga kiritilgan investitsiyalardagi solishtirma ulushi.

Lizingning investitsiya jarayonlaridagi o‘rni va ahamiyatini, shu jumladan, lizing shartnomasi amalda bo‘lgan butun muddat uchun lizing mulkining amortizatsiyasini, lizing beruvchining u foydalangan qarz mablag‘lari uchun kompensatsiya to‘lovining qoplab berilishini, lizing beruvchiga vositachilik haqini, lizing shartnomasi bo‘yicha lizing beruvchining qo‘shimcha xizmatlari uchun to‘lovni, sotib olinadigan mulkning qiymatini, agar u shartnomada va uni to‘lash tartibida nazarda tutilgan bo‘lsa, lizing mulki uchun hisoblangan soliq summasini hisobga olgan holda lizing to‘lovlari usullarini qiyosiy tahlil qilish taklif etiladi (3-rasm).

Shu munosabat bilan, tashqi tabiiy-iqlim va bozor omillarining salbiy ta’sirini hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilari natijadorlik va samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida lizing shartnomasi shartlarini moslashuvchan qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini nazarda tutuvchi lizing to‘lovlarini to‘lash jadvalini hisoblab chiqishning yangi uslubiy vositalari taklif etiladi (qishloq xo‘jaligi misolida).

Lizing samaradorligini baholash va investitsiya loyihalari samaradorligini quyidagi baholash usullari investor sifatida lizing beruvchi uchun juda muhim bo‘lishi mumkin: sof joriy qiymatni aniqlash usuli; investitsiyalar rentabelligini hisoblab chiqish usuli; daromadning ichki normasini hisoblab chiqish usuli; investitsiyalarning o‘zini oqlash muddatini hisoblab chiqish usuli; investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligini aniqlash usuli. Lizing oluvchi uchun lizing samaradorligini baholashning barcha usullarida asosiysi lizing uchun sarflar yoki xarajatlarni hisoblab chiqish bo‘lib, u lizing oluvchi tomonidan lizing to‘lovlarini aniqlab olishni nazarda tutadi.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasida lizing munosabatlarini rivojlantirishda lizing to‘lovlarining qaytarilmasligi bilan bog‘liq xavflarni sug‘urtalash segmentini rivojlantirish; lizing beruvchining tavakkalchilik bilan bog‘liq xavflarini, shu jumladan lizing va garov obyektini yo‘qotish xavfini yoki kredit xavflarini qoplash uchun “universal sug‘urta”ni ishlab chiqish; “muammoli mijozlar” (lizing bitimlari tarixi byurosi) to‘g‘risida ma’lumot almashish;

O‘zbekistonning xorijiy kreditorlari va lizing kompaniyalari xavflarini sug‘urta qilish masalalarini hal etish hozirgi kunda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Lizing kompaniyalari mutaxassislari o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rov natijalariga ko‘ra, xavflarni pasaytirish ustuvorligining quyidagi natijalariga erishildi: so‘ralgan bozor respondentlarining 32,1 foizi kompaniyalarning xavflarni boshqarishda garov miqdoriga qo‘llaniluvchi joriy talablarni yumshatish kerak, deb hisoblaydi, so‘rov ishtirokchilarining 24,2 foizi bo‘nak to‘lovining minimal darajasini pasaytirish imkoniyati bor, deb hisoblaydi, respondentlarning 10,4 foizi o‘z mablag‘larining yetarlilik darajasiga nisbatan talablarni yumshatish mumkin, 14,0 foizi esa lizing oluvchining moliyaviy barqarorligiga qo‘yiladigan talablarni kamaytirish mumkin deb hisoblaydi.

Moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning ma’lum tarkibidan foydalanilgan holda xavflarni baholash bo‘yicha ekspert usullariga asoslangan va quyidagi guruhlarga bo‘lingan iqtisodiy tahlil usulini taklif qiladi[15]: lizing oluvchining umumiy xususiyatlari, moliyaviy barqarorligi, lizing oluvchining investitsiya loyihasi sifati; lizing bitimining sifati va bitimning xavf darajasini umumiy baholash (1-jadval).

1-jadval: Lizing oluvchi bilan tuzilgan bitimning xavflilik darajasini aniqlash usuli[16]

№	Nomi	Mezon	Norma (ballar)	Olingan (ballar)	Og‘irlik koeffitsiyentlari	Reyting raqami
1	I. Lizing oluvchining xususiyatlari					
1.	Tranzaksiya	Muvaffaqiyatli	Past	100	0,05	5,0
		Yo‘q	0			
2.	Korxona boshqaruvi	Rahbar yuqori malakali va tajribali	60	60	0,05	3,0
		Rahbariyatda tajriba yo‘q	0			

15 Mazkur yondashuv lizing kompaniyalarida muhokama qilindi.
16 Muallif hisob-kitobi.

№	Nomi	Mezon		Norma (ballar)	Olingan (ballar)	Og‘irlik koeffitsiyentlari	Reyting raqami
3.	Ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi		Yuqori	100	60	0,2	12,0
		O‘rta	60				
		Past	0				
4.	Kompaniyaning bozordagi o‘rni		Monopolist	100	60	0,4	24,0
		Bozorning muhim segmenti	60				
		Bozordagi ulushi sezilarsiz	0				
5.	Tarmoq xususiyatlari		Dinamik rivojlanish	100	60	0,3	18,0
		Barqarorlik	60				
		Pasayish	0				
	Jami		-	-	-	1,0	62,0
2	II. Moliyaviy barqarorlik						
2.1.	Rentabellik		Yuqori	60	60	0,2	12,0
		Past	0				
2.2	Likvidlik		Yuqori	100	100	0,5	50,0
		Past	0				
2.3	Aylanib turishi		Yuqori	100	100	0,3	30,0
		Past	0				
	Jami					1,0	92,0
3	III. Lizing oluvchining investitsiya loyihasi sifatida						
3	Loyihaning iqtisodiy samaradorligi						
3.1	ChDD		<0	0	100	0,3	30,0
		>0	100				
3.2	Ichki daromad me’yori		Maqbul	100	100	0,1	10,0
		Nomaqbul	0				
3.3	Qoplanish muddati (chegirmali)		< lizing muddatli	100	100	0,3	30,0
		> lizing muddari	0				
3.4	To‘lov qobiliyati		To‘lashga qodir	100	60	0,3	18
		To‘lashga qodir emas	0				
	Jami		-	-	-	1,0	88,0
4	IV. Lizing shartnomasining sifati						
4.1	Lizing obyektining likvidligi		Yuqori	100	60	0,3	18,0
		O‘rta	60				
		Past	0				
4.2	Qo‘llab-quvvatlash sxemasi		Mavjud emas	0	60	0,3	18,0
		Ishonchli	60				
4.3	Lizing beruvchi uchun tranzaksiya samaradorligi		Maqbul	100	100	0,4	40,0
		Nomaqbul	0				
	Jami					1,0	76,0

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

№	Nomi	Mezon	Norma (ballar)	Olingan (ballar)	Og‘irlik koeffitsiyentlari	Reyting raqami
5	V. Bitimning xavf darajasini umumiy baholash					
5.1	Lizing oluvchining tavsifi		100,0	62,0	0,2	12,4
5.2	Moliyaviy barqarorlik		100,0	92,0	0,3	27,6
5.3	Lizing oluvchining investitsiyaviy loyihasi sifati		100,0	88,0	0,2	17,6
5.4	Lizing shartnomasining sifati		100,0	76,0	0,3	22,8
	Jami		100,0		1,0	80,4
6	VI. Xavf toifalarini baholash va qaror qabul qilish					
6.1	Ishtiriok etishi mumkin		100 va undan yuqori	80,4		
6.2	Ishtirok etish mumkin, ammo qo‘shimcha asoslash talab etiladi		70-100			
6.3	Ishtirok etish mumkin emas		50 dan kam			

Shunday qilib, tavsiya etilgan xavflarni baholash tizimi lizing kompaniyasida xavflarni boshqarish jarayonini ifodalaydi, shu bilan birga loyiha doirasida ham, butun portfelda ham daromadlilik, likvidlik va xavfning talab qilinuvchi nisbatlari, shuningdek, dastlabki ma’lumotlar, tahlil usullari va boshqaruv natijalarini o‘lchash qobiliyatini uslubiy jihatdan ta’minlaydi.

Lizingdan investitsiyalarning muhim muqobil manbayi sifatida, birinchi navbatda, ishlab chiqarishni texnik va texnologik modernizatsiya qilish dasturlarini amalga oshirish uchun foydalanish, shuningdek, lizing beruvchilarning resurs bazasini ko‘paytirish uchun moliyalashtirish manbalaridan keng foydalanish imkoniyatini ta’minlash uning mamlakat rivojlanishining makroiqtisodiy parametrlariga ta’siri oshishiga muhim hissa qo‘shadi. Omilli tahlil natijalari ko‘rsatishicha, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi investitsiya muhitining sifati va lizing faoliyati institutlarining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Tahlillar natijasida ma’lum bo‘lishicha, bugungi kunda lizingning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi ahamiyatsiz bo‘lib qolmoqda.

Shu bilan birgalikda lizing kompaniyalarini moliyaviy barqarorligini ta’minlashda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- bozor kon’yunkturasini hisobga olish, avtonomlik koeffitsiyentlari, likvidlik, moliyaviy leverij, o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanganlik, investitsiyalarni qoplash, qisqa muddatli qarzlar bilan ta’minlanishdagi ehtimoliy o‘zgarishlarga nisbatan ta’sirchanlik tahlili asosida lizing kompaniyalar moliyaviy barqarorligining reyting bahosini aniqlash uchun stress-test usullaridan foydalanish;
- lizing munosabatlarini rivojlantirishni tartibga solishning institutsional mexanizmlari lizing aktivlarini sekyuritizatsiya (securitization) qilish asosida takomillashtish.

Tadqiqotning xulosalari va keyingi istiqbollari. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida O‘zbekiston Respublikasi lizing bozorini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va mintaqalar bo‘yicha investitsiyalarning lizing intensivligi ko‘rsatkichlari aniqlandi. Tadqiqotlar doirasida lizing tashkilotlari tomonidan ularning ishbilarmonlik faoliyati va hisobot yilidagi faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan omillarni baholash tahlili o‘tkazildi (sotsiologik so‘rov orqali).

Lizing tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash usullari o‘rganildi. Lizing to‘lovlarini hisoblashning turli usullari umumlashtiriladi va ko‘rib chiqiladi, tahlil asosida lizing oluvchilar va lizing beruvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda lizing to‘lovlarini hisoblash usullari taklif etiladi.

Lizing faoliyatini rivojlantirish asosida investitsiya xatarlarini kamaytirish usullari, lizing operatsiyalarini hisobga olishga uslubiy yondashuvning xususiyatlari ochib berilgan. Lizing bitimi ishtirokchilarining har biri faoliyatida mavjud bo‘lgan umumiy va ma’lum bir subyektning operatsiyalari tabiati bilan belgilanadigan o‘ziga xos kabi lizing xatarlarini ikkita katta xavf guruhiga bo‘lingan holda tasniflash ishlab chiqilgan.

Lizing munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillar aniqlanib, milliy iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini baholashning uslubiy yondashuvlari o‘rganildi. Uslubiy yondashuvning asosini o‘xshash ko‘rsatkichlardan tashkil topgan makro-, mezo- va mikrodarajalarga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tashkil etdi.

Lizing munosabatlarini rivojlantirishni tartibga solishning institutsional mexanizmlari lizing aktivlarini sekyuritizatsiya (securitization) qilish asosida takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

Lizing xavflarini tasniflash mezonlari tavsiya etildi va lizing kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash usullari tizimlashtirildi. Ta’sirchanlik tahlili, avtonomiya koeffitsiyentlari, likvidlik, moliyaviy leverej, o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlash, investitsiyalarni qoplash, qisqa muddatli qarzlar asosida kompaniyaning moliyaviy barqarorligini stress-testdan o‘tkazish bo‘yicha takliflar berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-apreldagi PF-5978-sonli “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, tadbirkorlik subyektlari va iqtisodiyot tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni.
3. Бурков, А.А. Госрегулирование инвестиций в условиях глобализации: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук: 08.00.01. –Москва, 2016.
4. Доунс Дж., Гудман Дж. Э. Финансово - инвестиционный словарь. 3-е изд. –М.: Инфра-М, 2017. –с. 255
5. Ляшенко В.И. Использование лизинга в развитии предпринимательства и инвестиционной сферы за рубежом. / В.И. Ляшенко, В.В. Бережной / НАН Украины. Ин-т экономики промышленности. – Донецк, 2017. – 84 с
6. Тимофеев, Р.А. Разработка стратегии устойчивого регионального развития на основе реализации ресурсного потенциала: Дис. д-ра. экон. наук: 08.00.05 / Тимофеев Роман Андреевич. – Казань, 2015. – 484 с.
7. World Development Report 2021 A Better Investment Climate for Everyone
7. Обзор. Доклад о мировом развитии 2021. –Нью- Йорк и Женева: ЮНКТАД, 2021. –с. 19.
8. Статистический сборник “Промышленность Узбекистана”. –Ташкент, 2022.
9. O‘zbekiston Respublikasi lizing kompaniyalari mutaxassislari bilan 2019-yilda o‘tkazilgan intervyu asosida tuzilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



ТЕНДЕНЦИИ И ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Б. А. Хакимов
Старший преподаватель Университет Ориентал, Ташкент-Узбекистан

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы устойчивого продовольственного обеспечения и укрепления продовольственной безопасности на основе развития и совершенствования организационно-экономических механизмов в цепочке производства, промышленной переработки и реализации сельскохозяйственной продукции.

Ключевые слова: продовольственное обеспечение, продовольственная безопасность, первичная и глубокая переработка, цепочка добавленной стоимости, агрокластер, обрабатывающая промышленность, интеграция.

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, sanoat ko‘lamida qayta ishlash va sotish zanjirida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish asosida barqaror oziq-ovqat ta’minoti va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash masalalari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat ta’minoti, oziq-ovqat xavfsizligi, birlamchi va chuqur qayta ishlash, qiymat zanjiri, qishloq xo‘jaligi klasteri, ishlab chiqarish sanoati, integratsiya.

Abstract: The article discusses issues of sustainable food supply and strengthening food security based on the development and improvement of organizational and economic mechanisms in the chain of production, industrial processing and sale of agricultural products.

Key words: food supply, food security, primary and deep processing, value chain, agricultural cluster, manufacturing industry, integration.

ВВЕДЕНИЕ

Сегодня полноценное обеспечение продуктами питания и продовольственная безопасность становятся важной задачей не только в Узбекистане, но и во всем мире. “Ликвидация голода, обеспечение продовольственной безопасности, улучшение питания и содействие устойчивому развитию сельского хозяйства” в 2015 году определены Генеральной Ассамблеей ООН в качестве одной из 17 глобальных целей Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года [1].

В укреплении продовольственной безопасности и обеспечении населения продуктами питания важную роль играет развитие производства и углубленной промышленной переработки сельскохозяйственных продуктов. Несмотря на то, что в период независимости производство сельскохозяйственных продуктов на душу населения в Республике Узбекистан значительно восросло, уровень их глубокой промышленной переработки остается на довольно низком уровне. В частности, в республике “за год выращивается 20 миллионов тонн плодоовощной продукции. Однако на промышленном уровне перерабатывается лишь 15 процентов от этого объема, из них 7-8 процентов экспортируется. Вследствие неразвитости инфраструктуры потеря продукции в процессе сбора и хранения достигает 30 процентов. Дальнейшего развития пищевой промышленности и увеличения объема экспорта можно достичь за счет рационального использования имеющихся возможностей и расширения глубокой переработки продукции” [2].

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar dinamikasini tahlil qilish iqtisodiy o'sish va rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada jarayonni matematik va statistik usullar yordamida tahlil qilish, ekonometrik modellar yordamida prognozlashtirish usullardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shunday ekan, investitsiyalarni uzoq muddatli dinamikasi va unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash milliy iqtisodiyotning rivojlanishini aniqlash imkoniyatini beradi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiyotdagi o'rni va uning ko'lamiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etilgan tadqiqotlarni o'rganish, sug'urta bozorini rivojlantirishni ekonometrik usullarini qiyosiy solishtirish, ekonometrik model asosida baholangan qiymatlarni iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda investitsiyalar hajmi 2019-yilda o'tgan davrdagiga nisbatan 65693 mlrd. so'mga ko'payib, 189924,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Mazkur investitsiyalarning asosiy qismi iqtisodiyotni texnik va texnologik jihatdan yangilashga va zamonaviy uskunalar xarid qilishga sarflandi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YAIMdagi ulushi 2003-2009-yillarda o'rtacha 21,6 % ni tashkil qilgan, 2009-2012-yillardagi asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YAIMdagi ulushi biroz kamayganini kuzatish mumkin, 2013-2016-yillarda esa 21,2 % ni tashkil qildi. 2017-2019-yillarda esa bu ko'rsatkichning sezilarli darajada o'sishini kuzatish mumkin, mazkur yillarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YAIMdagi ulushi o'rtacha 30,5 qismini tashkil qildi.



1-rasm: Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YAIMdagi ulushini dinamikasi[1]

So'nggi yillarda mamlakatimizda olib borilgan faol investitsiya siyosati natijasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalarining tarkibidagi ulalarning o'zgarishini kuzatish mumkin. Xususan, tadqiqotda o'rganilgan so'nggi davrda tijorat banklari tomnidan asosiy kapitalga kredit mablag'larini hajmini oshganini kuzatish mumkin. Chet el investitsiyasi va kreditlar asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi 5,8 % ga ko'payib 45,7 % ni tashkil qilgan. Jadvalda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmida

1 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari, (https://stat.uz/uz/180-ofytsyalnaia-statystyka-uz/6559-investitsiyalar).

budjet mablag‘larining pasayishini yaqqol kuzatilgan. Bu esa o‘z-o‘zidan investitsion loyihalarni moliyalashtirishda mamlakatimizda davlatning tashabbuskorligidan ko‘ra turli-xil mulkchilik shaklga ega bo‘lgan korxona va tashkilotlarning investitsion loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etayotganligidan dalolat beradi.

Biz buni yana quyidagi ko‘rsatkichlar, ya’ni tijorat banklari mablag‘lari, chet el investitsiyalar va budjetdan tashqari fondlarning o‘sish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Korxonalar va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning ulushini kamayganini ko‘rish mumkin. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning davlat budjeti, korxonalar va aholi tomonidan asosiy kapitalga jalb etilgan investitsiyalarning ulushini kamayganligi ular tomonidana jalb qilingan investitsyalarning hajmini kamayganligini ifodalamaydi chunki 2006-2019-yillar oralig‘ida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hajmi 10,5 barobarga ko‘payganligini kuzatish mumkin.

1-jadval: 2006-2019-yillar mobaynida asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarning moliyalashtirish tarkibi va dinamikasi (foizda)[2]


Manbalari	2006-yil	2010-yil	2014-yil	2018-yil	2019-yil	Farqi (+;-)
Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari – jami	100	100	100	100	100	XXX
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	4,1	9,0	10,4	17,8	13,1	9
Davlat byutjeti	10,4	5,2	4,2	4,5	7,6	-2,8
Korxonalar va aholining o‘z vositalari	60,3	52,5	57,6	42,0	29,3	-31
Chet el investitsiyasi va kreditlar	18,5	26,4	18,5	24,3	45,7	27,2
Budjetdan tashqari fondlar	6,8	6,9	9,2	11,4	4,3	4,6

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan tahlil natijalarda ma’lum bo‘ldiki, 2019-yilga kelib chet el investitsiyalarning ulushini sezilarli darajada ko‘payganini kuzatish mumkin, buni mamlakatimizda xorijiy investorlarni qo‘llab-quvvatlanishi va dastlabki tadqiqotlarimizda keltirilgandek davlat tomonidan investitsiya loyihasiga ta’sir etuvchi tashqi risklarni ta’sir darajasini kamaytirilishi bilan ifodalash mumkin.

Mamlakatimizda asosiy kapitalaga kiritilgan investitsiyalarni hajmini oshishi unga ta’sir qiluvchi omillarning faollashishi bilan bog‘liq bo‘lib, xususan, mamlakatimizda 2016-2019-yillarda qayta moliyalashtirish stavkasi 9 % dan 16 % gacha ko‘tarildi. Tijorat banklardagi jismoniy va yuridik shaxslar uchun muddatli depozitlarning foiz stavkalari mazkur davr oralig‘ida ko‘tarilganligini kuzatish mumkin.

Iqtisodiyotimizni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirish, innovatsion va energiyani tejaydigan texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, jahon bozorida talab mavjud bo‘lgan yangi turdagi tovarlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish va shu orqali mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda bank tizimi tomonidan olib borilayotgan investitsion siyosat o‘z samarasini bermoqda.

Xususan, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, zamonaviy texnologiya asosida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadlariga tijorat banklari tomonidan 2018-yilda 38,8 trln. so‘m yoki 2017-yilga nisbatan 2,4 barobarga ko‘p investitsion kreditlar ajratildi (2-rasm).




2-rasm: Tijorat banklari tomonidan 2018-yil davomida ajratilgan investitsion kreditlar (mlrd.so‘mda)[3]

2 O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari, (https://stat.uz/uz/180-ofytsyalnaia-statystyka-uz/6559-investitsiyalar).

3 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy ma’lumotlari. http://www.cbu.uz/uzc/statistics/financing/2019/01/155295/

Bunda banklarning investitsiyaviy faoliyati ustuvor ravishda tarmoqlarni rivojlantirish, mahalliylashtirish va hududlarni rivojlantirish Dasturlariga kiritilgan loyihalarni o‘z vaqtida va to‘liq moliyalashtirishni ta’minlashga qaratildi. Tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish iqtisodiyotimizning mavsumiy xususiyatlari va tijrat banklarini kreditlarga taklifiga ko‘ra yil davomida moliyalashtirish hajmi turlicha bo‘lganini kuzatish mumkin.

Tijorat banklari tomonidan investitsion loyihlarini moliyalashtirishga ta’sir qiluvchi omil ularning depozit foiz stavklariga bog‘liq, ular tomonidan depozit foiz stavkalarini oshirilishi natijasida aholining banklardagi omonatlari tarkibida muddatli va jamg‘arma omonatlari ulushi o‘sib bormoqda. Bu esa banklar umumiy resurs bazasining oshishi natijasida tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish uchun ajratilgan kreditlar hajmining sezilarli darajada ortishiga olib kelmoqda (3-rasm).



3-rasm: Milliy valyutadagi bank depozitlari bo‘yicha foiz stavkalari (2018-yil yanvar-2019-yil oktyabr)[4]

Tijorat banklarida jismoniy va yuridik shaxslardan omonatlar hajmini oshirish uchun 2018-2019-yillarda yuqori darajada foiz stavkalar belgilangan bo‘lib tahlil davrida jismoniy shaxslar uchun o‘rtacha 16.9 % ni yuridik shaxslar uchun esa 13,86 % ni tashkil qilgan.


2-jadval: YAIM va Asosiy kapitalga qilingan investitsiya o‘zaro bog‘liqlik tendensiyasi (2003-2018-yil)[5]

Yillar	Yalpi Ichki mahsulot (mlrd. so‘m)	Chet el investitsiya va kreditlari		Asosiy kapitalga qilingan jami investitsiya	
		mlrd. so‘m	% YalMga nisbatan	mlrd. so‘m	% YalMga nisbatan
2003	9837,8	478,7	4,9	1978,1	20,1
2006	20759,3	871,0	4,2	4041,0	19,5
2009	49375,6	4058,1	8,2	12531,9	25,4
2012	96589,8	4337,8	4,5	22797,3	23,6
2015	171808,3	7727,3	4,5	41670,5	24,3
2018	407 514,5	30188,2	7,4	124231,3	30,5
2019	511 838,1	86795,4	16,9	189924,3	37,1

Respublikamizda investitsiya siyosati islohotlari o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini texnik moderinizatsiya qilishga doir yirik loyihalarni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Agar biz birgina raqamlarga e’tibor bersak 2019-yilga kelib asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar miqdori 2003-yilga nisbatan 10,5 ga ko‘paygan yoki yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 17 % ga ko‘payib 37,1 %ni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zlashtirilgan investitsiyalarning xorijiy investitsiyalar va kreditlari hisobidan yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 12% ga ko‘payib 16,9 % ni tashkil etgan. Bu esa, respublikmizda xorijiy investitsiyalarini jalb qilish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarimizning qay darajada to‘g‘ri ekanligidan dalolat beradi.

4 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy ma’lumotlari. http://www.cbu.uz/uzc/statistics/dks/2019/11/178505/

5 O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari, (https://stat.uz/uz/180-ofytsyalnaia-statystyka-uz/6559-investitsiyalar).



4-rasm: YAIM va Asosiy kapitalga qilingan investitsiya o‘zaro bog‘liqlik tendensiyasi (2003-2017-yil)

Korrelyatsion bog‘lanish tahlili yalpi ichki mahsulotni tashkil etuvchi asosiy kapitallarga qilingan investitsiya milliy iqtisodiyotimizni rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy indikatorlardan biri ekanligini ko‘rsatib turibdi (4-rasm). Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, yalpi ichki mahsulotga mos ravishda asosiy kapitallarga qilingan investitsiyalarning quyidagi ekonometrik model bo‘yicha ifodalash mumkin:

$$GDP = 2,157*I + 5925,4 \quad (1)$$

Determinatsiya koeffitsiyenti 0,98 ga teng Yalpi ichki mahsulot bilan asosiy kapitallarga qilingan investitsiyalar miйdorining korrelyatsion bog‘lanishi kuchlidir chunki determinatsiya koeffitsiyenti 1 ga yaqin (R2 =0,98).

Yuqorida tuzilgan modeldan ma’lumki boshqa omillar o‘zgarmas holatda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 1 mlrd. so‘mga ko‘payishi YAIM ni qo‘shimcha 2,157 mlrd. so‘mga ko‘payshiga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Investitsiyalarni iqtisodiyotda qo‘shimcha tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga ta’sir qiluvchi omillardan hisoblanib, investitsiyalarning me’yorida jalb etish iqtisodiyotni faollashishiga olib keladi. Yuqoridagilarning natijalarini inobatga olganda mamlakat iqtisodiyoti uchun investitsiyalarni jalb qilishi samarali hisoblanadi, chunki milliy iqtisodiyotga jalb qilingan 1 mlrd. so‘mllik investitsiya 2.157 mlrd. so‘mlik qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarishi tuzilgan model asosida ma’lum bo‘ldi. Shu sababli iqtisodiyotda investitsiyalarni jalb qilish va uning samarфdorligini oshirishda quyidagilarni amalga oshirish taklif etiladi:

Hozirda O‘zbekistonda moliya bozori yetarlicha rivojlanmaganligi sababli, investitsiya loyihasini moliyalash aksariyat hollarda davlat budjeti orqali, bank kreditlashi hamda xorijiy investitsiyalar shaklida amalga oshirilmoqda. Lekin jahonda keng yoyilgan boshqa usullar – qimmatli qog‘ozlar chiqarish (o‘z kapitali), investitsiya fondlari, nafaqa jamg‘armalari, lizing kompaniyalari va hokazolardan yetarlicha foydalanilmayapti.

Investitsiyalarning samaradorligi yanada oshirish uchun investitsiyalar nafaqat ishlab chiqaruvchi kuchlarga, balki intellektual mulk salohiyatini o‘stirishga xizmat qilishi kerak. Investitsiyalarni innovatsion loyihalarga jalb qilishda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga keng yo‘naltirishni samarali joriy qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Астанқулов О.Т., Ассатуллаев Х.С. Инвестиции как фактор развития // “Халқаро молия ва ҳисоб” научный электронный журнал.–2018. –№ 6.
2. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyoti. –Toshkent 2017 y. –328 bet.
3. Додиев Ф.У. Пути повышения инвестиционной деятельности коммерческих банков // Экономика И финансы. – 2014. – № 3. –С. 23-28 с.
4. Шохазамий Ш.Ш. Методологические основы и приоритеты стратегического развития рынка ценных бумаг в Узбекистане. Автореф. дис. дра экон. наук. –Ташкент: 2011. –С. 42
5. Бутиков Л.И.Проблемы формирования и функционирования рынка ценных бумаг в Узбекистане Автореф. дис. канд. экон. наук. Т.: 2008. –С.41
6. Хамидулин М.Б.Развитие финансового механизма корпоративного управления. –Т.: Молия. – 2008. – 204с
7. Burxonov U.A. Investment valuation in emerging markets: opportunties & specific factors// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” nauchniy elektronniy jurnal. – 2013. – № 7. – S.1.

ISHLAB CHIQARISH TAFOVUTINING MARKAZIY BANK MONETAR SIYOSATI QARORLARIGA TA'SIRI

Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada ishlab chiqarish tafovutining mohiyati va ahamiyati yoritib berilgan. Iqtisodiyotning real va potensial ishlab chiqarish imkoniyatlari va ularga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Shuningdek, "Ijobiy" va "Salbiy" ishlab chiqarish tafovutining inflyatsion bosim hamda mehnat resurslariga bo'lgan ta'siri tahlil qilingan. Ishlab chiqarish tafovutining markaziy bankning monetar siyosat bilan bog'liq qarorlariga ta'siri ko'rib chiqilgan. Xususan, muayyan ishlab chiqarish tafovuti sharoitida markaziy bankning qanday foiz siyosatini amalga oshirishiga e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, ishlab chiqarish tafovutining makroiqtisodiy darajada ustun va zaif jihatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: real ishlab chiqarish, potensial ishlab chiqarish, ishlab chiqarish tafovuti, monetar siyosat, inflyatsion targetlash, foiz stavkasi.

Abstract: The article explains the nature and importance of output gap. In the article the real and potential production possibilities of the economy and the factors affecting them have been studied. Also, the impact of "Positive" and "Negative" output gap on inflationary pressure and labor resources are analyzed. The impact of the output gap on the Central bank's monetary policy decisions is examined. In particular, the attention is paid to what kind of interest policy the Central bank implements in the conditions of either positive or negative output gap. Furthermore, macroeconomic strengths and weaknesses of the output gap are highlighted.

Key words: actual output, potential output, output gap, monetary policy, inflation targeting, interest rate.

Аннотация: В статье освещается сущность и значение разрыв выпуска. Изучаются реальные и потенциальные производственные возможности экономики и факторы, влияющие на них. Также были проанализированы влияние "положительного" и "отрицательного" разрыва в производстве на инфляционное давление, а также на трудовые ресурсы. Было рассмотрено влияние разрыва выпуска на решения Центрального банка, касающиеся монетарной политики. В частности, основное внимание уделяется тому, какую процентную политику Центральный банк проводит в условиях определенного разрыва выпуска. Кроме того, перечислены преобладающие и слабые стороны разрыва выпуска на макроэкономическом уровне.

Ключевые слова: реальное производство, потенциальное производство, разрыв выпуска, монетарная политика, инфляционное таргетирование, процентная ставка.

KIRISH

2017-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan monetar siyosatning maqsad va yo'nalishlarida muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, pul agregatlarining maqsadli ko'rsatkichlarini ta'minlashga qaratilgan monetar targetlash rejimidan voz kechilib, inflyatsion targetlashga o'tish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yildi. Bunda birlamchi asosiy e'tibor inflyatsion targetlash rejimini joriy etishning makroiqtisodiy sharoitlarini shakllantirishga qaratildi.

Ba'zi hollarda inflyatsion targetlashga o'tish real iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasiga xavf solishi mumkinligi ta'kidlanadi. Ya'ni, mazkur rejimni tanlagan markaziy banklar inflatsiyani jilovlashni asosiy maqsad sifatida ko'radi. Bu esa makroiqtisodiy siyosatning boshqa strategik maqsadlariga bo'lgan e'tiborni pasayishiga sabab bo'ladi. Ammo monetar siyosatning asosiy modellari, odatda, inflatsiya va real iqtisodiyotdagi o'zgarishlar o'rtasidagi bog'liqlikni namoyon etishini ham unutmaslik zarur. Ya'ni, mamlakatda iqtisodiy faollik darajasini ifodalovchi ishlab chiqarish tafovutini baholab borish shular jumlasidandir.

Shu kabi munozarali jihatlar monetar siyosat instrumentlaridan foydalanishning makroiqtisodiy sharoitlarini tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu esa, mazkur maqola mavzusining amaliy ahamiyati va dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijlik iqtisodchi ekspert va olimlar tomonidan ishlab chiqarish tafovuti, uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar, shuningdek, ishlab chiqarish tafovutining markaziy bank monetar qarorlariga ta'siri yuzasidan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, maqolada ularning ba'zilari keltirib o'tildi.

Avstraliya Milliy universiteti professori va Osiyo Taraqqiyot banki eksperti I.Klaus [1] Yangi Zelandiyada ishlab chiqarish tafovutini inflatsiyaning foydali ko'rsatkichi sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, ishlab chiqarish tafovuti Yangi Zelandiya Zaxira banki tomonidan inflyatsion bosimni boshqarishda qo'llaniladigan asosiy komponentdir. I.Klausning fikricha, ishlab chiqarish tafovutining ishonchli ko'rsatkichini olish keng qamrovli ma'lumotlar va kuzatuvlar tahlilini talab etadi. Yangi Zelandiya tajribasi ko'rsatadiki, ishlab chiqarish tafovuti monetar regulyatorga samarali monetar siyosat yuritish uchun inflyatsion bosim haqida muhim signallarni bera oladi. Ya'ni ishlab chiqarishning ijobiy (salbiy) tafovutida, uchtadan ikkitasida inflatsiya keyingi chorakda oshadi (pasayadi) va beshtadan uchtasida keyingi yilda oshadi (pasayadi).

R.Verner [2] tomonidan ishlab chiqarish tafovutini tahlil qilishda eng ko'p qo'llaniladigan biznes sikli ko'rsatkichlarining emperik samaradorligi baholangan. Bunda, ishlab chiqarish tafovutining iqtisodiyotdagi noaniqliklarga nisbatan munosabati ham tadqiq etilgan. R.Vernerning ta'kidlashicha, ishlab chiqarish tafovuti umumiy inflatsiya va tashqi sharoitlarga nisbatan tahlil qilinadi. Shuningdek, inflatsiya va tashqi muvozanatning sikl ko'rsatkichlari sifatida yaxshi ishlamasligi sababli monetar siyosat qarorlarini qabul qilishda ulardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish talab etiladi.

R.Billining [3] ta'kidlashicha, inflatsiya va nominal yalpi ichki mahsulot ishonchli hisoblangan bo'lsa-da, mas'ullar monetar siyosat yo'nalishlarini ishlab chiqishda odatda ishlab chiqarish tafovutidan foydalanadilar. Bunda nominal foiz stavkalariga, xususan, Keynsning nol quyi chegarasi (NQCH) modeliga alohida e'tibor qaratiladi. Ya'ni nominal foiz stavkasi NQCH bo'lmaganda, Markaziy bank nominal YAIMni emas, balki inflatsiyani barqarorlashtirishga e'tibor qaratishi kerak. Ammo NQCH mavjud bo'lganda nominal YAIMni barqarorlashtirishga qaratilgan siyosat markaziy bank uchun pul-kredit sharoitlarini yumshatishga yordam beradi. Iqtisodiy barqarorlik deganda "Barqaror" so'zini to'g'ri talqin qilinishi muhim bo'lib, bu barcha mehnatga layoqatli aholining kuniga 18 soat yoki ishlab chiqarish quvvatlarining 24/7 rejimida ishlashini anglatmaydi. Aksincha, bu normal darajada, ortiqcha bosimlarsiz iqtisodiy resurslar to'liq ish bilan ta'minlanganligini bildiradi.

Shu o'rinda iqtisodchi olimlarning inflyatsion targetlashga o'tgan mamlakatlardagi ishlab chiqarish tafovutiga nisbatan yondashuvlariga to'xtalib o'tish o'rinlidir. Xalqaro valyuta fondi ekspertlarining ta'kidlashicha, "ishlab chiqarish tafovuti iqtisodiyotdagi real yalpi talab hajmi va potensial ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi farqning iqtisodiy o'lchovi sifatida namoyon bo'ladi. O'z navbatida, potensial ishlab chiqarish hajmi bu – to'liq quvvat bilan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning maksimal miqdorini ifodalaydi. Bunda, ishlab chiqarish sur'atlarining o'zgarish tendensiyalaridan ko'ra, joriy ishlab chiqarish hajmining iqtisodiyotdagi uzoq muddatli potensial ishlab chiqarish hajmiga qanchalik yaqin ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi" [4].

Umuman olganda, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda ishlab chiqarish tafovutini baholashning yangi metodologiyalari ishlab chiqilmoqda [5]. Shuningdek, mamlakatlardagi iqtisodiy noaniqliklar sharoitida ishlab chiqarish tafovutini nazorat qilishning yangi mexanizmlari ishlab chiqilmoqda [6].

Fikrimizcha, har qanday Markaziy bank monetar siyosatning oraliq va strategik maqsadlariga xususan, inflyatsion target darajasini belgilash va unga erishishida o'z majburiyatlarini aniq belgilab olishi zarur. Bunda, inflyatsion kutilmalar bilan bog'liq ishlab chiqarish tafovutini muntazam nazorat qilib borish muhim hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bir qator xorijlik iqtisodchi olimlarning mavzuga doir yondashuv va qarashlarini tadqiq etish hamda ularga nisbatan mualliflik munosabatini bildirish asosida maqolaning ilmiy-nazariy jihatlari, shuningdek, ishlab chiqarish tafovutini markaziy bankning monetar siyosat bilan bog'liq qarorlariga ta'sirini tahlil qilish asosida maqolaning mazmun va mohiyati ochib berildi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy baholash va ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Markaziy bank inflatsiyaning past va barqaror darajasini ta'minlash maqsadida foiz kanalidan faol tarzda foydalanadi. Ta'kidlash joizki, foiz stavkalari o'zgarishining inflatsiyaga ta'sir etishi muayyan davrni o'z ichiga oladi. Chunki foiz stavkalaridagi o'zgarishlarga nisbatan aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan munosabat bildirilishi va istiqboldagi qarorlarini kutilmalarga muvofiq moslashtirilishi ma'lum vaqt talab etadi. O'z navbatida, Markaziy bank ham foiz stavkalari va inflatsiya o'rtasidagi ta'sirlar kechikishi va ularning oqibatlari xususida dastlabki xulosa va tasavvurlarga ega bo'lishi zarur hisoblanadi.

Markaziy bank tomonidan samarali monetar siyosatni amalga oshirishda iqtisodiyotning joriy ishlab chiqarish va bunda resurslardan foydalanish quvvatini baholab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ish


o‘rinlariga takliflar bo‘yicha ommaviy axborot vositalaridagi e’lonlar hamda malakali xodimlarning taqchilligi mehnat bozoridagi vaziyatni ifodalash bilan bir qatorda ishlab chiqarishni qay darajada avtomatlashtirilganligini ham namoyon etadi. Bu o‘z navbatida, ishlab chiqarish tafovutini ham izohlash imkonini yaratadi.

Ishlab chiqarish tafovuti ishlab chiqarish jarayonida resurslardan foydalanish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, iqtisodiyotning qizishi yoki sovushi fonida yuzaga keladigan inflyatsion bosim xavfini baholashga yordam beradi. Aytish joizki, markaziy bank tomonidan ishlab chiqarish tafovuti inflatsiyani shakllantiruvchi asosiy omil sifatida qaralsa-da, inflatsiyani baholovchi ideal ko‘rsatkich hisoblanmaydi. Chunki ishlab chiqarish tafovutining inflatsiya bilan bog‘liqligi har doim ham barqaror bo‘lavermaydi. Shu sababli markaziy bank ishlab chiqarish tafovutidan keladigan signallarga nisbatan tegishli darajada ehtiyotkorlik choralarini ko‘rish bilangina cheklanadi.

Aksariyat olimlar iqtisodiyotning siklik pasayishi davrida narxlarning pasayishi ehtimoli ko‘proq va aksincha, degan fikrga osongina rozi bo‘lishlari mumkin. Ammo mamlakatlar tajribasi ko‘rsatadiki, mazkur yondashuv har doim ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Odatda, real va potensial ishlab chiqarishlar orasida potensial ishlab chiqarish barqaror inflatsiyaga mos kelishi ta’kidlanadi. Chunki, potensial ishlab chiqarishga iqtisodiyot juda issiq yoki juda sovuq bo‘lmagan holatda ishlab chiqarilgan mahsulot sifatida qaraladi.

Inflatsiyaning barqarorlashuvi real iqtisodiy faollikni oshiradi. O‘z navbatida, inflatsiyani barqarorlashtirishga qaratilgan choralarning qat’iylashtirilishi ijobiy ishlab chiqarish tafovutini qisqarishiga sabab bo‘ladi. Ishlab chiqarish tafovuti – real ishlab chiqarishning (yalpi talab) potensial ishlab chiqarishdan (yalpi taklif) qay darajada chetga chiqishi bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich “og‘ish kengligi” deb ham ataladi (1-rasm).

Iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlash sur’atlarining makroiqtisodiy o‘sish tendensiyasi bilan mutanosib o‘zgarib borishi ishlab chiqarish tafovutini maqsadli ko‘rsatkichlar doirasida shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Ammo, so‘nggi yillarda mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan chora va tadbirlarga qaramay “... iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar o‘sish sur’atining yalpi ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’atidan 2 barobardan ko‘proq oshishi, iqtisodiyotda qo‘shimcha talab yuzaga kelishiga va talab hajmlarining amaldagi taklif hajmlaridan oshib ketishiga, pirovardida ijobiy ishlab chiqarish tafovutining paydo bo‘lishiga olib kelmoqda” [7].



1-rasm: Ishlab chiqarish tafovutining shakllanish trayektoriyasi[1]

Makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab turishda uzoq muddatli muvozanatni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Bunda uzoq muddatli muvozanatga muayyan bir rivojlanish nuqtasi sifatida emas, balki iqtisodiy rivojlanish sur’atlarining barqaror trayektoriyasi sifatida qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Uzoq muddatli muvozanatga erishishda birinchidan, iste’mol narxlari inflatsiyaning belgilangan targetiga muvofiq holda shakllanib borishi, ikkinchidan, makroiqtisodiy o‘sish sur’atlari ishlab chiqarish hamda texnologik o‘sish tezligi bilan belgilanuvchi potensialga mutanosib tarzda o‘sib borishi muhim hisoblanadi.

Xalqaro tajribadan ma’lumki, hukumat va monetar regulyator ishlab chiqarish tafovutini qisqartirish maqsadida potensial yoki real ishlab chiqarish sur’atlariga ta’sir etish orqali ularning trayektoriyasini o‘zgartirishga hamda uzoq muddatli muvozanatini ta’minlashga harakat qiladilar (2-rasm).

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ko‘p hollarda real ishlab chiqarish hajmi iqtisodiy agentlarning yalpi talabi sifatida ham tavsiflanadi. Real ishlab chiqarish hajmining potensialdan oshib ketishi esa inflyatsion bosimni yuzaga keltiradi. Nazariy jihatdan potensial ishlab chiqarish imkoniyatlarini real ishlab chiqarish sur’atlariga yaqinlashtirish orqali ijobiy ishlab chiqarish tafovutini qisqartirish imkoniyati mavjud (2.A-rasm). Ammo, bu iqtisodiyotda natijasi uzoq muddatda namoyon bo‘luvchi tarkibiy islohotlarni amalga oshirishni talab etadi. Amaliyotdan ma’lumki, har qanday hukumat o‘z vakolati davrida imkon qadar jamiyat e’tiborini qozonuvchi qisqa muddatli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturlarini amalga oshiradi va islohotlar yo‘lini tanlaydi. Vaziyatga aniqroq baho berish maqsadida Fisher tenglamasiga yuzlanamiz:

$$MV = PY \quad (1)$$


Bu yerda: M – muomaladagi pul hajmi; V – pulning aylanish tezligi;
P – narxlar darajasi; Y – nominal yoki potensial ishlab chiqarish.

Yuqoridagi tenglamada keltirilgan Y – potensial ishlab chiqarish hajmi bo‘lib quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$Y = AK^{\alpha}L^{\beta} \quad (2)$$

Bu yerda: A – umumiy ishlab chiqarish omili (bir yilda ishlab chiqarilgan barcha tovarlarning haqiqiy qiymati). K – kapital (barcha mashinalar, uskunalar va binolarning o‘lchovi bo‘lib, kapital kiritish qiymati joriy kapital narxiga bo‘linadi); L – ishchi kuchi (firmalar tomonidan to‘lanadigan ish haqi evaziga ishchilar ishlagan ish soatlari).

Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, aynan Y ning aniq qiymatini hisoblashdagi murakkabliklar va undagi kapital hamda ishchi kuchi omillarining uzoq muddatli natijadorligini hisobga olgan holda monetar va fiskal regulyatorlar iqtisodiyotning potensial imkoniyatlarini siljitishdan ko‘ra real ishlab chiqarish imkoniyatlariga ta’sir etish orqali ijobiy ishlab chiqarish tafovutini qisqartirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.



2-rasm: Potensial va real ishlab chiqarishga ta’sir etish orqali ishlab chiqarish tafovutini tartibga solish[2]

Real ishlab chiqarish sur’atlariga ta’sir etish orqali ham ijobiy ishlab chiqarish tafovutini qisqartirish mumkin. Mazkur holatda monetar regulyator faol restriksion siyosat olib boradi. Asosiy foiz stavkani oshirish orqali banklararo pul bozoridagi qisqa muddatli hamda depozit va kreditlar bo‘yicha uzoq muddatli foiz stavkalariga ta’sir etadi. Bu orqali iqtisodiy agentlarning yalpi talabini ham pasaytirgani holda, real ishlab chiqarish sur’atlarini potensial ishlab chiqarish imkoniyatlariga yaqinlashtirish orqali ijobiy ishlab chiqarish tafovutini qisqartirishga erishadi (2.B-rasm).

Ishlab chiqarish tafovutini shakllanishining fundamental sabablariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ishlab chiqarishning uzoq muddatli muvozanatiga erishish inflatsiya va bandlik ko‘rsatkichlari bilan yuqori darajada ta’sir bog‘liqligiga ega ekanligini ko‘rish mumkin, ya’ni, iqtisodiyotda ijobiy ishlab chiqarish tafovutining shakllanishi inflyatsion bosimni oshirgani holda ishsizlikni qisqarishiga sabab bo‘ladi. Jumladan, yuqori talab mavjud sharoitda tadbirkorlik subyektlari qo‘shimcha ishchi kuchini yollash yoki ish haqini oshirish imkoniyatlarini qidiradilar. Hattoki qo‘shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini qurish zarurati ham yuzaga kelishi mumkin. Ammo mazkur jarayonlar joriy noqulay sharoitlarning shakllanishi hosilasi bo‘lib, muayyan qisqa vaqt ichida o‘z trayektoriyasini o‘zgartirishi mumkin. Bu quyidagicha izohlanadi: ma’lum tovarga bo‘lgan talabning keskin ortishi tadbirkorlar oldiga joriy imkoniyatlaridan-da yuqori darajada ishlab chiqarish vazifasini qo‘yadi. Talab yuqori sharoitda xomashyo tovarlari narxining qimmatlashuvi tannarx shakllanishiga ta’sir etadi va uni oshiradi.

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

XULOSA

Regulyator tomonidan monetar siyosat qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda ishlab chiqarish tafovutini baholashdan foydalaniladi. Ammo, ishlab chiqarish tafovutidan foydalanishning ba'zi kamchiliklari mavjudligini ta'kidlash zarur. Xususan, potensial ishlab chiqarishni baholash joriy tendensiyalarga emas, balki avvalgi yillar ma'lumotlariga tayanadi. Bu esa, ishlab chiqarish tafovutini baholashdagi har qanday xato monetar siyosat samaradorligini pasaytirishiga sabab bo'lishini anglatadi.

Aytish joizki, har doim ham salbiy ishlab chiqarish tafovutiga intilmaslik zarur. Chunki, iqtisodiy kon'yunkturaning salbiy ishlab chiqarish tafovutida shakllanishi muayyan davrda yuqori talabni qondirishga xizmat qiladi, ammo iqtisodiyotning qizishi fonida tovarlar zaxirasining oshib borishiga va natijada ishlab chiqaruvchilar iqtisodiy faolligining pasayishiga sabab bo'ladi. Salbiy ishlab chiqarish tafovuti tovar va xizmatlarga talabning past darajasi sharoitida barqaror ishlab chiqarish natijasida yuzaga keladi. Salbiy ishlab chiqarish tafovuti shakllanishi natijasida iqtisodiyotda inflyatsion bosim pasayadi, ammo asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan ish bilan bandlik darajasi ham qisqaradi.

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga nisbatan talabning qisqarishi ularning narxini pasayishiga, o'z navbatida, ishlab chiqarishning qisqarishi fonida xomashyo tovarlariga bo'lgan talabning kamayishi xomashyo tovarlarining ham narxini pasayishiga sabab bo'ladi. Ishlab chiqarishdagi uzilishlar natijasida, tadbirkorlik subyektlari ishchi kuchini yoki ish vaqtini qisqartirishga hattoki, ba'zi ishlab chiqarish obyektlarini yopishga ham majbur bo'ladilar. Bu esa, makroiqtisodiy darajada ishsizlikning ortishiga, aholi daromadlarining pasayishi fonida ularning iste'mol xarajatlarini kamayishiga, yalpi talabning qisqarishi esa, inflatsiya sur'atlari va iqtisodiy o'sishni pasayishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Claus I. Is the Output Gap a Useful Indicator of Inflation (March 2000). Reserve Bank of New Zealand Discussion Paper No. DP2000/05, Available at SSRN: https://ssrn.com/abstract=320826 or http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.320826
2. Werner Roeger, Kieran Mc Morrow, Atanas Hristov and Valerie Vandermeulen. Output Gaps and Cyclical Indicators / EUROPEAN ECONOMY. Discussion paper 104, july 2019. –p.24.
3. Roberto M. Billi. Output Gaps and Robust Monetary Policy Rules / International Journal of Central Banking. Vol. 16, No. 2., March 2020. –pp. 125-152.
4. Sarwat Jahan and Ahmed Saber Mahmud. What Is the Output Gap? FINANCE & DEVELOPMENT, September 2013, Vol. 50, No. 3.
5. Alichi A. A New Methodology for Estimating the Output Gap in the United States / IMF Working Paper, WP/15/144. –p.17.
6. Casey, E. Inside the "Upside Down": Estimating Ireland's Output Gap. Irish Fiscal Advisory Council and University College Dublin. Working Paper No.5., 2018. –pp. 1-61.
7. Duskobilov U.Sh. Impact of Monetary Policy Sustainability Indicators on Economic Growth in Transition to Inflation Targeting. European Journal of Business Startups and Open Society. Vol. 3 No. 7 (Jul - 2023). -pp. 103-110.
8. Duskobilov U.Sh. Features of the transition to inflation targeting in Poland. International Journal of Business Diplomacy and Economy, 2(8), (2023). –pp. 1-8.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining monetar siyosatning 2019-yil va 2020–2021-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. –2018 y. –79-80-b.

O‘ZBEKISTONDA INNOVATSION JOZIBADORLIK ASOSIDA OLIY TALIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH



Jonuzokov M. K.
TDIU, “Iqtisodiyot va biznes” kafedrasi assistent-o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Respublika oliy ta’lim xizmatlarini rivojlantirishda investitsiyalash muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish muhim ahamiyatga ega ekanligi hamda innovatsion jozibadorlikning iqtisodiy mohiyati, uning manbalari, amalga oshirish bosqichlari hamda natijadorligi ilmiy asoslanadi.

Kalit so‘zlar: investitsiya muhiti, innovatsion jozibadorlik, taraqqiyot strategiyasi, ta’lim xizmatlarida innovatsion jozibadorlik, innovatsion jozibadorlik natijadorligi.

Abstract: In this article, the importance of further improving the investment environment and increasing its attractiveness in the development of the Republic’s higher education services is discussed, as is the economic nature of innovative attractiveness, its sources, stages of implementation, and effectiveness.

Key words: investment environment, innovative attractiveness, development strategy, innovative attractiveness in educational services, effectiveness of innovative attractiveness.

Аннотация: В данной статье научно обосновано значение дальнейшего совершенствования инвестиционной привлекательности в развитии услуг высшего образования Республики Узбекистан, а также даны экономические основы содержания инновационной привлекательности, ее источники, этапы развития, реализация и результативности.

Ключевые слова: инвестиционная среда, инновационная привлекательность, стратегия развития, инновационная привлекательность в сфере образовательных услуг, эффективность инновационной привлекательности.

KIRISH

O‘zbekiston iqtisodiyotini jadal rivojlantirish imkoniyati sifatida Respublika iqtisodiyotining tarmoq va sohalariga investitsiyalarni jalb etishni ko‘paytirish muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonni tizimli shakllantirishda investitsion jozibadorlik alohida ahamiyatga ega. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ta’kidlanganidek, “Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish”[1], shu bilan birga “davlat – xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog‘liqni saqlash, talim... va boshqa sohalarga 14 milliard AQSH dollarga teng investitsiya jalb etish”[2] muhim vazifa sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda iqtisodiyotning muhim sohasi hisoblangan talim xizmatlari bo‘yicha investitsion jozibadorlikga katta ehtiyoj sezilib va bu yo‘nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiyalarni iqtisodiyotning muhim tarmoq va sohalarga jalb qilishni tizimli tashkil etish va uning jozibadorligini oshirish bo‘yicha bir qator soha olimlari va mutaxassislarining ilmiy qarashlari mavjud. Jumladan,

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida PF-60-son Farmoni
2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida PF-60-son Farmoni

jahonning yetakchi olimlaridan investitsion faoliyat samaradorligi bo‘yicha Y. Shumpeter[3], M. Porter[4], K. Makkonnell va S. Bryular[5] iqtisodiyotning tarmoq va sohalariga investitsiyalarni jalb etishda yangi iqtisodiy imkoniyatlarni vujudga keltirishlik bo‘yicha o‘z ilmiy qarashlarini bayon etgan. Shuningdek bu borada MDH davlatlari olimlaridan L. I. Abalkin[6], A. A. Dinkin[7], V. V. Bocharov[8] ham mazkur yo‘nalishda ilmiy-tadqiqotlar olib borib, ularning fikricha investitsiyalar moddiy va nomoddiy boyliklarni ifodalaydi hamda ular turli faoliyat turlari va sohalariga yuqori samara olish maqsadida kiritiladi, shuningdek, ushbu jarayonni keyingi taraqqiyoti investitsion jozibadorlikka bevosita bog‘langan bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning analiz, sintez, statistik tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash va istiqbolli prognozlash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotning investitsiyalarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda investitsion jozibadorlik alohida iqtisodiy kategoriya sifatida chuqur tadqiq etishni taqozo etadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, iqtisodiyotda investitsion jozibadorlik – bu Respublikamizdagi barcha tarmoq va sohalarni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan investitsiyalar oqimini vujudga keltira olish imkoniyati(salohiyati) ni ifodalovchi faoliyatdan iboratdir. Oliy talim xizmatlari investitsion jozibadorligi bu – Respublikamizdagi oliy talim xizmatlari samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratuvchi investitsiya oqimini vujudga keltirish salohiyatini ifodalovchi faoliyatdir.

Shunday ekan, investitsion jozibadorlik oliy talim xizmatlarini sifatli va samarali amalga oshirishda eng muhim zarurat ekanligi bilan xarakterlanadi. Oliy ta’lim xizmatlari investitsion jozibadorligi alohida olingan OTM(oliy talim muassasasi)lardagi investitsiya oqimini oshirishga asoslanadi. Masalan, bugungi kunda Respublikamizda investitsion jozibador davlat OTMlari sifatida O‘zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat axborot texnologiyalari universitetlari alohida o‘ringa ega. Ular ichki investitsiyalar bilan bir qatorda, xorijiy investitsiyalar va homiylik mablag‘laridan ham keng foydalanmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsion jozibadorlik alohida iqtisodiy kategoriya sifatida O‘zbekistonda Oliy talim tizimida investitsiyalar oqimini vujudga keltira olish salohiyati bilan mazkur soha taraqqiyoti uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Respublika oliy talim xizmatlarining investitsion jozibadorligini shakllantiruvchi manbalar mavjud bo‘lib va ular quyidagilardan iborat:

- OTMlarning o‘z mablag‘lari(talabalarning kontrakt to‘lovlaridan tushgan mablag‘lar, ilmiy tadqiqot ishlanmalaridan olingan mablag‘lar, xo‘jalik hisobidan olinadigan mablag‘lar);
- davlat budjeti mablag‘lari va budjetdan tashqari fondlar mablag‘lari;
- xalqaro moliya institutlari mablag‘lari (Jahon moliya banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Eksim bank va boshqalar);
- tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari;
- to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar;
- homiylik mablag‘lari va boshqalar.

Ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, Respublikamiz Oliy talim xizmatlari uchun investitsiyalar oqimini tizimli tashkil etishda investitsiya jozibadorligi bo‘yicha quyidagi bosqichlar mavjud:

- Investitsilarni qidirish va izlab topish;
- Investorlar bilan investitsiya shartlarini kelishib olish;
- Investitsiyalardan samarali va maqsadli foydalanish;
- Investitsion jozibadorlik darajasiga erishish va bunda jozibadorlik asosida mablag‘lar kelishini(berilishini) tizimli yo‘lga qo‘yish.

Respublika Oliy talim xizmatlarini yuqori samaradorlikka erishishining muhim sharti bo‘lib, oliy ta’limning investitsion jozibadorligi hisoblanadi.


Tahlil natijalariga ko‘ra, oliy talimga investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha investitsion jozibadorlik quyidagi bir qator ustunliklarga ega(1-rasm).

3 https://ru.wikipedia.org/wiki/Теория_экономического_развития_(книга)
4 https://eesa-journal.com/ekonomicheskie-nauki/nauchnyj-vklad-m-portera-v-razvitie-teorii-konkurencii/
5 https://ru.wikipedia.org/wiki/Экономикс_(учебник)
6 Политическая экономия и экономическая политика. М.: Мысль, 2010г.
7 Наука дальновидности: как преуспеть в стратегическом прогнозировании и планировании // “Проблемы прогнозирования”, 2023 №3
8 library.lgaki.info:404/2017/Бочаров_Фин_анализ.pdf

1-rasm: Respublika oliy talimi xizmatlari bo‘yicha investitsion jozibadorlik ustunliklari

Investitsiyalarni bevosita jalb etish	Investitsiyalarni jozibadorlik asosida
- davlat budjetida belgilangan va budjetdan tashqari fondlardan ajratiladigan mablag‘lar; -OTMdagi moliyaviy mablag‘lar; -bank kreditlari va boshqa kredit mablag‘lari.	-ehtiyoj asosida unga mos budjet mablag‘larini ajratish va budjetdan tashqari fondlardan olinadigan mablag‘larning mavjudligi; -xalqaro moliya institutlarining mablag‘larining mavjudligi va ulardan ehtiyojga mos foydalanish; -homiylik mablag‘lari va ulardan OTM ehtiyojida foydalanish; -OTMning o‘z mablag‘larining mavjudligi; -tijorat banklari kreditlari va boshqa kredit mablag‘laridan foydalanish.

Yuqorida bayon qilingan rasmda keltirilgan oliy ta’lim tizimidagi investitsion jozibadorlik ustunliklaridan ko‘rinib turibdiki, mazkur faoliyat ta’lim sohasida yuqori malakali, bilimli va zamon talabiga javob beradigan kadrlarni yetkazib berishda yangi imkoniyatlarni yaratadi. Shu sababli, bizning fikrimizcha, Respublikamizdagi ta’lim sohasida investitsion jozibadorlik natijadorligiga(samadorligiga) erishish muhim hisoblanadi. O‘zbekistondagi bugungi ijtimoiy iqtisodiy va investitsion sharoit oliy talimga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha quyidagi natijadorlikni ta’minlaydi(2-rasm):



2-rasm: Respublikadagi davlat OTMlarining investitsion jozibadorlik natijadorligi

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda oliy talim xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha investitsion jozibadorlik Respublika iqtisodiyotini jadal rivojlantirishda quyidagi yangi imkoniyatlarni shakllantiradi:

- Respublika iqtisodiyotning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tizimli tayyorlashning tizimi yaratiladi;
- Mamlakat aholining turmush darajasi va sifati keskin oshadi;

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- Respublika ilm-fanida yangi innovatsiyalar yaratish imkoniyati kengayadi;
- Respublikada “OTMlarga investitsiya – bu kelajakka investitsiya” tamoyili asosida kelajak iqtisodiyoti yaratiladi;
- Yangi O‘zbekistonning kelajak avlodini tarbiyalash bo‘yicha Uchinchi Renessansning moliyaviy-iqtisodiy poydevori yaratiladi.

Umuman yuqoridagilardan kelib chiqib ta`kidlash zarurki, O‘zbekistonda innovatsion jozibadorlik asosida oliy talim xizmatlarini rivojlantirish iqtisodiyotni jadal taraqqiyotining muhim asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida PF-60-son Farmoni
2. Политическая экономия и экономическая политика. –М.: Мысль, 2010 г.
3. Наука дальновидности: как преуспеть в стратегическом прогнозировании и планировании // “Проблемы прогнозирования”, –2023 №3.
4. library.lgaki.info:404/2017/Бочаров_Фин_анализ.pdf.
5. https://ru.wikipedia.org/wiki/Теория_экономического_развития_(книга).
6. https://eesa-journal.com/ekonomicheskie-nauki/nauchnyj-vklad-m-portera-v-razvitie-teorii-konkurencii.
7. https://ru.wikipedia.org/wiki/Экономикс_(учебник).

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH



Ismailov Allayor Rashidovich
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Korporativ boshqaruv” kafedrasi dots.nti

Annotatsiya: Maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirishda xorij tajribasidan foydalanish masalalari yuzasidan huquqiy an’analar, siyosiy determinantlar, mafkuraviy va madaniy omillar hamda Korporativ boshqaruvning zamonaviy ilmiy yondashuvlari talqini, islom korporativ boshqaruv amaliyotlarini kengaytirish metodologik yondashuv tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: Korporativ boshqaruv, korporativ boshqaruv modellari, ingliz-amerika modeli, yapon modeli, nemis modeli, islom korporativ boshqaruvi, hisobdorlik, aksiyadorlar huquqlari, korporativ boshqaruv kodeksi.

Abstract: The article recommends the interpretation of legal traditions, political determinants, ideological and cultural factors and modern scientific approaches to corporate governance, and a methodological approach to expand Islamic corporate governance practices regarding the use of foreign experience in improving corporate governance in joint-stock companies.

Key words: Corporate governance, corporate governance models, Anglo-American model, Japanese model, German model, Islamic corporate governance, accountability, shareholder rights, corporate governance code.

Аннотация: В статье рекомендуется интерпретация правовых традиций, политических детерминант, идеологических и культурных факторов и современных научных подходов к корпоративному управлению, а также методический подход к расширению исламской практики корпоративного управления с точки зрения использования зарубежного опыта совершенствования корпоративного управления в акционерных обществах.

Ключевые слова: корпоративное управление, модели корпоративного управления, англо-американская модель, японская модель, немецкая модель, исламское корпоративное управление, подотчетность, права акционеров, кодекс корпоративного управления.

KIRISH

Jahonda kapitalni obyektiv birlashtirish yo‘li bilan rivojlangan korporativ tuzilmalar iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror qiymat yaratishni ta’minlashga yordam beruvchi muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Mamlakatlarning xo‘jalik yurituvchi subyektlarining mulkchilik shakllari va tuzilishi bir biridan tubdan farq qiladi. Biroq xalqaro amaliyotda tan olingan korporativ boshqaruv to‘rt xil modelga asoslanadi. Anglo-amerikancha yoki autsaydercha modeli, Kontinental (nemischa) yoki insaydercha modeli, Yapon modeli, Oilaviy modeli bo‘lib, Korporativ boshqaruv o‘zida mulk egalari bo‘lgan aksiyadorlar menejerlar, direktorlari kabi manfaatdor bo‘lgan shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlari tizimini tartibga solish va samarali boshqarishga qaratilgan boshqaruvni o‘z ichiga oladi. Bunday tizim, nafaqat, aksiyadorlar daromadlariga, balki korxonalarni iqtisodiy rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Korporativ boshqaruvning ingliz-amerikacha modeliga amal qiladigan mamlakatlardan AQSH axborotlar oshkoraligini eng qat’iy tartib me’yorini namoyon etadi.

Bunday modeldan foydalanadigan mamlakatlarda boshqaruvning shaffofligi ulardagi axborotlar e’lon qilish darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Jumladan, AQSH qonunchiligida aksiyadorlik jamiyatlari har chorakda bir marta faoliyati bo‘yicha yuqori organga axborotlar taqdim etishi shart.

Bundan kelib chiqqan holda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni joriy etishda qonunchilik-me’yoriy bazasini takomillashtirish, davlatning ishtirokini kamaytirib borish, aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv organlari faoliyatining mustaqilligi va fond bozorlarida erkin harakatlarini ta’minlash, aksiyadorlik kengashlari faoliyatini shaffof va bozor tamoyillari asosida qarorlar qabul qilishini ta’minlash, korporativ boshqaruvda innovatsion yechimlar ishlab chiqish, aksiyadorlik jamiyatlarida ijro organlari faoliyati samaradorligini oshirish,

kuzatuv kengashlari faoliyati samaradorligini baholashga qaratilgan ilmiy-uslubiy asoslar ishlab chiqish yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

M.B. Xamidulin tomonidan Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirishda korporativ boshqaruv modellari va xorij tajribasidan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslarini yaratish borasida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan [1].

I.S. Rumyansev tomonidan korporativ boshqaruv samaradorligini miqdoriy baholash metodologiyasi taklif etilgan. Metodologik yondashuvda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini moliyaviy natijalar asosida va bozor qiymatlari ortib borishi asosida aniqlash bo‘yicha matematik apparat taklif etgan [2].

N.M. Rasulov o‘zining tadqiqotlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirishda xorij tajribasidan foydalanish bo‘yicha zamonaviy usullari va metodlari baholanishi lozimligi e’tirof etiladi [3].

Korporativ boshqaruvning zamonaviy tamoyillarini shakllantirish, ilmiy-uslubiy asoslarini yaratish borasida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Korporativ boshqaruv sohasida amalga oshirilgan ilk ilmiy tadqiqotlar A.Karimov, B.Berkinov tomonidan amalga oshirilgan. A.Karimov tadqiqotlari korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirishga qaratilgan [4].

B.Berkinov tadqiqotlarida esa korporativ boshqaruvning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish asosida korxonalarning iqtisodiy samaradorligini ta’minlashga qaratilgan [5].

Shleifer A., Vishny R., La Porta R. olimlar tadqiqotlarida Xorijiy mamlakatlarda korporativ boshqaruv tizimi va fond bozorining rivojlantirishda mulkdorlarning manfaatlarini himoya qilish nuqtayi nazaridan 3 ta asosiy bo‘g‘inni ajratib ko‘rsatish mumkin: huquqiy an’analar, siyosiy determinantlar, mafkuraviy va madaniy omillar [6].

Korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublarini chuqur o‘rganib chiqib, ularning negizini tashkil etuvchi nazariyalar va konsepsiyalarni o‘rganib, mavjud tendensiyalarni aniqlab, O‘zbekiston korporativ boshqaruv tizimiga joriy etish bo‘yicha D.Suyunov tomonidan tatqiqotlar amalga oshirilgan. D.Suyunovning fikriga ko‘ra aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv zamonaviy modellari va xorijiy tajribasidan foydalanish usullari tahlil qilingan. Korporativ boshqaruv kodeksini joriy etishga tayyorgarlik jarayonlarini baholash bo‘yicha savollarni to‘liq chiqarib tashlash zarur [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirishda xorij tajribasidan foydalanish bo‘yicha mavjud bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLILI VA NATIJALAR

Jahon mamlakatlarida aksiyadorlik jamiyatlari va fond bozorlari samarali faoliyat yuritmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlari va fond bozorlarining faoliyat yuritishi esa ularni boshqarishga bo‘lgan ma’lum yondashuvlarning shakllanganligidan dalolat beradi. Shuningdek, korporativ tuzilmalarni boshqarish va tartibga solish bo‘yicha ma’lum bir huquqiy himoya mexanizmlari mavjud. Biroq mamlakatlarning milliy fond bozorlarining tuzilishida nisbiylik va o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlari mavjud.

Mamlakatlarda shakllangan korporativ boshqaruv modellarining umumiy xususiyatlarini ochib beruvchi, o‘z navbatida, ularga bog‘liq asosiy institutsional va iqtisodiy omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar 12-rasmdagi sxemada aks ettirilgan.


Huquqiy himoya tizimlari asosida shakllangan ilmiy maktablar sifatida roman-german va ingliz-saksoniya maktablarini keltirib o‘tish maqsadga muvofiq. Ular dunyodagi aksariyat mamlakatlarning huquqiy tizimlari ular ta’sirida shakllangan asosiy maktablar hisoblanadi. Huquqiy an’analar jumlasiga rim huquqi prinsiplariga asoslangan fransuz, nemis va skandinaviya huquqiy an’analari kiradi.

Ingliz-saksoniya huquq maktabini shakllantirishning tarixiy shart-sharoitlari huquqiy tizim faoliyatining pretsedent prinsipini belgilab berdi, unda roman-german modelidan farqli o‘laroq, sud amaliyoti olimlar hamda oliy hokimiyat vakillari tomonidan ishlab chiqilgan kodlangan prinsiplarga asoslanmaydi, balki sud nizolarini hal etishning haqiqiy tajribasi asosida shakllanadi.

Yel universiteti[1] olimlari tomonidan mamlakatlarning yuqorida keltirilgan tanlovi bo‘yicha o‘tkazilgan bir qator tadqiqotlari ko‘rsatdiki, aksiyadorlarning ham, korporatsiyalar kreditorlarining ham huquqlarini himoya

1 Shleifer A., Vishny R., La Porta R. Florencio Lopez-de-Silanes.“ //Investor Protection: Origins, Consequences, and Reform.” NBER working paper W. – 1999. – T. 7428. – C. 1999.

qilishning yanada qat'iyroq mexanizmlari ingliz-saksoniya huquqiy an'analariga xos bo'lib, bunday guruh mamlakatlarida o'z kapitali va qarz kapitalining yaxshiroq rivojlangan bozorlari buning natijasidir. Fransuz huquqiy an'analariga ega mamlakatlar guruhi qarama-qarshi tomonni tashkil qiladi. Nemis va skandinaviya guruhlari oraliq pozitsiyani egallaydi. Xalqaro tadqiqotlar natijalari[2] ingliz-saksoniya huquqiy an'anasiga ega va minoritar aksiyadorlarga nisbatan liberal mamlakatda korporativ boshqaruv tizimi mavjudligi o'rtasidagi katta bog'liqlikni ko'rsatdi. Bu – pochta orqali ovoz berish imkoniyati, "bitta aksiya – bitta ovoz" qoidasi, kumulyativ ovoz berish, aksiyadorlarning navbatdan tashqari yig'ilishini chaqirish uchun zarur aksiyalar paketining kichik hajmi O'zbekiston amaliyotida ham bunday usuldan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.



1-rasm: Korporativ boshqaruv va iqtisodiy tizimlari[3]

An'anaviy tushuncha bilan solishtirganda, aksiyadorlar nuqtayi nazari, kuzatuv kengashi va boshqaruvchilari muhim ahamiyatga ega. Aksiyadorlik jamiyatlari o'z manfaatlarini oshirish bilan birga boshqa manfaatdor shaxslarning manfaatini ta'minlash majburiyatini oladi. Boshqa tomondan, manfaatdor tomonlar nazariyasi xodimlar, mijozlar, sotuvchilar, jamiyatlar, davlat tuzilmalari, assotsiatsiyalar, kasaba uyushmalari va boshqalar kabi boshqa ijtimoiy tashkilotlarni ham kiritilganligi haqida ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan.

So'nggi yillarda korporativ boshqaruv tizimida yana bir yangi model paydo bo'ldiki, uning asosiy yo'nalishi islomiy korporativ boshqaruv bo'lib, u ichki boshqaruv vositalaridan, ya'ni Shariat kengashi atributlaridan hamda mulkchilik tarkibidan iborat bo'lgan o'ziga xos boshqaruv prinsiplariga tayanadi.

Shariat kengashi shaffoflik, hisobdorlik va shariatga rioya qilish kabi xususiyatlarga ega bo'lib, ular Islom korporativ boshqaruv amaliyotlarini kengaytirishga yordam beradi. Shariat kengashining korporativ boshqaruvni amalga oshirishdagi o'ziga bir qator o'ziga xos xos xususiyatlarga ega. Taklif etilayotgan Shariat kengashining to'rtta atributi mavjud, ya'ni Shariat kengashi tuzilmasi, shariat kengashi jarayoni, shariat kengashining xususiyatlari va shariat kengashi tarkibi 2-jadvalda ko'rsatilgan.

2-jadval: Shariat kengashining atributlari[4]

Atributlar	Xususiyatlar
Shariat Kengashining tuzilishi	Shariat kengashini shakllantirishning tarkibiy qismlari (qo'mitalar va rahbariyat)
Shariat kengashi tarkibi	Shariat Kengashining soni va Kengash a'zolarining turlari
Shariat kengashining xususiyatlari	Kengash a'zolarining ma'lumotlari (malaka, bilim va tajriba)
Shariat kengashi jarayoni	Shariat kengashining qaror qabul qilishga munosabati (uchrashuvlar)

2 Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarning ta'siridan tozalandi.
3 Muallif ishlanmasi
4 Jan A. A., Lai F. W., Tahir M. Developing an Islamic Corporate Governance framework to examine sustainability performance in Islamic Banks and Financial Institutions //Journal of Cleaner Production. – 2021. – T. 315. – C. 128099.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2-jadvalda to‘rtta shariat atributlari, ya’ni kengash rahbariyati va turli qo‘mitalar, masalan, Shariatni ko‘rib chiqish qo‘mitasi, risklarni boshqarish qo‘mitasi, Kengashlar qo‘mitasi va taftish qo‘mitasi va boshqalardan iborat bo‘lgan kengashni shakllantirish tarkibiy qismlariga ishora qiluvchi Shariat kengashi tuzilmasi keltirilgan. Shariat kengashi tarkibi kengash hajmini va mavjud bo‘lgan a’zolarning o‘ziga xos jihatlarini bildiradi. A’zolarning bilimi, tajribasi va malakasi shariat kengashining xususiyatlari deb ataladi; va nihoyat, yig‘ilishlar shariat kengashi jarayoni deb ataladi.

Korporativ boshqaruv bo‘yicha adabiyotlar tashkilotlar faoliyatida shaffoflik va izchillikni yaxshilash qat’iyatini umume’tirof etadi; Bundan tashqari, korporativ boshqaruv iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik va atrof-muhitni muhofaza qilishda markaziy rol o‘ynaydi. Masalan, u ishlab chiqilgan va korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish borasidagi ma’lumotlarni oshkor qilishda ijroiya organ rahbari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, Islom korporativ boshqaruvi prinsiplari barqarorlik ko‘rsatkichlari ta’minlashning asosiy modeli sifatida qaralmoqda. An’anaviy korporativ boshqaruv institutlari misolida korporativ boshqaruv va barqarorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi ijobiy aloqani mavjudligini tasdiqlamoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yakunda yaxshiroq rivojlangan moliya bozori yangi kompaniyalarning paydo bo‘lishiga turtki beradi va shu tariqa mavjud sanoat va moliyaviy guruhlarning foydasini kamaytiradi hamda ular timsolida mazkur sohadagi taraqqiyotga muxolafatni yuzaga keltiradi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, tarixda ingliz-saksoniya huquqiy an’anasiga taalluqli bo‘lmagan mamlakatlar moliya bozorining rivojlanish darajasi nuqtayi nazaridan yetakchilik qilgan, umumiy huquq tizimining ichida ishlab chiqilgan eng yaxshi g‘oyalar esa, tezda fuqarolik huquqi tizimiga integratsiyalashgan holatlar mavjud.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat organlarining normal faoliyat ko‘rsatishi sharoitida fuqarolik huquqi umumiy huquq tizimida hal qiluvchi rol o‘ynaydigan eskirgan sud amaliyotiga kamroq bog‘liqlik tufayli huquq sohasiga davlat siyosati elementlarining joriy etilishi nuqtayi nazaridan samaraliroq bo‘lishi mumkin.

O‘z navbatida, tashqi moliyalashtirish manbalariga bo‘lgan ehtiyojning ortishi hamisha ham moliya bozorining erkinlashtirilishiga va korporativ boshqaruv darajasining ortishiga olib kelmaydi. Moliyalashtirish manbalariga bo‘lgan qo‘shimcha ehtiyoj mamlakatdagi mavjud moliyaviy resurslarni o‘z foydasiga qayta taqsimlash maqsadida mahalliy sanoat guruhlari tomonidan kuchliroq bosim hisobidan qondirilishi mumkin.

O‘zbekistondagi amaldagi korporativ boshqaruv manfaatdor tomonlar nazariyasiga asoslangan. Shunga ko‘ra ushbu nazariyaning metodologik asoslarini chuqurroq o‘rganish muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni. lex.uz›uz/docs/-5841063
2. Corporate Governance, Christine A Mallin, OXFORD University Press, www.oup.com, ISBN 978-0-19-928900
3. Румянцев Илья Сергеевич Анализ количественных методов оценки эффективности корпоративного управления в современных российских условиях. // Вестник ЧелГУ. 2011. №31. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-kolichestvennyh-metodov-otsenki-effektivnosti-korporativnogo-upravleniya-v-sovremennyh-rossiyskih-usloviyah (дата обращения: 10.05.2022).
4. Беркинов Б.Б. Корпоративные структуры (Основы создания и управления). – Т.: Изд-во Нац. б-ки Узбекистана им. А.Наваи, 2005. – 132 с.
5. Suyunov D. Xoshimov E. Korporativ boshqaruv modellari: konseptual jihatlar, zamonaviy tendensiyalar va konvergensiya imkoniyatlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. –№ 4, iyul-avgust, 2017-yil.
6. Suyunov D.X. Korporativ boshqaruv mexanizmi: muammo va yechimlar. Monografiya. –T.: Akademiya, 2006. –116 b.
7. Rasulov N. Korporativ tuzilmalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish uslubiyotini takomillashtirish. 08.00.13 – Menejment (iqtisodiyot fanlari). Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent: TDIU, –2020-y.
8. Shleifer A., Vishny R., La Porta R. Florencio Lopez-de-Silanes.“ //Investor Protection: Origins, Consequences, and Reform.” NBER working paper W. – 1999. –T. 7428. –C. 1999.

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЦЕНОВОЙ СТРАТЕГИИ НА РЫНКЕ ПЛОДООВОЩНОЙ ПРОДУКЦИИ



Исроилов Абдурашид Абдурахманович
Соискатель PhD, Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация: Данная научная статья исследует особенности формирования ценовой стратегии на рынке плодоовощной продукции. Выявлены уникальные аспекты данного сегмента, такие как сезонность, переговоры с поставщиками, конкурентные условия, качество и инновации, дистрибуция, логистика, а также влияние регулирования и сезонных акций. Статья рассматривает взаимосвязи между этими факторами и их влияние на формирование цен на плодоовощную продукцию. Исследование предлагает практические рекомендации для управления ценовой политикой в данном секторе, учитывая сложности, с которыми сталкиваются производители и потребители на этом рынке. Результаты и выводы статьи способствуют лучшему пониманию стратегических аспектов ценообразования в сельскохозяйственном секторе, способствуя повышению эффективности участников рынка плодоовощной продукции.

Ключевые слова: ценовая стратегия, рынок плодоовощной продукции, сезонность, конкуренция, регулирование цен, рыночные тенденции.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada meva-sabzavot bozorida narx strategiyasini shakllantirish xususiyatlarini o‘rganilgan. Ushbu segmentning o‘ziga xos jihatlari, masalan, mavsumiylik, yetkazib beruvchilar bilan muzokaralar, raqobat sharoitlari, sifat va innovatsiyalar, tarqatish, logistika, shuningdek, tartibga solish va mavsumiy reklama ta’siri aniqlangan. Maqolada ushbu omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik va ularning meva va sabzavotlar narxining shakllanishiga ta’siri ko‘rib chiqilagan. Tadqiqotda ushbu bozorda ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar duch keladigan muammolarni hisobga olgan holda ushbu sektorda narx siyosatini boshqarish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berib o‘tilgan. Maqolaning natijalari va xulosalari qishloq xo‘jaligi sohasida narx belgilashning strategik jihatlarini yaxshiroq tushunishga va meva va sabzavotlar bozori ishtirokchilarining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: narx strategiyasi, meva-sabzavot bozori, mavsumiylik, raqobat, narxlarni tartibga solish, bozor tendentsiyalari.

Abstract: This scientific article explores the features of the formation of a pricing strategy in the market of fruit and vegetable products. Unique aspects of this segment have been identified, such as seasonality, negotiations with suppliers, competitive conditions, quality and innovation, distribution, logistics, as well as the impact of regulation and seasonal promotions. The article examines the relationship between these factors and their impact on the formation of prices for fruit and vegetable products. The study offers practical recommendations for managing pricing policy in this sector, given the difficulties faced by producers and consumers in this market. The results and conclusions of the article contribute to a better understanding of the strategic aspects of pricing in the agricultural sector, contributing to an increase in the efficiency of market participants in fruit and vegetable products.

Key words: pricing strategy, fruit and vegetable market, seasonality, competition, price regulation, market trends.

ВВЕДЕНИЕ

В современных динамично изменяющихся политических и экономических условиях, вызвавших значительные перемены во внешнеторговой конъюнктуре и внутренней социально-экономической ситуации, одной из приоритетных задач является улучшение круглогодичного продовольственного обеспечения населения продуктами питания собственного производства, в частности овощной продукцией.

Однако формирование условий для интенсивного развития рыночной инфраструктуры, повышения конкурентоспособности отечественной овощной продукции, преодоления зависимости от импортных поставок, формирование и применение свободных розничных цен и тарифов на продукцию требует дополнительных исследований, связанных с выраженной отраслевой спецификой данного сегмента агропродовольственного рынка.

Выбор конкретной стратегии ценообразования зависит от целей компании, конкурентной среды, особенностей товара и потребительского спроса. Эффективное управление ценами может стать ключевым фактором успеха на рынке плодоовощной продукции. Стратегия ценообразования неразрывно связана с общей стратегией развития предприятия. Ценовая стратегия служит истоком принятия решения в отношении цены продажи в каждой конкретной сделке. Стратегические цели ценообразования рассчитаны на долговременное будущее и дают возможность определить объёмы прибылей и долю на рынке в расчёте на перспективу, обладать определённым финансовым и временным резервом для долговременного влияния на конъюнктуру рынка. В совокупности с иными факторами стратегия ценообразования оказывает решающее влияние на уровень спроса и продаж, и тем самым на объём получаемой прибыли и эффективность всей производственно-сбытовой системы.

Таким образом, необходимость исследования современных проблем функционирования рынка овощной продукции и формирования ценовой стратегии на плодоовощную продукцию является актуальной и требует разработки как теоретико-методических, так и практических подходов к их решению.

АНАЛИЗ ТЕМАТИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

В зарубежной научной литературе можно проследить насколько обширно освещены теоретические основы функционирования локальных продовольственных рынков и практические подходы к анализу и прогнозированию этих процессов. Данные вопросы рассмотрены в работах таких иностранных ученых как К. З. Бертренд, М. Лэги, П. Ражкумар, С. Щачариа, Ж. Субич, Ж.И. Хьюстон, Л. Иванович, Х. Янг и других.

Среди исследователей стран СНГ проблемы эффективного функционирования и направлений развития продовольственного рынка, в том числе рынка плодоовощной продукции, являлись предметом многочисленных исследований ученых-экономистов: И. М. Донник, Е. В. Закшевской, С. В. Келейниковой, С. Н. Королева, В. М. Кручининой, Д. С. Неуймина, М. Г. Озеровой, С. И. Олониной, Д. И. Полевого, С. М. Рыжковой, Т. В. Сабетовой. Е. А. Силко, С. М. Сироты, Е. А. Ситниковой, Е. А. Суслова и других

Вопросами развития и управления плодоовощной продукции, разработки маркетинговых стратегий и ценообразования сельскохозяйственной продукции в Республике Узбекистан занимались многие ученые-экономисты. Заслуживают внимания работы таких ученых как Ш.Эргашходжаева, А. Собиров, Х. Хушвактова, У. Мухитдинова, Я. Алиев, Э. Эргашев, И. Шарипов, Х. Исраилова. Х. Буриев и другие.

Однако при всем многообразии перечисленных работ, составляющих методологическую основу исследуемой проблемы, в отечественной экономической науке, на наш взгляд, недостаточно полно и всесторонне рассмотрены вопросы формирования ценовой стратегии на плодоовощную продукцию, моделирования его состояния, а также методического обеспечения принятия решений по совершенствованию элементов изучаемого рынка в связи с указанными изменениями.

МЕТОДОЛОГИЯ НАУЧНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Теоретической базой научного исследования послужили научные труды зарубежных и отечественных исследователей. Методологической основой написания научной статьи является использование в процессе проводимых исследований совокупности различных эмпирических и теоретических методов познания таких, как наблюдение, сравнение, анализ, классификация, метод аналитической и статистической группировки и др.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Для рынка сельскохозяйственной продукции характерен ряд важных черт и свойств. Он проявляет действие множества функций, которые регулируют отношения между хозяйствующими субъектами и, не только способствует покупателям и продавцам в решении их интересов, а превратился в средство регулирования процессов общественного производства, обмена, распределения и потребления. Только на рынке создаются условия для эквивалентного обмена, и он выступает в качестве механизма определения объемов доходов. Именно на рынке происходит уравновешивание цены, и она является тем индикатором, который дает возможность платежеспособным потребителям в полном объеме обеспечить потребности на основе свободы и равенства действия всех производителей и покупателей.

На сегодняшний день продукцию, произведенную в Республике Узбекистан, можно найти в любой точке мира. Это свидетельствует о том, что она полностью соответствует мировым стандартам. Статистические данные свидетельствую о том, что Узбекистан по итогам 2023 года поставил за рубеж овощей и фруктов на сумму в 672,9 млн. долларов. Это на 22,4% больше, чем за тот же период прошлого года.

По данным агентства по статистке, основными покупателями узбекистанской сельхозпродукции

стали Россия, на которую пришлось 41,8% от всего экспорта, Пакистан (14,6%) и Казахстан (12%). Наиболее низкие показатели у Азербайджана и Таджикистана - по 3,9 млн. долл., а также Грузии - 3,6 млн. долл.

За этот период на 58,9% выросли поставки за границу черешни - до 52,9 млн. долл., проса в 157,7 раз - до 19,4 млн. долл. Экспорт чернослива вырос на 72,6% - до 25,3 млн. долл. Поставки капусты просели на 35,4% до 21,1 млн. и томатов - на 22,9% до 33,4 млн долл.

Для беспрепятственного и бесперебойного экспорта отечественной плодоовощной продукции в зарубежные страны важную роль играют международные сертификаты и стандарты Global G.A.P, Organic, NACCP, система GSP+, фитосанитарные требования, а также требования, направленные на расширение экспортных рынков зарубежных стран. Агентство по карантину и защите растений регулярно разъясняет эти правила и порядки производителям продукции.

На рынке сельскохозяйственной продукции присутствует отличительная особенность, заключающаяся в том, что объемы производства определенного вида продукции не совпадают абсолютно с объемами ее потребления и не идентичны им в абсолютных значениях. Производственные объемы определенного вида продукции превышают объемы, предназначенные для представления на рынке, причем это превышение несопоставимо с объемами использования производителями для собственных производственных потребностей. Вместо этого, часть данного продукта может быть направлена на удовлетворение потребностей потребителей через импорт. Также следует отметить, что удовлетворение потребностей потребителей в определенной продукции может осуществляться в различных местах и времени, что предоставляет возможность для производства данного вида продукции в одном месте и времени, а реализации – в другом.

Спрос и предложение выступают простейшими и одновременно главными экономическими элементами механизма, которые действуют на рынке и регулируют его функционирование как системы, непосредственно влияют на процесс формирования цен и объемов производства, обеспечивая тесную взаимосвязь между начальным и конечным моментами процесса воспроизводства и, таким образом способствуют непрерывному его продолжению.

На каждом этапе движения сельскохозяйственной продукции цена имеет определенную структуру, которая состоит не столь в неразрывной связи с ее отдельными частями стоимости – себестоимости и прибыли производителя, как с намерениями, целями и возможностями нового владельца продукта. Обусловлено это отсутствием общепринятой совершенной методики на уровне производителей формирования цены на собственную продукцию сельскохозяйственных производителей. Процесс образования рыночных цен производителями на собственные товары остается еще недостаточно исследованным, хотя во многих опубликованных работах отмечается внимание на целесообразность и необходимость таких поисков.

Разработка самостоятельной ценовой стратегии – стабильно воспроизводимый процесс. Стратегия ценообразования обязана непрестанно проходить проверки на основе фактически достигнутых результатов и при необходимости корректироваться. Ценовая стратегия должна соответствовать именно той общей маркетинговой стратегии, которую в данный момент соблюдает предприятие.

Процесс разработки самостоятельной ценовой стратегии состоит из следующих этапов: сбора исходной информации, стратегического анализа, формирования стратегии (рисунок 1).




Рис. 1: Этапы разработки ценовой стратегии

Не смотря на то, что на рынке цены на сельскохозяйственную продукцию устанавливаются в соотношении спроса и предложения, которые в условиях стабильной экономики базируются в основном на общественно необходимых затратах труда, они на отдельные виды продукции автоматически корректируется под влиянием ряда факторов субъективного и объективного характера, в виде наличия импортной продукции, изменения конъектуры и поступления большого количества заменителей, проявления регуляторных действий государства и т.д. К тому же, на практике реализационные цены устанавливаются, как правило, ниже стоимости продукции, из-за того, что часть чистого дохода, которая создается в аграрных предприятиях, перераспределяется в другие сферы национальной экономики. Такой методический подход к ценообразованию не только не отражает реальное участие производительных сил сельскохозяйственных производителей в изготовлении своего продукта и установления его стоимости, но и не способствует созданию соответствующих условий для осуществления принципа материальной заинтересованности и возможностей сельских товаропроизводителей в расширении производства.

Субъекты хозяйственной деятельности в условиях свободной конкуренции вынуждены воспринимать такую цену, которая формируется на основе соотношения спроса и предложения и вовремя реагировать на ее изменения. В случае опоздания реакции на снижение розничных цен на рынке у предприятия не только уменьшится объем реализованной продукции и масса полученной прибыли, но и произойдет потеря части покупателей, которые уйдут к конкурентам. Адекватно является недопустимой реализация производителем продукции по заниженным ценам в случае их роста на рынке. Несвоевременная реакция на повышение уровня рыночной цены приводит к уменьшению объемов прибыли. Следовательно, цена предложения должна четко контролировать изменение рыночной цены, своевременно реагируя на цену спроса. Рыночная цена, которая формируется на рынке сельскохозяйственной продукции в условиях совершенной конкуренции, в основном не зависит от отдельных товаропроизводителей, а только от потребителей.

По нашему мнению, участие сельских производителей в образовании рыночных цен на собственную продукцию должен быть непосредственным и определяющим. Цены на сельскохозяйственную продукцию должны базироваться на фактических затратах на производство продукции, прибыли предприятия-производителя, налога на добавленную стоимость, суммы акцизов и лицензионного сбора, если продукция облагается ним. С позиции производителя, цены должны устанавливаться на таком уровне, чтобы обеспечивать ему возврат затрат на производство и получения соответствующей рентабельности для достижения желаемых темпов расширенного воспроизводства и повышения материального благосостояния работников предприятия.

В условиях действия законов рыночной экономики на рынке сельскохозяйственной продукции не должно быть непосредственной государственной политики ценообразования. Однако, государство призвано согласовывать интересы и цели потребителей и производителей, обеспечивая тем самым достижение продовольственной безопасности страны. Ее главной целью должно стать обеспечение уровня достаточности и доступности научного обоснованного уровня потребления продуктов всеми слоями населения за счет результатов деятельности отечественных сельскохозяйственных производителей.

При условии превышения цены над затратами продукция является конкурентоспособной, а с другой стороны, превышение затрат над ценой свидетельствует о ее неконкурентоспособности. Рыночное равновесие спроса и предложения является теоретическим основанием ценообразования, однако на практике модель уравновешивания цен, в значительной степени, зависит от действия различных других факторов ценообразования. Это могут быть действия со стороны государства дотационного характера, непосредственного ценового регулирования ею, рост платежеспособности населения, нерегулируемый импорт, контрабандные завоза продукции и т.д. Если предположить, что природные и финансовые риски для сельскохозяйственных товаропроизводителей остаются неизменными, то в условиях рыночной экономики можно ориентироваться на ожидаемые объемы спроса и предложения в момент уравновешенного ценообразования на рынке сельскохозяйственной продукции при следующих условиях (рисунок 2).

Отклонения объемов предложения продукции в сторону уменьшения или увеличения, которые могут иметь место за счет основных субъективных факторов организационного, технологического и экономического характера, можно и нужно регулировать государству. При таких условиях, с помощью модели, можно определить предельные отклонения цены, как в максимальном, так и минимальном размере от уравновешенной цены, что будет свидетельствовать о возможном обеспечения прибыли товаропроизводителям и будет приемлемым для потребителей. В такой способ можно определить обеспечение доступности и достаточности потребления сельскохозяйственной продукции отечественного производства для подавляющего большинства населения страны и соответствующий уровень рентабельности сельскохозяйственных товаропроизводителей.



Рис. 2: Влияние различных факторов на ценообразование плодовоовощной продукции

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Разработка эффективных ценовых стратегий предусматривает прогнозирование будущих цен на основе их мониторинга и исследования современной рыночной конъюнктуры и ценовых стратегий конкурентов. Следует отметить, что рыночная экономика и особенности ее развития в Узбекистана ужесточают требования к ценовой стратегии сельскохозяйственных предприятий, которые могут быть эффективными не только при условии поддержки конкурентного ценообразования на рынке, но и осуществляют непрерывный процесс управления ценами согласно постоянным изменениям рыночной конъюнктуры. Если к этим изменениям уже сформированные предприятием цены оказываются неадекватными, то возникает потребность в разработке комплекса мер по их стабилизации на рынке и приведение в соответствие с состоянием текущей конкурентоспособности.

Достичь максимально возможного в современных условиях объема реализации сельскохозяйственной продукции можно применив механизм установления ее равновесной цены, предусматривающий учет факторов формирования рыночного спроса и соответствующих факторов формирования рыночного предложения. То есть управление ценообразованием на сельскохозяйственных предприятиях предполагает использование комплексного подхода к формированию цены на основе существующих методов ценообразования.

Корректировки уже определенных цен вследствие влияния факторов организационной среды необходимо осуществлять на основе системного подхода. Определение и корректировка цен, в том числе за счет надбавок и скидок, постоянно контролируются, ориентируясь на результат. Для этого управление ценообразованием должно быть направлено на то, чтобы реализация продукции по определенным ценам позволяла в целом за год получать целевую прибыль (целевую маржу), несмотря на сезонность, колебания спроса и ценовую политику конкурентов.

TARAQQIYOT PROGRESS

Список литературы:

1. Татарников О. В. и др. Внутренний контроль доходов и оптимизация системы скидок на продажи плодоовощной продукции //Вестник Российского экономического университета им. ГВ Плеханова. – 2012. – №. 9. – С. 52-59.
2. Трубникова Т. В. Особенности ценообразования в различных видах деятельности системы потребительской кооперации //Современные тенденции экономики, управления и образования. – 2015. – С. 93-96.
3. Солиев И. И., Сирожиддинов К. Некоторые аспекты организации маркетинга плодоовощной продукции на сельскохозяйственных предприятиях //Экономика и социум. – 2020. – №. 6-2 (73). – С. 312-316.
4. Ставцев А. Н., Гасанова Х. Н., Ланкин А. С. Оценка перспектив маркетинга органической продукции //Экономика сельского хозяйства России. – 2017. – №. 9. – С. 62-68.
5. Маннопова М. С. Основные проблемы в сфере переработки плодоовощной продукции в Республике Узбекистан //Образование и наука в России и за рубежом. – 2019. – №. 16. – С. 175-180.
6. Таирова М. М., Болтаева Ш. Б. Роль агромаркетинга в развитии экспорта плодоовощной продукции Узбекистана //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2014. – №. 8-1. – С. 157-159.
7. Узганбаева Д. Перспективы развития производства и экспорта плодоовощной продукции в Узбекистане //“Yashil” iqtisodiyot VA TARAQQIYOT. – 2023. – Т. 1. – №. 11-12.
8. Собиров А. Ўзбекистонда мева-сабзавот маҳсулотлари бозорининг ривожланиш тенденциялари: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a39 //Economics and education. – 2022. – Т. 23. – №. 3. – С. 259-263.
9. Беглаев У. Х. и др. Мева-сабзавотчилик кластерларини бошқаришнинг хорижий тажрибалар таҳлили //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 29. – №. 1. – С. 83-95.
10. Валидинов Б. В., Саламов И., Нурманов Ш. Х. Мева-сабзавотчилик кластерларида сабзавот етиштириш ва уларни рентабеллик даражасини ошириш //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 687-699.

IQTISODIYOTNI GLOBALLASHUVI SHAROITIDA XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR BARQARORLIGINING NAZARIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH



Kalandarova Nargiza Narimanovna
PhD, TMI “Iqtisodiy tahlil” kafedrasi dotsenti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy me’yoriy-huquqiy hujjatlar turli mulk shaklidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga to‘liq erkinlik berilmoqda. Barqarorlikni ta’minlash maqsadida eksport-import muomalalarida erkin munosabat yuritish, hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish uchun sherik tanlay bilish, o‘zi ishlab chiqargan mahsulot va uni sotishdan olgan daromadga to‘liq egalik qilish moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishiga bevosita ta’sir etadi.

Kalit so‘zlar: barqarorlik, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy holat, aylanma mablag‘lar, moliyaviy natija, eksport, import, moliyaviy mustahkamlik, nobarqaror, barqarorlik turlari.

Abstract: Today, the socio-economic normative-legal documents implemented in our country give full freedom to the activities of economic entities of various forms of ownership. In order to ensure stability, free relations in export-import transactions, the ability to choose a partner for cooperation, full ownership of the product produced and the income from its sale directly affect the change in financial stability indicators.

Key words: stability, financial stability, financial condition, working capital, financial result, export, import, financial stability, unstable, types of stability.

Аннотация: Сегодня реализуемые в нашей стране социально-экономические нормативно-правовые документы предоставляют полную свободу деятельности хозяйствующих субъектов различных форм собственности. В целях обеспечения стабильности свободные отношения в экспортно-импортных операциях, возможность выбора партнера для сотрудничества, полная собственность на производимую продукцию и доходы от ее реализации напрямую влияют на изменение показателей финансовой устойчивости.

Ключевые слова: стабильность, финансовая устойчивость, финансовое состояние, оборотный капитал, финансовый результат, экспорт, импорт, финансовая устойчивость, неустойчивость, виды устойчивости.

KIRISH

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida erishilgan natijalar asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston–2030” strategiyasida asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish belgilangan. Shu sababli ham 2030-yilga qadar barqaror rivojlanish sohasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish mo‘ljallangan. Shuningdek, mazkur strategiyada ustuvor vazifa sifatida belgilangan “Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash” tarkibida makroiqtisodiy barqarorlik hamda fiskal barqarorlikni ta’minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish masalalari alohida ko‘rsatib o‘tilgan [1].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida yangicha ish yuritish avval uchramagan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, respublikamiz tashqi va ichki bozorlaridan tajribali mijoz tanlash bilan birga ularning moliyaviy imkoniyatlari hamda barqarorligini o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Respublikamiz iqtisodiyot sektorlarining uzluksiz faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanishi muhim hisoblanadi. Shu jihatdan ham xo‘jalik yurituvchi subyektlarning barqaror faoliyat yuritishida, ishlab chiqarish jarayonining barcha elementlari, shu jumladan, buxgalteriya hisobi, audit va iqtisodiy tahliliga e’tibor qaratish muhimdir. Iqtisodiyot sektorida bozor munosabatlarini chuqurlashtirish ushbu sohada iqtisodiy islohotlarni yanada jadallash-

tirishni taqozo etadi. Shu sababli moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari va ularning tahlilini takomillashtirish, uni barcha sektorlarning tuzilmasiga va o‘zgarishlariga moslash, moliyaviy-iqtisodiy holatini o‘rganish va nazorat qilishning maqsadli shaklini ishlab chiqish hamda qaror toptirish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Shu jihatdan ham keyingi yillarda respublikamizda barqarorlik ko‘rsatkichlar tahliliga e’tibor qaratilmoqda. Bu esa ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini baholash va uning tahlilini to‘g‘ri tashkil etilishi hamda takomillashtirilib borilishi eng dolzarb masalalaridan biri ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim bo‘ladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini tahlil etish orqali uni yanada sog‘lomlashtirish imkoniyatlariga baho beriladi hamda moliyaviy mustahkamligi kuchaytiriladi.

Moliyaviy barqarorlik bo‘lgan joyda barcha xo‘jalik muammolari va hisob-kitoblar o‘z vaqtida bajariladi. Shu bois har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolini bilish va o‘rganishga e’tibor kuchaymoqda. Ma’lumki, buxgalteriya balans ma’lumotlariga qarab xo‘jalik yurituvchi subyektni aylanma mablag‘lari qanday manbalar hisobiga tashkil etilganligi o‘rganiladi. Bunday tahlilning zarurligi shundaki, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy mustaqilligi, barqarorligi, kredit olishga layyoqatliligini aniqlashda o‘zlik manbalar bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkich muhim ahamiyatga egadir. Moliyaviy hisobot tahlil natijalariga ko‘ra xo‘jalik yurituvchi subyektining moliyaviy barqarorligi joriy yilning boshida ham, yil oxirida ham nobarqaror holatda bo‘lishi mumkin. Bunday natijalar iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida yaxshi natija deb hisoblab bo‘lmaydi. Shu sababli ham, xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariyati moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun tegishli chora-tadbirlar ko‘rishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Moliyaviy holat barqarorligini tahlili orqali ma’lum davr mobaynida moliyaviy resurslarni qanday boshqarganligiga baho beriladi. Avvalo, moliyaviy resurslar holati bozor va xo‘jalik yurituvchi subyekt rivojlanishining talablariga mos kelishi kerak, chunki moliyaviy barqarorlikni talab darajasidan past bo‘lishi uning to‘lovga qobilligini zaiflashtiradi, ishlab chiqarishni rivojlanishi uchun mablag‘lar yetishmasligiga sabab bo‘ladi. Buning aksi bo‘lgan holatlarda esa moliyaviy resurslarni ortiqchaligi ishlab chiqarishni rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi, ishlab chiqarish zaxiralari va rezervlarini me’yordan ortib ketishiga olib keladi. Shu sababli ham moliyaviy resurslarni samarali shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanishi moliyaviy barqarorlik mohiyatini ifodalaydi. Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy mustahkamlikka (barqarorlikka) va balans likvidligiga turlicha yondashilgan hamda aniqlanayotgan ko‘rsatkichni moliyaviy mustahkamlik yoki balans likvidligi, ya’ni xo‘jalik yurituvchi subyektlarning olingan qarzlarni qaytarib berish qobiliyatiga egalik deb tushuniladi.

Bundan ko‘rinadiki, moliyaviy mustahkamlik xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish bilan aniqlansa, moliyaviy barqarorligiga esa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning butun xo‘jalik, ishlab chiqarish faoliyatining barcha yo‘nalishlari ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu holatda ichki va tashqi omillar, shart-sharoitlar ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib moliyaviy barqarorlikka xo‘jalik yurituvchi subyekt ichidagi va undan tashqaridagi vaziyat, omillar, shart-sharoitlar ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga barqarorlikning o‘zgarish darajasi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hozirgi va kelgusidagi faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur mavzuga oid iqtisodchi olimlarning nazariy va amaliy jihatlari yuzasidan fikrlariga to‘xtalib o‘tsak.

Xususan, E.Akromov fikricha “Moliyaviy barqarorlik darajasini aniqlash uchun zaxira va xarajatlar yoki moddiy aylanma mablag‘larni ularni tashkil topish manbalariga nisbat ko‘rinishida aniqlash tavsiya etiladi” – deb ta’riflagan [2].

M.Pardayev, B.Isroilov tomonidan “Moliyaviy barqarorlikni ifadalovchi ko‘rsatkichlarni iqtisodiy mohiyati jihatidan guruhga bo‘lib o‘rganish tavsiya etiladi” – deb fikr bildirgan [3].

T.Shog‘iyosov fikriga ko‘ra “Moliyaviy barqarorlikni baholashda ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir” [4].

B.Xasanov, N.Xadjimuratov, U.Nurmanov, A.Maxmudov fikricha “Korxona barqarorligini eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri bu moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichidir. Agar korxona daromadlar xarajatlardan ortadigan bo‘lsa, moliyaviy barqarorlikka erishishi mumkin bo‘ladi. Agar korxona mablag‘larni erkin tasarruf eta olsa, ulardan samarali foydalansa, doimiy ishlab chiqarish va sotishning mukammallik aylanish uzluksizligini ta’minlasa, bunday korxonani moliyaviy barqaror deyishimiz mumkin”- deb izohlaydi [5].

Fikrimizcha moliyaviy barqarorlik bu – xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishini va pasaymasligini ifodalaydi. Moliyaviy barqarorlikda xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining barcha tomonlari natijasi aks ettirilib, moliyaviy barqarorlikka erishgan quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi:

- iqtisodiy munosabatlarni turli sharoitlarida faoliyat yuritishi;
- xo‘jalik yurituvchi subyekt pul mablag‘larini erkin harakat qilishi;
- moliyaviy resurslarni bozor talablariga mos kelishi;
- moliyaviy resurslar holati ishlab chiqarishni rivojlantirish va to‘lov qobiliyati, kreditga layoqatligini ta’minlay olishi;
- ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlarini manbalar bilan qoplanishi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot davomida, tizimli tahlil, statistik guruhlar va taqqoslama tahlil, kompleks tahlil, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda tahlil davomida moliyaviy barqarorlikka ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarga e’tiborni qaratmoq lozim. Ichki omillar qatoriga faoliyatni tarmoq xususiyatiga mos kelishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ko‘rsatilayotgan xizmat tuzilishi (strukturasi), ustav kapitaliga to‘langan miqdor hajmi, xarajatlar miqdori, ularni daromadlarga nisbati dinamikasi, mol-mulk va moliyaviy resurslar holati, shu jumladan, zaxira va rezervlar, ular tarkibi va tuzilishi, tashqi omillarga xo‘jalikni yuritishning iqtisodiy shartlari, to‘lovga qodirlik, xaridorlarning daromadlik darajasi, davlatning soliq va kredit bo‘yicha siyosati, tashqi iqtisodiy aloqalar va boshqalar kiradi. Ular quyidagi 1-chizmada aks ettirilgan.


Umumiy barqarorlik chegarasini yuqori yoki past bo‘lishi turli xil sabablarga bog‘liq, jumladan:

- “Barqarorlik zaxirasi” – bir necha yillar davomida shakllangan moliyaviy zaxiralar miqdori tasodifiy va keskin tashqi kutilmagan o‘zgarishlarni oldini olishga qaratilgan;
- texnik – iqtisodiy barqarorlik – investitsiya loyihalari samaradorligi, texnika bilan qurollanish darajasi, ishlab chiqarish, mehnat, boshqaruvni tashkillashtirish; pul oqimlarini harakati tufayli foydaga erishishni ifodalaydi;
- moliyaviy barqarorlik – daromadni xarajatlarga nisbatan va resurslar holatini yuqori bo‘lishi, pul mablag‘larining erkin harakatini ta’minlaydi, mablag‘lardan samarali foydalanish ishlab chiqarish uzluksizligi, uni kengaytirish va yangilanishi uchun zamin yaratadi.



1-chizma: Xo‘jalik yurituvchi subyekt barqarorligining turlari [4]

Moliyaviy barqarorlik o‘z va chetdan jalb etilgan kapitallar nisbati, joriy, investitsiya va moliyaviy faoliyat tufayli o‘z kapitali jamg‘armasini o‘sish darajasi, harakatchan va immobilizatsiya qilingan resurslar nisbati, zaxiralarni o‘z mablag‘lari manbayi bilan ta’minlanishini ifodalaydi. Demak, moliyaviy barqarorlik moliyaviy resurslar holati birinchidan, bozor talabiga mos kelishi, ikkinchidan, ishlab chiqarishni rivojlanishini ta’minlashi lozim. Moliyaviy barqarorlik tuzilishini quyidagi 2-chizmada ifodalash mumkin.



2-chizma: Xo‘jalik yurituvchi subyekti moliyaviy barqarorligini turlari [4]

Xo‘jalik yurituvchi subyekti moliyaviy barqarorligini turlariga quyidagicha izohlashamiz mumkin, ya’ni:

- joriy – ma’lum bir aniq davr mobaynidagi moliyaviy barqarorlik;
- imkon – tashqi sharoit o‘zgarishini hisobga olgan holdagi moliyaviy barqarorlik;
- yuzaki – davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanadigan, chetdan beriladigan yordam tufayli moliyaviy barqarorlik;
- real – raqobat sharoitida kengaygan takror ishlab chiqarish imkoniyatlarini hisobga olgan holdagi moliyaviy barqarorlik tushuniladi.

Iqtisodiy adabiyotlar va xalqaro amaliyot tajribasida “moliyaviy barqarorlik” so‘zini ifodalanishidagi farqlanish xo‘jalik yurituvchi subyekt balansi tahliliga ikki xildagi yondashish, ya’ni balans likvidligini an’anaviy va zamonaviy funksional usullarini qo‘llash orqali yuzaga chiqishini ko‘rishimiz mumkin.

Umuman olganda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy barqarorlikni balans likvidligi tahlilining an’anaviy usuli yordamida aniqlash quyidagilarni qamrab oladi:

- minimal moliyaviy tenglik qoidasi – ijobiy likvidlikka asoslangan bo‘lib, bunda joriy aktivlar likvidligining o‘sishi majburiyatlarga nisbatan yuqori bo‘lishi shart;
- maksimal qarzdorlik qoidasi – an’anaviy me’yorlarga muvofiq korxona qarzini o‘z mablag‘lari bilan qoplanish chegarasi: uzoq va o‘rta muddatli qarzlar doimiy kapitalning yarmidan yuqori bo‘lmasligi lozim.
- maksimal moliyalashtirish qoidasi – oldingi qoidaga rioya qilingan holda qarz kapitali barcha qo‘yilmalar uchun to‘lanadigan foiz summalaridan ortib ketmasligi lozim.

Funksional balans likvidligini tahlili orqali moliyaviy barqarorlik quyidagi shartlarga rioya qilgan holda aniqlanadi:

moliyaviy muvozanatni saqlanishi uchun stabil resurslar – doimiy kapital va unga tenglashtirilgan mablag‘lar stabil joylashtirilgan aktivlarni 100 % qoplashi lozim. Ushbu ko‘rsatkichdan past bo‘lishi stabil joylashgan mablag‘lar stabilga ega bo‘lmagan resurslar bilan, ya’ni qisqa muddatli majburiyatlar shaklida moliyalashtirilganligini ifodalaydi.

Aylanma aktivlariga bo‘lgan talab qisqa muddatli moliyalashtirish tufayli hisobot davri mobaynida o‘zgarib turadi va bu o‘zgarishlar quyidagilarga olib keladi:

- aylanma aktivlarini ortiqcha ta’minlanishiga, buning natijasida vaqtinchalik erkin harakatdagi aylanma mablag‘lari vujudga keladi;
- aylanma aktivlari bilan yetarli darajada ta’min etilmasligiga, buning natijasida chetdan qarz mablag‘larini jalb etilishiga;
- umumiy qarzdorlikni baholash – chetdan jalb etilgan qarz mablag‘lari o‘z mablag‘lariga nisbat ko‘rinishidagi ifodasidir.

Iqtisodiy tahlil fani o‘z tasarrufida moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil etishning ko‘plab usullari va uslublarini jamlagan. Ular bozor munosabatlari sharoitida tahlil oldiga qo‘yilgan yangi talablar tufayli o‘zgarib boradi. Moliyaviy barqarorlikni tahlil etishning usullari quyidagi 3-chizmada keltirilgan.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati murakkab tizim va tuzilmalardan iborat bo‘lib, uning barqarorligini baholash kopleks tarzda yondashgan holda moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari tizimidan foydalanishni taqozo etadi. Moliyaviy barqarorlikni mutaq ko‘rsatkichlar ishtirokida aniqlash uchun ishlab chiqarish zaxiralarini uni tashkil etuvchi manbalari, ya’ni o‘z aylanma mablag‘lari, bankdan olingan uzoq muddatli va qisqa muddatli kredit va qarzlar summalari bilan taqqoslanadi. Nisbiy ko‘rsatkichlar foiz, koeffitsiyent, indekslar ko‘rinishida ifodalanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliyaviy barqarorlik va to‘lovga qobiliyatlilik korxonaning muhim iqtisodiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik balansdagi ma’lumotlar asosida o‘rganiladi. Undagi ko‘rsatkichlarni bir-biri bilan taqqoslab, mablag‘lar o‘rtasidagi nisbat va o‘zaro bog‘lanish aniqlanadi.

Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlash va uning ahvolini baholashga yordam beradi.

XULOSA

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy barqarorlik bilan bog‘liq myammolar qatoriga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- mahsulotlarni xarid qilish bilan shug‘ullanadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar xodimlapining mol yetkazib beruvchilar haqida yetarli ma’lumotga ega emasligi;
- barqarorlikni ta’minlashda mol yetkazib beruvchilarni tanlashning rasmiylashtirilgan tartibining mavjud emasligi;
- barqarorlikni ta’minlashda ishlab chiqarish jarayonida kutilmagan vaziyatlar (smenalar ishidagi farq, kutish, kechikish, texnologik turib qolishlar);
- yuqori barqarorlikka erishishda keng ko‘lamli mahsulot hajmini ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonlarini tezlashtirish va hakozo.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda xo‘jalik yurituvchi subyektlar, jumladan, tadqiqot obyekti mahsulotlar ishlab chiqarishida moliyaviy barqarorlikni yanada oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘Zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni.
2. Akromov E. “Korxonaning moliyaviy holati tahlili”. –T.: “Moliya”, –2003.
3. Pardayev M.Q., Isroilov B.I. “Iqtisodiy tahlil”. –T.: –O‘quv qo‘llanma. –2012.
4. Shog‘iyosov T.Sh. “Kompleks iqtisodiy tahlil”. Darslik, –T.: 2012.
5. B.Xasanov, N.Xadjimuratov, U.Nurmanov, A.Maxmudov “Moliyaviy tahlil”. –O‘quv qo‘llanma. –“Lesson press”, –2022.

ПРОБЛЕМЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ И ЗАЩИТЫ ИНВЕСТОРОВ В РАЗВИТИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ



Кенжебаева Гульфуза Рахматиллаевна
Ферганский политехнический институт, г. Фергана, Узбекистан

Аннотация: В статье говорится о проблемах современной цифровой экономики и возможностях электронной коммерции. Защита прав инвесторов в электронной коммерции имеет большое значение. Одной из главных задач является обеспечение безопасности онлайн-платежей и защита личной информации потребителей. Также указывается на усиление законодательства в сфере электронной коммерции для защиты интересов инвесторов. Среди актуальных проблем анализируются безопасность транзакций, защита от мошенничества и прозрачность деятельности компаний в электронной среде, влияние глобальных событий на инвестиционные риски в электронной коммерции.

Ключевые слова: электронная коммерция, инвестирование , риски, потпенциальная доходность, безопасность онлайн-платежей, недобросовестные схемы, прозрачность деятельности компаний.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta tashkilotlarining MHXSga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobot shakllarida ko‘rsatiladigan ayrim ma’lumotlar umumiy asoslarda aks ettirilgan holda yoritilib berilmoqda. Shu bois sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar asosida ularning moliyaviy holatiga kompleks baho berish va tahlil natijalari asosida oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot shaklida ma’lumotlarni quyidagi tartibda oshkor qilishni taklif qilamiz (3-jadval).

3-jadval: Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotga o‘zgartirish kiritilayotgan ko‘rsatkichlar to‘g‘risida ma’lumot[3]

Ko‘rsatkichlar	Satr	Amalda	Taklif
Uzoq muddatli aktivlar	010	Asosiy vositalar	Asosiy vositalar
	011	–	Biologik aktivlar
	012	–	Nomoddiy aktivlar
	013	–	Uzoq muddat foydalanish huquqlari
	014	–	Uzoq muddatli sug‘urta zaxiralaridagi qayta sug‘urtalovchi ulushi
	015	–	Uzoq muddatli soliq aktivlari
	020	Uzoq muddatli investitsiyalar	Uzoq muddatli investitsiyalar
	030	Kapital qo‘yilmalar	Kapital qo‘yilmalar
	035	–	Boshqa uzoq muddatli aktivlar
	040	Jami uzoq muddatli aktivlar jami satr.010+020+030)	Jami uzoq muddatli aktivlar jami satr.010+011+012+013+014+015+020+030+035)
Joriy aktivlar	115	–	Kelgusi davr va kechiktirilgan xarajatlar
	116	–	Sotilishi rejalashtirilgan uzoq muddatli aktivlar
Kapital	175	–	Nazorat qilinmaydigan ulushlar
Joriy majburiyatlar	225	–	Sug‘urta bo‘yicha zaxiralarning joriy qismi

Shu bilan birga, sug‘urta tashkilotlarining foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot shaklidan foydalanuvchi va hisobotlarni tuzuvchilar uchun tushunarli hamda aniq ma’lumotlarni ko‘rsatishlari uchun ayrim ko‘rsatkichlarni quyidagicha nomlash tavsiya etiladi (4-jadval). Shuningdek, (IAS) 1 “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish” nomli MHXS talablari bo‘yicha moliyaviy hisobotning to‘liq shakllari quyidagilardan iboratligi belgilangan:

- Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot;
- Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot;
- Xususiy kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobot;
- Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot;
- Hisob siyosati va tushunturishlardan iboratligi belgilangan.

4-jadval: Foyda va zarar to‘g‘risidagi hisobotga o‘zgartirish kiritilayotgan ko‘rsatkichlar to‘g‘risida ma’lumot[4]

Ko‘rsatkichlar	Satr	Amalda	Taklif
Ishlab topilgan mukofotlar sof summasi	60	Sug‘urta operatsiyalari bo‘yicha boshqa daromadlar	Sug‘urta operatsiyalari bo‘yicha boshqa daromadlar (Regress daromadlari)
Sug‘urta faoliyati natijalari	100	Akvizitsion xarajatlar	Ko‘rsatilgan sug‘urta xizmatlari tannarxi
Soliqlar va rezervlarni chegirishgacha bo‘lgan foyda	165	–	Aktivlarning qadrsizlanishi

Umuman olganda, sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy hisobotini elektron taqdim etish bo‘yicha soliq organlaridagi shaxsiy kabinetida moliyaviy hisobot xalqaro standartlari bo‘yicha hisobot shakllarini to‘liq kiritishni tavsiya etamiz. Shuningdek, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga o‘tgan sug‘urta tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobot shakllarini to‘ldirish bo‘yicha me’yoriy ko‘rsatma ishlab chiqilishi lozim deb hisoblaymiz.

3 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
4 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

XULOSA

Shunday qilib, moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga o‘tgan sug‘urta tashkilotlari tomonidan soliq organlaridagi shaxsiy kabineti orqali taqdim etiladigan hisobot shakllari to‘liq bo‘lishi lozim. Shu sababli, sug‘urta tashkilotlari tomonidan soliq organlaridagi shaxsiy kabinetiga moliyaviy hisobotlarning to‘liq shakllarini kiritish lozim; ikkichidan, moliyaviy hisobot ochiq hujjat bo‘lib, uning axborotidan keng doiradagi shaxslar foydalanishi mumkin. Bu bo‘yicha barcha sug‘urta tashkilotlari o‘zlarining moliyaviy hisobotlarini ochiq ma’lumotlar portali ya’ni open.uz da majburiy ravishda e’lon qilishadi. Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy hisobotlaridan foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini imkon qadar qondirishga erishiladi. “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi”ga ko‘ra, moliyaviy hisobotning asosiy foydalanuvchilari mavjud va potensial investorlar, qarz beruvchilar hamda boshqa kreditorlar hisoblanadi; uchinchidan, sug‘urta tashkilotlaridagi xarajatlar va daromadlarning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda moliyaviy hisobot xalqaro standartlari bo‘yicha tuziladigan hisobot shakllarini normativ hujjat bilan tasdiqlash va ushbu shakllarni to‘ldirish bo‘yicha tartib yoki ko‘rsatma shakllantirish lozim. Chunki sug‘urta tashkilotlarida daromadlar, xarajatlar va sug‘urta zaxiralarining o‘ziga xos jihatlari mavjud. Sug‘urta tashkilotlaridagi xo‘jalik muommolari deyarli barchasida bir xil bo‘lganligi sababli hisobotlarni to‘ldirish bo‘yicha normativdan foydalanganda sug‘urta tashkilotlarini moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlaridan taqqoslash imkoni yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi. https://lex.uz/docs/6312360
2. 1-son “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti. https://lex.uz/docs/6312360
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qarori. https://lex.uz/docs/4746047
4. Кондраков Н.П. Бухгалтерский учет (финансовый и управленческий): учебник. – 5-е изд., перераб. и. доп. – Москва: ИНФРА-М. 2023. –429 с.
5. Гетмана В.Г. Бухгалтерский учет. – Москва: ИНФРА-М. 2022. – 467 с.
6. Сигидов Ю.И., Ясменко Г.Н., Оксанич Е.А. [и др.] Бухгалтерская (финансовая) отчетност. –Москва: ИНФРА-М. 2022. –367 с.
7. Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T. TMI. 2019. –14 b.
8. Xajimuratov N.Sh. Moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta’minlash yo‘nalishlari. –T.: Ekonomika i finansi, 3(135). 2020. –76 b
9. Rizayev N.K. Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari. “Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o‘tish va xalqaro tajribani O‘zbekistonda qo‘llashning dolzarb masalalari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to‘plami. Toshkent, TDIU, 2022-yil 6-aprel. 285-297-betlar.
10. Mamajonov A.T. Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslarini nazariy jihatlari. “Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o‘tish va xalqaro tajribani O‘zbekistonda qo‘llashning dolzarb masalalari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to‘plami. –Toshkent, TDIU, –2022-yil 6-aprel. –204-209 betlar.



КЛАССИФИКАЦИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКУЮ АКТИВНОСТЬ В УЗБЕКИСТАНЕ

Курпаяниди Константин Иванович
Профессор, Ферганский политехнический институт

Аннотация: Путем проведения исследований были выявлены ключевые факторы, оказывающие существенное воздействие на предпринимательскую активность в стране. Анализ типичных проблем в классификации институциональных условий помог выделить основные тренды и аспекты, формирующие бизнес-среду в Узбекистане. Полученные результаты предоставляют ценные научные и практические выводы для дальнейших исследований в области экономики и предпринимательства в данном регионе. Настоящая статья призвана способствовать более глубокому пониманию влияния институциональных условий на структуру и развитие предпринимательской сферы в Узбекистане.

Ключевые слова: институциональные условия, предпринимательская активность классификация факторов, бизнес-среда в Узбекистане, экономическое развитие.

Annotatsiya: Tadqiqotlar natijasida mamlakatda tadbirkorlik faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillar aniqlandi. Institutsional sharoitlarni tasniflashdagi tipik muammolarni tahlil qilish O'zbekistonda ishbilarmonlik muhitini shakllantiruvchi asosiy tendensiyalar va jihatlarni aniqlashga yordam beradi. Olingan natijalar ushbu mintaqada iqtisodiyot va tadbirkorlik sohasidagi keyingi tadqiqotlar uchun qimmatli ilmiy va amaliy xulosalar beradi. Maqola institutsional sharoitlarning O'zbekistonda tadbirkorlik sohasi tuzilishi va rivojlanishiga ta'sirini chuqurroq tushunishga yordam berish uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: institutsional sharoitlar, tadbirkorlik faoliyati, omillar tasnifi, O'zbekistondagi ishbilarmonlik muhiti, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract: Through research, key factors that have a significant impact on entrepreneurial activity in country have been identified. The analysis of typical problems in the classification of institutional conditions helped to identify the main trends and aspects shaping the business environment in Uzbekistan. The results obtained provide valuable scientific and practical conclusions for further research in the field of economics and entrepreneurship in this region. This article aims to contribute to a better understanding of the impact of institutional conditions on the structure and development of the entrepreneurial sphere in Uzbekistan.

Key words: institutional conditions, entrepreneurial activity, classification of factors, business environment in Uzbekistan, economic development.

ВВЕДЕНИЕ

В современном экономическом контексте классификация институциональных факторов, влияющих на предпринимательскую активность, представляет собой важный аспект для понимания и оптимизации предпринимательского ландшафта в различных странах. Фокус данного исследования направлен на Узбекистан, где развитие предпринимательства становится приоритетной задачей для экономического роста. Институциональные условия играют ключевую роль в формировании предпринимательской среды, исключая или снижая барьеры, а также влияя на стратегии и мотивацию предпринимателей [1].

Сложность исследования заключается в неоднородности институциональной среды и разнообразии факторов, влияющих на предпринимательскую деятельность в Узбекистане. Анализ этих факторов и их классификация помогут выделить основные тренды и определить ключевые сферы воздействия для

более эффективного управления предпринимательским процессом в стране. Настоящее исследование призвано предоставить экспертный обзор институциональных особенностей узбекского предпринимательского сектора, что окажется полезным как для академического сообщества, так и для руководителей и практиков, стремящихся углубить свои знания о влиянии институциональных условий на предпринимательскую активность в Узбекистане.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

В работах выдающихся зарубежных экономистов, таких как Дж.Гэлбрейт [2], Д.Диксин [3], П.Друкер [4], А.Маршалл [5], А. Смит [6], А.С. Саая [7], К.Татеиси [8], А.Хоскинг [9], Й.Шумпетер [10] и других, подробно рассмотрены основные концепции теории предпринимательства и малого бизнеса, особенно в контексте институциональных преобразований. В СНГ значительный вклад в изучение аспектов развития малого бизнеса внесли Л.Абалкин [11], В.Автономов [12], А.Блинов [13], Т.Койчуев [14], О.Криворучко [15], М.Лапуста [16], А.Орлов [17], Э.Примов [18], В.Рубе [19], Ф.Шахмалов [20], А.Юданов [21] и другие.

Акцентирование внимания на формировании и развитии сектора малого бизнеса в Узбекистане выделено в исследованиях А.Хикматова [22], Б.Беркинова, М.Икрамова [23], Н.Махмудова, М.Турсунходжаева, З.Худайбердыева, В. Батуриной, Д. Тростянского и других. Диссертационные работы, такие как А.Ахмедиевой, У. Валиджановой, О. Исмаилова, Л. Ишмухамедовой, С.Салаева, И.Турсунова, Э.Эргашева, М.Эшова и др., фокусируются на вопросах развития малого бизнеса и частного предпринимательства в условиях новых институциональных реалий. Недавние исследования склонились к переосмыслению проблемы, сосредотачивая внимание на анализе причин, задерживающих рост сектора и исследовании условий, способствующих активизации предпринимательства. Несмотря на значительное число публикаций по различным аспектам малого бизнеса, детальное изучение этой проблемы требует дальнейших исследований. В частности, институциональные условия, определяющие структуру предпринимательства в Узбекистане, остаются практически неизученными.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В основе методологии исследования лежит применение обширного инструментария, внедренного в рамках системного подхода. Для достижения научной достоверности выводов, результатов и рекомендаций, были применены общенаучные методы, такие как логический и ситуационный анализ, экспертные оценки, анкетирование, наблюдение, интервьюирование, группировка и сравнительный анализ. Разнообразное сочетание данных инструментов было использовано на различных этапах исследования, что способствовало повышению научной достоверности полученных результатов и обоснованию выводов и рекомендаций.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Начиная с 2016 года были приняты системные меры, направленные на содействие бизнесу и привлечение иностранных инвестиций для поддержки субъектов малого и частного предпринимательства, являющихся ключевым фактором развития экономики Узбекистана. Октябрь того же года ознаменовался выходом Указа Президента Республики Узбекистан Ш. Мирзиеева под названием “О дополнительных мерах по обеспечению ускоренного развития предпринимательской деятельности, всемерной защиты частной собственности и качественному улучшению делового климата” [24]. Данный Указ нацелен на создание еще более благоприятной деловой среды путем отмены внеплановых проверок и устранения барьеров. Значительное внимание в данном документе уделяется внедрению действенных мер по модернизации малых и частных предприятий, стимулированию их экспортной деятельности, что должно стать основным направлением экономического роста, а также обеспечения занятости и развития отраслей и регионов. Также предусмотрены дополнительные меры по стимулированию участия субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства в экспортных операциях.

Согласно Указу Президента Республики Узбекистан “О мерах по коренному совершенствованию системы государственной защиты законных интересов бизнеса и дальнейшего развития предпринимательства” от 19 июня 2017 года [25], а также Постановлению “О совершенствовании организации деятельности Торгово-промышленной палаты Республики Узбекистан” [26], проводится глубокое реформирование деятельности Торгово-промышленной палаты, включая пересмотр ее задач, функций и полномочий.

Реализация мер по обеспечению надежной защиты интересов частной собственности и малого бизнеса способствовала в 2023 году динамичному развитию этого сектора.

По состоянию на 1 октября 2023 года число действующих малых предприятий и микрофирм составило 418,7 тыс. Количество субъектов малого предпринимательства на 1000 человек населения соста-

вило 14,1 ед. В январе-сентябре 2023 года доля субъектов малого предпринимательства в ВВП составила 51,2 % и, по сравнению с соответствующим периодом 2022 года, снизилась на 0,7 % п.п. Основной причиной такого снижения стало увеличение объема добавленной стоимости в крупных хозяйствующих субъектах. По состоянию на 1 октября 2023 года общее число действующих малых предприятий и микрофирм составило 418 711 ед., из них вновь созданные – 67 685 ед. В январе-сентябре 2023 г. по видам экономической деятельности наибольший показатель числа вновь созданных малых предприятий и микрофирм составил в торговле – 26 156 ед., промышленности – 11 311 ед., сельском, лесном и рыбном хозяйстве – 7 598 ед. По состоянию на 1 октября 2023 года число действующих субъектов малого предпринимательства на 1 000 человек населения составило 14,1 ед. и, по сравнению с соответствующим периодом прошлого года, этот показатель снизился до 3,6.

На основе проведенных исследований, можно определить характер изменения этих факторов и особенности их влияния на различные структурные характеристики бизнеса (таб.1).

Таблица 1: Факторы и структурные характеристики бизнеса

Тип фактора	Временной лаг воздействия на структурные показатели	Структурные характеристики, наиболее сильно зависящие от данного фактора	Тип изменения
Институциональные факторы	Значительный. Положительный	Вид владения активами, размер предприятия, объемы заемных средств и вложений, степень активности и различные методы взаимодействия как в малом, так и в крупном бизнесе.	Замедленный в отношении основных формальных норм и связанных с обществом неформальных институтов. Быстрый в случае дискретных изменений формальных правил.
Конъюнктурные факторы	Близок к нулю	Размер кредитов, объем инвестиций и количество работников в экономике.	Быстрый
Ресурсные факторы	Положительный, малый	Отраслевые	Медленный

Институциональные факторы занимают значительное место среди многочисленных воздействующих на результаты производственной и экономической деятельности. Актуальность этой темы подчеркнута трактовкой лауреата Нобелевской Премии по экономике 1993 года, Дугласа Норта, который подчеркнул важность институтов в историческом контексте и рассмотрел экономическое развитие стран в свете промышленной революции [28]. Он определяет институт как “правила игры в обществе, или, более формально, созданные людьми ограничения, формирующие взаимодействие людей.”

В постсоветском пространстве отсутствует четкое представление о том, какие институты необходимы для успешного формирования рыночной экономики, и как они взаимосвязаны. Важные аспекты, такие как правовые, экономические, морально-этические и психологические основы их формирования, часто остаются недостаточно учтенными [29]. Это привело к дискретному и частичному характеру институциональных преобразований, многие из которых не привели к ожидаемому экономическому росту.

В условиях трансформации социально-экономических систем проблема институциональных преобразований становится ключевой и сопоставимой с финансовой стабильностью. Государство может избирать две стратегии: способствовать формированию этих институтов или непосредственно учреждать их.

Институциональная среда малого предпринимательства формируется на основе разнообразных институциональных условий, которые можно классифицировать на публичные, квазипубличные и частные. Публичные институты, включая правовые, непосредственно связаны с государственной деятельностью, в то время как квазипубличные, представленные институтами финансовой сферы, в учете и страховании, могут быть переданы в частный сектор.

Совокупность институциональных условий определяет рамки нормального функционирования и поведения субъектов малого бизнеса. Для эффективной классификации их необходимо тщательно изучать, учитывая их сущность и структурную взаимосвязь. Институциональные условия могут быть разделены на те, которые оказывают прямое и косвенное воздействие.

Прямые институциональные условия включают в себя законы и фискальные инструменты, заставляющие субъектов малого бизнеса следовать государственным предписаниям, что, хотя и эффективно, может нарушить естественное развитие рыночных процессов. Противопоставляясь им, косвенные условия не вмешиваются в рыночные ситуации, а создают предпосылки для того, чтобы субъекты могли

самостоятельно выбирать оптимальные правила действий в соответствии с целями экономической политики.

Важно отметить, что принятые государством меры могут вызывать реакцию не только у прямых адресатов, но и у других участников рынка, что вносит временной интервал и изменения в равновесие рынка.

Изучение институтов важно для понимания институциональных условий. Они могут быть разделены на властные и политические, экономические и идеологические институты. Такая классификация обеспечивает основу для понимания административных, экономических и идеологических условий, влияющих на предпринимательскую среду.

Необходимо обратить внимание на широкий спектр проблем, решение которых обеспечивается благоприятными институциональными условиями [30, 31]. В процессе классификации этих условий выделяются следующие виды:

- Обеспечение конкурентоспособности предприятий и экономики;
- Повышение эффективности использования потенциала;
- Создание рабочих мест через открытие новых производств;
- Формирование стратегических зон развития, наподобие свободно-экономических зон в городах Навои, Коканда и др.;
- Выравнивание межрегиональных неравенств;
- Развитие взаимодействия на уровне стран и регионов.

Институциональные условия могут дифференцироваться в зависимости от уровня рассмотрения: локальные, муниципальные и региональные на низшем уровне, общегосударственные на высшем. По степени развития и функционирования они подразделяются на крупные, средние и малые.

Концепция формирования и трансформации институциональных систем, представленная Г.Б. Клейнером, рассматривает группы взаимосвязанных институтов, функционирующих на различных уровнях, от предприятий до страны в целом. Его теория системной экономики обобщает неоклассическую, институциональную и эволюционную экономическую теории.

Подчеркивая эволюцию системы экономических институтов, Г.Б. Клейнер предоставляет комплекс показателей для характеристики каждого института, включая критерий типа субъектов, которые охватываются данным условием – граждане, организации, юридические лица, работники предприятий, регионы республики и другие [32].

Обратим внимание на разнообразные факторы, в том числе неинституциональные, которые оказывают влияние на малый бизнес. Их можно выделить в следующем контексте:

1. Экономическое состояние и рыночная конъюнктура:

Развитие экономики подчинено цикличности, где периоды подъемов сменяются спадами, что оказывает воздействие на мелких предпринимателей. Вопрос о том, в какой момент цикла малый бизнес находит более благоприятные условия, остается дискуссионным. Некоторые считают, что наилучший всплеск активности малого бизнеса приходится на периоды оживления и подъема экономики, когда увеличивается спрос и создаются новые возможности. Другие экономисты утверждают, что в периоды спада и кризиса в малом бизнесе заложен потенциал для активизации, так как крупные предприятия сокращают свою деятельность, и люди вынуждены искать альтернативные источники дохода через создание своего бизнеса.

2. Инфраструктура:

Наличие соответствующей инфраструктуры оказывает существенное влияние на развитие малого бизнеса, предоставляя услуги и ресурсы, необходимые для успешного ведения деловой деятельности.

3. Государственная политика:

Политика государства в отношении малого бизнеса является ключевым фактором. Регулирование, налогообложение, поддержка и стимулирование со стороны государства могут значительно влиять на условия для предпринимательства.

4. Социальная среда:

Влияние социальной среды, включая культурные и социальные факторы, также играет важную роль в формировании условий для малого бизнеса.

Исследования позволяют утверждать, что ключевым аспектом является динамика развития малого бизнеса в целом, а не только количество новых субъектов в этом секторе.

Из этого можно заключить, что инфраструктура поддержки малого бизнеса должна включать три основных составляющих (Рис.1).

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС




Рис.1: Инфраструктура поддержки малого бизнеса

Все вместе это создает благоприятную инфраструктуру для развития малого бизнеса, ставящую данный сектор экономики на передовые позиции. Третья категория факторов напрямую связана с государственным регулированием этого сегмента. Роль государственной поддержки огромна и в сегодняшнем, и в перспективном плане, способная как способствовать, так и затруднять укрепление малого бизнеса. Государство активно участвует в жизни малого предпринимательства, предоставляя благоприятные условия для его развития. Среди таких условий могут быть упрощенные процедуры отчетности, льготы по налогам, возможность получения государственных заказов и регулирование рабочего времени. Однако, обратные условия возникают при неблагоприятном отношении государства, включая осложненные процедуры отчетности, налоговые бремена, отсутствие государственных заказов и ограничения по трудовым часам.

Подобные вопросы, рассмотренные в другом контексте, также привлекают внимание аналитиков Агентства США по международному развитию, занимающихся поддержкой малого предпринимательства в странах СНГ. Западные ученые выделяют внешнюю среду малого предприятия как совокупность элементов, таких как рынки ресурсов и сбыта (в первую группу), ключевые рыночные институты и агенты, в том числе крупный бизнес (во вторую группу), общественные организации (в третью группу), социально-экономические процессы и явления (в четвертую группу), и систему поддержки малого бизнеса (в пятую группу).

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Выведенные из вышесказанного наблюдения позволяют сделать вывод о схожести двух представленных подходов. Однако различия между ними представляют особый интерес для автора, который рассматривает сектор малого предпринимательства с точки зрения исследователя. Факторы внешней среды, отмеченные в первом подходе, оказывают влияние не только на малый, но и на крупный бизнес, а также на всю экономику страны в целом. Преимущество второго подхода заключается в конкретизации указанных факторов, что позволяет рассмотреть характеристики именно малого предпринимательства [30]. К ним относятся локальность ресурсных и сбытовых рынков, неформальные взаимоотношения с ограниченным кругом поставщиков, “ведомая” позиция в кооперационных связях с крупными предприятиями, чрезмерная чувствительность к экономическим колебаниям, политической обстановке и изменениям в законодательстве, ограниченность источников финансирования, а также хроническая нехватка капитала.

Таким образом, анализ современного предпринимательства с применением институционального подхода представляется перспективным направлением в экономической науке. Институциональная теория помогает выявить глубокие и существенные изменения, способствующие становлению предпринимательства в стране. Роль институтов заключается в обеспечении предпринимателям наилучших

возможностей для создания и развития нового предприятия. Институциональная среда устанавливает правила игры, ясные для всех субъектов хозяйствования, и создает условия и стимулы для предпринимательской деятельности. Она оказывает значительное воздействие на скорость, характер и стремление индивидов к предпринимательской деятельности, воздействуя как напрямую, так и косвенно на их поведение.

В настоящее время формирование институциональных условий для свободного предпринимательства рассматривается как процесс развития. Считаем целесообразным активизировать этот процесс путем:

- Оптимизации работы правовых институтов, включая устранение избыточных и неактуальных законов, а также упрощение процедур.
- Децентрализации, передачи административной и законодательной ответственности региональным представительствам для более непосредственного взаимодействия с реальными проблемами предпринимательского сектора.
- Расширения ответственности и возможностей частных лиц, путем дерегулирования.

Эти шаги могут способствовать формированию ясного представления о существующей системе институциональных условий, что, в свою очередь, определит вектор институциональных преобразований на ближайшие годы, особенно в контексте реализации Стратегии развития Республики Узбекистан в 2022–2026 годах.

Список использованной литературы:

1. Ханс, В. (2020). Системные преобразования для бизнеса в контексте перехода к экономике замкнутого цикла. Форсайт, 14(4), 47-60.
2. Гэлбрейт, Д. К. (2022). Ноономика, глобализация и пандемия. Ноономика и нооощество. Альманах трудов ИНИР им. СЮ Витте, 1(1), 115-128.
3. Deakins, D., & Kang, Y., Scott-Kennel, J., Battisti, M., (2021). Linking inward/outward FDI and exploitation/exploration strategies: Development of a framework for SMEs. International Business Review, 30(3), 101790.
4. Друкер, П. Ф. (2020). Виклики для менеджменту XXI століття. КМ-букс.
5. Ядгаров, Я. С. (2021). Особенности системного подхода в “Принципах экономики” А. Маршалла. In Системный анализ в экономике-2020 (pp. 96-99).
6. Смит, А. (2020). Исследование о природе и причинах богатства народов/Эксклюзивная классика. М. Издательство АСТ.
7. Саая, А. С. (2020). Современные аспекты развития предпринимательства: теория и практика. Академическая публицистика, 147.
8. Татеиси, К. (1990). Вечный дух предпринимательства. Практическая философия бизнесмена. М.: Московский бизнес, 222.
9. Курс предпринимательства: Практическое пособие / Пер с англ. – М.: Международные отношения, 2023.
10. Шумпетер Й., Теория экономического развития:(Исследование предпринимательской прибыли, капитала, кредита, процента и цикла конъюнктуры): Пер. с нем. – Прогресс, 2021.
11. Воейков, М. И. (2020). Ученые-экономисты, государственная власть и нравы общества: Я. Кронрод, Л. Абалкин (к 90-летию Института экономики РАН, часть 2). Вопросы политической экономии, (3), 67-81.
12. Автономов В.С. (2018). Экономическая теория до и после великой рецессии // ВТЭ №2, 2018, с. 58–64.
13. Блинов А. О. Государство и предпринимательство (теория среднего класса) //М.: Палеотип. – 2023.
14. Койчуев Т., Койчуева М. Теория и практика экономического развития в переходный период //Реформа, Бишкек. – 2001.
15. Криворучко, Д. А. & Храмченко, А. А., Соколова, С. Ю., Попова, В. С., (2022). Перспективы развития технологического предпринимательства. Естественно-гуманитарные исследования, (39 (1)), 328-335.
16. Лапуста, М. Г. (2011). Малое предпринимательство.
17. Орлов А. К. Особенности инвестиционной оценки девелоперских мегапроектов с участием государства // Экономика и предпринимательство. – 2015. – №. 5-1. – С. 892-895.
18. Примов Э. Формирование и развитие предпринимательской деятельности в Кыргызской Республике //Общество и экономика. – 2003. – №. 9. – С. 127-134.
19. Рубе В. Институциональные аспекты организации малого бизнеса в развитых странах и в России. Учебное пособие. – Litres, 2023.
20. Шамхалов Ф. Малое предпринимательство в системе рыночных реформ: проблемы роста или выживания // Вопросы экономики. – 2011. – Т. 10.
21. Юданов А. Ю. Носители предпринимательства: фирмы-газели в России //Журнал Новой экономической ассоциации. – 2010. – №. 5. – С. 91-108.
22. Хикматов А., Тростянский Д. Развитие малого предпринимательства как фактор экономического роста в Узбекистане //Общество и экономика. – 2002. – №. 2. – С. 142-148.

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

23. Икрамов, М. А., & Алимов, Г. А. (2019). Формирование спроса как фактор инновационного развития Узбекистана. In Экономический рост России: проблемы и стратегические перспективы (pp. 38-44).
24. Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2016 г., –№ 40. –ст. 467
25. О мерах по коренному совершенствованию системы государственной защиты законных интересов бизнеса и дальнейшего развития предпринимательской деятельности. Указ Президента Республики Узбекистан N УП-5087 от 19.06.2017 г.
26. О совершенствовании организации деятельности торгово-промышленной палаты Республики Узбекистан. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3068 от 19 июня 2017 г.
27. Экономика Узбекистана. Информационно-аналитический бюллетень за январь-сенятбрь 2023 года. Ташкент, СА, 2023.
28. North D.C. economic performance through time //Revista Universidade AFIT. – 2012. – Т. 30. – №. 93. – S. 9-18.
29. Юденко М. Н. и др. Проблемные вопросы развития институциональной теории предпринимательства //Вестник НГУ: серия социально-экономические науки. – 2008. – Т. 8. – №. 3. – С. 80-87.
30. Kalantaridis C., FletcherD. Entrepreneurship and institutional change: Are search agenda //Entrepreneurship&Regional Development. – 2012. – Т. 24. – №. 3-4. – S. 199-214.
31. McCarthy B. From fishing and factories to cultural tourism: The role of social entrepreneurs in the construction of a new institutional field //Entrepreneurship&Regional Development. – 2012. – Т. 24. – №. 3-4. – S. 259-282.
32. Клейнер, Г. Б. (2021). Перспективы системного расширения институциональной экономической теории. Экономическая наука современной России, (3 (94)), 7-17.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG‘LARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH



Mahmudova Go‘zal Samadjon qizi
Toshkent moliya instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kredit va qarz mablag‘laridan foydalanish samaradorligini aniqlash metodi va uning o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan. Kredit va qarz mablag‘laridan foydalanish samaradorligini aniqlash ikki bosqichda amalga oshirilib, 1-bosqichda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kredit va qarz mablag‘laridan foydalanish samaradorligi uning moliyaviy ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi. 2-bosqichda nomoliyaviy ko‘rsatkichlarni o‘rganish asosida korxonada kredit va qarz mablag‘laridan foydalanish samaradorligiga baho beriladi.

Kalit so‘zlar: Kredit, qarz, kreditga layoqatlilik, kredit va qarz miqdori, kreditdan foydalanish samaradorligi, moliyaviy ko‘rsatkichlar, nomoliyaviy ko‘rsatkichlar, kredit ta’minoti.

Abstract: The article describes the method of determining the effectiveness of the use of credit and loan funds by economic entities and its specific aspects. Determining the effectiveness of the use of credit and loan funds is carried out in two stages, and in the 1st stage, the effectiveness of the use of credit and loan funds of economic entities is determined by its financial indicators. In the 2nd stage, based on the study of non-financial indicators, the effectiveness of the use of credit and loan funds in the enterprise is evaluated.

Key words: Credit, credit, creditworthiness, credit and credit amount, efficiency of credit use, financial indicators, non-financial indicators, credit provision.

Аннотация: В статье описана методика определения эффективности использования кредитных и заемных средств хозяйствующими субъектами и ее особенности. Определение эффективности использования кредитно-заемных средств осуществляется в два этапа, причем на 1-м этапе эффективность использования кредитно-заемных средств хозяйствующего субъекта определяется по его финансовым показателям. На 2 этапе на основе изучения нефинансовых показателей оценивается эффективность использования кредитно-ссудных средств на предприятии.

Ключевые слова: Кредит, кредит, кредитоспособность, кредит и сумма кредита, эффективность использования кредита, финансовые показатели, нефинансовые показатели, кредитование.

KIRISH

Respublikamiz iqtisodiyotida xo‘jalik yurituvchi subyektlarni ko‘paytirish va yanada rivojlantirish maqsadida kredit munosabatlari bo‘yicha samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z faoliyatlarini bank kreditlari hisobiga moliyalashtirishlari va undan iqtisodiy samara olish hisobiga mulkiy qiymatliklarini yanada oshirishlariga bo‘lgan qiziqishlari tobora ortib bormoqda. Natijada, tijorat banklari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini bank kreditlari hisobiga qoplanishi yildan yilga o‘sib bormoqda.

Respublikamizda tijorat banklari tomonidan ajratilgan jami kredit qo‘yilmalari 2022-yilga kelib 2018-yilga nisbatan 2 barobarga, shundan yuridik shaxslar uchun ajratilgan kreditlar hajmi esa 1,6 martaga oshganini ko‘rishimiz mumkin. 2021-yilga nisbatan olib qaraganimizda esa 2022-yilda jami kredit qo‘yilmalar 22,19 % ga, yuridik shaxslar uchun ajratilgan kreditlar hajmi esa 9,6 % ga o‘sganini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zlashtirish, yuqori qo‘shimcha qiymatli raqobatdosh mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim manba bo‘lmoqda.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash” vazifasi yuklatilgan. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning barqaror yuqori o‘sish sur’atini ta’minlash moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojni o‘z vaqtida va to‘liq qoplanishiga bog‘liqdir. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyoj asosan bank kreditlari hisobiga qoplanib kelinmoqda. Bank kreditlari jalb qilishda xo‘jalik yurituvchi subyektlar oldida turgan muhim vazifalardan biri kreditdan foydalanish samaradorligini aniqlash hisoblanadi. Xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy imkoniyatidan yuqori miqdorda kredit jalb qilishi kreditni o‘z vaqtida va to‘liq qaytara olmaslikka hamda moliyaviy ahvoli nobarqarorlashishiga olib keladi. Bundan ko‘rinadiki, xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy imkoniyatidan kelib chiqib kredit jalb qilishidan iqtisodiy samara olish hisobiga moliyaviy barqarorligi yaxshilanishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kredit va qarz mablag‘laridan foydalanish samaradorligiga erishish uchun, avvalo, kreditga layoqatli bo‘lishi lozim. Korxonalarning kreditga layoqatliligi tahlilining nazariy metodologik jihatlari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tatbiq qilingan bo‘lib, quyida ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Iqtisodchi olimlar kreditga layoqatlilik tushunchasini turli xil ko‘rinishda talqin qilishgan. Jumladan, V.I.Kolesnikovaning [1] ta’rifi quyidagicha:

- qarz oluvchi nuqtayi nazaridan – kredit bitimi tuzish qobiliyati, olingan kreditni o‘z vaqtida qaytara olish imkoniyati;
- bank tomonidan – beriladigan kredit miqdorini to‘g‘ri aniqlash ko‘rinishida talqin etgan.

Professor O.I. Lavrushin bank nuqtayi nazaridan mijozning kreditga layoqatliligi – bu qarzdorni o‘z qarz majburiyatlarini to‘lash uchun to‘liq va o‘z vaqtida(asosiy qarz va foiz) to‘lay olish qobiliyatidir. Qarzdor nuqtayi nazaridan qarzdorning kreditga layoqatliligi – bu berilgan kredit summasini o‘z vaqtida va to‘liq qaytara olish qobiliyatidir [2] deya ta’kidlaydi.

Iqtisodchi olim M.Q.Pardaev tomonidan “Korxonaning kreditga layoqatliligi deganda - uning kredit olish va o‘z vaqtida olingan kreditni to‘liq qaytarish qobiliyati tushuniladi” [5] deb munosabat bildirilgan.

Kreditga layoqatlilik tushunchasiga N.N.Mavlonov “Kreditga layoqatlilik – bu xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlari asosida uning kelgusidagi imkoniyatlarini prognozlash orqali kredit (asosiy qarz va foizi)ni iqtisodiy samara olish hisobiga o‘z vaqtida va to‘liq qaytara olish qobiliyatidir”, [6] deb mualliflik ta’rifini shakllantirgan.

Kreditning samaradorligi masalasiga ham xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy asosda tadqiq qilingan va tegishli ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirilgan.

Prof. O.I. Lavrushinning fikriga ko‘ra, kreditning samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimi mavjud bo‘lib, ular orasida muammoli kreditlar va kreditlarning daromadliligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar muhim o‘rin egallaydi [3].

S.Vayn o‘z tadqiqotlari natijalariga asoslangan holda kreditlarning samaradorligini ta’minlashda kreditlar bo‘yicha tashkil etiladigan zaxiralarning darajasini muhim o‘rin tutishini e’tirof etgan [4].

Yuqoridagi darslik va ilmiy ishlarda kredit va qarz mablag‘laridan foydalanish samaradorligi tahlilida xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ko‘rsatkichlari(miqdor ko‘rsatkichlari) asosida kreditni o‘z vaqtida hamda to‘liq qaytarishni baholashga to‘xtalib o‘tilgan. Lekin kreditdan foydalanish samaradorligi tushunchasiga banklar nuqtayi nazaridan qaralgan va asosiy e’tibor bankning kredit zaxiralariga qaratilgan. Korxona nuqtayi nazaridan kredit va qarz mablag‘laridan foydalanish samaradorligini aniqlashda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz:

- xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida kredit miqdorini maksimal hajmini aniqlash va undan foydalanish samaradorligini baholash;
- nomoliyaviy ko‘rsatkichlar asosida kreditdan foydalanish samaradorligini tasdiqlash.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimiz xo‘jalik yurituvchi subyektlarda kreditdan foydalanish samaradorligini aniqlash metodikasini takomillashtirish maqsadida olib borilgan bo‘lib, aniq vazifalar belgilab olindi. Tadqiqot jarayonida amaliy materiallarni taqqoslash, statistika va jadvallar yordamida tahlil ishlari olib borilgan, undagi natijalar asosida aniq xulosa va takliflar bayon qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar kredit va qarz mablag‘lari jalb qilayotganda nafaqat kredit va foiz summasini bank yoki qarz beruvchiga qaytarib to‘lashni, bundan tashqari, shu kredit va qarz yordamida moliyalashtiriladigan faoliyati qancha iqtisodiy samaradorlikka erishishini oldindan ko‘ra bilishi lozim. Agar biz bozor iqtisodiyoti yuqori rivojlangan mamlakatlarda kreditlash va loyihalarni moliyalashtirish amaliyotiga e’tibor beradigan bo‘lsak, bu mamlakatlarda korxonalarga kredit berishdan oldin qo‘yiladigan mablag‘larning samaradorligi hisob-kitob qilib chiqiladi. Har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt uchun kredit va qarz mablag‘laridan foydalanishda uning samaradorligiga alohida e’tibor berish muhimdir, chunki kredit va qarz mablag‘larini jalb qilishning zaruriy shartlaridan biri samaradorlik hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan biri professor Mavlonov N.N tomonidan kredit miqdorini maksimal hajmini aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra kredit miqdorini maksimal hajmini aniqlash ikki bosqichda amalga oshiriladi. 1-bosqich “Kredit hajmini aniqlashning moliyaviy ko‘rsatkichlari” xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida kredit miqdorini maksimal hajmi aniqlanadi. Aniqlangan kredit hajmi bilan so‘ralayotgan kredit hajmi muvofiqligi o‘rganib chiqiladi. 2-bosqich “Kredit hajmini tasdiqlashda nomoliyaviy ko‘rsatkichlar” aniqlangan kredit hajmi nomoliyaviy ko‘rsatkichlarni o‘rganish asosida tasdiqlanadi [7]. Biroq ushbu metodikani kredit majburiyatining faqatgina asosiy qarz miqdoriga yoki foizsiz jalb qilingan qarz mablag‘lariga nisbatan qo‘llash mumkin, sababi unda kreditning asosiy qarz miqdoriga qo‘shib qaytariladigan foiz stavkasi inobatga olinmagan. Biz ushbu metodikadan foydalangan holda quyidagi metodikani tavsiya etmoqchimiz:

Kredit va qarz mablag‘laridan foydalanish samaradorligini aniqlash ikki bosqichda amalga oshirilib, 1-bosqichda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kredit va qarz mablag‘laridan foydalanish samaradorligi uning moliyaviy ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi. Bizning fikrimizcha, kredit va qarz mablag‘laridan foydalanish samaradorligi aniqlashdagi birinchi qadam korxona qancha jalb qilingan mablag‘ni iste’mol qila olishini to‘g‘ri baholay olishidir. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, kredit miqdorining maksimal hajmini aniqlashda moliyaviy ko‘rsatkichlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy ko‘rsatkichlar orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iste’mol qila oladigan kredit hajmini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$KMMH = ((O‘AMMS \times SFO‘) + QQ) \times (100 - d)\%$$

Bunda, KMMH – kredit miqdorining maksimal hajmi;

O‘AMMS=O‘MM(480-satr)+UMM(490-satr)-UMA(130-satr) – O‘z aylanma mablag‘larining mavjud summasi;

SFO‘ = SF^1/SF^0 – Sof foydaning o‘zgarishi;

QQ (040 satr) – Qimmatli qog‘ozlar;

d – kreditning foiz stavkasi.

Kredit miqdorining maksimal hajmini aniqlashda o‘z aylanma mablag‘larining mavjud summasi korxonaning o‘ziga tegishli tovar-moddiy zaxira, pul mablag‘lari bo‘lib, ishlab chiqarishda qo‘shimcha qiymat yaratishini hisobga olib sof foydaning o‘sish darajasiga ko‘paytirildi. Qimmatli qog‘ozlar(QQ) yuqori likvidli mablag‘lar hisoblanib, jalb qilingan kreditni qoplashda manba sifatida foydalanish mumkin. Kreditning foiz stavkasini hisobga olgan korxona haqiqatda qancha miqdorda asosiy kredit summasini iste’mol qila olishini hisoblab chiqishimiz mumkin bo‘ladi.

1-jadval: “FAZO-LUXE” MCHJni kredit miqdorini maksimal hajmini aniqlash[1]

№	Ko‘rsatkichlar	Aniqlash tartibi	Summasi
1.	O‘z aylanma mablag‘larining mavjud summasi (O‘AMMS)	O‘MM(480-satr)1-sh + UMM(490-satr)1-sh – UMA(130-satr)1-sh	19 833 173,11
2.	Qimmatli qog‘ozlar (QQ)	040 satr1-sh	–
3.	Sof foydaning o‘zgarishi (SFO‘)	SF1 / SF0(270-satr)2-sh	1,27
4.	Kreditning foiz stavkasi	Kredit shartnomasida keltirilgan	5%1
	Kredit miqdorini maksimal hajmi (KMMHAMK):		23 928 723,36

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “FAZO-LUXE” MCHJ 2023-yil ma’lumotlari asosida moliyaviy ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilganimizda kredit miqdorini maksimal hajmi 23 928 723,36 ming so‘mni tashkil etmoqda. Keyingi bosqichda mavjud kredit miqdorini nomoliyaviy ko‘rsatkichlar asosida tasdiqlaymiz.

1 “FAZO-LUXE” MCHJ 2023 yil moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2-bosqichda nomoliyaviy ko‘rsatkichlar o‘rganilib, korxonada aniqlangan kreditning maksimal hajmini tasdiqlash orqali kredit va qarz mablag‘laridan foydalanish samaradorligiga baho beriladi.

2-jadval: Kredit hajmini tasdiqlashda nomoliyaviy ko‘rsatkichlar[2]

№	Ko‘rsatkichlar	Ijobiy	O‘rta	Salbiy
1	Kredit tarixi	Kredit tarixida o‘z vaqtida va to‘liq to‘lagan	Muddatidan kechikib, lekin to‘liq to‘lagan	O‘z vaqtida va to‘liq to‘lay olmagan
2	Biznes obro‘si	Korxonaning soha va tarmoqdagi o‘rni yuqori, bozordagi obro‘si yuqori, brend taniqli	Korxonaning soha va tarmoqdagi o‘rni sezilarli ahamiyatga ega emas, brendi xaridorlarga tanish emas.	Korxonaning soha va tarmoqdagi o‘rni ahamiyatga ega emas, bozorda o‘z obro‘siga ega emas, brendi mavjud emas.
3	Kredit ta’minotining mavjudligi	Kredit ta’minoti sifatida qo‘yilgan aktivning yuqori likvidliligi	Kredit ta’minoti sifatida qo‘yilgan aktivning o‘rta likvidliligi	Kredit ta’minoti sifatida qo‘yilgan aktivning nolikvidliligi
4	Korxona faoliyat ko‘rsatayotgan sohaning umumiy holati	Sohada barqaror o‘sish tendensiyasi mavjud	O‘sish dinamikasi ijobiy, ammo tashqi omillarga bog‘liq	Soha rivojlanishining beqaror dinamikasi kuzatilmokda
5	Mahsulot raqobatbardoshlik darajasi	Tovarlarning xilma-xilligi, sifati yuqori, yuqori qo‘shimcha qiymat va optimal bahoga ega, optimal xarajat, sotish servisi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan, talab yuqori	Tovarlarning turi kamligi, sifati o‘rtacha, o‘rtacha baho, o‘rtacha xarajat, sotish servisi yo‘lga qo‘yilgan	Tovarlarning turi kamligi, sifati past, o‘rtacha baho, xarajat yuqori, sotish servisi mavjud emas, talab o‘ta kam

Nomoliyaviy ko‘rsatkichlar moliyaviy ko‘rsatkichlar orqali aniqlab bo‘lmaydigan, ammo korxona faoliyatini baholashda muhim bo‘lgan jihatlarni o‘rganish imkonini beradi.

Kredit miqdorini maksimal hajmini nomoliyaviy ko‘rsatkichlar orqali tasdiqlashda o‘rganish natijasida quyidagi guruhlarga ajratiladi [7]:

1. Ijobiy – moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida aniqlangan kredit hajmi 100% tasdiqlanadi;
2. O‘rta – aniqlangan kredit hajmi 50-100% gacha tasdiqlanadi;
3. Salbiy – aniqlangan kredit hajmi 50% gacha tasdiqlanadi.

“FAZO-LUXE” MCHJ 2023-yil ma’lumotlari asosida moliyaviy ko‘rsatkichlar orqali aniqlangan 23 928 723,36 ming so‘m kredit hajmini nomoliyaviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali tasdiqlaymiz.

3-jadval: “FAZO-LUXE” MCHJda aniqlangan kredit hajmini nomoliyaviy ko‘rsatkichlar orqali tasdiqlash[3]

№	Ko‘rsatkichlar	Korxonaning holati	Tasdiqlash holati
1	Kredit tarixi	Oxirgi uch yillik ma’lumotlar asosida o‘rganilganda olingan kreditlar o‘z vaqtida va to‘liq to‘lagan	Ijobiy
2	Biznes obro‘si	Korxona uzoq muddatdan beri faoliyat yuritayotganligi uchun soha va tarmoqdagi o‘rni yuqori, bozordagi obro‘si mavjud, xaridorlarga brendi taniqli	Ijobiy
3	Kredit ta’minotining mavjudligi	Korxona joylashgan manzildagi ko‘chmas mulk garov sifatida qo‘yilgan	O‘rta
4	Korxona faoliyat ko‘rsatayotgan sohaning umumiy holati	Korxona faoliyat yuritayotgan sohada barqaror o‘sish tendensiyasi mavjud	Ijobiy
5	Mahsulot raqobatbardoshlik darajasi	Korxona 50 dan ortiq turda mahsulot ishlab chiqaradi, sifati o‘rta va yuqori, yuqori qo‘shimcha qiymat va optimal bahoga ega, optimal xarajat, sotish servisi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan,talab mavjud.	Ijobiy

Jadval ma’lumotlari asosida tahlil qilganimizda, “FAZO-LUXE” MCHJ 2023-yil ma’lumotlari asosida nomoliyaviy ko‘rsatkichlar orqali o‘rganganimizda tasdiqlash holati ijobiy holatda ekanligi aniqlandi. Moliyaviy ko‘rsat-

2 Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
3 “FAZO-LUXE” MCHJ 2023-yil ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

kichlar orqali aniqlangan 23 928 723,36 ming so‘m kredit hajmi 1-jadval ma’lumotlari asosida 100% tasdiqlanadi. Bundan ko‘rinadiki, “FAZO-LUXE” MCHJ ning kredit miqdorining maksimal hajmi 23 928 723,36 ming so‘mni tashkil etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyoj asosan bank kreditlari hisobiga qondirilib kelinmoqda. Bunda bank kreditlaridan foydalanishda o‘z ehtiyojidan kelib chiqib kredit miqdorining maksimal hajmini aniqlash orqali kreditdan foydalanish samaradorligi baholashimiz mumkin, natijada esa olingan kreditni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarilishi ta’minlanadi. O‘z iste’molidan ko‘proq kredit jalb qilish korxonaning moliyaviy ahvoli nobarqarorlashishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda kredit jalb qilishdan oldin moliyaviy imkoniyatidan kelib chiqib kredit miqdorini maksimal hajmini aniqlash va shu asosida kredit jalb qilish olingan kreditni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarishga hamda natijada moliyaviy barqaror holatga erishishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Колесникова В.И. Банковское дело. – М.: Финансы и статистика, 2010. 428 с.
2. Лаврушин О.И. Банковское дело. – М.: Кнорус, 2012. 338 с.
3. Лаврушин О.И. Банковское дело: современная система кредитования: Финансовая академия при правительстве РФ. -4-е изд., стереотип. –М.: КНОРУС, 2008. – С. 36-37.
4. Вайн С. Оптимизация ресурсов современного банка. – М.: Альпина Паблишер, 2013. – С. 150-151.
5. Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil T.: Iqtisodiyot va huquq dunyoci. 1999. 219 bet.
6. Mavlonov N.N. “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligi tahlili metodologiyasini takomillashtirish” I.f.d (DSc) diss. Avtoref. – Toshkent. –2022. –12-bet.
1. Указ Президента Республики Узбекистан от 5 октября 2020 года УП-6079 “Об утверждении стратегии “Цифровой Узбекистан-2030” и мерах по ее эффективной реализации”.
2. Твердохлеб Ю. С. Предпосылки трансформации традиционных кредитно-финансовых учреждений в цифровые банки: прикладные зарубежные исследования / Ю. С. Твердохлеб, С. Г. Тер-Петросян // Банковские услуги. – 2021. – № 5. – С. 33-39.
3. Панова, Г. С. Эволюция традиционных банков в новых реалиях финансовых экосистем / Г. С. Панова // Банковские услуги. – 2021. – № 5. – С. 2-8.
4. Jumayev N.X. Raqamli iqtisodiyot nega kerak va u nima beradi? https://review.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir.
5. Azlarova, A. (2022). O‘zbekiston bank tizimini raqamlashtirish masalalari. Iqtisodiyot Va ta'lim, 23(2), 70–75.
6. Xodjimamedov A.A. Bank tizimini raqamlashtirish sharoitida bank innovatsiyalarini takomillashtirish. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 3/2022, may-iyun № 00059.
7. Xudoyorov O.O. (2023). Bank tizimini raqamlashtirish sharoitida raqamlamli bank texnologilarini joriy qilish. Obrazovaniye nauka i innovatsionnie idei v mire. 13(7), 99–107.

O‘ZBEKISTONDA AYOLLARNI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLARINING ROLI

Saidova Subhinigor Azizovna
TDIU “Bank ishi va investitsiyalar” kafedrasi 2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada respublikamizda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda bank kreditlarining ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga, bu jarayondagi mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari, ayollar tadbirkorligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaldagi mexanizmni takomillashtirish yo‘nalishlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ayollar tadbirkorligi, imtiyozli kreditlar, oilaviy tadbirkorlik, kreditlash, kredit riski, kafolat fondi, garov ta’minoti, kredit tarixi, foiz stavkasi.

Abstract: The state emphasizes the importance of bank loans in the development of women’s entrepreneurship in our republic. At the same time, existing problems in this process, ways to eliminate them, and directions for improving the operation of the international financial support for women’s entrepreneurship have been identified.

Key words: women’s entrepreneurship, easy credit, family business, credit, credit risk, guarantee fund, mortgage, credit history, interest rate.

Аннотация: В статье подчеркивается значение банковских кредитов в развитии женского предпринимательства в нашей республике. При этом выделены существующие проблемы в этом процессе, пути их устранения, направления совершенствования действующего механизма финансовой поддержки женского предпринимательства.

Ключевые слова: женское предпринимательство, льготное кредитование, семейный бизнес, кредитование, кредитный риск, гарантийный фонд, залог, кредитная история, процентная ставка.

KIRISH

Respublikamizda xotin-qizlarning bandligini ta’minlash, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va nufuzini oshirish, ularning o‘z salohiyatini namoyon etishlari uchun sharoitlar yaratish, gender tenglik, oila, onalik va bolalikni himoya qilish borasidagi izchil chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida [1] yaqin va o‘rta istiqbolda O‘zbekistonning taraqqiyot tendensiyalari, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini kompleks rivojlantirish yo‘nalishlari aniq belgilab berilgan.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Inson qadri uchun” tamoyilini barcha islohotlarimizning bosh mezoni sifatida belgiladik. “Davlat – inson uchun” degan ezgu g‘oyani hayotga tatbiq etish maqsadida 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini [1] bevosita xalqimiz bilan maslahatlashib, odamlarimizning fikr va takliflari asosida ishlab chiqdik”. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash”ga qaratilgan. Unda, jumladan:

2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur hamda uni 2022–2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash;

- xotin-qizlarning ta’lim olishiga qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, ilm-fan sohasida ayollarning o‘rnini yanada oshirish;
- xotin-qizlar o‘rtasida biznes ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha bepul o‘quv amaliy kurslarini tashkil etish, imtiyozli kreditlar va lizing ajratish, xotin-qizlarni ishga jalb qilgan holda kooperatsiya usulida tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- “Ayollar daftari”ga kiritilgan va jarrohlik amaliyotini o‘tkazish lozim bo‘lgan xotin-qizlarning tibbiy muolaja xarajatlarini qoplab berish;

- “Ayollar daftari” orqali xotin-qizlarning muammolarini hal etish amaliyotini o‘rganish va tahlil qilish hamda orttirilgan tajribadan kelib chiqib, “Ayollar daftari”ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tartibi hamda “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risidagi namunaviy nizom loyihalarini ishlab chiqish kabi vazifalar ko‘zda tutilgan.

Sir emaski, mamlakatimizda oxirgi besh yil mobaynida xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga doir o‘ndan ortiq me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi [2]. Buning natijasida 2023-yilning 1-yanvar holatiga tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar o‘ttiz to‘qqiz mingdan oshgan [4].

O‘zbekistonda bugungi kunda mamlakat aholisining 17 mlndan ziyod qismini xotin-qizlar tashkil etadi, tadbirkorlikda ayollarning ulushi esa kichik biznes vakillari umumiy sonining 25 foiziga teng. Ushbu yo‘nalish oldida turgan ustuvor vazifalardan biri tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida xotin-qizlar ulushini 40 foizga yetkazishdir. Buning uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda, bu borada ko‘plab ishlar amalga oshirildi [5].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijlik iqtisodchi olimlardan E.Giddens, G.Sillaste, T.Parsonning ilmiy ishlari ayollar tadbirkorligining rolini oshirish bo‘yicha ilmiy nazariy yondashuvlarni shakllantirishgan.

Rossiyalik olimlardan Kolobova A.Ye. [6], Pinkovetskaya Yu.S.[7], Utkina N.Yu. [8], kabilarning ilmiy ishlari ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalalariga qaratilgan.

O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalalari Annayeva N.R. [9] ning dissertatsiyasidagi ayollarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi, xususan, tadbirkorlikdagi faolligi masalalari ma’lum darajada nazariy ahamiyat kasb etgan, Aripov O.A. [10], X. Abduramanov, Sh. Zokirov [11] va boshqalarning ilmiy ishlarida ham atroflicha o‘rganilgan.

Biroq respublikamizda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda ba’z muammolarning mavjudligini mazkur ilmiy mavzuda tadqiqotlar olib borishning dolzarbligini asoslab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni takomillashtirishda olimlar va soha vakillarining iqtisodiy qarashlari, ularning fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o‘tkazish orqali tegishli yo‘nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o‘rganish jarayonida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda ma’lumotlarni tizimlash bo‘yicha maxsus yondoshuvlar, ya’ni taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil kabi usullar qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR


Xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-son qaroriga asosan tadbirkor ayollarga ajratiladigan subsidiyalar miqdorini 7 million so‘mdan 10 million so‘mgacha oshirish ko‘zda tutilgan [3]. Ushbu subsidiya biznesni boshlash va biznes yuritish uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalar va asboblarni sotib olish uchun beriladi [12].

Respublikamizda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda birinchi navbatda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, og‘ir sharoitda yashayotgan, vaqtincha ishsiz, ayol-qizlarni tadbirkorlikka jalb etish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda har yili “Tadbirkor ayol” xalqaro ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi tomonidan 19-noyabr – Xalqaro ayollar tadbirkorligi kuniga bag‘ishlab “Ayollar tadbirkorligi haftaligi” o‘tkazib kelinmoqda. Ushbu tashabbus 144 mamlakatda keng nishonlanadi.

Ma’lumot o‘rnida aytish joiz “Tadbirkor ayol” xalqaro ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi 1991-yilda tashkil topgan. Bugungi kunda 17 mingga yaqin a’zosi, 73 ta hududiy bo‘limi, 200 dan ortiq trenerlari mavjud. Assotsiatsiya tomonidan 9 oyda mamlakatimizning eng chekka hududlaridagi 10 ming nafardan ziyod ayollar tadbirkorlik asoslari bo‘yicha treninglarda ishtirok etgan, 9 mingdan ortiq ayol ish bilan ta’minlangan. Assotsiatsiya ko‘magida 1 ming 547 nafar ayol 22 milliard 700 million so‘m miqdorida kredit olgan. Loyihalar doirasida grant egalariga kreativ biznes-rejalarini amalga oshirish uchun 154 ming AQSH dollari ajratilgan. Bugungi kunga kelib assotsiatsiyaning hududiy bo‘linmalari soni 73 taga yetgan [13].

Lekin shu bilan birga ayollar tadbirkorligini moliyalashtirish masalalarida ba’zi muammolar mavjud. Jumladan, ayol-qizlarning moliyaviy savodxonligining pastligi, moliyalashtirishda ta’minotning yetishmasligi, biznes rejalarni puxta ishlab chiqishda tajribaning yetishmaslishi va h.k. (1-rasm).



1-rasm: Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bilan bog'liq muammolar[1]

Kutilayotgan ijtimoiy qarashlarga qarshi kurashish. Ba'zi toifadagi jamoatchilik vakillari ayol rahbarlarning samarali boshqaruvchi ekanligini tan olishni xoxlashmaydi. Shu bilan birga ayollar tadbirkorligi moliyalashtirishda ta'minotning yetishmasligi natijasida kerakli mablag'ni ola olmaslik holatlarining mavjudligi;

Jamoatchilik ma'qullashini kutish. Ayollar oilasi va jamoatchilik ularning biznes g'oyalarini ma'qullashini xohlashadi, ularning tashabbuslarini tanqid qilishsa, bo'lajak tadbirkor ayolning potensialiga ishonchsizlik bildirish oila va biznes o'rtasida katta to'siq bo'lib hisoblanadi.

Muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish, xavfsirash. Ayollarda tadbirkorlikni boshlashda o'ziga bo'lgan ishonchning yetishmasligi oqibatida biznes g'oyalarni amalga oshirishga katta g'ov bo'lib turadi. Ko'pincha biznesda ayollarning shaxsiy fazilatlariga kam e'tibor berishlari biznes darajasini pasaytiradi.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni va muammolarni ya'ni ayollar bandligini ta'minlash, ularning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bu borada duch kelayotgan muammolariga yechim topishda, tijorat banklarining roli ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Biroq, ayollar tadbirkorligini bank kreditlari hisobiga moliyalashtirishda ham ba'zi ichki va tashki muammolar mavjud.

Ayollar tadbirkorligiga bank tomonidan kredit ajratishdagi tashqi muammolarga:

- moliya institutlari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratiladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalari yuqoriligi;
- kreditni so'ndirish muddati qisqaligi.

Kredit olishni qiyinlashtiradigan ichki muammolarga:

- ayollar tadbirkorligi uchun taklif qilinayotgan kreditlarning cheklanganligi;
- ayollar tadbirkorligini kreditlashda raqobat bozori mavjud emasligi;
- ayollar tadbirkorligi faoliyatining miqyosi kichikligi, uning holatini baholash qiyinligi;
- kredit olish uchun biznes-reja tayyorlash sifati;
- kredit tarixi mavjud emasligi va boshqalar misol bo'ladi.

Bugungi kunda respublikamizda faoliyat yuritayotgan kredit tashkilotlari tomonidan "Xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va ularni qo'llab-quvvatlash" uchun ajratiladigan imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Imtiyozli kreditlar yillik 14 foiz stavkada 3 oydan 6 oygacha bo'lgan imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga:

Jismoniy shaxs sifatida tadbirkorlikni amalga oshiruvchi xotin-qizlarga 33 million so'mgacha bo'lgan miqdorda (garov ta'minotisiz);

Xotin-qizlar rahbarligidagi tadbirkorlik subyektlariga: 225 million so'mgacha bo'lgan miqdorda ajratiladi (Qonunchilikda belgilangan garov ta'minot turlarini taqdim etgan holda);

Kreditlar yagona elektron onlayn platforma (oilakredit.uz) orqali to'liq raqamlashgan holda ajratilishi yo'lga qo'yilgan.

1 Rasm muallif tomonidan ishlangan.

1-jadval: Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar turlari qoldig‘i to‘g‘risida ma’lumot, mlrd. so‘mda [14]

Ko‘rsatkich nomi	01.12.2022 -y.	01.12.2023-y.	O‘zgarishi (foizda)
Jami kredit qoldig‘i	382 078	465 493	22%
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit kredit qoldig‘i	97 698	146 709	50%
Ipoteka kreditlari	45 183	57 265	27%
Mikroqarzlar	14 382	23 660	65%
Iste’mol kreditlari	22 047	43 865	99%
Ta’lim kreditlari	1 830	4 701	157%
Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar	14 229	17 055	20%
Boshqa kreditlar	29	163	470%

Keltirilgan jadval ma’lumotlari tahlilidan jismoniy shaxs sifatida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar salmog‘i 01.12.2022-yilda 14 229 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan bo‘lsa, 01.12.2023-yilda 20 foizga ortib 17 055 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Bu ham respublikamizda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda bank kreditlarining ortib borayotganini izohlaydi.

2-jadval: Kichik tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar (asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha [15] mlrd. so‘m)

Asosiy yo‘nalishlar	2022-yil	2023-yil
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar, jami	69 770,3	68 961,6
Ajratilgan mikrokreditlar	15 404,7	15 722,1
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida shundan: Aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun	9 893,3 9 094,4	9 198,2 8 860,1
Xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishga	11 513,3	8 542,0
Tadbirkor ayollarni qo‘llab quvvatlashga	9 402,5	8 892,4
Xorijiy kredit liniyalari hisobidan (mln. AQSh dollari)	1 531,3	1 099,1

Keltirilgan ikkinchi jadval ma’lumotlaridan kichik tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar dinamikasi tahlili keltirilgan. Jadval ma’lumotlaridan ajratilgan mikrokreditlar salmog‘i 2022-yilga nisbatan 2023-yilda ortgan. Barcha boshqa sohalarda shu jihatdan, tadbirkor ayollarni qo‘llab quvvatlashga ajratilgan kreditlar ham pasayib borish tendensiyasi kuzatilgan. Buning asosiy sababi sifatida oilaviy tadbirkorlik, tadbirkor ayollarni qo‘llab quvvatlashga ajratilgan kreditlarning qaytishidagi muammolarni, garov ta’minotining yetishmasligi kabi muammolarni keltirishimiz mumkin.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollarning tadbirkor sifatida rivojlanishida kredit tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar va kredit mahsulotlari ko‘lamining kengligi, tadbirkor ayollarning biznes rejani ishlab chiqishdagi bilim va ko‘nikmalarini, shuningdek, ularning moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish muhim ahamiyatga ega. Aynan moliyalashtirish imkoniyatlarining kengligi ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun iqtisodiy imkoniyatlarni ochib beradi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi ayollarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlariga keng imkoniyatlar yaratgan bo‘lsada, ayollar asosan kichik va o‘rta biznes bilan ko‘proq shug‘ullanadilar. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, tadbirkor ayollar asosan, kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik, onlayn do‘kon, onlayn savdo, oziq-ovqat, qandolat va xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat olib borishmoqda.

Hozirgi kunda ayollar tadbirkorligi rivojlangan sohalar bu – ijtimoiy ahamiyatga molik biznes turi bo‘lib, mamlakatimizda iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy sohada barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Shuning uchun O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda bank kreditlarining rolini oshirish uchun yuqorida keltirilgan muammolarni ijobiy hal qilish bo‘yicha quyidagi takliflarni shakllantirdik.

O‘zbekistonda aholi umumiy sonining 48 foizini tashkil etayotgan mehnatga layoqatli ayollarga, birinchi navbatda, iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etish, yetakchi, ixtirochi, yangilikka intiluvchi va ishbilarmon ayollarga iqtisodiy o‘sish va yangi g‘oyalarni hayotga tatbiq qilish imkoniyatini berish chora-tadbirlarini amalga oshirish, ayollar tadbirkorligining qonunchilik asoslarini yanada takomillashtirish bo‘yicha asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga zamin yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-sonli Farmoni, 28.01.2022-yil.https://lex.uz/docs/5841063
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni. 07.03.2022 yil. https://lex.uz/docs/5899498
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori. 22.07.2022. https://uza.uz/uz/posts/2023-yilda-tadbirkor-ayollar-rahbarligidagi-kichik-korxona-va-mikrofirmalar-39-mingdan-oshdi_525954?q=%2Fposts%2F2023-yilda-tadbirkor-ayollar-rahbarligidagi-kichik-korxona-va-mikrofirmalar-39-mingdan-oshdi_525954 16.01.2024 |
5. https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-ayollar-tadbirkorligi
6. Колобова, А.Е. Женщины-предпринимательницы среднего и старшего возраста: штрихи к портрету / А. Е. Колобова // Женщина в российском обществе. –2016. –№ 1 (78).–С. 51-59.
7. Пиньковецкая, Ю.С. Женское предпринимательство в России и зарубежных странах: монография / Ю. С. Пиньковецкая; Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования "Ульяновский государственный университет", Институт экономики и бизнеса, Кафедра экономического анализа и государственного управления. - Ульяновск: Ул-ГУ, 2020.–169 с.
8. Уткина, Н.Ю. Объективные и субъективные факторы развития женского предпринимательства в России / Н. Ю. Уткина // Женщина в российском обществе. –2017. – № 1 (82). –С. –17-27.
9. Annayeva N.R. Ayollar tadbirkorligining genezisi, nazariyasi va amaliyoti (Uzbekiston misolida" Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samaqand, 2018.
10. Aripov Oybek Abdullayevich. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ayollarning o'rni. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. –№ 3, may-iyun, –2017-yil.
11. X. Abduramanov, Sh. Zokirov Xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo'llab-qo'vvatlash bo'yicha xorij tajribasi. https://cyberleninka.ru
13. https://uza.uz/uz/posts/tadbirkor-ayol-associaciyasi-9-oyda-9-mingdanortiq-ayol-ish-bilan-taminlandi_535603?q=%2Fposts%2Ftadbirkor-ayol-associaciyasi-9-oyda-9-mingdan-ortiq-ayol-ish-bilan-taminlandi_53560301.2024 |
14. https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/1542068/https://cbu.uz

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING INNOVATSION YO‘LLARI



Sultonov Shodiyor Abduhalilovich
I.f.n., SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti



Nazarov Asqar Anvar o‘g‘li
Ishtixon tumani Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari

Annotatsiya: Maqolada xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish asosida aholi kambag‘allikni qisqartirishning innovatsion yo‘llari ilmiy dalillar misolida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, aholi, innovatsiya, bandlik, ishsizlik, ijtimoiy innovatsiya, mehnat, muhojir, ta’lim, atrof-muhit.

Abstract: In the article, innovative ways of reducing poverty of the population based on the development of the service sector are shown on the example of scientific evidence.

Key words: poverty, population, innovation, employment, unemployment, social innovation, labor, immigrants, education, environment.

Аннотация: В статье на примере научных данных показаны инновационные пути снижения бедности населения на основе развития сферы услуг.

Ключевые слова: бедность, население, инновации, занятость, безработица, социальные инновации, рабочая сила, иммигранты, образование, окружающая среда.

KIRISH

Hozirgi vaqtda barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim tendensiyalari sifatida axborot texnologiyalari, intellektual resurslar, yuqori texnologiyalar, zamonaviy xizmat ko‘rsatish hamda milliy iqtisodiyotning transformatsiyalashishi natijasida yuqori sifat va raqobatbardoshlikka ega innovatsion xizmatlarga asoslangan yangi iqtisodiyot”ni barpo etish bo‘yicha keng ko‘lamli tadbirlar va dasturlar realizatsiya qilinmoqda. “Yangi iqtisodiyotning rivojlanishi yuqori, barqaror va sifatli iqtisodiy o‘sishning asosiy kafolatidir. Ko‘pgina G‘arb mamlakatlarida yangi iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotning 30 % gacha o‘sishini ta’minlaydi.

Bir necha o‘n yillar davomida mamlakatimizning iqtisodiy tang ahvolini o‘tish davri qiyinchiliklariga bog‘ladik. Baxt-saodatga moddiy farovonlik bilan emas, birinchi navbatda, ma’naviy yetuklik orqali erishiladi, degan aqidaga shunchalik mahkam yopishib oldikki, oxir-oqibat davlat ham, jamiyat ham muammolar girdobiga botib ketdi. Nihoyat vaqt o‘tib anglab yetganimiz shu haqiqat bo‘ldi: inson oddiy minimal yashash sharoitisiz baxt

tugul, xotirjamlikka ham erisha olmas ekan. Mamlakatimizda kambag‘allik ko‘p yillar davomida “yopiq mavzu” bo‘lib keldi. Bu kategoriyaning o‘rniga “kam ta’minlanganlik”, “ehtiyojmandlik”, degan tushunchalardan foydalandik. Lekin kambag‘allik darajasi kamayib qolmadi. Tan olaylik, keyingi to‘rt yildagi ochiqlik siyosati tufayli “qozonda bori cho‘michga chiqdi”. Xalq bilan muloqotning samarali mexanizmi yo‘lga qo‘yilgach, haqiqiy ahvol, ya’ni odamlarning aslida qanday hayot kechirayotgani, ularning eng og‘riqli nuqtalari oshkor bo‘la boshladi. Mamlakatimizdagi islohotlarning pirovard maqsadi kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdir. Shu bois Prezidentimiz tashabbusi bilan xalqimiz turmushini yaxshilash yo‘lida juda katta vazifalarni amalga oshirishga kirishildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” PF-29-son [1] va 2021-yil 11-avgustdagi “Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish hamda kambag‘allik bilan kurashish ko‘lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6277-son [2] Farmoni hamda 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-31-son qarori [3] bugungi kun talabidan kelib chiqib qabul qilingan yana bir muhim huquqiy asosdir. Keyingi yillarda bu borada davlat siyosatini markazdan mahalla darajasigacha yuritadigan vertikal tizim joriy qilingani quvonarli yangilik. Yoshlar masalalari bo‘yicha har bir tumanda alohida hokim o‘rinbosari, xotin-qizlar masalalariga har bir mahallada alohida rais o‘rinbosari mas’ul etib belgilanishi ham e’tirofga arziydigan voqelik. Bu esa, o‘z navbatida, mazkur yo‘nalish doirasida mahallalar va oilalarda muammolarni aniqlash, ularning yechimi bo‘yicha takliflar berish va kerakli chora-tadbirlarni amalga oishirlishini taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda iqtisodchi ilmiy izlanuvchilar, tegishli vazirlik mutaxassislari tomonidan davlatimizda kambag‘allikni qisqartirish masalasida keng ko‘lamli izlanishlar olib borishmoqda. Xususan, i.f.d. M.Kalonov o‘zining ilmiy tahliliy maqolasida “kambag‘allik” tushunchasini shu kungacha “yopiq mavzu” bo‘lib kelganligini va u “kam ta’minlanganlik”, “ehtiyojmandlik”, degan tushunchalardan farq qiladi, deya ta’kidlagan [4]. O‘zbekistonda aholi sonining yuqori sur’atlar bilan o‘sishi tufayli demografik siyosat oilani rejalashtirish va o‘lim darajasini kamaytirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shunga asoslanib aytish mumkinki, davlatning demografik siyosati – turmush darajasini oshirish va kambag‘allikni kamaytirish vositalaridan biri hisoblanadi. Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi hukumati endilikda oilani rejalashtirish siyosatiga mamlakatda kambag‘allik darajasini kamaytirish, aholi salomatligi va farovonligini oshirishning muhim omili sifatida qarashi maqsadga muvofiqligini ta’kidlagan [5]. N.Ernazarova esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, aholi bandligi va daromadini oshirishda eng asosiysi tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mamlakatda kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik sohalari, jumladan, oilaviy biznes sohasi faoliyati muhim ahamiyat kasb etib, iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda yetakchi o‘rinni egallashi haqidagi fikrni ilgari surgan [6]. Iqtisodchi olim R.Xasanov quyidagicha xulosalar bergan: O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurash haqida gapirganda turli mintaqalarda, shahar yoki qishloqlarda yashaydigan turli yoshdagi odamlar, erkaklar va ayollar uchun kambag‘allikning sabablari juda farq qilishini hisobga olishimiz kerak. Shu nuqtayi nazardan qashshoqlikka qarshi kurash juda murakkab va ko‘p qirrali vazifadir. Shu munosabat bilan muhtoj odamlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyaviy yoki tabiiy yordam ko‘rsatish orqali qashshoqlik muammosini hal qilishda jiddiy ijobiy natijaga erishish mumkin emasligi ayon bo‘ladi. Albatta, aholining kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash zarur, ammo kambag‘allikning turli xil sabablarini hisobga olgan holda, unga qarshi kurashda har qanday muhim yutuqlarga odamlar o‘zlarining moddiy muammolarini mustaqil hal eta oladigan va o‘zlarini zarur daromadlari bilan ta’minlaydigan sharoitlar yaratilgandagina erishish mumkin [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oilalarda kambag‘allikni qisqartirish omillarini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan izlanishlarimiz davomida tadqiqot metodologiyasining tizimli tahlil, statistik kuzatish, statistik jamlash va guruhlash kabi usullar qo‘llanilgan. Natijada, mamlakatimiz aholisining kambag‘allikdan qutqarishda avvalambor, xalqning turmush darajasini oshirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni yanada qo‘llab-quvvatlashga doir ishlar tahlili ilmiy xulosalar shakllantirishga asos bo‘ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kambag‘allik – bu hayot uchun muhim bo‘lgan, eng zarur minimal ehtiyojlarni qondira olmaydigan, ishga layoqatli bo‘lib, o‘zi xohlagan ishlarni davom ettirishi mumkin bo‘lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhni iqtisodiy holatining o‘ziga xos xususiyatidir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, hozirda jahon bo‘ylab kambag‘allik yoki qashshoqlik tushunchalarining umumqabul qilingan hamda yagona kelishilgan ta’rifi ishlab chiqilmagan. Har

bir mamlakat o‘zi uchun belgilangan kambag‘allik mezonidan kelib chiqib tavsiflaydi. O‘rganishlar natijasiga ko‘ra, hududlarda, ayniqsa, qishloq joylarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbayiga ega emas. Dunyoning boshqa mamlakatlaridagi singari bizda ham kambag‘al qatlam mavjud. Ular taxminan 12-15 foizni tashkil etishi ham rost. Bu 4-5 million nafarga teng odam degani. Qarang, ana shu yurtdoshlarimizning bir kunlik daromadi o‘tgan yil boshida Prezidentimiz qayd etganidek, 10-13 ming so‘mdan oshmas ekan [4].

Kambag‘allikdan faqat o‘sha qatlamga mansub odamlar jabr chekadi, deyish yanglish tushuncha. Bu nafaqat aholi, balki davlatning ham katta dardi, hatto, aytish mumkinki, fojiasidir. Bu holat xalqning sog‘lig‘i, mehnatga layoqati va ilmiy salohiyatiga putur yetkazadi. Shuningdek, uning oqibati Davlat budjetining pasayishi va siyosiy jarayonlarning keskinlashishiga sabab bo‘ladi. Chunki kambag‘al toifa jadal iqtisodiy o‘sishdan foyda ko‘ra olmaydi. Jamiyatning turli sohalarida ishtirok etish imkoniyati ham cheklangan. Davlat esa bepul o‘rta ta’limni ta’minlash, tibbiy xizmatlarni asosiy paketini kafolatlash, ijtimoiy zaif, deb tasniflangan guruhlarga ixtisoslashgan yordam va kam ta’minlangan oilalarga imtiyozlar berishga majbur. Eng yomoni, kambag‘allik holatiga tushib qolishdan ko‘ra, undan chiqib ketish ko‘p karra qiyinroq. Shu bois jamiyatimizda kambag‘allikni qisqartirish ayollar va yoshlar rolini oshirish, birinchi navbatda, ularga malaka berish hamda bandligini ta’minlash zarur. Bu vazifani samarali va sifatli bajarmasdan turib ayollar hamda yoshlar manfaatlari bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy masalalarni tizimli hal etish imkonsiz.

Kambag‘allikka qarshi kurash, uni qisqartirishga tizimli yondoshuv va aniq chora tadbirlar belgilash masalasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar Oliy Majlisga Murojaatida birinchi marta kun tartibiga olindi. Unda xalqaro tajribani inobatga olgan holda, kambag‘allikni aniqlash mezonlari va hisoblash uslublarini ishlab chiqish, kambag‘allikka qarshi kurash bo‘yicha samarali vositalarni qo‘llash amaliyotini jorish etish vazifasi belgilangan.

Davlatimiz rahbari tomonidan “Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmon qabul qilindi. Ushbu farmon xalqning turmush darajasini oshirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni yanada qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan muhim hujjat bo‘ldi. Kambag‘allikni qisqartirish borasida yagona davlat siyosatini yuritish maqsadida Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi. O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurashish 2017-yildan boshlab mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishi qilib belgilangan. Respublika va hududlar miqyosida ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 15 dan ortiq me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Muhtojlikni aniqlash, shaffoflikni ta’minlash va manzilli ijtimoiy himoyani amalga oshirish maqsadida “Yagona ijtimoiy himoya registri” tashkil etildi va ma’lumotlarni yagona tizimi tashkil etildi. Iqtisodiy tahlillarga ko‘ra kambag‘allikni oylik yoki nafaqa miqdorini ko‘paytirish, kredit berish bilan qisqartirib bo‘lmaydi. Ushbu strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o‘sish hisobiga erishiladi.

Yurtimizda aholining muayyan qatlami o‘rtasida kambag‘allik mavjudligi birinchi marta e’lon qilingan kundan boshlab uni qisqartirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Barcha tuman va shaharlarda ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi tizim – “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” joriy etildi. Buning natijasida ular bilan tizimli, manzilli ish yo‘lga qo‘yildi. Sektor rahbarlari va mutasaddi idoralar vakillari tomonidan har bir mahallada holat o‘rganildi, yoshlar va ayollar bilan birma-bir muloqot qilindi, ehtiyojlari, qiziqishlari aniqlandi hamda shu asosda manzilli choralar ko‘rildi. Ishsiz yoshlar va xotinqizlarda motivatsiya uyg‘otib, kasbiy ko‘nikmalar shakllantirish, psixologik, huquqiy, tibbiy va moliyaviy ko‘mak berildi. “Ijtimoiy shartnoma” tajribasi keng qo‘llanish uchun normativ bazasi ishlab chiqilib Buxoro viloyatida pilot tarzda qo‘llandi. Bu tizim orqali ko‘plab fuqarolarning bandligi ta’minlandi. O‘zini o‘zi band qilgan aholi uchun soliq imtiyozlari berilishi hamda ko‘pgina cheklovlarning bekor qilinishi tufayli ming-minglab fuqarolarimiz mehnat faoliyatini qonuniy tarzda yo‘lga qo‘ydi. Umuman, pandemiya sharoitida o‘z ishini yo‘qotgan aholini qo‘llab-quvvatlash uchun davlat va hukumat barcha chora-tadbirlarni ko‘rdi. Kambag‘allikni qisqartirish va aholining daromad manbalarini oshirish maqsadida “daftar”lar bilan ishlash (jazoni o‘tab qaytganlarning ijtimoiy moslashuvi, yoshlar va ayollarni psixologik qo‘llab-quvvatlash, ularni chet tillari va kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha) nodavlat notijorat tashkilotlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish va hamkorlikni kengaytirish lozimligi belgilab olindi.

Keyingi yillarda xizmat ko‘rsatish sohalari bilimlar iqtisodiyoti va innovatsiyalarga intensiv ravishda integratsiya qilinmoqda. Ilmiy faoliyat va tadqiqotlar natijalari ko‘proq joriy qilinayotgan kompaniyalarda biznes jarayonlarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib, uning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu esa, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ichida fan sig'imi yuqori bo‘lgan sanoat ishlab chiqarishi singari xizmat ko‘rsatish sohasi ham jadal sur’atlarda rivojlanib bormoqda.

Bizning fikrimizcha, xizmat ko‘rsatish sohasidagi innovatsion faoliyat – bu xizmatlar bozorida taqdim yetilishi rejalashtirilgan va realizatsiya qilinadigan yangi yoki takomillashtirilgan xizmatni yaratish jarayonida ilmiy-texnik va ijodiy faoliyat natijalaridan amalda foydalanishdir.

Dunyoning barcha davlatlarda ilmiy-tadqiqot natijalarini moliyalashtirishda sanoat kompaniyalari (Yaponiya va Janubiy Koreyada 72,4 %, Finlyandiyada 70,2 %, AQSHda 68,2 %)ning ulushi ancha yuqori, ular, asosan, tadqiqot va loyihalarni realizatsiya qiladilar (75,3 %) % – AQSHda, 75,1 % – Shvetsiyada, 74 % – Janubiy


Koreyada, 71 % – Yaponiyada). Rivojlanish darajasi nisbatan pastroq davlatlarda hukumat tadqiqot ishlarini yuqori hajmda moliyalashtirib, qo‘llab-quvvatlaydi (Meksikada – 65,3 %, Turkiyada – 47,7 %), asosiy tadqiqotlar esa universitetlarda amalga oshiriladi (38,6 % va 35 % mos ravishda 55,3 %).

Ma’lumki, Rossiya O‘zbekistonning asosiy iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonlik mehnat muhojirlarining asosiy qismi Rossiyada mehnat qiladi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligining ma’lumotiga ko‘ra, mart oyida Rossiyadan O‘zbekistonga 50 ming nafar mehnat muhojiri qaytib kelib, mamlakatdagi ishsizlar safiga qo‘shilgan edi. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish sur’atlarining sekinlashishi fonida kambag‘allik darajasi ortmasligini ta’minlash hukumat uchun muhim va dolzarb vazifaga aylanadi. Jamiyatda kambag‘allik ko‘rsatkichlari va ularni monitoring qilish parametrlarini aniqlash, kambag‘allikni qisqartirishning samarali vositalaridan foydalanish kabi chora-tadbirlar sohaga doir davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sirasiga kiradi.

Lekin O‘zbekiston sharoitini, oddiygina demografik holatni ham e’tiborga olish zarur. Mehnat bozoriga kirib kelayotgan mutaxassislar soni bilan mavjud ish o‘rinlarining soni bir-biriga nomutanosib. Yetarli miqdorda ish o‘rinlari yaratilmagani bois odamlar ishsiz qolmoqda. Shu tufayli tashqi mehnat migratsiyasiga ehtiyoj paydo bo‘lgan. O‘zbekistondagi “ortiqcha” ishchi kuchi shu yo‘sinda o‘z kunini ko‘rib kelmoqda. Aytmoqchi bo‘lganimiz, ish o‘rinlarini yaratish orqali kambag‘allikni qisqartirishda, avvalambor, mamlakatda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash kerak deb hisoblaymiz. Biz tom ma’noda erkin iqtisodiyotni qura olsak, shunda iqtisodiyot tarmoqlarining o‘zi kerakli miqdorda ish o‘rinlarini yaratib, aholini ish bilan ta’minlaydi va pirovard natijada O‘zbekistonda kambag‘allar soni kamaya boshlaydi.

Tadqiqotlarimizning natijalari kambag‘allikni qisqartirishning boshqa yo‘llari ham borligini ko‘rsatmoqda. Shulardan biri – aholiga tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga imkon berish. Aytaylik, bir kishi kichik biznesini yo‘lga qo‘yib, uchta odamni ish bilan ta’minlaydi. Bu yo‘ldan ham borsa bo‘ladi, lekin odatda xalq ichidan tadbirkorlar ko‘p chiqmaydi. Har qanday mamlakatda ular aholining 1-2 foizini tashkil qiladi, xolos. Risk darajasi yuqorilishi tufayli hamma ham tadbirkor bo‘lolmaydi. Mana shu 1-2 foiz qolgan yuzlab odamlarni ish bilan ta’minlaydi. Tajribadan ma’lumki, mehnat bilan band aholining 80-90 foizi tadbirkor emas, o‘sha tadbirkorga yoki davlat korxona va idoralariga yollanib ishlayotgan odamlar bo‘lib chiqadi.So‘zsiz, mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish kerak. Bu yerda biz ta’kid etmoqchi bo‘lgan xususiy mulk, tadbirkorning huquqiy himoyasi, qonun ustuvorligini ta’minlash, biznes muhitini yaxshilash masalalari juda muhim. Zotan, ular kambag‘allikni qisqartirishga doir siyosatning zaruriy komponentlari sirasiga kiradi.

Samarqand viloyatida, xizmat ko‘rsatish sohaini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish aholi farovonligi va ish bilan bandlik masalalarining hal bo‘lishini ta’minlovchi muhim omildir. Xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida sanoat rivojlanishidan keyingi bosqichining muhim sektori hisoblangan servis iqtisodiyoti ahamiyatini oshishi va mamlakatning yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqarishda bevosita rolining o‘sib borishi bilan izohlanadi.



1-rasm: Samarqand viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi asosiy ko‘rsatkichlari hajmi [7], (mlrd. so‘m).

Kambag‘allikni qisqartirishning yana bir samarali vositalaridan biri – ijtimoiy innovatsiyalar. Ijtimoiy innovatsiyalarni yaratish va joriy etish amaliyoti O‘zbekistonda 2012-yilda boshlangan. Bu bo‘yicha BMT Taraqqiyot dasturi yirik loyihani amalga oshirgandi. Ungacha davlat institutlari mazkur sohani qo‘llab-quvvatlash tugul, qiziqish ham bildirmagan. Donor tashkilotning yordami bilan O‘zbekistonda ijtimoiy innovatsiyalar joriy qilina

boshlandi. Ular ko‘proq samarali boshqaruv yo‘nalishida yoshlarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq tashabbuslar edi. Toshkent shahri va respublika hududlarida ijtimoiy muammolarga yechim topish maqsadida shunday dastur va loyihalar moliyaviy rag‘batlantirilgan.

O‘zbekistonda ijtimoiy innovatsiyalar rivojlangan, deb bo‘lmaydi. Biroq tan olish kerak, sohasiga e’tibor katta. Aslida innovatsiyalarni rivojlantirish xususiy sektorning ishi. Innovatsion bozorni rivojlantirish hamda intellektual mehnat mahsuliga asoslangan innovatsiyalarni joriy etish uchun kuchli ilmiy baza, albatta, bozor bo‘lishi kerak.

Hozircha O‘zbekistonda innovatsiyalar bozori shakllanmagan. Buning uchun sarmoya va sarmoyadorlar yo‘q. Innovatsion tadbirkorlik katta mablag‘ni talab qiladi. Shu bois 2016-yilda mahalliy innovatsiyalarni moliyalashtirish mexanizmi yo‘lga qo‘yila boshlandi. Dunyoda innovatsiyalarga sarmoya jalob qilish oson. Chunki bunga juda ko‘p pul ajratiladi. Ishni innovatsion ekotizimni yaratishdan boshlash kerak. U ko‘plab tarkibiy qismlardan iborat. Tadqiqotlarimiz mazkur tizim O‘zbekistonda endigina shakllanayotganligini ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy innovatsiyalar kelajagi porloq soha. Rivojlangan mamlakatlarda shunday konsept borki, davlat siyosati hamda siyosiy institutlarning kuchi yetmayotgan joyda ijtimoiy innovatsiyalar ishlaydi. Ya’ni fuqarolar mustaqil ravishda o‘zlari uchun ijtimoiy qulaylik yaratishga harakat qiladi.Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa buning teskarisi – ijtimoiy innovatsiyalardan odatda jamiyatning faqat asosiy ehtiyojlarini qondirishda foydalaniladi. Deylik, qaysidir qishloqda ichimlik suvi muammosi bo‘lsa, mahalliy aholi oddiy texnologiya o‘ylab topib, shu muammoni hal qilishi mumkin. Elektr energiya yetkazishda ham innovatsiyalar ishlatiladi. Masalan, Braziliyaning qashshoq hududlarida odamlar suvdan bo‘shagan plastmassa idishlarga muayyan material joylashtirib, uylarining tomiga o‘rnatib quyosh nuridan elektr energiyasini olmoqda. Bunday innovatsiyalar asosan lokal muammolar yechimiga xizmat qiladi. Makroinnovatsiyalar ham bor. Ularning amaliyotga tatbiq etilishi jamiyat hayotida tizimli o‘zgarishlarga olib keladi. Masalan, o‘z vaqtida AQSHda faqat puldor odamlar oliy ma’lumotli bo‘la olgan. Ma’lum vaqt o‘tib, jamiyatdagi yemirilishlar natijasida vaziyat o‘zgardi. Hozir Amerikada oliy ta’lim pulli bo‘lishiga qaramay, oddiy oilalarning bilimli farzandlari universitetga kira olyapti. Bu jamiyatda xalq ravnaqiga xizmat qiladigan ijtimoiy mexanizmlar yaratilgani va ular haqiqatdan ham ishlayotganidan, o‘z samarasini berayotganidan dalolatdir.

Ijtimoiy innovatsiyalarni turli sohalarda tatbiq etsa bo‘ladi. Atrof-muhit muhofazasi bo‘ladimi, kambag‘allik yoki samarali boshqaruv muammolari bo‘ladimi, ta’lim sohasida ham ijtimoiy innovatsiyalarni joriy etish mumkin. Tahlillarimiz nizolarni hal etishda ijtimoiy innovatsiyalardan foydalanish mumkinligidan dalolat beradi. Iqtisodiyotda ham ijtimoiy innovatsiyalar qo‘l keladi. Yuqorida kambag‘allik parametrlari haqida ta’kid etdik. Mana shu parametrlar negizidagi muammolar yechimi sifatida ijtimoiy innovatsion loyihalar qo‘llanilsa, albatta, ijobiy natijaga erishiladi. Chunki ijtimoiy innovatsiyalarning xususiyati shundaki, ular odamlarning ehtiyojidan kelib chiqib yaratiladi va pilot loyiha sifatida muayyan ijtimoiy doirada, masalan, qaysidir uy xo‘jaligida sinab ko‘riladi. Sinov jarayonida aholining o‘zi sizga qanday ijtimoiy muammosi borligi va uni qaysi yo‘llar bilan yechish mumkinligini aytadi. BMT Taraqqiyot dasturiga o‘xshash yirik rivojlanish tashkilotlari o‘zi konkret hududga kelib qayerda yo‘l, qayerda kutubxona, bog‘cha yoki maktab qurishni hal qiladi. Ijtimoiy innovatsiyalarda esa aksincha, qayerda nima qilish kerakligini davlat yoki xalqaro tashkilotlar emas, balki jamiyat vakillari aytadi. Ya’ni odamlar ekspert vazifasini bajaradi hamda ijtimoiy loyihada bevosita ishtirok etib, uning ijrosiga baravar bosh qo‘shadi. Aslida yuqoridan ko‘rsatma asosida boshlangan loyiha xalqqa keragi yoki qizig‘i bo‘lmasa, odamlar uni qabul qilmaydi. Masalan, biron qishloqqa kelib mana sizlarga quyosh batareyasi, endi undan bemalol foydalanib uylarni yoritish hamda isitishingiz mumkin, deb barcha sharoit yaratib beriladi. Ammo vaqt o‘tib qarabsizki bu uskuna yo buzilgan, yoki biron qismi o‘g‘irlangan bo‘ladi. Oddiy narsada, agar tashqaridan odam kelib muammoingiz bilan qiziqsa va uni siz istagandek emas, balki o‘zi bilgandek hal qilishga urinsa, albatta, unga yo ishonmaysiz, yoki qilingan ish samara bermaydi. Bil’aks muammo yechimi yuzasidan iste’molchi bilan maslahatlashilsa, jonli muloqot yuzaga keladi va bunday loyihadan natija chiqadi. Innovatsiyalar uchun kraudsorsing, ya’ni maqsadli guruhdan fikr olish juda muhim. To‘g‘ri, iste’molchilarda innovatsiyani yaratishda bilim yoki ko‘nikma bo‘lmasligi mumkin, lekin g‘oya va taklif ulardan chiqishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlatning inson kapitalini eng quyi bosqichlaridan puxta shakllantirishga, aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga, shahar va qishloq joylari orasidagi tafovutlarini kamaytirishga qaratilgan siyosati ushbu sohalardagi rivojlanish ko‘rsatkichlarida o‘z aksini topgan. Bu yo‘nalishlarda davom ettiriladigan ishlar bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar qabul qilingan konsepsiya, dasturlar doirasida tasdiqlangan hamda ularni amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritalari ishlab chiqilgan. Ushbu vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi aholi turmushining yanada farovonlashishiga hamda mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurash haqida gapirganda, turli mintaqalarda, shahar yoki qishloqlarda yashaydigan turli yoshdagi odamlar, erkaklar va ayollar uchun kambag‘allikning sabablari juda farq qilishini hisobga olishimiz kerak. Shu nuqtayi nazardan, qashshoqlikka qarshi kurash juda murakkab va ko‘p qirrali vazifadir. Shu munosabat bilan, muhtoj odamlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyaviy yoki tabiiy yordam ko‘rsatish orqali qashshoqlik muammosini hal qilishda jiddiy ijobiy natijaga erishish mumkin emasligi ayon bo‘ladi.

Albatta, aholining kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash zarur, ammo kambag‘allikning turli xil sabablarini hisobga olgan holda, unga qarshi kurashda har qanday muhim yutuqlarga odamlar o‘zlarining moddiy muammolarini mustaqil hal eta oladigan va o‘zlarini zarur daromadlari bilan ta’minlaydigan sharoitlar yaratilgandagina erishish mumkin.

Yuqori zamonaviy texnika va texnologiyalar, ilmiy tadqiqot ishlanmalari, innovatsion loyihalar va boshqaruv yangiligiga ega bo‘lgan innovatsiyalarni xizmat ko‘rsatish jarayonlariga joriy qilmasdan turib raqobatbardosh yangi xizmatlarni yaratish va realizatsiya qilishning imkoniyati mavjud emas. Bular tadqiqotimizning natijalariga tayangan holda quyidagi takliflarimizda namoyon bo‘ladi:

1. Innovatsiyalarni rivojlantirishda, xususan, xizmat ko‘rsatish sohasida bir qator tashkiliy muammolarga yechim topishni taqazo etadi. Buning uchun xorijiy mamlakatlarda mavjud innovatsiyalarning tajribalarini o‘rganish va uni natijaviy jihatlarini qo‘llash uchun zamonaviy ilmiy bazalarni yaratish kerak;
2. O‘zbekistonda endigina shakllanayotgan ijtimoiy innovatsiyalarga strategik nuqtayi-nazardan kelib chiqib yondoshilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi..Chunki jahon tajribasi davlat siyosati hamda siyosiy institutlarning kuchi yetmayotgan joyda ijtimoiy innovatsiyalar sinergetik samaradorlik natijalarini keltirib chiqaruvchi konsept sifatida foydalanish kerak;
3. Iqtisodiy tizimda ijtimoiy innovatsiyalar kambag‘allik parametrlarini qisqartirishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi, uning mehnat unumdorligini oshirish, aholi daromadlarni ko‘paytirish, bandlik, kambag‘allikni qisqartirish va boshqa makroiqtisodiy o‘lchamdagi muammolarni bartaraf etuvchi stimulyator sifatidagi xususiyatlaridan kelib chiqib qaror qabul qilish bugungi kunimizning buyuk zaruriyati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” PF-29-son Farmoni. 03.12.2021-yil. https://lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish hamda kambag‘allik bilan kurashish ko‘lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6277-son Farmoni. 11.08.2021. https://lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-31-son qarori. 03.12.2021-yil. https://lex.uz.
4. Kalonov M. “Kambag‘allikni qisqartirish: imkoniyat va harakatlar qanday natija beradi?”, “Xalq so‘zi” gazetasining 2021-yil 11-fevral 30-soni.
5. Abduramanov X.X. Demografiya sohasida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning strategik yo‘nalishlari // Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali. V son. Sentabr - oktyabr, 2020. – 144-153-betlar. https://journal.bfa.uz/maqola/BFA_maqola_5_son.pdf
6. Ernazarova N.N. Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021-yil. 253-258-betlar. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/27_Ernazarova.pdf
7. Manba: Samarqand viloyat Davlat statistika Bosh boshqarmasi ma’lumotlari.

YURIDIK SHAXSLAR MOL-MULKIGA SOLIQ SOLISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Umirov Xurshid Islomovich
Toshkent moliya instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish, xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, mol-mulk solig‘ini hisoblash va budjetga o‘tkazish bo‘yicha munosabatlar dolzarb masalalardan hisoblanadi. Maqola yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq solish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bugungi kunda mol-mulkni soliqqa tortishning ahamiyati va zarurligi, o‘ziga xos xususiyatlari, yuridik shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish bo‘yicha muammolar tahlili va hal etish yo‘llari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yuridik shaxs, mol-mulk, soliq, ko‘chmas mulk.

Abstract: Today, relations regarding the development of entrepreneurship, ownership of means of production, ensuring the integrity of private property, calculation of property tax and transfer to the budget are urgent issues. The article is devoted to the issues of taxation of property of legal entities, presents the importance and necessity of taxation of property today, its characteristics, analysis of the problems of taxation of property of legal entities and ways to solve them.

Key words: legal entity, property, tax, real estate.

Аннотация: Сегодня отношения имеют актуальные вопросы предпринимательства, владения инструментами производства, частной собственности, а также передачу налога на недвижимость и перевод в бюджет. Статья посвящена вопросам налогообложения имущества юридических лиц, представлены важность и необходимость налогообложения имущества сегодня, его характеристики, анализ проблем налогообложения имущества юридических лиц и пути их решения.

Ключевые слова: юридическое лицо, имущество, налог, недвижимость.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga ko‘ra yuridik va jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishning asosiy masalalari tubdan hal etilgan, biroq tadbirkorlar, tovar ishlab chiqaruvchilar va aholi manfaatlariga javob beradigan soliqqa tortishning kompleks tizimi haligacha shakllanmagan. Xususan, yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solishning amalda ko‘tarilmagan muammolari va imkoniyatlarini ko‘rib chiqish muhim ko‘rinadi.

Mol-mulk solig‘i mahalliy budjetga undiriladigan asosiy soliqlardan biridir. Mazkur soliq fiskal funksiyani bajarib, davlat budjeti daromadlarini to‘ldiradi. Bu nuqtai-nazardan ushbu soliqning ahamiyati mahalliy budjetning manfaatdorligidadir. Lekin mazkur soliq fiskal funksiyadan tashqari korxonalarda asosiy vositalardan oqilona foydalanishga ta’sir etuvchi tartibga soluvchi funksiyasi ham mavjudki, xo‘jalik subyektlari o‘z faoliyatlarini yurgizishda mehnat mahsuli bo‘lmish mol-mulklardan keng foydalanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Umuman iqtisodiy rivojlanish bosqichlaridan qat’iy nazar, jamiyat o‘ziga zarur bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun asosiy vositalardan foydalanadi. Avvalo, mehnat vositalari deb mahsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashadigan mehnat qurollari hamda shu ishlab chiqarishda bevosita qatnashmaydigan, lekin bu uning uchun ma’lum sharoitlar yaratib, uni tashkil qilishga uzoq muddat xizmat qiladigan mulklarga aytiladi. Korxonalar ushbu mol-mulklaridan foydalanish jaryonida ularni to‘g‘ri va unumli ishlatib, imkoni boricha ko‘p va sifatli mahsulot ishlab chiqarishni, har ishlab chiqarishga sarflangan har bir so‘mning rentabellik darajasini oshirilishini ta’minlashga harakat qilishadi. Shuning uchun qonunchilikka ko‘ra, barcha korxonalar mol-mulklari uchun budjetga soliq to‘lash majburiyatini oladilar [1].

R.M. Bird uzoq vaqtdan beri mol-mulk solig‘i mahalliy hokimiyat uchun yaxshi soliq ekanligini ta’kidlaydi, chunki u adolatli, undan qochish qiyin va u mahalliy avtonomiya va mas’uliyatni oshiradi [2].

M.Kiazolu ta’kidlashicha, iqtisodchilar va mutaxassislar mol-mulk solig‘ini barqaror daromad keltiruvchi va qochish qiyin bo‘lgan soliq turi sifatida e’tirof etishadi [3]. Har bir davlatda mol-mulk solig‘i ikki asosiy qismdan, ya’ni soliq bazasi va soliq stavkasidan iborat bo‘ladi.

Mahalliy iqtisodchi olim B.Umarov mol-mulk solig‘iga ta’rif bera turib “mol-mulklarni soliqqa tortish korxonani soliq bilan tartibga solish bo‘lib, maxsus huquqiy tartibga ega” deya e’tirof etib o‘tgan [4].

Iqtisodchi olimlardan A.X. Islamkulov mol-mulk solig‘i birinchi navbatda cheklangan resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlovchi, ikkinchi tomondan korxona faoliyatini tartibga solishga xizmat qiluvchi moliyaviy dastag hisoblanadi, deb e’tirof etgan [5].

Iqtisodchi olim Sh.Musalimov fikricha, korxonalar mol-mulkini soliqqa tortishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf qilish bilan bog‘liq [6]. Gap qo‘shilgan qiymat solig‘i va mol-mulk solig‘i ustida bormoqda. Asosiy fondlar dastlab sotib olingan vaqtda qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi bilan asosiy fondlarning qiymati buxgalteriya balansiga dastlabki qiymat sifatida kiritiladi. Biroq mol-mulk solig‘i bo‘yicha asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymati aniqlanayotgan vaqtda qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi mazkur qiymatning ichida qolmoqda. Mol-mulk solig‘i bo‘yicha asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymatini hisob-kitob qilishda uning tarkibidan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi chegirilishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda statistik jadval va analitik taqqoslash, mantiqiy va taqqoslama tahlil, guruhlash usullari hamda mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mol-mulk solig‘i barqaror bo‘lishi uchun quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

- **Qonuniylik.** Mol-mulk solig‘ini qabul qilish uning qonuniyligiga bog‘liq bo‘ladi, ya’ni soliq to‘lovchilar uchun soliq majburiyatlari qonun hujjatlarida belgilangan aniq standartlarga muvofiq. Soliq xodimlari o‘zlari ham boshqalar qatori mahalliy hokimiyatning umumiy faoliyatiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shayotganliklarini his qilishlari kerak. Shuning uchun soliq to‘lovchilar soliqni qonuniy yig‘im ekanligiga ishonishlari kerak, ya’ni uni qabul qilish kerak.
- **Ochiqlik.** Yuqorida tavsiflangan qonuniylikni amalga oshirish uchun baholash jarayoni va bu jarayonning natijalari shaffof bo‘lishi va barcha soliq to‘lovchilar tomonidan qabul qilinishi kerak. Agar soliq chalkash yoki tushunarsiz tarzda ishlasa, soliq to‘lovchilar u bo‘yicha o‘z majburiyatlarini osongina va shubhasiz qabul qilishlari dargumon. Shunday qilib, soliq solinadigan bazani ham, undan undiriladigan soliq stavkasini ham aniqlash barcha soliq to‘lovchilar tomonidan tushunilishi kerak. Soliq to‘lovchilar soliqning qanday ishlashini tushuna olishlari kerak, ya’ni u shaffof bo‘lishi kerak va u bo‘yicha o‘z shikoyatlarini oddiy, arzon usulda hal qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.
- **Texnik malaka.** Baholash jarayonining bu xususiyati baholash tizimini professionallashtirish bilan bog‘liq: tegishli ma’muriy tuzilmani ta’minlash, o‘qitilgan va texnik jihatdan malakali baholovchilarni ishga olish va ularni yaxshi ishlash uchun zarur vositalar va ma’lumotlar bilan ta’minlash. Muxtasar qilib aytganda, soliq siyosiy ta’sirlardan himoyalangan holda professional tarzda amalga oshirilishi kerak.
- **Adolat.** Soliq soliq to‘lovchilarga bir xilda va adolatli munosabatda bo‘ladigan tarzda boshqarilishi kerak. Shu bilan birga, joriy daromad kabi kengroq to‘lov qobiliyati tushunchasi nuqtayi nazaridan haddan tashqari og‘ir hisoblangan yuklardan xalos bo‘lish uchun ham ta’minlanishi kerak.

Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan yana biri bu soliqdan beriladigan imtiyozlar tizimi va ularni takomillashtirishdir.

Ta’kidlash joizki, “Izlanish va rivojlanish” markazlari 2024-yil 1-yanvardan 2027-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda mazkur markazlarning obyektlari va ular egallagan yer uchastkalari bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini ushbu soliqlar bo‘yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida, shuningdek ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi [8].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qarori 7-bandida “Izlanish va rivojlanish” (R&D) markazlari uchun ular tashkil etilgan kundan boshlab 3 yil muddatga mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha hisoblangan summa miqdorining 1 foizini to‘lash, ularning xodimlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz miqdorida hisoblash tartibi joriy etish vazifasi topshirilgan.

Mavjud qonunchilikka ko‘ra barcha korxonalar mol-mulklari uchun budjetga soliq to‘lash majburiyatiga ham egadir. Bu soliqlar summasi mol-mulklarning miqdoriga qarab mutanosib ravishda o‘zgarishi mumkin, ya’ni mol-mulklarning qiymati oshgan sari soliqlar summasi ham oshib boradi. Bunday soliq siyosati korxonalar diqqatini ortiqcha asosiy va aylanma mablag‘lardan voz kechishiga va eng zarur bo‘lgan mol-mulklarnigina olib qolib, ulardan unumli foydalanishga qaratadi.

Jahon amaliyotida birgalikda ilmiy-tadqiqot faoliyatni amalga oshirish uchun oliy ta’lim va ishlab chiqarish kompaniyalari bilan o‘zaro innovatsion hamkorlikni rivojlantirish maqsadida alohida soliq imtiyozlari mavjud. AQSHda kompaniyalar tomonidan universitet yoki notijorat ilmiy-tadqiqot tashkilotlariga tadqiqot ishlanmalarini yaratish uchun foydalanishga berilgan asbob-uskunalarga mol-mulk solig‘i solinmaydi. AQSHda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarida qo‘llaniladigan (xizmat muddati 5 yildan 10 yilgacha bo‘lgan) uskuna va qurilmalar uchun amortizatsiya normasi besh yil qilib belgilangan. Bundan tashqari, amortizatsiya muddati besh yil bo‘lgan asosiy vositalar qiymatini dastlabki ikki yilda 64%gacha amortizatsiya qilishga ruxsat beriladi [9].

Tadqiqotchi J.Gadayev fikricha, respublikamizda ham asosiy vositalarni mol-mulk solig‘iga tortishda bevosita ishlab chiqarishda band, ijtimoiy va ma’muriy asosiy vositalarga guruhlagan holda soliqqa tortish tartibini joriy etish maqsadga muvofiq [10]. Bunda bevosita ishlab chiqarishda band bo‘lgan asosiy vositalarni ma’muriy asosiy vositalarga nisbatan pastroq stavkada soliqqa tortilishi hamda ijtimoiy ahamiyatga ega asosiy vositalarga mol-mulk solig‘idan imtiyozlar berish amaliyotini joriy etilishi ishlab chiqarishni va unda band bo‘lib turgan asosiy vositalarni kengayishini rag‘batlantirish bilan birga, investitsiyalarni bevosita ishlab chiqarishda band bo‘ladigan asosiy vositalarga yo‘naltirishga xizmat qiladi hamda korxonalar tomonidan haddan tashkari dabdabali ma’muriy binolar qurilishini birmuncha cheklaydi.

Mulk solig‘i obyekti ikki turdagi mulk bo‘lishi mumkin: daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan. Birinchisiga asosiy fondlar va aylanma mablag‘lar, ishlab chiqarish, ikkinchisiga ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan mulk, ishchilar, ijtimoiy obyektlar va infratuzilma kiradi. Bunda yuridik shaxslar (korxona va tashkilotlar) soliqqa tortish subyekti hisoblanadi.

Amaldagi soliq qonunchiligi bo‘yicha, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining bazasi bo‘lib, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlar, qurilishi tugallanmagan obyektlar, shuningdek, yuridik shaxsning balansida bo‘lgan temir yo‘llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari hamda mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo‘lgan inshootlarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati hisoblanadi.

Ko‘chmas mulkning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang‘ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to‘lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya miqdori o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Bunda to‘liq amortizatsiya qilingan bino bo‘yicha uning uch yilda kamida bir marta aniqlanadigan qayta baholangan (bozor) qiymati soliq bazasi hisoblanadi. Soliq bazasi soliq solish obyektlarining o‘rtacha yillik qoldiq qiymati soliq davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko‘ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini qo‘shishdan olingan summaning o‘n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan har bir soliq solish obyekti bo‘yicha alohida aniqlanadi.

Mol-mulk solig‘i to‘lovchilari bo‘lib xo‘jalik yuritishda, mulkchilikda yoki operativ tarzdagi boshqaruvda mol-mulkka ega bo‘lgan va o‘z majburiyatlariga ana shu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balansga va hisob-kitob raqamiga ega bo‘lgan hamma turdagi korxonalar hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solishning taqdim etilgan tizimi faqat foyda (daromad) miqdorini hisobga olgan holda, ularning jihozlarini hisobga olmaganda, innovatsion ishlab chiqarish kapitaliga egalik qilish maksimal daromad olish imkonini beradigan afzallik hisoblanadi. Shu bilan birga, ko‘pchilik yuridik shaxslar davlat organlari orqali asosiy va aylanma mablag‘lar bilan ta’minlanadi, bu esa ishlab chiqarish kapitali bozori mavjud bo‘lganda mutlaqo tabiiydir. Chunki anchadan beri ishlab chiqarish vositalarini auksionlar orqali erkin sotish muammosi hal qilingan.

Mamlakatimizda mol-mulkni soliqqa tortish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishda ko‘p yillardan buyon faoliyat yuritib kelayotgan mablag‘larni to‘lash mexanizmi tajribasini hisobga olmaslik mumkin emas. Ma’lum darajada, uni, albatta, kapitalga soliq deb hisoblash mumkin. O‘zining iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, mablag‘lar uchun to‘lov XX asrning 80-yillari o‘rtalarigacha sof daromadni qayta taqsimlash usuli edi.

O‘zbekistonda korxonalar faoliyatini soliqqa tortish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri korxonalarning mol-mulkiga solinadigan soliqning joriy qilinishi bo‘ldi. Mol-mulk solig‘i dastlab, O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan “Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan joriy etildi va shu bilan birga korxonalarning ishlab chiqarish fondlariga to‘lov hamda transport vositalariga solinadigan soliq bekor qilindi.

Hozirgi vaqtda ushbu soliqning huquqiy asosi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida” gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari hamda boshqa soliq qonunchiligi bilan bog‘liq bo‘lgan me’yoriy hujjatlar hisoblanadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari va aylanma mablag‘lardan samarali foydalanishni rag‘batlantirish mexanizmlari yo‘lga qo‘yildi. Ushbu to‘lovning ma’nosi shundaki, korxonalar pul mablag‘larini tekin emas, balki ma’lum bir haq evaziga ekvivalent mablag‘lardan foydalanadilar. Korxona va budjet o‘rtasida sof daromad taqsimotini tartibga soluvchi standartga muvofiq to‘lov undirildi.

Taklif etilayotgan soliqning kamchiliklari uning qonuniy to‘lovchilar tomonidan boshqa shaxslarga oson o‘tkazilishini o‘z ichiga oladi:

- iste’molchilar - narxlarning oshishi tufayli;
- ishchilar - ish haqining pasayishi, ishlab chiqarish hajmining pasayishi;
- qarzdorlar - sud foizlarini oshirish.

Bu, ayniqsa, narxlarni belgilash va raqobat qilish erkinligi mavjud bo‘lganda xavflidir. Shu bilan birga, mahalliy budjetning daromadlar bazasini to‘ldirish va turli darajadagi jihozlarga ega bo‘lgan korxonalarning ishlab chiqarish sharoitlarini innovatsion uskunalar bilan tenglashtirish imkoniyatini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga binoan[1], soliq qarzini qarzdorning mol-mulki hisobidan undirish, moliyaviy sanksiya qo‘llash, soliq to‘lovchining o‘n kundan ortiq bo‘lmagan muddatga bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib qo‘yish vakolatlarining bevosita soliq organlariga o‘tkazilishi tabiiyki soliqqa doir nizolarning oshishiga va soliq organlarining qarorlari, mansabdor shaxslarining xatti-harakatlariga nisbatan shikoyat arizalarining ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

Ushbu nizolarning tezkorlik bilan hal etilishini ta’minlash dolzarb muammolardan biri sanalib, bu esa soliqqa doir nizolarni hal etishning samarali va muqobil mexanizmlarni xorijiy davlatlar tajribasi asosida ishlab chiqish, nizolarni sudgacha ko‘rib chiqishning yagona tizimini yaratish zaruratini, qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini, bu borada soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirishni taqozo etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganimizda asosiy fondlar bo‘yicha qayta baholashlarni amalga oshirish bizga korxona mol-mulkini hozirgi bozor narxlariga tenglashtirishga va natijada korxona mol-mulki balansda haqiqiy joriy bozor baholarida e’tirof etilishiga erishishimizda katta ahamiyatga ega. Qayta baholash indekslarini qo‘llash esa korxonaga o‘z mol-mulkini aniq bir mezonga asoslanishning garovi bo‘la oladi. Shuningdek, qayta baholangan obyekt boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati aniqlangach qayta baholash indeksidan qayta baholangan obyektning eskirishini aniqlashda mazkur indeksni ilgarigi eskirish summasiga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanishida katta ahamiyatga egadir.

Bundan tashqari, respublikada mavjud mol-mulklarning turlari va ularning bozor qiymati to‘g‘risida yagona axbrorotlar bazasini (reyestrini) shakllantirish va mol-mulkni soliqqa tortishda mazkur reyestr ma’lumotlaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yahyoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma. –T.: Fan va texnologiyalar, 2003, –120 b.
2. Bird R.M. Subnational revenues: realities and prospects. //Proceedings of Decentralization and Accountability of the Public Sector, Annual World Bank Conference on Development in Latin America and the Caribbean. Washington, DC World Bank, 2000. pp. 319-36.
3. Kiazolu, M. O. (2022). An Assessment of Liberia's Real Property Tax Regime: Implications for Local Government Financing. – p. 6.
4. Umarov B. Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortish mexanizmidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari (O‘zbekiston Respublikasi materiallari asosida): Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2002. 14 b.
6. Islamkulov A. Budjet daromadlarida bevosita soliqlar tushumi barqarorligini ta’minlash yo‘llari: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2012. 15 b.
7. Musalimov Sh. Mol-mulkni soliqqa tortishni takomillashtirish yo‘nalishlari. //Iqtisodiyot va ta’lim. 2022. 23 (5)-soni. – 207-213 b.
8. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2020.–640 b.
9. Chorshanbayev U.Q. Soliqlar vositasida innovatsion iqtisodiyotni rag‘batlantirishning xorij tajribasi. // Iqtisodiyotni jadal rivojlantirishda soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T.: O‘zR DSQ, 2020. – 90 b.
10. Gadayev J. Yuridik shaxslar mol-mulkini soliqqa tortishni rivojlantirish yo‘llari. //“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot. 2023-yil, –11-12-soni. – 872-b.

1 O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2023-y. https://lex.uz/acts/4674902.

KORXONALAR VA TASHKILOTLARNI MODERNIZATSIYA QILISH JARAYONLARI



Fayziyeva Dilafruz Shuxratovna
TDIU Korporativ boshqaruv kafedrasi vb. dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy omillarning ish bilan bandlikka ta'siri, ishchi xodimning yuqori daromadga ega bo'lishi va daromad miqdorining ortib borishi xodimga harakatchanlik, motivatsiya, novatorlik xususiyatlari, kasbga yaroqlilik kabi shaxsiy xususiyatlarning rivojlanishiga imkon berishi ko'rsatilgan. Mehnat unumdorligi asosiy zaxira bo'lib, inson, oila, korxona va jamiyat uchun daromad manbayi hisoblanishi aytilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy omil, mehnat bilan bandligi, texnologik omil, iqtisodiy o'sish, investitsion faoliyat, demografik jarayonlar, hududiy daraja.

Abstract: This article shows the influence of social factors on employment, the fact that a working employee has a high income and the increase in the amount of income allows the employee to develop personal characteristics such as mobility, motivation, innovative features, suitability for the profession. It was said that labor productivity is the main reserve and the source of income for a person, family, enterprise and society.

Key words: economic factor, employment, technological factor, economic growth, investment activity, demographic processes, regional level.

Аннотация: В данной статье показано влияние социальных факторов на занятость, то, что высокий доход работника и увеличение размера дохода позволяет развивать у работника такие личностные характеристики, как мобильность, мотивация, инновационные способности, пригодность к профессии. Было сказано, что производительность труда является основным резервом и источником дохода человека, семьи, предприятия и общества.

Ключевые слова: экономический фактор, занятость, технологический фактор, экономический рост, инвестиционная активность, демографические процессы, региональный уровень.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida aksiyadorlik jamiyatlari zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy etish evaziga yuqori iqtisodiy natijalarga erishib kelinmoqda. Korporativ boshqaruv tizimini joriy etishdagi masalalardan yana biri mazkur yo'nalishdagi kadrlar salohiyati, ya'ni ularning imiji, diplomatiyasi xalqaro talablarga to'liq javob bermasligidir.

Ta'kidlash joizki, iqtisodiy omillarning aholini mehnat bilan bandligini oshirishga ta'siri ish beruvchi va xodimning sherikchilik munosabatlarini o'rnatishga yordam berishi lozim[1]. Bu esa biznesning ijtimoiy javobgarligi dasturlarini amalga oshirish, korporativ madaniyatni rivojlantirish, aholi hayot darajasi va sifatining o'sishiga erishish imkonini yaratadi.

Texnologik (innovatsion) omillar: mamlakatdagi (hududdagi) innovatsion faoliyat yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi, texnologik jarayonlarning professional tarmog'i, texnologiyalarning harakatchanligi, kadrlar malakasi darajasi va boshqalardan iborat bo'lishi mumkin.

Korxonalar va tashkilotlarni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning eng muhim sharti bu texnologik omil; hudud iqtisodiyotining progressiv sohasini shakllantirish; hudud iqtisodiyoti tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarning raqobatdoshligini ta'minlash; investitsion faoliyatni jonlantirish; kichik va o'rta biznesni rivojlantirish. Ushbu jarayonlarning natijasi hudud iqtisodiyotida yangi ish o'rinlari yaratilishini va mavjud ish o'rinlarining saqlanishini rag'batlantirishdan iborat bo'lib, bu aholining hayot darajasi va sifatini oshirishga olib keladi.

1 Aholini ish bilan bandlik darajasini oshirishning demografik jihatlari. Monografiya. 2023.

Mehnat resurslaridan foydalanish ko‘p jihatdan ijtimoiy omillarning ta’siriga: aholining turmush darajasi va sifati, ishchilarning aksariyati tomonidan baham ko‘riladigan umumjahon miqyosidagi madaniy qadriyatlarning mavjudligi, mamlakatda inson huquqlarini himoya qilish darajasi, aholining bilim darajasi va boshqalarga bog‘liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Aholining ish bilan bandligining nazariy masalalariga yirik klassik iqtisodiy nazariya vakillari J.Keyns[2], A.Marshall[3], A. Smit[4], D. Rikardo[5], K. Marks tadqiqotlarida ish bilan bandlik tushunchalarining nazariy va konseptual asoslari yaratilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlari: Aholini ish bilan bandligini demografik nuqtayi nazardan tadqiq etishda Yu.G.Odegov[6], Volchin N.A, B.D.Breev, Rudenko G.G, I.N.Sicheva, A.I. Rofe[7], V.V.Radaeva, N.L.Kaznacheeva, B.L.Tokarskiy, B.Urlanis, D.Valenteylarning fundamental ishlari, ekspremental tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Bu olimlar hamma narsada “ko‘rinmas qo‘lga” suyanish mumkin emasligini tasdiqlagan holda faqat ish bilan bandlikni oshirish davlat siyosatini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘lchamini baholagandan so‘nggina boshqariladigan ta’sir ko‘rsatishga yo‘l qo‘yish mumkinligini haqida ta’kidlaganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbekistonda norasmiy ish bilan bandlikni kamaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda, aholini ish bilan bandlik darajasini oshirishning demografik jihatlari bilan bog‘liq muammolar o‘rganilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shuningdek, ushbu guruh omillariga demografik omilni kiritishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki demografik vaziyat va jarayonlar mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyot omili bo‘lib hisoblanadi. Demografik jarayon bu o‘z navbatida, aholining ko‘payishiga, uning yoshi-jinsi tarkibi, tug‘ilish, o‘lim, nikohdan o‘tish, aholining migratsion oqimdagi o‘zgarishlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan har qanday hodisaning vaqt va makonda rivojlanishini aks ettiruvchi hodisalar majmuyi hisoblanadi.

Ayniqsa, demografik jarayonlarning bandlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini bashoratlash esa kelajakdagi ish bilan bandlik siyosatini aniqlash imkonini beradi, deb hisoblaymiz.

Shubhasiz, ishchi kuchi bandligini rivojlantirishning eng muhim tendensiyalari tashqi omillarning ta’siri bilan bog‘liq, ammo ularni boshqarish imkoniyatlari obyektiv ravishda cheklangan. Bu nafaqat ishbilarmon doiralar vakillariga, balki hududdagi davlat organlariga ham tegishli. Bunday sharoitda samarali nazorat harakati ichki omillarga asoslangan bo‘lishi kerak, ular nazorat obyektining o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra ushbu jarayonning ikki asosiy ishtirokchilari - davlat organlari va ish beruvchilarning manfaatlarini hisobga olgan holda farqlanishi kerak.

Hududiy darajada mehnat bilan bandlikni boshqarishning davlat organlari nuqtayi nazaridan asosiy ichki omillari quyidagilar:

1) mehnat resurslarini boshqarishning hududiy organlari tizimining xususiyatlari;
2) hududiy mehnat bozorida talab va taklifning o‘ziga xos xususiyatlari;
3) kadrlar malakasini oshirish, kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash tizimining xususiyatlari va boshqalar.

Mehnat resurslaridan foydalanishni boshqarish bo‘yicha hududiy organlar tizimining o‘ziga xos xususiyatlari esa quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- mehnat va bandlik sohasida hududiy siyosatni olib borishda nisbiy mustaqillik;
- ish bilan bandlikni boshqarish tizimini rivojlantirish, buning natijasida bir qator vakolatlar va funksiyalar markazi darajadan hududiy va mahalliy darajalarga o‘tkazilishi;
- mehnatni boshqarish tizimida nodavlat ishtirokchilarning soni va rolini kuchaytirish va boshqalar.


Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilgan holda biz ish bilan bandlikni darajasini oshirishning omillari tasnifini taklif qilish imkoniga ega bo‘lamiz (1.-rasm.). Hududlar aholisining ish bilan bandligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni ikki tashqi va ichki guruhga bo‘lish mumkin:

2 Кейнс Дж. Общая теория занятости, процента и денег: 2010.– 154с.
3 Маршалл А. Принципы экономической науки М.: Директ-медиа, 2012. – 2127 с.
4 Исследование о природе и причинах богатства народов/Адам Смит; (пер.с англ.П.Клюкина). – Москва: Эксмо, 2020.–1056 с
5 Начало политической экономии и налогового облажения/ДевидРикардо:[пер.с анг.; предисл. П.Клюкина]. –Москва: Эксмо, 2016.–1040 с.–(Великие экономисты).
6 Экономика труда : учебник и практикум для академического бакалавриата / Ю. Г. Одегов, Г. Г. Руденко. – 3-е изд., перераб. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2019. – с.89 (387с.)
7 Экономика труда: Конспект лекций: учебное пособие /А.И.Рофе.–Москва.:КНОРУС, 2017. –с. 90.

- tashqi omillar qatoriga siyosiy, iqtisodiy, texnologik (innovatsion), ijtimoiy va demografik omillar;
- ichki omillarni mehnatdan foydalanishni boshqarishda ikki asosiy ishtirokchining manfaatlarini hisobga olgan holda farqlash zarur: hududiy boshqaruv organlari tarafidan va ish beruvchilar tarafidan;

a) hududiy darajada ish bilan bandlikni boshqarish hududiy boshqaruv organlari nuqtayi nazaridan asosiy ichki omillar quyidagilardir: mehnat bandligini boshqarish organlarining xususiyatlari, hududiy mehnat bozorida talab va taklifning o‘ziga xos xususiyatlari, kadrlar malakasini oshirish, kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash tizimining xususiyatlari;

b) ish beruvchilar nuqtayi nazaridan mehnat resurslaridan foydalanishga korxona xususiyatlari eng katta ta’sir ko‘rsatadi.



1-rasm: Hududlarda aholini ish bilan bandlik darajasini oshirishda iqtisodiy faol aholi tarkibiga ehtiyojmand aholi qatlamlarini tartibga soluvchi elementlar asosida ishga jalb qilish asosida ishga jalb qilish mexanizmi tahlil qilingan[8]

8 Muallif tomonidan tuzilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Kadrlar malakasini oshirish, kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining xususiyatlari. Ma'lumki tarkibi jihatidan hududiy darajada ishlaydigan kadrlarning malakasini oshirish, kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi turlicha. Uning vakillari orasida biznes maktablari, maslahat agentliklari, davlat va nodavlat oliy kasb ta'limi muassasalari, ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat muassasalari, rekruting va boshqalar kiradi.

Ish beruvchilar nuqtayi nazaridan mehnat resurslaridan foydalanishga quyidagi omillar eng katta ta'sir ko'rsatadi:

1) korxona (tashkilot) ning o'ziga xos xususiyatlari;
2) boshqarish usullarining xususiyatlari;
3) jamoada ijtimoiy va mehnat munosabatlarining xususiyatlari;
4) menejment tashkiliy tuzilishining xususiyatlari.

Korxona (tashkilot) xususiyatlari. Korxona (tashkilot) iqtisodiy faoliyat subyekti sifatida quyidagi asosiy xususiyatlarga ega: faoliyat sohasi, mulkchilik shakli, tashkiliy-huquqiy shakli, mahsulot-tematik portfelining kengligi, ishlab chiqarish jarayonining tabiati va shakli, hajmi. Ish bilan bandlikni boshqarish tizimi umuman korxonani (tashkilotni) boshqarish tizimining ajralmas qismi bo'lganligi sababli uning samaradorligini yakuniy natijalari bo'yicha baholash mumkin. Bunday holda nafaqat umumiy iqtisodiy, balki korxonaning moliyaviy natijalari, birinchi navbatda, moliyaviy barqarorlik va to'lov qobiliyatining erishilgan darajasi ham hisobga olinishi kerak.

Raqobatbardoshlik uchun kurashning kuchayganligi sharoitida korxonada mehnatga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim ichki omil bu uning imidji - korxonaning o'zi va uning mahsulotlari (xizmatlari) to'g'risidagi jamoatchilik fikrini aks ettiruvchi xususiyatdir.

So'nggi yillarda ishsizlik masalasi global muammolardan biridir. Dunyoda ro'y bergan iqtisodiy inqirozlar ta'siri har bir mamlakat iqtisodiyotiga, shu qatorda mehnat bozori holatiga bevosita ta'sir etmoqda. Bunday vaziyatda mamlakatdagi ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish sharoitiga mos ish bilan bandlikning demografik jihatlarini joriy etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ish bilan bandlik darajasining demografik jihatlari muammosini yanada yumshatish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun ish o'rinlari ko'paytirish ularga daromad manbayini yaratish va malakasini oshirib borishga imkoniyat yaratadi[9].

XULOSA

Ayniqsa, ish bilan bandlik sohasida davlat siyosatini ishlab chiqishda mehnat bozorini konseptual jihatdan tushunish muhim ahamiyatga ega. Mehnat bozorini tor ma'noda tushunish asosan, ro'yxatga olingan ishsizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ishga joylashtirishga yo'naltirilgan tor siyosatni ham ko'zda tutadi. Bu siyosat foydali, ammo u ishsizlarning makroiqtisodiy muammolarini hal etmaydi. Mehnat bozorini keng ma'noda tushunish barcha ish o'rinlari tizimi (band va vakant ish joylarni)ni qo'llab-quvvatlash va kengaytirish, ish bilan bandlikni ko'paytirish va rag'batlantirish, shu yo'l bilan ishsizlik muammosini hal etish siyosatini ko'zda tutadi. Bunday siyosat, o'z navbatida, sezilarli katta xarajatlarni, davlat hokimiyati organlarining mas'uliyatini talab qiladi.

9 Mehnat iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti. Abdurahmonov Q.pdf 2019

“АВЕСТА” – ИСТОРИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК ЭКОНОМИЧЕСКОЙ МЫСЛИ В ДРЕВНЕЙ СРЕДНЕЙ АЗИИ



Хакимов Назар Хакимович
Д. ф. н., профессор Заведующий кафедрой “Общественно гуманитарные и точных наук” Ташкентского государственного экономического университета

Садиков Анвар Каримович
Кандидат философских наук доцент кафедры “Общественно гуманитарные и точных наук” Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация: В статье книга “Авеста”, общий памятник народов Средней Азии, является историческим источником для изучения экономических учений в нашем регионе и изучается ее научное и практическое значение в этом процессе. Авторы акцентировали внимание на месте этой священной книги в развитии существующих экономических отношений на территории нашей страны. Также изучалась роль этого источника в религиозных воззрениях человека и непосредственное влияние этого процесса на экономическую жизнь человека в развитии древнего общества. Следует отметить, что в исследовании проанализировано значение “Авесты” в формировании экономических мыслей и представлений в сознании древних людей.

Ключевые слова: “Авеста”, источник, история, экономика, зороастризм, религия, учение, памятник, народ, хозяин.

Annotatsiya: Maqolada Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak yodgorligi “Avesta” kitobining mintaqamizdagi iqtisodiy ta’limotlarni o‘rganishdagi tarixiy manba eekani va ushbu jarayonda uning ilmiy-amaliy ahamiyati tadqiq qilingan. Mualliflar ushbu muqaddas kitobning Vatanimiz hududidagi mavjud bo‘lgan iqtisodiy munosobatlarning rivojlanishidagi o‘rniga e’tibor qaratgan. Shuningdek, qadimgi jamiyat taraqqiyotida ushbu manbaning inson diniy qarashlaridagi roli va bu jarayonning inson xo‘jalik hayotiga bevosita ta’siri masalalari ham o‘rganilgan. Ta’kidlash lozimki, tadqiqotda “Avesta”ning qadimgi odamlar ongida iqtisodiy fikrlar, g‘oyalar shakllanishi jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: “Avesta”, manba, tarix, iqtisod, zoroastrizm, din, ta’limot, yodgorlik, xalq, xo‘jayin.

Abstract: In the article, the book "Avesta", a common monument of the peoples of Central Asia, is a historical source for the study of economic doctrines in our region and its scientific and practical importance in this process is studied. The authors focused on the place of this sacred book in the development of existing economic relations in the territory of our country. Also, the role of this source in human religious views and the direct impact of this process on human economic life in the development of ancient society were also studied. It should be noted that the importance of "Avesta" in the formation of economic thoughts and ideas in the minds of ancient people was analyzed in the research.

Key words: “Avesta”, source, history, economics, Zoroastrianism, religion, teaching, monument, people, owner.

ВВЕДЕНИЕ

История экономических учений – фундаментальная наука, изучающая эволюцию экономической теории. Важнейшим историко-экономическим научным источником является священная книга “Авеста”. Ценные материалы содержат труды Среднее Азиатских мыслителей, которые являются одним из важных источников в изучении истории экономических учений в условиях первого и второго Ренессанса на земле Узбекистана. Существенным вкладом в изучение экономических воззрений средних веков являются труды Сахибкирана Амир Темура и темуридов.

На протяжении столетий складывалась научная экономическая мысль. Каждый период исторического развития нации ставил свои вопросы, требующие систематизации, критического анализа и на этой базе - синтеза новых знаний или обобщений, которые позволяли бы построить причинно-следственные связи и прогнозировать дальнейшее социально-экономическое развитие общества. В эпоху Античности и Средневековья мы наблюдаем начало формирования экономических взглядов. Таким образом, пред-

метом истории экономических учений как науки является изучение исторического процесса возникновения, развития и обновления знаний, идей и концепций, представленных в теориях экономистов. Изучение истории экономической мысли является необходимым условием для выявления устойчивых закономерностей в сфере социально-экономической жизни. Несомненно, глубокие знания по формированию экономической мысли необходимы не только для студентов экономических вузов, но и для влиятельных государственных и общественных деятелей.

Становление экономической мысли совпадает со становлением человеческого общества. Однако исследованы лишь те вопросы экономического мышления древности, которые были отражены в письменных источниках. Изложение истории экономической мысли поэтому совпадает с возникновением первых цивилизаций. С появлением древних цивилизаций, то есть первых государственных образований, возникло множество проблем участия государства в хозяйственной жизни, поиска идеальной модели социально-экономического устройства общества. Практически все древневосточные общества представляли собой государственные системы земледельческих общин с большой централизацией и регламентацией процесса производства. Для управления хозяйственной жизнью обычно создавался большой бюрократический аппарат или функции управления частично передавались в общины, касты, роды, семьи, члены которых полностью подчинялись требованиям этих “ячеек” государства и были связаны круговой порукой. Особым уважением в Древнем мире пользовались служители культа, поэтому храмовые хозяйства обладали относительной свободой и налоговыми льготами.

Материальной базой этих обществ явилась технологическая революция, связанная с началом применения металлов, переходом к интенсивному сельскому хозяйству и возможностью получения на этой основе достаточно устойчивого прибавочного продукта. Это стимулировало развитие разделения труда в обществе, выделение в особые профессии многих ремесел, функций жрецов и управителей. В обществе возникла иерархическая структура. Широко использовался труд рабов, особенно на общественных работах. Основными источниками получения прибавочного продукта были в эту эпоху эксплуатация крестьян-общинников через ренту-налог и эксплуатация рабов, государственных или частных. В зависимости от степени государственного вмешательства в жизнь и хозяйственную деятельность свободных жителей древневосточных государств их социально-экономическое положение нередко приближалось к рабскому. Чрезмерная государственная опека (регулирование) натурального хозяйства посредством регламентации сферы ссудных операций, торговли долговой кабалы, ведущая роль в национальной экономике собственности государства стали теми критериями, в соответствии с которыми хозяйство восточных государств называют азиатским способом производства. Письменные источники Древнего мира можно разделить на две условные группы: источники, которые непосредственно отражали хозяйственную деятельность, и источники, в которых делалась попытка осмыслить хозяйственную жизнь.

В первую группу источников относятся документы, отражающие повседневную экономическую деятельность, а также содержащие данные о переписи населения, земельные кадастры, юридические акты, оформлявшие имущественные отношения, документы хозяйственной отчетности.

Во вторую группу, возникшую значительно позже, входят мифо-поэтические поучения и беседы. Основной темой древних поучений и бесед были вопросы управления и организации государственного хозяйства. Предназначались они для настоящих и будущих управителей. Характерная черта древневосточных источников - их государственно-нормативный характер. Они рассчитаны на веру членов общества в правоту государства и людей, пекущихся о его благе (авторов поучений и бесед).

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Впервые авестийский текст Видевдад-саде попал в Оксфордскую библиотеку в 1723 г. от торговца из Сурата, однако никто не мог прочесть этот текст. Лишь французскому учёному Анкетилю-Дюперрону, отправившемуся в Индию в 1755 году простым солдатом, удалось войти в доверие к одним из парсийских священнослужителей и обучиться с их помощью читать и переводить авестийские тексты. Вернувшись в 1762 году во Францию, он преподнёс в дар Королевской библиотеке 180 авестийских, пехлевийских, персидских и санскритских зороастрийских рукописей, и в 1771 году им был издан первый в Европе перевод Авесты на французский язык, а в 1776 году в Риге появились первые переводы на немецкий язык[1].

Авеста оказала большое влияние на философскую мысль Востока и Запада. Георг Гегель (1770-1831 годы) подчёркивал[2], что основой зороастрийской религиозной системы является признание борьбы двух противоположностей - Добра и Зла. Одно из самых знаменитых произведений Иоганна Гёте (1749-

1 Авеста и Запад. Материал из Википедии – свободной энциклопедии. https://ru.wikipedia.
2 Гегель. Лекции по истории философии. – СПб.: Наука, 1993-1994. – (Слово о сущем). Переизданы в 2006.

1832 годы) “Западно-Восточный диван” содержит стихотворение “Завет древнеперсидской веры”[3]. В нём поэт даёт своё понимание Авесты как веры в торжество света над тьмой. Некоторыми идеями и образами гимнов Заратуштры был вдохновлён и основоположник теории психофизического параллелизма Теодор Фехнер (1801-1887)[4]. Однако Фридрих Ницше в известной книге “Так говорил Заратустра” приписал пророку идеи “сверхчеловека” и “вечного возвращения”[5]. “Так говорил Заратустра. Книга для всех и ни для кого” философский роман Фридриха Ницше, начавший издаваться в 1883 году. Изначально книга состояла из трёх отдельных частей, написанных в течение года. Ницше намеревался написать ещё три части, но закончил только одну - четвёртую. После смерти Ницше все четыре части были опубликованы в одном томе.

Первый, изданный в России перевод Авесты (но не на русский язык, а на латынь, которая тогда была международным научным стандартом) выполнил Каэтан Коссович в 1861 году[6]. Значительный вклад в изучении Авесты внес Л. А. Лелеков[7], М. В. Чистяков[8]. В рамках учебника “История экономических учений”, профессор Хакимов Н.Х. анализирует основное содержание и значение “Авеста”[9].

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Методологически исследование “Авеста” опирается на прогрессивных методах экономического анализа социально-экономичесой жизни. К их числу можно отнести методы: исторический, индукции, логической абстракции, каузальный, функциональный, системный, математического моделирования. Экономические учения возникла в условиях древнего мира, т.е. с появления первых государственных образований. С древнейших времен и до настоящего времени осуществляются попытки систематизировать экономические воззрения в экономические учения, принимаемую обществом в качестве практического руководства к действию в осуществлении самостоятельной экономической политики. При этом по мере происходящих изменений в социально экономической жизни, науке, технике и культуре, высшего образования постоянно совершенствуются содержание, сущность, задачи экономических учений.

Изучение исторического источника, священного “Авеста” является важным подспорьем для выявления объективных закономерностей в развитии экономики как мировой, региональной, так и экономики Республики Узбекистан. Необходимо отметить, что специальные знания в области эволюции экономической мысли формируют у будущего экономиста необходимую эрудицию и творческие навыки, которые позволят ему свободно ориентироваться в проблемах экономической мысли, сравнивать альтернативные теоретические подходы и принимать самостоятельно решения по практической реализации инновационных экономических задач.

Значительным вкладом в изучении проблем истории экономических учений являются труды Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева, где раскрыты теоретические и научно-методологические основы экономической мысли в условиях нового этапа развития общества[10]. Важнейшим источником в изучении экономического процесса в условиях цифровой экономики являются Законы Республики Узбекистан.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Крупнейшим и ценным письменным памятником Средней Азии является “Авеста”. В городе Ургенч установлен памятник книге “Авеста”. Это свод священных текстов приверженцев зороастризма - религиозного учения, названного по имени его основателя (пророка) Заратуштры[11]. “Ясна” - наиболее архаическая часть “Авесты”, куда входят гимны Заратуштры. Изучение экономической мысли народов древнего мира возможно на основе отдельных самых ярких достопримечательностей, поскольку верования и представления некоторых племен были часто подобными. Именно это дает возможность ограничиться

3 Иоган Гёте “Западно-Восточный диван”. http://lit-prosv.niv.ru/lit/text/836/54048/Goethe/zapadno-vostochnyj-divan.htm
4 Теодор Фехнер. Зенд Авеста, или явления небес и будущей жизни. https://www.livelib.ru/author/317929/series-gustav-teodor-fehner
5 Фридрих Ницше. “Так говорил Заратустра”. https://ru.wikipedia.org.
6 На русском языке. Материал из Википедии – свободной энциклопедии. https://ru.wikipedia.
7 Л. А. Лелеков. Авеста в современной науке, М. 1992 г
8 Авеста. Хордэ Авеста (Младшая Авеста) / Подготовка авестийского текста, перевод, предисловие, комментарий М.В. Чистякова. – СПб., 2005.– 384 с
9 Хакимов Н.Х. История экономических учений. Учебник. Ташкент, Иктисодиёт, 2022.–345 стр.
10 Шавкат Мирзиёев. Уверенно продолжим путь национального развития на новом этапе. Том 1.Ташкент, –“Узбекистан”, –2018-368 с. Шавкат Мирзиёев.Одобрение народа – высшая оценка нашей деятельности. Том 2.Ташкент, “Узбекистан”, 2018-416 с. Шавкат Мирзиёев.Светлой и благополучной будет жизнь народа, имеющего благородные устремления и великие цели. Том 3.Ташкент, –“Узбекистан”, –2019-368 с.
11 “Авеста” как исторический источник. https://azkurs.org/avesta-kak-istoricheskij-istochnik.html

анализом “Авесты”, чтобы понять экономическое мировоззрение народов Средней Азии середины 1 тыс. до н. э. “Авеста” состоят из трех главных “Книг” - Ясная, Яшта и Вендіду. “Понятное” - это молитва жертвоприношения, которая содержит 72 раздела, 17 из которых - “Пруди”.

Основное содержание “Гат” направлен на выращивание и сохранения скота. “От древности существуют наставления о пастушьей жизни, которых никто не должен нарушать”, - записано в одной из “Гат”. И далее: “Скот требует хорошего хозяина. Сам пророк молится об отстранении от скота плохого хозяина”. Скот в представлении авторов “Авесты” находится на первом месте, под защитой небесных и божественных сил. Скот был даже наделен душой. “Душа скота обращается с просьбой к богам”, - отмечено в одной из “Гат”. Свободный дух и свободную жизнь обеспечивалось тем хозяевам, которые “держат на своей земле скот”. Скотоводы - это общественная прослойка рядом с жрецами, воинами и ремесленниками.”Яшти” считают более раннего происхождения, чем “Пруди”, пророка Заратуштры. В них изложены мировоззрение зороастрийского направления. В гимне богу Митре высказанны взгляды на поведение главы семьи, рода и племени. Сам бог дарует благосостояние, пастбища, жизнь, хорошее существование, стада. Характерно, что везде говорится о скотах и пастбищах, но нигде - о земледелии.

Составляющей “Авесты” является “Вендидат” - памятка, в которой значительно полнее, чем в предыдущих, сформулированы экономическое мировоззрение иранцев. На вопрос к творцу “телесного мира”, где на земле лучше, тот отвечает, что там, где “человек справедливый построил дом, обеспечен огнем, молоком, женой, детьми, добрыми стадами”, где “достаточно накормлен скот, сытно накормлена собака, хорошо накормлена жена, хорошо накормлен ребенок...”[12]. Конечно, залогом благосостояния и хозяйственности здесь выступает скот, пастбище, но в то же время примечательно то, что на земле в “наибольшей мере засевая, выращивают урожаи, травы, плодоносящие растения, где обводняют безводные места, где осушают место с изобилием воды”.

Следовательно, здесь упоминается о земледелии, но, во-первых, цитируемый памятник относится к первой половины 1 тыс. до н. э., во-вторых, перевод не дает возможности точно определить характер земледельческих занятий. Несмотря на это, приходится признать, что в процитированной памятке крестьянский труд приобретает рельефное выражение. “Кто, засевая, производит хлеб, пусть производит праведность”, - так сказано в одном из поучений “Вендидат”. Некоторое смещение от глорификации скотоводства к земледелию можно считать одним из существенных признаков эволюции экономического мировоззрения населения Средней Азии[13].

Важной характерной чертой зороастризма было представление о дуализме мира. Этот дуализм выражался в противоборстве сил Добра и Света во главе с Ахура-Маздой с силами Зла и Тьмы, возглавляемыми духом-разрушителем Анхра-Майнью. К “лагерю Тьмы” относились дайвы (дэвы) - бывшие боги, персонифицировавшие такие отрицательные черты, как лень, зависть, ложь, а также злые духи, колдуны и пэри, которые вредили огню, земле, воде, скоту. Бог Добра, Ахура-Мазда, сотворил жизнь, свет, тепло, предупреждал людей о бедствиях, а дух-разрушитель, Анхра-Майнью, сеял смерть, сотворил зиму, холод, зной, вредных животных. Подобные наивные представления древних людей свидетельствовали о большой зависимости их хозяйственной деятельности от естественной среды обитания. Однако на протяжении всей истории зороастризма важное место в нем отводилось человеку.

Зороастризм предоставлял человеку выбор встать на любую сторону в борьбе Добра и Зла. Деятельность человека Добра должна была основываться на трех заповедях: добрая мысль, доброе слово, доброе деяние. К добрым деяниям в мирской жизни относилось прежде всего преумножение материальных благ. Не случайно в текстах “Авесты” не только нашли отражение черты натурально-хозяйственного строя древних иранцев, их общественные идеалы, но и содержатся практические советы.

Заратуштра (что означает “имеющий золотистых верблюдов”) выступал против бессмысленности массовых жертвоприношений скота, главного богатства кочевников. Ранний зороастризм - своеобразная и уникальная в своем роде идеология скотоводческих племен. “Пусть скот тучнеет нам на пищу” - одна из центральных идей “Авесты”. Поэтому каждый должен оберегать скот от жестокости, “чтобы скот имел благо мирской пастьбы и подобающий ему уход”. “Славословить Ахура-Мазду и давать корм скоту, - заявлял Заратуштра, - это мы считаем самым лучшим”.

Ранний зороастризм выражал представления той части племен, которые вели мирную, полуоседлую жизнь скотоводов. Заратуштра выступил как сторонник сильной власти. “Душа скота, - провозгласил он, - желала бы иметь покровителем могущественного правителя, который бы помог Заратуштре вооруженной рукой”. Зороастризм наставляет кочевника отречься от “хищений и захвата скота”, от разорения

12 “Авеста” – первый письменный исторический источник, созданный нашими предками. https://talaba.su/ru/avesta-pervyj-pismennyj-istoricheskij-istochnik-sozdannyj-nashimi-predkami/

13 “Авеста” – первый письменный исторический источник, созданный нашими предками. https://talaba.su/ru/avesta-pervyj-pismennyj-istoricheskij-istochnik-sozdannyj-nashimi-predkami/

селений, и тогда победит Добро. В этом случае Заратуштра обещал обеспечить “свободное движение и свободную жизнь тем хозяйствам, которые содержат на земле скот”. По-видимому, проблема “свободного движения” скотоводов в условиях естественной ограниченности пастбищ стояла остро и приводила к всевозможным столкновениям. В этих условиях Заратуштра призывал даже иноверцев поклясться “прекратить военные набеги, сложить оружие, заключить браки между своими”[14].

Стремление полуоседлых кочевников к сильной власти и стабильности получало отражение в авестийском пантеоне богов. Особое место в нем отводилось всевидящему Митре, богу порядка, “хранителю законности”*. Не случайно синоним Митры - “многопастбищный”, поскольку обилие пастбищ - важное условие экстенсивного скотоводства. “Авеста” выступала против нарушения договоров зороастрийцев с единоверцами и другими людьми. На языке “Авесты” договор означал не только взаимозависимость между его субъектами, но в первую очередь обязанность материальной поддержки друг друга или партнера. Подобные договоры отражали, по-видимому, архаичность отношений взаимопомощи, характерную для общинного строя. Это свидетельствует о живучести патриархальных отношений в древнеиранском обществе, о стремлении зороастризма к их определенной консервации[15].

Но происходило дальнейшее перерождение родового строя и образование каст. В “Ясне” упоминаются 4 касты: жрецы, воины, скотоводы, ремесленники*. Такое социальное деление характерно для многих раннеклассовых обществ[16].

В зороастризме определенным образом отразились социальные идеалы кочевых племен, их стремление найти такое место на земле, “где много варят пищи, получают большие куски, где фыркают кони, звенят колеса, где взмахивают плетью, где много жуют, где припрятаны яства, где прекрасные ароматы, в кладовых по желанию хранят в обилии все, что надо для хорошей жизни”*. “Авеста” поощряла создание страховых фондов пищи на случай стихийных бедствий, что являлось одной из важных черт общинного производства[17].

ВЫВОДЫ

Ko‘pgina kompaniyalarda kadrlar bo‘limi asosan ma’muriy va yordamchi rol o‘ynaydi hamda strategik masalalarga umuman qiziqmaydi. Ba’zi tashkilotlar elementar omon qolish va ma’muriy tartib bilan shunchalik bandki, ular aniq biznes strategiyasini shakllantirishga shoshilmaydilar. Ko‘pgina kompaniyalar uchun xos bo‘lgan bunday sharoitlarda ular “qisqa muddatli” maqsadlarga asoslanadi va inson resurslarini strategik boshqarish amalga oshirilmaydi. Inson resurslari masalalariga strategik yondashuv faqat korporativ va biznes masalalariga strategik yondashuv allaqachon amalga oshirilgan muhitda amalga oshirilishi mumkin [13].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, inson resurslarini strategik boshqarish – bu tashkilotni boshqarishning umumiy tizimiga kiritilgan va 10-15 yil davomida tashkilotni rivojlantirish strategiyasiga yo‘naltirilgan, kadrlar muammolarini hal etishga kompleks yondashuvni aks ettiradigan tizim. U inson resurslarini samarali shakllantirish va ulardan foydalanishda tashkilot ehtiyojlarini qondirishga imkon beradigan xodimlarni boshqarishning ma’lum algoritmlari va texnologiyalarini o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, IRB strategiyasi boshqa funksional strategiyalar bilan o‘zaro bog‘liq va korxonaning umumiy strategiyasi bilan integratsiyalashgan bo‘lishi kerak. Ushbu muvofiqlikka erishish yondashuvi tashkilot turiga, uning hayot sikliga va tanlangan raqobat strategiyasiga bog‘liq. Shunday qilib, muvaffaqiyatli strategiya ishlab chiqish uchun IRB tizimli yondashuvni qo‘llashi kerak. Binobarin shunday ekan, har bir korxona boshqaruvida inson resurslarini boshqarishga qaratilgan usullarni amalga oshirish korxona rahbariyati tomonidan o‘z o‘rnida katta bilim va salohiyat talab etadi. Shu bilan bir qatorda inson resurslarini boshqarish bo‘yicha ayrim muammolar tegishli darajada o‘rganilmagan, u juda ko‘p noaniqliklarga ega, bu ko‘pincha menejerlarni faqat o‘zlarining intuitsiyalariga asoslangan holda qarorlar qabul qilishga majbur qiladi [1].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduraxmonova G.Q. (2021). Inson resurslarini boshqarish: –Darslik. – T:.TDIU.
2. Abraham M. (2021). Motivation and Personality: New York, Harper, 42.
3. M. Армстронг. (2002). Стратегическое управление человеческими ресурсами: Пер. с англ. - М.: ИНФРА-М, 11.
4. K.X.Abduraxmonov va b. Personalni boshqarish. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2004.
5. A.X. Shoalimov, Sh.A. Tojiboyeva. Boshqaruv tahlili. O‘quv qo‘llanma.–T.: 2003.
6. Gulomov S.S., Dodoboyev Yu.T., Osmonov M.O. Xodimlarni boshqarish. O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona –2000.
7. Nazarova G.G., Muxamedjanova G.A., Salixova N.M., Ismailova N.C., Rozmetova N.B. Inson resurslari menejmenti.–O‘quv qo‘llanma. –T.: 2010
8. Abduraxmonov Q.X., Xolmo‘minov Sh.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish. Darslik – T.: O‘qituvchi NMIU, –2008.
9. Brian Tracy – Management 2014 AMACOM; First edition. –2014.
10. Eric GarnerRecruitment and Selection: Hiring the people you want – 2015.
11. Трайнев В.А., Демин Н.Я., Тимошин М.Л. Менеджмент: стратегическое управление производственно-хозяйственной системой разного уровня и конфигурации. –М.: ВИНИТИ, –1997.
12. Adam Smith An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations-Scotland, William Strahan 1776 Towers Perrin, Forster & Crosby- Priorities for competitive advantage:New York: Towers Perrin-2022.
13. Daniel R. Ilgen and Elaine D. Pulakos. The changing nature of performance:Michigan, Pfeiffer-1 edition-2019.

MEHNAT BOZORIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Xuvaydullayeva Iroda Xusniddin qizi
TDIU “Inson resurslarini boshqarish” kafedrasi assistenti,
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Jahon mamlakatlarining inson kapitali va undan foydalanish darajasi turli xalqaro indekslar orqali baholanib kelinadi. Ushbu indekslarda ilmiy-texnika salohiyati yuqori, fan va ilmiy tadqiqotlarda inson kapitaliga kiritilayotgan investitsiyalar va xarajatlar natijadorligi ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan mamlakatlar yetakchi mavqega ega. Inson resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashda asosiy global ko‘rsatkichlardan hisoblanadi.

Jahon amaliyotida mavjud inson resurslaridan samarali foydalanish eng dolzarb hisoblanib, ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Mamlakatda yoshlardan foydalanish samaradorligini baholashning tizimini takomillashtirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish bilan ham belgilanmoqda.

Kalit so‘zlar: mehnat bozori, yoshlar bandligini, inson resurslari, inson kapitali, globallashuv, mehnat munosabatlari, to‘liqsiz bandlik, bandlik holati, nofaol aholi, faol aholi.

Abstract: The human capital of the world’s countries and the level of its use are linked using various international indices. In these indices, the leading positions are occupied by countries with high scientific and technical potential, scientific and modern research, investment in capital and stability, efficiency indicators, and cost. This is one of the main indicators for assessing the effectiveness of the use of human resources.

In world practice, the effective use of available human resources is considered the most relevant and its importance is increasing every day. The improvement of the system for evaluating the effectiveness of youth use in the country is determined by increasing its competitiveness.

Key words: labor market, human resources, human capital, Russia, globalization, labor relations, underemployment, employment status, inactive population, active population.

Аннотация: Человеческий капитал стран мира и уровень его использования оцениваются с помощью различных международных индексов. В этих индексах лидирующие позиции занимают страны с высоким научно-техническим потенциалом, наукой и научными исследованиями, инвестициями в человеческий капитал и высокими показателями эффективности затрат. Это один из основных глобальных показателей оценки эффективности использования человеческих ресурсов.

В мировой практике эффективное использование имеющихся человеческих ресурсов считается наиболее актуальным и его значение возрастает с каждым днем. Совершенствование системы оценки эффективности использования молодежи в стране определяется повышением ее конкурентоспособности.

Ключевые слова: рынок труда, человеческие ресурсы, человеческий капитал, Россия, глобализация, трудовые отношения, неполная занятость, статус занятости, неактивное население, активное население.

KIRISH

Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo‘yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2021-yilning “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb nomlanishi yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi ishlar natijadorligi va yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish borasida oldimizda turgan muhim vazifalarni belgilab berdi. Raqamlashish va texnologik o‘zgarishlar barcha turdagi resurslardan samarali foydalanishni taqozo etayotgan bir vaqtda inson resurslari va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, pirovardida mamlakat fuqarolari farovonligi va iqtisodiy barqarorlikka erishish jahon mamlakatlari oldida muhim chora-tadbirlarni ishlab chiqishga undamoqda. Mehnat munosabatlarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi soyasida ham ish beruvchi, ham xodim manfaatlari yotadi. Aholining bandlik dara-

jasini ko‘tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.06.2020-yildagi PF-6017-son “O‘zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [1] farmonidan kelib chiqqan holda yoshlarni bandligini yanada kuchaytirish ishlari amalga oshirilmoqda. Yoshlarning mustaqil hayotga qadam qo‘yishlari, o‘z iqtidori va salohiyatini to‘liq namoyon etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish, ularning bandligiga ko‘maklashish, doimiy ish bilan hamda munosib daromad olishini ta’minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida:

1. Belgilab qo‘yilsinki, 2023-yil 1-maydan boshlab 2025-yil 1-yanvarga qadar ish beruvchilarga (budjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg‘armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ijtimoiy soliqni 1 foiz stavkada to‘lovchilar bundan mustasno) ular tomonidan 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to‘langan ijtimoiy soliq summasi Davlat budjetidan to‘liq qoplab beriladi.

Bunda, ijtimoiy soliq summasi yosh xodimlar olti oy davomida uzluksiz mehnat faoliyatini amalga oshirishi sharti bilan yettinchi oydan boshlab qoplab beriladi [2].

2. Belgilansinki, ish beruvchilarga ijtimoiy soliq summasining qoplab berilishi 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ajratiladigan transfertlar hisobidan amalga oshiriladi.

Yoshlar bandligini ta’minlash omillaridan biri ularni talab etilayotgan kasb bo‘yicha ixtisoslashtirishdir. Shu bois davlat dasturi loyihasida “Har bir tadbirkor – yoshlarga madadkor” tamoyili asosida ko‘ngilli tadbirkorlarni jalb etgan holda 1 nafar tadbirkorga 1 nafardan ishsiz yoshni biriktirish tashabbusini amalga oshirish vazifasi qayd etilgan. Shuningdek, “Yoshlar: 1+1” dasturi doirasida uyushmagan va ishsiz yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish, ularda biznes ko‘nikmalarini shakllantirish, imtiyozli kreditlar ajratish orqali o‘z faoliyatini boshlashga ko‘maklashish vazifalari belgilab olingan. Loyihada nazarda tutilgan mazkur vazifalarning to‘laqonli amaliyotga joriy etilishi natijasida yoshlarni arzon ishchi kuchi sifatida mehnat bozoriga kirib kelishining oldi olinib, bugungi kun talabiga javob beradigan raqobatdosh kadrlar bo‘lib yetishishiga erishiladi.

Inson resurslari qiymati mamlakatda ta’lim, sog‘liqni saqlash, qayta tayyorlash kabilar uchun investitsiyalar kiritish asosida katta daromad keltiradi. Ma’lumki, bilimli va malakali kishilar, bilimsiz va malakasizlarga qaraganda yaxshi mehnat daromadlariga ega bo‘lishadi. Shuningek, jismonan va ruhan sog‘lom kishilar nosog‘lom kishilarga qaraganda ancha samarali va jamiyatga foydaliroq hisoblanishadi.

Mamlakat iqtisodiyotining o‘sish sur’atlari va yuqori darajadagi iqtisodiy raqobatbardoshlikka mamlakatning barcha mavjud resurslaridan samarali foydalanish orqali erishiladi. Mavjud resurslardan foydalanishda kamida bitta resurs taqchilligi iqtisodiy o‘sishning pasayishiga, moliyaviy muammolarning yuzaga chiqishiga zamin yaratib, islohotlar natijadorligiga salbiy ta’sir etishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLIL

Resurslarni mavjudlik tasnifi jihatdan ikki turga bo‘lish mumkin: qayta tiklanuvchan va qayta tiklanmaydigan. Jahon olimlari har bir mamlakatdagi ushbu ikki turdagi resurslardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish mamlakat boyligini ortishiga, aholi farovonligi yuksalishiga olib kelishini ta’kidlashadi.

Xususan, Nobel mukofoti laureati Amartiya Sen tomonidan 1999 yilda e’lon qilingan “Development as freedom” asarida taraqqiyot jarayoni faqat moddiy va iqtisodiy farovonlik jihatidan emas, balki inson imkoniyatlarini kengaytirish jarayoni sifatida tahlil etilgan. Buni inson resurslarini rivojlantirish konsepsiyasini shakllantirishga qo‘shilgan ulkan hissa deb baholash mumkin.

A.Inegbenebor va A.Agbadudular esa tadqiqotlarida “boshqaruvdagi shaxslar, bo‘limlardan farqli o‘laroq, xodimlarning tashkiliy maqsadlarga erishish uchun samarali ishlatilishini ta’minlashga qaratilgan tadbirlarda qatnashashlari”ni [3] ta’kidlashadi.

G.VanaGopa-Nyavakan Miller va S.Spulmenlar ta’biri bilan aytganda “inson qarashlari nuqtayi nazaridan, tabiiy resurs – inson xohish-istaklari va ehtiyojlarini qondirish uchun atrof-muhitdan olingan har qanday narsadir” [4]. Aslida inson resurslari ham inson kapitalidan farqli o‘laroq, tabiiy resurs hisoblanadi.

Qariyb o‘n yil oldin N.Hunko o‘z ilmiy tadqiqotida “olimlarning ko‘plab ishlari moliyaviy, moddiy va nomoddiy va axborot resurslarini samarali boshqarishga bag‘ishlangan, ammo inson resurslaridan samarali foydalanish muammosi yetarlicha o‘rganilmagan” [5], degan xulosaga kelgan edi. So‘nggi o‘n yillik o‘zgarishlar ushbu xulosalarni butunlay o‘zgartirib yubordi.

Arizona davlat universiteti bosh ma’ruzachisi R.Kreitnerning fikricha, “inson resurslarini boshqarish umumiy maqsadlarga erishish uchun odamlarning ko‘nikmalari, iste’dodlari va ijodkorligidan foydalanishga qaratilgan tashkilot harakatlarining yig‘indisi sifatida qaraladi” [6]. Bu yerda tadqiqotchi inson resurslaridan foydalanishda uni boshqarish orqali amalga oshirilishiga alohida e’tibor qaratgan.

Fikrimizcha, so‘nggi yillarda har qanday shaxs mavqei u yashayotgan jamiyat tuzilmasining birgina elementi sifatida emas, balki vaqtlar o‘tib qayta tiklanmaydigan resurs birligi sifatida ko‘zga tashlana boshlandi. Bunga rus iqtisodchi olimlari o‘zlari tadqiqotlarida alohida urg‘u berishgan.

O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi Q.X. Abdurahmonov “inson resurslari o‘zida inson kapitaliga talab va uning taklifi hamda boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlarga egaligi sababli iqtisodiy munosabatlarning subyekti hisoblanadi”, deya uni subyektivlik jihatlariga e’tibor qaratgan holda inson resurslarining iqtisodiy texnik resurlarining boshqa turlaridan (moddiy, moliyaviy, axborot va hokazolar) farqli jihatlarini quyidagilar bilan izohlaydi:

Birinchidan, “inson intellektga ega, demak uning tashqi ta’sirga (boshqaruvga) munosabati mexanik tarzda emas, balki onglidir. Bu esa boshqaruv subyektlari va obyektlarining hamjihatligi ikki tomonlama ekanligini anglatadi.

Ikkinchidan, inson resurslari intellektga ega bo‘lganligi sababli odamlar muttasil ravishda rivojlanish va takomilashishga qodirlar. Bu esa har qanday alohida korxona yoki butun jamiyatning samaradorligini oshirishning eng muhim va uzoq muddatli manbayi hisoblanadi.

Uchinchidan, inson o‘z oldiga ongli ravishda muayyan maqsadlarni qo‘ygan holda faoliyatning aniq bir turini tanlaydi” [7].

Professor G.Q. Abdurahmonova “inson resurslari - bu insonlar rivojlanishining barcha bosqichlarida jismoniy, intellektual, ijodiy, psixologik salohiyat, chuqur bilimga egalik, tajriba, ko‘nikma, niyat va maqsadlar sohibi bo‘lgan odamlar guruhidir. Inson resurslari mamlakat aholisi tarkibida mehnat resurslarining yuzaga kelishi va shakllanishi jarayonida orttirilgan yoki orttiriladigan nazariy va amaliy bilimlari, kasbiy darajasi, malakasi, fiziologik, psixologik holatining xususiyatlarini qamrab olishi”ni [8] ta’kidlaydi.


Mehnat resurslari tarkibiga mehnatga layoqati mavjudligi sharti bilan iqtisodiyotda ish bilan band bo‘lganlar ham, band bo‘lmaganlar ham kiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, emperik, tasviriy statistik, guruhlashtirish, qiyoslash va dinamik tahlil tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA TADQIQOT NATIJALARI TAHLILI

Inson resurslaridan samarali foydlanish, o‘z navbatida, mamlakatdan mavjud boshqa resurslardan ham samarali foydalanishga imkoniyat yaratibgina qolmay, balki kelgusida inson kapitaliga ham natijador sarmoya kiritilishiga xizmat qiladi. Bunda ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, moliyaviy va iqtisodiy mexanizmlar faolligini oshirgan holda xususiy, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari hamda xalqaro tajribalarni milliy manfaatlar asosida amaliyotga qo‘llash bo‘yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm: O‘zbekiston Respublikasi aholi ish bilan bandligi holati, foizda [9]

O‘zbekiston Respublikasi aholi ish bilan bandligi holatini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2000-yilda aholining ish bilan bandlik holati 69,4% ni tashkil etib, 2004-yilda sezilarli darajada pasayish bo‘lganini ya’ni 67,5% ga tushib ketgani va 6 yil davomida, ya’ni 2004-yildan 2010-yilgacha o‘zgarisiz davom etib 2012-yilda 66,2% keskin tushishi, ishsizlikni oshishi 2017-yilga kelib bartaraf etildi va 69,2% aholi ish bilan bandligi belgilandi va 2020-yilga kelib ishsizlik pik holati qayd etldi, 66,0% tashkil etadi. 2022-yilda bandlik holati o‘sishni boshladi va 67,2%ni tashkil qildi.

Har bir davlatda aholining tabiiy harakati o‘rganib boriladi. Chunki aholining tabiiy harakati aholi takror barpo bo‘lishida muhim ahamiyatga egadir. Tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti O‘zbekiston Respublikasida 2011-yil 22 promilleni, 2021-yilda esa 24,6 promilleni tashkil qilganini ko‘rish mumkin.

Respublikada bozor munosabatlari shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sharoitlar o‘zgarishi aholi takror barpo bo‘lishining hududiy xususiyatlarida bir qator o‘zgarishlar bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar quyidagilarda aks etmoqda; ya’ni tug‘ilish keskin kamaydi, mamlakatdagi slavyan xalqlar, yahudiy, mesxeti turk, grek, ukrain, nemis va boshqa xalqlarning ma’lum qismi o‘z tarixiy yurtlari va boshqa xorijiy davlatlarga ko‘chib ketdi. Eng katta manfiy migratsiya saldosi 1990-yilda kuzatilib, 181,2 ming kishini tashkil etdi. Mazkur demografik jarayonlar O‘zbekiston aholisining o‘sish sur’atlarini qisqarishiga olib keldi.


1-jadval: Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soniga jami aholi soniga nisbatan ulushi [10]

Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O‘zbekiston Respublikasi	60,8	60,3	59,8	59,2	58,6	57,9	57,2
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	60,9	60,7	60,4	60,1	59,8	59,4	59,1
Andijon	61,1	60,5	59,9	59,2	58,4	57,5	56,7
Buxoro	61,9	61,4	61,0	60,3	59,6	59,0	58,3
Jizzax	59,8	59,4	59,0	58,5	57,8	57,2	56,5
Qashqadaryo	60,1	59,8	59,3	58,8	58,1	57,4	56,6
Navoiy	61,9	61,3	60,6	60,1	59,4	58,7	58,0
Namangan	61,6	61,0	60,5	59,8	59,0	58,2	57,3
Samarqand	59,8	59,3	58,7	58,1	57,4	56,7	56,1
Surxondaryo	60,3	59,9	59,4	58,8	58,1	57,3	56,5
Sirdaryo	61,7	61,4	61,1	60,7	60,1	59,5	59,0
Toshkent	60,7	60,2	59,7	59,1	58,7	57,9	57,2
Farg‘ona	61,3	60,8	60,2	59,5	58,8	58,1	57,3
Xorazm	61,1	60,9	60,6	60,2	59,8	59,4	59,1
Toshkent shahri	59,9	59,3	58,7	58,1	57,4	57,4	57,1

Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soniga jami aholi sonidagi jadvalni tahlil qiladigan bo‘lsak 7 yillikning hisoboti berilgan bo‘lib O‘zbekiston Respublikasida 2016-yilda jami mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soniga 60,8% ni tashkil qilgan va 2019-yilga kelib 59,2% ga pasayganini ko‘rishimiz mumkin, 2022-yilga kelib mehnatga layoqatli yoshdagi aholining sonini kamayganini ko‘rishimiz mumkin. Buning asosiy sabablaridan COVID-19 deb ham misol keltirsak bo‘ladi. Eetti yillikning solishtirmasini oladiga bo‘lsak, 2016-yilda 12 ta viloyatdagi mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonini ko‘radigan bo‘lsak, eng past ko‘rsatkichlarni Jizzax, Samarqand, Toshkent shahri qayd etgan. Eng yuqori ko‘rsatkichlar esa Navoiy, Buxoro, Namangandir. Bu yerda eng past ko‘rsatkich, deb 59,8% olingan. Eng yuqori ko‘rsatkich esa 61,1% tashkil etmoqda. 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkichlar yanada pasaygan. 2022-yildagi eng past ko‘rsatkich Samarqand viloyatida 56,1% ni, Jizzax viloyati 56,5% ni, Surxandaryo viloyati 56,5% ni tashkil etmoqda. Bu ko‘rsatkichlardan ko‘rishimiz mumkinki 7 yil mobaynida mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonini sezilarli darajada kamayganini.



2-rasm: Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soniga jami aholi soniga nisbatan ulushi [11]



3-rasm: Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soniga Toshkent aholisi soniga nisbatan ulushi [12]

Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soniga Toshkent aholisi sonidagi diagrammasini tahlil qiladigan bo‘lsak, shuni ko‘rishimiz mumkinki, 2016-yilda aholining mehnatga layoqatlilik darajasi 59,8% ni tashkil etgan, 3 yildan so‘ng diagrammada ko‘rsatilganidek 2019-yilda 58,9% ni tashkil etmoqda, 2022-yilga kelib 57,8% ni tashkil etib eng past ko‘rsatkichni ko‘rsatmoqda.

Hozirgi vaqtda yoshlarni qo‘llab-quvatlash hamda bandligini oshirish maqsadida tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun qator imkoniyatlar taqdim etilmoqda. Ulardan biri – bu yoshlarning investitsion tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish uchun taqdim etilayotgan imtiyozli kreditlar. Demak, ushbu kreditlar aynan qaysi loyihalar uchun va qanday shartlar asosida taqdim etilishini quyida ko‘rib chiqamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5088-sonli qaroriga muvofiq, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari hamda Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etiladi [13]. Ushbu Sanoat zonalarida “startaplar” tashkil etish, yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlashi va yuritishlari, shu jumladan, innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish va natijalarini tijoratlashtirish, yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiya aloqalarini o‘rnatish uchun barcha sharoitlar ta’minlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagilarni ulosa keltirishimiz mumkin:

- qo‘shimcha qiymat yaratish. Kadrlarsiz faoliyat jarayonini amalga oshirish mumkin emas. Ayrim xomashyoning tayyor mahsulotga aylanishiga yollanma ishchilarning jismoniy va aqliy mehnati sabab bo‘ladi. Xodimlar xizmat ko‘rsatish jarayonida yanada muhimroq rol o‘ynaydi, chunki ularni ishchilarning o‘zidan ajratib bo‘lmaydi;
- xodimlarning faol roli. Kompaniyaning xodimlari uning mablag‘lari bilan bir xil statik resurslar emas. Muayyan vaziyatdan kelib chiqib, ular ish taklifini rad etishlari, yaxshi ish sharoitlarini talab qilishlari va hatto ishdan bo‘shatishlari mumkin. Bundan tashqari, ko‘plab omillar ma’lum bir kunda ishchilarning unumdorligiga ta’sir qiladi;
- har qanday ishlab chiqarish subyektining asosiy va aylanma fondlarini ishlatish samaradorligi darajasi xodimlarning malakasiga bog‘liq. Har qanday korxonada inson resurslari qanchalik ko‘p tajriba va bilimga ega bo‘lsa, ularning ishi shunchalik yaxshi bo‘ladi. Boshqa hech qanday resurs korxonaning yakuniy natijasiga bunday kuchli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Inson resurslaridan samarali foydalanishda maksimal natijalarga erishish uchun bularning barchasini hisobga olish kerak.

Mamlakatda inson resurslaridan samarali foydalanish mehnat samaradorligiga ijobiy ta’sir etadi. Mehnat bozorida inson resurslaridan samarali foydalanish kadrlar siyosatining samaradorligi haqida gapirishdan oldin, inson resurslarini o‘zini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi / URL:https://constitution.uz/uz
2. https://lex.uz/docs/4880189?ONDATE=13.06.2023[1].
3. https://president.uz/uz/lists/view/6219[2].
4. O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 28-aprelda qabul qilingan va Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan. URL:https://lex.uz/docs/142859
5. WanaGopa – Nyawakan Miller, G.T. & S. Spoolman (2011). Living in the Environment: Principles, Connections, and Solutions (17th ed.). Belmont, CA: Brooks-Cole. ISBN 978-0-538-73534-6.
6. Nataliia Hunko, Factors Influencing the Formation of Human Resources, Economics & Sociology, Vol. 6, No 2, 2013, pp. 65-72. DOI: 10.14254/2071- 789X.2013/6-2/6
7. Kreitner, R. (2007) Principles of Management (11th Edition) Published by Nelson Educational Limited, Canada. p.115[3].
8. Inegbenebor, A.U and Agbadudu, A.B. (1995) Introduction to Business: A Functional Approach. Uri Publishing Ltd., 27 Sokponba Road, Benin City, Nigeria. [4].
9. Abdurakhmanov K. Labour Economics. Theory and practice. Scientific Publishing House IVG. 2020 by GB Global Business LTD in London, United Kingdom. 2020. 615 p.
10. Абдураҳмонов Қ.Х.. Меҳнат иқтисодиёти: Назария ва амалиёт. Дарслик. –Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Fan” нашриёти давлат корхонаси, 2019. 592б. 180-бет. [5].
11. Abdurakhmanov K. Ekonomi Ketenagakerjaan. Teori dan praktik: buku tesk:/ K.Kh.Abdurakhmanov. Penerbit Gun-adarma. Jakarta, Republik Indonesia, 2020. 700.
12. Abdurahmonova G.Q. Inson resurslarni boshqarish. Darslik. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2021. – 696 b. 18-bet. [6].
13. Mualliflik ishlanmasi. [7].
14. Abulqosimov H.P., Ashurova M.X. Mehnat resurslari va ulardan unumli foydalanish yo‘llari // Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi, 2015, 11-son, 52-57-betlar. [8].
15. Abdurahmonov Q.X.. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. Darslik. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2019. 592b.
16. Abdurahmonov Q.X. Inson taraqqiyoti. Darslik. –T.: Fan va texnologiya, 2013. -26 - 288 b.
17. Кириллов Л. Как заставить сотрудников “гореть на работе” // Управление персоналом. – 2010. - №6. – С. 26-31. [9].
18. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2[10].
19. В.Н., Квачев В.Г., Колмаков И.Б. Неустойчивая занятость в Российской Федерации: теория и методология выявления, оценивание и вектор. – М.: Кнорус, 2019 г. – 342 с.
20. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2.
21. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2[11].
22. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2[12].
23. https://finlit.uz/oz/articles/remote-banking/new-youth-business/[13].
24. Былков В.Г. Рынок труда и развитие занятости населения + Е-Приложение. (Бакалавриат). Учебник. –М.: “Кнорус”, 2019 г. – 290 с.
25. http://www.mehnat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy sayti.
26. http://www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat Statistika agentligining rasmiy sayti.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



SANOAT KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHGA DOIR USLUBIY YONDASHUVLAR

Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna
Farg‘ona politexnika instituti Menejment kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Maqolada sanoat korxonalari faoliyatining samaradorligi, barqarorligi hamda raqobatbardoshligini baholash bo‘yicha uslubiy yondoshuvlar yoritib berilgan. Sanoat korxonalarining samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasini baholash uchun turli ko‘rsatkichlar to‘plami tavsiflangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqobatbardoshlik darajasini baholashda kompleks yondashuvdan foydalanish korxonaning istiqbolini belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: sanoat korxonalari, faoliyat samaradorligi, strategik boshqaruv, tahlil usullari, elementlar, barqarorlik, raqobatbardoshlik.

Abstract: The article highlights methodological approaches to assessing the efficiency, sustainability and competitiveness of industrial enterprises. A set of various indicators for assessing the level of efficiency and competitiveness of industrial enterprises is described. Based on the results of the study, it was determined that the use of an integrated approach to assessing the level of competitiveness is important in determining the prospects of an enterprise.

Key words: industrial enterprises, operational efficiency, strategic management, methods of analysis, elements, sustainability, competitiveness.

Аннотация: В статье освещены методические подходы к оценке эффективности, устойчивости и конкурентоспособности промышленных предприятий. Описан набор различных показателей для оценки уровня эффективности и конкурентоспособности промышленных предприятий. По результатам исследования определено, что использование комплексного подхода к оценке уровня конкурентоспособности имеет важное значение при определении перспективности предприятия.

Ключевые слова: промышленные предприятия, эффективность деятельности, стратегическое управление, методы анализа, элементы, устойчивость, конкурентоспособность.

KIRISH

Sanoat korxonalarining faoliyat samaradorligini, barqarorligini va raqobatbardoshligini baholash metodologiyasi korxonalarni innovatsion rivojlantirishning eng samarali va oqilona strategiyalarini tanlash imkoniyatini yaratib beradi. Biroq, bu borada olib borilgan keng fundamental va amaliy tadqiqotlar bazasiga qaramay moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanishning ijtimoiy ahamiyatli sohasi sifatida iqtisodiy faoliyat amaliyoti haligacha ilmiy jihatdan bir xil yagona yondoshuvga ega emas. Ushbu jihatlarni baholashning asoslangan usullari ishlab chiqarish faoliyatining natijaviy ko‘rsatkichlarida ifodalanib, tashqi va ichki omillar ta’siriga bog‘liqdir [9].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalarining barqarorligi va raqobatbardoshligini baholash juda murakkab muammodir, chunki raqobatbardoshlik darajasi korxonaning tashqi va ichki muhitining ko‘plab omillari ta’siri ostida shakllanadi. Bu muammoni I.N.Gerchikov, E.T.Grebneva, V.T.Denisova va T.A.Sergiyenko, V.A.Dines va V.M.Larina kabi iqtisodchi olimlar uslubiy jihatlarini o‘rganganlar. Ammo hozirgi vaqtga qadar korxonaning raqobatbardoshligini baholashning umumiy qabul qilingan usuli yo‘q. Qoida tariqasida, yirik kompaniyalar mustaqil ravishda bozordagi raqobatbardosh pozitsiyalarini baholashga imkon beradigan metodologiyani ishlab chiqadilar, ammo bu metodologiyaning mohiyati va uni qo‘llash samaradorligi, qoida tariqasida, oshkor etilmaydi. Umuman olganda, tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini baholashga yondashuvlarning xilma-xilligi, birinchi navbatda, raqobatbardoshlik toifasining o‘zining murakkabligi va ko‘p qirraliligi bilan bog‘liq.

M.Porter, R.A.Fatxutdinov, J.Xart kabi olimlar turli xil yondashuvlar asosida mahsulot raqobatbardoshligi xususiyatlarini aniqlash imkonini beradigan keng qamrovli raqobatbardoshlik konsepsiyasini shakllantirganlar.

Shuningdek, strategik rivojlanish masalalari R.Akoff, O.S.Vixanskiy, R.F.Garifullin, R.Grant, R.S.Greyenberg, P.Doyl, G.B.Kleyner, G.Minsberg, A.Striklend, A.Tompson, A.Chandler kabi xorijiy olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, tarkibiy tahlil, statistik tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullar qo‘llanilgan. Maqolaning uslubiy asosi sifatida xorijiy va milliy iqtisodchi olimlarning adabiyot va maqolalari tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat korxonalarining ishlash samaradorligi, barqarorligi, raqobatbardoshligini rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash faoliyat ko‘rsatish sharoitlarini tahlil qilish va ularni baholashga imkon beruvchi mezonlarni ishlab chiqish talab etiladi. Korxonalar samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari ichki va tashqi muhitda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni maksimal darajada hisobga olishni taqozo etadi.

Yuqoridagilar bilan bog‘liq holda, “ishlab chiqarish tizimining samaradorligi” tushunchasi sanoat korxonasini raqobat muhitida ishlab chiqarish jarayonlari xarajatlarini minimallashtirish orqali maqsadlarga erishishni ta’minlaydigan faoliyat samaradorligi sifatida ko‘rib chiqilishi lozim. Binobarin, korxonaning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish va baholash metodologiyasini ishlab chiqish fan-texnika taraqqiyoti talablarini e’tiborga olgan holda ishlab chiqarishni takomillashtirish va uni boshqarishning asosi sifatida xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy parametrlari va mehnat sharoitlariga ta’sir etuvchi omillar sanoat korxonasini rivojlantirishning samarali usullarini rejalashtirish va tanlashning asosi hisoblanadi. Ishlab chiqarish tizimi samaradorligi bevosita texnologiyaga, texnik jihozlarga, axborot xavfsizligiga, xodimlarning malakasiga, tizimni tashkil etish va boshqarish darajasiga bog‘liqdir.

Ishlab chiqarishning asosiy parametrlaridan biri iqtisodiy samaradorlikka aylanadi [18]. Samaradorlik tushunchasi faoliyatning ko‘plab sohalarida turli ko‘rinishlarda qo‘llaniladi. Iqtisodiyotda samaradorlikni aniqlash uchun ko‘plab formulalar bo‘lib, u turli ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Asosan samaradorlikni baholash rejalashtirilgan yoki olingan natija (yoki samara) va uni olish uchun sarflangan xarajatlar nisbati sifatida hisoblanishi taklif etiladi [17]. Iqtisodiy nuqtayi nazaridan samaradorlikni bunday baholash bir qator kamchiliklarga ega [8]:

- o‘z vaqtida va natijalarni olish zarurati e’tiborga olinmaydi;
- samaradorlikka erishish shartlari aniqlanmaydi, mos ravishda jarayonni boshqarish bo‘yicha savol tug‘iladi;
- natijalarni olish uchun zarur bo‘lgan barcha omillar hisobga olinmaydi;
- korxona faoliyatini baholashda qanday resurslar va ta’sirlarni hisobga olish kerakligi haqida aniq ta’rif bo‘lmaydi;
- o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlarning o‘lchamlari mos kelishi kerak.

Tadqiqot doirasida samaradorlik mohiyatini ochib berish maqsadida tizimli yondashuv qo‘llanildi. Bunda quyidagi elementlar hisobga olinadi:

- ichki tizim sifatida tashkil topgan va ular orasidagi aloqalar;
- tashqi, tashqi muhitning tizim elementlariga ta’sirini tavsiflovchi.

Korxonaning strategik salohiyatidan foydalanish darajasining salohiyatga nisbati orqali samaradorlikni baholash I.Ansoff, I.P.Otenko, A.E.Voronkovaning [7] tadqiqotlarida aks etgan. Bunda samaradorlik deganda, mavjud resurslardan maksimal darajada foydalanish bilan erishish mumkin bo‘lgan rejalashtirilgan natijaga muvofiqlik darajasi tushuniladi.

Korxonalar samaradorligini baholash sohasidagi boshqaruv modellarining xususiyatlari quyidagilar:

D. Norton va R. Kaplan tomonidan ishlab chiqilgan Balanced Scorecard System (BSC) korxonani strategik boshqarish va uning samaradorligini baholash tizimini ifodalaydi [11]. BSC maqsad va vazifalarni sabab-oqibat munosabatlariga asoslangan ko‘rsatkichlar tizimida aks ettiradi. Model moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlarni hisobga oladi, ichki biznes jarayonlarini, shu jumladan, xodimlarni rivojlantirish bilan bog‘liq jarayonlarni mijozlar bilan tashqi aloqalarni ko‘rib chiqadi;


B.Styuart va D.Sternning qo‘shilgan iqtisodiy qiymat modeli Economic Value Add (EVA) [14]. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishning asosiy mezoni sifatida aksiyadorlar investitsiyalarining qo‘shilgan qiymati ko‘rsatkichi qo‘llaniladi. Ushbu tizimni joriy etish natijalari (4M) ko‘rsatkichlari: o‘lchov (measurement), boshqaruv tizimi (management system), motivatsiya (motivation), fikrlash uslubi (mindset) sanaladi;

Lorens Meysel modeli - muvozanatli ko‘rsatkichlar tizimi (BSC -modeli) [1]. Ushbu model 1992-yilda ishlab chiqilgan. Unda quyidagi parametrlar ko‘rsatilgan: ichki faoliyat, inson resurslari istiqbollari, mijozlar bilan munosabatlar, moliyaviy xavfsizlik. Model xodimlarning samaradorligini baholashga qaratilgan;

K.Adams va P.Roberts tomonidan yaratilgan Effective Progress and Performance Measurement (EP2M) – Samarali taraqqiyot va samaradorlikni o‘lchash modeli [10]. K.Adams va P. Roberts 1993-yilda ushbu modelni taklif qilishdi. Mazkur modelga ko‘ra, joriy faoliyatning samaradorligi, strategik o‘zgarishlar ehtimoli, shuningdek, bozordagi pozitsiyasini tahlil qilish muhim.

K.MakNeyr, R.Lanch va K.Krossning samaradorlik piramidasi [10]. Model sifat menejmenti, sanoat muhandisligi, odamlar faoliyatini baholash tushunchalariga asoslanadi. Samaradorlik moliyaviy ko‘rsatkichlar va bozorni qamrab olish bilan belgilanadi.

Korxonani innovatsion rivojlantirish muammosi bilan birgalikda faoliyat samaradorligini baholash doimo dolzarb masala hisoblangan [15]. 1-rasmda korxona samaradorligini baholashning asosiy modellari keltirilgan.



1-rasm: Korxonalar faoliyati samaradorligini baholashning asosiy modellari (muallif tomonidan umumlashtirilgan)

Ushbu modellarni tahlil qilish iqtisodiy-matematik usullar sanoat korxonalari faoliyati samaradorligini baholashning asosi sanaladi, deya xulosaga kelishga imkon beradi.

V.V.Fedoseyeva va I.V.Orlova asarlarida iqtisodiy va matematik usullarning tasnifi taklif qilingan [19]:

- matematik statistika, shu jumladan, korrelyatsiya, regressiya dispersiyasi va omillar tahlili;
- iqtisodiyotdagi operatsiyalarni navbat nazariyasi, dastur-maqsad, tarmoq usullari, o‘yin nazariyasi, tarmoqlar va chegaralar metodlari orqali o‘rganish;
- ishbilarmonlik o‘yinlari, mashina imitatsiyasi va boshqalarni o‘tkazish orqali tajriba.

V.V.Kovalevning fikricha, korxonalarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish rasmiylashtirilgan va rasmiylashtirilmagan usullardan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin [12]. Birinchi guruh qat’iy rasmiylashtirilgan analitik ko‘rsatkichlar va bog‘liqliklardan foydalanadi, bunda stoxastik modellashtirish vositalari, moliyaviy hisoblash usullari, qarorlar nazariyasi va boshqalar qo‘llaniladi. Ikkinchi guruh analitik taomillarni mantiqiy darajada taqdim etishga asoslangan.

Korxona faoliyati samaradorligini baholashning mavjud klassik usullari standart qiymatlar bilan solishtirganda parametrlar va koeffitsiyentlarni aniqlashga asoslangan. Bu usullar miqdoriy va sifatga bo‘linadi. Korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini (moliyaviy barqarorlik, likvidlik, rentabellik, tadbirkorlik faolligi) tahlil qilishda miqdoriy usullar amaliyotda keng qo‘llaniladi.

Kompleks baholash tizimlari korxonaning umumiy holatini tavsiflovchi xususiy ko‘rsatkichlar asosida qurilgan. Bunday baholash uchun modellar E.Altman [2], R.Taffler va G.Tishou [16], A.F.Kryukov va I.S.Yegorichevlarning [13] tadqiqotlarida keltirilgan. Mazkur tadqiqotlarni tahlil qilib, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, korxona samaradorligini miqdoriy usullardan foydalangan holda baholash moliyaviy ko‘rsatkichlarni hisoblash, ularni me’yorlar bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi.


Bizningcha, korxonalar faoliyatining barqarorligini oshirish jarayonlari ishlab chiqarish hamkorlari samaradorligini rivojlantirishga, ularning umumiy barqarorligini oshirishga va har bir korxonaning individualligiga bog‘liq.

Barqarorlikni tahlil qilishda korxonaning kechiktirilgan to‘lovlari yoki qarzlari ko‘pincha kumulyativ xususiyatga ega ekanligini hisobga olish kerak. Shuningdek, korxona barqarorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar majmuasini shakllantirishda muhimlik va maqsadga muvofiqlik mezonlariga rioya qilish talab etiladi. Ko‘pgina mualliflar moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini baholash uchun bir qator ko‘rsatkichlar bilan cheklanadi [4].

Ushbu ko‘rsatkichlar korxona barqarorligini baholash uchun ishlatiladigan o‘ziga xos tizimni ifodalaydi. Biroq tizim tahlili nuqtayi nazaridan korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati barqarorligi kengroq ko‘rib chiqilishi kerak. Bir jihatdan moliyaviy barqarorlik nafaqat korxonaning mavjud qarzlarining, balki barcha to‘lovlarning to‘lov qobiliyatini aniqlashi kerak.

Moliyaviy ko‘rsatkichlar korxonaning barcha faoliyatini qamrab olishi kerak, bu esa balansning likvidlik ko‘rsatkichini (likvidli mablag‘larning tengligi va korxonaning qisqa muddatli qarzlari miqdori) hisoblashni talab qiladi. Korxonani modernizatsiya qilish va qayta qurish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda real kapitalning harakatchanligini hisoblash kerak [5].

Fikrimizcha sanoat korxonalari faoliyati samaradorligini baholash usullarini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq (2-rasm).



2-rasm: Sanoat korxonalari faoliyati samaradorligini baholash usullarining tasnifi (muallif tomonidan umumlashtirilgan)

Korxona raqobatbardoshligini baholashga kelsak, shuni ta’kidlaymizki, hozirgi vaqtda uni baholashning universal, keng qamrovli va umume’tirof etilgan metodologiyasi ishlab chiqilmagan. Shu bilan birga, ushbu baholash zarurati korxonani innovatsion rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning zaruriy shartidir.


Korxonaning raqobatbardoshligi quyidagi maqsadlarda baholanadi [6]:

- iqtisodiy faoliyat samaradorligini aniqlash;
- bozorda hamkorlarni tanlash;
- yangi bozorlarga chiqish rejasini shakllantirish;
- investitsiya va innovatsion siyosatni ishlab chiqish.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Raqobatbardoshlikni baholashdan maqsad korxonaning tahlil qilinayotgan bozordagi mavqeyini aniqlashdan iborat.

Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullarini tahlil qilingach, biz tomondan korxona raqobatbardoshligini baholashning kompleks metodologiyasi taklif etildi (3-rasm).



3-rasm: Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini baholashning kompleks metodologiyasi (muallif ishlanmasi)

Sanoat korxonasi samaradorligi, barqarorligi va raqobatbardoshligini baholashning muhim elementi uning biznes loyihalarini amalga oshirish samaradorligini aniqlashdir. Ko‘pgina tadqiqotlarda loyihaning texnik-iqtisodiy parametrlarini baholashda asosiy yondashuvlar statistik (PP, ARR) va dinamik (NPV, PI, IRR, DPP) usullardir [3]. Ushbu yondashuvlar investitsion jozibadorlikni tahlil qilishda moliyaviy koeffitsiyentlardan foydalanishga asoslangan.

Vositalar to‘plamida baholash ko‘rsatkichlari alohida-alohida ishlab chiqilgan. Baholash metodologiyasining asosiy qismi korxonaning xo‘jalik faoliyatini, uning resurs bazasini tahlil qilishdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mavjud yondashuvlarning tasnifini ko‘rib chiqib, hozirda juda ko‘p turli xil usullar ishlab chiqilganligini ta’kidlash mumkin. Yondashuvlarning xilma-xilligi mavjud ko‘plab tasniflarni aks ettiradi: faoliyat ko‘rsatayotgan bozorga ko‘ra, nazariy mazmuniga ko‘ra, olingan va aks ettirilgan natijalar shakliga ko‘ra, foydalanilgan matematik apparatga ko‘ra va hokazo.

Bozor sharoitida samaradorlik natijalar va xarajatlar nisbati sifatida ko‘rib chiqilganligi sababli, raqobatbardoshlik resurslarning optimal qiymatida maksimal foyda olishga qaratiladi. Shuningdek, raqobatbardoshlik raqobatchilarga nisbatan korxona resurslaridan foydalanish samaradorligini aks ettiradi.

Raqobatbardoshlik mazmunini tahlil qilish natijasida, raqobatbardoshlikning ikkita manbayi mavjudligin ko‘rish mumkin: operatsion samaradorlik va strategik joylashish. Bundan iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini tavsiflash, uning operatsion samaradorligi va strategik joylashuvini baholashgacha kamaytirish mumkinligi ma’lum bo‘ladi. Ushbu baholash ko‘rib chiqilayotgan korxona va raqobatchilarning ma’lum ko‘rsatkichlarini solishtirish orqali amalga oshiriladi.

Shunday tarzda, korxona faoliyatini baholashning iqtisodiy va statistik usullari tahlil qilinayotgan obyektlarning beqarorlashtiruvchi omillarni hisobga olgan holda ularning xususiyatlari orqali namoyon bo‘lishi va tuzilishini aks ettiradi.

Amalga oshirilayotgan samaradorlikni baholash vositalarini takomillashtirish bo‘yicha taklif etilayotgan yo‘nalishlar baholash tartib-qoidalari va loyiha samaradorligi ko‘rsatkichlarini birlashtirish imkonini beradi. Sanoat korxonalari faoliyatini baholash ishlab chiqarish faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, olingan natijalar asosida asosli va muvozanatli qarorlar qabul qilish, korxonalar foydasini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. BSC и EVA – конкуренты или союзники. – URL: http://www.iteam.ru/publications/strategy/section_27/article_1197. – Text: electronic.
2. Z-модель Альтмана. – URL: http://economicportal.ru/ponyatiyaall/altman_z_model.html.
3. Абакумова, К.Н. Инновационная политика как способ поддержания конкурентоспособности и развития / К.Н. Абакумова// Инновации и инвестиции. – 2017. – № 3. – С. 18–21.
4. Абрютин, М.С. Анализ финансово-экономической деятельности предприятия / М.С. Абрютин, А.В. Грачев. – Москва: Дело и Сервис, 1998.
5. Yuldasheva Nilufar Abduvakhidovna. (2022). Classification of innovative strategies of industrial enterprises. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(06), 239–242. Retrieved from http://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/699
6. Белоусов, В.Л. Анализ конкурентоспособности фирмы / В.Л. Белоусов // Маркетинг в России и за рубежом. – 2001. – № 5 (25).
7. Воронкова, А.Э. Стратегическое управление конкурентоспособным потенциалом предприятия: диагностика и организация: монография / А.Э. Воронкова. – Луганск: ВНУ, 2000. – 316 с.
8. Гонтарева, И.В. Семантические аспекты системной эффективности предприятия / И.В. Гонтарева // Формування ринкової економіки: зб. наук. праць. Ч. 1. КНЕУ, спец. Вип. Економіка підприємства: теорія і практика. – 2008. – С. 119–126.
9. Дистергефт Л.В. Результативность, эффективность, производительность, или Что необходимо измерять предприятию // Методы менеджмента качества. – 2015. – № 6. – С. 24–29.
10. Ивлев, В. Balanced Scorecard – альтернативные модели / В. Ивлев, Т. Попова // Банки и технологии. – 2002. – № 4. – С. 28–29.
11. Каплан, Р.С. Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию: пер. с англ. / Р.С. Каплан, Д.П. Нортон. – Москва: ЗАО "Олимп-Бизнес", 2003, – 214 с.
12. Ковалев, В.В. Финансовый анализ: методы и процедуры / В.В. Ковалев. – Москва: Финансы и статистика, 2006. – 560 с.
13. Крюков, А.Ф. Анализ методик прогнозирования кризисной ситуации коммерческих организаций с использованием финансовых индикаторов / А.Ф. Крюков, И.Г. Егорычев // Менеджмент в России и за рубежом. – 2001. – № 2. – URL: http://www.cfin.ru/press/management/2001- 2/krukov.shtml.
14. Макаренко, М.В. Системы показателей, модели и подходы к оценке деятельности предприятия / М.В. Макаренко, И.И. Малова. – URL: http://www.edit.muh.ru/content/mag/trudy/12_2008/04.pdf.
15. Юлдашева Н. (2022). Особенности управления стратегией инновационного развития на предприятиях. Экономика и образование, 23(2), 129–135. извлечено от https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/443
16. Прогнозирование вероятности банкротства на основе модели Таффлера. – URL: http://afdanalyse.ru/publ/finansovyj_analiz/1/bankrot_tafler/ 13-1-0-37.
17. Разу, М.Л. Управление программами и проектами: 17 модульная программа для менеджеров "Управление развитием организаций" Модуль 8 / М.Л. Разу, В.И. Воропаев, Ю.В. Якутин, З.П. Гальперина [и др.]. – Москва: ИНФРА-М, 2000. – 320 с.
18. Садовникова, Н.А. Статистическая оценка эффективности деятельности строительных организации: проблемы методологии / Н.А. Садовникова. – Москва: МЭСИ, 2002.
19. Федосеев, В.В. Экономико-математические методы и прикладные модели: учеб. пособие для вузов / В.В. Федосеев, А.Н. Гармаш, И.В. Орлова [и др.]. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. – 327 с.

AMIR TEMUR DAVRIDA HUNARMANDCHILIK SIYOSATINING O‘ZIGA XOS IQTISODIY XUSUSIYATLARI

Zikrillayev Jaxongir Sarvar o‘g‘li
UrGEU va TDIU qo‘shma ta'lim Rakamli iqdisodiyot fakulteti
1-kurs talabasi
ilmiy rahbar: Nasimov Baxtiyor Vasiyevich
Xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikdagi
xalqaro qo‘shma ta’lim dasuri bo‘limi boshlig‘i, PhD

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda muallif Amir Temur va uning hunarmandchilikni rivojlantirish borasida olib borgan iqtisodiy siyosatining o‘ziga xos xususiyatlarini bugungi kun nuqtaні nazaridan baholab, tahlil qilishga harakat qilgan. Bunda ushbu mavzu doirasidagi mavjud manbalarni davr va makon jihatdan mazmuni va yozilish uslubiga ya’ni, ilmiy-tarixiy hamda ishonchliligiga qarab ajratib, guruhlab olgan, shuningdek, tahlil va sintez hamda tarixiylik usullariga murojaat qilgan.

Kalit so‘zlar: XIV-XV asrlar, Movarounnahr, Amir Temur, Samarqand, hunarmand, hunarmandchilik turlari, ishlab chiqarish, savdo munosabatlari.

Abstract: In this study, the author analyzed the features of economic policy for the development of Amir Temur’s crafts from today’s point of view. At the same time, he divided and grouped the available sources on this topic in terms of time and space, content and way of writing, i.e. scientific and historical and reliable, as well as the use of methods of analysis and synthesis.

Key words: XIV-XV centuries, Movarounnahr, Amir Temur, Samarkand, craftsman, types of handicrafts, production, trade relations.

Аннотация: В данном исследовании автор проанализировал особенности экономической политики по развитию ремесел Амира Темура с сегодняшней точки зрения. В то же время он разделил и сгруппировал доступные источники по этой теме с точки зрения времени и пространства, содержания и способа написания, т.е. научно-исторического и достоверного, а также использования методов анализа и синтеза.

Ключевые слова: XIV-XV вв., Мовароуннахр, Амир Темур, Самарканд, ремесленник, виды ремесел, производство, торговые отношения.

KIRISH

Bugungi globallashuv va yuksak texnologiyalar davrida hunarmandchilikka shunchaki o‘tmish yodgorligi sifatida qaramay, uning tarixiy asoslarini o‘rganish, davlat va jamiyat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlash dolzarb masalalardan biri hisoblanib, xalqaro doirada bu masalaga nazariy va amaliy jihatdan yondashuv tubdan o‘zgarmoqda. Jahon hunarmandlar kengashi (World Craft Council) hamda uning Yevropa, Osiyo, Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi va Afrika mintaqalari bo‘yicha kengashlari dunyo bo‘ylab hunarmandlar va tashkilotlarni o‘zaro birlashtirib, ularda hunarmandchilik, hunarmandchilik qadriyatlarini tiklash va targ‘ib qilishda YUNESKO bilan hamkorlikda faoliyat olib bormoqda. Ta’kidlash kerakki, rivojlangan mamlakatlarda ko‘plab yoshlar inqirozlardan keyin noyob daromad manbayi sifatida hunarmandchilikka murojaat qilishmoqda.


Mamlakatimiz ham milliy hunarmandchilik va uni rivojlantirish bo‘yicha yuksak salohiyatga ega bo‘lib, milliy-tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan hunarmandchilik turlarini saqlash, qayta tiklash, shuningdek, salohiyatli yoshlarni ko‘proq jalb qilib, nafaqat bu sohaning davomchilarini shakllantirish balki, aholi bandligini ham ta’minlashda o‘zini oqlagan boy tarixiy tajribalardan foydalanishni davr taqozo qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: "… Bu haqda so‘z yuritganda, aytish lozimki, biz ulug‘ bobolarimizning munosib davomchilari bo‘ladigan yetuk insonlarni tarbiyalash masalasiga, afsuski, yetarlicha ahamiyat bermadik. Holbuki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo‘q. Rivojlangan mamlakatlar bugungi yuksak taraqqiyot darajasiga aynan shuning hisobidan yetgani – bu ham haqiqat”.

Bugungi kunga qadar iqtisodchi olimlar tomonidan yurtimizda turli tarixiy bosqichlarda davlatni boshqargan hukmronlar, xususan Amir Temurning hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish borasidagi olib borgan iqtisodiy siyosati alohida tadqiqot sifatida ko‘rib chiqish, uning hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash borasidagi olib borgan islohotlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish zaruriyati dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo bo‘ylab mashhur bo‘lgan hamda sayyohlar e’tiborini tortayotgan hunarmandchilik faoliyatining turli xil o‘ziga xos yo‘nalishlarining shakllanishi va rivoj topishida boy tariximizning o‘rni beqiyos. O‘zbekiston xalqlari o‘zlarining hunarmandchilik san’ati tarixida yirik bosqichlarni bosib o‘tgan bo‘lib, har bir bosqich o‘zining mintaqaviy xususiyatlari bilan farqlanadi. Shu bilan birga, mahalliy an’analarning yangi asoslarda, qo‘shilish va uyg‘unlashuv uslublarida taraqqiy etganligi kuzatiladi. Xususan, XIV-XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrida markaziy hokimiyatning ma’lum darajada barqarorligi, shubhasiz, mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutgan hunarmandchilik munosabatlarining rivojlanishi uchun keng yo‘l ochib bergan.

Amir Temurning davlat boshlig‘i sifatida saltanatning iqtisodiy taraqqiyotida tutgan o‘rni, ayniqsa hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishda olib borgan iqtisodiy siyosati shu kungacha alohida mavzu sifatida iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilmagan. Lekin, mazkur masalada uning zamondoshlari bilan birga ijtimoiy fanlar doirasida dunyoning yetakchi xorijiy va mahalliy yozuvchi hamda olimlari o‘z asarlarida qisman bo‘lsada to‘xtalib o‘tganlar (1-rasm).



1-rasm: Mavzuga doir ilmiy-tarixiy manbalar mualliflarining davr va makon jihatdan guruhlanishi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘z o‘rnida davriy jihatdan guruhlangan ilmiy-tarixiy asarlar, tadqiqotlarni makon va yozilish uslubi va janri jihatdan guruhlab tahlil qilish, turli xil qarashlarni farqlash hamda tadqiqot uchun yordam beruvchi manbalarni ajratib olishga hamda bu doirada tadqiqot olib boruvchilarga ahamiyatli darajada yordam beradi.

Amir Temur davlatning iqtisodiy jihatdan ravnaq topishini g‘alabalarga olib keluvchi harbiy yurishlar bilangina ta’minlab bo‘lmasligini ungacha Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan Chingizxon va uning vorislaridan farqli o‘laroq yaxshi tushungan. Shu bois hukmdor shaharning uzoq vaqt oyoq osti bo‘lgan an’analarini qayta tiklash orqali yuqorida ko‘zlagan maqsadiga erishga qaror qildi.

“Temur tuzuklari” da ta’kidlanishicha: “Saltanatimni o‘n ikki toifadagi kishilar bilan mustahkamladim. … O‘n birinchi toifa – kasbu hunar egalaridir; bularning har toifa va sinfidan bo‘lganlarini davlatxonamga olib kelib, o‘z o‘rdamdan o‘rin belgiladimki, safarda va turg‘unlikda sipohimga kerak yaroqlar va boshqa jihozlarni hozirladilar”.

Shunisi e’tiborga sazovorki, Samarqandning qo‘lga olinishini Temuriylar hukmronligining boshlanishi, deb hisoblash mumkin. Bu yilnomaga ko‘ra, hijriy 771-yil, melodiy 1370-yilga to‘g‘ri keladi. Temur o‘ttiz besh yoshda bo‘lgan. Gap shundaki, tatar (turk demoqchi bo‘lgan, ko‘plab xorijiy manbalarda Amir Temur va Temuriylarni tatar yoki mo‘g‘ullarga mansub deb izohlash bilan bog‘liq xatoliklar kuzatiladi) hukmdori taxtga egalik qilishi Aleksandr Makedonskiy bilan qiyoslaganda, uning qirollikdagi faoliyati tugab, vafot etgan yoshdagi davrlariga to‘g‘ri keladi. Lekin, u qirollik oilasi va unga tegishli mol-mulkning vorisi bo‘lgan, Temur esa hammasiga o‘z qobiliyati bilan erishdi.

Albatta, Amir Temurning hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e’tibor berishiga bir qator shart-sharoitlar (omillar) sabab bo‘lgan, bu borada ham ko‘plab ilmiy-tarixiy manbalar hamda tadqiqotlarda turlicha fikr-mulohazalar ilgari surilgan.

XIV asrning 60-yillarida Movarunnahrda siyosiy va iqtisodiy vaziyat nihoyatda og‘irlashib ketadi. Feodal tarqoqlikning kuchayishi, ichki feodal urushlarning uzluksiz davom etishi, tashqi dushman hujumlarining avj olishidan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari tanazzulga uchrab, aholi og‘ir tanglikni boshdan kechirgan. Aholining bunday tabaqalari orasida mavjud og‘ir ahvoldan qutilish, mamlakatni birlashtirish va kuchli bir davlat tashkil etish harakati kuchayadi. Temur o‘z zamonining bunday talabini Husayndan ko‘ra yaxshiroq tushunar edi. Shuning uchun ham o‘z faoliyatining dastlabki bosqichida barcha harakatni Movarounnahrda markazlashgan mustaqil davlat tuzishga qaratadi. Bunday maqsadni amalga oshirishda u din peshvolari, savdogar va hunarmand ahliga suyanadi.

Mo‘g‘ullar qo‘l ostidagi hunarmandlarning mavqeyining yomonlashishi, ularning o‘rtasida yarim qullik munosabatlari paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Bu haqda, 1264-yilda Plano Karpini o‘zining eslatmalarida juda aniq ta’kidlagan. Mo‘g‘ullar bosqinida butunlay vayron etilgan va aksari aholisi qirib tashlangan va qisman qul qilingan Samarqand shahri Temur hukmronligi davrida o‘zining qadimgi o‘rni Afrosiyobdan birmuncha janubroqda butunlay yangitdan quriladi. Temur mamlakatda, xususan uning poytaxti Samarqandda hunarmandchilikni rivojlantirishga alohida e’tibor beradi.

Ispan elchisi Klavixoning yozishicha, “Podshoh shaharning shuhratini oshirish niyatida shu qadar ko‘p sa’y-harakatlar qildiki, u qaysi mamlakatni zabt etgan va bo‘ysundirgan bo‘lsa, ularning hammasidan (hunarmand) odamlarni olib kelib, Samarqand va uning tevarak-atrofidagi yerlarga joylashtirdi. Podshoh har xil kasb egalarini to‘plashga, ayniqsa, ko‘p harakat qildi”.

Amir Temur Samarqandning poytaxt sifatida o‘sishi o‘ziga xos siyosiy ahamiyatga ega ekanligini yaxshi bilar edi. Buni Samarqanddagi keng ko‘lamli islohotlar va qurilish ishlari olib borilganligi bilan baholash mumkin. Temur birinchi navbatda e’tibor qaratgan narsa – bu yerda hunarmandchilik mahsulotlarini ko‘paytirish edi. Biroq, Samarqandning ishlab chiqarish zaxirasini faqatgina sun’iy yo‘l bilan tez fursatda ko‘tarish mumkin edi. Bunda, ishg‘ol qilingan hududlardan ishchi kuchlarini majburiy ko‘chirib keltirish eng qulay vosita bo‘ldi.


Amir Temur yashagan davr murakkab va ziddiyatlarga to‘la bo‘lib, o‘z oldiga to‘siqlarni yengib o‘tish uchun u xalqaro maydonda faol va aniq rejalarga asoslangan tashqi siyosat olib borishi hamda quyidagi bir qator tadbirlarni to‘g‘ri hal etishi va amalga oshirishi lozim edi (2-rasm). Bu esa mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni ta’minlashga xizmat qilgan.

Shu bilan birga, adolatli boshqaruv tizimi hamda Amir Temurning shaxsiy xususiyatlari hunarmandchilikning keng miqyosda rivojlanishiga sharoit yaratgan.

Movarounnahrda bu kabi mutaxassislar yetishmagani uchun emas, balki qanchalik madaniy kuchlar ko‘payib borsa, shunchalik hunarmandchilik faoliyati boyishiga hamda san’at va fanning yuqori darajada rivojlanishiga ishongani uchun olib kelgan.

Jan-Pol Ru ham o‘z vatani, do‘stlariga sadoqati, adolati, kambag‘al va zaiflarga mehr-muruvvati, bosiqligi, jasurligi, saxiyligi, intellektual va axloqiy qadriyatlarga hurmati, xudojo‘yligi, madaniyatliligi, qiziquvchanligi va boshqa sifatlari Amir Temurni muvaffaqiyatlariga sabab bo‘lgan omillardan ekanligini ta’kidlab o‘tgan. Temur o‘zini Chingizxonning vorisi, O‘rta Osiyo aholisi nazarida yangi Chingizxonni ko‘rsatishga intilgan degan ma’lumotlar bor, amalda esa, buning teskarisi bo‘lgan. Amir Temur Chingizxondan farqli o‘laroq boshqa dav-

latlar bilan munosabatda eng avvalo muzokara yo‘lini tanlagan, vaziyatni tinch yo‘l bilan hal etishga harakat qilgan. Sababsiz tinch aholiga zulm o‘tkazmaslikka va zarar yetkazmaslikka harakat qilgan. Boshidanoq Amir Temurning imperiyasi xavfsiz, aniq va mustahkam poydevorga asoslangan edi. U san’at va adabiyot ahlini o‘ziga do‘st tutgan. Temur yurishlar davrida, eski odatiga binoan mohir hunarmandlarning hayotini ular o‘z san’ati bilan Samarqandni obod qilishlari uchun saqlab qolgan.



2-rasm: Amir Temurning xalqaro vaziyatda tashqi siyosati

Ibn Arabshoh amirlar va saroy amaldorlari “Faqihlar, ilohiyotshunoslar, Qur’oni Karimni yoddan biladigan qorilar, allomalar, ustalar, ishchilar, qullar, o‘g‘il va qiz bolalar ommasini yig‘ib olgunlariga qadar shaharni talon-taroj etish man qilinganini, bunday qoidani buzganlarga o‘lim jazosi qo‘llangan”ini, ta’kidlaydi. Uning yozishicha, “Temur har qanday hunar va kasb bo‘lmasin, agar unda biron fazilat va shafoat bo‘lsa, shu kasb egalariga g‘oyatda mehr qo‘ygan edi. U tabiatan masxaraboz va shoirlarni yoqtirmas, munajjim-u tabiblarni (o‘ziga) yaqin tutib, ular gaplariga e’tibor qilar va so‘zlarini tinglardi”.

Shuningdek, Harold Lemb Amir Temur va uning faoliyatiga quyidagicha ta’rif beradi: “Temurni tushunish uchun uning hayot tarzini ko‘z oldimizga keltirish zarur. Buning uchun o‘z g‘oyalarini ko‘r ko‘rona ilgari surilgan Yevropadagi zamonaviy tarixiy yondashuvlardan qochish kerak. Temurga uning yonida yelkadosh bo‘lgan odamlarning ko‘zlari bilan qarash zarur. Temur shaxsini bugungi kungacha tilga olishadi. Yevropada, tarixiy kitoblarda uni zolim va qudratli hukmdor sifatida qabul qilishgan. Osiyo xalqlari esa u bilan faxrlanishadi. U biron bir sulolaning avlodi emas edi, balki o‘zi sulolaga asos soldi. U Attiladek vahshiylarning yetakchisi sifatida Rimni qidirmadi, balki cho‘l-biyobonda Rim bunyod etdi. U o‘zi uchun qirollik taxtini yaratdi, lekin umrining ko‘p qismini egarda o‘tkazdi. Bunyodkorlik ishlarida biron bir me’moriy namunalarga taqlid qilmadi, balki Damashqda shaharlarni yoqishdan oldin kuzatgan qoyalar, tog‘ cho‘qqilariga o‘xshash g‘ayrioddiy gumbazlarning o‘ziga xos namunalariga asos soldi. Temurning bu boradagi tasavvurlari rus me’morchiligining asosiy g‘oyasiga hamda uning ajdodlari tomonidan qurilgan Toj-Mahalning tojiga aylandi.

Ko‘plab tadqiqotlarda Amir Temur shaxsini va uning faoliyatini hamda turli davlatlarga sababsiz yurish qilib, yerlik aholiga zulm qilishga, ulardan qul sifatida foydalanishga harakat qilgan, deya tanqidiy tahlil qilinadi. Lekin raqib hukmdorlarning Amir Temur bilan bog‘liq masalalarga aralashishi, uning dushmanlariga panoh berib, pisand qilmasliklari, ataylab toptashga, butkul sindirishga intilishlari yurishlar sarhadlarini kengaytirishga sabab bo‘ldi. U Misr sultoniga “Har bir ishda odamlarning etagidan tutadigan narsa g‘ayrat va or-nomusdir”, deb bejiz aytmagan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

XULOSA

Tarixiy manbalar hamda ilmiy-tarixiy manbalar hamda tadqiqotlarda ilgari surilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirish asosida, quyidagi shart-sharoitlar Amir Temurning hunarmandchilik faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashiga sabab bo‘ldi deyish mumkin:

1. Ma’lumki, o‘rta asrlar tarixi ikki davrga bo‘linadi. Uning birinchi davri V - XI asrlarni o‘z ichiga oladi. Bunda, yangi jamiyat - feodal yer-mulk egaligi jamiyati qaror topib, feodal tabaqa vujudga kelgan bo‘lsa, ikkinchi davri (XI - XV asrlar) da yer-mulk egaligiga asoslangan jamiyat uzil-kesil shakllanib, hunarmandchilik va savdo-sotiq xo‘jalikning muhim tarmoqlariga aylana bordi. Amir Temur hukmronligi aynan shu davrga to‘g‘ri keladi.
2. Chingizxon [Timuchin (1155–1227)] va Chingiziylarning 1219-1370-yillar oralig‘idagi hukmronligi davrida Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy hayot juda og‘irlashgan edi.
3. Muntazam davom etgan urushlar, aholining talon-taroj qilinishi va asossiz ravishda soliq turlarining ko‘payib va ko‘tarilib borishi oqibatida mamlakat moddiy va ma’naviy jihatdan qashshoqlashib qolgan edi.
4. Mamlakat sarhadlarini qayta tiklash bilan birga shaharlarni obod qilish masalasi harbiy yurishlar uchun kerakli qurol-aslaha va jihozlarni ishlab chiqarish bosh maqsadga aylangan, buning uchun tabiiyki, hunarmandlar kerak bo‘lgan.
5. O‘rta asrlarda aholining moddiy va nomoddiy ne’mat (tovar)larga bo‘lgan deyarli barcha ehtiyojlari hunarmandchilik ishlab chiqarishi orqali qondirilgan bo‘lib, tabiiyki, bu hunarmandchilik turlarini ko‘payishiga turtki bergan.
6. Aholining bandligini oshirish orqali, daromadlarini ko‘paytirish, shuningdek, mahalliy bozorda tovar va xizmatlarga nisbatan narxlar darajasini barqarorlashtirish dolzarb masalaga aylangan.
7. Buyuk ipak yo‘lining qayta tiklanishi hamda savdo karvonlarining xavfsizligini ta’minlanishi xalqaro savdo munosabatlarining rivojlanishiga sharoit yaratadi, bu esa hunarmandchilik mahsulotlari yaratish hamda ularni mahalliy va xorijiy mamlakatlar bozorlarida ayirboshlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mignosa A., Kotipalli P. 2019. A Cultural Economic Analysis of Craft. Switzerland. Springer Nature Switzerland AG. 3-p
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017. www.gov.uz.
3. Пугаченкова Г.А. Рempель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. Древность и средневековье. – М.: Искусство. 1982. - С. 4-5; Искуссво зодчих Узбекистана / Под. ред. Г.А. Пугаченковой. – Т.: Фан. 1972. –С. 6; Пугаченкова Г.А. Из истории античной культуры Узбекистана. - Ташкент: Издательство им. Гафура Гуляма. 1973. –С. 19-20
4. Gafurov U., Khamidova Z. Theoretical and methodological basis of research on the development of handicraft activity in the economic policy of Amir Temur. Jour of Adv Research in Dynamical & Control Systems, Vol. 11, Issue-07, 2019. 951-965 pp. https://www.scopus.com
5. Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.
6. Xalqaro Amir Temur jamg‘armasi. Temur tuzuklari. – T.: O‘zbekiston, 2011.–181 b, 94-bet.
7. Niccolao Manucci. History of the Mogul Dynasty in India: From Its Foundation by Tamerlane, in the Year 1399, to the Accession of Aurengzebe, in the Year 1657. London. J.M. Richardson. –1825. –324 p. 7-p.
8. Jean du Plan de Çarpjn. Relation des Mongols ou Tartares. Paris. Arthus-Bertrand, Dondey-Dupré. 1837.
9. Муҳаммаджонов А. "Амир Темур ва Темурийлар салтанати". –Т.: Қомуслар бош таҳририяти. 1994. –13-47 бетлар.
10. Ruy González de Clavijo. Historia del gran Tamorlan: e itinerario y enarracion del viage, y relacion de la embajada que Ruy Gonzalez de Clavijo le hizo por mandado del muy poderoso señor rey Don Henrique el Tercero de Castilla. Yun breve discurso. En Madrid. En la imprenta de Don Antonio de Sancha. 1782. 190-p.
11. Якубовский А.Ю. Самарканд при Тимуре и Тимуридах. Ленинград. 1933. 19-стр.
12. Uljayeva Sh. Amir Temur saltanatida milliy davlatchilikning rivojlanishi: Tarix fanlari ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: TKTI. 2008. 184-185-betlar.
13. Якубовский А.Ю. Тамерлан, эпоха, личность, деяния. – М.: “Гураш”. –1992. –23-b.
14. Ру Ж.П. Тамерлан. – М.: Молодая Гвардия. 2012. – 153 стр. https://avidreaders.ru/book/tamerlan.html.
15. The Cambridje history of Iran. The Timurid and Safavid periods. Cambridge University Press. 1986. №6 –P. 55-56
16. Груссэ Р. Империя степей. Аттила, Чингиз-хан, Тамерлан. Перевод Х. Хамраева. – Алматы, 2006. 592 с. – 461, – 478, –480, –494 стр.
17. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi (ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur) I-kitob. – T.: Mehnat. –1992. –245-bet.
18. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi(ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur) II-kitob. O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. –T.: Fan. –2018. –144-bet.
19. Lamb H. Tamerlane The Earth Shaker. Great Britain. The Burlhigh Press. –1929. –16-p.
20. Lamb H. Tamerlane The Earth Shaker. Great Britain. The Burlhigh Press. –1929. –13-14-pp.
21. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – T.: O‘zbekiston. –1996. –300-b.
22. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. F harfi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2002. –227-bet.
23. Muhammadjonov A. O‘zbekiston tarixi (IV asrdan XVI asr boshlarigacha) – T.: Sharq. –104-106-betlar.

INFRATUZILMA OBYEKTLARI RIVOJLANISHINING TURIZM SOHASIDAGI O‘RNI



Toyirova Amina Baxtisher qizi
Toshkent shahridagi “Alfraganus University” nodavlat oliy ta‘lim tashkilotining “Xalqaro turizm menejmenti” kafedrasi tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasida infratuzilma obyektlarini rivojlantirishning roli ko‘rib chiqiladi. Infratuzilmaning turizmni rivojlantirishga ta’siri bo‘yicha mavjud adabiyotlar tahlil qilinadi. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi jahon va O‘zbekiston turizm sanoatining faol o‘sishi sharoitida asoslanadi. Ishning maqsadi-turizmni rag‘batlantirish va mintaqalarning jozibadorligini oshirish uchun infratuzilmani rivojlantirishning ahamiyatini tahlil qilish. Turistik infratuzilmaning turli tarkibiy qismlari, shu jumladan transport, turar joy, ovqatlanish, o‘yin-kulgi ko‘rib chiqiladi. Turli mamlakatlarda infratuzilmaning turizmga ta’siri misollari tahlil qilinadi. O‘zbekiston va xorijiy tajribani o‘rganish asosida O‘zbekistonda turizm maqsadlari uchun infratuzilmani rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha tavsiyalar shakllantiriladi. Asosiy chora-tadbirlar qatorida: infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha maqsadli dasturlarni yaratish, turizm infratuzilmasi loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish, turistik-rekreatsion klasterlar va maxsus iqtisodiy zonalarni shakllantirish, turizm markazlari o‘rtasida transportni rivojlantirish, mehmonxona qurilishi va xizmat ko‘rsatish sohasini rag‘batlantirish. Zamonaviy infratuzilmaning turizm sanoatining uzoq muddatli barqaror o‘sishini ta’minlash va O‘zbekistonning turistik mintaqalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim roli to‘g‘risida xulosa chiqariladi.

Kalit so‘zlar: turizm, infratuzilma, transport, turar joy, ovqatlanish, o‘yin-kulgi.

Abstract: This article examines the role of the development of infrastructure facilities in the field of tourism. The analysis of the existing literature on the impact of infrastructure on tourism development is carried out. The relevance of the research topic in the context of the active growth of the global and Uzbek tourism industry is substantiated. The purpose of the work is to analyze the importance of infrastructural development for stimulating tourism and increasing the attractiveness of regions. Various components of the tourist infrastructure are considered, including transport, accommodation, food, entertainment. Examples of the impact of infrastructure on tourism in different countries are analyzed. Based on the study of Uzbek and foreign experience, recommendations are formulated to stimulate infrastructural development for tourism purposes in Uzbekistan. Among the main measures: the creation of targeted infrastructure development programs, attracting investments in tourism infrastructure projects, the formation of tourist and recreational clusters and special economic zones, the development of transport between tourist centers, stimulating hotel construction and the service sector. The conclusion is made about the key role of modern infrastructure in ensuring long-term sustainable growth of the tourism industry and increasing the competitiveness of the tourist regions of Uzbekistan.

Key words: tourism, infrastructure, transport, accommodation, food, entertainment.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль развития инфраструктурных объектов в сфере туризма. Проводится анализ существующей литературы по вопросам влияния инфраструктуры на развитие туризма. Обосновывается актуальность темы исследования в условиях активного роста мировой и узбекской туристской отрасли. Определяется цель работы – проанализировать значение инфраструктурного развития для стимулирования туризма и повышения привлекательности регионов. Рассматриваются различные компоненты туристской инфраструктуры, включая транспорт, размещение, питание, развлечения. Анализируются примеры влияния инфраструктуры на туризм в разных странах. На основе изучения узбекского и зарубежного опыта формулируются рекомендации по стимулированию инфраструктурного развития для целей туризма в Узбекистане. В числе основных мер: создание целевых программ развития инфраструктуры, привлечение инвестиций в проекты туристской инфраструктуры, формирование туристско-рекреационных кластеров и особых экономических зон, развитие транспорта между туристскими центрами, стимулирование гостиничного строительства и сферы услуг. Делается вывод о ключевой роли современной инфраструктуры в обеспечении долгосрочного устойчивого роста туристской отрасли и повышении конкурентоспособности туристских регионов Узбекистана.

Ключевые слова: туризм, инфраструктура, транспорт, размещение, питание, развлечения.

KIRISH

Turizm O‘zbekiston iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. 2017-yilda 2,7 million kishidan 2022-yilda 5,2 million kishiga ko‘paygan mamlakatga kirish turizm oqimi tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda [1]. Ichki turizm ham faol dinamikani namoyish etadi.

O‘zbekiston turizm industriyasini rivojlantirish milliy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Sanoatning yanada barqaror o‘sishini ta’minlashning eng muhim omili turizm infratuzilmasini takomillashtirishdir. Hozirgi vaqtda turizm uchun infratuzilma obyektlarini rivojlantirish masalalariga davlat darajasida katta e’tibor qaratilmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi yetakchi sayyohlik yo‘nalishlaridan biri sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlash uchun turizm infratuzilmasini rivojlantirishning roli va ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019-yildagi PF-5611-sonli “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni [2] 2-bobiga ko‘ra, turizm sohasini rivojlantirishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

2019–2020-yillarda – turizmni rivojlantirish uchun mustahkam qonunchilik bazani yaratishga qaratilgan institutsional islohotlar, infratuzilmani modernizatsiyalash va mamlakat brendini targ‘ib qilish;

2021–2025-yillarda – mamlakat iqtisodiyotida turizm industriyasi ulushini ko‘paytirish. Ushbu yo‘nalishda zarur infratuzilmani rivojlantirish va dunyo bozorida respublikaning turizm salohiyatini targ‘ib qilish orqali mamlakatning yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 5 foizgacha (2017-yil yakuni bo‘yicha – 2,3%) yetkazish, shuningdek, 2025-yil yakuniga qadar 9 milliondan ortiq turistlarni, shu jumladan uzoq xorijdan – 2 million turistni jalb qilish belgilab qo‘yilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODLARI

O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish holati va istiqbollarini tahlil qilish masalalariga mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning bir qator nashrlari bag‘ishlangan.

O‘zbek olimlarining asarlaridan N. E. Eshonqulov [3], Z. R. Ibrohimova [4], F. M. Mamasoliyev [5] va boshqalarning nashrlarini ajratib ko‘rish mumkin. Ushbu mualliflar turizm infratuzilmasini me’yoriy-huquqiy qo‘llab-quvvatlashning muammoli jihatlarini, ushbu sohadagi investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish masalalarini o‘rganadilar.

Xorijiy mutaxassislar orasida O‘zbekiston turizm infratuzilmasi masalalariga H. Watanabe [6], H. H. Rasul [7], M. Pedersen [8] va boshqalar e’tibor qaratmoqda. Ularning asarlarida mehmonxonalar faoliyatining mavsumiyligi, turistik infratuzilma obyektlarida malakali kadrlar yetishmasligi masalalari tahlil qilingan.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlarda O‘zbekistonda turizmni infratuzilma bilan ta’minlashning kuchli va zaif tomonlari bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar taqdim etilgan. Ularning asosida ushbu maqolada tahlil qilish yo‘nalishlari aniqlandi.

Bir qator mualliflar O‘zbekiston turizm infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy muammolari va cheklovlarini aniqlashga e’tibor qaratmoqdalar. Ular orasida moliyalashtirishning yetarli emasligi, investorlar uchun yuqori xarajatlar, mintaqalararo transport aloqalarining sustligi va boshqalar. Tahlil asosida belgilangan muammolarga aniq yechimlar taklif etiladi.

NATIJALAR

Turizm O‘zbekiston iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Jahon sayyohlik tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2018-yilda mamlakatga 5,3 million chet ellik sayyoh tashrif buyurgan, bu o‘tgan yilga nisbatan 24 foizga ko‘pdir. 2025-yilga kelib O‘zbekiston hukumati sayyohlar oqimini yiliga 9 million kishiga yetkazishni rejalashtirmoqda [9].

O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari tahlili 2017-2021-yillar davrida mamlakatning muhim mintaqalarida turizmning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishning ijobiy dinamikasini ko‘rsatdi [10].

Shunday qilib, Qoraqalpog‘iston Respublikasida mehmonxonalar va shunga o‘xshash turar joylarning umumiy soni 2017-yildagi 34 donadan 2021-yilda 57 donaga ko‘paydi. Shu bilan birga, mehmonxona fondining eng katta o‘sishi Nukus, Xodjayli, Moynak kabi shaharlarda sodir bo‘ldi.

Farg‘ona viloyatida 42 ta obyektga mo‘ljallangan mehmonxonalarning o‘sishi qayd etildi. Xususan, Farg‘ona shahrida mehmonxonalar soni 8 tadan 17 taga yetdi. Quvasoy va Farg‘ona tumanlarida sezilarli ijobiy dinamika qayd etildi [11].

Aeroport infratuzilmasini rivojlantirish ham ta’sirchan dinamikaga ega. Masalan, Navoiy xalqaro aeroportini rekonstruksiya qilish doirasida uning o‘tkazish qobiliyati soatiga 400 yo‘lovchiga yetkazildi. Urganch aeroportida yangi terminal va terminal mehmonxona majmuasi qurildi.

Shu bilan birga, bir qator sayyohlik hududlarida sanatoriya-kurort majmuasi obyektlari, umumiy ovqatlanish korxonalari, transport aloqalari bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda. Buni sayyohlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari tasdiqlaydi.

Quyida O‘zbekistonning turli mintaqalarida turizm infratuzilmasidan qoniqish bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovlarning aniq ma’lumotlari keltirilgan.

1-jadval: Turistlarning O‘zbekiston mintaqalari bo‘yicha turizm infratuzilmasidan qoniqishi (respondentlar sonining % dagi ulushi)[1]

Hudud	Mehmonxonalar	Restoranlar	Transport	Ekskursiyalar
Toshkent	74	69	62	81
Samarqand viloyati	63	58	57	76
Buxoro viloyati	54	48	51	69
Xorazm viloyati	68	61	64	72

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, sayyohlar ekskursiya xizmatlarining sifatini eng yuqori baholaydilar - 69% dan 81% gacha. Shu bilan birga, umumiy ovqatlanish korxonalari sohasida eng kam qoniqish kuzatiladi - mintaqalar bo‘yicha 48-69%.

Shuningdek, turizm transport infratuzilmasining rivojlanishini baholash nisbatan past-51-64%. Bu ushbu yo‘nalishlarni rivojlantirish uchun qo‘shimcha harakatlarni talab qiladi.

TAHLIL

Mutaxassislarning fikricha, 2028-yilgacha O‘zbekiston turizm infratuzilmasiga investitsiyalarning yillik o‘sishi kamida 8 foizni tashkil etadi, bu esa ushbu jihatni tubdan yaxshilashga imkon beradi [12]. Turistik infratuzilmaning ayrim obyektlarining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollarini batafsil ko‘rib chiqaylik.

O‘zbekiston mehmonxona fondi yangi mehmonxonalarni ishga tushirish hisobiga faol to‘ldirilmoqda. Agar 2017-yilda kollektiv turar joylardagi xonalarning umumiy soni 29,8 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 45,3 ming donaga yetdi [13].

Samarqand va Buxoro shaharlarida mehmonxona qurilishi sohasidagi faoliyatni alohida ta’kidlash joiz. 2021-yilda bu yerda 1450 ta umumiy xona fondi, jumladan, xalqaro mehmonxona tarmoqlari obyektlari bilan 16 ta mehmonxona ishga tushirildi.

Shu bilan birga, mamlakatning ko‘plab sayyohlik markazlarida sifatli turar joy yetishmasligi saqlanib qolmoqda. 4* va 5* toifadagi mehmonxonalar taqchilligi mutaxassislar tomonidan 2,5 mingdan 3,5 minggacha xona miqdorida baholanadi [14].

O‘zbekistonning asosiy yo‘nalishlarining transportga kirish imkoniyati turizm sohasi uchun muhim rol o‘ynaydi. 2-jadvalda respublikaning xalqaro aeroportlarida yo‘lovchilar oqimi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

2-jadval: 2017-2021-yillarda O‘zbekiston xalqaro aeroportlarining yo‘lovchi oqimi, million kishi[2]

Aeroport	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil
Tashkent	2,3	2,5	3,1	1,7	3,4
Samarqand	0,14	0,18	0,25	0,13	0,29
Buxoro	0,27	0,39	0,47	0,22	0,51
Navoiy	0,15	0,19	0,23	0,11	0,27
Urganch	0,63	0,71	0,85	0,46	0,95

Taqdim etilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi 5 yil ichida mamlakatning barcha muhim xalqaro aeroportlarida yo‘lovchilar oqimining ijobiy dinamikasi kuzatildi. Samarqand va Buxoro aeroportlari ushbu yo‘nalishlarning tobora ommalashib borayotganligi sababli eng katta o‘sishni ko‘rsatdi.

Mamlakatning asosiy sayyohlik mintaqalarini havo qatnovi sohasida ijobiy dinamika kuzatilmoqda. 2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi 5 yil ichida O‘zbekistonning asosiy xalqaro aeroportlarida yo‘lovchi tashish hajmi o‘rtacha 34-68 foizga o‘sdi.

Samarqand va Buxoro aeroportlari ayniqsa yuqori o‘sish sur’atlarini ko‘rsatdi, bu esa ushbu yo‘nalishlarning turistik jozibadorligi oshishi bilan bog‘liq. Masalan, keng ko‘lamli rekonstruksiyadan so‘ng Samarqand aeroportining o‘tkazish qobiliyati soatiga 1000 yo‘lovchiga oshdi [15].

1 Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.
2 www.uzairnavi.uz – veb sayti ma’lumotlari.

Shu bilan birga, Xiva, Shahrisabz, Chotqol tizmasi mintaqalari kabi potensial yo‘nalishlarning transportda yetarli emasligi muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammolarni hal qilishga ustuvor ahamiyat berilishi kerak.

Tadqiqot zamonaviy infratuzilmaning O‘zbekiston mintaqalariga turizm oqimini rag‘batlantirish va ushbu sohaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashdagi muhim roli to‘g‘risida aniq xulosa chiqarish imkonini beradi.

Samarqand va Buxoro kabi shaharlarda aeroportlarni rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilishning yo‘lovchi oqimining ko‘payishiga ta’siri yaqqol misol bo‘la oladi. Aerovokzallarning o‘tkazish qobiliyatini kengaytirish va yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash havo orqali ko‘proq sayyohlar oqimi uchun sharoit yaratishga imkon berdi, bu esa tur oqimini oshirishga bevosita yordam berdi.

Yana bir muhim jihat-xalqaro sifat standartlariga javob beradigan yangi zamonaviy mehmonxonalar qurilishidir.

3-jadval: Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari[3]

Infratuzilma obyekti	Tavsiyalar
Mehmonxonalar	- mehmonxona qurilishini rag‘batlantirish bo‘yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish; - investorlarni jalb qilish uchun sharoit yaratish; - qurilish sohasida ma’muriy tartib-taomillarni soddalashtirish.
Transport	- turistik markazlarning havo qatnovini kengaytirish; - transport markazlarini modernizatsiya qilish (aeroportlar, temir yo‘l stansiyalari); - namoyish obyektlariga kirish uchun shahar atrofi transportini rivojlantirish.
Umumiy ovqatlanish	- mehmonxonalarda ovqatlanish korxonalarini tashkil etishni rag‘batlantirish; - obyektlarda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish; - milliy oshxonani targ‘ib qilish.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, turizm infratuzilmasining har bir elementini rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari majmui mavjud. Ushbu chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilishi O‘zbekiston turizm sohasini tubdan yangi bosqichga ko‘tarishga qodir.

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot doirasida olib borilgan tahlil O‘zbekiston turizm sanoatining miqdoriy va sifat jihatidan barqaror o‘sishini ta’minlash uchun rivojlangan turizm infratuzilmasining muhim ahamiyati to‘g‘risida aniq xulosa chiqarish imkonini beradi.

Statistik ma’lumotlar va so‘rov natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi 5 yil ichida Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlariga sayyohlik oqimining rekord darajada o‘sishini ta’minlagan mehmonxona qurilishi, aeroportlarni modernizatsiya qilish, zamonaviy oziq-ovqat va ko‘ngilochar korxonalarni tashkil etish kabi sohalarda yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish edi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, keng ko‘lamli infratuzilma ta’minotisiz ushbu hududlarda sayyohlar sonining o‘sish sur’ati 2-3 baravar past bo‘ladi [7].

Boshqa tomondan, bu Chotqol tizmasining tog‘li hududlari, Shahrisabz va Kitob tarixiy shaharlari kabi istiqbolli zonalarga sayyohlar oqimi uchun asosiy infratuzilma cheklovi bo‘lib qolmoqda. Bu turar-joy binolari va transport logistikasi, ko‘ngilochar infratuzilmalaridir. Ushbu cheklovlarni bartaraf etish O‘zbekiston turizm sohasini tubdan yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Shu bilan birga, bir qator yo‘nalishlarda O‘zbekistonda turizmni infratuzilma bilan ta’minlash o‘sib borayotgan sayyohlik sanoatining dolzarb ehtiyojlaridan orqada qolmoqda.

Xususan, xalqaro darajadagi xorijiy sayyohlarni qabul qilish va joylashtirish uchun 4-5 yulduzli toifadagi qo‘shimcha 2,5-3 ming zamonaviy mehmonxona xonalariga ehtiyoj bor [8]. Shuningdek, xalqaro standartlarga javob beradigan tematik ko‘ngilochar bog‘lar, savdo va ko‘ngilochar majmualarni qurish uchun sarmoyalar talab etiladi.

Mintaqalardagi sayyohlik obyektlarining transport aloqalari, sayyohlik yo‘nalishlari bo‘yicha shahar atrofi va shaharlararo avtobus aloqalarini rivojlantirish masalalari dolzarbdir.

Belgilangan muammolarni hal qilish uchun turistik infratuzilma sohasidagi dunyodagi eng yaxshi amaliyotlarga asoslangan kompleks yondashuv zarur.

3 Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

XULOSA

Amalga oshirilgan keng qamrovli tadqiqot O‘zbekiston iqtisodiyotining ushbu yuqori daromadli sohasini uzoq muddatli barqaror o‘sishi uchun turizm infratuzilmasini maqsadli rivojlantirishning muhim roli to‘g‘risida aniq xulosa chiqarish imkonini beradi.

Yangi mehmonxona majmualarini qurish, mintaqaviy markazlar aeroportlarini rekonstruksiya qilish, kompleks rivojlanish turistik-rekreatsion zonalarini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli loyihalar kelgusi 5-7 yil uchun strategik ustuvor vazifa bo‘lishi kerak. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va investorlarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar O‘zbekiston turizm infratuzilmasini tubdan yangi bosqichga olib chiqishga imkon beradi. Va bu, o‘z navbatida, kirish turistik oqimining har yili 20-25 foizga o‘sishini va respublikaning butun turistik ekotizimining yuqori rivojlanish sur’atlarini ta’minlaydi.

Turistik ko‘rgazma, transport, turar joy, ovqatlanish, o‘yin-kulgining asosiy obyektlarini qamrab oluvchi turizm infratuzilmasini rivojlantirishga kompleks yondashuv sanoatning mavjud yuqori salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga imkon beradi. Xususiy investorlarni samarali davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirishning maqsadli davlat dasturlarini amalga oshirish bilan bir qatorda, yaqin va o‘rta muddatli istiqbolda O‘zbekiston turizmi sohasida ustuvor vazifa bo‘lishi kerak. Bu mintaqalarga sayyohlik oqimining ko‘payishiga, shuningdek, respublikaning butun turizm sanoatining rentabelligi va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

References:

1. O‘zbekistonga keluvchi sayyohlar soni so‘nggi 5 yilda 2 barobar oshdi, https://daryo.uz/2023/02/22/ozbekiston-keluvchi-sayyohlar-soni-songgi-5-yilda-2-barobar-oshdi
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019-yildagi PF-5611-sonli “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni
3. Eshonqulov N. E. “O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” / / Turizm: huquq va iqtisodiyot. 2018. No 3. 17-21-betlar.
4. Ibragimova Z. R. “Turizm infratuzilmasini normativ-huquqiy tartibga solish muammolari” // Universitet gazetasi. 2019. No4. 114-119-betlar.
5. Mamasoliyev F. M. “Turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni Davlat tomonidan tartibga solish” // Iqtisodiyot va moliya. 2020. No1. 24-30-betlar
6. Watanabe H. Issues of seasonality in the hotel business of Uzbekistan // International Journal of Tourism Research. 2021. Vol.15. P. 121–134.
7. Rasul H.H. Human resource challenges in tourism infrastructure of Uzbekistan // Journal of Human Resources in Hospitality & Tourism. 2019. No.18(4). P. 414-429.
8. Pedersen M. Prospects for developing transport infrastructure for tourism in Uzbekistan // Journal of Tourism Futures. 2022. Vol. 8(1). P.43-57
9. UNWTO Tourism Highlights, 2018 Edition. UNWTO, 2018.
10. Комилов С. Перспективы развития туризма в Узбекистане. –Ташкент, 2019. –145 с.
11. Развитие туристской инфраструктуры в Узбекистане: проблемы и решения / Под ред. Каримова Б.К. Самарканд, 2020. 201 с.
12. Гулямов С.С. Влияние инфраструктуры на рост туристского потока в регионы Узбекистана // Вестник НУУз. 2021. No4. С. 16-21.
13. Пассажиропоток аэропортов Узбекистана вырастет до 9,3 млн человек в этом году, 18 февраля 2023 ATO.ru, http://www.ato.ru/content/passazhiropotok-aeroportov-uzbekistana-vyrastet-do-93-mln-chelovek-v-etom-godu
14. УзАэроНавигация. Статистические данные по пассажиропотоку аэропортов за 2017-2021 гг. [Электронный ресурс] Режим доступа: https://www.uzairnavi.uz/ru
15. Исследования Всемирного совета по туризму и путешествиям по инфраструктуре туризма в странах мира: https://wttc.org/Research/Economic-Impact

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



KORXONALARDA MOLIYAVIY INVESTITSION PORTFELNI JALB QILISH VA RAG‘BATLANTIRISHNING ZAMONAVIY SHAKL VA USULLARI TAHLILI

Haydarov Humoyun Begmurod o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Moliya kafedrasi tayanch doktaranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsion portfelni jalb qilish usullari, sarmoyadorlar uchun investitsion qarorlarni qabul qilishda moliyaviy tahlil usullaridan foydalanish, investitsion loyihalarni samaradorligini baholash me’zonlari va bu orqali portfelni maksimallashtirish yo‘llari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: investitsion qaror, portfel investitsiya, investitsiyalarni qaytish muddati, investitsion daromad, sof joriy qiymat, ichki daromad darajasi, kapital aktivlarini baholash modeli.

Abstract: This article discusses methods for attracting an investment portfolio, the use of financial analysis methods by investors when making investment decisions, criteria for assessing the effectiveness of investment projects, and therefore methods for maximizing the portfolio.

Key words: Investment decision, portfolio investment, investment payback period, investment income, net present value, internal rate of return, capital asset valuation model.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы привлечения инвестиционного портфеля, использование методов финансового анализа инвесторами при принятии инвестиционных решений, критерии оценки эффективности инвестиционных проектов, а значит и способы максимизации портфеля.

Ключевые слова: Инвестиционное решение, портфельные инвестиции, период окупаемости инвестиций, инвестиционный доход, чистая приведенная стоимость, внутренняя норма доходности, модель оценки капитальных активов.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy portfel nazariyasi, portfelni optimallashtirish va undan kutilayotgan daromad miqdorini maksimallashtirish, jarayonlari haqidagi qarashlarni, ko‘pgina iqtisodchi olimlar tomonidan o‘zlarining kitoblarida va chop etilgan maqolalarda uchratishimiz mumkun. Misol uchun (The Frank.J va Fabozzi Series 2010) o‘zlarining “Moliya asoslari” kitoblarida portfel nazariyasiga shunday ta’rif berishgan.

Portfel nazariyasi – bu portfolioni tanlash va undan kutilayotgan daromadni maksimallashtirish va portfolioning eng maqbul risk darajasini aniqlash va qanday qilib optimal portfolioni shakllantirish yo‘llarini o‘rganadi. Ushbu olimlar tomonidan portfel nazariyasi va kapital bozori nazariyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tushuntirilib berilgan. Bu ikki nazarya bizga shuni aytadiki, investitsion riskni aniqlashtirish va uni oldini olish va qimmatli qog‘ozlardan kutilayotgan daromad o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntiradi. Zamonaviy portfel nazariyasi, sarmoyadorlarga matematik jihatdan asoslangan yondashuvni taklif qiladi va moliyaviy risklarni boshqaradi.

Portfel nazariyalari sarmoyadorlarga risk bilan bog‘liq bo‘lgan xavf-xatarlarni oldini olishga yordam beradi. Albatda investorlar oldida 2 ta bir xil foyda keltiradigan investitsion portfel turgan bo‘lsa, investor xavf darajasi kamroq bo‘lgan investitsion dasturni tanlaydi. Huddi shu olimlarning, (Portfolio tuzilishi va analitika 2016) kitoblarida portfel tuzilishining mohiyati va uni analiz qilish usullarini, portfelni boshqarish yo‘llari keng yoritib berilgan. Ularning fikricha, portfolioni boshqarish bu pullarni boshqarish, investitsiyani boshqarish, aktivlarni boshqarish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, potfel strategiyasini amalga oshirish quyidagi bosqichlarnii o‘z ichiga oladi.

Bu bosqichlarni har birini o‘rganish bizga eng maqbul investitsion portfelni tanlash, risklarni oldini olishga va loyihadan kutilayotgan daromadni maksimallashtirish usullarini bilishimizga yordam beradi.



1-rasm: Portfel strategiyasining tuzilishi

Yurtimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham portfel tuzilishi va uni shakllantirish yo‘llari va usullari to‘g‘risida ko‘pgina mushohadalar keltirilgan bo‘lib, bu fikr va mulohazalarni o‘rganib chiqish maqolamizning saviyasini yanada oshirishga xizmat qiladi. (A.U.Burxonov va X.X.Xudoyqulov 2021) o‘zlarining “Moliya bozori va investitsiyalar” nomli kitoblarida investitsion portfel so‘ziga quyidagicha ta’rif berishgan.

Investitsion portfel - ma’lum bir maqsadli investitsion siyosat asosida shakllantirilgan moliyaviy instrumentlar to‘plami. Investitsiyalar portfelining asosiy maqsadi- investorlar mablag‘ini moliyaviy instrumentlarga (qimmatli qog‘ozlarga) yo‘naltirish asosida rejalashtirilgan daromadni past (yuqori) risklarda olish.

Portfelning mazmuni – bir to‘plamga jamlangan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha, investor uchun qulay va zaruriy investitsion sharoitlarni yaxshilash bo‘lib, unda bu to‘plamdagi qog‘ozlarda investorning investitsion siyosati, maqsad va vazifalari doirasida yaratilgan sharoitlar talablariga javob beruvchi investitsion xossalar shakllantiriladi. Bu olimlar tomonidan berilgan fikr va mulohazalardan shuni xulosa qilishimiz mumkunki, eng optimal portfel loyihasini tanlash va uni amalga joriy etish, kuchli bilim va malaka, ulkan tajriba va vaqt talab qiladi.

METADOLOGIYA

Investitsion qarorlarni qabul qilishda loyihalarni tahlil qilish ularning risklilik darajasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa biz loyiha samaradorligini baholovchi bir qancha moliyaviy tahlil usullaridan foydalanamiz. Masalan, Payback period (investitsiyaning qaytish muddati), NPV (sof joriy qiymat), IRR(ichki daromad darajasi), CAPM(kapital aktivlarini baholash modeli), portfolio‘s return (portfolio qaytimi).

Investitsiyaning qoplanish muddati – bu investor tomonidan kiritilgan boshlang‘ich investitsiyaning o‘zini qoplash muddatini aniqlab beradi.

$$\text{Payback period} = \frac{\text{Cost of investment}}{\text{Averege annual cash flow}}$$

Bu yerda: Cost of investment - loyihaga kiritilgan boshlang‘ich investitsiya

Averege annual cash flow – investitsion loyihadan kutilayotgan o‘rtacha yillik pul oqimlari. Kompaniya (A) 1 million dollarlik investitsiya loyihasida har yili o‘rtacha 250 000 dollar daromad kutyapdi, shunda bu kompaniyaning o‘z investitsiya xarajatlarini qoplash muddati 4 yilni tashkil qilmoqda.

Kompaniya (B) esa 200 000 dollarlik investitsiya loyihasidan har yili o‘rtacha 100 000 dollarlik qaytim kutyapdi ya‘ni bu investitsion loyihaning qoplanish muddati 2 yilga teng bo‘lyapdi. Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkunki, investor bu ikki loyihadan 2-loyihani tanlaydi chunki uning qoplanish muddati kamroqni tashkil qilmoqda.

Yana bir investitsion portfolioni samaradorligini baholashning yana bir usullaridan biri sof joriy qiymatni topishdir.

$$\text{NPV} = -\text{Initial investment} + \frac{CF}{(1+i)} + \frac{CF_2}{(1+i)^2} + \frac{CF_3}{(1+i)^3} + \ldots \frac{CF_t}{(1+i)^t}$$

Bu yerda: Initial investment – bu loyihaga kiritilgan dastlabki investitsiya

CF, CF_2, CF_3, CF_t – investitsion loyihadan kutilayotgan pul oqimlari

i – diskont foiz stavkasi


t – davr

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Sof joriy qiymatda pul oqimlari 2 ta sababga ko‘ra analiz qilinadi. Birinchisi investitsion imkoniyat uchun riskni moslashtirish, ikkinchisi pulning vaqt bo‘yicha qiymatini hisoblashda.

Quyidagi keltirilgan jadvalda, 10 yillik investitsion loyihadan har yili 10 000 dollar pul oqimi kelib turadigan va diskont foiz stavkasi 10 foiz bo‘lgan misol keltirib o‘tilgan bunda boshlang‘ich investitsiya miqdori berilmagan.

$$NPV = \frac{10000}{(1+0.1)} + \frac{10000}{(1+0.1)^2} + \frac{10000}{(1+0.1)^3} + \frac{10000}{(1+0.1)^4} + \dots \frac{10000}{(1+0.1)^{10}}$$



1-jadval: Pul oqimlarining o‘zgarish dinamikasi

Bu jadvalimizdan shuni xulosa qilishimiz mumkunki yildan-yilga inflyatsiya va boshqa ta’sirlar sababli investitsiyadan kutilayotgan sof joriy qiymat pasayib bormoqda. Bundan shuni xulosa qilamiz, investor sarmoya kiritishdan oldin o‘sha mamlakatdagi inflyatisiya ko‘rsatkichi, qayta moliyalashtirish stavkasi va boshqa muhim bo‘lgan iqtisodiy indikatorlarga ahamiyat berishi kerak ekan.

Kapital aktivlarini baholash modeli – portfolio nazariyasidagi eng muhim innovatsiyalardan biridir. Model juda oddiy lekin juda kuchli bo‘lib, bu model mustaqil ravishda William Sharpe, John Lintler, Jack Treynor va Jan Mossin kabi olimlar tomonidan mustaqil ravishda o‘rganilgan bo‘lsada Harry Markowits tomonidan yangi portfel nazariyasida keng foydalanildi. Kapital aktivlarini baholash modeli quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$E(R_i) = R_f + \beta_i[E(R_m)) - R_f)]$$

CAPM- bu aktivlardan kutilayotgan daromadni faqatgina tizimli risk sharotida beta koeffitsiyenti orqali hisoblaydi.

$E(R_i)$ – investitsiyadan kutilayotgan daromad, R_f – risksiz stavka, β_i – investitsiya betta koeffitsiyenti, $E(R_m)$ - bozor xavfi uchun mukofot.

Misol uchun hozirgi kundagi bozor bahosi 100 dollardan baholanayotgan aksiyaning risksiz stavkasi 3%, betta koeffitsiyenti 1.3 ga va bozor xavfi uchun mukofot 8 % bo‘lsa bu aksiyadan kutilayotgan daromad quyidagicha hisoblanadi.

$$E(R_i) = 3\% + 1.3x(\ 8\% - 3\%) = 9.5\%$$

Albatda biz birgina oddiy misol bilan Kapital aktivlarini baholash modelini tushuntirib berolmaymiz chunki bu misolda har bir ko‘rsatkich tayyor miqdorlarda olingan, lekin bu medeldagi har bir ko‘rsatkichni topishni o‘ziga yarasha usullari mavjud.

NATIJA VA XULOSALAR

Xulosa qilib aytganda, korxonalarda moliyaviy investitsiya portfellarini jalb qilish va rag‘batlantirishning zamonaviy shakllari va usullarini tahlil qilish ushbu strategiyalarning o‘sish va barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, shaffoflik, risklarni boshqarish va investorlar va korxonalar o‘rtasidagi manfaatlarni moslashtirishga e’tibor ishonch va uzoq muddatli munosabatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Texnologiyalar va ma’lumotlar tahlilidan foydalanish korxonalarga investitsiya strategiyalarini optimallashtirish, qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilash va risklarni samarali tarzda kamaytirish imkonini beradi. Tahlil

moliyaviy investitsiya portfellarining dinamik xususiyatini va korxonalar uchun investitsiyalarni samarali jalb qilish va rag‘batlantirish uchun strategik va yaxlit yondashuvni qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi.

Hamkorlik, innovatsiyalar va barqaror o‘sishni rag‘batlantirish orqali korxonalar tobora kuchayib borayotgan global bozorda uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. The Frank.J va Fabozzi Series The basics of finance +web site An introduction to Financial Markets, Business Finance, and Portfolio Manegement – 2010.
2. Michael G. McMillan, CFA Jerald E. Pinto, CFA Wendy L. Pirie, CFA Gerhar Van de Venter, CFA Investments Principles of Portfolio and Equity Analysis – 2011.
3. A.U.Burxonov va X.X.Xudoyqulov “Moliya bozori va investitsiyalar” – 2021.
4. Investopedia.com
5. Corporate finance.co

KICHIK BIZNES KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TADQIQ ETISHGA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR

K.Q.Tajibayev
katta o‘qituvchi, Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes korxonalarining raqobatbardoshligiga konseptual yondashuvlar atroflicha tahlil etilgan. Jahon mamlakatlari iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi kichik biznesning rivojlanganligi bilan bog‘liq. Hozirgi kunda mamlakatimizda kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini ta’minlashning samarali mexanizmini ishlab chiqish masalalari o‘rganilgan. Muammolar yuzasidan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Kichik biznes, iqtisodiy strategiya, raqobatbardoshlik, mexanizm, milliy iqtisodiyot, raqobat muhiti, ishlab chiqaruvchilar, raqobat ustunligi, iste’mol qiymati, narx.

Abstract: Conceptual approaches to the competitiveness of small business enterprises are thoroughly analyzed in this article. The stable development of the economy of world countries is connected with the development of small business. Currently, issues of developing an effective mechanism for ensuring the competitiveness of small business entities in our country have been studied. Conclusions and suggestions have been developed regarding the problems.

Key words: small business, economic strategy, competitiveness, mechanism, national economy, competitive environment, producers, competitive advantage, consumer value, price.

Аннотация: В статье подробно анализируются концептуальные подходы к конкурентоспособности предприятий малого бизнеса. Стабильное развитие экономики стран мира связано с развитием малого бизнеса. В настоящее время прорабатываются вопросы разработки эффективного механизма обеспечения конкурентоспособности субъектов малого предпринимательства в нашей стране. По поставленным проблемам сформулированы выводы и предложения.

Ключевые слова: малый бизнес, экономическая стратегия, конкурентоспособность, механизм, народное хозяйство, конкурентная среда, производители, конкурентное преимущество, потребительская стоимость, цена.

KIRISH

XXI asr kelib jahon mamlakatlari iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlash, mamlakat iqtisodiy strategiyasini ishlab chiqishda unga ta’sir etuvchi har qanday omilni chetda qoldirmay sinchiklab o‘rganishni talab qilmoqda. Keyingi yillarda iste’molchilarning didi, harid qobiliyatini oshishi ularning tovarlarga bo‘lgan yakka talablarini ko‘payishi ishlab chiqarishda seriyali ishlab chiqarishdan buyurtma asosida mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish davri boshlandi. Xaridorlarni shaxsiy buyurtmalari asosida mahsulot ishlab chiqarishda kichik biznes korxonalarining ahamiyatini oshirib bormoqda. Kichik biznesni rivojlantirish bo‘rasida rivojlangan mamlakatlarda qator islohatlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotida kichik biznes subyektlar raqobatbardoshligi ta’minlashning samarali mexanzmini ishlab chiqilganligi ularning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi salmoqli bo‘lishiga olib keldi. Masalan, Yevropa Ittifoqida bu ko‘rsatkich 75%, AQShda qariyb 53%, Yaponiyada esa 55% ni, Rossiyada esa 23% ga yaqindir. Kichik biznes sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni Yevropa Ittifoqida – 22 million, Rossiyada – 6 million, AQShda – 23 million, Yaponiyada 9 milliondan ortiqdir [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kichik biznes subyektlarining asosiy faoliyati mahalliy iste’mol bozorlari bilan bog‘liqligi uning milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishidagi ahamiyatini oshiradi va sohani raqobatbardoshligini ta’minlash mexanizmini doimiy ravishda tadqiq etish hamda takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Bu esa kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini yanada oshirish uchun xizmat qiladi. Kichik biznes subyektlarini rivojlantirish bevosita sohaning boshqa tarmoqlar bilan raqobatbardoshligiga asoslanadi. Ayniqsa, kichik biznes subyektlarini har tomonlama davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash soha raqobatbardoshligini

oshirishda o‘z samarasini bermoqda. Kichik biznes korxonalarini rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish masalalari jahonning ko‘plab olimlari tomonidan tadqiq qilingan.

Kichik biznes subyektlari o‘rtasida raqobat muhitining shakllanishi bilan birga, ularning raqobatbardoshlik qobiliyatlari ham o‘zgara boradiki, bu jarayon avvalo sun’iy monopoliyalarga qarshi kurashni tartibga solish va raqobatdosh tuzilmalarni qo‘llab-quvvatlash tizimlari faoliyatini takomillashtirib borish zaruriyatini vujudga keltiradi. Bu borada haligacha qator o‘rganilishi kerak bo‘lgan muammolarning mavjudligi sohada katta ijobiy natijalarga erishilishiga to‘g‘anoq bo‘lmoqda.

Insoniyat paydo bo‘lish bilan doimiy ravishda alohida shaxslar manfatlari bilan bog‘liq turli xil muammolar hal qilib kelingan, o‘zaro manfaatlarini to‘qnash kelishi resurslarning cheklanganligi va yashash sharoitini yaxshilashga intilishida kelib chiqadi. Shuning uchun ham raqobatbardoshlik tushunchasi mavjudlikga intilish yaxshi natijalarga erishish, subyektlar o‘rtasidagi ziddiyatli musobaqalashish bilan bog‘liq deb yuritiladi.

Kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligiga konseptual yondashuvlar, avvalo, raqobat tushunchasiga berilgan ta’riflarda namoyon bo‘lmoqda. Raqobat – mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi (korxona)lar o‘rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o‘z mavqeini mustahkamlash uchun kurash [2]. Raqobat ko‘p qirrali iqtisodiy hodisa bo‘lib, u bozorning barcha subyektlari o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Resurslarni yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi raqobat o‘zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, yer, ishchi kuchi) yuqori narxlarda sotish uchun amalga oshiriladi. Ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi raqobat bozor munosabatlari rivojlangan, iqtisodiyot to‘liq erkinlashgan sharoitda yaqqol namoyon bo‘ladi [3].

Raqobatni muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlarda raqobatga uch tomonlama yondashiladi.

Birinchisi, raqobat korxona va firmalar foydasini maksimallashtirish uchun bozor egallashga qaratilgan kurashi;

Ikkinchisi, raqobat bozorning muhim mexanizmi sifatida qaraladi. Bu esa talab va taklifni muvozanatga keltirishni amalga oshirishga yordam beradi.

Uchinchi, yondashuv raqobat bozorning bir hususiyati sifatida talqin etilib, shuni aytish mumkinki raqobatning amalga oshish holatiga qarab bozorlar turli ko‘rinishlarda bo‘ladi. Bu bozor ishtirokchilari ham o‘ziga xos xulq-atvoriga ega bo‘lishida va bozordagi raqobat darajasiga qarab u yoki bu ko‘rinishda bo‘ladi.

Klassik ingliz siyosiy iqtisodiyoti nazariyasi asoschisi A. Smit raqobat mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun iqtisodiy subyektlarning nisbatan qulay sharoitlar, imkoniyatlar kurashida xususiy va jamiyat talabini muvozanatlash jarayonlarini aks ettiruvchi xulq-atvor kategoriyasi sifatida talqin qildi.

A.Smitning qalamiga mansub “Xalqlar boyliklarining mohiyati va sabablarini tadqiq etish” (1776-y.) kitobida raqobat haqida o‘zining qarashlarini bayon etgan. A.Smit bozor tizimining markaziy mexanizmi – raqobat mexanizmi ekanligini aytib o‘tadi. Bozorda o‘z manfaatini ko‘zlab yurgan har bir individ shu maqsad bilan yurgan kishilarga duch keladi. Natijada, bozordagi har bir harakat qiluvchi subyekt raqobatchilar tomonidan taklif qilingan narxlarga rozi bo‘ladi. Bunday raqobat sharoitida ishlab chiqaruvchilar tomonidan o‘xshash tovarlarga me’yordan ortiq narx qo‘yish xaridorlarni yo‘qotishiga olib keladi. Bu esa ishlab chiqaruvchilarni raqobatbardoshligini yo‘qotadi. Raqobatbardosh bo‘lmagan subyekt esa tanazzulga uchraydi.

Mashhur Avstriyalik iqtisodchi Y. Shumpeter (1883-1950) o‘zining “Kapitalizm, sotsializm va demokratiya” [4]. kitobida, kapitalistik jamiyatdagi iqtisodiy taraqqiyot tartibsizlik demakdir. Ushbu tartibsizlikda raqobat vaqti-vaqti bilan bo‘lib turadigan, uzilish jarayon sharoitidagiga qaraganda butunlay boshqacha tarzda harakat qiladi. Yangi buyumlar yoki bir xil bozorgir buyumlar ishlab chiqarish orqali daromad olish imkoniyatlari subyektlarda, lekin arzonroq tarzda uzluksiz ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish moddiylashishni talab qiladi. Boshqacha aytganda moliyaviy-iqtisodiy resurs qo‘shimcha tarzda ishlab chiqarish jarayoniniga kiritiladi. Bu yangi mahsulotlar va yangi usullari teng shartlar asosida eski mahsulotlar va usullari bilan raqobat qila olmaydi. Korxona doimiy ravishda yangi usullarda va yangi sharoitlarda mahsulotlar ishlab chiqarish orqali raqobatbardoshligini oshirib borishi lozim. Kapitalistik jamiyatda “taraqqiyot” ana shunday amalga oshadi.

Shunday qilib, Y. Shumpeter tadbirkor innovatorni iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi, deb hisoblaydi. U “Raqobat tadbirkorning innovatsion intilishlarini (yangi mahsulotlar raqobati, tashkil etishning yangi shakllari va boshqalar.). Raqobat muhitida omon qolish uchun sizga monopoliya, innovatsiyalar tashkilotchisi bozorida monopol pozitsiya kerak [5]. deb uqtiradi. Sababi har qanday ishlab chiqaruvchi bozorda boshqalarga nisbatan monopol pozitsiyaga ega bo‘lmas ekan bozor tezda siqib chiqaradi.

Raqobat ustunligi nazariyasi asoschilaridan biri bo‘lgan amerikalik iqtisodchi M.Porter asarlarida tovarning raqobatbardoshligiga keyingi yillarda yangicha baho berildi. U tovarning raqobatbardoshligini “mahsulotning iste’molchi uchun qiymati” nuqtayi nazaridan belgilab berdi. Uning fikricha, har qanday xarid qilingan mahsulotning qiymati undan foydalanish natijasida keltiradigan nafga bevosita bog‘liq. “Bu qiymat o‘ta aniq va aynan hisoblanishi kerak. Shuningdek mavjud qiymat aniq mehnat mahsuli hamdir. Mahsulotning iste’mol qiymati-iste’molchi uni haqini to‘lash foydali, deb hisoblaydigan maksimal narx”. Mahsulotning raqobatbardoshligi mahsulot iste’mol qiymatining to‘lanmagan (yoki beg‘araz) qismiga to‘g‘ri proporsionaldir.

Porterning fikricha, har bir raqobatbardosh mahsulotning sotish bahosi iste'mol qiymatidan past deydi. Iste'molchi uchun iste'mol qiymatining to'lanmagan qismi mahsulotdan foydalanish natijasida olingan qo'shimcha foydaga teng. U tovarlarni yetkazib beruvchi uchun o'z mahsulotlarining raqobatbardoshligiga mos keladi.

Bu yerda, iste'molchi iste'mol qiymatining to'lanmagan ulushni iloji boricha katta bo'lishidan manfaatdor hisoblanadi. Yetkazib beruvchi esa bundan ikki barobar manfaatdordir. Bir tomondan, u o'zining katta hajmida aniq mehnat natijasidan ham foyda ko'radi: tovarlar raqobatbardoshligining yuqoriligi sotib olinadigan tovar iste'molchi uchun xaridorligini ekanligini kafolatlaydi, ikkinchi tomondan, tovarning sotish bahosini oshirish va raqobatbardoshligini kamaytirish orqali yetkazib beruvchining foydasi oshadi.

Agar yetkazib beruvchi monopolist bo'lsa, u narxni oshirishni afzal ko'radi va "raqobatbardoshlik zahirasi" nolga aylanadi. Bu yerda monopolist mahsulot tannarhiga o'zining rentabelligini shu darajada qo'shadiki normal foyda tugul maksimal foyda ko'radi. Yuqori raqobatlashgan bozorda raqobatdoshliklikka erishish uchun foydadan kechiladi. Uning manbai iste'mol qiymatining to'lanmagan qismiga teng.

Y. Shumpeter sotuvchining raqobatli va monopol nisbatini izohlab berdi. "Ogayo daryosining buyidagi joylashgan qishloqdagi magazin sotuvchisi daryoda toshqin bo'lgan paytda bir necha soatga yoki bir kungacha monopolist bo'lishi mumkin." Yirik korxona atrofidagi salohiyatli raqobatchilar narx belgilovchi sifatida faoliyat olib borib mahsulot narxini raqobatli narxdan yuqoriga ko'tarishi mumkin. E.Chemberlin va Y.Shumpeter qarashlarida raqobatbardoshlik jarayonlari va monopolistik firmalarni raqobat siyosati yevropa an'analari asosida yotadi.

Agar biz raqobatning statik modelini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, unda Fridrix fon Xayek fikriga ko'ra, mukammal raqobat nafaqat sof raqobat jarayoni, balki determinizmning imkoniyatli bir nuqtasidir. Biroq raqobat majburiy jarayon bo'lib, iqtisodiy tizimni takomillashtiradigan ichki tuzilishni va iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashdir. Avstriya maktablarining ko'plab ishlari raqobatbardosh buyruqlar mavjudligi uchun ushbu institutsional sharoitlarni ya'ni inklyuziv institutlarni rivojlantirish va oqlashga qaratilgan.

Yetarli bilim va malakaga ega bo'lgan tadbirkor tovar ishlab chiqarish xarajatlarini 50 foizga qisqartirishga erishsa, jamiyat uchun katta xizmat qilgan hisoblanadi. Bunga faqat raqobatni rivojlantirish orqaligina erishish mumkin [6].

Kirznerning so'zlariga ko'ra, tadbirkorlik va bozor vakillari orasida tadbirkorlik iste'dodlarining mavjudligi muvozanat holatini saqlab qolishda sezilarli rol o'ynaydi. Tadbirkorlik shaxsning o'ziga nisbatan "hushyor bo'lishini" ta'minlaydi – uning yangi raqobat imkoniyatlariga moyilligini keltirib chiqaradi. Bu esa, o'z navbatida, bozorni avvalgi yangiliklar bilan turg'un holatda qolib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Tadbirkorlar, yangi imkoniyatlardan foydalanib, narxlarni va savdo hajmlarini muvozanatning avvalgi nuqtasidan almashtiradilar, bu muvozanatsiz mexanizmni o'z ichiga oladi [7].

Korxonalarning raqobatbardoshligi innovatsiyalarni joriy qilinishi orqali ishlaydi. Korxonalar innovatsiya xarajatlarini ko'paytirish orqali yangi bozorlarga kirib borib boriladi. Korxonalar tomonidan bozorlarda yangi, sifatli va arzon mahsulotlarni taklif etish yo'li bilan korxonalarni raqobatbardoshligi ortib boradi. J.Klark tomonidan taklif etilgan raqobatni baholash mezonlari ishlab chiqilgan. (1-jadval)

1-jadval: J. Klarkning raqobatni baholash mezonlari [8]

Bozor strukturasi:	Sotuvchining xatti-harakatlari:
• aniq hukmronlikning yo'qligi va sotuvchilarning miqdori miqyosga ta'sir ko'rsatishga imkon beradi; • Mahsulotlarni o'rtacha diferensiyasi va narxlarning moslashuvchanligi; • sotuvchilarning bozor va boshqa tarmoqlar o'rtasida hamda bozor ichida harakatlanishi uchun to'siq bo'lmasligi; • bozor ma'lumotlarining maqbulligi; • raqobatchilarning narxlarni pasaytirishga bo'lgan munosabatidagi noaniqlik; • qonuniy cheklovlarning yo'qligi; • Yangi bozorlarni va savdo shartnomalarini ishlab chiqish.	• Mustaqil raqobat, daromad qidirish; • Yetkazib beruvchilar, buyurtmachilar va samarasiz raqobatchilar uchun qo'llab-quvvatlashning mavjud emasligi; • G'irrom raqobatni mavjud emasligi (bozorlarda narxlar shakllanishida alohida huquqlar va narxlarning o'zlashtirilgan taktikasidan tashqari); • Ortiqcha narxlar diskerminasiyasining mavjud emasligi; • Mahsulot sifati va boshqa xususiyatlaridagi farqlarga xaridorlarning yetarli darajada tezkor javob berishi.
Tarmoqlarning natijadorligi:	
• Samarali ishlab chiqarish va taqsimlash; • Reklama va savdo bo'yicha boshqa yordam usullar uchun keraksiz harajatlarning mavjud emasligi; • Investitsiya va innovatsiya faoliyatini qoplash uchun foydaning yetarliligi; • Samarali ishlab chiqarish; • Biznes faolligi davriga ta'sir etmaydigan narxlar; • Istemolchilarni talablariga javob beruvchi mahsulot sifati; • Mahsulot va texnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha tegishli daraja.	

1980-yillarning oxirida yangi industrial iqtisodiyot davri boshlandi. Mavjud davr vakillari raqobatni firmalarning asosiy ta'sir etish shakllari sifatida qarashdi. Tahlilchilar raqobat strategiyasining o'zgaruvchanligini tasvirlash uchun alohida nazariy apparat-o'yinlar nazariyasidan foydalandilar. Yangi industrial davri iqtisodiyoti asosiy maqsadi shundan iboratki, qanday yo'l bilan firmalar raqobatlashayotgan hamkorlikda o'zlarining faoliyatlarini muvofiqlashtirishga olib keladi. Yangi industrial iqtisodiyotda raqobatning tahlili strategik o'zaro ta'sirlarni hisobga olgan holda bozor xulq-atvorining turli xil xususiyatlari orqali beriladi.

Djon Forbs Neshning "O'yinlar nazariyasi" bir qator bozor strategiyalarini tadqiq etish imkonini beradi. Uning qamrovi narx bo'yicha kelishuvlardan va to narx orqali kamsitishlargacha, talonchilik darajasidagi baholarni belgilash yoki vertikal cheklovlar borasidagi vaziyatlarni tashkil etib, raqobat jarayonlarining barcha sohalarini yoritib berishga xizmat qiladi.

Raqobat nazariyasining bosqichma-bosqich rivojlanishi raqobatni ma'lum jarayon sifatida tushunishga, tabiatiga ko'ra o'zgaruvchan jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda, ko'rinib turibdiki, raqobat va monopoliya shu qadar bir-biri bilan uzviy bog'liqki, monopolistik raqobat – har lahzada ham monopoliya, ham raqobat xususiyatlari mavjud bo'lgan tuzilma bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, monopoliyaning o'zi moliyaviy resurslarni, sanoatda texnologik taraqqiyotni rag'batlantiradigan va salbiy iqtisodiy o'zgarishlarni bartaraf etadigan omil sifatida ma'lum ijobiy xususiyatlarga ega bo'ladi.

Narxlar va sotish hajmlarining iqtisodiy samaradorligi ko'rinishidagi raqobat natijasiga raqobat jarayonlarisiz va undan tashqarida erishish mumkin. Bu davrda tarmoqlarning ekonometrik tadqiqotlari va bozorlarning regression modellarini qurish orqali raqobatning miqdoriy ko'rsatkichlarini topiladi. Lekin bozorlarda faqat raqobatning bo'lishi yetarli emas, raqobat siyosati korxonalarning raqobatbardoshlik darajasini oshirish xizmat qilishi kerak.

Raqobat haqidagi zamonaviy tushunchalar, eng avvalo, "raqobat" konsepsiyasi o'rniga nibatan kengroq "bozorda firmalarning o'zaro munosabatlari" tushunchasi paydo bo'lishi bilan ham tavsiflanadi. Bozorda firmalarning samarali o'zaro munosabatlari uchun raqobat jarayoni (adolatli raqobat nazariyasi) ham, raqobat natijasi (uning barcha shakllaridagi iqtisodiy samaradorlik) ham bir xil ahamiyatga ega bo'ladi.

Jahonda kichik biznes subyektlarini raqobatbardoshligi masalalari bilan shug'ullangan AQSh Garvard biznes maktabi tajribalaridan foydalanishsh mumkin. Professorlar M. Porter, A. Chandler, M. Enrayt, J. Makarturlar ushbu maktabning asosini tashkil etadilar. Ular tomonidan mahsulotlar raqobatbardoshligini aniqlash muammolari, raqobat sharoitida korxonalarni strategik rejalarini ishlab chiqish, raqobat ustunligi va muvaffaqqiyatli rivojlanish omillarini o'rganildi.

Yana bir maktab bu Yapon maktabidir. Tokio, Xitosubasi, Vaseda universitetlari o'zlarining tadqiqotlarini narxsiz raqobat omillarini o'rganishga yo'naltirganlar. Bu markazda asosiy e'tiborni milliy ishlab chiqaruvchilarni qanday qilib yangi bozorlarni egallash muammolarini o'rganishga qaratadilar. Bu maktabning asosiy namoyandalari professor X. Takeuchi, X. Koboyasi, M. Suchiyalar hisoblanadi.

Yevropada ham korxonalarni raqobatbardoshligi masalalari bo'yicha tadqiqotlar turli tomonlama o'rganilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shveysariya, Shvesiya, Daniya, Avstriya, Italiya, Germaniya kabi mamlakatlar kompaniyalarning raqobatbardoshligiga oid o'zlarining alohida modellariga egadirlar. Ular o'zlarining ko'plab tadqiqotlarida asosiy e'tiborni xalqaro raqobatbardoshlik muammolarini o'rganishga qaratadilar.

M.Gelvanovskiy, V.Jukovskaya, I.Trofimovalar tomonidan raqobatbardoshlikka quyidagicha ta'rif beriladi. Raqobatbardoshlik - bu murakkab ko'p darajali tushuncha bo'lib , uni tahlil qilish va baholash ma'lum bir raqobat sohasi va ayniqsa uning darajasi bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan ishonch bilan aytish mumkinki, raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy darajasi makroiqtisodiy bo'lib, u butun iqtisodiy tizim faoliyatining asosiy shartlarini belgilaydi. Unga mezodaraja muhim ahamiyat kasb etadi, unda bir guruh korxonalarni qamrab olgan sanoat yoki korporatsiyani rivojlantirish istiqbollari shakllanadi. Mikro darajada raqobatbardoshlik, go'yo, tovarlarning narxi va sifati nisbati shaklida o'zining yakuniy shaklini oladi. Ushbu nisbat avvalgi ikki darajada shakllangan shartlarga va korxona xodimlariga, uning resurslaridan ham, qiyosiy milliy, umumiy iqtisodiy va sanoat afzalliklaridan foydalanish qobiliyatiga bog'liq [9].

Professor R.A.Fatxutdinov raqobatbardoshlikni quyidagicha ifodalaydi "...ushbu bozorda taqdim etilgan eng yaxshi o'xshash obyektlar bilan taqqoslaganda ma'lum bir ehtiyojni qondirish darajasini tavsiflovchi obyektlarning xususiyati. Raqobatdoshlikni qoidalar, ilmiy va uslubiy hujjatlar, dizayn hujjatlari, texnologiyalar, ishlab chiqarish, ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan xizmat), ko'chmas mulk, xodim, ma'lumot, firma, mintaqa, sanoat, har qanday makro muhit, umuman mamlakat kabi obyektlarga nisbatan ko'rib chiqish mumkin" [10].

Mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi katta ahamiyat kasb etadi. Jahon bozoriga mamlakatda tayyorlangan mahsulotlarni chiqarishda mahsulot va xizmatlarninng raqobatbardosh bo'lishi muhimdir. Chunki jahon bozoriga chiqarilayotgan mahsulotlar har tomonlama raqobatchi firmalar tomonidan taklif etilayotgan mahsulotlarga qaraganda birinchi navbatda sifatli va arzon bo'lishi kerak. M. Porter mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi muammosini o'zaro bog'liq tarmoqlar guruhlarini o'rganish nuqtayi nazaridan o'rganib chiqdi va uni klasterlar deb atadi [11].

Raqobatbardoshlikning eng tizimli konsepsiyasini L.P.Kurakov talqin qiladi: “raqobatbardoshlik - bu firma, korxona, tashkilotning mamlakat ichidagi va tashqarisidagi bozorda boshqa raqobatchilarga nisbatan afzalligi yoki kuchsizligi darajasi, texnologiya, kadrlar malakasi, sifat, savdo siyosati va boshqalar. Raqobatbardoshlik - bu mahsulotning nisbiy xarakteristikasi bo‘lib, obyektiv shaklda raqib mahsulotidan bir xil zaruriy ehtiyojni qondirish darajasi va uni qondirish xarajatlari nuqtayi nazaridan farq qiladi” [12].

Raqobatbardoshlik raqobatchilarga qarshi kurashda turli omillarning iqtisodiy, ilmiy-texnik, tashkiliy va boshqaruv, ishlab chiqarish, marketing, moliyaviy va boshqa imkoniyatlari to‘plangan. Ushbu imkoniyatlar bozorda raqib analoglariga qarshi bo‘lgan mahsulotda (mahsulotlar, ishlar, xizmatlar) amalga oshiriladi[13].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, sintez, analogiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro amaliyotda olingan nazariy va amaliy izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki bozor iqtisodiyotini, umuman olganda tovar xo‘jaligini rivojlantirishning eng muhim belgisi raqobat hisoblanadi. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki raqobat bo‘lmasa, bozor iqtisodiyotini tasavvur etib bo‘lmaydi. Raqobat - bu bozor mexanizmining asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxona uchun raqobat kuchayib borish korxonalarning o‘z raqobatbardoshligini saqlash va uni oshirish vazifasi birinchi o‘ringa chiqadi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni ijobiy natijadorligini ta’minlashga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu bejiz emas, Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida kichik biznes va tadbirkorlik sohasida raqobat munosabatlarini rivojlantirish sohasiga ahamiyat qaratib, quyidagilarni ta’kidladilar: “Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o‘rinlari yaratib, nafaqat o‘zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo‘lishi shart” [14]. Iqtisodiy islohotlar jarayonida mamlakatimizda kichik biznes subyektlari tomonidan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini jadal oshira borib, ularni eksport qilish masalalari ustuvorlik kasb etmoqda.

Raqobatbardoshlik tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida bozor munosabatlari sharoitida bir subyektning boshqa subyektlardan ustunligini ifodalaydi. O‘z navbatida raqobatbardoshlik xam nisbiy tushuncha bo‘lib, uni quyidagi darajalar, ya’ni makrodarajadagi, mezodarajadagi va mikrodarajadagi raqobatbardoshliklarga ajratib o‘rganiladi.

Raqobatbardoshlik jarayonlarining o‘ziga xosligi shundaki, u ahamiyatli bo‘lgan aniq vaziyatlarda uning ta’sirini tekshirib bo‘lmaydi, balki har qanday muqobil iqtisodiy tizimlar bilan taqqoslaganda bozor iqtisodiyotini boshqa iqtisodiy tizimlardan ko‘ra ustunligini ko‘rishimiz mumkin.

Har qanday sharoitda bozor iqtisodiyoti me’yoriy darajasida faoliyat ko‘rsatishi uchun bozorlarda mavjud raqobat mexanizmi me’yoriy darajada yaxshi ishlashi kerak. Bu esa bozorda faoliyat yurituvchi subyektlarni halol raqobat kurashida raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Bunday holat jahon iqtisodchi olimlari tomonidan ko‘pgina ilmiy risolalarda yetarli darajada isbotlangan, shuning uchun aksioma sifatida qabul qilinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshlik korxonaning bozordagi xatti-harakatini, raqobat kurashining mohiyati va shakllarini, raqobat kurashida korxonaning raqobatbardoshligini, raqobat sharoitida boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarini, jumladan, korxona rivojlanishi turli strategiyalarini shakllantirish va amalga oshirish xususiyatlarini tahlil qilinadi. Umuman olganda bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha tarmoqlarning rivojlanish strategiyasini raqobatbardoshlikdan alohida ko‘rib chiqish mumkin emas.

Kichik biznesni rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishga e’tiborning kuchaytirilishi keyingi yillarda qabul qilingan qator huquqiy hujjatlarda, xususan, 2023-yil 2-martda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagi PF-108-son, “Ma’muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrdagi “Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar eksport qilinishini rag‘batlantirish va raqobatdoshligini ta’minlash yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5286-son Farmoniga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda o‘z ifodasini topmoqda.

Fikrimizcha, korxonaning raqobatbardoshligi iqtisodiy kategoriya bo‘lib, uning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatini, mamlakat ichida va undan tashqarida ushbu tarmoqning boshqa korxonalariga nisbatan raqobatdosh ustunliklarini aks ettiradi. Korxonaning raqobatbardoshligini faqat bir tarmoqqa mansub korxonalar guruhi doirasida baholash mumkin, shuning uchun korxonaning raqobatbardoshlik darajasini baholash, birinchi navbatda, taqqoslash uchun asosiy obyektlarni tanlashni o‘z ichiga oladi. Taqqoslanayotgan raqobatdosh korxonalar o‘zaro mutanosiblikka ega bo‘lishi kerak:

1) ishlab chiqarilayotgan mahsulot uning yordami bilan qanoatlantiriladigan ehtiyojlarning o‘ziga xosligi bo‘yicha xususiyatlari;
2) ishlab chiqarilgan mahsulotlar mo‘ljallangan bozor segmentlari;
3) korxona faoliyat yuritadigan hayot siklining bosqichlari [15].

Korxonaning raqobatbardoshligi - bu bozordagi boshqa bozor kontragentlaridan yuqori bo‘lmagan va sifat jihatidan yomon bo‘lmagan narxda sotiladigan mahsulotni foydali ishlab chiqarish va sotish qobiliyati. Shuning uchun korxonaning raqobatbardoshligi uchta asosiy omildan iboratdir:

1) resurs (tayyor mahsulot birligiga resurslarning jismoniy xarajatlari);
2) narx (barcha foydalanilgan ishlab chiqarish resurslari va tayyor mahsulot narxlarining darajasi va dinamikasi);
3) “ekologik omil” (davlatning iqtisodiy siyosati va uning bozor kontragentiga ta’sir qilish darajasi) [16].

Shunday qilib raqobatbardosh kichik biznes korxonalari bu istemolchilar uchun sifati va narxlari jihatidan boshqa shu turdagi mahsulotlardan afzalliklarga ega raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi, samarali faoliyat yuritayotgan korxonalardir.

Kichik biznes korxonalarining raqobatbardoshligi quyidagilarga bog‘liq:

- korxonaning raqobatbardosh mahsulot chiqarish imkoniyati;
- tovar, ish va xizmatlar sifatini ta’minlash;
- samarali marketing va sotish tizimiga egaligi;
- xodimlar va boshqaruvning malaka darajasi;
- ishlab chiqarishning texnologik darajasi;
- korxonaning informasion tizimi;
- korxonada amal qilayotgan soliq muhiti;
- moliyaviy manbalardan foydalanish imkoniyati;
- korxona o‘zining raqobat ustunliklaridan foydalanish darajasi va bosqichlari;
- raqobatbardoshlikni ta’minlovchi texnik, iqtisodiy va operasion o‘lchamlari darajasi.

Ta’sirchan va rag‘batlantiruvchi, erkin iqtisodiy raqobatni rivojlantirish evaziga ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar ustidan xaridorlarning hukmronligi o‘rnatilib, bu bozor munosabatlarining mohiyatini belgilovchi sharoit hisoblanadi [17].

Tovarlar raqobatbardoshligining keng tarqalgan ta’riflari va raqobatbardoshlik haqidagi mavjud g‘oyalarni tahlil qilish ushbu konsepsiyani tushuntirish va uning boshqa iqtisodiy kategoriyalar orasidagi o‘rnini aniqlash uchun muhim bo‘lgan bir qator kategoriyalarni aniqlashga imkon beradi:

- mahsulot raqobatbardoshligi – bu mahsulotning iste’molchi uchun jozibadorligini bir o‘lchovidir;
- mahsulotlarning jozibadorligi turli xil, ba’zan qarama-qarshi talablarni qondirish darajasi bilan belgilanadi;
- mavjud talablarning tarkibi, ularning ustuvorligi mahsulot turiga va uning iste’molchilariga ham bog‘liq;
- iqtisodiy kategoriya sifatida raqobatbardoshlik nisbiy xususiyatga ega, chunki u ma’lum bir bozorga va o‘ziga xos analogga nisbatan hisoblanadi;
- raqobatbardoshlik dinamik xarakterga ega, shuning uchun uni faqat vaqt o‘tishi bilan bozor sharoitlarining o‘zgarishini hisobga olgan holda ma’lum bir nuqtaga nisbatan ko‘rib chiqish mantiqan to‘g‘ri keladi;
- raqobatbardoshlik muammosi asosan stasionar bo‘lmagan to‘yingan bozor bilan bog‘liq;
- raqobatbardoshlik o‘rganilayotgan mahsulotning hayotiy siklning bosqichiga bog‘liq.

Xususan, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini 29-maqsadida “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish” [18]. - oldimizdagi asosiy maqsadlardan biri sifatida qayd etilgan. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida “Kichik va o‘rta biznesning xalqaro bozorlarga chiqishiga imkoniyatlarni kengaytirish, mikro moliyalashtirishni rivojlantirish, innovatsiyalar va startaplarni qo‘llab-quvvatlash hamda yirik biznes bilan kooperatsiyani rivojlantirishning yangi instrumentlarini amaliyotga joriy etish” [19]. kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash orqali rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish masalalariga alohida urg‘u berilgan. “Yangi O‘zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturi o‘z samarasini bermoqda. Bir yilning o‘zida 2 mingga yaqin tadbirkorlar ilk bor tashqi bozorlarga chiqdi...

Erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog‘lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash Konstitutsiyada alohida o‘rin egallashi kerak [20]. Yuqoridagi vazifani bajarish O‘zbekistonda mahalliy iste’mol bozorlarida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish mexanizmini ilmiy muammosini nazariy-konseptual asoslarini chuqur tahlil qilish, kichik biznesni raqobatbardoshligini rivojlanish tendensiyalarini va ustuvor yo‘nalishlarini amaliy jihatdan o‘rganishni taqazo etadi. Shuning uchun kichik biznes korxonalariining, xususan ularning mahalliy iste’mol bozorlaridagi raqobatbardoshligi muammosi o‘ta muhim, chunki u bevosita korxonalar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmini takomillashtirish bilan bog‘liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi hulosaga kelish mumkin:

- kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligi ular ishlab chiqarayotgan tovarlar raqobatbardoshligi bilan uzviy bog‘liq, ammo uni hech qachon to‘g‘ridan-to‘g‘ri tovarlar raqobatbardoshligi bilan tenglashtirish mumkin emas;
- kichik biznes korxonalarining raqobatbardoshligi korxonaning bozordagi boshqa kichik biznes korxonalari bilan raqobatlashish imkoniyatlaridir;
- kichik biznes korxonalarining raqobatbardoshligi uning bozordagi raqobat ustunligi va faoliyat samaradorligi bilan belgilanadi.

Respublikamizda kichik biznes subyektlarini rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni negizida bo‘lishi kerak.

O‘zbekistonda qat’iy tejamkorlik tizimini rag‘batlantirish orqali korxonalarning raqobatdoshligini oshirish ko‘p jihatdan mahsulotlar tannarxini pasaytirishga bog‘liqdir.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Коваленко Н. В., Сулейманова Т. А. Отечественный и зарубежный опыт государственной поддержки малого и среднего предпринимательства // ЦИТИСЭ. – 2020. – № 2. – С.471-485. DOI: http://doi.org/10.15350/2409-7616.2020.2.41.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. O‘zbekiston NMIU-2020 yil. 360-bet.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqobat
4. Й. Шумпетер. Теория экономического развития. –М. –1982.
5. С.А.Туменова. Региональная конкурентоспособность в новой экономике: концепции, методы, модели. – Нальчик: Издательство КБНЦ РАН, 2019. – 200 с.
6. Hayek F. Individualism and Economic Order. Chicago. –1980. P.102.
7. Kirzner, I. Equilibrium versus market process. In The Foundations of Modern Austrian Economics I. Kirzner. – Kansas, 1976. – P. –115–125.
8. J. Klark raqobatni baholash mezonlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
9. Гельвановский, М.И. Конкурентоспособность в микро-, мезо- и макроуровневом измерениях / М.И. Гельвановский, В. Жековская, И. Трофимов // Российский экономический журнал. – 1998. – № 3. – С. 67–68.
10. Фатхутдинов, Р.А. Конкурентоспособность: экономика, стратегия, управление / Р.А. Фатхутдинов. –М.: ИНФРА-М, 2000. – 312 с.
11. Портер М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран. –М.: Международные отношения, –1993. –896 с.
12. Кураков, Л.П. Большой толковый словарь экономических и юридических терминов / Л.П. Кураков, В.Л. Кураков. – М.: Вуз и школа, 2001. – 720 с.
13. С.А. Туменова. Региональная конкурентоспособность в новой экономике: концепции, методы, модели. – Нальчик: Издательство КБНЦ РАН, 2019. – 200 с. 66-с
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi
15. Фатхутдинов Р. А. Стратегический маркетинг: учебник. –М.: Дело, 2001. 448 с.
16. Петров В. Конкурентоспособность. Анализ факторов, показателей и критериев, определяющих успех субъектов рынка в конкурентной борьбе на различных уровнях экономической деятельности (микро-, мезо-, макро, глобальном) // Ресурсы, информация, снабжение, конкуренция. 1999. № 4. С. 4–11.
17. Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob. –T.: “Mehnat”, 1997. –57-58-6.
18. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot trategiyasi”. 29-maqsad.
19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.
20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (president.uz)

БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ В СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ



Камолова Феруза Кахрамоновна
Базовый докторант 2 курса, ТФИ

Аннотация: В данной статье расмотрены определения дебиторской и кредиторской задолженности, виды задолженности их отличия, влияние задолженности на финансовое состояние предприятия. Также автором перечислены возможные штрафы и последствия за просроченные задолженности.

Ключевые слова: Дебиторская задолженность, кредиторская задолженность, просроченная задолженность, финансовое состояние, штраф, эффективность управления, НСБУ, финансовая отчетность.

Annotatsiya: Ushbu maqolada debitorlik va kreditorlik qarzlarining ta'riflari, javobgarlik turlari, ularning bajarilishi va majburiyatlarning korxonaning moliyaviy holatiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Muallif, shuningdek, muddati o'tgan qarzning mumkin bo'lgan jarimalari va oqibatlarini ham eslatib o'tadi.

Kalit so'zlar: debitorlik qarzlar, kreditorlik qarzlar, muddati o'tgan qarzlar, moliyaviy holat, jarima, boshqaruv samaradorligi, moliyaviy hisobot.

Abstract: This article discusses the definitions of receivables and payables, types of liability, their compliance, and the impact of obligations on the financial condition of the enterprise. The author also mentions possible fines and consequences of overdue debt.

Key words: accounts receivable, accounts payable, overdue debt, financial condition, fine, management efficiency, financial statements.

ВВЕДЕНИЕ

В современной экономике вопросы бухгалтерского учета задолженности как со стороны дебиторов, так и кредиторов, обретают особую важность, поскольку многие компании оказываются в ситуации, когда становятся "застрявшими" кредиторами, а неоплаченные долги со стороны клиентов являются главным фактором, ухудшающим структуру баланса и негативно влияющим на финансовое положение предприятия. При реализации продукции, товаров и услуг компанией другим юридическим и физическим лицам, включая ее собственных сотрудников, и при проведении расчетов с ними в определенный срок после совершения данных операций, у компании возникают краткосрочные и долгосрочные активы в виде дебиторской задолженности.

При эффективном управлении организацией, обеспечивающем круговорот денежных средств, возникает прибыль, которая может быть использована для выплаты дивидендов учредителям. Однако важно отметить, что неконтролируемый рост дебиторской и кредиторской задолженности может снизить ликвидность оборотных активов и платежеспособность компании, что, в свою очередь, может подорвать ее финансовую устойчивость. Несвоевременное погашение дебиторской задолженности может привести к денежным потерям из-за обесценивания активов в условиях инфляции, тогда как неуправляемый рост кредиторской задолженности повышает риск банкротства организаций из-за возможных претензий со стороны кредиторов. Кроме того, просрочка платежей со стороны дебиторов может нарушить своевременное выполнение обязательств перед кредиторами и налоговыми органами, что приведет к необходимости привлечения новых кредитных ресурсов с увеличением себестоимости из-за выплаты процентов, что в конечном итоге приведет к снижению финансовых результатов.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Результаты проведенного исследования позволяют отметить, что раскрытию содержания дебиторской и кредиторской задолженности посвящены научные труды многих отечественных и зарубежных ученых. Так, по мнению экономиста А.Ю. Жданова под дебиторской задолженностью хозяйствующего субъекта следует понимать платежи покупателей товаров, а под кредиторской - задолженность самого субъекта поставщикам товаров и другим сторонним организациям [11].

Среди отечественных ученых определению дебиторской и кредиторской задолженности свое внимание обратили такие ученые как профессор А. Каримов. Так по его мнению под “Дебиторской задолженностью” стоит понимать текущий актив предприятия, представляющий собою право предприятия требовать от других лиц (физических или юридических) выполнения каких-либо обязательств в отношении себя, а под “Кредиторской задолженностью” стоит понимать долги нашего предприятия другим юридическим и физическим лицам, а сами эти лица для нас будут кредиторами. Наличие кредиторской задолженности не всегда несет на себе негативный оттенок слова “долг”. Зачастую это всего лишь принятые, но еще не выполненные обязательства [7].

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Исследование базировалось на анализе законодательных актов, национальных и международных стандартов бухгалтерского учёта, а также информации о работе Совета по международным стандартам финансовой отчетности. Для достижения поставленных целей использовались методы сравнительного анализа и обзора данных, доступных на едином портале корпоративной информации в Республике Узбекистан, а также исследований национальной ассоциации бухгалтеров и аудиторов.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЯ

В ходе хозяйственной деятельности у предприятий возникают две основные категории задолженности: внутренняя и внешняя (рис.1). Это подчеркивает необходимость эффективного управления денежным потоком, который включает в себя получение средств от дебиторов и расходы на погашение кредиторской задолженности.

Решение этой проблемы требует доступа к полной и достоверной информации о состоянии и динамике дебиторской и кредиторской задолженности, что подчеркивает важность бухгалтерского учета и контроля в этом процессе.

Классификация обязательств имеет ключевое значение для корректного отражения их на бухгалтерских счетах и анализа финансового состояния предприятия.

Текущие (краткосрочные) обязательства – это обязательства, погашение которых произойдет в течение ближайших 12 месяцев.

Долгосрочные обязательства – это обязательства, срок оплаты которых превышает 12 месяцев. Они оцениваются по стоимости основного обязательства, на которую начисляется процент.




Рис.1: Виды задолженностей

Сумма задолженности должна отражаться в учете как текущая стоимость будущих денежных выплат, полученная путем дисконтирования их стоимости (т.е. путем прибавления процентов по кредиту к основному долгу).

Кредиторская задолженность считается просроченной, аналогично дебиторской, если с момента фактической отгрузки товаров, выполнения работ или оказания услуг прошло более 90 дней, но денежные средства за поставленные товары или услуги не были уплачены. Однако существуют исключения, которые определены законодательством [6].

Просроченная кредиторская задолженность бывает долгосрочной и краткосрочной. Также она может быть невостребованной. В случаях просроченной кредиторской задолженности и нарушения установленных сроков проведения платежей при наличии соответствующих средств на счетах предприятий на должностных лиц налагается штраф в размере от 10 до 15 БРВ [4]. Нарушение сроков оплаты и невозврат долгов приводит к:

- ухудшению деловой репутации
- начислению штрафов и пеней
- введению процедуры банкротства в отношении должника

Для погашения кредиторской задолженности существуют два основных способа: полное погашение долга, включая возможность взаимозачета, и списание с баланса. Однако второй вариант применим только к невостребованной кредиторской задолженности.

Невостребованная задолженность включает в себя обязательства, не уплаченные должником или не полученные кредитором в течение срока исковой давности. Подобная ситуация может возникнуть из-за просрочки оплаты, ошибок в документообороте или невозможности осуществления платежа по объективным причинам.

Невостребованная задолженность может возникнуть из-за нарушения сроков оплаты, ошибок в документообороте или невозможности осуществить оплату по объективным причинам. В случае невыполнения обязательства сторона, чье право было нарушено, может обратиться в суд в течение трех лет, установленных сроком исковой давности.

Списание кредиторской задолженности с баланса происходит в двух случаях: по истечении срока исковой давности (три года) или при наличии судебного решения о списании. При этом бухгалтер должен также признать этот долг как доход. Это обусловлено тем, что несмотря на то, что деньги не были уплачены, они должны быть учтены как доход, поскольку обязательство было ранее засчитано, но осталось неисполненным. Признание дохода происходит не только при списании с увеличением активов, но также и при уменьшении обязательств, при условии, что другие обязательства и активы не претерпели изменений.

Датой списания кредиторской задолженности при истечении срока исковой давности будет дата образования кредиторской задолженности плюс 3 года. В бухгалтерском учете списание кредиторской задолженности отражают следующим образом:

- ДТ 6010 Счета к оплате поставщикам и подрядчикам
- КТ 9360 Доходы от списания кредиторской и депонентской задолженности

Дебиторская задолженность, у которой просрочен срок исковой давности, а также другие не взыскиваемые долги могут быть списаны на основе проведенной инвентаризации, сопровождаемой письменным обоснованием и приказом (распоряжением) руководителя организации. Эти суммы могут быть зачислены на счет резерва сомнительных долгов или учтены в финансовых результатах коммерческой организации, если они не были резервированы в предыдущем отчетном периоде.

Списание долга из-за неплатежеспособности должника не приводит к полному аннулированию задолженности. Этот долг должен оставаться отраженным в бухгалтерском балансе в течение пяти лет с момента списания для тщательного мониторинга возможности его погашения в случае улучшения финансового положения должника.

Дебиторская задолженность по контрактам внутри республики должна быть погашена в течение 90 дней с момента фактической поставки продукции, товаров, выполнения работ или предоставления услуг [6]. Если денежные средства не поступают в указанный срок, такая задолженность считается просроченной. За просроченную дебиторскую задолженность (а также кредиторскую) предусмотрен штраф, размер которого колеблется от 10 до 15БРВ и налагается на должностных лиц [4].

ВЫВОДЫ

В современных экономических условиях ключевым аспектом финансово-хозяйственной деятельности любой организации является достижение положительного финансового результата. Этот результат формируется под влиянием дебиторской и кредиторской задолженности, которая является неотъемлемой частью товарно-денежных отношений между поставщиками и заказчиками. Своевременное урегулирование дебиторской задолженности путем погашения обязательств способствует поступлению финансовых ресурсов на счета поставщиков, а также привлечение кредитных средств по более выгодным условиям, чем использование собственного капитала. Эти меры позволяют организациям снижать затраты, повышать эффективность деятельности и, в результате, улучшать финансовые показатели, такие как финансовый результат, платежеспособность и финансовая устойчивость.

Просроченная задолженность регулируется на законодательном уровне. В случаях просроченной кредиторской задолженности и нарушения установленных сроков проведения платежей при наличии соответствующих средств на счетах предприятий на должностных лиц налагается штраф . Соответственно эти нарушения могут ухудшить деловую репутацию хозяйствующего субъекта и повлечь за собой наложение штрафов и пений.

Список использованной литературы:

1. Гражданский Кодекс Республики Узбекистан от 21.12.1995г № 163-I и 29.08.1996г №256- I (с последующими изменениями 2018г).
2. Налоговый Кодекс Республики Узбекистан от 25.12.2007г. № ЗРУ-136 (с последующими изменениями 2018г.)
3. Трудовой Кодекс Республики Узбекистан от 21.12.1995г. (с последующими изменениями 2009г.)
4. Кодекс Республики Узбекистан об административной ответственности от 22.09.1994 г. n 2015-xii ст 175
5. Закон Республики Узбекистан “О бухгалтерском учете” от 13.04.2016г. №ЗРУ- 404
6. УП-1154 12.05.1995 “О мерах по повышению ответственности руководителей предприятий и организаций за своевременность проведения расчетов в народном хозяйстве”
7. Каримов А.А, Джамбакиева Г.С, Малей Е.Б, Сапего И.И “Бухгалтерский финансовый учет в промышленности”, учебник, 2021г
8. Боргояков, А. С. Формирование кредитной политики фирмы с позиции ее платежеспособности / А. С. Боргояков // Аудит и финансовый анализ. - 2016. - № 6. - С. 163-167.
9. Алькина, Н. П. Методика анализа дебиторской и кредиторской задолженности [Электронный ресурс] / Н. П. Алькина // Молодой ученый. – 2016. – № 9.2. – С. 3-5.
10. Жданов, А. Ю. Теоретические аспекты управления кредиторской и дебиторской задолженностью / А. Ю. Жданов, Л. В. Зубенко, Е. В. Иода // Инновационная экономика и право. - 2018. - № 2-3(11-12). - С. 24-28
11. https://lex.uz
12. https://norma.uz

O‘ZBEKISTONDA MEHMONXONA SOHASIDAGI MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI



Mirzayeva Lola Shavkatovna
Turizm qo‘mitasi huzuridagi Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda mehmondo‘stlik sohasida G‘arb boshqaruv tizimining integratsiya jarayoni bayon etilgan. Maqolada mehmonxona sohasida mahalliy boshqaruv tizimi tahlil qilingan. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili bilan birgalikda muallifning fikr-mulohazalari, xulosa va istoqbolli takliflari berilgan.

Kalit so‘zlar: mehmonxona, turizm, mehmonxona boshqaruvi, xizmatlar iqtisodiyoti, xizmat ko‘rsatish sanoati.

Abstract: This article describes the process of integration of the Western management system in the field of hospitality in Uzbekistan. The article analyzes the local management system in the hotel industry. Together with the analysis of the literature on the topic, the author's opinions, conclusions and promising suggestions are given.

Key words: hotel, tourism, hotel management, service economy, service industry.

Аннотация: В данной статье описан процесс интеграции западной системы менеджмента в сфере гостеприимства в Узбекистане. В статье анализируется местная система управления в гостиничном хозяйстве. Вместе с анализом литературы по теме приводятся мнение автора, выводы и перспективные предложения.

Ключевые слова: гостиница, туризм, гостиничный менеджмент, экономика услуг, сфера услуг.

KIRISH

Jahonda turizm va rekreatsiya sohasi iqtisiyotning yetakchi va strategik tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Butunjahon turizm tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, “…turizm daromadlilik darajasi bo‘yicha uchinchi, tovarlar va xizmatlar eksportida to‘rtinchi o‘rinda, uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi esa o‘rtacha 10 foizni tashkil etmoqda…”. Bunday holat tarmoqda iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi mehmonxona industriyasini rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi.

O‘zbekistonning 2030-yilgacha turizmni rivojlantirish strategiyasida ham maqsadli vazifalar sifatida “…turizmning ijtimoiy rolini oshirish va joriy qilish, shu jumladan davolash- sog‘lomlashtirish (rekreatsion), bolalar va yoshlar turizmini rivojlantirish …” belgilangan [1].

Hozirgi vaqtda mehmonxona biznesida integratsiya va samarali boshqaruv tendensiyasi mavjud bo‘lib, uning maqsadi turizm bozoriga yuqori xizmat ko‘rsatish standartlarini ilgari surish, shuningdek, mehmonxona xodimlarining professionalligini oshirish orqali yuqori sifatli mehmonxona xizmatlarini shakllantirishdir. Boshqaruv jarayonlari mehmonxona biznesining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, ular raqobatning keskin kuchayishi, mehmonxona kompaniyalarining birlashishi va sotib olinishi sonining ko‘payishi bilan birga ifodalanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mehmonxona xo‘jaligini rivojlantirish va uning boshqaruvi, turizm sohasini rivojlantirishda mehmonxona xizmatlariga qo‘yiladigan talablar va uning tizimli iqtiqbollari, turizm tashkilotlarini tartibga solish, tartibga solishning tashkiliy mexanizmlari bilan bog‘liq muamollarning ilmiy asoslari Eshtayev A.A., Tuxliyev I., Hayitboyev R., Safarov B., Tursunova G., Aliyeva M.T., Norchayev A.N., Ergashkhodjaeva Sh. ilmiy ishlarida tadqiq etilgan [2, 3, 4, 5, 8].

Yuqorida aytib o‘tilgan tadqiqotlarga asoslanib, turizm hamda mehmonxona sohasining mahalliy boshqaruv tizimini tatbiq etish mexanizmini takomillashtirish va tartibga solish borasida yechimini topmagan masalalarga doir izlanishlar olib borilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot tomonidan qo‘llanilgan metodologiya mavzuga oid adabiyotlarni o‘rganish va ularni tahlil qilishga asoslandi.

Mehmonxona sohasining xalqaro va mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish mexanizmi bo‘yicha tadqiqotlar o‘rganilib chiqildi. Mehmonxona boshqaruviga bag‘ishlangan ma’ruzalar, konferensiya materiallari, internet nashrlari o‘rganildi, hamda umumlashtirildi, tahlil, sintez va tanqidiy fikrlash kabi usullar qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tez o‘zgaruvchan dunyoda shaffof boshqaruv, tezkor va dinamik qarorlar qabul qilishni hisobga oladigan boshqaruv tizimini yaratish SONY kompaniyasining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ichki motivatsiyaga quyidagilar kuchli ta’sir qiladi: ish haqi, ish beruvchi hisobidan o‘qitish imkoniyatlari, martaba o‘sishi imkoniyatlari, qo‘shimcha to‘lovlar (bonuslar, ijtimoiy nafaqalar, ijtimoiy nafaqalar va boshqalar), hurmat va hurmat, qiziqish va qo‘llab-quvvatlash. texnik va ijtimoiy tizimlarni, shuningdek, korxona jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha individual takliflar bo‘yicha menejer ishlaydi.

Xorijiy tajribani tahlil qilish asosida biz rivojlangan mamlakatlarda qo‘llaniladigan motivatsiyalar asosida inson kapitalini boshqarishning bir necha usul va yondashuvlarini aniqlaymiz va guruhlaymiz (7-rasm): Bilim talab qiladigan sohalarda inson kapitalini boshqarish bo‘yicha xorijiy tajribani tahlil qilish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan xodimlarning ichki motivatsiyasini rivojlantirishni ta’minlaydigan vositalarning sezilarli darajada rivojlanganligini ko‘rsatdi. Fikrimizcha shuning uchun ham yurtimizdagi tashkilotlar ichki motivatsiyani rag‘batlantiradigan omillar va shartlarni qabul qilishlari kerak. Tashkilotlarda ishning qiziqarli va innovatsion mazmunliligini ta’minlash, ish faoliyatining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini oshirish, shuningdek, jamoada qulay ma’naviy-psixologik muhitni yaratish. Fikrimizcha ichki motivatsiya hammasidan ustundir, ayniqsa, ish haqqining mosligi, ish beruvchi hisobidan o‘qitish va malakasini oshirish, xodimlar o‘z martabalarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari, hamda qo‘shimcha to‘lovlar (bonuslar, ijtimoiy nafaqalar, ijtimoiy paketlar va boshqalar)ni joriy qilish, va albatta texnik-ijtimoiy tizimlarni, shuningdek, korxona jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha individual takliflarni qabul qilish bo‘yicha menejerlar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Manba va adabiyotlar:

1. Бражникова Н.Б., Друшляков С.С., Кокуйцева Т.В. Зарубежный опыт управления человеческим капиталом на предприятиях высокотехнологичных отраслей промышленности. Зарубежный опыт управления человеческим капиталом. – Бизнес в законе. –42015 – 141-145 ст.
2. Коротков Э.М. Концепция российского менеджмента / Э.М. Коротков. –М.: ДеКА, 2004. – 219 с.
3. Гречко М.В. Человеческий капитал как интенсивный фактор развития отечественной экономики в условиях глобальных изменений. Национальные интересы: приоритеты и безопасность.2013. № 27.

4. Друшляков С.С., Кокуйцева Т.В. пути развития инструментов управления человеческим капиталом на предприятиях ракетно-космической промышленности России//Бизнес в законе. Экономико-юридический журнал//62016-198-200 ст.
5. https://www.bundestag.de/presse/hib/kurzmeldungen-986976.
6. https://www.lockheedmartin.com/en-us/ahead-of-ready.html
7. https://kun.uz/uz/34389528.
8. Sherov A.B. et al. Current issues of financing higher education institutions in the condition of an innovative economy //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 21. – C. 127-130.
9. Kuziboev B. et al. The Role of Renewable Energy and Human Capital in Reducing Environmental Degradation in Europe and Central Asia: Panel Quantile Regression and GMM Approach //Energies. – 2023. – T. 16. – №. 22. – C. 7627.
10. Sherov A.B., Ruzmetova G.A. O ‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va uni moliyalashtirishning dolzarb masalalari //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 264-270.
11. Sherov A.B., Ruzmetova G.A. Oliy talim muassasalarini moliyalashtirish modellari//International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – 2022. – C. 170-174.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



AGRASANOAT MAJMUASIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI YETISHIRISH VA QAYTA ISHLASHDA KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO TAJRIBALARI

Salixov Sherzod Abduxakimovich
Toshken viloyati, Toshkent tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada agrosanoat majmuasida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashda klaster tizimini rivojlantirishning xalqaro tajribalari, klaster tizimining innovatsion yechimlari, iqtisodiy samaradorligi, olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, xalqaro tajribalarning amaliy tahlili hamda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga qaratilgan bir qator masalalar ilmiy jihatdan bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: agrosanoat majmuasi, oziq-ovqat, qayta ishlash, klaster tizimi, innovatsiya, xalqaro tajriba, qishloq xo‘jaligi.

Abstract: In this article, the international experiences of developing the cluster system in the production and processing of food products in the agro-industrial complex, innovative solutions of the cluster system, economic efficiency, conducted scientific researches, practical analysis of international experiences and a number of issues aimed at the reforms carried out in our country are scientifically described.

Key words: agro-industrial complex, food, processing, cluster system, innovation, international experience, agriculture.

Аннотация: В данной статье рассмотрен международный опыт развития кластерной системы в производстве и переработке пищевой продукции в АПК, инновационные решения кластерной системы, экономическая эффективность, проведены научные исследования, практический анализ международного опыта и ряд Научно описаны вопросы, направленные на проводимые в нашей стране реформы.

Ключевые слова: агропромышленный комплекс, продовольствие, переработка, кластерная система, инновации, международный опыт, сельское хозяйство.

KIRISH

Hozirgi davrda agrosanoat majmuasida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, agrosanoat majmuasi oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirib beruvchi asosiy sohalardan biri bo‘lib, ushbu sohani rivojlantirishda klasterlarning o‘rni yuqori ekanligi jahon tajribasida yaqqol namoyon bo‘lib kelmoqda. Shuning uchun ham klaster g‘oyasi raqobatbardoshlikni ta’minlash vositalaridan biri sifatida butun dunyo bo‘ylab keng tarqalmoqda. Globallashuv sharoitida iqtisodiyot sohalarida ham klasterlashuv tendensiyalari kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Chunki, eng ko‘p iqtisodiy muammolar agrosanoat majmuasida uchraydi. Shuning uchun ham aynan ushbu sohadagi iqtisodiy muammolarni bartaraf etish uchun ham klasterlarni rivojlantirish va xalqaro tajribalarni o‘rganib amaliyotga tatbiq etish agrosanoat majmuasidagi innovatsion yechimlardan biri hisoblanadi. Bu borada quyidagi davlatlarning tajribalarini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, hozirgi kunda agrosanoat majmuasida klasterlarni rivojlantirish bo‘yicha Yevropa Ittifoqi, AQSH va Xitoy kabi bir qator yetakchi davlatlar megatrendga aylanmoqda. Yevropa Ittifoqi tajribasi ma’lumotlarga ko‘ra Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida faol klasterlashtirish siyosati (KS) 2000-yillar boshidan amalga oshira boshlangan va hozirgacha 5 bosqichdan iborat davrni qamrab oladi [2].

Ular quyidagi davrlarga bo‘linadi:

1-bosqich (2000-2006-yillar) – Yevropa Komissiyasi PHARE dasturi orqali klasterlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan sinov (pilot) tashabbus dasturlarini amalga oshira boshladi. “Yevropa mamlakatlarida klasterlashtirish to‘g‘risidagi manifest” (2006-y.) qabul qilindi.

2-bosqich (2007-2009-yillar) – “Klasterlar to‘g‘risidagi Yevropa memorandumi” (2008-y.) qabul qilindi, Yevropa Klaster observatoriyasiga asos solindi va axborot-tahliliy materiallar bazasi yaratila boshlandi.

3-bosqich (2010-2012-yillar) – klasterlashtirish dasturlari sifatini oshirishga, ularni baholash va tabaqalashtirish instrumentlarini shakllantirishga hamda klasterlarni boshqarish bo‘yicha yuqori malakali menejerlar tayyorlashga e’tibor qaratildi.

4-bosqich (2013-2017-yillar) – “aqlli ixtisoslashuv” va “o‘suv nuqtalari” tamoyillari asosida klasterlarni hududiy rivojlanish dasturlariga integratsiyalash orqali hududlarning raqobat ustunliklarini oshirishga va tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirishga ko‘maklashish ishlari olib borildi.

5-bosqich (2017-yildan hozirgacha) – yangi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida klasterlarni rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli dasturlarni amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi.

Bundan ko‘rinadiki, klasterlarni rivojlantirish agrosanoat majmuasidagi iqtisodiy muammolarni bartaraf etishga hamda iqtisodiy munosabatalarni tartibga solish xizmat qiladi. Agrosanoat majmuasida klasterlarni rivojlantirishda yuqoridagi davlatlarning tabbirlarini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish mamlakatimizda yangi imkoniyatlarni yuzaga kelishini ta’minlab beradi.

ILMIY MUAMMONING QO‘YILISHI

Agrosanoat majmuasida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashda klasterlarni rivojlantirish borasida ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan yangi innovatsion amaliy va loyihaviy ishlar hamda bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan xorijlik iqtisodchi olimlar A. Marshal, M. Porter, M. Droge, D. Souler, E. Dahmen, T. Gammalar [3] tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash zanjirida integratsiyalashuv jarayonlarini rivojlantirish, jumladan iqtisodiyot tarmoqlarini klaster va kooperatsiya yondashuvi asosida rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik asoslariga qaratilgan masalalar ularning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘rganib chiqilgan.

MDH olimlaridan A.V. Glotko, I.N. Sucheva, I.A. Svistula, I.A. Minakov, I.S. Malseva, N.G. Korolevichlar [4] tomonidan agrosanoat majmuasida klasterlarni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoati, jumladan qayta ishlash zanjirida integratsiyalashuv jarayonlarini rivojlantirish masalalari iqtisodchi olimlar N.I. Saidaxmedova, R.H. Hakimov, M.A. Rahmatov, M.A. Karimov, B.T. Salimov, D.N. Saidova hamda T.T. Jo‘rayevlarning [5] ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Biroq, yuqoridagi ilmiy tadqiqot ishlarida agrosanoat majmuasida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashda klasterlari rivojlantirishda ko‘proq eng yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan davlatlarning tajribalari to‘liq ochib berilmagan.

Bizning tadqiqot ishimizda aynan shu jihatlari to‘liq ochib berilgan. Shuning uchun ham ushbu jihatlari ilmiy maqola mavzusining dolzarbligini belgilab beradi hamda tadqiqot mazvusini tanlash uchun asos bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mantiqiy fikrlash, statistik tahlil, kuzatuv va qiyosiy tahlil, abstrakt fikrlash hamda ilmiy umumlashtirish kabi usullardan keng foydalanilgan. Mavjud metodologik yondoshuvlarga tayangan xolda, maqolada agrosanoat majmuasida klasterlarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish asosida olib borilgan ilmiy natijalardan keng foydalanilgan.

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ichki bozorni to‘ldirishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini zamonaviy usullar orqali rivojlantirish, ishlab chiqarish-iste’mol zanjirida klasterlar hamda kooperasion aloqalar vositasida integratsion jarayonlarni optimallashtirish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi yo‘nalishlarda keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Muhtaram Prezidentimiz tomonidan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonga ko‘ra yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o‘zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash darajasini oshirish va ularning narxlari barqarorligini saqlash kabi bir qator dolzar vazifalar belgilab berildi [1]. Mazkur vazifalarni hal etishda klaster tizimi samaradorligi va hududiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlarini baholash uslubiyotini takomillashtirish, oziq-ovqat mahsulotlarining o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra ishlab chiqarishni uzviy tashkil qilish, agrosanoat klasteri ishlab chiqarishining to‘liq siklini o‘zaro manfaatdorlik asosida optimal tashkil qilish, qayta ishlash sanoati mahsulotlari hajmini prognozlashning aniqlik darajasini oshirish kabi yangi yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish lozimdir.

Ma'lumotlarga ko'ra 2010-yillar boshida Yevropaning 28 mamlakatida 42 mln. kishi band bo'lgan 2101 klaster faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularning 241 tasi yoki 11,5 %ini agroklasterlar tashkil etgan va ularda jami klasterlarda bandlarning 4,5 millioni yoki 10,8 %i faoliyat ko'rsatgan. Yevropa mamlakatlari ichida agrosanoat klasterlari soni bo'yicha Gretsiya (36), Ispaniya (35), Bolgariya (22), Fransiya (20), Polsha (19), Ruminiya (16), jami tarmoq klasterlari sonida agrosanoat klasterlari salmog'i bo'yicha Bolgariya (45,8 %), Gretsiya (45,0 %), Ispaniya (23,8 %, Islandiya (20,0 %), Vengriya (18,6 %), Niderlandiya (14,5 %), Fransiya (12,1 %) va Polsha (11,8 %) yetakchilik qilgan [6].

Rivojlangan 20 mamlakatning 500 ta klasteri faoliyatini tahlil etish asosida shu xulosaga kelinganki, ular iqtisodiyotining yuqori raqobatbardoshligi tayanch tarmoqlardagi klasterlarning rivojlanish salohiyatiga bog'liq. Xususan, IHRT (OECD) ma'lumotiga ko'ra Finlyandiya, Belgiya, Fransiya, Italiya va Niderlandiya mamlakatlarida agrar va oziq-ovqat hamda biotexnologiya tarmoqlaridagi klasterlar ular iqtisodiyoti taraqqiyotida muhim rol o'ynagan [7]. Yevropa Ittifoqida klaster siyosatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli institutlar va dasturlar tarmog'i shakllangan bo'lib quyidagi 1-jadvalda ko'rsatib o'tilgan.

1-jadval: Yevropa Ittifoqining klaster siyosatini qo'llab-quvvatlovchi institutsional tuzilmalari[1]

Nomlanishi	Faoliyat yo'nalishi	Tashkil topgan yili, muassislar/Investorlar	Ishtirokchilar
1	2	3	4
Yevropa klaster va sanoat transformatsiyasi observatoriyasi	Klasterlar va klasterlash tashabbuslari bo'yicha axborot yig'ish va tahlil etish, strategiyalar ishlab chiqish va tavsiya etish	2007 y., Yevropa Komissiyasining ichki bozor, sanoat, tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes bo'yicha Bosh direktorati	36 ta mamlakat klasterlariga oid axborot manbasiga ega
Yevropa yuqori klassli klasterlar fondi	Klasterlar faoliyatiga oid eng yaxshi tajribalarni ommalashtirish va ta'lim beruvchi dasturlar	2003 y., Kataloniya hukumati, Innovasiyalar bo'yicha shved agentligi (Vinnova), Buyuk Britaniya rivoj-lanish agentligi	Milliy va hududiy hukumatlar, agentliklar, klaster tashkilotlari
Klaster tahlili bo'yicha Yevropa sekretariati	Benchmarking va klasterlarni sertifikatlash, klasterlarni boshqarishni tashkil etish	2009 y., Yevropa klas-terlarini takomillashtirish tashabbusi (European Cluster Excellence Initiative) – VDI/VDE Innovation + Technik GmbH	30 dan ortiq mamlakatlardan klaster bo'yicha ekspertlar tarmog'i
Hamkorlik bo'yicha Yevropa klaster platformasi	Axborot yig'ish, maxsus tadbirlarni tashkil etish, klasterlar orasida xalqaro aloqalarga ko'maklashish	2016 y., Raqobatbar-doshlik, tadbirkorlik va kichik biznes dasturi (COSME) moliyalashtiradi, Yevropa Komissiyasining ichki bozor, sanoat, tadbir-korlik, kichik va o'rta biznes bo'yicha Bosh direktorati tomonidan tashkil etilgan	Dunyo bo'ylab 950 dan ortiq klasterlar a'zo
Yevropa kichik va o'rta biznes tarmog'i	Kichik va o'rta biznes uchun eng keng tarmoq sifatida ularning xalqaro maydonda o'sishiga ko'maklashadi	2008 y., Yevropa Komissiyasi tashkil etgan. COSME bilan hamkorlikda ish olib boradi	60 mamlakat, 600 tashkilotdan 3000 ekspert a'zo

Ushbu 1-jadvalda ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, bu tuzilmalar klasterlar faoliyatiga oid axborotlar bazasini shakllantirish, tahlil etish va tavsiyalar ishlab chiqish bilan birgalikda hukumat oldida ular manfaatlarini himoya qilish vazifasini ham o'taydi.

Qolaversa, agrosanaot majuasida klasterlar tizimi rivojlangan davlatlardan biri Daniya davlati bo'lib, Daniyaning agrosanoat makroklasterlari tarkibi tuzilmasi kamida 5 ta elementni o'z ichiga oladi hamda 1-rasmda makroklasterlarni tarkibiy tuzilmasi keltirib o'tilgan. Jumladan, qishloq xo'jaligi xomashyosini yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari; qayta ishlash korxonalari va kooperativlari; xizmat ko'rsatish infratuzilmalari; ilmiy tadqiqot va o'quv muassasalari hamda institutsional tuzilmalar (davlat boshqaruv organlari, uyushmalar, jamg'armalar) dan iborat.

1 https://ec.europa.eu/growth/industry/policy/cluster/emerging–industries_en. sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.



1-rasm: Daniya agrosanoat makroklasteri tarkibi[2]

Bundan ko'rinadiki, Daniya davlatidagi mazkur tajribalardan samarali foydalanib, mamlakatimizdagi agrosanoat majmuasidagi klasterlar faoliyatiga tatbiq etish yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi hamda xalqaro tajribalar almashinuvi yo'lga qo'yiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizdagi agrosanoat majmuasidagi klasterlar faoliyatini rivojlantirishda quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi kerak deb hisoblaymiz, jumladan:

- agrosanoat majmuasidagi klasterlar bilan bog'liq bo'lgan muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishda xalqaro tajribalarni qo'llash;
- agrosanoat majmuasida zamonaviy klasterlar faoliyatini tashkil etish;
- klasterlar faoliyatini rivojlantirishda Daniya tajribasini amaliyotga keng tatbiq etish;
- klastelar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan xalqaro tajribalarga asoslangan amaliy tavsiya va takliflarni amaliyotga keng joriy etishdan iboratdir.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalarni amaliyotga keng joriy etilishi natijasida, agrosanoat majmuasida oziq-ovqat yetishtirish hamda qayta ishlashning zamonaviy yo'llari hamda klasterlar faoliyatini rivojlantirishning yangi xalqaro tajribalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.
2. И.А.Мешков. Основные черты кластерной политики ЕС //Современная Европа, 2020, –№1. –с. 182-190. http://www.sov europe.ru/ images /pdf/ english /2020/1-2020/17.pdf.
3. Е.П.Чирков, Т.И.Волкова. Зарубежный опыт формирования и развития агропросмышленных кластеров и его адаптация в Российскую практику // Теория и практика мировой науки, № 2, 2016. – С. 16-18. https://www. elibrary.ru/item.asp?id=28880851.
4. Новикова Ю.О. Агропромышленные кластеры как форма инновационного развития отрасли // Вопросы управления. –2019. –№6 (61). –С. 137-146.

2 А.А.Настин. Формирование агропромышленного кластера в регионе. Дисс. на соиск. учен. степ. к.э.н. по спец. 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством. Москва-2013. – 29-31 с.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

5. https://ec.europa.eu/growth/industry/policy/cluster/emerging–industries_en.
6. А.А.Настин. Формирование агропромышленного кластера в регионе. Дисс. на соиск. учен. степ. к.э.н. по спец. 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством. –Москва-2013. – 29-31 с.
7. Marshall A. Principles of Economics. Vol.1. Third edition. London. Macmillian and Co. –1895.
8. Glotko A. V. et al. Integration Processes in the Agro-Industrial Complex of the Regions: Development and Environmental Problems //Journal of Environmental Management and Tourism. – 2019. – Т. 10. – №. 3. – С. 613-621.
9. Н.И.Саидахмедова. Ўзбекистонда озиқ-овқат саноати маҳсулотларини ишлаб чиқариш тенденциялари ва муаммолари//“Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 2, апрель, 2019.
10. Р.Хакимов. Агросаноат мажмуаси иқтисодиёти. Дарслик. –Т.: ТДИУ, 2009. – 292 б.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

MAMLAKATIMIZDA MEHNAT BOZORIDA AYOLLARNING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISH



Xusanova Gulsum Baxtiyorovna
Bank moliya akademiyasi magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollar ish bilan bandligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solishning turli mexanizmlari, ularning ish bilan bandligini davlat tomonidan tartibga solish choralari va vositalari aniqlanib, iqtisodiyotning real talablaridan kelib chiqqan holda, ayollar samarali ish bilan bandligini ta'minlashni takomillashtirishga doir tavsiyalar taklif qilingan.

Kalit so'zlar: ayollar ish bilan bandligi, ishsizlik, ishchi kuchiga talab va taklif, ijtimoiy mexanizmlar, masofaviy mehnat,tadbirkorlik.

Abstract: This article identifies various mechanisms of state regulation of women's employment, measures and means of state regulation of their employment, as well as offers recommendations to increase the effective employment of women, based on the real needs of the economy.

Key words: women's employment, unemployment, labor supply and demand, social mechanisms, remote labor, entrepreneurship.

Аннотация: В данной статье определяются различные механизмы государственного регулирования занятости женщин, меры и средства государственного регулирования их занятости, а также исходя из реальных потребностей экономики предлагаются рекомендации по повышению эффективной занятости женщин.

Ключевые слова: женская занятость, безработица, спрос и предложение рабочей силы, социальные механизмы, удаленная работа, предпринимательство.

KIRISH

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ularning bandligini ta'minlash, salomatligini muhofaza qilish, intilish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratish, jamiyatimizning turli sohalarida faol ishtirok etishlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "…, davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeyini yanada mustahkamlash – islohotlarimizning eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir" [1].

Mamlakatimizda xotin-qizlar bandligini ta'minlashga doir qator islohotlar amalga oshirilib, bu borada bosqichma-bosqich huquqiy asoslar ham takomillashtirilmoqda.

So'ngi beshta yilda bu borada 2 ta qonun, Prezidentning 2 ta farmoni va 5 ta qarori hamda vazirlar mahkamasining 1 ta qarori qabul qilindi. Birinchi marta Senatda xotin-qizlar va gender tengligi masalalari bo'yicha qo'mita tashkil etildi.

Bugungi kunda aholimizning qariyb yarmini ya'ni 17 millionini xotin-qizlar tashkil etadi. Ularning manfaatlarini ta'minlash, jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishi hisoblanadi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Globallashuv davrida ayollar ishsizligi-muammosi, uning o'ziga xos xususiyatlari umumiy ijtimoiy siyosatda bu boradagi yo'nalishlar va ustuvorliklarni ishlab chiqishni taqozo qiladi. Chunki jahonning ko'pchilik mamlakatlarida ayollar ijtimoiy diskriminatsiyasi asosida ularning erkaklar bilan ijtimoiy tengsizligi ifodalanadiki, mazkur o'zgarishlar umumiy ishlar sonida ayollar salmog'ining oshib borishida ham ifodalanadi.

L.S.Rjanisnaning fikricha “Ayol-ona, ishchi, xodim va uy bekasi, bu ikki taraflama og‘irlikni birga qo‘shib olib borish uchun ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash lozim bu jarayonni gender tengligi darajasida o‘rganib, nafaqat ijtimoiy ishlab chiqarishda ish bilan bandlik balki, ularning oilaviy muammolar, bolalar tarbiyasi bilan mashg‘ulligini yengillatish kerak” [2].

Akademik Q.X.Abdurahmonovning e’tirof etishicha “Ish bilan bandlik deganda ijtimoiy ishlab chiqarishda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish anglanilsa, ayollarga nisbatan esa bu “ikki taraflama ish bilan bandlik”, ya’ni ularning ijtimoiy ishlab chiqarishda, shuningdek oilaviy maishiy sohada bandligi nazarda tutiladi” deb e’tirof etgan [3].

A. Irmatova tomonidan “Innovatsion iqtisodiyotda ayollar mehnatini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish” nomli ilmiy tadqiqot ishida BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish konsepsiyasida ayollar ma’naviy va iqtisodiy salohiyati samarali va to‘laligicha ishlatilishi o‘rganilgan. Mehnat resurslarining salmoqli qismini tashkil qilgan, ko‘p qirrali kasbiy tajribasi va ma’lumot darajasi yuqori, uy xo‘jaligini yuritish bo‘yicha malakaga ega, oila va bolalar tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan ayollar iqtisodiyot, ta’lim va madaniyat rivojiga muhim hissa qo‘shishlari bo‘yicha amaliy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan [4].

N.Shotursunova tomonidan olib borilgan “Qoraqalpog‘iston Respublikasida xotin – qizlarning ish bilan bandligini takomillashtirish yo‘llari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishida xotin-qizlarni oliy ta’lim qamrovida amaldagi ta’limning pedagogika va gumanitar fanlar yo‘nalishlari bilan cheklanmay, muhandis-texnik va huquqshunoslik sohalaridagi ayollar ulushini oshirish, xotin-qizlarni oliy ta’limga keng jalb qilish maqsadida davlat tomonidan joriy etilgan imtiyozlar samarasini baholash, xotin-qizlarni chet tillari, zamonaviy kasb-hunar va biznesga o‘qitish, “Ishga marhamat” monomarkazlari, shahar va tumanlardagi kasb-hunarga o‘qitish markazi, MFYlarda tashkil etilgan o‘quv maskanlari faoliyatini takomillashtirish tadqiq etilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola istiqlol yillarida mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va erkinligi, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy faolliklarini oshirishga oid amalga oshirilgan davlat siyosati va mexanizmlarini tadqiq etishga oid umum qabul qilingan tarixiy va sotsiologik metodlar – tizimli tahlil, qiyosiy – tarixiy, tuzilmaviy, funksional yondashuv, qiyosiy-mantiqiylik, tahliliy, ketma-ketlik, xolislik, obyektivlik tamoyillari asosida yoritilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda aholi bandligini, jumladan, xotin-qizlar bandligini ta’minlash davr talabi hisoblanadi. Chunki pandemiya davrining davom etishi davlatning iqtisodiy o‘sishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mana shu ta’sir har bir davlat iqtisodiyotida muvozanatni ushlab turishni taqozo etadi. Shuning uchun ham mamlakat aholisining bandligi dolzarb masala sifatida ahamiyatli bo‘lib boraveradi. Shu nuqtayi nazardan respublikamizda ayollar bandligini ta’minlashga e’tibor kuchaymoqda.

O‘zbekistonda ishsizlarning 732 ming nafari yoshlar, 834 ming nafari xotin-qizlardir. Ularning bandligini ta’minlash, ijtimoiy muhofaza qilish borasida keng ko‘lamli choralar ko‘rildi va ko‘rilmoqda. Quyidagi jadvalda viloyatlar kesimida ayollarning ishsizligi foiz ko‘rinishida ko‘rsatilgan.

1-jadval: Viloyatlar kesimida ayollarning ishsizligi

Hududlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O‘zbekiston Respublikasi	88,1	68,2	66,4	66,3	68,7	69,1	68,9	76,6	160,8	179,5	197,7	187,5	190,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	8,7	6,3	6,1	5,8	5,1	5	5	5,6	10,8	12,8	13,3	13,2	14,3
Andijon viloyati	6,6	5	5	5	5,3	5,4	5,5	5,9	12,6	13,5	15,4	14	16,5
Buxoro viloyati	6,4	5	4,8	4,7	5,1	5,2	5	5	11,7	11,9	14	13,2	13,4
Jizzax viloyati	6,6	5,1	4,8	4,9	5,1	4,9	5,1	4,7	12,2	13,7	15,4	14,5	14,7
Qashqadaryo viloyati	6,5	5	5,1	4,8	5,2	5,3	5,2	6,1	12,6	14,3	15,6	15,5	15,3
Navoiy viloyati	5,9	4,9	4,7	5	5	4,7	4,6	4,7	11,4	10,4	11,4	11,5	13,9
Namangan viloyati	6,7	5,1	4,9	4,8	5	5,1	5,3	5,9	11,2	13,1	14,3	13,8	11,9
Samarqand viloyati	6,9	5,2	5	5	5,3	5,4	5,5	6,4	12,1	14,2	15,4	14,4	14,6
Surxondaryo viloyati	6,8	5,3	5	4,9	5,2	5,2	5,4	6,5	13	15,2	15,6	15	13,8
Sirdaryo viloyati	4,9	4,1	3,9	4,1	4,4	4,7	4,1	4,7	10,2	13,8	15,4	14,7	14
Toshkent viloyati	4,7	3,6	3,4	3,4	3,6	3,7	3,7	4,7	10,6	12,6	14	12,5	12,8
Farg‘ona viloyati	6,6	4,9	4,9	4,8	5,4	5,4	5,4	6,2	12	12,9	14,5	13,9	13,6
Xorazm viloyati	6,5	4,9	5,2	5,3	5,1	5,1	5,3	5,6	11,1	12,6	14,3	13,2	13,9
Toshkent shahri	4,3	3,8	3,6	3,8	3,9	4	3,8	4,6	9,3	8,5	9,1	8,1	7,9

Yuqoridagi jadvaldan kurinib turibdiki so‘ngi besh yilda ishsizlik sezilarli darajada o‘sgan. Ishsizlikni kamaytirish bo‘yicha ko‘plab ishlar olib bormoqda jumladan: mahalla fuqarolar yig‘ini huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan quyidagi vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi xotin-qizlarning bandligini ta’minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari tashkil etildi va qo‘yidagi vazifalar belgilab berildi:

- ishsiz, ayniqsa, qishloq joylarda bola tarbiyasi bilan uyda o‘tirib qolgan ehtiyojmand ayollarni, shuningdek, “temir daftar”, “ayollar daftari” va “yoshlar daftari” ga kiritilgan xotin-qizlarni bandligini ta’minlash maqsadida mahallalarda tikuvchilik, qandolatchilik, pazandachilik kabi yo‘nalishlarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
- xotin-qizlarning bandligini ta’minlash bilan bir qatorda mahallalarni geografik joylashuvi, aholi soni va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha o‘sish nuqtalarini inobatga olgan holda tegishli kasblarga va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘rgatishni tashkil etib, ularning kelgusida o‘zlashtirgan kasblari bo‘yicha tadbirkorlik faoliyatini boshlashiga va uni rivojlantirishga ko‘maklashish;
- xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish, bandligini ta’minlash, kasb-hunar egallashlari uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar va imtiyozlar haqida ularni keng xabardor qilish maqsadida zarur ma’lumot va tavsiyalarni berib borish;
- xotin-qizlarning salomatligini mustahkamlash maqsadida fitnes, sheyping kabi sog‘lomlashtirishga mo‘ljallangan xizmat ko‘rsatish faoliyatini ehtiyojmand xotin-qizlar uchun bepul yo‘lga qo‘yish;
- sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, xotin-qizlarning tibbiy madaniyatini rivojlantirish, jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va ommaviy sport harakatlarini tibbiyot profilaktikasi bilan birgalikda yo‘lga qo‘yish.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, mahallalar doirasida tashkilotlari o‘rtasida mustahkam iqtisodiy aloqalar o‘rnatilishiga quyidagilar asos bo‘lib hisoblanadi:

1. Mahallalarning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, dehqonchilik, baliqchilik, quyonchilik, parrandachilik, asalarichilik, meva-sabzavotchilik yo‘nalishlarida oilaviy tadbirkorlik orqali daromad topish, ish bilan band bo‘lish istagida bo‘lgan aholiga amaliy yordam ko‘rsatishi;
2. Xomashyo yetishtirish, uni tashish, saqlash, qayta ishlash, sotish – bularning barchasi bitta subyekt tomonidan amalga oshirilib, mahsulotning arzon va sifatli bo‘lishi;
3. Mahallalar aholisini qishloq xo‘jaligida oilaviy tadbirkorlikka jalb etuvchi va qo‘llab–quvvatlovchi boshqarish tuzilmasi va mexanizmining ishlash samaradorligining pastligi;
4. Dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari hamda korxonalarning tizimli zanjiri tashkil qilinishi evaziga turli yo‘qotishlar kamayishi va xomashyoga muhtojlik singari holatlar barham topishi;
5. Qishloqqa sanoatning kirib borishi tufayli odamlar industrial mehnat bobida ham ko‘nikma, malaka hosil qilib, innovatsion g‘oyalarning aynan qishloqlarda shakllanish imkoniyati yuzaga kelishi;
6. Mahalla aholisini qishloq xo‘jaligida oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish va yuritish bilan bog‘liq turli darajadagi muammolarni mavjudligi;
7. Klaster tarkibidagi dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari, korxonalar va boshqa subyektlarning barqaror ishlashi ta’minlanishi;
8. Klasterga asoslangan ish yuritish mexanizmi har qanday sharoitga moslasha olishi, shuning barobarida iqtisodiy, ijtimoiy muammolar hal qilinishiga ko‘maklashishi;
9. Bir qancha sohalar mutaxassislari kooperatsiyasi vujudga kelishi hamda bu o‘z navbatida, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish uchun yo‘l ochishi.
10. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasidagi muammoli kreditlarning vujudga kelmasligiga zamin yaratilishi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020-yil.
2. Ржаницына Л.С. Женщины и рынок труда. –М.: Политиздат, –2000. –75-76 с.
3. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Darslik. –T.: Fan vatexnologiya, –2012. –129-140 b.
4. Irmatova A.B. “Innovatsion iqtisodiyotda ayollar mehnatini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi i.f.d.ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. –Toshkent, –2021. –17-18 b.
5. Shotursunova N.Qoraqalpog‘iston Respublikasida xotin-qizlarning ish bilan bandligini takomillashtirish yo‘llari. I.f.f.d.PhD diss.avtoreferati. –T.2022.–24 b.



BUDJETDAN TASHQARI MABLAG‘LAR HISOBI VA NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
I.f.d., Toshkent moliya instituti, kafedra professori

Alimardonov Asrorjon Alimardonovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
Ishlab chiqarish munosabatlari va stajirovkalar bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: Maqolada budjetdan tashqari mablag‘larni turkumlanishi, boshlang‘ich va yig‘ma hujjatlarni shakllantirish, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobini tashkil etish bilan bog‘liq jihatlar, ko‘rsatkichlar, jarayonlar, munosabatlar, hodisalar, o‘ziga xos bo‘lgan tomonlar o‘rganilishi natijasida buxgalteriya hisobi va budjet hisobi bilan bog‘liq umumiy jihatlar mavjudligi kuzatildi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobining maqsadi, vazifalari, funksiyalari, predmeti, obyektlari, subyektlari, usullari nazariy jihatdan asoslash hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobotlarning tarkibi, ularni tuzish va taqdim etish tartibini o‘rganish bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan va ilmiy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: budjetddan tashqar mablag‘lar, jamg‘armalar, budjet hisobi, dastlabki hisob, yig‘ma hisob, schotlar rejasi, moliyaviy hisobot.

Abstract: The article explores the organization of off-budget funds, their initial formation and documentation, and analyzes aspects of accounting and budgeting related to off-budget funds management in budgetary organizations. It examines the common aspects between accounting and budgeting based on the management of off-budget funds. The article outlines the objectives, tasks, functions, subjects, objects, and methods associated with accounting and budgeting in the context of off-budget funds management. It also provides scientific conclusions and recommendations for organizing accounting and reporting on off-budget funds in budgetary organizations.

Key words: off-budget funds, revenues, budget accounting, primary accounting, forming accounting, chart of accounts, financial reporting.

Аннотация: В статье рассматривается систематизация внебюджетных средств, формирование и первичная документация, анализ аспектов бухгалтерского учета и бюджетирования в связи с организацией учета внебюджетных средств бюджетных организаций, выраженные в общих аспектах между бухгалтерским учетом и бюджетированием на основе организации внебюджетных средств. В статье сформулированы общие аспекты бухгалтерского учета и бюджетирования в связи с организацией внебюджетных средств, определены цели, задачи, функции, предмет, объекты, субъекты, методы, а также представлены научные выводы и предложения по организации учета и представления отчетности по внебюджетным средствам бюджетных организаций.

Ключевые слова: внебюджетные средства, сборы, бюджетный учет, первичный учет, формирующий учет, система счетов, финансовая отчетность.

KIRISH

Ma’lumki, Davlat budjeti budjet tashkilotlari va budjetdan mablag‘ oluvchilarni moliyaviy jihatdan ta’minlash hamda davlat xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida tuziladi. Xalqaro valyuta jamg‘armasining hisobotiga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarda budjet xarajatlari yalpi ichki mahsulotning 40 foiziga teng bo‘lgan, davlat sektoridagi tashkilotlar bandlikni ta’minlash nuqtayi nazaridan eng katta ish beruvchi hisoblanishi ta’kidlangan. Dunyo amaliyotida davlat sektoridagi tashkilotlarni moliyalashtirish davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi. Budjet tashkilotlarida budjet va budjetdan tashqari mablag‘larning maqsadli va manzilli sarflanishi bevosita ularning hisobini samarali tashkil etish hamda moliyaviy hisobotlar ko‘rsatkichlarining shaffofligi bilan bog‘liq. Shu sababdan ham, jahonning aksariyat mamlakatlarida budjet ijrosi hisobi va

hisobotini davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talablari asosida rivojlantirilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, dunyo mamlakatlari davlat sektorida budjet ijrosi hisobini yuritish va hisobotlarni tuzish, shuningdek nazoratini uslubiyotini xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlarda budjet tizimi va uni boshqarish, budjet ijrosi hisobini tashkil etishning usullari va yo'nalishlari, davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi axborotlarning ochiqligini ta'minlash va hisobdorlikni oshirish, budjet hisobotining axborot ta'minotini takomillashtirish kabi masalalar o'z yechimini topgan. Shuningdek, davlat sektoridagi tashkilotlarda mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlashda hisob axborot tizimining rolini kuchaytirish, ma'lumotlarning oshkoraligini ta'minlash, jamlanma axborotlarni shakllantirish masalalari alohida yo'nalish sifatida tadqiq etilgan. Shu o'rinda alohida qayd etish zarurki, olib borilgan tadqiqotlarda budjet ijrosi hisobini yuritish va hisobotlarni tuzish masalalari buxgalteriya hisobining kassa va hisoblash metodlariga asoslanishi, ularning budjet ijrosi axborotlarini shakllantirishdagi rolini oshirish yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Ammo budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobi metodologiyasini davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talablari darajasida tashkil etish hamda budjet hisobotlarining axborot imkoniyatlarini oshirish bilan bog'liq masalalar hanuz o'zining ijobiy yechimini topmagan.

Respublikamizda budjet tizimini isloh etishda "budjet hisobi tartibini Davlat sektorida xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IPSAS) uyg'unlashtirish" (PQ-3917, 2018), xalqaro standartlar talabalaridan kelib chiqib budjet ijrosiga oid axborotlarning ochiqligini ta'minlash, budjet tizimida mablag'larning sarflanishi bo'yicha hisobdorlikni kuchaytirish, budjet ijrosi jarayonida zamonaviy axborot tizimlarini qo'llash ko'lamini kengaytirishni talab etmoqda. Shu bilan birga, budjet tizimi budjetlari ijrosi hisobini tizimli tarzda kassa usulidan hisoblash usuliga o'tkazish orqali budjet hisobotlari axborotlarining tahliliy imkoniyatlarini oshirishni taqozo qilmoqda. O'z navbatida, ushbu jihatlar budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va hisobotiga oid mavjud metodologik asoslarni chuqur tadqiq etish hamda takomillashtirishni talab etmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Budjetdan tashqari mablag'lar tushunchasiga iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan turli hil fikrlar va qarashlar bildirib o'tilgan. Jumladan prof. A.Ostonokulov budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larini smetalarda nazarda tutilgan maqsadlarda sarflanishini ta'minlash, qo'shimcha moliyalashtirish manbalari mavjud bo'lgan hollarda amalga oshiriladigan xarajatlarni rejaga nisbatan ko'paytirishni nazarda tutishning zarurligini asoslagan (A.Ostonokulov, 2021).

Iqtisodchi olim Sh.Qurbonov esa, budjet tashkilotlari, moliya bo'limlari, g'aznachilik bo'linmalari tomonidan joriy va jamlanma moliyaviy hisobotlarni tuzishda har bir jamg'arma bo'yicha ma'lumotlarni alohida shakllantirishga hamda axborotlarning ishonchliligini ta'minlashga olib kelgan. Shuningdek, ushbu takliflarning qabul qilinishi budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari hisobi bo'yicha UzASBO va DMBAT dasturiy majmualarini integratsiya qilish imkonini bergan (Qurbonov Sh, 2022).

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalari vazirligi tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalariga "Oliy ta'lim muassasalarida budjetdan tashqari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish" tartibi asosida buxgalteriya hisobini tashkil qilish hamda hisob-kitoblarini yuritish, mablag'larning moliyaviy nazoratini samarali tashkil etish uslubiyoti takomillashtirilgan, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida "Universitet 3.0." tizimini joriy etish maqsadida ular qoshida tashkil etilgan Spin-off korxonalariga "Innovatsion jamg'arma" tomonidan qaytarilish sharti bilan ajratilgan mablag'lar "bir moliya yilidan ortiq" yoki "bir moliya yili davomida" shakllarida ssuda tarzida aks ettiriladigan uzoq muddatli ssuda qismiga (bir moliya yilidan ortiq): "211120 Budjet tashkilotining shuba korxonalarga qo'yilgan uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalari", qisqa muddatli ssuda qismiga (bir moliya yili davomida): "121120 Budjet tashkilotining shuba korxonalarga qo'yilgan qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalari" analitik schotlarida yuritish uslubiyoti tavsiya etilgan (Xojayev A, 2023).

Jahonda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisobotining nazariy hamda metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan, jumladan buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida budjet hisobi va hisobotining kassa hamda hisoblash metodlari takomillashtirilgan (International Public Sector Accounting Standards Board, 2023);

- budjet tizimida budjetdan tashqari jamg'armalar to'g'risidagi axborotlarning ochiqligini ta'minlash bo'yicha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun uslubiy tavsiyalar shakllantirilgan (International Monetary Fund, 2022);
- budjet tizimini boshqarishda kuchli ichki nazorat muhitini yaratish, hisobdorlik va axborotlarning ochiqligini ta'minlashda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini joriy qilishning bir va ko'p bosqichli yo'nalishlari ishlab chiqilgan (International Federation of Accountants IFAC);
- davlat budjeti ijrosi va uning buxgalteriya hisobini isloh qilishning Anglo-Amerika, Yevropa va Xitoy modellari ishlab chiqilgan (Organisation for Economic Cooperation and Development, 2023);

- global inqiroz sharoitida budjet tashkilotlari mablag‘larining sarflanishida hisob axborotlarining ishonchliligi davlatlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qilishi isbotlangan (Pricewaterhouse Coopers, 2021);
- budjet tashkilotlarida budjet va budjetdan tashqari mablag‘larni hisobga olishning modifikatsiyalashgan usullari ishlab chiqilgan (London universiteti, 2020);
- budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘lar hisobini tashkil etish va nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-uslubiy asoslari nazariy jihatdan takomillashtirilgan (Janubiy Rossiya davlat iqtisodiyot va servis universiteti, 2021);
- budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobini yuritishda daromad va xarajatlarning muvofiqligi tamoyiliga amal qilishning zarurligi isbotlangan (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi moliya universiteti, 2021).

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, statistika, iqtisodiy tahlil hamda iqtisodiy-matematik usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi farovonligini ta’minlashda nafaqat, xususiy sektor, balki, budjet tizimi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Budjet tizimi davlatning jamiyat oldidagi vazifalarini bajarish va xizmatlar ko‘rsatish, iqtisodiyotni rag‘batlantirish, tartibga solish va nazorat qilish, mudofaa, aholi bandligini ta’minlash kabi qator notijorat faoliyatlarni moliyalashtirishni amalga oshirish maqsadlarida xizmat qiladi.

Budjet tashkilotlarini uzluksiz va manzilli moliyalashtirish yo‘nalishlarini tadqiq etishda, avvalo, mamlakatning budjet tizimi tuzilishiga e’tibor qaratish zarur. Mamlakatimizda Davlat budjeti, Davlat maqsadli jamg‘armalari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari budjet tizimini tashkil etadi.

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari tarkibiga budjet tashkilotining rivojlantirish jamg‘armasi, tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning budjetdan tashqari jamg‘armalari, budjet tashkilotlarining undiriladigan to‘lovlar hisobiga shakllantiriladigan budjetdan tashqari mablag‘lari kiradi.

Budjet tashkilotlarining faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni moliyalashtirish manbalarini o‘rganadigan bo‘lsak, fikrimizcha, avvalo, Davlat budjeti xarajatlari tarkibida katta ulushga ega bo‘lgan ijtimoiy soha, ya’ni ta’lim va tibbiyot tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirishga ko‘proq e’tibor qaratish zarur. Chunki, ushbu soha tashkilotlarida budjetdan tashqari mabag‘lar ulushini ko‘paytirish orqali budjet yukini bir oz bo‘lsada, kamaytirish va ularda bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib moddiy manfaatdorlikni ta’minlash natijasida faoliyatning rivojlanishiga erishiladi.

Davlat budjetidan mablag‘ bilan ta’minlanadigan budjet tashkilotlarini faoliyat xususiyatlari va yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda o‘rganadigan bo‘lsak, davlat ta’lim va tibbiyot tashkilotlari budjet tashkilotlari tarkibida eng katta ulushga ega hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm: Davlat ta’lim va tibbiyot tashkilotlari sonining davriy o‘zgarishi (1-yanvar holatiga)[1]

Davlat ta’lim va tibbiyot tashkilotlarini moliyalashtirish Davlat budjeti xarajatlarining eng muhim yo‘nalishlaridan sanalib, 2021-yil 1-yanvar holatiga ular mamlakatda faoliyat ko‘rsatayotgan tashkilotlarning 66,8 foizini

1 O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021-yil 18-martdagi № 01/2-01-19-287-sonli ma’lumotnomasi asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

tashkil qilib, ushbu sohalarga yo‘naltirilayotgan mablag‘lar davlat budjetining 52,1 foiziga to‘g‘ri kelmoqda. 2016-2020-yillar davomida respublika miqyosida budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari moliyalashtirish manbalari hajmi o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan (2-rasm).



2-rasm: Budjet tashkilotlarini budjetdan tashqari moliyalashtirish hajmining o‘zgarish dinamikasi (mlrd. so‘m)[2]

Huddi shu davrda vazirliklar va qo‘mitalar tizimidagi tashkilotlarning moliyalashtirish manbalari tarkibini tahlil qiladigan bo‘lsak, budjetdan tashqari mablag‘larning ulushi so‘nggi besh yil davomida o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lganligini ko‘rish mumkin (1-jadval).


1-jadval: Budjet tashkilotlarini moliyalashtirishda budjetdan tashqari mablag‘lar ulush(foiz)ining davriy o‘zgarishi[3]

Budjet tashkilotlari	2016-yil		2017-yil		2018-yil		2019-yil		2020-yil	
	Budjetdan moliyalashtirish	Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtirish	Budjetdan moliyalashtirish	Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtirish	Budjetdan moliyalashtirish	Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtirish	Budjetdan moliyalashtirish	Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtirish	Budjetdan moliyalashtirish	Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtirish
Xalq ta’lim vazirligi tizimidagi tashkilotlar	99,5	0,5	97,9	2,1	97,4	2,6	99,1	0,9	98,7	1,3
Maktabgacha ta’lim vazirligi tizimidagi tashkilotlar			98,3	1,7	98,4	1,6	97,1	2,9	97,4	2,6
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimidagi tashkilotlar	78,3	21,7	72,9	27,1	62,2	37,8	50,8	49,2	45,0	55,0
Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi tashkilotlar	94,5	5,5	92,9	7,1	93,6	6,4	94,2	5,8	80,6	19,4
Respublika miqyosida	91,1	8,9	79,9	20,1	80,5	19,5	80,4	19,6	83,2	16,8

Budjet tashkilotlari budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha bir moliya yili uchun tuziladigan daromadlar va xarajatlar smetalari asosida moliyalashtiriladi. Budjet tashkilotlarida quyidagi budjetdan tashqari mablag‘larning turlari mavjud hamda ular bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetalari tuziladi (3-rasm).

2 Muallif ishlanmasi.
3 Muallif ishlanmasi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



3-rasm: Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari va ular bo‘yicha tuziladigan smetalar

Bunda, har bir tuziladigan smeta ikki qismdan iborat bo‘ladi, ya’ni daromad (tushum)lar va xarajatlar rejasi. Daromad(tushum)lar rejasida moliya yili davomida kutilayotgan daromad(tushum)larning turlari bo‘yicha prognoz keltiriladi. Xarajatlar qismida esa, budjet tashkilotlarining moliya yili boshidagi shaxsiy g‘azna hisob-varag‘idagi budjetdan tashqari mablag‘ qoldig‘i va moliya yili davomida kelib tushishi kutilayotgan mablag‘lar hajmidan kelib chiqqan holda rejalashtiriladi.


Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari yuzasidan smetalar ijrosi har bir mablag‘larning turlari bo‘yicha daromadlar va xarajatlarning reja ko‘rsatkichlariga nisbatan bajarilishiga e’tibor qaratiladi. Bunda, g‘aznachilikda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha smetalari kassa metodi bo‘yicha, ya’ni tashkilotlarning shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga pul mablag‘larining tushumi daromad va hisobaraqlardan pul mablag‘larining o‘tkazilishi xarajat sifatida hisobga olinadi.

Budjet tashkilotlarining o‘zida esa, smetalarning ijrosi hisob va kassa usuliga asosan amalga oshiriladi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha dastlab daromadlar va ular bilan bog‘liq debitorlik majburiyatlar qayd etiladi. So‘ngra, debitorlik majburiyatlarining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga kelib tushishi natijasida budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha pul mablag‘larining ko‘payishi hisobga olinadi.

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar rejasining bajarilishi daromadlarga o‘xshash tarzda g‘aznachilikda kassa metodi asosida qayd etiladi. Ya’ni, tashkilotlarning shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridan mablag‘larning sarflanishi xarajat sifatida hisobga olinadi. Budjet tashkilotlarida esa, hisoblash metodiga asosan budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha xarajatlar dastlab tan olinib hisobga olinadi. Shaxsiy g‘azna hisobvaraqlardan mablag‘larning sarflanishi debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar natijasi sifatida qayd etiladi va kassa xarajat sifatida e’tirof etiladi. Bunda, g‘aznachilikda ham, budjet tashkilotlarida ham smetalarning ijrosi rejaga muvofiq amalga oshirilishi talab etiladi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi moliyaviy hisobotlarning shakllari, ularni tuzish va taqdim etish tartibi hamda muddatlari ham moliya organi tomonidan belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotini davlat budjetidan moliyalashtirish bilan bog‘liq xarajatlar xarajatlar smetalari ijrosi kassa metodi asosida amalga oshiriladi. Budjetdan ajratilayotgan mablag‘lar tuzilgan xarajatlar smetasi doirasida bosqichma-bosqich budjet tashkilotining topshirig‘iga asosan g‘aznachilikda ochilgan shaxsiy g‘azna hisob-varaqlari orqali moliyalashtirib boriladi. Kassa xarajatlari, deb e’tirof etilishiga sabab, mamlakatimizda davlat budjeti ijrosi kassa usuliga asoslanganligidadir. Demak, budjet tashkilotlarini davlat budjetidan moliyalashtirish yoki g‘aznachilik tomonidan tashkilot majburiyatlarining to‘lanishi budjet tashkilotlarida kassa xarajatlari sifatida hisobga olinadi.

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha daromadlar va xarajatlar budjet mablag‘laridan farqli o‘laroq, daromadlar va xarajatlarning rejalari ijrosi bilan uzviy aloqadorlikda yoki shaxsiy g‘azna hisobvaraqlardagi o‘zgarishlar bilan emas, balki, daromad va xarajatlarning vujudga kelishi va ularni tan olish orqali hisobi yuritilishi zarur. Bir so‘z bilan aytganda, budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha daromad va xarajatlar budjet tashkilotlarida hisoblash usuliga asosan hisobga olinishi kerak. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha daromad (tushum)larini ikkita katta guruhga ajratish mumkin: budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari va undiriladigan mablag‘lar hisobidan shakllantiriladigan daromad (tushum)lar (4-rasm).



4-rasm: Budjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha daromadlari tarkibi[4]

Budjetdan tashqari daromadlari va ular bilan bog‘liq mablag‘larning harakati “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi yo‘riqnoma asosida quyidagi “turlarga ajratgan holda hisobga olinishi belgilangan:

- to‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag‘lari;
- o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlari;
- budjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari, shuningdek, tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari;
- boshqa budjetdan tashqari mablag‘lari”.

Quyida budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha daromadlar hisobini ko‘rib o‘tamiz. Oliy ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida talabalar va o‘quvchilarning to‘lov-kontrakt asosida “Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag‘larni taqsimlash tartibi to‘g‘risida”gi nizomga (2013-yil 26-fevral, 2431-son) ko‘ra tahsil olish uchun hisob-kitoblarning amalga oshirilishi natijasida daromadlar vujudga keladi.

Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli bo‘yicha daromadlar tuzilgan shartnoma asosida to‘lovlarning bir o‘quv yilida 4 marotaba amalga oshirilishiga bog‘liq bo‘lmagan holda har oyda amalga oshiriladigan xarajatlarga mos tarzda hisobga olinishi zarur.

Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli bo‘yicha to‘lovlar bir o‘quv yili davomida to‘rtga bo‘lib, to‘lashga ruxsat berilishi tahsil oluvchilarga yengillik yaratishga xizmat qiladi. Ammo, o‘quv yili davomida ta’lim berish bilan bog‘liq xarajatlar uzluksiz oyma-oy amalga oshirib boriladi. O‘z-o‘zidan, xarajatlarning oyma-oy amalga oshirilishi ular bilan bog‘liq daromadlarni ham shunga mos tarzda hisobga olishni talab etadi. Shu sababdan ham, o‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli bo‘yicha daromadlarni pul mablag‘larining kelib tushishidan qataeyi nazar, ta’lim xizmati ko‘rsatilishi bilan tan olish va hisobga olishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Budjet tashkilotlarida hisobot choragining so‘nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo‘yicha tejalgan mablag‘lar, faoliyat ixtisosligi bo‘yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar, budjet tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag‘larning bir qismi, belgilangan tartibda budjet tashkilotlari tasarrufida qoldirilgan mablag‘lar, homiylikdan olingan mablag‘lar yuzasidan daromadlar vujudga keladi. Ushbu daromadlar budjet tashkilotining rivojlantirish jamg‘armasi daromadlari sanaladi.

Hisobot choragining so‘nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo‘yicha tejalgan mablag‘larning rivojlantirish jamg‘armasiga o‘tkazilishi ushbu turdagi mablag‘larning ko‘payishiga olib keladi va budjet mablag‘lari bo‘yicha kassa xarajatlarni vujudga keltiradi. Mazkur holat shakl jihatdan rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha daromadni hosil qilmaydi va quyidagicha buxgalteriya aks ettiriladi:

- Dt 112-“Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari” (Pul mablag‘lari);
- Kt 232-“Budjetdan moliyalashtirish” (Budjet mablag‘lari bo‘yicha kassa xarajat).

Mazkur holatda buxgalteriya o‘tkazmalari natijasida tashkilotning rivojlantirish jamg‘armasi daromadlari hosil bo‘lmasada, kelgusida o‘tkazilgan pul mablag‘lari doirasida xarajatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq manba hosil bo‘lmoqda. Ushbu manbani iqtisodiy jihatdan izohlansa, uning xususiyati daromadni ifodalaydi.

4 Muallif tomonidan tuzilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

XULOSA VA TAKLIFLAR

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va hisoboti tadqiq etish bo‘yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

birinchi, Budjet tizimida soliq yukini kamaytirish, budjet xarajatlarini optimallashtirishni amalga oshirishda Davlat budjetidan moliyalashtiriluvchi budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirish muhim yo‘nalishlardan biri sanaladi. Shu bilan birga, budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘lar turlari va ularning ulushini ko‘paytirish budjet tashkilotlarining faoliyatini rivojlantirish va samaradorligini ta’minlash lozim;

ikkinchi, Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobini tashkil etish va yuritish bilan bog‘liq jihatlar, ko‘rsatkichlar, jarayonlar, munosabatlar, hodisalar, o‘ziga xos bo‘lgan tomonlar o‘rganilishi natijasida buxgalteriya hisobi va budjet hisobi bilan bog‘liq umumiy jihatlar mavjudligi kuzatildi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobining maqsadi, vazifalari, funksiyalari, predmeti, obyektlari, subyektlari, usullari nazariy jihatdan asoslandi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobotlarning tarkibi, ularni tuzish va taqdim etish tartibini o‘rganish natijasida hisobotlardagi axborotlarning foydalanuvchilar uchun muhimligi va ularni tahlil qilish imkoniyatlari nazariy jihatdan tadqiq etildi;

uchinchidan, Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobi amaliyotida daromadlar ularning turlari bo‘yicha tarkiblanadi va hisobi yuritiladi. Budjet tashkilotlarining faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqib, ularda budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha daromadlar yoki tushumlar shakllantiriladi. Daromadlarning shakllanishi va hisobini yuritish ularning tan olinishi hamda vujudga kelishi bilan bog‘liq jarayonlarni o‘zida ifodalaydi. Tushumlar esa, bevosita mablag‘larning harakati bilan bog‘liq holatda tan olinadi va hisobga aks ettiriladi;

to‘rtinchidan, Budjet tashkilotlarining moliya yili davomida foydalanilmay qolgan budjetdan tashqari mablag‘larini kelgusi yil uchun smetalarni tuzishda qayta taqsimlamasdan keyingi moliya yilida oldin belgilangan maqsadlarda foydalanish uchun o‘tkazish tartibini belgilash maqsadga muvofiq. Bu o‘z navbatida, budjetdan tashqari mablag‘larni moliya yili davomida daromad va xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan maqsadlarda foydalanishlarini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. (IMF, 2020). International Monetary Fund (IMF). 2020. Fiscal Monitor: Policies to Support People During the COVID-19 Pandemic. Washington, April. https://www.imf.org/en/Publications/FM/Issues/2020/04/06/fiscal-monitor-april-2020
2. (PQ-3917, 2018). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi “Budjet ma’lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917-son Qarori.
3. (Ostonokulov, 2021). Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va hisoboti uslubiyotini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2021. – 64 b.;
4. (Bakaybayeva, 2020). O‘zbekiston Respublikasida budjet hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish yo‘llari. i. f. d. dis. avt. –T.: 2020.
5. (Ibragimov, 2018). Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni takomillashtirish (Oliy ta’lim muassasalari misolida). iqt. fan. fal. dok. dis. avtoreferati. –T.: 2018. – 54 b.;
6. (Mehmonov, 2016). Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya va amaliyot. Monografiya. – T.: “Iqtisod moliya”., 2016.;
7. (Ostanaqulov, 2010). Davlat sektori va buxgalteriya hisobi. - T.: “Iqtisod-moliya”, 2010.
8. (G‘aniyev, 2008). Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish (ta’lim tizimi misolida). iqt. fan. nom. dis. avtoreferati. –T.: O‘z R BMA., 2008. 28 b.
9. (Tuychiyev, 2019). Budjet tashkilotlarida budjet xisobi. Darslik. “Iktisod-moliya” 2019. 429 b.
10. (Hamdamov, 2016).Budjet nazorati. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod moliya”., 2016. 324 b.
11. (MV, 2018). “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning davriy moliyaviy hisobotlarini tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish bo‘yicha qoidalar” (2018-yil 26-dekabr, 2971-son)
12. (VM, 2009). “Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to‘g‘risida”gi nizom (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-aprel, 102-son qaroriga ilova)
13. (PF-5953, 2020). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017–2021*yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni (2020-yil 2-mart, PF-5953-son)
14. (MV, 2010). “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi” yo‘riqnoma (2010*yil 22-dekabr, 2169-son)
15. (DSQ, 2021). O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021*yil 18*martdagi № 01/2-01-19-287-son.

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA INVESTITSION JARAYONLAR RIVOJLANISHINING XORIJ TAJRIBASI



Miyassarov Davron Abdurashid o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy islohotlar davrida milliy iqtisodiyotning tarmoq tarkibi samaradorligini yanada oshirishda xizmat ko‘rsatish sohasida investitsion jarayonlarni rivojlantirishning ahamiyati va dolzarbligi muhokama qilinadi. Shuningdek, rivojlangan davlatlar iqisodiyotida investitsiyalarni moliyalashtirish yo‘nalishlari bilan bog‘liq xulosalar va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: jahon iqtisodiyoti, rivojlangan davlatlar, xizmat ko‘rsatish sohasi, xususiy sektor, davlat-xususiy sherikligi, loyiha, model, infratuzilma, milliy iqtisodiyot, moliyalashtirish manbalari, xorijiy investitsiya.

Abstract: This article discusses the importance and relevance of the development of investment processes in the service sector in order to further increase the efficiency of the network structure of the national economy in the period of economic reforms. Also, conclusions and proposals related to the directions of financing investments in the economy of developed countries are given.

Key words: world economy, developed countries, service sector, private sector, public-private partnership, project, model, infrastructure, national economy, financing sources, foreign investment.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность и актуальность развития инвестиционных процессов в сфере услуг в целях дальнейшего повышения эффективности сетевой структуры национальной экономики в период экономических реформ. Также даны выводы и предложения, связанные с направлениями финансирования инвестиций в экономику развитых стран.

Ключевые слова: мировая экономика, развитые страны, сфера услуг, частный сектор, государственно-частное партнерство, проект, модель, инфраструктура, национальная экономика, источники финансирования, иностранные инвестиции.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash va innovatsion rivojlantirish sharoitlarida hamda mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga tobora integratsiyalashuvi kuzatilayotgan holatda xizmat ko‘rsatish sohasida investitsiyalash jarayonlarining jahon tajribasini faol o‘rganish va tatbiq etish dolzarb hisoblanadi.

Muvaffaqiyatli jahon tajribasining ko‘rsatishicha, innovatsiyalarning tobora katta qismi tadbirkorlik sohasida yaratilmoqda. Ushbu korxonalar, avvalo yirik korporatsiyalar bo‘lib, ular fundamental va amaliy tavsifdagi tadqiqotlarni tashkil etish, moliyalashtirish va tijoratlashtirish bilan kichik ilmiy sig‘imga ega korxonalar innovatsion izlanishlari natijalarini umumlashtiruvchi yirik loyihalarni ishlab chiqish, yangi g‘oya va bozorlarni global miqyosda qidirish, dunyoning turli mamlakatlarida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bilan shug‘ullanishadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahonda xizmat ko‘rsatish va servis sohasi rivojlanishining ilmiy-metodologik jihatlari ko‘plab xorijlik olimlar[1], jumladan: V.V.Kulibanova, K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik, S.N.Korobkova, V.I.Kravchenko, S.V.Orlov, I.P.Pavlova va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Ushbu muammolarni o‘rgan-

1 Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб и др.:ПИТЕР, ПИТЕР бух, 2002. – 751 с.

ishga o‘zbekistonlik olimlardan[2] B.A.Adukarimov, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, D.R.Zaynalov, B.X.To‘rayev, E.S.Fayziyev, B.Sh.Safarov, Sh.O.Quvondiqov va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda sanoati rivojlangan davlatlar ilmiy-innovatsion rivojlanishining uch asosiy modeli turini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- ilmiy sohada yetakchilik qilishga, ilmiy-ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi yirik miqyosdagi maqsadli loyihalarni amalga oshirishga ixtisoslashgan hamda mudofaa sohasida muayyan ulushdagi ilmiy-innovatsion salohiyatga ega davlatlar (AQSH, Angliya, Fransiya);
- ilmiy yangiliklarni joriy etishga, qulay innovatsion muhitni yaratishga va butun iqtisodiyot tizimini oqilonalashtirishga ixtisoslashgan davlatlar (Germaniya, Shvetsiya, Shveysariya);
- innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali ilmiy yangiliklarni rag‘batlantirishga, jahon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini o‘zlashtirishni ta’minlashga va ilm-fan va texnika sohasida turli bo‘limlar faoliyatlarini muvofiqlashtirishga ixtisoslashgan davlatlar[3].

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida barcha tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar innovatsion faolligining mazmuni va miqyosi oshishi umumiy global tendensiyaga aylandi. Uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ilm-fan sohasiga kiritilayotgan qo‘yilmalar hajmiga ko‘ra davlatlar farqlanishi moliyalashtirish manbalariga ko‘ra kapital qo‘yilmalar tarkibiy tuzilmasining tasniflanishida ham, iqtisodiyot uchun yangi bilimlarni olish manbalarida ham namoyon bo‘ladi: kapital qo‘yilmalar hajmining o‘sishi bilan nobudjet moliyalashtirish manbalarining ahamiyati ham ortib boradi va ilmiy tadqiqotlar konsentratsiyasi yo‘nalishining davlat sektoridan biznes-tuzilmalar tomoniga o‘zgarishiga olib keladi.

Jumladan, ilmiy sohaga kiritilayotgan qo‘yilmalar hajmi YAIMga nisbatan 3,0 %ga yaqinni tashkil etadigan davlatlarda moliyalashtirishning asosiy manbasi bo‘lib, tadbirkorlik sektori hisoblanadi. Bu jami qo‘yilmalarning 2/3 qismini tashkil etadi[4]. Bunday davlatlarda (AQSH, Yaponiya, Shveysariya va Shvetsiya) ilmiy faoliyat faol tarzda xo‘jalik yurituvchi subyektlar doirasida amalga oshiriladi va 70,0 foizdan ortiqroq ilmiy natijalar iqtisodiyotning aynan ushbu sektorida yaratiladi, fundamental ilmiy soha esa bozorga ilmiy-texnika mahsulotlarining atigi 1/6 qismini taklif etadi. Ilmiy-tadqiqot faoliyatiga xarajatlar YAIMga nisbatan 1,0 %dan kamroqni tashkil etadigan davlatlar guruhida esa teskari vaziyatni ko‘rishimiz mumkin: bunday davlatlarda ilmiy soha ta’minoti asosan davlat manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega davlatlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish va amaliyotga joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy natijalarni olishda tadbirkorlik sektori nisbatan faol hisoblanadi. Ya’ni, iqtisodiyotning ushbu sektorida xususiy tadqiqot ishlariga ustuvorlik beriladi va bu investitsiyalarning yuqori samaradorligini ta’minlaydi. Mutaxassislarning ma’lumotlariga ko‘ra, sanoati rivojlangan davlatlarda xususiy kompaniyalarning innovatsion faoliyati qat’iy maqsadga yo‘naltirilganligi bilan tavsiflanadi va 27,0 %ga yaqin ilmiy loyihalar yuqori iqtisodiy natijalar bilan amalga oshiriladi. Umumiy holatda esa, tugallangan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bosqichidan boshlanuvchi atigi 0,03 % g‘oyalar va 0,8 % loyihalar[5] yakunida ijobiy moliyaviy natija keltiradi.

Hozirgi vaqtda Yevropa Ittifoqi davlatlarida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning vositalaridan biri – bu Yevropa ilmiy hamjamiyatini tashkil etish loyihasi hisoblanib, uning maqsadi Yevropa va milliy ilmiy siyosatning uzviy o‘zaro aloqalariga, bilim va ma’lumotlar almashinuviga asoslanib, Yevropa Ittifoqi davlatlari ilmiy salohiyati va moddiy resurslaridan maksimal samarali foydalanish hamda YEI davlatlari hududida olimlarning erkin harakatlanishini ta’minlash hisoblanadi.

Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda davlat buyurtmalari iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muntazam iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish tizimining bir elementi

2 Adukarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik, II qism T.: “Fan va texnologiya”. 2008.; Pardayev M.Q., Isroilov J.I., G‘apparov A.Q. Xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish muammolari. Risola. Samarqand. “Zarafshon”, 2009. - 66 b.- 4,1 b.t.; Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2014. - 332 b.; Зайналов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // “Servis” jurnali. Samarkand: 2009, 1-son. – 70-77 betlar. – 0,6 б.т.; Тураев Б.Х. Организационно-экономические механизмы регионального туризма. – Т.: Фан, 2009. – 153 с.; Fayziyev E.S. Servis sohasining iqtisodiyotdagi o‘rni. Risola. T.: 'Fan va texnologiya', 2007. – 16 b.-1,0 b.t.; Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // Monografiya – T.: Fan va texnologiya, 2016. – 184 b.; Quvondiqov Sh.O. Xizmat sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. Iqtisod fanlari nomzodi dis. avtoreferati. Samarqand: SamISI, 2008.- 23 b.

3 В.А.Цукерман, Т.В.Хамидулина. Эффективная региональная бюджетная политика в стимулировании инноваций // Проблемы совершенствования бюджетной политики регионов, городов и коммун России и стран Северной Европы: Сб. науч. ст. по мат. науч.-практ. конф. / ПертГУ. – Петрозаводск, 2003.

4 http://stats.oecd.org/ (murojaat qilingan sana: 22/08/2019).

5 http://stats.oecd.org/ (murojaat qilingan sana: 22/08/2019).

sifatida keng qo‘llaniladi. Davlat buyurtmalarini joylashtirish va bajarishning xo‘jalik mexanizmi sifatida davlat buyurtmalari bozori namoyon bo‘ladi. Ushbu bozorda shartnomalar tizimi orqali davlat-buyurtmachi bilan turli mulkchilik shaklidagi xo‘jalik subyektlari o‘rtasida iqtisodiy va shartnomaviy aloqalar o‘rnatiladi va amalga oshiriladi. Umumiy qabul qilingan bozor mexanizmlari va institutlari bilan birga davlat buyurtmalari bozori maxsus tashkil etilgan institutlarga ham ega bo‘lib, ular xo‘jalik aloqalarining o‘ziga xos xususiyatlarini, birinchi navbatda, maxsus me’yoriy-huquqiy baza, nazorat qilish instituti, bozorni turli darajalarida boshqarishning tarkibiy tuzilmalari: federatsiya, hududiy va mahalliy darajalarda belgilaydi. Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, davlat buyurtmalari to‘g‘risida qonunchilikning rivojlanishi va shartnomaviy munosabatlar mexanizmining takomillashib borishi bilan davlat buyurtmalarini rejalashtirish, joylashtirish va bajarish bo‘yicha faoliyatlarni tashkil etuvchi institut sifatida davlat shartnomalari tizimining shakllanishi sodir bo‘ladi.

AQSHda Federal shartnomalar tizimi qisqa, o‘rta va uzoq muddatli davlat iqtisodiy dasturlarini amalga oshirish maqsadlarida federal hukumat moliyaviy resurslarini qayta taqsimlashning asosiy mexanizmi bo‘lib hisoblanadi. Davlat tovar va xizmatlar bozorida har yili AQSH iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarning 20,0 foizga yaqini realizatsiya qilinadi. 2000-yillarda federal hukumatning tovar va xizmatlar xaridiga xarajatlari 700-800 mlrd. dollarni tashkil etgan bo‘lib, bu federal budjetning uchdan bir qismidan ortiqroqni tashkil etgan[6]. Har yili davlat buyurtmalari hajmi 1,5-1,7 trln. dollarga yetadi yoki bu jami sanoat buyurtmalari hajmining 20,0 %ini tashkil etadi. Aholi va harbiy sohaga mo‘ljallangan yangi texnologiyalarni yaratish hamda ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari dasturlarini amalga oshirish va qurilish sohasi uchun har yili har birining qiymati 5 mingdan 2 mlrd. dollargacha bo‘lgan 1,5-2,0 mln. davlat shartnomalari rasmiylashtiriladi[7]. AQSHda davlat shartnomasi tovar yetkazib berish, ish, xizmat ko‘rsatish, ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarni ishlab chiqish kabilarni ifodalovchi iqtisodiy-huquqiy hujjat hisoblanib, ijro etuvchi yoki mas’ul organlar timsolida davlat va pudradchi-korxonalar o‘rtasida mufassal qismlarga bo‘lib yozilgan kelishuvni ifodalaydi, tomonlarning o‘zaro majburiyatlarini, mas’uliyatini, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan cheklovlarni, tomonlarning mulkiy va mulkiy bo‘lmagan huquqlarini o‘zida mujassamlashtiradi. U tanlov asosida tuzilishi zarur hisoblanib, tanlov qat’iy o‘rnatilgan tartib va bosqichlardan iborat bo‘lishi lozim.

Iqtisodiyotni va fan-texnikani tartibga solish va rejalashtirish vositasi sifatida davlat buyurtmasidan foydalanish bilan birga davlat barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishda xususiy tadbirkorlik salohiyatini ham jalb qiladi.

Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarga xos bo‘lgan innovatsiyalarni investitsiyalashning nisbatan harakatchan shakli bo‘lib venchurli kapital hisoblanadi. Tavakkalchilikka asoslangan moliyalashtirish an’anaviy xo‘jalik yuritishning chegaralarini kengaytiribgina qolmasdan, balki innovatsion faoliyatni takomillashtirish va butun bir iqtisodiy tizim faoliyati samaradorligini oshirish imkonini beradigan investitsion mexanizmning yangi turini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda jahonda uchta asosiy venchurli kapital bozorini ajratib ko‘rsatish mumkin – AQSH va Kanada, Janubiy-sharqiy Osiyo, Yevropa.

Venchurli biznesning zamonaviy tarixi AQSHda o‘tgan asrning 50-60 yillarida istiqbolli hisoblangan ilg‘or texnologiyalarni, eng avvalo, kompyuter texnologiyalarini (Silikon vodiysi kompaniyalari) ishlab chiqarish va amalga oshirishga yo‘naltirilgan kichik va o‘rta xususiy korxonalarni rivojlanishning dastlabki bosqichlarida moliyalashtirish uchun unchalik yirik bo‘lmagan kapital oqimini shakllantirishdan boshlangan edi. Hozirda jahondagi jami venchurli investitsiyalar hajmining teng yarimi AQSH hissasiga to‘g‘ri kelmoqda[8].

Venchurli biznes aksionerlik kapitaliga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar tarmog‘ining bir segmenti hisoblanadi, lekin uning ahamiyatini baholash birmuncha qiyinchilik tug‘diradi, chunki riskli kapital kichik innovatsion korxonalar mavjud bo‘lishining dastlabki bosqichlarida g‘oyadan to mahsulotning bozorga chiqishi va mustahkam o‘rin egallashigacha bo‘lgan davrda moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning amalda asosiy manbai bo‘lib hisoblanadi.

Investitsiyalashni amalga oshirish bosqichiga bog‘liq holda venchurli fondlarning ixtisoslashuvi mavjud bo‘ladi. Jumladan, AQSHda dastlabki bosqich fondlari faoliyat yuritib kelmoqda, ular kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi davrida tadbirkorlikning alohida tarmog‘i sifatida shakllandi va ushbu yo‘nalishning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun kuchli turtki berdi.

Hozirgi vaqtda ham AQSHda venchurli investitsiyalar uchun nisbatan yuqori qiziqishga ega tarmoq sifatida kompyuter texnologiyalari tarmog‘i oldingi o‘rinlarni egallab kelmoqda. Ushbu tarmoq doirasida investorlar va venchurli sarmoyadorlarning qiziqishi eng yuqori bo‘lgan yo‘nalish – bu internet-texnologiyalar, xususan, elektron biznesga ixtisoslashgan kompaniyalar hisoblanadi. Jozibador yo‘nalishlar ro‘yxatida keyingi o‘rinlarni

6 Афанасьев М.В., Афанасьева Н.В., Кныш В.А. “Государственные закупки в рыночной экономике”. СПб.: СПбГУЭФ, 2004, с. 91.

7 Федорович В.А., Патрон А.П., Заварухин В.П. США: Федеральная контрактная система и экономика. М.: Наука, 2002, с. 863-864.

8 https://home.kpmg.com/us/en/home/media/press-releases/2017/10/q3-17-us-venture-capital-investment-reaches-21-5-b-kpmg-report.html

kommunikatsiya texnologiyalari, biotexnologiyalar, meditsina va sog‘liqni saqlash, iste’mol tovarlari va xizmatlar egallaydi. G‘arbiy Yevropa davlatlarida esa venchurli investitsiyalar tarmoqlar o‘rtasida nisbatan teng taqsimlanishga ega hisoblanadi va rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish jarayoni kompaniyalarning keng tarmog‘ini qamrab oladi. U faqatgina yuqori texnologiyalarni joriy etgan firmalar bilan chegaralanib qolmaydi.

Venchurli investitsiyalar uchun kapital korporativ va individual investorlar – “biznes-angellar” tomonidan taqdim etiladi. Korporativ sektorning asosiy qismini mustaqil venchurlik fondlari (kompaniyalar, firmalar) tashkil qilib, odatda ular o‘zida hamkorlikni, sherikchilikni ifodalaydi. Hamkorlik kapitalining asosiy qismi AQSHning davlat va xususiy pensiya fondlari mablag‘lari hisobiga shakllanadi. Bundan tashqari bu jarayonda tijorat va investitsion banklar, sug‘urta kompaniyalari, davlat va xayriya fondlari, korporatsiyalar, jismoniy shaxslar ham faol ishtirok etishadi.

Individual venchur kapitali bozorining kichik innovatsion biznesni rivojlantirish va umuman iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashdagi rolini quyidagilar orqali ifodalash mumkin:

- individual venchur kapitali kichik korxonalar rivojlanishining dastlabki bosqichlarida institutsional venchur fondlariga nisbatan muayyan hajmda ko‘proq moliyalashtiradi;
- muayyan darajada investitsion loyihalarni baholash tajribasiga ega bo‘lgan “biznes-angellar” investitsiyalarni kiritish yoki rad javobi berish bo‘yicha qarorni institutsional venchur fondlariga nisbatan qisqa muddatlarda qabul qilishadi va bu butun bir kichik innovatsion biznesni moliyalashtirish jarayonini yanada harakatchan qiladi;
- moliyalashtirishning ushbu shakli nisbatan egiluvchan hisoblanadi va bir vaqtning o‘zida aksionerlik kapitali, kredit resurslari yoki har ikkalasining muayyan tarkibiy aralashmasiga ega bo‘lgan investitsiyalarni namoyon etishi mumkin;
- “biznes-angellar” institutsional sektordagi venchurli sarmoyadorlarga nisbatan moliyalashtirilgan firmalarda ko‘proq darajada “hands-on managemant[9]” tizimini amalga oshiradilar, bunda ular boshqaruvni, marketing strategiyasini, aloqlarni o‘rnatishni, biznes rejalashtirishni va shu kabilarni rivojlantirish bo‘yicha kompleks qo‘llab-quvvatlashni amalga oshiradilar. Bu keyinchalik ushbu firmalarga boshqa manbalardan, avvalo boshqa venchur fondlaridan moliyaviy mablag‘lar jalb qilish imkonini osonlashtiradi;
- ko‘pchilik holatlarda “biznes-angellar” o‘z geografik hududlari doirasida investitsiyalashni amalga oshiradi va buning sababini investitsiyalarni kiritgan korxona faoliyatida kundalik ishtirok etishning zarurligini hisobga olgan holda tushuntirish mumkin. Bu esa hududlarda moliyaviy mablag‘larning nisbatan teng taqsimlanishiga, moliyaviy mablag‘larning kichik biznesni rivojlantirish uchun sarflanishiga va pirovard natijada hududiy rivojlanishning yanada jadalroq amalga oshishiga imkon beradi.

AQSH va Kanada an’anaviy tarzda birinchi navbatda yangi va juda yosh innovatsion obyektlarni moliyalashtirishga ixtisoslashgan. Ularning investitsion siyosatida jiddiy o‘zgarishlar o‘tgan asrning 80-yillarida sodir bo‘ldi. Ya’ni, venchur kapitali bozoriga yirik pensiya fondlarining kirib kelishi natijasida ortiqcha pul massasining yuzaga kelishi va sifatli loyihalar sonining yetarli emasligi sharoitida amalga oshirilgan bir qator investitsiyalar keyinchalik yirik yo‘qotishlarga olib keldi.

Shu sababli ba’zi investorlar korxonalarni rivojlantirishning dastlabki bosqichlarini moliyalashtirishni to‘xtatishdi va tavakkalchiligi nisbatan kamroq bo‘lgan ancha keyingi boschiqlardagi loyihalarni moliyalashtira boshladilar. Bir qator firmalarni alohida bitmlar moliyalashtira boshladi, boshqalari esa o‘z investitsion strategiyasi chegaralarini kengaytirishdi va yangi faoliyat sohalarida (masalan, biotexnologiyalar) foydali loyihalarni qidira boshlashdi. Bunday siyosatning amalga oshirilishi o‘tgan asrning 90-yillariga kelib, sanoat ishlab chiqarishining jadallashuviga va keskin tarzda venchur kapitali hajmining oshishiga olib keldi[10].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot bo‘yicha quyidagi xulosalarqilindi va taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Xizmatlar bozorida, hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish shart-sharoitlariga muvofiq sohada xo‘jalik subyektlari rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishda investitsion jarayonlarni jadallashtirish maqsadida investitsion siyosatni shakllantirishda rivojlanishning muqobil yo‘nalishlari ishlab chiqildi va xizmat ko‘rsatish sohasining boshqa xo‘jalik subyektlari yoki boshqa tarmoqlarning tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish samaradorligini oshirish mexanizmlari aniqlandi.

9 Hands-on management style – faol (amaliy) boshqaruv tizimi, usuli (boshqaruv uslubi va mexanizmlarida tizimli yondashuvga egaligi, aniq rejalar ishlab chiqish, nazorat qilish tizimi va shu kabilar bilan xarakterlanadi). http://economy_en_ru.academic.ru/29533/hands-on_management_style

10 https://en.wikipedia.org/wiki/Venture_capital

2. Xizmatlar bozorida hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish shart-sharoitlariga muvofiq sohada xo‘jalik subyektlari rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish, investitsion jarayonlarni jadallashtirish lozim.

3. Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning jahon tajribasini o‘rganish va tahlil qilish orqali tadbirkorlik sektorining muhim va hal qiluvchi rolga ega ekanligi, milliy tizimlarning jadal rivojlanishini ta’minlash usullari tasniflandi.

4. Xizmat ko‘rsatish sohasi xo‘jalik subyektlariga jalb qilinayotgan turli shakllardagi xususiy investitsiyalarning qiyosiy samaradorligi tahlili asosida soha korxonalarida investitsiyalar samaradorligini oshirish shakllari va usullarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berildi. Investitsiyalar samaradorligini baholash jarayonida muayyan usullar bo‘yicha qarorlar qabul qilish uchun loyiha samaradorligini baholash usullari modifikatsiyalandi.

Yuqorida keltirilgan xulosalar bosqichma-bosqich, tizimli, dunyo tajribasidan kelib chiqib hal qilinsa, viloyatimiz ham respublika miqyosida iqtisodiyoti rivojlangan eng oldi viloyatlardan biri bo‘la oladi deb bemalol ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdukarimov B.A., Musayev B.Sh. Kommunal xizmatlarni tashkillashtirish aholiga qulayliklar yaratish omili. T.: “Fan va tehnologiya” nashriyoti, 2007. – 28 B.
2. B.A.Abdukarimov va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti (darslik).–T: “Fan”, 2005. –B. 241.
3. Ансоф И. Стратегическое управление: – М.: Экономика, 1989. 303 с.
4. Бочаров В.В. Финансово-кредитные методы регулирования инвестиций-М: Финансы и статистика,1999-144с.
5. Vahobov A.V. Bozor munosabatlariga o‘tish bosqichidagi ko‘p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo‘lishi. -T.: “Moliya”, 2002. –335 b.
6. Вериан Х.Р. Микроэкономика. Промежуточный уровень. Современный подход. –М.: Издательство “ЮНИТИ”, 1997. –С.647.
7. Головнина Л. А. Инвестиции: определение и оценка эффективности. – М.: МГИУ, 2001.-233с.
8. Голубев А.А. Организация и стратегическое планирование деятельности корпорации. – СПб.: Изд-во “Нестор”, 2001.
9. Доничев О.А., Волков Г.К. Формирование эффективной системы регулирования инвестиций в регионе.– СПб.: ИСЭП РАН, 1996.
10. Евменов А.Д. Проблемы реформирования механизма инвестирования в условиях переходной экономики. – СПб.: Изд-во СПбГУЭФ,2001.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



XIZMAT KO‘RSATISH VA SERVIS SOHASIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI

Muhammadamin Erdon o‘gli Erdonov
Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti “Real iqtisodiyot” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati aniqlanib, uning mezonlari va ko‘rsatkichlari tasniflangan hamda mehnat salohiyatini oshirishning asosiy yo‘nalishlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish korxonasi, mehnat resurslari, mehnat salohiyati, mezon, ko‘rsatkich, mehnat jarayoni, mehnat samaradorligi, mehnat resurslari sifat tarkibi.

Abstract: In this article, the socio-economic importance of increasing the efficiency of the use of labor resources in service enterprises is determined, its criteria and indicators are classified, and the main directions of increasing the labor potential are researched.

Key words: service enterprise, labor resources, labor potential, criterion, indicator, labor process, labor efficiency, quality composition of labor resources.

Аннотация: В данной статье описывается социально-экономическое значение повышения эффективности использования рабочей силы в сфере услуг, классифицируются их критерии и показатели, а также исследованы основные пути повышения трудового потенциала.

Ключевые слова: качество обслуживания предприятий, трудовые ресурсы, трудовой потенциал, критерии, показатели, трудовой процесс, производительность труда, трудовые ресурсы.

KIRISH

Iqtisodiy salohiyatni resurslar tizimi deb hisoblash mumkin, bu holda u individual resurslarning miqdoriy va sifat xususiyatlari nuqtayi nazaridan baholanadi, ammo bu holda ushbu resurslarning o‘zaro bog‘liqligi hisobga olinmaydi va o‘lchanmaydi. Iqtisodiy salohiyatni samarali yondashuv sifatida ko‘rib chiqishda tizimning ishlashini ta'minlaydigan barcha omillarni hisobga olish va ifoda etish kerak. Bunday holda, nafaqat resurslar, balki to‘plangan zaxiralar ham hisobga olinadi. A.P.Romanov o‘zining “tashkilotning iqtisodiy salohiyatini boshqarish” asarida shunday deydi: “agar salohiyat resurslar to‘plami sifatida qaralsa, uni baholash resurslarning ayrim turlari qiymatlarining sifat va miqdoriy xususiyatlarini belgilashdan iborat bo‘lib, ularning o‘zaro ta’siri hisobga olinmaydi va o‘lchanmaydi. Resurslar tizimi haqida gap ketganda, uning individual tarkibiy qismlarining xususiyatlari butun tizimni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar bilan to‘ldirilishi kerak”(10).O‘z navbatida, zaxira yondashuvi “zaxira” va “salohiyat” tushunchalarini farqlashni amalga oshiradi, shuning uchun mavjud va mumkin bo‘lgan salohiyat, mumkin va foydalanilmagan zaxira bo‘ladi. Korxonalar iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish orqali o‘z daromadlari va mulklarini ko‘paytirishga intilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Milliy boylikning dastlabki hisob-kitoblari 17-asrga to‘g‘ri keladi (V.Petti), 18-asrdayoq asosiy tushunchalar A.Smit va A.Turgoning klassik asarlarida shakllantirilgan.(3) 19-asrda D.Mill, F.Kene, A.Marshall asarlarida iqtisodiy salohiyatga ta’luqli ko‘plab muhim mavzular tadqiq qilingan, ammo ko‘plab iqtisodchilarning asosiy tadqiqotlari rivojlangan kapitalistik mamlakatlar milliy boyliklarining aniq hisob-kitoblariga bag‘ishlangan.

Raqobatbardoshlik strategiyasi haqida keng tushunchani Garvard maktabi professori Maykl Porterning asarlaridan olish mumkin, u ushbu konsepsiyaning eng e'tiborga munosib mualliflaridan biri hisoblanadi. U "raqobatbardosh romb" deb nomlangan raqobatdosh ustunlik determinantlari tizimini ishlab chiqdi. Bu tizimdan kelib chiqadiki, ishlab chiqarish omillariga moddiy boyliklar, axborotlar, huquqiy tizim, shuningdek, ilmiy-tadqiqot vositalari kiradi va unumdorlikni oshirish uchun muayyan hududlarda ishlab chiqarish omillari samaradorligi, sifati va ixtisoslik darajasiga nisbatan yaxshilanishi kerak deb ta'kidlaydi.

Tadqiqot jarayonida monografik tahlil, vizualizatsiya, qiyosiy tahlil, induksiya-deduksiya va boshqa ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA

Har bir korxonaning maqsadi uni barqaror rivojlantirishdir. Iqtisodiy salohiyat bosqichma-bosqich shakllanadi.

Birinchi bosqichda korxonaning rivojlanish strategiyasi aniqlanadi: 1. Faoliyat yo'nalishi belgilanadi; 2. Faoliyatning asosiy birliklari aniqlanadi; 3. Keyingi harakatlar uchun maqsadlar qo'yiladi. Bunga quyidagilar kiradi: korxona joylashgan atrof-muhit omillarini aniqlash; asosiy maqsadni belgilash; korxonaning asosiy yo'nalishini tanlash va korxonada mavjud bo'lgan resurslarni boshqarish mexanizmlarini topish.4. Korxonaning faoliyat sohasi asosida matritsa tuziladi. Yig'ilgan barcha ma'lumotlar korxonaga kelajakdagi rivojlanish uchun strategik va taktik rejalarni tuzishga imkon beradi.

Ikkinchi bosqich, agar yangi texnologiyalar va ishlanmalar qo'llanilsa, iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini belgilaydi. Samarali boshqaruvni rejalashtirish va tashkil etish mavjud bo'lib, bu boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Uchinchi bosqich-bu iqtisodiy sohaning xususiyatlarini hisobga olish, shu bilan birga sohaning iqtisodiy salohiyatidan foydalanish imkoniyati aniqlash bo'ladi. Korxonani tahlil qilish korxonaning tashqi muhitida marketing tadqiqotini o'tkazish asosida amalga oshiriladi.

To'rtinchi bosqichda iqtisodiy salohiyatni boshqarishning uslubiy tamoyillari aniqlanadi. Boshqaruvning yanada to'g'ri usullari boshqaruvni yanada samarali amalga oshirishga imkon beradi.

Beshinchi yakuniy bosqich iqtisodiy salohiyatni yaratish va rivojlantirish, ya'ni kerakli qiymatni oshirish, saqlash yoki pasaytirish masalalarini hal qilishni o'z ichiga oladi.

Amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlar iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonida hisobga olinishi va maksimal darajada ishlatilishi kerak bo'lgan uchta darajani aniqlashga imkon berdi: makro daraja (davlat salohiyati); mezo daraja (bozor va tarmoq salohiyati); mikro daraja (korxonaning o'z moliyaviy, kadrlar, ilmiy-texnik va ishlab chiqarish imkoniyatlari). Iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonining o'zi boshqaruv jarayonlariga xos bo'lgan umumiy qonunlarga asoslangan, ammo maxsus tashkil etish va uslubiy jihozlarni talab qiladigan boshqariladigan jarayondir.

Natijada, korxonaning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishni boshqarishning mohiyati uning asosiy maqsadini amalga oshirishga qaratiladi, bu uzoq muddatli barqaror o'sishni ta'minlash uchun mavjud imkoniyatlarni oqilona boshqarish sifatida shakllantiriladi. Shu bilan birga, korxonaning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadining miqdoriy mezoni uning tashqi muhit sharoitida korxonaning iqtisodiy salohiyati elementlarining qiyosiy raqobatbardoshligini hisobga olgan holda uning raqobat holati darajasi bo'lib hisoblanadi.

Keltirilgan rivojlanish konsepsiyasi korxonaning iqtisodiy salohiyatini belgilaydigan individual elementlarning ham, butun aholining ham tizimli strategik rivojlanishi asosida uzoq muddatli istiqbolda raqobatbardoshlikni oshirish muammolarini hal qilishga qaratilgan.

Keltirilgan tizimlar nazariyasi, menejmentning asosiy maktablari va neoklassik, evolyutsion, betartiblik nazariyasi kabi yetakchi tushunchalarning o'zaro bog'liqligini o'rganish, shuningdek, ilgari mavjud bo'lgan buyruq va ma'muriy tizim doirasida boshqaruv hamda rejalashtirish xususiyatlarini aniqlash iqtisodiy salohiyatni ko'rish va baholashdagi o'zgarishlarni kuzatishga imkon berdi.

Elementlar tarkibini o'zgartirish bilan bir qatorda iqtisodiy potensialni (yoki uning asosiy elementlarini) baholash usullari ham o'zgartiriladi va takomillashtiriladi, chunki ular. rivojlanish konsepsiyasining qoidalariga ko'ra, ular iqtisodiy tizimlardagi evolyutsion o'zgarishlar ta'siri ostida bo'ladi. Natijada, korxona resurslarini faqat statik baholash orqali korxona imkoniyatlarini baholash iqtisodiy salohiyatning raqobatbardoshligini tizimli strategik tahlil qilishga imkon beradi.

Xizmat ko'rsatish korxonasining iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish mexanizmini shakllantirishning dastlabki elementlari quyidagilardir: rivojlantirishning obyekti,iqtisodiy salohiyatning elementlari alohida-alohida (ishlab chiqarish salohiyati, kadrlar, ilmiy-texnikaviy va boshqalar) ifodalanishi,yoki ularning integral birikmasi; korxonani rivojlantirishning aniq maqsadlari ko'rsatilishi mumkin. Dastlabki elementlarni aniqlagandan so'ng, tanlangan rivojlanish obyekti uchun belgilangan maqsadga erishishni maksimal darajada aks ettiruvchi va rivojlanish mezonlari shaklida ifodalangan aniq vazifalar tanlanadi. Keyinchalik, boshqaruv omillari aniqlanadi,

tanlangan rivojlanish mezonlariga muvofiq ushbu omillarga ta'sir qilish shakllari va usullari belgilanadi. Ta'sir ko'rsatish shakllari va usullari (o'rganilayotgan mexanizmning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda) ikkita asosiy yo'nalishda – boshqaruv tadbirlari va iqtisodiy usullar orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni shakllantirish jarayonida korxonaning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish algoritmini amaliy qo'llash quyidagilarga imkon beradi:

- tashkilotning real salohiyatini (va potensialning har bir elementining holatini) aniqlash va uning asosida korxonani rivojlantirish strategiyasini shakllantirish;
- iqtisodiy salohiyatni shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini rejalashtirishda tashkilotning rivojlanish siklining bosqichini hisobga olish;
- rejalashtirilgan rivojlanish maqsadlariga erishilmagan taqdirda tashkilotga etkazilgan zararning prognozini olish;
- tashqi muhitda korxonaning kelajakdagi pozitsiyasi va korxona salohiyatining rivojlanish darajasini uning shartlariga moslashtirish to'g'risida tasavvur hosil qilish;
- korxonaning maqsadlariga erishish uchun mavjud salohiyatdan samaraliroq foydalanish va uni shakllantirish xarajatlarini hisobga olish.

Ko'pgina olimlar - A.Meskon, G.Mintsberg strategiyani tadbirkorlik tuzilmasi faoliyatining uzoq muddatli rejasi deb hisoblaydilar, bunga qo'shilish to'g'ri emas, chunki har qanday reja, birinchi navbatda, rejalashtirilgan maqsadga erishish uchun aniq parametrlar va ko'rsatkichlarni nazarda tutadi. Shu bilan birga, uzoq davr uchun tashqi muhitdagi o'zgarishlarni bashorat qilish deyarli imkonsiz vazifadir. A.Tompson, A.J.Striklend, G.Xamel kabi olimlar tomonidan taklif etilgan tadbirkorlik tuzilmasining raqobatbardoshligiga erishish vositasi sifatidagi strategiya ta'riflari ham ancha bahsli. Korxona tuzilmasining strategiyalari nafaqat uning raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilganligi sababli, balki korxonaning iqtisodiy salohiyatini oshirish strategiyalari biznes strategiyalarining turlaridan biri hisoblanadi. Ba'zi zamonaviy mualliflar strategiyani uzoq muddatli istiqbolda korxona tuzilmasining muayyan xatti-harakatlarini belgilaydigan harakat yo'nalishi, korxonaning tashqi muhitdagi o'zgarishlarga oldindan rejalashtirilgan munosabati, korxona iqtisodiy salohiyati va tashqi muhit o'rtasidagi muvozanatni o'rnatish usuli sifatida ko'rishadi. Strategiyalarning tasnifiga kelsak, zamonaviy iqtisodiy adabiyotlar mualliflarining fikrlarini 1-jadvalda keltirilgan bir nechta ilmiy yondashuvlarga birlashtirish kerak deb hisoblaymiz.

1-jadval: Korxonalarda iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish strategiyalari

Yondashuv nomi	Mualliflar	Yondashuv maqsadi
Iyerarxik	A.Tompson (11)	Eng yuqori darajada korporativ (umumiy) strategiya turadi, biznes strategiyalari unga bo'ysunadi, ikkinchisida biznes strategiyalari joylashgan, uchinchi o'rinda turadigan funksional strategiyalar iyerarxiya darajasining eng quyi qismida joylashadi.
Investitsion	B.Karloff (4)	Investitsiya strategiyalarida ta'kidlangan istiqbolli uzoq muddatli investitsiyalar yo'nalishlari maqsadidan kelib chiqib shakllantirilgan iqtisodiy salohiyat elementlarini rivojlantirish nazarda tutiladi
Raqobatbardoshlik yondashuvi	B.Artamanov (1)	M.Porterning raqobatbardosh strategiyalari ajralib turadi: xarajatlar bo'yicha yetakchilik strategiyasi, differensiatsiya strategiyasi, tor segmentdagi yetakchilik strategiyasi; hujum va mudofaa raqobat strategiyalari; mexanik monopollashtirish strategiyasi, integratsiyalashgan konsolidatsiya strategiyasi, izolyatsiya strategiyasi va kooperativ birdamlik strategiyasi.
Bozor pozitsiyasi yondashuvi	F.Kotler (6)	bozorda korxona tuzilmasining raqobatbardosh mavqeiga qarab, ularning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishning yetakchi strategiyalari, izdoshlar strategiyalari va autsayder strategiyalari farqlanadi.
Asosiy biznes faoliyati yondashuvi	V.Nemsov (8)	korxona maqsadining asosiy biznes strategiyalari ta'kidlangan – iqtisodiy salohiyatni konsentratsiyalashgan o'sish strategiyalari, integratsiyalashgan o'sish strategiyalari, tabaqalashtirilgan o'sish strategiyalari, qisqartirish strategiyalari ajratiladi.
Faoliyat sikliga bog'liq yondashuv	V.Kozlov (5)	tadbirkorlikning faoliyat sikli bosqichiga qarab, iqtisodiy salohiyatni o'stirish, barqarorlashtirish, qisqartirish, qayta qurish strategiyalari ajralib turadi
Funksional yondashuv	Yu.Filimonova (14)	alohida funksional sohani rivojlantirish maqsadiga ega iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish strategik yo'nalishlarini belgilovchi funksional strategiyalar yondashuvi – ishlab chiqarish, marketing, mehnat resurslari, moliyalashtirish yoki tadbirkorlik tuzilmasiga yo'naltirilgan alohida dasturlardan iborat bo'ladi

Iyerarxik yondashuvda eng yuqori darajada korporativ (umumiy) strategiya turadi, biznes strategiyalari unga bo‘ysunadi, ikkinchisida biznes strategiyalari joylashgan bo‘ladi, uchinchi o‘rinda turadigan funksional strategiyalar iyerarxiya darajasining eng quyi qismida joylashadi. Shuningdek, iqtisodiy salohiyatni shakllantirish strategiyalari iyerarxiyaning turli darajalarida joylashgan bo‘lishi kerak va u pastdan yuqoriga qarab shakllanib boradi. Ikkinchi klassik yondashuv investitsion yondashuv bo‘lib, unga ko‘ra investitsiya strategiyalari (uzoq muddatli investitsiyalarning istiqbolli yo‘nalishlari) ajralib turadi, ammo tadbirkorlik tuzilmasining iqtisodiy salohiyatini shakllantirishga ushbu yondashuvdan foydalanish investitsiya salohiyati doirasi bilan cheklangan bo‘ladi. Uchinchi klassik yondashuv-bu raqobatbardoshlik yondashuvi, unga ko‘ra M.Porterning raqobatdoshlik ustunliklarini yaratish strategiyalari ajralib turadi: xarajatlar bo‘yicha yetakchilik strategiyalari, differinsatsiya strategiyalari, tor segmentdagi yetakchilik strategiyalari; tajovuzkor va mudofaa raqobatbardoshlik strategiyalari, shuningdek mexanik monopollashtirish strategiyalari, integratsiyalashgan konsolidatsiya strategiyalari, izolyatsiya strategiyalari va kooperativ birdamlik strategiyalari. Tadbirkorlik tuzilmasining iqtisodiy salohiyatini shakllantirishga nisbatan raqobatbardoshlik yondashuvidan foydalanish ham raqobatdoshlik salohiyati doirasi bilan cheklangan bo‘ladi.

To‘rtinchi klassik yondashuv-bu bozor pozitsiyasi yondashuvi, unga ko‘ra bozorda tadbirkorlik tuzilmasining maqsadli raqobatbardosh pozitsiyasiga qarab, yetakchi, izdosh va autsayder strategiyalari ajralib turadi. Ushbu yondashuv tadbirkorlik tuzilmasining iqtisodiy salohiyatini shakllantirish strategiyalarini asoslashda qo‘llanilishi kerak.

XULOSA

Shunday qilib, tadbirkorlik tuzilmasi strategiyalarini tasniflashga yettita asosiy ilmiy yondashuv aniqlandi, shu bilan birga har bir yondashuv o‘ziga xos strategiyalar to‘plamiga ega, ammo iqtisodiy salohiyatni shakllantirish strategiyalarining o‘rnini aniqlash uchun biznes tuzilmasini strategik rejalashtirish tizimida klassik iyerarxik yondashuv va funksional yondashuv ustuvor hisoblanadi, chunki ular korxonada strategik rejalashtirish tizimidagi strategiyalarning o‘zaro bog‘liqligini va ta’sirini belgilaydi.

Tadbirkorlik tuzilmasini strategik rejalashtirish tizimi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy salohiyatni strategik rejalashtirish tizimini shakllantirish strategik tahlilni samarali tashkil etish va boshqarishni, barcha darajadagi maqsadlar va strategiyalarni ishlab chiqish hamda korporativ, biznes, funksional yondashuvlardan birini tanlashni o‘z ichiga oladi.

Значительная часть нынешних прямых иностранных инвестиций направлена в свободные экономические зоны и реальный сектор экономики различных стран мира. Это подчеркивает важность принимаемых странами мер по привлечению таких инвестиций, особенно для развитых промышленных государств. Привлечение прямых иностранных инвестиций в страны в 2022 году.

Данный график демонстрирует динамику потока прямых иностранных инвестиций с 2012 по 2020 год. Наблюдается рост инвестиций с 1,57 триллионов долларов в 2012 году до пика в 1,65 триллионов в 2016 году. Затем следует снижение до 1,44 триллиона в 2017 году и восстановление до 1,53 триллиона в 2018 году. В 2019 году произошло значительное падение до 0,96 триллиона, после чего в 2020 году инвестиции снова возросли до 1,5 триллиона. Эти изменения могут отражать экономические, политические и геополитические факторы, влияющие на привлекательность стран для иностранных инвесторов.

1 Составлено автором на основе данных Всемирного банка




Рисунок 2: Динамика потока прямых иностранных инвестиций, привлеченных в различные страны мира с 2012 по 2022 год (в триллионах долларов США)[2]

РЕКОМЕНДАЦИИ

Для дальнейшего усиления влияния прямых иностранных инвестиций (ПИИ) на экономику Узбекистана и поддержания положительных тенденций, наблюдаемых в последние годы, предлагаются следующие рекомендации:

- **Продолжение реформ в сфере регулирования:** Узбекистан должен продолжать усилия по сокращению административных процедур, что облегчит старт и ведение бизнеса для иностранных инвесторов. Это включает упрощение процедур лицензирования, повышение прозрачности регулятивных требований и снижение бюрократических преград, которые могут отпугнуть инвестиции.
- **Укрепление правовых основ инвестиций:** Укрепление правовых основ, регулирующих ПИИ, имеет важное значение. Это включает обеспечение исполнения контрактов, улучшение защиты прав инвесторов и установление четких, последовательных правил для экспроприации и национализации иностранных активов.
- **Улучшение инфраструктуры и связности:** Инвестиции в инфраструктуру, включая транспорт, телекоммуникации и энергетику, являются важными для повышения привлекательности Узбекистана для иностранных инвесторов. Улучшенная инфраструктура облегчает ведение бизнеса, снижает операционные расходы и способствует интеграции страны в мировые цепочки поставок.
- **Уделение внимания развитию человеческого капитала:** Развитие квалифицированной рабочей силы необходимо для привлечения высокоценных ПИИ. Это можно достичь за счет инвестиций в образование и программы профессиональной подготовки, соответствующие потребностям иностранных инвесторов, особенно в секторах, целевых для роста и диверсификации.
- **Продвижение секторальной диверсификации:** Помимо энергетики и телекоммуникаций, Узбекистан должен также содействовать привлечению ПИИ в секторы, такие как сельское хозяйство, производство и услуги. Диверсификация может помочь смягчить риски, связанные с чрезмерной зависимостью от нескольких секторов, и способствовать более сбалансированному экономическому росту.
- **Расширение международных партнерств:** Расширение двусторонних и многосторонних соглашений может обеспечить более стабильную и предсказуемую среду для иностранных инвесторов. Узбекистан должен стремиться к заключению инвестиционных договоров, которые включают положения о защите инвестиций и механизмы разрешения споров.

2 Составлено автором на основе данных Всемирного банка.

TARAQQIYOT PROGRESS

- **Улучшение деловой среды:** Постоянные усилия по улучшению общего делового климата, включая борьбу с коррупцией, обеспечение политической стабильности и содействие доброму управлению, являются необходимыми. Эти усилия не только привлекут больше ПИИ, но и способствуют устойчивому развитию экономики.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Прямые иностранные инвестиции (ПИИ) сыграли ключевую роль в экономическом развитии Узбекистана, способствуя росту, диверсификации и интеграции страны в мировую экономику. Инициативы правительства по реформированию начинают давать положительные результаты, что подтверждается увеличением притока ПИИ и расширением инвестиций в различные секторы экономики. Однако для поддержания и дальнейшего укрепления этой динамики Узбекистан сталкивается с вызовом дальнейшего улучшения инвестиционного климата путем реформ регулирования, развития инфраструктуры, повышения человеческого капитала и поощрения секторальной диверсификации.

Список использованной литературы:

1. Кодзима Х. (1973, 1990). Макроэкономическая теория инвестиций.
2. Одзава Г. (1984). Макроэкономическая теория инвестиций.
3. Никербокер Ф. (1973). Иностранные инвестиции и олигополистическая защита.
4. Р. Вернон (1966). Парадигма международного производственного цикла.
5. Г.М. Галеева, Е.Н. Кадеева. Факторы привлечения прямых иностранных инвестиций.
6. Dunning, J.H., The Eclectic (OLI) Paradigm of International production: Past, Present and Future, International Journal of the Economics of Business 2001.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. lex.uz›uz/docs/-5841063
8. https://www.statista.com/statistics/326496/inflows-foreign-direct-investment-worldwide.
9. (World Bank databank.org) Составлено автором на основе данных Всемирного банка.

QULAY INVESTITSIYA MUHITI – XORIJIY INVESTITSIYALAR OQIMINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILIDIR



Hoshimov Jahongir Ravshanbek o‘g‘li
PhD, Toshkent moliya instituti mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsiya muhiti yaxshilash masalalari o‘rganilgan. Jumladan, iqtisodchi olimlarning investitsion muhit jozibadorligini aniqlash yuzasidan olib borgan tadqiqotlari o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekiston misolida investitsion faoliyat, investitsion salohiyat va investitsion jozibadorlikni oshirish bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Investitsiya, innovatsiya, reinvestitsiya, chet el investitsiya, eksport, investitsion jozibadorlik, inflyatsiya, investitsion muhit.

Abstract: The article examines issues of improving the favorable investment climate for attracting foreign investments to the economy. In particular, studies conducted by economists on determining the attractiveness of the investment environment have been studied. It is also revealed on the basis of analytical data on increasing investment activity, investment potential and investment attractiveness in the case of Uzbekistan.

Key words: Investment, innovation, reinvestment, foreign investment, export, investment attractiveness, inflation, investment environment.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы улучшения благоприятного инвестиционного климата для привлечения иностранных инвестиций в экономику. В частности, изучены исследования экономистов по определению привлекательности инвестиционной среды. Это также выявлено на основе аналитических данных о повышении инвестиционной активности, инвестиционного потенциала и инвестиционной привлекательности на примере Узбекистана.

Ключевые слова: Инвестиции, инновации, реинвестиции, иностранные инвестиции, экспорт, инвестиционная привлекательность, инфляция, инвестиционный климат.

KIRISH

Jahon mamlakatlarining iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi, uning taraqqiyotini ta’minlovchi va yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi drayver sifatida investitsion siyosatni boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. “Jahonda 2019-yilda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 1,54 trillion AQSH dollarni tashkil etgan bo‘lsa-da, 2020-yil yakunlari bo‘yicha uning hajmi 40 foizgacha pasaygan” [1]. Ushbu tendensiya mamlakatlarning investitsion salohiyati zaiflashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, ayni paytda ular investitsion faoliyatni barqarorlik ko‘rsatkichlari orqali boshqarish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish va resurs salohiyatidan samarali foydalanish asosida qulay investitsion muhit yaratishga erishmoqdalar.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi investitsiya faoliyatining taraqqiyotiga, uning o‘zi esa investitsiya muhitiga bevosita bog‘liq. Xorijiy investitsiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlarning yaratilishi muhimdir. Negaki mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar mavjud bo‘lsagina o‘sha davlat iqtisodiyotiga investitsiya qo‘yilishi mumkin. Investitsiya muhitining jozibadorligi xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirishning muhim omili hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu borada, “investitsiya”, “investitsiya muhiti”, “investitsion jozibadorlik”, “investitsiya muhiti jozibadorligi” kabi bir-biriga mazmunan yaqin bo‘lgan kategoriyalarning mazmun-mohiyatini, ularga oid ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq etish lozim.

Investitsiya muhiti tushunchasini ko‘rib o‘tamiz. Ushbu yo‘nalishda, qator xorij iqtisodchi-olimlari, jumladan: J.D.Deniyels va L.X.Radeba kabilar “investitsiya muhiti” tushunchasini “biznes muhiti” tushunchasiga nisbatan o‘zaro sinonim sifatida baholab, o‘tgan asrning 70-80-yillardagi transmilliy korporatsiyalar (TMK) hozirda biznes muhiti talablariga moslashuv shartlarini to‘liq ko‘chirib olishga ulgurishganliklarini ta’kidlaydilar [2].

A.M.Basenko, P.V.Taranovlarning ilmiy-tadqiqotlarida “investitsiya muhiti” hamda “investitsiya iqlimi” kabi terminologik jihatlarga kapitalni qo‘yish davomidagi risklilik darajasi, aniq reja qilingan obyektga nisbatan investitsiya kiritishdagi jozibadorligi darajasini shakllantiruvchi ichki va tashqi shart-sharoitlar, qulayliklar sifatida yondashilganligini guvohi bo‘lamiz [3].

Perniya Ernesto, Salas Djon Maykl Yan Sioson tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga asosan, “investitsion muhit keng ma’noda “investitsiyalar bilan bog‘liq daromad va xavflarga ta’sir qiluvchi mavjud va kutilayotgan siyosat, institutsional va xatti-harakatlar muhiti” sifatida ta’riflanishi mumkin” [4].

Shuningdek, iqtisodchi-olimlardan A. Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminovlar investitsiya muhiti to‘g‘risida quyidagilarni ta’kidlab o‘tadilar: “Investitsiya muhiti – bu xorijiy kapital qo‘yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig‘indisidir. Investitsiya muhiti kompleks, ko‘pqirrali tushuncha bo‘lib, milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-sharoitlar (inqiroz, o‘sish, stagnatsiya), bojxona rejimi, valyuta siyosati, iqtisodiy o‘sish sur’atlari, inflyatsiya sur’atlari, valyuta kursining barqarorligi, tashqi qarzdorlik darajasi kabi ko‘rsatkichlarga ega” [5].

D. G‘ozibekov va T. Qoraliyevlar tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan: “Investitsiya iqlimi juda keng ma’noda ishlatiladigan tushuncha bo‘lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma’lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o‘z kapitalini kiritmoqchi bo‘lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi” [6].

Sh.Mustafaqulovning ta’kidlashicha, “mamlakatning integral investitsion jozibadorligi – bu mamlakatning xo‘jalik rivojlanish sharoitlarini tavsiflovchi va undagi investision faollikning shakllanishiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadigan obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik va ekologik ko‘rsatkichlarning umumiy darajasidir” [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada iqtisodiy jarayonlarini o‘rganishning ilmiy usullari, umumlashtirish, guruhlashtirish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, induksiya, deduksiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiya muhitining holatini investitsiya faoliyatini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy, ekologik va boshqa shart sharoitlarning umumlashtiruvchi xususiyatlari belgilab beradi. Investitsiya muhiti deganda, mamlakat iqtisodiyoti yoki uning ma’lum bir hududiga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, tashkiliy-huquqiy, ekologik, madaniy va boshqa shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. U muayyan hududga investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini belgilaydigan shart-sharoitlarning mavjud ijobiy va salbiy tomonlarini anglatadi.


Amaliy hayotda chet el investorlari biror mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarini kiritishi bilan bog‘liq bo‘lgan qarorlarni qabul qilishi uchun o‘sha mamlakatning biznesni tashkil etish va uni yuritish uchun shart-sharoitlari, investitsion muhitni sog‘lomlashtirish bo‘yicha olib borayotgan ijtimoiyiqtisodiy siyosati, xususan, xorijiy kopmaniyalarning hech qanday moneliksiz kirib kelishi, faoliyat olib borishi uchun erkin iqtisodiy va maxsus zonalarning tashkil etilgani, soliq va boshqa moliyaviy imtiyozlarning mavjudligiga e’tibor qaratishadi. Shuning uchun ham ko‘pgina rivojlangan tansmilliy kompaniyalar (TMK) to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni biror bir mamlakat iqtisodiyotiga kiritishdan oldin xalqaro reyting agentliklari tomonidan e’lon qilinadigan, xususan, Jahon bankining “Biznesni yuritish” [8], Butunjahon iqtisodiy forumining “Global raqobatbardoshlik indeksi”, Tinchlik uchun jamg‘armasining “Davlatlarning faoliyatsizlik indeksi” kabi reyting ko‘rsatkichlariga jiddiy diqqat qaratishadi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida shu narsaga amin bo‘ldikki, mamlakatning investitsion muhit jozibadorligini o‘rganish, uni har tomonlama ilmiy-uslubiy asosda ochib berish, eng avvalo, mamlakat hududlarining ijtimoiy- iqtisodiy salohiyatini tadqiq etish muhim hisoblanib, zero, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash investitsion muhitga bog‘liq ekan, investorlar o‘z qarorlarini shunga muvofiq ravishda ishlab chiqishadi.

Bir jihatni qayd etish lozimki, xorijiy investorlar diqqatini tortish uchun mamlakatimiz hududlarining investitsion jozibadorligini oshirish masalalarini hal etish lozimdir. AQShning Garvard maktabi mutaxassislarining ta’kidiga ko‘ra, mamlakatning investitsion jozibadorligiga baho berishda: xorijiy va milliy investorlar uchun yaratilgan qonunchilik bazasi, kapitalni mamlakat hududidan olib chiqib ketish imkoniyati, milliy valyutaning barqarorligi, mamlakatdagi siyosiy vaziyat, inflyatsiya darajasi va milliy kapitaldan foydalanish imkoniyati kabi omillar ta’sir ko‘rsatadi [9].

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijasi jahondagi yetakchi xalqaro reyting agentliklari tomonidan e’tirof etilayotganini alohida ta’kidlash lozim. Masalan, dunyodagi nufuzli “Fitch” “Moody’s” va “Standard and Poor’s” reyting agentliklari birinchi marta mamlakatimizning xalqaro suveren kredit reytingini belgiladi. Ana shu reyting baholari “Barqaror” prognoziga ega bo‘lib, bu yaqin 12-18 oy davomida ushbu ko‘rsatkichning pasayish ehtimoli kamligini bildiradi. O‘zbekiston erishayotgan bunday reyting baholari ko‘pgina rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan yuqori ekanini qayd etish lozim [10]. Ushbu reyting agentliklari O‘zbekistonda valyuta, savdo va narx siyosati erkinlashgani, davlat boshqaruvidagi institutsional o‘zgarishlar, mamlakat oltin-valyuta va budjet zaxirasi yetarli ekani, davlat qarzining kamligi singari omillarga alohida e’tibor qaratmoqda. Kelgusi yilning birinchi choragida yurtimiz tarixida ilk marta O‘zbekistonning suveren davlat obligatsiyalarini xalqaro moliya bozorlariga chiqarildi. Bu borada biz “J.P.Morgan”, “Citibank”, “Deutsche Bank” kabi yetakchi xalqaro investitsiya banklari bilan hamkorlik olib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda mahalliy investorlarga yer 49 yilga ijaraga berilmoqda. Xorijiy investorlarga esa yer 25 yilga ijaraga beriladi. Mamalaktimizda tashkil qilinayotgan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni tahlil qilib chiqamiz (1-rasm).




1-rasm: 2017–2022-yillar oralig‘ida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni [11]

2017–2022-yillar oralig‘ida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni 3,1 baravarga oshib, 2022-yil holatiga ko‘ra, 15,4 mingtaga yetgan. Iqtisodiyotimizga investitsiya kiritayotgan 50 dan ortiq mamlakat orasida Xitoy, Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston va Janubiy Koreya yetakchilik qilmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar asosan iqtisodiyotning sanoat (30,6 foiz) va savdo (28,5 foiz) sohalarida faoliyat yuritmoqda. Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarda iqtisodiyotda rasman band aholining 6 foizi faoliyat yuritadi, biroq ushbu korxonalarning ishlab chiqarishdagi ulushi 15 foizni, asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi esa 24 foizni tashkil qildi.

So‘nggi yillarda xorijiy investorlarning geografik konsentratsiyalashuvida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan. Xususan, 2017-yilda jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlarning asosiy qismi 2 ta davlat – Rossiya (55,5%) va Xitoy (15%)ga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bugungi kunda Turkiya (10,1%), Germaniya (7,4%) Saudiya Arabistoni (6%), Fransiya (5,5%), AQSH (3,9%), Italiya (2,2%), Shveysariya (1,9%) va Koreya (1,6%) kabi davlatlarning ulushi ham ortgan.

2-rasm ma’lumotlariga ko‘ra 2022-yilda jalb qilingan xorijiy investitsiya davlatlar kesmida ulushi keltirilgan. Ushbu rasmda eng ko‘p xorijiy investitsiya jalb qilgan Xitoy, Rossiya va Turkiya davlatlari yuqori o‘rini egallagan.



2-rasm: 2022-yil mamlakatimizga jalb qilingan xorijiy investitsiya davlatlar kesmida ulushi foizda [12]

2017-yilda xorijiy investitsiyalar va kreditlar iqtisodiyotga kiritilgan jami investitsiyalarning 23,8 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil yakunida 42,8 foizga yetdi. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushi esa 3,6 foizdan 4,5 foizga ko‘paygan. So‘nggi 6 yilda jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlar 45,5 mlrd dollarni tashkil etib, uning 17,1 mlrd dollari to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir.

Respublika iqtisodiyoti tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish maqsadida 2023–2025-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturi ishlab chiqilib, dasturga muvofiq, 2023–2025-yillarda iqtisodiyotga jami 1 215,0 trln so‘mga yaqin investitsiyalar, shundan 31,4 mlrd dollar xorijiy investitsiya va kreditlar jalb qilish rejalashtirilgan.

Jahon bankining Toshkentdagi vakolatxonasi matbuot xizmatiga ko‘ra, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa to‘rtta davlat, shu jumladan Tojikiston, Ozarbayjon va Kosovo bilan birgalikda O‘zbekiston ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda eng katta yutuqlarga erishgan 20 mamlakat qatoridan o‘rin egalladi [13].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan investitsion muhit jozibadorligini oshirish yo‘lida to‘siq bo‘lib kelayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yo‘lida quyida tavsiya etilayotgan takliflarning amaliyotga tatbiq qilinishi mamlakat investitsion muhit jozibadorligini oshirish yo‘lida maqbul ish bo‘lar edi:

- xalqaro tashkilotlar tomonidan o‘tkaziladigan so‘rovnomalarda faol ishtirok etish, jahon mamlakatlarining investitsion jozibadorligini ko‘rsatadigan reytinglarning barchasida O‘zbekistonning ham ishtirokini ta’minlash (GRI, GII, BERI va b).
- so‘mning qadrini ko‘tarish va buning asosida bank foizi stavkalarini barqarorlashtirish;
- ma’muriy buyruqbozlik holatlariga chek qo‘yish va xorijiy investorlarning mamlakatga nisbatan qarashlarini o‘zgartirish;
- har bir viloyatlarning markazlarida marketing, huquqiy maslahatxonalar va boshqa xizmatlarni kelajakda tadbirkorlar faoliyatini rivojlantirish uchun, shuningdek, investorlarning huquq va manafaatlarini himoyalash uchun tashkil etish lozim;
- mamlakatga jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning monitoringini takomillashtirish maqsadida yagona elektron dastur yaratish zarur;
- davlat budjeti xarajatlari va kiritilgan investitsiyalarni onlayn tarzda kuzatish imkonini yaratish.


Ushbu taklif va tavsiyalarning amaliyotga samarali tatbiq etilishi O‘zbekiston iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsion muhit jozibadorligini oshirish yo‘lidagi muhim tadbilar sirasiga kirishiga ishonamiz.

Mamlakatimizda investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish va uning qulayligini ta’minlashda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish banklar, investitsiya fondlari, sug‘urta va lizing kompaniyalari faoliyatini rag‘batlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo‘lga qo‘yish zarur;
- tadbirkorlarning biznes-ko‘nikmalari, shu jumladan, investitsiya loyihalari bilan ishlash tajribasi va huquqiy bilimlarini yanada oshirish hududlarda konsalting, marketing va yuridik xizmat ko‘rsatuvchi markazlar tashkil etish va foliyatini rivojlantirish lozim;
- investitsiya takliflari va loyiha texnik-iqtisodiy asoslarining belgilangan talablarga javob bermasligi sabab tadbirkorlarga investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda tijorat banklari, hududlardagi savdo-sanoat palatasi va boshqa mas’ul idoralar tomonidan amaliy yordam ko‘rsatilishini mahalliy hokimliklar tomonidan tashkil etish va doimiy nazoratga olish kerak;
- amaliyotda ayrim loyiha tashabbuskorlari moliyaviy-iqtisodiy holatining nochorligi kuzatilishi sabab investitsiya dasturlari va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha dasturlarga kiritish taklif etilayotgan loyihalar tashabbuskorlarining moliyaviy-iqtisodiy holatining mahalliy hokimliklar va tijorat banklari tomonidan chuqur tahlil qilinishini ta’minlash;
- mahalliy hokimliklarning xorijiy investorlarni hudud to‘g‘risida to‘liq investitsion muhitga oid ma’lumotlar bilan ta’minlashda faolligini oshirish xorijiy investorlarni to‘laqonli ravishda axborot (investitsiya loyihalari va biznes takliflar bazasi, hududiy matbuot nashrlari, iqtisodiy tahlil xom ashyo va mehnat salohiyati to‘g‘risida ma’lumotlar) bilan ta’minlash, investitsiya faoliyatiga oid konferensiyalar, seminarlar va taqdimotlar (respublika hududida va xorijiy mamlakatlarda) o‘tkazish lozim, ayrim korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilishdagi hamda xom ashyo sotib olishga aylanma mablag‘lar yetishmasligi bo‘yicha korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini o‘rganib chiqib, uni moliyaviy sog‘lomlashtirish, qarzlarini restrukturizatsiya qilish bo‘yicha muvofiqlashtirish ishlarini olib borish orqali eksport salohiyatini oshirish zarur;
- ishlab chiqarish infratuzilmasiga oid muammolar, shu jumladan, korxonalarning elektr energiya, tabiiy gaz, suv va yoqilg‘i mahsulotlari bilan ta’minlashdagi uzilishlarni hal etgan holda eksportyor korxonalarni uzluksiz ravishda elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va nazoratga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Investment Report 2020. International Production Beyond the Pandemic. United Nations, Geneva, 2020.
2. Дэниэлс Дж.Д., Радеба Л.Х. Международный бизнес: внешняя среда и деловые операции. 4-е.изд. – М.: Дело ЛТД, –2014. –438 с.
3. Басенко А.М., Таранов П.В. Особые экономические зоны как институциональный инструмент мобилизации инвестиционно-финансового потенциала территориального развития // Финансовые исследования. –2016. –№1 (50).
4. Pernia Ernesto M.; Salas John Michael Ian Sioson (2005) : Investment climate and regional development in the Philippines, UPSE Discussion Paper, No. 2005,01, University of the Philippines, School of Economics (UPSE), Quezon City.
5. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”, 2010. – B. 153.
6. G‘ozibekov D.G‘. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2007. – 92 b.
7. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. –T.: Baktria press, –2017 – 18-b.
8. http://www.doingbusiness.org
9. Stobaugh R.B. How to Analyze Foreign Investment Climates // Harvard Business Review. 1969. September-October.
10. Uktamov X.F. Korxonalar iqtisodiy xavfsizligini taminlashning ilmiy-nazariy jihatlari. Biznes-Ekspert jurnali 07.02.2018 90-b.
11. https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-iqtisodiyotida-xorijiy-investitsiyalar-ishtirokidagi-korxonalarning-orni-qanday
12. www.stat.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
13. Ismailova, N. (2020). Торгово-экономические отношения Узбекистана с Индией на современном этапе. Архив научных исследований, 33(1).



BIZNESNI LOYIHAVIY MOLIYALASHTIRISH VA UNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Razzakov Jasur Xamraboyevich
PhD, Toshkent moliya instituti “Moliya” kafedrasi professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada biznesni loyihaviy moliyalashtirish va uning asosiy yo‘nalishlarini o‘rganishda turli tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari tadqiq qilingan. Biznesni loyihaviy moliyalashtirish va uning asosiy yo‘nalishlarini o‘rganishda qo‘llanilgan metodlar keltirib o‘tilgan. Biznesni loyihaviy moliyalashtirish biznesni moliyalashtirish shakllari, biznesni loyihaviy moliyalashtirishning xususiyatlari, ishtirokchilari hamda foydalaniladigan hujjatlar asosida tahlil qilingan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida tegishli xulosalar va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: biznes, biznesni moliyalashtirish, loyihaviy moliyalashtirish, maxsus maqsadli loyiha (SPV), loyiha ishtirokchilari, investor, kreditor.

Abstract: This article studies the opinions of various researchers in the study of business project financing and its main directions. The methods used in the study of business project financing and its main directions are mentioned. Business project financing is analyzed based on forms of business financing, features of business project financing, participants and documents used. Relevant conclusions and proposals are formed based on the conducted research.

Key words: business, business financing, project financing, special purpose vehicle (SPV), project participants, investor, creditor.

Аннотация: В данной статье рассматриваются мнения различных исследователей в области изучение проектное финансирование бизнеса и его основных направлений. Упомянуты методы, используемые при изучение проектное финансирование бизнеса и его основные направления. Проектное финансирование бизнеса было проанализировано на основе форм финансирования бизнеса, особенностей финансирования бизнес-проекта, участников и используемых документов. На основании проведенного исследования были сформированы соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова: бизнес, финансирование бизнеса, проектное финансирование, компания специального назначения (SPV), участники проекта, инвестор, кредитор.

KIRISH

Biznesni samarali tashkil etish barcha turdagi kompaniyalar faoliyatidagi asosiy maqsad hisoblanadi. Kompaniyaning investitsiya qilingan mablag‘laridan maksimal foyda olish loyiha va biznes muvaffaqiyatining muhim tarkibiy qismidir. Mazkur maqsadlarga erishishda moliyalashtirishning turli shakllaridan foydalanish, ularning ichida eng samarali shaklini tanlash hamda mazkur jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni aniqlash zarur. Bugungi kunda xalqaro amaliyotda biznesni moliyalashtirishda biznesni loyihaviy moliyalashtirish amaliyotidan keng foydalanilmoqda. Chunki biznesni loyihaviy moliyalashtirishda riskni diversifikatsiyalash, mablag‘ni aynan bir loyihaga yo‘naltirish, loyihani moliyalashtirishda bir necha investorlarni jalb qilish kabi imkoniyatlarning yuzaga kelishi biznesni loyihaviy moliyalashtirishning ommalashishiga sabab bo‘lmoqda. Milliy amaliyotda biznesni loyihaviy moliyalashtirish amaliyotidan foydalanishni kengaytirish hamda uning ijobiy jihatlaridan foydalanish zarur. Bu orqali turli loyihalarni samarali amalga oshirish imkoniyatlari oshadi. Shu boisdan biznesni loyihaviy moliyalshtirish va uning asosiy yo‘nalishlarini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Biznesni loyihaviy moliyalashtirish xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan moliyalashtirish shakllaridan biri ekanligi sababli ko‘plab tadiqotchilar tomonidan mazkur moliyalashtirish shakli bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. S. Gatti fikricha, “loyihaviy moliyalashtirish deganda yagona, yuqori kapital talab qiladigan, uzoq muddatli biznes tashabbusini moliyalashtirish tushuniladi. Ushbu tashabbus maxsus maqsadli loyihaga (SPV)

kiritilgan bo‘lib, uning aktivlari kreditorlarga qarzni to‘lash uchun yagona manba sifatida loyiha tomonidan yaratilgan pul oqimidan foydalaniladi hamda garov vazifasini bajaradi” [1].

Bir guruh olimlar o‘z tadqiqotlarida “maxsus maqsadli loyihalar (SPV) investor kompaniyalardan qonuniy jihatdan mustaqildir. Ushbu sektor o‘sib bormoqda va yirik xalqaro kapital loyihalari bilan ajralib turadi” [2], deb izoh berishgan. Demak, uzoq muddatli loyiha sifatida amalga oshirilishi hamda katta mablag‘ talab qilganligi sababli bir necha investor tomonidan moliyalashtirilishi loyihaviy moliyalshtirishning o‘ziga xos jihati hisoblanadi.

A.Firouzi, A.Meshkani “loyihaviy moliyalashtirish butun dunyo bo‘ylab qayta tiklanadigan energiya manbalarini ko‘p talab qiladigan loyihalarda qo‘llaniladi. Yirik banklar va institutsional investorlar kabi moliyaviy subyektlar infratuzilma loyihalari uchun sindikatlashtirilgan kreditlar berishda faol ishtirok etadilar va ushbu loyihalar egalariga yaxshiroq shartlarni taklif qilish uchun raqobatlashadilar” [3], deya ta’kidlagan. Mazkur jihat loyihaviy moliyalashtirishning bugungi kundagi asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib beradi.

J. Barroco, M. Herrera “loyihaviy moliyalashtirish qayta tiklanadigan energiya loyihalari uchun kapitalni jalb qilish uchun kuchli vositadir, ammo rivojlanayotgan mamlakatlarda mazkur jarayonda qiyinchiliklar kuzatilmoqda” [4], deb o‘z tadqiqotlarida keltirib o‘tgan. Loyihaviy moliyalshtirishning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda kamchilik jihatlarini ham unutmaslik lozim.

R. Bruner ta’kidlashicha, “loyihaviy moliyalashtirish yirik kapital qo‘yilma loyihalarini tashkil etish va moliyalashtirish usuli hisoblanadi. Loyihaviy moliyalashtirish an’anaviy moliyalashtirish strategiyalariga qaraganda risklar va daromadlarni samaraliroq taqsimlash usuli deyish mumkin. Muayyan turdagi risklarni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo‘lgan loyihalar uchun mazkur moliyalashtirish usuli qo‘llaniladi. Natijada moliyalashtirishning umumiy qiymati past bo‘ladi, iste’molchilar va investorlar uchun ortiqcha yo‘qotishlarni bartaraf etish va boshqacha tarzda amalga oshirilishi mumkin bo‘lmagan loyihalarni muvaffaqiyatli yakunlash imkoniyatini taqdim etadi” [5]. Loyihaviy moliyalshtirishda risklar hamda daromadlarning shakllanishiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Yana bir guruh tadqiqotchilar fikricha, “loyihaviy moliyalashtirishning asosiy afzalligi shundaki, u resurssiz moliyalashtirish imkonini beradi. Bu kompaniyalar uchun yuqori darajadagi leverejni ta’minlaydi va qarzni balansdan tashqari hisob-kitob qilishga imkon beradi. Kelishuvlarning katta hajmda ekanligi risklarni taqsimlashga imkon beradi va an’anaviy moliyalashtirish usullariga nisbatan samarali daromad keltiradi. Loyihaviy moliyalashtirishning kamchiliklaridan biri ishtirokchilar sonining ko‘payishi tufayli jarayonning murakkabligi hisoblanadi. Loyihaviy moliyalashtirish yuqori tranzaksiya xarajatlarini o‘z ichiga oladi va loyihani moliyalashtirish uchun jalb qilingan kapital bahosi qimmatroq hisoblanadi. Shu sababli bank talablari keng miqyosdagi moliyaviy, texnik va risk tahlillarini amalga oshirishni nazarda tutadi” [6]. Loyihaviy moliyalashtirishda ham boshqa moliyalashtirish shakllarida bo‘lganligi singari o‘ziga xos afzalliklar va kamchiliklar mavjud.

B.Mamatov, D.Xujamkulov va O.Nurbekovlar ham loyihaviy moliyalshtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishga bo‘lib, ularning tadqiqotlariga ko‘ra, “iqtisodiyotni modernizatsiya qilish ustuvor tarmoqlarda investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirishning zarurligini quyidagilar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish yirik obyektlar barpo etish bog‘liq katta xarajatlarni moliyalashtirishni nazarda tutadi. Ikkinchidan, loyihaviy moliyalashtirishda investitsiya resurslari birlashib, yirik investitsiya loyihasini oshirish va moliyalashtirishga safarbar etiladi. Uchinchidan, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida yirik ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish kompleks ekspertizaning yoki loyihaviy tahlilning tegishli tartibda amalga oshirilishini talab qiladi. To‘rtinchidan, moliyalashtirishda risklarni ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlash orqali loyiha samaradorligini ta’minlaydi” [7].

Bir guruh mahalliy olimlar loyihaviy moliyalashtirish mazmum-mohiyatiga hamda xususiyatlariga to‘xtalib o‘tishgan. “Loyihaviy moliyalashtirish - bu bank kreditlashining bir turi bo‘lib, investitsion loyihalarni kreditlashda kreditor qisman yoki to‘liq majburiyatni (xatarni) ham o‘z bo‘yniga oladi. Loyihalarni tuzishda bevosita maxsus kompaniyalar ishtirok etadi. Oddiy kredit operatsiyalarida bank mijozning to‘lov quvvati, loyihaviy holati bilan qiziqsa, loyihaviy moliyalashtirishda asosiy diqqat loyihaviy tahlilga qaratiladi. Buning uchun loyihaning ta’sirchanlik darajasini baholash, “zararsizlik nuqta”sini belgilash kabi usullaridan foydalaniladi. Loyihaviy moliyalashtirishda risk darajasi yuqoriligini hisobga olib, kreditorlar investitsion loyihalarni amalga oshirishda xatarlarni boshqarishning eng foydali bo‘lishini ta’minlashga harakat qiladi. Riskni kamaytirishning an’anaviy usullaridan tashqari, infestitsion loyihalar amalga oshirishdagi ishtirokchilarga uni taqsimlash usullari ham qo‘llaniladi” [8].


Yuqoridagi olimlar hamda tadqiqotchilarning fikrlariga qo‘shilgan holda ta’kidlash mumkinki, biznesni loyihaviy moliyalashtirish xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilmoqda, biroq mazkur moliyalshtirish shaklining o‘ziga xos xususiyatlarini, afzallik va kamchilik tomonlarini inobatga olish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biznesni loyihaviy moliyalashtirish va uning asosiy yo‘nalishlarini o‘rganishda ilmiy abstraksiyalash, kuzatish, taqqoslama tahlil, deduksiya kabi metodlardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Biznesni moliyalashtirishning bir qator shakllari mavjud bo‘lib, kompaniya foydasi, turli jamg‘armalar, sherikchilik, aksiyalar, obligatsiyalar, kraudfanding, davlat-xususiy sherikchilik kabi usullar biznesni moliyalashtirishda ko‘p qo‘llaniladi (1-rasm). Agar kompaniya biznes operatsiyalaridan yetarlicha sof foydaga ega bo‘lsa, soy foydadan foydalangan holda yangi loyihani moliyalashtirishi mumkin. Biznesni moliyalashtirishda shakllantirilgan jamg‘armalar orqali ijobiy pul oqimlarini yuzaga keltirish mumkin hamda bu orqali loyihani moliyalashtirish mumkin. Ushbu yondashuvning salbiy tomoni shundaki, yetarli miqdorda jamg‘armani shakllantirish uchun yillar kerak bo‘lishi mumkin. Shuningdek, loyihani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan xarajatlar va majburiyatlarni amalga oshirishda sherik bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa kompaniyalar yoki investorlar bilan sherikchilikni yo‘lga qo‘yish biznesni moliyalashtirish uchun yana bir potensial variantdir. Bu loyiha samaradorligini oshiradigan vertikal yoki gorizontal integratsiyalarni taklif qilsa, mazkur loyiha yanada jozibador bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda xalqaro amaliyotda keng uchraydigan biznesni moliyalashtirish shakllari sifatida aksiyalar va obligatsiyalar emissiyasini ta’kidlash lozim. Kompaniya aksiyalarini investorlarga sotish orqali kapital jalb qilish mumkin. Obligatsiyalar emissiyasi kompaniyaga biznesni qarz evaziga moliyalashtirish imkonini beradi. Mazkur jarayonda loyiha korporativ obligatsiyalar yoki munisipal obligatsiyalar evaziga moliyalashtirilishi mumkin. Ko‘p sonli kichik investorlardan kapital jalb qilish shakli - kraudfanding ba’zi hollarda loyihalarni moliyalashtirish uchun yetarli mablag‘ni ta’minlashi mumkin. Lekin har doim ham mazkur moliyalashtirish shaklida loyihalar uchun zarur bo‘lgan katta mablag‘larni qo‘lga kiritish imkoniyati yuzaga kelmasligi mumkin.




1-rasm: Biznesni moliyalashtirish shakllari tasnifi [9]

EcoSys xalqaro loyihaviy kompaniyasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Yana bir biznesni moliyalashtirish shakli davlat-xususiy sheriklik amaliyoti bo‘lib, xususiy kompaniyalar ko‘pincha davlat infratuzilmasi loyihalari kabi keng ko‘lamli ishlarni bajarish uchun davlat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi. Xususiy kompaniya dastlabki investitsiyalarning katta qismini yoki barchasini ta’minlaydi va qurilish tugagandan so‘ng loyihadan keladigan mablag‘lar evaziga kiritilgan investitsiyalarni qoplaydi. Biznesni moliyalashtirishda mazkur usuldan ham foydalanish holatlari ham ko‘p uchraydi (1-rasm).


Bugungi kunda biznesni loyihaviy moliyalashtirish biznes faoliyatini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Biznesni loyihaviy moliyalashtirish bir qancha xususiyatlar bilan tavsiflanishi mumkin (2-rasm). Birinchidan, biznesni loyihaviy moliyalashtirishda kompaniya alohida yuridik shaxs tashkil etilishi mumkin (ya’ni, amalga oshirilgan investitsiyalarni ko‘rishni istagan bosh tashkilotdan alohida). Ushbu yuridik shaxs sheriklik

yoki korporatsiya sifatida tashkil etilishi mumkin. Ikkinchidan, kompaniya muayyan biznes yoki aktiv atrofida ham tashkil etilishi mumkin. Biroq, tashkil etilgan kompaniya homiy yoki investordan alohida faoliyat ko‘rsatadi. Loyihada aniq belgilangan maqsadlar belgilanadi. Uchinchidan, loyihaviy moliyalashtirish nisbatan qimmatga tushadi. Shartnomalarda loyihaning turli ishtirokchilarining majburiyatlari, ulushlari va mukofotlari batafsil tavsiflanadi. Buxgalteriya hisobi va monitoring tizimlari loyihaning noodatiy xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtiriladi.



2-rasm: Biznesni loyihaviy moliyalashtirishning ayrim xususiyatlari [5]

To‘rtinchidan, loyihani moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan katta shartnoma va tranzaksiya xarajatlari tufayli loyiha katta bo‘lishi va katta mablag‘ni o‘z ichiga olishi kerak. Beshinchidan, kompaniya homiy va investorlarga murojaat qilmasdan moliyalashtiriladi (2-rasm).




3-rasm: Biznesni loyihaviy moliyalashtirishda maxsus maqsadli loyiha ishtirokchilari[1]

1 Iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

3-rasmda biznesni loyihaviy moliyalashtirishda maxsus maqsadli loyiha ishtirokchilari yoritilgan bo‘lib, investorlar yoki aksiyadorlar, qarz beruvchi banklar va turli kredit institutlari, sug‘ruta kompaniyalari, shartnoma tuzuvchilar, ta’minotchilar va boshqa ishtirokchilar maxsus maqsadli loyihalarda ishtirok etadi.



4-rasm: Biznesni loyihaviy moliyalashtirishdagi hujjatlar [10]

Biznesni loyihaviy moliyalashtirishda bir qancha hujjatlar ham rasmiylashtirilishi lozim. Mazkur hujjatlarni shartli ravishda kredit berish bilan bog‘liq hujjatlar, xavfsizlik hujjatlari, loyihaning turli hujjatlari hamda aksiyadorlar yoki investorlar bilan bog‘liq hujjatlar kabi guruhlarga ajratish mumkin (4-rasm).

XULOSA

Biznesni loyihaviy moliyalshtirish va uning asosiy yo‘nalishlarini o‘rganish orqali quyidagi xulosalar shakllantirilgan.

Birinchidan, loyihaviy moliyalashtirish yuqori kapital talab qiladigan hamda uzoq muddatli biznes loyihasini moliyalashtirish shakli bo‘lib, mazkur jarayonda maxsus maqsadli loyiha (SPV) amalga oshiriladi hamda loyihada yaratilgan pul oqimidan kreditorlarga qarzni to‘lash uchun yagona manba sifatida foydalaniladi.

Ikkinchidan, biznesni loyihaviy moliyalashtirishning xususiyatlari sifatida biznesni loyihaviy moliyalashtirishda kompaniya alohida yuridik shaxs tashkil etilishi mumkinligi, ushbu yuridik shaxs sheriklik yoki korporatsiya sifatida tashkil etilishi mumkinligi, loyihada aniq belgilangan maqsadlar belgilanganligi, shartnomalarda loyihaning turli ishtirokchilarining majburiyatlari, ulushlari va mukofotlari batafsil tavsiflanganligi, loyihani moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan katta shartnoma va tranzaksiya xarajatlari tufayli loyiha katta bo‘lishi va katta mablag‘ni o‘z ichiga olishi kerakligi kabilarni ta’kidlash mumkin.

Uchinchidan, loyihaviy moliyalashtirishning asosiy afzalligi resurssiz moliyalashtirish imkoniyatining mavjudligi hisoblanadi. Bu kompaniyalarga yuqori leverejga erishishga yordam beradi. Kelishuvlarning katta hajmda ekanligi risklarni diversifikatsiyalashga imkon beradi va an’anaviy moliyalashtirish usullariga nisbatan samarali daromad keltiradi. Shu boisdan mamlakatimizda biznesni loyihaviy moliyalashtirish amaliyotini kengaytirish lozim.

To‘rtinchidan, loyihaviy moliyalashtirishning kamchiliklaridan biri ishtirokchilar sonining ko‘payishi tufayli jarayonning murakkabligi hisoblanadi. Loyihaviy moliyalashtirish yuqori tranzaksiya xarajatlarini o‘z ichiga oladi va loyihani moliyalashtirish uchun jalb qilingan kapital bahosi qimmatroq hisoblanadi. Shu sababli bank talablari keng miqyosdagi moliyaviy, texnik va risk tahlillarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Biznesni loyihaviy moliyalashtirishda mazkur jihatlarga alohida e’tibor qaratish lozim.


Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Stefano Gatti. Introduction to the Theory and Practice of Project Finance. // Project Finance in Theory and Practice (Fourth Edition), Designing, Structuring, and Financing Private and Public Projects, 2024. - Pages 1-35. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/B9780323983600000019

2. Manel Kammoun, Gabriel J. Power, Djerry C. Tandja. Capital market reactions to project finance loans. // Finance Research Letters, Volume 45, March 2022. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1544612321001963
3. Afshin Firouzi, Ali Meshkani. Risk-based optimization of the debt service schedule in renewable energy project finance. // Utilities Policy, Volume 70, June 2021. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S095717872100031X
4. Jose Barroco, Maria Herrera. Clearing barriers to project finance for renewable energy in developing countries: A Philippines case study. // Energy Policy, Volume 135, December 2019
5. Robert F. Bruner. Project Financing: an Economic Overview. // Article in SSRN Electronic Journal, October 2008.
6. A.Garcia-Bernabeu, F. Mayor-Vitoria, F. Mas-Verdu. Project Finance Recent Applications and Future Trends: The State of the Art. // International Journal of Business and Economics, Vol. 14, No. –2, 2015. –159-178 pp.
7. B.Mamatov, D.Xujamkulov, O.Nurbekov. Investitsiyalarni tashkil etih va moliyalashtirish. // Darslik. –T.: Iqtisod-Moliya, –2014. –449-b.
8. Rashidov O.Yu, Qurbonov X.A., Karlibaeva. R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. // O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, –2005. – 33-b.
9. https://www.ecosys.net/knowledge/project-finance/ – EcoSys xalqaro loyihaviy kompaniya rasmiy veb-sayti ma’lumotlari
10. A Guide to Project Finance // Dentons, 2013. – 18 p. https://www.dentons.com/~/media/6a199894417f4877adea73a76caac1a5.ashx

INFLATION AND UNEMPLOYMENT: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN





Mahmudov Nosir
I.f.n. professor

Nabiyeva Nargizaxon Nuriddin qizi
TDIU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ishsizlik va inflatsiya o‘rtasidagi teskari bog‘liqlikni nazariy jihatlari va uning iqtisodiyotga ta’siri o‘rganilgan. Nazariy jihatdan ishsizlik va inflatsiya o‘rtasidagi teskari bog‘liqlikni Phillips egri chirig‘i ochib bersada, bu qisqa muddatli iqtisodiy jarayonda ro‘y beradi. Uzoq muddatli iqtisodiy jarayonlarda esa NAIRU (Inflatsiyani o‘zgartirmaydigan ishsizlik darajasi) orqali ishsizlik va inflatsiyani nazorat qilish mumkin. NAIRU ning hisoblash usullari va darajasi bizning mamlakatimizda hali aniq hisoblab chiqilmaganligi sababli, ushbu maqolada uning nazariy jihatlari o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Inflatsiya, ishsizlik, YAIM, NAIRU.

Abstract: This study examines the relationship between inflation and unemployment and their effect on economic growth. Theoretically, the inverse relationship between unemployment and inflation is revealed by the Phillips curve decay, but this occurs in a short-term economic process. In long-term economic processes, unemployment and inflation can be controlled through the NAIRU. Since the exact level of NAIRU has not yet been accurately calculated in our country, this article examines its theoretical aspects.

Key words: Inflation, unemployment, GDP, NAIRU.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические аспекты обратной зависимости между безработицей и инфляцией и ее влияние на экономику. Теоретически обратная зависимость между безработицей и инфляцией проявляется в затухании кривой Филлипса, но это происходит в краткосрочном экономическом процессе. В долгосрочных экономических процессах безработицу и инфляцию можно контролировать с помощью NAIRU (уровень безработицы без поправки на инфляцию). Поскольку методы расчета и уровень НАИРУ в нашей стране еще точно не рассчитаны, в данной статье рассматриваются его теоретические аспекты.

Ключевые слова: Инфляция, безработица, ВВП, НАИРУ.


INTRODUCTION

In macroeconomics, the relationship between inflation and unemployment has been considerably more extensive both conceptually and experimentally. Historically, achieving a low unemployment rate without encouraging unwarranted rises in inflation and wage growth has been a major issue for policymakers.

Labor migration to large cities within the country complicates the economic situation in these cities. The demand for food and accommodation in cities is increasing and this is causing prices to rise further. That is, unemployment contributes to inflation, and inflation contributes to unemployment. This closed loop widens the economic gap between rural and urban areas.

The part of the population that works abroad and brings money to the country is also accelerating this process. The influx of foreign currency into the country increases aggregate demand and pushes prices up. At first glance, it may seem that the more money the state receives, the better. But for the economy of any country, value is important, not money. Money is not value in itself, it is only a measure of value.

The link between the unemployment rate and the rate of inflation is represented by the Phillips curve. A. W. H. Phillips's 1861–1857 study on wage inflation and unemployment in the UK is a seminal work in the field of macroeconomics, despite having forerunners. Phillips discovered a constant inverse relationship: salaries climbed quickly during periods of low unemployment and slowly during periods of high unemployment (Hoover).



Picture 1: Phillips curves

Source: Spur Economics

In the diagram above, the SRPCs are short-run Phillips curves that are comparable to the original Phillips curve. The LRPC is here long-run Phillips curve and N is the Natural Rate of Unemployment, and economies tend to stabilize at this rate in the long run. If the Natural Rate of Unemployment is 5 % and economy operates initially in this level, there will not be inflation. Assume that the authorities reduce the unemployment rate below 5 % to 3 % with various economic policies. The economy shifts from point N to point A as a result of the government's ability to short-term cut unemployment to 3%. Consequently, we see a leftward shift on SRPC-1. The unemployment rate in the economy is 3% at A. However, this results in a 2% increase in inflation.


Economists are now increasingly replacing the term "natural rate of unemployment" with " non-accelerating inflation rate of unemployment " (NAIRU). It is clear that unemployment above the natural rate is undesirable because it leads to cyclical unemployment resulting from a recession in business activity. On the other hand, if unemployment falls below the level of full employment, then the economy inevitably faces inflationary processes. The natural rate of unemployment (NAIRU) is calculated as the average value of the actual rate of unemployment in the state for 20 years: for the previous 10 years and for the next 10 years. The unemployment rate in the coming period is forecasted taking into account the expected inflation rate.

The "non-accelerating inflation rate of unemployment," or NAIRU, is the term economists use to describe the lowest unemployment rate that can do this. This idea aids in determining the amount of "spare capacity" in the economy. One cannot directly witness the NAIRU. Nonetheless, there are also observable indicators that provide information about the amount of spare capacity in the economy and may be used to draw conclusions about the NAIRU.

When the total demand for products and services is less than the economy's ability to supply them, spare capacity will exist in the economy.

The difference between the NAIRU and the unemployment rate, commonly referred to as the "unemployment rate gap" or "unemployment gap," is a crucial indication of spare capacity in the economy. Even while we cannot directly see the NAIRU, if wage growth and inflation are slowing, there is likely to be spare capacity in the economy, implying that the unemployment rate is higher than the NAIRU. However, if inflation and wage growth are rising, the economy is probably not operating at full capacity, which leads us to believe that the unemployment rate is lower than the NAIRU. When there is no unemployment rate gap, the NAIRU equals the unemployment rate that would be expected if the economy was running at full capacity (Reserve Bank of Australia).

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС



Picture 2: Non-Accelerating Inflation Rate of Unemployment

Source: Reserve Bank of Australia

LITERATURE REVIEW

During the last few decades, macroeconomic experts from various industrialized nations have examined the link between unemployment and inflation in great detail. Phillip (1958) discovered an empirical correlation between the unemployment rate and the rate of pay growth. Samuelson and Solow's (1960) conclusion that there is a balance between unemployment and inflation was later disputed by Phelps (1967) and Friedman (1968). Friedman also attested to the short-term trade-off between unemployment and inflation. The primary idea states that inflation increases in tandem with labor cost increases when the jobless rate drops below the natural rate of unemployment.

Policymakers are interested in the Non-Accelerating Inflation Rate of Unemployment (NAIRU) because it approximates the amount of leisure in the labor market. It demonstrates the inverse link between rates of inflation and unemployment. Conversely, the NAIRU cannot be observed and has to be computed by statistical models. The most often used method for this is the Phillips curve technique, which evaluates the relationship between salary or price increases and unemployment (Ruberl et al.).

Both Phelps and Friedman disputed the idea that unemployment and inflation are inversely related. Phelps and Friedman claim that because the Phillips curve evolves over time, the ideal unemployment rate is independent of the amount of inflation. Consequently, the trade-unemployment rate is constrained in the near run. In the end, they introduced the country of NAIRU. Under the Non-Accelerating Inflation Rate of Unemployment (NAIRU), inflation starts to increase. Around the beginning of the 1970s, when the US economy was dealing with severe unemployment and inflation at the same time (stagflation), concerns were raised about the durability of the original Phillips curve. Then, other researches refuted Phillips' theory (Lucas, 1976).

Another study conducted in Iran estimated the time-varying NAIRU using the Kalman filter and compared the results to those obtained via HP filter estimation. The research shows that the real unemployment rate is becoming closer to full employment and that there has been a structural unemployment gap over time, as shown by econometric studies and the rising NAIRU. Stated differently, the real and projected unemployment rates did not differ much (NAIRU). It shown that structural issues are responsible for the high unemployment rate and that monetary policies alone would not be able to reduce it over time (Nasseri Oskouie, Abbasinejad and Mehrara, 2020).

METHODOLOGY

Since the NAIRU cannot be directly seen, econometric models and historical economic data must be used to estimate it. These approximations are by nature ambiguous. A point estimate of the NAIRU is helpful for evaluating policy settings and economic forecasting, but it should not be seen as fixed or precise; instead, it should be analyzed in conjunction with its (usually) substantial standard errors.




Table and diagrams.

Graph 1: Unemployment rate and annual change in unemployment rate (1995-2022)

It was reported that the number of unemployed people in Uzbekistan is 1 million 300 thousand, and another 2 million 400 thousand people will enter the labor market in 2024. The unemployment rate in the country was reduced to 8.9%. The poverty rate decreased from 17% to 14.1%.

Experts of the Institute of Forecasting and Macroeconomic Research (IFMR) calculated the regional labor market index (LMI) based on the results of 2022. The labor market index is an index that helps in evaluating and monitoring the situation in the labor market and includes 5 indicators that directly reflect the current state of the labor market. According to the evaluation level of the labor market index, the index indicators were divided into four groups: high, medium low and medium low.

According to the results of 2022, the group with high index indicators included the city of Tashkent, Navoi and Tashkent regions. The unemployment rate is lower than the national average (8.9%) - 6.5% in Tashkent city, 8% in Navoi region, 8.8% in Tashkent region.

The middle group included Bukhara, Andijan, Fergana, Syrdarya, Khorezm, and Namangan regions. The average monthly salary here is not less than 80% of the national average.

The job offer is average, i.e. instead of one vacancy, on average, 5.6 resumes are available. The unemployment rate does not exceed 9.1%.

Jizzakh, Samarkand, Surkhandarya regions and Karakalpakstan are among the low index indicators.


The highest concentration coefficient was observed in these regions, that is, instead of one vacant job, there are 17.4 resumes in Karakalpakstan, 14.1 resumes in Surkhandarya, and 12 resumes in Jizzakh region.

In Kashkadarya region, the labor market index is very low, to be precise, it was 2.2. The main reason for this is that there are 16.8 applicants for every vacancy, that is, the number of vacancies is much less than the number of job seekers, and the average monthly salary is the average in the country. is much lower than indicated (“Https://Ifmr.uz/”).


The unemployment rate in Uzbekistan is forecast to 7.08 % and unemployed people will be approximately 2.02 mln in 2024. The same time employed rate expected to be 47.54 % and in numbers it will be nearly 13.6 mln . (“Employment - Uzbekistan | Statista Market Forecast”)

The deadline for achieving the 5 percent inflation target planned for 2023 has been extended. In the main scenario of the Central Bank, it is predicted that this period will fall on the second half of 2025, and in the alternative scenario, it will be delayed until the end of 2026. MB expects the inflation rate to be around 8.5-9.5 percent in 2023 and 8-9 percent in 2024.

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС



Graph 2: Inflation rate




Graph 3: Unemployment rate

Source: Republic of Uzbekistan and the IMF.

In 2024, the real GDP growth forecast is expected to be around 5-5.7 percent, in 2025 it is expected to be around 5-6 percent, and in 2026 it is expected to be around 5.5-6.5 percent.

In the framework of the alternative scenario, unlike the main scenario, the inflation rate is expected to be around 9-10 percent in 2024, taking into account that the formation of somewhat unfavorable external conditions will create additional pressure on domestic prices.

In this case, the period of achieving the permanent target will be delayed for a longer period, inflation will be around 7-8 percent in 2025 and it is forecasted to decrease to 5 percent by the end of 2026. In this scenario, the main factor supporting economic activity will be fiscal incentives. In this case, in the medium-term perspective, real GDP growth may be lower by 1.5-2 percentage points compared to the forecasts presented in the base scenario.




Graph 4: Inflation rate in Caucasus and Central Asian nations

Source: IMF National authorities

In most Caucasus and Central Asian (CCA) nations, inflation has persistently stayed high and exceeded central banks' goals. Because a substantial portion of the consumer basket is made up of imported goods and food, inflation rates are erratic. Although several CCA nations had significant repercussions from the 2022 increase in the price of these items and currency depreciations, inflation in the area is still high even when energy and food costs are taken out of the picture. Persistent supply-chain constraints are one of the other variables that have contributed.

The IMF mission expects economic growth in Uzbekistan to slow down from 5.7 to 5.2 percent in 2024, and inflation to accelerate to 11 percent due to the increase in energy tariffs. It was noted that it is necessary to continue strict monetary and credit policy, to significantly optimize budget expenditures and revenues.



Graph 5: NAIRU in four developed countries

Source: OECD.

Prior to the COVID-19 pandemic, the unemployment rates in several industrialized economies, including the United States, the Euro area, Japan, and the United Kingdom, had fallen to levels that had not been seen in decades. Official estimates of these nations' NAIRUs have decreased in keeping with the slower wage growth that had been observed in these economies, which had also attained lower than anticipated levels of unemployment prior to this development. It is unclear how the COVID-19 global recession would affect NAIRU estimations, as will be covered in more detail below.

CONCLUTIONS

In Uzbekistan, studies on unemployment and inflation are conducted on a regular basis. But relatively few scholars have looked into their link. Almost nothing is known about the NAIRU level.

In all scenarios of macroeconomic development, the main goal of the Central Bank is to ensure price and financial stability. Taking into account the fact that the pressure of changes in the external situation that occurred in 2022-2023 on the supply factors will remain longer and the effects of some regulated price adjustments on general inflation, the period of reaching the constant 5 percent inflation target is 2025 it corresponds to the second half.

Also, the extension of the period of reaching the target is related to the fact that the gross supply in the economy is delayed in sufficiently meeting the domestic consumption demand, and on the other hand, if drastic measures are taken to restrain the gross demand, there are serious risks to economic activity and financial stability related to the possibility of giving birth.

In the framework of the main scenario of macroeconomic development, the inflation rate in 2024 is forecast to be around 8-9 percent. In order to ensure inflation at this level, monetary and credit conditions will be maintained in a relatively tight phase in 2024.

At the same time, based on the level of adjustment of regulated prices in 2024, the inflation forecast may be updated and changes to monetary conditions may be made accordingly.

References:

1. “Employment - Uzbekistan | Statista Market Forecast.” Statista, www.statista.com/outlook/co/socioeconomic-indicators/employment/uzbekistan. –Accessed 27 Jan. –2024.
2. Hoover, Kevin. “Phillips Curve - Econlib.” Econlib, 2019,www.econlib.org/library/Enc/PhillipsCurve.html.
3. “Https://Ifmr.uz/.” Prognozlashtirish va Makroiqtisodiy Tadqiqotlar Instituti, i1.md.uz/. –Accessed 29 Jan. –2024.
4. Lucas, Robert E. “Econometric Policy Evaluation: A Critique.” Carnegie-Rochester Conference Series on Public Policy, vol. 1, Jan. 1976, pp. –19-46, https://doi.org/10.1016/s0167-2231(76)80003-6.
5. Nasseri Oskouie, Nassim, et al. “Examining the Nexus between Inflation and Unemployment (NAIRU Estimation) in Iran.” Iranian Economic Review, vol. 24, no. 4, 1 Dec. –2020, pp. 1119–1137, ier.ut.ac.ir/article_78843.html, https://doi.org/10.22059/ier.2020.78843. –Accessed 5 Apr. –2022.
6. Rehal, Viren. “Phillips Curve: Short Run and Long Run - SPUR ECONOMICS.” Spureconomics.com, 1 May 2023, spureconomics.com/phillips-curve-short-run-and-long-run.
7. “Republic of Uzbekistan and the IMF.” IMF, www.imf.org/en/Countries/UZB.
8. Reserve Bank of Australia. “The Non-Accelerating Inflation Rate of Unemployment (NAIRU) | Explainer | Education.” Reserve Bank of Australia, –2023,www.rba.gov.au/education/resources/explainers/nairu.html.
9. Ruberl, Heather, et al. “Estimating the NAIRU in Australia.” Www.econstor.eu 2021.www.econstor.eu/handle/10419/251331. –Accessed 25 Jan. –2024.

MILLIY MAHSULOTLARNI JAHON BOZORIGA OLIB CHIQISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH

Meliqulov Abduhalil Norinovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishda marketing strategiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari, tashqi bozorga chiqish orqali korxonani rivojlantirish yo‘llari, tashqi bozorda raqobatchilarni tahlili qilish usullari berilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy mahsulotlar, jahon bozori, marketing strategiyalari, tashqi iqtisodiy faoliyat, to‘g‘ridan to‘g‘ri (bevosita) eksport qilish, bilvosita eksport, tovarlarni litsenziyalash, qo‘shma korxonalar tuzish, franchayzing, piggybacking, autsorsing, elektron tijorat, strategik ittifoqlar.

Abstract: This article presents the theoretical basis of using marketing strategies in the export of national products to the world market, ways of developing the enterprise by entering the foreign market, and methods of analyzing competitors in the foreign market.

Key words: National products, world market, marketing strategies, foreign economic activity, direct (direct) export, indirect export, product licensing, joint ventures, franchising, investment, piggybacking, outsourcing, e-commerce, strategic alliances.

Аннотация: В данной статье представлены теоретические основы использования маркетинговых стратегий при экспорте natsional'noy продукции на мировой рынок, пути развития предприятия путем выхода на внешний рынок, методы анализа конкурентов на внешнем рынке.

Ключевые слова: Национальная продукция, мировой рынок, маркетинговые стратегии, внешнеэкономическая деятельность, прямой экспорт, косвенный экспорт, лицензирование продукции, совместные предприятия, франчайзинг, piggybacking, аутсорсинг, электронная коммерция, стратегические альянсы.

KIRISH

Xalqaro marketing faoliyatidan shu narsa ma’lumki, korxonalar ko‘pincha tashqi bozorlarga chiqish orqali tovar va xizmatlar sotish hajmini yanada oshirishga harakat qiladi. Hozirgi kunda tashqi iqtisodiy faoliyatda kompaniyalarning xalqaro marketing konsepsiyasi tovar va xizmatlarni jahon bozorida siljitish bilan tavsiflanib, kompaniyaning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki darajasiga bog‘liq. Mamlakat va korxonarning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki quyidagicha bo‘lishi mumkin [1]:

- Mamlakat yoki korxona muntazam tovarlarni eksport qilmaydi va xorijdan tovar va xizmatlarni import qiladi;
- Mamlakat yoki korxona xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtiroki natijasida xomashyo va zamonaviy texnologiyalar import yoki eksport qilinadi;
- Mamlakat yoki korxona qo‘shma ishlab chiqarish shaklida xalqaro sanoat va ilmiy-texnik hamkorligida ishtirok etadi.

Korxonani rivojlantirishda tashqi bozorga chiqish yo‘lini tanlashga quyidagi sabablar ta’sir qiladi:

- **Korxona faoliyatini diversifikatsiya qilish.** Bir nechta mamlakat bozorlarida mijozlar bazasini diversifikatsiya qilish, agar bitta bozordagi sotuvlar hajmi pasaygan taqdirda ham boshqa bozordan olinayotgan daromadlar hisobiga korxonaning iqtisodiy holatini yaxshi saqlab qolishga yordam beradi.
  Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, diversifikatsiya siyosati marketing siyosati konsepsiyasi asosida korxonaning raqobatdoshlik strategiyasini izlash hisoblanadi. Demak, tarmoq korxonalari diversifikatsiya siyosatini boshqarishga marketing orqali yondashilib, u asosan, ishlab chiqaruvchi hamda iste’molchi nuqtai nazaridan o‘rganiladi [2].

- **Yangi biznes imkoniyatlarini izlash.** Ichki bozordagi talab pasaysa yoki bozor ma'lum vaqtdan so'ng to'yinsa ham korxona yangi mijozlarni jalb qilish, ularning talablari asosida tovarni takomillashtirib borish orqali daromad olishda davom etishi mumkin.
- **Yangi bozorlarda ham korxona brendining tan olinishi.** Yangi bozorlardagi mijozlar korxonaning raqobatbardosh tovar va xizmatlaridan xabardor bo'lsa, korxonaning sotuvlari hajmini oshirish yanada imkoniyati tug'iladi.
- **Ko'proq daromad olish.** Milliy bozorlardan tashqarida ham kengayib borayotgan mijozlar bazasiga ega bo'lgan korxonalar, faqat mahalliy bozorda faoliyat yuritadigan korxonalarga qaraganda ko'proq daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishda marketing strategiyalaridan foydalanish bilan bog'liq muammolar F.Kotler, M.Porter, I.Ansoff, Ye.P.Golubkov, A.Dayan, A.Vaysman[1] kabi xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan. Ular tomonidan korxonalarda marketingni samarali tashkil qilishning ilmiy nazariy muammolari bilan birga tashqi iqtisodiy faoliyatda marketing muammolarini hal qilishning turli yo'nalishlari ham o'rganilgan.

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda marketingdan samarali foydalanish muammolari, A.Sh. Bekmurodov, M.S. Kasimova, Ya.K. Karieva, Sh.J. Ergashxodjaeva, I.A. Ahmedov[2] kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

I.A. Ahmedovning ilmiy ishlari, korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatida xalqaro marketingni faollashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirishga bag'ishlangan bo'lib, tashqi bozorda xalqaro marketingni tadqiq qilish metodologiyasi, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun korxonalarni diversifikatsiyalash modelining amaliyotda qo'llash hamda zamonaviy marketing strategiyasini amalga oshirish kabilar bo'yicha ilmiy amaliy natijalarga erishilgan.

Sh.J. Ergashxodjaevaning ilmiy tadqiqotlarida, raqobat sharoitida korxonalar marketing faoliyatini takomillashtirish, eksport salohiyatini oshirish orqali savdo hajmini kengaytirish bilan bog'liq ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy bilishning iqtisodiy tahlil, mantiqiylik, ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv tahlil va boshqa uslublaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishda korxonalar odatda bir necha xil marketing strategiyalarini qo'llashlari mumkin. Bu strategiyalarni amalga oshirishda bozor va tovarni tanlash jarayonidagi afzalliklarni, bozor sharoitini, ishlab chiqarish va etkazib berish jarayonlarini, ichki va tashqi bozordagi raqobatchilarning ustun va zaif jihatlarini, davlatning iqtisodiy siyosatini shuningdek, iste'molchilarning xulq-atvori kabilarni hisobga olish lozim. Tashqi bozorda marketing maqsadlariga erishish faqatgina korxonaning ichki resurslari va imkoniyatlarigagina emas, balki kompaniyalar, korxonalar o'rtasidagi raqobat, xalqaro bozorlardagi iqtisodiy-siyosiy vaziyat, umuman olganda xalqaro bozor kon'yunkturasi holatiga ham bog'liq bo'ladi.

Korxona tashqi bozorga chiqishni o'z oldiga maqsad qilganda quyidagi vazifalarni bajarishi kerak bo'ladi:

- korxonaning xalqaro bozordagi strategik maqsadlarini ishlab chiqish;
- korxonaning imkoniyatlarini va resurslarini (moliyaviy resurslar, mehnat resurslari, ishlab chiqarish, etkazib berish (transport - logistika), marketing imkoniyatlari, boshqaruv imkoniyatlari va h.k) baholash;
- xalqaro va ichki bozorlardagi marketing bo'yicha tendensiyalarni tahlil qilish;


1 Котлер Ф. и др. Основы маркетинга. Пер. с англ. Издательский дом "Вильямс", 2009. Портер М. Конкурентная стратегия. Методика анализа отраслей конкурентов. Пер. с англ. - 2-е изд. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2006. Ансофф И. Стратегическое управление. – М.: Экономика, 1995., Березин И.С. Маркетинг и исследования рынков. – М.: Русская Деловая Литература, 1999. Голубков Е.П. Маркетинговые исследования: теория, методология, практика. – М.: Издательство "Финпресс", 1998. Дайан А. Промышленный маркетинг // Академия рынка: маркетинг / Пер. с фр. – М.: Экономика, 1993. –С. 201-282. Вайсман А. Стратегия маркетинга: 10 шагов к успеху. Стратегия менеджмента: 5 факторов успеха / Пер. с нем. – М.: ОА "Интерэксперт"; Экономика, 1995.

2 Бекмуродов А.Ш. Эффективность маркетинга средств производства. Автореф. дис. докт. экон. – Т., 1993.; Karieva Ya.K. O'zbekistonni jahon bozoriga chiqish uchun xalqaro yo'laklardan samarali foydalanishning logistik transport muammolari. Iqt. fan. dok. diss. avtoref.-T., 2004. –44 b: Ergashxodjaeva Sh. Bozor raqobati sharoitida qishloq joylarida kooperatsiyani rivojlantirishning marketing strategiyasi. Iqt. fan. dok. diss. avtoref. –Toshkent: TDIU, 2007.; Ahmedov I.A. Korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatida xalqaro marketingni faollashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. diss. avtoref. –T., 2021. –76 b.

- korxonaning kelgusidagi istiqboli uchun strategiyani belgilash va ushbu strategiyani amalga oshirish dasturlarini ishlab chiqish.

Yuqorida ko‘rsatilgan vazifalarni hal qilish asosida korxonaning (ichki va tashqi bozorlar uchun) strategiyasi ishlab chiqiladi.

Korxonaning strategiyasi – bu korxona oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishni ta’minlovchi, ilmiy asoslangan kelajakka mo‘ljallangan chora-tadbirlar tizimidir. Ko‘pincha, korxonaning xalqaro bozordagi muvaffaqiyati uning strategiyasining qanchalik mukammal ishlab chiqilganligiga bog‘liq bo‘ladi. Korxonaning xalqaro bozordagi strategiyasini ishlab chiqish jarayoni quyidagi oltita bosqichni amalga oshirishni nazarda tutadi (1-rasm).



1-rasm: Korxonaning xalqaro bozordagi strategiyasini ishlab chiqish bosqichlari sxemasi[3]

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish jarayonining eng muhim tarkibiy qismi – dastur va biznes-rejalarni ishlab chiqish hisoblanadi. Dasturlar odatda korxona faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan birini rivojlantirishni belgilaydi. Korxonaning asbob-uskunalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, sifat nazoratini kuchaytirish, mahsulotlar, zaxiralar, resurslar va tovarlar harakatini tashkil qilish kabilar bo‘yicha dasturlar bo‘lishi mumkin.

Tashqi bozorga chiqish zarurati korxona umumiy maqsadining tarkibiy qismiga aylangandan so‘ng, ushbu jarayonning keyingi bosqichi - “xalqaro bozorga kirish strategiyasi”ning optimal variantini tanlash boshlanadi. Mavjud vaziyatdan kelib chiqib bunday tanlov turli, ichki va tashqi omillar ta’sirini hisobga olgan holda aniqlanadi ya’ni, korxonaning patentlar bilan himoyalanganligi, o‘ziga xos nisbiy ustunlikka ega bo‘lgan tovarlarni ishlab chiqarish imkoniyati, yangi bozorlarga kirib borishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan resurslar va hokazo.

Tashqi bozor uchun mo‘ljallangan marketing strategiyasini ishlab chiqishda quyidagi ichki va tashqi muhit omillarini va korxonaning ularga nisbatan pozitsiyasini hisobga olish lozim:

- bozorning joylashgan joyi (milliy, mintaqaviy, xalqaro bozorlar);
- bozorning o‘zlashtirilish darajasi (eski bozor, qardosh bozor, yalpi bozor, xalqaro bozor);
- bozordagi segmentning hajmi (bitta segment, bir nechta segment, butun bozor);
- marketingning vositalarining bozorda amal qilish holati (tovar, narx, sifat, raqobatbardoshlik, joylashtirish);
- korxonaning bozordagi maqsadi (bozor ulushini oshirish, rentabellikka erishish, o‘z o‘rnini saqlab qolish);
- korxonaning raqobatchilarga bo‘lgan munosabati (agressiv, neytral, passiv);
- korxonaning kooperatsiyaga munosabati (kooperatsiyalarga qo‘shilish mumkin, mumkin emas);
- korxonaning o‘sish sur’atiga munosobati (tez o‘sish, asta-sekin o‘sish, tebranuvchan o‘sish);
- innovatsiyalar (yangiliklar)ga munosabat (birinchilardan bo‘lib amalda qo‘llash, immitatsiya qilish).

Korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro bozoriga kirib borishning har bir strategiyasi o‘zining ustunliklari, kamchiliklari, o‘ziga xosliklari va cheklanishlariga ega bo‘ladi. Quyida turli xil strategiyalarni ko‘rib chiqamiz (2-rasm).

3 Muallif tomonidan tuzilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



2-rasm: Xalqaro bozoriga kirib borishda qo‘llaniladigan marketing strategiyalari turlari[4]

To‘g‘ridan to‘g‘ri (bevosita) eksport qilish - bu korxona o‘z mahsulotlarini tashqi maqsadli bozorda xaridorga o‘zi sotishini bildiradi. Bu strategiya korxonaning tovari boshqa raqobatchilarning tovarlaridan ajralib turadigan ijobiy xususiyatlarga ega bo‘lganda ko‘proq qo‘llaniladi. Bu strategiyani amalga oshirish orqali korxona yuqori foyda olishi mumkin bo‘ladi.

Bilvosita eksport – bunda korxona o‘z mahsulotini vositachilar, uchinchi tomon (distribyutorlar, savdo korxonalari, savdo agentlari) orqali tashqi bozorga sotishni amalga oshiradi. Odatda tovarlar bilvosita eksport qilinganda vositachilar ma’lum bir haq evaziga ishlashadi va bu narsa yakuniy tovar narxining ma’lum darajada oshishiga, narx orqali raqobatbardoshlik darajasining pasayishiga sabab bo‘ladi.

Tovarlarni litsenziyalash – ma’lum bir to‘lovlar evaziga korxonaning intellektual mulkidan foydalanish, ishlab chiqarish yoki sotish huquqini boshqa tomonga berishni bildiradi. Bunda intellektual mulk korxonaning savdo markasi, brendi yoki boshqa ishlanmalar bo‘yicha patentlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Qo‘shma korxonalar tuzish – bunda ikki yoki undan ortiq korxonalar bir natijaga erishish uchun o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi, ulardan biriga yangi bozorga kirishga yordam beradi. Bunda tomonlar korxona bilan bog‘liq xavf-xatarlarni, balki mukofotlarni ham o‘zaro baham ko‘radilar.

Franchayzing – yoki franchayz, tovar belgisini va texnologiyalarni boshqa shaxs (tadbirkor, korxona)ga sotish yoki vaqtinchalik foydalanishga berishdir. Franchayzing doirasidagi munosabatalarda ikki shaxs ishtirok etib, tovar belgisidan foydalanish huquqini sotuvchi shaxs franchayzer hamda tovar belgisidan foydalanish huquqini sotib oluvchi shaxs esa franchayzi deb nomlanadi. Franchayzing potentsial ravishda korxonaga bozorni tez kengaytirish uchun past xavf-xatarli yondashuvni taklif qiladi. Buning sababi, franchayzilar korxonaning mahalliy filiallarini tashkil etish va boshqarish uchun o‘z kapitalini investitsiya qiladi, shuningdek, xarajatlar va xavflarning katta qismini o‘z zimmasiga oladi.

4 Muallif tomonidan tuzilgan.

Birlashish va kompaniyani (korxona) sotib olish - yangi bozorda korxona faoliyatini boshidan boshlashdan ko‘ra, bozordagi mavjud biznesni sotib olish va uni rebrending qilish samarali hisoblanadi. Korxonani sotib olish orqali tashqi bozorga kirish strategiyasi shunga asoslanadi. Maqsadli bozorga bunday tarzda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya kiritishning ikkita yo‘li mavjud. Birlashish - bu korxonaning boshqasi bilan yangi tashkilot yaratish uchun qo‘llaniladigan usullardan biridir. Ikkinchisi esa - sotib olish, bu erda korxona boshqa biznesni butunlay sotib olish orqali o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yadi.

Mahalliy kompaniyalar bilan hamkorlik qilish – tashqi bozorda joylashgan xorijiy korxonalar bilan strategik ittifoq tuzish orqali, korxonalar o‘z maqsadlariga erishadilar. Bunday hamkorlik qo‘shma korxonalardan farq qiladi, chunki mahalliy kompaniyalar bilan hamkorlik qilish ko‘proq uzoq muddatli bo‘ladi, qo‘shma korxonalar esa odatda qisqa muddatli va torroq hamkorlik doirasini qamrab oladi.

Investitsiya kiritish – ko‘pincha xorijiy bozorlarga kirishda to‘g‘ridan to‘g‘ri va portfel investitsiyalash usullaridan foydalaniladi. To‘g‘ridan to‘g‘ri shakldagi xorijiy investitsiyalar xalqaro bozorga kirishning eng murakkab usuli bo‘lib, u orqali xalqaro bozorlarda korxonaning to‘liq sho‘ba korxonasi tashkil qilinadi. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar mavjud korxonani sotib olish yoki xorijiy davlatda butunlay yangi korxona qurish shaklida ham bo‘lishi mumkin. To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar yuqori darajadagi resurs (mablag‘)larga muhtoj bo‘lganligi sababli, xorijiy bozorlarga boshqa kirish usullariga qaraganda ancha xavfliroqdir, ammo bu risk yuqori foyda olish imkoniyati bilan ijobiy tarzda bog‘liqdir. To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalashda korxona mulkka ega bo‘lishi orqali aktivlar ustidan ko‘proq nazoratga ega bo‘ladi. To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya xorijiy bozorga kirishning eng murakkab usuli va ayni paytda xalqaro marketingdagi eng etakchi kirish usulidir.

“Portfel investitsiyalar, shunday investitsiyalarki, bunda kapitalni daromad olish maqsadida korxonalarning aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarini sotib olish uchun sarflanadi. Bunday investitsiyalar korxonalarning moliyaviy xo‘jalik faoliyati ustidan nazorat o‘rnatish huquqini bermaydi” [3]. Portfel investitsiyalar barcha xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda firmalar uchun muhim ahamiyatga ega. By turdagi investitsiyalarga ko‘pincha moliyaviy muammolarni echish uchun murojaat qilinadi. Portfel investitsiyalar quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

- aksionerlik qimmatli qog‘ozlari - bozor muomalasidagi pul hujjati bo‘lib, hujjat egasining ushbu hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan mulkiy huquqga egaligini tasdiqlaydi;
- zayom qimmatli qog‘ozlar - bozor muomalasidagi pul hujjati bo‘lib, zayom egasining ushbu hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan munosabatini tasdiqlaydi.
- pul bozori dastaklari (g‘azna veksellari, depozit sertifikatlari), uning sohibiga ma’lum bir davr ichida kafolatlangan va qat’iy belgilangan pul daromadi olish huquqini beradi.

Filial yoki sho‘ba korxona ochish - maqsadli bozorda korxona katta natijalarni qo‘lga kiritishni istasa bu, savdo yoki marketing ofisini (ba’zan filial deb ataladi) ochish orqali amalga oshiriladi. Bunda filial bosh ofis (asosiy korxona) boshqaruvida faoliyat yuritadi va uning oldida javobgar hisoblanadi.

Sho‘ba korxona tuzilganda esa u o‘z faoliyatini bosh ofis (asosiy korxona)dan alohida yuritadi, lekin xolding kompaniyaga hisobot beradi. Xolding kompaniya aktsiyalarining nazorat paketiga ega bo‘ladi.

Qarama-qarshi savdo (barter) yo‘lga qo‘yish – bunda o‘zaro kelishuv asosida xorijiy davlatda joylashgan korxonalar bilan valyutadan foydalanmasdan o‘zaro tovar va xizmatlarni ayirboshlash amalga oshiriladi. Ushbu strategiya korxonalarga xorijiy valyutalar taqchilligi, yoki qattiq savdo qoidalariga ega bozorlarga kirish imkonini beradi. Qarama-qarshi savdo hali foydalanilmagan bozorlarga kirish imkonini bersa-da, u murakkab muzokaralar va tovarlani baholash bilan bog‘liq potentsial muammolarni hal qilishni talab qiladi.

Piggybacking - boshqa kompaniyaning “ko‘magida” tashqi bozorga kirish. Ushbu strategiyaning mohiyati shundaki, korxona boshqa korxona tomonidan yaratilgan tovarlarni etkazib berish kanalidan foydalanadi. Piggybacking - arzon narxlardagi bozorga kirish strategiyasidir, unda kichik korxona o‘z mahsulotlarini tashqi bozorda sotish uchun yirikroq korxona bilan hamkorlik qiladi.

Autsorsing - ma’lum bir biznes funktsiyalarini bajarish uchun boshqa korxonani (xodimni) yollashni bildiradi. Ushbu strategiya korxonalarga tashqi bozorlarda harakat davomida vaqtni va mablag‘larni tejash orqali o‘zining asosiy vakolatlariga ko‘proq e’tibor qaratish imkonini beradi.

Elektron tijorat – bunda korxona barcha moliyaviy va savdo operatsiyalari va bu operatsiyalar bilan bog‘liq biznes jarayonlarini (shartnomalar tuzish, savdo jarayonlarini rasmiylashtirish) elektron shaklda amalga oshiradi. Xalqaro bozorga chiqishda korxona keng tarqalgan elektron tijorat shakllari sifatida on-line rejimda to‘g‘ridan to‘g‘ri marketing (direct marketing), interaktiv reklamalarni amalga oshirish, PR, e-mail marketing, internet-brending, biznes modellari (B2B, B2C, C2C, C2B), internet do‘konlardan foydalanish va boshqalardan foydalanish mumkin.

Intellektual mulk huquqlaridan foydalanish – korxona tomonidan xorijiy bozorda intellektual (aqliy) faoliyat natijasiga tegishli huquqlardan (ixtiro, sanoat namunasi, foydali model, individuallashtirish vositalari, tovar (xizmat) belgisi, firma nomi va b.) huquq egasining roziligi bilan foydalanishni bildiradi.

Strategik ittifoqlar - bu xorijiy va mahalliy korxonalar o‘rtasida birgalikda biznes yuritish bo‘yicha kelishuv bo‘lib, strategik ittifoqlar ham kichik, ham transmilliy korxonalar uchun tashqi bozorga kirishning muhim usuli hisoblanadi. Strategik ittifoqlar o‘zaro strategik maqsadlarga erishish uchun bir yo‘nalishda ishlaydigan ikki yoki undan ortiq korxonalarning o‘zaro hamkorligidir. Strategik ittifoqlar orqali korxonalar bozordagi kuchni oshirib, xalqaro bozorlarga chiqish orqali o‘zlarining raqobatdagi ustunliklarini saqlab qolishga harakat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishning marketing strategiyasini takomillashtirishda korxona o‘zining xalqaro marketing maqsadlari va vazifalarini belgilab olishlari kerak. Bu jarayonni uch bosqichga bo‘lish mumkin:

Birinchidan, korxona hohlayotgan eksport ulushini umumiy savdo hajmiga nisbatini aniqlab olishi darkor.

Ikkinchidan, korxona bir necha xorijiy bozorga yoki global jahon bozoriga chiqishini hal etishi kerak. Odatda tovar harakati bo‘yicha o‘z urinishlarni avval bir nechta tashqi bozorda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Uchinchidan, korxona o‘z mahsulotini eksporti uchun qaysi turdagi mamlakatni tanlashi bo‘yicha qaror qabul qiladi. Mamlakatlar bo‘yicha cheklanishlar siyosiy barqarorlik, infratuzilmani rivojlanish darajasi, aholi daromadlari darajasi, geografik omillar ko‘rsatkichlari asosida taqsimlanadi.

Milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishning marketing strategiyasini amalga oshirishda bozordagi raqobatchilarni tahlil qilish muhim. Raqobatchilarni har tomonlama o‘rganib chiqish va yakuniy xulosalar asosida korxonaning marketing strategiyasini ishlab chiqishi zarur. Bunda raqobatchilar tahlilini quyidagi ketma - ketlikda amalga oshirish mumkin:

- Asosiy raqobatchilar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish;
- Raqobatchilarni kuchli va kuchsiz tomonlarini baholash. Buni SWOT - tahlili yordamida amalga oshirish mumkin.
- Kuchli va kuchsiz tomonlarning taqqoslama tahlilini olib borayotganda, iste’molchilar uchun ahamiyatli bo‘lgan ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratish kerak. Bunda shaxsiy aloqalar, mavjud va potensial mijozlar bilan muloqot orqali yanada aniq natijaga erishish mumkin.

Tashqi bozordagi raqobatchilarning kuchli va kuchsiz tomonlarini baholashni amalga oshirishda:

- mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishdagi o‘ziga xos jihatlar;
- tovarning sifat ko‘rsatkichlari darajasi;
- tashqi bozorda tovarni sotishdan oldingi va keyingi servis xizmatining mavjudligi;
- mijozlarning o‘zgarib turuvchi talabiga egiluvchanlik;
- tashqi bozorga tovarni o‘z vaqtida etkazib berish, buyurtmani tez va sifatli etkazib berish ko‘rsatkichlari;
- tovarni belgilangan hajm va muddatda etkazib berish tizimi;
- to‘g‘ridan to‘g‘ri mijozlar bilan ishlaovchi xodimlarning mahorati;
- doimiy mijozlar bilan mustahkam aloqa o‘rnatish imkoniyati kabilar ham hisobga olinadi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, yuqorida ko‘rib o‘tilgan marketing usullari va strategiyalardan foydalanish milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishning marketing strategiyasini takomillashtirish, korxonaning xalqaro maydonda, tashqi bozorlarda o‘zining munosib o‘rnini egallashiga va tovar raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Сейфуллаева М.Э. Концепция международного маркетинга. // Маркетинг в России и за рубежом, №1, 1998 г.
2. Демченко А. Маркетинговые инноватsии в условиях кризиса. / А. Демченко // Маркетинг. - 2009. - №1 – С. 44 - 50.
3. Bekmurodov A.Sh., Karrieva Ya.K., Nematov I.U., Nabiev D.H., Kattaev N.T. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 166 b.
4. Jalolov J.J., Ahmedov I.A., Abdurahimov S.N. Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari.-T.: TDIU, 2010.-228 b.
5. http:// www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

O‘ZBEKISTONDA KICHIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI



Ortiqov Avazbek Bahrom o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti Iqtisodiyot va servis kafedrasi doktoranti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada jahon mamlakatlarida hududlarda industrial parklar, texnopolislar va sanoat zonalarini tashkil etish orqali rivojlantirish, bu orqali iqtisodiy salohiyat va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, yirik va kichik ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, kichik sanoat zonalari joylashgan hududlardagi investitsion jozibadorlikni oshirish, bu sohada xorij tajribalaridan foydalanishning ustuvor yo‘nalishlarini tadqiq etish va shu asosda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hamda aholi bandligini oshirish masalalarining ilmiy tadqiqotiga alohida e’tibor qaratilayotganligi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kichik sanoat zonalari, biznes, korxona, sanoat, ishlab chiqarish, texnopolislar, integratsiya, kooperatsiya, investitsiya, investitsion faollik, boshqaruv, rivojlanish.

Abstract: This scientific article examines the development in the countries of the world through the creation of industrial parks, technopolises and industrial zones on the territories, increasing the efficiency of their use of economic potential and resources, deepening industrial cooperation between large and small industrial enterprises, increasing investment attractiveness in the territories where small industrial zones are located, special attention is paid to the study of priority areas for the use of foreign experience in this field and the development of competitive products on this basis, as well as scientific research on the issues of increasing employment.

Key words: small industrial zones, business, enterprise, industry, production, technopolises, integration, cooperation, investments, investment activity, management, development.

Аннотация: В данной научной статье рассматривается развитие в странах мира через создание на территориях индустриальных парков, технополисов и промышленных зон, повышение эффективности использования ими экономического потенциала и ресурсов, углубление промышленной кооперации между крупными и мелкими производственными предприятиями, повышение инвестиционной привлекательности на территориях, где расположены малые промышленные зоны, особое внимание уделяется исследованию приоритетных направлений использования зарубежного опыта в данной области и выработке на этой основе конкурентоспособной продукции, а также научному исследованию вопросов повышения занятости населения.

Ключевые слова: малые промышленные зоны, бизнес, предприятие, промышленность, производство, технополисы, интеграция, кооперация, инвестиции, инвестиционная активность, управление, развитие.

KIRISH

Rivojlangan xorijiy davlatlarda kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan ta’minlash va sanoatning texnologik rivojlanishi bilan bog‘liq muammolarni hal etishning muhim mexanizmlaridan biri industrial parklar, texnopolislar va sanoat zonalari hisoblanadi. Hozirgi kunda AQSh va Xitoyda – 400 tadan, Germaniyada – 200 ta, Turkiyada – 262 ta, Vyetnamda – 200 ga yaqin industrial parklar faoliyat yuritmoqda [9]. Mazkur zonalar ishlab chiqarishning zamonaviy texnologik bazasini shakllantirish, ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsiyalarni joriy etish hamda ilm-fan sig‘imi yuqori mahsulotlar yaratish va xizmat ko‘rsatishni ta’minlashda asos rolini o‘ynamoqda.

O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqrishni jadallashtirishga muhim hissa qo‘shuvchi kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, bu borada “milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish” maqsadlari belgilab berilgan [1]. Hozirda mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish orqali davlatning sanoat siyosatini hayotga tadbiq etish,

kichik sanoat zonalari joylashgan hududlarni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, hududlardagi foydalanilmayotgan xom ashyo, mehnat va moliya resurslarini ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, korxonalar o‘rtasida kooperatsion aloqalarni kuchaytirish natijasida sinergetik samaraga erishishga harakat qilinmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy mamlakatlarda alohida iqtisodiy zonalarni barpo etish va rivojlantirish O‘zbekistonda barpo etilayotgan kichik sanoat zonalaridan tubdan farq qiladi. Lekin ularni barpo etish va rivojlantirish tajribasining ayrim jihatlarini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirgan holda foydalanish maqsadga muvofiq. Industrial zonalarni barpo etish va rivojlantirish yo‘nalishida O.Axmadeyeva, O.Lyubova, O.Belenov, T.Smolyaninova, Y.Shurchkova, M.Berkovich, N.Antipina, A.Fridman, V.Semenov, N.Vasilenkova, O.Yegorova, S.Kuznetsova, V.Kuznetsov, Ye.Lenchuk, A.Tariverdiyev, V.Gromova kabi xorijiy olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar.

Yuqorida qayd etilgan xorijiy olimlarning asarlarida Rossiya sharoitida industrial parklar va sanoat zonalarini shakllantirish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va ularning nazariy jihatlarini rivojlantirish masalalari o‘rganilgan. Jumladan, S.Kuznetsova va V.Kuznetsovning ishlarida sanoat zonalarini barpo etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan [4, 5]. M.Berkovich, N.Antipinaning ishlarida industrial parklarning mulkiy shakli, tarmoq ishlab chiqarishi va boshqa omillarga ko‘ra tasniflash masalalari va ularning xususiyatlari tahlil qilingan [3]. Industrial parklarning turlari va ularni barpo etishda davlat-xususiy sektor sherikchiligidan foydalanish, parklarni innovatsion rivojlantirish masalalari O.Belenov, T.Smolyaninova va Y.Shurchkovaning ishlarida o‘rganilgan [2].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Y.Abdullayev, I.Bakiyeva, S.G‘ulomov, Sh.Bayeva, U.Gafurov, B.Xodiyev, G.Yaxshiboyev, Sh.Mannapova, B.Salimboyev, L.Kopilova, D.Berdimuratov ham mazkur muammoga bog‘liq mavzularda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar asarlarida asosan kichik biznesni tashkil etish, rivojlantirish va ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalalari tadqiq etilgan. Jumladan, A.Vahobov, T.Malikov, Sh.Bayeva, S.G‘ulomov, G.Yaxshiboyev va boshqalarning ishlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va moliyalashtirishga bag‘ishlangan. R.Yuldashevning maqolasida kichik sanoat zonalarning hozirgi holati, ularning mamlakatimiz sanoatini rivojlantirish va aholi turmush farovonligini oshirishdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan [10]. Shu bilan birga, tadqiqotchi Sh.Mannapovaning tadqiqotlarida kichik sanoat zonalarida investitsion faollikni oshirish masalalari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etilgan [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jahon mamlakatlarida kam rivojlangan va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etmagan hududlarda industrial parklar, texnopolislar va sanoat zonalarini tashkil etish orqali rivojlantirish, bu orqali iqtisodiy salohiyat va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, yirik va kichik ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, kichik sanoat zonalari joylashgan hududlardagi investitsion jozibadorlikni oshirish, shu asosda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hamda aholi bandligini oshirish masalalarining ilmiy tadqiqotiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, kichik sanoat zonalarini barpo etishda innovatsion yondashuvlar, zamonaviy taraqqiyot tamoyillari va tendensiyalarini to‘liq qamrab oluvchi kontseptual modellarni ishlab chiqish, mazkur jarayonlardan davlat iqtisodiy siyosatining muhim dastagi sifatida foydalanish muammolari bu boradagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni ilg‘or texnologiya va innovatsiyalar asosida rivojlantirish va ilmsig‘imli, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishda industrial zona, park, sanoat zonalarining ahamiyati, ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasiga ko‘ra, yildan yilga ortib bormoqda. Bunday sanoat ishlab chiqarish tuzilmalari AQShda va Yevropa Ittifoqi davlatlarida, Rossiya Federatsiyasida industrial parklar va sanoat zonalari, Italiyada sanoat okruglari, klasterlar, Xitoy Xalq Respublikasida sanoat rayonlari va zonalari sifatida keng tarqalgan. Sotish bozorlarini egallashdagi raqobatning ortib borishi sharoitida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlashning asosiy yo‘li industrial park, zona va sanoat zonalari bo‘lib qolmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni samarali rivojlantirishda innovatsion biznes, ya’ni texnopark va biznes inkubatorlarga ham katta e’tibor berilmoqda. Umumiy tomoni, ularni tashkil etish va rivojlantirish davlat va mahalliy hokimiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Industrial parklarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, nafaqat federal darajada, balki mintaqa darajasida ham faol qo‘llab-quvvatlanmoqda. Park hududi infratuzilmasini shakllantirish, energetika obyektlarini barpo etish, muhandislik tarmog‘i, suv ta’minoti va oqava suv tarmoqlarini barpo etish mintaqalar tomonidan (munitsipal organlar) moliyalashtiriladi (1-jadval).

Industrial parklarning barpo etilishi mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi, mintaqadagi ijtimoiy masalalarni hal etishga olib keladi. Industrial parklarning barpo etilishi mintaqaga investitsiyani jalb etish va sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning eng yaxshi usuli sifatida o'rganish mumkin.

Mintaqadagi davlat organlari industrial park orqali mintaqaga katta investitsion loyiha olib kiruvchi yirik kompaniyalarni jalb etishga harakat qiladi. Industrial parklar xalqaro tasnifga ko'ra ikki turga bo'linadi:

- **Grinfild** - hech narsa qurilmagan yer maydoni;
- **Braunfild** – muhandislik va transport kommunikatsiyalari, infratuzilma obyektlari, ishlab chiqarish binolari qurilgan yer maydoni.

1-jadval: Industrial parklarni moliyalashtirish mexanizmlari [8]

Industrial park turlari	Yer, mulk egasi	Infratuzilma
Davlat grinfildi	Yer maydoni davlat yoki munitsipal mulki	Infratuzilma davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladi
Xususiy grinfild	Yer maydoni xususiy mulk yoki loyihani amalga oshiruvchi tomonidan yer, yer egasidan ijaraga olingan	Infratuzilma xususiy mablag' hisobidan moliyalashtiriladi, lekin davlat subsidiyasidan foydalanish mumkin
Aralash grinfild	Yer maydoni, aktsionerlik jamiyati mulki. Aktsiyalar davlat va xususiy sektor tomonidan bo'lib olingan. Obyektlar davlat-xususiy sektor mablag'i hisobidan sherikchilik asosida barpo etiladi	Infratuzilma obyektlari davlat-xususiy sektor sherikchiligida moliyalashtiriladi. Obyektlarning bir qismi xususiy sektor tomonidan moliyalashtiriladi
Davlat braunfildi	Yer maydoni, infratuzilma obyektlari, binolar, inshootlar davlat mulki hisoblanadi	Industrial parkni rivojlantirish, obyektlarni qayta tiklash, infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish davlat byudjeti mablag'i hisobidan amalga oshiriladi
Xususiy braunfild	Yer maydoni va undagi barcha obyektlar xususiy mulk hisoblanadi	Infratuzilma xususiy mablag' hisobidan moliyalashtiriladi, davlat subsidiyasidan foydalanish mumkin

Grinfildlar ham uch turga bo'linadi: davlat grinfildi, xususiy grinfild va aralash grinfild. Grinfild loyihasiga ko'ra, park yangi, ilgari hech qanday ishlab chiqarish joylashmagan yer maydonida tashkil qilinadi. Ustun tomoni: bino, inshootlar buyurtmachi talabiga mos holda quriladi. Braunfildlar esa davlat braunfildi va xususiy braunfild turlariga bo'linadi. Grinfild va braunfildlarni moliyalashtirish mexanizmlari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval: Industrial parklarni federal va mintaqa darajasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash [7]

Qo'llab-quvvatlash shakli	Federal darajada	Mintaqa darajasida
1. Byudjet hisobidan qo'llab-quvvatlash		
Kredit foiz stavkasini subsidiyalash		+
• Investorlar majburiyati bo'yicha davlat va munitsipal tomonidan kafolatlash		+
2. Investitsion dasturlar		
Transport va energetik infratuzilmalarni rivojlantirish dasturlari	+	+
3. Investorlarni qo'llab-quvvatlash		
Soliq imtiyozlari: foyda solig'i stavkasini pasaytirish; yer va transport solig'idan ozod qilish		+
4. Korxonalar ehtiyojidan kelib chiqib mutaxassis kadrlar tayyorlash	+	
5. Parklarni barpo etish va rivojlanishini axborot va maslahat berish orqali qo'llab-quvvatlash		+

Industrial parklarning yirik investorlarni jalb etish bo'yicha raqobat ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: malakali mehnat resurslari va moliyaviy institutlar mavjudligi, transport va boshqa infratuzilmalarning rivojlanganlik darajasi, energetik resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi va sotish bozorlari yaqinligi. Industrial parklarni barpo etishdan manfaatdor tomonlar: mintaqa hokimiyat organlari, park ixtisosligini belgilovchi yirik investor, rezidentlar va boshqaruv kompaniyasi hisoblanadi. Industrial parklarni barpo etishga bo'lgan asosiy to'siq: qatnashchilarda moliya resurslarining yetishmasligi.

ТАРАҚҚИЁТ ПРОГРЕСС PROGRESS

Rossiya Federatsiyasida o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, park infratuzilma bilan ta’minlangan bo‘lsa, korxonalar 20 foizgacha infratuzilma obyektlariga sarflanuvchi xarajatlarni tejaydi. Investorlar ko‘p hollarda zona infratuzilma bilan ta’minlangan bo‘lmasa, boshqa infratuzilma obyektlari qurilgan mintaqaga ketishi mumkin. Bunday holat mintaqa hokimiyat organlarini zona hududini kerakli qurilmalar bilan ta’minlashda faol harakat qilishga undaydi. Industrial zonalarni barpo etishning samarali usullaridan biri - davlat-xususiy sektor sherikchiligi. Davlat-xususiy sektor sherikchiligi (DXSSh, ingliz tilida: PPP – Publik Private Partnership) bu davlat bilan xususiy sektor o‘rtasida hamkorlik qilish shakli bo‘lib, u muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishga qaratilgan.

DXSShning institutlari sifatida banklar, investitsion fondlar, davlat kompaniyalari o‘rganiladi. DXSShning instrumentlariga quyidagilarni kiritish mumkin: kontsession kelishuv, byudjetdan foydalanish bo‘yicha investitsion kelishuv. DXSShning kontsessiya shaklidan ko‘proq infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda foydalaniladi. Masalan, ijtimoiy, kommunal, transport va energetika sohalarida. Kontsessiya xususiy mablag‘ni loyihaga tortish orqali byudjet mablag‘ining qisqarishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy, ilg‘or, qimmat texnologiyani loyihaga kiritish orqali raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Boshqa tomondan, shartnoma xususiy sektor va davlatning o‘zaro vazifalari, mas’uliyatini aniq belgilaydi, shu bilan birga, xususiy investitsiyani himoya qilishni ta’minlaydi.

Turkiyada sanoat zonalari – tashkil etilgan sanoat zonalari deb yuritiladi. Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash maqsadida yuzlab kichik biznes subyektlari yagona sanoat zonasiga birlashtiriladi, lekin ularning yuridik va iqtisodiy mustaqilligi saqlanib qolinadi. Tashkil etilgan sanoat zonalarini barpo etish bo‘yicha qarorni davlat organlari tarmoq uyushmalari va mahalliy tadbirkor uyushmasi bilan birgalikda qabul qiladi. Loyihalar davlat tomonidan moddiy qo‘llab-quvvatlanadi, moliyaviy ta’minoti davlat mablag‘i yoki xususiy mablag‘ hisobidan amalga oshiriladi. Bo‘lajak bino, inshootlar va tsex xonalarini qurish maxsus firmalar tomonidan amalga oshiriladi, qurilib bitgan bino va xonalar kichik korxonalarga sotiladi. Turkiyada birinchilar qatorida tashkil etilgan sanoat zonasiga misol sifatida Istanbul shahriga yaqin joylashgan Tuzla zonasini keltirish mumkin. Zona charm buyumlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Unda 223 ta kompaniya charmni qayta ishlash bilan shug‘ullanadi, 150 ta firma esa charm mahsulotlari uchun qismlar ishlab chiqaradi. Infratuzilma obyektlarining 90 foizi davlat mablag‘i hisobidan moliyalashtirilgan, qolgan 10 foizi bank krediti va shu zonada kelajakda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar mablag‘i hisobidan moliyalashtirilgan.

Industrial park nafaqat ishlab chiqarish binolari yig‘indisi, balki haqiqiy kontseptual obyekt hamdir. Industrial parklarning “Yadro”si sifatida yirik ixtisoslashgan ishlab chiqarish kompaniyalarining joylashuvi, infratuzilma obyektlari, ishlab chiqarish bino va inshootlarini qurish va rekonstruktsiya qilishga to‘g‘ri keladi va bu jarayon juda katta mablag‘ talab etadi. Shu sababli, industrial parkning grinfild va braunfild turlari o‘zlarining ustun tomonlari bilan bir qatorda, katta investitsion xarajatlarga olib kelishi mumkin.

Sloveniyadagi “Chemro” industrial park o‘z rezidentlariga bir qator xizmatlar ko‘rsatadi, jumladan: sanoat oqava suvlarini tozalash; texnik xizmat ko‘rsatish; sanoat chiqindilarini utilizatsiya qilish; kimyo laboratoriya xizmati; telekommunikatsiya va pochta xizmati; sanoat obyektlarini loyihalashtirish; qurilish ishlari xizmati; kompyuter xizmati; oshxona va bufetlar.

Milton Park (Angliya) o‘z hududida quyidagi infratuzilma xizmatlarini yo‘lga qo‘ygan: kafe-restoranlar, minisupermarket, badiiy gimnastika xizmati, basseyn, sauna, go‘zallik saloni, avtomobil servisi, elektrichka va asosiy magistralga chiqish yo‘llari, bolalar bog‘chasi, pochta, kimyoviy tozalash, saqlash kamerasi xizmati, kechayu-kunduz internetga bepul kirish xizmati (Wi-Fi).

Industrial park ZETA (Kosta Rika) quyidagi xizmatlarni ko‘rsatadi: ishchi kuchi zaxirasi va ma’lumotlar bazasi, o‘quv markazi, bojxona xizmati, ma’muriy yordam, qo‘riqlash xizmati, internet xizmati, umumiy texnik xizmat ko‘rsatish, tozalash inshootlari, park ishchilari uchun arzon uy-joy, avtomobil qo‘yish shaxobchasi, sog‘liqni saqlash markazi, bank xizmati, bolalar bog‘chasi.

AQShning Mid America Industrial Park odatdagi soliq imtiyozlaridan, foyda solig‘i stavkasini pasaytirish, tezlashtirilgan amortizatsiya, maqsadli soliq imtiyozi (o‘ziga xos muhim ishlab chiqarish, aholini ish bilan ta’minlash), rezidentlar park hududida sotiladigan tushumdan olinadigan soliqdan ozod etiladi, kommunal xizmatlar tarifi ham pasaytiriladi. Mid Amerika Industrial Park o‘z hududida quyidagilarga ega: o‘quv markazlari, sog‘liqni saqlash klinikasi, savdo markazi, avariya xizmati, rezidentlar uchun ikkita gaz kompaniyasi, ko‘rgazma zali, biznes inkubator, mintaqaviy aeroport.

Bulardan tashqari, industrial parklar, ularning tarkibiga kirish qiymati ham har xil. Industrial park uchun tayyorlangan yer maydoni bo‘yicha qarasak, AQShning Nuntsville sanoat parkida 1 gektar yer narxi 62500 AQSh dollaridan 300000 dollargacha (1 kv.m. uchun esa 6,25 dollardan 30,0 dollargacha).

Yaponiyada esa Mutsu-Ogawara Industrial Park (prefekture Aomori), 1 ga. yerning sotib olish narxi 18 mln. rubl yoki 1 kv.m. 5000 iyen. Sanoat yer uchastkalarining ijara narxini qarasak, Tokio mintaqasida 1 gektar yerning ijara narxi - 10000 dollar, Osaka shahri atrofida 1 gektar - 9000 dollar, Harosda - 5500 AQSh dollarini tashkil etadi.

Rossiya Federatsiyasida grinfild parkida 1 kv.m. yer maydoni narxi 35 dollardan 60 dollargacha baho-

landi. Muhandislik kommunikatsiyasi bo‘lgan parkda 1 kv.m., rezidentlar uchun taxminan 230 dollarga tushadi. Tataristonning Yelabuga rayonida joylashgan, sanoat qurilishi uchun mo‘ljallangan yer maydonining o‘rtacha narxi 320 rub/kv.m. Yelabuga industrial parkidan, park rezedentlari 1 kv.m. yerni 10 rub.ga sotib olishi mumkin. Xorij kompaniyalari grinfild parki hududidan o‘ziga tegishli yer maydonini 2-4 yil davomida mustaqil tayyorlasa, jami investitsiyadan 94 foizi qurilish ishlariga yo‘naltiriladi (loyihani tayyorlash, ekspertiza, ruxsat olish, materiallar va bajariladigan ishlarning qiymati). Yerning qiymati 2 foizni, texnologiya 4%ni tashkil etadi.

Vyetnamda industrial park rezidentlariga ko‘rsatiluvchi xizmatlar turiga quyidagilarni kiritish mumkin: sifatli infratuzilma xizmati; logistika xizmati; tayyor sanoat binolari; zona hududlarida bojxona posti. Bulardan tashqari, zona aniq ustuvor yo‘nalishlarga ega va ixtisoslashgan bo‘ladi. Vyetnamdagi investitsiyalar to‘g‘risidagi qonunda (Law on Investment № 59/2005/QH11, 01.07.06.), “rag‘batlantiradigan” va “rag‘batlantirish muhim” bo‘lgan investitsion sektorga quyidagilar kiradi: infratuzilma (temir yo‘l, yo‘llar, portlar); o‘rmon daraxtlarini qayta ishlash, qishloq xo‘jaligi; suvni qayta ishlash, tozalash; qayta tiklanuvchi energiya; axborot texnologiyalari; yangi materiallar ishlab chiqarish, energiya, yuqori texnologiyaga asoslangan mahsulot, biotexnologiya, AT mahsulotlarini ishlab chiqarish; eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish, industrial parklarda ijtimoiy infratuzulma qurish.

Vyetnamda “Rag‘batlantirish muhim” bo‘lgan industrial zonalar va “Rag‘batlantirish muhim” bo‘lgan loyihalar ekspertlar yordamida ajratiladi va ularga imtiyozlar belgilanadi. Bunday imtiyozlarning ustun tomoni shundaki, ular biznes investitsiya kiritishga bormaydigan infratuzilma obyektlarini qurish, raqobatbardosh, eksportga yo‘naltirilgan mahsulot va yangi yuqori texnologiyaga asoslangan yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga zamin yaratadi.

Frantsiyada yangi barpo etilayotgan kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda bir qator imtiyozlar belgilangan. Sanoat va savdo sohasida yangidan tashkil etilgan kichik korxonalar uchun imtiyozlar:

- foyda solig‘idan 2 yilga to‘liq ozod etiladi, uchinchi yilda 75 foizga ozod etiladi, to‘rtinchi yilda 50 foizga, beshinchi yilda 25 foizga ozod etiladi;
- ko‘rilgan zararni 3 yilga orqaga va 5 yilga oldinga surishga ruxsat beriladi;
- tezkor amortizatsiyaning yuqori stavkasi mashina va uskunalar balans qiymatining 30 foizini tashkil etadi;
- yer uchastkasiga, bino va uskunalarga qo‘yilgan investitsiyaning 25 foizi subsidiyalanadi;
- soliq chegirmasi imtiyozi va imtiyozli qarz berish (keng tarqalgan imtiyozlar).

Yuqoridagi qiyosiy tahlillarga ko‘ra, O‘zbekistonda tashkil etilayotgan KSZlarning zaif tomonlarini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, ularda texnologik, innovatsion rivojlanish darajasi pastligi.

Ikkinchidan, KSZlarni shahar, shahar cheti va tuman hududlarida joylashtirishda differentsial, ilmiy asoslangan yondashuv mavjud emasligi.

Uchinchidan, KSZlarni mahsulot ishlab chiqarishning texnologik darajasi, innovatsiyalardan foydalanish darajasiga ko‘ra shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash yo‘lga qo‘yilmaganligi.

To‘rtinchidan, KSZlarni ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar bilan hamkorlik aloqasi yo‘lga qo‘yilmaganligi, texnopark, biznes inkubatorlarni tashkil etish va rivojlantirish yo‘lga qo‘yilmaganligi. Shuning uchun ham, KSZlarning texnologik va innovatsion rivojlanishini ta’minlovchi mexanizmlarni aniqlab, ularning faol ishlashini ta’minlash bugunning strategik masalalaridan biri hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasida industrial parklarni qo‘llab-quvvatlashda davlat-xususiy sektor sherikchiligidan O‘zbekiston sharoitida KSZlarni barpo etish va rivojlantirishda foydalanish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik sanoat zonalarini barpo etishning asosiy vazifalari bo‘lib, hududlarda bo‘sh yotgan yer va binolardan sanoat ishlab chiqarishda foydalanish; sanoat ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish; yangi qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish; hudud rahbarlarining sanoat siyosatini amalga oshirish (sanoat mahsulotlarining ustuvor turlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish); kichik sanoat zonalarining investitsion jozibadorligini oshirish orqali zonaga ilg‘or texnologiyaga asoslangan, raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yuvchi KBXT subyektlarini jalb etish; orij investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarni zonaga jalb etish; zonadagi korxonalar o‘rtasida va hududda joylashgan boshqa korxonalar o‘rtasida kooperatsion aloqalarni rivojlantirish, zonada sanoat klasterlari shakllanishiga sharoit yaratish va boshqalar hisoblanadi.

Kichik sanoat zonalarida sanoat ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish juda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasiga ko‘ra, sanoat mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Sanoatning rivojlanishi qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati, yengil sanoat, qolaversa qolgan barcha tarmoq va sohalarning rivojlanishiga turtki beradi, aholini ish bilan ta’minlaydi va daromadini oshiradi.

Industrial zonalar va ularda joylashtiriladigan loyihalarni “rag‘batlantiriladigan” loyiha, “rag‘batlantiriladigan” zona, “rag‘batlantirilishi muhim” loyiha, “rag‘batlantirilishi muhim” zonalarga ajratib, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning Vyetnam tajribasi ham juda qiziqarli deb hisoblaymiz. Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash Frantsiya tajribasining bir qator bandlaridan respublikamizda KSZlarni, kichik biznesni rivojlantirishda foydalanishi samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, kichik biznesni 2 yilga foyda solig‘idan ozod etilgandan keyingi soliqni bosqichma-bosqich kamaytirish, imtiyozli qarz berish, tezkor amortizatsiya, yangi texnologiyani joriy etish, energiyani tejash, import o‘rnini bosish, eksportni oshirishga olib keluvchi investitsiyalar uchun imtiyozlarni yaratish, KSZlarni barqaror, yuqori texnologiyaga asoslangan holda rivojlantirishga erishish mumkin bo‘lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” (22-maqsad). https://lex.uz/docs/5841063#5843878
2. Беленов О.Н., Смольянинова Т.Ю., Шурчкова Ю.В. Индустриальные парки: сущность и основные характеристики. // Региональная экономика и управление. Электронный научный журнал. –2013. –№ 1 (33). –С. 66.
3. Беркович М.И., Антипина Н.И. Особенности и классификация индустриальных парков: региональный аспект. // Вестник Костромского государственного технологического университета. –2013. № 1 (3). –С. 25-28.
4. Кузнецов В.П., Кузнецова С.Н., Лапаев Д.Н. Теоретические аспекты развития организационно-экономического механизма формирования промышленных парков. // Казань, изд-во Познание Института экономики, управления и права, 2014. –148 с.
5. Кузнецова С.Н., Кузнецов В.П. Методика оценки интегральной эффективности инвестиционных проектов в рамках промышленных парков: монография. // Мининский университет. Нижний Новгород. –2015. 200 с.
6. Mannapova Sh.E. O‘zbekiston kichik sanoat zonalarida investitsion faollikni oshirish yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TMI, –2021. –125 b.;
7. Olimova N.X., Ortiqov A.B. Rivojlanayotgan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarning ahamiyati va ularga kiritilgan investitsiyalar tahlili. // “Mintaqa iqtisodiyotini investitsiyalashning moliyaviy-huquqiy va innovatsion jihatlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari Farg‘ona, FDU, 2020-y., –311-315 b.
8. Олимова Н.Х., Ортиков А.Б. Роль свободных экономических зон в развивающихся странах и анализ привлеченных инвестиций в их экономическое развитие. Материалы VIII Международной научно-практической конференции на тему: “Тенденции развития мировой торговли в XXI веке”, Российская Федерация, г.Пермь, –2019г., –349-354.
9. Смольянинова Т.Ю. Индустриалные парки в региональной экономике: механизм создания, преспективы развития. Автореферат диссертации. – Воронеж, 2015.
10. Yuldashev R. Kichik sanoat zonalari iqtisodiy taraqqiyot va xalq turmush farovonligining muhim vositasidir. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. –№4. –2017-y., avgust.

RENE DEKART VA BLEZ PASKAL TA'LIMOTLARIDA RATSIONAL G'OYALAR KOMPARATIVISTIKASI



Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna
Falsafa fanlari doktori, "ALFRAGANUS UNIVERSITY" nodavlat oily ta'lim tashkiloti, ijtimoiy fanlar fakulteti, "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi professori

Annotatsiya: Ijtimoiy bilimlar sohasida ijod qiluvchi olimlarimiz falsafiy merosini, g'arbu-sharq olimu-fuzalolari yaratib ketgan babaho ma'naviy qadriyatlarni o'rganish ishiga asosiy e'tiborni kuchaytirmoqdalar. Buning uchun esa hozirgi falsafiy qarash durdonalari bilan qurollanishimiz kerak. Mana shundagina falsafiy fikrlar taraqqiyotiga, diyorimizda yaratilgan tafakkur taraqqiyotiga, hozirgi zamon falsafasining asosiy muammolariga to'g'ri va xolisona baho bera olamiz. Shuning uchun ham falsafa muammolarini, falsafiy merosni tadqiq qilish doimo kun tartibida turuvchi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolaveradi.

Kalit so'zlar: kartezianchilik, ratsionallik, latif materiya, bo'shliq, makon, zamon, kompozitsiya metodi.

Abstract: Our scientists, creatively working in the field of social sciences, are paying more and more attention to the study of the philosophical heritage and valuable spiritual values created by Western and Eastern scientists. To do this, we need to arm ourselves with the masterpieces of the current philosophical view. Only in this way will we be able to correctly and objectively assess the development of philosophical ideas, the development of thinking created in our country, and the main problems of modern philosophy. That is why the study of problems of philosophy and philosophical heritage always remains one of the pressing issues on the agenda.

Key words: cartesianism, rationality, matiere subtile, empty space, space, time, method of composition.

Аннотация: Наши ученые, творчески работающие в области общественных наук, все больше внимания уделяют изучению философского наследия, ценных духовных ценностей, созданных западными и восточными учеными. Для этого нам необходимо вооружиться шедеврами нынешнего философского взгляда. Только так мы сможем правильно и объективно оценить развитие философских идей, развитие мышления, созданного в нашей стране, и основные проблемы современной философии. Именно поэтому исследование проблем философии и философского наследия всегда остается одним из актуальных вопросов повестки дня.

Ключевые слова: картезианство, рациональность, мягкая материя, пустое пространство, пространство, время, способ композиции.

KIRISH

Paskal Dekart tufayli falsafaga yaqinlashdi, bu birinchidan. Ikkinchidan, undan "fikrlash tamoyilini o'zlashtirdi" va ijodiy rivojlantirdi. Uchinchidan, uning aksiomatik-deduktiv uslubini yuqori baholadi va o'zining "geometrik uslubini" ishlab chiqdi. Ilmiy metodologiya sohasida, ilmiy bilim tamoyillarini tushunishda ular opponent emas, balki hamfikr bo'lganlar. Bizning fikrimizga ko'ra, ularni qarama-qarshi qo'ygan mualliflar nohaq. Paskalcha induktivlik va dekartcha deduktivlik bir hodisaning ikki tomonidir. Dekart va Paskal ta'limotlarida skeptitsizmga qarshi kurashda umumiy chizgilar bor. Paskal Dekartning "gnoseologik optimizmini" yuqori baholaydi, o'zi ham "ashaddiy pirronizmga" qarshi chiqadi. Garchi biz "hammasini" bila olmas ekanmiz, bu "hech nimani" bilmaymiz degani emas. Paskal haqiqatning mutlaqligi va nisbiyligi o'rtasidagi nozik dialektik munosabatni his qila olgan. Tashqi hissiyot, tafakkur, "qalbiy intuitsiya" darajasidagi haqgo'ylikni tan olgan holda, ehtimollik nazariyasini asoschisi sifatida, mutafakkir "ehtimoliy bilimning" obyektiv va haqiqat deydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Falsafiy fikr taraqqiyotida Rene Dekart va Blez Paskal ta'limotlari o'ziga xos o'rinni egallaydi. Ularning ta'limotlari Fransiyada ikki diametral qarama-qarshi tizimlarni tashkil qiladi. Bunday fikr tarafdorlariga V.Kuzen (Kuzen, 1857: 325), Ye.Droz (Droz, 1886: 236), L.Shestov (Shestov, 1923: 325), L.Brenshvig (Brenshvig, 1944:

294) va boshqalar kiradi. Albatta, bular o‘tgan asrlardagi fikrlar hisoblanadi. Lekin hozirgi kunda ham paskalshunoslikda ularning ta’sirini sezish mumkin. Bundan tashqari, Dekart va Paskal falsafiy qarashlarini qiyosiy o‘rganish XVII asrda g‘oyaviy kurash qaysi yo‘nalishda ketganligidan va qanchalik keskin bo‘lganligidan dalolat beradi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda birlamchi manbalarning matniy va konseptual analizi yetakchilik qiladi. Mavzu sistematik ravishda oddiydan murakkabga tomon ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, kerakli o‘rinlarga Rene Dekart va Blez Paskal falsafiy g‘oyalari boshqa faylasuflarning qarashlari bilan qiyoslash orqali ochib berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dekartning ratsionalizm, deduktiv metodologiya, gnoseologik ko‘tarinkilik, o‘ziga xos “antiekzistensial” yo‘nalishdagi falsafasi Paskalning yorqin ifodalangan “ekzistensial” dunyoqarashi, mistiklik, induktiv metodologiya va skeptitsizmga qarshi qo‘yiladi. L.Brenshvig Dekart va Paskal o‘rtasida antogonizmga urg‘u beradi. Bu antogonizm nafaqat falsafa va dinga tegishli, balki ularning ilmiy qarashlariga ham taalluqlidir, ya’ni “Paskal Dekart tuzgan ilmiy modelni butunlay buzib tashlashga harakat qilgan” (Brenshvig, 1944: 158), – deb aytadi. Bunday farq nazariy “kontrast” ularning xarakteriga ham xosdir. Agar Dekart xotirjam, haqiqatni bamaylixotir izlovchi, o‘z maqsadini aniq belgilagan va sobitqadamlik bilan uni amalga oshiruvchi, daho, fan va falsafadagi o‘z o‘rnini aniq biluvchi, nihoyat, ehtiyotkor, sovuqqon inson, stoiklar singari shaxsiy va ijtimoiy hayot fojiyalarini kuzatuvchi bo‘lsa, Paskal – fig‘on qiluvchi, abadiy ikkilanuvchi, haqiqatni “entikib” izlovchi, qahramon va fan fidoiysi, bir vaqtning o‘zida fandagi, insoniyat hayotidagi, madaniyatdagi nomukammallikdan junbushga keluvchi, ochiq g‘oyaviy kurashdan tab tortmaydigan (masalan iyezuitlar bilan g‘oyaviy kurash), o‘tkir aql va qaynoq qalb egasidir. Zamonaviy paskalshunos M.Legern Dekart xarakterini “qahramon”, Paskalni esa “fojiyaviy” (Le Guern, 1971: 176), deb atagan.

Lev Shestov masalaga juda chuqur kirib, Paskalni qadimiy faylasuf deb, Dekartni esa zamonaviy faylasuf, deb ataydi: “Yulian singari Paskal davrni butunlay chappasiga aylantirib yuborishni xohlaydi, zero, u Renessans davrida insoniyat erishgan hamma narsadan voz kechishni talab qiladi. Hammasi yangilandi, aynan shunda uning tarixiy taqdiri namoyon bo‘ldi. Lekin Paskal yangilikdan qo‘rqdi... Tarix bundaylarga shavqat qilmaydi. Paskal emas, balki Dekart Yangi davr falsafasining otasi hisoblanadi ...Tarixning qarori shu: Paskal bilan g‘ururlanadilar, Dekartning ketidan ergashadilar. Bu hukm mulohazaga o‘rin qoldirmaydi” (Shestov, 1923: 2-4). Albatta, bunday g‘ayrioddiy hukm Paskalning Yevropa falsafasidagi o‘rnini buzib ko‘rsatadi, uning falsafasi ko‘p ma’noli va ziddiyatli bo‘lgan. L.Shestov nazarda tutgan fikr Paskalning diniy ta’limotiga tegishli bo‘lib, uning diniy qarashlari ilk xristianlikdagi Avgustin ta’limotiga hamohang bo‘lgan. Fan va falsafa sohasida mutafakkir nafaqat o‘zining davri bilan hamqadam bo‘lmay, balki o‘z davridan 200-300 yilga o‘tib ketib, hozirgi davrga yaqinlashgan (Strelsova, 1979: 16).

Dekart bilan Paskalni qarama-qarshi qo‘yishga oshiqib, yuqoridagi tadqiqotchilar, ularning pozitsiyalarini buzib ko‘rsatadilar. Paskalning skeptitsizmi, induktivizmi yoki mistitsizmini mutlaqlashtirib qo‘yadilar. Aslida Paskalning dunyoqarashi keng qamrovli bo‘lgan.

Jumladan, bunda Paskalning Dekart falsafasiga tanqidiy va salbiy munosabati bo‘rttirib ko‘rsatiladi. Lekin ularning sxolastik falsafaga qarshi umumiy munosabati soyada qoladi. Xuddi shunday Dekartning Paskalga g‘oyaviy ta’siriga ham e’tibor berilmaydi. Bir narsaga jiddiy e’tibor qaratishimizga to‘g‘ri keladi, Paskal nafaqat Dekartning ba’zi bir g‘oyalarini o‘zlashtiradi, balki buyuk ratsionalistning bir yoqlama ta’limotlarini to‘g‘rilab ketadi.

1647-yilda Paskal Dekart bilan uchrashadi. Unga qadar Paskal Dekartning “Metod haqida mulohazalar”, “Metafizik mulohazalar” va “Falsafa asoslari” nomli asarlari bilan tanishib chiqqan edi. Xuddi shunday “Yozishmalar”ini ham o‘qib chiqadi. Dekartning bu asari 1657-yilda Klersele tomonidan nashr qilingan edi. Paskal avvalam bor, Dekartning “latif materiya” (matiere subtile) haqidagi gipotezasiga e’tiroz bildiradi. Unga ko‘ra latif materiya bo‘shliqni to‘ldiradi, xuddi shunday trubkadagi simobgacha bo‘lgan bo‘shliq “torichelli bo‘shlig‘i”ni Paskal bilan bo‘lgan suhbatda Dekart ma’qullagan edi. Yosh olim katta nufuzga qarshi hech nima demaydi, lekin faylasuf olim iyezuit ruhoniy Noelga qarshi e’tiroz bildiradi (Noel La-Flesh kollejida Dekartning o‘qituvchisi edi). Noel Paskalni inkor qilish uchun Dekartning tabiatda bo‘shliqning yo‘qligi haqidagi gipotezasidan foydalanadi. Jumladan, Noel “horror vacui” nomli sxolastik aqidaga tayangan. Dekart esa bu aqidani eskirib qolgani uchun inkor qilmagan. Faylasuf ko‘lamni moddiy substansiyaning atributi sifatida tushunadi va uni faqat geometrik makon, deb talqin qiladi. Ko‘lam barcha tanalarning, shu jumladan, umuman materiyaning ham “ichki joyi”dir, materiyadan ajralmagan holda mavjud. Xuddi shunday uning fizikasida materiyaga qarshi turgan

mutlaq bo‘sh makon tushunchasi butunlay yo‘qoldi: “Faylasuflar tushunadigan bo‘sh makon so‘ziga kelsak (ya’ni hech qanday substansiya yo‘q makon), shu narsa ayon bo‘ladiki, dunyoda makon yo‘q, chunki ichki joy sifatidagi makon tana ko‘lamidan farq qilmaydi” (Dekart, 1950: 473). Nisbiy bo‘shliq bu shunday makonki, “unda biz o‘ylagandek, bo‘lishi kerak bo‘lgan narsa yo‘q”, masalan, suvi yo‘q idish, balig‘i yo‘q ko‘l, yuki yo‘q korabl va h.k. Buni u tan olgan (Dekart, 1950: 473).

Dekart materiya va makonni shunday tushunchasidan “latif materiya” gipotezasi kelib chiqadi. “Latif materiya” butun borliqni to‘ldiradi, narsalar orasidagi o‘rinlarni ham. Shuning uchun ham sxolastik metafizika doimo qo‘llashga uringan “hech qanday sirli kuchlar uchun ham”, bo‘shliq uchun ham joy qolmaydi. Dekart shu yo‘l bilan tabiat hodisalarini (magnetizm, tortilish, issiqlik va h.k.) tushuntirishga harakat qilgan. Dekart fizikasi materiya va mexanik harakat tamoyillaridan kelib chiqib, sxolastikaga qarshi bo‘lgan, lekin eksperimental dalillarning yetishmasligi, uni har bir bosqichini aqliy-mulohazali qilib qo‘yadi. Aynan shu jihat Paskalni e’tiroziga olib keladi. Paskalning g‘oyalari konkret-aniq yo‘nalishda bo‘ladi. Noelga yozgan xatida “ko‘rinmaydigan, eshitilmaydigan, hech qanday hislar bilan sezilmaydigan materiya” va hech qanday ilmiy eksperiment bilan tasdiqlanmagan gipotezani Paskal inkor qiladi: “Agar shunday asoslashga tayanadigan bo‘lsak, unda eng katta murakkabliklarni ham jo‘n yechish mumkin. Shunda dengizlarning toshqinini ham, magnitning tortilishini ham osongina tushuntirish mumkin, materiya shunday tuzilgan deb” (Pascal, 1963: 202). Tabiat hodisalarini tadqiq qilganida Paskal dalillar, tajribalar va eksperimentlarni ma’qul topadi. Shuning uchun ham uning tabiat haqidagi tasavvurlari aniq-lo‘nda ko‘rinishga ega. Dekartning mavhum aqliy tuzilmalaridan farq qiladi. Manjoning guvohligiga ko‘ra, “Paskal kartezianchа falsafani xuddi Don-Kixot romanidek, tabiat haqidagi roman deb atagan” (Pascal, 1963: fr. 1008).

Vakuum bilan o‘tkazilgan eksperimentlardan muvafaqqiyatli natijalarga erishgan Paskal o‘z xulosalarida qat’iy va sobitqadam, umumfalsafiy ma’noda juda ehtiyotkor edi. Albatta, “torichelli bo‘shlig‘ini” u mutlaq, deb olmaydi, uni shartli deb biladi, ya’ni bu bo‘shliq havo bosimi ostida paydo bo‘ladi. Paskal uni “ko‘rinadigan bo‘shliq” (vida apparent) deb atab, “u tabiatda ilgari noma’lum bo‘lgan yoki hissiy qabul qilinadigan materiya bilan to‘lmagan “bo‘sh makon” (Pascal, 1963: 202) sifatida aniqlaydi. Qachonki, davom etadi Paskal: “ana shu “ko‘rinadigan bo‘shliq” qandaydir materiya bilan to‘lmas ekan, u haqiqiy yoki mavjud bo‘shliq bo‘lib qolaveradi” (Pascal, 1963: fr. 1008). Paskalning ana shu xulosalariga Dekartning kinoyali munosabatini adolatli deb bo‘lmaydi: “Ana shu kitobni yozgan o‘spirinning boshida bo‘shliq ko‘p va juda xovliqyapti. Bu yerda gap Paskalning “Bo‘shliq haqida yangi tajribalar” nomli asari ustida ketyapti. Menimcha, undan kattaroq kitobda ham uning asoslari yetarli darajada ishonchli bo‘lmaydi” (Descartes, 1960: 376). Lekin ikki mutafakkir ham o‘zicha haq edi: Dekart – makonda mutlaq bo‘shliqni inkor etgan faylasuf sifatida, Paskal esa – havo bosimi ostida paydo bo‘ladigan bo‘shliqning tabiiy-ilmiy asosini tan oluvchi olim sifatida. Dekart yosh olimni iqtidorini tan olgisi kelmadi. 16 yoshli o‘spirinni “Kanonik kesishmalar haqida tajriba” muallifi ekanligini shubha ostiga oladi. Bu g‘oya Paskalning otasiga tegishli, deb o‘ylaydi. Analitik geometriya asoschisi proyektiv geometriyani mulohazaviy yo‘l bilan rivojlantirish istiqbollarini tan olmadi, xuddi shunday Paskal ham analitik geometriyani kelajagi yo‘q, deb o‘yladi. Paskal Dekart tomonidan ishlab chiqilgan matematikaning analitik yo‘nalishiga yetarlicha baho bermaganligi, tadqiqotda keng qo‘llanilgan algebraik usullarni qabul qilmaganligi, harfli timsollardan voz kechganligi keyingi chuqur tadqiqotlariga zarar keltirdi. Cheksiz zarralarni hisoblash sohasida, differensial va integral hisoblashning haqiqiy ijodkori bo‘lishda, aynan shu umumlashtirish Paskalga yetishmadi. Lekin matematik analiz tarixida Paskal Nyuton va Leybnitsdan avval turadi.

Pyui-de-Dom tog‘ida Paskalning g‘oyasi bo‘yicha “suyuqlik muvozanati eksperimenti” o‘tkaziladi. Bu tajribaga ko‘ra, vakuumda havo bosimi ostida bo‘shliq paydo bo‘ladi. Dekart ana shu g‘oyani Paskalga berganligi haqida davo qiladi. Bu bahsning bayonnomasi bo‘lmaganligi uchun kim haqligini uzil-kesil aytib bo‘lmaydi. Paskal esa bu munozarani javobsiz qoldiradi. Lekin Dekart bo‘shliq haqidagi g‘oyani eksperiment yo‘li bilan ham, nazariy yo‘l bilan ham amalga oshirmadi, unga ahamiyat bermadi. Aynan buni Paskal ijodiy o‘ziga xoslik bilan, eksperiment texnikasida topqirlik bilan ro‘yobga chiqardi. Shuning uchun ham tarix bu g‘oyaga mualliflikni adolatli tarzda Paskalda qoldirdi. “Latif materiya” gipotezasi Paskalning isbotiga ko‘ra, ortiqcha bo‘ldi.

Yuqoridagilarning hammasi bir oqimga tegishli Yangi davrning ikki buyuk olimi o‘rtasidagi munozara edi. Ularning ikkisi ham nufuzlarga ko‘r-ko‘rona ergashishga qarshi chiqdi va erkin ilmiy taraqqiyot uchun kurashdi, ular insonning “sog‘lom nurli tafakkur”iga, tajribaga, eksperimentga katta urg‘u berdi. Zero, Dekart va Paskal konkret-ilmiy sohada turli yo‘nalishdan ketgan bo‘lsa ham, xususiy masalalarni hal qilishda bir-biriga qarshi bo‘lsa ham – fanda ularni bir-biriga dushman deb bo‘lmaydi. Ilmiy metodologiya sohasida, ilmiy bilim tamoyillarini tushunishda ular opponent emas, balki hamfikr bo‘lganlar. Bizning fikrimizga ko‘ra, ularni qarama-qarshi qo‘ygan mualliflar nohaq. Paskalcha induktivlik va dekartcha deduktivlik bir hodisaning ikki tomonidir. Inchunun, Paskalga Dekart ta’limoti ta’sir ko‘rsatgani aniq dalildir.

Noel bilan munozarasida Paskal haqiqatni ilmiy tadqiq etishning “yagona qoidasini” shakllantiradi.

Birinchidan, “tasavvur yoki tafakkurning bilish darjasida aniq va lo‘nda tasavvur hosil qiladigan narsa yo hodisani qabul qilish” va ishonchli dalillarni belgilash, ya’ni hech qanday shubha uyg‘otmaydigan holatlarni, “aksioma yoki tamoyillarni, masalan, ikki teng narsaga, teng yarimdan qo‘shsak, teng narsa hosil bo‘ladi...” (Pascal, 1963: 201).

Ikkinchidan, aksiomadan mutlaq zaruriy natijani keltirib chiqarish, uning haqiqatligi aksiomaning haqiqiyligidan kelib chiqsin. Bu ikkilangan qoida, Paskalning ta’kidiga ko‘ra, har qanday “xayolotdan, ko‘rinishdan, injiqlikdan” ehtiyot qiladi, bunday hodisalarga fanda o‘rin yo‘q. Ana shu karteziancha tamoyillarni Paskal keyinchalik o‘zining “Geometrik tafakkur va ishontirish san’ati” nomli metodologik risolasida ijodiy rivojlantiradi. Bu asar Por-Royalda “Mantiq yoxud fikrlash san’ati” asari uchun tayyorgarlik rolini o‘ynaydi.

Ushbu asarda Paskal Dekart singari matematik bilimlarning qat’iyligidan va apodiktivligidan hayratga tushadi, bu uning quyidagi aforizmida shunday ifodalanadi: “Geometriyadan yuqori narsa, bizdan ham yuqoridir” (Pascal, 1963: 349). “Mukammal ilmiy uslub” g‘oyasini ilgari surib Paskal, uni amalga oshirishni ilmiy bilim tuzilishini aksiomatik-deduktiv usuli bilan bog‘laydi, bu matematikada keng qo‘llaniladi. Agar Dekart o‘zining uslubini evristik deb atagan bo‘lsa, Paskal evristikani haqiqatni isbot qilish mantig‘idan ajratadi. Haqiqatni ochishga emas, balki uni isbot qilish va yolg‘ondan ajaratishga urg‘u beradi. Shu nuqtayi nazardan “mukammal uslub” mazmuni quyidagicha ifodalanadi: “hamma terminlarni aniqlash, hamma holatni isbotlash” va “hamma holatni muayyan tartibda joylashtirib chiqish” (Pascal, 1963: 348-349). Lekin bu talabni cheksiz regress tufayli amalga oshirib bo‘lmaydi. Noma’lum “birlamchi terminlar”ni doimiy sharhlash hamda isbot talab qilmaydigan aksiomalar zarurati paydo bo‘laveradi. Paskal o‘z uslubining oltita qoidasini ilgari suradi, ularni “geometrik” deb ataydi.

Difinitsiyalar uchun:

1) Hammaga ma’lum terminlarni aniqlamaslik;
2) Difinitsiyasiz ikki xil mazmuni bor va noma’lum terminlar kiritmaslik;
3) Difinitsiyalarda har doim ma’lum yoki tushunarli bo‘lgan terminlarni qo‘llash.

Aksiomalar uchun:

1) Ular qanchalik aniq yaqqol bo‘lsa ham, tadqiqsiz hech qanday zaruriy tamoyillarni qo‘llamaslik;
2) Aksiomalarda yetarli darajada aniq bo‘lgan holatlarni belgilash.

Isbot uchun:

1) O‘z-o‘zidan yaqqol bo‘lgan holatlarni isbotlamaslik;
2) O‘zidan ma’lum bo‘lgan yoki ilgari isbotlangan mulohazalar orqali hamma holatlarni isbotlash;
3) Isbotlash jarayonida ikki xil mazmunli terminlarni qo‘llamaslik, anqlovchini aniqlanayotganlik bilan o‘rnini almashtirib yubormaslik (Pascal, 1963: 356-357).

Ana shu qoidalar aqliy uslub ishlanmasiga, Por-Royal “Mantiq...”i ilmiy bilimlarining “kompozitsiya metodi”ga kirdi. Bu uslub karteziancha analitik uslubdan yoki “masalani yechuvchi, kashf qiluvchi uslub”dan farq qiladi. Por-Royal mantiqshunoslari olimlarning evristik intuitsiyalariga katta ahamiyat beradilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, Paskal Dekartning metodologiyasini unga tayangan holda rivojlantiradi. Nazariy bilim strukturasida intuitsiya va deduksiyaning ahamiyatini tan olgan holda, Paskal intuitsiyani Dekartga qaraganda boshqacha talqin qiladi. Buyuk ratsionalist uchun “haqlik hissiyotga emas, faqat aqlga tegishli, shunda u narsalarni aniq-tiniq ko‘radi”, shuning uchun ham intuitsiya ham, deduksiya ham faqat intllektual bo‘ladi.

Dekartga nisbatan Paskal “tabiiy nur” sohasini kengaytiradi. Unga “bilish darajasiga qarab” faqat aqldan tashqari, tashqi tuyg‘u intuitsiyasini hamda ichki hissiyot – “qalb”ni qo‘shadi. Aqlning vazifasi aniq ta’riflar va qat’iy, ketma-ket bir-biriga bog‘langan, mantiqiy isbotdan iborat, lekin u shu bilan cheklanadi. Shunda aql his-tuyg‘u, “qalb”ning zarurligini tan olishi kerak. Dekartdan farqli ravishda Paskal tashqi hissiyot darajasida bilimning “yaxlitligi va yaqqolligini” tan oladi. “Hissiy qabul qilish” o‘z-o‘zidan doimo haq bo‘ladi. Agar “dastlabki tushuncha va aksiomalar” orqali matematik predmetlarni bilish intuitsiyadan boshlansa, tabiat hodisalarini bilish hissiy qabul qilish tajribasidan boshlanadi. Ular ko‘rgazmali haqiqat bo‘ladi. Matematikada “dastlabki tamoyillarning” (bular makon, zamon, harakat, son va boshqalar) “tana a’zosi” intuitsiyasi, Paskalning tasdig‘iga ko‘ra, inson “qalb”i hisoblanadi. U bizning eng chuqur hissiy tabiatimizdir yoxud “bilish instinktimiz”dir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Cousin, V. (1857). Etudes sur Pascal. – P., 325 p.
2. Droz, E. (1886). Etudes sur le scepticisme de Pascal. – P., 236 p.
3. Chestov, L. (1923). La nuit de Gethsemani. – P., 325 p.
4. Bruschvicg, L. (1944). Descartes et Pascal. Lecteurs de Montaigne. – N. Y., 294 p.
5. Le Guern, M. (1971). Pascal et Descartes. – P., 379 p.
6. Стрельцова, Г.Я. (1979). Блез Паскаль. – М.: Мысль, 283 с.
7. Декарт, Р. (1950). Избранные произведения. –М.: Мысль, 587 с.
8. Pascal, B. (1963). Oeuvres completes [par L.Lafuma]. – P., 641 p.
9. Descartes. (1960). Correspondence (par Ch. Adam et Michaud), t. 7. – P., 476 p.
10. Ruzmatova, G. (2019). Eastern melodies in the text of Plato. International Journal of Recent Technology and Engineering. 8(7).444-448.
11. Ruzmatova, G. (2020). Comparativist analysis of Representations about Will in View of Friedrich Nitzsche and Jalaliddin Rumi. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 24(4). 3215-3227.
12. Rakhimdjanova, D.S. (2019). Features of the freedom issues in the Plot’s philosophy. International Journal of Advanced Science and Technology. 28(16). 1560-1564.
13. Ruzmatova, G.M. (2023). Comparative studies of the Oriental and Western antropology // ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (128), 191-195. Philadelphia, USA / Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS-12-128-13.
14. Ruzmatova, G. (2014). Ruhiyat tahlili falsafasi. –Toshkent: Nishon-noshir, – 240 b.
15. Ruzmatova, G.M. (2023). Konfutsiychilik axloqiy negizlarida olamiy tartibot // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal. 11(12), 916-923. / Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



SANOAT KORXONALARINING BARQAROR RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Samijonov Musobek G‘ayratjon o‘g‘li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari, iqtisodiy mazmun-mohiyati, korxonalarning barqaror iqtisodiy o‘sishi va xorijiy olimlarning nazariy qarashlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat, sanoat korxonalari, strategiya, muvozanat, barqaror muvozanati, talab va taklif, daromad, xarajat.

Abstract: This article describes the theoretical and methodological foundations of the sustainable development of industrial enterprises, the economic essence, the sustainable economic growth of enterprises and the theoretical views of foreign scientists.

Key words: industry, industrial enterprises, strategy, equilibrium, stable equilibrium, supply and demand, income, cost.

Аннотация: В данной статье описаны теоретические и методологические основы устойчивого развития промышленных предприятий, экономическая сущность устойчивого экономического роста предприятий и теоретические взгляды зарубежных ученых.

Ключевые слова: промышленность, промышленные предприятия, стратегия, равновесие, устойчивое равновесие, спрос и предложение, доход, затраты.

KIRISH

Jahon mamlakatlarida kuzatilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va jarayonlar, ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida bozor munosabatlarining rivojlanishining yangi mexanizmlarini shakllantirishga bo‘lgan ehtiyojni oshirdi. Shu sababdan, ko‘plab sanoat korxonalar o‘zgarib borayotgan tashqi muhit sharoitlariga moslashuvchan bo‘lgan investitsion strategiyalarini rivojlantirishga zarurat sezmoqdalar. Hozirgi sharoitda iqtisodiy salohiyatni tiklash zarurligi mazkur rivojlanishni ta’minlaydigan mexanizmni shakllantirish asosida sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish uchun sharoit yaratishni birinchi o‘ringa qo‘ymoqda Korxonalar resurslari cheklanganligi, mavjud tashqi muhit sharoitida ularning barqaror rivojlanishiga zamin yaratish imkoniyatlarini beradigan strategiyani ishlab chiqish boshqaruvning asosiy muammosi shaklida namoyon bo‘lmoqda. Bunda shuni ta’kidlash kerakki, har bir korxona uchun barqaror o‘sish strategiyasini ishlab chiqish yakka tarzda amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarining taraqqiyoti – ularning barqaror iqtisodiy o‘sishga ega ekanligi va turi xil ijtimoiy-iqtisodiy siljishlarga bardoshliligiga bog‘liq. Har bir sanoat korxonasi o‘zining hisob siyosati, biznes rejasi, rivojlanish strategiyasi va investitsion siyosatiga ega va bular orqali o‘zining taraqqiyot yo‘lini belgilaydi.

Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining mazmun-mohiyati to‘g‘risida iqtisodchi olimlar o‘rtasida xilma-xil fikrlar mavjud.

Gobind Nankani: “Barqaror o‘sish bir qancha tayanch shartlarga asoslanadiki, ular vaqtida bajarilgan bo‘lishi zarur: jismoniy va inson kapitalini jamg‘arish, resurslarni samarali taqsimlash, yangi texnologiyalar va o‘sishdan foydalanishda muvozanatli qatnashish. Bu shartlardan qaysinisi muayyan davrda eng muhimi hisoblanishi, ya’ni qaysi choralar qanday ketma-ketlikda ko‘rilgan bo‘lishi kerakligi ko‘p jihatdan dastlabki sharoitga bog‘liq. Buning oqibatida qat’iy formulalar va o‘tkinchi “eng yaxshi amaliyot”larni izlashdan voz kechish hamda o‘sishni cheklovchi omillarni aynan muvofiqlashtirish uchun chuqurlashtirilgan iqtisodiy tahlilga ishonish lozim”

(Nankani, 2005) degan g‘oyani ilgari surgan. G.Nankaniga ko‘ra, barqaror o‘sishning tayanch shartlari quyidagilarni tashkil qiladi:

- jismoniy va inson kapitalini jamg‘arish;
- resurslarni samarali taqsimlash;
- yangi texnologiyalar va o‘sishdan foydalanishda muvozanatli qatnashish.

Ushbu shartlar korxonaning iqtisodining davrlari (o‘sish, tushish, muvozanat)ga ko‘ra ahamiyatlilik darajasi farqlanadi. Shuningdek, korxonaning barqaror rivojlanishini ta’minlashda uning moliyaviy holatidan kelib chiqib, iqtisodiy qarorlar qabul qilish zarur hisoblanadi. Misol uchun: korxona o‘zining to‘lov qobiliyatini (likvidlilik darajasi) mustahkamlash uchun o‘z mablag‘larini miqdorini oshirishi mumkin. Yoki resurslardan samarali foydalanish uchun yangi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishi mumkin. Iqtisodiy o‘sish davrida korxonaning mahsulotlariga bo‘lgan talab yuqori bo‘lgan pallada reklama berishga ehtiyoj sezilmagan davrda reklama xarajatlarini kamaytirish maqsadga muvofiqdir. Yana bir muhim narsa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mehnat unumdorligini ko‘paytirish uchun inson kapitaliga investitsiya qilish zarurdir.

Iqtisodiy tizimlar umumiy muvozanati konsepsiyasi.

Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish konsepsiyasi iqtisodiy tizimlarning makro va mikro darajadagi xulq-atvorini tavsiflovchi klassik va hozirgi zamon tadqiqotlari tushunchalar tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Sanoat korxonalarida kechayotgan biznes-jarayonlarni tadqiq etishda “barqaror muvozanat” tushunchasi va u bilan bog‘liq barqaror bozor iqtisodiyoti sharoitlari uchun o‘rinli bo‘lgan tushunchalarni yoritib berish ahamiyatlidir. “Muvozanat” tushunchasining mohiyati ko‘plab tadqiqotlarda qo‘llanilayotgan tahlil usullari va o‘rganilayotgan sanoat korxonalarining darajasidan kelib chiqib, talqin qilinadi. Shu bilan birga bu tushunchaning taklif qilingan ma’nosi yetarlicha asoslanmagan. Bunda ko‘p darajada sanoat korxonalarining barqaror rivojlanish shartiga kiradigan vazifalarning xossalari tadqiqoti va xulosasiga urg‘u beriladi. Natijada bugungi kunda iqtisodiy tizimning barqaror va muvozanatli holatining fundamental mazmuni to‘g‘risidagi masala ochiqligicha qolmoqda.

A.Marshall tomonidan taklif qilingan konsepsiyada bozor muvozanati talab va taklif tengligi bajarilishining aniq sharti sifatida ko‘zda tutiladi (Alfred, 1993):

$$S = D \quad (1)$$

bu yerda: S = g(p) – taklifning “p” narxga bog‘liqligini tavsiflaydigan vazifasi; D = f(p) – mahsulotga bo‘lgan bozor talabini tavsiflaydigan talabning vazifasi. Qator iqtisodchilarning keyingi ishlarida (Arrow & Kenneth, 1991) (1) tenglamaning ma’nosini tushunishni chuqurlashtiradigan tadqiqotlar olib borilib, uning mazmuni, xo‘jalik tizimining barqaror, muvozanatlashgan holatiga uning bozorga narxli moslashish bo‘yicha harakatlari sinov va xatolari jarayonining chegarasi sifatida qarash lozim. Ularning dinamikasini quyidagi tenglama orqali tasvirlash mumkin:

$$\frac{dp}{dt} = h \cdot \big(S(p) - D(p)\big) \quad (2)$$

h' < 0, h(0)=0 bo‘lganda,bu yerda $\frac{dp}{dt}$ – narxlarning o‘zgarish tezligi; h’ – h funksiyasining bozor dagi mahsulotlar, xizmatlar ortiqcha taklifi o‘sishiga nisbatan o‘zgarish tezligi (2) tenglama mahsulot, xizmatlarga bo‘lgan talab taklifdan oshib ketgan, narxlar esa narx va taklif nisbati dan kelib chiqib, o‘sgan yoki kamaygan vaziyat uchun talab va taklif qonunini tavsiflaydi. (1) va (2) tenglamalar birgalikda biznes-jarayonlar dinamikasini tavsiflab, ularda talab, taklif va narxlar o‘zining ayrim cheklangan miqdoriga erishganligi bilan bog‘liq barqaror bo‘lmagungacha o‘zgaradi. Shuni ta’kidlash muhimki, agar (1) tenglik bajarilsa, u holda narx o‘zgarmagancha qoladi va buning oqibatida talab va taklif ham narx funksiyasi kabi doimiyligicha qoladi. Demak, S, D, p cheklangan miqdorlarga erishganda, ularning o‘zgarishini keltirib chiqaradigan ta’sirlar yo‘qoladi. Bunda korxona tizimi muvozanat holatiga erishadi va ta’sirlarni tiyib turadigan tashqi muhit mavjud bo‘lmaganda, unda yetarli darajada uzoq vaqt qolib ketish mumkin bo‘ladi.

Pol Samuelson, Kennet Errou, Geonid Gurvis asarlarida (Hurwicz, 1986) turli tuman empirik hodisalarni modellashtirish orqali xo‘jalik tizimlarini barqaror rivojlantirish mexanizmlaridan foydalanishning ayrim xususiyatlari o‘rganilgan. Biroq yuqori darajada sanoatlashgan iqtisodiyotda sanoat majmuasi korxonalariga tatbiqan “iqtisodiy muvozanat” tushunchasining mazmuni to‘la ochilmagan.

S.Fisher, R.Dornbush va R.Shmalenzi (Fischer, et al., 1995) ham yalpi talab va yalpi taklif tengligi kabi muvozanatli holatni aniqlaydi, ya’ni mavjud narxlar darajasida taxmin qilinayotgan mahsulot miqdori yalpi talab yoki rejalashtirilayotgan yalpi xarajatlarga teng bo‘lganda, tovarlar bozori muvozanat holatida bo‘ladi. Bunda xo‘jalik tizimining muvozanatli holati tenglamasi quyidagicha aniqlanadi:

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

$$AD(C + I) = AS \times (Q \times P)^3 \quad (3)$$

bu yerda: AD – yalpi talab; C – iste'mol talabi; I – investision talab; AS – yalpi taklif; Q – natural mahsulot ishlab chiqarish hajmi; P – mahsulot birligining narxi.

Iqtisodiy o'sish makrodarajadagi tadqiqotining uslubiy asosini Y.Shumpeter, N.Kondratev, D.Bell, E.Denison, J.Keyns, K.Klark, D.Nort, R.Solou, F.Xayek va boshqa olimlar (Клинов, 2010) ishlab chiqqanlar. Ular yalpi ichki mahsulotning zaruriy o'sish sur'atlari saqlanib qolganda, makrodarajada muvozanat holatiga erishish mumkin, bunda iqtisodiyotning barqaror muvozanatli rivojlanishini ta'minlaydigan o'sish sur'atlarini quyidagi formula bo'yicha hisoblash zarur, degan xulosaga kelganlar:

$$\Delta GDP_t = \frac{VA_t}{CF_{t-1}} \times \frac{CF_{t-l}}{GDP_{t-l}} \times 100\% \quad (4)$$

bu yerda Δ – foizlarda ifodalangan o'sish sur'atlari; t – hisobot davri; (t-1) – oldingi davr; GDP – yalpi ichki mahsulot; VA – qo'shilgan mahsulot (YaIM o'sishi); CF – asosiy kapitalga qo'yilmalar; VA/CF – asosiy kapital ga qo'yilmalardan qaytim me'yori; CF/GDP – asosiy kapitalni shakllantirishga YaIM ni sarflash me'yori.

Xo'jalik tizimining mikrodarajadagi xulq-atvorini tadqiq etishda muvozanat konsepsiyasi ba'zi maqsadli funksiyalar maksimumiga erishishi bilan bir xil va biznes jarayonlarni optimallashtirish muammolarining hal qilinishi bilan bog'liq bo'ladi, deb qaraladi. Mazkur konsepsiya doirasida iste'molchi muvozanati uning naflilik funksiyasi maksimumiga yetganda namoyon bo'ladi, xo'jalik tizimining muvozanati esa uning faoliyati natijalarini tavsiflaydigan foyda yoki boshqa ko'rsatkichlarning maksimumida ko'rinadi. Alohida tashkilot va butun iqtisodiyot muvozanati shartlaridagi asosiy tafovut shundaki, makrotizimning muvozanat holati mikrodarajadagi tizimdan farq qilib, ichki qarama qarshi yo'naltirilgan muvaffaqiyat omillarining o'zaro ta'siri va muvozanatlashtirilishi obyektiv mexanizmi hisobiga erishiladi hamda subyektiv maqsad qo'yilishi jarayoni bilan bog'liq emas. Bizning fikrimizcha, iqtisodiy tizim muvozanati konsepsiyasining mazmunini tadqiq etish uchun:

a) muvozanat holati asosiy tavsiflarini ajratish;
b) uning umumlashtirilgan tizimli tushunchasini shakllantirish;
d) turli darajadagi iqtisodiy tizim lar uchun uning namoyon bo'lishining o'ziga xosligini tahlil qilish zarur.

Turli darajadagi iqtisodiy tizimlarning amal qilish va rivojlanish omili hisoblangan iqtisodiy tizimning maqsadli determinasiyasi tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda maqsadli determinasiyalashning kengaytirilgan talqinini qo'llash zarur, ya'ni "tizimni maqsadli determinasiyalash" tushunchasi orqali uning boshlang'ich sharoitlari va rivojlanish ichki mexanizmlaridan shakllanadigan iqtisodiy tizimning birmuncha kelgusi holatini tushunamiz. Amaldagi mexanizmlar tizim xulq-atvorining berilgan yo'nalishini belgilab, uning oxirgi holati ham izlanayotgan muvozanat holati hisoblanadi. Iqtisodiy tizim xulq-atvorining maqsadga yo'naltirilganligida, tizimga muvozanatli ta'sir ko'rsatish sohasida bu ta'sirni qoplashga urinayotgan qarama-qarshi jarayonlardan iborat teskari aloqa tamoyili namoyon bo'ladi. Maqsadli determinasiyalashni tushunish turli darajadagi iqtisodiy tizimlar uchun muvozanatlilikning mazmunini o'rganish va muvozanat holatining sermazmun tizimli konsepsiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan bog'liq ravishda, maqsadga yo'naltirilgan tizimning mazmunini tavsiflash muhim bo'lib, buning uchun funksional invariant konsepsiyasidan foydalaniladi. Bunda "funksional invariant" (o'zaro bog'liq va qarama-qarshi ko'rinishlar)ni raqobat sharoitida xo'jalik tizimining amal qilishi jarayonida o'z ahamiyatini saqlayotgan ko'rsatkichlar majmui sifatida ta'riflash mumkin. "Maqsadli determinasiyalash (aniqlashtirish)" ko'rsatkichi korxonani rivojlantirish yo'nalishining o'zgarishi bilan bog'liq xo'jalik tizimining ko'plab ko'rsatkichlarining amal qilishini tavsiflaydi. U daromad, xarajatlar, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotining hajmi, qo'llanilayotgan aktivlar majmui va h.k.larni o'z ichiga oladigan o'zgaruvchilar to'plami bilan belgilanadi. Demak, o'zaro bog'liq ko'rinishlardan foydalanish makro va mikro darajadagi iqtisodiy tizimlarni birlashtiradigan umumiylikni ajratish imkonini beradi, hamda ular tomonidan muvozanat holatiga erishish asosida yotadi, binobarin, mazkur umumiy xossa sifatida maqsadga yo'naltirilganlik chiqadi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, shuningdek abstraksiyalash, gruxlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, boshqa uslublardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI


Xo'jalik subyektining iqtisodiy barqarorligi iqtisodiy muhit barqarorligi bilan belgilangan bo'lib, uning doirasida korxona faoliyati, uning faoliyati natijalari hamda sanoat mahsuloti (xizmatlari)ni bozor talablariga moslashtirish amalga oshirilishini qayd etamiz. Shu bois, bozor muhiti korxonaning samarali faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan risklarni vujudga keltiradi. Korxona barqarorligi turlari juda ko'p bo'lib, ularning asosiylari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm: Sanoat korxonasining barqarorligining turlari

Sanoat korxonasining barqarorligi, eng avvalo, ishlab chiqarish xarajatlari bilan uzviy bog‘liqlikda ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning tarkibi va tuzilishiga bog‘liqdir. Shuning uchun doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar o‘rtasidagi nisbat katta ahamiyat kasb etadi. Korxona barqaror rivojlanishini shakllantirishning boshqa muhim omili aktivlarning optimal tarkibi va tuzilishi hamda ularni boshqarish strategiyasini to‘g‘ri tanlash hisoblanadi. Bunda joriy aktivlarni boshqarish san’ati korxona hisobida joriy tezkor faoliyat uchun zarur bo‘lgan likvid mablag‘larning eng kam zaruriy summasinigina ushlab turishdan iborat. Korxona moliyaviy muvozanati va iqtisodiy barqarorligiga ssuda kapitallari bozorida qo‘shimcha ravishda harakatlantiriladigan mablag‘lar ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni korxona qanchalik ko‘p pul mablag‘larini jalb qilishi mumkin bo‘lsa, uning moliyaviy imkoniyatlari shunchalik katta bo‘ladi. Biroq korxonaning o‘z kreditorlariga to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lash layoqatini belgilaydigan risk ham o‘sadi. Uzluksiz takror ishlab chiqarish jarayonini ta’minlash va likvidlilikning yetarli darajasiga erishish yo‘li bilan iqtisodiy muvozanatni ushlab turish maqsadida sanoat korxonasi hisoblarida pul mablag‘larining yetarli hajmini yaratish lozim. Bunda operasion sikl dinamikasi korxona likvidliligini qo‘llab-quvvatlash va uning pulga bo‘lgan talabini joriy faoliyati, ya’ni aylanma aktivlar va ularni moliyalashtirish jarayonini boshqarishga tegishli qismida amalga oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Korxona barqaror rivojlanishi jarayonini ta’minlash, ya’ni amal qilish jarayonida barqarorlikka rioya qilinadigan sifat jihatdan yangi darajaga o‘tish uchun korxonaga ta’sir ko‘rsatishning majmuaviy xususiyati xos bo‘lgan rivojlanish yetakchi omilini aniqlash hamda mazkur omildan foydalanish asosida barqaror rivojlanish jarayonini boshqarish majmuaviy tizimini ishlab chiqish zarur Korxonani rivojlantirish yetakchi omili sifatida innovasiya salohiyati asosida amalga oshiriladigan innovasion islohotlarni ajratish mumkin. Bunda ta’kidlash joizki, innovasion salohiyat darajasi korxonaning yangiliklarni ishlab chiqish, joriy etish va o‘zlashtirish layoqati, bundan tashqari, bir tomondan, boshqa tomondan esa innovasiya jarayonida barqarorlikning saqlanishi va doimiy amal qilishining shartini belgilaydi.

Iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash maqsadida korxona tegishli siyosatni ishlab chiqadiki, quyidagilar uning asosiy bosqichlari hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm: Korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash bosqichilari

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligining tadqiqoti korxona joriy faoliyati asosiy turlari va bu jihatdan ularning qo‘llanilishini o‘rganishni ko‘zda tutadi. Bu sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligini taminlash va uni umumtizim nuqtai nazaridan aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, bizning fikrimizcha, innovasion va investitsion faollik asosida barqaror rivojlanishni boshqarishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli innovasion va investitsion islohotlarni amalga oshirish sanoat korxonalarining strategik barqaror rivojlanishini ta’minlashning eng muhim yetakchi omili sifatida namoyon bo‘ladi. Buning uchun korxonalarda mahalliy xom ashyodan foydalanib, qayta ishlangan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha kooperatsiya aloqalarini kuchaytirish, korxonalar tomonidan yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish sohasiga xorijiy investisiyalarni jalb qilishda ko‘maklashish, ularning innovasion tadqiqotlarni davlat bilan sheriklikda rag‘batlantirishdagi ishtirokini kengaytirib borish hamda yuqori texnologiyali tarmoqlarda kichik korxonalarni tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning hammasi ular faoliyatining raqobatbardoshligi va barqarorligini oshirishga xizmat qiladi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har qanday sanoat korxonasi barqaror rivojlanishga ega bo‘lishni istaydi va erishish yo‘lari va imkoniyatlarini izlaydi. Bu yo‘lda sanoat korxonalari o‘zlari ishlab chiqarayotgan sanoat mahsuloti va ko‘rsatayotgan xizmatlarining tarkibiy tuzilishidan kelib chiqqan holda, boshqaruv qarorlarini qabul qilishga to‘g‘ri keladi. Boshqaruv qarorlarining qaydarajda asosli va mantiqiyligi muhim ahamiyatga ega. Qabul qilingan boshqaruv qarorlari sanoat korxonalarining yaqin va uzoq muddatdagi korxona faoliyatiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biri bu – moliyaviy hisobotlarning tushunarliligi, aniqliligi, asoslanganliligi, ishonchliligi va milliy va xalqaro standartlarga mosliligidir. Chunki, qaror qabul qiluvchilar qarorlarini ushbu moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida qabul qilishadi.

Har qanday barqaror rivojlanishni istagan korxona o‘zining rivojlanish strategiyasiga, yo‘l haritasiga ega bo‘lishi lozim. Bularga ega bo‘lish uchun o‘zlarining hisob siyosati, biznes rejasi va investitsion-innovatsion siyosatiga, aktiv-passiv siyosatiga ega bo‘lishi darkor. Qayerdan qayerga borishni va qanday borishni bilmay yo‘lga chiqqan har qanday “yo‘lovchi” manzilidan adashganidek, korxonalar ham raqobatli iqtisodiyot sharoitida o‘zlarining raqobatchilari bilan raqobatlasha olish imkoniyati pasayadi yoki raqobatlasha olmaydi. Natijada to‘lov qobiliyatining yo‘qolishi ortidan bankrot deya e’lon qilishlariga to‘g‘ri kelishi mumkin.

Bugungi kunda korxonalar yuqori texnologiyalarni jalb qilish orqali o‘z mahsulot va xizmatlarini hajmini intensiv rivojlantirishmoqda. Bunga esa mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali erishmoqdalar.

Shuningdek, sanoat korxonalari investitsiya jalb qilibgina qolmasdan, o‘zlari ham bo‘sh pul mablag‘larini qisqa va uzoq muddatli investitsiyalarga joylashtirishmoqda. Bu esa investitsion faoliyatdan oladigan daromadlarining oshishiga olib keladi. Korxona daromadlarining ortishi uning barqoror rivojlanishini belgilovchi omillardan biridir.

Korxonalar xarajatlarini optimallashtirishi va ularning nazoratini doimiy olib borishi zarur. Debitorlik qarzlarini muddatidan o‘tib ketmasligini ta’minlashi va kreditorlik qarzlarini o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlash uchun fondlarni shakllantirishi kerak.

Korxonalar doimiy tarzda bozor holatini, o‘z mahsulotlariga bo‘lgan talab va taklifni o‘rganishlari mahalliy va xorijiy bozorlarda mustahkam o‘rin egallashga harakat qilishlari va marketing strategiyalarini ishlab chiqishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alfred, M., 1993. Principles of economic science. t-2 ed. M: “Progress”.
2. Arrow, J. & Kenneth, A., 1991. Toward a theory of price adjustment. Studies in Resource allocation processes.. Cambridge: s.n.
3. Fischer, S., Dornbush, R. & Shmalenzi, R., 1995. Economy: Trans. with the Engl.. M: “The metter LTD”.
4. Hurwicz, L., 1986. On the Stability of the Tatonnement Approach to Competitive Equilibrium. Sonnenschein: “Modeles of Economic Dynamics”.
5. Nankani, G., 2005. Economic Growh in the 1990s :Learning from a decade of reform, Washington, D.C.: World Bank.
6. Клинов, В., 2010. Особенности современной динамики мирового хозяйства. s.l.:”Вопросы экономики”.

THE IMPORTANCE OF THE WORLD TRADE ORGANISATION (WTO) AND UZBEKISTAN'S EFFORTS TO JOIN IT





Urozaliev Elyor
Assistant teacher Samarkand branch of Tashkent State University of Economics

Khoshimova Sevara
Assistant teacher Samarkand branch of Tashkent State University of Economics

Annotatsiya: O'zbekistonning xalqaro savdo aloqalarini o'rnatish maqsadida Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish uchun olib borayotgan ishlari, shuningdek, JST tashkiloti va uning so'nggi faoliyati ekspertizasi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: tarif, boj, tarifsiz to'siqlar, Doha raund, Urugvay raund, xalqaro hamkorlik, GATT.

Abstract: This article discusses Uzbekistan's intended endeavour to become a member of the World Trade Organisation (WTO) in order to conduct international trade relations, as well as an examination of the WTO organisation and its recent operations.

Key words: tariff, duty, non-tariff barriers, Doha round, Uruguay round, international cooperation, GATT.

Аннотация: В этой статье рассматриваются намерения Узбекистана стать членом Всемирной торговой организации (ВТО) с целью установления международных торговых отношений, а также организация и ее недавние действия.

Ключевые слова: международное сотрудничество, Дохийский раунд, Уругвайский раунд, нетарифные барьеры, тарифы и ГАТТ.

INTRODUCTION

There is no country in the world today that is developing in isolation.[1] Every country in the globe has created equal-scale partnerships with international organizations in order to exploit scientific and technological advancements to promote the well-being of its people.

The World Trade body (WTO) is clearly one such body. To far, 164 countries have joined the WTO.[2] It was once known as the International Trade Organization (ITO), and from 1947 it has been known as the GATT[3], and its metamorphosis into the WTO demonstrated how significant this organization is. In order for the world's coun-

1 "THE PARADOX OF AMERICAN POWER." Joseph S. Nye, Jr. Don K. Price
2 World Trade Organization (WTO) Members. https://www.curtis.com/glossary/international-trade/world-trade-organization-wto-members#:~:text=WTO%20members%20consist%20of%20164,Trade%20Organization%20members%20nor%20observers.
3 GATT and the Future of International Trade Institututions.John H. Jackso

tries to execute mutual trade policies, one country may have to traverse the territory of another country, or it may face obstacles in carrying out trade owing to tariff and other limits on commercial interactions in the country.

METODOLOGY

To avoid problems, the WTO has convened a number of rounds of meetings, including the following:
Uruguay Round (1986-1994) Doha Round (2001)

The preceding two rounds propelled the WTO‘s formation, as well as its trade volume and development, to a new level.




Figure 1[4]

The graph above depicts the average increase in exports and imports from 2009 to 2023.
It should also be noted that the Corona virus epidemic had a significant influence.
Now we’ll look at it in the sector part.




Figure 2[5]

According to the chart above, growth in the transportation system was 35% in the second quarter of 2022, this indicator declined by -11% compared to the same period in 2023, and travel climbed by 114% in the second quarter of 2022. This indicator was 35% in the equivalent time of 2023, when the growth was recorded, and it can be seen that the difference in the middle reached 75%.

We can see that it does have an impact. In general, the WTO‘s membership is growing year by year.

Uzbekistan is become a WTO observer country.[6]

Uzbekistan is become a WTO observer country. On December 8, 1994, the application for membership in the organization was lodged under the number PC/W/20 (94-2697).[7] It was later considered in Tunisia at its meeting on April 11, 1995 (95-0878), and was registered as WT/ACC/UZB.[8] From those years until the present, a number of agreements and a great deal of effort have been done in preparation for the country’s entry into

4 World Trade Organization (WTO) Members. https://www.curtis.com/glossary/international-trade/world-trade-organization-wto-members#:~:text=WTO%20members%20consist%20of%20164,Trade%20Organization%20members%20nor%20observers.
5 GATT and the Future of International Trade Institututions.John H. Jackso
6 World Trade Organization. https://www.wto.org/english/res_e/statis_e/daily_update_e/serv_latest.pdf
7 World Trade Organization. https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/a1_ouzbekistan_e.htm
8 World Trade Organization. https://docs.wto.org/dol2fe/Pages/SS/directdoc.aspx?filename=Q:/WT/PC/W20.pdf&Open=True

the WTO in 2023. We will go into further detail about why our WTO membership is being delayed. Why are we still in the WTO? Didn't we feel bad? It is common for questions to develop for a variety of reasons. There are nations across the world that utilize both liberalization and protectionism in their trade dealings.[9]

It is not an exaggeration to state that liberalization is the opening of the country's doors to the goods of multinational enterprises and entrepreneurs, as we are accustomed to seeing in industrialized nations' foreign trade ties. Because their industrial companies are virtually entirely automated. If emerging nations implement liberalization policies simultaneously while conducting foreign commerce, existing newly founded and maturing small firms and private enterprises from major manufacturers may go bankrupt.

As a result, many emerging and poor nations adopt protectionism to safeguard newly founded small companies and private firms, as well as to strengthen the national brand, offer employment and reduce unemployment, enhance tax income, and control inflation.

Following Uzbekistan's independence, our new first president, Islam Karimov, established the Uzbek growth model, which was a gradual transition to a market economy.[10]

Following Uzbekistan's independence, our new first president, Islam Karimov, established the Uzbek growth model, which was a gradual transition to a market economy.

This approach includes the five priority concepts listed below.

- liberating the economy from ideology, assuring its predominance;
- serving as the primary reformer of the state throughout the transition period;
- basing the whole renewal and development process on laws, ensuring their primacy;
- liberating the economy from ideology, assuring its predominance; • serving as the primary reformer of the state throughout the transition period; • basing the whole renewal and development process on laws, ensuring their primacy;
- together with the transition to market relations, substantial steps in the sphere of population social protection;
- step-by-step resolution of market relations.[11]

RESULTS

The state will initially conduct a protectionist strategy in international commerce, and after creating sufficiently competitive local goods, it will help to ensure its place in the world market through the liberalization program.

The aforementioned changes did not produce fruit; for example, in 1991, the public sector employed 61.2% of the workforce. This percentage was 24.0% in 2001 and will be 16.8% in 2020.[12]

Tab. 2. Population and changes in its employment rate (1991 – 2020)

Employment indicators	1991	1995	2001	2005	2020
Number of population – thousand people	20 862.5	22 659.8	24 964.4	26 167.0	33 905.2
Labor resources, thousand people	10 213.2	11 111.4	12 817.4	14 453.2	19 142.3
In total population, in %	49.0	49.0	51.3	55.2	55.9
Busy in economy, thousand people	8 254.6	8 157.5	9 136.0	10 196.3	13 239.6
Share of employment in the total labor resources, in %	80.8	73.4	71.3	70.5	69.1
Share of busy in economy in the total population, in %	39.6	36.0	36.6	38.9	39.1

Figure 3[13]

9 World Trade Organization. https://docs.wto.org/dol2fe/Pages/SS/directdoc.aspx?filename=Q:/WT/ACC/UZB1.pdf&Open=True
10 Legalization, Trade Liberalization, and Domestic Politics: A Cautionary Note. Judith Goldstein and Lisa L. Martin
11 "O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari". Azimova Tamara Abrorovna Madraximova Ma'mura Maxmudjon qizi Tog'aynazarov Shaxzod Shavkat o'g'li Boymurodova Xosiyat Boboxon qizi
12 O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning yo'nalishlari". Boboyeva Shohida Bekmurotovna
13 Labour market and employment in Uzbekistan. Zulxumor Tojiyeva, Lutfullo Ibragimov

According to the above table, the population of Uzbekistan will expand from 20,862.5 thousand in 1991 to 33,905.2 thousand in 2020, and the number of employed persons will increase correspondingly as a consequence of the state's right protection strategy, to 8,254. We can see that it has changed to 239,600.

The value of small business and private entrepreneurial exports in million US dollars from 2001 to 2008.




Figure 4[14]

This graphic clearly shows that, as a result of protectionism, small company and private firm exports did not surpass $1 billion in 2005, but topped $4 billion in 2020.

To increase the significance of this statistic, our state must now tackle the arduous tasks of unlocking the local market and discovering new markets.

We are, in particular, one of the countries whose borders are surrounded by land; the nearest sea is the Indian Ocean, and to reach it, we must pass through the territories of Afghanistan and Pakistan, and through the ports in Pakistan, we can deliver products to any part of the world via a cheap transport network. exists, but it is essential to first become a member of the WTO. If we sell our products to nations who are WTO members, we would face very high customs taxes, which will raise the price of our items and lead them to go unsold.

Tariff and notary limitations on items entering our nation are particularly strong in comparison, as evidenced by the percentage of customs fees in state budget collections.




Figure 5[15]

According to this graphic, the percentage of customs fees in the state budget in 2018 was 14.5%, and by 2022, it will be 22.7%, indicating a rise of 8.2% over the previous year.

14 Co-integration Analysis of Relationship between the Small Business Export Potential and Poverty Reduction in Uzbekistan. Ulugbek Tursunov

15 "Bojxona auditida bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar to'g'ri qo'llanilganligi". Azizov Sherzod O'ktamovich

Customs duty is 15% on goods other than genuine leather or composition leather, Men's or boys' coats, short coats, hats, raincoats, jackets (including ski jackets), windbreakers, windbreakers and the like, but not less than 3.0 USD/unit, 20% on refrigerators, freezers, and other refrigerating or refrigerating equipment, electric or otherwise, with a gross weight exceeding 5 tons, 70% + USD 3.0 on other goods vehicles with spark ignition If cm,[16] following tariff charges apply.

According to an Asia-Pacific Economic Cooperation (APEC) study, trade facilitation programs would bring APEC about 0.26 percent of real GDP, nearly double the expected gains from tariff cuts, and import price savings between 1 and -2 percent of import prices for the region's developing countries.

According to analysts, many small and medium-sized firms, which account for up to 60% of GDP generation in many nations, are not active players in international commerce, owing to red tape. Tariff barriers are more liquid than tariff barriers.

Administrative hurdles are frequently too high for enterprises who do not send big amounts of items on a regular basis to make international markets appealing.

Inefficiencies in sectors such as customs and transportation can stymie emerging nations' entry into the global economy and substantially harm export competitiveness or foreign direct investment flows. One of the reasons why developing-country exporters are increasingly interested in reducing administrative hurdles, particularly in other developing nations, which account for 40% of manufactured-goods exports today.[17]

President Shavkat Mirziyoyev has made aggressive moves to join the World Trade Organization. The presidential decree "On additional measures to ensure price stability in consumer markets" [PF-251][18] was adopted on November 17, and this applies to 22 types of goods (including fish, the application of zero import customs duty on fresh or dried citrus fruits (except lemons), margarine, and others) is a clear example of the increase in the population's real income and the acceleration of work for WTO membership.

The graph below depicts the current status of Uzbekistan's WTO admission.




Figure 6[19]

In recent years, concerted work has been done to hasten Uzbekistan's participation in the World Trade Organization (WTO), including global and bilateral discussions.

Last week saw the 7th meeting of the Working Group on Uzbekistan's WTO membership. During the meeting, topics such as trade of products and services, investment, customs, technical regulation, sanitary and phytosanitary, intellectual property rights, and others were discussed. It should be mentioned at this point that aligning national legislation with WTO agreements and regulations is the major link in expediting WTO membership concerns.

16 ILOVA № 1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaroriga 2018 yil 29 iyundagi PQ-3818-son
17 Briefing note: Trade facilitation – Cutting "red tape" at the border
18 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-martdagi PF-41-sonli Farmoni tahririda – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.03.2023 y., 06/23/41/0165-son)
19 World Trade Organization. https://www.wto.org/english/res_e/statis_e/daily_update_e/serv_latest.pdf

CONCLUSION

As a result, during the event, Deputy Minister of Justice Alisher Karimov gave a presentation regarding the changes in law enacted following the Working Group's sixth meeting, initiatives established to align national legislation with WTO agreements, and new measures. Also given to the WTO Secretariat was the revised Legislative Action Plan, which included new steps for aligning national legislation with WTO agreements, translations of adopted documents, and created projects. The Working Group meeting considerable success in the execution of the Legislative Action Plan was greatly appreciated by the participants at the close of the meeting, and it was announced that the work on legislative coordination would be maintained.[20]

Finally, it should be remembered that no country on the planet can grow alone. At the same time, Uzbekistan should join the World Trade Organization in order to export and sell its products on a global scale.

References:

1. ILOVA № 1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaroriga 2018-yil 29-iyundagi PQ-3818-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-martdagi PF-41-sonli Farmoni tahririda – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.03.2023 y., 06/23/41/0165-son).
3. "O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari''. Azimova Tamara Abrorovna Madraximova Ma'mura Maxmudjon qizi Tog'aynazarov Shaxzod Shavkat o'g'li Boymurodova Xosiyat Boboxon qizi.
4. Labour market and employment in Uzbekistan. Zulxumor Tojiyeva, Lutfullo Ibragimov.
5. Co-integration Analysis of Relationship between the Small Business Export Potential and Poverty Reduction in Uzbekistan. Ulugbek Tursunov
6. "The Paradox of American Power." Joseph S. Nye, Jr. Don K. Price
7. GATT and the Future of International Trade Institututions.John H. Jackso
8. Legalization, Trade Liberalization, and Domestic Politics: A Cautionary Note. Judith Goldstein and Lisa L. Martin\ Internet sahifalar.
9. World Trade Organization. https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/whatis_e.htm
10. World Trade Organization. https://www.wto.org/english/res_e/statis_e/daily_update_e/serv_latest.pdf
11. World Trade Organization. https://www.wto.org/english/res_e/statis_e/daily_update_e/serv_latest.pdf
12. World Trade Organization. https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/a1_ouzbekistan_e.htm
13. World Trade Organization. https://docs.wto.org/dol2fe/Pages/SS/directdoc.aspx?filename=Q:/WT/PC/W20.pdf&Open=True
14. World Trade Organization. https://docs.wto.org/dol2fe/Pages/SS/directdoc.aspx?filename=Q:/WT/ACC/UZB1.pdf&Open=True
15. https://adliya.uz/en/posts/ozbekistonning-jahon-savdo-tashkilotiga-azo-bolish

20 https://adliya.uz/en/posts/ozbekistonning-jahon-savdo-tashkilotiga-azo-bolish

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR



Abduqaxorov Ulug‘bek Abdug‘aniyevich
Toshkent moliya instituti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Maqolada jismoniy tarbiya va sport muassasalarini moliyalashtirishdagi mavjud muammolar o‘rganilgan. Jismoniy tarbiya va sportda tijoratlashtirish muammolari bo‘yicha xorijiy iqtisodchi olimlar fikirlari ko‘rib chiqilgan. Futbol akademiyalarini saqlash xarajatlari tahlil qilingan va sport muassasalarini moliyalashtirishdagi mavjud muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya va sport, Futbol akademiyalari, sport tashkilot, moliyaviy resurslar, moddiy boyliklar.

Abstract: The article examines existing problems in financing physical education and sports institutions. The opinions of foreign economists on the problems of commercialization in physical education and sports were considered. The costs of maintaining football academies are analyzed and the existing problems in the financing of sports institutions are identified and ways of their elimination are considered.

Key words: physical education and sports, football academies, sports organization, financial resources, material assets.

Аннотация: В статье рассматриваются существующие проблемы финансирования физкультурно-спортивных учреждений. Рассмотрены мнения зарубежных экономистов по проблемам коммерциализации в физическом воспитании и спорте. Проанализированы затраты на содержание футбольных академий, выявлены существующие проблемы финансирования спортивных учреждений и рассмотрены пути их устранения.

Ключевые слова: физическое воспитание и спорт, футбольные академии, спортивная организация, финансовые ресурсы, материальные ценности.

KIRISH

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “yoshlar o‘rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish, sport bilan muntazam shug‘ullanadigan aholi sonini oshirish, milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini, yurtimizning chekka hududlari va qishloqlarida sog‘lomlashtirish ishlarini hamda qishki va ekstremal sport turlarini yanada rivojlantirish” belgilangan. Shu bilan birga, mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma’naviy sog‘lomlikning asosi ekanini targ‘ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o‘z qobiliyat va iste’dodlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalar turibdi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratildi, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish va maqsadli tayyorlash ishlarini tizimli tashkil etish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

TADQIQOT METODOLOGIYA

Maqolada ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, induksiya va deduksiya, ekspert baholash usuli, statistik tahlil, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Shuningdek, jismoniy tarbiya va sportda tijoratlashtirish muammolari S.A.Ostrouxov va J.Rogge, moliyalashtirish masalalari N.V.Slobodyanyuk, S.M.Kuleshov, Yu.Pavlenko hamda sohada davlat xususiy sherikchilik munosabatlari investitsiyalarni jalb qilishning samarali usuli sifatida e'tirof etishgan.


Sportning tijoratlashtirilishi zamonaviy jamiyatning asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Bu borada, Xalqaro olimpiya qo'mitasi raisi J.Rogge sport va tijorat kompaniyalarning o'zaro aloqadorliklarini rivojlantirish zarurligi ta'kidlangan va qo'shimcha moliyalashtirish mablag'lari hajmining ortishi sportni mustaqilligini ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidlagan.

S.B.Repkinning fikricha, jismoniy tarbiya va sport sohasida tadbirkorlik faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega, ya'ni, mahsulot sifatida sport infratuzulmasi, uskunalari, moddiy va mehnat xarajatlari borasida katta hajmda kapital talabliligi va boshqalar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barcha sohalar singari jismoniy tarbiya va sport sohasida ham, asosiy muammolardan biri bu – moliyaviy ta'minot hisoblanadi. Moliyaviy ta'minotning keng qamrovliligi avvalo moliyaviy resurslarga bo'lgan talabni qondirishga qaratilganligini bildiradi. Chunki bozor iqtisodiyotining asosiy qonuniyatlaridan biri bu, soha va tarmoqlarning samarali faoliyat ko'rsatishi, moliyaviy ta'minotga bevosita asoslangan bo'lib, moliyaviy ta'minot esa, belgilangan joriy va istiqboldagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishga xizmat qilishi zarur.

Sport tashkilotlarida mavjud bo'lgan moliyaviy mablag'larning sarflanishi samaradorligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.



1-rasm: Sport tashkilotida moliyaviy resurslarni ishlatilish mexanizmi


Jismoniy tarbiya va sport sohasida respublika va xorijiy mamlakatlar olimlarining ilmiy tadqiqotlarini o'rganish asosida xulosa qilish mumkinki, jismoniy tarbiya va sport iqtisodiyotida yechimini kutayotgan qator muammolar mavjud.

Mazkur muammolar to'plami moliyaviy munosabatlarda o'z ifodasini topgan va ular jumlasiga, sohani moliyalashtirishda davlat va xususiy investorlar tomonidan moliyalashtirish mexanizmlarni takomillashtirish, moliyaviy munosabatlarning asosiy funksiyalarini tartibga solish va tizimlashtirish, daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash mexanizmlarini joriy qilish kabi o'ziga xos yo'nalishlarini kiritish mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport tizimini isloh qilishning 2025-yilgacha asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi: jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanayotgan aholining umumiy sonini 30 foizgacha, sport tashkilot va muassasalarida shug'ullanayotgan yoshlarning umumiy sonini 20 foizgacha oshirish; davlat sport ta'limi muassasalarida trener va mutaxassislarning sifat tarkibi, xususan, oliy ma'lumotli xodimlar sonini bosqichma-bosqich 80 foizgacha yetkazish; joylarda yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya)ning samarali va shaffof to'rt bosqichli – tashkilot-tuman (shahar)-hudud-respublika tizimini ishlab chiqish va joriy etish; O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tizimidagi sport maktablari o'quvchi-sportchilari o'rtasida "Bolalar sport o'yinlari"ni o'tkazish orqali iqtidorli sportchilarni aniqlash va yoshlar terma jamoalariga zaxira yaratish hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Talabalar sport o'yinlari"ni tashkil etish natijasida talabalarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish; aholining keng qatlamlari, jumladan, umumta'lim maktabi o'quvchilari, professional va oliy ta'lim muassasalari o'quvchi va talabalari o'rtasida jismoniy tarbiyani ommalashtirish, ular orasida iqtidorlilarini aniqlash maqsadida "Umumta'lim maktab sporti" festivali, "Jismoniy tayyorgarligi rivojlangan muassasa" ko'rik-tanlovini bosqichma-bosqich (tuman/shahar, hudud,

respublika) o‘tkazish tizimini ishlab chiqish va jismoniy tayyorgarlik darajasi rivojlangan eng yaxshi umumta’lim maktabi, professional va oliy ta’lim muassasasi nominatsiyasini joriy etish.

Quyidagi rasm ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu rasmda Futbol akademiyalarini saqlash xarajatlari keltirilgan. 2019-2023-yillar davomida saqlash xarajatlari o‘sish tendensiyalari kuzatilgan.



2-rasm: Futbol akademiyalarini saqlash xarajatlari (mln. so‘m)

So‘nggi yillarda xalqimizning salomatligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, millionlar o‘yini bo‘lgan va mamlakatimizda alohida o‘rin tutadigan sportning futbol turiga aholini, ayniqsa yoshlarni keng jalb etish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizda yuqori iqtidorga ega bo‘lgan yosh futbolchilarni tanlash, saralab olish (seleksiya) tizimi va futbol infratuzilmasini yanada rivojlantirish, futbol bo‘yicha sport maktablari faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish, soha mutaxassislarini tayyorlash va ularni moddiy rag‘batlantirish tizimini yaxshilash, o‘tkazilayotgan musobaqalar saviyasini yuksaltirish kabi masalalar dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Respublikadagi 12 mingdan ortiq sport inshootlarida yoshlarning 30 foizi qamrab olindi. “Yoshlar haftaligi”, “Xotin-qizlar haftaligi”, “Mahalla va nuroniylar haftaligi” va “Ta’lim muassasalari haftaligi” kabi shiorlar ostida aholining keng qatlamlarini sportga jalb etishga qaratilgan sport musobaqalarini o‘tkazish tizimi yaratildi. Sportchilarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan respublika sportchilariga umrbod oylik to‘lovlar to‘lanishi va ularning trenerlarini bir martalik pul mukofotlari bilan rag‘batlantirish mexanizmi joriy qilindi. Sohada malakali va zamonaviy kadrlar tayyorlash bilan birga sportda fan va amaliyotning bir-biri bilan uzviy aloqadorligini ta’minlash uchun bir qator yangi sport oliy ta’lim muassasalari tashkil etildi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida ommaviy sport tadbirlarini o‘tkazish, shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, sport ta’limi muassasalarida zamonaviy talablar asosida mashg‘ulotlar olib borishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda, shu jumladan:

- boshqaruv vertikalini amalga oshirish mexanizmi yetarlicha rivojlanmaganligi, tuman (shahar) jismoniy tarbiya va sport bo‘limlari vakolatlari chegaralanganligi ular rolining sezilarli darajada pasayishiga sabab bo‘lmoqda;
- boshqaruv tizimi va sport ta’limi muassasalari rahbarlari faoliyatining ochiqlik va shaffoflik darajasi yetarli emasligi, jamoatchilik nazorati yo‘lga qo‘yilmaganligi, ayrim rahbarlarda zarur mas’uliyat va tashabbuskorlikning yo‘qligi qo‘yilgan vazifalar hamda maqsadli ko‘rsatkichlar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;
- sport ta’limi muassasalariga iqtidorli bolalarni qabul qilish, shuningdek, o‘quv jarayonida turli shakldagi korrupsiya elementlariga barham berish bo‘yicha samarali mexanizmlarni joriy qilish talab etilmoqda;
- o‘quvchilar soni quvvatiga nisbatan ko‘p bo‘lgan hududlarda yagona bo‘lgan sport maktablarida sog‘lom raqobat muhiti yo‘qligi tufayli talab darajasidagi sport tayyorgarligi sifati ta’minlanmayapti;
- sport muassasalari trener va xodimlarni salohiyati o‘sishiga to‘sqinlik qilayotgan mezonlar va talablarning aniq tavsifi bo‘yicha standartlarning yo‘qligi sport muassasalari rahbarlarini tayinlash tartibining samarasiz bo‘lishiga olib kelmoqda;
- sport muassasalarini boshqarish jarayoniga ishni rejalashtirish va tashkil etishning zamonaviy innovatsion usullari, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari to‘liq joriy etilmaganligi samarali boshqaruv tizimi yaratilishiga to‘sqinlik qilmoqda;

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- sport muassasalari faoliyatiga bevosita rahbarlik qiluvchi ijro etuvchi hokimiyat organlari ishining ochiqlik va shaffoflik darajasi yetarli emasligi, jamoatchilik nazoratining zaifligi, ba'zan esa mutlaqo mavjud emasligi haddan tashqari byurokratiyaga va korrupsiyaning har xil shakllarda namoyon bo'lishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda sport xalqaro tashkilotlar, mutaxassislar va olimlar tomonidan, iqtisodiyotni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida tan olinganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, moddiy boyliklarni yaratishdan tashqari sport, moddiy boyliklarga ta'luqli bo'lmagan boyliklarni ham yaratadi va ular bevosita yoki bilvosita iqtisodiy o'sishga ko'maklashadi va uning poydevorlaridan biri sifatida xizmat qiladi. Demakki, jismoniy tarbiya va sportning iqtisodiy va ijtimoiy fenomenlarini inkor etib bo'lmaydi. Zero, tarixdan yaxshi ma'lumki, sport qadimgi mamlakatlarning nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan, balki aksariyat xollarda siyosiy mexanizmlardan biri sifatida ham foydalanilgan.

Mamlakatning iqtisodiy hayotida ham sportning roli katta bo'ladi, uni quyidagicha qayd etish mumkin. Jumladan: - yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi, yangi soliq to'lovchilar ko'lamini kengaytiradi. Yangi soliq to'lovchilarning paydo bo'lishi mamlakat miqiyosida soliq yukini pasaytirishga olib kelib, bu mamlakat miqiyosida iqtisodiy rivojlanishga bevosita va bilvosita turtki bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jismoniy tarbiya va sportning iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini tadqiq etish borasida amalga oshirilgan izlanishlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda sport xalqaro tashkilotlar, mutaxassislar va olimlar tomonidan, iqtisodiyotni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida tan olinganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan xulosa qilish mumkunki, moddiy boyliklarni yaratishdan tashqari sport, moddiy boyliklarga ta'luqli bo'lmagan boyliklarni ham yaratadi va ular bevosita yoki bilvosita iqtisodiy o'sishga ko'maklashadi va uning poydevorlaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli Farmoni.
2. Остроухов С.А. Предпринимательство в спорте или как формируется конкурентоспособность спортивных организаций.
3. Кулешов С.М. Финансово-экономические механизмы поддержки массового спорта: отечественный и зарубежный опыт // Transport business in Russia. –№2. –2017. –С.14-16.;
4. Павленко Ю. Международный опыт финансирования национальных спортивных федераций по результатам их деятельности // Наука в Олимпийском спорте. –№4. 2017. С.72-84.;
5. Гонашвили А. "Методологические основы социологии спорта" // Монография. –Санкт-Петербург. –2017. –С.52.
6. Демченко М.В., Шведова А.Д. Правовое регулирование киберспорта в России и за рубежом // Инноватика и экспертиза: научные труды. –2019. –№2 (27). –С.91.
7. До Кеон Ву (Do Keon Woo). Управление физической культурой в странах Дальневосточной Азии. автореф. дис. … канд пед.наук. –СПб. –2000. –36 с.
8. Жолдак В.И., Коротаева Н.В. Социология физической культуры и спорта. –Учебное пособие. –Малаховка. –1994.
9. Зайцева И. Спорт глазами экономиста: современное состояние предмета / Вопросы экономики. –2015. –С.100-120.

YANGI O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING DRAYVER SIFATIDA BARQAROR RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI



Tuxliyev Iskandar Suyunovich
I.f.d., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Turizm” kafedrasi professori

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekiston hududlarida turizmning drayver sifatida barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan yo‘nalishlari asoslangan va turizm sohasini O‘zbekiston iqtisodiyotning kuchli drayveriga aylantirish uchun institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish mexanizmlari taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyotining strategik sektori, turizm sohasi iqtisodiyotining drayveri, xalqaro reytinglar, fundamental takliflar, institutsional o‘zgarishlar mexanizmlari.

Abstract: The article focuses on the areas that ensure the sustainable development of tourism as a driver in the territories of New Uzbekistan, and proposes mechanisms for implementing institutional changes that will make the tourism sector a strong driver of the economy of Uzbekistan.

Key words: strategic sector of the economy, economic driver of the tourism sector, international ratings, fundamental proposals, mechanisms of institutional changes.

Аннотация: В статье акцентировано внимание на направлениях, обеспечивающих устойчивое развитие туризма как драйвера на территориях Нового Узбекистана, и предложены механизмы реализации институциональных изменений, позволяющих сделать туристический сектор сильным драйвером экономики Узбекистана.

Ключевые слова: стратегический сектор экономики, драйвер экономики туристического сектора, международные рейтинги, фундаментальные предложения, механизмы инстит-уциональных изменений.

KIRISH

Hozirgi paytda Yangi O‘zbekistonda turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida jadal rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasida turizm sohasini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiyotdagi roli va ulushini oshirish, turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va sifatini oshirish, turizm infratuzilmasini kengaytirishning muhim yo‘nalishlari belgilandi. Bunda mahalliy sayyohlar sonini 12 million kishiga yetkazish va respublikaga kelayotgan xorijiy sayyohlar sonini 9 million kishiga yetkazish ustuvor vazifalar qatoriga qo‘yildi [1].

Shu tufayli O‘zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonining ko‘payishi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi maqsadlarida ham o‘z ifodasini topgani bejiz emas [2]. Bularning barchasi respublikamizda sayyohlar oqimini ko‘paytirish, turizm xizmatlari hajmini oshirish borasida ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning sifatidan dalolat beradi.

Turizmni milliy iqtisodiyotining strategik sektori, ya’ni drayveri sifatida tan olinishi, uni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratishga, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada samarali foydalanishga, unga yondosh bo‘lgan iqtisodiyot tarmoqlarini klaster usulida rivojlantirishga, milliy turizm brendini yaratish va uni jahon bozorlarida targ‘ibot qilishda O‘zbekistonning ijobiy qiyofasini namoyon etish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Bugungi kunda turizm ko‘plab zamonaviy mamlakatlar iqtisodiyotining drayveri hisoblanadi: budjet daromadlaridan tashqari, transport va kommunikatsiya, qurilish va qishloq xo‘jaligi, sanoatining rivojlanishini rag‘batlantiradi, bu esa o‘z navbatida qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilishiga olib kelmoqda. Butunjahon turizm va sayohatlar kengashi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, pandimiyaga qadar dunyo bo‘ylab turizm 300 milliondan ziyod ishchi o‘rinlar bilan ta’minlagan bo‘lsa,10 yildan keyin bu ko‘rsatkich yana 100 millionga ko‘payishi kutilmoqda.

Yangi O‘zbekiston turizm industriyasini milliy iqtisodiyotining drayveriga aylantirish uchun barcha zaruriy manbalarga ega bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan vatanimiz qulay tabiiy-iqlim sharoitiga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga egaligi jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Turizm sohasini rivojlantirish, hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanishning nazariy-metodologik jihatlari ko‘plab xorijlik olimlar, jumladan: A.Yu.Aleksandrova, I.T.Balabanov, M.B.Birjakov, V.A.Kvartalnov, A.D.Chudnovskiy hamda mahalliy olimlardan M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, B.N.Navro‘z-zoda, A.A.Eshtayev, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, D.X.Aslanova, B.Sh.Safarov, S.A.Abduxamidov va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida turizm sohasini rivojlantirishning xalqaro va milliy tajribalari bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar o‘rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida ilmiy-nazariy mushohada, kuzatish va tanlab olish, qiyosiy tahlil, tizimli va vaziyatli yondashuvlar kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm nazariyasi va amaliyoti tahlillaridan ma’lumki, turizm sohasi mamlakatlar, hududlar, shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim drayveri hisoblanadi. Jahon mintaqalarida turizm, tadbirkorlik sohasi sifatida rivojlanib, aholi bandligi va o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlashni faollashtirish, shahar muhitini yaxshilash, mahalliy hamjamiyatning turmush sifati va soliq tushumlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda turizm iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida belgilanishi natijasida, keyingi 7 yil davomida sohani jadallik bilan rivojlantirishga qaratilgan xukumat tomonidan 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar, Farmon va qarorlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasida 2022-2026-yillarda turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi.

Turizm sohasidagi olib borilayotgan islohatlarning natijasi ularoq, xorijiy fuqarolaridan yurtimizga viza talab etilmaydigan mamlakatlar soni 9 tadan 100 taga yetkazildi, 77 ta davlat uchun “elektron viza” tizimi joriy etildi va 109 davlat fuqarolariga O‘zbekiston Respublikasida yashash huquqi berildi. Turizm uchun qiyin bo‘lgan joriy yilda sohadagi subyektlar har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda va ularga subsidiya va ssudalar ajratilmoqda.

Mamlakatimizga 2022-yil davomida tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 5,2 million nafar (yillik reja-2,7 million nafar)ni tashkil etgan, 2023-yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan turistlarning soni 7,0 million nafar bo‘lib, 2022-yilga nisbatan 133,7 foizga oshgani aniqlandi. O‘zbekistonga kelgan turistlarning sayohat davomiyligi 4-5 kungacha, sarflagan mablag‘lari 305 dollargacha ko‘paygani (bu 2019-yilda o‘rtacha 3 kunni tashkil etib, sayyohlar 195 dollar sarflagan) natijasida pandemiyadan keyin turizmni qayta tiklanish holati boshlanganidan dalolat beradi.

Turizm sohasini iqtisodiyotining drayveri bo‘lishiga sabablar, turistik mahsulotni shakllantirishda asosiy xarajatlarning 77,6 foizi turizmga yondosh bo‘lgan xizmat ko‘rsatuvchi 40 dan ortiq tarmoq va tashkilotlar xarajatlariga to‘g‘ri keladi. Turizmni yondosh tarmoqlar bilan birgalikdagi rivojlanishini hisobga olgan xoldagi hisob-kitoblar, bandlik borasida yiliga kamida 112 mingdan ziyod qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish imkoniyati borligidan dalolat beradi. Bu o‘z navbatida turizmning multiplikativ samarasida boshqa tarmoqlarining ham bevosita va bilvosita salmoqli o‘rni borligini ifodalaydi.

Yangi O‘zbekistonda turizm sohasini iqtisodiyotning yetakchi strategik sektoriga aylantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olinganligi tufayli turistik-rekreatsion xizmatlar samaradorligini oshirish zarurati raqamli iqtisodiyot sharoitda davlat ahamiyatiga molik vazifaga aylanmoqda. Shu tufayli hozirgi paytda O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy me’rosga, noyob tabiiy salohiyatga ega bo‘lgan mintaqalari uchun zaruriy raqamli texnologiyalardan foydalangan xolda turistik-rekreatsion obyektlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini hamda turistik firma va mehmonxonalar xizmatlarini raqamlashtirish ishlarini olib borish lozim bo‘lmoqda [3].

Iqtisodiyotni raqamlashtirishda xilma-xil ma’lumotlar, ta’lim, ilmiy, ko‘ngilochar kontentni taqdim etadi, uni tezroq, yaxshiroq va qulayroq qiladi. Bu o‘z navbatida to‘lovlar narxini pasaytiradi va yangi daromad manbalarini ochadi. Onlayn muhitda turistik xizmatlarning narxi an’ana-viy iqtisodiyotga qaraganda ancha past bo‘ladi (birinchi navbatda, reklama xarajatlarining pastligi tufayli) davlat va tijorat xizmatlardan foyda-lanish oson kechadi. Bundan tashqari, raqamli dunyoda tovar va xizmatlar tezda jahon bozoriga chiqishi, dunyoning istalgan nuqtasida mavjud bo‘lishi mumkin. Muhimi taklif etilayotgan turistik mahsulot iste’molchilarning yangi talablari yoki talablarini qondirish uchun deyarli bir zumda o‘zgartirilishi, qayta ko‘rilishi mumkin.

Raqamli platformalar mamlakat turizm industriyasini rivojlanti-rishda bugun hal qiluvchi rol o‘ynamoqda va bundan keyin ham shunday bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar bu yil va kelgusi yillarda ham O‘zbekistonda turizm industriyasining pandemiyadan keyingi tiklanish holati sababli muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Hozirgi sharoitda turizm sohasining ahamiyati va uning xalqaro, jumladan hukumatlararo va shaxslararo munosabatlarga ta’siri ham doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Turizmni avvalambor mamlakatlar va qit’alar o‘rta-sidagi munosabatlar jihatidan olib qaralganda, xalqaro turistik aloqalar qanchalik muntazam ravishda tus olsa, jahon iqtisodiyoti shunchalik oldindan bashorat qilinishi, dunyo kon’yunkturasi esa shunchalik barqaror bo‘lishi mumkin bo‘ladi [4].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Turizm sohasini O‘zbekiston iqtisodiyotining kuchli drayveriga aylantirish maqsadida uning quyidagi xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilash vazifalari belgilandi:

- UNWTO turizm tez rivojlanayotgan mamlakatlar ro‘yxati reytingida 2019-yildagi 4-o‘rindan 2026-yilda 3-o‘ringa erishish, sayyohlar uchun xavfsiz mamlakatlar reytingi (180 mamlakatlar orasida) 2020 yildagi 46-o‘rindan 2026-yilda 20 ta eng xavfsiz mamlakatlar ro‘yxatiga kirish;
- Global Muslim Travel Index halol turizm reytingi 2020-yildagi 7- o‘rindan 2026-yilda 3-o‘ringa erishish va Sayohat va turizmning raqobatbar-doshligi indeksida O‘zbekistonni 2026-yili birinchi 50 talikka kiritish maqsad qilib belgilandi.
- O‘zbekiston turizmidagi islohatlarning qator xalqaro e’tiroflari sifatida Ispaniyaning Madrid shahrida bo‘lib o‘tgan Birlashgan millatlar tashkilotining Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assam-bleyasi 2023 yilda Samarqand shahrida o‘tkazilishi bo‘ldi. Ushbu Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 25-sessiyasida davlatimiz rahbari nutqi [5] davomida qator dolzarb va fundamental tak-liflarni ilgari surdilar:
- Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqish;
- Tashkilotning “Yashil” turizmni joriy etish bo‘yicha eng yaxshi shahar” nominatsiyasini ta’sis etish;
- Tashkilot doirasida 2025-yilni “Butun jahon inklyuziv turizm yili” deb e’lon qilish va maxsus deklaratsiya qabul qilish;
- Butunjahon turizm tashkiloti huzurida Sayyohlik bo‘yicha tarixiy shaharlar kengashini tuzish;
- Butunjahon turizm tashkilotining Xalqaro turizm akademiyasida iqtidorli mutaxassislar uchun maxsus grantlarni taqdim etadi;
- Jahon yoshlar turizmi sammitini Toshkentda o‘tkazish;
- “Ipak yo‘li” brendini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun Tashkilotning maxsus xalqaro mukofotini ta’sis etish;
- Yetakchi ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar va eng yaxshi sayohat blogerlarini o‘zida birlashtir-adigan Global media kampusinini tashkil etish. Shuningdek, sayyohlik bo‘yicha tarixiy shaharlar ken-gashining birinchi yig‘ilishini qadimiy Buxoro shahrida, birinchi global media kampusni mamlakatimizda o‘tkazish tashabbusi bildirildi.

UNWTO Bosh Assambleyasi 25-sessiyasida davlatimiz rahbari tomonidan turizm sohasi bo‘yicha belgil-angan fundamental takliflar bugungi kunda na faqat O‘zbekiston turizmi uchun balki dunyoning barcha minta-qalarida global turizm industriyasini jadal rivojlantirish va uni jahon iqtisodiyoti drayverlaridan biriga aylanti-rishga xizmat qiladi.

Yurtboshimiz belgilagan fundamental takliflarni amalga oshirishda turizm sohasini O‘zbekiston iqtisodiyot-ning kuchli drayveriga aylantirish uchun quyidagi institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish mexanizmlari taklif qilinadi:

- mavjud turizm statistikasini qayta ko‘rish, chunki yangi O‘zbekistonda real raqamlar asosida real vazifa qo‘yilmoqda, buning natijasida turizmning real daromadini, investitsiyalar bo‘yicha prognozlarni va infratizimni rivojlantirishni hisob-kitob qilish vaqti keldi. Bu kelgusida mamlakatga tashrif buyurayotgan xorijiy turistilar va ichki turistlar sonini aniq hisobga olish, ularning mamlakat hududlaridagi xarajatlarini aniqlash hamda turizmning mamlakat YAIM qo‘shgan real hissasini multiplikativ samara orqali hisob-lash imkoniyatini beradi [6].

- turizm sohasini O‘zbekiston iqtisodiyotining kuchli drayveriga aylantirish uchun asosiy turistik resurslarning hamda unga yondosh bo‘lgan sohalar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish, turizmdagi raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash va axborot tizimlariga asoslangan turizm marketingi bo‘yicha tadqiqotlar olib borish;
- milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan turistik-rekreatsion klasterning institutsi-onal bazasini yaratish va O‘zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sherikchilik institutini shakllantirish, pandemiyadan keyingi turizmni rivojlantirishning strategik rejalarini ishlab chiqish. Turizm sohasida klaster konsepsiyasini qo‘llanilishi, zamonaviy turizm industriyasi muammolarini yechish imkoniyatini beradi, bular qatoriga: hudud turistik salohiyatini yetarli darajada baholanmasligi, kirish turizmiga nisbatan past darajadagi talab, infratuzilma yetarli darajada rivojlanmaganligi, investorlarning past darajadagi qiziqishi, turizmni rivojlantirish strategik dasturlarning tayebiq etilish mexanizmlari va usullarining nomukammalligi kiradi.

Xulosa qilib aytganda bugun turizm barcha mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining umume’tirof etilgan drayveri hisoblanadi, chunki uning muvaffaqiyatli faoliyati ko‘plab ijobiy omillarni (yangi ish o‘rinlarini yaratish; infratuzilmani rivojlantirish; budjet tizimining daromadlar qismini to‘ldirish; madaniy meros obyektlarni saqlash; turistning ma’naviy va jismoniy kuchini tiklash va boshqalar) rivojlantirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Farmoni.www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 y. PF-158-son “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son.
3. Tuxliyev I.S., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik (Uchinchi nashr) –T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, –2021. –424 bet.
4. Tukhliev, I. S., & Abdukhamidov, S. A. (2021). Strategic planning processes in regional tourism in the digital economy. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 2(5), 22-27.
5. Бутунжаҳон туризм ташкилоти Бош Ассамблеяси 25-сессиясида давлатимиз раҳбари нутқи. https://president.uz/uz/lists/view/6763
6. Turizm atamalarining izohli lug‘ati/I.S.Tuxliyev, M.E.Po‘latov, A.Sh.Berdimurodov. – Samarqand, “Navro‘z”. –2021. –248 bet.

MAHALLIY SOLIQLAR VA YIG‘IMLARNING IQTISODIY MOHIYATI HAMDA ULARNI UNDIRISHNING XUSUSIYATLARI



Tuychiyev Kamoliddin
Alfraganus universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada mahalliy budjet daromadlarini ko‘paytirishda, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda hamda zarur moliyaviy mablag‘larni shakllantirishda mahalliy soliqlar va yig‘imlarning ahamiyatini oshirish masalalari o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mahalliy budjet, mahalliy soliqlar, mahalliy yig‘imlar, mahalliy hokimiyat vakillari, daromad manbalari, zaxiralarni aniqlash.

Abstract: The article examines the issues of increasing the importance of local taxes and levies in increasing local budget revenues, ensuring socio-economic development of regions, and forming the necessary financial resources.

Key words: local budget, local taxes, local fees, representatives of local authorities, sources of income, determination of reserves.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы повышения значения местных налогов и сборов в увеличении доходов местных бюджетов, обеспечении социально-экономического развития регионов, формировании необходимых финансовых ресурсов.

Ключевые слова: местный бюджет, местные налоги, местные сборы, представители местных органов власти, источники доходов, определение резервов.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning hozirgi sharoitida mamlakatimiz hududlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda mahalliy budjetlarning o‘rni va ahamiyati muhim hisoblanadi. Mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishning turli moliyaviy manbalari bo‘lsada, ularning birlamchi daromad manbai hisoblangan mahalliy soliqlar va yig‘imlarning ahamiyatini oshirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida erishilayotgan muvaffaqiyatlar hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona iqtisodiy siyosatning samarasidir. Hurmatli Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, 2019-yildan boshlab joriy etilgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g‘oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo‘llashni ko‘zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin.

Afsuski, yalpi ichki mahsulotda “yashirin” iqtisodiyotning ulushi hali ham yuqori bo‘lib, bu mamlakat rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Soliq yukini kamaytirish, biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish “yashirin” iqtisodiyotga barham berishning yagona yo‘lidir. Shuning uchun bu borada ta’sirchan choralarni nazarda tutadigan alohida dastur ishlab chiqishimiz zarur. Bundan tashqari, o‘zimizda ishlab chiqarilgan va import qilinayotgan yuqori likvidli mahsulotlar markirovkasini joriy etish bo‘yicha jadal ish olib borish talab etiladi.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida mamlakat taraqqiyotining tayanchi bo‘lgan insofli, halol soliq to‘lovchilarni rag‘batlantirish, yashirin faoliyat yuritadiganlarni esa jazolash ko‘zda tutilishi shart. Ma’lumki, soliq stavkalari pasaytirilishi yoki ayrim soliqlar bekor qilinishi bilan budjetga tushadigan mablag‘ albatta kamayadi.

Buni samarali soliq ma’muriyatchiligi orqali bartaraf etish va budjet barqarorligini ta’minlash mumkin. Aynan shunga erishish birinchi galdagi vazifamizdir. Soliq yukini kamaytirish hisobiga barchaga bir xil adolatli soliq rejimini joriy etish, soliq imtiyozlarini bosqichma-bosqich bekor qilish lozim[1].

Bunday sharoitda budjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va yig‘imlarning rolini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi gazetasi. 2018-yil 28-dekabr.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 30-dekabrdagi “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-287-son Farmoni, 2022-yil 30-dekabrdagi “Soliq va budjet siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-812-son Qonuni, 2022-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-471-con qarori, 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3856-son “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mahalliy soliqlar va yig‘imlarni o‘z vaqtida undirishga xizmat qiladi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon’yunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda soliq tizimi mustaqillik yillaridan to hozirgi kunga qadar jadal sur’atlar bilan rivojlanib kelmoqda. Mamlakatimizda yaratilgan soliq tizimi mukammal darajada ishlab chiqilgan bo‘lsa ham mutaxassislar izlanishlardan to‘xtashayotgani yo‘q. Mamlakatni yanada rivojlantirish, soliq tizimida yangidan-yangi o‘zgarishlar qilishda davom etishmoqda. Soliqlar tarkibi ham optimal darajaga yetkazilmoqda. Shunga qaramasdan, mahalliy budjetlarning, ayniqsa qishloq tumanlarida mahalliy soliqlar va yig‘imlarning mahalliy budjetlarni shakllantirishdagi ahamiyati sezilarli darajada emas. Ana shunday sharoitda budjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlarning rolini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Budjet daromadlarini shakllantirish va unda mahalliy soliqlarning rolini aniqlashda budjet daromadlarini shakllantirishning mohiyati va uning prinsiplariga e’tibor qaratish lozim. Bu masalalarga aniqlik kiritmasdan budjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar rolini oshirish masalasini oqilona hal qilishning iloji yo‘q. Shunday bo‘lishiga qaramasdan budjet daromadlarini shakllantirishning mohiyatini aniqlashni budjet daromadlarining mohiyatini aniqlamasdan turib tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu sababli quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- budjet daromadlarining mohiyatini yoritish;
- budjet daromadlarini shakllantirishning mohiyatini aniqlash;
- budjet daromadlarini shakllantirish prinsiplarini tahlil qilish.

Haqiqatdan ham budjet daromadlarini shakllantirish va unda mahalliy soliqlarning rolini oshirish masalasini oqilona hal etish uchun yuqorida keltirilgan masalalarga e’tibor berish lozim. Budjet daromadlari bo‘yicha moliya sohasi iqtisodchilari turlicha fikrlar bildirgan. Jumladan, iqtisodchi L.Drobozinaning fikricha, budjet daromadlari – bu budjetga jalb qilinadigan soliqli va soliqsiz mablag‘lardir. M.Afanasev nazarida “budjet daromadlari” – bu amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda tiklanmaydigan va qaytarilmaydigan tartibda davlat hokimiyat organlari va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining ihtiyoriga kelib tushadigan pul mablag‘lari hisoblanadi.

Professorlar M.Romanovskiy, O.Vrublevskaya va B.Sabantilar budjet daromadlarining mohiyatini ifodalovchi quyidagi ta’rifni berganlar, ya’ni budjet daromadlari davlat hokimiyati va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari ihtiyoriga mamlakatda amal qiladigan budjet va soliq qonunchiligiga muvofiq ravishda tiklanmaydigan va qaytarilmaydigan tarzda kelib tushadigan pul mablag‘laridir.

Budjet daromadlarining mohiyatini ifodalash maqsadida yuqorida keltirilgan ta’riflardan ko‘rish mumkinki, ular shaklan bir-biridan farq qiladi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, ular mazmun-mohiyati jihatidan bir-biridan mohiyatan keskin farq qilmaydi. Chunki ularning barchasida budjet daromadlarining budjetga jalb qilinadigan mablag‘lar ekanligi u yoki bu tarzda e’tirof etilmoqda.

Mahalliy budjetlarning daromadlarini shakllantirish manbalari ham keltirilgan bo‘lib, ularga:

1) belgilangan me’yorlarga muvofiq umumdavlat soliqlari, shu jumladan:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
- aylanmadan olinadigan soliq;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq;
- qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- aksiz solig‘i;
- yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

2) mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, shu jumladan:
- mol-mulk solig‘i;
- yer solig‘i;
- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish uchun yig‘im;

3) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
4) bozorlardan tushadigan daromadlar;
5) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar, qonun hujjatlariga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga yo‘naltiriladigan davlat bojlari, yig‘imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo‘yicha davlat ihtiyoriga o‘tgan mol-mulkni, huquq bo‘yicha davlat daromadiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

Respublikamizda o‘ziga xos soliq tizimi shakllantirilgan bo‘lib, mavjud soliqlar bir tomondan davlat budjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa tadbirkorlik faoliyati rivojlanishini rag‘batlantirishga qaratilgandir. Ana shu ikki tomonlama munosabatlarning uyg‘unligini ta’minlash maqsadida iqtisodiyotning barcha sohalarida bo‘lgani kabi soliq tizimida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda va ularning nazariy hamda amaliy jihatlari, natijalari turli darajada o‘rganilmoqda.

Tarixan soliqlar, davlatni saqlab turish uchun zarur bo‘lgan majburiy to‘lovlar sifatida, davlat paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan. Soliqlar, davlat faoliyat ko‘rsatishining moddiy asosini tashkil etadi, ularning iqtisodiy tabiati xuddi shu yerdan kelib chiqadi. Davlat soliqlarsiz mavjud bo‘la olmaydi, soliqlar bu davlatning ajralmas qismidir. Demak, davlat va davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning mavjudligi, soliqlarni amal qilishini taqozo etadi.

Mahalliy soliqlar va yig‘imlarni joriy etishdan asosiy maqsad mintaqani rivojlantirish manbaini vujudga keltirish, tabiiy va boshqa moddiy resurslarni takror ishlb chiqarish, davlat hokimiyati organlarining faoliyat ko‘rsatishi uchun shart-sharoit yaratishdir.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, davlat hokimiyati mahalliy organlarining qarorlari bilan belgilangan, ular tomonidan o‘z vakolatiga muvofiq ravishda mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ishlatiladigan soliqlar mahalliy soliqlar hisoblanadi.

Mahalliy yig‘imlar – bu O‘zbekiston Respublikasi qoununlari, davlat hokimiyati mahalliy organlarining qaroriga muvofiq belgilangan, yuridik va jismoniy shaxslarga ularga ko‘rsatilgan madaniy-maishiy xizmatlar yoki davlat hokimiyatining mahalliy organlari nazorati ostida o‘tkaziladigan boshqa tadbirlarning chiqimlari bilan bog‘liq xarajatlarni qisman qoplash uchun undiriladigan to‘lovlardir.

Respublikamiz budjet-soliq qonunchiligiga muvofiq mahalliy soliqlar va yig‘imlar mahalliy davlat hokimiyati idoralarining daromad manbai hisoblanib, ular hozirga qadar davlatchilik munosabatlari rivojlanishiga mutanosib ravishda shakllanib, takomillashib keldi. Agarda respublikamizning bozor munosabatlariga o‘tishi bilan bog‘liq turli sohalarda amalga oshirilgan va davom ettirilayotgan islohotlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mahalliy hokimiyat idoralarining mavqeini oshirish borasidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday chora-tadbirlarning aniq yo‘nalishi mahalliy davlat hokimiyati organlarining daromad manbaini mustahkamlashga qaratilgandir. Bu boradagi islohotlarning ilk huquqiy asoslaridan biri, shubhasiz 1993-yil 7-mayda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida”gi qonunidir. Ushbu qonunga muvofiq respublikada mahalliy soliqlar va yig‘imlar joriy qilindi. Ularni joriy etishdan maqsad mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish manbaini vujudga keltirish, tabiiy va boshqa resurslarni qayta ishlab chiqarish, davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarining faoliyat ko‘rsatishi uchun shart-sharoit yaratish qilib belgilandi.

Mamlakat soliq tizimidagi islohotlarning muhim yo‘nalishi mahalliy soliqlar va yig‘imlarni takomillashtirishga qaratilgan. Bu borada birgina ularning tarkibidagi o‘zgarishlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, shuni alohida qayd etish lozimki, ular yuqoridagi qonunga muvofiq joriy etilgan paytda 17 turda amal qilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilinishi bilan 8 turda undirila boshlandi. Hozirgi paytga kelib esa ularning faqatgina 5 turi amal qilib, 2 turdagi soliq va 1 turdagi yig‘im sifatida undirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 17-moddasiga muvofiq mahalliy soliqlar va yig‘imlarga quyidagilar kiradi:
- mol-mulk solig‘i;
- yer solig‘i;
- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘im[2].

2 O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (2022-yil 27-iyuldagi o‘zgarishlar bilan) https://lex.uz/ru/docs/4674893

Mahalliy soliqlar va yig‘imlar joriy etilgan paytdan shu kunga qadar ular tarkibidagi o‘zgarishlar nafaqat son jihatdan, shuning bilan birga mohiyat jihatdan ham keng ko‘lamli o‘zgarishlarga erishildi. Bugungi kunga kelib ularning yangi turlari joriy etildi va amaliyotda samarali qo‘llanilib kelinmoqda.

Mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlash, xarajatlarini barqarorlashtirish, ularning daromad bazasini kengaytirib borish dolzarb masalalardan biridir. Mahalliy budjetlarning daromad bazasi hududlarida yaratilayotgan milliy daromad, ya’ni ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi, daromadlarning doimiy va bir maromda tushishi bilan bevosita bog‘liqdir. Mahalliy budjetlar daromadlarini oshirishning ichki rezervlari hududlarda ishlab chiqarishning rivojlanishi, joylarda iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bilan chambarchas bog‘liq. Mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish har bir hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Respublikamiz soliq tizimidagi mavjud mahalliy soliqlar va yig‘imlarga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarning ayrimlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- mahalliy soliqlar va yig‘imlar mahalliy davlat hokimiyati idoralari tasarrufida bo‘lgan hududlar ehtiyojlari uchun ishlatiladi;
- ularning asosiy qismi mahalliy davlat hokimiyati idoralarining bevosita o‘zlari tomonidan joriy etiladi;
- ularni huquqiy jihatdan tartibga solishda mahalliy davlat hokimiyati idoralariga bir qadar vakolatlar berilgan bo‘lsada, respublika qonunchiligi bilan ham hisoblashishni talab etadi.

Hozirda mahalliy budjetning o‘tgan yillarga qaraganda asosiy farqlaridan biri shuki, har bir shahar va tumanlarda umumiy xarajatlarining 1 foizi miqdorida hokimliklarning zaxira jamg‘armasini shakllantirishiga ruxsat berildi. Ilgari ushbu zaxira jamg‘armasi faqat viloyat hokimligida mavjud bo‘lgan. 2018-yildan esa barcha shahar va tumanlar hokimliklarida tashkil etildi.

Mazkur zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hududiy hokimliklar tomonidan yil davomida budjetda ko‘zda tutilmagan, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha qo‘shimcha xarajatlarni moliyalashtirish uchun sarflanishi belgilangan.

Shuningdek, yuqorida tahkidlangan qarorda mahalliy budjetning daromadlarining asosiy manbasi bo‘lgan soliqlar va yig‘imlarning 2018-yilga mo‘ljallangan stavkalari tasdiqlandi va quyidagilar budjetlararo munosabatlarni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

- mahalliy budjetlarning daromad bazasini mustahkamlash, ular xarajatlarining tasdiqlangan parametrlarini o‘z vaqtida va maqsadli moliyalashtirish, ijtimoiy soha hamda infratuzilma obyektlarini yanada rivojlantirish va tegishli darajada saqlashni tahminlash yuzasidan mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda moliya va soliq organlarining javobgarligini kuchaytirish;
- tegishli budjetlarning daromadlarini shakllantirish qismida mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjetga oid vakolatlarini aniq-puxta chegaralash;
- soliqlar va yig‘imlarning bahzi turlari bo‘yicha tushumlarni mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufida qoldirish hisobiga ularning o‘z daromad bazasini kengaytirishdagi faoliyatini kuchaytirish;
- yirik soliq to‘lovchilardan tushadigan ba’zi soliq turlari bo‘yicha tushumlarni respublika budjeti hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari, tumanlar va shaharlar budjetlari o‘rtasida taqsimlash;
- tumanlar va shaharlarning bir tekis rivojlanishini rejalashtirish uchun joylardagi davlat hokimiyati organlariga mahalliy soliqlarning ayrim turlari bo‘yicha stavkalarni pasaytirish va oshirish vakolatlarini berish;
- ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xarajatlarni va ko‘zda tutilmagan sarf-xarajatlarni moliyalashtirishda mahalliy davlat hokimiyati organlari mustaqilligini oshirish.

Umuman olganda, mahalliy soliqlar va yig‘imlarning mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini oshirish boorish maqsadida ularni doimiy ravishda tahlil qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi “Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5075-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-martdagi “Jahon banki ishtirokidagi “Soliq ma’muriyatchiligini isloh qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-178-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (2022-yil 27-iyuldagi o‘zgarishlar bilan) https://lex.uz/ru/docs/4674893
5. Jo‘rayev A.S., Amanov A.M., Shodiyev O.A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2020. –360 b.
6. Amanov A.M. Prioritetnыe napravleniya sovershenstvovaniya nalogovoy sistemы Respubliki Uzbekistan // EKONOMIKA I BIZNES: teoriya i praktika jurnal. –№5. –2017. Str. –17-20.

TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG‘OR TAJRIBALARI VA ULARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Yadgarov Nodir Ravshanovich
TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion moliyaviy vositalar va mahsulotlarni ishlab chiqish, kapitallar va moliyaviy texnologiyalarni bir-biriga transformatsiyalashuv jarayonlarini kuchayishi, ichki moliya bozorlarini tartibga solish, xalqaro banklarni rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlari, jahon moliya markazlari va institutlari o‘rtasidagi aloqalarni va integratsiyani mustahkamlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: tijorat bank, bank xizmatlari, startap, moliyaviy menejment, innovatsiyalar.

Abstract: In this article, innovation consists in strengthening the processes of developing financial instruments and products, transforming capital and financial technologies into each other, regulating domestic financial markets, developing international banks, strengthening ties and integration between national economic networks, global financial centers and institutions.

Key words: commercial banking, banking services, startup, financial management, innovation.

Аннотация: В этой статье инновация заключается в усилении процессов разработки финансовых инструментов и продуктов, трансформации капитала и финансовых технологий друг в друга, регулировании внутренних финансовых рынков, развитии международных банков, укреплении связей и интеграции между сетями национальной экономики, мировыми финансовыми центрами и институтами.

Ключевые слова: коммерческий банкинг, банковские услуги, стартап, финансовый менеджмент, инновации.

KIRISH

Jahon amaliyotida bank xizmatlari sohasida iste’molchilar bilan munosabatlarni boshqarish va mijozlar bilan ishlash borasida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb muammoga aylangan. Jahon moliya bozoriga kirib kelayotgan yangi startaplar va nobank institutlarning ko‘payib borishi a’naviy bank xizmatlarini taqdim etuvchilar uchun yangi mijozlarni jalb qilish va mavjud mijozlarni saqlab qolishga qaratilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqishni yanada dolzarblashtirib bormoqda. Ushbu holatlar moliya bozorining faol ishtirokchilari hisoblangan tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda mijozga yo‘naltirilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish kabi muhim vazifalarni qo‘ymoqda.

O‘zbekistonda tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirish va zamonaviy bank xizmat turlarini joriy etish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. O‘zbekiston bank tizimini isloh qilishda banklarning barqarorligi va likvidliligi o‘sish sur’atlarini ta’minlashning asosiy sharti sifatida raqobatli bozor sharoitida mijozga yo‘naltirilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish lozim. Banklarning raqobatbardoshligini, mijozlarning bankka bo‘lgan ishonchini oshirish borasidagi muammolarni aniqlashga qaratilgan marketing tadqiqotlarini olib borish va mavjud muammolar hamda imkoniyatlar sezilarli darajada o‘rganilmaganligi, bankning yuqori raqobatli bozorda mijozlarning ehtiyojlarini to‘liq qondirish va sof raqobat sharoitida daromad yaratish qobiliyatini uzoq muddat saqlashga yo‘naltirish imkoniyatini ifodalovchi maqsadli yo‘nalishlarini belgilashni taqazo etmoqda.

ADABIYOT SHARHI

Banklarda faoliyat samaradorligini ta’minlashning asosiy me’zoni unda ko‘rsatilayotgan mavjud xizmatlar va ulardan bank mijozlarini qoniqish darajasini baholash orqali yangi xizmatlarga bo‘lgan talab anaqlashdan iboratdir. S.Hokanson [1] Bank xizmatlari sifatini baholashda mijozlar fikri muhim rol o‘ynaganligi sababli, bank

xizmatlarining sifati bo‘yicha erishilgan natijalarning ko‘pgina usullar orqali baholash bank mijozining ishtirokida amalga oshirilishi tadqiqotlarida aks etgan.

C.Zopounidis tadqiqotlarida tijorat banklari haqida gap ketganda, mijozlar ehtiyojini qondirish darajasi bir bankni boshqasidan ajratib turadi, shuning uchun mijozlar ehtiyojini qondirish o‘ta muhim ekanligini ta’kidlagan [2].

Piter Druker ta’kidlashicha, yangi mijozlarni jalb etish shuning uchun zarurki, u bilan bog‘liq faoliyatni rivojlantirish va shu asnoda bank faoliyatini yaxshilash zaruriyatidan kelib chiqadi. Binobarin, banklarni jalb qilinadigan mablag‘ hajmi bilan birgalikda yangi mijozga bank xizmati va mahsulotini sotishdan keladigan naf ham qiziqtiradi [3].

Bankning xaridorlar bilan o‘zaro maqsadli aloqalar jarayonida munosabatlar marketing konsepsiyasidan foydalanishi “bankka yoki mijozga, yoxud ularning ikkalasiga birgalikda mijoz olish istagida bo‘lgan qiymatni aks ettiradigan tovar, xizmat yoki aloqa vositasini ishlab chiqish imkonini beradi”, deya Ya.Gordonning tadqiqotida ham o‘z tasdig‘ini topgan [4]. Uning fikriga ko‘ra, “buyurtma olish jarayonida qiymat yaratishda bir vaqtdagi munosabatlar shundan iboratki, mijoz talabni ta’minotchiga yo‘naltiradi, ta’minotchi esa, bu talabni qondirishga qaratadi”.

Iqtisodiy adabiyotlarda “banklarning raqobatbardoshligini oshirish” tushunchasini talqin qilishda ko‘plab yondashuvlar keltirilgan va ularning barchasi umumiy xususiyatlarga va tasniflash segmentlariga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish, bank xizmatlari va mahsulotlarini ta’sirchanligi baxolash, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Bank innovatsiyalaridan foydalanish korxonalarning rivojlanishning yangi yo‘nalishlarini ochish qobiliyatini oshirishga qaratilgan. Ularning asosiy maqsadi - bank xizmatlari bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobatni hisobga olgan holda, yangi mijozlarni jalb qilish va mavjud mijozlarni saqlab qolishdir, bu asosan taqdim etilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirish va ularni joriy etish texnologiyalarini takomillashtirishda ifodalanadi [5].

Mavjud resurs cheklovlari sharoitida innovatsion faoliyat tijorat banklarining ajralmas qismi bo‘lgan milliy iqtisodiyotning umuman raqobatbardoshligini ta’minlovchi eng muhim vositaga aylanib boradi. Ushbu holatlar jaxonda bank biznesi rivojlangan mamlakatlar amaliyotida o‘z isbotini topgan. Faoliyat samaradorligini oshirish va tijorat banklarining barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun innovatsiyalar alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda bank bozorida kuzatilayotgan tobora kuchayib borayotgan ichki raqobat sharoitida tijorat banklari uchun yangi va mavjud bank mahsulotlarini takomillashtirish uchun qulay vositalar bo‘lishi juda muhimdir, buning natijasida ular erishilgan raqobat pozitsiyasini saqlab qolish va yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shunday qilib, banklar innovatsion faoliyati va ular bilan bog‘liq masalalar banklarning o‘zlari va umuman makroiqtisodiy tizim uchun dolzarb va ustuvor masalaga aylangan. Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bank sektorini modernizatsiya qilmoqda, zamonaviy bank qiyofasini, uning vositalarini, mijozlar bilan aloqa usullarini tubdan o‘zgartirmoqda. Bank yangiliklarini faol va tezkor ravishda amalga oshirish ushbu banklarning raqobatbardoshligini oshirishga, ularning xalqaro moliyaviy muhitga uyg‘un kirib borishiga yordam beradi [6].

Bank sohasidagi yangiliklarning o‘ziga xos tasnifi Oslo qo‘llanmasida belgilangan an’anaviy innovatsiyalar tasnifi (ya’ni mahsulot, jarayon, tashkiliy yoki marketingga yo‘naltirilgan innovatsiyalar) bank sohasida ham qo‘llanilishi mumkin. Ushbu innovatsion guruhlarning har biri uchun bank amaliyotidan alohida misollarni ko‘rsatish mumkin. Biroq, so‘nggi yillarda banklar yangi texnologiyalarni shu darajada tatbiq etishdiki, bank biznesining raqamli texnologiyalarga deyarli o‘tkazilmoqda. Natijada, hozirgi kunda innovatsiyalarning yuqorida aytib o‘tilgan tasnifi yetarli emas. Elektron bank bu yerda yaxshi namuna bo‘lishi mumkin, chunki u quyidagi mahsulot, jarayon, marketing va tashkiliy yangiliklarni qabul qilishi mumkin va ularni faqat raqamli transformatsiya bilan bog‘lashga majbur qiladi. Shuning uchun bank faoliyatidagi innovatsion rivojlanish xususiyatlari ularning rivojlanishini belgilovchi omillarni o‘z ichiga olgan holda kengaytirilishi kerak.

Moliyaviy xizmatlarda qo‘llaniladigan texnologiyaning dastlabki namunalari XIX asrning birinchi yarmidan kelib chiqqan. Aynan o‘sha paytda telegraf ishlab chiqilgan va telegraf kabeli Atlantika okeanidan o‘tib, Yevropa va Amerikani birlashtirgan. Ushbu voqealar ikki qit’a o‘rtasida doimiy aloqani o‘rnatishga olib keldi, bu esa moliyaviy xizmatlarni yanada xalqarolashtirishga imkon berdi. Moliyaviy texnologiyalarning bosqichma-bosqich evolyutsiyasi nazariyasiga ko‘ra, o‘sha lahzada “FinTech 1.0” davri boshlangan. An’anaviy bozor tuzilishi tufayli o‘sha davrda yetakchi rolni an’anaviy institutlar, asosan mavjud texnologiyalardan foydalangan banklar egallab, shu bilan o‘z mavqelarini mustahkamladilar.

Ushbu bosqichning oxiri va keyingisi “FinTech 2.0” deb nomlangan bo‘lib, 1967-yilda Buyuk Britaniyaning eng yirik banklaridan birida umumiy foydalanish uchun bankomatni joriy qilish bilan bog‘liq edi, ya’ni “Bar-

clays”. O‘shandan beri banklar texnologiyalarni tobora faolroq qo‘llashni boshladilar, rivojlanishning navbatdagi bosqichiga o‘tdilar, ya’ni elektron bank va raqamlashtirish davri. Ushbu davrda banklar, shuningdek, moliyaviy xizmatlar sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy ishtirokchilari bo‘lgan, ammo 1990-yillarda PayPal kabi moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatishga qiziqqan birinchi texnologik kompaniyalar tashkil etilgan.

XIX asrning birinchi o‘n yilligida bozorning asta-sekin o‘zgarib borayotgan tuzilishi ham, global moliyaviy inqiroz boshlanishi ham moliyaviy texnologiyalar evolyutsiyasining yana bir uchinchi bosqichini – FinTech 3.0 ni keltirib chiqargan. Moliyaviy inqiroz natijasida investorlarni bank sohasi holati, butun dunyodagi fond birjalarida bank aksiyalariga narxlarning keskin pasayishi va institutsional qoidalarning haddan tashqari ko‘pligi banklar risk darajasini oshirirgan. Shuning uchun ular o‘zlarining qiziqishlarini rivojlanayotgan moliyaviy startaplar sektoriga qaratib, yangi investitsiya maqsadlarini qidirishni boshlagan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, so‘nggi yetti yil ichida moliyaviy boshlang‘ich tashkilotlarga sarmoyalar ko‘lami uch baravar oshib, 2022-yilda eng yuqori ko‘rsatkichga erishgan (1-rasm).



1-rasm: FinTech texnologiyalari uchun investitsiyalar kiritish [7]

2023-yilda FinTech texnologiyalari uchun investitsiyalar salmog‘i kamaygan bo‘lsada, mega-bitimlar hisobiga 135,7 milliard dollar investitsiyalar qiritildi. FinTech bo‘yicha asosiy segmentlarining ko‘payib borishi natijada innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni sotib olishga qiziqqan moliyaviy gigant kompaniyalarning qiziqishi yo‘qolgani yo‘q.

FinTech 3.0 davrida moliya bozorida innovatsiyalarni rivojlantirish yuki amaldagi davlatlar deb nomlangan ushbu sektorning an’anaviy institutlaridan texnologiyani ishga tushiradigan boshlang‘ich korxonalarga o‘tkazildi [8]. Ushbu davrda “FinTech”ning o‘zi ta’rifiga aniqlik kiritildi, chunki hozirgi paytda u texnologiya va moliya dunyosining chekkalarida ishlaydigan startaplarni tavsiflash uchun ishlatilgan.

Moliyaviy “start-up” bozorining rivojlanishi ushbu kompaniyalar va amaldagi rahbarlar o‘rtasida mustahkam bog‘langan tarmoq yaratilishiga olib keldi. Shu sababli, bozor rivojlanishining navbatdagi bosqichini ajratib olishga ehtiyoj tobora ortib bormoqda, uni qabul qilingan terminologiyaga ko‘ra FinTech 4.0. deb atash kerak. Ta’riflangan rivojlanishning yangi bosqichini aniqlash uchun asosiy dalil FinTech kompaniyalari, banklari va boshqa raqamli xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar tomonidan yaratilgan raqamli ekotizimlarning paydo bo‘lishi hisoblanadi. Ular banklarni tashqi dunyo uchun ham biznes, ham texnologiya nuqtayi nazaridan ko‘proq ochiq bo‘lishga majbur qilgan o‘zgarishlarni tahlil qildilar. Ikkinchi sohada banklarning faoliyati ochiq infraqizil bank deb nomlandi, bu bank infratuzilmasiga keng qo‘llaniladigan dasturiy interfeyslar – Axborot kommunikatsiya texnologiyalar orqali kirishni ta’minlashga asoslangan.

Bozorning yangi konfiguratsiyasi, bir tomondan, moliyaviy xizmatlarda, shu jumladan bank xizmatlarida yangi biznes-holatlar va biznes modellarni (ya’ni platformadagi biznes model) ishlab chiqish va yaratish uchun ko‘plab imkoniyatlarni anglatadi, ammo boshqa tomondan - banklar o‘rtasida raqobatning kuchayishi va bozordagi yangi subyektlar nafaqat banklarning o‘ziga, balki ularning mijozlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [9]. Natijada hozirda maqbul darajada yangi tizimli xavf aniqlandi. Shunga qaramay, yaqin kelajakda xatarlarni yanada yaxshiroq boshqarish, bozorning barcha subyektlaridan bir qator harakatlarni talab qiladi va bu bozor nazorati organlarining rolini ko‘rsatib beradi.

Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bank xizmatlari eng rivojlangan mamlakatlar hisoblangan AQSH, Xitoy, Braziliya, Yaponiya va Hindiston kabi mamlakatlarda dunyodagi bankomatlarning 50% dan ortig‘i joylashgan bo‘lib, onlayn bank tendensiyalari o‘sishini aynan bankomatlar soniga bog‘liq degan xulosaga kelinmoqda.

Xitoyda 2011-yildan 2019-yilgacha bo‘lgan davrda onlayn-bank xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha bozor statistikasiga ko‘ra, onlayn bank operatsiyalarning yillik qiymati 597 trillion yuandan 6,4 kvadrillion yuanga yetgan.

Internet-banking statistikasining 2023-yilgi so‘rov natijalariga ko‘ra iste’molchilarning 73 foizi 30 kunda kamida bir marta onlayn bank kanalidan, 59 foizi mobil bank dasturidan foydalanishi aniqlangan. Onlayn va mobil bank statistikasiga ko‘ra 2025-yilgacha iste’molchilar bilan banklarning o‘zaro aloqalarining 90 % smartfonlar orqali amalga oshiriladi degan prognozlar mavjud. Onlayn bank xizmatlariga iste’molchilar demografik omilining yuqori ta’siri mavjudligi “Venmo” brendining marketing tadqiqotlari tasdiqlagan. “Venmo” brendi bo‘yicha mobil to‘lov xizmatlaridan foydalanuvchi iste’molchilarning 55 va undan yuqori yoshdagilarning 12%, undan yoshlarning 30 foizi onlayn to‘lovlardan foydalanishgan.

Bank sohasidagi innovatsiyalar shakliga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Eng muhimi, ko‘p marta ta’kidlanganidek, texnologik determinantlar bo‘lib, banklar tomonidan texnologik yechimlardan foydalanishning ko‘p yillik tarixi ularning hozirgi kunda an’anaviy xizmat ko‘rsatish sohalari orasida eng yaxshi innovatsion biri sifatida tan olinishiga sababdir. Bu ularga ushbu yo‘nalishda yanada rivojlanish uchun mustahkam asos yaratdi. Buni butun dunyo bo‘ylab bank bozori vakillari yangi texnologiyalarni yaratish va rivojlantirishda faol ishtirok etishlarini ko‘rsatadigan ko‘plab amaliy tadqiqotlar tasdiqlaydi.

Sinergiya samaralari bu yerda nafaqat operatsion samaradorlik nuqtayi nazaridan (ya’ni jarayonlarni avtomatlashtirish), balki savdo imkoniyatlari (ya’ni shaxsiylashtirilgan taklif) nuqtayi nazaridan ham ko‘rinadi. Sun’iy intellekt, tarqatilgan daftarlar (ayniqsa blokcheyn) va bulutli texnologiyalardan keng foydalish asosiy innovatsiyalardir. Bunday innovatsiyalar banklar tomonidan amalga oshirilayotgan so‘ngi innovatsion tendensiyalardir. Shuni ta’kidlash kerakki, bu ma’noda texnologiyalar asosan moliyalashtirish imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatiga bog‘liq va shuning uchun banklar ularni amalga oshirishning tabiiy texnologiyalari bo‘lib ko‘rinishi kerak. Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich tashkilotlar va yirik texnologik kompaniyalar orasida zamonaviy yechimlarning moslashuvi yanada tezroq. Bu birinchi navbatda bank menejmenti xodimlarining mentaliteti natijasidir.

Ko‘p asrlik tarixga ega an’anaviy muassasalar sifatida ular texnologiya sohasidagi o‘zgarishlarga moslashuvchan munosabatda bo‘lish va dadil qarorlar qabul qilishga odatlanmaganlar. Shunday qilib, banklar nafaqat texnologik transformatsiyalar, balki mentalitet o‘zgarishlari nuqtayi nazaridan yangi turdagi muammolarga duch kelishlari kerak. Texnologik yangiliklarga sarmoya kiritishdan va o‘z tuzilmalari doirasida samarali tatbiq etish amaliyotini yo‘lga qo‘yishdan qo‘rqmaydigan banklar o‘zlarining bozor mavqeini saqlab qolishlari va hattoki noyob raqobatbardosh ustunlik yaratishlari mumkin bo‘ladi.

Bunday afzalliklarga ega bo‘lish demografiya bo‘lgan bank sohasida innovatsiyalarni rivojlanishini belgilovchi yana bir omil bilan juda bog‘liqdir. Kelgusi yillarda moliyaviy xizmatlar bozoriga kiradigan keyingi avlod bank mijozlarining eng daromadli segmentlaridan biriga aylanadi. Ushbu avlod texnika asrida voyaga yetmoqda. Bugungi kunda mijozlar kutishlarining o‘zgarishi allaqachon yildan yilga muhim ahamiyat kasb etadigan kuchli omil hisoblanadi. Mijozlar o‘z banklaridan har kuni foydalanadigan boshqa raqamli xizmatlar taklif qiladigan standartlarni kutmoqdalar. Moliyaviy menejment, ularning fikriga ko‘ra, har qanday ijtimoiy tarmoqdagi akkauntdan foydalanish kabi sodda va intuitiv bo‘lishi kerak.

Raqamli davrda mijozlar tajribasining o‘zgarishi, banklar tomonidan talab qilinadigan xavfsizlik darajasini o‘zgartirmadi, ular jamoat ishonch institutlari sifatida ta’minlashi shart. Yuqori tartibga solinadigan muhitni saqlash banklar tomonidan joriy qilingan texnologiyalar ustidan tizimli nazoratni kafolatlaydi. Bank faoliyatidagi yangiliklarning xavfsiz rivojlanishi ishonchga asoslangan. Shu sababli, aholiga taqdim yetilayotgan moliyaviy xizmatlar to‘g‘risida ma’lumot berish va bank sektori xavfsizligi to‘g‘risida xabardorlikni shakllantirish rolini ta’kidlash muhim ko‘rinadi. Bunday tadbirlar tizimli bo‘lishi, xususan ta’lim tizimining barcha darajalarini qamrab olishi kerak.

Jaholat o‘z mablag‘larini kafolat mexanizmlari bilan ta’minlanmagan kompaniyalarga ishonib topshirgan mijozlar uchun xavf tug‘diradi (masalan, depozitni kafolatlash sxemalari). Kripto valyutalari bu yerda yaxshi o‘rnak bo‘lib tuyuladi. Kripto-valyuta bozorida uning tarafdorlari ham, tanqidchilari ham bor, ammo kripto-valyutalar (Distributed Ledger Technology – DLT) tufayli ommalashgan va yaqin kelajakda bank tizimida ham inqilob qilishi mumkin bo‘lgan texnologiyaning o‘ziga shubha yo‘q.

Eng yangi texnologiyalar – bu mijozlarning ehtiyojlarini qondirishning bir usuli. Shubhasiz, texnologiya, ayniqsa, moliya bozoriga kirib kelayotgan yangi avlod mijozlari va ularning yoshligidanoq shakllangan xatti-harakatlari sharoitida banklarga mijozlar e’tiborini jamlash va shaxsiy takliflarni tayyorlashga imkon berib, bank sektorida tobora muhim rol o‘ynaydi. Biroq, shu bilan birga, banklar o‘z mijozlari tomonidan jamoat ishonch institutlari sifatida qabul qilinadi. Bu shuni anglatadiki, o‘zgarishlardan so‘ng ular o‘zlarining faoliyatiga qo‘yiladigan yangi turdagi xatarlarni tan olishlari va ularga qarshi turishlari kerak. Shu sababli, kiberxavfsizlik banklar uchun juda muhim muammo bo‘ladi.

Bank faoliyatining innovatsion xarakterining navbatdagi hal qiluvchi omili bu bozor o‘yinchilarining eng yangi texnologiyalardan foydalanishga undaydigan yuqori darajadagi raqobatidir. Bir tomondan, innovatsiyalar,

amalga oshirish bosqichida moliyaviy sarmoyalarni talab qilishiga qaramay, odatda jarayonlarni optimallashtirishga olib keladi va uzoq muddatda tejamkorlik hosil qiladi. Boshqa tomondan, jozibali va zamonaviy mahsulot turlarini tayyorlash tufayli ular yuqori saqlanishni ta'minlaydi va yangi xaridorlarni jalb qilishga imkon beradi. Aynan mijozlar bazasining kattaligi jihatidan shkala allaqachon yuqori bosim sharoitida banklarning rentabelligini belgilovchi hal qiluvchi omilga aylandi.

Bundan tashqari, banklarning raqobat muhitini tahlil qilishda bozorga tobora samarali kirib kelayotgan startaplar va boshqa texnologik kompaniyalarni kiritish muhimdir. Bank sektoridan tashqaridagi moliyaviy xizmatlar uchun innovatsion muhit ham banklarning texnologiyalar bilan tajriba o'tkazishga tayyorligini sezilarli darajada rag'batlantirishi mumkin. Masalan, Avstraliyada va Singapurda FinTech kompaniyalarining rivojlanishi uchun qulay sharoit banklarning faol munosabatiga ta'sir ko'rsatdi. Ushbu bozorlarda bank sektoridan tashqaridagi moliyaviy yangiliklarni osonlashtiradigan tartibga soluvchi yechimlar mavjud, masalan, tartibga solinadigan qum muhiti konsepsiyasi (bozor ma'murlari nazorati ostida maxsus muhit yaratish g'oyasi) boshlang'ich tashkilotlarda sinovlarni amaliyot o'tkazishga va ularning yechimlarini tekshirishga imkon beradi.

An'anaviy banklar bir necha bor bozor mexanizmlari va yangi sharoitlarga moslashish qobiliyatini tushunib yetishdi. Shuning uchun ham bugungi kunda ular nafaqat innovatsiyalarni o'z ichida rivojlantirish orqali faol ravishda amalga oshiradilar, balki tashqi manbalardan ham foydalanadilar, texnologik kompaniyalar va startaplar bilan hamkorlik o'rnatadilar. Bundan tashqari, ular moliyaviy boshlang'ich tashkilotlarning rivojlanishini rag'batlantirish, shu jumladan, maxsus investitsiya fondlarini tashkil yetish yoki tezlashtirish yoki inkubatsiya dasturlarini tashkil yetish maqsadida ko'plab tashabbuslarni boshlaydilar. Ushbu harakatlar banklarning tajribasi va ularning nafaqat tartibga solish o'zgarishlariga, balki yangi bozor talablariga ham moslashish qobiliyatini isbotlaydi. Buni Polshadagi yangi yechimlar bilan tajriba qilishdan qo'rqmaydigan va o'z tajribalari natijasida ichki boshlang'ich bozorni shakllantirishda faol rol o'ynaydigan, shu asosda raqobatbardosh ustunliklarini yaratadigan banklar ko'rsatmoqda.

Biroq, bank faoliyatida innovatsiyalarni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri bu qonunchilikdir. Bank sohasida yangi texnologiyalar sohasidagi tartibga soluvchi omil ko'p qirrali. Avvalo, xavfsizlik darajasi yetarli emasligi sababli ba'zi texnologiyalardan foydalanishni tizimli cheklash mavjud. Bunga dunyoning ba'zi qismlarida banklarga qo'yilgan bulutga asoslangan yechimlardan foydalanishga qo'yilgan cheklovlar misol bo'la oladi. Boshqa tomondan, bank sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan tartibga solish choralari ham ko'zga tashlanadi. Masalan, Buyuk Britaniya nafaqat moliyaviy boshlang'ich tashkilotlarning rivojlanishini, balki neo-banklar yoki chaqiruvchilar (masalan, Starling Bank, Atom Bank va Monzo) deb nomlanadigan zamonaviy banklarni ham rag'batlantiradigan ekotizim yaratdi.

Hech shubha yo'qki, qonunchilik ham bank bozoridagi innovatsion rivojlanishning eng zaif nuqtasidir, chunki uzoq qonunchilik jarayoni texnologiya dunyosidagi dinamik o'zgarishlarga ziddir. Shu sababli, texnologik ishlanmalar ortida qolib ketgan qonun hujjatlari ham banklar uchun eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Xorijiy olimlarning ilmiy adabiyotlarni o'rganish natijalari bizga rivojlangan mamlakatlar tijorat banklari amaliyotida quyidagi bank xizmatlari va mahsulotlari keng taraqqiy topayotganligini aniqlash imkonini berdi (1-jadval).

1-jadval: Jahon mamlakatlari tijorat banklarida ko'rsatiladigan zamonaviy bank xizmatlari tasnifi [10]

№	Zamonaviy bank xizmatlari	Tasnifi
1	Privat-banking (private banking)	Banklar tomonidan VIP mijozlarga taqdim etiladigan moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan bank xizmatlari kompleksi
2	Internet-banking tizimi (internet banking)	Internet tarmog'i orqali Veb brauzer yordamida amalga oshiriladigan masofaviy bank xizmati turi
3	Bank mijoz-tizimi (PC banking, home banking, telephone banking)	Banklarda mijoz bilan interaktiv va raqamli texnologiyalar asosida amalga oshiriladigan mahsus ishlash usuli bo'lib, mijoz bank bilan raqamli texnologiyalar asosida kammunikatsiyalarni amalga oshiradi. Bunda mijoz bank bo'limi bilan doimiy aloqani bank bo'limisiz amalga oshirish imkoniyati mavjud
4	Mobil-banking tizimlari: SMS-banking, STK-banking, Java-banking, WAP-banking	Mijoz tomonidan bank operatsiyalarini mobil aloqa vositalari orqali masafodan turib amalga oshiriish imkonini beruvchi xizmat turlari

Yuqoridagilar bilan birga AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Kanada, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda metal tangalar muomalasi uchun "Penny Arcade" bank avtomatik qurilmasi xizmatlari, pochta bo'limlarining moliyaviy va bank xizmatlari, moliyaviy kompaniyalar (uylar) xizmatlari keng yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida hozirda Privat-banking amaliyotidan foydalanish bo'yicha yetarlicha tajribalar mavjud emas. Biroq ushbu tizim xorijiy mamlakatlar banklarida keng qo'llanilayotgan samarali xizmat turlaridan biridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston respublikasining tijorat banklarining amaldagi moliyaviy xizmatlari yillar davomida kengayib borayotganligi bilan bir qatorda xalqaro me’yorlarga muvofiqligini ta’minlash asosiy muammo sifatida qolmoqda. Rivojlangan tijorat banklarining rivojlanish jarayonlarida asosiy birlamchi o‘rinni bank reklamasi, ko‘rsatilayotgan moliyaviy va boshqa turdagi bank xizmatlari egallangan bo‘lib, asosiy e’tibor bank mijozlari hoxishlarini bajarish davomida yangi bank xizmatlarini yaratilishi, yangi bank xizmatlarini joriy qilish borasida g‘oyalarni shakllanantirishga yetarlicha e’tiborni qaratishi talab etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida mijozlar bilan munosbatalarni samarali tashkil etish orqali quyidagi muammolarini hal etish mumkin bo‘ladi:

- banklarda xizmat ko‘rsatish sifatining va ularning raqobatbardoshlini oshirishga erishiladi, masofaviy bank xizmati orqali vaqt cheklovi olib tashlanadi, ya’ni mijoz o‘z hisobraqamini haftasiga yetti kun, kuniga yigirma to‘rt soat davomida boshqarish imkoniga ega bo‘linadi;
- zamonaviy interaktiv xizmat turlari vaqt cheklovidan tashqari, mijozning geografik holatiga ham e’tibor berilmaydi. Bank mijozim, dunyoning istalgan nuqtasidan o‘z tranzaksiyalarini o‘tkazishi imkoniyatlari yaratilib, tranzaksiyalarni qisqarishi hisobiga raqobatbardoshlik oshadi;
- yangi bank mahsulotlarini yaratish, amaliyotga tatbiq yetish yoki mavjud moliyaviy xizmatlarni masofaviy aloqa vositalari bilan uyg‘unlashtirish va o‘zaro integratsiyasini oshirish orqali banklararo raqobat sharoitida bankning raqobatbardoshlik ko‘rsatkichining oshishi;
- filiallarni boshqarish bilan bog‘liq xarajatlarni qisqartirish orqali bank operatsiyalari tannarxining kamayishi.

Jahon banklari tajribasi asosida kursatilayotgan bank xizmatlari turlarini differensiyatsiyalash hamda diversifikatsiyalash va xizmatlar sifatini yanada yaxshilash, xususan, bank infratuzilmasini rivojlantirish, ayniksa, kishlok joylarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘ullagan xolda masofadan bank xizmatlarini kursatish kulamlarini yanada kengaytirish. Jumladan, bank xizmatida innovatsion texnologik vositalar: Cash Back, Personel manager, Coobrending singari dasturlardan keng foydalanish; rivojlangan mamlakatlar tajribasi, jumladan, banklarning biznes portfelini optimallashtirish, ichki reytingini tuzish, bank operatsiyalarn samaradorligini baholashda iqtisodiy matematik usullardan keng foydalanish, axborot kommunikatsiyalarini joriy etish, kompyuter dasturlaridan foydalanish banklarning istiqboldagi samarali faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Крупнов Ю.С. О природе банковского кредита / Ю.С. Крупнов // Бизнес и Банки. – 2009. – № 8. – С. 1-3.
2. Кузнецова Л.А. Лояльность клиентов и управление рекомендациями // Организация продаж банковских продуктов. – 2008. – № 1
3. Метель Ю. Формирование и развитие клиентской политики в региональных коммерческих банках. Дисс. К.э.н. Ставрополь – 2018. –172 ст. https://www.ncfu.ru/export/uploads/doc/disser-metel.pdf
4. Муршудли Ф.Ф. Инновационные тренды международного банковского бизнеса (на примере азербайджана). Азербайджанский государственный экономический университет. Вестник МГИМО-Университета. 2018. 1(58). С. 186-212, DOI 10.24833/2071-8160-2018-1-58-186-212.
5. Mustafoyev Z.B. “Bank marketingi – moliya bozori shakllanishi va rivojlanishining asosi”. Iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiya avtoreferati – T.:1998-y.
6. Ortiqov O.A. “Banklararo raqobat sharoitida bank xizmatlari va ularni takomillashtirish yo‘llari”. Iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiya avtoreferati – T.:2009-y.
7. Платонова, Ю.Ю. Современные аспекты удержания клиентов в банке [Электронный ресурс] / Ю.Ю. Платонова, С.Е. Зайченко // Научный журнал КубГАУ. – 2012. – №76 (02). – Режим доступа: https://cyberleninka.ru/article/v/sovremennye-aspekty-uderzhaniya-klientov-v-banke
8. Руднев, А.Ю. Социальное управление крупным банком: дис. ... канд. социол. наук: 22.00.08 / Руднев Андрей Юрьевич. – М., 2011. – 171 с.
9. Смулов А.М. Комплексная методика построения сбалансированной процентной политики коммерческого банка в сфере кредитных отношений / А. М. Смулов, Э.И. Абдюкова // Банковское дело. – 2014. – № 48 (624). – С. 2-13.
10. Титова, Л.Г. Управление мотивациями клиента в розничной торговле / Л.Г. Титова // Российское предпринимательство. – 2014. – №22. – С. 138-145.

ORGANIK QISHLOQ XO‘JALIGIGA O‘TISH BOSQICHLARINING TASHKILIY JIHATLARI VA IQTISODIY ASOSLARI



Amirqulov Shuxrat Olimovich
I.f.f.d., QarMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo‘jaligi korxonalarining an’anaviy ishlab chiqarishdan organik ishlab chiqarishga o‘tish bosqichlarining tashkiliy jihatlari va unda amalga oshiriladigan tadbirlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: bosqichlar, tayyorgarlik, o‘tish, muvofiqlik, sertifikat, an’anaviy, organik, xalqaro talab, standart, ekologik, oziq-ovqat.

Abstract: The article scientifically substantiates the organizational aspects of the stages of the transition of agricultural enterprises from traditional production to organic production and the activities carried out in it.

Key words: stages, preparation, transition, compliance, certificate, traditional, organic, international requirements, standards, environmental, food products.

Аннотация: В статье научно обоснованы организационные аспекты этапов перехода сельскохозяйственных предприятий от традиционного производства к органическому производству и осуществляемая в нем деятельность.

Ключевые слова: этапы, подготовка, переход, соответствие, сертификат, традиционные, органические, международные требования, стандарты, экологические, пищевые продукты.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarishning organik (tabiiy) va noorganik (kimyoviy unsurlarga asoslangan) yo‘llari ajratib ko‘rsatiladi. Ishlab chiqarishning noorganik yo‘li ishlab chiqarishda turli kimyoviy preparatlarning qo‘llanishi oqibatida atrof-muhitga salbiy tasir etmoqda, bu usulda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari iste`moli esa insonlar sog‘ligini izdan chiqarmoqda.

Bundan tashqari, jahon bozorida mahsulotlarga qo‘yilgan sifat va xavfsizlik talablarining tobora kuchayib borishi, respublikamizda yetishtirilayotgan mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi o‘rnini mustahkamlash uchun qo‘shimcha choralar ko‘rishni talab qilmoqda.

Bugungi kunda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish maqsadida insoniyat “yashil” iqtisodiyotga o‘tmoqda. Qishloq xo‘jaligida esa organik ishlab chiqarishni tashkil etish orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin. Tabiiyki, qishloq xo‘jaligida organik ishlab chiqarishga o‘tishda ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmining kamayishini kompensatsiyalashni, ishlab chiqarishda texnika va texnologiyani takomillashtirishni, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning yangi shakllarini asoslashni, mahsulotlarni realizatsiya qilishda infratuzilmani modernizatsiyalashni talab etadi.

O’zbekiston Respublikasi organik qishloq xo‘jaligiga boshqa xorijiy mamlakatlarga qaraganda ancha kech o‘tmoqda. Biroq, aholining natural (organik) qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabi tez suratda o‘sib bormoqda. Shuning uchun mahalliy sharoitda oraganik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni takomillashtirish borasidaga ilmiy tadqiqot ishlari dolzarb sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O’zbek tilining izohli lug‘atida “organik” – organizmga, jonli mavjudotga oid, tirik mavjudotlar bilan bog‘liq bo‘lgan: tirik, jonli narsa” ekanligi qayd etilgan [1].

“Organik qishloq xo‘jaligi” termini (organic farming) atamasi ilk bor 1939-yilda Angliyada Lord Nortborn (Lord Nortborn, Valter Ernest Kristofer Jeyms) tomonidan qo‘llanilgan, 1940-yilda esa uning “Looktot he Land” [2] kitobi nashr etildi va unda xo‘jalikni yagona organizm sifatida qarash etirof etilgan.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar I.V.Kondratyev, A.V.Xodus, I.G.Ushachev va boshqalar “Organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy afzalliklari qishloq xo‘jaligidagi uzoq muddatli barqarorlik, tuproq tarkibini va suv infiltratsiyasini takomillashtirish, biologik xilma-xillikni oshirish, inson va hayvonot dunyosining salomatligi uchun xavfsizlik, shuningdek, eng yaxshi xushtam sifatli istemol mahsulotlari ishlab chiqarilishidir” [3] deb etirof etishadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar M.X.Yusupov, N.A Ashurmetova va G.T.Hamdamovalar “Organiq qishloq xo‘jaligi bu ─ dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilikda xo‘jalik yuritish tizimi bo‘lib, bunda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy usullaridan foydalanishga alohida e`tibor qaratiladi”, [3] deb hisoblaydilar.

Bizning fikrimizcha, organik (ekologik, biologik) qishloq xo‘jaligi bu o‘simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda sintetik o‘g‘itlardan, pestitsidlar va o‘simliklarni o‘stirish preparatlaridan, ozuqa qo‘shimchalaridan foydalanishda ongli ravishda uni minimallashtirishni taminlaydigan xo‘jalik yuritish usuli tushuniladi. Bunda ekinlar hosildorligini oshirishda organik o‘g‘itlar (go‘ng, kompost, somon qoldiqlari, yashil maysa va boshqalar)dan, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashishda biofondni saqlab qolish maqsadida biopreparatlardan foydalaniladi, almashlab ekishni joriy qilish orqali tuproqning mikroelementlarga bo‘lgan ehtiyoji qondiriladi. Chorvachilik mahsuldorligini taminlashda mollarni ko‘proq tabiiy dala-yaylovlarda boqish erkin sayr qildirish qoidalariga amal qilinadi, mollar kasaliklarini davolashning tabiiy usullaridan foydalaniladi.

Biz olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib “Organik qishloq xo‘jaligi bu – ishlab chiqarish ─ iste`mol fazalarida texnologik jarayonlarni organik mahsulotlar to‘g‘risidagi qonunchilik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirilgan, insonlarning hayotiga va sog‘ligiga hamda atrof-muhitga salbiy tasir etmaydigan, sertifikatlashtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridir”, deb hisoblaymiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida induksiya va deduksiya, analiz va sintez, monografik tadqiqot ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O’zbekiston Respublikasining “Organik mahsulotlar to‘g‘risida”gi Qonunining 4-bob 16-moddasida “Organik mahsulotlarni ishlab chiqarishga o‘tish shartlari” ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, unga ko‘ra:

- organik mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va muvofiqliqni baholash organi o‘rtasida mahsulotlarni muvofiqligini belgilash bo‘yicha shartnoma tuzish;
- organik mahsulot ishlab chiqarish jayonini “Organik mahsulotlar to‘g‘risida”gi Qonun va texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqlashtirish;
- organik mahsulotlarni ushbu toifaga kirmaydigan mahsulotlardn alohida ishlab chiqarish;
- o‘tish davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni “o‘tish davridagi organik mahsulotlar” sifatida tamg‘alash va sotish belgilangan [4].

Mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar, organik dehqonchilik ittifoqi, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotiga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining an’anaviydan organikka o‘tishining uch bosmqichini ajratib ko‘rsatish imkonini berdi. Bu bosqichlarni tayyorgarlik, o‘tish va organik muvofiqlik bosqichi, deb etirof etish mumkin.

Qishloq xo‘jaligi korxonasida organik qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishiga o‘tishi va shakllanishining asosiy bosqichlarida amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashgan holda quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1-bosqich: xalqaro ekologik standartlarning zaruriy parmetrlariga javob beruvchi istemol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jaligi korxonalari reyeystrini shakllantirish;

2-bosqich: ekologik toza qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishini yuritish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida qishloq xo‘jaligi yerlari va atrof- muhitning tabiiy holatini manitoring qilish va sifatini baholash;


3-bosqich: Qishloq xo‘jaligi korxonalari rahbar kadrlarini organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga o‘tish va ekologik toza mahsulotlarni realizatsiya qilish masalalari bo‘yicha o‘qitish (malakasini oshirish);

4-bosqich: ekologik qishloq xo‘jaligi xalqaro standartlar talablari asosida muayyan turdagi mahsulotlarni ekologik markirovkalash huquqidan foydalanish bo‘yicha korxonaning sifat menejmenti tizimini sertifikatlash;

5-bosqich: sotishni optimallashtirish va zarur maslahat va axborot yordamini olish uchun korxonaning organik mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarning notijorat tashkilotiga kirishi;

6-bosqich: davlat yordamini olish va investorlarni jalb qilish maqsadida korxonani rivojlantirish bo‘yicha biznes-reja tuzish;

7-bosqich: ichki va tashqi bozorlarda ishlab chiqarilgan ekologik toza mahsulotlarni sotish bo‘yicha shartnomalar tuzish.



1-rasm: Qishloq xo‘jaligida an’anaviydan organik ishlab chiqarishga o‘tish bosqichlari va unda amalga oshiriladigan vazifalar ketma-ketligi

Shu bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligini ekologik yo‘naltirilgan ishlab chiqarishga o‘tish jarayonida yer uchastkalarining sifat ko‘rsatkichlarining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samaradorligiga ta’sirini hisobga olish zarur. Bunda maydon birligiga yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining ma’lum yer uchastkasining sifatiga, shuningdek, boshqa ko‘rsatkichlarga bog‘liqlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida qayd etilgan tadbirlarni amalga oshirish qishloq xo‘jaligi korxonasini noorganik ishlab chiqarishdan organik ishlab chiqarishga o‘tishini taminlaydi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo‘jaligida organik ishlab chiqarish tizimini shakllantirish an’anaviy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidan voz kechishni anglatmaydi.

Bizning fikrimizcha, qishloq xo‘jaligida organik ishlab chiqarishni shakllantirish ma’lum bir davrni talab etadi. Ayniqsa dunyo davlatlarida oziq-ovqat taminotida muammolar mavjud bo‘lgan hozirgi sharoitda organik qishlab chiqarishda revolyusion emas, balki evolyusion yo‘l bilan o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Shuning uchun qishloq xo‘jaligi xo‘jalik yuritishning bir-biri bilan parallel ravishda an’anaviy va organik usuldan foydalanish orqali aholining yuqori sifatli va ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan joriy va kutilayotgan ehtiyojlarini bosqichma-bosqich qondira oladigan zamonaviy agrotexnologiyaga aylanib borishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining “Organik mahsulotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.04.2022-yildagi O‘RQ-766-son.
2. Begmatov E. va boshqalar. O’zbek milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2018-y.
3. Susan S.Lang. Organic farming produces same corn and soybean yields as conventional farms, but consumes less energy and no pesticides, study finds Архивная копия от 24 сентября 2012 на Wayback Machine // Cornell News Service, 13 июля 2005.
3. Кочеткова С.А., Акимова Ю.А. Проблемы формирования и развития российского органического сельского хозяйства “Экономика и социум” №4(17) 2015 www.iupr.ru.
4. Саидов М.Х., Ашурметова Н.А., Хамдамова Г.Т. Теоретические основы органического сельского хозяйства в республике Узбекистан.

DAVLAT XARIDLARI JARAYONIDA E'TIBORSIZ IJROCHILARNI IMKONIYATINI CHEKLASH MASALALARI



G'ofurov Temur Baxrom o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Maqolada davlat xaridlari tizimida erishilgan yutuq va kamchiliklar, davlat xaridlari ijrochilarining e'tiborsizligini kamaytirish, buyurtmachilarga shartnomada ko'rsatilgan aniq parametrlarga asoslangan tovarlarni yetkazilishini ta'minlash, shartnoma shartlarini bajarish davrida kelib chiqadigan nizolarni bartaraf etish, davlat xaridlarida korrupsion holatlarni kamaytirish, xarid jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash, ishonchsiz ijrochilar ro'yxatini shakllantirish to'g'risida fikirlar bayon etilgan. Shu bilan birgalikda davlat xaridlari jarayonida buyurtmachi va ijrochining huquq va manfaatlarini tenglashtirish hamda yagona yetkazib beruvchilar borasidagi ilmiy hamda amaliy yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: elektron do'kon, auksion, xaridlar rejasi, tovar, buyurtmachi, ijrochi, shaffoflik, yagona yetkazib beruvchilar, elektron savdo.

Abstract: The article discusses improving the efficiency of the state procurement system, addressing achievements and shortcomings. It emphasizes reducing corruption in state procurements, ensuring the delivery of goods based on specific parameters specified in the contracts to enhance the transparency of procurement processes. The article also highlights measures to eliminate distortions during the execution of contract terms, ensuring integrity in suppliers' registration, and balancing the rights and interests of both buyers and suppliers in the state procurement process.

Key words: innovative approach, attractiveness, integrated approach, potential, efficiency, infrastructure, "concentration center", creative approach, perspective.

Аннотация: В статье описаны достижения и недостатки системы государственных закупок, снижения халатности руководителей государственных закупок, обеспечения поставок товаров заказчикам исходя из конкретных параметров, указанных в контракте, устранения споров, возникающих в ходе исполнения контракта, снижение случаев коррупции в сфере госзакупок, идеи закупок по обеспечению прозрачности процессов, формирование списка ненадежных исполнителей. При этом освещены научно-практические подходы к уравниванию прав и интересов заказчика и исполнителя и отдельных поставщиков в процессе государственных закупок.

Ключевые слова: интернет-магазин, аукцион, план закупок, товар, заказчик, исполнитель, прозрачность, единые поставщики, электронная коммерция.

KIRISH

Davlat xaridlari hajmini maqbul darajada ushlab turish uchun ularning yuqori samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Shunga qaramay, davlat sektorida xususiy sektorga xos bo'lgan xaridlar samaradorligini oshirish uchun rag'batlantiruvchi omillar mavjud emas. Bu holat davlat xizmatining boshqa sohalariga qaraganda yuqori darajada korruptsiya xavfini yuzaga keltiruvchi omil hisoblanadi. O'zbekiston hukumati davlat xaridlarining budjet barqarorligini ta'minlash va davlat sektori ehtiyojlarini qondirishning muhim omili hamda iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatidagi rolini anglagan holda 2000–2011-yillarda ushbu sohada kompleks chora-tadbirlarni qabul qildi.

Davlat xaridlari tizimini optimallashtirish va xaridlar tizimini kengaytirish davlat xaridlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish muhim ahamiyatga ega:

1) elektron auksion savdolari asosida yetkazib beruvchilarni tanlashning yangi turi joriy etildi;
2) oshkoralikni takomillashtirish chora-tadbirlari amalga oshirila boshlandi;
3) kichik biznesni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida davlat xaridlaridan foydalanish faollashtirildi;
4) Hukumatning komissiyasini tuzish orqali davlat xaridlarini institutsionallashtirish kabilar.


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Davlar xaridlari platformasini rivojlantirish muammolari mutaxassislar tomonidan nazariy va amaliy jihatdan muntazam muhokama qilinib kelinmoqda. Jumladan, mazkur tadqiqot ishlari M.Yudkevich, S.G.Pivovarova, L.P.Kurakovlarning kabi xorijlik mutaxassislar va yurtdoshlarimiz U.O‘roqov, U.Burxonov, J.Umarov kabi iqtisodchi olimlarning fikricha davlat xaridlari davlat iqtisodiyoti bilan chambarchas bog‘liqligini, xaridni tashkil etish tartib-taomillari, davlat xaridlariga oid umumiy talablar, davlat xaridini takomillashtirishdagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘nalishlarini o‘rganish borasida nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish muhim ahamiyatga egaligini ta`kidlab o‘tishgan.

Davlat xaridlari tizimini muntazam yangilanishi, rivojlanishi budjet mablag‘larini sezilarli darajada tejash va tadbirkorlar faoliyatini samaradorligini oshirishi hamda soliq tizimida soliqlarni berkitish kabi umumiqtisodiy taraqqiyoti muhim omillaridan ekanligi soha mutaxassislari tomonidan e’tirof etilgan. Davlat xaridlari sohasini funksiyalari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqsak, xaridlarini samarali tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad budjet va budjetdan tashqari jamg‘armalardan mablag‘ oluvchilar hamda korporativ buyurtmachilarning ehtiyojlari uchun tovar (ish, xizmat)larni optimal narx va sifatda sotib olishga, budjet mablag‘larini imkon qadar tejash bilan bir qatorda, ijrochilar orasida teng raqobatni hosil qilish orqali xarid jarayonlarini to‘liq va qonuniy amalga oshirilishida korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat xaridlari sohasida budjet mablag‘larini imkon qadar iqtisod qilinishiga budjet va korporativ buyurtmachilarini ortiqcha ovoragarchiliksiz tovar va xizmatlarni qabul qilib olish imkonini yaratib, buyurtmachi hamda ijrochining talab va huquqlarini tenglashtirdi. Xususan, xarid.uzex.uz elektron savdo tizimida 2023-yilda 146836,6 ta shartnoma imzolangan bo‘lib, bir yilda o‘rtacha 1 mlrd so‘mgacha budjet mablag‘lari tejalganini ko‘rish mumkin (1-rasm).



1-rasm: O‘zRTXBda tuzilgan bitmlar hajmi dinamikasi (2022-2023-yillar faoliyati yakunlari)

Sohani rivojlanishi mablag‘larni tejalishi bilan bir qatorda tadbirkorlarni keng miqyosda faoliyat olib borishiga, logistika sohasini sezilarli darajada rivojlanishiga va davlat xaridlarini tashkil etish hamda amalga oshirish chog‘ida qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan tekshiruvlar o‘tkazilishiga, hisobot berish shakllarini talab qilishga yo‘l qo‘yilmasligi xarid jarayonin samaradorligini sezilarli darajada oshirdi.

Xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini joriy etilishi, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun talablariga muvofiqligini baholashni amalga oshirishga, tekshiruv tadbir-

larini o‘tkazish tashabbusi bilan davlat organlariga murojaat qilishga imkoniyatlar yaratilishi, davlat xaridlari jarayonini shaffof va manfaatlar to‘qnashuvisiz amalga oshirilishiga zamin yaratdi.

Davlat xaridlari elektron platformasining asosiy maqsadi budjet mablag‘larini tejash hisoblanadi. Jumladan, 2023-yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasining davlat xaridlari bo‘yicha xarid.uzex.uz elektron savdo tizimida jami 6,6 trln so‘mlik 146 mingdan ziyod bitimlar tuzilgan bo‘lib, tuzilgan bitimlarning hajmi 2022-yilning mos davriga nisbatan 1,4 marotabaga o‘sgan. Shuningdek, elektron davlat xaridlarida 11 mingdan ziyod mahalliy tadbirkorlik subyektlari va 104 ta norezidentlar ishtirok etgan. O‘tkazilgan elektron davlat xaridlarining 20 foizi budjet buyurtmachilari, 80 foizi korporativ buyurtmachilarining ulushlariga to‘g‘ri kelgan. Hududlar kesimida eng yirik bitimlar Toshkent shahri va Toshkent viloyati (71 foiz), Andijon (5 foiz), Navoiy (4 foiz) hamda Qashqadaryo va Buxoro (3 foiz) viloyatlarida tuzilgan. 2024-yil 1 yanvar holatiga xarid.uzex.uz platformasi orqali 1 107.2 mlrd so‘m tejalganligini ko‘rish mumkin. Shu bois davlat xaridlari platformasini rivojlantirish, qator kamchiliklarini bartaraf etish, platformadan samarali foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ham bugungi kunning eng muhim va dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda.

Bugungi kunda mazkur platformada muntazam o‘zgarishlar va yangilanishlar olib borilishiga qaramasdan e`tiborsiz ijrochilar va kelishilgan xaridlar mavjudligi tizimning og‘riqli nuqtasi bo‘lib kelmoqda. Tizimning birgina elektron do‘kon bo‘limida mas`uliyatsiz ijrochilar tomonidan o‘rtacha 15% shartnomalarini bekor qilinganining guvohi bo‘lish mumkin. Shartnomalarning bekor bo‘lishining asosiy sababi mas`uliyatsiz va aniq bir yo‘nalishga ega bo‘lmagan korxonalar tomonidan tovar va xizmatlarga asl narxidan kam bo‘lgan narxlarni taklif qilib lotlarni shakllantirishi, buyurtmachilar tomonidan joylashtirilgan lotlarda g‘alaba qozongan ijrochilarni belgilangan parametrlarga to‘g‘ri kelmaydigan tovarlarni taklif qilinishi kabi holatlar mavjudligini guvohi bo‘lish mumkin. Bunday holatlar 10 tadan 3 tasida kuzatilish hech kimga sir emas ko‘rish mumkin. Buyurtmachi tomonidan ijrochilarga tovar va xizmatlar uchun lotlarni joylashtirib berilishini va lotda ko‘rsatilgan parametrlarga mos bo‘lmagan tovar va xizmatlarni yetkazilishi yoki real pul ko‘rinishida qabul qilib olish kabi korrupsion holatlarni uchrashi, xaridlarni aksariyat qismini ochiqlik va shaffoflikni ta’minlovchi axborot-kommunikatsiya tizimidan foydalanmagan holda amalga oshirilishi, xarid qilish tartibini nazorat qilish tizimining bugungi kundagi talabga javob bermasligi hamda davlat xaridlari sohasidagi hujjatlarga rioya etmaslik holatlariga yo‘l qo‘yishning ko‘payishi, elektron do‘konda tanlov yakunlangandan so‘ng tovar (ish, xizmat)lar uchun optimal narxni taklif qilgan korxona ma`lumotlarini ko‘rinmasligi kabi holatlar mas`uliyatsiz ijrochilarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.


Xaridlar jarayonida ikki tomonning huquqlarining tengligini ta`minlash xaridlarni samarali va sifatli amalga oshishining muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Buyurtmachilar tomonidan xarid qilinadigan tovarlar to‘g‘risida to‘liq ma`lumotga ega bo‘lmasligi, xaridni noto‘g‘ri shakllanishiga sabab bo‘ladi. Bu esa o‘z o‘rnida buyurtmachi va ijrochi o‘rtasida tushunmovchilikni keltirib chiqaradi. Buyurtmachilar tomonidan e’lon joylashtirish vaqtida mutaxassislar fikrini o‘rganmaslik, tovar to‘g‘risida to‘liq ma`lumotga ega bo‘lmaslik, bu borada e`tiborsizligi, amaliy ko‘nikmalarni yetishmasligi budjet buyurtmachilarining tizimdagi og‘riqli nuqtalaridan biridir.

XULOSA

Davlat xaridlari tizimi budjet mablag‘larini tejash bilan bir qatorda yurtimizda kichik tadbirkorlik subyektlarini sezilarli darajada rivojlanishiga va tadbirkorlarni soliq tizimida ijobiy faoliyat yuritilishiga ham zamin yaratib berdi. Prezidentimiz qarorlari va muntazam yangilanishlar tizimni tobora ochiqlik va shaffof faoliyat yuritishiga hamda tadbirkorlar o‘rtasida mustaqil raqobatni paydo bo‘lishiga ham imkon yaratdi. Bu davlat xaridlari tizimini yangi pog‘onalarga olib chiqmoqda. Tizim foydalanuvchilar uchun bir vaqtning o‘zida buyurtmachi yoki yetkazib beruvchi sifatida faoliyat yurish imkonining mavjudligi nafaqat tadbirkorlar balki budjet tashkilotlarini o‘z mahsulotlari bilan bozorga kirishlariga imkoniyat yaratib berdi. Tizimda tovar va mahsulotlar uchun optimal narx va sifatni taklif etilishi platformani zamonaviy milliy marketpleys sifatida shakllanishiga va foydalanuvchilar tomonidan keng qo‘llanilishiga muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yurtimiz iqtisodiyotini barqarorlashtirish bilan bir qatorda, jarayonlarni ochiq va shaffof tarzda amalga oshishini ta`minlaydi hamda korrupsion holatlarga qisman bo‘lsada to‘siq bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 22.04.2021-yildagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-son Qonuni. https://lex.uz › docs
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb etishni kengaytirish to‘g‘risida”gi 2011-yil, 7-fevraldagi PQ-1475-son qarori.
3. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.
4. U.O‘roqov, E.Shodmonov, D.Bobobekova. Davlat xaridlarini boshqarish. – T.: 2022-y.
5. U.O‘roqov. Davlat xaridlari tizimida elektron xaridlar hajmini oshirish masalalari. “Zamonaviy moliyaning milliy va xalqaro dolzarb masalalari”, Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. –TMI, 2021-yil. –20 may.



O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INVESTITSION LOYIHALARNI FAOL TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI

Utkurov Kozimjon Dilmurod o‘g‘li
Davlat xaridlarini rivojlantirish va monitoring sho‘basi yetakchi inspektori, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish borasida investitsion faoliyatning asosiy omillaridan biri bo‘lgan investitsion loyihalarni faol tashkil etish masalalari ko‘rib chiqilib, “Zamonaviy iqtisodiyot uchun ko‘nikmalarni rivojlantirish” loyihasini tashkil etish iqstiqbollari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: investitsion faoliyat, investitsion loyiha, iqtisodiy salohiyat, kapital qiymati, loyiha elementlari.

Abstract: The article discusses the issues of active organization of investment projects, which is one of the key factors in the sustainable development of the economy of the Republic of Uzbekistan, and analyzes the prospects for the project “Skills Development for the Modern Economy”.

Key words: investment activity, investment project, economic potential, capital value, project elements.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы активной организации инвестиционных проектов, что является одним из ключевых факторов устойчивого развития экономики Республики Узбекистан, а также анализируются перспективы проекта “Повышение квалификации для современной экономики”.

Ключевые слова: инвестиционная деятельность, инвестиционный проект, экономический потенциал, стоимость капитала, элементы проекта.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotini erkinlashtirish, iqtisodiyotni barqaror o‘sishi hamda mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirishni ta’minlashning muhim shartlaridan biri faol investitsion siyosatini yuritishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz” deb ta’kidlab xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi g‘oyat muhim ahamiyatini va uni jalb qilishning dolzarbligini e’tirof etadi. Bugungi kunda investitsion faoliyatni rivojlantirish borasida O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy hududlarida investitsiyalarni amalga oshirishning asosiy omili bo‘lgan investitsion loyihalarni faol tashkil etish chora-tadbirlari amalga oshirib borilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiya – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o‘z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq, muddatli kapital kiritish ma’nosini anglatadi.


Mamlakatimizning iqtisodchi olimlaridan professor D.G‘. G‘ozibekov investitsiyaga quyidagicha tavsif bergan: “Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag’lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko’zlangan samarani olishdan iborat bo’ladi” [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida investitsion loyihalar bilan ishlovchi tashkilotlarning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni, rivojlanishi, o‘ziga xos xususiyatlari va unda aholi ish bilan bandligini aniqlash bo‘yicha o‘rganishga dialektik va tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi. Iqtisodiyotning barqaror sur’atlarda rivojlanish omillaridan biri investitsion loyihalarni moliyalashtirishidir. Ushbu jarayonda aholi ish bilan bandligining oshib borishi va bu ko‘rsatkichlarni solishtirma tahlil qilish, shu asosda tegishli tavsiyalar ishlab chiqishi bilan belgilanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiya faoliyatining asosiy qismini investitsion loyiha tashkil etadi. Investitsiya loyihasi o‘z maqsadi, yo‘nalishi, amal qilish sohasi, muddati va chegarasiga ega bo‘lgan alohida faoliyat turi hisoblanadi. Investitsiya loyihasi tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy jihatdan to‘liq va mukammal hisobkitoblar yordamida asoslangan yuridik hujjat hisoblanadi. Investitsion loyihalar asosiy elementlari 3 ga bo‘linadi. (1-rasm)



1-rasm: Investitsion loyihalarning asosiy elementlarining tasniflanishi.

Investitsiya faoliyatida investitsion loyihalarni faol tashkil etish borasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Osiyo taraqqiyot banki mablag‘larini jalb qilish orqali “Zamonaviy iqtisodiyot uchun ko‘nikmalarni rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [1] 2022-yil 2- fevraldagi 51-sonli Qarori yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu qaror mehnat bozori va professional ta’lim tizimi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash, aholi bandligini ta’minlash hamda professional ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish, shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi va Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish kabi maqsadlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur qarorda 2022-2026-yillar uchun mo‘ljallangan “Zamonaviy iqtisodiyot uchun ko‘nikmalarni rivojlantirish” loyihasini moliyalashtirish uchun Osiyo taraqqiyot banki imtiyozli resurslari hisobidan 5 yillik imtiyozli davrni o‘z ichiga olgan 25 yilda qaytarish sharti bilan 93 mln. AQSh dollari miqdorida qarz ajratilishi belgilab qo‘yilgan [3]. Shuningdek qarorda loyihaning umumiy qiymati 162 mln. AQSh dollari miqdorida belgilangan. Bundan 93 mln. AQSh dollari miqdoridagi mablag‘lar Osiyo taraqqiyot banki hisobidan, 69 mln. AQSh dollari miqdoridagi mablag‘lar loyihani amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining ulushidan moliyalashtiriladi (1-jadval).

1-jadval: “Zamonaviy iqtisodiyot uchun ko‘nikmalarni rivojlantirish” loyihasining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari ma’lumotlari (ming AQSH dollarida)[1]

№	Ko‘rsatkichlar	Jami	Moliyalashtirish manbalari	
			OTB	O‘zRes
1	Loyihaning umumiy qiymati	162000	93000	69000
2	Umumiy kapital qo‘yilmalar miqdori	141068.03	93000	48068.03
	shu jumladan:			
2.1	Qurilish ishlari	24490.12	-	24490.12
2.2	asbob-uskuna, dasturiy ta’minot, mebel	47423.98	47423.98	-
2.3	sarflanadigan material	6619.73	6619.73	-
2.4	konsalting xizmati	12499.5	12345.8	153.7
2.5	mahalliy o‘qitish va material ishlab chiqarish	9336.62	9336.62	-
2.6	xorijda o‘qish	4048.1	4048.1	-
2.7	mehnat resurslari	1391.71	1242.6	149.11
2.8	o‘qituvchilar ish haqi	18000	-	18000
2.9	ma’muriy xarajatlar	1715	1715	-
2.10	texnik xizmat ko‘rsatish qiymati	3946.98	-	3946.98
2.11	kutilmagan xarajatlar	15596.3	10268.18	5328.12
3	Investitsiya davridagi moliyaviy xarajatlar	5328.4	-	5328.4
4	Soliq va bojlardan imtiyozlar hamda QQS qoplab berish	15603.56		15603.56

1 O’zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi rasmiy veb-sayti (https://www.miit.uz) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Yuqoridagi jadvaldan korishimiz mumkinki loyihani amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining ulushining tarkibiy qismlari sifatida 20,490 mln. AQSh dollari ekvivalenti miqdoridagi pul mablag‘lari loyiha bilan qamrab olingan kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 20 ta “ishga marhamat” monomarkazlari va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 6 ta professional ta’lim muassasalarida qurilish-montaj ishlarini, jumladan, binolar va asbob-uskunalarni saqlab turish va ularga texnik xizmat ko‘rsatishni moliyalashtirishga, 15,603 mln AQSh dollari miqdoridagi mablag‘soliq (qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘idan tashqari) va bojxona imtiyozlarini berish hamda qo‘shilgan qiymat solig‘ini qoplashga, 4,250 mln AQSh dollari ekvivalenti miqdoridagi pul mablag‘lari o‘rnatilgan asbob-uskunalar va jihozlarga texnik xizmat ko‘rsatish qiymati, konsalting xizmatlari va mehnat resurslari bilan bog‘liq xarajatlarga, 18,000 mln AQSh dollari miqdoridagi mablag‘ loyiha doirasida belgilangan kasblar yo‘nalishlari bo‘yicha jalb etilgan o‘qituvchilar mehnatiga haq to‘lash xarajatlariga, 5,328 mln AQSh dollari ekvivalenti miqdoridagi mablag‘ investitsiyalash davrida moliyaviy xarajatlarni to‘lashga, 5,328 mln AQSh dollari ekvivalenti miqdoridagi mablag‘ esa kutilmagan xarajatlarni to‘lashga yo‘naltirilishi keltirib o‘tilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda, iqtisodiyotni jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvida, rivojlangan mamlakatlar bilan o‘zaro iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda investitsiya faoliyati muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston o‘ziga xos investitsion iqlim yarata oldi hamda bunga mamlakatning resurslarga boy ekanligi va ularni qazib chiqarish, qayta ishlash borasida korxonalarni tashkil etish, mavjudlarini modernizatsiyalash bo‘yicha berilayotgan keng imkoniyatlar xorijlik investorlarni kirib kelishiga zamin yaratdi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti sharoitida ham investitsiya faolligini oshirish, yuqori samarali investitsion loyihalarni faol tashkil etish mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida o‘z samarasini berishini kuzatishimiz mumkin.


Shu bilan birgalikda iqtisodiyotni jozibadorligini oshirish, faol investitsion muhitni yaratish uchun bir qator vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Hududlarga investitsiyalarni jalb etish va ularni o‘zlashtirishda soliq imtiyozlarini joriy etish bo‘yicha normativ bazani takomillashtirish;
2. Hududlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mavjud shart-sharoitlari va imkoniyatlarini baholashga yo‘naltirilgan dasturiy platformalarni shakllatirish;
3. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha turli modelli huquqiy tartibga solish usullaridan foydalanish, investitsion faoliyatga oid qonunchilikni unifikatsiyalashda raqamli investitsion xizmatlar tizimini shakllantirish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5495-son Farmoni. PF-5495-сон 01.08.2018.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4300-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Osiyo taraqqiyot banki mablag‘larini jalb qilish orqali “Zamonaviy iqtisodiyot uchun ko‘nikmalarni rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 2- fevraldagi 51-sonli Qarori Manba: https://lex.uz/docs/-5846087
4. G‘ozibekov D.G‘., Qoraliyev T.M. (1993) Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish. ─Toshkent: “Iqtisod-moliya”. ─232-b.
5. Mamatov B.S., Xujamqulov D.Y., Nurbekov O.Sh. (2014) Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. ─Toshkent: “Iqtisod-moliya”. ─351-b.
6. Абдукахоров Б.У. (2022) Роль инвестиционной деятельности в экономическом развитии стран G7. “Экономика и социум”, ISSN 2225-1545, №4(95) апрель 2022.

IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA TRANSPORT TADBIRKORLIGI FAOLIYATINI RIVOJLANISH IMKONIYATLARI



M. Masharipova
Urganch davlat universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi

I. Ruzmetova
Urganch davlat universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi

D. Kuramboyeva
Urganch davlat universiteti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi stajor-o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda transport tadbirkorligi faoliyatining ahamiyati yoritilgan, ushbu sohani rivojlantirish ko‘rsatkichlari tahlil qilingan va transport tadbirkorligi faoliyatining rivojlanish imkoniyatlari asoslangan.

Kalit so‘zlar: transport, tadbirkorlik, iqtisodiy o‘sish, tadbirkorlik faoliyati, transport tadbirkorligi, yo‘lovchi tashish, yuk tashish.

Abstract: This article highlights the importance of transport entrepreneurship in ensuring economic growth, analyzes the indicators of the development of this sector, and provides opportunities for the development of transport entrepreneurship.

Key words: transport, entrepreneurship, economic growth, business activity, transport business, passenger transportation, cargo transportation.

Аннотация: В данной статье подчеркивается значение транспортного предпринимательства в обеспечении экономического роста, анализируются показатели развития данного сектора, а также приводятся возможности для развития транспортного предпринимательства.

Ключевые слова: транспорт, предпринимательство, экономический рост, деловая активность, транспортное дело, пассажирские перевозки, грузоперевозки.

KIRISH

Bugungi kundagi mamlakatimizdagi ustuvor yo‘nalishlardan biri iqtisodiy o‘sishni ta’minlash hisoblanadi. Ushbu o‘sishni ta’minlash uchun tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va samarali rivojlantirish maqsalga muvofiq. Transport sohasida tadbirkorlik faoliyatini keng taraqqiy qildirish ustuvor sohalar bo‘lib hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “Masalan, davlat-xususiy sheriklik orqali qishloq, suv, o‘rmon xo‘jaliklari, transport sohalariga bemalol yiliga 1 mlrd. dollargacha sarmoya olib kelish mumkin. Kelgusi yilda ham eksport qiluvchilarga transport va boshqa xarajatlarini kompensatsiya qilish davom ettiriladi” [1], deb ta’kidlangan.

Darhaqiqat, istiqbolda transport sohasini keng taraqqiy qildirish tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va ularni samarali rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadbirkorlik faoliyati rivojlantirish bo‘yicha turli qarashlar va yondashuvlar mavjud. Ushbu faoliyat negizida tadbirkorlik tushunchasi yotadi va iqtisodiy kategoriya sifatida turli shakllarda bo‘lishi mumkin. Tadbirkorlik yakka, guruh va jamoa holida yuz berishi mumkin, faoliyatlari biznes mazmuniga ega bo‘lishi kerak [4]. Tadbirkorlik faoliyatining transport sohasida tashkil etilishi transport biznesi yoki tadbirkorligi bo‘lib hisoblanadi. Trans-

port sohasidagi tadbirkorlik - tovarlarning ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga o'tishini tashkil etish va boshqarish bilan shug'ullanadigan iqtisodiyotning bir tarmog'idir. U tovarlarni yetkazib berishning barcha bosqichlarini, shu jumladan transport, omborxona, qadoqlash va tarqatishni rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish bilan bog'liq tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy o'sishni rivojlantirishda transport tadbirkorligi zamonaviy iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Xususan, yetkazib berish zanjirlarining samarali ishlashini ta'minlaydi hamda yuklarni o'z vaqtida yetkazib berishni ta'minlaydi. U avtomobil, temir yo'l, dengiz va havo kabi turli xil transport turlarini, shuningdek, saqlash xizmatlarini o'z ichiga oladi. Transport tadbirkorligining asosiy maqsadi tovarlarni yetkazib berish jarayonida vaqt, narx va sifatning maqbul birikuvini ta'minlashdir [7]. Buning uchun masofa, yuk hajmi, xavfsizlik talablari va yetkazib berish muddati kabi omillarni hisobga olish lozim. Transport tadbirkorligi ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar, tashuvchilar va iste'molchilar kabi ta'minot zanjirining turli ishtirokchilari o'rtasidagi ta'sirni ta'minlash uchun axborot va aloqani boshqarishni ham o'z ichiga oladi.

Transport tadbirkorligi iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan. Bu borada sohaga oid qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Shunga ko'ra, transport xizmatlari ko'rsatish qonun hujjatlari bilan mustahkamlangan huquqiy asosga egadir. Ushbu hujjatlar: turli xalqaro transport tashkilotlar tomonidan, mamlakatlarning milliy qonunchiligi doirasida, yuk va yo'lovchi tashuvchilarning ichki qoidalari tarzida ishlab chiqilgan [2].

Shuningdek, mamlakat transport sohasining rivojlanishiga bir qancha ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularga tabiiy-geografik sharoit, yer yuzasining tuzilishi, hududning o'zlashtirilganlik darajasi, aholi manzilgohlari orasidagi masofa, hudud tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan foydalanish darajasi, hududning xalqaro transtuzilmalaridagi o'rni va boshqalarni kiritish mumkin [5]. Mazkur omillar transport tadbirkorligini samarali amalga oshirishni ta'minlashga xizmat qiladi. Korxonalar, tarmoqlar va tarmoqlararo komplekslarda ishlab chiqarish sur'atini tezlashtirish, mahsulot hajmini ko'paytirish, uning sifatini oshirish, ishlab chiqarishning foydaliligini ko'tarish uchun fan-texnika tarqqiyotini jadallashtirish kerak [3].

Amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko'ra, transport tadbirkorligini tashkil etishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- optimallashtirish;
- muvofiqlashtirish;
- moslashuvchanlik;
- uzluksizlik;
- tejamkorlik.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tadqiqotning tahlil, sintez, iqtisodiy usul, mantiqiy tahlil, induktiv, deduktiv va abstrakt fikrlash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda transport tadbirkorligi faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etib, bu bevosita yangi tarmoq sifatida transport tadbirkorligini tashkil etish va uning faoliyatini keng taraqqiy qildirish maqsadga muvofiq.

Fikrimizcha, transport tadbirkorligini tashkil etish quyidagi bosqichlarga asosan amalga oshiriladi (1-rasm):



1-rasm: Transport tadbirkorligini tashkil etish bosqichlari[1]

1 Manba: Mualliflar ishlanmasi.

Ushbu rasmga asosan, transport sohasida iqtisodiy faoliyat amalga oshirilib, natijada yo‘lovchi va yuk tashish xizmatlarini ko‘rsatish keng taraqqiy qilib bormoqda. Xususan, ushbu xizmat turlari transport turlari bo‘yicha alohida ajratiladi (1-jadval).

1-rasm: 2015-2022-yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi qiymati [6]

Ko‘rsatkichlar	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2022-yildan 2015-yilga nisbatan o‘zgarish, % da
Tashilgan yo‘lovchilar, mln. kishi	5380,0	5560,4	5679,0	5951,5	6025,1	5295,9	6029,7	6245,3	16,1
temir yo‘l	20,1	20,5	21,1	22,1	22,9	6,2	7,9	9,0	-55,2
avtomobil	5293,2	5480,8	5591,3	5852,8	5915,2	5248,5	5914,2	6092,1	15,1
trolleybus	0,8	0,8	0,5	0,5	0,7	0,3	0,5	0,5	-37,5
tramvay	11,4	2,7	2,3	4,4	3,8	1,2	2,3	2,9	-74,6
metropoliten	52,3	53,5	61,6	69,1	79,2	38,8	101,8	136,7	161,4
havo yo‘li	2,2	2,1	2,2	2,6	3,2	0,9	3,0	4,1	86,4
Yo‘lovchi aylanmasi, mlrd. yo‘lovchi-km	120,1	126,0	130,0	135,3	140,1	118,3	137,0	146,5	22,0
temir yo‘l	3,8	4,0	4,3	4,3	4,4	1,8	3,1	3,6	-5,3
avtomobil	109,1	114,9	117,7	121,6	124,1	113,2	127,9	131,0	20,1
trolleybus	0,02	0,02	0,01	0,02	0,02	0,01	0,01	0,01	-50,0
tramvay	0,04	0,01	0,01	0,03	0,02	0,004	0,01	0,01	-75,0
metropoliten	0,4	0,4	0,5	0,5	0,6	0,3	0,7	1,0	150,0
havo yo‘li	6,8	6,7	7,5	8,8	11,0	3,0	5,3	10,9	60,3

Ushbu jadvalda keltirilgan avtoomobilda tashish xizmati statistika organlari tomonidan alohida faoliyat turlarini hisoblash uslubiyatining o‘zgarishi sababli 2010-yildan ma’lumotlar aniqlashtirilgan. Mazkur jadval tahliliga ko‘ra, 2015-yilda tashilgan yo‘lovchilar soni 5380,0 mln.kishiga teng bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022-yilda 6245,3 mln.kishini tashkil etgan. Shundan, mos ravishda temir yo‘lda tashilgan yo‘lovchilar soni 20,1 mln. kishiga (9,0 mln.kishiga), avtomobilda tashilgan yo‘lovchilar soni 5293,2 mln.kishiga (6092,1 mln.kishiga), trolleybusda tashilgan yo‘lovchilar soni 0,8 mln.kishiga (0,5 mln.kishiga), tramvayda tashilgan yo‘lovchilar soni 11,4 mln.kishiga (2,9 mln.kishiga), metropolitenda tashilgan yo‘lovchilar soni 52,3 mln.kishiga (136,7 mln.kishiga) hamda havo yo‘lida tashilgan yo‘lovchilar soni 2,2 mln.kishiga (4,1 mln.kishiga) teng bo‘lgan.

Shuningdek, 2015-yilda yo‘lovchi aylanmasi hajmi 120,1 mlrd. yo‘lovchi-km.ga teng bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022-yilda 146,5 mlrd. yo‘lovchi-km.ni tashkil etgan. Shundan, mos ravishda temir yo‘lda tashilgan yo‘lovchilar soni 3,8 mlrd. yo‘lovchi-km.ga (3,6 mlrd. yo‘lovchi-km.ga), avtomobilda tashilgan yo‘lovchilar soni 109,1 mlrd. yo‘lovchi-km.ga (131,0 mlrd. yo‘lovchi-km.ga), trolleybusda tashilgan yo‘lovchilar soni 0,02 mlrd. yo‘lovchi-km.ga (0,01 mlrd. yo‘lovchi-km.ga), tramvayda tashilgan yo‘lovchilar soni 0,04 mlrd. yo‘lovchi-km. ga (0,01 mlrd. yo‘lovchi-km.ga), metropolitenda tashilgan yo‘lovchilar soni 0,4 mlrd. yo‘lovchi-km.ga (1,0 mlrd. yo‘lovchi-km.ga) hamda havo yo‘lida tashilgan yo‘lovchilar soni 6,8 mlrd. yo‘lovchi-km.ga (10,9 mlrd. yo‘lovchi-km.ga) teng bo‘lgan. Hamda 2022-yildan 2015-yilga nisbatan tashilgan yo‘lovchilar soni 16,1 foizga, yo‘lovchi aylanmasi hajmi esa 22 foizga oshgan.

Transport tadbirkorligini amalga oshirish natijasida mamlakatimizda transport turlari bo‘yicha yuk tashish va aylanmasi hajmi dinamik ravishda o‘zgarib bormoqda (2-jadval).

2-jadval: 2015-2022-yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi hajmi [6]

Ko'rsatkichlar	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2022-yildan 2015-yilga nisbatan o'zgarish, % da
Tashilgan yuklar, mln.t	1070,5	1132,5	1146,2	1243,0	1319,8	1366,7	1420,2	1420,9	32,7
temir yo'l	67,2	67,6	67,9	68,4	70,1	70,6	72,0	73,4	9,2
avtomobil	943,3	1002,8	1013,1	1102,2	1177,7	1238,2	1282,0	1284,1	36,1
quvur yo'li	60,0	62,2	65,1	72,4	72,0	57,9	66,2	63,5	5,8
havo yo'li, ming	24,6	26,5	26,4	13,1	10,4	5,3	9,1	10,2	-58,5
Yuk aylanmasi, mlrd. t-km	65,8	65,3	66,9	71,3	72,6	66,9	74,8	75,5	14,7
temir yo'li	22,9	22,9	22,9	22,9	23,4	23,6	24,6	25,0	9,2
avtomobil	12,8	13,3	13,6	14,6	15,9	16,2	19,1	20,5	60,2
quvur yo'li	30,0	28,9	30,2	33,6	33,2	26,8	30,8	29,7	-1,0
havo yo'li, mln. t-km	131,1	132,2	156,9	123,5	119,0	219,0	303,5	322,8	146,2

Ushbu jadvalda ham alohida faoliyat turlarini hisoblash uslubiyatining o'zgarishi sababli statistika organlari tomonidan 2010-2016-yillar ma'lumotlari aniqlashtirilgan. Jadval tahliliga ko'ra, 2015-yilda tashilgan yuklar hajmi 1070,5 mln.t. ga tenga bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda esa 1420,9 mln.t. ga teng bo'lgan. Shulardan, mos ravishda temir yo'lniki 67,2 mln.t. ga (73,4 mln.t. ga), avtomobilniki 943,3 mln.t. ga (1284,1 mln.t. ga), quvur yo'liniki 60,0 mln.t. ga (63,5 mln.t. ga), havo yo'liniki 24,6 mln. t-km. ga (10,2 mln. t-km.) ga teng bo'lgan. Shuningdek, yuk aylanmasi hajmi 2015-yilda 65,8 mlrd. t-km.ga va 2022-yilda 75,5 mlrd. t-km.ga teng bo'lgan. Shundan, temir yo'lida 22,9 mlrd. t-km. (25,0 mlrd. t-km.), avtomobilda 12,8 mlrd. t-km. (20,5 mlrd. t-km.), quvur yo'lida 30,0 mlrd. t-km. (29,7 mlrd. t-km.) va havo yo'lida 131,1 mln. t-km. (322,8 mln. t-km.) qiymatlarga ega bo'lgan. Hamda 2022-yildan 2015 yilga nisbatan tashilgan yuklar hajmi 32,7 foizga va yuk aylanmasi hajmi 14,7 foizga oshgan.

XULOSA

Iqtisodiy o'sishni ta'minlash usullaridan biri transport tadbirkorligi faoliyatini samarali rivojlantirish hisoblanadi. Ushbu tadbirkorlik transportning barcha turlari bilan birgalikda iqtisodiy faoliyat olib borishni ifodalaydi. Transport sohasidagi tadbirkorlikni bilan birgalikda transport sohasini samarali rivojlantirishni taqozo qiladi. Bugungi kunda transport tadbirkorligi zamonaviy tadbirkorlik shakli sifatida sohaning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu sohaning samaradorligini unga ta'sir qiluvchi ichki va tashki omillarning natijalariga bevosita bog'liq bo'ladi. Transport tadbirkorligi o'z tamoyillariga va iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bosqichlariga ega bo'ladi. Mamlakatimizda transport tadbirkorligining iqtisodiy holatini tashilgan yo'lovchilar va yo'lovchi aylanmasi miqdori, shuningdek tashilgan yuklar va yuk aylanmasi hajmi ko'rsatkichlari ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil uchun Murojaatnomasi. 2022-yil 22-dekabr. Manba: https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn.
2. Norchayev A.A., Umirova D.S. Turizmda transport xizmatlari. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyoti, 2020. –13 b.
3. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. –T.: TDIU, 2009. –151 b.
4. Rasulov M.R. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Darslik. – T.: O'zbekiston, 1998. – 217 b.
5. Yakubov I.O., Islomov A.A., Sunnatov M.N. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik. – T., 2019. – 103 b.
6. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2
7. https://nauchniestati.ru/spravka/organizacziya-transportno-logisticheskogo-biznes.

SUG‘URTA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA ANDERRAYTING XIZMATINING O‘RNI



Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), ISFT Instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda va rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta anderraytingini sug‘urta faoliyatidagi o‘rni tahlil qilingan. Sug‘urtada anderrayting xizmatini o‘rni va uni takomillashtirish zarurligi asoslangan. Sug‘urta kompaniyalarini moliyaviy barqarorlik omillari ichida sug‘urta anderrayting xizmatini muhumligi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta faoliyati, sug‘urta kompaniyasi, sug‘urta anderraytingi, sug‘urtada anderrayting funksiyalari,anderrayter vazifalari, anderrayter huquqi.

Abstract: This article analyzes the role of underwriting in the insurance activities of Uzbekistan and developed countries. The role of underwriting services in insurance and the need for its improvement are substantiated. Among the factors of financial stability of insurance companies, the importance of insurance underwriting services has been studied.

Key words: insurance activity, insurance company, insurance underwriting, underwriting functions in insurance, responsibilities of the underwriter, rights of the underwriter.

Аннотация: В данной статье анализируется роль андеррайтинга в страховой деятельности Узбекистана и развитых стран. Обоснована роль андеррайтинговой услуги в страховании и необходимость ее совершенствования. Среди факторов финансовой устойчивости страховых компаний изучено значение страховой андеррайтинговой услуги.

Ключевые слова: страховая деятельность, страховая компания, страховое андеррайтинг, андеррайтинговые функции в страховании, обязанности андеррайтера, права андеррайтера.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida sug‘urta sohasining ahamiyati muhim o‘rin tutadi. Sug‘urta faoliyatini rivojlanishi sababli jismoniy va yuridik shaxslar turli xavf-xatarlar ortidan keladigan zararlardan qisman yoki to‘liq himoyalanishi orqali ularning farovonlik darajasi oshadi. Sug‘urta sohasini rivojlanishida ko‘pgina xizmatlarni ham takomillashtirish zaruriyati mavjud. Sug‘urta faoliyatini amalga oshirishda risklar bilan mukammal ishlash ya’ni ularni boshqarish bilan bog‘liq xizmatni o‘rni mavjud bo‘lib dunyo amaliyotida ushbu xizmat sug‘urta anderrayting xizmati deb ataladi. Sug‘urta anderrayterlari sug‘urtaga qabul qilinayotgan javobgarlikni sug‘urta tashkilotini aktivlariga mosligini tahlil qiluvchi va riskni sug‘urtaga qabul qiluvchi professional mutaxassislar hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga e’tibor qaratsak ularda sug‘urta sohasi mamlakat iqtisodiyoti uchun salmoqli hissa qo‘shmoqda. AQSH Yaponiya va Germaniya kabi mamlakatlarda sug‘urta sohasi takomillashuvida anderrayting xizmatining o‘rni beqiyos. U mamlakatlarda sug‘urta anderrayterlari zamonaviy axborot texnologiyalarini hamda sun’iy intellektni qo‘llagan holda jozibador sug‘urta xizmatlarini shakllantirib yirik miqdordagi sug‘urta mukofotlarini yig‘ish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Ayniqsa Xitoyda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi va xalqining moddiy ahvolining yaxshilanishida hamda aholining daromadlarini oshishida sug‘urta anderrayterlarining ijobiy ta’siri keng.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug‘urta sohasida anderrayting xizmatini tashkil etish va uning mohiyatini kengaytirish, sug‘urta anderrayterlari uchun belgilangan meyorlarni belgilash, sug‘urtada anderrayting siyosatini amalga oshirish, anderrayting strategiyasi kabi muammolarni nazariy va amaliy jarayonlarni o‘rganish bo‘yicha K.G.Voliy, S.A.Osenko, O.N.Kozlov, V.V.Shaxov, S.L.Yefimov, A.Siganov, N.S.Yaroshenko va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib biz bu boradagi ilmiy ishlarni tahlil qildik.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug‘urta faoliyati sug‘urtalanuvchi va sug‘urtalovchi o‘rtasidagi oldi sotdi jarayonida hosil bo‘ladigan munosabatlar majmuidir. Dastlabki sug‘urta bozorida ishtirokchilar zamonaviy sug‘urta bozoriga nisbatan kam bo‘lgan. Zamonning shiddat bilan rivojlanishi oqibatida insoniyat taraqqiyotiga mos holda sug‘urta sohasi ham rivojlanib bormoqda. Zamonaviy sug‘urta bozori va o‘tgan davrlardagi sug‘urta bozori o‘rtasida anchagina tafovut mavjud. Zamonaviy sug‘urta bozori ishtirokchilari va ularning vazifalari jamiyatdagi global murakkab xavf-xatarlarga moslashgan holatda kengayib bormoqda. Sug‘urta bozori pul munosabatlarini o‘zida aks ettiradi. Sug‘urta bozoridagi talab insoniyat yashash tarzini rivojiga moslashadi. Bundan yuz yil oldingi sug‘urta mahsulotlari bilan hozirgi sug‘urta mahsulotlari o‘rtasida kattagina farq mavjud bo‘lib kishilik jamiyati taraqqiy topgan sari xavf-xatarlarning turi ham ko‘paymoqda ham murakkablashmoqda.Ushbu xavf-xatarlaga to‘g‘ri baxo berish va ularni to‘g‘ri boshqarish sug‘urta anderrayterlaridan katta bilim va mahoratni talab qiladi.

Sug‘urta sohasida anderrayting xizmatini tashkil etilishiga dastlabki xarakat asosan Yevropa mamlakatlarida 17-18 asrlardan boshlanadi. Angliya poytaxti Londonda 1680-yili Yedvard Lloyd ismli shaxs “Lloyd kofe uyi” “Lloyd’s Coffee House” ni tashkil etadi, o‘sha vaqtlarda bunaqa qahvaxonalarda mulkdorlar, savdogarlar, kema egalari hamda turli xil insonlar yig‘ilishib asosiy yangilik va muammolarni tahlil qilishgan, ayniqsa intellektual munozaralarni o‘tkazishgan. Yedvard Lloyd o‘z qahvaxonasida faoliyat olib borish bilan birgalikda, Angliyalik tadbirkorlarni mulkdorlarni savdogarlarni asosiy muammolaridan biri bo‘lgan turli xavf xatarlar ortidan ularga kelayotgan mulkiy yo‘qotishlarni oldini olish bo‘yicha himoyalash mexanizmini yaratish bo‘yicha xulosaga ega bo‘la boshlaydi. 1691-yilga kelib Yedvard Lloydning “Lloyd's Coffee House” qahvaxonasi eng so‘nggi yuk tashish yangiliklarini taraqatish hamda dengiz xizmati bo‘yicha auksion narxlarini e’lon qiluvchi markaz sifatida mashhur bo‘ladi. Aynan o‘sha davrda banklar yuk tashish bo‘yicha mavjud xatarlarni ortidan keladigan mulkiy yo‘qotishlarni o‘z zimmalariga olish evaziga yuk egalaridan mukofot olish amaliyotini tashkil eta boshlashadi. Sug‘urtaga qabul qilinayotgan xavf-xatar to‘g‘risidagi kompleks ma’lumotlardan xulosa chiqarib sug‘urta tashkilotining aktivlariga mos keluvchi xavf-xatarlarni sug‘urtaga qabul qilish bo‘yicha qaror chiqarish sug‘urta anderrayting tizimining bosh vazifasi hisoblanadi.

Yedvard Lloydning “Lloyd's Coffee House” qahvaxonasi zamonaviy sug‘urta xizmatini tashkil etilgan joy sifatida mashhurlashgan. Bankirlar tashilishi kerak bo‘lgan yuk va uning etib borishi lozim bo‘lgan manzili hamda ushbu yukni tashuvchi kema va ushbu vaqtdagi ob-havo haqidagi ma’lumotlar haqidagi e’lon taxtasiga xatarlar bo‘yicha javobgar ekanligini bildirib o‘z nomini yozadilar. Ushbu amaliyot anderrayting xizmati deb nomlanadi. Dastlabki sug‘urta anderraytingi – jismoniy shaxs yoki tashkilot ma’lum haq evaziga moliyaviy yo‘qotishni qoplash majburiyatini oldigan jarayonni bildirgan. Vaqt o‘tishi bilan davr talabidan kelib chiqib sug‘urtada anderrayting xizmati tushunchasi sifatida sug‘urta kompaniyasiga risklarni qabul qiluvchi professional mutaxassis faoliyati tushinila boshlandi.

Sug‘urta faoliyatida anderrayting xizmati orqali xavf-xatar o‘rganilib sug‘urtaga qabul qilinadi. Ushbu jarayonni chuqur tahlillar va asosli xulosalarga tayangan holda amalga oshirilish talab etiladi. Sug‘urta kompaniyasi etarli darajada xavf-xatarni boshqarish amaliyotiga ega bo‘lmasa moliyaviy barqarorligiga putur etishi mumkin. Sug‘urta tashkilotidagi mavjud aktivlardan kelib chiqib shunga mos bo‘lgan hajmdagi javobgarlikni sug‘urtaga qabul qilish bo‘yicha qarorni sug‘urta anderrayterlari amalga oshirish kerak. Agarda aktivlarga nisbatan javobgarlik oshib ketsa yoki sug‘urta klassifikatori bo‘yicha sug‘urta portfeli muvozanati shakllantirilmasa sug‘urta tashkiloti bankrotlik holatiga tushishi mumkin.

Zamonaviy sug‘urta faoliyatida sug‘urta anderrayterlari sug‘urtaga qabul qilinayotgan xavf-xatarni baholash va uning barcha jixatlarini ilmiy amaliy yondashuv orqali ko‘rib chiqish hamda xavf-xatarni qabul qilish bo‘yicha qaror qabul qiladi. Sug‘urta anderrayterlari hayot sug‘urtasi tarmog‘idagi va umumiy sug‘urta tarmog‘idagi barcha sug‘urta turlaridagi xavf-xatarlarni qabul qilishda ishtirok etadi. Sug‘urta anderrayterlari tibbiy sug‘urtaga xavf-xatarni qabul qilishda o‘ziga xos tajribaga ega bo‘lishlari shart. Shuningdek mulkiy va javobgarlik sug‘urtalarida ham xavf-xatar bo‘yicha mukammal amaliy bilimga va tajribaga ega bo‘lishlari kerak. Sug‘urta anderrayterlari sug‘urtaning barcha tarmoqlarida sug‘urta polisiga ehtiyoji mavjud bo‘lgan potensial sug‘urtalanuvchilarda yuzaga keladigan xavfni baholaydilar. Sug‘urta anderrayterlarining asosiy maqsadi sug‘urta shartnomasining sug‘urtalovchi uchun foydali ekanligini aniqlashdan iborat. Sug‘urta anderrayterlari sug‘urtalanuvchiga tegishli bo‘lgan sug‘urta stavkasini aniqlaydi hamda sug‘urtalanuvchiga franshiza qo‘llash amaliyotini bajaradi.


Sug‘urta anderrayterlari sug‘urta risklari haqida keng bilimga ega bo‘lgan, jismoniy va yuridik shaxslarga qanday sharoitlarda sug‘urta qoplamasini taqdim etish to‘g‘risida qaror qabul qiluvchi professionallardir.

Sug‘urtada anderraytingning asosiy funksiyalari quydagicha:

- Xavf-xatarni baholash funksiyasi.
- Sug‘urta portfelini shakllantirish va muvozanatini saqlash funksiyasi.
- Sug‘urta shartlarini aniqlashtirish funksiyasi.
- Sug‘urta stavkalarini ma’qul shartlarda qabul qilish funksiyasi.

Sug‘urta faoliyatida anderrayting xizmati orqali ya’ni anderrayter tomonidan sug‘urtaga qabul qilinishi ko‘zda tutilgan xavf-xatar kompleks baholanadi. Sug‘urta xodisasi ro‘y berganda mumkin bo‘lgan eng katta zarar, zararning sodir bo‘lish ehtimolligi, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan zararni matematik kutilishi kabi omillar xavf-xatarni baxolashning muhim shartlari hisoblanadi. Anderrayting xizmati orqali xavf-xatar sodir bo‘lishiga ta’sir qiluvchi omillar barcha sug‘urta turlari bo‘yicha belgilangan normalar doirasida sifatli va chuqur tahlil etilishi shart. Masalan mol-mulk sug‘urtasida yong‘in xavfsizligi tizimining sifati, qo‘riqlash signallarini mavjudligi va sifatli ishlashi, javobgarlik sug‘urtasida mutaxassislarni vrachlar, notariuslar, transport va avia transport boshqaruvchilarining tayyorgarlik darajasi va tajribasi ko‘rsatkichlari o‘rganilib xavf-xatar qabul qilinishida bu omillar hisobga olinadi. Sug‘urtada anderrayting xizmati orqali xavf-xatar baxolanayotganda xavf-xatarning barcha parametrlari kompleks chuqur va sifatli o‘rganilishi kerak. Sug‘urtada anderrayting xizmatini sifati anderrayterning bilimi, tajribasi va ko‘nikmalariga bevosita bog‘liq hisoblanadi shuning uchun anderrayterlar sohalarga mos ravishda shakllantirilishi kerak.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta tashkilotlari tomonidan sug‘urta xizmatlarini tashkil etishda sug‘urta anderrayting xizmatidan foydalanish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Sug‘urta kompaniyalarida asosan 2016–2023-yillar oralig‘ida sug‘urta anderrayterlari faoliyatidan keng foydalanilmoqda. “O‘zbekinvest” eksport-import aksiyadorlik jamiyati sug‘urta kompaniyasi faoliyatida sug‘urta anderrayterlarining tutgan o‘rni yuqori hisoblanadi.



1-diagramma: O‘zbekinvest AJ sug‘urta kompaniyasida anderrayterlar soni[1]

Diagramma ma’lumotlariga ko‘ra “O‘zbekinvest” eksport-import aksiyadorlik jamiyati sug‘urta kompaniyasida sug‘urta anderrayterlar soni so‘nggi o‘n yillikda qariyib bir barobarga oshgan ya’ni 2013-yilda jami sug‘urta anderrayterlari soni 131 tani tashkil etib kompaniyadagi jami xodimlarning 35 foizini tashkil etgan. 2014 va 2015-yillarda sug‘urta anderrayterlar soni 30 taga oshgan. 2022 va 2023-yillarda kompaniyadagi sug‘urta anderrayterlari soni 254 tani tashkil etib jami xodimlar soniga nisbatan 46 foizni tashkil etgan. Sug‘urta anderrayterlari soni kompaniyani boshqa xodimlariga nisbati oshayotganligi ushbu kompaniyada sanderrayting xizmatidan keng miqyosda samarali foydalanilayotganligidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug‘urta faoliyatida anderrayting xizmatining asosiy vazifalaridan biri daromadli sug‘urta portfelini muvozanatli boshqarish hisoblanib, sug‘urta portfeli sug‘urta kompaniyasi tomonidan faoliyati doirasidagi sug‘urta klasslari bo‘yicha olingan umumiy javobgarlikdir. Sug‘urta portfeli muvozanati deganda sug‘urta kompaniyasi aktivlari va ustav jamg‘armasi doirasida qabul qilingan javobgarlikni sug‘urta xodisasi yuz berish ehtimolligidan kelib chiqib sug‘urta klasslari bo‘yicha uzuluksiz qabul qilish jarayonidir. Sug‘urta anderrayteri qaysi sug‘urta turi yoki klassi bo‘yicha javobgarlikni kamaytirish yoki ko‘paytirish haqidagi qarorni qabul qilishi hamda

1 “O‘zbekinvest” eksport-import aksiyadorlik jamiyati sug‘urta kompaniyasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

sug‘urta vositachilariga beriladigan mukofotlarni belgilab berish orqali sug‘urta tashkiloti faoliyatini amalga oshirilishiga xizmat qiluvchi subyekt hisoblanib uning qarori sug‘urta tashkilotining moliyaviy barqarorligiga ta’sir etadi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sug‘urta bozorini takomillashtirishda sug‘urta anderrayterlari sonini mumkin qadar oshirib borish zarur.


Xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqsak sug‘urta anderrayterlari faoliyatini huquqiy asosini kengaytirish hayot sug‘urta tarmog‘ida sug‘urta anderrayterlari faoliyatini yanada oshirish orqali ushbu sug‘urta tarmog‘ini takomillashtirish zarur. Bugun dunyodagi yalpi yig‘ilayotgan sug‘urta mukofotlarini qariyib 12 foizini yig‘ayotgan Xitoy sug‘urta bozorida aynan sug‘urta anderrayterlari faoliyati kengaymoqda. Xitoy sug‘urta bozori asosan JST ga a’zo bo‘lingan 2001-yildan so‘ng tezroq rivojlana boshlaganligi hamda qisman transmilliy sug‘urta kompaniyalarni ichki sug‘urta bozoriga bosqichma - bosqich kirib kelishi bo‘yicha imkoniyatlar yaratilganligi tajribasidan kelib chiqib O‘zbekiston sug‘urta bozoriga ham qisman transmilliy sug‘urta kompaniyalarini kirib kelishiga imkoniyat yaratilishi milliy sug‘urta kompaniyalarini ba’zi tomondan, ayniqsa sug‘urtalanuvchilarni naflantirish bo‘yicha tizimli faoliyatini kengayishiga sabab bo‘ladi, shuningdek sug‘urta anderrayterlari faoliyatiga sun’iy intellektdan foydalangan holda anderrayting xizmatlarini tashkil etish kerak.

Sug‘urta kompaniyalarida anderraytingni eng katta vazifasi sug‘urta xavf-xatarlarini baholashdan iborat bo‘lishi bo‘lishi kerak, ushbu vazifani anderrayter zimmasiga qonuniy yuklash va sug‘urta hodisalarini chuqur tahlil qilish hamda ekspertizani xulosalarini hisobga olish zarur jarayon hisoblanadi. Agar anderrayterni xulosa qoniqtirmasa qaytadan ekspertiza belgilash huquqini berish kompaniyaga katta foyda keltiradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Statista [statista.com] – “Value of newly contracted annualized insurance premiums at insurance shops in Japan from fiscal year 2011 to 2018 with a forecast until 2020” / [https://www.statista.com/statistics/707052/japan-insurance-premiums-value/]
2. Qo‘ldoshev Q.M. O‘zbekistonda o‘zaro sug‘urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2019. – 75 b.;
3. Обзор рынка страхования в России, КПМГ, 2019. URL:https://assets.kpmg/content/dam/kpmg/ru/pdf/2019/07/ru-ru-insurance-survey2019.pdf
4. Ю. А. Сплетухов. Страховой рынок Китая: реалии, проблемы и перспективы //Страховое дело. – 2019. – № 1 (310). – С. 25-32.
5. Zhao Ran, Overview on Development Prospects of Chi-nese Insurance Industry in Terms of opening the financial in-dustry, CITIC Securities, 2019.
6. Kihwan K. “The Korean Economy: Past Performance, Current Reforms and Future Prospects” // Korean Development Institute. 2015.
7. WTO Secretariat, “Trade Policy Review: Singapore”, 2018 / URL: www.wto.org/english/ tratop_e/tpr_e/tp_rep_e.htm#bycountry

O‘ZBEKISTONDA EKSPORTNI SUG‘URTALASH MEXANIZMLARINI YANADA KENGAYTIRISH YO‘NALISHLARI



Qarshiyev Keldiyor Eshpulatovich
Olmaliq shahar hokimyati mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha hokim yordamchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda eksport faoliyatini sug‘urtalash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan samarali tadbirlarni tashkil etishga xizmat qiluvchi Eksportni sug‘urtalash agentligi faoliyatini tashkil etishga qaratilgan ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: eksport faoliyati, eksport kreditlarini sug‘urtalash, eksport yuklarini sug‘urtalash, eksport kredit agentliklari, qishloq xo‘jaligi sohasi eksporti, yengil sanoat sohasi eksporti, eksportni moliyalashtirish mexanizmlari , eksportni sug‘urtalash faoliyatida xorij tajribasi.

Abstract: This article provides information on the organization of the Export Insurance Agency, which serves to organize effective measures aimed at improving the mechanisms of export insurance in Uzbekistan.

Key words: foreign experience in export activities, export credit insurance, export cargo insurance, export credit agencies, export of agricultural products, export of light industry, export financing mechanisms, export insurance activities.

Аннотация: В данной статье представлена информация об организации Агентства по экспортному страхованию, которое служит для организации эффективных мероприятий, направленных на совершенствование механизмов экспортного страхования в Узбекистане.

Ключевые слова: зарубежный опыт экспортной деятельности, страхование экспортных кредитов, страхование экспортных грузов, экспортно-кредитные агентства, экспорт сельскохозяйственной продукции, экспорт легкой промышленности, механизмы экспортного финансирования, экспортно-страховая деятельность.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida mamlakat eksport salohiyatini oshirish uchun tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymat mavjud bo‘lgan tayyor va yarim tayyor eksport mahsulotlar ishlab chiqarilishini moliyalashtirish va turli xil risklardan sug‘urtalash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksportga jo‘natilgan mahsulotlar haqini oldindan moliyalashtirish, yani eksport oldi va eksportdan so‘ng shuningdek eksport yuklari uchun kreditlar berish hamda eksport faoliyatini sug‘urtalash maqsadida moliya va kapital bozorlarini yanada rivojlantirish zarur vazifa hisoblanadi. Mamlakat eksport tarkibini diversifikatsiya qilish aynan samarador sohalarni eksport jarayonlarini takomillashtirish yalpi ichki mahsulot hajmining oshishiga olib keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Eksportni sug‘urtalash va unga moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha MDH va xorijiy mamlakatlarda ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Maqolani yozish avomida MDH mamlakatlari olim va mutaxassislaridan A. I. Prishepa, A. O. Petrov, N. N. Shekolinskiy, N. Petrakov[1], shuningdek, xorijiy olim va mutaxassislardan Patrik Messerlin, Xideki Funatsu va A.Karterning[2] bu boradagi ilmiy ishlarini tahlil qildik.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon iqtisodiyotida salmoqli o‘rin egallagan mamlakatlarda eksport faoliyati davlat tomonidan turli xil qo‘llab-quvvatlash instrumentlari orqali sug‘urtalanadi va kafolatlanadi.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda eksportni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan oqilona iqtisodiy siyosat sababli muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Malakatimizda olib borilayotgan samarali eksport amaliyoti va eksportni rag‘batlantirish mexanizmining zamonaviy trendlari tajribalarini o‘zlashtirish asosida uning samarali vosita va usullarini qo‘llash iqtisodiy taraqqiyotga sabab bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasining o‘rta va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishida eksportni iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sirini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlarini ilmiy asoslash, mamlakat eksport salohiyatini ko‘tarish va tashqi bozorlarda mahsulotlarimiz raqobatbardoshligini oshirish - muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi[3].

O‘zbekistonda eksport hajmi o‘sib bormoqda, biroq shu bilan bir qatorda, eksportni amalga oshirish jarayonida milliy eksportchilar oldida tashqi savdo operatsiyalarini kreditlash tizimining murakkabligi, eksport mahsulotlarini sotish va ularni logistikasi bilan bog‘liq xavf-xatarlardan kompleks sug‘urta qilish, tashqi bozorlarga chiqishda axborot va maslaxat xizmatlarining noyobligi va qimmatligi kabi yechimi kutilayotgan muammolar mavjud.

Yangilanayotgan O‘zbekistonning eksport salohiyati so‘nggi yillarda oshib borayotganligi, hududlar miqyosida eksport qiluvchi tadbirkorlik sub’eklari soni ko‘payib borayotganligi kabi ijobiy holatlar mavjud lekin xorijiy mamlakatlar eksporti qo‘llab quvvatlanish jarayonlarini tahlil qilsak ba’zi bir mulohazali takliflar ham paydo bo‘ladi, masalan O‘zbekiston uchun muhim tashqi iqtisodiy hamkor mamlakat Xitoyda China Export & Credit Corporation davlat korporatsiyasi tashkil etilib uning vazifasi mahalliy ishlab chiqaruvchilar va xorijiy xaridorlarga eksport qilinayotgan mahsulotlar uchun imtiyozli kreditlar berish, eksport qilinayotgan Xitoy mahsulotlarini sug‘urta qilish, Xitoy eksporti va investitsiyalarini rag‘batlantirish faoliyatini olib boradi. Eng yirik hamkor mamlakat Rossiyada 2007-yildan boshlab eksportchilarga kreditlar berish va tashqi iqtisodiy faoliyatni sug‘urtalash “Vneshekonombank” tomonidan amalga oshirilgan lekin sug‘urtalovchi kreditor bo‘la olmasligi sababli, 2011-yilda eksportga yo‘naltirilgan kichik va o‘rta biznes subyektlari hamda ularni xorijiy kontragentlar tomonidan to‘lanmaslik xavfidan sug‘urtalash bo‘yicha alohida davlat tuzilmasi (EKSAR) Eksport sug‘urta agentligi tashkil etilgan[4].

Mamlakatimizda 2022-yilda paxta tolasi eksportidan voz kechilib, uning o‘rniga paxtadan tayyorlangan qo‘shilgan qiymati yuqori tovarlar eksporti yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, umumiy qiymati 1 mlrd 613,5 mln dollarga teng bo‘lgan paxtadan yigirilgan ip, 644,9 mln dollarlik tayyor trikotaj va to‘qimachilik mahsulotlari, 242,8 mln dollarlik naqshli mato, 131,6 mln dollarlik gazlamalar, 78,1 mln dollarlik ipak va ipak mahsulotlari, 42,1 mln dollarlik gilam mahsulotlari eksport qilingan[5].

Mamlakatimiz eksport faoliyatidagi muammolardan biri bu geografik omil bo‘lib O‘zbekistondan to‘g‘ridan to‘g‘ri dengizga chiqadigan yo‘lning yo‘qligi va logistika infratuzilmasining takomillashmaganligi eksport mahsulotlari narxining oshishiga bu esa xalqaro savdoda raqobatga kirishishda bozorlarda ustunlikni saqlash imkonini kamaytiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.05.2020-yildagi PQ-4707-son “Eksport faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori asosida, eksport bo‘yicha avtomobil, havo

1 Прищепа А.И.,Механизмы внешнеторгового финансирования экспортных операций в международной практике ведения торговли. Экономика и управление. – 2012. - № 2 (34); Петров А.О. Развитие внешнеэкономической деятельности малого и среднего бизнеса в различных странах мира. Научный журнал Донецкого национального университета, 2007; Шеколинский Н.Н. Экспортные кредитные агентства как механизм государственной финансовой поддержки. Диссертация на соискание ученой степени кандидата.


2 Patrick Messerlin. Export credit subsidies. Economic Policy. Vol 2, No 4. (Apr 1989) www.jstor.org; Hideki Funatsu. Export Credit Insurance. The Journal of Risk and Insurance. Vol 53, No 4. (Dec 1986) www.jstor.org; A. Carter. United States Export Subsidies in Wheat: Strategic Trade policy or Expensive Beggar – Thy – Neighbour Tactic? American Journal of Agricultural Economics. Vol 74, No 3. (Aug 1992) www.jstor.org

3 D.E.Qarshiyev “Eksportning iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sirini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish omillari xususida” “Science and Education” Scientific Journal, September 2021. Volume 2 Issue 9, p.406-416.


4 Шеколинский Н. Н. “Экспортные кредитные агентства как механизм государственной финансовой поддержки”. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва - 2016.-142с.

5 https://invest.gov.uz/uz/mediacenter/news/experts-told-how-the-geography-of-uzbekistan-s-exports-has-changed-over-the-past-5-years/ O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi manbasi.

va temir yo‘l transportida tashish xarajatlarini qisman kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etish tartibi hamda eksport qiluvchilar garov sifatida sug‘urta xizmatlaridan foydalanganda sug‘urta mukofotini qoplashga O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag‘batlantirish agentligi tomonidan kompensatsiyalar taqdim etish tartibi ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilindi[6].



1-diagramma: O‘zbekistonda eksport hajmi (mln AQSh dollari)[7]



2-diagramma: 7-klass. Yo‘ldagi mol-mulkni sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta mukofotlari (mln so‘mda)[8]

O‘zbekistonda eksport qilinayotgan mahsulotlarni sug‘urtalash asosan AJ “O‘zbekinvest” EISK va qisman boshqa sug‘urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilmoqda, e’tiboringizni yuqoridagi diagrammalarda keltirilgan ko‘rsatkichlar tahliliga qaratsak, birinchi digrammada so‘nggi yillarda O‘zbekistonni eksport hajmi o‘sish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘ramiz, mamlakat eksporti tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymat mavjud bo‘lgan tayyor mahsulotlar asosan yengil sanoat, qurilish materiallari sohasi va qishloq xo‘jaligi sohasi mahsulotlari salmoqli ahamiyatga egaligini anglatadi, ikkinchi diagrammada aynan eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlarni ya’ni sug‘urta faoliyati klassifikatorining 7 klassida nazarda tutilgan yo‘ldagi yuk sug‘urtasi asosida sug‘urtalanish ko‘rsatkichlari mavjud, ushbu ko‘rsatkich ham o‘sish tendensiyasiga ega lekin 2022-yilda mamlakatimizdan eksport qilingan tayyor, yarim tayyor va xom ashyo hamda xizmatlardan iborat bo‘lgan barcha eksport hajmi

6 https://lex.uz/docs/4806730 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.05.2020-yildagi PQ-4707-son qarori.
7 Manba: www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va https://imda.uz/uz/ Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi.
8 Manba: www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va https://imda.uz/uz/ Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

19 millirad 309 million dollarni tashkil etib shundan 26 trillion 993 millard 78 million so‘mlik eksport mahsulotini turli xil risklardan himoya qilish maqsadida sug‘urta bozori professional ishtirokchilari tomonidan 112 milliard 193 million so‘mlik sug‘urta mukofoti yig‘ilgan bu qariyib jami eksportni 12.5 foiziga sug‘urta xizmati ko‘rsatilganligini bildiradi. Bu tahlil o‘z navbatida O‘zbekistonda juda katta miqdordagi eksport yuklarini sug‘urtalashga extiyoj mavjudligini ya’ni eksport faoliyatini sug‘urtalash bozorida bo‘shliqlar mavjudligini bildiradi.

Iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi qiyosiy tahliliga tayanib aytishimiz mumkinki O‘zbekistonda eksport faoliyatini kompleks sug‘urtalash jarayonlarini amalga oshiruvchi yirik Eksportni sug‘urtalash agentliklari faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash amaliyotini tashkil etish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda eksport tarkibi muttasil tarzda diversifikatsiyalanmoqda va eksport tarkibida tayyor mahsulotlar hajmi o‘smoqda.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda so‘nggi besh yil ichida eksport raqabatbardoshligini oshirish bo‘yicha davlat tomonidan bir qancha qo‘llab quvvatlash mexanizmlari tashkil etilib eksport yuklarini tashish xarajatlarini subsidiyalash, eksport uchun maqsadli kreditlar ajratish amaliyoti joriy etildi.

Mamlakatimiz eksport mahsulotlarini sug‘urtalash tahlilidan kelib chiqib O‘zbekistonda eksportni sug‘urtalash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quydagi takliflarni berishimiz mumkin:

- Eksport faoliyatini sug‘urtalashda hududlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyekti hisoblangan eksport qiluvchilarga nisbatan kompleks sug‘urtalash xizmatlarini joriy qilish ularni faoliyatlarini kengayishiga sabab bo‘ladi. Eksport faoliyatini sug‘urtalash amaliyotini yo‘lga qo‘ygan sug‘urta tashkilotlariga nisbatan davlat tomonidan turli xil qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish zarur.
- Xalqaro tajribaga ko‘ra Osiyo mamlakatlari orasida Xitoy va Janubiy Koreya eksport bozori yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lmoqda. Bu mamlakatlar eksportchilari Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari eksport qiluvchilariga raqobatchilik qilmoqda. Janubiy Koreya eksport-import banki (KEXIM) va Janubiy Koreyada Koreya eksport sug‘urta korporatsiyasi (Korea eksport sug‘urtasi korporatsiyasi - KEIC) kabi eksport sug‘urta agentliklari mamlakat eksport salohiyatini oshishiga yuqori darajada xizmat ko‘rsatmoqda.O‘zbekistonda davlat mulki asosida Eksportni sug‘urtalash agentligini tashkil etish kerak. Eksport sug‘urta agentliklari (EKA) xalqaro savdoni moliyalashtirish va rivojlantirishning muhim manbai hisoblanadi. Ular ko‘p tomonlama va ikki tomonlama agentliklar bilan birgalikda turli mamlakatlarga yirik moliyaviy oqimlarni jalb etishga ko‘maklashadi. Ular asosan eksport faoliyatiga ajratilgan kreditlarni va kafolatlarni hamda turli xil tijorat va siyosiy xavf-xatarlardan eksportchilarni sug‘urta qiladilar. Ko‘pgina eksport agentliklari qat’iy belgilangan foiz stavkasi asosida ishlaydi va foiz stavkalarining ma’lum darajada saqlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-dekabrdagi PQ-4069-son karori. https://lex.uz/ru/docs/4116006
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.05.2020-yildagi PQ-4707-son qarori. https://lex.uz/docs/4806730
3. Шеколинский Н. Н. “Экспортные кредитные агентства как механизм государственной финансовой поддержки”. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –Москва. –2016. –142 с.
4. https://invest.gov.uz/uz/mediacenter/news/experts-told-how-the-geography-of-uzbekistan-s-exports-has-changed-over-the-past-5-years/ O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi ma’lumoti.
5. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.
6. https://imda.uz/uz/ Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi ma’lumotlari.
7. Прищепа А. И., Механизмы внешнеторгового финансирования экспортных операций в международной практике ведения торговли. Экономика и управление. –2012. – № 2 (34) с. –23-27.
8. D.E.Qarshiyev “Eksportning iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sirini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish omillari xususida” “Science and Education” Scientific Journal, –September-2021. –Volume 2 Issue 9, –r.406-416.

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA AHOLINI TADBIRKORLIKKA YO‘NALTIRISH



Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich
O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Maqolada mamlakatda aholi bandligini ta’minlashda mavjud muammolar o‘rganilgan. Muallif tomonidan xorijiy tajribalar asosida qiyosiy tahlili amalga oshirilga. Mavjud muammoga tahlik va tavsiyalar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Tadbirkorlik, kambag‘allik, tashqi siyosat, ishsizlik, jahon tajribasi.

Abstract: The article examines existing problems in ensuring employment of the population in the country. A comparative analysis was carried out by the author on the basis of foreign experiences. Threats and recommendations were given to the existing problem.

Key words: Entrepreneurship, poverty, foreign policy, unemployment, world experience.

Аннотация: В статье рассматриваются существующие проблемы обеспечения занятости населения в стране. Сравнительный анализ проведен автором на основе зарубежного опыта. Были даны угрозы и рекомендации по существующей проблеме.

Ключевые слова: Предпринимательство, бедность, внешняя политика, безработица, мировой опыт.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag‘allik darajasining mavjudligi inson hayotining farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan xarakterlanmoqda. Kambag‘allik darajasi har xil ko‘rinishda namoyon bo‘moqda, buni, asosan, yetarli darajada oziq-ovqat yetishmasligi, ayrim mamlakatlarda aholi qatlamida tegishli boshpanadan foydalanish imkoniyati yo‘qligi, xavfsiz ichimlik suvi bilan ta’minlanmaslik, savodxonlik darajasining pastligi, chaqaloqlar va onalar o‘limining yuqori darajasi, ishsizlikning yuqori darajasi, zaiflik va qobiliyatsizlik hissi kabi qator yo‘nalishlar orqali yuzaga kelmoqda. Jahon tajribasida iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish orqali aholining daromadlarini oshirish maqsadida tadbirkorlikka yo‘naltirish va kam ta’minlanganlarni ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirish orqali kambag‘allikni kamaytirishga erishish mumkin. Bunda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va yaxshilash uchun iqtisodiy va institutsional islohotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, milliy rivojlanish siyosatida kam ta’minlangan qatlamlarning asosiy ehtiyojlarini birinchi o‘ringa chiqarish ham samarali usullardan hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda innovatsiyalar, tadbirkorlik va kichik biznes uchun cheklovlarni bartaraf etish uchun mikromoliyaviy dasturlarni ilgari surish, ishlab chiqarishni yaxshilash uchun marketing tizimini takomillashtirish, xususiy sektorni rag‘batlantirish ijobiy samara beradi. Ayniqsa kambag‘allikni qisqartirish tashabbuslarining ijtimoiy va iqtisodiy foydalari aks holda chiqarib tashlanishi mumkin bo‘lgan demografik ko‘rsatkichlarga yetib borishini ta’minlash uchun maqsadli pul o‘tkazmalari kabi ijobiy harakatlarni amalga oshirish lozim sanaladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kambag‘allik dunyo mamlakatlari uchun ham dolzarbligicha qolmoqda. Bu borada taqdidotchilar tomonidan quyidagicha fikr bildirmoqda:

Barder (2009) ning fikricha “Qashshoqlik ko‘plab omillarni o‘z ichiga oladi, shu jumladan sog‘liq, kam daromad, ochlik, cheklangan ta’lim va boshqa asosiy ehtiyojlardan iboratdir”[1].

2020-yil 26-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4653- sonli Qaroriga muvofiq O‘zbekis-

1 https://www.researchgate.net/publication/46474586_What_is_Poverty_Reduction

ton Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi sifatida qayta tashkil etildi. Hozirda mazkur yo‘nalishda tizimli, ya’ni, aholi kambag‘al qatlamining: doimiy daromad manbaini yaratish; davr talabidan kelib chiqib inson kapitalini rivojlantirish; to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash kabi ta’sirchan mexanizmlar orqali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo mazkur muammo bugungi pandemiya sharoitida keskin tus olib, global miqyosda yechimini talab qiladigan masalalar sirasiga aylandi[2].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ijtimoiy siyosat va rivojlanish bo‘limi qashshoqlikning sababi sifatida “daromadlarni taqsimlash va ishlab chiqarish resurslaridan, asosiy ijtimoiy xizmatlardan, imkoniyatlardan foydalanishdagi tengsizliklar” va boshqalarni asosiy sabab sifatida izohlagan”[3].

“Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-93-sonli Farmoniga ko‘ra Respublikada kambag‘allikka qarshi kurashish jarayonini yangi bosqichga olib chiqish, bu ishlarga tadbirkorlik sub’yektlarini manfaatli hamkorlik asosida jalb qilish va ularga qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida qator vazifalar davlat mas’ul tashkilotlarga topshirildi. Bundagi asosiy masala yaqin kelajakda aholining daromadlarini oshirish hamda kambag‘allik ko‘rsatkichini kamida 7 foizga tushirish uchun asosiy mezon sifatida xizmat qilmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada kambag‘allik darajasini xorijiy mamlakatlar bilan taqqoslash orqali tahlil qilingan. Mavjud manbalar asosida analiz-sintez usulida o‘rganilgan

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Bugungi kunda olib borilayotgan xalqaro tadqiqotlr natijasida Birlashgan millatlar tashkiloti, Jahon Banki va bir qator tashkilotlar tomonidan kambag‘allikni qisqartirishda aholini tadbirkorlikka yo‘naltirish uchun asosiy qadamlar sifatida quyidagilar strategiyalar ilgari surilmoqda:

1. **Marketing strategiyasi:** Tovar yo‘nalishlarini belgilash va aholini mahsulot yo‘nalishlariga kiritish uchun tizimli marketing strategiyasini yaratish.
2. **Innovatsion yondashuv:** Yangi va innovasion ishlar orqali yangi tovarlar va xizmatlarni ko‘rsatish va kambag‘allikni oshirish.
3. **Ijtimoiy muloqot maydoni:** Aholi bilan ijtimoiy muloqotlar orqali ularning talablarini tahlil qilish va qondirish yo‘llarini o‘rganish.
4. **Servis sifati:** Maxsus kambag‘allikni qisqartirishga ixtisoslashtirilgan kampaniyalar orqali sifatli xizmat ko‘rsatish va mahsulotlar paketini yangilash.
5. **Ta’lim va tarbiya:** Aholiga kambag‘allik va tadbirkorlik haqida ta’lim berish orqali ularning moliyaviy savodxonligini oshirish.

Bu qadamlar bilan aholini tadbirkorlikka yo‘naltirishda mavjud kambag‘allik darajasi ta’sirini minimallashtirishga imkon beradi. Sanab o‘tilgan bir qancha strategiyalar asosida kambag‘allik darajasini sezilarli darajada pasaytirish mumkin. Lekin xorijiy manbalar asosida 2000-2015-yillar kesimida dunyo mamlakatlarida kambag‘allik darajasi ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Bunda Jahon banki guruhining maqsadlaridan biri 2011-yilda kuniga 1,90 AQSh dollaridan kam daromad bilan yashash sifatida belgilangan o‘ta qashshoqlikni 2030-yilga kelib 3 foizdan kamroq darajaga kamaytirishdir.

Jahon amaliyotida ham ushbu masalaga nisbatan bir qator loyihalar ishlab chiqilmoqda. Ulardan YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, “agar kam daromadli mamlakatlardagi barcha talabalar oddiy o‘qish qobiliyatiga ega bo‘lsa, taxminan 171 million kishi o‘ta qashshoqlikdan qutulishi mumkin edi. Agar barcha kattalar o‘rta ta’limni tugatsa, biz global qashshoqlik darajasini yarmidan ko‘proq qisqartirishimiz mumkin. Ta’lim ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantiradi, marginallashuvdan kelib chiqadigan ba’zi nomutanosibliklarni tuzatadi va xavf va zaiflikni kamaytiradi” degan fikrni ilgari surmoqda5. Ta’lim haqiqatan ham hamma uchun bo‘lishiga e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan asosiy yo‘nalishlar ta’lim yo‘lidagi to‘siqlarni yo‘q qilish – chekka hududlarda foydalanish imkoniyatini yaratish, sifatli ta’lim berish bo‘yicha o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash va tirik bolalar uchun ta’lim olish imkoniyatini ta’minlashdan iborat. Ushbu fikrga mos ravishda mamlakatda moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali ham kutilgan natijaga erishish mumkin.


Quyidagi grafikda 2000-2015-yillar oralig‘ida o‘ta qashshoqlik darajasining yillik o‘rtacha foiz punktiga eng katta pasayish kuzatilgan 114 ta davlatdan 15 tasi ko‘rsatilgan.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi PQ-4653-sonli qarori.

3 https://www.humanrightscareers.com/issues/root-causes-of-poverty/#:~:text=The%20United%20Nations%20Social%20Policy,minorities%20are%20the%20most%20vulnerable

4 https://lex.uz/uz/docs/6493069


5 https://www.concern.net/news/solutions-to-poverty



1-grafik: 2000-2015-yillarda o‘ta qashshoqlik darajasining yillik o‘rtacha foiz punktiga eng katta pasayish kuzatilgan davlatlar[6]

Yuqoridagi mamlakatlarning har birida har yili o‘rtacha aholining kamida 1,6 foizi o‘ta qashshoqlikdan chiqib ketgan. Bu 2000-yildan 2015-yilgacha ushbu 15 mamlakatda 802,1 million kam odam o‘ta qashshoqlikda yashaganini anglatadi. Masalan, 2000 va 2011-yillar oralig‘ida Tanzaniyada o‘ta qashshoqlik darajasi yillik 86,0 foizdan 49,1 foizga 36,9 foiz punktga kamaydi. o‘rtacha pasayish darajasi 3,2 foiz punktga etdi, bu o‘ta qashshoqlikda yashovchi tanzaniyaliklar sonining 5,3 millionga qisqarishiga olib keldi. Tojikiston, Chad va Kongo Respublikasida qashshoqlik yiliga o‘rtacha 3 foiz punktga qisqarganiga guvoh bo‘lamiz.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi O‘zbekistonning kambag‘allik darajasi to‘g‘risidagi statistikani e’lon qildi[7]. Unga ko‘ra, mamlakatda bugungi kunda 1 million 307 ming 800 ta kambag‘al oila mavjud. Respublika bo‘yicha kambag‘allik darajasi 17 foiz (2022-yil)dan 14,1 foizga tushdi. Yil yakunida bu ko‘rsatkich 14,1 foizdan 12 foizga, ya‘ni 1 million 307 ming 800 dan 1 million 180 ming oilaga qisqarishi kutilmoqda.



2-grafik: O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi (amaldagi holat, foiz)

Manba: Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi

6 https://blogs.worldbank.org/opendata/which-countries-reduced-poverty-rates-most
7 4EBfF5TlH40.pdf (mehnat.uz)

2023-yilning dekabr oyiga kelib, 130 mingga yaqin oila, ya‘ni 1 million aholi kambag‘allikdan chiqarilishi kutilmoqda. Yuqoridagi diagrammada hududlar kesimida kambag‘allik darajasini ko‘rish mumkin. Demak, ishsizlik darajasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi 19.7 %, Sirdaryo viloyati 19.5% va Xorazm viloyati 19.1 % ko‘rsatkich bilan peshqadamlik qilayotgan bo‘lsa, Toshkent shahri 8.5% ko‘rsatkich bilan ifodalanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorifagi ma’lumotlar asosida har qanday mamalakatda kambag‘allik darajasining mavjudligi va unga qarshi samarali choralar ishlab chiqilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bunda davlat dasturi asosida loyihalar ishlab chiqish va uni amaliyotga keng joriy qilish muhim yo‘nalishlardan hisoblanadi. Kuzatishlar asosida quyidagi takliflarni o‘rinli deb qarash mumkin:

- Kambag‘allik darajasininig asosiy sabalaridan biri yetarli ish o‘rnining mavjud emasligi hisoblanadi. Shu sababli aholining bandlik darajasini oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqish kerkak.
- O‘z-o‘zini band qilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qo‘llaniladigan soliq summalarini minimallashtirish orqali ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq. Bunda dastlabki 5 yil mobaynida ulardan olinadigan soliq stavkalarini 50 foiz miqdorida undirish samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Beglova E.I., “Mehnatkash odamlarning qashshoqligini bartaraf etish konseptsiyasi”, Iqtisodiyot va huquq masalalari. 2011 yil.
2. Kuvanchieva M. D., Jumayev U. N., Alaudinova D. R. Features Of Land As Capital And The Impact And Mechanism Of Agricultural Capitalization //Научные горизонты. – 2019. – №. 12. – С. 52-56.
3. Rustamovna A. D. Technology Of Teaching Languages //JournalNX. – 2020. – С. 180-183.
4. https://www.researchgate.net/publication/46474586_What_is_Poverty_Reduction
5. https://www.humanrightscareers.com/issues/root-causes-of-poverty/#:~:text=The%20United%20Nations%20Social%20Policy,minorities%20are%20the%20most%20vulnerable
6. https://lex.uz/uz/docs/6493069
7. https://www.concern.net/news/solutions-to-poverty
8. https://blogs.worldbank.org/opendata/which-countries-reduced-poverty-rates-most
9. 4EBfF5TIH40.pdf (mehnat.uz)

YOQILG‘I-ENERGETIKA KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINING ILMIY NAZARIY ASOSLARI



Xusanov Qaxramon Nishonovich
PhD, Toshkent Kimiyo xalqaro universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotimizda sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash yo‘llarining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha o‘rganishlar asosidagi muhokama va xulosalar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat korxonalari, moliyaviy barqarorlik, pul oqimlari, daromadlar, xarajatlar, moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti.

Abstract: This article provides for the development of discussions and conclusions based on studies of the specifics of ways to ensure the financial stability of industrial enterprises in our national economy.

Key words: industrial enterprises, financial stability, cash flows, income, expenses, financial stability coefficient.

Аннотация: Данная статья предусматривает развитие дискуссий и выводов, основанных на исследованиях специфики способов обеспечения финансовой устойчивости промышленных предприятий в нашей национальной экономике.

Ключевые слова: промышленные предприятия, финансовая устойчивость, денежные потоки, доходы, расходы, коэффициент финансовой устойчивости.

KIRISH

Jahon amaliyotida korxona moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta’minlash bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgani holda ularda rivojlangan mamlakatlarda bo‘lgani kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ham korxona moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda korxona moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta’minlash bo‘yicha uchrayotgan muammolarni o‘rganish hamda ularni hal etishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarning ishlab chiqilmaganligi mazkur yo‘nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo qilmoqda. Korxonalarda investitsion faoliyatni modernizatsiyalash, innovatsion texnologiyalar va ilg‘or xorij tajribalarini joriy etish orqali korxona moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta’minlashga qaratilgan masalalar tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasida korxona moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta’minlash masalalarining nazariy, metodologik va amaliy jihatlari maxsus, mustaqil tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmaganligi tanlangan mazkur ilmiy maqola mavzusining dolzarbligini va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini belgilab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

G.V.Saviskaya “moliyaviy barqarorlik — bu xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘zgaruvchan ichki va tashqi muhit sharoitida faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi, o‘z aktivlari va passivlari muvozanatini saqlash qobiliyati, bu uning doimiy to‘lov qobiliyati va maqbul darajada investitsion jozibadorligi kafolatlanadi” deb ta’kidlaydi [1].

E.A.Akramov — moliyaviy mustahkamlik tushunchasi va uning ko‘rsatkichlarini tavsiya etgan, unga ta’sir etuvchi omillarni asoslab bergan. Shuningdek, u moliyaviy barqarorlik toifasi korxonaning moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishi va pasaymasligini ifodalovchi ko‘rsatkich ekanligini ta’kidlaydi [2].

T.S. Malikov — xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini umumiy (avtonomiya koeffitsiyenti, qarz kapitalining konsentratsiyalashuvi koeffitsiyenti, qarz va o‘z mablag‘larining nisbati koeffitsiyenti) va nisbiy

ko‘rsatkichlari (zaxira va xarajatlarning o‘z kapitali bilan ta’minlanganlik koeffitsiyenti, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, o‘z kapitalining manyovrchilik koeffitsiyenti) ifodalaydi [3].

M.Q.Pardayev va B.I.Isroilov — moliyaviy barqarorlikni korxona o‘z mablag‘lari va barcha mablag‘larning nisbatini ilgari surpadi [4].

V.R.Bank korxonaning moliyaviy barqarorligi — bu maqbul xavf sharoitida uzluksiz ishlash, yetarli rentabellik va majburiyatlarni o‘z vaqtida to‘lash qobiliyatini ta’minlaydigan moliyaviy resurslar, ularni taqsimlash va ishlatish holatini ifodalaydi [5].

A.D.Sheremet — moliyaviy barqarorlik qoniqarli balans tuzilishi bilan tavsiflanadi va iqtisodiy faoliyatning moliyaviy natijalarini aks ettiradi [6].

G.N. Ronova, S.E. Popova, V.L.Slepunin -korxonaning o‘z kapitali hisobidan rivojlanishini ta’minlaydigan, to‘lov qobiliyati va kreditga layoqatliligi saqlanib qolgan holda, tadbirkorlik tavakkalchiligi minimal darajaga yetadigan moliyaviy resurslarning holati tushuniladi [7].

I.A.Pavlova fikricha, korxona moliyaviy barqarorligining mohiyati “uning shunday moliyaviy holatidirki, unda korxonaning xo‘jalik faoliyati uning barcha majburiyatlarini ta’minlashga imkon beradi” [8].

I.N. Omelchenko i Ye.V. Borisovalar fikricha, “ moliyaviy barqarorlik -doimiy tarzda bozor kon’yunkturasi o‘zgarib borishi sharoitida korxonaning o‘z moliyaviy stabilligini saqlab qolish qobiliyatidir” [9].

E.V. Isayeva qarashicha, “korxona moliyaviy barqarorligi – bu moliyaviy holatning ilgarigidan ko‘ra yaxshilangan holatdagi o‘sib borishidir [10].

O.R.Krivitskaya fikricha, “moliyaviy barqarorlik korxona kelgusi rivoji uchun ahamiyatli bo‘lgan iqtisodiy mustaqillikning garovi bo‘lmish yetarli darajadagi foyda hajmining mavjudligidir [11].

L.T.Gilyarovskaya i A.A. Vexorevalar ta’kidlashicha, “korxona moliyaviy barqarorligi tushunchasi uning shunday holatidirki, bunda mavjud resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida nafaqat to‘lovga layoqatlilik ta’minlanadi, balki shu bilan birga foyda va kapitalning o‘sishiga erishish maqsadidagi rivojlanishga ham erishiladi” [12].

Ivasenko-moliyaviy barqarorlik – bu korxona faoliyatining eng muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, u o‘z mablag‘lari hisobidan rivojlanish qobiliyati bilan tavsiflanadi, shu bilan birga to‘lov qobiliyati va kreditga layoqatliligini maqbul xavf darajasida saqlab qoladi [13].

Moliyaviy barqarorlik – bu moliyaviy tizimning, ya’ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlik maqsadi alohida moliya muassasasi emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta’minlashdan iborat. Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanish asosi hisoblanadi [14].

O‘tkazilgan tadqiqotlarimiz natijasida, biz moliyaviy barqarorlik tushunchasiga quyidagicha ta’rif berishni maqsadga muvofiq deb topdik. “Moliyaviy barqarorlik – bu korxonalarning umumiy barqarorligining tarkibiy qismi, pul mablag‘lari balansi, faoliyatini amalga oshirishdagi barcha resurslarning mavjudligi, shu jumladan, o‘z va qarz mablag‘larini samarali nazorat qilishi, faoliyatini uzliksizligini ta’minlashdir.

Yuqorida bayon etilgan nazariy qoidalardan ko‘rinib turibdiki, iqtisodchi olimlar o‘rtasida moliyaviy risklarning tarkibi xususida yagona fikrlilik mavjud emas. Lekin, shuni e’tirof etish joizki, moliyaviy risklar tarkibiga ko‘pchilik iqtisodchi olimlar tomonidan (V.Moskvin, I.Balabanova, D.G‘ozibekov va b.q.) moliya-pul munosabatlariga bevosita aloqador bo‘lgan risk turlari kiritilgan. Shu sababli, moliyaviy risklarni tadqiq qilishda moliya-kredit munosabatlarining mohiyatidan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan sanoat mamlakatlarida (AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Fransiya va Italiyada) investitsion loyihalarni moliyalashtirish maqsadlariga berilgan kreditlar bo‘yicha kredit riskini boshqarish bir qator aniq tamoyillarga asoslanadi. Ulardan asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Investitsion loyihalar bo‘yicha ishlab chiqilgan biznes rejalarning mukammal ishlanganligi.

Biznes rejalarning mukammal ishlanganligi uning har bir bo‘limi bo‘yicha investitsion risklarning to‘liq hisobga olinganligida, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni sotish strategiyasining to‘g‘ri tanlanganligida, investitsion loyihaning samaradorligiga ta’sir qiluvchi har bir asosiy omilning ta’sir mexanizmining inobatga olinganligida namoyon bo‘ladi.

Biznes rejada mahsulot sotiladigan bozor chuqur tahlil qilingan bo‘lishi lozim. Chunki rivojlangan sanoat mamlakatlarida tovarlarning taqchilligi mavjud emas, balki tovarlarni sotish muammosi mavjud. Shu sababli, mazkur mamlakatlarda investitsion loyihalar bo‘yicha tuzilgan biznes rejalarda asosiy e’tibor mahsulot sotiladigan bozorlarni o‘rganishga qaratiladi.

Biznes rejalardagi asosiy bo‘limlardan yana biri ishlab chiqarishni tashkil etilishidir. Ishlab chiqarishning to‘g‘ri tashkil etilganligi pirovard natijada mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli darajada oshib ketishining oldini oladi. Bu esa, ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda, biznes rejalarni tuzishda investitsion loyihani boshqarish samaradorligiga alohida e’tibor qaratiladi. Buning sababi shundaki, sanoati rivojlangan mamlakatlar bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra, investitsion loyihalarni amalga oshirishdagi muvaffaqiyatsizliklarning 98 foizi korxonaning o‘ziga bog‘liq sabablar tufayli yuz bergan, 2 foizigina esa, korxona faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan omillar ta’sirida yuz bergan. AQSHda o‘tkazilgan shu boradagi tadqiqotlarning natijalari investitsion loyihalarni amalga oshirishdagi muvaffaqiyatsizliklarning asosiy sabablari quyidagilardan iborat ekanligini ko‘rsatdi:

- boshqaruvchilarning uquvsizligi – 45 %;
- mahsulotning ushbu assortimentini ishlab chiqarishda tajribaning yetarli emasligi – 9 %;
- boshqarish tajribasining yetishmasligi – 18 %;
- nisbiy tajriba doirasining torligi – 20 %;
- o‘z majburiyatlarini bajarmaslik – 3 %;
- aldash – 2 %;
- tabiiy ofatlar – 1 %.

2. Banklar tomonidan beriladigan investitsion kreditlarning ta’minoti uchun yuqori likvidli garov obyektlarining mavjudligi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarning amaliyotida yuqori likvidlilik darajasiga ega bo‘lgan garov obyektlari birinchi toifali garov obyektlari deb ataladi va ularga quyidagilar kiradi: yer, hukumatning qimmatli qog‘ozlari,

6 В.А.Москвин. Управление рисками при реализации инвестиционных проектов.-М.:ФиС, 2004.-с.69
7 И.Т.Балабанова. Риск-менежмент.-М.:Дело, 1996.-с.с. 22-27.
8 Шенаев В., Ирниязов Б. Проектное кредитование. Зарубежный опыт и возможности его использования в России. – Москва: Консалтбанкир, 1996. – с.53.

markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalar, korxonalarning hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog‘ozlari.

Amaliyotda garov obyekti sifatida yer juda qadrlanadi. Odatda, yerning bahosi doimiy ravishda o‘sib boradi va u barqaror hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda yerning bahosi sezilarli darajada yuqori sur’atlar bilan o‘sib bormoqda, shuning uchun ham yerni garovga olish asosida kreditlash moliyalashtirishning nisbatan xavfsiz shakli hisoblanadi. Bunda banklar istalgan vaqtda garovga olingan yerni sotish yo‘li bilan kredit va uning foizini undirib olishlariga qattiq ishonadilar. Lekin shuni alohida ta’kidlash lozimki, yerni garov sifatida foydalanish uchun huquqiy asoslar yetarli bo‘lishi lozim.

Hukumatning qimmatli qog‘ozlari dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida yuqori likvidli garov obyektlari sifatida tijorat banklari tomonidan tan olinadi. Lekin, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda, masalan, Braziliya, Argentina va Rossiya davlatlarida hukumatning qimmatli qog‘ozlariga nisbatan sezilarli darajada ishonchsizlik kayfiyati mavjud. Bu kayfiyat ushbu mamlakatlar hukumatlarining defolt holatlariga yo‘l qo‘yganligi bilan izohlanadi. Lekin bunday davlatlar ko‘pchilikni tashkil etmaydi.

Markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalar, shubhasiz, yuqori likvidlilik xususiyatiga egadir. Chunki tijorat banki Markaziy bankdan o‘ziga ajratilgan qayta hisobga olish kontengenti doirasida istalgan vaqtda trattalarni topshirib, pul mablag‘lari olishi mumkin. Markaziy bank esa, odatda, to‘lovga qobil subyekt hisoblanadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotida, xususan, G‘arbiy Yevropa davlatlari xo‘jalik amaliyotida sanoat korxonalarining hukumat tomonidan kafolatlangan obligatsiyalari mavjuddir. Har qanday qimmatli qog‘ozning to‘lovini hukumat tomonidan kafolatlanishi uning likvidlilik darajasini oshiradi.

Rivojlangan mamlakatlarning fond bozorida tijorat banklari qimmatli qog‘ozlarni emissiya qilish bo‘yicha hukumatdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Tijorat banklari to‘lovga qobillik nuqtai-nazardan korporatsiyalarga nisbatan ustuvor mavqega egadir. Tijorat banklarining kredit riskini kamaytirishda garov ta’minoti muhim rol o‘ynaydi. Bunda asosiy e’tibor bank kreditlari uchun garov sifatida qabul qilinayotgan obyektlarning likvidlilik darajasiga qaratiladi.

3. Investitsion kredit oluvchilarning to‘lovga qobilligini moliyaviy koeffitsiyentlar asosida baholash tizimining takomillashganligi.

Rivojlangan sanoat mamlakatlarida investitsion kredit oluvchilarning to‘lovga qobilligini moliyaviy koeffitsiyentlar asosida baholash tizimi o‘z ichiga quyidagi koeffitsiyentlarni oladi:

1. **Debitor qarzdorlikni koplashning o‘rtacha muddati (DKKUM).**

Ushbu ko‘rsatkich quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$DKKUM = \frac{\text{Debitor qarzdorlik x Yildagi kunlar soni}}{\text{Tovarlarni kreditga sotishning o‘rtacha yillik miqdori}}$$

Ushbu ko‘rsatkich debitorlar to‘lanmaydigan o‘rtacha kunlar sonini ko‘rsatadi.

2. **Debitor qarzdorlikni aylanish koeffitsiyenti (DKAK).**

Bu ko‘rsatkich quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$ДКАК = \frac{\text{Yil davomida tovarlarni kreditga sotish hajmi}}{\text{Debitor qarzdorlik}}$$

Ushbu koeffitsiyentlar bir-biriga teskari hisoblanadi. Shu sababli mazkur ikkala koeffitsiyentdan birini qo‘llash ham kifoya qiladi. Agar tahlil qilinayotgan davr mobaynida kreditga sotilgan tovarlar miqdori ma’lum bo‘lmasa, unda sotilgan tovarlar umumiy miqdorini ishlatish mumkin. Odatda, hisob-kitoblarda debitor qarzdorlikning yil oxiridagi so‘mmasi olinadi. Lekin, shunday korxonalar borki, ularda debitor qarzdorlikning o‘sishi moliyaviy yilning ma’lum davrida ko‘zatiladi. Bunday sharoitda debitor qarzdorlikni yil oxiriga olish noto‘g‘ridir, balki uning o‘rtacha miqdorini har oyning oxirgi kuniga olish lozim. Agar yil davomida tovarlarni sotishning sezilarli darajada o‘sishi kuzatilsa, debitor qarzdorlikning yil oxiridagi qoldig‘i sotish hajmiga nisbatan noreal tarzda katta bo‘ladi. Buning natijasida debitor qarzdorlikni koplashning o‘rtacha davri soxta tasavvur beradi, bunday sharoitda debitor qarzdorlikning yil boshidagi va yil oxiridagi qoldig‘ining o‘rtacha miqdorini olish maqsadga muvofiqdir.

3. **Kreditor qarzdorlikni qoplash muddati (KKKM).**

$$KKKM = \frac{\text{Qisqa muddatli kreditor qarzdorlik x 365}}{\text{Xarid bo‘yicha xarajatlar}}$$

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Agar xarid to‘g‘risida ma’lumot olishning imkoni bo‘lmasa, u holda bir yil davomida sotilgan tovarlarning tannarxini olish mumkin. Masalan, savdo shahobchalarida sotilgan tovarlarning tannarxi xarid xarajatlari miqdoriga to‘g‘ri keladi. Tovar ishlab chiqaruvchilarda esa tannarxga yangi qiymat qo‘shiladi, shu boisdan, sotilgan mahsulot tannarxini xarid xarajatlari bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham mazkur koeffitsiyentni hisoblaganda imkoniyat qadar xarid xarajatlari to‘g‘risida to‘liq ma’lumot olish zarur. Agar korxonada mazkur koeffitsiyent o‘rtacha tarmoq ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lsa, mijozning o‘z majburiyatini vaqtida bajarmaslik ehtimoli yuqori hisoblanadi.

4. **Zahiralarning aylanish koeffitsiyenti (ZAK).**

Mazkur koeffitsiyent quyidagi tartibda hisoblanadi.

$$KKUM = \frac{\text{Sotilgan mahsulotning tannarxi}}{\text{Zahiralarning o‘rtacha qiymati}}$$

Kasrning sur’atidagi miqdor, odatda, bir yil uchun olinadi. Kasrning maxrajidagi miqdor esa, zahiralarning yil boshidagi va yil oxiridagi qoldig‘ining o‘rtachasi sifatida olinadi.

Agar korxonaning faoliyati mavsumiy xarakterga ega bo‘lsa, u holda zahiralarning o‘rtacha qiymatini hisoblashning murakkab usulidan foydalaniladi. Zahiralarning aylanish koeffitsiyenti tovarlarni sotilishi natijasida zahiraning debitor qarzdorlikka aylanish tezligini ko‘rsatadi. Bu koeffitsiyentni baholash uchun uni o‘rtacha tarmoq ko‘rsatkichi bilan taqqoslash, shuningdek, uning oldingi davrdagi darajalari bilan taqqoslash zarur.

Odatda zahiralar qanchalik tez aylansa, ularni boshqarish samaradorligi shunchalik yuqori baholanadi. Lekin bu ko‘rsatkichdan foydalanishda extiyotkorroq bo‘lmoq lozim. Chunki bu ko‘rsatkichning past darajasi zahiralarni sekin aylanishi yoki ularning ma’lum qismini eskirishi oqibati bo‘lishi mumkin.

Eskirishni chiqarib tashlash ombordagi mahsulotlarni qayta baholashga olib kelishi mumkin, bu esa, o‘z navbatida, zahiralarga likvidli aktiv sifatida qarash imkonini bermaydi. Shuning uchun ham aylanish koeffitsiyentini zahiralarning ayrim elementlariga nisbatan qo‘llash orqali undan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin.

5. **Uzoq muddatli qarzdorlik koeffitsiyenti (UMKK).**

Ushbu koeffitsiyent quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$UMKK = \frac{\text{Uzoq muddatli kreditor qarzdorlik}}{\text{Kapitallashgan mablag‘larning umumiy hajmi}}$$

Kapitallashgan mablag‘larning umumiy hajmi deganda uzoq muddatli kreditor qarzdorlik bilan o‘z kapitalining yig‘indisi tushuniladi. Ushbu ko‘rsatkich korxona kapitalining tarkibida uzoq muddatli majburiyatlarning salmog‘i to‘g‘risida ma’lumot beradi. Agar korxonada nomoddiy aktivlarning qiymati sezilarli darajada katta bo‘lsa ularning miqdori kapital qiymatidan chegirib tashlanadi. Ayrim hollarda imtiyozli aksiyalar kapitalning elementi sifatida emas, balki qarz majburiyati sifatida qaraladi. Chunki bu aksiyalar boshqa aksiyalarga nisbatan ustuvor talab qilish huquqini beradi.

6. **Pul oqimi darajasi ko‘rsatkichi (PODK).**

Ushbu ko‘rsatkich quyidagi tartibda hisoblanadi:

$$PODK = \frac{\text{Pul oqimi}}{\text{Kreditor qarzdorlikning umumiy miqdori}}$$

Mazkur ko‘rsatkich korxonaning o‘z qarzlarini to‘lay olish mezoni hisoblanadi. Pul oqimining miqdori korxonaning xo‘jalik faoliyati natijasida olgan pul mablag‘lari sifatida aniqlanadi. Agar korxona rentabelli bo‘lsa, u holda pul oqimi sof foyda va amortizatsiya miqdoridan iborat bo‘ladi.

Mazkur koeffitsiyent korxonaning obligatsiyalarini o‘rganishda juda qo‘l keladi, lekin respublikamizda korxonalarning obligatsiyalari mavjud emas.

7. **Ta’minlanganlik koeffitsiyenti (TK).**

Ushbu koeffitsiyent quyidagicha hisoblanadi:

$$TK = \frac{\text{Soliqlar va foizlarni to‘lashgacha bo‘lgan sof foyda + Amortizatsiya}}{\text{Foizli to‘lovlar + Asosiy qarz summasini to‘lash}}$$

Mazkur ko‘rsatkich korxonaning kredit to‘lovlari bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish imkoniyatini obyektiv tarzda ko‘rsatadi. Bunda soliq stavkalarining o‘zgarishi korxonaning likvidliligi o‘zgarishiga sabab bo‘lishi mumkin.

8. **Yalpi foyda koeffitsiyenti (YAFK).**

Bu koeffitsiyent quyidagi formula asosida hisoblanadi.

$$YaFK = \frac{\text{Sotishdan olingan tushum} - \text{Sotilgan mahsulot tannarxi}}{\text{Sotishdan olingan tushum}}$$

Mazkur koeffitsiyent korxona xo‘jalik faoliyatining samaradorligi to‘g‘risida, bahoning shakllanish jarayoni to‘g‘risida xulosa chiqarish imkonini beradi.

9. **Sof foyda koeffitsiyenti (SFK).**

Bu koeffitsiyent quyidagicha hisoblanadi:

$$SFK = \frac{\text{Soliqlar to‘lashdan keyingi sof foyda}}{\text{Sotishdan olingan tushum}}$$

Mazkur koeffitsiyent korxona xo‘jalik faoliyatining nisbiy samaradorligi xususida xulosa chiqarish imkonini beradi. Uni baholash uchun o‘rtacha tarmoq ko‘rsatkichi bilan solishtirish lozim. Agar bu ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lsa, korxonaning rentabellik darajasi yuqori hisoblanadi.

10. **Aktivlarning aylanish koeffitsiyenti (AAK).**

$$AAK = \frac{\text{Sotishdan olingan tushum}}{\text{Moddiy aktivlarning umumiy miqdori}}$$

Mazkur koeffitsiyent korxonani o‘z resurslaridan samarali foydalanish darajasini ko‘rsatadi. Uni baholash uchun o‘rtacha tarmoq ko‘rsatkichi bilan solishtirish lozim.

Rivojlangan davlatlarda investitsion risklarning darajasini pasaytirishning muhim vositasi sifatida kompaniyalarni ISO 9000 standarti bo‘yicha xalqaro sertifikatlashtirishdan foydalanilmoqda. Bunday sertifikatlarni beruvchi nufuzli xalqaro kompaniyalarga quyidagilar kiradi:

- ABS Quality Evaluations (Buyuk Britaniya).
- Veritas Quality International (Fransiya).
- Det Norske Veritas (Norvegiya).
- Germanischer Lloyd (Germaniya).
- Lloyds Register Quality Assurance (Buyuk Britaniya).
- SGS International Certification Services (Shveysariya).
- NUV Zeertifizierungsgemeinscahft (Germaniya).

Mazkur kompaniyalar tomonidan beriladigan sifat sertifikatlari dunyoning ko‘plab mamlakatlarida amal qiladi, ya’ni tan olingan. Hozirgi davrda AQSH va G‘arbiy Yevropada kompaniyalarning kamida 80 foizi sertifikatlashgan. Xitoyda esa, sertifikatlashgan korxonalarning salmog‘i 40 foizga yetdi[9].

Germaniya, Avstriya va Shveysariya mamlakatlarining tijorat banklari tomonidan Sharqiy Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilgan investitsion loyihalarni kreditlashda investitsion risklardan himoyalanish maqsadida quyidagi ikki usuldan keng ko‘lamda foydalanilgan:

1. Berilgan investitsion kreditlar bo‘yicha kredit riskining darajasini pasaytirish maqsadida Sharqiy Yevropa mamlakatlari hukumatlarining kafolatlari olingan.
2. Berilgan investitsion kreditlar bo‘yicha valyuta riskining darajasini pasaytirish maqsadida forvard valyuta shartnomalari tuzish usulidan foydalanilgan.

Xalqaro kreditlar bergan tijorat banklari qaytariladigan kredit va unga hisoblangan foiz summasiga boshqa tijorat banklari bilan forvard shartnomalari tuzishdi. Forvard shartnomasi tuzilayotgan paytda valyuta kursi belgilab qo‘yilgan va bu kurs shartnoma ijro etilgunga qadar o‘zgarmasdan qolgan.

Yetakchi industrial davlatlarning markaziy banklarining diskont stavkalarining o‘zgarishi investitsion oqimlarning harakatidagi moliyaviy risklarni kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Bugungi kunda Yevropa Markaziy banki yevrohududdagi asosiy bank foiz stavkalarini ko‘tarish bo‘yicha izlanishlar olib bormoqda, lekin mazkur ishning amalga oshirish muddati aniq emas. Biroq shu vaqtning o‘zida Yevropa Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti kelajakda bank foiz stavkalarini tushirishni talab qilmoqda.

9 В.А.Москвин. Управление рисками при реализации инвестиционных проектов.-М.:ФиС, 2004. – с.174

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda investitsion loyihalarni moliyalashtirishda yuzaga keladigan moliyaviy risklarni boshqarishning mukammal ishlab chiqilgan tizimi shakllantirilgan bo‘lib, ulardan O‘zbekiston Respublikasi amaliyotida foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida aytishimiz mumkinki, sifat sertifikatlarini olish korxonalarni jahon bozorlariga chiqishiga imkon beradi, ularning tovarlarini sotilishini tezlashtiradi. Xalqaro amaliyot tajribalarini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, faqat reputatsiyasi (nufuzi) yuqori bo‘lgan kompaniyalarning sifat sertifikatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, Rossiyada bir qator investitsion loyihalar bo‘yicha sifat sertifikatlaridan foydalanish kutilgan natijani bermadi, ya’ni yetkazib berilgan investitsion tovarlarning haqiqatdagi sifati sertifikatlarda ko‘rsatilgan sifat ko‘rsatkichlariga mos kelmadi. Buning natijasida mazkur investitsion loyihalarni moliyalashtirish maqsadlariga berilgan kreditlar o‘zini oqlamadi.

Bizning fikrimizcha, investitsion loyihalar bo‘yicha ishlab chiqilgan biznes rejalarning mukammal ishlanganligi, investitsion kredit oluvchilarning to‘lovga qobilligini moliyaviy koeffitsiyentlar asosida baholash tizimini mamlakatimizda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonida qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ендовицкий Д.А. “Комплексный анализ и контроль инвестиционной деятельности: методология и практика”// Под.ред. Л.Т. Гилеровской.М.: Финансы и статистика. –2001г. –345 с.
2. Мазур И.И., Шапиро В.Д. и друг. “Управления проектами”. Справочное пособие.М.: Высщая школа. –2001г.–435 с
3. Karimov N. G‘. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish. “Bozor pul va kredit”, –2000. –5-son.
4. Karimov N.G‘. “Xorijiy investorlar ishtirokidagi loyihalarni moliyalashtirish”. –BPK. –6/2001y.
5. G‘ozibekov D. G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: “Moliya” nashriyoti, –2003 yil. –332 bet.

PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA XARAJATLAR HISOBINING USLUBIY MASALALARI TAKOMILLASHTIRISH

Toshpo‘latov Azizbek Shermuxamadovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi



Umaraliyev Isomidin Ismonjon o‘g‘li
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada paxta-to‘qimachilik klasterlarida xarajatlar hisobining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning uslubiy masalalari tadqiq qilangan. Shu bilan birga, paxta-to‘qimachilik klasterlarida xarajatlarni samarali boshqarish maqsadida qisqa muddatli, o‘rta muddatli hamda uzoq muddatli istiqbollarini belgilash, ular asosida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uslubiyoti ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: klaster, xarajatlar, xarajatlarni boshqarish, xarajatlarni paydo bo‘lish joylari, qisqa muddatli, o‘rta muddatli, uzoq muddatli istiqbollarni belgilash.

Abstract: This article examines the specific features of cost accounting in textile clusters and their methodological issues. At the same time, the service of determining short-term, medium-term and long-term prospects for the purpose of effective cost management in the textile cluster, and making effective management decisions based on them, is scientifically based.

Key words: cluster, costs, cost management, places of cost occurrence, determining short-term, medium-term, and long-term perspectives.

Аннотация: В данной статье изучаются особенности учета затрат в хлопково-текстильных кластерах, их методические вопросы. При этом научно обоснована методика определения краткосрочных, среднесрочных и долгосрочных перспектив эффективного управления затратами в хлопково-текстильных кластерах и принятия на их основе эффективных управленческих решений.

Ключевые слова: кластер, затраты, управление затратами, места появления затрат, постановка краткосрочной, среднесрочной и долгосрочной перспективы.

KIRISH

Dunyodagi bugungi ziddiyatlar, savdodagi cheklovlar iqtisodiyotda o‘z aksini topmay qolmaydi. Jumladan, bu omillar oziq-ovqat va to‘qimachilik eksportiga salbiy ta’sir qildi. Bu vaziyatda eng to‘g‘ri yo‘l – qishloq xo‘jaligida hosildorlikni keskin oshirish hisobiga tannarxni kamaytirish, chuqur qayta ishlashga va qo‘shilgan qiymat yaratishga ko‘proq investitsiya jalb qilib, eksportni ko‘paytirishdir bugungi kunning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “O‘zbekiston–2030” strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri “barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash” [1] orqali “sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish, to‘qimachilikda ip kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun’iy va aralash tola ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish” borasida olib borilayotgan tizimli islohotlar mazkur sohalarni rivojlanish uchun dasturi amal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda sanoat sohasini yanada rivojlantirish mazkur yo‘nalishga klasterlar tizimini shakllantirish, ularning huquqiy maqomini belgilash hamda tarmoq korxonalari integratsiyasini joriy qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday integratsiyalashgan tarmoq korxonalari faoliyatini paxta-to‘qimachilik klasterlari orqali birlashtirish hamda ularning faoliyatini tartibga solish tarmoq rivoji uchun dasturi amal bo‘lib xizmat qiladi.

Sanoat iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiya qilish faoliyat olib borayotgan subyektlarda, shu bilan birga paxta-to‘qimachilik klasterlarida ham hozirgi kundagi eng ustuvor vazifalardan biri foydani maksimallashtirish maqsadida xarajatlarni eng minimal holatga keltirishdir. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun, eng avvalo, sarflangan xarajatlarni samarali boshqarish va uning nazoratini amalga oshirish yotadi.

Bu borada bir qancha nazariy va amaliy izlanishlar olib borilishiga qaramay, fan-texnikaning rivojlanishi natijasida ushbu muammoning ochilmagan qirralari vujudga kelmoqda. Shu bilan birga bugungi kunda sanoat tarmog‘ining drayveri bo‘lgan paxta-to‘qimachilk klasterlarining moliyaviy natijalarini aniq hisoblash, asossiz va nohaq to‘lovlar hamda soliqlardan asrashda asosiy omillardan biri bo‘lgan xarajatlar hisobini to‘g‘ri tashkil etishda bir qancha muammolar ham yo‘q emas.

Shunday muammolardan paxta-to‘qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish xarajatlarini zamonaviy va samarali usullar asosida boshqarish va nazorat qilishdir. Ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish va nazorat qilishda ularning kelib chiqish joylarini aniqlash, taqsimlash, maqsadi, yo‘nalishi, hisobga olinishi, hisobdan chiqarilishi, ya’ni mahsulot tannarxiga taqsimlashni to‘g‘ri belgilab olish muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xarajatlar hisobini boshqarish va nazorat qilishdan maqsad ularning yo‘nalishlarini belgilab olish hisoblanadi. Ishlab chiqarishdagi xarajatlar uchun alohida aniq bir maqsadga qaratilgan va ma’lum darajada hisobkitob talab qiladigan soha yoki jarayon xarajatlar hisobi yo‘nalishlarini belgilab beradi. Oddiy qilib aytganda, buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanuvchilar xarajatlarni qanday maqsadlarga sarflanishini bilishlari kerak.

Paxta-to‘qimachilik klasterlarida xarajatlarni boshqarish va nazorat qilishda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘ziga xos texnologik xususiyati, ixtisoslanishi va maqsadi muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda shunday xo‘jalik yurituvchi subyektlar borki, ularda ishlab chiqarish xarajatlari mazmunining o‘zi butun bir tizimni tashkil etadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo‘jaliklar samarali faoliyat olib borishi uchun, birinchi navbatda, xarajatlarni boshqarish va nazorat qilish tartibga solinadigan xarajatlar, tartibga solinmaydigan xarajat va xarajatlar dinamikasi sifatida guruhlanishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Chunki xarajatlarni boshqarishda bunday guruhlanish xo‘jalik faoliyatida ularning iqtisodiy o‘rni, maqsadi hamda nazoratini amalga oshirishda muhim hisoblanadi.

Tartibga solinadigan (boshqariladigan) xarajatlarga mahsulot yetishtirish uchun me’yorlashtirilgan ishlab chiqarish xarajatlari kiritilib, ular ma’lum me’yorlar asosida boshqariladi va nazorat qilib turiladi.

Tartibga solinmaydigan (boshqarilmaydigan) o‘zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlarini mahsulot yoki daromadlar o‘rtasida to‘g‘ri va adolatli taqsimlash shu kungacha xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish sohasida hamda xarajatlarni boshqarish dunyo miqyosidagi muammolardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlar xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ishlab chiqarish xarajatlarini guruhlashga yangicha usulda yondashmoqdalar. Ba’zi ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari relevant (Relevant Costs) va norelevant (Sunk Costs) xarajatlarga bo‘lib boshqarilmoqda.

Relevant xarajatlar – boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan bog‘liq xarajatlar yoki xizmatlar. Norelevant xarajatlar – boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar. Ular mahsulot ishlab chiqarilmagan taqdirda ham saqlab qolindi [2].

Shunday ekan, xarajatlarni boshqarish va nazorat qilishda yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalar asosida paxta-to‘qimachilik klasterlarida boshqaruv hisobi tizimini tashkil etish va rivojlantirish lozim. Buning uchun klasterlar faoliyatida buxgalteriya hisobini tartibga solishda hisob siyosati ham uning o‘ziga xos texnologik xususiyatlaridan kelib chiqib olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

“Xarajatlarni boshqarish – resurslarni tejay olish va ulardan olinadigan samarani maksimallashtirish qobiliyatidir”[3]. Xo‘jaliklar faoliyatida xarajatlarni samarali boshqarish va nazorat qilish olinayotgan foydani eng yuqori darajaga ko‘tarish maqsadida amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo‘jaliklar faoliyatida xarajatlarni samarali boshqarish orqali quyidagi imkoniyatlarga erishish mumkin:

- xo‘jalik faoliyatida sarf qilingan resurslarni qachon, qaerda va qay tartibda amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi axborotlarga ega bo‘lish;
- xo‘jalik faoliyati uzluksizligini ta’minlash va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha moliyaviy rusurslarni qachon zarur bo‘lishini oldindan bashorat qilish;
- xo‘jalik faoliyati uchun sarflangan resurslardan foydalanish natijasida yuqori samara olishni ta’minlash mumkin.

Shuning uchun hozirgi iqtisodiy sharoitda xo‘jaliklarda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida ularning buxgalteriya hisobi tizimida xarajatlarni boshqarish tizimini joriy etish zarur, deb hisoblaymiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma’lumotlarni to‘plash, kuzatish, tizimli yondashuv asosida xarajatlarni boshqarish tushunchasini tadqiq qilish, ularda xarajatlarni samarali boshqarish kontseptsiyasini hamda uning rivojlanish darajasini belgilash uchun qo‘llanildi. Shuningdek xarajatlar hisobini samarali tashkil qilish maqsadida qiyosiy va tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Paxta-to‘qimachilik klasterlarida olinadigan har qanday foyda zamirida, shu faoliyat uchun zarur moddiy va moliyaviy resurslar yotadi. Bu degani ma’lum bir miqdorda sarf bo‘lmasa foyda ham bo‘lmasligini anglatadi. Klasterlar faoliyatida xarajatlarni boshqarish tizimini joriy etish orqali quyidagi istiqbolli samaralarni qo‘lga kiritish mumkin:

- Klaster aktivlarini optimallashtirish: tovar-moddiy zaxiralar va debitorlik qarzlarni kamaytirish.
- Klaster passivlarini optimallashtirish: kredit portfelini optimallashtirish, xo‘jaliklarning moliyaviy manbaini kuchaytirish.
- Klasterlar faoliyatida sodir bo‘ladigan xarajatlar tuzilmasini optimallashtirish: ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, o‘rtacha xarajatlarni kamaytirish.

Har bir xo‘jalik yurituvchi subyektlarda xarajatlarni boshqarish tizimini joriy etish ular bajarishi mumkin bo‘lgan vazifalarning barchasini bitta tizimda umumlashtiradi va bu vazifalar quyidagilarni tashkil etadi:


- xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirish;
- boshqaruvning asosiy funktsiyalari bo‘yicha xarajatlarni aniqlash;
- alohida mahsulot turlari va butun xo‘jalik bo‘yicha xarajatlarni hisob-kitob qilish;
- mahsulot tannarxi tuzilishini baholash, mahsulot tannarxiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlari va xo‘jalikning barcha bo‘linmalarida xarajatlarni kamaytirish zaxiralarini izlab topish;
- ishlab chiqarilgan mahsulotlar birligiga to‘g‘ri keluvchi xarajatlarni hisob-kitob qilish, mahsulot tannarxini hisoblash;
- ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish va xarajatlarni baholashga imkon beruvchi axborot bazasini tayyorlash;
- butun mahsulot nomenklaturasiga asoslangan (raqobatbardosh) narxni shakllantirish;
- xarajatlarni o‘lchash va nazorat qilishning oqilona usullarini aniqlash;
- xarajatlarni me’yorlashtirish usullarini tanlash, amaldagi sarflarning me’yoriy sarflardan farqlanishini tahlil qilish;
- barcha xarajat turlarini tanlab olingan tasniflarga muvofiq hisobga olish;
- xarajatlarni rejalashtirish va xarajatlar moddalari bo‘yicha asosiy (tayanch) me’yorlarni belgilagan holda daromad va xarajatlar byudjetini shakllantirish va boshqalar.

Paxta-to‘qimachilik klasterlarida yuqorida sanab o‘tilgan xarajatlarni boshqarishning barcha vazifalaridan umumiy foydalanish natijasida xo‘jaliklar iqtisodiy faoliyatining o‘sishiga erishish hamda umumiy boshqaruv tuzilmasi – xarajatlarni bashorat qilish, rejalashtirish, tartibga solish, rag‘batlantirish, hisobga olish, nazorat

qilish va tahlil qilishni bitta yaxlit tizimga birlashtirishga erishish mumkin. Bu esa, nazarimizda, subyektlarda umumiy yaxlit bir tizimni joriy etish xarajatlarini boshqarish tizimi orqali amalga oshiriladi.

Xarajatlarni samarali boshqarish, asosan, boshqaruv funktsiyalari yordamida amalga oshirilib, ularning o‘zaro aloqalari va o‘zaro bog‘liqlikdagi xarakatlari yopiq, takrorlanadigan boshqaruv jarayonlarini tashkil etadi va ular quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi (1-rasm).


Bu ketma-ketlik xarajatlarni boshqarish tizimini joriy etish orqali xo‘jaliklar faoliyatida sodir bo‘layotgan xarajatlarning maqsadli sarflanishi, nazorat qilinishi va natijada keladigan foydani kerakli maqsadlar uchun sarflanishini taminlaydi, deb hisoblaymiz.



1-rasm: Xarajatlarni boshqarish ketma-ketligi

Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiyalash davrida xo‘jaliklar faoliyatida xarajatlarni boshqarish tizimini joriy etish orqali axborotlarni qayta ishlash va ma’lumotlarni tahlil qilishning murakkab mexanizmlaridan foydalanishga asoslanadi. Xarajatlarni boshqarish tezkor, o‘rta va uzoq muddatli usullaridan foydalanish, ayniqsa, tez o‘zgarib turadigan bozor iqtisodiyoti sharoitida bu tizimni avtomatlashtirishlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi, ya’ni xarajatlarni boshqarish tizimini kompyuterlashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Bu borada rossiyalik iqtisodchi olimlar xarajatlarni boshqarish mexanizmlarini qisqa muddatli, o‘rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda (2-rasm) samara berishiga qarab uchta guruhini ajratib ko‘rsatadilar [5]. Xarajatlarni boshqarish muddati qanchalik uzoq bo‘lsa, boshqarish mexanizmi ham shunchalik murakkab bo‘ladi.



2-rasm: Xarajatlarni boshqarish [4]

Xarajatlarni boshqarishning qisqa muddatli vaqt oralig‘ida eng maqbul usuli xarajatlarni kamaytirish hisoblanadi. Xarajatlarni kamaytirish, ayniqsa, hozirgi iqtisodiy sharoitda samarali bo‘ladi. Xarajatlarni boshqarishda sarflangan ham moddiy, ham moliyaviy resurslarni oqilona baholash usullarini to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar xo‘jaliklar faoliyatida baholash usuli sifatida “ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish” tanlab olinadigan bo‘lsa, xarajatlarni boshqarish bu xarajatlarni kamaytirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan birga, xo‘jaliklarda “qat’iy belgilab qo‘yilgan xarajatlarda samarani maksimallashtirish” mezonini tanlab olish ham mumkin. Bu xarajatlar avvalgi darajada qolib ketishini anglatmaydi: agar bunday o‘sish ularning samaradorligini oshirsa, ular o‘sishi mumkin. Xo‘jalik boshqaruvchilari biror-bir xarajatlarning o‘sish sur’atini oldindan aniqlab olishlari lozim. Qat’iy belgilab qo‘yilgan xarajatlarda samaradorlikka erishish xarajatlarni kamaytirishdan ko‘ra murakkabroq vositalar qo‘llanishini talab qiladi. Bu yerda gap, asosan, ombor zaxiralarini optimallashtirish, “Just in time” (aniq vaqtida yetkazib berish), assortimentni boshqarish va ishlab chiqarishni rejalashtirishning turli uslubiyatlari haqida boradi.

Xarajatlarni o‘rta muddatli istiqbolda boshqarish uchun motivatsiya mexanizmlaridan foydalaniladi: xo‘jalik ish boshqaruvchisining mehnati uchun to‘lanadigan ish haqini xo‘jalikning ish natijalariga bog‘lab ish samaradorligini oshirish mumkin.


Paxta-to‘qimachilik klasterlarida xarajatlarni boshqarish tizimi, o‘z navbatida, ularning paydo bo‘lish nuqtalari, qaysi maqsadlar uchun yo‘naltirilganligi, xarajat vositalari hamda bu xarajatlar nazoratini amalga oshirishni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, xarajatlarni samarali boshqarish va nazorat qilishda xarajatlarning paydo bo‘lish nuqtalari hamda xarajat vositalariga alohida e’tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz.

Xarajatlarning paydo bo‘lish nuqtalari – xo‘jaliklarda ro‘y beradigan xo‘jalik jarayonlarini hisobga olgan holda, xarajatlar amalga oshiriladigan joy hisoblanuvchi xo‘jalikning tarkibiy birliklari, ishlab chiqarish bo‘linmalari hisoblanadi.

Xarajatlarni hisobga olish ob’ektlari sifatida paydo bo‘ladigan joylarni tanlash, asosan, quyidagilar bilan belgilanadi:

- xo‘jalik tarkibiy birliklarining o‘tmishdagi faoliyatini baholash, hozirgi faoliyatini nazorat qilish va kelajakdagi faoliyatini rejalashtirish zarurati;
- yuzaga keladigan xarajatlarning bir qismigina muayyan mahsulotlarga kiritilishi mumkinligi sababli ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini hisoblab chiqish zarurati;
- xarajatlarning bitta turi turli joyda o‘zini turlicha tutishi mumkinligi sababli xarajatlarni doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarga ajratish zarurati.

Xarajatlar paydo bo‘ladigan joylarni ajratishning quyidagi jihatlari bilan farqlash mumkin (3-rasm).




3-rasm: Xo‘jaliklar faoliyatida xarajatlarni yuzaga kelish joylarini farqlanishi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Biz yuqorida sanab o‘tgan jihatlar xo‘jaliklar amaliyotida aralash ko‘rinishda ham uchrashi mumkin. Bundan tashqari, xarajatlarni boshqarish va nazorat qilish uchun xarajat vositalariga ham alohida e’tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz.

Xarajatlar vositasi – xo‘jaliklarning ixtisoslashganligiga qarab mahsulot yetishtirish texnologiyasi darajasi turlicha bo‘lgan mahsulot sanalib, ularni yetishtirish va sotish jarayonida xarajatlar yuzaga kelish sababi hisoblanadi va unga ushbu xarajatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgi bo‘yicha kiritish mumkin.

Shu maqsadda paxta-to‘qimachilik klasterlarida xarajatlar vositalarini tasniflashning asosiy belgilari quyidagilardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir (4-rasm).



4-rasm: Xarajat vositalarining tasniflanishi

Bu esa, fikrimizcha, har bir xo‘jalik faoliyatida xarajatlarni ularning vositalari bo‘yicha guruhlash yetishtirilgan mahsulot tannarxini aniqlash uchun zarur hisoblanadi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarishga yuqorida keltirilgan fikrlar asosida paxta-to‘qimachilik klasterlarida tashkil etilgan psixologik muhit va davlatning bu sohada olib borayotgan siyosati negizida tashkil etilgan hisob siyosati hamda uning o‘ziga xos texnologik xususiyatini asosiy ta’sir etuvchi omillar, deb hisoblash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, paxta-to‘qimachilik klasterlarida to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish asosiy faoliyat xarajatlarini doimiy nazorat qilish va uni samarali boshqarish uchun muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun klaster rahbarlari va mutaxassislari xarajatlar to‘g‘risida aniq va to‘g‘ri ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Boshqaruv uchun zarur axborotlarga ega bo‘lish xo‘jalik va uning bo‘linmalari faoliyatini boshqarishda birday ahamiyatlidir.

Fikrimizcha, xarajatlar samaradorligini oshirish uchun yana bir muhim jihat sohaga innovatsion g‘oyalarni joriy qilish, sohani yangi texnik va texnologik jihozlar bilan ta’minlash, ya’ni zamonaviy asbob-uskunalarni keng joriy etish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish lozim. Shu bilan birga, sohaning rentabellik darajasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi xarajatlar hisobini samarali olib borish va mahsulot tannarxini hisoblashning zamonaviy usullarini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Shu maqsadda xarajatlarni samarali boshqarish va nazorat qilish uchun paxta-to‘qimachilik klasterlarida quyidagilarga e’tibor qaratishlari lozim, deb hisoblaymiz:

- faoliyat turidan kelib chiqib sarflangan xarajatlarni to‘g‘ri tasniflash;
- xarajatlarning kelib chiqish joylari va qanday maqsadda sarflanganligini aniqlash;

- xo‘jalik faoliyatida sodir bo‘lgan xarajatlar to‘g‘risida aniq va ishonchli ma’lumotlarni o‘z vaqtida boshqaruv xodimlariga taqdim etish;
- xarajatlarni mahsulot tannarxiga kalkulyatsiya qilishda samarali va zamonaviy usullardan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston–2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmoni. https://lex.uz/ru/docs/6600413.
2. Xolbekov R. Ishlab chiqarish hisobida xarajatlar boshqaruvi va nazorati. //Bozor, pul va kredit, ─2005. ─ №12. ─36-b.
3. Zamuraeva L.Ye. Upravlenie zatratami: uchebnoe. ─Tyumen: Izdatelstvo Tyumenskogo gosudarstvennogo universiteta, 2005. 15-b.
4. Toshpo‘latov A.Sh. Improving the Cost Management Mechanism in Management Accounting. Academic Journal of Digital Economics and Stability. Spain\. Volume 15, 2022, ISSN 2697-2212. ─P. ─176-183.https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/article/view/453/436
5. Zamuraeva L.Ye. Upravlenie zatratami: uchebnoe. -Tyumen: Izdatelstvo Tyumenskogo gosudarstvennogo universiteta, ─2005. ─15-b.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



SUG‘URTA KOMPANIYALARIDA ASOSIY SAMARADORLIKNING MUHIM KO‘RSATKICHLARI AHAMIYATI VA TANSIFI

Sharipova Durdona
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya: Maqolada sug‘urta kompaniyalari uchun boshqaruv yechimlariga bo‘lgan talab sug‘urta kompaniyalari boshqaruvida samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarini kompaniya faoliyati samaradorligi oshirishning o‘rni yoritilgan hamda sug‘urta kompaniyalarida asosiy samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarini tasnifi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta, sug‘urta kompaniyalari, menejment, motivatsiya, sug‘urta xizmatlari, raqobat.

Abstract: The article highlights the need for management decisions for insurance organizations, the importance of performance indicators in the management of insurance organizations, the role of increasing the efficiency of companies, as well as the classification of the main performance indicators of insurance companies.

Key words: insurance, insurance companies, management, motivation, insurance services, competition.

Аннотация: В статье освещена необходимость управленческих решений для страховых организаций, значение показателей эффективности в управлении страховыми организациями, роль повышения эффективности деятельности компаний, а также классификация основных показателей эффективности страховых компаний.

Ключевые слова: страхование, страховые компании, менеджмент, мотивация, страховые услуги, конкуренция.

KIRISH

O‘zbekiston milliy sug‘urta kompaniyalarining boshqaruvida samaradorlikni baholash mezonlarining yagona bir tizimi mavjud emas, bundan tashqari, sug‘urta kompaniyalarining milliy sug‘urta kompaniyalari boshqaruvida samaradorlikni baholash mezonlarini qo‘llash muammoli taraflarini va yo‘nalishlarini aniqlashtiruvchi ilmiy tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi.

Milliy sug‘urta kompaniyalarining boshqaruvida samaradorlikni baholash mezonlarini rivojlangan davlatlarda amaliyotda qo‘llanilayotgan baholash mezonlari darajasida rivojlantirishga erishish, ilmiy jihatdan o‘rganish, tahlil qilish, uning rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan holatlarni aniqlash va rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini milliy bozor xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy qilish yo‘llarini ishlab chiqish sug‘urta sohasidagi dolzarb vazifaga aylandi. Bu esa, o‘z navbatida, disseratsiya tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Qayd etish kerakki, sug‘urta mahsulotlari, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizigacha bo‘lgan (2019-yil oxiriga kelib jahon sug‘urta mukofoti 7,5 trillion AQSh dollardan oshdi) iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. Sug‘urta mahsuloti iste’molchilari turli kasb egalari bo‘lsada, lekin sug‘urtaning rivojlanishi ijtimoiy foydali faoliyatning yangi sohalari va yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishi, bandlikning ko‘payishi va sivilizatsiya taraqqiyotiga hissa qo‘shib kelmoqdalar. Xususan, ijtimoiy ta’minot tizimida sug‘urta mexanizmlaridan foydalanish kafolatlangan ijtimoiy yordam olish uchun keng imkoniyatlarni beradi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sug‘urta kompaniyalari boshqaruvida moliyaviy menejment, samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarini joriy qilish, amaliyotgan qo‘llash masalalari bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan ilmiy ishlarda o‘za aksini topgan.

Umuman olganda, Klochkov K.A. “sug‘urta kompaniyalarida samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari ishlab chiqarish natijalarining miqdori va sifatini, resurslarga sarflangan xarajatlarni hamda biznes-jarayonlarni baholash imkon beradi” deb hisoblaydi [2].

Shu jihatdan olganda, T.P.Danko va M.P.Golubevlarning fikricha “sug‘urta kompaniyalari faoliyatini yaxlit baholash biznes rejada rejalashtirilgan hamda haqiqiy ko‘rsatkichlarning qiyosiy tahlili natijalarini tanqidiy ko‘rib chiqish” muhimdir [3].

Samaradorlikni baholash muammolari V.G.Sadikov va N.I.Fedyakova ta’kidlashicha, “sug‘urta tizimini uning ijtimoiy samaradorlik nuqtayi nazaridan kelib chiqib bajaradigan funksiyalari asosida baholash kerak” [4]. Bu yerda olimlar samaradorlikni baholashda iqtisodiy, moliyaviy shuningdek, ijtimoiy samaradorlikni baholashni, shu jumladan jamiyat va davlat manfaatlarining uyog‘unlik nuqtayi nazaridan baholashni ilgari suradilar.

V.I.Zaxarchenkoning fikricha, “samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari tizimida xodimlarning kompaniyaning maqsadlariga erishish uchun tashabbus ko‘rsata olishlari hamda kompaniya maqsadidni qanday tushunishlariga bog‘liqdir” [5].

Shuningdek, Mamatov Sh. “menejment samaradorligining tijorat mezonlaridan foydalanishda korxona egalari, menejment va jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qarama-qarshiliklar sug‘urtalovchining moliyaviy barqarorligiga va sug‘urta shartnomalari shartlariga qat’iy rioya qilingan holda hal etiladi, bu esa samarasiz boshqaruv qarorlaridan foydalanishni cheklaydi” deb qaraydi [6].

S.A.Sharapovaning ta’kidlashicha esa “sug‘urta faoliyatining samaradorligi baholashda uni mahsulot sotish yo‘nalishi sifatida baholashni qo‘rib chiqadi. Shuningdek mahsulot sotish tizimining samarali ishlashi uchun sug‘urta kompaniyasi va sug‘urta mahsuloti iste’molchisi o‘rtasidagi aloqasidan tashqari turli sug‘urta vositachilari, ekspertlar va anderrayterlarning faol ishtirokidagina samarali tashkil etilishi mumkin” [7].

A.Shirinyan hamda L.Shirinyan “samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari sifatida xizmat narxi, ma’muriy xarajatlar ulushi, sug‘urta qoplash darajasi, sug‘urta qoplashning to‘liqligi, tarifdagi foiz yuklanishii, xizmatning mavjudligi, to‘lovlarning tezkorligi qayd etilsa, xizmatlar iste’molchisi uchun sug‘urta samaradorligiga narxni minimallashtirish va xizmat ko‘rsatishning yuqori sifatini ta’minlash, sug‘urta to‘lovining to‘liqligi va tezkor xizmat ko‘rsatish sharti bilan erishiladi [8].

A.X.Abdurahmonovning qayd etishicha “sug‘urta kompaniyalari samaradorligiga zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish sug‘urta mahsulotlarining raqobatbardoshligi uchun yangi instrumentlari ta’siri kengayib, sug‘urta kompaniyalari takliflarini tahlil qilish biznes jarayonlar (sug‘urta shartnomalari tuzilgandan keyin) uchun raqobatbardoshlikning raqamli omillarini tizimlashtirish imkonini beradi” [9].

A.V.Ryabchenkov “sug‘urta kompaniyasining samaradorligini baholashda faqat iqtisodiy maqsadlar nuqtayi nazaridan yondashishni tavsiya etadi. Sababi sug‘urta kompaniyalarini iqtisodiy baholash modellarni ham shunday asosda qurilgan” [10]. Bunday baholash iqtisodiy asoslarni o‘z ichiga oladi, ammo ba’zi bir tomonlari e’tibordan chetda qoladi, sababi bunday yondashuvda faqat korxonaning (sohaning) moliyaviy-iqtisodiy salohiyati hisobga olinadi.

Sug‘urta kompaniyalari uchun boshqaruv yechimlariga bo‘lgan talab sug‘urta kompaniyalari boshqaruvida samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarini joriy qilish bilan bog‘liq ilmiy amaliy yondashuvlar ilmiy munozaralarni kengayishiga olib keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida sug‘urta sohasiga yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali raqobatning yangi turlarining paydo bo‘lishi, ularning nazariy, amaliy asoslari va ilmiy adabiyotlar o‘rganildi, mavzuga oid tadqiqotlarga tayangan holda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv usullaridan keng foydalanildi va xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Zamonaviy sug‘urtani xalqaro risk va sug‘urta mukofotlari almashinuvisiz amalga oshirish mumkin emas, shu sababli sug‘urta xalqaro iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Sayohat sug‘urtasi butun dunyo bo‘ylab fuqarolarning erkin harakatlanishiga yordam beradi. Bu yerda sug‘urta to‘g‘risidagi qonun hujjatlari sug‘urta faoliyatini tashkil etishning maqsad va vazifalarini shakllantirishni ta’minlaydi.

Bozorning tebranishlari tufayli investitsiya daromadi va investitsiya qo‘yilmalarini yo‘qotish yana bir ob’ektiv risk hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, turli riklar va samaradorlikning o‘zaro mutanosibligi sug‘urta biznesidagi strategik maqsad konsepsiyasini alohida ko‘rib chiqishni talab qiladi va shuni ta’kidlash kerakki, ushbu maqsad sug‘urtaning eng muhim ijtimoiy roli tufayli nafaqat sug‘urta biznesi egasining manfaatlarini shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlari hisobga olishi kerak. 1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, respublikamia sug‘urta bozori dinamikasi ijobiy xarakterga ega bo‘lib, 2022-yilga sug‘urta mukofotlari hajmi 6231,7 mlrd.so‘mni tashkli etdi, bu 2021-yilga nisbatan salkam 1,7 baravarga ko‘pdir. Shuningdek, sug‘urta kompaniyalari soni nisbatan barqaror bo‘lsada, sug‘urta brokerlari soni 40,0 foizga ko‘paygan.

1-jadval: O‘zbekiston sug‘urta bozorining dinamik tuzilishi (2015-2022-yillar) [11]

Ko‘rsatkich / Yillar	Sug‘urta kompaniyalar soni	Sug‘urta mukofotlari (mlrd.so‘m)	Sug‘urta qoplamalari (mlrd.so‘m)	Jami ustav kapital (mlrd.so‘m)
2015	30	515,5	111,0	420,7
2016	26	692,6	130,5	443,1
2017	27	927,4	269,9	321,6
2018	30	1635,2	460,8	543
2019	36	2313,9	813,5	755,2
2020	40	2212,0	732,0	1439,1
2021	42	3733,0	1235,0	1545,7
2022	41	6231,7	2596,9	1884,1

Sug‘urta bozori tarkibi	2021-yil	2022-yil	O‘zgarish %
Jami sug‘urta kompaniyalari	42	41	-2,4%
Sug‘urta kompaniyalarining jami ustav kapitali (mln.so‘m)	1 589 808	1 884 111	+18,5%
Sug‘urta brokerlar soni	5	7	+ 40,0%
Sug‘urta aktuariylari soni	5	5	0%
Sug‘urta agentlari soni	9581	9155	-4,4%
To‘lovlarni kafolatlash fondi ishtirokchilari soni	23	25	+8,7%

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, biznesning strategik maqsadlari korporatsiya missiyasida shakllangan. Sug‘urtalovchilar tomonidan sug‘urta hodisalari natijasida yetkazilgan zararni sug‘urta kompensatsiyasi orqali sug‘urta qoplamasini amalga oshirish bo‘yicha sug‘urtalovchining va’dalarining ishonchliligi va bajarilishini aks ettiradi. Umuman olganda, sug‘urta biznesining vazifasi aholining ishonchli sug‘urta qoplamasiga bo‘lgan ehtiyojini qondirish sifatida shakllantirilishi mumkin.

Kompaniya uchun KPI ni joriy etish kompaniyaning foydasini oshirish uchun muhim vazifalarni hal qiladi. O‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, xodimlarning ish haqi samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha joriy etish xodimlarning samaradorligini kamida 10% ga, o‘rtacha 20-30% ga oshiradi. Korxonaning ustuvor vazifalari va ularni amalga oshirish, ko‘pincha, hatto eng bilimdon va tajribali xodimlar ham kompaniyaning maqsadlariga erishish uchun aniq nima qilish kerakligini tushunmaydilar.

Ballar kartasini joriy qilish, korxona faoliyati samaradorligini monitoring qilish xodimlarga biznesning ustuvor yo‘nalishlarini aniq yetkazish imkonini beradi. To‘g‘ri ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan tizim tashkilotdagi ishlarning holatini doimiy ravishda kuzatib borish, professional mutaxassislarni jalb qilish va saqlash bu xatolarni o‘z vaqtida aniqlash va yo‘q qilishga yordam beradi.

Faoliyatning asosiy ko‘rsatkichlariga asoslangan motivatsiya tizimi korxonada ish haqida ijtimoiy adolat deb nomlanadi. Eng ko‘p kuch sarflagan va eng ko‘p natijaga erishgan xodimlar ish haqi ko‘payadi.

Belgilangan ish haqidan farqli o‘laroq, KPI asosida to‘lovning o‘zgaruvchan qismi xodimlarning funksional vazifalarini yaxshiroq bajarilishini rag‘batlantiradi va kompaniyaning strategik maqsadlariga tezkorlik bilan erishishga yordam beradi [2].

Mazkur KPI – samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarini sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanuvchi sug‘urta kompaniyalariga ham tatbiq etish mumkin. Sug‘urta kompaniyalari o‘zlarining oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishi uchun ko‘pgina strategik ko‘rsatkichlarni ishlab chiqadi va amaliyotga tatbiq etadi. Masalan, sug‘urta kompaniyalari ularning asosiy faoliyat turi – sug‘urta faoliyatidan boshqa investitsion faoliyat turi bilan ham shug‘ullanadi. Investitsion faoliyat turi bilan shug‘ullanishda banklarga qo‘yiladigan depozit qo‘yilmalarini boshqarishni tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar mavjud. Ushbu me’yoriy hujjatlar asosida har bir bankka qo‘yilgan pul mablag‘lari tahlil qilib boriladi va shu yo‘nalish bo‘yicha samaradorlikni aniqlash maqsadida ko‘rsatkichlarga me’yorlar o‘rnatiladi. Bu esa birinchidan sug‘urta kompaniyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirsa, ikkinchi tarafdan ularning iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish orqali inqirozni keltirib chiqaradigan risklarni oldini oladi.

Sug‘urta kompaniyalarida KPI tizimini joriy etishning asosiy maqsadi boshqaruv samaradorligini oshirishdir. Aslida baholash mezonlarini ikki turga bo‘lishimiz mumkin. Bular miqdoriy baholash mezoni va sifatni baholash mezoni.

Mana shu miqdoriy baholash, ya’ni xodimlarning ishini baholash orqali kompaniyaning oldiga qo‘ygan kerakli natijalarga erisha oladimi yoki yo‘qmi degan savollarga javob topamiz.

Mazkur ko‘rsatkichlar kompaniyaning rejalariga asoslanib, nimaga aniqlik kiritish va hisobga olish mumkinligini aks ettiradi. Bu ko‘rsatkichlar sug‘urta kompaniyalari uchun quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘lishi mumkin:

- sug‘urta mukofotlarini yig‘ish rejasi;
- kerakli rentabellik darajasiga erishish;
- mijozlarning shikoyatlari;
- sug‘urta to‘lovlari.

Sifatli baholash mezonlari esa xodimlarning kasbiy rivojlanish darajasi va salohiyatlarini baholashga imkon beradi. Mazkur mezonlar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- mijozlarni jalb qilish;
- sug‘urta mahsulotlarining sifatini yaxshilash.

Koeffitsiyentning dinamikasi grafik ko‘rinishda taqdim etilishi kerak, shunda natijalar asosida xulosalar chiqarish va qaror qabul qilish mumkin bo‘ladi.

Bunday ko‘rsatkich yuqorida keltirilgan barcha belgilarga javob beradi: miqdoriy jihatdan o‘lchanadi, normallashtirilishi mumkin, grafikada namoyish etiladi. Tahlil jarayonida mutaxassislarni jalb qilgan holda yangi ko‘rsatkichlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Ular menejerlar, shuningdek korxonalarning moliyaviy va tijorat tuzilmalarida eng ko‘p o‘qitilgan mutaxassislar bo‘lishi mumkin.

Takomillashtirilgan KPI tizimi menejerlarga bir qator muammolarni hal qilishda yordam beradi [12].

1. Mas’uliyatni va asosiy parametrlarni nazorat qilishni taqsimlash, mustaqil bo‘linmalar rahbarlarini oqimdan sezilarli darajada tushirish va asosiy narsaga e’tibor berishga majbur qilish.
2. Samarali budjetlashtirish: aniq o‘lchanadigan vazifalarga erishish uchun budjetni tuzish ancha oson, eng muhimi, uni budjet qo‘mitasida asoslash osonroq bo‘ladi.
3. Xodimlar sifatini yaxshilash, chunki tizim ob’ektiv ravishda kuchli va kuchsizligi namoyon bo‘ladi, ijodkorlik va tashabbuskorlikni rivojlantiradi, rivojlanish istagi, hamkasblaridan kam bo‘lmaslikka harakat qiladi.
4. O‘zining maqomini va birlik maqomini saqlash va yaxshilash. Bu, ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sohasiga to‘g‘ri keladi, chunki ularning faoliyati har doim miqdoriy jihatdan o‘lchanishi qiyin bo‘lgan, afsuski, sifatli natijalar har doim ham ko‘rsatilavermaydi.
5. Muammolarga javob berishdan tizimli rejalashtirish va maqsadlarni belgilashga o‘tish.
6. O‘z faoliyatida va o‘z qo‘l ostidagi xodimlarning faoliyatida ustuvorlikni o‘rnatish.

Korxonalarni boshqarish uchun KPI tizimi foydasi shundaki, faoliyatning asosiy ko‘rsatkichlar tizimi ustuvorliklarni belgilashga imkon beradi, ularni butun boshqaruv bo‘ylab - top menejerlardan tortib oddiy xodimlarga qadar tarqatadi. Bu xodimlarni belgilangan vazifalarni hal qilishga undashga imkon beradi.

Samaradorlikni muhim ko‘rsatkichlarini joriy qilish sug‘urta kompaniya ma’muriyatiga daromadni xolisona baholash va kelgusida ichki rivojlanish siyosatini ishlab chiqish imkoniyatini beradi (2-jadval).

2-jadval: Sug‘urta kompaniyalarida asosiy samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarini tasnifi [12]

№	Ko‘rsatkich	Tasnifi
1	Sotishdan tushgan sof tushum rejasining bajarilishi	Kompaniyannig moliyaviy holatini tasniflaydi
2	Sof foyda (zarar) reja ko‘rsatkichining bajarilishi	Kompaniyannig faoliyati natijalarini foydaliligini belgilaydi.
3	Aktivlar rentabelligi (%) (ROA return on assets)	Kompaniyaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining rentabellik (zararlilik) darajasini ko‘rsatadi.
4	To‘lov qobiliyati koeffitsiyenti	Qarzdorlar bilan o‘z vaqtida hisob-kitob qilish va joriy (joriy) aktivlarning boshqa elementlarini hisobga olgan holda baholangan kompaniyaning qisqa muddatli majburiyatlarini to‘lash imkoniyatlarini ko‘rsatadi.
5	Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	Qisqa muddatli qarz mablag‘larini o‘z manbalari bilan qaytarish xavfsizligi darajasini aniqlaydi.
6	Pul mablag‘lari mikdori (hisob raqam, kassa)	Sug‘urtalovchilar aktivlarini joylashtirishga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi
7	Mehnat unumdorligi	Mehnat samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkich

Mazkur ko‘rsatkichlarni tahlil qilish orqali sug‘urta kompaniyalarining kompaniyannig asosiy maqsadi – har bir alohida xodimning ko‘rsatkichlari bo‘limning va butun kompaniyaning umumiy natijalari bilan o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Shu bilan birga, xodimlarning harakatlari bir-biriga zid bo‘lmasligi yoki ish jarayonini sekinlashtirmasligi kerak. Odatda dastur bir vaqtning o‘zida bir nechta maqsadlarni belgilashni nazarda tutadi – masalan, moliyaviy

rejani amalga oshirish, xodimlarni yollashni optimallashtirish, mijozlar ehtiyojini qondirish, o‘qitish samaradorligini oshirish va xodimlarning sadoqatini oshirishdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

KPI tizimini ishlab chiqishda har bir koeffitsiyentga nisbatan ma’lum talablar hisobga olinishi kerak. Har bir koeffitsiyent aniq belgilanishi kerak, shunda har qanday foydalanuvchi uni hisoblab chiqarishi mumkin. Shu indikator yordamida natijalari baholanadigan xodimni o‘z ichiga oladi. Masalan, mijozlarga xizmat ko‘rsatuvchi menejerning ish joyida eng oddiy buxgalteriya hisobini tashkil qilish unga har doim qo‘lida bo‘lgan ma’lumotlardan foydalangan holda o‘zining shaxsiy KPI ni hisoblashni osonlashtiradi.

Sug‘urta kompaniyalarida KPI tizimini joriy qilish orqali quyidagilar masalalarning yechimini topish mumkin:

- xodimlarni tanlash, ishga olish va joylashtirish tizimining samaradorligini oshirish;
- xodimlarni qo‘llab-quvvatlash va mukofotlar tizimini adolatni joriy qilish va boshqarish;
- sug‘urta xodimlarining individual muammolarini tez, adolatli va samarali hal qilish;
- xodimlarning mehnatiga haq to‘lash ularning mehnat natijalariga erishish va bo‘limning ish samaradorligiga asoslanishi;
- xodimlarning ehtiyojlarini kompaniya ehtiyojlari bilan muvofiqligini ta’minlash.

Ko‘rsatkichlar xodimlarni rag‘batlantirish va samaradorligini oshirishga yordam berishi kerak va bu maqsadlarni belgilash bilan bevosita bog‘liq. Shunday qilib, sotuv bo‘limi yangi mijozlarni jalb qilish rejasini amalga oshirganda bo‘lim qo‘shimcha bonusga umid qilishi mumkin, agar reja bajarilmasa, aksincha, bonus to‘lanmaydi.

Ko‘rsatkichlar ham taqqoslanishi kerak, ya’ni ikkita o‘xshash vaziyatda bir xil ko‘rsatkichlarni taqqoslash mumkin. Masalan, o‘rtacha cheklar soni (KPI - o‘rtacha kunlik daromadning bir kundagi cheklar soni nisbati), viloyat miqyosidagi shaharda va xuddi shu turdagi do‘konlar bilan taqqoslanadi.

Tasdiqlangan ko‘rsatkichlar va standartlarga erishish kerak. Maqsad haqiqiy bo‘lishi kerak, lekin ayni paytda rag‘batlantiruvchi bo‘lishi kerak. Ko‘rsatkichlarning har biri baholanadigan odamlarning javobgarligi sohasida bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buyuk Kelajak XNNT, O‘zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. 2017y. https://uzbekistan 2035.uz
2. Клочков К.А. KPI и мотивация персонала: науч. изд. – М.: Издательство Эксмо, –2014. – 103 с.
3. Данко Т.П., Голубев, М.П. Менеджмент и маркетинг, ориентированный на стоимость. –Т.П. Данко, М.П. Голубев. – М.: ИНФРА-М, 2015. – 398 с.
4. Садков В.Г., Федякова Н.И. Системные основы развития страховых отношений и обоснование общественной эффективности системы страхования // Финансы и кредит. –2007. –№ 24. –С. 43–52.
5. Захарчинко В. И. Система мотивации на основе KPI: науч. изд. –М.: Издателство. –Москва, 2018. – 13 с.
6. Mamatov Sh. Samaradorlikni baholash: qadimiy va zamonaviy mezon, Biznes-Daily media, p. 4. 2017y. http://www.biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja-45160-samaradorlikni-baholash-qadimiy-va-zamonaviy-mzon.
7. Шарапова С.А. Оценка эффективности управления сбытовыми каналами страховой компании на рынке промышленного страхования // Вестник Московского городского педагогического университета. –Серия: Экономика. –2014. –№ 1. –С. 84–94.
8. Ключевые показатели эффективности функционирования страхового рынка для покупателей страховых услуг // Проблемы экономики, –2019, –№4.
9. Abduraxmonov I.X. Sug‘urta sohasida yangi raqobat ko‘rinishlari: nazariy asos va iqtisodiy tahlil // Moliya va Bank ishi Jurnali 2 (2022), –145-150
10. Рябченков А.В. Оценка эффективности страховых компаний. SFA-подход // Вестник Хабаровской государственной академии экономики и права. 2012. – № 1. –С. 97–106.
11. https://imv.uz/activity/vazirlik-tassarufidagi-tashkilotlar/sugurta-bozorini-rivojlantirish-agentligi ma’lumotlari.
12. Архипов А.П. Финансовый менеджмент страховых организации. –М.: Вузовский учебник. –Юрайт, –2017. –357 с.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI BOSHQARISH



Mirzayev Musurmon Umidullayevich
TDAU “Biznesni boshqarish” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo‘jaligida globallashuv sharoitida transchegaraviy suvlardan samarali foydalanishni boshqarish, suv resurslaridan foydalanish samaradorligi, suv tanqisligini yumshatish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar, suv resurslarini yetkazib berish xizmatini samarali tashkil qilish yoritilgan.

Kalit so‘zlar: samaradolik, suv resurslari, tomchilab sug‘orish, transchegaraviy, agromeliorativ, irrigatsiya, strategiya, sug‘orish rejasi, limit.

Abstract: The article deals with the issues of managing the effective use of transboundary waters in the context of globalization in agriculture, the efficiency of water resources use, measures to mitigate water scarcity, effective organization of water delivery services.

Key words: efficiency, water, drip irrigation, transboundary, agromelioration, irrigation, strategy, irrigation plan, limit.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы управления эффективным использованием трансграничных вод в условиях глобализатsiи в сельском хозяйстве, эффективности использования водных ресурсов, мер по смягчению дефицита воды, эффективной организатsiи служб доставки водных ресурсов.

Ключевые слова: эффективность, водные ресурсы, капельное орошении. трансграничный, агромелиоратив, ирригация, стратегия, план орошения, лимит.

KIRISH

Jahon mamlakatlarida globallashuvni yuzaga kelishi va aholi sonining sezilarli darajada ko‘payib borayotganligi va iqtisodiyot tarmoqlarining jadal sur’atlarda rivojlanayotganligi transchegaraviy suvlarga bo‘lgan talabning keskin ortishiga sabab bo‘lmoqda. Buning natijasida dunyoning ko‘plab mintaqalarida suv tanqisligi kuzatilmoqda. Olimlarning ta’kidlashicha, “2030-yilga borib jahon aholisining 47 foizi suv tanqisligi sharoitida yashashga majbur bo‘ladi”[1]. Hozirgi kunda jahon bo‘yicha iste’mol qlinadigan suvning 70 foizi qishloq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi. Aksariyat rivojlangan xorijiy davlatlarda suv ta’minotini tashkil etish, moliyalashtirish va boshqarishda bozor mexanizmlarini qo‘llash ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda suv xo‘jaligini boshqarish tizimi tubdan isloh qilindi, suv resurslaridan maqsadli va oqilona foydalanish ishlari amalga oshirildi hamda sug‘oriladigan erlarning meliorativ holati yaxshilandi. Buning natijasida suvdan limit buyicha foydalanishga o‘tilganidan keyin so‘nggi 15 yil davomida bir gektar hisobiga suvni yuqotish hajmi 10-12 foizga kamaydi[2], suv xo‘jaliklari faoliyatining miqdor va sifat ko‘rsatkichlari yaxshilandi. Ushbu tadbirlar qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi o‘sishi va mazkur tarmoqning barqaror rivojlanishga asos yaratdi. Shu bilan birga, bugungi kunda qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan foydalanishni tashkil etish buyicha o‘z yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud bo‘lib, jumladan, suvni yetkazib berish, suvdan foydalanish ishlarini samarali boshqarish va bozor mexanizmlarini qo‘llash, suvga haq to‘lash tartib-qoidalari hamda shartnoma majburiyatlarini bozor munosabatlariga moslashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha

1 www. un. org- Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy sayti.
2 www.agro.uz.- O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining rasmiy sayti.

Harakatlar strategiyasida “sugoriladigan erlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish”[3] bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan [1]. Ushbu vazifalarni samarali yechim topishi qishloq xo‘jaligida transchegaraviy suv reruslaridan samarali foydalanishni boshqarishda bozor mexanizmlarini qo‘llash yo‘llarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Jahon amaliyotida to‘plangan ilg‘or xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda, respublikamiz qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanishning ilmiy asoslarini takomillashtirish talab qilmoqda. Shu jihatdan, xorijiy mamlakatlar tajribalari asosida mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida transchegaraviy suv reruslaridan samarali foydalanishni boshqarishda bozor mexanizmlarini qo‘llash yo‘llarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur mavzu doirasida ko‘plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan. Professor V.A Duxovniy “Markaziy Osiyo misolida suv va globallashuv”da asoiy e’tiborni globallashish jarayoni hamda moliyaviy institutlarga qaratilganilini e’tiborga olganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan kelib chiqib globallashuvning natijadorligi va samaradorligi aynan davlatlararo hamda halqaro tashkilotlar darajasida ya’ni Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda yagona konvensiyani qabul qilinishida namoyon bo‘lmoqda [4]. Duxovniy V. A., Sokolov V. Suv resuruslarini integratsiyalashgan holda boshqarish bo‘yicha taklif hamda loyihalarida Markaziy Osiyoda suv-energetika resurslarini hamkorlikda boshqarish sohasida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama bitimlar va boshqaruv tuzilmasi bo‘yicha ma’lumotlar keltirgan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Markaziy Osiyo hamda Mamlakatimizda globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshaqarishda xalqaro konsepsiya va boshqarish tuzilmasini qayta ko‘rib chiqish hamda integratsion masalalarini ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganishda statistik ma’lumotlar, tanlanma usulda belgilash, nazariy-falsafiy, obyektiv yondashuv, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanish asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi. To‘plangan ma’lumotlar asosida tizimli hamda taqqoslama yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Markaziy Osiyoda transchegaraviy suv resurslarsan foydalanishda davlatlararo qabul qilingan hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi, shuning uchun ham hozirgi davrda Markaziy Osiyo davlatlarida transchegaraviy suv resurslardan foydalanishda Birlashgan millatlar tashkiloti doirasida transchegaraviy suv resurslardan foydalanish bo‘yicha xalqaro darajada konvensiya ishlab chiqilishiga ehtiyoj sezilmoqda. Xalqaro darajadagi konvensiyani shlab chiqishda barcha Markaziy Osiyo davlatlari bilan kelishilgan holda Afg‘onistonni ham bu konvensiyaga qo‘shilishini nazarda tutilish maqsadga muvofiq. Lekin hozirgi paytdagi Afg‘onistondagi vaziyat to‘laligicha yaxshilanmaganini hisobga oladigan bo‘lsak kelishuvni amalga oshirishda muammoli vaziyat judaham ko‘p. Aynan muammoni samarali yechimi sifatida Markaziy Osiyo davlatlari, ya’ni Afg‘oniston ham halqaro darajada ya’ni Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan birgalikda transchegaraviy suvlardan samarali foydalanish uchun konvensiya ishlab chiqishlari va kelishilgan holda bu konvensiyani qabul qilish orqali transchegaraviy suv resurslardan maqsadli foydalanish imkoniyatlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Chunki Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy o‘zish jarayonlari bir biriga bog‘liq ligi aynan birgalikda faoliyat olib borish tizimini yaratilishi maqsadga muvofiq. Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida qabul qilingan konvensiya barcha davlatlar belgilangan konvensiya doirasida faoliyat olib borishi natijasida suv transchegaraviy suv resurslardan foyadalanish hamda har bir respublika uchun limit asosida taqsimlanishi samaradorligi oshadi.

Hozirgi paytdai Markaziy Osiyo davlatlararo suv resurslarni muvofiqlashtiruvchi komissiya tuzilmasi quyidagicha. (1-rasm)


Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan birgalikda konvensiya ishlab chiqilib bu konvensiya me’yorlariga rioya etilishi hamda Afg‘oniston bu konvensiga jalb etish hamda Markaziy Osiyo davlatlararo suv resurslarni muvofiqlashtiruvchi komissiya tuzilmasi tarkibiga qo‘shishni nazarda tutish maqsadga muvofiqligi zaruriyati tug‘ilmoqda albta bu konvensiyani shakllantirish orqali bu davlatlarda mahsulot yetishtirish hajmi va samaradorligini oshirishga erishiladi chunki smarali boshqarishning asosi integratsiya asosida yuzaga keladi.

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining I ilovasi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”. lex.uz



1-rasm: Markaziy Osiyo davlatlararo suv resurslarni muvofiqlashtiruvchi komissiya ta'sis organlari

Markaziy Osiyo davlatlararo suv resurslarni muvofiqlashtiruvchi komissiya ta'sis organiga Afg'oniston va ijro etuvchi organlariga ham vakillarni qo'shish nazarda tutilishi maqsadga muvofiq (2-rasm).



2-rasm: Markaziy Osiyo davlatlararo suv resurslarni muvofiqlashtiruvchi komissiya ta'sis organlari (muallif ishlanmasi)

Bugungi globallashuv va mintaqaviy integratsiyalashuv sharoitida O'zbekiston transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanish, bu borada qo'shni davlatlar bilan umumiy konsensusga erishish siyosatini yuritmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligi nuqtayi nazaridan mintaqadagi tabiiy suv resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etish maqsadida har bir davlat qo'shni davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishga intiladi. Asosiy suv resurslarimiz transchegaraviy bo'lgan Amudaryo va Sirdaryo daryolarining zimmasiga to'g'ri kelishi va ularning yuqori oqimida joylashgan qo'shni davlatlarning suvni boshqarishdagi noinsti-

tutsional yondashuvi respublikamiz suv ta'minotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, Tojikistonda va Qirg'izistonda qurilgan To'qtag'ul , Nurek va Qayroqum yirik suv omborlarining irrigatsiya rejimidan energetik rejimga o'tkazilishi daryolar suv oqimining o'zgarishiga sabab bo'ldi.

Qo'shni davlatlarning suv omborlarini energetik rejimda ishlashini quyidagi misollarda aniq ko'rishimiz mumkin. Sirdaryo havzasi bo'yicha: To'qtag'ul suv ombori Norin daryosida joylashgan bo'lib, 19,5 mlrd.m^3 umumiy suv sig'imiga ega. Bu mazkur suv omborining suv sig'imi Norin daryosining yillik oqimidan 1,5 baravar ortiq, degani.

To'qtag'ul suv ombori avvallari irigatsion rejimda ishlagan, suv omboridan suv chiqarish sug'orish mavsumida, ya'ni yoz oylarida 73 foiz (8,5 mlrd.m^3), kuz va qish oylarida esa 27 foiz (3,2 mlrd.m^3) ni tashkil qilib, daryoning tabiiy rejimiga to'la mos kelgan. Biroq, 1992-yildan boshlab, To'qtag'ul suv omborining ishlashini energetik rejimga o'zgartirilishi, natijada, sug'orish mavsumida suv omboriga tabiiy ravishda o'rtacha 9,4 mlrd. m^3 suv kelgan bo'lsa, suv omboridan bor-yo'g'i, 5,3 mlrd.m^3 suv chiqarilgan.

Suv resurslardan samarli foydalanishda tejamkor texnalogiyalarni qo'llash orqali qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirish imkoniyatlari judayam keng. Tomchilatib hamda yomg'irlatib sug'orishni lalmi yerlarda joriy etish orqali intensiv bog'lar va chorvachilikni tashkil etish, ozuqa bazasini yaratish lozim. Bu aholini oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirishga ham xizmat qiladi. Respublikamizda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning 2016-yilgacha bo'lgan ko'satkichlar asosida ko'rishimiz ham mumkin [6].

Bundan tashqari fermer xo'jaliklar va dehqon xo'jalilarining qishloq xo'jaligida tutgan o'rni hamda suv resurslaridan foydalanish muammolari mahsulot yetishtirishdagi ahamiyatida ham ko'rishimiz mumkin [7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi vaqtda yuz berayotgan suv muammosini qo'yidagi uchta yo'l bilan hal qilish mumkin:

Birinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari va Birlashgan Millatlar Tashkiloti birgalikda transchegaraviy suv resurslardan foydalanish bo'yicha konvensiya qabul qilinishi kerak. Daryo suvini to'la tartibga solish kerak. Daryo suvi suv omborlari qurish yo'li bilan tartibga solinadi. Suv omborlari qurish ko'p maqsadlarni ko'zlaydi. Bu qurilish suv ta'minotini yo'lga qo'yishi daryolar suvini tartibga solishi, energiya resurslaridan foydalanishni ta'minlashi, sug'orish va suv chiqarishni rivojlantirish, transport magistrallarini yaratilishi, baliq xo'jaligini rivojlantirish hamda suv toshqinlari oldini olish kerak.

Ikkinchidan, bu qurilish suv havzalari o'rtasida suvni qayta taqsimlash yo'li bilan suv resurslari haddan ziyod bo'lgan rayonlardan ularning anchagina qismini suv xo'jalik rayonlarga olib borish imkonini beradi. Suv resurslarini hudud bo'yicha qayta taqsimlash ishlari mamlakatimizda ko'p vaqtdan buyon o'tkazib kelinadi. Hozirgi vaqtda Amudaryo suvining bir qismi Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlariga yetkazib berilmoqda.

Uchinchidan, har bir havza ichida suvni tejab sarflashga qaratilgan suv xo'jaligi va tashkiliy-iqtisodiy tadbirlar amalga oshiriladi. Bu tadbirlarga suv xo'jaligi tizimlarini qayta tuzish, oqova suvlardan takroran foydalanish, yangi texnikani, suv xo'jaligi tashkilotlari bilan suv iste'molchilari o'rtasida bozor munosabatlarini joriy qilish kiradi.

To'rtichidan, suvga limit asosida haq to'lashni bozor mexanizmlarini qo'llagan holda amalga oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining 1-ilovasi "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi".
2. O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent shahri. –1993 y. –2 sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 21-iyuldagi "Suv resurslarini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi 320-sonli qarori.
4. Духовный В.А. Вода и глобализатsiя: пример центральной Азии. –Т.: 2006. –27 с
5. Duxovniy V. A., Sokolov V. Suv resuruslarini integratsiyalashgan holda boshqarish. –T.:2006. –35 b.
6. Мирзаев М.У. Оптимальное использование водных ресурсов и улучшение мелиоративного состояния земель в сельском хозяйстве Республики Узбекистан. –2017 г. –С. 295-296. –EDN: ZTKHRB
7. Мирзаев М.У. Анализ потенциала сельско хозяйственных производителей в Республике Узбекистан. –2017 г. –С. 1021-1024. EDN: ZTKLEF
8. www.agro.uz
9. www.stat.uz
10. http://www.cawater-info.net

TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich
TDAU “Biznesni boshqarish” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada respublikamizda turizmni rivojlantirish omillari va bu borada amalga oshirilayotgan natijalar to‘g‘risida ma’lumotlar yoritilgan. Undan tashqari turizmni rivojlantirish uchun infratuzilmani ahamiyati va turizm yo‘nalishidagi infratuzilma obyektlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, texnologiya, infratuzilma, integratsiya, globallashuv, shartnoma, islohot, transformatsiya, samaradorlik.

Abstract: This article contains information about the factors of tourism development in our republic and the results realized in connection with this. In addition, the importance of infrastructure for the development of tourism and infrastructure facilities in the direction of tourism was analyzed.

Key words: tourism, technology, infrastructure, integration, globalization, contract, reform, transformation, efficiency.

Аннотация: В данной статье содержится информатsiя о факторах развития туризма в нашей республике и реализованных в связи с этим результатах. Кроме того, проанализировано значение инфраструктуры для развития туризма и объектов инфраструктуры в направлении туризма.

Ключевые слова: туризм, технологии, инфраструктура, интеграция, глобализация, контракт, реформа, трансформация, эффективность.

KIRISH

Hozirgi kunda turizmning jahon xo‘jaligidagi hissasi yil sayin oshib, u muhim makroiqtisodiy tarmoqlar qatorida rivojlanmoqda. Mazkur soha dunyodagi ko‘pgina davlatlarning daromad manbai sifatida ularning milliy iqtisodiyotida asosiy o‘rin tutmoqda. Shu jihatdan, O‘zbekistonda mazkur tarmoqqa e’tiborni kuchaytirish muhim masalalardan biridir. Butunjahon turizm tashkilotining (UNWTO) prognozi bo‘yicha turizm industriyasida 2020-yilgacha halqaro turizmda o‘sish tendensiyasi saqlanib qolinadi. Binobarin, Barqaror o‘sish dinamikasi Osiyo va Tinch okeani regionidagi bir qancha mamlakatlarda ijobiy rivojlanishi xalqaro ekspertlar tomonidan e’tirof etilmoqda. Bunga, o‘z navbatida, bugungi kundagi turizmga berilayotgan keng ko‘lamli investitsiyalar va turistik salohiyatning yuqoriligidir.

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan globalizatsiya jarayonlarining tezlashib borishi davlatlardan turizm tarmog‘ini rivojlantirish orqali muhim masalalarni yechish imkoniyatini yaratishni taqozo etmoqda. Shu jumladan, respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri turizm sohasini rivojlantirish eng dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rishimiz lozim. Bizda turizm ko‘pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. O‘zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zarur manbalarga ega. Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan Vatanimiz qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sh. Omonov Turistik xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlarida asosiy e’tiborni turistik xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlariga va marketing tizimini rivojlantirish samaradorligiga e’tibor berilganligini ko‘rishimiz mumkin [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini tadqiqot jarayonida statistik taqqoslash va ilmiy amaliy jihatlari tahlil etilib bu jarayon bo‘yicha tizimlashtirish imkoniyatlar kabi uslublardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy turistik tashkilot va korxonalar bugungi kunda yangi axborot tizimlari, kompyuter texnologiyalaridan foydalanuvchi texnika bilan ta’minlangan yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga ega. Hozirgi zamon turzm xizmatlarida mijoz sifatli xizmatlarni olishi zarur bu davr talabi bo‘lib qolmoqda. Ushbu omillarni amalga oshirishda texnologiyalardan foydalanish hamda Respublikamizda infratuzilmani yaxshilash hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Buni rivojalangan davlatlar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Fransiyada 1960–1970-yillarda avtomobil yo‘llarning sifatini yaxshilashi turistlar sonini oshishiga olib kelgan [3]. Shuning uchun ham yo‘l va boshqa infratuzilma sohalarini yaxshilash turistlar oqimini oshishiga imkonyat yaratadi.


1-jadval: Respublikamizda 2021-yilda turizm infratuzilmasini rivojlantirish ko‘rsatkichlari

№	Turizm infratuzilmas obyektlari	birlik	soni
1	WiFi	birlik	3450
2	Turistik yo‘l ko‘rsatkichlar	birlik	1747
3	Axborot markazlari	birlik	115
	Jami	birlik	5312

Respublikamizda 2021-yilda turizm infratuzilmasi obyektlari soni WiFi 3450 birlikni tashkil etgan bo‘lsa axborot markazlari 115 birlikni tashki etgan albatta bu turdagi infratuzilma obyektlarni sonini oshrilishi turistlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga xizmat qiladi[1].

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarining tezlashib borishi davlatlardan turizm tarmog‘ini rivojlantirish orqali muhim masalalarni echish imkoniyatini yaratishni taqozo etmoqda [3].

Shu jumladan, respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri turizm sohasini rivojlantirish eng dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilandi. Ma’lumki, turizmning rivojlanishini infratuzilma, ya’ni boshqa sohalarning rivojlanishidan ayro holda tasavvur qilib bo‘lmaydi, jumladan, turizm obyektlari, joylashtirish muassasalari, umumiy ovqatlanish, transport xizmati va boshqa xizmat ko‘rsatish sohalariga bog‘liq. Shuning uchun ham Respublikamizda turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda bu boradagi ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida 2021-yilda ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi[2].




1-rasm: O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarning soni

1 https://uzbektourism.uz/
2 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.02.2021-yildagi 100-son

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ayni xo‘jalik yuritish yoki tadbirkorlikni amalga oshirilishi bo‘ladimi barcha jarayonlarda shafoflikni ta’minlash maqsadida e-auksion orqali xizmat ko‘rsatish maqsadida er maydonini ajratish yoki bino inshootlarni sotib olish aynan mana shu axborot tizimi orqali amalga oshirilishi xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.


Respublikamizda tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarni 2018–2022-yillar oralig‘ini tahlil etadigan bo‘lsak, 2018-yilda 5 346 219 kishi tashrif buyurgan bo‘lsa 2020-yida pandemiya sababli xorijiy sayyohlar soni keskin kamaydi hamda 1 504 126 kishi tashrif buyurdi, 2022-yilda esa bu ko‘rsatkich 5 232 780 kishini tashki etdi[3]. Aynan xorijdan tashrif buyuruvchi turistlar sonini oshishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni e’tiborga olishimiz maqsadga muvofiq. O‘zbekistonda eng dolzarb muammolardan biri turistik sohani qayta tashkil qilish, uning rentabelligini, birinchi navbatda, yuqori texnologiyali komplekslar va tegishli infrastrukturaga ega turistik markazlarni tashkil qilish evaziga oshirish hisoblanadi.



2-rasm: Respublikamizda 2018–2022-yilda kiruvchi, chiquvchi va ichki turizmning asosiy ko‘rsatkichlari

Iqtisoiy munosabatlarning transformatsiyalashuvi sharoitlarida turizmni rivojlantirishni boshqarish samaradorligini oshirishning muhim omili xo‘jalik yuritishning yangi shakllarini izlash hisoblanadi. Mamlakatimizdagi turistik xizmatlar bozorida hozirgi vaqtda asosan an’anaviy shakllar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ichki turizmni rivojlantirish, yoshlar, aholining kam ta’minlangan qatlamlari, urush va mehnat veteranlari o‘rtasida turistik-ekskursiya faoliyatini yaxshilash, taqdim etiladigan ijtimoiy qatlamlarning sifatini oshirish masalalari ham turizmni rivojlantiruvchi omillardan hisoblanadi shuning uchun ham 2021-yilda O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qilish xarajatlarining bir qismini qoplash bo‘yicha 52 nafar tadbirkorlarga 451,6 mln. so‘m miqdoridagi subsidiya mablag‘lari ajratildi. 2021-yilda turizm sohasidag barcha investitsiya loyihalari doirasida umumiy qiymati 6,9 trln.so‘m (shundan: tashabbuskor mablag‘lari 3,5 trln.so‘m, bank kreditlari – 737,5 mlrd.so‘m, xorijiy investitsiyalar – 238,7 mln. dollar, xorijiy kredit liniyalari – 15,6 mln.dollar.) bo‘lgan mablag‘lar o‘zlashtirilib, yil yakuniga qadar 490 ta loyiha amalga oshirilishi va 6 850 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishi rejalashtirilgan edi[4] barcha rejalashtirilgan ishlarni belgilangan reja sosida va o‘z vaqtida bajarilishi turizmni rivojlantirish strategiyasini belgilashda muhim vazifa sifatida xizmat qiladi. 2021-yil davomida mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 1 881 345 nafarga yetib, turistik xizmatlar eksporti 422,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo‘llab quvvatlash maqsadida 8 025,2 ming nafar mahalliy aholi shundan, ayollar daftariga kiritilgan 124,4 ming nafar ayollar sayohati tashkil etildi.



3-rasm: Respublikamizda 2022-yilda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari.

3 https://uzbektourism.uz/
4 https://uzbektourism.uz/

Hududlarda 133 ta yangi mehmonxona (xonalar soni 3 384 ta) va 210 ta xostel (xonalar soni 1 946 ta)lar faoliyati yo‘lga qo‘yilib, jami joylashtirish vositalari soni 1 442 ta ulardagi o‘rinlar soni 71 247 taga yetkazildi.

Aholini xizmat ko‘rsatish tizimga jalb qilinishi va oilaviy tadbirkolikni rivojlantirishi natijasida 1 096 ta oilaviy mehmon uy (xonalar soni 3 952 ta)lari tashkil qilinib, ularning umumiy soni 2 458 ta o‘rinlar soni 21 018 taga yetdi.

Turistlar uchun xizmat ko‘rsatuvchi 137 ta yangi turistik tashkilotlar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi natijasida ularning soni 1 483 taga yetkazildi. Barcha bajarilgan ishlarni tahlili va natijasi turizmni rivojlantirish orqali xizmat ko‘rsatish tizimida samarali faoliyat olib borish imkoniyatlariga qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro turistik bozorlarga integratsiyalashda quyidagi yo‘nalishlar samarali integratsion tadbirlarligini inobatga olib Respublikamizda turizmni rivojlantirish omillari bo‘yicha quyidagi xulosa rivojlantirish uchun ximat qiladi:

- Respublikamizda turistik tashkilotlarning xalqaro turistik tashkilotlariga a’zo bo‘lishi bilan birga xalqaro darajada faoliyatini amalga oshirilishi;
- Respublikamizda rivojlangan davlatlar turizm firmalari asosida turoperatorlar integratsion faoliyatni amalga oshirishi;
- Respublikamizda faoliyat olib borilaotgan turistik tashkilotlar bilan rivojlangan davlatlarda faoliyat olib borayotgan turistik tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlarni amalga oshirilishi;
- Turistlarga joylarni band qilish bo‘yicha elektron tizimni takomillashtirish;
- Transport xizmatlari infratuzilmasini yaxshilash hamda turistik mavsumida xizmat sonini oshirish.
- Transport tizimida yo‘ovchi tashish muammosini kamaytirish imkoniyatlarini ishlab chiqish mavsum davrida qo‘shimcha y o‘lovchi tashish xizmatlar sonini ko‘paytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.02.2021-yildagi 100-son.
2. Sh. Omonov Turistik xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlari; journal of marketing, business and management(jmbm)/sjif factor: 5.57.
3. Usmanov M.R. Turizm geografiyasi: o‘quv qo‘llanma. –Samarqand. –“SamDU”. –2020. –281 b.

Internet saytlari

1. https://uzbektourism.uz/
2. https://Stat.uz

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH METODOLOGIYASI



Meyliyeva Dilnoza Boboniyoz qizi
TDIU “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari bozorining hozirgi holati tahlil qilinib, oziq-ovqat mahsulotlari bozorining nazariy asoslari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat, mahsulotlar, bozor, korxonalar, oziq-ovqat sanoati, marketing, tovarlar va xizmatlar, metodologiya.

Abstract: This article analyzes the current state of the food market in our country and presents the theoretical basis of the food market.

Key words: food, products, market, enterprises, food industry, marketing, goods and services, methodology.

Аннотация: В данной статье анализируется современное состояние продовольственного рынка в нашей стране и представлены теоретические основы продовольственного рынка.

Ключевые слова: продукты питания, продукция, рынок, предприятия, пищевая промышленность, маркетинг, товары и услуги, методология. продукты питания, продукция, рынок, предприятия, пищевая промышленность, маркетинг, товары и услуги, методология.

KIRISH

Oziq-ovqat mahsulotlari bozori haqida gap ketganda Covid-19 Pandemiyasi, Rossiya va Ukraina o‘rtasidagi majorolar butun jahon miqyosida oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan tanqislikni keltirib chiqarganini ta’kidlamasdan iloj yo‘q.

Xorijlik olimlarning bashoratiga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmaslik muammosi yaqin kelajakda dunyoda birinchi raqamli dolzarb masalaga aylanishi mumkin. Birlashgan millatlar tashkilotining prognozida ta’kidlanishicha, ochlikdan tashqari, to‘xtovsiz o‘sib borayotgan odamlar soni iste’mol qilayotgan oziq-ovqat miqdori va sifatini pasaytirishga olib kelinmoqda, 2 mlrd. kishi yoki dunyo aholisining 25,9 foizi ochlikni boshdan kechirdi yoki 2019-yilda to‘yimli va yetarlicha oziq-ovqat olish imkoniga ega bo‘lmagan. Agar mamlakatlar zudlik bilan harakat qilmasak, bu vaziyat yomonlashishi mumkin va bu istiqbolda oziq-ovqat tanqisligining kuchayishiga olib keladi [1].

Aholini oziq-ovqat bilan ta’minlanganligining eng umumlashgan ko‘rsatkichi BMTning oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik tashkiloti (FAO) tavsiyasi bo‘yicha har bir kishi sutkalik ovqatlanish ratsionining kaloriya miqdori hisoblanadi. Hozirgi davrda oziq-ovqat mahsulotlarini o‘rtacha sutkalik iste’mol qilish darajasi Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 3390 kkal, AQSHda-3650 kkal, Lotin Amerikasida-2790 kkal, rivojlanayotgan Osiyoda-2650 kkalni tashkil etadi. Sutkalik ovqatlanish ratsioni O‘zbekistonda o‘rtacha 2700-2800 kkal. Sutkalik ovqatlanish kaloriyaliligi darajasini oshirish, birinchi navbatda, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va xalq farovonligini yuksaltirish bilan bog‘liqdir [2].

Jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasida oziq-ovqat sanoatini qishloq xo‘jaligisiz rivojlantirib bo‘lmaydi. Bu ikki tarmoq o‘rtasidagi aloqa vertikal integratsiya yoki agrosanoat integratsiyasi jarayoni bo‘lib, borgan sari chuqurlashib boradi. Go‘sht, sut, sabzavot va boshqa mahsulotlar iste’molchi dasturxoniga tushishdan oldin sanoatda ishlovdan o‘tadi.

O‘zbekiston Respublikasi zamonaviy oziq-ovqat sanoatiga ega bo‘lib, uning tarkibiga kiruvchi 3800 dan ortiq korxonalar mavjud bo‘lib, ushbu soha, asosan, mahalliy xom ashyoni qayta ishlashga asoslangan. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida 200 dan ortiq mahsulot turi tayyorlanadi [3].

Mamlakatimizda aholini yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, iste'mol tovarlarining ommaviy tarzda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-sentyabrdagi PQ-4821-son qarorining amaliyotga tatbiq etilishiga ko'maklashish hamda eksport-import faoliyati bilan shug'ullanuvchi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni mazkur qarorning ijrosini ta'minlashga kengroq jalb etish maqsadida O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasi tashkil etildi. Mazkur tashkilot zamonaviy oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasini to'laqonli mexanizatsiyalash hamda mahalliy miqyosda tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlarini chetga eksport qilishga ko'maklashadi. O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasi bugingi kunda 2500 dan ortiq korxonalarni qamrab oladi [4].

Iqtisodiy adabiyotlarda oziq-ovqat ishlab chiqarish sohasi bo'yicha turli xil qarashlarni ko'rish mumkin. Masalan, jahon oziq-ovqat tashkilotining e'tirofiga ko'ra, "Oziq-ovqat sanoatining o'rni va ahamiyati uning inson hayoti uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishi bilan izohlanadi. Inson hayoti va uning sivilizatsiyasi nuqtai-nazaridan barcha boshqa tarmoqlar unga xizmat ko'rsatishi va ikkinchi darajali bo'lishi kerak" [5].

BMT ning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan ta'kidlanishicha, "Oziq-ovqat sanoati milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bilan birga rivojlanadi. Mazkur tarmoqlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Oziq-ovqat sanoati rivojlanish darajasining ortishi qishloq xo'jaligi rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi, boshqa tomondan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ortishi ko'pgina tarmoqlar singari oziq-ovqat sanoati uchun ham qulay imkoniyatlari yaratadi va aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning asosi bo'lib xizmat qiladi" [6].

MAVZUNING O'RGANILGANLIK DARAJASI

Iqisodiy adabiyotlarda marketing tadqiqotlarini amalga oshirishga bag'ishlangan juda ko'p mualliflar ishlarini keltirib o'tishimiz mumkin. Xorijiy olimlardan F. Kotler, K. L. Keller, N. K. Malxotra, G. Cherchill, T. Braun va boshqalarning ishlanmalarini keltirishimiz mumkin.

Rossiyalik olimlardan G. L. Bagiyev, Ye. P. Golubkov, N. G. Kameneva, V. A. Popyakov, B. I. Gerasimov, N. N. Mozgov va boshqalarning ilmiy va uslubiy tadqiqotlarini misol tariqasida ko'rsatish mumkin. Ammo bolalar oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tadqiqotlarini amalga oshirish borasida kamdan kam ishlanmalarni ko'rish mumkin. Ushbu soha bo'yicha faqatgina Makarov T. N., Krasheninin P. F., Kudryavseva N. N., Lukin V. P ishlanmalarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Amerikalik marketolog olimlar F. Kotler va K. L. Keller o'zlarining "Marketing menejment" asarlarida ushbu konsepsiyani marketing o'zaro munosabatlari (hamkorlik munosabatlar) – kompaniyaning bozordagi mavjud bozor hamkorlari (xaridorlar, ta'minotchilar, distribyutorlar va boshqalar) bilan uzoq muddatli munosabatlarni o'rnatish maqsadida o'zaro hamkorlikda olib borilayotgan amaliyot tushuniladi" [7].

Albatta, ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadi mavjud ehtiyojlarni tezroq va to'laroq qondirish, imkoniyat doirasida barcha hamkorlarning manfaatini inobatga olish, bozordagi raqobatchilar faoliyatida xabardor bo'lib, raqobat muhitida ishlash imkoniyatini shakllantirish lozim. F. Kotler o'zining boshqa asarlarida ham B2C yoki B2B bozorida hamda boshqa shakldagi ish yuritishda o'ziga xos marketing tadqiqotlarini amalga oshirish masalalarini yoritib o'tgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Amerikalik iqtisodchi olimlar D. Konuey va E. Barberlar "har qanday sharoitda mamlakat aholisini oziq-ovqat iste'moli bilan ta'minlash uning faol turmush tarzini kafolatlaydi", deya e'tirof etishadi [8].

MDH davlatlarining olimlari fikri bo'yicha "Oziq-ovqat sanoati iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sanalib, ushbu tarmoqning rivojlanishi iqtisodiyotga katta imkoniyatlar yaratadi, qishloq xo'jaligi unumdorligi ortishini ta'minlaydi, qo'shimcha ish o'rinlari yaratadi, aholi turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi va iste'molchilar yashash sharoitining yaxshilanishi mazkur sohaning diversifikatsiyasi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi" [9].

O'zbekistonlik iqtisodchi olim A. Ortiqov "Oziq-ovqat sanoati asosan xom ashyoni qayta ishlashga asoslangan, uning korxonalarida go'sht va go'sht mahsulotlari, yog'-moy, sut va sut mahsulotlari, shakar, non va non mahsulotlari, makaron, meva-sabzavot konservalari, qandolat, choy qadoqlash, uzum va shampan vinosi, spirt, aroq, pivo, chanqoqbosar ichimliklar, tamaki, sovun va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan ko'plab sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda", deb e'tirof etadi [10].

Professor N. Maxmudovning fikricha, "Oziq-ovqat sanoatining ko'pgina tarmoqlari mamlakatning barcha iqtisodiy hududlarida, bir qator tarmoqlar esa muayyan hududlarda joylashadi. Bular qandolat, un-yorma, makaron mahsulotlari sanoatidir. Non va alkogolsiz ichimliklar sanoati har bir aholi punktida joylashtirilishi lozim. Oziq-ovqat sanoatini joylashtirish ko'proq iste'mol omiliga qarab amalga oshiriladi (bu mahsulotlar ham

barcha uchun va har doim zarur). Shuningdek, ularning transportda tashish imkoniyatlari, sifatining buzilmasligi ham inobatga olinadi" [11].

N. Ziyavitdinovaning qayd etishicha, "Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish aholining talabidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu esa xom ashyo bazasining mavjudligi, iqlim sharoiti, issiqlik, energiya, mehnat resurslari, geografik joylashuvi, bozor hajmi, qolaversa, aholining ehtiyoji, xarid qobiliyati bilan bog'liqdir" [12].

S. Turobjonovning e'tirof etishicha, "Oziq-ovqat sanoati korxonalari tarkibi jihatidan bir-biriga o'xshash bo'lib, ma'lum bir xom ashyodan turli mahsulotlar ishlab chiqaradi. Bu sanoat majmuiga tegishli jarayonlarni, tayyorlangan mahsulotlarning tarkibiy jihatdan bir-biriga o'xshashligini e'tiborga olib, oziq-ovqat sanoati tarkibiy qismining tuzilishini kichik tizimlarga bo'lib o'rganish zarur" [13].

Iqtisodiyot universitetining olimlaridan G'. Ibragimov fikri bo'yicha "Oziq-ovqat sanoati – iqtisodiyotning muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlaridan biri bo'lib, insonlar turmush kechirishi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bir qatorda ishlab chiqaruvchi sanoatning bir qismi sifatida aholini ish bilan ta'minlash va daromadlarini oshirishning manbayi hisoblanadi" [14].

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, inson salomatligi va umrining uzoq bo'lishining 70 % i uning ovqatlanish va hayot tarziga, 20 % i tibbiy xizmat holatiga va 10 % i uning hayotiy tug'ma ko'rsatkichlariga bog'liq. Qayd etilgan ushbu ma'lumotlar inson umrini uzaytirishda va salomatligining holatini yaxshilashda oziq-ovqat mahsulotlari va uni ishlab chiqaruvchi sanoatning ahamiyati yuqori ekanligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish imkonini taqdim etadi.

Xorijlik olimlarining bashoratiga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmaslik muammosi yaqin kelajakda dunyoda birinchi raqamli dolzarb masalaga aylanishi mumkin. BMTning prognozida ta'kidlanishicha, ochlikdan tashqari, to'xtovsiz o'sib borayotgan odamlar soni iste'mol qilayotgan oziq-ovqat miqdori va sifatini pasaytirishga olib kelmoqda. 2 mlrd. kishi yoki dunyo aholisining 25,9 % i ochlikni boshdan kechirib, 2019-yilda to'yimli va yetarlicha oziq-ovqat olish imkoniga ega bo'lmagan. Agar zudlik bilan harakat qilinmasa, bu vaziyat yomonlashishi mumkin va bu istiqbolda oziq-ovqat tanqisligining kuchayishiga olib keladi.

Axmadjon Soliyev va Abdumalik Usmonovlar o'zlarining "Marketing" o'quv qo'llanmasida "Marketing tadqiqotlar o'tkazish va segmentlashning asosiy maqsadi ana shu iste'molchilarning bozordagi xatti-harakatlarini chuqur o'rganib, ularning obrazini (modelini) yaratish va kelajakdagi ehtiyoj (talab)larini tasavvur qilishdan iborat" [15]. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining bir guruh olimlari (R. Alimov, J. Jalolov, I. Hotamov, T. Akramov) o'zlarining "Marketing boshqaruv" darsliklarida "Bozorni tadqiq qilish – marketing tadqiqotlarining ma'lum bir qismidir xolos. Faqat shartli ravishdagina ularni marketing tadqiqotlarining asosi" deb qabul qilish mumkin" deb aytib o'tganlar [16].

TAHLIL VA NATIJALAR

Eng achinarli holat shundan iboratki, hozirgi kunda bolalar oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganligi, ularning assortimenti va sifati, bu borada ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishi O'zbekistonda deyarli o'tkazilmagan. Ayniqsa bu soha bo'yicha marketing tadqiqotlari deyarli amalga oshirilmaganligi adabiyotlar tahlili hamda bozorimizdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlarining bir foiz miqdorida ishlab chiqarilayotgani shundan dalolat beradi.

Oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlaydi hamda iste'molchilar ehtiyojini hisobga olgan holda bozorni zarur hamda yuqori sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish uchun xizmat qiladi. Ammo ushbu vazifalarni hal etishda marketing tadqiqotlarining o'rniga alohida e'tibor qaratilishi ushbu dissertatsiyaning asosiy vazifalardan hisoblaniladi.

Tovarlar va xizmatlar marketingi-bozorda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni faollashtirish usullarini, tovarlarni ishlab chiqarish hamda sotuvchi amalga oshirish muammolarini kompleks, tizimi yechish usullarini, bozorda vujudga keladigan o'zgarishlarga tezda moslashish, iste'molchilarga tabaqali yondashish, raqobatbop yangi tovarlarni vujudga keltirish va ularni ishlab chiqarishni tashkil etish, bozor konyukturasini o'rganish va prognozlashtirish kabi masalalarni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygandir. Ushbu masalalar ichida marketing tadqiqotlarini amalga oshirish muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasida marketing haqidagi dastlabki tushunchalar o'tgan asrning oltmishinchi yillarning o'rtalarida paydo bo'lgan. U paytdagi ko'p qarashlar asosan tanqidiy nuqtayi nazardan bo'lib, bozor, bozor iqtisodiyoti tushunchalariga illatga qaragandek munosabat bildirilgan. Hayot shuni taqazo etdiki, agarda marketing muammolariga oldindan e'tibor berilganda, bozor munosabatlarini shakllanishi ancha yengillashar edi.

Haqiqatdan ham bozorni tadqiq qilish jarayonida:

- bozorga kiritilayotgan yoki unda mavjud bo'lgan mahsulotning mumkin bo'lgan sotish miqdori;
- tovarning iste'mol xususiyatlaridava boshqa tavsiflarining o'zgarish tendensiyasi;

- yoshi, jinsi, hududiy, ijtimoiy, oilasidagi kishilar soni, o‘zini tutishi, daromadi darajasi bo‘yicha iste’molchilar guruhi;
- assortimentni rejalashtirish, sotish va reklamani tashkil qilishda haridorlarning istagi;
- mahsulotning sotilishi miqdori, uning umumbozor sig‘imidagi ulushi (hududlar va segmentlar bo‘yicha ham);
- korxonaning raqobatdoshligi va uning bozordagi o‘rnini aniqlash.

Toshkent davlat iqtisodiyotining bir guruh olimlarining fikri bo‘yicha “Marketing tadqiqoti marketingning axborot-tahliliy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan har qanday tadqiqotchilik faoliyatidir” deb ta’kidlashgan [17].

Yuqoridagi tahlil qilingan marketing tadqiqotlarini ifodalovchi ta’riflaridan bizning o‘zimizning yondashuvimizni ishlab chiqdik. Marketing tadqiqotlari deganda joriy muammolarni o‘rgangan holda zaruriy qarorlar qabul qilish uchun marketing faoliyatini turli ko‘rinishlarini ifodalovchi ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil etish jarayoniga aytiladi.

Marketing tadqiqotlarini amalga oshirishdan oldin o‘zi asosiy muammo nimadan iboratligini, kim, qayerda, qanday va nima hisobidan ushbu muammoni hal etishni aniqlash lozim bo‘ladi. Bunga bo‘lgan ehtiyojni esa 1-rasmda ifodalaganmiz. Bunday ehtiyoj sotuv hajmini oshirish, bozorni kengaytirish, eksport hajmini oshirish, buning uchun raqobatbardosh mahsulot yetkazish va boshqalardan iborat. Masalan, eksport hajmida tugallangan jarayonni ifodalovchi tayyor mahsulotga ko‘proq e’tibor qaratish masalasi ko‘ndalang qo‘yilgan. Bular hammasi marketing tadqiqotlarini amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyojlardan iborat.



1-rasm: Marketing tadqiqotlarini o‘tkazishga ehtiyojlar [18]

Iste’molchilarning talabi, raqobatchilarning holati, hamkor va vositachilarning imkoniyati va boshqa holatlar bo‘yicha axborotlarni to‘plash usullari va manbalari xilma-xildir, qayta ishlash, uzatish va saqlash obyekti to‘plovchi ma’lumotlar- axborot bo‘lib hisoblanadi. Faqat boshqarish darajasida qarorlar qabul qilishda ishlatiladigan mahlumotlargina axborot hisoblanadi. Marketing tadqiqotlarini amalga oshirishning ham asosiy maqsadi ushbu ma’lumotlar asosida oqilona va samarali xulosalar chiqarishdan iboratdir.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tadqiq etilgan ishlar uchramadi. Vaholanki, sifatli marketing tadqiqotlarini olib bormagunga qadar undagi muammolarni samarali hal etib bo‘lmaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda har bir tarmoq yoki soha uchun o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda marketing tadqiqotlarini amalga oshirish ta’kidlab o‘tilgan.

Tadqiqotlarda mavjud bo‘lgan ilmiy ishlanmalarini tahlil qilganimizda bolalar oziq-ovqatlarini yetishtirishdagi va ularni sotuvini rag‘batlantirishdagi qarashlar, konsepsiya va strategiyalarni o‘rganib chiqishga hamda O‘zbekiston uchun maqbul bo‘lgan variantni tanlandi. Bizning fikrimizcha, ushbu soha uchun mijozga yo‘naltirilgan marketing konsepsiyasini qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Ammo, bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqish va uning sotuvini rag‘batlantirish tizimi hozirgi raqamlashtirish jarayonida tubdan o‘zgarib ketdi. Zamonaviy marketologlar nafaqat yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan muammolarni yechishi, balki iste’molchilarning xohish-istaklarini shakllanishiga ham alohida e’tibor qaratilishini, kerak bo‘lsa, iste’mol madaniyati tiklanishiga yordam ko‘rsatishi lozim. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari go‘daklar uchun (ya’ni 1 yoshgacha, 1 yoshdan 3 yoshgacha) undan katta bolalarga o‘ziga xos iste’mol talablari mavjuddir. Butun dunyodagi mavjud oziq-ovqat tanqisligini inobatga olgan holda respublikamizda ularni ishlab chiqarish tizimini maqsadli ravishda amalga oshirish ehtiyoji mavjuddir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ayvi biznes-maktabining (Kanada va Gonkong) professori Niradj Davar o‘zining “Ideal marketing: 98 % marketologlari nimani esdan chiqarishgan” monografiyasida iste’molchilar bilan o‘zaro hamkorlik atamasiga quyidagicha ta’rif berib o‘tgan: “Iste’molchilar bilan munosabat deganda xaridor sotuvchi, uning mahsuloti yoki sotuvchi haqidagi bozordagi mavjud ma’lumot bilan to‘qnashgan holatni tushuniladi” [19]. Uning fikri bo‘yicha agarda taklif o‘rinli bo‘lgan holda maqsadli auditoriya ko‘proq xarid qilishga yoki ko‘proq narx to‘lashga tayyor bo‘ladi.

Demak, haridorni doimiy mijozga aylantiraman desak, unda uning xohish-istagini o‘rganishdan tashqari, uni shakllantirish va xarid qilish jarayonlarini rag‘batlantirish tizimini yaratish muhim o‘rin egallaydi. Buni amalga oshirish borasida bolalar oziq-ovqat sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarda maqsadli ravishda marketing tadqiqotlarini amalga oshirishni, ya’ni kuzatuv, so‘rovnoma, eksperiment (tadrijiy) faoliyatni bajarishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. FAO, IFAD, UNICEF, WFP and WHO. 2020. The state of Food Security and Nutrition in the World 2020. Transforming food systems for affordable healthy diets. Rome, FAO. https://doi.org/10.4060/ca9692en
2. Turobjonov S.M va boshqalar. “O‘zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoati: qisqacha tarixi; rivojlanish istiqbollari; muammolari”. –T.: “Fan va texnologiya”, –2014, –410 b.
3. QOMUS INFO. Onlayn ensiklopediya
4. www.stat.uz.
5. FAO, IFAD, UNICEF, WFP and WHO. 2020. The state of Food Security and Nutrition in the World 2020. Transforming food systems for affordable healthy diets. Rome, FAO. https://doi.org/10.4060/ca9692en
6. BMT FAO tashkilotining barqaror oziq-ovqat ishlab chiqarishni oshirish bo‘yicha strategik ishlari http://www.fao.org
7. Ф.Котлер, К.Л.Келлер. Маркетинг менеджмент. 14-е издание.-Спб: –Питер, –2017. –38 ст.
8. Conway G., Barber E. After the Green Revolution. Sustainable Agriculture for Development-London. –1990-60 p.
9. В.И. Нечаева. Концепция развития пищевой и перерабатывающей промышленности Российской Федерации на период до 2020 года- Краснодар: Просвещение-Юг. –2011. –306.
10. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyuushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. –2004. –23-b.
11. Maxmudov N.M., Xomidov S.O. O‘zbekiston sanoati: rivojlanishi omillari, tendensiyasi va muammolari. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2017. –30 b.
12. Maxmudov N.M., Xomidov S.O. O‘zbekiston sanoati: rivojlanishi omillari, tendensiyasi va muammolari. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2017. –30 b.
13. Ziyavitdinov N.M. “Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirish” (Buxoro viloyati misolida) iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –Buxoro-2006 y. –12 b.
14. Turobjonov S.M va boshqalar. “O‘zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoati: qisqacha tarixi, rivojlanish istiqbollari, muammolari”- T.: “Fan va texnologiya”. –2014. –410 b.
15. A.Soliyev, A.Usmonov. “Marketing” O‘quv qo‘llanma. –Toshkent “O‘qituvchi” 1997. –42-b.
16. J.Jalolov, A.Fattaxov, I.Axmedov, I.Xotamov, G.Xodjamuratova, A.Azlarova, A.Shadmankulov, D.Jalolova, D.Qosimov. “Biznes marketingi”. Darslik. Toshkent “Iqtisod-Moliya”. –2007. –83 b.
17. Ergashxodjayeva Sh.Dj., Ikramov M.A., Adilova Z.Dj., Abduhalilova L.T., Nabiyeva N.M. Marketing tadqiqotlari/ O‘quv qo‘llanma. –T.: Standart. –2019. –9 b.
18. D Meyliyeva. Bringing children’s food products to the domestic market based on marketing strategy. Modernization Of Science And Its Influence On Global Processes I International Scientific and Theoretical Conference ISBN 978-1-68564-148-1. DOI 10.36074/scientia-05.11.2021
19. 19. Н.Давар. Идеальный маркетинг: О чем забыли 98 % маркетологов.-М.: Алэпика Паблишер. –2015. –Б.13-14



OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BUDJET MABLAG‘LARIDAN SAMARALI VA ANIQ FOYDALANISHNI TA’MINLASHGA QARATILGAN ENG MUHIM QAROR VA U HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Xayriddinov Shuxrat Botirovich
Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ta’lim (oliy ta’lim)da budjeti mablag‘lari hisobidan mablag‘ bilan ta’minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish. Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan xarajatlar katta qismining budjet mablag‘lari hisobidan ta’minlanayotganligi bu mablag‘larning sarflanishiga nisbatan alohida munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Qarorlarga muvofiq budjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash mexanizmini takomillashtirish. Budjet mablag‘larni oqilona taqsimlash.

Kalit so‘zlar: budjet mablag‘lari, ta’lim tizimini moliyalashtirishga, davlat budjeti, budjet xarajatlari, mexanizmini takomillashtirish, budjet to‘g‘risida qabul qilingan qarorlar.

Abstract: This article examines the deepening of economic reforms in sectors financed from the education budget (higher education). The fact that most of the expenses necessary for the activities of higher educational institutions are covered from budget funds requires the formation of special relations regarding the expenditure of these funds. In accordance with the decisions, it is planned to finance the expenses of budgetary organizations, deepen economic reforms, and improve the mechanism for providing budgetary organizations with funds. Reasonable allocation of budget funds.

Key words: budget funds, financing of the education system, state budget, budget expenditures, improvement of the mechanism, decisions made on the budget.

Аннотация: В данной статье рассматривается углубление экономических реформ в отраслях, финансируемых за счет средств бюджета образования (высшего образования). Тот факт, что большая часть расходов, необходимых для осуществления деятельности высших учебных заведений, покрывается за счет бюджетных средств, требует формирования особых отношений по поводу расходования этих средств. В соответствии с решениями предусмотрено финансирование расходов бюджетных организаций, углубление экономических реформ, совершенствование механизма обеспечения бюджетных организаций средствами. Разумное распределение бюджетных средств.

Ключевые слова: бюджетные средства, финансирование системы образования, государственный бюджет, бюджетные расходы, совершенствование механизма, решения, принимаемые по бюджету.

Bundan qariyb chorak asr muqaddam O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan mablag‘ bilan ta’minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash mexanizmini takomillashtirish, budjet mablag‘laridan samarali va aniq foydalanish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi “Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 414-sonli qarori qabul qilingan edi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan ana shu qaror barcha budjet tashkilotlari, jumladan, oliy ta’lim tashkilotlari xarajatlarining guruhlanishi va ularni moliyalashtirish tartibi belgilab berishda hamon muhim rol o‘ynab kelmoqda.

Uning bu qadar hayotchanu ekanligini his qilish uchun, bizning fikrimizcha, mazkur qaror orqali nimalar maqsad qilinganligiga e’tibor berish maqsadga muvofiq. Masalaga ana shu nuqtaqi-nazardan yondashar ekanmiz, yuqorida ta’kidlangan qarorda:

a) budjet mablag‘laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda budjet va smeta-shtat intizomini mustahkamlash uchun budjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas’uliyatini oshirish;

b) budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash mexanizmini soddalashtirish va budjet mablag‘laridan foydalanishda yuqori natijalarga erishish maqsadida mavjud mablag‘larni oqilona taqsimlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

d) budjet tashkilotlari xodimlari mehnatini rag‘batlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarning o‘rnashib qolishi uchun shart-sharoitlar[1] yaratishlar birinchi navbatda ko‘zda tutilganligini aniqlashimiz mumkin.

Shuningdek, mazkur qarorga muvofiq budjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish tartibi:

a) ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar (bolali oilalarga nafaqalar va kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam, stipendiyalar va boshqalar);

b) ish haqiga qo‘shimchalar;

d) kapital qo‘yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan aniq ro‘yxatlarga muvofiq);

e) boshqa xarajatlar kabi guruh xarajatlari bo‘yicha amalga oshirilish tarzida belgilangan.

Buning ustiga, xarajatlarning I va II guruhlariga kiritilgan budjet tashkilotlari birinchi navbatda xarajatlarini moliyalashtirilishi ko‘zda tutilgan. Bunda II xarajatlarning guruhiga tegishli mablag‘ o‘tkazmasdan I guruh xarajatlarini amalga oshirish taqiqlangan (ish haqi uchun olinadigan avanslar bundan mustasno). Biroq yagona g‘azna hisob raqamida, shuningdek, budjet tizimi budjetlarining darajalari bo‘yicha tegishli g‘azna hisobvarag‘ida birinchi va ikkinchi guruhlar bo‘yicha to‘lanmagan xarajatlar summasidan ortiq mablag‘lar mavjud bo‘lganda ortiqcha summa miqdorida uchinchi va to‘rtinchi guruhlar bo‘yicha xarajat qilishga ruxsat etiladi.

Smeta xarajatlarining III guruhi budjet tashkilotlari tomonidan Respublika investitsiya dasturida moliya yili uchun belgilangan limitlar asosida mablag‘ bilan ta’minlanadi. “Boshqa xarajatlar”, deb nomlanuvchi IV guruh xarajatlari bo‘yicha esa mablag‘lar belgilangan limitlar doirasida:

a) ovqatlantirish;

b) dori-darmonlar;

d) kommunal xizmatlar;

e) boshqa xarajatlar kabi navbatga rioya qilgan holda moliyalashtiriladi:

Qarorda budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash manbalarini:

a) faoliyat turi bo‘yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish hamda sotishdan;

b) vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va boshqa mol-mulkini ijaraga berishdan;

d) yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan homiylik yordami berilishidan qo‘shimcha daromadlar olish hisobiga kengaytirishga ruxsat etilgan.

Yuqoridagi manbalardan olingan daromadlar 2023-yilning 1-yanvariga qadar Davlat budjetiga undiriladigan soliqlar, Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar va davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalardan ozod qilingan hamda bo‘shab qolgan mablag‘lar moddiy-texnika va ijtimoiy bazasini mustahkamlashga, shuningdek, ularning xodimlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda moddiy rag‘batlantirishga maqsadli yo‘naltirilishi belgilangan.

Mazkur qarorning 5-bandiga muvofiq budjet tashkilotlari Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etishi mumkin va mazkur jamg‘arma mablag‘lari quyidagi manbalar hisobiga shakllantirilishi belgilangan:

a) hisobot choragining so‘nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo‘yicha tejalgan mablag‘lar (kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag‘lar bundan mustasno);

b) faoliyat ixtisosligi bo‘yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;

d) budjet tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag‘larning bir qismi;

e) belgilangan tartibda budjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag‘lar;

f) homiylikdan olingan mablag‘lar hisobidan shakllantiriladi[2].

1 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi “Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 414-sonli qarori

2 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi “Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 414-sonli qarori

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Mazkur jamg‘armaga yig‘ilgan mablag‘lar:

a) avvalo vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha nafaqalarni va mavjud kreditorlik qarzlarni to‘lashga;

b) budjet tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlariga;

d) ijtimoiy rivojlantirish va xodimlarni moddiy rag‘batlantirish tadbirlariga;

e) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlarga[3] kabi yo‘nalishlarga sarflanishi mumkin.

Mazkur qarorning 15-bandiga muvofiq tovar-moddiy boyliklarni sotishdan olingan mablag‘lar Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi bo‘yicha budjet tashkilotlarining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida jamlanadi va budjet tashkilotlari tomonidan quyidagi tartibda taqsimlanadi: 50 foizi – budjet daromadiga; 50 foizi – Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi bo‘yicha budjet tashkilotlarining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida qoladi.

Tovar-moddiy boyliklarni sotishdan olingan budjet tashkilotlari ixtiyorida qoldiriladigan mablag‘lar ular tomonidan faoliyat sohasiga muvofiq moddiy-texnik bazani mustahkamlashga yo‘naltiriladi.

Budjet tashkilotida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha to‘lanmagan nafaqalar va kreditorlik qarz mavjud bo‘lmasa yoxud ushbu qarzlar mazkur Tartibda belgilangan doirada va shartlarda to‘langan taqdirda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha jami xarajatlarning o‘rni to‘ldirilgandan keyin Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasining qolgan mablag‘lari (homiylik yordami, beg‘araz yordam miqdori bundan mustasno):

a) tushgan barcha mablag‘larning kamida 75,0%i (O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi, sog‘liqni saqlash va suv xo‘jaligi budjet tashkilotlarida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi madaniyat markazlarida va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida hamda davlat teatrlarida kamida 50,0% i) moddiy-texnika bazani mustahkamlashga;

b) ko‘pi bilan 25,0% i esa (O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi sog‘liqni saqlash va suv xo‘jaligi budjet tashkilotlarida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi madaniyat markazlarida va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida hamda davlat teatrlarida kamida 50,0% dan ortiq bo‘lmagan miqdorda) budjet tashkilotlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag‘batlantirish tadbirlariga sarflanadi[4].

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi “Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 414-sonli qarori bekordan-bekorga bugungi kunga qadar budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlashda hal qiluvchi rollardan birini o‘ynab kelayotgani yo‘q. Qarorning har bir bandini tahlil qilarkanmiz, ular, eng avvalo, budjeti mablag‘lari hisobidan mablag‘ bilan ta’minlanadigan tarmoqlarda (Oliy ta’lim muassasalari ham shularning tarkibiga kiradi) iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash mexanizmini takomillashtirish, budjet mablag‘laridan samarali va aniq foydalanishga qaratilganligi bilan ahamiyatli ekanligini aniqlashimiz mumkin. Shuningdek, bu qarorning ahamiyati, bizning nazarimizda, budjet mablag‘laridan tejab-tergab, samarali va aniq foydalanish hamda budjet va smeta-shtat intizomini mustahkamlash uchun budjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas’uliyatini oshirishga qaratilganligi, budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash mexanizmini soddalashtirish va budjet mablag‘laridan foydalanishda yuqori natijalarga erishish maqsadida mavjud mablag‘larni oqilona taqsimlash uchun shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilganligi, budjet tashkilotlari xodimlari mehnatini rag‘batlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarning o‘rnashib qolishi uchun shart-sharoitlar yaratish mo‘ljallanganligi bilan ham belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi “Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 414-sonli qarori.
2. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik / Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: 2019. – 882 bet.
3. Malikov T., Xaydarov N. Byudjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisod-moliya. –2008. –25-30 b.yu
4. Xayriddinov, Sh. B. (2023). Oliy ta’lim muassasalarida budjet mablag‘laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari. Research Focus International Scientific Journal, 2(9), 65-68
5. Ботирович К.А. И Батирович К.Ш. (2022). Проблемы финансирования финансовой независимости местных бюджетов и пути их преодоления. Тематический журнал образования, 7(4).

3 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi “Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 414-sonli qarori

4 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi “Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 414-sonli qarorining 29-bandi.

SURXONDARYO VILOYATINING TURIZM SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

Ravshanov To‘yli Gulmurodovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan yanada takomillashtirish imkoniyatlari bayon etilgan. Maqolada viloyatning ziyorat turizmi imkoniyatlarini xorijiy mamlakatlarda targ‘ibot qilish orqali turistlar oqimi oshirish bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: turizm, ziyorat turizmi, turizm infratuzilmasi, turoperator, turagent, mehmonxona.

Abstract: This article describes the possibilities of further improvement of tourism potential of Surkhandarya region. The article describes increasing the flow of tourists by promoting the region’s pilgrimage tourism opportunities in foreign countries.

Key words: tourism, ziyarah tourism, tourism infrastructure, tour operator, travel agent, hotel.

Аннотация: В данной статье описаны возможности дальнейшего улучшения туристического потенциала Сурхандарьинской области. В статье описано увеличение потока туристов за счет популяризации возможностей региона в сфере паломнического туризма в зарубежных странах.

Ключевые слова: туризм, паломнический туризм, туристическая инфраструктура, туроператор, турагент, гостиница.

KIRISH

So‘ngi yillarda barcha hududlarda bo‘lgani singari Surxondaryo viloyatida ham turizm tarmog‘ini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda hududning noyob tarixiy-madaniy va me’moriy obidalari bilan turistlarni keng tanishtirish, zamonaviy turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va ko‘rsatilayotgan turizm xizmatlari sifatini takomillashtirish hamda ichki turizmni rivojlantirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, viloyatning turizm salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-maydagi “Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 332-son qaror qabul qilingan.

Ushbu qarorlarning qabul qilinishi hududning turistik imkoniyatlari yanada oshishiga, ziyorat turizm salohiyatidan samarali foydalanilgan holda sayyohlar sonining oshishiga, madaniy meros obyektlarini ta’mirlash va tiklash uchun respublika budjeti mablag‘lari ajratilishga hamda xorijiy mamlakatlarda viloyatning turistik salohiyatini chet eldagi elchixonalarimiz orqali targ‘ibot qilishga turtki bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, 2023-yil 17-noyabrida Prezidentingiz raisligida o‘tkazilgan “Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan yig‘ilish”da ham viloyatda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida “Samarqand–Kitob–Denov–Oltinsoy–Termiz” marshruti bo‘ylab “Naqshbandiya pirlari” turizm halqasi” va kelgusi yilda viloyatga sayyohlar oqimini 3 barobar oshirish” vazifalarni belgiladilar[1].

1 https://kun.uz/uz/35772674

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish, ichki va ziyorat turizmini tashkil etish, hududda arxeologik, ekstremal va madaniy turizm yo‘nalishlarini yanada rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarning ilmiy asoslari Eshtayev A. A., Tuxliyev I. S., Aliyeva M. T., Xudoyorov A., Safarov B. Sh., Norchayev A. A., Safayeva S. R., Mazin K. A., Maxmudova M. R., asarlarida tadqiq etilgan[2].

Bundan tashqari, A.S. Abduxamidovning “Pandemiyadan so‘ng turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollari” maqolasida pandemiyadan so‘ng viloyatning turizm salohiyatini rivojlantirishda “Qirq qiz saroyi”, “Hakim at Termiziy” arxitektura yodgorligi, “Sulton-Saodat” majmuasi, Termiz hukmdorlari saroyi, “Qoratepa” ibodatxonasi va “Fayoztepa” ibodatxonasi kabi arxelogik va turizm obyektlarini xorijiy mamlakatlarda targ‘ibot qilish lozimligini ta’kidlagan[3].

I. Uzmanovning “O‘zbekistonda turizm rivojlanishining asosiy omil va yo‘nalishlari Surxondaryo misolida” nomli maqolisida esa Boysun, Sariosiyo, Sherobod va Oltinsoy tumanlaridagi so‘lim tabiat va tog‘ yon bag‘irlarida joylashganligini inobatga olgan holda ushbu hududlarda agro, ekstremal va gastronomik turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqligi ma’lum qilingan[4].

Shu bilan birga, F. Islomovning “Surxon vohasining turizm salohiyatiga bir nazar” nomli maqolasida Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan Surxon vohasi Zarautsoy, Kampirtepa, Jarqo‘ton, Sopollitepa, Dalvarzintepa kabi qadimiy obidalar, Boysuntog‘ tizmasidagi ajib tilsimli G‘ur-g‘urtepa g‘ori, Sangardakning mo‘jizaviy sharsharasi, Xo‘jamayxona, Omonxona shifobaxsh buloqlari va boshqa ko‘plab moddiy va nomoddiy boyliklari bilan hamisha sayyohlar ekanligiga e’tibor qaratgan[5].

P. Z. Xashimov va Z. N. Turayevlarning “Surxondaryo viloyatida turizm sohasining rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari” maqolasida Viloyatning o‘ziga xos me’morchilik obyektlari, diniy ziyoratgohlari, jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan milliy urf-odatlari, oshxonasi hamda tog‘oldi hududlaridagi ko‘plab dam olish maskanlari, bolalar oromgohlari, davolash-sog‘lomlashtirish maskanlarining mavjudligi va turistik-rekreatsion faoliyatni rivojlantirishdagi ulkan salohiyatdan unumli foydalanishda tashkiliy iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish, asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ijtimoiy va transport infratuzilmalarini barpo etish lozimligi bayon qilingan[6].

Yuqorida ko‘rsatilib o‘tilgan olimlarning fikr va mulohazalari hamda hududning turistik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda Surxondaryo viloyatiga turistlarni yanada jalb qilish, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish maqsadida, uning tusristik salohiyatini xorijiy malakatlarda targ‘ibot qilishi ishlarini yanada kuchaytirish, viloyatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritiladigan investitsiyalar oqimini oshirish, arxeologik hamda ekstremal turizm Sharqiy Osiyo va Yevropa mamlakatlarida targ‘ibot qilish tavsiya etilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishni belgilashda tadbirkorlik subyektlari tomonidan kiritilayotgan investitsiylar va ularga berilayotgan subsidiyalarni hisobga olish va shu orqali turizmning barqaror rivojlanishini tizim sifatida o‘rganish metodologiyasi qo‘llanilib, bu borada mutaxassislar fikrini o‘rgangan holda, kuzatish, qiyoslash, emperik tadqiqot, tizimli va qiyosiy tahlil hamda ekspert baholash kabi usullari orqali turizm sohasini tarkibiy qismlarining rivojlanishi yo‘nalishlarini belgilab berish usuli taklif etilgandir. Shuningdek, kelajakda viloyatda turizm tarmog‘ini rivojlanishi yo‘nalishlarining ustivor vazifalariga oid xulosalar qilingan va mintaqada turizmni takomillashtirishga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurayotgan turistlar sonining ortishi tabiiyki joylashtirish vositlariga bo‘lgan talabning ham ko‘payishiga turtki bo‘ladi. Xususan, 2022-yil davomida 142,3 ming nafar va 2023-yilning 10 oyi mobaynida 239,9 ming nafar xorijiy turistlar viloyatga tashrif buyurgan.

O‘z navbatida, viloyatda 2017-yilda joylashtirish vositalari jami 27 ta mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib joylashtirish vositalarining umumiy soni 227 tani tashkil etgan.

2 A.Xudoyorov “O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari” monografiyasi 2021-y. Toshkent
3 https://kelajakbunyodkori.uz/ jurnali. A.S. Abduxamidovning “Pandemiyadan so‘ng turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollari” maqolasi.
4 “Eurasian journal of academicresearch” jurnali. 2022-yil. dekabr
5 https://review.uz/oz/post/surxon-vohasining-turizm-salohiyatiga-bir-nazar
6 file:///C:/Users/tuyli.ravshanov/Downloads/surhondaryo-viloyatida-turizm-so-asini-rivozhlantirishning-asosiy-y-nalishlari.pdf

1-jadval: Surxondaryo viloyatida faoliyat olib borayotgan joylashtirish vositalari haqida ma'lumot[7]

№	Hudud nomi	Joylashtirish vositalari								
		mehmonxonalar			oilaviy mehmon uylari			sanatoriyalar va sog'lomlashtirish muassasalari		
		soni	xonalar soni	o'rinlar soni	soni	xonalar soni	o'rinlar soni	soni	xonalar soni	o'rinlar soni
1	Angor tumani							1		20
2	Boysun tumani	8	106	287	45	14	144	4		150
3	Jarqo'rg'on tumani							6		130
4	Muzrabot tumani							1		50
5	Oltinsoy tumani	1	10	18	1	3	10	2		230
6	Sariosiyo tumani	3	41	97	32	74	251	1		100
7	Termiz shahar	22	682	1101	27	84	251	15		520
8	Termiz tumani	4	147	238	7	17	58	9		380
9	Uzun tumani	2	35	72						
10	Sherobod tumani	4	54	117	5	16	47	6		155
11	Sho'rchi tumani	5		130	2	6	18	4		120
12	Qiziriq tumani							2		50
13	Qumqo'rg'on tumani	1	16	30				5		130
Jami		**50**	**1091**	**2090**	**119**	**214**	**779**	**56**	**0**	**2035**

Yuqorida keltirilib o'tilgan jadvaldan ham ko'rish mumkinki, joylashtirish vositalarining asosiy qismi Termiz shahri, Boysun, Termiz, Sherobod va Sariosiyo tumanlarida joylashgan.

Viloyatda ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish borasida ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Angor tumanidagi "Sayid Baraka" jome masjidi Sariosiyo tumanidagi "Abdullo ibn Abbos", "Imom Muxammad al Buxoriy" jome masjidi, Boysun tumanidagi "Abu Bakr Siddiq" jom'e masjidlari 10,0 mlrd.so'm mablag'lar hisobiga qurib foydalanishga topshirilgan.

Termiz shahridagi "Qirqqiz qal'asi" va Termiz tumanidagi "Zurmola" madaniy meros obyektlari restavratsiyasi uchun 3,7 mlrd. so'm respublika budjeti mablag'lari ajratilgan. Viloyatdagi madaniy meros obyektlari, ziyoratgohlar, dam olish maskanlari va boshqa 113 ta tashrif obyektlariga olib boruvchi yo'llarga jami 267 ta yo'l ko'rsatkichlari o'rnatilgan.

Turistlarning o'rtacha qolish kuni 2017-yilga nisbatan 2 barobarga ortib, 3 kunni tashkil qilmoqda. 2017-yilda viloyatga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 20 ming nafar va turistik xizmatlar eksporti 6 mln.dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 143,9 ming nafarga hamda turistik xizmatlar eksporti 15 mln. dollarga yetkazildi.

7 Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan ishlab chiqildi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



1-rasm: Surxondaryo viloyatiga eng ko‘p tashrif buyurayotgan mamlakatlar[8]

Yuqoridagi jadvaldan ham ko‘rish mumkinki, viloyatga 2022-yilda eng ko‘p Tojikistondan 170,3 ming nafar, Afg‘onistondan 15,8 ming nafar, Rossiyadan 5,7 ming nafar, Turkiyadan 1,2 ming nafar, Qozog‘istondan 1,2 ming nafar, Janubiy Koreyadan 0,7 ming nafar hamda Germaniya va Xitoydan 0,5 ming nafar turistlar tashrif buyurgan.

Viloyatning Boysun tuman hududidagi 7 ta (“Inkabod”, “Dashtig‘oz”, “Mustaqillik”, “Tuzbozor”, “Bibishirin”, “Temir Darvoza” va “Sayrob”) mahallalariga maxsus soliq imtiyozlari joriy etilgan.

Buning natijasida ushbu mahallalarda 1 ta sog‘lomlashtirish markazi, 5 ta mehmonxona 5 ta hunarmandlar markazi, 1 ta turizm xizmat markazi, 59 ta ovqatlanish shoxobchasi, 13 ta transport xizmati, 25 ta ziyorat turizmi (arxeologiya yodgorliklari, diqqatga sazovor joy, arxitektura yodgorliklari) va 101 ta turizmga yondosh xizmatlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan va natijada 1,4 ming ta yangi ish o‘rinlari yaratilgan.

Viloyatda ziyorat va arxeologik turizm imkoniyatlari yuqori bo‘lgan sababli ushbu turizm yo‘nalishlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, “Dalvarzintepa” yodgorligida ochiq osmon muzeyini tashkil qilish, Boysunda dunyodagi eng chuqur g‘orlardan biri bo‘lgan “Boybuloq”, neandertal odam qoldig‘i topilgan “Teshiktosh” va “Machay” g‘orlari, ellin madaniyati yodgorligi bo‘lmish “Uzundara” qal’asida ham bunday muzey tashkil etish hamda Sherobod-dagi qadimgi odam yashagan “Xatak g‘ori” va “Zarautsoy” qoyatoshiga xorijiy olimlar ekspeditsiyasi yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmoqda.

Bundan tashqari, Sariosiyo aeroportida fuqaro aviatsiyasi faoliyatini tiklash, Sariosiyodan Samarqand va Toshkentga muntazam reyslarni yo‘lga qo‘yish, Termizdan Istanbul, Farg‘ona, Buxoro va Xorazmga reyslarni ko‘paytirilmoqda.

Shuningdek, “Termiz–Toshkent” yo‘nalishida turistik vagon qo‘yiladi, “Sariosiyo–Toshkent” yo‘nalishida poyezd qatnovi yo‘lga qo‘yilmoqda.

8 Turizm qo‘mitasi ma’lumotlariga asosan muallif tomonidan ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida berilgan ma'lumotlar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, Surxondaryo viloyatida turizm sohasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi ishlarni muntazam amalga oshirib borish lozim hisoblaniladi:

- viloyatda turizm sohasini yana qo'llab-quvvatlanishida asosiy e'tiborni sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirishga hamda sayyohlar oqimini rag'batlantirishga oid choralar ustuvor bo'lishini ta'minlash;
- viloyatga tashrif buyurayotgan turistlar tomonidan joylashtirish vositalari bo'lgan talab yuqori ekanligini inobatga olgan holda, tadbirkorlarga mehmonxona qurishga "yulduzi"dan qat'i nazar subsidiya berish;
- musulmon mamlakatlardan tashrif buyuradigan xorijiy turistlarning soni ortirish maqsadida, viloyatning ziyorat turizni imkoniyatlarini Turkiya, Malayziya, Indoneziya mamlakatlarida targ'ibot qilish;
- viloyatga ichki sayyohlar oqimini oshirish maqsadida avia va poyezd qatnovlari sonini ko'paytirish.

Xulosa qilib aytganda, viloyatning ziyorat va ichki turizm salohiyati yuqoriligini inobatga olgan holda ushbu yo'nalishlarni yanada rivojlantirishga ko'maklashish jihatidan qayta ko'rib chiqish va takomillashtirib borish, turizm infratuzilmasini shakllantirishga ustuvorlik berish hamda uning turistik imkoniyatlarini xorijiy mamlakatlarida targ'ibot qilib borish zarur hisoblaniladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-549-son. 2019-yil 18-iyul.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021-yil 9-fevral, PF-6165-son) Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-maydagi "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6002-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019. – 64 b.
5. A.Xudoyorov "O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari" monografiyasi 2021-y. Toshkent.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 100-son qarori.
7. Alieva M.T. Assessment of the development potential of the tourism industry in Uzbekistan. Xorijiy maqola Journal of Management Value & Ethics Jan.-March 19,Vol.9 No.1, India ISSN-2249-9512.
8. Safaeva S.R., Alieva M.T. Organizational and economic aspects of the development of the international tourism and hospitality industry of Environmental Management and Tourism,11(4), pp 913-919.2020.
9. www.uzbektourism.uz
10. www.kun.uz.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



INVESTITSIYALARNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI

Rizayeva Kumush Mexriddin qizi
Parkent tumani Iqtisodiyot va Moliya bo‘limi Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati haqida so‘z yuritilgan. Investitsiyalar – bu joriy davrda iste’mol qilinmagan va iqtisodiyotda kapital o‘sishini ta’minlovchi yalpi ichki mahsulotning bir qismi ekani tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: investitsiya, iqtisodiy, eksport, moliyaviy, mulk, kapital, tadbirkorlik, iqtisodiy samara, qiymat, yuridik shaxs.

Abstract: This article discusses the economic nature of investments. Investments are the part of gross domestic product that is not consumed in the current period and provides capital growth in the economy.

Key words: investment, economic, export, financial, property, capital, entrepreneurship, economic performance, value, legal entity.

Аннотация: В данной статье рассматривается экономическая природа инвестиций. Инвестиции – это часть валового внутреннего продукта, которая не потребляется в текущем периоде и обеспечивает рост капитала в экономике.

Ключевые слова: инвестиции, экономические, экспортные, финансовые, имущество, капитал, предпринимательство, экономические показатели, стоимость, юридическое лицо.

KIRISH

Bugungi kunda “Investitsiyalar” tushunchasining ma’nosini anglash, uning mohiyatini to‘g‘ri tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan investitsion faoliyatning yo‘lga qo‘yilishi hukumatimiz olib borayotgan oqilona investitsiya siyosatining natijalaridan biri ekanidan dalolat.

Investitsiya tushunchasi yagona va to‘liq belgi berish anchagina keng tushuncha bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiy fanning turli qismlarida va amaliy faoliyatning turli sohalarida investitsiya mazmuni o‘zining xususiyatlariga ega.

Makroiqtisodiyotda investitsiyalar ishlab chiqarishda yangi vositalarga, turar-joylarga investitsiyalar va moddiy zaxiralarining o‘sishiga qilinadigan harajatlardan tashkil topadigan yalpi harajatlarning bir qismi hisoblanadi. **Investitsiyalar** – bu joriy davrda iste’mol qilinmagan va iqtisodiyotda kapital o‘sishini ta’minlovchi YAIM ning bir qismidir.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasidagi iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish nomli uchinchi ustuvor yo‘nalishida soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish, investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga investitsiyalarni faol jalb qilish kabi muhim vazifalar belgilab berilgani, uning ijrosi har qachon dolzarbligini bildiradi [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyati to‘g‘risida iqtisodchi olimlar o‘rtasida turli fikrlar mavjud. Investitsiyalarga aniq bir ta’rif berilmagan. Jumladan, prof. D. G‘. G‘ozibekov investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini moliyaviy kategoriya sifatida talqin etib, quyidagicha ta’rif berib o‘tgan: “Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag‘lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko‘zlangan samarani olishdan iborat bo‘ladi” [2].

Prof. N. H. Haydarov investitsiyalar mazmun – mohiyatiga quyidagi ta’rifni beradi: “Investitsiya – bu mulk shaklidan qat’iy nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko‘rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning

iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o‘z boyliklarini qonun doirasida bo‘lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashidir” [3].

U Sharp investitsiyalarga quyidagicha ta’rif beradi: “Istiqbolda yanada ko‘proq miqdordagi mablag‘ olish uchun ma’lum miqdordagi pul bilan bugun ajralishdir. Real investitsiyalar asosan moddiy aktivlarga (yer, uskunalar, zavodlar) qilingan investitsiyalardir. Moliyaviy investitsiyalar bu qog‘ozda bitilgan shartnomalardir. Bularga oddiy aksiyalar va obligatsiyalar kiradi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotda investitsiyalarning asosiy qismi real investitsiyalarga tegishlidir. Rivojlangan iqtisodiyotda esa investitsiyalarning asosiy qismi moliyaviy investitsiyalash institutlarining keng miqyosida rivojlanishi real investitsiyalarning o‘sishiga sababchi bo‘ladi. Investitsiyalarning bu ikki shakli bir-biri bilan raqobatlashuvchi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchidir” [4].

Bizning kuzatishimizcha, investitsiyalar – muayyan qiymatni, bo‘lishi noaniqroq bo‘lgan kelajak qiymatga almashish sanaladi. Bu borada Lorens Dj. Gitman va Maykl D. Djonkning “Investitsiyalash asoslari” (M. “Delo” nashriyoti-1997) kitobida investitsiyalarga quyidagicha ta’rif beriladi: Investitsiya moliyaviy natijalar olishni ko‘zlab aksiya va obligatsiyalarni sotib olishni anglatadi: bular real aktivlarni belgilaydi, masalan, u yoki bu molni ishlab chiqarish va sotish uchun mashinalarni olishni nazarda tutadi. Umuman keng ma’noda investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotini o‘stirish va rivojlantirishni moliyalashtirish uchun zarur bo‘ladigan mexanizmlarni ta’minlaydi [5].

Ko‘pgina adabiyotlarda “investitsiya” terminida noaniqliklar uchraydi. Birinchidan, “investitsiyalar”ga fuqarolarning “iste’molchilik investitsiyalari” (maishiy texnika, avtomobil, ko‘chmas mulk va boshq) qo‘shib yuboriladi. Bunday investitsiyalar esa kapitalni o‘sishini va foyda olinishini ta’minlamaydi. Ikkinchidan, “investitsiyalar” va “kapital qo‘yilmalar” terminlarini tenglashtirishadi. Kapital qo‘yilmalar - korxonaning moliyaviy mablag‘larini asosiy kapitalga avanslashtirish bilan bog‘liq investitsiya faoliyatining shaklidir. Investitsiyalar esa nomoddiy va moliyaviy aktivlarga qo‘yilishi ham mumkin. Uchinchidan, ko‘pgina manbalarda investitsiyalarni pul mablag‘larini qo‘yish deb ta’riflanadi. Amaliyotda esa, barcha hollarda bunday bo‘lmaydi. Investitsiyalashni boshqa shakllarda ham amalga oshirish mumkin. Masalan, korxonaning ustav kapitaliga badal ko‘rinishida ko‘chib yuruvchi va ko‘chmas mulk, qimmatli qog‘ozlar, nomoddiy aktivlar va boshqalar. To‘rtinchidan, ko‘pgina ta’riflarda investitsiyalarni mablag‘larning uzoq muddatli qo‘yilmalar ko‘rinishida bo‘lishini ta’kidlashadi. To‘g‘ri, kapital qo‘yilmalar uzoq muddatga investitsiyalanadi. Lekin qisqa muddatli investitsiyalar ham bo‘ladi (masalan, montaj qilishga zarurat bo‘lmagan va qurilish smetasiga kirmagan mashina va uskunalarni sotib olish).

Investitsiyalarning o‘sish sur’atlari ko‘p omillarga bog‘liq. Avvalambor investitsiyalar hajmi olingan daromadni iste’mol va jamg‘armaga taqsimlanishiga bog‘liq. Aholini o‘rtacha daromadi past bo‘lgan holda ularning asosiy qismi (70-80%) iste’molga sarflanadi. Aholi daromadlarini o‘sib borishi jamg‘arishga yuboriladigan qismni ortib borishiga sabab bo‘ladi.

Umumiy daromadda jamg‘arish ulushining ortib borishi investitsiyalar hajmini o‘sishiga olib keladi, va aksincha. Ammo bu shart aholini davlatga ishonchi yuqori bo‘lganda, davlat fuqarolarning investitsion faolligini ta’minlaganda va kafolatlaganda bajariladi. Investitsiyalar hajmiga kutilayotgan daromad normasi ham ta’sir ko‘rsatadi, chunki ko‘rilayotgan foyda investitsiyalashga undaydi. Kutilayotgan foyda normasi qanchalik yuqori bo‘lsa, investitsiyalash hajmi shunchalik yuqori bo‘ladi, va aksincha.

TADQIQOT METODOLGIYASI

Asosiy kapitalga investitsiyalar kapital qo‘yilmalar shaklida amalga oshiriladi hamda o‘zida yangi qurilishga, kengaytirishga, rekonstruksiyaga va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni texnik qayta jixozlashga, uskunalar, inventarlar, loyihaviy mahsulotlar sotib olishga sarf-xarajatlarni mujassamlashtiradi. Iqtisodiy fanlar va amaliyot “investitsiya” va “kapital qo‘yilma” terminlarini bir xil narsa emasligini, ya’ni sinonim so‘zlar emasligini ta’kidlaydi. Investitsiyalar kapital qo‘yilmaga nisbatan keng mazmunli, qamrovli tushunchadir. G‘arb adabiyotlarida investitsiyalar borasida so‘z yuritilganda asosiy e’tibor fond bozoriga qaratiladi, chunki rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalar asosan qimmatli qog‘ozlar yordamida amalga oshiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ishlab chiqarish nazariyasi va umuman makroiqtisodiyotda investitsiyalar yangi kapitalni (ishlab chiqarish vositalarini hamda inson kapitalini qo‘shib hisoblanganda) yaratish jarayonidir. Moliya nazariyasida esa investitsiya deganda real yoki moliyaviy aktivlarni olishni tushuniladi, ya’ni bugungi sarflarni maqsadi kelajakda daromad olish bo‘lib hisoblanadi.

Investitsiyalar hajmiga ssuda foizi stavkasi katta ta’sir ko‘rsatadi, chunki investitsiyalash jarayonida qarzga olingan mablag‘laridan ham foydalaniladi. Agar kutilayotgan sof foyda normasi o‘rtacha ssuda foizi stavkasidan yuqori bo‘lsa, bu qo‘yilmalar investor uchun daromadlidir. Shuning uchun o‘rtacha foiz stavkasini o‘sishi investitsiyalash jarayonini susayishiga olib keladi. Investitsiyalar hajmiga kutilayotgan inflyatsiya sur’atlari ham o‘z

ta'sirini o'tkazadi. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa investorning kelajakdagi foydasi shunchalik qadrsizlanadi va investitsiyalarni rag'batlantiruvchi omillar qisqarib boradi.

Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtiriladi.


Birinchidan, qo'yilish obyektiga qarab investitsiyalar real va moliyaviy shakllarga ajratiladi. Real investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) – pul mablag'larini korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga sarflanishidan iborat.

Moddiy investitsiyalar asosiy kapitalning elementlarini sotib olish bilan bog'liq bo'lib, ko'pchilik hollarda investitsion loyihalar doirasida amalga oshiriladi. Shuning uchun o'z mablag'lari bilan birga qarzga olingan mablag'lar ham foydalanilishi mumkin. Qarzga mablag' olingan holda investor rolini aniq loyihalarga kredit mablag'lari ajratayotgan bank bajaradi.

Nomoddiy (potensial) investitsiyalar nomoddiy boyliklar yaratilayotganda amalga oshirilib, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini (NIOKR) amalga oshirish, yangi mahsulotlarning namunalarini yaratishga sarflarni mujassamlashtiradi.

Fan-texnika taraqqiyotini tezlashuvi bilan intellektual salohiyat ishlab chiqarishni eng kuchli omiliga aylandi, uning jiddiy unsuri bo'lib qoldi. XX asr boshlarida fan ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish uchun sarflanadigan qo'yilmalar oshib boradi. Shuning uchun ham jahonda real investitsiyalar tarkibida ilmiy izlanishlar, fan, ta'lim, kadrlar tayyorlash uchun sarflanadigan harajatlar o'sib bormoqda. Masalan, AQSH, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda fan va ilmiy izlanishga sarflanadigan qo'yilmalar o'sish sur'atlari asosiy fondlarga sarflanadigan investitsiyalardan ustundir. Jahon bozoriga kirib borish, keng ko'lamda marketingni rivojlantirish, batafsil axborotga ega bo'lish, yuqori darajadagi kompyuter tizimlarini tashkil etishni, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va mazkur sohada dunyodagi rivojlangan davlatlar darajasiga erishishni talab etadi. Shuning uchun ham jadal sur'atlar bilan rivojlanish real investitsiyalar tarkibida fan, texnika, ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash uchun sarflanadigan real investitsiyalar asosiy o'rinlardan birini egallashi zarur.

Investitsiya jarayoni – pul taklif qiluvchilar (vaqtincha bo'sh mablag'larga ega bo'lganlar) ni pul talab qilayotganlar (ularga ehtiyoj sezayotganlar) bilan uchrashtirish mexanizmidir. Ikkala tomon odatda moliyaviy institutlarda yoki moliyaviy bozorda uchrashadilar. Ayrim vaqtda, xususan mulkiy qiymatlar (masalan, ko'chmas mulk) bilan bitim imzolanganda sotuvchi va haridorlar bevosita muomalaga kirishadilar. Moliyaviy institutlar – masalan, banklar va ssuda omonat assotsiatsiyalari – odatda omonatlarni qabul qiladilar va keyin pulni kreditga beradilar yoki boshqa pul bilan mablag'larni investitsiyalaydilar. Moliyaviy bozorlar – moliyaviy resurslarni taklif qiluvchilarni va ularga ehtiyoj sezayotganlar odatda fond birjalariga o'xshash vositachilar yordamida bitim tuzish uchun birlashtirish mexanizmidir. Aksiyalar bozori, obligatsiyalar bozori, auksionlar bozori kabi moliyaviy bozorlarning qator turlari bor. Ularni umumiy xususiyati moliyaviy vositani bahosi turli holatlarda talab va taklifni muvozanat nuqtasini topishlikdadir. Daromadlilik, tavakkalchilik, inflyatsiyalar, dunyodagi turli vaziyatlar haqida yangi axborotlarni e'lon qilinishi tufayli talab va taklif nisbatining o'zgarishi yangi muvozanatni yoki yangi bozor bahosini o'rnatilishiga olib keladi.



1-chizma: Investitsiyalash jarayoni

1-chizmada investitsiya jarayonini aks ettiruvchilar keltirilgan. Chizmadan ko'rinishicha pul resurslarini taklif qilayotgan shaxslar unga ehtiyoj sezayotganlarga moliyaviy institutlar, moliyaviy bozorlar orqali yoki to'g'ridan

- dividendlar to‘lash va miqdori to‘g‘risida qaror faqat kompaniyaning real moliyaviy holatidan kelib chiqqan holda rivojlanish rejalari va investitsiya dasturlarini hisobga olgan holda ijobiy moliyaviy natijaga erishgan taqdirdagina qabul qilinishi mumkinligini nazarda tutadigan adolatlilik tamoyili;

- adolatlilik tamoyili, dividendlarni to‘lash, miqdori va to‘lash tartibi to‘g‘risida qabul qilingan qarorlar to‘g‘risida ma’lumot olishda Aksiyadorlarning teng huquqlarini ta’minlashni nazarda tutadi;
- dividend siyosatining tartib va tamoyillarini qat’iy amalga oshirishni nazarda tutuvchi izchillik tamoyili;
- korporativ boshqaruv tartib-qoidalarini takomillashtirish doirasida dividend siyosatini doimiy ravishda takomillashtirish va kompaniyaning strategik maqsadlaridagi o‘zgarishlar munosabati bilan uning qoidalarini qayta ko‘rib chiqishni nazarda tutuvchi rivojlanish tamoyili;
- barqarorlik tamoyili kompaniyaning dividendlar to‘lashning barqaror darajasini ta’minlash istagini bildiradi.

Dividend siyosatining asosiy turlari va dividendlarni to‘lash usullari quyida keltirilgan.

1-jadval: Dividend siyosatining asosiy turlari va dividendlarni to‘lash usullari

№	Dividend siyosatining turlari	Dividendlarni to‘lash usullari
1	Agressiv siyosat	A. Foydani doimiy foizda taqsimlash usuli
		B. Dividend to‘lovlarining doimiy o‘sishi metodologiyasi
2	Mo‘tadil siyosat	Kafolatlangan minimal va qo‘shimcha dividendlarni to‘lash metodikasi
3	Konservativ siyosat	A. Qoldiq dividendlar metodologiyasi
		B. Belgilangan to‘lov metodologiyasi

Jadvaldagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, dividend siyosatining asosiy turlari agressiv, mo‘tadil va konservativdir. Ushbu turdagi siyosatda dividendlarni to‘lashning o‘ziga xos turlari mavjud. Keling, batafsil ko‘rib chiqaylik.

Agressiv siyosat foydani doimiy foiz taqsimlash usuliga ega. Ushbu texnikaning mohiyati Dividend rentabelligi = const. Oddiy aksiyalar bo‘yicha dividendlarni to‘lashga yo‘naltirilgan uzoq vaqt davomida sof daromadning barqaror foizini nazarda tutadi. Aksiyaning bozor narxining o‘sishiga hissa qo‘shmaydi, chunki olingan dividendlar miqdorida tebranishlar bo‘lishi mumkin. Ammo bu bir oddiy aksiyaga to‘g‘ri keladigan daromad biroz o‘zgarib turadigan barqaror ishlaydigan tarmoqlar uchun qulaydir.

Ikkinchi usul dividend to‘lovlarining doimiy o‘sishi, deb ataladi. Dividend ishlab chiqarish ko‘rsatkichining rejalashtirilgan darajasida 1 ta aksiyaga dividendni oshirish. Bu aksiyalarning yuqori bozor qiymatini ta’minlash va potenstial investorlar o‘rtasida ijobiy imidjni shakllantirish bilan birga, har bir aksiya uchun dividendlarning barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

Mo‘tadil siyosat kafolatlangan minimal va ekstradividendlarni to‘lash usulidan foydalanadi. Bir aksiya uchun dividend = const, muntazam dividendlar uchun mukofot. U quyidagi tamoyillarga asoslanadi: har bir aksiya uchun belgilangan miqdorda dividendlarni doimiy, muntazam to‘lash; eng muvaffaqiyatli ish davrida — belgilangan dividendlarga qo‘shimcha ravishda navbatdan tashqari dividend to‘lash. Bu eng muvozanatli usul, chunki dividendlarni to‘lash barqarorligini ta’minlaydi va iqtisodiy o‘sish davrida ularning qiymatini oshirishga imkon beradi va shu bilan aksiyadorlarni rag‘batlantiradi. Aksiyalarning bozor qiymatidagi tebranishlarni yumshatishga yordam beradi.

Kompaniyaning dividendlarni to‘lash amaliyotini baholashda dividendlar qachon to‘lanishi va ular e’lon qilinganda kompaniyalar dividendlar to‘lash bo‘yicha o‘z majburiyatlarini qanchalik to‘g‘ri bajarishini hisobga oladi.

Ekstradividend — bu belgilangan stavkaning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lmagan, muntazam dividendlar to‘lashdan ortiqcha hisoblangan mukofot. Ushbu to‘lov bir martalik. Uning roli aksiyalarning barqaror bozor qiymatini saqlash, AJ faoliyati va rivojlanish istiqbollari haqida ijobiy ma’lumotlarni yaratishdan iborat.

Konservativ siyosatda dividendlarni to‘lashning quyidagi turlari mavjud:

1. **Dividendning qoldiq usuli.** Ushbu texnikaning mohiyati quyidagilardan iborat: Yilda dividend to‘lovlari t = Sof foyda — Investistiya dasturlarini moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan taqsimlanmagan foyda. U investistiya faolligining kuchayishi davrida, korporastiya hayotiy stiklining dastlabki bosqichlarida qo‘llaniladi. Bu dividendlarni to‘lash samarali investistiya loyihalari moliyalashtirilgandan so‘ng amalga oshirilishini nazarda tutadi. Agar loyihaning ichki daromadlilik darajasi WACC dan yoki moliyaviy rentabellik darajasidan yuqori bo‘lsa, uni qo‘llash tavsiya etiladi. Ushbu texnikani qo‘llash Aksiyadorlik jamiyatining yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlaydi, uning bozor qiymatini oshiradi.

   Ushbu texnikaning kamchiliklari dividendlarni to‘lashning keng doirasi, dividendlarni to‘lashning tartibsizligi va aksiyalarning bozor narxining pastligidir.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2. **Belgilangan to‘lovlar usuli.** Bir aksiya uchun dividend = const. Aksiya bahosi dinamikasidan qat’i nazar, uzoq vaqt davomida 1 ta oddiy aksiya bo‘yicha dividendlar to‘lashning muntazamligini ta’minlaydi. Odatda, turli moliyaviy institutlarning investistiyalariga tayangan holda, past darajadagi xavfga ega korporastiyalar tomonidan qo‘llaniladi.

Afzalliklari aksiya bahosidagi tebranishlarni yumshatish, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi barqaror kotirovka, aksiyalarning yuqori likvidligi, Aksiyadorlar tomonidan joriy doimiy daromad olish va AJning barqaror bozor qiymati.

Ushbu texnikaning kamchiliklari — korporastiyaning moliyaviy ko‘rsatkichlari bilan keng zaif bog‘liqlik, foyda keskin kamaygan taqdirda likvidlikning sezilarli darajada yomonlashishi ehtimoli.

Aksiyadorlik jamiyati dividendlarni e’lon qilish va to‘lash, shuningdek dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga xaqli emas, agar:

- ustav kapitali to‘liq to‘lanmagan;
- aksiyadorlik jamiyatining sof aktivlarining qiymati uning ustav fondi va zaxira fondlari miqdoridan kam bo‘lsa yoki dividendlar to‘lash natijasida ularning miqdoridan kam bo‘ladi.

Sarmoya kiritgan korxona aksiyadorlari moliyaviy resurslarining harakatlarida, bir tomondan, oqilona manfaatdor dividend siyosati qoniqarli miqdorda dividendlar olish uchun, boshqa tomondan, maqsadga muvofiqdir, ishlab chiqarishni rivojlantirish siyosati bilan nuqtai nazarlari investistiya daromadingizni maksimal darajada oshirish.

Barcha korporativ tuzilmalarda optimal nisbatlarni izlash foyda taqsimoti dividendlar va rivojlanish bo‘yicha quyidagilar belgilanadi:

- bir tomondan, daromadni ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo‘naltirish zarurati;
- boshqa tomondan, Aksiyadorlarning o‘z daromadlarini maksimal darajada oshirish istagi.

Aksiyadorlik jamiyati kapitallashuvning o‘sishini jamiyat aksiyalaridan daromad olishda Aksiyadorlarning mulkiy manfaatlarini qondirishning asosiy usuli, deb hisoblaydi. Dividend siyosatini amalga oshirish tartibi bosqichlarining mazmuni O‘zbekiston Respublikasini 2-jadvalda ko‘rish mumkin.

2-jadval: O‘zbekiston Respublikasida dividend siyosatini amalga oshirish tartibining bosqichlari

Bosqichlar	Muayyan bosqichda prosteduraning mazmuni
1	Kompaniyaning investistiya imkoniyatlarini aniqlash, korxonaning to‘lov qobiliyati darajasini, raqobatdosh kompaniyalarning dividendlar to‘lash darajasini baxolash va boshqalar
2	Dividend siyosati turini tanlash (konservativ, mo‘tadil, agressiv)
3	Tanlangan turdagi dividend siyosatiga muvofiq foyda taqsimoti.
4	Dividendlar to‘lash darajasini va bir aksiyaga to‘lanadigan dividendlar miqdorini aniqlash
5	Dividendlarni to‘lash shaklini aniqlash (pul mablag‘lari, boshqa mol-mulk yoki o‘z aksiyalarini sotib olish)
6	Kompaniyaning bozor faolligi ko‘rsatkichlari (bir aksiya bo‘yicha sof foyda, dividend to‘lash koeffistienti, aksiyalar bo‘yicha dividend daromadi va boshqalar) asosida dividend siyosatini taxlil qilish

Dividend siyosati aksiyalarning bozor qiymatini oshirish maqsadida kompaniya olgan foydaning iste’mol qilingan va kapitallashtirilgan qismlari o‘rtasidagi nisbatni optimallashtirishdan iborat.

Korporativ boshqaruvning muhim elementi kompaniyaning bozor qiymatini maksimal darajada oshirish uchun iste’mol qilingan va kapitallashtirilgan foyda o‘rtasidagi nisbatni optimallashtirishga qaratilgan dividend siyosatidir.

Ma’lumki, dividendlar kompaniya sof foydasining bir qismi bo‘lib, aksiyadorlar o‘rtasida ularga tegishli aksiyalar soni va turiga qarab taqsimlanadi. Boshqacha qilib aytganda, dividend — bu Aksiyadorlar o‘z aksiyalaridan oladigan foydaning bir qismi.

Dividend siyosatining mohiyati aylanmadan olingan va dividendlar shaklida to‘langan foyda ulushi bilan biznesni kengaytirish uchun ajratilgan ulush o‘rtasidagi optimal nisbatni tanlashdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilmiy adabiyotlarda dividend siyosatini shakllantirishning uchta asosiy modeli keng tarqaldi va juda mashhur bo‘ldi. Bular: Ingliz-Amerika modeli, Nemis modeli va Yaponiya modellaridan iborat. Ingliz-Amerika modeli o‘zining ochiqligi va shaffofligi bilan o‘z o‘rniga ega va mashhur. Nemis modeli yopiq modellardan hisoblanib, bu modelda tashqaridan keladigan mustaqil direktorlarni hush ko‘rishmaydi. Yaponiya modeli ham yopiq model

bo‘lib, oilaviy Osiyo modeli deb nomlanadi. Dividend siyosatining u yoki bu modelini tanlash kompaniyani rivojlantirishning maqsad va vazifalari bilan belgilanadi. Keling, dividend siyosatining asosiy nazariyalarini ko‘rib chiqaylik.

1. **Qoldiq tamoyili bo‘yicha dividendlarni hisoblash nazariyasi.**

   Dividendning qoldiq nazariyasiga yoki dividendning ahamiyatsizligi nazariyasiga ko‘ra, dividend siyosati na aksiya narxiga, na uning ustav kapitali qiymatiga, na kompaniya qiymatiga ta’sir qilmaydi. Ushbu nazariyaning yaratuvchilari Nobel mukofoti laureatlari Merton Miller va Franko Modilyani edi. Ularning ta’kidlashicha, kompaniyaning qiymati faqat uning aktivlarining pul oqimlarini yaratish qobiliyati va ishbilarmonlik tavakkalchilik darajasi bilan belgilanadi, balki kompaniya aktivlarni ishlatish natijasida olingan foydani to‘lash o‘rtasida qanday taqsimlanishiga qarab emas, dividendlar va qayta investistiyalar.

2. **Dividendlarni afzal ko‘rish nazariyasi yoki “qo‘lda jo‘jalar”.**

   Mualliflar Myron Gordon va Jon Lintner tomonidan ishlab chiilgan bu nazariya avvalgisiga qaramaqarshidir. Mualliflarning ta’kidlashicha, dividendlarni to‘lash koeffistienti oshishi bilan kapitalning qiymati pasayadi, chunki investorlar kapital daromadlarini dividendlardan ko‘ra xavfliroq, deb hisoblashadi: birinchisini nisbatan noaniq, kelajakda va umumiy fond bozorida qulay sharoitlarda olish mumkin, ikkinchisi esa aksiyadorlar tomonidan tegishli qaror qabul qilingandan keyin.

   Aslini olganda, nazariya mualliflari investorlar kutilayotgan dividendlarning har bir dollarini kapital daromadidan ko‘ra yuqoriroq baholaydilar, deb hisoblashgan, chunki dividend komponenti ularning aksiyalari bo‘yicha talab qilinadigan daromadlilikdir.


3. **Soliq imtiyozlari nazariyasi.**

   Ushbu nazariya dividendlar olingandan so‘ng darhol soliqqa tortilishini taxmin qiladi, kapital daromad solig‘i esa faqat aksiyalar yoki aksiyalarni sotishda to‘lanadi. Shunday qilib, kapital daromad solig‘i nazariy jihatdan noma’lum muddatga kechiktirilishi mumkin.

4. **Barqaror miqdorda dividendlar to‘lash siyosati** ularning o‘zgarmagan summasini uzoq vaqt davomida to‘lashni o‘z ichiga oladi, bu turli holatlardan qat’iy nazar, aksiyadorlar o‘rtasida joriy daromadlar miqdorining o‘zgarmasligiga ishonch hissini yaratadi, fond bozoridagi aksiya narxining Barqarorligini belgilaydi. Shu bilan birga, ushbu siyosatning amalga oshirilishi past daromadli davrda kompaniyaning investistion faolligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

5. **“Qo‘shimcha dividendlar” siyosati** yoki ma’lum bir davrda ustama bilan barqaror dividend siyosati. Ushbu siyosat avvalgisining ishlanmasi bo‘lib, kompaniya muntazam ravishda belgilangan dividendlar to‘laydi, deb tahmin qiladi, ammo odatda muvaffaqiyatli faoliyat olib borilgan taqdirda, vaqti-vaqti bilan Aksiyadorlarga qo‘shimcha dividendlar (qo‘shimcha dividendlar) to‘lanadi va to‘lovlar hozirgi davrda ularning keyingi to‘lovlarini anglatmaydi.

6. **Hajmni doimiy ravishda oshirish siyosati** dividendlar har bir aksiyaga to‘lanadigan dividendlar darajasining barqaror o‘sishini ta’minlaydi. Bunday siyosatni amalga oshirishda dividendlarning ko‘payishi, qoida tariqasida, qoldiqi davrda ularning hajmiga o‘sishning belgilangan foizi doirasida sodir bo‘ladi va aksiyalarning yuqori bozor qiymatini ta’minlaydi, qo‘shimcha daromadlar paydo bo‘lganda potenstial investorlar o‘rtasida ijobiy imidj yaratadi.



2-rasm: Kompaniyaning dividend siyosatining aksiyadorlar farovonligiga ta’siri[3]

3 Muallif tomonidan o‘rganilgan materiallar asosida ishlab chiqilgan

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Agar aksiyadorlik jamiyati dinamik rivojlansa, unga ko‘proq resurslar kerak bo‘ladi. Aksariyat hollarda kompaniya mablag‘larning surunkali taqchilligi bo‘lmasa, ularning ma’lum bir taqchilligini boshdan kechiradi, ammo dividend to‘lovlari shaklida mablag‘larni davriy ravishda keng miqyosda olib qo‘yilishi muqobil moliyalashtirish manbalarini izlashni talab qiladi.

Foydaning iste’mol qilingan va kapitallashtirilgan qismlari o‘rtasidagi nisbatni aniqlashda quyidagi omillar hisobga olinadi:

- dividendlar to‘lash tartibini tartibga soluvchi normativ hujjatlar;
- bepul naqd pulning mavjudligi;
- boshqa manbalardan mablag‘larni jalb qilishning mavjudligi va ularning narxi;
- aksiyadorlarning manfaatlari.

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik jamiyatlarining dividendlar to‘lash siyosati beqarorligicha qolmoqda va kompaniyalarning moliyaviy ahvoli va investistiya imkoniyatlarini aks ettirmaydi. Birlashgan mulkka ega bo‘lgan kompaniyalarda dividend siyosati ko‘pchilik aksiyadorlarga bog‘liq bo‘lib, ularning manfaatlari atrof-muhitning noaniqligi, mulk huquqlarining zaif himoyasi va rivojlanmagan institutlar bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Temirov A. A. Dividendlar va dividend siyosati: –O`quv qo‘llanma. – Toshkent: TGEU 2021. –160 s.
2. Ashurov Z.A. Zamonaviy korporativ boshqaruv: (xorijiy tajriba).
3. Vesnin V.R. Upravlenie sovremennoy korporatsiey. –Uchebnoe posobie. – OOO “Prospekt”. –Moskva. –2020. –168 s.
4. Z.A.Ashurov. Sovremennoe korporativnoe upravlenie (Zarubejniy opit) Uchebnoe posobie. – “Innovatsion rivojlanish nashriyoti. –matbaa uyi”. Tashkent. –2021. –221 s.
5. Tereshina N.P., Sorokina A.V. Korporativnoe upravlenie: Uchebnoe posobie. – M.: MGUPS (MIIT), 2014. – 218 s.
6. Burkov V.N., Doroxin V.V., Tixomirov E.F. Finansoviy menedjment: Upravlenie finansami predpriyatiya. Uchebnoe posobie. –M.: Academia. –2013.

TURIZM TRANSPORT INFRATUZILMASINI BAHOLASH IMKONIYATLARI VA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI



Agzamov Shaxboz Akmalovich
Samamarqand iqtisoliyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turizm transport infratuzilmasini baholash imkoniyatlari va uni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish muammolari tahlil etilgan va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, iqtisodiyot, infratuzilma, transport, mexanizm, turist, strategiya, temir yo‘l, samolyot, avtobus, avtomobil, firma, model.

Abstract: In this article, the possibilities of evaluating the tourism transport infrastructure and the problems of improving its organizational and economic mechanisms are analyzed and proposals are developed.

Key words: tourism, economy, infrastructure, transport, mechanism, tourist, strategy, railway, plane, bus, car, firm, model.

Аннотация: В данной статье анализируются возможности оценки туристско-транспортной инфраструктуры и проблемы совершенствования ее организационно-экономических механизмов и разрабатываются предложения.

Ключевые слова: туризм, экономика, инфраструктура, транспорт, механизм, турист, стратегия, железная дорога, самолет, автобус, автомобиль, фирма, модель.

KIRISH

Jahonda turizm xizmatlari sohasining holati va rivojlanish tendensiyalarini chuqur tahlil qilish, uning yutuqli va kamchilik jihatlarini aniqlash asosida sohaning istiqboldagi imkoniyatlarini belgilash, uning aholi turmush farovonligini oshirishdagi rolini kuchaytirish hamda boshqa tarmoq va sohalar bilan o‘zaro ta’sirini baholash hamda kabi yo‘nalishlardagi tadqiqotlar ustuvor darajada bajarilmoqda. Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida turizm sohasini jadal sur’atlar bilan rivojlantirishda transport vositalari muhim o‘rin egallaydi va ularga nisbatan ilmiy tadqiqotlarda alohida ahamiyat qaratilmoqda.

MUAMMONING O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Turizm sohasini transport infratuzilmasini baholash imkoniyatlari hamda uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish muammolari T. D. Burmenko [1], M. A. Vaxrushina, V. P. Bichkov [2], D. A. Dubrovskiy [3], V. Ye. Ribalkin [4], M. E. Nemolyayeva [5], kabi mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari iqtisodchi olimlari tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz olimlari tomonidan ham ushbu soha bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borildi. Turizm sohasi muammolari bo‘yicha N. Tuxliyev [6], M. M. Muxammedov [7], I. S. Tuxliyev, M. Q. Pardayev [8], B. Sh. Safarov [9], O. X. Xamidovlar [10] ning ishlarida tadqiq qilingan, ammo mazkur ilmiy ishlarda turizm transport infratuzilmasi imkoniyatlarini baholash, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish muammolari, transport xizmatlari ko‘rsatishga ta’sir etuvchi omillar tahlili va uning istiqbollari yetarlicha o‘z aksini topmagan. Bu holat esa mazkur sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm infratuzilmasining yana bir asosiy vositalaridan biri transport tarmog‘i hisoblanadi. 2020-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra respublikamizda transport sohasida qariyb 15360ta turli mulkchilik shakldagi korxona va tashkilotlar faoliyat olib borayotgan bo‘lib, o‘tgan yil-ning shu davriga nisbatan ularning soni 2030 taga, o‘sish 15,2% ni tashkil etgan [1].

Transport tarmog‘i davlatning qon tomiri sifatida qaraladi. “Buyuk Ipak yo‘li”ning qayta tiklash bo‘yicha Xitoy hukumati ilgari surayotgan loyihasiga asosan qaraydigan bo‘lsak, O‘zbekiston bu yo‘lning quruqlikdan o‘tuvchi qismining Yevropadan Osiyoga olib keladigan eng qisqa transport koridori markazida joylashgan. Bu o‘z navbatida O‘zbekistonga G‘arb va Sharq o‘rtasidagi chorrahasida joylashgani uchun, Yeroosiyo qit’asining Sharqi va G‘arbini bog‘lab turuvchi xavfsiz transport aloqalarini amalga oshirish imkoniyatini ochib beradi.

O‘zbekiston ayni paytda turistlarga xizmat ko‘rsatish uchun dengiz transportidan tashqari, barcha zamonaviy transport turlariga ega. Respublikamizda temir yo‘llar va avtomobil yo‘llar tarmog‘i, xalqaro aeroportlar yetarli darajada tarnsport infratuzilmasiga ega.

Turizm transport infratuzilmasining imkoniyatlarini baholash uchun turistlarga respublikamizda transport xizmati ko‘rsatish bo‘yicha taqqoslama kuzatish orqali reyting tuzib chiqish lozimligi aniqlandi. Ma’lumotlar asosida (1-jadval) har bir ko‘rsatkich bo‘yicha 10 balli baholash tizimi bo‘yicha belgilab olindi. Taqqoslama ma’lumotlar asosida harakat xavsizligi bo‘yicha temir yo‘l 8 ball, samolyotlar 7 ball bilan yuqori ko‘rsatkichga ega, shunga mos ravishda tezlik bo‘yicha yengil avtomabillar 8 ball, samolyotlar 10 ball, turistlar ommaviy foydalanishi bo‘yicha yengil avtomabillar 8 ball, samolyotlar 9 ball, turistlar hohishi bo‘yicha yo‘llarda to‘xtash imkoniyati bo‘yicha yengil avtomabillar 10 ball, avtobuslar 8 ball, sig‘imi bo‘yicha temir yo‘l vositalari 9 ball, samolyotlar 10 ball, shinamlik darajasi bo‘yicha temir yo‘l 8 ball, samolyotlar 9 balli ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi.

Yuqoridagi tahlilar natijasi bo‘yicha O‘zbekistonda turistlar uchun eng qulay va omolashgan transport vositalari ichida samolyotlar 54 ball, yengil avtomabillar 41 ball, temir yo‘l 40 ball, avtobuslar 38 ball ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Budan ko‘rinib turibdiki turistlarga xizmat ko‘rsatishda havo transporti ustivorlikka ega ekan.

1-jadval: Turizm sohasiga xizmat ko‘rsatuvchi transport vositalarining taqqoslama reytingi[1] (baholash me’zoni har bir ko‘rsatkich bo‘yicha 10 ball)

Baholash me’zonlari	Transport vositalarining turlari			
	Temiryo‘l vositalari	Avtobuslar	Yengil avtomobillar	Samolyotlar
Harakat xavfsizligi	8	4	3	7
Sayohat qiymati	2	3	4	8
Tezlik	6	6	8	10
Ommaviylik	6	7	8	9
Turist xohishi bo‘yicha yo‘lda to‘xtash imkoniyati	1	8	10	1
Sig‘imi	9	4	1	10
Shinamlik darajasi	8	6	7	9
Ko‘rsatkichlar bo‘yicha jami ballar	40	38	41	54

Shuning uchun havo transportini rivojlantirishga alohida e’tiborni qaratishimiz lozimdir. Bugungi kunda respublikamiz transport infratuzilmasining eng katta tarmoqlaridan biri “Uzbekistan airways”dir. “Uzbekistan airways” tomonidan muntazam ravishda dunyoning 40dan ortiq shaharlariga, Yevropa va Osiyo mamlakatlariga, Amerika va Yaponiyaniga muntazam ravishda parvozlarni amalga oshirib kelmoqda.

Respublikamizda xalqaro standartlarga muvofiq 11 aeroport (Toshkent, Nukus, Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, Qarshi, Namangan, Andijon, Farg‘ona va Navoiy shaharlarida) modernizatsiya qilinmoqda.

Hozirgi kunda uzoq xorijlik turistlarning mamlakatimizga tashrifi deyarli 100% havo kemalarida amalga oshirilmoqda. Shuning uchun turistlarga qulay sharoitlar yaratish va sifatli xizmat ko‘rsatish maqsadida havo kemalarimiz parki “Boeing-757-200”, “Boeing-767”, ”Boeing 767-300 ER”, “Boeing 787-8 Dreanliner”, “Airbus-A310”, “Airbus-A320-200” kabi zamonaviy samolyotlar bilan to‘ldirildi. Lekin, shunga qaramasdan bugungi kunda yo‘lovchilar va turistlar talabiga respublikamiz havo transporti infratuzilmasi javob bera olmay qoldi. Bu kabi muammolarni bartaraf etish maqsadida so‘nggi yillarda hukumatimiz tamonidan havo transportini rivojlantirish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda 2019 yildan xalqaro tajribalar asosida “Ochiq osmon” tartibi joriy qilish bo‘yicha ishlar boshlandi. Buning dastlaki natijalari sifatida, 2019-yil 11-martdan boshlab, loukoster asosida haftasiga yetti marta Birlashgan Arab Amirligining “Flydubay” avia-

1 Tadqiqotchi tomonidan O‘zbekistonda turistlarga xizmat ko‘rsatadigan transport vositalarining taqqoslama reytingi tuzib chiqildi.

kompaniyasi O‘zbekistonga parvozlarini boshladi. Shu singari, 2019-yil 16-iyuldan Toshkent-Tibilisi-Toshkent yangi reysi ochildi. Aviabiletlarni “E-ticet” sistemasi orqali sotib olish va on-line mobil ilovasi orqali bronlashtirish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Mavjud muammolar va ularning yechimi yuzasidan takliflar

Yuqoridagi ishlarni amalga oshirilishiga qaramasdan, ohirgi 5 yil mobaynida O‘zbekiston Respublikasida ichki turistik sayohatlar ulushi xalqaro sayyohatlar soniga nisbatan o‘rtacha 70 foizdan oshmaganini ko‘rishimiz mumkin Ctatistik raqamlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, 2022-yildagi ichki turistik sayohatlar soni 2021-yilga nisbatan 1,97 baraborga oshgan bo‘lsa, xalqaro turistik sayohatlar soni 2,78 barobarga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa, xalqaro turizmning o‘sish sur’atlari ichki turizmga nisbatan yuqori ekanligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi turizm transport infratuzilmasini yanada rivojlantirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan bir nechta omillar mavjud.

Birinchidan, turizm transport infratuzilmasida turizm marketingi va reklama xizmatlari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Oxirgi yillarda O‘zbekistonning turizm imkoniyatlari turli tillarda xorijiy davlatlarning mashhur nashrlarida faol yoritilmoqda, biroq mahalliy aholi uchun O‘zbekistonning jozibador turistik manzillari va sayohatlarni tashkil etuvchilar, komfort transport xizmati to‘g‘risida ma’lumot beruvchi nashrlar yetarli emas. Ya’ni, mahalliy aholining aksariyat qismi hududlarning qaysi hududida qanday turdagi turistik mahsulotlar borligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega emas.

2022-yil yakuniga qadar respublikaning turistik resurslari hamda turistik industriya obyektlari to‘g‘risida xabardor qilish, shuningdek turistik bozorlarda turistik mahsulotlarni targ‘ib qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi 151 ta turistik axborot markazlari tashkil etilgan bo‘lib, ularning aksariyati mahalliy aholi uchun qulay bo‘lmagan (kiruvchi turistlar uchun qulay) manzillarda – davlat chegara punktlari, aeroportlarning ichki qismi, turizm maskanlari yoki ziyoratgohlarda joylashgan.

Ikkinchidan, mahalliy aholiga ko‘rsatilayotgan ichki turizm logistika xizmatlarining noqulayligi va qimmat ekanligi , transport infratuzilmasini takomillashmaganligi. So‘ngi 2 yilda Urganch Farg‘ona-Urganch, Samarqand-Namangan-Samarqand hamda Andijon-XivaAndijon yo‘nalishlari bo‘yicha doimiy temir yo‘l qatnovlari hamda Xiva-Buxoro va Buxoro-Termiz avtobus qatnovlari yo‘lga qo‘yildi.

Biroq mavjud aviareys va temir yo‘l chiptalarini xarid qilishda katta navbatlar yuzaga kelmoqda. Ayrim avia va temir yo‘l yo‘nalishlarida o‘rinlar 5 kundan 10 kungacha oldindan band qilinganligiga guvoh bo‘layapmiz. Bu esa, ko‘rsatilayotgan transport xizmatlari hajmi talabga nisbatan yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, aksariyat aviaqatnovlar Toshkent shahri bilan bog‘langan bo‘lib, ayrim hududlarni bog‘lovchi aviaqatnovlar, to‘g‘ridan to‘g‘ri temir yo‘l va avtobus qatnovlari mavjud emas. Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati fuqarolari uchun uzoq masofada joylashgan Surxondaryo viloyatiga (Nukus-Termiz – 989 km, Urganch- Termiz – 866 km) yoki Qoraqalpog‘iston Respulibkasini Farg‘ona vodiysi viloyatlarini bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lovchi avia, temir yo‘l va avtobus qatnovlari yo‘lga qo‘yilmagan Shu bilan birga transport qatnovlarining aksariyati hududlarning turizm markazlari yoki shaharlariga emas, balki ma’muriy markazlariga yo‘naltirilgan. Masalan, Qashqadaryo viloyatida transport qatnovlari asosan Qarshi shahriga amalga oshiriladi, ammo viloyatning asosiy turistik shahri Shahrisabz shahrigacha to‘g‘ridan to‘g‘ri qatnovlar mavjud emas.

Hududlararo transport qatnovlarining yo‘qligi bir vaqtning o‘zida bir nechta hududlar bo‘ylab ichki turistik sayohatni amalga oshiruvchilar uchun noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Bu esa ichki turistlarni mamlakat hududlari bo‘ylab turizm sayohatlarini amalga oshirish davrini qisqa vaqt davom etishiga, shuningdek turistlarning ichki turizm xizmatlaridan foydalanish doirasini cheklanishiga sabab bo‘lmoqda.

Yuqoridan sanab o‘tilgan kamchilik va muammolarni hal qilish uchun quyidagilarni taklif qilamiz:

- o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida O‘zbekistonning turizm transport xizmatlari imkoniyatlarini targ‘ib qiluvchi maxsus nashrlar tayyorlash, ushbu nashrlarni barcha turdagi faoliyat yurituvchi subyektlarga bepul yetkazish hamda ushbu subyektlarda turizm burchaklarini tashkil etish choralarini ko‘rish;
- aholi gavjum joylarida (bozorlar, yirik savdo markazlari va hokazo) doimiy faoliyat yurituvchi hamda aholi ko‘p qatnashuvchi bayram tadbirlari o‘tkaziladigan joylarda turizm transport xizmatlari ko‘chma turistik axborot markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
- turizm sohasidagi yaratilgan dasturiy ta’minotlarni yanada rivojlantirish va yangi innovatsion biznes g‘oyalarni, shu jumladan birinchi navbatda ichki turistlar uchun qulayliklar yaratishga yo‘naltirilgan dasturiy ta’minotlarini yaratish xizmatlarini qisman subsidiyalash;
- erkin sayyohlarga qulaylik yaratish, turistlarning belgilangan turizm manzillariga qulay, xavfsiz hamda yuqori sifatli servis ko‘rsatilgan holda yetib borishlariga xizmat qiluvchi transport infratuzilmasiga ega, turistik firmalarning avtobuslari, mikroavtobus va yengil avtomashinalari doimiy jalb etiluvchi hamda ularni belgilangan qat’iy grafik asosida harakatlanishini ta’minlovchi turistik bekatlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish kabi choralarni amalga oshirish lozim bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasida tarnsport infratuzilmasini rivojlantirish uchun birinchi navbatda aholiga respublika hududlarining turistik imkoniyatlari haqida tasavvurni paydo qilish, innovatsion texnologiyalar, investitsiyalash lozim. Shuningdek, ichki jamoaviy turizmni va mustaqil turizmni tashkil etish uchun qulay axborot-kommunikatsiya va tashkiliy-iqtisodiy hihatdan takomillashgan transport infratuzilma muhitini shakllantirish muhim hisoblanadi. Shu bilan birgalikda turizm tarnsport infratuzilmasi tarmoqlari bir-biri bilan muvofiq holda rivojlanishib, respublikamiz iqtisodiyotining kompleks rivojlanishi va shakllanishida o‘ziga xos o‘rin tutmog‘i zarur. Respublika iqtisodiyotining shakllanishida boshqa tarmoqlar singari turizm ham yagona modelga bog‘lanishi kerak va yaxlit sistema kabi ishlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бурменко Т.Д. Сфера услуг: экономика. Учебное пособие / Т.Д.
2. Бычков В.П. Предпринимательская деятельность на автомобилном транспорте. – СПб.: Питер. –2004. – 448 с.
3. Дубровский Д.А. Прибылный автосервис. Советы владельцам и управляющим. –СПб.: Питер. –2010. – 256 с.
4. Рыбалкин В.Е. Международные экономические отношения. Учебник / М.: Юнити, 2012. – 312 с.
5. М.Э.Немоляева Международный туризм: вчера, сегодня, завтра. –М.:, 1985. – 175 с.
6. Тухлиев Н. Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – 424 с.
7. Muxammedov M. va boshqalar “Xizmat ko‘rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari”. – S.: Zarafshon 2017. –299 b.
8. Tuxliyev I., Qudratov F., Pardayev M. Turizmni rejalashtirish. Darslik. T.: “Iqtisod va moliya” 2008.- 262 b.
9. B.Sh.Safarov Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari. – T.: Fan va texnologiya. –2016. –184 b.
10. О.Х.Хамидов “Транспорт сервисини ташкил этиш” фани бўйича таълим технологияси. Тошкент – “ТДИУ”. – 2006.

MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA BIZNES EKOTIZIMINI TASHKIL ETISH YO‘LLARI



Shoymardonov Orziqul Jo‘ra o‘g‘li
Toshkent moliya instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizdagi tijorat banklari faoliyatida biznes ekotizimini tashkil etishning samaradorligini oshirish tahlili va rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida so’z boradi. Shuningdek, jahonda raqamli platformalar va ekotizimlardan bank foliyatida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularning faoliyatini samarali tashkil etish tahlil qilingan. Bu borada bog‘liq bo‘lgan mavjud muammolar , ularni bartaraf etish bo’yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: bank ekotizimi, tijorat banklari, bank tizimi, kredit, depozit, foizli va foizsiz xarajatlar, bank daromadi va xarajati, foyda, sof foyda.

Abstract: This article will focus on the analysis of improving the efficiency of the organization of the business ecosystem in the activities of commercial banks in our country, as well as improving the prospects for development. The problems existing in the world related to the effective organization of digital platforms and ecosystems by expanding their possibilities of application in banking, as well as author’s approaches and proposals to overcome them are also presented.

Key words: banking ecosystem, commercial banks, banking system, loan, deposit, interest and interest-free expenses, bank income and expenses, profit, net profit.

Аннотация: В данной статье речь пойдет об анализе повышения эффективности организации экосистемы бизнеса в деятельности коммерческих банков в нашей стране, а также о совершенствовании перспектив развития. Представлены также существующие в мире проблемы, связанные с эффективной организацией деятельности цифровых платформ и экосистем путем расширения их возможностей применения в банковской деятельности, а также авторские подходы и предложения по их преодолению.

Ключевые слова: банковская экосистема, коммерческие банки, банковская система, кредит, депозит, процентные и беспроцентные расходы, банковские доходы и расходы, прибыль, чистая прибыль.

KIRISH

O‘zbekistonda an’anaviy to‘lov usullaridan foydalanish jarayonlari hanuzgacha davom etayotgani, ushbu jarayon ko‘p bosqichlardan iborat ekani natijasida to‘lov tizimida noqulayliklar kuzatilmoqda. Mustaqil bank tizimiga ega bo‘lgandan boshlab tijorat banklari to‘lov tizimlaridaga eng so‘nggi texnologiyalarni qo‘llash orqali to‘lov jarayonini samarali, xavfsiz, tez, arzon va sodda boshqarishga o`tilmoqda.

Shu sababli zamonaviy banklar va to‘lov xizmatlari raqobatbardosh to‘lovlar sohasida o‘z mijozlarining so‘nggi talablarini qanoatlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish ustida izlanishlar olib borilmoqda. Respublikada “bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta’minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda inson omili ta’sirini kamaytirish bo‘yicha tezkor chora-tadbirlar ko‘rish talab etilmoqda”[1] kabi vazifalar belgilab berilgan. Banklarda axborot texnologiyalari mahsulotlari, aktivlar va passivlarni boshqarish, mijozlar bilan aloqa qilish bo‘yicha eng zamonaviy usullarni joriy qilish tizimini ilmiy jihatdan asoslab berish dolzarb hisoblanadi.

Banklarning eng muhim vazifalari pul aylanmasi va kapital aylanmasini uzluksiz ta’minlash, milliy iqtisodiyotning jamg‘armalarini to‘plash uchun mablag‘larni investitsiyalash uchun keng imkoniyatlarni taqdim yetishdir. Zamonaviy iqtisodiyotda ekotizim biznes modellari keng tarqalmoqda, ularning salohiyati moliya institutlari tomonidan tobora ko‘proq tushunilmoqda.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992 son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon. Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi, 13.05.2020 y., 06/20/5992/0581-son.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Bank biznesi ekotizimlari – bu moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish uchun birgalikda ishlaydigan o‘zaro bog‘liq tashkilotlar, xizmatlar va texnologiyalar tarmog‘idir. Ular mijozlar uchun innovatsion va samarali yechimlarni yaratish uchun banklar, moliya institutlari, texnologiya provayderlari va bozorning boshqa ishtirokchilarini birlashtiradi.

O.Dyachenkoning fikricha, “tijorat banklarida biznes ekotizimlarni joriy qilish, foydalanuvchilar haqida juda ko‘p ma’lumotlarni onlayn va oflayn rejimda to‘plash hamda qayta ishlashga, mavjud bo‘lgan har qanday kanallar orqali samarali aloqalarni o‘rnatishga imkon beradigan AT-tizimlarning yetarli darajada rivojlanganligi va ko‘plab xizmatlarni masofadan turib taqdim etish imkoniyatini yaratadi”[2].

Iqtisodchi olim A.Ivanovning ilmiy izlanishlarida “bank biznesidagi ekotizim konsepsiyasi mijoz uchun umumiy qiymat bilan bog‘liq bo‘lgan bir nechta xizmatlarning bitta foydalanuvchi interfeysga qo‘shilishi qator qulayliklar yaratadi deya fikr bildirib o‘tgan”[3].

McKinsey konsalting tashkiloti tadqiqotlarida, “dunyodagi banklarda xususiy kapital rentabelligi (ROE) bir joyda muqim turib qolgan, ya’ni oxirgi 10 yilda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 8-10 foiz atrofida bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich 2025-yilga borib 5,2-9,3 foiz oralig‘ida bo‘lishi taxmin qilinmoqda”[4]. Mazkur holat bank tizimining moliyaviy xizmatlar bilan cheklanib qolmay, “ekotizim mexanizmini rivojlantirishga undamoqda. Bunda elektron tijorat onlayn platformalari banklarga o‘z mijozlari bilan yaqin aloqada bo‘lib turish bilan birga ularning moliyaviy ahvoli, psixologik portreti, xohish-istaklarini aniqlash imkonini beradi”[5].

M.J.Yakobides, K.Kennamo, A.Gaver o‘z tadqiqotlarida “ekotizim tushunchasini aniqlash bo‘yicha ikkita asosiy yondashuvni ajratib ko‘rsatishadi: birinchi yondashuvda ekotizim ma’lum darajada ishlab chiqarish va ishlab chiqarish omillariga nisbatan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tashkilotlar guruhi sifatida qaraladi, ikkinchisida esa, o‘zaro bog‘liq texnologiyalar tizimi sifatida e’tirof etishadi”[6].

R.Adner o‘z ilmiy qarashlarida, “ekotizimlarni ikkita asosiy yo‘nalish: ekotizimlar mansublik sifatida (ecosystems as affiliation) va ekotizimlar tuzilish sifatida (ecosystems as structure) talqin etadi. Bunday holda, ekotizim, mansublik sifatida, an’anaviy sanoat chegaralarini yo‘q qilishga va bir xil sanoat ichida ham, tarmoqlararo darajasida ham kompaniyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va simbiyotik munosabatlarning o‘sishiga qaratiladi. Tuzilma sifatida ekotizim bo‘lsa, qiymat taklifini yaratishni o‘rganishga va ma’lum bir qiymat taklifiga erishish uchun o‘zaro ta’sir qilishiga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, mansublik sifatida ekotizim tushunchasi mutlaqo yangi tushuncha emas, balki korxonani umumlashtirilgan yoki makro darajada o‘rganadigan biroz takomillashtirilgan tushunchadir. Ekotizim ma’lum qiymat takliflarini amalga oshirish uchun o‘zaro ta’sir qilishi kerak bo‘lgan va innovatsion faoliyatning uyg‘unligini ta’minlaydigan tuzilma bilan o‘zaro bog‘langan ko‘p tomonlama sheriklar to‘plami”[7], deb ta’riflaydi.

R.Kapur, A.Gaver, M.Kusumano, G.Parker, M.Van-Alstinlar o‘z ilmiy izlanishlarida “platformalarga asoslangan biznes ekotizimlariga e’tibor qaratishadi va mahsulot ekotizimlari (product-based ecosystems) va platforma ekotizimlari (platform-based ecosystems) o‘rtasidagi tushunchalarni ajratadilar”[8].

Platforma ekotizimi “uning egasi tomonidan boshqariladi, u ushbu ekotizimning bir qismi bo‘lgan ishtirokchilar uchun platforma arxitekturasi va qoidalarini yaratadi. Bozorning bir tomonlama o‘zaro ta’sirini, xususan, ishlab chiqarish korxonasi (etkazib beruvchi) va xaridor (foydalanuvchi) o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni nazarda tutadigan mahsulot ekotizimidan farqli o‘laroq, platforma ekotizimi yetkazib beruvchilar va foydalanuvchilar o‘rtasida o‘zaro faoliyat funksional tarmoq effektlari doirasida yuzaga keladigan ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama bozorning o‘zaro ta’sirini nazarda tutadi”[9].

Ilmiy izlanishlar doirasida bank ekotizimi atamasining ta’rifiga ham alohida e’tibor berish zarur. “Tijorat banklari ekotizimi – o‘z mijozlarning ko‘proq ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil xizmatlar va mahsulotlarni taqdim etadigan, moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan turli kompaniyalar yoki xizmatlar va mahsulotlarni o‘z ichiga olgan bank tashkiloti yoki bank boshchiligidagi kompaniyalar guruhi tushuniladi”[10].

A.A.Koblkoning ilmiy qarashlarida “ekotizimni iqtisodiyotning turli sohalaridan mahsulot va xizmatlarni birinchi navbatda yagona brend ostida va yuridik shaxsga murojaat qilmasdan taklif qiluvchi korxonalar

2 Dyachenko O. 2018. Finansovaya ekosistema: vse v odnom. Natsionalniy bankovskiy jurnal (NBJ). 2018. 5
3 Ivanov, A. Ekosistema naoborot [Elektronniy resurs] // vc.ru. – Rejim dostupa: https://vc.ru/finance/97873-ekosistemanaoborot.
4 https://www.vedomosti.ru/finance/blogs/2019/06/27/804788 - bankovskaya-ekosistema.
5 www.cbr.ru – ЦБ РФ “Экосистемы: подходы к регулированию”. – 2021. – С. 6
6 Jacobides M., Cennamo C., Gawer A. Industries, Ecosystems, Platforms, and Architectures: Rethinking our Strategy Constructs at the Aggregate Level. Working paper, London Business School, 2015.
7 Adner R. (2017). Ecosystem as structure: An actionable construct for strategy. Journal of Management, vol. 43, no 1, pp. 39–58. DOI: https://doi.org/10.1177/0149206316678451.
8 Parker G., Van Alstyne M.W. (2014) Platform strategy. – School of Management Research Paper No. – 2439323, Boston U. https://doi.org/10.2139/ssrn.2439323.
9 Gawer A., Cusumano M.A. (2002) Platform leadership: how Intel, Microsoft, and Cisco drive industry innovation. Harvard Business School Press, Boston
10 Panova G. Paradoxes of financial market institutions: traditions and ecosystems // Financial Markets Evolution. Springer International Publishing. 2021. DOI: 10.1007/978-3-030-71337-9_3

majmuasi"[11] deb ta'rif beradi. Biroq, bu holda, dissertatsiya muallifining so'zlariga ko'ra, ekotizimlarning yuqori darajadagi o'zaro bog'liqlik va ekotizim ishtirokchilari o'rtasidagi bir-birini to'ldirish kabi fundamental va o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinmaydi. Ekotizim tushunchasining iqtisodiy ta'rifini keng ma'noda uchta asosiy guruhga bo'lish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani yozish jaroyonida abstraktsiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida tijorat banklarining biznes ekotizimi, qoida tariqasida, iste'molchiga turli xil mahsulotlar va xizmatlar ko'rsatiladigan bir nechta platforma tashkilotlari – xizmatlari samaradorligini oshirishda tijorat banklarining biznes ekotizimi asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim va jadal rivojlanb borayotgan yetkachi tarmog'lardan biridir. Bugungi kunda bank tizimini yanada takomillashtirish, tijorat banklaridagi omonatlarga aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb etishni rag'batlantirish, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, tijorat banklarining investitsiya jarayonlarida keng ishtirokini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bank faoliyatida, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, mijozlar bilan ishlashni tashkil etish shuningdek, moliya bozorini o'zlashtirishda foydalanish mumkin bo'lgan innovatsion vositalar majmuasiga mutlaqo yangi talablarni qo'yadi. Boshqa tarmoqlarda qo'llaniladigan marketing usullari har doim ham bank sektoriga to'liq mos kelavermaydi.

Bugun davlatlarning geosiyosiy jarayonlari chuqurlashuvi va odamlarning tarqoq holda faoliyat yuritishlari davlatlar o'rtasida to'siqlar va cheklovlar sharoitida qulay transchegaraviy o'zaro hamkorlik zaruratini paydo qildi. Korxonalar uchun transchegaraviy to'lovlar har doim me'yoriy hujjatlarga rioya qilish, valyuta yig'imlari va vaqt xarajatlari bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar bilan birga keladi. Shu sababli, "2024-yilgi to'lovlar ekotizimi transchegaraviy to'lovlarni oddiy, tejamkorlik bilan amalga oshirish uchun yangi raqamli ishlov berish texnologiyalarini taqdim etishga qaratilmoqda".

SEPA to'lov tizimi. "Yagona Yevropa to'lov hududi Yevropa Ittifoqi tashabbusi bo'lib, qit'aning 36 mamlakati ichida oddiy tranzaktsiyalarni amalga oshiradi. SEPA kredit o'tkazmalari va to'g'ridan-to'g'ri debetlar ko'rinishida evroda naqd pulsiz to'lovlarni xavfsiz, tez va samarali tarzda bir mamlakatning milliy chegaralari doirasidagi va barcha qoidalarga muvofiq amalga oshirish imkonini beradi". ACh to'lov tizimi. "Avtomatlashtirilgan hisob-kitob markazi tarmog'i Amerika Qo'shma Shtatlaridagi istalgan bank hisobvarag'idan boshqasiga, qaysi davlatda joylashganidan qat'i nazar, pul va ma'lumotlarning xavfsiz va tejamkor elektron aylanishiga mo'ljallangan Amerika raqamli to'lov ekotizimidir". Blokcheyn texnologiyalari "dunyo nihoyat kripto-raqamli bankingning global qabul qilinishini ko'radi. 2030-yilga kelib, blokcheyn texnologiyasi global yalpi ichki mahsulotning asosiy hissasiga aylanib, 2 trillion dollarga yetishi kutilmoqda".

1-jadval: Bank omonatchilarining Milliy axborot bazasida ro'yxatga olingan mijozlar soni va ularning hisob raqamlari o'sish dinamikasi[12]

Yil (1-yanvar holatiga)	Mijozlar soni	Hisob varaqlar soni
2013	1285424	4622770
2014	1359831	4289556
2015	1432849	5030704
2016	1515004	5364838
2017	1638673	5809172
2018	1755492	6469921
2019	1880634	7263621
2020	2094262	7740964
2021	2145157	8270560
2022	2264419	8839315
2023	2383682	9408070

11 Кобылко А.А. (2019). Экосистемные компании: границы и этапы развития // Экономическая наука современной России. No 4 (87). С. 126–136. DOI: 10.33293/1609-1442-2019-4(87)-126-136.

12 Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlari asosida).

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, Milliy ma'lumotlar bazasida ro'yxatdan o'tgan mijozlar soni 2022-yil 1-yanvar holatiga 2 383 682 tani tashkil etib o'zining o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Xususan 2021-yilning shu davriga nisbatan 119 263 taga oshgan. Shuningdek, hisobvaraqlar soni esa 2021-yilga nisbatan 568 755 taga oshib, 9 408 070 tani tashkil etmoqda. Bank omonatchilarining Milliy axborot bazasida ro'yxatga olingan mijozlar soni va ularning hisobvaraqlari to'g'risidagi barcha ma'lumotlar tijorat banklari va to'lov tizimining xo'jalik yurituvchi subektlari uchun kafolatlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon innovatsion texnologiyalarni doimiy ravishda joriy qilishni o'z ichiga oladi, bu butun iqtisodiyotni to'liq raqamli o'zgartirishga olib keladi.

Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to'lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so'ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag'idan to'lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda.

To'lov xizmatlaridan foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida bank infratuzilmalari, turizm hamda boshqa ob'ektlarga o'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni 57 foizga oshib, 2023-yil 1-yanvar holatiga 20,4 mingdan ortiqni tashkil etdi.

HUMO milliy to'lov tizimining funktsionali, infratuzilmasini rivojlantirish va ommabopligini oshirish bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida, hisobot yilida jami bankomatlar orqali amalga oshirilgan tranzaktsiyalar hajmida HUMO bankomatlaridan o'tkazilgan amaliyotlar ulushi 2021-yildagi 35 foizdan 49 foizgacha oshishi kuzatildi.

2-jadval: O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni hamda to'lov terminallari orqali amalga oshirilgan to'lovlar summasining o'sish dinamikasi[13]

Sana	O'rnatilgan to'lov terminallari soni	O'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni	To'lov terminallari orqali amalga oshirilgan to'lovlar summasi (yil boshidan), mlrd. so'm
01.01.2013	112712	1417	16308
01.01.2014	129679	1733	22758
01.01.2015	169581	2012	31324
01.01.2016	183060	2345	53050
01.01.2017	208536	4954	52972
01.01.2018	235712	5632	63712
01.01.2019	244913	6859	71020
01.01.2020	392361	9203	75051
01.01.2021	438410	11800	81000
01.01.2022	433384	12940	111137
01.01.2023	434018	20379	177671

2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomatlar va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish terminallari soni yildan-yilga ortib borayotganini ko'rish mumkin. 2022-yil davomida o'rnatilgan to'lov terminallari soni 634 taga ko'paygan. O'rnatilgan to'lov terminallari soni 19 ta bankda ko'paygan. Eng ko'p o'sish MKBANK 5,2 ming dona, Aloqabank 1,4 ming dona, Universalbank 1,1 ming dona kuzatilgan. 13 ta bankning to'lov terminallari soni kamaygan. Eng ko'p pasayish Xalq banki -2,64 ming dona, Agrobank -2,58 ming dona, Garantbank – 1,20 ming dona kuzatilgan. Markaziy bank 2022-yilning may oyidan boshlab o'z balansidagi O'zInkassatsiya Birlashmasi DUK, iyun oyidan boshlab to'lov tashkilotlari balansidagi bankomat va infokiosklar statistikasini bera boshladi. Shu sababli 2022-yil davomida bankomat va infokiosklar sonida o'sish 7,4 ming donani tashkil qildi. Tijorat banklari orasida eng ko'p o'sish AT "Xalq banki" 899 ta, AT "MKBANK" 303 ta, AT "Agrobank" 238 ta, TIF "O'zmilliybank" 113 ta va AT "Qishloq qurilish bank" 100 ta kuzatilgan. Jami 17 ta tijorat banki tomonidan o'rnatilgan bankomat va infokiosklar sonida o'sish qayd etilgan. Yana 7 ta bankda ushbu ko'rsatkich o'zgarmagan bo'lsa, qolgan 9 ta bankda bankomat va infokiosklar sonida kamayish kuzatilgan. Eng ko'p pasayish ATB "Kapitalbank" – 1177 ta, ChEKI "Hamkorbank" ATB -74 ta, AT "Asakabank" – 49 ta ATB "OFB" – 41 ta va ATIB "Ipoteka-bank", AT "Turonbank" har birida – 38 tadan qayd etilgan. 2023-yil 1-yanvar holatida eng ko'p bankomat va infokiosklar AT "Xalq banki" 2269 dona, AT "Agrobank" 2142 dona va ATB "Kapitalbank" 2096 donalarga tegishli. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha o'tgan yilgi yetakchi Kapitalbankning bankomatlar va infokiosklar segmentidagi ulushi o'tgan yilgi 25 foizdan bu yil 10 foizga pasaygan. 2022-yilda 1 ta terminal orqali oyiga 34 mln. so'm atrofida tushum tushgan. 2021-yilda 1 ta terminal orqali oyiga

13 Muallif hisob-kitoblari (www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlari asosida).

21 mln. so‘m atrofida tushum tushgan edi. Shuningdek, bugungi kunga qadar respublikada xalqaro talablarga javob beradigan va “uchta tizimdan iborat – banklararo, bank ichidagi va chakana to‘lov tizimlaridan iborat samarali to‘lov tizimi yaratildi”[14].

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish haqida gapirganda, bu borada hamma narsa o‘zaro bog‘liqligini alohida ta’kidlash lozim. Demak, keng polosali internet va mobil internet qamrovini yoymasdan turib, elektron hukumat, raqamli tadbirkorlik, zamonaviy internet texnologiyalaridan foydalangan holda ta’lim, shuningdek, raqamli banklar haqida xulosa chiqarish qiyin.

An’anaviy banklar to‘satdan odamlar hatto o‘z ofisiga ega bo‘lmagan raqobatchilarga murojaat qila boshlaganini payqashdi. Sababi juda oddiy – odamlar o‘z vaqtlarini tejashni va hisob ochish uchun bir marta kelish kifoya qiladigan, qolgan hamma narsa masofaviy va ular uchun qulay, eng ko‘p bo‘lgan kanal orqali banklarni tanlashni xohlashadi. Natijada, mijozlar bazasi asta-sekin bank xizmatiga tubdan boshqacha yondashuvni taklif qiladigan joyga oqib chiqa boshlaydi. Bundan tashqari, raqamli tizimga o‘tish banklarga mijozlar haqida ko‘proq ma’lumot olish va ularning odatlari, xohish va istaklarini yaxshiroq tahlil qilish imkonini beradi.

XULOSA

Umuman olganda, moliya bozorida yaratilgan shart-sharoit va mahsulotlardan samarali foydalanish moliyaviy savodxonlik va iste’molchilar huquqlarini himoya qilishga asoslanadi, bu esa moliya institutlari va ularning mijozlarini jalb etish va kelgusida o‘zaro hamkorlik qilish uchun asos yaratadi. Banklar uchun veb-saytlarda call-markazlar va iste’molchilarning shikoyatlarini ko‘rish vositalari bo‘lishi talablari belgilandi.

Raqamli banklar asosiy e’tiborni zamonaviy texnologiyalarga va onlayn-banking xizmatlariga (ilg‘or yoshlar va biznes) o‘rganib qolgan maqsadli auditoriyaga qaratadi. Bunday banklar uchun asosiy daromad manbalari tranzaktsiya to‘lovlari, VIP yoki premium xizmatlarga pullik obunalar va uchinchi tomon xizmatlaridan olinadigan komissiyalardir (masalan, bank ilovasiga integratsiyalashgan va raqamli aloqada bo‘lish uchun “ijara” to‘laydigan onlayn-do‘kon) bank platformasi). Shubhasiz, ko‘plab ijobiy holatlar mavjud, ammo shuni ta’kidlash kerakki, salbiy holatlar ham mavjud bo‘lib, ular asosan raqamli mahsulotlar va ulardan foydalanish qulayligi bilan bog‘liq.

Mamlakatimiz tijorat banklari o‘z mijozlariga bugungi kunda eng so‘nggi va yuqori texnologiyali axborotga asoslangan onlayn-banking xizmatlarini taqdim etayotganligi ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan imkon qadar qulay foydalanish imkonini beradi va bank bilan ishlashda vaqt va moliyaviy xarajatlarni minimallashtiradi. Masofaviy bank xizmatining asosiy tamoyili mijoz va bank o‘rtasida turli xil ma’lumotlarning masofaviy almashinuvidir. Shu bilan birga, bank ushbu operatsiyaning xavfsizligini ta’minlaydi.

Bank sohasida zamonaviy raqamli axborot texnologiyalari va ularning dasturiy ta’minotlaridan foydalanish nafaqat bank xizmatlari bozorida raqobat ustunligini beradi, balki, ma’muriy xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdordigini oshirish, ortiqcha vaqt sarfini kamaytirish kabi ijobiy ta’sirlari ham mavjud. Jumladan, muammoli kreditlarni tahlil qilish va ular bo‘yicha ishlashni avtomatlashtirish asosida juda ko‘p sonli muammoli kreditlar bilan ishlashni oson va qisqa vaqtda amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992 son “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon. Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi, 13.05.2020 y., 06/20/5992/0581-son.
2. Dyachenko O. 2018. Finansovaya ekosistema: vse v odnom. Natsionalniy banko skiy jurnal (NBJ). 2018.
3. Ivanov, A. Ekosistema naoborot [Elektronniy resurs] // vc.ru. – Rejim dostupa: https://vc.ru/finance/97873-ekosistemanaoborot.
4. Jacobides M., Cennamo C., Gawer A. Industries, Ecosystems, Platforms, and Architectures: Rethinking our Strategy Constructs at the Aggregate Level. Working paper, London Business School, 2015.
5. Adner R. (2017). Ecosystem as structure: An actionable construct for strategy. Journal of Management, vol. 43, no 1, pp. 39–58. DOI: https://doi.org/10.1177/0149206316678451.
6. Parker G., Van Alstyne M.W. (2014) Platform strategy. School of Management Research Paper No. 2439323, Boston U. https://doi.org/10.2139/ssrn.2439323.
7. Gawer A., Cusumano M.A. (2002) Platform leadership: how Intel, Microsoft, and Cisco drive industry innovation. Harvard Business School Press, Boston.
8. Panova G. Paradoxes of financial market institutions: traditions and ecosystems // Financial Markets Evolution. Springer International Publishing. 2021. DOI: 10.1007/978-3-030-71337-9_3
9. Кобылко А.А. (2019). Экосистемные компании: границы и этапы развития // Экономическая наука современной России. No 4 (87). С. 126–136. DOI: 10.33293/1609-1442-2019-4(87)-126-136.

14 www.cbu.uz



O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA AXBOROT-RESURS MARKAZI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA AMALGA OSHIRILGAN TIZIMLI ISLOHOTLAR TAHLILI

Qurbanova Muazzam Fazliddinovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekistonda so‘nggi 7 yil davomida oliy ta’lim muassasalarida axborot-resurs markazi faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar tahlil etilgan bo‘lib, istiqbolda sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: kredit-modul tizimi, “Elektron kutubxona” platformasi, Axborot-resurs markazi, RFID qurilmasi, IRBIS 64+ dasturiy ta’minot tizimi.

Abstract: This scientific article analyzes the work and achieved results of the development of the information resource center of higher education institutions in Uzbekistan over the past 7 years, and also proposes tasks that need to be completed for the further development of the sector in the future.

Key words: credit module system, Electronic Library platform, Information Resource Center, RFID device, IRBIS 64+ software package.

Аннотация: В данной научной статье анализируются работа и достигнутые результаты развития информационно-ресурсный центр вузах в Узбекистане за последние 7 лет, а также предлагаются задачи, которые необходимо выполнить для дальнейшего развития сектора в будущем.

Ключевые слова: система кредитных модулей, платформа “Электронная библиотека”, Информационно-ресурсный центр, RFID-устройство, программный комплекс ИРБИС 64+.

KIRISH

Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilishning hozirgi sharoitida axborot-resurs markzi faoliyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari mamlakatda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga va xalqaro amaliyotga mos bo‘lishi zarur.

Shu munosabat bilan fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqlarini, shu jumladan, milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo‘lishini ta’minlaydigan aholiga axborot-resurs markzi xizmatlari ko‘rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Bu esa, axborot-resurs markzi faoliyatiga, kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish, fond-larni to‘ldirish va saqlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va rag‘batlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirishga jiddiy ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi [1].

Xususan, bugungi kunga kelib oliy ta’lim sohasida ham axborot-resurs markazlari faoliyatini xalqaro standartlar asosida transformatsiyalash ehtiyoji vujudga kelmoqda. Buning sababi, malakatimizda ta’lim jarayoniga kredit-modul tizimi joriy etildi va ushbu tizimda mustaqil ta’lim masalasi eng dolzarb komponent bo‘lib xizmat qiladi. Mustaqil ta’limni sifatli tashkil etishda esa, oliy ta’lim muassasalarida axborot-resurs markazlari eng asosiy bo‘g‘in sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mazkur ilmiy maqolamizda, oliy ta’lim muassasalarida axborot-resurs markazi faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar va istiqbolda bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalarga to‘xtalib o‘tamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Axborot-kutubxona tizimlari masalalari Springer, Emerald, EBSCO Information Services, Web of Science, Wiley, Elsevier nashriyotlarining ma'lumotlar bazasiga kiritilgan ilmiy jurnallarda oxirgi yillarda chop etilgan maqolalardan o'rganildi. Jumladan, integrallashtirilgan axborot-kutubxona tizimlarini yaratish nazariyasi va amaliy usullari, korporativ axborot-kutubxona tizimlar uchun model va algoritmlar, ma'lumotlarni intellektual tahlillash va qayta ishlash bo'yicha xorijiy olimlardan: D. McMenemy, A. Poulter, H. D. Avram, H. S. Atkinson, D. S. Culbertson, M. Z. Yakubova, G. A. Popov, A. G. Rayev, Ya. L. Shrayberg, F. S. Voroyskiy, R. P. Rodgers, A. A. Leontev, L. Zade, A. Xolmblad, B. Koskon, D. Dyubua, A. Parada, Ye. Mamdani, V. V. Ribin, B. Lyu, M. Djamshidi, B. Fazlollaxin, E. Mendelson, A. Leonenkov va boshqalarning ishlari ko'rib chiqilgan[1].

O'zbekistonda axborot-kutubxona muassasalarida kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish va elektron resurslarni yaratish hamda unda izlash masalalari bo'yicha T. F. Bekmurodov, A. O. Umarov, U. F. Karimov, M. A. Raxmatullayev, B. B. Mo'minov va boshqa qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan[2].

Yuqoridagi olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida ma'lum natijalarga erishilgan biroq, oliy ta'lim muassasalarida axborot-resurs markazlari faoliyatini xalqaro standartlar asosida transformatsiyalashni amalga oshrish ustida yetarlicha tadqiqod o'tkazilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasidagi ma'lumotlarni tahliliy o'rganish asosida ilmiy mushohada, absrakt-mantiqiy fikrlash, statistik, iqtisodiy va moliyaviy tahlil, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda oliy ta'lim sohasidagi islohotlar natijasida o'tgan 7 yilda oliy o'quv yurtlari soni uch barobarga va unda ta'lim olayotgan talabalar soni olti barobarga ko'paydi. O'quv jarayoni to'liq kredit-modul tizimiga o'tkazildi.

Talabalarning mustaqil o'qishi va tayyorlanishida muhim o'ringa ega bo'lgan kutubxonalarga bo'lgan ehtiyoj oshdi.

O'quv va ilmiy-tadqiqot jarayonini zamonaviy darslik, o'quv qo'llanma va adabiyotlar bilan ta'minlash, talabalar uchun ilg'or elektron ma'lumotlar bazalaridan foydalanish yuzasidan sharoitlar yaratildi.

Misol uchun, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida "Elektron kutubxona" platformasi yaratildi. Professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar va talabalarni a'zo qilish ishlari yakunlandi.

Markaz tomonidan Axborot-resurs markazlari faoliyati nazoratga olindi va ularni zamonaviy avtomatlashtirilgan kutubxona tizimi bilan ta'minlash ishlari muvofiqlashtirildi.

Bugungi kunda 116 ta davlat oliy ta'lim muassasalaridan 113 tasida Axborot-resurs markazlari mavjud bo'lib, yangi tashkil etilgan 3 ta muassasada bu borada ishlar olib borilmoqda.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan oliy ta'lim muassasalari rektorlariga Axborot-resurs markazlarini dasturiy ta'minot bilan ta'minlash yuzasidan qator salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda [2].

Misol tariqasida, 16 ta oliy ta'lim muassasalari Axborot-resurs markazlarida dasturiy ta'minot o'rnatilgan bo'lsa, hozirda ushbu ko'rsatkich 43 taga yetkazildi.

Shuningdek, IRBIS 64+ dasturiy ta'minot tizimi 9 tadan 17 taga, Respublikamizda ishlab chiqilgan Axborot kutubxonani boshqarish tizimi (AKBT) 7 tadan 13 taga yetkazildi. 13 ta oliy ta'lim muassasasi o'zlari tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy ta'minotdan amalda foydalanmoqda.

Kitob fondlari bilan operatsiyalarda inson omili ta'sirini kamaytirish, kitob fondi saqlanishini ta'minlash hamda ilmiy va ta'lim resurslariga tezkor kirish orqali ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirish maqsadida 7 ta davlat oliy ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlarida RFID qurilmalari o'rnatilgan. Buning natijasida talabalar, professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilar sifatli kutubxona xizmatidan foydalanmoqda.

Joriy yilda oliy ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlarini to'liq RFID qurilmalari bilan ta'minlash rejalashtirilgan [3].

Hozirda Axborot-resurs markazlarini avtomatlashtirilgan kutubxona tizimi bilan ta'minlashda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda: Jumladan,

a) axborot-resurs markazlarida o'rinlar soni va undagi mavjud moddiy-texnika baza foydalanuvchilar soniga nomuvofiq, ya'ni o'rinlar soni kam;

1 David McMenemy - Google Scholar / scholar.google.com›citations…

2 Avtomatlashtirilgan kutubxona: O'quv qo'llanma /U.Karimov, M.A. Rahmatullayev, A.O. Umarov, A.Sh. Muhammadiyev. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2003. - 266 b.

b) mavjud o‘quv zallari zamon talablariga mos holatda jihozlanmagan, jumladan, professor-o‘qituvchi va talabalarga dars qilish uchun zarur texnika va sovutish vositalari (konditsioner) hamda o‘quv zallari yumshoq mebellar bilan ta’minlanmagan;

d) vazirlik tasarrufidagi 15 ta oliy ta’lim muassasasining avtomatlashtirilgan kutubxona tizimi va RFID qurilmalarini xarid qilish bo‘yicha moliyaviy imkoniyatlari cheklangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mavjud muammolarni bartaraf etish va ish samaradorligini oshirish maqsadida qo‘yidagilar taklif etiladi:

1. Axborot-resurs markazlarida o‘rinlar sonini ko‘paytirish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida bo‘sh turgan binolar, mavjud binolarning yer to‘lalarini kutibxonaga moslashtirish (yer to‘lalardan foydalanish qoidalariga muvofiq) hamda moddiy-texnika bazani foydalanuvchilar soniga muvofiqlashtirish;
2. Mavjud o‘quv zallarini zamon talablariga mos holatda jihozlash, jumladan, professor-o‘qituvchi va talabalarning kitob o‘qishlari uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida zarur texnika va sovutish vositalari (konditsioner) hamda o‘quv zallarini yumshoq mebellar bilan ta’minlanlash;
3. Axborot-resurs markazlari xodimlari malakasini oshirish kurslari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
4. Vazirlik tasarrufidagi 15 ta oliy ta’lim muassasasining avtomatlashtirilgan kutubxona tizimi va RFID qurilmalarini xarid qilishga moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligini hisobga olib, oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan maqsadli mablag‘ ajratish;
5. Avtomatlashtirilgan kutubxona tizimlari uchun zarur bo‘lgan dastur va qurilmalarini xirid qilishga qobiliyati mavjud bo‘lgan 70 ta oliy ta’lim muassasalariga o‘zlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan (2023-yil xarajatlar smetasidan oshgan mablag‘lar hisobidan yoki 2024-yil xarajatlar smetasiga kiritish orqali) xarid qilish bo‘yicha ko‘rsatma berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avtomatlashtirilgan kutubxona: O‘quv qo‘llanma /U.Karimov, M.A. Rahmatullayev, A.O. Umarov, A.Sh. Muhammadiyev. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2003. - 266 b.
2. David McMenemy - Google Scholar / scholar.google.com›citations…
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PQ-4354-sonli qarori.
4. Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi hisobot materiallari.
5. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hisobot materiallari.

РАЗВИТИЕ ТРАНСПОРТНОЙ СФЕРЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ



Акбарова Лайло Упашевна
Ташкентский государственный транспортный университет,
старший преподаватель

Аннотация: В статье рассмотрены современные механизмы воздействия цифровизации на развитие транспортного сектора в современных условиях.

Ключевые слова: цифровизация, транспортные средства, инновационные процессы, автоматизация, эффективность, производственная сфера, аппарат управления.

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy sharoitda transport sektorini rivojlantirishga raqamlashtirishning zamonaviy mexanizmlarinung ta'siri ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, transport vositalari, innovatsion jarayonlar, avtomatlashtirish, samaradorlik, ishlab chiqarish sohasi, boshqaruv apparati.

Abstract: The article discusses the modern mechanisms of the impact of digitalization on the development of the transport sector in modern conditions.

Key words: digitalization, vehicles, innovative processes, automation, efficiency, production sphere, control apparatus.

ВВЕДЕНИЕ

Внедрение цифровых технологий в эту отрасль играет стратегическую роль для современного развития страны. Однако пока нет однозначной оценки потенциальных трансформаций, которые могут произойти в экономике Узбекистана в результате цифровизации, а также нет четкого понимания, как и в какие сроки эти трансформации проявятся.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРНЫХ ИСТОЧНИКОВ

В данной статье методологической основой были научные исследования современных отечественных ученых, таких как А.А.Гуламов, А.А.Саматов, Ж.А.Файзуллаев, Ф.А.Абдуллоева, Б.М.Каримов, Б.С.Алимов, Т.У.Кодиров, а также ученных ближнего и дальнего зарубежья, таких как Т.В.Авдиенко, А.Н.Дмитриевский, Т.Н.Юдина, J.E.Grunig, A.J.Ritchie, которые рассматривают цифровизацию как экономическое явление. Один из характерных признаков цифровизации в транспортной сфере заключается в ее неравномерном развитии в различных направлениях, несмотря на значительную потенциальную потребность в цифровизации.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В статье методами исследования выступают научная абстракция, эмпирическая, описательная статистика, группировка, сравнительный и динамический анализ.

АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ИССЛЕДОВАНИЯ

Активное использование цифровых технологий представляется наиболее перспективным способом повышения экономической эффективности данной сферы. В таблице 1 приведены наиболее распространенные направления применения цифровых технологий в транспорте.

Таблица 1: Направления использования цифровых технологий в транспортной сфере

Направление воздействия	Пример применения технологии
Электронный документооборот	Введение электронных билетов, дистанционное оформление проездных документов; создание “виртуальных офисов”, обслуживание клиентов без личного контакта
Дистанционная коммуникация	Использование цифровых коммуникационных технологий для живого дистанционного общения
Проведение оплаты	Мобильная оплата, единые проездные документы, использование мобильных приложений для получения транспортных услуг
Облачные технологии	Обработка данных на качественно новом уровне: сбор и анализ данных о транспортных потоках, использование технологий “big data”
Интегрированные системы управления транспортом	Реорганизация систем управления транспортом, их автоматизация; вовлечение клиента в процесс управления и контроля за грузом
Интеллектуальные транспортные системы	Автоматизация и роботизация контроля транспортных потоков, прогнозирование транспортной обстановки, поддержка систем автопилота
Платформы по оказанию логистических услуг	Создание цифровых платформ, ориентированных на предоставление логистических услуг, включая бронирование и заказ билетов, поиск перевозчика для грузов, выявление оптимального маршрута

Таким образом, цифровизация в транспортной сфере представляет собой неоднородный процесс, который может принести значительные преимущества в экономическом плане.

Действительно, транспортная отрасль является одним из наиболее подверженных влиянию процессов цифровизации в экономике. Это влияние можно разделить на две основные категории: поверхностные изменения, связанные с проникновением уже успешно апробированных технологий в транспортную сферу, и изменения, происходящие в самой технико-экономической базе транспортной инфраструктуры [11].

В первом случае цифровизация транспортной сферы означает внедрение технологий, которые уже успешно применяются в других отраслях, такие как анализ больших объемов данных (big data) и процессы интеллектуализации. Примером таких технологий являются интеллектуальные транспортные системы (ИТС), которые являются главным трендом технологического развития в отрасли. Во втором случае цифровизация транспортной сферы предполагает изменение самой технико-экономической основы производства. В настоящее время выделяются четыре ключевых направления процесса цифровизации в транспортной отрасли:

1) цифровизация транспортной инфраструктуры и логистических цепочек (в т.ч. складского хозяйства и сервисных центров);
2) роботизация производственных процессов;
3) масштабная автоматизация, в том числе управленческих процессов;
4) внедрение систем автопилота [14].

Рассмотрим данные процессы подробнее:

Цифровизация транспортной инфраструктуры и логистических цепочек, включая складское хозяйство и сервисные центры. Это включает в себя внедрение цифровых технологий для оптимизации и улучшения управления и координации в транспортной инфраструктуре.

- **Эти направления цифровизации имеют потенциал для значительного улучшения эффективности, безопасности и управления в транспортной отрасли.** Цифровизация транспортной инфраструктуры включает в себя вовлечение каждого этапа логистической цепочки и транспортных средств в цифровую сферу. Это достигается путем присвоения персональной идентификации каждому элементу через подключение к интернету и контроль программного обеспечения.
- **Масштабная автоматизация, включая управленческие процессы.** Цифровые технологии позволяют автоматизировать различные управленческие процессы, такие как управление персоналом, финансами, логистикой и другими аспектами работы транспортных компаний.
- **Автоматизация управленческих процессов в транспортной сфере является неотъемлемой составляющей современного транспортного управления.** Она позволяет справиться с высокой скоростью транспортных потоков и обеспечить принятие грамотных решений на основе точной информации, минимизируя риски возникновения критических ошибок.

- **Внедрение систем автопилота.** Развитие автономных и полуавтономных транспортных средств, включая автомобили, грузовики, поезда и дроны, является значимым аспектом цифровизации транспортной сферы.

Однако, вопросы законодательного регулирования и нормативных ограничений становятся препятствием для массового внедрения систем автопилота в различных видах транспорта. Несмотря на потенциальные преимущества в области безопасности и эффективности, законодатели сталкиваются с необходимостью разработки и установления строгих правил и норм, чтобы обеспечить надежность и минимизировать риски автоматизированных систем. На данный момент, беспилотные автобусы и другие подобные проекты находятся на стадии экспериментов и пилотных программ в различных странах. Такие проекты помогают собирать данные, оценивать преимущества и возможные риски, а также выстраивать законодательный и регуляторный фреймворк для будущего внедрения автопилотных систем в общественном транспорте. Внедрение систем автопилота в различных сферах транспорта уже имеет технологическую базу, однако ограничения, связанные с законодательной и нормативной сферой, пока сдерживают их массовое применение.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИХ ОБСУЖДЕНИЕ

Цифровизация, как явление, связанное с проникновением цифровых технологий в транспортную сферу, определена и изучена на протяжении длительного времени. Фактически, можно утверждать, что начало интеграции цифровых технологий в транспортную сферу совпало с появлением электронно-вычислительных устройств. За долгий период прошло множество проектов, реализованных как на уровне государственных инициатив, так и на уровне частных компаний (см. таблица 2).

Таблица 2: Примеры цифровых технологий в транспортной сфере

Технология	Функции
SARTRE	Создание пассажирских транспортных средств с централизованным дистанционным управлением, обеспечивающих безопасность для пешеходов и окружающей среды
Open Shuttle	Интерактивная система автоматической комплектации груза с использованием тележек
Pick by light	Использование световых указателей для упрощения работы роботизированных транспортных средств
Put by Beamer	Автоматизированная технология приема и распределения грузов на складе
Автоматизированные портовые комплексы	Использование автоматизированных складских систем в морских портах, особенно в контейнерных терминалах

Важно отметить, что цифровизация транспортной сферы оказала значительное влияние на ее технологическое развитие. Проекты, реализованные в этой области, включали в себя широкий спектр инновационных решений и применение передовых технологий. Такие проекты не только повысили эффективность и надежность транспортных систем, но и существенно улучшили условия для пассажиров и грузоперевозок.

Необходимо отметить, что использование автоматизированных транспортных систем остается предметом активных дискуссий, и в обществе пока еще нет единого мнения по этому вопросу. Существуют угрозы и риски, которые являются непосредственными последствиями автоматизации в транспортной отрасли. К ним относятся:

- Возможный массовый рост безработицы среди водителей, которые могут потерять возможность трудоустроиться по своей профессии.
- Сложности в определении ответственности в случае страхового случая, когда автоматизированные транспортные средства участвуют в происшествии.
- Риск сбоев программного обеспечения, который может привести к потере контроля над управляемым транспортным средством.

Тем не менее, внедрение таких технологий также приносит ряд явных преимуществ (диаграмма 1):

- Повышение эффективности в транспортной сфере в целом, что включает снижение затрат на топливо, увеличение пропускной способности дорог, сокращение аварийности, снижение числа пострадавших в авариях и уменьшение повреждений грузов при перевозках.
- Снижение затрат на оплату труда водителей и других сотрудников, чьи должности будут автоматизированы.
- Уменьшение времени простоя транспортных средств.
- Исключение возможности человеческой ошибки, так называемого “человеческого фактора”, благодаря использованию автоматизации.




Рис. 1: Рейтинг преимуществ внедрения цифровых технологий в транспортной сфере

Важным трендом является то, что искусственный интеллект (ИИ) становится универсальной технологией для транспорта. К тому же, сами люди, включая обычных граждан, все более оснащаются различными технологиями, в основном благодаря смартфонам. Мобильные устройства и их широкое распространение позволяют переосмыслить взаимодействие транспортной сферы с пользователями. Появление таких сервисов, как Uber, и понятия “уберизации” кардинально изменили основные принципы предоставления услуг в транспортной отрасли.

Роботизация в транспортной сфере отличается своей спецификой, которая выделяет ее среди других секторов экономической деятельности. В частности, роботизация часто рассматривается как процесс создания и использования физических машин, способных имитировать человеческие действия. Однако автономные системы на самом деле охватывают гораздо более широкий спектр направлений. Более точное определение роботизации состоит в разработке и применении самоконтролирующихся адаптивных интеллектуальных систем, способных выполнять свои производственные функции независимо от степени вмешательства человека.

В транспортной сфере роботизация включает в себя как внедрение автономных транспортных средств, так и автоматизацию производства и использование оборудования, работающего без участия человека. Следующие типы роботизированной техники выделяются в транспортной отрасли:

1) роботы, работающие в человеческой среде;
2) роботизированные производственные системы, не требующие вмешательства человека;
3) автономные транспортные средства [12].

Применительно к конкретным примерам можно отметить, что автономные системы уже давно используются на станциях технического обслуживания, как в автомобильном, так и в железнодорожном транспорте. Накопленный опыт позволяет в будущем расширить применение таких технологий на все компоненты транспортной сферы, особенно с учетом возрастающего вовлечения технологий искусственного интеллекта (ИИ). Например, в железнодорожной отрасли автоматизированные автономные системы могут использоваться для контроля состояния рельсов. Это снижает риск и не требует привлечения дополнительных рабочих, а также позволяет осуществлять контрольные работы в любое время суток с одинаковой эффективностью. Железнодорожная инфраструктура предоставляет благоприятные условия для внедрения роботизированных систем. С их помощью можно проводить регламентные работы, такие как уборка, распределение соли и укрепление насыпи.

Автономные станции также обеспечивают удобное размещение сканирующих устройств и другого оборудования для тестирования состояния полотна, рельсов и путевой инфраструктуры [9]. Это позволяет проводить более точное и систематическое тестирование, а также собирать данные для анализа и принятия решений по обслуживанию и ремонту.

Использование беспилотных летающих аппаратов, известных как дроны, представляет отдельный вопрос, который еще не имеет четких правовых основ в большинстве стран и ограничен в своем применении. Тем не менее, потенциал использования дронов в транспортной сфере огромен. Они могут быть эффективно применены для выполнения различных задач, таких как аэрофотосъемка, постоянный мониторинг и сопровождение грузов. С развитием технологий, мощность дронов постоянно увеличивается, что в скором времени позволит использовать их для транспортировки людей и грузов в удаленные районы.

Возможность управления большим количеством дронов, образуя “роевых роботов”, т.е. координацию их действий одним оператором или искусственным интеллектом, открывает перспективы для выполнения ремонтных работ и других сложных задач. В настоящее время дроны преимущественно используются для внешнего наблюдения. Например, в Германии патрульные дроны применяются для наблюдения за участками железнодорожного полотна с целью выявления нарушителей и вандалов. Однако потенциал дронов расширяется настолько, что они могут стать новым видом транспорта.

Применение новых цифровых технологий, таких как дроны и роботизированные костюмы (экзоскелеты) для работников, имеет практическую пользу и позволяет решить более срочные и важные задачи. Использование таких приспособлений позволяет работникам выполнять тяжелые задания и снижать риск для их здоровья при работе в условиях высокого напряжения или опасных средах, например, при прокладке туннелей.

Снижение уровня преступности и рисков на транспорте является важной задачей. Применение технологий распознавания лиц и дистанционной идентификации личности позволяет создавать зоны полной безопасности вокруг ключевых транспортных объектов. В международных аэропортах уже применяются такие подходы, включающие всестороннюю видеосъемку, использование дронов и единую информационную систему, которая обрабатывает полученные данные и позволяет идентифицировать почти каждого человека в толпе пассажиров. Это не только снижает потенциальные угрозы на транспортных объектах, но и помогает решать более обыденные задачи, такие как отслеживание недобросовестных пассажиров, которые могут наносить ущерб имуществу и создавать проблемы.

Выводы и предложения. Процессы роботизации и внедрения автоматических систем в транспортную сферу обладают значительным потенциалом для охвата практически всех ее аспектов, включая логистику и обслуживание клиентов. Цифровые технологии, в свою очередь, предоставляют возможность создания автономных транспортных средств для различных видов транспорта. На данный момент уже наблюдается автоматизация портовой инфраструктуры, особенно в области обработки контейнеров, где функционируют терминалы, работающие практически без участия человека. Таким образом, все компоненты логистической цепочки, включая сведение информационных потоков и осуществление контроля, могут быть автоматизированы с использованием автоматических систем. Несмотря на то, что полностью автономные морские суда пока находятся в далекой перспективе, уже можно говорить о потенциале создания “виртуального логиста” − программы, способной организовывать работу транспортных узлов.

В Республике Узбекистан процессы цифровизации не остались незамеченными ни для государственных органов власти, ни для частного сектора. Страна реализует ряд мер, направленных на подготовку экономики и общества к процессам цифровизации. Одной из таких инициатив является “Стратегия развития информационного общества в Республике Узбекистан”, утвержденная Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиёевым в январе 2019 года, которая признает цифровые технологии как важный фактор для глобального лидерства компаний Узбекистана. В этой стратегии предусмотрены конкретные меры, направленные на распространение цифровых технологий, такие как нормативное регулирование, подготовка кадров и реорганизация системы образования, а также развитие научно-технической сферы. Государство также играет роль в содействии проникновению цифровых технологий, развитии инфраструктуры и обеспечении информационной безопасности граждан [7, с. 121].

На данный момент цифровые платформы уже применяются в транспортной сфере, хотя они пока не настолько универсальны, как электронные площадки. В логистике уже используются специализированные локальные цифровые платформы для планирования перевозочного процесса и организации сотрудничества между различными видами транспорта и логистическими центрами. Цифровые платформы способствуют координации обработки грузов на складах и обеспечивают эффективную коммуникацию с конечными пользователями.

В транспортной сфере цифровые платформы объединяют все посреднические функции. С их помощью конечные потребители могут непосредственно взаимодействовать с поставщиками, а плат-

TARAQQIYOT PROGRESS

форма предоставит им необходимый инструментарий для управления перемещением товаров. Иными словами, такой тип цифровых платформ способен интегрировать все логистические и прочие процессы в единую систему, связывать потребителей с производителями и брать на себя управление всеми дополнительными функциями.

Цифровизация логистической сферы представляет собой и вызов для ее участников. Процесс цифровизации может привести к изменениям на рынке, с которыми все его участники столкнутся. Одним из самых серьезных вызовов является появление рынка, контролируемого одним монополистом, известным как модель “победитель получает все”. Это означает, что интеграция в каждом сегменте рынка достигает такого уровня, что возникает один крупный монополист. Примером такого монополиста на рынке электронной коммерции является Amazon. Появление такого монополиста делает остальных участников рынка крайне зависимыми от его лидерства. Подобные процессы можно также наблюдать в транспортной сфере, где логистические компании все больше зависят от сектора электронной коммерции, таких как интернет-биржи и интернет-магазины.

Большинство ученых, занимающихся этой проблематикой, считают, что в будущем доставка товаров, включая все виды товаров, будет осуществляться непосредственно от склада, принадлежащего крупнейшему интернет-магазину, клиенту, минуя розничную сеть. Традиционные “магазины у дома” будут заменены пунктами выдачи предварительно заказанных товаров. Важным аспектом этого процесса является то, что интернет-магазины будут продавать не только товары, но и услуги доставки. Таким образом, на рынке логистических услуг останутся только те компании, которые будут интегрированы с крупнейшими площадками по продажам. Именно крупнейшие участники рынка электронной коммерции будут определять, кто останется на рынке и какую прибыль они получат. При этом такие компании даже могут не иметь собственных физических активов.

Использованная литература:

1. Абдюшева Д.Р., Меренков А.О., Степанов А.А. Условия построения маркетинговой системы “цифрового” транспорта и логистики в управлении конкурентоспособностью. //Управление, 2018, №3, с. 21-27.
2. Авдеенко Т.В., Алетдинова А.А. Цифровизация экономики на основе совершенствования экспертных систем управления знаниями. // Научно-технические ведомости Санкт-Петербургского государственного политехнического университета. Экономические науки, 2017, №10. – С. 47-55.
3. Akberdina V., Kalinina A., Vlasov A. Transformation stages of the Russian industrial complex in the context of economy digitization. // Problems and Perspectives in Management, 2018, №16(4). – С. 201-211.
4. Зозуля Д.М. Цифровизация российской экономики и Индустрия 4.0: вызовы и перспективы. // Вопросы инновационной экономики, 2018, №1. – С. 1-14.
5. Емельянов Н.В. Цифровизация экономики как фактор обеспечения национальной безопасности России. // Экономический рост: проблемы, закономерности, перспективы, 2019, №5. – С. 89-93.
6. Schwer K., Hitz C., Wyss R., Wirz D., Minonne C. Digital maturity variables and their impact on the enterprise architecture layers. // Problems and Perspectives in Management, 2018, №16(4). – С. 141-154. DOI:10.21511/ppm.16(4).2018.13.
7. Кодиров Т.У. Цифровые технологии как фактор повышения конкурентоспособности транспортных услуг. // Проблемы науки. 2021. №5 (64). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovye-tehnologii-kak-faktor-povysheniya-konkurentosposobnosti-transportnyh-uslug (дата обращения: 27.08.2023).
8. Коряков А.Г. Цифровизация российской экономики как актуальная задача государственного управления. // Актуальные проблемы развития экономики в современных условиях, 2018, №4. – С. 119-125.
9. Ларин О.Н, Куприяновский В.П. Вопросы трансформации рынка транспортно-логистических услуг в условиях цифровизации экономики. // International Journal of Open Information Technologies, 2018, №5. – С. 31-35.
10. Меренков А.О. Цифровая экономика: управление на транспорте и интеллектуальные транспортные системы. // E-Management, 2018, №1. – С. 11-19.
11. Меренков А.О. Индустрия 4.0: немецкий опыт развития цифрового транспорта и логистики. // Управление, 2017, №4. – С. 15-22.
12. Плотников В.А. Цифровизация производства: теоретическая сущность и перспективы развития в российской экономике. // Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета, 2018, №3. – С. 42-47.
13. Строева О. А. Трансформация национальной экономики: деструктивное развитие и цифровизация. // Арригиевские чтения по теме: “Формирование новой парадигмы экономического мышления XXI века”, 2018. – С. 289-294. URL: https://elibrary.ru/item.asp?id=%2035071423.
14. Тугашев А.А. Экономика и логистика в условиях цифровизации транспортной отрасли. // Тренды экономического развития транспортного комплекса России: Форсайт, прогнозы и стратеги, 2018. №2. – С. 44-53. URL: https://elibrary.ru/item.asp?id=%2037304688.
15. Юдина Т.Н. Цифровизация в контексте сопряженности Евразийского экономического союза и Экономического пояса Шелкового пути. // Философия.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING 2024-YILGI SOLIQ QONUNCHILIK HUJJATLARIGA KIRITILGAN ASOSIY O‘ZGARISH VA SOLIQ IMTIYOZLARI BERISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Normurzayev Umid Xolmurzayevich
DSc, YSTBI Davlat soliq bosh inspektori

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasining 2024-yilgi soliq qonunchilik hujjatlariga kiritilgan asosiy o‘zgarish va soliq imtiyozlari berish tartibini takomillashtirish ularga yangicha yondashuvlarni joriy etish orqali bozor xizmatlari hajmini oshirish, aholiga yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlari kengaytirish muhum vazifalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida iqtisodiyotni erkinlashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda ularga teng raqobat sharoitlariga ega bo‘lgan yagona iqtisodiy makonni shakllantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, soliq imtiyozlari va boshqa berilayotgan yengilliklar aniq maqsadlarga yo‘naltirilayotganiga qaramasdan, ularning samaradorligini baholashning tizimi ishlab chiqilmagan.

Kalit so‘zlar: budjet siyosati, inqiroz, budjet, soliq imtiyozlari, soliq ma’murchiligi, tadbirkorlik subyektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq, soliq stavkasi, preferensiyalar.

Abstract: Issues of improving the order of the Republic of Uzbekistan on the main changes and tax benefits introduced into the tax legislation of 2024. One of the important tasks is to increase the volume of market services by introducing new approaches to them, expanding opportunities to create new jobs for the population, improving the procedure for major changes and tax benefits introduced into the tax legislation of the Republic of Uzbekistan for 2024. In recent years, large-scale measures have been implemented to liberalize the economy, support entrepreneurship and form a single economic space with conditions of equal competition with the aim of rapid socio-economic development of the country. Also, despite the fact that tax benefits and other benefits provided are aimed at specific purposes, a system for evaluating their effectiveness has not been developed.

Key words: budget policy, crisis, budget, tax benefits, tax administration, business entities, tax reporting, tax revenues, tax benefits, taxes, tax rates, preferences.

Аннотация: Вопросы совершенствования порядка Республики Узбекистан по основным изменениям и налоговым льготам, введенным в налоговое законодательство 2024 года. Одной из важных задач является увеличение объема рыночных услуг за счет внедрения новых подходов к ним, расширение возможностей по созданию новых рабочих мест для населения, совершенствование процедуры основных изменений и налоговых льгот, вносимых в налоговое законодательство Республики Узбекистан на 2024 год. В последние годы были реализованы масштабные меры по либерализации экономики, поддержке предпринимательства и формированию единого экономического пространства с условиями равной конкуренции с целью быстрого социально-экономического развития страны. Также, несмотря на то, что налоговые льготы и другие предоставляемые льготы направлены на конкретные цели, система оценки их эффективности не разработана.

Ключевые слова: бюджетная политика, кризис, бюджет, налоговые льготы, налоговое администрирование, хозяйствующие субъекты, налоговая отчетность, налоговые поступления, налоговые льготы, налоги, налоговые ставки, преференции.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda iqtisodiy siyosatining eng muhim elementlaridan biri – soliq siyosatini yanada liberallashtirish, soliqqa tortish tartibini soddalashtirish, soliq yukini pasaytirish, xo'jalik subyektlarining huquq va erkinliklarini himoya qilishni amalga oshirish hisoblanadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli soliq islohotlarining natijasida aholi real daromadlari o'sishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan yangilash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzu doirasida asosiy o'rganiluvchi iqtisodiy kategoriya soliq imtiyozlari tushunchasi bo'lib, soliq imtiyozlariga nisbatan berilgan ta'riflarga batafsil to'xtalsak.

Nezamaykin va Yurzinovalar (2004) – soliq imtiyozi – boshqa to'lovchilarga nisbatan soliq to'lovchilarga soliq to'lovchilarning alohida toifalariga soliq qonunchiligida ko'zda tutilgan afzalliklarning, jumladan, soliq yoki yig'imini to'lamaslik yoki kichikroq hajmda to'lash imkoniyatining berilishi deydi [1].

Mayburov (2011) soliq imtiyozlarini qonun xujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lash muddatini o'zgartirish bo'yicha imtiyozlar olishga imkon beruvchi imtiyozlar hamda ular bir nechta shakllarga ajratiladi: soliq krediti, investitsion soliq imtiyozi, soliq ta'tili [2].

Milyakova (2008) – soliq imtiyozi – soliq to'lovchilarning alohida toifalariga boshqa soliq to'lovchilar bilan taqqoslaganda afzalliklar taqdim etish, jumladan soliq yoki yig'imni to'lamaslik yoki ularni ozroq miqdorda to'lash imkoniyati [3].

Raxmatullaeva (2016) soliq imtiyoziga kategoriya sifatida quyidagicha ta'rif bergan: "imtiyozlar – bu iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida soliq to'lovchining soliq majburiyatlarini qonun tomonidan belgilangan shaklda butunlay yoki qisman kamaytirishning yo'llari, huquqlari va majburiyatlari majmuidir" [4].

Jo'rayev va boshqalar (2009) soliq imtiyozlari – soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil yengilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin [5].

Shuning bilan, soliq imtiyozlarini taqdim etish, ularni tizimlashtirish, ularning joriy qilinishi natijasida raqobat muxitining murrakablashib borishi yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borishi lozim bo'lgan muammolar mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, soliq imtiyozlariga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim Qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi O'RQ-891-sonli Qonuni, "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-886-sonli Qonuni, O'zbekiston Respubikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi PF-221-sonli Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-422-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu normativ huquqiy hujjatlarga asosan soliq qonunchiliga quyidagi qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.Jumladan soliq kodeksining 46-moddasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

Xususan, Soliq kodeksining 17-moddasida ko'rsatilgan yig'imlarning turlariga yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo'lgan avtotransporti vositalari va tirkamalarning avtomobil yo'llari bo'ylab harakatlanish huquqi uchun yig'im turi kiritildi. Shu munosabat bilan Soliq kodeksining 455, 456, 457, 458 va 460-moddalariga tegishli o'zgartirishlar kiritildi.

2024-yil uchun yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo'lgan yuk avtotransport vositalari va tirkamalarining avtomobil yo'llari bo'ylab harakatlanishi huquqi uchun yig'imlar stavkalari quyidagicha belgilandi:

- yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan 25 tonnagacha bo'lgan N2, N3 toifasidagi avtotransport vositalari va O4 toifasidagi tirkamalar uchun yig'im bazaviy hisoblash miqdorining 5 barobari miqdorida ya'ni 1 700 000 so'm qilib belgilandi.

- yuk ko‘tarish quvvati 25 tonnadan 35 tonnagacha bo‘lgan N2, N3 toifasidagi avtotransport vositalari va O4 toifasidagi tirkamalar uchun yig‘im bazaviy hisoblash miqdorining 8 barobari miqdorida, ya’ni 2 720 000 so‘m qilib belgilandi.
- yuk ko‘tarish quvvati 35 tonna va undan yuqori bo‘lgan N2, N3 toifasidagi avtotransport vositalari va O4 toifasidagi tirkamalar uchun yig‘imbazaviy hisoblash miqdorining 10 barobari miqdorida, ya’ni 3 400 000 so‘m qilib belgilandi.

Yig‘im Transport vazirligi hududiy boshqarmalari tomonidan yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan og‘ir avtotransport vositalari va tirkamalariga qonunchilikda belgilangan tartibda avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanish huquqini beruvchi ruxsatnoma berish chog‘ida undiriladi. Bunda, to‘langan yig‘im yuk avtotrasport vositalari va tirkamalariga avtomobil yo‘llari bo‘ylab bir yil davomida harakatlanish huquqini beradi.

Yig‘imning 90 foizi -Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi faolitini rivojlantirish va qo‘llab quvvatlash jamg‘armasiga, 10 foizi- Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg‘armasiga tushadi.

Mazkur yig‘im og‘ir yuk mashinalari tomonidan yetkazilayotgan zararlarni qoplash maqsadida joriy etildi. Chunki og‘ir yuk mashinalari tomonidan Respublika va mahalliy darajadagi yo‘llardan foydalanishda ularni yaroqsiz holga keltirish holatlari ko‘plab uchramoqda.

Soliq kodeksining Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari to‘g‘risidagi 22-moddasi soliq hisobotlarining va soliqlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarni uch yil mobaynida but saqlanishini belgilandi. Ilgari mazkur muddat 5 yil edi.

Soliq kodeksining 84-moddasidagi Soliq hisobotini va unga ilova qilinadigan hujjatlarni saqlash muddati besh yildan uch yilga qisqartirildi. Soliq kodeksining 88-moddasidagi Soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddatlari soliq davri tugaganidan keyin besh yildan uch yilga qisqartirildi. Soliq organi yoki boshqa vakolatli organ soliq tekshiruvini o‘tkazishga, tekshiruv natijalari bo‘yicha soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish to‘g‘risida talabnoma yuborishga yoki soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar miqdorini qayta ko‘rib chiqishga haqli bo‘lgan muddat soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati hisoblanadi. Soliq kodeksining 104-moddasidagi Ortiqcha to‘langan soliq summasini hisobga olish yoki qaytarish to‘g‘risidagi ariza ko‘rsatilgan summa to‘langan kundan e’tiboran uch yil ichida berilishi mumkin. Mazkur muddat besh yil edi. Soliq kodeksining 105-moddasidagi ortiqcha undirilgan soliqni hisobga olish yoki qaytarish tartibidagi ortiqcha undirilgan soliq summasini undan soliq ortiqcha undirilgani fakti o‘ziga ma’lum bo‘lgan kundan yoki sud qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran hisobga olish yoki qaytarish to‘g‘risidagi ariza berish muddatini besh yildan uch yilga qisqartirildi. Soliq kodeksining transfert narxini belgilashda soliq nazorati to‘g‘risidagi 194-moddasida tekshirish o‘tkazish muddati tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan yildan avvalgi “besh” kalendar yildan “uch” kalendar yiliga qisqartirildi. Soliq kodeksining transfert narxini belgilashda soliq nazorati to‘g‘risidagi 195-moddasida tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror soliq to‘lovchi tomonidan soliq organiga nazorat qilinadigan bitimlar to‘g‘risida bildirishnoma yoki xabarnoma olingan kundan e’tiboran uch yildan kechiktirmay chiqarilishi mumkinligi belgilandi.

Mazkur moddaning to‘rtinchi qismdagi soliq summasi soliq hisobotida ilgari berilganidan ko‘ra kam miqdorda (zarar summasi – kattaroq miqdorda) aks ettirgan holda aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etgan bo‘lsa, tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror ushbu aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilgan kundan e’tiboran uch yildan kechiktirmay chiqarilishi mumkin. Bunda tekshiruv faqat tuzatish kiritish amalga oshirilgan nazorat qilinadigan bitimga nisbatan o‘tkaziladi. Bu holatda ham besh yillik muddat uch yilga qisqartirildi. Soliq kodeksining 217-moddasidagi javobgarlikka tortish muddatining o‘tishi agar soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan kundan e’tiboran yoki mazkur huquqbuzarlik sodir etilgan soliq davri tugaganidan keyingi kundan e’tiboran va javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan paytga qadar uch yil (o‘tish muddati) o‘tgan bo‘lsa, shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emasligi belgilandi.

Bu holatda ham besh yillik muddat uch yilga qisqartirildi. Soliq kodeksining yakka tartibdagi tadbirkorlarning Soliq solinadigan daromadlarni va chegiriladigan xarajatlarni hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi 359-moddasidagi soliq solinadigan daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorda oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e’tiboran besh yil mobaynida saqlanish sharti uch yilga almashtirildi.

Bu holatda ham besh yillik muddat uch yilga qisqartirildi. Mazkur o‘zgartirishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarida belgilab belgilangan soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddatini besh yildan uch yilga qisqartirilishi munosabati bilan kiritildi. Soliq kodeksining 100-moddasidagi Soliqlarni to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish shartlariga kameral soliq tekshiruv natijalari bo‘yicha qo‘shimcha hisoblangan soliqlar summalarini soliq organi tomonidan qabul qilingan qaror kuchga kirgan kundan e’tiboran olti oy mobaynida teng ulushlarda bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berildi. Soliq kodeksining Kameral soliq tekshiruvlari to‘g‘risidagi 138-moddasida quyidagi tahrirda ikkinchi qism bilan to‘ldirildi.

Kameral soliq tekshiruvida quyidagi soliq nazorati harakatlarini o‘tkazish ta’qiqlanadi, bundan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) maqsadida o‘tkaziladigan kameral soliq tekshiruvi mustasno:

1) soliq to‘lovchining hududiga kirish;

2) soliq to‘lovchining hududini va binolarini ko‘zdan kechirish;

3) soliq to‘lovchidan hujjatlarni talab qilib olish va uni chaqirtirish;

4) soliq to‘lovchining hujjatlari va buyumlarini olib qo‘yish.

Kodeksning 138-moddaning o‘n birinchi va o‘n ikkinchi qismlari kameral soliq tekshiruvi jarayonida soliq organi soliq to‘lovchidan (soliq agentidan, uchinchi shaxsdan) hisobga olish hujjatlarini, taqdim etilgan soliq hisobotiga va hisobga olish hujjatlariga doir tushuntirishlarni, shuningdek soliq hamda yig‘imlarni hisoblab chiqarish va to‘lash bilan bog‘liq boshqa axborotni so‘rab olishi mumkin, So‘ralgan hujjatlar va tushuntirishlar soliq organiga tegishli so‘rov olingan kundan e’tiboran besh kun ichida taqdim etilishi kerak degan qismlari chiqarib tashlandi. Bunda kameral soliq tekshiruvi soliq organlarida mavjud ma’lumotlar asosida tadbirkorlik subyektining ishtirokisiz soliq organining o‘zida o‘tkazilishi (bundan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qaytarishda o‘tkaziladigan kameral soliq tekshiruvlari mustasno) nazarda tutilgan. Soliq organlarining soliq to‘lovchining hududiga kirish, soliq to‘lovchining hududini va binolarini ko‘zdan kechirish, soliq to‘lovchidan hujjatlarni talab qilib olish va uni chaqirtirish, soliq to‘lovchining hujjatlari va buyumlarini olib qo‘yish huquqlari bekor qilindi. Soliq kodeksining 237-moddasidagi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari safiga O‘zbekiston Respublikasi realizatsiya qilish joyi deb etilgan taqdirda chet davlatlarning qonunchiligiga muvofiq tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar ham qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi sifatida qo‘shildi

Mahalliy yakka tartibdagi tadbirkorlar xizmat ko‘rsatganda QQS to‘lamoqda, lekin xuddi shu xizmatlarni chet ellik tadbirkorlar (jismoniy shaxs) ko‘rsatganda QQSga tortilmasdan qolmoqda. Ushbu tartibni joriy etilishi xorijiy va mahalliy yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun bir xil sharoit yaratish imkonini beradi. Soliq kodeksining 243-moddasi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashdan ozod qilinadigan tovar aylanmalaridan 11,12,13-bandlari, ya’ni tibbiy xizmatlar, veterinariya xizmatlari va dori vositalarini sotish bo‘yicha aylanmalar chiqarib tashlanmoqda. Bunda “Ijtimoiy reyestr”ga kiritilgan fuqarolarga QQS summasi (12 foiz) “keshbek” sifatida qaytarish mexanizmi yaratiladi.

Soliq kodeksining 246-moddasida 11-bandidagi qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadigan import qilinadigan mahsulotlar ro‘yxatidan dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalarini, veterinariya dori vositalarini, tibbiyot va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlarni ishlab chiqarish uchun qonunchilikda belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha olib kiriladigan xom ashyolar chiqarib tashlandi. Soliq kodeksining ayrim hollarda nol darajali stavkaning qo‘llanilishi 264-moddasidagi uchinchi qism suv ta’minoti, kanalizatsiya, sanitariya jihatdan tozalash, issiqlik ta’minoti bo‘yicha aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilishga doir aylanmaga, shu jumladan bunday xizmatlarni uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan aholi nomidan, shuningdek idoraviy uy-joy fondi uylarida yashayotgan aholi uchun O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining bo‘linmalari tomonidan olishga, nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadi degan qismi chiqarib tashlandi. Endilikda bur turdagi tovar aylanmasiga 12 foizlik stavkada qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanadi.

Soliq kodeksining soliqqa tortish maqsadida jismoniy shaxslarning jami daromadlariga kiritilmaydigan daromadlar to‘g‘risidagi 369-moddasi ikkinchi qism bilan to‘ldirildi va ikkinchi qism uchinchi qism deb nomlandi.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida yoki tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida yuz million so‘mdan oshgan kundan e’tiboran Soliq kodeksi maqsadida yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda soliqqa tortiladi. Bunda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar ijtimoiy soliqni Soliq kodeksida belgilangan tartibda to‘laydi. Bir xil faoliyat turlarini amalga oshiruvchi o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatidan ro‘yxatdan o‘tganlar umuman soliq to‘lamay, lekin xuddi shu faoliyatni amalga oshiruvchi YATTlar soliq to‘lar edi. Misol uchun: Farg‘ona viloyati, Toshloq tumanida “Milliy non va patirlarni tayyorlash va sotish” faoliyati bilan shug‘ullanuvchi o‘zini o‘zi band qilgan fuqaro M. Isakova 2023-yil yanvar-avgust oylarida 817,7 mln so‘mlik tovar aylanmasini amalga oshirgan. Xuddi shunday faoliyati bilan shug‘ullanayotgan YATT ushbu miqdordagi tovar aylanmadan 4 foizli stavkada 33 mln so‘m aylanmadan olinadigan soliqni to‘laydilar. Mazkur o‘zgarish yakka tartibdagi tadbirkor va o‘z-o‘zini band qilgan shaxslar uchun soliq solishda teng sharoitlar yaratish maqsadida kiritildi.

Soliq kodeksining jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari to‘g‘risidagi 378-moddasi 16-bandi ikkinchi xatboshi o‘zining, shuningdek yigirma olti yoshga to‘lmagan farzandlarining yoki erining (xotinining) ta’lim olishi uchun to‘lov degan qismi o‘zining, farzandlarining va shuningdek yigirma olti yoshga to‘lmagan erining (xotinining) ta’lim olishi uchun to‘lov bilan almashtirildi. Ya’ni farzandlarining yigirma olti yosh-

gacha bo‘lgan chegara olib tashlandi. Endilikda farzandlari yoshidan qat’iy nazar ota ona tomonidan o‘qishi uchun to‘langan to‘lov kontraktlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ozod qilinadi.

Soliq kodeksining 378-moddasi quyidagi 22 va 23-bandlar bilan to‘ldirildi.

22) aksiyalar ommaviy joylashtirilganda korxonalar xodimlari tomonidan o‘z xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejasi doirasida aksiyalarni sotib olishga yo‘naltiradigan oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlaridan oshmaydigan mablag‘lari;

23) soliq to‘lovchilarning ish haqi va boshqa daromadlarining mahalliy fond bozorida emissiya qilingan qimmatli qog‘ozlarni sotib olish uchun shaxsiy investitsiya hisobvarag‘iga yo‘naltiriladigan qismi, quyidagi shartlarda:

- soliq davri davomida jami mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining yuz baravarigacha bo‘lgan miqdorda;
- to‘lovlar o‘sib bormaydigan tartibda to‘langanda va bir yo‘la to‘lanadigan to‘lovlar shartnoma davri boshlanishi sanasidan o‘n ikki oy ichida qaytarib olmaslik sharti bilan;

Mazkur bandning shartlari buzilganda yoxud shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganda va mablag‘lar to‘liq yoki qisman qaytarilganda, qaytarilgan mablag‘lar to‘lov manabida soliqqa tortiladi.

Soliq kodeksining 411-moddasining soliq solish obyekti hisoblanmaydigan ko‘chmas mulk obyektlari ro‘yxatiga ko‘p kvartirali uylarda joylashgan ko‘p kvartirali uy mulkdorlarining umumiy mol-mulki qo‘shildi. 2024-yilda uy-joy fondining ko‘chmas mulk obyektlariga shuningdek, ular egallab turgan yer uchastkalariga nisbatan 2018-yilda belgilalangan kadastr qiymati asosida hisoblangan jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi 2023-yil hisoblangan soliq summasidan 1,3 baravardan oshmasligi belgilandi:

Jismoniy shaxslar uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yer solig‘i summasi 2023-yilda hisoblangan summaning 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi belgilandi. (PQ522 29.12.2023). Soliq kodeksining 412-moddasi birinchi qismi 1-bandi yashash uchun mo‘ljalanmagan ko‘chmas mulkning mol-mulk solig‘ining soliq solish bazasi 1 kv. metr uchun belgilangan mutlaq miqdorlar eng kam qiymati quyidagi miqdorlarda belgilandi.

Toshkent shahrida 3 million so‘m belgilandi, 2023-yilda 2,5 mln. so‘m edi, Nukus shahrida va viloyat markazlarida - 2 million, 2023-yilda 1,5 mln. so‘m edi, Boshqa shaharlarda va qishloq joylarda 1,2 millon so‘m, 2023-yilda 1,5 mln. so‘m edi. Ya’ni, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk bo‘yicha 1 kv.metri soliqqa tortish bazasi yuqoridagi qiymatdan past bo‘lishi mumkin emas.

Soliq kodeksining 420-moddasiga soliqqa tortish maqsadida yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulklar bo‘yicha jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘iga tortish bazasi yuridik shaxslardagi kabi 1 kv metri uchun belgilangan mutlaq qiymatdan past bo‘lmaslik sharti belgilandi. Mazkur tartib yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishda, ularni jismoniy yoki yuridik shaxsga tegishli bo‘lishidan qat’i nazar teng sharoitlar yaratildi. Shuningdek, Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni 1 kv. metr ko‘chmas mulkning minimal qiymatidan kelib chiqib to‘lash joriy etilishi bilan amalda yuridik shaxslar tomonidan kamroq soliq to‘lash maqsadida jismoniy shaxslarga ko‘chmas mulkni qayta ro‘yxatdan o‘tkazish holatlari oldi olindi.

Soliq kodeksining 434-moddasining “yer solig‘ining soliq solish obyekti hisoblanmaydi”- degan qismiga Ko‘p kvartirali uylar egallagan va ko‘p kvartirali uylar mulkdorlariga umumiy foydalanish (notijorat maqsadlarda) uchun doimiy foydalanish huquqi asosida berilgan ko‘p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalari soliq solish obyekti bo‘lmaydi degan qismi qo‘shildi. Mazkur o‘zgarish amaliyotda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli talqinlarni oldini olish maqsadida kiritildi.

Soliq kodeksining 439-moddasi ikkinchi qismi jismoniy shaxslar yer solig‘ini summasi va to‘lash muddatlari haqida, 447-moddasi to‘rtinchi qismidagi tadbirkorlik maqsadida foydalanish uchun mo‘ljallangan ko‘chmas mullka ega bo‘lgan jismoniy shaxslarga, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan dehqon xo‘jaliklariga suv solig‘ini va ularni to‘lash muddatlari to‘g‘risidagi xabarnomani topshirish tartibiga jismoniy shaxslarga imzo qo‘ydirib yoki to‘lov xabarnomasi olinganligi faktini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda topshirishi bilan birgalikda agar mavjud bo‘lsa soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga elektron shaklda, soliq to‘lovchi nomidagi uyali telefon raqamiga va soliq organlarining maxsus mobil ilovasiga SMS-xabarnoma shaklida yuborilishi tartibi ham qo‘shildi. Endilikda soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga elektron shaklda, soliq to‘lovchi nomidagi uyali telefon raqamiga va soliq organlarining maxsus mobil ilovasiga SMS-xabarnoma shaklida yuborilsa ham to‘lov xabarnoma yuborilgan hisoblanadi.

Soliq kodeksining vaqtinchalik soliq imtiyozlarini belgilovchi 483-moddasi quyidagi tahrirda 42-45-qismlar bilan to‘ldirildi. (qirq birinchi qism) “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlashning kompleks dasturi”da ishtirok etadigan tijorat banklarining loyihalar bo‘yicha ajratilgan bank kreditlari bo‘yicha olingan foizlar tarzidagi daro-

madlari foyda solig‘ini hisoblash maqsadida 2024-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda chegiriladigan xarajatlar sifatida e’tirof etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentyabrdagi PQ-292-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ning 5-bandiga asosan Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlashning kompleks dasturida ishtirok etadigan tijorat banklarining loyihalar bo‘yicha ajratilgan bank kreditlaridan dastlabki ikki yil davomida olingan foiz ko‘rinishidagi daromadlarini foyda solig‘ini bazasidan chegirib tashlash belgilangan.

Shundan kelib chiqib, mazkur qo‘shimchalar kiritilmoqda. (qirq ikkinchi qism) “Izlanish va rivojlanish” markazlari 2024-yil 1-yanvardan 2027-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda mazkur markazlarning obyektlari va ular egallagan yer uchastkalari bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini ushbu soliqlar bo‘yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida, shuningdek, ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-son qarori 7-bandida “Izlanish va rivojlanish” (R&D) markazlari uchun ular tashkil etilgan kundan boshlab 3 yil muddatga mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha hisoblangan summa miqdorining 1 foizini to‘lash, ularning xodimlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz miqdorida hisoblash tartibi joriy etish vazifasi topshirilgan. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ va “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ uchun foyda solig‘i stavkalari soliq solish bazasining, tovar (xizmat) realizatsiya qilishdan tushgan tushumning 15 foiziga teng miqdordagi qismiga 15 foiz, qolgan qismiga 50 foiz miqdorida foyda solig‘i stavkasi belgilandi. (2021-yilda qolgan qismiga 75% edi. Maxsus renta solig‘i joriy qilinishi munosabati bilan bu foiz pasaytirilgan edi, Maxsus renta solig‘i SKning 483 moddasi 43-qismiga asosan 2024, 2025-yillarda undirilishi vaqtincha to‘xtatildi, lekin foyda solig‘ining sobiq stavkasi tiklanmadi). (qirq to‘rtinchi qism) Budjet tashkilotlari tomonidan xalqaro moliya institutlaridan va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jalb qilingan va hamda jalb qilinadigan davlat tashqi qarzi hisobidan to‘liq yoki qisman amalga oshiriladigan loyihalar doirasida, shuningdek davlat korxonalari hamda o‘z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorida va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan infratuzilma loyihalari uchun xalqaro moliya institutlaridan va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jalb qilingan hamda jalb qilinadigan davlat tashqi qarzi (bundan O‘zbekiston Respublikasining tijorat banklari orqali qayta moliyalashtiriladigan yoki qayta kreditlanadigan xalqaro moliya institutlarining va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining mablag‘lari mustasno) hisobidan to‘liq yoki qisman amalga oshiriladigan loyihalar doirasida sotib olinadigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir aylanma, shuningdek, ularni olib kirish 2028-yil 1-yanvarga qadar qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-noyabrdagi “Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan amalga oshirilayotgan loyihalarni yanada jadallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-195-son Farmoniga asosan o‘zgartirish kiritilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqobat muhitini buzuvchi individual imtiyozlar va preferensiyalarni yetarli natija ko‘rsatmayotgan sohalar va yo‘nalishlar bo‘yicha, shuningdek eskirgan va amaliyotda foydalanilmayotgan imtiyozlar va subsidiyalarni qisqartirish yoki bekor qilish, yuqori natija ko‘rsatayotgan hududlar, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratib, tez o‘sayotgan sohalar uchun yangi qo‘llab-quvvatlash turlarini joriy etish, yaratilgan qo‘shilgan qiymat, ish o‘rinlari, eksport kabi ko‘rsatkichlar asosida har bitta imtiyoz, subsidiya, kompensatsiya va kafillik bo‘yicha samaradorlikni baholash tizimini (KPI) yo‘lga qo‘yish hamda Moliya vazirligida yangi tuzilma ochish, ushbu tuzilmada soliq hisobini yaratish, imtiyozlarni, subsidiyalarni hamda boshqa yengilliklarni samaradorligini baholashni amalga oshirishi kerak bo‘ladi.

Adabiyotlar/Литература/Референсе:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so‘zlagan nutqi. 2021-yil 20-avgust. – https://president.uz/uz/lists/view /4551
2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
3. Александров И. М. (2009) Налоги и налогообложение: Учебник / И. М. Александров. – 10-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательско- торговая корпорация “Дашков и К, 228 с.
4. Jo‘rayev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. (2009) Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. – T.: NORMA. 184-bet.
5. Баладина А.С. (2011) Анализ теоретических аспектов налоговых льгот и налоговых преференций // Вестник Томского государственного университета- №4(16)- С. 45-60.
6. Raxmatullayeva F. (2016) Soliq imtiyozlarining mohiyati va iqtisodiyotni rag‘batlantirishdagi roli. // Moliya ilmiy jurnali №2. – 108-bet.
7. Незамайкин В.Н., Юрзинова И.Л. (2004) Налогообложение юридических и физических лиц. –М.: Экзамен, С.44.
8. Майбуров И.А. (2011) Налоги и налогообложение . Ред. 4-е изд. - М: 558 с.

9. Милякова Н.В. (2008) Налоги и налогообложение. Учебник. 7-е изд. Перераб. И доп.–М.:ИНФРА, С.33 Milyakova N.V.
10. Ўзбекистон Республикаси солиқ қўмитаси маълумотлари. www.soliq.uz.
11. Normurzayev, U. (2023). Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida moliya bozorining dolzarb muammolari tadbirkorlikni teng raqobat sharoitlarini yaratish hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish yo‘lari. Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка, 88–89. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/financial-market-growth/article/view/19032
12. Normurzayev, U. (2023). Soliq imtiyozlari berish tartibini takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(1), 334–339. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a51
13. Normurzayev, U. (2023). Yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda soliq organlarining ahamiyati. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 1(2), 215–221. Retrieved from https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/66
14. Normurzayev, U. (2023). O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish va uning barqarorligini ta’minlash yo‘llari. Iqtisodiy Taraqqiyot va Tahlil, 1(6), 177–182. https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss6-pp177-182
15. Normurzayev, U. (2022). Hukumatimiz tomonidan soliq ma’murchiligi bo‘yicha 2018-2022-yillarda amalga oshirilgan soliq islohotlari natijalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 10 (5), 325–330. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a35



O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI YURITISH VA TARTIBGA SOLISHNING ME’YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich
Andijon Davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi, iqtisod fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda elektron tijoratni yuritish va tartibga solishning me’yoriy-huquqiy asoslari institutsional tahlil asosida o‘rganilib, qaror va farmoyishlar ijrosi tahlili tizimlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: elektron tijorat, me’yoriy-huquqiy asoslari institutsional, xizmat ko‘rsatish soha, qonun, qaror.

Abstract: In this article, based on institutional analysis, the legal framework for conducting and regulating electronic commerce in Uzbekistan is studied, decisions and orders are systematized.

Key words: e-commerce, legal framework, institutions, service sector, law, regulation.

Аннотация: В данной статье на основе институционального анализа изучены нормативно-правовые основы ведения и регулирования электронной торговли в Узбекистане, систематизированы решения и распоряжения.

Ключевые слова: электронная коммерция, нормативно-правовые основы, институты, сфера услуг, право, постановление.

KIRISH

Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (APEC) qoidalariga muvofiq, xavfsizlik va sifat standartlarini o‘rnatish bo‘yicha munosabatlarni tartibga solish sakkiz turdagi shakllardan foydalanishga asoslangan bo‘lib, biz ularni ikki guruhga bo‘lishni taklif qilamiz: davlat tomonidan tartibga solish va o‘z-o‘zini tartibga solish. Bizning fikrimizcha, bu tipologiya ham davlat tomonidan tartibga solish, ham o‘z-o‘zini tartibga solish uchun amal qiladigan muvofiqlikni baholash kabi tartibga solish shakli bilan to‘ldirilishi lozim. Davlat tomonidan tartibga solish shakllari majburiy, buyruqli va cheklovchi hisoblanadi, o‘z-o‘zini tartibga solish shakllari iqtisodiy munosabatlarning alohida ishtirokchilari uchun mahsulot va xizmatlar sifatini ta’minlash sohasida qaror qabul qilish uchun javobgarlikni o‘tkazish maqsadida davlat tomonidan belgilanadi va taqdim etiladig, yoki bozorni ijtimoiy va professional tartibga solish shakllari bo‘lishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Elektron tijorat rivojlanishining nazariy va amaliy jihatlari ko‘plab xorijiy olimlar, jumladan P.F.Druker [1], B.Tviss [2], Yu.Shumpeter [3], R.Foster, Frank Vebster [4], A.Dinis, K.Oppenlender [5] tomonidan o‘rganilgan.

Bu yo‘nalishda MDH mamlakatlari olimlari P.N.Zavlin [6], L.P.Goncharenko [7], L.M.Goxberg [8], A.K.Kazansev [9], B.Z.Milner, Yu.V.Yakovsev, Yu.S.Kubkina [10], V.I.Shulepov, O.A.Kobelev [11] va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning nazariy va amaliy muammolari B.B.Abdullayev [12], I.Abduraimov, S.S.G‘ulomov [13], Aripov A.N., Iminov T.K. [14] singari o‘zbek olimlarining ilmiy ishlarida o‘rganilgan.


O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlarga qaramay, elektron tijoratni yuritish va tartibga solishning me’yoriy-huquqiy asoslari bilan bog‘liq masalalar tizimli o‘rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy mushohada, tizimli tahlil va institutsional tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hujjatlar mazmunini tahlil qilish xizmat sifatini boshqarish sohasida davlat tomonidan tartibga solishning uchta yo‘nalishi mavjudligini ko‘rsatdi: xizmatlar sifati va ularni taqdim etish omillari (resurslar, tuzilmalar, jarayonlar), xizmatlar sifatini tasdiqlash yoki ijrochining malakasi, ijrochining xizmat sifati uchun javobgarligi va ijrochilar va xizmatlar iste’molchilari o‘rtasidagi munosabatlar. Tartibga solish darajalari keyingi bosqichda taqdim etilishi mumkin bo‘lgan xalqaro, davlat va idoraviy qoidalarni o‘z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm: O‘zbekistondagi elektron tijoratning me’yoriy-huquqiy hujjatlari

Xalqaro darajada xizmat ko‘rsatish sohasida tartibga solish predmeti xalqaro xizmatlar savdosi masalalari va xalqaro faoliyatda ishtirok etuvchi ayrim xizmat turlari xavfsizligini ta’minlash masalalari hisoblanadi. Xalqaro xizmatlar savdosini tartibga soluvchi asosiy xalqaro hujjat Jahon savdo tashkilotining 1995-yilda joriy etilgan xizmatlar savdosi (GATS) bo‘yicha bosh kelishuvdir. Bu kafolatlangan siyosiy majburiyatlar orqali iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish, barcha ishtirokchilarga adolatli va teng munosabatni ta’minlash, xizmatlarning xalqaro savdosi uchun qoidalarning ishonchli va shaffof tizimini hosil qilish; bosqichma-bosqich erkinlashtirish orqali xizmatlar savdosini rag‘batlantirish va yetkazib beruvchilarning malaka talablarini o‘zaro tan olishga qaratilgan.

Xizmatlarning ayrim turlari xavfsizligi uchun talablarni belgilovchi xalqaro huquqiy hujjatlar xalqaro konvensiyalar, BMT tavsiyalari va va boshqa shunga o‘xshash hujjatlar, masalan, xavfli tovarlarni tashish bo‘yicha BMT tavsiyalari, yo‘l harakati to‘g‘risidagi Konvensiya, xalqaro avtomobil transport bilan shug‘ullanuvchi transport vositalari ekipajlari ishi bo‘yicha Yevropa kelishuvi (YESTR), dengizda inson hayoti xavfsizligi uchun xalqaro Konvensiya qoidalari va boshqalarni ichiga oladi.

Eng mashhur xizmatlar - iste’molchilarning fikrlarini yig‘gan holda milliy yoki xalqaro miqyosda, bir tarmoqda yoki tarmoqlaaro xarakterga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan muqobil muvofiqlikni baholash sxemasini tashkil etish hisoblanadi. Misol uchun Arba.uz, Gifty.uz, lebazar.uz, abad.uz, va hokazo., xizmatlari ko‘pincha iste’molchining mehmonxona yoki restoran tanlashida asosiy omil hisoblanadi. Afsuski, xizmat ko‘rsatish sohasidagi bir qator tashkilotlarning fikrlarni soxtalashtirish bo‘yicha vijdonsiz amaliyoti fikrlar bo‘yicha bir qancha xizmatlar obro‘siga putur yetkazadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanmoqda, elektron tijorat sohasida ham birmuncha rivojlanish kuzatilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida elektron tijorat ichki mahsulotlarni jahon bozoriga to‘liq ishlab chiqish va joriy etish borasida bir qator to‘siq va kamchiliklar mavjud:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.05.2018-yildagi PQ-3724-sonli “Elektron tijoratni rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoniga muvofiq, to‘laqonli elektron tijorat bozorini hosil qilish, ichki ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlarga, xususan, tovar (xizmat) larning ravon chiqishiga to‘sqinlik qiluvchi qator muammo va kamchiliklar mavjud:

1. Jahon iqtisodiyotida jadal rivojlanayotgan tendensiyalarga ega elektron tijorat sohasidagi huquqiy asoslar yetarlicha kuchli emas, bu ko‘plab bizneslarni to‘xtatib qo‘yadi
2. Mamlakatda hali ham tovar va xizmatlarni eksport qilishda byurokratiya tizimi mavjud bo‘lib, u biznes narxini oshiradi va tashqi bozorlar bilan raqobatlashishga imkon bermaydi.
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi elektron tijoratga yo‘naltirilgan barcha sohalarni qamrab olmadi, shu bilan iqtisodiyotni raqamlashtirish va tadbirkorlar faoliyatini rivojlantirishni to‘xtatdi.
4. Tovarlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz to‘lovlar xufyona iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlaydigan va davlat budjetiga soliq tushumlarini sekinlashtiradigan past darajada qolmoqda.
5. Elektron tijorat sohasida soliqlar va soliqqa tortish tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan, bu esa xufyona Internet-o‘yinchilariga o‘z aylanmasini oshirish va budjet daromadlarini chetlab o‘tish imkonini beradi [15].

Elektron tijoratning to‘g‘ri faoliyat ko‘rsatishining asosiy sharti ixtisoslashtirilgan normativ-huquqiy bazaning mavjudligidir. Bunday holda fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni to‘liq qamrab olmaydi va tartibga sola olmaydi.

O‘zbekiston elektron tijorat sohasidagi nizomlarni qabul qildi. Elektron tijoratning asosiy tamoyillari va qoidalarini belgilovchi elektron tijoratdagi asosiy huquqiy hujjatlar-O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida” gi Qonuni (yangi tahriri), Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalari (02.06.2016 dan PCM Ruz №185) va Axborot vositachilari ─ elektron yarmarkalar, auksionlar va tanlovlar tashkilotchilari faoliyatini tashkil etishni tartibga solish to‘g‘risidagi Nizom – (02.08.2016 dan PCM Ruz №249).

O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida” gi (yangi tahriri) qonunining 3-moddasiga ko‘ra, elektron tijorat-axborot tizimlaridan foydalangan holda tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan tovarlar(ishlar, xizmatlar) oldi-sotdisi ekanligi belgilangan.

Elektron tijorat ishtirokchilari elektron tijoratda tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotuvchisi yoki xaridori bo‘lgan yuridik shaxs yoki jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.

Bunday holda elektron tijoratda tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotuvchisi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor hisoblanadi. Shuning uchun, jismoniy shaxs, masalan, amazonda bo‘lgani kabi o‘z mahsulotini axborot tizimlari orqali sota olmaydi.

Elektron tijoratning faoliyat ko‘rsatish jarayoni elektron tijorat qoidalari bilan tartibga solinadi. Ushbu qoidalarga ko‘ra sotuvchi faqat tadbirkorlik subekti, xaridor esa-jismoniy shaxs yoki tadbirkorlik subektlari (O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari) bo‘lishi mumkin.

Elektron tijorat shartnomasi oferta va akseptdan iborat. Elektron tijorat uchun ushbu qoidalar oferta bir shaxsga, bir necha muayyan shaxslarga yoki shartnomaning barcha muhim shartlarini o‘z ichiga olgan noma’lum shaxslar doirasiga qaratilgan taklifdir, taklif qilayotgan shaxs (oferent)ning irodasi javob beradigan har bir kishi bilan taklifda ko‘rsatilgan shartlar bo‘yicha shartnoma tuzish hisoblanadi.

Oferta elektron tijorat ishtirokchisi elektron tijorat qoidalariga ko‘ra, bir kishi, bir nechta maxsus shaxslar va shartnoma tuzish uchun noma’lum shaxslar tomonidan taqdim etilgan va ularni shartnoma shartlarini o‘z ichiga olgan matndan, shu jumladan majburiy bo‘lgan matndan foydalanishni ta’minlaydigan elektron hujjatdir.

Elektron tijoratda elektron hujjat deganda elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va uni aniqlash imkonini beruvchi elektron hujjatning boshqa detallariga ega bo‘lgan ma’lumotlar tushuniladi.

Qonun chiqaruvchi ofertaning elektron hujjat ekanligini aniqlaydi va shuning uchun u elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanishi kerak. Bunday holda axborot tizimini ishlab chiquvchilar oldiga elektron raqamli imzodan foydalanishga imkon beradigan tizimni hosil qilish vazifasi qo‘yiladi.

Ushbu qoidalar sotuvchi o‘z axborot tizimi yoki elektron savdo maydonchasida (Web-saytlar, mobil ilovalar) axborot vositachisiga shartnoma shartlarini o‘z ichiga olgan oferta (taklif) joylashtirishi kerakligini belgilaydi.

Bunday holda sotuvchi o‘z axborot tizimini hosil qilishi yoki axborot vositachisining elektron savdo maydonchasidan foydalanishi kerak. Shuni ta’kidlash kerakki, ikkala holatda ham taklifni joylashtirish uchun elektron raqamli imzodan foydalanish kerak.

Xaridor o‘z navbatida taklifni quyidagi uch yo‘l bilan qabul qilishi mumkin:

- elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanishini nazarda tutuvchi elektron hujjat shaklida;
- elektron xabar shaklida, uning matnida elektron tijorat ishtirokchisining roziligi mavjud bo‘ladi;
- ofertada mavjud qoida va shartlarni amalga oshirish uchun harakatlarni bajarish.

Agar sotuvchi o‘z axborot tizimini tuzsa va u orqali tovar sotsa, Web-saytga yagona ofertani joylashtirish to‘g‘ri va o‘rinli hisoblanadi. Biroq, axborot vositachisining elektron platformasi orqali tovar sotish tartibi bir-biridan farq qiladi.

Axborot vositachisi axborot tizimi orqali tovarlar (ishlar, xizmatlar) ni sotish tartibi axborot vositachilari – “Elektron tijorat platformalar va raqamli ekotizim operatorlarining – axborot vositachilarining faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom bilan tartibga solinadi (O‘zr XTV 02.08.2016-y. 249-son).

Elektron tijoratda to‘lovlar faqat quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- bank plastik kartochkalari yordamida to‘lovlarni qabul qilish uchun to‘lov terminalidan foydalanish orqali;
- bank plastik kartasidan pul mablag‘larini shaxsiy hisob raqam orqali yoki chakana to‘lov tizimi orqali o‘tkazish orqali (onlayn to‘lov);
- bank hisobvarag‘idan pul mablag‘larini o‘tkazish yo‘li bilan.

Amalda, ko‘plab onlayn do‘konlar mahsulot uchun oldindan to‘lov talab qiladi. Sotuvchi tomonidan tovarni o‘z axborot tizimi orqali sotishda tovar yetkazib bermaslik yoki sifatsiz tovar yetkazib berish xavfi minimal bo‘ladi. Biroq, axborot vositachisining axborot tizimi orqali tovarlar sotilganda, sotuvchi tomonidan to‘langan tovarni yetkazib bermaslik xavfi mavjud. Bunday holatda xaridorlar shartnoma tomoni bo‘lmasligiga qaramay, birinchi navbatda axborot vositachisiga da’volarni amalga oshiradilar.

Axborot tizimida tuzilgan shartnoma ijrosini ta’minlash bilan bog‘liq masalalarni hal etish va xaridorlarga tovarlar xarid qilish uchun qulay va tezkor xizmat ko‘rsatish maqsadida xorijiy davlatlarning elektron tijorat sohasidagi tajribasini o‘rganish muhim sanaladi.

Jumladan, sotuvchi shartnomani yaxshi niyat bilan bajarishini ta’minlash uchun axborot vositachisiga xaridordan to‘lovlarni qabul qilish, xaridor tomonidan tovarni olgandan so‘ng esa ularni sotuvchilarga o‘tkazish huquqini berish lozim. Bu vositachi sifatida emas, balki to‘lovlarni qabul qilish axborot vositachi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

2018-yil 14-may kuni “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini[1] imzoladi. Hujjatda O‘zbekiston Respublikasida 2018-2021-yillarga mo‘ljallangan elektron tijoratni rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Avvalo, yuqorida qayd etilgan muammolar – to‘lovlarni hujjatlashtirish (kassa, to‘lov terminallari uchun tushumlar berish va boshqalar bilan bog‘liq qiyinchiliklar) hal etildi.. Aniqlanishicha:

- qonunga muvofiq bajarilgan elektron tijorat ishtirokchilari tomonidan xizmat ko‘rsatish jarayonida axborot tizimlari tomonidan shakllantirilgan bitim taraflarini aniqlashga imkon beruvchi elektron tushumlar, to‘lovlar, xabarlar va boshqa usullarda tovarlar (xizmatlar) uchun to‘lovni tasdiqlovchi tushumlar, kuponlar, chiptalar va boshqa hujjatlarga tenglashtiriladi);
- tadbirkorlik subektlari tomonidan elektron tijorat operatsiyalarini amalga oshirishda, to‘lov virtual terminallar orqali xaridorga xizmat ko‘rsatuvchi banklarga pul yig‘ish qoidalariga qat’iy rioya qilgan holda naqd pulda to‘lovni qabul qilish bo‘yicha elektron kvitansiya yoki boshqa tasdiqlovchi hujjatni majburiy yuborish bilan naqd qabul qilinishi mumkin (E-POS);
- elektron tijorat subektlari to‘lov terminallari, shuningdek elektron to‘lov tizimlari yordamida tadbirkorlik subektlarining korporativ bank kartalari orqali to‘lovlarni qabul qilish huquqiga ega;
- virtual terminallar (E-POS) xuddi shunday kassa va to‘lov terminallariga tenglashtiriladi.

Prezident shuningdek, tashqi savdo vazirligiga Markaziy Bank bilan birgalikda yetakchi tashqi savdo platformalari (eBay, Amazon va boshqalar), shuningdek, to‘lov tizimlari (Paypal) bilan muzokaralar olib borishni buyurdi va natijada mahalliy korxonalar uchun tovarlar (xizmatlar) sotish va ushbu platformalar va tizimlar yordamida xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish imkoniyatlarini hosil qilish uchun aniq takliflar kiritdi.

O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishga yordam beradigan yana bir loyiha-elektron tijorat uyushmasini tashkil etishdir. Uning asosiy maqsadlari-elektron tijoratda iqlimni yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy, madaniy, ilmiy va boshqa loyihalar va dasturlarni ishlab chiqish;kichik va o‘rta biznes, shu jumladan, biznes vakillarining

1 PQ-3724-son 14.05.2018. Elektron tijoratni jadal... LEX.UZ https://lex.uz › docs

huquqiy va iqtisodiy savodxonligini oshirish, shuningdek, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa vositalar orqali aholini qo‘llab-quvvatlash;biznesga yangi texnologiyalar, xizmatlar va yangi ish o‘rinlarini hosil qilish va amalga oshirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish, g‘oyalar va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash; biznes faoliyati davomida kelib chiqish ehtimoli mavjud bo‘lgan huquqiy va iqtisodiy muammolarni to‘g‘ri hal qilishda amaliy yordam berish. Uyushma mahalliy hokimiyat organlari bilan aloqalar va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, maqsadli seminarlar, treninglar, konferensiyalar va taqdimotlarni tashkil etish va o‘tkazish, fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilish uchun hakamlik sudlarini tashkil etish bilan shug‘ullanadi. Ko‘plab boshqa qo‘yilgan maqsadlarga erishish va o‘zaro fikr almashish, sanoat muammolarini aniqlash va ularni hal yetish chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun axborot platformasini tashkil etish maqsadida Facebook da E-commerce Uzbekistan guruhi tashkil etildi. Uyushmaning maqsadi – har bir inson istalgan vaqtda va qulay joyda sifatli mahsulot va xizmatlarni onlayn tarzda sotib olishi va sotishi uchun imkoniyatlar hosil qilish.

Bozorining zaif tomoni – bozorda ishonchli statistika yo‘qligi, bozor ishtirokchilarining tarqoqligi, kadrlarning yetishmasligi, konservativ banklar, moliyalashtirish bilan bog‘liq muammolar, farovonlikning past darajasi hisoblanadi. Bozor imkoniyatlari – bozor modernizatsiyasi, islohotlar (soliq, bojxona va bank), GCHP, Internet tezligini oshirish, mintaqaviy o‘yinchilarinng bozorga kirishi.

Hozirgi kunda elektron tijorat orqali 663,5 mlrd. so‘m o‘tib, 2017-yilga nisbatan 30% ga o‘sish kuzatilmoqda. Odamlar asta-sekin naqd pulsiz to‘lovlarga o‘tishmoqda va biz bundan foydalanishimiz kerak. O‘zbekistonda elektron tijoratning ulushi 1% dan kam. O‘sish sur’ati 30% ni tashkil etadi. Bozorning kuchli tomoni - aholining o‘sishi (30 mln.dan ortiq kishi), smartfonlarning kirib kelishi o‘sishi, shahar aholisining o‘sishi, logistikaning rivojlanishi (O‘zbekistonda tovarlar 48 soatda yetkazib beriladi), arzon ishchi kuchining ko‘pligidir [16].

O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning asosiy jihatlaridan biri yildan-yilga o‘sib borayotgan aholi va Davlat siyosati tufayli aholining Internet tarmog‘idan foydalanish imkoniyatining ortib borishidir. O‘zbekiston aholisi O‘rta Osiyo aholisining 45% dan ortig‘ini tashkil yetadi. Etnik tarkibning 43% dan ortig‘i esa millati bo‘yicha o‘zbek hisoblanadi. Lekin nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyoning kamchiligi mintaqaning past urbanizatsiyasi deyish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Elektron tijorat sohasida inson resurslarini shakllantirish va rivojlantirish:

1. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va Toshkent Davlat Iqtisodiyot universitetida elektron tijorat bo‘yicha bakalavr va magistratura kurslarini tashkil etish.
2. Elektron tijoratning barcha ishtirokchilariga mo‘ljallangan “Elektron Akademiya” loyihasi doirasida elektron tijorat bo‘yicha ixtisoslashtirilgan onlayn kurslarni tashkil etish.

Aholi va tadbirkorlik subektlari o‘rtasida elektron tijoratni rag‘batlantirish va ommalashtirish:

1. ICTWEEK Uzbekistan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yillik haftaligi doirasida elektron tijoratni rivojlantirishga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkazish.
2. O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish, tadbirkorlar uchun axborot materiallari, mahalliy va xorijiy elektron savdo maydonchalarida tovar va xizmatlarni sotish bo‘yicha tadbirlarni yoritishga doir TV va radio kanallari va bosma ommaviy axborot vositalarida maxsus dastur va rubrikalar tashkil etish.
3. O‘zbekiston savdo-sanoat palatasining hududiy bo‘linmalarida, jumladan, seminarlar, ko‘rgazmalar va forumlarda elektron tijorat bo‘yicha munozara platformalarini tashkil etishish orqali hududlarda elektron tijoratni faollashtirish.

Ammo tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, elektron xizmatlar va elektron tijoratni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishning huquqiy asoslari mukammal emas. Instagram, Facebook, Twitter va boshqalar kabi ijtimoiy tarmoq saytlarida turli kanallar, guruhlar va botlarning ayrim buyurtmalarini ro‘yxatga olish mavjud emas. Tovar va xizmatlarni pandemiyada sotishning katta qismi ijtimoiy tarmoqlardagi norasmiy guruhlar orqali amalga oshirilsa-da, ular soliqqa tortilmaydi va iste’molchilarga firibgarlar qo‘liga o‘tish xavfini tug‘diradi.

Tadqiqotlar natijasida davlat tomonidan tartibga solishni rivojlantirishning quyidagi tendensiyalari aniqlandi:

- sanoat xarakteridagi qonun hujjatlari va idoraviy nizomlar;
- elektron tijoratni tartibga solish uchun javobgarlikni o‘z-o‘zini tartibga solish tizimi orqali professional jamoaga o‘tkazish, bu bozorda hukumat bosimini pasaytiradi va davlat boshqaruvi funksiyalarini optimallashtiradi;

- iste'molchilarni xabardor qilish va ularning huquqlarini himoya qilishga yordam beradigan xizmatlarni baholash va mustaqil iste'molchilarni va ommaviy axborot vositalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqishning davlat shakllariga bo'lgan iste'molchilar ishonchini kamaytirish;
- elektron xizmatlarni davlat tomonidan tartibga solish shakllanish bosqichida bo'lib, sifatni ta'minlash va iste'molchilarni himoya qilish sohasidagi mavjud standartlarni elektron xizmatlarga qanday qo'llash kerakligi noma'lum bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Друкер П. Новый бизнес. – М.: Экономика, 1993.149с.,
2. Твисс Б. Управление научно-техническими нововведениями. – М.: Экономика, 1989. – 217 с.,
3. Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М., Прогресс, 1982. - 455с.
4. Webster Frank. Theories of the Information Society. – London: Routledge, 2002.-p.15.
5. Оппенлендер К. Технический прогресс: воздействие, оценки, результаты: Сокр. пер. с нем. – М.: Экономика, 175 с., 1981г.
6. Завлин П.Н. Инновация в рыночной экономике. //Гуманитарные науки, 1997 №3. – С.
7. Гончаренко Л.П., Артуюнов Ю.А. Инновации, управление инновационным бизнесом. – М.: ЮНИТИ, 2001.,
8. Гохберг Л.М., Экономика знаний инновацонная политика. – М.: КНОРУС, 2009. - 352 с.,
9. Казанцев А.К. Информационные технологии в управлении, производстве, жизнедеятельности. – Тюмень: Ист Консалтинг, 2010 г.,
10. Кубкина Ю.С. Электронная коммерция: роль, понятие, направления развития. //Пространство экономики, 2012. № 2–2. – С.
11. Кобелев О.А. Электронная коммерция: учебное пособие/ О.А. Коболев; под ред. проф. С.В.Пирогова. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: ИТК "Дашков и К", 2013 – 684 с.;
12. Abdullayev B.B., Abduraimov I. Innovatsiya subyektlari faoliyati samaradorligini aniqlash. // Bozor, pul va kredit. 9-son, 2005-y.;
13. G'ulomov S.S. Axborot tizimlari va texnologiyalari. – Toshkent: Sharq, 2000. 582-b.,
14. Aripov A.N., Iminov T.K. O'zbekiston axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi menejmenti masalalari. Monografiya. – T., 2012.
15. https://lex.uz/docs/3744601
16. https://www.facebook.com/groups/Ecommerce.uzb.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



KORXONALARNING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Shayakubov Shaxzod Shakabilovich
Toshkent moliya instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy iqtisodiyot rivojlanishida innovatsion korxonalarning ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, korxonalarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish xususidagi xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari o‘rganilgan. Shuningdek, korxonalarda innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va moliyalashtirishni amalga oshirish xususiyatlari yoritilgan bo‘lib, maqolada korxonalarda innovatsion faoliyatni jadallashtirish orqali innovatsion iqtisodiyotga o‘tish istiqbollari nazariy-amaliy izohlangan.
Kalit so‘zlar: Innovatsiya, investitsiya, korxona, investitsiya oqimi, korxona investitsion siyosati, moliyalashtirish, texnologiya, korxonalarda innovatsion faoliyat.

Abstract: This article highlights the importance of innovative enterprises in the development of the national economy, as well as the scientific and theoretical views of foreign and domestic scientists on the financing of innovative activities of enterprises, as well as the features of the development and implementation of financing of innovative projects in enterprises. The article provides theoretical conclusions and explained by determining the prospects of transition from proposals to innovative economy.
Key words: Innovation, investment, enterprise, investment flow, enterprise investment policy, financing, technology, innovative activity in enterprises.

Аннотация: В данной статье освещена роль инновационных предприятий в развитии национальной экономики, а также научно-теоретические взгляды зарубежных и отечественных ученых на финансирование инновационной деятельности предприятий, в том числе особенности разработки и реализации финансирования инновационных проектов на предприятиях. В статье приведены теоретические выводы и обоснованы определения перспектив перехода от предложений к инновационной экономике.
Ключевые слова: Инновации, инвестиции, предприятие, инвестиционный поток, инвестиционная политика предприятия, финансирование, технологии, инновационная деятельность на предприятиях.

1. KIRISH

Innovatsiyalar iqtisodiy o‘zgarishlar va rivojlanishning asosiy omili, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir. Innovatsiyalarni rag‘batlantirish va jadallashtirish rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy siyosatining asosiy strategik maqsadiga aylangan bo‘lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda tobora yuqori e’tibor kasb etib bormoqda. Texnologik o‘zgarishlar va innovatsiyalarning barqaror rivojlanishida moliyaviy kapital muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy kapitalning mavjudligi va korxonalarda innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishning samarali tizimi shakllanganligi yangi texno-iqtisodiy paradigmalarning paydo bo‘lishiga va rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi [1].

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bozorga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni o‘rnatish va biznes, investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha qator islohotlar olib borilmoqda. Ushbu jarayonda innovatsiyalar muhim ahamiyatga ega, innovatsion rivojlanishga erishish uchun kuchli siyosiy iroda va yuqori darajadagi majburiyat mavjud. Innovatsion siyosat va strategiyalarni amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash uchun, 2017-yildan beri bir qator qarorlar, Farmonlar joriy etildi. Dastlab Innovatsion Rivojlanish Vazirligi (IRV), undan keyin Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tashkil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-165-son Farmonida [2]: strategiya mamlakatimizda innovatsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha mamlakatni 2030-yilga qadar Global Innovatsiyalar Indeksida iqtisodiyoti rivojlangan 50 mamlakat qatoriga kiritish; 2021-yilga qadar tadqiqot va ishlanmalarga (TRSYaIX) YaIMning hozirgi 0,2 foizidan YaIMning 0,8 foizigacha to‘rt baravar oshirish; ilmiy mukammallikni oshirish va ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash; universitetlarni xalqaro reytinglarning eng yaxshi 1000 ta universiteti qatoriga kiritish kabi maqsadlar belgilab berildi.

2018-yil 24-noyabrda “Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [3] Prezidentning Farmoni e’lon qilindi va bu investitsiya va boshqaruv kompaniyalari mezonlarini, faoliyat turini va monitoringini, shu jumladan venchur moliyalashtirish uchun yaratilishi kerak bo‘lgan mezonlarni belgilab berdi.

2. MAVUZGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nobel mukofoti sovrindori Kennet J. Errou ta’kidlaganidek, “Biz erkin tadbirkorlik tizimi ixtiro va ilmiy tadqiqotlarga (ideal bilan solishtirganda) kamroq sarmoya kiritilishini kutamiz, chunki xavflilik darajasi yuqori bo‘lib, mahsulot faqat cheklangan darajada o‘zlashtirilishi mumkin [4]”.

Shuningdek, Y. Shumpeter zamonaviy iqtisodiyotning asosiy rivojlanish mexanizmi va sabablarini belgilab bergan. Birinchidan, bu raqobat, innovatsiyalarga asoslangan, innovatsiyalarning asosiy manbai yirik korporatsiyalarning ilmiy izlanish faoliyatidan tashkil topishi; ikkinchidan, insonning tashabbuskorligi, yangilik yaratuvchanligi (novator) — tadbirkorligi, yangi g‘oyalarni samarali iqtisodiy g‘oyalarga mujassamlashtira olishi [5].

Yana bir xorijlik olim P. Druker — korxonalarning innovatsion fikrlashlari bir-biridan farqlanadi, — deb ta’kidlaydi. Innovatsiyalashtirish bu korxonalarning ixtisoslashgan yo‘nalishidir. Har bir korxona o‘zining ishlab chiqarish obyektida innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanadi [6].

Mahalliy olim R. Fatxutdinovning xulosasiga ko‘ra: innovatsiya – yangilikni tatbiq etishning yakuniy natijasi bo‘lib, obyekt boshqaruvini o‘zgartirish ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ekologik va boshqa ko‘rinishdagi samaradorlikdir. Yangilik esa, fundamental, amaliy tadqiqotlar ma’lum bir faoliyatda uning samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqilgan yoki tajribaviy ishdir [7].


Iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning yuqorida keltirilgan fikrlari, xulosalaridan ko‘rinadiki, innovatsiya – bu yuqori iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida ishlab chiqarish jarayoniga ilg‘or ilm-fan yutuqlarini joriy etish yo‘li bilan yangi tovarlar yaratish yoki ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifatini oshirishdir.

3. TADQIQOT METODIKASI

Ushbu maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida grafika usulda guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil hamda sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

4. TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Innovatsion loyihani ishlab chiqarish intellektual faoliyat natijalariga asoslanar ekan, shuning uchun investorlarni (ishlab chiqaruvchilarni) xaridorni jalb eta oladigan, sifatli, yangi innovatsion mahsulotni yaratish imkoniyati qiziqtiradi. Bunda intellektual faoliyat natijasi egasini va uning ilmiy texnik, texnologik, ayrim hollarda innovatsion loyihada foydalanilishi kerak bo‘lgan konfidensial tijoriy ma’lumot (nou-xau) o‘z ichiga oluvchi intelektual mulkka bo‘lgan huquqini aniqlash muammosi yuzaga keladi.




1-rasm: Loyihaning tijoriy samaradorligini baholash [8]

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash ko‘p jihatdan innovatsiya faoliyatini rivojlantirishga bog‘liq. Shuning uchun iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida joriy etilmoqda. Demak, innovatsiyalar mamlakat taraqqiyoti va aholining yuqori turmush darajasini ta’minlashda alohida o‘rin egallaydi. Milliy iqtisodiyotga ilg‘or texnika va texnologiyalarni joriy etish zarurati iqtisodiy siyosatning samarali va istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Korxonalarda innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan bevosita boshqarish usullari ikki shaklda amalga oshiriladi: ma’muriy – idoraviy va dasturli – maqsadli. Ma’muriy – idoraviy shakli innovatsiyalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘mak beruvchi mahsus qonun doirasida amalga oshiriluvchi bevosita moliyalashtirishda namoyon bo‘ladi. Innovatsiyalarni davlat tomonidan nazorat qilishning dasturiy – maqsadli shakli davlatning maqsadli dasturlari hamda kichik innovatsion biznesni aniq moliyalashtirishni aks ettiradi. Bu haqda yuqorida batafsil yoritilgan. Innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishda davlatning bilvosita nazorati, ayniqsa, innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik subyektlarining soliq imtiyozlari va imtiyozli amortizatsiya siyosati ham muhim o‘rin egallaydi.


Fikrimizcha, O‘zbekiston iqtisodiyotini zamonaviy rivojlanish bosqichida innovatsion faoliyatni qaytarmaslik sharti bilan budjetdan moliyalashtirishni tezkor, qaytarishlik va to‘lovlilik asosida budjet mablag‘larni umumiy talabdan istisno (tashqari) taqdim etilishini ko‘rish mumkin. Albatta, faqatgina iqtisodiyotning o‘sish darajasiga to‘g‘ri ta’sir etuvchi, hayotiy muhim innovatsion loyihalarni budjetdan moliyalashtirish zarur.



2-rasm: Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan bevosita va bilvosita qo‘llab-quvvatlash usullari [9]

Innovatsiyalarni davlat tomonidan bilvosita moliyalashtirish doirasida bojxona bojini to‘lash differensial rejimini qonun asosida mustahkamlash zarur. Bunda bojxona bojini differensiatsiyalash mahalliy ilmiy mahsulot himoyasi uchun proteksionistik choralarni qo‘llash bilan mos kelishi kerak (proteksionistik — biror davlatning o‘z milliy iqtisodini chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosat).

Korxonalarning innovatsion faoliyatini moliyalashtirishning nodavlat manbalari. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan bevosita va bilvosita moliyalashtirish usullarini ko‘rib chiqib, endi korxonalarning innovatsion loyihalari ostida mablag‘larni bozor usulida jalb qilishni ko‘rib chiqamiz.



3-rasm: Innovatsion faoliyat sohasida davlatning funksiyalari [9]

Fan-texnika mahsulotini korxonalar tomonidan moliyalashtirish yoki korxonaning ichki munosabatlar doirasida ishni bajaruvchilar o‘zlarining ya’ni korxonaning ilmiy tadqiqot va konstruktorlik bo‘linmalari bo‘lganda yoki bajaruvchi tomon bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Innovatsiyalarni moliyalashtirish uchun qo‘llaniladigan korxonaning moliyaviy resurslari o‘z va jalb qilingan resurslarga bo‘linishi mumkin.

Sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbai o‘z moliyaviy resurslar hisoblanadi. Ular innovatsiyalarga ketadigan mablag‘larning 8,5 %ni tashkil etadi. Bu esa sanoati rivojlangan mamlakatlar darajasiga mos kelmaydi.

AQShda innovatsiyalarni korxonalarning xususiy manbalari hisobidan moliyalashtirish ulushiga 73 %, Yaponiyada va Buyuk Britaniyada – 62 %, Fransiya va Italiyada 57 % to‘g‘ri keladi.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish maqsadlari uchun aksionerlik kapitalidan foydalanish tahlili ushbu investitsiya manbaining ham ijobiy, ham salbiy omillarini namoyon etishga imkon beradi.

1-jadval: Aksiyadorlik kapitalini kengaytirish hisobiga innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning ijobiy va salbiy omillari [10]

Ijobiy omillar	Kamchiliklar
Aksiyalar emissiyasi yordamida kapital noaniq muddatga va qaytarish bo‘yicha majburiyatsiz jalb qilinadi.	Aksionerlar soni ko‘payishi jamiyatni boshqarishni qiyinlashtiradi.
Aksiyalarni ochiq sotuvga chiqarish ularni likvidliligini oshiradi.	Aksiyalarni chiqarish ko‘p sonli qatnashchilar orasida daromadni bo‘linishiga olib keladi.
Ochiq aksionerlik jamiyati yopiq turiga nisbatan kapitalni jalb qilish bo‘yicha keng imkoniyatga ega.	Aksiyalarning ochiq sotilishi mol-mulk nazoratini yo‘qotishga olib kelishi mumkin.

Xorij tajribasiga ko‘ra, tijorat korxonalari, banklar va aholi tomonidan jamg‘arilgan xususiy kapitalni unumli foydalanishni boshqarish innovatsion siyosatni aktivlashtirishga ijobiy ta’sir etadi.

5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalarning innovatsion faoliyatini moliyashtirishning samarali tizimini shakllantirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijasida quyidagi muhim ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirildi va taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Korxonalarda innovatsion faoliyat, innovatsion jarayonga ta’rif berildi, fan- texnika yangiliklarini ishlab chiqarishga tatbiq etishni ifoda etuvchi tushunchalar, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bilan bog‘liq tushunchalarining takomillashgan ta’riflari ishlab chiqildi. Shuningdek, korxonalarda innovatsion loy-ihalarni ishlab chiqish va moliyalashtirishni amalga oshirish xususiyatlari o‘rganildi va baho berildi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2. Korxonalar innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishga qaratilgan moliyaviy siyosatning joriy holati, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari tahlil qilindi va moliyalashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari o‘rganildi va yurtimizda uni qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berildi.
3. Tadqiqotlar natijasida ustav fondida 50 va undan ortiq foiz davlat ulushi bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlarida foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foydaning 10 foizgacha miqdoridagi ajratmalari hisobidan korxonalarning alohida hisob raqamida shakllantiriladigan innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etishning maqsadga muvofiqligi bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenting 2022-yil 6- iyuldagi PF-165-son “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilishida foydalanildi.
4. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda, an’anaviy bank kreditlari bilan bir qatorda fond bozori instrumentlaridan amaliy foydalanishni kengaytirish bo‘yicha xosilaviy qimmatli qog‘ozlardan foydalanish bo‘yicha xorijiy davlat tajribasi va yurtimizga tatbiq etish bo‘yicha (derivativlar, ularga, xususan, varrantlar va opsionlar kiradi) amaliy tavsiyalar berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Unctad. (2013). Trade and Development Board Investment, Enterprise and Development Commission Fifth session Geneva, 29 april–3 May 2013. Item 5 of the provisional agenda Investment, innovation and technology for development investing in innovation for development. BMTning Savdo va Taraqqiyot konferensiyasining hisobot ma’lumotlari tahlili. United States National Academies of Science (2007) AQSh Fanlar Akademiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrda “2019–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrda “Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5583-son Farmoni.
4. Arrow K. J. Social Choice and Individual Values / third edition 3rd ed. NY: Yale University Press, 2012.
5. Schumpeter, Y. A. Theory of economic development / Y. A. Schumpeter. – Moscow: Direkt-Media, 2007. –400 p. – Mode.
6. Peter F. Drucker - Innovation and Entrepreneurship. 432 page; ISBN 978-5-8459-1195-7. 1985.
7. Rais Fatkhutdinov. Production management. – 455 pages, –2016.
8. Колтынюк Б.А. Инвестиционное проектирование объектов социально-культурной среды: Учебник. – Спб.: Изд-во Михайлова В.А. –2000. – С. 32-33.
9. Iqtisod va moliya sohasiga oid adabiyotlar orqali muallif tomonidan tuzildi.
10. Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

YETAKCHI XORIJIY ILMIY TASHKILOTLARGA QISQA MUDDATLI ILMIY STAJIROVKALARGA YUBORILGAN YOSH OLIMLARNING TAHLILI



Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich
Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda yosh olimlarga ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun zamonaviy laboratoriyalardan foydalanish imkoniyatini berish muhim ahamiyatga egaligi va shu maqsadda ilg‘or uslub va texnologiyalar bilan yaqindan tanishishlari uchun xorijda qisqa muddatli stajirovkalarni tashkil etish zarurligi yoritilgan. Shu bilan birga, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tashkilotlar zamonaviy jihozlar bilan ta’minlangan bo‘lsa-da, yosh olimlarning to‘liq faoliyat yuritishi uchun ularning xorijlik hamkasblar bilan tajriba almashishi uchun imkoniyat yaratish orqali ilmiy izlanishlar rivoji va yangi natijalarga erishish kafolatlanishi tahlil qilingan. Yosh olimlarning xorijda amaliyot o‘tashini tashkil etish, ularning malakasini oshirishda muhim bosqich bo‘lib, bu masalaga ham e’tibor qaratish zarurligi aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: Yosh olimlar, tadqiqotchilar, ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy ta’lim muassasalari, laboratoriyalar, uskunalar, ilm-fan, tadqiqot, stajirovka, xorijiy ilmiy tashkilotlar, amaliyot, xorijiy mamlakatlar.

Abstract: This article highlights the importance of giving young scientists in our country the opportunity to use modern laboratories for conducting scientific research, and for this purpose, the need to organize short-term internships abroad so that they can familiarize themselves with advanced methods and technologies. At the same time, although universities and scientific organizations are provided with modern equipment, it is analyzed that the development of scientific research and the achievement of new results are guaranteed by creating an opportunity for young scientists to exchange experience with foreign colleagues. Organization of internships of young scientists abroad is an important stage in improving their qualifications, and it is reflected the need to pay attention to this issue.

Key words: Young scientists, researchers, scientific research institutions, higher education institutions, laboratories, equipment, science, research, internship, foreign scientific organizations, practice, foreign countries.

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность предоставления молодым ученым в нашей стране возможности использовать современные лаборатории для проведения научных исследований, а также с этой целью необходимость организации краткосрочных стажировок за рубежом для ознакомления их с передовыми методами и технологиями. . При этом, хотя университеты и научные организации обеспечены современным оборудованием, анализируется, что развитие научных исследований и достижение новых результатов гарантированы созданием возможности для молодых ученых обмениваться опытом с зарубежными коллегами. Организация стажировок молодых ученых за рубежом является важным этапом повышения их квалификации и отражает необходимость обратить внимание на этот вопрос.

Ключевые слова: Молодые ученые, исследователи, научно-исследовательские учреждения, вузы, лаборатории, оборудование, наука, исследования, стажировка, зарубежные научные организации, практика, зарубежные страны.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ilm-fan sohasidagi o‘zgarishlar natijasi sifatida ilmiy-tadqiqot sohasi ta’lim va fanni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tashkilotlar zamonaviy laboratoriyalar bilan faol ta’minlangani turli bilim sohalari bo‘yicha yuqori sifatli ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, yosh olimlarni ilg‘or texnologiya va texnikalar bilan ishlash bo‘yicha tajriba orttirish uchun qisqa muddatli xorijiy stajirovkalarga yuborish zarurati paydo bo‘ldi.

Bugungi kunda ilmiy tashkilotlarning faoliyatini har tomonlama rivojlantirishga Innovatsion rivojlanish agentligi o‘zining salmoqli hissasini qo‘shib kelmoqda. Xususan, oliy ta’lim va ilmiy tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan yosh olimlarning xorijiy davlatlarga qisqa muddatli stajirovkalarini tashkillashtirish shular sirasiga kiradi. Xorijiy stajirovkalar yosh olimlarning ilg‘or ilmiy ishlanmalar bilan yaqindan tanishish, xorijlik hamkasblari

bilan tajriba almashish, kasbiy mahoratini kengaytirish imkonini bermoqda. Bu har bir yosh olimning malakasini oshirishda muhim bosqich bo‘lib, ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish va mamlakatimiz ilmiy bazasini boyitishga xizmat qilmoqda.

Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi 222-son qarori bilan tasdiqlangan “Yosh olimlarni yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish tartibi to‘g‘risida” Nizomga muvofiq yosh olimlarni yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga ilmiy stajirovkalarga yuborib kelinmoqda (1-jadval).

1-jadval: Yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga ilmiy stajirovkalarga yuborilgan yosh olimlar1

№	Ko‘rsatkich nomi	2022-yil	2023-yil
1	Ilmiy stajirovkaga yuborilgan yosh olimlar soni	181	315
2	Imzolangan shartnomalar soni	131	200
3	Nomzodi ilmiy stajirovkaga yuborilgan OTM/ITI soni	76	100
4	Ilmiy stajirovkaga yuborilgan xorijiy mamlakat soni	27	30
5	Stajirovka o‘tkazilgan yetakchi xorijiy ilmiy tashkilot soni	84	120

O‘z navbatida, yosh olimlarning qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarini tashkil etish maqsadida har yili tanlovlar o‘tkazib kelinmoqda. Tanlovlarga vazirlik va idoralar tomonidan nomzodlar va ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar taqdim etiladi. Maxsus ekspert guruhining xulosalariga muvofiq nomzodlar suhbat asosida saralab olinadi va g‘olib deb topilgan yosh olimlar xorijiy davlatlardagi yetakchi ilmiy tashkilot, markaz va oliy ta’lim muassasalariga ilmiy stajirovkalarga yuborilib kelinmoqda (1-rasm).



1-rasm: Stajirovkalarga yuborilgan yosh olimlar soni[2]

2022-yilda haqiqatda 181 nafar (prognoz ko‘rsatkichiga nisbatan 61 foiz) talabgorlar AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Turkiya, Chexiya kabi davlatlarning oliy ta’lim va ilmiy tashkilotlariga stajirovkalarga yuborilgan, jumladan (2-rasm):

“Yosh olimlarni yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarda (markazlar, universitetlar va boshqalar), shu jumladan ilmiy laboratoriyalarni jihozlash uchun sotib olinadigan yuqori texnologik asbob-uskunalarda ishlash metodikasini o‘zlashtirish uchun qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish maqsadida ularni tanlov asosida saralash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq jami 61 nafar talabgorlar saralab olingan bo‘lib, shundan, 5 nafari global pandemiya sharoiti sababli stajirovkalari 2022-yilda amalga oshirilgan (bunda 5 nafar talabgorning yoshi 45 yoshdan oshgan hisoblangan).

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi 222-son qarori bilan tasdiqlangan “Yosh olimlarni yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq 101 nafar talabgorlarning (1 nafar 40 yoshdan oshgan talabgor nizomning 25-bandiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining asoslantirilgan taklifiga ko‘ra) va Vazirlar Mahkamasining topshirig‘iga muvofiq 20 nafar prorektorlarning (16 nafari 40 yoshdan oshgan) stajirovkalarga yuborish belgilangan.


Ma’lumot uchun: Talabgorlarni stajirovkaga yuborish uchun e’lon qilingan tanlovlar haqidagi ma’lumotlar va tanlovlar natijasi Innovatsion rivojlanish agentligining rasmiy saytida e’lon qilib boriladi.

1 Innovatsion rivojlanish agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
2 Innovatsion rivojlanish agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan o‘tkazilgan tanlov natijalariga ko‘ra, 2022-yil 1-yanvar holatiga saralab olingan 338 nafar talabgorlardan qolgan 191 nafar talabgorning stajirovka o‘tash bo‘yicha qabul qiluvchi yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlari Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasida joylashgan bo‘lib, Tashqi ishlar vazirligining tavsiyasiga muvofiq siyosiy vaziyatni inobatga olgan holda 141 nafar talabgorlarning stajirovkalarga yuborish muddatlari kechiktirilgan.


Shunga ko‘ra, qo‘shimcha ravishda 2022-yilda stajirovkalarga yuboriladigan talabgorlar sonini 300 nafarga yetkazish maqsadida Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan e’lon qilingan tanlovlar natijasiga ko‘ra 326 nafar talabgorlar yetakchi ilmiy tashkilotlarga stajirovkalarga yuborish uchun saralab olingan. Shu bilan birga, mazkur talabgorlardan 18 nafarini stajirovkalari 2022-yilda amaliy tashkil etilgan.

Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan 2022-yilda 181 nafar talabgorlarni stajirovkalarga yuborish, ularning Buyurtmachilari tomonidan o‘rnatilgan tartibda taqdim etilgan shartnomalarga muvofiq tashkil etilgan va stajirovka bilan bog‘liq xarajatlarini moliyalashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilgan.



2-rasm: 2022-yilda ilmiy stajirovkaga yuborilgan yosh olimlar (xorijiy mamlakatlar kesimida)

2022-yilda yosh olimlarni qisqa muddatli stajirovkalarga yuborish borasida e’lon qilingan tanlovlarda g‘olib bo‘lganlarning asosiy qismi respublikamizning oltita hududidan hisoblanadi (3-rasm).



3-rasm: Stajirovkaga yuborilgan yosh olimlar (hududlar kesimida)[3]

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimidagi mavjud muammolarni yechimiga qaratilgan hamda takomillashtirish yuzasidan quyidagilar taklif etiladi:

1. Stajor-tadqiqotchilik shakliga qabul qilingan izlanuvchilar uchun ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish bo‘yicha 72 soatdan iborat ilmiy-tadqiqot metodologiya kursini tashkil etish.

Kutilayotgan natija: doktoranturaga qabul qilinganda ilmiy tadqiqot ishini rejalashtirish, tadqiqot maqsadlari va vazifalarni belgilash va unga erishish bo‘yicha tadqiqot metodikalar o‘zlashtirgan holda samarali natijaga erishiladi.

3 Innovatsion rivojlanish agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2. Ilmiy rahbarlar va konsultantlarning har bir stajor-tadqiqotchi va doktorant bilan olib borilgan ish uchun mehnatiga haq to‘lash soat miqdorini ikki barobarga oshirish.

Ma’lumot uchun: hozirda bir yilda stajor-tadqiqotchi uchun 75 soat, doktorant uchun 100 soat hajmida to‘lanadi.

Kutilayotgan natija: ilmiy rahbarlar va konsultantlarning izlanuvchilar uchun ko‘proq vaqt ajratiladi hamda ularni tadqiqot ishlariga jiddiy e’tibor beriladi va munosib ravishda moddiy rag‘batlantiriladi.

3. Oliy ta’limdan keyingi ta’limga qabul qilish, monitoring qilish, dissertatsiyalarni tayyorlash va himoya qilish jarayonlari bo‘yicha mavjud axborot tizimlarini birlashtirish.

Kutilayotgan natija: avtomatik tarzda izlanuvchilar faoliyati samaradorlik natijasi tahlil qilinadi va kelgusida davlat tomonidan ilmiy faoliyatning fundamental tadqiqotlar talab etiladigan yo‘nalishlarni belgilash imkoniyatini beradi.

4. Muddatidan oldin himoya qilgan izlanuvchilar va ularning ilmiy rahbar/konsultantlariga tegishli o‘quv yilining qolgan davri (muddati) uchun nazarda tutilgan stipendiyaning hamda doktorant bilan olib borilgan ish uchun to‘lovning jami miqdori hajmida mukofot to‘lash.

Kutilayotgan natija: muddatidan oldin dissertatsiya himoya qilgan izlanuvchilarning salmog‘i oshishiga hamda xalqaro me’yoriy ko‘rsatkichlar darajasiga chiqishiga erishiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarni zamonaviy laboratoriyalar bilan jihozlash natijasida yosh olimlarni qisqa muddatli xorijiy stajirovkaga yuborish zarurati yuzaga keldi va bu Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan har yili tanlov asosida tashkillashtirib kelinmoqda.

Bu tashkiliy ishlar yosh olimlarga o‘z ilmiy ishlarida qo‘llash mumkin bo‘lgan eng yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash imkonini beradi va ushbu amaliyotlar orqali yosh olimlar tadqiqot sifatini sezilarli darajada yaxshilaydigan ilg‘or texnologiyalar va texnikalar bilan ishlash imkoniyatidan bahramand bo‘lishadilar. Xorijiy stajirovkalar ham xalqaro ilmiy aloqa va hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga xizmat qilmoqda. Bu yosh olimlar uchun yangi ufqlarni ochib, boshqa mamlakatlardagi hamkasblari bilan tajriba va fikr almashish imkonini beradi.

Bunday xalqaro integratsiyasi butun ilm-fan rivojiga xizmat qiladi va yangi istiqbolli, innovatsion ilmiy loyihalarni yaratish uchun yangi imkoniyat eshiklarini ochib beradi. Shu bilan birga, yosh olimlarni xorijda amaliyot o‘tab qaytganlaridan keyin ham ularni qo‘llab-quvvatlash muhimligiga e’tibor qaratish lozim. Olingan bilim va tajribani o‘z ilmiy jamoatchiligi manfaati yo‘lida qo‘llashi uchun ularning mamlakatimizdagi keyingi faoliyati va rivojlanishi uchun sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi “Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori 222-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2021-2022-yillarda “Yosh olimlarni yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi;
3. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi ma’lumotlari;
4. https://innovation.gov.uz/;
5. https://lex.uz.

GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHINING IQTISODIY TA’SIRINI BAHOLASH MODELLLARI



Elov Ashrafjon Asqarjon o‘g‘li
H.f.f.d (PhD), O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti bosh ilmiy xodimi

Annotatsiya: Maqolada iqlim o‘zgarishlarining iqtisodiyotga ta’sirining umumiy tavsifi, ushbu ta’sirlarni baholash modellari va ularni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari hamda iqtisodiyotga ta’sirlarni baholash natijalari bayon etildi.

Kalit so‘zlar: iqlim o‘zgarishi, isish, CO_2, iqtisodiyotga ta’sirlar, yalpi ichki mahsulot, farovonlik, miqdoriy baholar, Integratsiyalashgan baholash modellari, “Yangi” panel ma’lumotlar modellari, iqtisodiy model, meta-analitik integratsiyalashgan baholash modeli.

Abstract: The article provides a general description of the consequences of climate change for the economy, models for assessing these effects and the features of their application, as well as the results of assessing the consequences for the economy.

Key words: climate change, warming, CO_2, economic consequences, GDP, welfare, quantitative assessments, integrated assessment models, “New” panel data models, economic model, meta-analytic integrated assessment model.

Аннотация: В статье дано общее описание последствий изменения климата для экономики, модели оценки этих эффектов и особенности их применения, а также результаты оценки последствий для экономики.

Ключевые слова: изменение климата, потепление, CO_2, экономические последствия, ВВП, благосостояние, количественные оценки, модели интегрированной оценки, “Новые” модели панельных данных, экономическая модель, метааналитическая модель интегрированной оценки.

Bugungi kunda olib borilayotgan qator ilmiy tadqiqotlarga qaramasdan, iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga erishish uchun iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’sirlari ko‘lami va miqdorini aniqlash hamda ushbu sohada ekonometrik modellarni ishlab chiqish ilmiy muammoligicha qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Parij bitimi (2015-yil 12-dekabr) doirasida 2010-yilga nisbatan 2030-yilga borib yalpi ichki mahsulot (keyingi o‘rinlarda YaIM) birligiga to‘g‘ri keladigan issiqxona gazlari tashlamalarini 35 foizga kamaytirish bo‘yicha majburiyat olgan [1]. Albatta, mazkur majburiyat ijrosini ta’minlash, jumladan, iqtisodiyot sohalarini qazib olinadigan energiyadan bosqichma-bosqich ekologik tozo energiyaga o‘tkazish O‘zbekiston iqtisodiyotiga sezilarli ta’sirlarni keltirib chiqaradi.

Iqlim o‘zgarishini iqtisodiyotga ta’sirini empirik baholash bo‘yicha birinchi tadqiqotlar 1990-yillarda boshlanib, bir qator o‘rganishlar amalga oshirilgan va iqlim o‘zgarishi ta’sirlarini baholash uchun metodologiyalar ishlab chiqilgan.

Iqlim o‘zgarishi ta’sirlarini dastlabki empirik baholashlarda olimlar miqdoriy baholash hamda keyinchalik ekspertlar baholarini umumlashtirish usulidan foydalanganlar. O‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlarda “iqlim o‘zgarishining iqtisodiy zararining miqdoriy baholari odatda o‘rtacha harorat o‘zgarishini YaIM yo‘qotishlari bilan bog‘laydigan umumiy munosabatlarga asoslangan” [2] hamda iqlim o‘zgarishining aholi farovonligiga ta’sirini aniqlash uchun turli ko‘rsatkichlarga asoslangan ekonometrik modellar yaratilgan.

Xususan, 1994-yilda Oksford universiteti Iqlim iqtisodiyoti va siyosati professori S.Fankxauzer global iqlimning zararlarini iqtisodiy narxini baholash uchun miqdoriy aniqlash strategiyasidan foydalangan [3]. Moskvalik olima M.Kazakovaning fikriga ko‘ra, S.Fankxauzerning bu usuli “iqlimga zarar etkazuvchi funksiya(lar)ni kalibrlash uchun integratsiyalashgan baholash modellari (Integrated assessment models, IAMs)dan foydalana boshlagan metodologiyaga aylandi, ayniqsa, Dinamik integratsiyalashgan iqlim va iqtisodiy modeli (Dynamic Integrated Models of Climate and Economics, DICE), Noaniqlik, muzokaralar va taqsimot modeli (Framework for Uncertainty, Negotiation and Distribution, FUND) va Issiqxona effektiga oid siyosat tahlili (Policy Analysis of the Greenhouse Effect, PAGE) yaratildi” [4] deya qayd etgan.

Biroq, Swiss Re instituti olimlari bugungi kunda asosan uchta moddellar yordamida iqlim o‘zgarishini iqtisodiyotga ta’siri baholanayotganligini qayd etadi. Jumladan, Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hukumatlararo panel (IPCC) tomonidan Integratsiyalashgan baholash modellari (Integrated Assessment Models (IAMs) iqlim o‘zgarishi va iqtisodiy zarar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rgangan birinchi modellardir. Ushbu modellar uglerod emissiyasining zarari va ularni kamaytirish xarajatlarini hisoblash orqali makroiqtisodiy ta’sirlarni baholaydi. Ushbu modellar 2100-yilga kelib iqlim o‘zgarishining YaIMga ta’sirini 2% dan 10% gacha salbiy ta’sir ko‘rsatishini qayd etgan [5]. Biroq, ushbu modellar haroratni YaIMga ta’sir qilishi va modellashtirishda foydalaniladigan diskont stavkasi bilan bog‘laydigan zarar funktsiyasi uchun tanqid qilinadi. Shuningdek, iqlim o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan tabiiy ofatlar, migratsiya va mojarolar, kapital va moliya bozoridagi o‘zgarishlar zararni hisoblashda hisobga olinmaydi. Bu esa, muqarrar ravishda iqtisodiy ta’sirning etarli darajada baholanmasligiga olib keladi.

“Yangi” panel ma’lumotlar modellari (“Newer” panel data models) IAMdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun mo‘ljallangan modellarning keyingi avlodidir. IAMlarda zarar ko‘rsatkichlarini baholash uchun kesma regressiya yondashuvidan foydalanilgan bo‘lsa, bunda iqlim o‘zgarishini yumshatish uchun xarajatsiz moslashishdagi zararlarga asoslanadi. Shu sababli, iqlim o‘zgarishi ta’sirlarini IAMlarga qaraganda aniqroq hisob-kitob qiladi [5].

Pastdan yuqoriga yoki amaliy tadqiqotlarga asoslangan yondashuvlar (Bottom-up or case-study based approaches)da IAM yoki panel ma’lumotlar usullariga qaraganda asosiy e’tibor iqlim o‘zgarishi natijasida xavf ostidagi iqtisodiy faollikka asoslanadi. Shuningdek, iqlim prognozlari va modellashtirilgan ta’sirlardan foydalangan holda zarar miqdorini baholash yuqoridan pastga yondashuvlar yordamida olib borildi. Bundan farqli o‘laroq, pastdan yuqoriga yondashuvlarda esa asosiy e’tibor yaqin o‘tmishdagi va hozirgi paytdagi iqlim o‘zgarishlarining ta’siri iqtisodiyotning zaif sohalariga qaratilgan. Yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga yondashuvlari iqlim o‘zgarishi sharoitida kim va nima xavf ostida ekanligi to‘g‘risida bir-birini to‘ldiruvchi ma’lumotlarni taqdim etadi [6].

Amsterdam universitetining iqlim o‘zgarishi iqtisodiyoti professori R.Tolning qayd etishicha, “iqlim o‘zgarishining farovonlikka ta’siri bo‘yicha birinchi tadqiqotlar Klayn (1992), Nordxaus (1991) va Titus (1992, shuningdek, Smit, 1996) tomonidan Qo‘shma Shtatlar uchun amalga oshirilgan. Nordxaus (1991, Ayres va Valter, 1991) o‘zining AQSh hisob-kitoblarini dunyoga ekstrapolyatsiya qilgan. Xohmeyer va Gaertner (1992) ba’zi global hisob-kitoblarni e’lon qilgan bo‘lsa-da, iqlim o‘zgarishining global farovonlikka ta’sirini birinchi jiddiy o‘rganish Fanxauzerga (1994, 1995) tegishli”dir [7]. R.Tol iqlim o‘zgarishining farovonlikka ta’sirini baholash bo‘yicha 1991—2006-yillarda o‘tkazilgan mazkur olimlar tadqiqot natijalarini jamlagan. Shu sababli, u tayyorlagan 1-jadval ma’lumotlarini batafsil tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-jadval: Iqlim o‘zgarishining farovonlikka ta’sirini baholash [8] (YaIMga nisbatan foizda daromad yoki zarar sifatida ifodalanadi)

№	Tadqiqotlar	Isish (°C)	Ta’sir (YaIMga nisbatan %)	Eng yomon ahvoldagi davlat		Eng yaxshi ahvoldagi davlat	
				YaIM %	Nomi	YaIM %	Nomi
1	Nordhaus (1994)	3	-1.3				
2	Nordhaus (1994)	3	-4.8				
3	Fankhauser (1995)	2.5	-1.4	-4.7	Xitoy	-0.7	Sharqiy Yevropa va sobiq Sovet Ittifoqi
4	Tol (1995)	2.5	-1.9	-8.7	Afrika	-0.3	Sharqiy Yevropa va sobiq Sovet Ittifoqi
5	Nordhaus va Yang (1996)	2.5	-1.7	-2.1	Rivojlangan davlatlar	0.9	Sobiq sovet davlatlari
6	Plambeck va Hope (1996)	2.5	2.5	-8.6	Osiyo (Xitoy)	0.0	Sharqiy Yevropa va sobiq Sovet Ittifoqi
7	Mendelsohn, Schlesinger va Williams (2000)	2.5	0.0	-3.6	Afrika	4.0	Sharqiy Yevropa va sobiq Sovet Ittifoqi
8	Nordhaus va Boyer (2000)	2.5	-1.5	-3.9	Afrika	0.7	Rossiya
9	Tol (2002)	1.0	2.3 (1.0)	-4.1 (2.2)	Afrika	3.7	G‘arbiy Yevropa
10	Maddison (2003)	2.5	-0.1	-14.6	Janubiy Amerika	2.5	G‘arbiy Yevropa
11	Rehdanz and Maddison (2005)	1.0	-0.4	-23.5	Sahroi Kabir Afrika	12.9	Janubiy Osiyo

12	Hope (2006)	2.5	0.9	-2.6	Osiyo (Xitoy)	0.3	Sharqiy Yevropa va sobiq Sovet Ittifoqi
13	Nordhaus (2006)	2.5	-0.9				

Mazkur jadvalda qavslar ichida baholar 95 foizlik ishonch oralig‘i sifatida berilgan bo‘lib, tadqiqotchilar tomonidan iqtisodiyotga zararlar turli yo‘llar bilan aniqlangan bo‘lsa-da, ularning natijalari bir-biriga yaqin, keskin farq qilmaydi. Deyarli, barcha tadqiqotlarda iqlim o‘zgarishining oqibatlari hududlar kesimida xilma-xil bo‘lsa-da, biroq iqlim o‘zgarishiga eng kam hissa qo‘shadigan kam daromadli mamlakatlar uning ta’siriga eng zaifligi qayd etilgan. Bunda, global isish natijasida yer sharining shimoliy qismidagi davlatlar uchun qulay obi-havo paydo bo‘lishi hisobiga kam zarar ko‘rib, aksincha, Yer sharining janubiy qismda joylashgan davlatlar iqlim o‘zgarishlari, xususan, qurg‘oqchilik va noqulay obi-havo sharoitidan nisbatan ko‘proq zarar ko‘radi.

Ayrim tadqiqotchilar hisoblagan iqtisodiy ta’sirlarni yillar o‘tishi bilan qayta ko‘rib chiqilib, qo‘lga kiritilgan ilmiy natijalarga o‘zgartirishlar kiritilgan. Bu o‘z navbatida, iqlim o‘zgarishlarini iqtisodiyotga ta’sirini aniqlashda qonuniyatlarning mavjud emasligi, bu borada ilmiy doiralarda bahslar davom etayotganligi, ta’sirlarni baholashda hududlarning geografik xususiyatlaridan kelib chiqish lozimligi, bir hudud bo‘yicha baholarni boshqa hududlarga qo‘llab bo‘lmasligi va iqtisodiy ta’sirlar uzil-kesil ilmiy asoslanmaganligi bilan izohlanadi.

Oksford universiteti Iqlim iqtisodiyoti va siyosati professori Sem Fankxauzer (1994, 1995), amerikalik iqtisodchi Uilyam Nordxaus (1994) va Tol (1995, 2002) tomonidan olib borilgan iqlim o‘zgarishining farovonlikka ta’sirini baholash tadqiqotlarida sanab o‘tish usulidan qo‘llanilgan. Ushbu yondashuvda iqlim o‘zgarishining “jismoniy ta’siri”ni baholash uchun tabiiy fanlar doirasida qilingan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida iqlim ta’siri baholangan. Shu sababli, ularning tadqiqotlarida iqlim modellari, ta’sir modellari va laboratoriya tajribalari natijalaridan samarali foydalanilgan. Masalan, qishloq xo‘jaligi sohasidagi ta’sirni bashorat qilish uchun ushbu sohada mahsulot hajmining o‘zgarishini baholovchi ko‘rsatkichlar, ularning bozor narxlari asosida hisoblab chiqiladi. Bozor qiymati bo‘lmagan tovarlar va xizmatlar, jumladan, sog‘liqni saqlash sohasidagi zararlarni esa o‘lchash imkoniyat mavjud emas. Shu bois, ayrim olimlar iqlim o‘zgarishining bozor bo‘lmagan ta’sirini baholashda ushbu zararlarni bartaraf etishga ketgan xarajatlarni hisoblash chiqish orqali baholaydilar. Biroq, bunday turdagi bir qator zarar ko‘rsatkichlarini baholab chiqish uzoq vaqt va katta mablag‘ni talab qiladi.

Amerikalik ekologiya iqtisodchisi Robert O. Mendelson va uning jamoasi (Morrison, Schlesinger va Andronova, 2000; Schlesinger va Williams, 2000) tadqiqotlarida statistik yondashuv usulini qo‘llagan. Ushbu usul iqlim ta’sirini aniqlash uchun narxlar va xarajatlarda kuzatilgan o‘zgarishlarni aniqlash orqali farovonlikka ta’sirlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri baholashga asoslanadi. R. Mendelsonning hisob-kitoblari tanlangan mamlakatlar uchun har bir sektor bo‘yicha amalga oshiriladi, boshqa mamlakatlarga ekstrapolyatsiya qilinadi va barchasi jamlanadi.

Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti sohibi (iqtisodiy o‘sishda innovatsiyalar va iqlimni integratsiyalashgani uchun, 2018-yil) [9] U.Nordxaus iqlimning butun dunyo bo‘ylab daromadga umumiy ta’sirining empirik hisob-kitoblaridan foydalanadi (har bir tarmoq bo‘yicha). Taniqli britaniyalik iqtisodchi A.Maddison (2003) esa uy xo‘jaliklarining umumiy iste’moli modellarini (har bir mamlakat uchun) ko‘rib chiqadi. Kembrij universiteti sudya biznes maktabi professori Chris Hopening tadqiqoti S.Fanxauzer va R.Tolning tadqiqotida aniqlangan ko‘rsatkichlarning o‘rtacha qiymatini aniqlashga asoslangan.

R.Tol yuqoridagi jadvalda keltirib o‘tgan ko‘rsatkichlarni batafsil tahlil qilib, “1-2°C isishning umumiy iqtisodiy ta’siri ijobiy bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, bu darajadan tashqarida qo‘shimcha ta’sirlar salbiy bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, agar kelajakka qaralsa, qo‘shimcha effektlar yanada salbiyroq ko‘rinadi. ... bu erda sanab o‘tilgan tadqiqotlar uchun hisob-kitoblar tadqiqot olib borilgan yilga YaIMning 0,23 foiziga kamroq salbiy ta’siri bo‘ladi (yiliga 0,10 foiz standart og‘ish bilan)” [10],– deya xulosa qilgan.

2006-yildan keyin global iqlim o‘zgarishining mumkin bo‘lgan makroiqtisodiy ta’sirini miqdoriy baholash borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar keskin oshdi. Ushbu tadqiqotlarda iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’sirini baholashga qaratilgan yangi ko‘rsatkichlar tizimi hamda iqtisodiy modellar ishlab chiqildi. Ushbu hisob-kitoblar va asoslantirishlarda qo‘llanilayotgan metodlar bir-biridan muayyan darajada farq qiladi.

Oslo universitetining iqtisod bo‘yicha faxriy professori M. Hoel va Gothenburg universitetining atrof-muhit iqtisodiyoti professori T. Sterner 2007-yilda texnologiya, ijtimoiy imtiyozlar va ekologik tovarlar narxining o‘zgarishdagi ta’sirlar asosida hisoblanadigan iqtisodiy model ishlab chiqib, iqlim o‘zgarishining farovonlikka ta’sirini baholash oralig‘i haroratning 1-3°C gacha ko‘tarilishi sharoitida YaIMning 2,3% dan 11,5% gacha yo‘qotilishini aniqladi [11].

Yevropa Komissiyasi Qo‘shma tadqiqot markazi ilmiy xodimi Juan-Carlos Ciscar va uning jamoasi 2011-yilda iqlim o‘zgarishini Yevropa Ittifoqida 4 ta soha(qishloq xo‘jaligi, daryo toshqini, qirg‘oq tizimlari va turizm) dagi iqtisodiy zararlarni baholab, havo harorati 2,5°C oshganda YaIM 0,2%ga va 5,4 °Cda 1% gacha yillik kamayishga olib keladi. Ushbu olimlarning fikriga ko‘ra, daryo toshqinlari natijasida binolarga etkazilgan zararni

ta'mirlash bilan bog'liq ishlab chiqarish hajmining oshishi, Shimoliy Yevropa davlatlarida havo haroratining isishi bilan qishloq xo'jaligi hosildorligining yaxshilanishi YaIM qiymatini oshishiga olib keladi. Shu sababli YaIMga zarar kam bo'ladi, biroq iste'molchilarning farovonligi yaxshilanmaydi [12]. Ushbu tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, farovonlik o'zgarishlarining soha va geografik joylashuv kesimida iqlim o'zgarishining zararlari turizm sohasiga nisbatan qishloq xo'jaligi sohasi va qirg'oq hududlariga ko'proq bo'ladi.

Taniqli olim W.Nordxaus 2016-yilda o'zining oldingi tadqiqotlarini DICE modeli (Iqlim va iqtisodiyotning dinamik integratsiyalashgan modeli) asosida qayta ko'rib chiqib, iqlim o'zgarishining iqtisodiyotdagi ta'sirini tushuntirishda "uglerodning ijtimoiy qiymati" tushunchasini kiritdi. Uning fikriga ko'ra, bu atama qo'shimcha karbonat angidrid emissiyasi yoki uning ekvivalenti natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy xarajatlarni ifodalaydi. Shuningdek, 2010-yilda uglerodning ijtimoiy qiymati – bir tonna CO_2 uchun 31 AQSh dollarni tashkil qilishi, 2050-yilgacha ushbu ko'rsatkich yiliga 3%ga o'sib borishini qayd etgan. Uning tadqiqot natijalariga ko'ra, global isishning 3°Cga ko'tarilishi global daromadning 2,1%ga va 6°Cga isish global daromadning 8,5% yo'qotiliga olib keladi [13]. Fikrimizcha, ushbu tadqiqotda iqlim o'zgarishlaridan zararlar global daromadga nisbatan hisoblanganligi sababli, ushbu ko'rsatkichlarni davlatlarning geografik joylashuvi va zararlar turlicha bo'lishini hisobga olinsa zarar koeffitsentlarini barcha davlatlarga bir xilda qo'llab bo'lmaydi.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, jurnalist Ch.Ketcham U.Nordxausning tadqiqot natijalari butun dunyo siyosatiga jiddiy ta'sir qilayotganlini ta'kidlab, "uning ishi tom ma'noda milliardlab odamlarning hayotiga ta'sir qilishi mumkin. Buning sababi shundaki, u iqlimga ta'sir qilishning bevosita xarajatlarini – harakat qilmaslikning uzoq muddatli iqtisodiy zararlariga nisbatan muvozanatlashgan holda uglerod chiqindilarini kamaytirish bo'yicha takliflarning asosi hisoblanadi" [14], – deya qayd etgan. Darhaqiqat, bugungi kunda iqtisodchilar oldidagi eng katta vazifalardan biri iqlim o'zgarishlarining iqtisodiyotdagi ta'sirini aniq ko'rsatkichlarda o'lchash modellarini yaratish va ta'sirlarni baholashdan iborat hisoblanadi.

London Iqtisodiyot va siyosiy fanlar maktabi professori Simon Dietz va uning jamoasi 2021-yilda meta-analitik integratsiyalashgan baholash modelidan (IAM) foydalanilgan holda iqlim o'zgarishining 8 ta o'zgarish nuqtalarini tahlil qilib, tadqiqot natijasida "haroratning 3°C isishi aholi jon boshiga global iste'molni taxminan 1%ga, 6°C isishi esa 1,4% atrofida kamayishiga olib keladi" [15] deya qayd etgan.

E'tibor qaratish lozimki Qozog'iston Iqtisodiy tadqiqotlar instituti, GWS (Gesellschaft für Wirtschaftliche Strukturforschung) va "Iqlimga chidamli iqtisodiy rivojlanish uchun siyosat tavsiyalari" (CRED) global dasturi jamoasi milliy darajada iqlim o'zgarishi natijasida (masalan, qurg'oqchilik va suv toshqini) etkazilgan iqtisodiy zararni hamda moslashish choralarining iqtisodiy foydasini ko'rsatuvchi e3.kz iqtisodiy Excel modeli yaratgan[1] [16]. Mazkur model iqlim o'zgarishlari 2050-yilgacha Qozog'istonning iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini va tegishli moslashuv choralariga kiritilayotgan investitsiyalar butun iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatishi va foyda keltirishini tahlil qilish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilganda, iqlim o'zgarishlari – bu muvofiqlashtirilgan harakatlarni talab qiladigan tizimli xavfdir. Hozirgi kunga kelib iqlim o'zgarishlarining jismoniy va tizimli ta'sirlari davlatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qilmoqda hamda ularning barqaror rivojlanishiga to'siqlarni keltirib chiqarmoqda. Aksariyat davlatlar tajribasida kuzatilganidek, O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga iqlim o'zgarishlari ta'siri mavjud. Shunonchi, O'zbekistonning geografik joylashuvchi va iqlim o'zgarishlarining ta'sir darajasidan kelib chiqqan holda "Iqlim o'zgarishlarining iqtisodiyotga ta'siri modellari"ni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu modellarda mintaqaning ekologik xususiyatlarini inobatga olish, iqlim stsenariylarini sinchkovlik bilan tanlash, ta'sir modellari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar tizimini yaratish va to'plab borilishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022-yildagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori // https://lex.uz
2. Juan-Carlos Ciscar, Ana Iglesias, Luc Feyen, Antonio Soria. Physical and economic consequences of climate change in Europe. January 31, 2011. 108 (7) 2678-2683 // https://www.pnas.org/doi/full/10.1073/pnas.1011612108
3. Fankhauser Samuel. Valuing climate change: the economics of the greenhouse. London: Earthscan.1995. 180pp. Index. Pb.: £14.95. ISBN 1 85383 237 5. // https://academic.oup.com
4. Казакова М.В. Количественные оценки потенциальных макроэкономических последствий глобального изменения климата: что говорит литература // Управленческое консультирование. –2020. –№ 10. – С. 48.
5. Jessie Guo, Daniel Kubli, Patrick Saner. Swiss Re Institute: The economics of climate change: no action not an option. April 2021. // https://www.swissre.com/dam/jcr:e73ee7c3-7f83-4c17-a2b8-8ef23a8d3312/swiss-re-institute-expertise-publication-economics-of-climate-change.pdf
6. Conway, D., Nicholls, R.J., Brown, S. et al. The need for bottom-up assessments of climate risks and adaptation in climate-sensitive regions. Nat. Clim. Chang. 9, 503–511 (2019) // https://doi.org/10.1038/s41558-019-0502-0

1 Семинар об экономических последствиях изменения климата. https://economy.kz/ru/Novosti_instituta/id=4426

7. Richard S. J. Tol. The economic effects of climate change // Journal of Economic Perspectives. 2009. Vol. 23. N 2. – P. 29. // https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/jep.23.2.29
8. Richard S. J. Tol. The Economic Effects of Climate Change // Journal of Economic Perspectives. – Volume 23, Number 2. – Spring 2009. – P. 31
9. https://ru.wikipedia.org/wiki
10. Richard S. J. Tol. The Economic Effects of Climate Change // Journal of Economic Perspectives. – Volume 23, Number 2. – Spring 2009. – P. 33
11. Hoel M., Sterner T. Discounting and relative prices // Climate Change. 2007. Vol. 84. N 3. P. 265–280.
12. Juan-Carlos Ciscar, Ana Iglesias, Luc Feyen, Antonio Soria. Physical and economic consequences of climate change in Europe. January 31, 2011. 108 (7) 2678-2683 // https://www.pnas.org/doi/full/10.1073/pnas.1011612108
13. William D. Nordhaus. Revisiting the social cost of carbon. January 31, 2017. 114 (7) 1518-1523 // https://www.pnas.org/doi/10.1073/pnas.1609244114
14. Christopher Ketcham. When Idiot Savants Do Climate Economics // https://theintercept.com/2023/10/29/william-nordhaus-climate-economics/?utm_source=cbnewsletter&utm_medium=email&utm_term=2023-10-30&utm_campaign=-Daily+Briefing+30+10+2023
15. Simon Dietz, James Rising, Thomas Stoerk and Gernot Wagner. Economic impacts of tipping points in the climate system. August 16, 2021. 118 (34) e2103081118 // https://www.pnas.org/doi/full/10.1073/pnas.2103081118
16. Семинар об экономических последствиях изменения климата. https://economy.kz/ru/Novosti_instituta/id=4426



ВЛИЯНИЕ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ (ПИИ) НА ЭКОНОМИКУ УЗБЕКИСТАНА

Юлдашев Нодирбек Сайдибурханович
Начальник Отдела комплаенс контроля Банковско-финансовой академии Республики Узбекистан

Аннотация: Данная статья рассматривает влияние прямых иностранных инвестиций (ПИИ) на экономику Узбекистана, подчеркивая значительную роль, которую ПИИ играют в экономическом развитии страны. С учетом недавних реформ, притоков инвестиций и стратегий правительства анализ обеспечивает всесторонний обзор того, как ПИИ вносят свой вклад в экономический ландшафт Узбекистана, включая проблемы и возможности, которые они представляют.

Ключевые слова: прямые иностранные инвестиции (ПИИ), экономика Узбекистана, экономические реформы, особые экономические зоны (ОЭЗ), притоки инвестиций.

Annotatsiya: Ushbu maqolada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri ko‘rib chiqilib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishida bevosita xorijiy investitsiyalar muhim rol o‘ynaydi. So`nggi yillardagi islohotlar, investitsion oqimlar va Hukumat strategiyalariga e’tibor qaratgan holda, tahlil to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar O‘zbekistonning iqtisodiy strukturasiga qanday hissa qo‘shayotgani, jumladan, u taqdim etayotgan muammolar va imkoniyatlar haqida to‘liq ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, O‘zbekiston iqtisodiyoti, iqtisodiy islohotlar, maxsus iqtisodiy zonalar, investitsiyalar oqimi.

Abstract: This article examines the impact of Foreign Direct Investment (FDI) on Uzbekistan’s economy, highlighting the significant role FDI plays in the country’s economic development. With a focus on recent reforms, investment inflows, and government strategies, the analysis provides a comprehensive overview of how FDI contributes to Uzbekistan’s economic landscape, including the challenges and opportunities it presents.

Key words: foreign direct investment, Uzbekistan’s economy, economic reforms, special economic zones, investment inflows.

ВВЕДЕНИЕ

В последние десятилетия прямые иностранные инвестиции (ПИИ) стали одним из ключевых факторов экономического развития для стран с переходной экономикой, включая Узбекистан. ПИИ не только обеспечивают дополнительные финансовые ресурсы для экономического роста, но и способствуют внедрению новых технологий, повышению конкурентоспособности и созданию новых рабочих мест. Для Узбекистана, стремящегося к ускорению экономического развития и интеграции в мировую экономику, привлечение ПИИ является приоритетной задачей.

В контексте глобализации и усиления международной конкуренции за иностранные инвестиции, Узбекистан предпринимает значительные усилия для создания благоприятного инвестиционного климата. Эти усилия включают в себя проведение структурных реформ, либерализацию экономической политики, улучшение законодательства в области защиты прав инвесторов и упрощение процедур для ведения бизнеса. Такие шаги направлены на привлечение иностранных инвестиций в ключевые сектора экономики, такие как энергетика, сельское хозяйство, телекоммуникации и производство.

Несмотря на достигнутый прогресс, Узбекистан сталкивается с рядом вызовов на пути к полноценной интеграции в мировую экономику и максимальному использованию потенциала ПИИ. К таким вызовам относятся необходимость дальнейшего совершенствования инвестиционного законодательства, обеспечение прозрачности и предсказуемости бизнес-среды, а также развитие человеческого капитала и инфраструктуры.

В данной статье предпринимается попытка всесторонне проанализировать влияние ПИИ на экономику Узбекистана, выявить основные тенденции и вызовы, с которыми сталкивается страна в процессе привлечения и использования иностранных инвестиций, а также предложить рекомендации по улучшению инвестиционного климата и повышению эффективности использования ПИИ для достижения устойчивого экономического развития.

Развитие различных секторов экономики нашей страны, расширение и модернизация производственных мощностей, широкое внедрение современных технологий в промышленности, сфере услуг и сельском хозяйстве, увеличение объемов производства экспортной продукции с высокой добавленной стоимостью, ускорение инвестиционных процессов и достижение регионального развития - это одна из наших наиболее актуальных задач. В условиях глобализации увеличивается роль инвестиционного сотрудничества между странами в международных экономических отношениях. Привлечение прямых иностранных инвестиций и их эффективное использование становятся все более важными для обеспечения устойчивого экономического роста по всему миру. Особое внимание уделяется развивающимся странам с высокими темпами экономического роста.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

За последние 20 лет наблюдается значительный прирост иностранных инвестиций, сопровождающийся многочисленными теоретическими и эмпирическими исследованиями иностранных инвестиций в странах с переходной экономикой. Поток прямых иностранных инвестиций в такие страны зависит от различных факторов и процессов в принимающей стране и одновременно в стране-инвесторе. Поэтому предложить универсальную модель прямых иностранных инвестиций достаточно сложно.

К середине XX века начали формироваться транснациональные корпорации с обширными производственными сетями, охватывающими весь мир. Масштабная международная деятельность этих корпораций (таких как Xerox, IBM, General Electric, Dupont, General Motors, Coca Cola) обеспечивает ученым из развитых стран необходимые эмпирические данные для изучения деятельности транснациональных корпораций в области прямых иностранных инвестиций. С тех пор западные ученые объяснили смысл, причины и экономические последствия концепции прямых иностранных инвестиций.

Парадигма международного производственного цикла, разработанная французским ученым Р. Верноном в 1966 году, иллюстрирует изменение взаимосвязи между международной торговлей и иностранными инвестициями [1]. Она рассматривает рост торговли и инвестиций североамериканских корпораций в период послевоенного восстановления Европы.

Макроэкономическая теория инвестиций представлена в работах Кодзимы [2] (1973, 1990) и Одзавы [3]. (1984). Согласно ей, прямые иностранные инвестиции японских фирм координированы и отвечают требованиям принципа сравнительного преимущества. С другой стороны, инвестиции компаний США за рубежом осуществляются преимущественно в рамках олигополистической рыночной структуры и являются антиторговыми инвестициями, при этом подчеркивается высокая вероятность негативных последствий для экономики страны. Кодзима считает, что прямые иностранные инвестиции должны действительно работать как эффективный инструмент торговли промежуточными товарами, но подчеркивает, что такие инвестиции должны быть рассчитаны и направлены рыночными силами.

Никербокер (1973) представляет концепцию прямых иностранных инвестиций и олигополистической защиты. По его мнению, структура рынка и действия лидеров в высококонкурентных отраслях являются важными факторами, определяющими уровень прямых иностранных инвестиций со стороны конкурирующих фирм. Его исследование изучало международную деятельность корпораций в период с 1948 по 1967 год, а также олигополистическую деятельность за границей [4].

Значительное значение в своих научных исследованиях имеют К. Лисбет, М. Мии и С. Джо. В странах с переходной экономикой процесс экономической либерализации является важным фактором для совершенствования системы привлечения прямых иностранных инвестиций. Привлечение технологий и знаний к национальным предприятиям путем прямого капитального накопления и технологического know-how обеспечивает устойчивые темпы экономического роста.

Для Г.М. Галеевой и Е.Н. Кадеевой основными факторами привлечения прямых иностранных инвестиций являются доступ к рынкам и ресурсам [6]. Концентрация иностранного капитала только в отдельных регионах и отраслях ограничивает развитие экономики других регионов, в первую очередь влияет на экономику регионов без промышленного развития.

Теоретическая концепция транснациональных инвестиций имеет большое значение для изучения международной инвестиционной деятельности корпораций и ее влияния на экономическое развитие.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Методология исследования включает анализ литературных источников, сбор и анализ данных, использование статистических методов, проведение экспериментов, а также применение качественных и количественных методов анализа для достижения поставленных целей.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

В результате проведенных реформ объем прямых иностранных инвестиций (ПИИ), привлеченных в Узбекистан, в последние годы постоянно увеличивается (см. Рисунок 1). Особенно стратегия развития Нового Узбекистана определяет ряд приоритетных задач, таких как улучшение инвестиционной среды в стране и увеличение ее привлекательности, а также привлечение инвестиций в размере 120 миллиардов долларов США, включая 70 миллиардов долларов США иностранных инвестиций, в течение ближайших пяти лет.

Это создает возможности для расширения производства и ассортимента продукции, обновления производственного оборудования, внедрения инновационных технологий, совершенствования кадрового потенциала, а также увеличения доли наукоемкой и высоко добавленной стоимости продукции. Как показано на Рисунке 1, поток прямых иностранных инвестиций имеет тенденцию к росту, причем в 2019 году он составил 2,3 миллиарда долларов США. При сохранении этой тенденции к 2022 году этот показатель возрастет до 9,5 миллиарда долларов США, что означает рост на 24,2% по сравнению с 2019 годом.




Рисунок 1: Динамика объема прямых иностранных инвестиций, привлеченных в нашу страну в период с 2013 по 2022 годы (в миллиардах долларов США)[1]

Вторая волна мирового финансово-экономического кризиса, начавшаяся в европейских странах в 2018-2020 годах в результате пандемии Covid-19, также повлияла на объем прямых иностранных инвестиций. В 2022 году глобальный объем прямых иностранных инвестиций составил 1,3 триллиона долларов США, что на 12% меньше, чем в предыдущем году. Однако в 2016 году объем прямых иностранных инвестиций достиг самого высокого уровня и составил почти 2,1 триллиона долларов США.

1 Составлено автором на основе данных Всемирного банка.




Рисунок 2: Динамика потока прямых иностранных инвестиций, привлеченных в различные страны мира с 2012 по 2022 год (в триллионах долларов США)[2]

Значительная часть нынешних прямых иностранных инвестиций направлена в свободные экономические зоны и реальный сектор экономики различных стран мира. Это подчеркивает важность принимаемых странами мер по привлечению таких инвестиций, особенно для развитых промышленных государств. Привлечение прямых иностранных инвестиций в страны в 2022 году.

Данный график демонстрирует динамику потока прямых иностранных инвестиций с 2012 по 2020 год. Наблюдается рост инвестиций с 1,57 триллионов долларов в 2012 году до пика в 1,65 триллионов в 2016 году. Затем следует снижение до 1,44 триллиона в 2017 году и восстановление до 1,53 триллиона в 2018 году. В 2019 году произошло значительное падение до 0,96 триллиона, после чего в 2020 году инвестиции снова возросли до 1,5 триллиона. Эти изменения могут отражать экономические, политические и геополитические факторы, влияющие на привлекательность стран для иностранных инвесторов.

РЕКОМЕНДАЦИИ

Для дальнейшего усиления влияния прямых иностранных инвестиций (ПИИ) на экономику Узбекистана и поддержания положительных тенденций, наблюдаемых в последние годы, предлагаются следующие рекомендации:

1. **Продолжение реформ в сфере регулирования:** Узбекистан должен продолжать усилия по сокращению административных процедур, что облегчит старт и ведение бизнеса для иностранных инвесторов. Это включает упрощение процедур лицензирования, повышение прозрачности регулятивных требований и снижение бюрократических преград, которые могут отпугнуть инвестиции.
2. **Укрепление правовых основ инвестиций:** Укрепление правовых основ, регулирующих ПИИ, имеет важное значение. Это включает обеспечение исполнения контрактов, улучшение защиты прав инвесторов и установление четких, последовательных правил для экспроприации и национализации иностранных активов.

2 Составлено автором на основе данных Всемирного банка.

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

3. **Улучшение инфраструктуры и связности:** Инвестиции в инфраструктуру, включая транспорт, телекоммуникации и энергетику, являются важными для повышения привлекательности Узбекистана для иностранных инвесторов. Улучшенная инфраструктура облегчает ведение бизнеса, снижает операционные расходы и способствует интеграции страны в мировые цепочки поставок.
4. **Уделение внимания развитию человеческого капитала:** Развитие квалифицированной рабочей силы необходимо для привлечения высокоценных ПИИ. Это можно достичь за счет инвестиций в образование и программы профессиональной подготовки, соответствующие потребностям иностранных инвесторов, особенно в секторах, целевых для роста и диверсификации.
5. **Продвижение секторальной диверсификации:** Помимо энергетики и телекоммуникаций, Узбекистан должен также содействовать привлечению ПИИ в секторы, такие как сельское хозяйство, производство и услуги. Диверсификация может помочь смягчить риски, связанные с чрезмерной зависимостью от нескольких секторов, и способствовать более сбалансированному экономическому росту.
6. **Расширение международных партнерств:** Расширение двусторонних и многосторонних соглашений может обеспечить более стабильную и предсказуемую среду для иностранных инвесторов. Узбекистан должен стремиться к заключению инвестиционных договоров, которые включают положения о защите инвестиций и механизмы разрешения споров.
7. **Улучшение деловой среды:** Постоянные усилия по улучшению общего делового климата, включая борьбу с коррупцией, обеспечение политической стабильности и содействие доброму управлению, являются необходимыми. Эти усилия не только привлекут больше ПИИ, но и способствуют устойчивому развитию экономики.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Прямые иностранные инвестиции (ПИИ) сыграли ключевую роль в экономическом развитии Узбекистана, способствуя росту, диверсификации и интеграции страны в мировую экономику. Инициативы правительства по реформированию начинают давать положительные результаты, что подтверждается увеличением притока ПИИ и расширением инвестиций в различные секторы экономики. Однако для поддержания и дальнейшего укрепления этой динамики Узбекистан сталкивается с вызовом дальнейшего улучшения инвестиционного климата путем реформ регулирования, развития инфраструктуры, повышения человеческого капитала и поощрения секторальной диверсификации.

Список использованной литературы:

1. Вернон Р. Парадигма международного производственного цикла.1966.
2. Кодзима Х. Макроэкономическая теория инвестиций. 1973, 1990.
3. Одзава Г. Макроэкономическая теория инвестиций. 1984.
4. Никербокер Ф. Иностранные инвестиции и олигополистическая защита. 1973.
5. Dunning, J.H. The Eclectic (OLI) Paradigm of International production: Past, Present and Future, International Journal of the Economics of Business 2001.
6. Галеева Г. М. Налоговый механизм регулирования инновационного развития… https://kgeu.ru › Employee › View-PublicationById

BUDJETDAN TASHQARI MABLAG‘LAR HISOBI VA NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH





Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
I.f.d., Toshkent moliya instituti, kafedra professori

Alimardonov Asrorjon Alimardonovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi Ishlab chiqarish munosabatlari va stajirovkalar bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: Maqolada budjetdan tashqari mablag‘larning turkumlanishi, boshlang‘ich va yig‘ma hujjatlarni shakllantirish, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobini tashkil etish bilan bog‘liq jihatlar, ko‘rsatkichlar, jarayonlar, munosabatlar, hodisalar, o‘ziga xos bo‘lgan tomonlar o‘rganilishi natijasida buxgalteriya hisobi va budjet hisobi bilan bog‘liq umumiy jihatlar mavjudligi kuzatildi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobining maqsadi, vazifalari, funksiyalari, predmeti, obyektlari, subyektlari, usullari nazariy jihatdan asoslash hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobotlarning tarkibi, ularni tuzish va taqdim etish tartibini o‘rganish bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan va ilmiy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: budjetdan tashqar mablag‘lar, jamg‘armalar, budjet hisobi, dastlabki hisob, yig‘ma hisob, schotlar rejasi, moliyaviy hisobot.

Abstract: The article explores the organization of off-budget funds, their initial formation and documentation, and analyzes aspects of accounting and budgeting related to off-budget funds management in budgetary organizations. It examines the common aspects between accounting and budgeting based on the management of off-budget funds. The article outlines the objectives, tasks, functions, subjects, objects, and methods associated with accounting and budgeting in the context of off-budget funds management. It also provides scientific conclusions and recommendations for organizing accounting and reporting on off-budget funds in budgetary organizations.

Key words: off-budget funds, revenues, budget accounting, primary accounting, forming accounting, chart of accounts, financial reporting.

Аннотация: В статье рассматривается систематизация внебюджетных средств, формирование и первичная документация, анализ аспектов бухгалтерского учета и бюджетирования в связи с организацией учета внебюджетных средств бюджетных организаций, выраженные в общих аспектах между бухгалтерским учетом и бюджетированием на основе организации внебюджетных средств. В статье сформулированы общие аспекты бухгалтерского учета и бюджетирования в связи с организацией внебюджетных средств, определены цели, задачи, функции, предмет, объекты, субъекты, методы, а также представлены научные выводы и предложения по организации учета и представления отчетности по внебюджетным средствам бюджетных организаций.

Ключевые слова: внебюджетные средства, сборы, бюджетный учет, первичный учет, формирующий учет, система счетов, финансовая отчетность.

KIRISH

Ma'lumki, Davlat budjeti budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilarni moliyaviy jihatdan ta'minlash hamda davlat xarajatlarini moliyalashtirish asosida tuziladi. Xalqaro valyuta jamg'armasi hisobotiga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda budjet xarajatlari yalpi ichki mahsulotning 40 foiziga teng bo'lgan, davlat sektoridagi tashkilotlar bandlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan asosiy ish beruvchi hisoblanishi ta'kidlangan. Dunyo amaliyotida davlat sektoridagi tashkilotlarni moliyalashtirish davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Budjet tashkilotlarida budjet va budjetdan tashqari mablag'larning maqsadli va manzilli sarflanishi bevosita ularning hisobini samarali tashkil etish hamda moliyaviy hisobotlar ko'rsatkichlarining shaffofligi bilan bog'liq. Shuning uchun, jahonning aksariyat mamlakatlarida budjet ijrosi hisobi va hisobotini davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talablari asosida rivojlantirilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tadqiqotlarga ko'ra, dunyo mamlakatlari davlat sektorida budjet ijrosi hisobini yuritish va hisobotlarni tuzish, shuningdek nazorati uslubiyotini xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlarda budjet tizimi va uni boshqarish, budjet ijrosi hisobini tashkil etish usullari va yo'nalishlari, davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi axborotlarning ochiqligini ta'minlash va hisobdorlikni oshirish, budjet hisobotining axborot ta'minotini takomillashtirish kabi masalalar o'z yechimini topgan. Shuningdek, davlat sektoridagi tashkilotlarda mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlashda hisob axborot tizimining rolini kuchaytirish, ma'lumotlarning oshkoraligini ta'minlash, jamlanma axborotlarni shakllantirish masalalari alohida yo'nalish sifatida tadqiq etilgan. Shu o'rinda alohida qayd etish zarurki, olib borilgan tadqiqotlarda budjet ijrosi hisobini yuritish va hisobotlarni tuzish masalalari buxgalteriya hisobining kassa va hisoblash metodlariga asoslanishi, ularning budjet ijrosi axborotlarini shakllantirishdagi rolini oshirish yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Ammo budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobi metodologiyasini davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari talablari darajasida tashkil etish hamda budjet hisobotlarining axborot imkoniyatlarini oshirish bilan bog'liq masalalar hanuz ijobiy yechimini topmagan.

Respublikamizda budjet tizimini isloh etishda "budjet hisobi tartibini Davlat sektorida xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IPSAS) uyg'unlashtirish" (PQ-3917, 2018), xalqaro standartlar talabalaridan kelib chiqib budjet ijrosiga oid axborotlarning ochiqligini ta'minlash, budjet tizimida mablag'larning sarflanishi bo'yicha hisobdorlikni kuchaytirish, budjet ijrosi jarayonida zamonaviy axborot tizimlarini qo'llash ko'lamini kengaytirishni talab etmoqda. Shu bilan birga, budjet tizimi budjetlari ijrosi hisobini tizimli tarzda kassa usulidan hisoblash usuliga o'tkazish orqali budjet hisobotlari axborotlarining tahliliy imkoniyatlarini oshirishni taqozo qilmoqda. O'z navbatida, ushbu jihatlar budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va hisobotiga oid mavjud metodologik asoslarni chuqur tadqiq etish hamda takomillashtirishni talab etmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Budjetdan tashqari mablag'lar tushunchasiga iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan turli fikrlar va qarashlar bildirib o'tilgan. Jumladan prof. A. Ostonokulov budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larini smetalarda nazarda tutilgan maqsadlarda sarflanishini ta'minlash, qo'shimcha moliyalashtirish manbalari mavjud hollarda amalga oshiriladigan xarajatlarni rejaga nisbatan ko'paytirishni nazarda tutish zarurligini asoslagan (A. Ostonokulov, 2021).

Iqtisodchi olim Sh. Qurbonov esa, byudjet tashkilotlari, moliya bo'limlari, g'aznachilik bo'linmalari tomonidan joriy va jamlanma moliyaviy hisobotlarni tuzishda har bir jamg'arma bo'yicha ma'lumotlarni alohida shakllantirishga hamda axborotlarning ishonchliligini ta'minlashga olib kelgan. Shuningdek, ushbu takliflarning qabul qilinishi byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobi bo'yicha UzASBO va DMBAT dasturiy majmualarini integratsiya qilish imkonini bergan (Qurbonov Sh., 2022).

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalari vazirligi tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalariga "Oliy ta'lim muassasalarida budjetdan tashqari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish" tartibi asosida buxgalteriya hisobini tashkil qilish hamda hisob-kitoblarini yuritish, mablag'larning moliyaviy nazoratini samarali tashkil etish uslubiyoti takomillashtirilgan, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida "Universitet 3.0." tizimini joriy etish maqsadida ular qoshida tashkil etilgan Spin-off korxonalariga "Innovatsion jamg'arma" tomonidan qaytarilish sharti bilan ajratilgan mablag'lar "bir moliya yilidan ortiq" yoki "bir moliya yili davomida" shakllarida ssuda tarzida aks ettiriladigan uzoq muddatli ssuda qismiga (bir moliya yilidan ortiq): "211120 Budjet tashkilotining sho'ba korxonalarga qo'yilgan uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalari", qisqa muddatli ssuda qismiga (bir moliya yili davomida): "121120 Budjet tashkilotining sho'ba korxonalarga qo'yilgan qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalari" analitik schotlarida yuritish uslubiyoti tavsiya etilgan (Xojayev A., 2023).

Jahonda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va hisobotining nazariy hamda metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan, jumladan buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida budjet hisobi va hisobotining kassa hamda hisoblash metodlari takomillashtirilgan (International Public Sector Accounting Standards Board, 2023):

- budjet tizimida budjetdan tashqari jamg‘armalar to‘g‘risidagi axborotlarning ochiqligini ta’minlash bo‘yicha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun uslubiy tavsiyalar shakllantirilgan (International Monetary Fund, 2022);
- budjet tizimini boshqarishda kuchli ichki nazorat muhitini yaratish, hisobdorlik va axborotlarning ochiqligini ta’minlashda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini joriy qilishning bir va ko‘p bosqichli yo‘nalishlari ishlab chiqilgan (International Federation of Accountants IFAC);
- davlat budjeti ijrosi va uning buxgalteriya hisobini isloh qilishning Anglo-Amerika, Yevropa va Xitoy modellari ishlab chiqilgan (Organisation for Economic Cooperation and Development, 2023);
- global inqiroz sharoitida budjet tashkilotlari mablag‘larining sarflanishida hisob axborotlarining ishonchliligi davlatlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qilishi isbotlangan (Pricewaterhouse Coopers, 2021);
- budjet tashkilotlarida budjet va budjetdan tashqari mablag‘larni hisobga olishning modifikatsiyalashgan usullari ishlab chiqilgan (London universiteti, 2020);
- budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘lar hisobini tashkil etish va nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-uslubiy asoslari nazariy jihatdan takomillashtirilgan (Janubiy Rossiya davlat iqtisodiyot va servis universiteti, 2021);
- budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobini yuritishda daromad va xarajatlarning muvofiqligi tamoyiliga amal qilish zarurati isbotlangan (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi moliya universiteti, 2021).

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, statistika, iqtisodiy tahlil hamda iqtisodiy-matematik usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi farovonligini ta’minlashda nafaqat, xususiy sektor, balki budjet tizimi ham muhim ahamiyatga ega. Budjet tizimi davlatning jamiyat oldidagi vazifalarini bajarish va xizmatlar ko‘rsatish, iqtisodiyotni rag‘batlantirish, tartibga solish va nazorat qilish, mudofaa, aholi bandligini ta’minlash kabi qator notijorat faoliyatlarni moliyalashtirishni amalga oshiradi.


Budjet tashkilotlarini uzluksiz va manzilli moliyalashtirish yo‘nalishlarini tadqiq etishda, avvalo, mamlakatning budjet tizimi tuzilishiga e’tibor qaratish zarur. Mamlakatimizda Davlat budjeti, Davlat maqsadli jamg‘armalari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari budjet tizimini tashkil etadi.

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari tarkibiga budjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi, tibbiyot tashkilotlarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning budjetdan tashqari jamg‘armalari, budjet tashkilotlarining undiriladigan to‘lovlar hisobiga shakllantiriladigan budjetdan tashqari mablag‘lari kiradi.

Budjet tashkilotlarining faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni moliyalashtirish manbalarini o‘rganadigan bo‘lsak, fikrimizcha, avvalo, Davlat budjeti xarajatlari tarkibida katta ulushga ega bo‘lgan ijtimoiy soha, ya’ni ta’lim va tibbiyot tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirishga ko‘proq e’tibor qaratish zarur. Chunki, ushbu soha tashkilotlarida budjetdan tashqari mabag‘lar ulushini ko‘paytirish orqali budjet yukini bir oz bo‘lsada, kamaytirish va ularda bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib moddiy manfaatdorlikni ta’minlash natijasida faoliyat rivojlantiriladi.


Davlat budjetidan mablag‘ bilan ta’minlanadigan budjet tashkilotlari faoliyati xususiyatlari va yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda o‘rganadigan bo‘lsak, davlat ta’lim va tibbiyot tashkilotlari budjet tashkilotlari tarkibida yuqori ulushga ega (1-rasm).

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



1-rasm: Davlat ta'lim va tibbiyot tashkilotlari sonining davriy o'zgarishi (1-yanvar holatiga)[1]

Davlat ta'lim va tibbiyot tashkilotlarini moliyalashtirish Davlat budjeti xarajatlarining muhim yo'nalishlari bo'lib, 2021-yil 1-yanvar holatiga ular mamlakatda faoliyat yuritayotgan tashkilotlarning 66,8 foizini tashkil qilib, ushbu sohalarga yo'naltirilayotgan mablag'lar davlat budjetining 52,1 foiziga to'g'ri kelmoqda. 2016-2020-yillar davomida respublika miqyosida budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari moliyalashtirish manbalari hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan (2-rasm).



2-rasm: Budjet tashkilotlarini budjetdan tashqari moliyalashtirish hajmi o'zgarish dinamikasi (mlrd. so'm)[2]


Shu davrda vazirliklar va qo'mitalar tizimidagi tashkilotlarning moliyalashtirish manbalari tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, budjetdan tashqari mablag'larning ulushi so'nggi besh yil davomida o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligini ko'rish mumkin (1-jadval).

1 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2021-yil 18-martdagi № 01/2-01-19-287-sonli ma'lumotnomasi asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.
2 Muallif ishlanmasi.

1-jadval: Budjet tashkilotlarini moliyalashtirishda budjetdan tashqari mablag‘lar ulush(foiz)ining davriy o‘zgarishi[3]

Budjet tashkilotlari	2016-yil		2017-yil		2018-yil		2019-yil		2020-yil	
	Budjetdan moliyalashtirish	Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtirish	Budjetdan moliyalashtirish	Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtirish	Budjetdan moliyalashtirish	Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtirish	Budjetdan moliyalashtirish	Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtirish	Budjetdan moliyalashtirish	Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtirish
Xalq ta’lim vazirligi tizimidagi tashkilotlar	99,5	0,5	97,9	2,1	97,4	2,6	99,1	0,9	98,7	1,3
Maktabgacha ta’lim vazirligi tizimidagi tashkilotlar			98,3	1,7	98,4	1,6	97,1	2,9	97,4	2,6
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimidagi tashkilotlar	78,3	21,7	72,9	27,1	62,2	37,8	50,8	49,2	45,0	55,0
Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi tashkilotlar	94,5	5,5	92,9	7,1	93,6	6,4	94,2	5,8	80,6	19,4
Respublika miqyosida	91,1	8,9	79,9	20,1	80,5	19,5	80,4	19,6	83,2	16,8

Budjet tashkilotlari budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha bir moliya yili uchun tuziladigan daromadlar va xarajatlar smetalari asosida moliyalashtiriladi. Budjet tashkilotlarida quyidagi budjetdan tashqari mablag‘larning turlari mavjud hamda ular bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetalari tuziladi (3-rasm).



3-rasm: Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari va ular bo‘yicha tuziladigan smetalar

Bunda, har bir tuziladigan smeta ikki qism, ya’ni daromad (tushum)lar va xarajatlar rejasidan iborat bo‘ladi. Daromad(tushum)lar rejasida moliya yili davomida kutilayotgan daromad(tushum)larning turlari bo‘yicha prognoz keltiriladi. Xarajatlar qismida esa, budjet tashkilotlarining moliya yili boshidagi shaxsiy g‘azna hisob-varag‘idagi budjetdan tashqari mablag‘ qoldig‘i va moliya yili davomida kelib tushishi kutilayotgan mablag‘lar hajmidan kelib chiqqan holda rejalashtiriladi.

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari yuzasidan smetalar ijrosi har bir mablag‘larning turlari bo‘yicha daromadlar va xarajatlarning reja ko‘rsatkichlariga nisbatan bajarilishiga e’tibor qaratiladi. Bunda, g‘aznachilikda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha smetalari kassa metodi bo‘yicha, ya’ni tashkilotlarning shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga pul mablag‘larining tushumi daromad va hisobaraqlardan pul mablag‘larining o‘tkazilishi xarajat sifatida hisobga olinadi.

Budjet tashkilotlarining o‘zida esa, smetalarning ijrosi hisob va kassa usuliga asosan amalga oshiriladi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha dastlab daromadlar va ular bilan bog‘liq debi-

3 Муаллиф ишланмаси.


TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

torlik majburiyatlar qayd etiladi. So‘ng debitorlik majburiyatlarining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga kelib tushishi natijasida budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha pul mablag‘larining ko‘payishi hisobga olinadi.

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar rejasining bajarilishi daromadlarga o‘xshash tarzda g‘aznachilikda kassa metodi asosida qayd etiladi. Ya’ni, tashkilotlarning shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridan mablag‘larning sarflanishi xarajat sifatida hisobga olinadi. Budjet tashkilotlarida esa, hisoblash metodiga asosan budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha xarajatlar dastlab qayd etilib hisobga olinadi. Shaxsiy g‘azna hisobvaraqlardan mablag‘larning sarflanishi debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar natijasi sifatida qayd etiladi va kassa xarajat sifatida e’tirof etiladi. Bunda, g‘aznachilikda ham, budjet tashkilotlarida ham smetalarning ijrosi rejaga muvofiq amalga oshirilishi talab etiladi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi moliyaviy hisobotlarning shakllari, ularni tuzish va taqdim etish tartibi hamda muddatlari ham moliya organi tomonidan belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotini davlat budjetidan moliyalashtirish bilan bog‘liq xarajatlar xarajatlar smetalari ijrosi kassa metodi asosida amalga oshiriladi. Budjetdan ajratilayotgan mablag‘lar tuzilgan xarajatlar smetasi doirasida bosqichma-bosqich budjet tashkilotining topshirig‘iga asosan g‘aznachilikda ochilgan shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari orqali moliyalashtirib boriladi. Kassa xarajatlari, deb e’tirof etilishiga sabab, mamlakatimizda davlat budjeti ijrosi kassa usuliga asoslanganligidadir. Demak, budjet tashkilotlarini davlat budjetidan moliyalashtirish yoki g‘aznachilik tomonidan tashkilot majburiyatlarining to‘lanishi budjet tashkilotlarida kassa xarajatlari sifatida hisobga olinadi.

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha daromadlar va xarajatlar budjet mablag‘laridan farqli o‘laroq, daromadlar va xarajatlarning rejalari ijrosi bilan uzviy aloqadorlikda yoki shaxsiy g‘azna hisobvaraqlardagi o‘zgarishlar bilan emas, balki daromad va xarajatlarning vujudga kelishi va ularni qayd etish orqali hisobi yuritilishi zarur. Bir so‘z bilan aytganda, budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha daromad va xarajatlar budjet tashkilotlarida hisoblash usuliga asosan hisobga olinishi kerak. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha daromad (tushum)larini ikki katta guruh: budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari va undiriladigan mablag‘lar hisobidan shakllantiriladigan daromad (tushum)larga ajratish mumkin (4-rasm).



4-rasm: Budjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha daromadlari tarkibi[4]

Budjetdan tashqari daromadlari va ular bilan bog‘liq mablag‘larning harakati “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi yo‘riqnoma asosida quyidagi “turlarga ajratgan holda hisobga olinishi belgilangan:

- to‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag‘lari;
- o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlari;
- budjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari, shuningdek, tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari, boshqa budjetdan tashqari mablag‘lari”.

Quyida budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha daromadlar hisobini ko‘rib o‘tamiz. Oliy ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida talabalar va o‘quvchilarning to‘lov-kontrakt asosida “Oliy va o‘rta

4 Muallif tomonidan tuzilgan.

maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risida"gi nizomga (2013-yil 26-fevral, 2431-son) ko'ra tahsil olish uchun hisob-kitoblarning amalga oshirilishi natijasida daromadlar vujudga keladi.

Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli bo'yicha daromadlar tuzilgan shartnoma asosida to'lovlarning bir o'quv yilida 4 marotaba amalga oshirilishiga bog'liq bo'lmagan holda har oyda amalga oshiriladigan xarajatlarga mos tarzda hisobga olinishi zarur.

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli bo'yicha to'lovlar bir o'quv yili davomida to'rtga bo'lib to'lashga ruxsat berilishi tahsil oluvchilarga yengillik yaratishga xizmat qiladi. Ammo, o'quv yili davomida ta'lim berish bilan bog'liq xarajatlar uzluksiz oyma-oy amalga oshirib boriladi. O'z-o'zidan, xarajatlarning oyma-oy amalga oshirilishi ular bilan bog'liq daromadlarni ham shunga mos tarzda hisobga olishni talab etadi. Shu sababdan, o'qitishning to'lov-kontrakt shakli bo'yicha daromadlarni pul mablag'larining kelib tushishidan qat'iy nazar, ta'lim xizmati ko'rsatilishi bilan tan olish va hisobga olishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Budjet tashkilotlarida hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo'yicha tejalgan mablag'lar, faoliyat ixtisosligi bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar, budjet tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag'larning bir qismi, belgilangan tartibda budjet tashkilotlari tasarrufida qoldirilgan mablag'lar, homiylikdan olingan mablag'lar yuzasidan daromadlar vujudga keladi. Ushbu daromadlar budjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi daromadlari sanaladi.

Hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo'yicha tejalgan mablag'larning rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilishi ushbu turdagi mablag'larning ko'payishiga olib keladi va budjet mablag'lari bo'yicha kassa xarajatlarni vujudga keltiradi. Mazkur holat shakl jihatdan rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha daromadni hosil qilmaydi va quyidagicha buxgalteriya aks ettiriladi:

- Dt 112-"Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari" (Pul mablag'lari);
- Kt 232-"Budjetdan moliyalashtirish" (Budjet mablag'lari bo'yicha kassa xarajat).

Mazkur holatda buxgalteriya o'tkazmalari natijasida tashkilotning rivojlantirish jamg'armasi daromadlari hosil bo'lmasada, kelgusida o'tkazilgan pul mablag'lari doirasida xarajatlarni amalga oshirish bilan bog'liq manba hosil bo'lmoqda. Ushbu manba iqtisodiy jihatdan izohlansa, uning xususiyati daromadni ifodalaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisobotini tadqiq etish bo'yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- *birinchi*, Budjet tizimida soliq yukini kamaytirish, budjet xarajatlarini optimallashtirishni amalga oshirishda Davlat budjetidan moliyalashtiriluvchi budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish muhim yo'nalishlardan biri sanaladi. Shu bilan birga, budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar turi va ularning ulushini ko'paytirish budjet tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish va samaradorligini ta'minlash lozim;
- *ikkinchi*, Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobini tashkil etish va yuritish bilan bog'liq jihatlar, ko'rsatkichlar, jarayonlar, munosabatlar, hodisalar, o'ziga xos bo'lgan tomonlar o'rganilishi natijasida buxgalteriya hisobi va budjet hisobi bilan bog'liq umumiy jihatlar mavjudligi kuzatildi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobining maqsadi, vazifalari, funksiyalari, predmeti, obyektlari, subyektlari, usullari nazariy jihatdan asoslandi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotlarning tarkibi, ularni tuzish va taqdim etish tartibini o'rganish natijasida hisobotlardagi axborotlarning foydalanuvchilar uchun muhimligi va ularni tahlil qilish imkoniyatlari nazariy jihatdan tadqiq etildi;
- *uchinchidan*, Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobi amaliyotida daromadlar ularning turlari bo'yicha tarkiblanadi va hisobi yuritiladi. Budjet tashkilotlarining faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqib, ularda budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar yoki tushumlar shakllantiriladi. Daromadlarning shakllanishi va hisobini yuritish ularning qayd etilishi hamda vujudga kelishi bilan bog'liq jarayonlarni o'zida ifodalaydi. Tushumlar esa, bevosita mablag'larning harakati bilan bog'liq holatda tan olinadi va hisobda aks ettiriladi;
- *to'rtinchidan*, Budjet tashkilotlarining moliya yili davomida foydalanilmay qolgan budjetdan tashqari mablag'larini kelgusi yil uchun smetalarni tuzishda qayta taqsimlamasdan keyingi moliya yilida oldin belgilangan maqsadlarda foydalanish uchun o'tkazish tartibini belgilash maqsadga muvofiq. Bu o'z navbatida, budjetdan tashqari mablag'larni moliya yili davomida daromad va xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan maqsadlarda foydalanishlarini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. IMF, (2020). International Monetary Fund (IMF). 2020. Fiscal Monitor: Policies to Support People During the COVID-19 Pandemic. Washington, April. https://www.imf.org/en/Publications/FM/Issues/2020/04/06/fiscal-monitor-april-2020
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi “Budjet ma’lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917-son Qarori. 2018.
3. Ostonokulov, (2021). Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va hisoboti uslubiyotini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. –T., 2021. – 64 b.
4. Bakaybayeva, (2020). O‘zbekiston Respublikasida budjet hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish yo‘llari. i. f. d. dis. avt. –T., 2020.
5. Ibragimov, (2018). Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni takomillashtirish (Oliy ta’lim muassasalari misolida) iqt. fan. fal. dok. dis. avtoreferati. –T., 2018. – 54 b.
6. Mehmonov, (2016). Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya va amaliyot. Monografiya. – T.: “Iqtisod moliya”, 2016.
7. Ostanaqulov, (2010). Davlat sektori va buxgalteriya hisobi. - T.: “Iqtisod moliya”, 2010.
8. G‘aniyev, (2008). Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish (ta’lim tizimi misolida). iqt. fan. nom. dis. avtoreferati. –T.: O‘z R BMA, 2008. 28 b.
9. Tuychiyev, (2019). Budjet tashkilotlarida budjet xisobi. Darslik. “Iqtisod moliya”, –2019. –429 b.
10. Hamdamov, 2016).Budjet nazorati. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod moliya”, – 2016. –324 b.
11. MV, 2018). “Budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarning davriy moliyaviy hisobotlarini tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish bo‘yicha qoidalar” (2018 yil 26 dekabr, 2971-son).
12. VM, (2009). “Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to‘g‘risida”gi nizom (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-aprel, 102-son qaroriga ilova).
13. PF-5953, (2020). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni (2020 yil 2 mart, PF-5953-son).
14. MV, (2010). “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi” yo‘riqnoma (2010-yil 22-dekabr, 2169-son).
15. DSQ, (2021). O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021-yil 18-martdagi № 01/2-01-19-287-son.

IQTISODIYOT TARMOQLARINING TARKIBIY O‘ZGARISHLARINI IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI



Kaxorova Anora Nusratovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiyot fakulteti
“Fundamental iqtisodiyot” kafedrasi 1-kurs doktaranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada makroiqtisodiy muvozanat va iqtisodiy o‘sishga aloqador turli modellar qiyoslamasi grafiklar, formulalar va jadvallar asosida o‘rganilgan va ularning taqqoslamalari olib borilgan. Unga qo‘shimcha ravishda modellarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ularning qaysi davrda va qanday iqtisodiy tizimlar uchun qo‘llanilishi ham atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy o‘sish, kapital, mehnat, tovarlar bozori (IS), pul bozori (LM), to‘lov balansi (BP), foiz stavkasi, kapital qaytimi, texnologiyalar, kapital jamg‘arilishi, jamg‘arish darajasi.

Abstract: In this article, the comparison of various models related to macroeconomic balance and economic growth is studied on the basis of various graphs, formulas and tables, and their comparisons are made. In addition, the specific characteristics of the models and their application in what period and for what economic systems are covered in detail.

Key words: economic growth, capital, labor, goods market (IS), money market (LM), balance of payments (BP), interest rate, return on capital, technologies, capital accumulation, accumulation level.

Аннотация: В данной статье на основе различных графиков, формул и таблиц исследуется сравнение различных моделей, связанных с макроэкономическим балансом и экономическим ростом, и производится их сравнение. Кроме того, подробно освещены конкретные характеристики моделей и их применение, в какой период и для каких экономических систем.

Ключевые слова: экономический рост, капитал, труд, товарный рынок (ИС), денежный рынок (ЛМ), платежный баланс (ПБ), процентная ставка, доходность капитала, технологии, накопление капитала, уровень накопления.

KIRISH

Iqtisodiyot tarixidan ma’lumki, natural xo‘jalik boshlangan davrdan toki hozirgi bozor iqtisodiyoti davrgacha har bir iqtisodiy jarayonga xos iqtisodiy qarashlar o‘sha davrning o‘zidayoq yaratilib kelingan va ko‘p hollarda ushbu iqtisodiy g‘oyalar aynan o‘sha davr uchun amal qilib, iqtisodiy boshqaruv tarkiban o‘zgargan-da, ular ham o‘z kuchini yo‘qotib, boshqa iqtisodiy go‘yalar shakllanishiga yo‘l ochib bergan. Xuddi shuningdek, umumiqtisodiy g‘oyalar bilan birga xususiy iqtisodiy g‘oyalar, masalan, iqtisodiy o‘sishga qaratilgan olimlar g‘oyalari ham turli davrlarda har xil va ular tarkibiga kiradigan omillar ham bir-biridan sezilarli farq qiladi.

Ushbu maqolada iqtisodiy o‘sishning turli tadqiqotchilar nazdidagi ta’rifi, iqtisodiy o‘sish manbalariga aloqador asosiy savollarga javoblar, iqtisodiy o‘sishga aloqador turli modellar tahlili va ularning komponentlari, shuningdek, mamlakatlar bo‘ylab iqtisodiy faoliyatlardagi farqlarning sabablari haqida keng va to‘la qamrovli ma’lumotlar bilan tanishish imkoni mavjud bo‘ladi. Ushbu mavzudagi savollar faqatgina iqtisodiy nazariyalar uchungina muhim bo‘lib qolmasdan, balki makroiqtisodiy tahlil va ijtimoiy ilm-fan uchun ham markaziy o‘rinlarda turadi.

Ushbu maqolada iqtisodiy hamda umumiy muvozanat modellari hisoblanmish, Harrod-Domar modeli, Robert Solouning iqtisodiy o‘sish modeli, IS-LM-BP modeli hamda AD-AS modellarining xususiyatlari va ularning bir-biridan farqli tomonlari ko‘rsatib o‘tiladi. Bunga qo‘shimcha ravishda zamonaviy iqtisodiy olimlardan D.Acemogluning ham iqtisodiy o‘sish g‘oyalari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy o‘sish nazariyasi haqida ko‘plab olimlar izlanishlar olib borgan. Lekin ushbu maqolada biz keng qamrovli hamda mashhur iqtisodiy o‘sish va muvozanatlik nazariyalari bilan tanishib chiqamiz. Avvalambor, mamlakatimiz olimlari, jumladan, Djumayev fikriga ko‘ra, iqtisodiy o‘sish to‘liq bandlik sharoitiga mos keluvchi potensial ishlab chiqarish darajasining uzoq muddatli ko‘payishi tendensiyasini anglatadi. Ushbu olim fikriga ko‘ra, iqtisodiy o‘sish yalpi taklifning o‘sishini yoki boshqacha qilib aytganda, haqiqiy va potensial YaIM hajmining o‘sishini bildiradi [1].

Harrod-Domar o‘sish modeliga to‘xtalib o‘tsak. Ushbu model britaniyalik iqtisodchi Roy Harrod va amerikalik iqtisodchi Evsey Domer mustaqil tadqi-qotlarining natijasida kelib chiqqan. Ushbu modelga ko‘ra, iqtisodiy o‘sish uch omilga bog‘liq: kapital (K), labor (L), resourses (R).Y= F (K , L, R)Bunda R va L kapital ishlab chiqarishda o‘sishga olib kelgan omillar deb qaraladi [2]. Endi fikrimizni Robert Solou va Trevor Sven iqtisodchi olimlar nomiga atalgan, Solow-Swan modeliga yoki ko‘pgina adabiyotlarda Solou modeli, deb ataladigan modelga qaratamiz. Ushbu olimlar 1956-yilda olamshumul maqolalarini chop etish bilan Solou modelini tanishtirishdi [3].

Kelgusida bo‘lajak tadqiqot yo‘nalishlari texnologiya integratsiyasining portfel ishlashiga uzoq muddatli ta’sirini o‘rganishi va strategik aktivlarni taqsimlash bo‘yicha qarorlarni qabul qiladigan rivojlanayotgan bozor tendentsiyalarini o‘rganishi mumkin. Bundan tashqari, sohaga oid ajratmalar va ularning iqtisodiy rivojlanishga qo‘shgan hissasini batafsil tahlil qilish ko‘proq ma’lumot beradi. Ushbu tadqiqot strategik taqsimot, texnologiya va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi murakkab munosabatlarning har tomonlama ko‘rinishini taklif qiladigan keyingi tadqiqotlar uchun asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ielasi, F., Rossolini, M. va Limberti, S. (2018). Barqarorlik mavzusidagi investitsiya fondlari: xavf va samaradorlikning empirik tekshiruvi. Risk moliyasi jurnali, 19(1), 54-73. (https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/JRF-09-2017-0127/full/html)
2. Fabozzi, FA, Simonian, J. va boshqalar. (2021). Risk pariteti: aktivlarni taqsimlashda riskni demokratlashtirish. Portfelni boshqarish jurnali, 47(1), 43-57. (https://jpm.pm-research.com/content/47/1/43)
3. Shavkat, Z. va Shahzod, A. (2019). Portfel strategiyalarining portfel samaradorligi va riskiga ta’siri. Xalqaro biznes jurnali, 24(1), 43-65. (https://www.researchgate.net/publication/335174309_Impact_of_Portfolio_Strategies_on_Portfolio_Performance_and_Risk)
4. Raffinot, T. (2017). Ierarxik klasterga asoslangan aktivlarni taqsimlash. Portfelni boshqarish jurnali, 43 (4), 81-91. (https://jpm.pm-research.com/content/43/4/81)
5. Bessler , W., Opfer , H., & Wolff, D. (2017). Ko‘p aktivli portfelni optimallashtirish va namunadan tashqari ishlash: Blek- Litterman , o‘rtacha variatsiya va sodda diversifikatsiya yondashuvlarini baholash . Yevropa moliya jurnali, 23(5), 413-439. (https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/1351847X.2015.1127739)
6. Ibikunle, G. va Steffen, T. (2017). Evropa yashil investitsiya fondi faoliyati: ularning an’anaviy va qora tengdoshlari bilan qiyosiy tahlil. Biznes etikasi jurnali, 140(4), 647-665. (https://link.springer.com/article/10.1007/s10551-016-3233-1)
7. Almahdi, S. va Yang, SY (2017). Moslashuvchan portfel savdosi tizimi: kutilgan maksimal pasayish bilan takroriy mustahkamlashni o‘rganishdan foydalangan holda xavf-qaytarilish portfelini optimallashtirish. Ilovalar bilan ekspert tizimlari, 87, 295-307. (https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0957417417300020)
8. Meidner, R., Hedborg, A., & Fond, G. (2017). Xodimlarning investitsiya fondlari: kollektiv kapitalni shakllantirishga yondashuv. Dastlab 1978 yilda nashr etilgan. [Google Kitoblar](https://books.google.com)
9. Rok, V., Shumaxer, C., Bäumer, X. va Pfeffer, T. (2019). Praxishandbuch Immobilienfondsmanagement va investitsion. [Springer](https://link.springer.com)
10. Averbek, D. (2018). Qo‘shilgan qiymat von Behavioral-Finance-Fonds. [Springer](https://link.springer.com)
11. Ferrara, FM, Haas, JS, Peterson, A., va boshqalar. (2022). Eksport va investitsiyalar: Siyosiy nutq tashqi nomutanosibliklarni xalq qo‘llab-quvvatlashini qanday shakllantiradi. [Oksford Akademik](https://academic.oup.com)
12. Krahe, M. (2021). Tizim darajasidan investitsiya darajasidagi barqarorlikgacha. [Belgiya Qirollik akademiyasi](http://www.academieroyale.be)
13. Rodriguez-Pose, A. va Garcilazo , E. (2018). Hukumat sifati va investitsiyalarning daromadlari: Evropa mintaqalarida birlashish xarajatlarining ta’sirini o‘rganish. [Teylor va Frensis](https://api.taylorfrancis.com)
14. Haftalar, S. (2021). Kollektiv harakat, xususiy jamg‘arma: Lyuksemburg investitsiya fondini qurish, 1956–2019. [Teylor va Frensis](https://www.taylorfrancis.com)
15. Mertens, D. va Thiemann, M. (2019). Yashirin investitsiya davlatini qurishmi? Yevropa investitsiya banki, milliy taraqqiyot banklari va Yevropa iqtisodiy boshqaruvi. [Teylor va Frensis](https://www.taylorfrancis.com)

BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASIDA XAVFSIZLIK MASALALARI



Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich
I.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Moliya bozori va sug‘urta ishi” kafedrasi mudiri, professor

Annotatsiya: Inqilobiy innovatsiya sifatida e’tirof etilgan blokcheyn texnologiyasi markazlashtirilmagan va o‘zgarmas tabiati tufayli turli sohalarning katta e’tiborni tortdi. U Bitcoin va Ethereum kabi kriptovalyutalar uchun asosiy texnologiya bo‘lib xizmat qiladi, shaffoflik, markazsizlashtirish va xavfsizlikni ta’minlaydi. Biroq, blokcheyn texnologiyasi xavfsizlik muammolaridan huquqiy himoyalanmagan va blokcheyn texnologiyasi bilan bog‘liq xavfsizlik muammolarini hal qilish uchun potentsial yechimlarni muhokama qilinmoqda. Umuman olganda, ushbu maqola blokcheyn texnologiyasi va undagi xavfsizlik masalalari haqida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: Blokcheyn, xavfsizlik, kiber-hujumlar, raqamli valyuta, autentifikasiya, bitkoyin.

Abstract: Hailed as a revolutionary innovation, blockchain technology has attracted a lot of attention from various industries due to its decentralized and immutable nature. It serves as the underlying technology for cryptocurrencies such as Bitcoin and Ethereum, providing transparency, decentralization and security. However, blockchain technology is not legally protected from security issues, and potential solutions to address security issues related to blockchain technology are being discussed. In general, this article provides information about blockchain technology and its security issues.

Key words: Blockchain, security, cyber-attacks, digital currency, authentication, bitcoin.

Аннотация: Провозглашенная революционной инновацией, технология блокчейна привлекла большое внимание в различных отраслях благодаря своей децентрализованной и неизменной природе. Он служит базовой технологией для таких криптовалют, как bitcoin и ethereum, обеспечивая прозрачность, децентрализацию и безопасность. Однако технология блокчейна не защищена законом от проблем безопасности, и обсуждаются потенциальные решения для решения проблем безопасности, связанных с технологией блокчейна. В целом в этой статье представлена информация о технологии блокчейн и проблемах ее безопасности.

Ключевые слова: Блокчейн, безопасность, кибератаки, цифровая валюта, аутентификация, bitcoin.

KIRISH

Blokcheyn texnologiyasi moliya va ta’minot zanjiri boshqaruvidan tortib sog‘liqni saqlash va boshqa sohalargacha bo‘lgan ko‘plab sohalarni inqilob qilish potentsialiga ega kuch sifatida paydo bo‘ldi. Uning markazlashtirilmagan, shaffof va o‘zgarmas tabiati an’anaviy markazlashtirilgan tizimlar duch keladigan turli muammolarning yechimi sifatida e’tiborni tortdi. Bugungi dunyoda blokcheyn texnologiyasining dolzarbligini o‘rganib, uning tarmoqlarga o‘zgartiruvchi ta’sirini va butun dunyo bo‘ylab iqtisoriyotning turli jabhalarini kuchaytirish potentsialiga ega.

Blokcheyn bu tizim ishtirokchilari vositachisiz bir-biriga aktivlarini ishonchli tarzda uzatish imkonini beruvchi texnologiya. Masalan, blokcheynda pul ko‘chirmalari haqidagi yozuvlarni saqlash mumkin. Kriptovalyutalarda aynan blokcheyndan kim, kimga va qancha virtual pul o‘tkazganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayd qilish uchun foydalaniladi. Biroq blokcheynda boshqa aktivlarni ham saqlasa bo‘ladi. Umuman olganda, nimani qog‘ozda yozishning imkoni bo‘lsa, o‘sha narsalarning barchasini blokcheynda ham yozish mumkin bo‘ladi, faqat birgina farq bilan – blokcheyn da yozuvlarni almashtirish va soxtalashtirishning imkoni yo‘q.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Blokcheyn texnologiyasi, markazlashtirilmagan va xavfsiz raqamli kitob, turli sohalarda keng ko‘lamli ilovalarga ega [1]. U ma’lumotlarning o‘zgarmasligi va xavfsizligini ta’minlaydigan noyob xesh kodlari bo‘lgan taqsimlangan bloklar to‘plamiga asoslangan [2]. Texnologiyaning salohiyati uning arzon narxlardagi markazlashti-


rilmagan taqsimlangan ma'lumotlarni boshqarishni qo'llab-quvvatlash qobiliyatida yaqqol namoyon bo'ladi, bu esa uni AKTning keyingi avlodida asosiy yutuqga aylantiradi [3]. Biroq, miqyoslilik va energiya iste'moli kabi cheklovlar mavjud [4]. Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, blokcheyn texnologiyasining kelajagi istiqbolli ko'rinadi, bu muammolarni hal qilish bo'yicha doimiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Blokcheyn texnologiyasi inqilobiy bo'lsa-da, xavfsizlik va maxfiylik muammolaridan xoli emas. Oksiiuk [5] va Huynh [6] ikkala olim ham ushbu muammolarni hal qilish zarurligini ta'kidlaydilar, ikkinchi olim esa potentsial yechim sifatida guruh imzosi va nol bilim sxemalaridan foydalanishni taklif qiladi. Alsuhaimi [7] bank, sog'liqni saqlash va narsalar interneti kabi blokcheynning turli ilovalarida ushbu muammolarni ko'rib chiqish muhimligini ta'kidlaydi. Gupta [8] shuningdek, blokcheyn tizimlarida xavfsizlik tahdidlari va real hujumlarni tizimli tekshirish va ushbu xavflarni yumshatish uchun yaxshilanishlarni ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Blokcheyn g'oyasining yorqin namunasi bu Ethereum kompaniyasi. Unga Rossiyaning Kolomna shaharchasida tug'ilgan, hozirda Kanadada yashovchi 19 yoshli dasturchi Vitaliy Buterin asos solgan. Platforma blokcheyn da ilovalar yaratish uchun mo'ljallangan. Bugungi kunda Ethereum kompaniyasi 703 mlrd. AQSh dollga baholanmoqda.

Blokcheyn texnologiyasining tuzilishi quyidagi yetti tamoyildan tashkil topadi (1-rasm):



1-rasm: Blokcheyn texnologiyasini tashkil etishning yetti tamoyili1

- **Tarmoq yaxlitligi:** Ishonch tizimning ichkida paydo bo'ladi, u tashqaridan uqtirilmaydi. Ishtirokchilar so'zida ham, ishida ham rostgo'y bo'lishadi, boshqalarning manfaatlarini hurmat qilishadi, o'z harakatlarining oqibatlari uchun javob berishga tayyor turishadi, ularning qarorlari shaffof bo'ladi. Yaxlitlik jarayonning har bir bosqichida kodlangan va barcha ishtirokchilar orasida taqsimlangan bo'ladi, ya'ni bir kishiga tegishli bo'lmaydi.
- **Yuklanishlarni taqsimlash:** Yagona o'chirish yo'li mavjud emas. Energoxarajatlar butun piring tarmog'i bo'yicha taqsimlangan. Ishtirokchilarning hech qaysisi tizimni o'chira olmaydi. Agar markaziy organ birorta odam yoki guruhni bloklab qo'ysa, tizim o'z ishini davom ettiraveradi. Agar tarmoqning taxminan yarmi tarmoq ustidan nazoratni qo'lga kiritmoqchi bo'lsa, qolganlar nima bo'layotganini ko'rib turishadi.

Tizim barcha manfaatdor tomonlarni teng ko'radi. Satoshi Nikamoto ilovani shunday dasturlaganki, unda dasturni rivojiga hissa qo'shganlar rag'batlantirib boriladi. Tarmoqning faol foydalanuvchisi 4 yil o'tishi bilan har bir yakunlangan blok uchun 50 bitkoindan oladi. Yana 4 yildan so'ng – 25 bitkoin, keyin 12,5 va h.k.

- **Xavfsizlik:** Tarmoqning har bir ishtirokchisi shifrlashdan foydalanishi zarur. Xavfsizlik choralari tarmoqqa o'rnatilgan. Ular maxfiylikni va asl nusxaning saqlanishini ta'minlaydi. Foydalanuvchida ikkita kalit bo'ladi: bittasi shifrlash uchun, yana bittasi shifrni ochish uchun. Bu usul "ochiq kalitlar infrastrukturasi" (PKI) nomini oldi.
- **Shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi:** Odamlar shaxsiy ma'lumotlarini nazorat qilishlari zarur. Ularda o'ziga tegishli bo'lgan aynan qaysi ma'lumotni, qachon, qanday va qaysi hajmda tarqatish huquqi bo'lishi lozim.

1 Muallif tomonidan tuzildi.

- **Huquqlarning himoyalanganligi:** Mulkdorlarning huquqlari shaffof va mustahkamlangan. Tranzaksiya vaqtining qayd etilishi va PKI nafaqat ikki karra xarajatning oldini oladi, balki tarmoqdagi har bir bitkoinga bo‘lgan mulkiy huquqni qayd qiladi. Biz faqat o‘zimizga tegishli bo‘lgan narsalar bilan savdo qilishimiz mumkin bo‘ladi. Bitkoindan tashqari bu har qanday qimmatbaho narsa bo‘lishi mumkin, shu jumladan intellektual huquq ham.
- **Jalb etilganlik:** Iqtisodiyot barcha uchun ishlasa, yaxshiroq ishlaydi. Bu kirish to‘siqlarining kamayishini anglatadi. Uyali telefoni bo‘lgan har qanday kishi, bozorda ishlab chiqaruvchi yoki iste’molchi sifatida ishtirok etishi mumkin. Satoshi “to‘lovlarning soddalashtirilgan verifikasiyasi” usulini taklif qildi (SPv).

Xo‘sh, blokcheyn texnologiyalarining axborot xavfsizligini ta’minlash borasidagi imkoniyatlari qay darajada? Ushbu savolga quyida imkon qadar batafsil javob berishga urinib ko‘ramiz.

- **Blokcheyn va axborot xavfsizligi masalalari:** Blokcheyn ning yangi texnologiyalari axborot xavfsizligi sohasida inqilob qilishga hissa qo‘shmoqda. Bundan tashqari, blokcheyn texnologiyalarining ishga tushirilishi shaxsiy xabarlardagi, biznes va foydalanishda ommalashgan veb-saytlardagi hamda ilovalardagi ma’lumotlarni himoyalashga yordam beradi.

Blokcheyn – o‘zining ilk muvaffaqiyatli tajribasi – bitkoin orqali mashhur bo‘lgan nisbatan yangi texnologiya. Uning takrorlanmas xususiyatlari bir nechta startaplar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi, ular blokcheyn texnologiyalariga ixtisoslashgan bo‘lib, axborot xavfsizligi sohasini mutlaqo yangi darajaga ko‘tardi.

Blokcheyn–bu fayl yoki ob’ekt bilan bajariladigan harakatlarni faylga xos bo‘lgan kodga shifrlashga yordam beradigan texnologiya. Ushbu shifrlashni o‘chirib, o‘zgartirib yoki aylanib bo‘lmaydi, bu esa, fayllarning yozuvlarini butunlay shaffof qilib turadi: u bilan qanday tranzaksiyalar, qachon va kim tomonidan amalga oshirilganligi har doim ma’lum bo‘ladi. Bunday nomarkazlashtirilgan, axborot xavfsizligini ta’minlashga bo‘lgan avtonom yondashuv, ko‘p sohalar, biznesdan boshlab, to ijtimoiy tarmoqlargacha bo‘lganlar allaqachondan beri kutilyotgan, Internet-xavfsizligi sohasidagi yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Birinchidan, va eng asosiysi, blokcheyn shaxsiy xabarlar himoyasi uchun imkoniyat taqdim qiladi. Obsidian kabi startaplar chatlarda, messenjerlarda va ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish uchun blokcheyn texnologiyasidan foydalanishga mo‘ljallangan. Hozirgi paytda messenjerlardan nafaqat muloqot qilish uchun, balki to‘lovlarni amalga oshirish uchun ham foydalanilayotganligi barchaga ma’lum. Facebook Messenger va WhatsApp dagi zaifliklar shundan iboratki, ular siyrak shifrlash usulini qo‘llaydilar va metama’lumotlarning yetarli darajadagi himoyasini ta’minlamaydilar, shu jumladan xabar yuborayotgan odamning shaxsi, uning elektron pochtasining manzili va tizimga kirish uchun zarur bo‘lgan boshqa qayd ma’lumotlarining ham.

- **Himoyalangan xabarlar:** Obsidian messenjeri foydalanuvchilarning metama’lumotlarini blokcheyn dan foydalangan holda himoyalashni rejalashtirishmoqda. Foydalanuvchi messenjerni ishlatishi uchun elektron pochta yoki autentifikasiyalashga oid har qanday boshqa ma’lumotdan foydalanishi zarur bo‘lmaydi. Metama’lumotlar butun kitob bo‘yicha tasodifiy tarzda taqsimlangan bo‘ladi va, shu sababli, buzilish ehtimoli bo‘lgan bitta nuqtada to‘planishiga imkon bo‘lmaydi. Shuningdek, Obsidian ichida to‘lov vositasi sifatida foydalanish uchun o‘z tokenini joriy qilish rejalashtirishmoqda. Ushbu loyiha hali ishlab chiqish jarayonida, biroq boshqa messenjerlar ushbu sxemaga rioya qilishlari va o‘z foydalanuvchilarining ma’lumotlarini shunga o‘xshash tarzda himoyalashlari mumkin.

Ayni paytda foydalanuvchilarni har qanday tizimga qo‘shishning umumiy usuli bo‘lib login va parollarni ishlatgan holda yagona yondashuvni qo‘llash hisoblanadi. Ammo REMME kabi kompaniya – qurilmalar va foydalanuvchilarni aniqlash va ularni o‘zgartirish harakatlarini bloklovchisidan foydalanishga yo‘naltirilgan yangi ishlanma bo‘lib hisoblanadi.

Bloklovchilarning asosiy kuchi bo‘lib tizimlarni va fayllar hamda umuman ma’lumotlarning orasidagi tasodifiy aloqalarni nomarkazlashtirish hisoblanadi. Buning ustiga, parollar odamlar tomonidan o‘ylab topiladi, saqlanadi va kiritiladi, bu holat esa odamlar tomonidan xatoga yo‘l qo‘yilishiga imkon yaratadi. REMME foydalanuvchi tomonidan qurilma va foydalanuvchining autentifikasiyasi vaqtida yo‘l qo‘yish mumkin xatoliklarning oldini olishga urinadi.

Ushbu kompaniya qurmoqchi bo‘layotgan xavfsiz autentifikasiya mexanizmlarining tamoyillari tarqoq ochiq kalitlar infratuzilmasidan foydalanishga asoslangan. Ochiq kalitlarni nomarkazlashtirish, ularning hujumlar uchun zaiflik darajasini pasaytiradi, parollarni boshqarishning markazlashtirilgan tizimi bu ishni qilolmaydi. Har bir qurilmaga blokcheyn texnologiyasiga asoslangan o‘zining SSL-sertifikati beriladi, bu qonunbuzarlar tomonidan soxta sertifikatlarning ishlatilishining oldini oladi.

REMME kabi startaplar, korxonalarga ma’lumotlarni boshqargan va o‘z xodimlariga kirish huquqiga ega bo‘lgan holda, o‘z tijorat ma’lumotlarini ancha yaxshiroq himoyalashga imkon beradi. Ichki qoidabuzarliklar sodir bo‘lgan holatlarda blokcheyn texnologiyasi kompaniyaga ushbu qoidabuzarlikni sodir etgan xodimni bexato topishga yordam beradi. REMME ham huddi Obsidian kabi ishlab chiqish jarayonida, biroq bunday korxonalar hali ko‘p paydo bo‘lishi turgan gap.

- **Kiber-hujumlarni qaytarish:** Nihoyat, blokcheyn markazlashgan serverlardagi asosiy veb-saytlarga uyushtirilgan xakerlik hujumlarini aniqlash va ularni qaytarish bo‘yicha ko‘p imkoniyatlarni taqdim qiladi.

Bunday hujumlar oqibatida PayPal, Twitter va Spotify kompaniyalarining veb-saytlariga foydalanuvchilarning kirishi to‘sib qo‘yildi. Muammo shundaki, hozirda mavjud bo‘lgan DNS-serverlarga xavfsizlik yetishmaydi, chunki ular kirish kalitini bitta serverda saqlaydi va keshlashga haddan ziyod ishonch bildiradi. Guardian va Nebulis kabi startaplar blokcheyn asosidagi kalitlarning tarqoq tarmog‘i va kalit so‘zlardan foydalangan holda bu holatni o‘zgartirishga niyat bildirishmoqda.

Oxir-oqibatda, blokcheyn serverlarni xakerlar hujumlaridan himoyalaydi va ularni zabt etib bo‘lmas qal’adek bo‘lishini ta’minlaydi.

Blokcheyn – shubhasiz bu oxirgi o‘n yillikning axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi eng istiqbolli kashfiyotidir. Bu, axborot xavfsizligi tizimlarining rivojlanishida inqilobiy o‘zgarishlarni sodir etib, uzoq yillarga xavfsiz Internetni ta’minlashidan umidlarimiz katta.

Xavfsizlik tadbirlari tarmoqqa shunday joriy qilinganki, uning umumiy inkor etish nuqtasi bo‘lmaydi, nafaqat maxfiylik, balki har qanday harakat bekor qilinmasligi va autentifikatsiya ham ta’minlanadi. Tizimda ishtirok etishni istagan har bir shaxs shifrlashdan foydalanishi lozim – bu muhokama qilinmaydi va o‘ylamasdan qilingan harakatlar oqibatlarini faqat shu harakatlarni amalga oshirgan shaxsgina his qiladi.

Xakerlik hujumlari, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash, firibgarlik, kiberqo‘rqitish, fishing, spam, ziyon keltiruvchi dasturlar, virustovlamachilar – bularning barchasi insonning jamiyatdagi havfsizligiga tahdid soladi. Internetning ilk davri, ko‘plab jarayonlarni shaffof qilish va inson huquqlari buzilishini qiyinlashtirish o‘rniga, xususiy shaxslar, institutlar va iqtisodiy faollik xavfsizligini oshirmas edi. O‘rtacha internetdan foydalanuvchi ko‘pincha electron pochta va hisob qaydlarini oddiy parollar himoya qiladi deb umid qilardi, chunki provayderlar yoki ish beruvchilar ishonchliroq parollarni talab qilmasdi. Shuni ham aytish kerakki, raqamli valyuta oddiy faylda saqlanmaydi. U kriptografik xesh bilan belgilangan tranzatsiyalarda aks ettiriladi. Foydalanuvchilar o‘z pullari uchun kriptokalitlarga ega bo‘ladi va tranzaksiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bir-biri bilan birgalikda amalga oshiradi. Bunday havfsizlik uchun ularning har biri mas’uliyatli bo‘lishi – shaxsiy kalitlarni ishonchli himoya qilishi zarurligidir. Bu yerda havfsizlik standartlari muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bitkoyin blokcheyni AQSH Standartlar va texnologiyalar milliy instituti tomonidan chiqarilgan va axborotni qayta ishlash federal standarti sifatida qabul qilingan mashhur va puxta ishlab chiqilgan SHA-256 shifrlash standartida ishlaydi. Blok yechimini toppish uchun zarur bo‘lgan ko‘p martalik matematik hisob-kitoblarni takrorlash murakkabligi hisoblash qurilmasidan masalani yechish va yangi bitkoinlar ishlab topish uchun ko‘p elektr energyasi sarflashni talab qiladi. Ba’zi bir boshqa algoritmlar esa ancha kamroq energiya sarflaydi.

Bizningcha, har qanday iqtisodiyot hamma uchun ishlaganda eng yaxshi tarzda ishlaydi. Bu unda ishtirok etish uchun to‘siqlarni pasaytirish lozimligini anglatadi. Bu kapitalni qayta taqsimlash emas, balki qayta taqsimlangan kapitalizm uchun platforma yaratish kerakligini anglatadi. Ilk internet davri ko‘plab odamlar uchun ko‘plab mo‘jizalar yaratdi. Biroq, yuqorida aytib o‘tilganidek, dunyo aholisining katta qismi na texnologiyalarga, na moliya tizimiga va na iqtisodiy imkoniyatlarga ulanish imkoniga ega bo‘lmagan holda, avvalgidek, tizimga ulanmasdan qolib ketmoqda. Boz ustiga, yangi kommunikatsiya vositasi hamma uchun farovonlik keltirishiga umid oqlanmadi. Ha, Internet rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalarga, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda, millionlab odamlarga ish taqdim etishga imkon berdi. U ko‘plab tadbirkorlar uchun bozorga kirishga bo‘lgan to‘siqlarni pasaytirdi va aholining kam ta’minlangan qatlamlariga yangi imkoniyatlar va bazaviy axborotga ulanish imkoniyatlarini taqdim etdi [9].

O‘ylaymizki, blokcheyn texnologiyasihar har bir kishining huquqlari va insoniylikni saqlashva qodir bir texnologiyadir. Moliya hizmatlari butunjahon tarmog‘i hozirgi kunda ko‘plab muammolarga to‘lib-toshib yotibdi. U ancha eskirib qolgan, chunki yuqori dinamikali raqamli dunyodan ortda qolib ketayotibdi va shu sababli ham sekin va ishonchsiz ishlaydigan, o‘tgan asrdan qolgan texnologiyalarga asoslanadi. U monopol bo‘lib, milliardlab odamlarga bazaviy moliyaviy vositalarga ulanish imkonini bermaydi. U markazlashtirilgan bo‘lib, shu sababli axborotning sizib chiqishi va boshqa hujumlar hamda inkor qilishlarga uchraydi. U monopollashtirilgan bo‘lib, shu sababli status-kvoni qo‘llab-quvvatlashga intiladi vainnovatsiyalarga to‘sqinlik qiladi. Blokcheyn novatorlar va tadbirkorlarga ushbu kuchli platformada qiymat yaratishning yangi usullarini topgan holda shu va boshqa ko‘plab muammolarni hal qilishga imkon beradi.Jahon moliya mutaxassislari blokcheyn bilan bog‘liq bo‘lgan quydagi g‘oyalar haqida puhta o‘ylab ko‘rishlari lozim:

- **Tekshirish:** Tarixda birinchi marta, turli subyektlar bir-birini bilmagan va bir-biriga ishonmagan holda bitim tuzishi va ishlarni yuritshi mumkin. Shaxsni tasdiqlash va ishonch o‘rnatish moliyaviy vositachining huquqi va imtiyozi bo‘lmay qo‘ydi. Boz ustiga, moliyaviy hizmatlar nuqtai-nazaridan ishonch bayonnomasi yangi ma’noga ega bo‘ladi. Blokcheyn zarur bo‘lgan paytda tranzaksiyalar tarixi (blokcheynda), nufuz qiymati (agregatsiyalangan fikrlar asosida) va boshqa umumiqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida har bir tomonning aynan o‘xshashligi va to‘lov layoqatini tasdiqlab, ishonchli munosabatlar o‘rnatishi mumkin.

- **Qiymat:** Blokcheynda tarmoqda qiymatni pirringli P2P uzatish kliringini amalga oshiradi va ularni tartibga soladi, buni doimiy bajaradi, shunday ekan, uning registri doimo dolzarb bo‘ladi. Agar banklar o‘zining biznes-modelini o‘zgartirmagan holda bunday imkoniyatdan avvalboshdan foydalanganlarida edi, yiliga 20 mlrd dollar atrofida operatsion harajatlarni tejab qolgan bo‘lar edilar – bu hisob-kitoblar Ispaniyaning Santander bankiga tegishli bo‘lib, real raqamlar bundan ancha yuqori. Qiymatni keskin pasaytirish tufayli banklar bank hizmatlari ko‘rsatish bilan yetarli darajada qamrab olinmagan jamiyatlarda xususiy va korporativ mijozlarga moliyaviy hizmatlar, bozorlar va kapitalga ulanish uchun kengroq imkoniyatlar taqdim eta olgan bo‘lar edi. Bu nafaqat bozor yetakchilari uchun, balki butun dunyo bo‘ylab endi ish boshlayotgan tadbirkorlar uchun ham foydali hisoblanar edi. Istalgan kishi istalgan joydan turib, faqat smartfonga va internetga ulanish imkoniga ega bo‘lgan holdagina jahon moliyaviy oqimlariga qo‘shilish imkoniga ega boladi.
- **Tezlik:** Hozirgi paytda pul oqimini tartibga solish etti kun, birja bitimini tartibga solish – ikki-uch kun, bank ssudasi uchun esa naqd 23 kun talab qilinadi. SWIFT tarmog‘i butun dunyo bo‘ylab o‘n minglab moliyaviy institutlar o‘rtasida kuniga o‘n besh million to‘lovni o‘tkazadi, lekin ularni tartibga solish va kliringga bir necha kun sarflaydi. Huddi shu narsa AQSHda kuniga trillionlab dollarlik to‘lovlar o‘tkazadigan ACH (Automated Clearing House) tizimida ham ro‘y beradi. Bitkoyn tarmog‘idabu vaqtda amalga oshirilgan barcha tranzatsiyalarni tartibga solish va kliringga o‘rtacha 10 daqiqa vaqt ketadi. Boshqa blokcheynlar yanada tezroq bo‘lib, Bitcoin Lightning Network kabi zamonaviy novatorlik yechimlari tartibga solish va kliring vaqtini soniyaning ulushiga teng bo‘lgan vaqtgacha qisqartirib, bitkoin blokcheyni hajmini oshirishga intiladi. “Pul jo‘natuvchi bir tarmoqda, oluvchi esa boshqa tarmoqda bo‘ladigan bank tizimida pul ko‘plab registrlar, vositachilar, tranzit maydonlar orqali o‘tib, tom ma’noda yo‘lda yo‘qolib qolishi mumkin. Aslida ham, qiymatni uzatishning bir onda ro‘y beradigan va harajatlar bilan bog‘liq bo‘lmagan turiga o‘tish uzoq vaqt davomida oraliq holatda turib qoladigan kapitalni ozod qiladi; Bu esa “yo‘ldagi” pul mablag‘laridan foyda oladigan vositachilarni xursand qilmaydi, albatta.
- **Risklarni boshqarish:** Blokcheyn texnologiyasi bir necha xil moliyaviy risk turlarini bartaraf qilishga va’da beradi. Birinchidan, tartibga solish riski to‘lovning bitimni tartibga solish jarayonida bironta xato natijasida o‘tmaslik riski. Ikkinchidan, kontragentlik riski– ikkinchi tomon bitimni tartibga solish ro‘y bermagunga qadar defolt e’lon qilish riski. Nihoyat, eng jiddiy tizimli risk, tizimdagi barcha yirik kontragentlik risklari yig‘indisi.
- **Qiymat innovatsiyasi:** Bitkoyn blokcheyni bitkoyinlar uzatish uchun yaratilgan, boshqa moliyaviy aktivlar bilan ishlash uchun emas. Biroq buochiq boshlang‘ich kodli, tajribalarni rag‘batlantiradigan texnologiyadir. Ayrim novatorlar bitkoyin to‘lovlari uchun emas, balki boshqa maqsadlar uchun mo‘ljallangan alohida blokcheynlar, ya’ni altkoynlar yaratadi. Saydcheynlar – imkoniyatlari va funksiyalari bo‘yicha bitkoyn blokcheynidan farq qiladigan, lekin uning havfsizligini pasaytirmagan holda bitkoyn kompyuter infratuzilmasi va rivojlangan tarmog‘idan foydalanadigan blokcheynlardir. Saydcheynlar blokcheyn bilan ikki kanalli shtift – aktivlarni uchinchi tomon ishtirokisiz blokcheynga va blokcheyndan berish kriptografik vositasi yordamida aloqa qiladi. Xususiy blokcheynlarda savdo platformalari yaratib, umuman bitkoyin va boshqa tokenlardan foydalanishni istisno qilishga intiladigan novatorlar ham bor. Moliyaviy institutlaraktivlar va majburiyatlarni yozish, almashinish va sotish uchun blokcheyn texnologiyasidan foydalanmoqda, vaqt o‘tishi bilan esaan’anaviy birjalar va markazlashtirilgan bozorlarni u bilan almashtirishi mumkin, bu esa bizning qiymat haqidagi va u bilan savdo mexanizmlari haqidani tasavvurlarimizni o‘zgartirib yuborishi mumkin.
- **Ochiq boshlang‘ich kod:** Moliyaviy hizmatlar tarmog‘i bu – eskirib qolgan tizimlar ulkan texnologik-to‘plami bo‘lib, istalgan payt qulashi mumkin. Uni texnologik jihatdan takomillashtirish qiyin, chunki har bir innovatsiya uchun qaytuvchan bo‘la olishlik talab qilinadi. Blokcheyn esa, ochiq boshlang‘ich kodli tizim bo‘lgani holda, doimiy ravishda o‘zgarishi, rivojlanishi va tarmoq murosasi asosida takomillashishi mumkin.

Bu afzalliklar – attestatsiya, ancha past qiymat, bir lahzali tezlik, risklarning pasayishi, katta innovatsiya, moslashuv qobiliyati – istiqbolda nafaqat to‘lovlarni, balki qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni, investitsion bank hizmatlari ko‘rsatishni, buxgalteriya hisobi va auditni, venchurli investitsiyalarni, sug‘urtalashni, tadbirkorlik risklarini boshqarishni, xususiy shaxslarga bank hizmatlari ko‘rsatish va tarmoqning boshqa asoslarini o‘zgartirishi mumkin.

Odamlar o‘z ma’lumotlarini o‘zlari nazorat qilishlari kerak. Har bir kishi o‘z shaxsiyati haqida nimani, qachon, qaerda va qanchalik batafsil gapirib berish haqida o‘zi qaror qabul qilishga haqlidir. Shaxsiy ma’lumotlarning dahlsizlik huquqini hurmat qilish va shaxsiy ma’lumotllarning havfsizligini himoya qilish – ikkalasi bir xil narsa emas. Bizga unisi ham, bunisi ham kerak. Bir-biriga ishonish zaruratini bartaraf qilib, Satosi Nakomoto shu tariqa u bilan o‘zaro aloqa qilish uchun ikkinchi tomon shaxsini yaxshi bilish zaruratini yo‘qqa chiqardi. Xususiy hayot daxlsizligi – insonning asosiy huquqi va erkin jamiyatning negizidir. Internet paydo bo‘lgandan

keyingi oxirgi yigirma yil davomida davlat miqyosida ham, xususiy sektorda ham ma'lumotlar markaziy to'plamlari xususiy shaxslar va tashkilotlar haqida, jumladan, ularga ma'lum qilmagan holda, xilma-xil maxfiy axborotlar to'plagan. Hamma joyda odamlar korporatsiyalar axborot izlash asnosida butun raqamli dunyoni titib tashlagan holda qandaydir kiberklonlar yaratishidan havfsiraydi. Blokcheynda esa qatnashchilaristagan holda ma'lum darajagacha noma'lumlikni saqlashi mumkin – ular qandaydir qo'shimcha ma'lumotlar xabar qilish yoki bu axborotlarni ma'lumotlar markaziy to'plamida saqlashga majbur emas. Bu holatning muhimligiga noto'g'ri baho berib bo'lmaydi. Blokcheynda shaxsiy ma'lumotlar ombori yo'q. Blokcheyn protokollarihar bir muayyan tranzaksiya yoki vaziyat uchun kerakli bo'lgan noma'lumlik darajasini tanlashga imkon beradi. Shu tariqa biz o'zimizning elektron nusxalarimizni va ularning dunyo bilan o'zaro aloqalarini yaxshiroq boshqaramiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, blokcheyn texnologiyasi bugungi dunyoda juda dolzarb bo'lib, an'anaviy markazlashtirilgan tizimlar duch keladigan turli muammolarga transformativ yechimlarni taklif etadi. Uning markazlashmagan tabiati, kengaytirilgan xavfsizlik, samaradorlik va moliyaviy inklyuzivlik potentsiali unining imkoniyatlarini kengaytirish va innovatsiyalarni sanoat bo'ylab rivojlantirish uchun kuchli vositaga aylantiradi. Blokcheyn rivojlanishda davom etar va asosiy oqimga ega bo'ladi, uning ahamiyati o'sib boradi va butun dunyo bo'ylab markazlashmagan va shaffof ekotizimlarning kelajagini shakllantiradi.


Blokcheyn texnologiyasi bilan bog'liq xavfsizlik muammolarini o'rganishda mavjud muammolarni hal qilish uchun potentsial echimlar taklif etamiz:

- PoW va PoS zaifliklarini kamaytiradigan yangi konsensus algoritmlarini ishlab chiqish va qabul qilish blokcheyn xavfsizligini oshirishi mumkin. Proof of Authority (PoA) va Delegated Proof of Stake (DPoS) kabi konsensus mexanizmlari kengayish va xavfsizlik muammolarini hal qiluvchi muqobil yondashuvlarni taklif qiladi;
- Smart shartnomani ishlab chiqishda puxta kod tekshiruvlarini o'tkazish va rasmiy tekshirish usullarini qo'llash zaifliklarni aniqlashi va yumshatishi mumkin. Bundan tashqari, standartlashtirilgan xavfsizlik protokollari va aqlli shartnomani ishlab chiqish uchun eng yaxshi amaliyotlarni o'rnatish ekspluatatsiya xavfini minimallashtirishi mumkin.
- Blokcheyn texnologiyasiga xos me'yoriy muvofiqlik asoslarini ishlab chiqish markazlashtirilmagan tizimlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mavjud qoidalarga rioya qilishni osonlashtirishi mumkin. Nazorat qiluvchi organlar, sanoat manfaatdor tomonlari va texnologlar o'rtasidagi hamkorlik aniq ko'satmalar yaratish va tartibga solishning aniqligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega;
- Blokcheynning o'zgarmasligini saqlab qolgan holda ma'lumotlarni tanlab o'chirish yoki shifrlashni ta'minlaydigan dinamik ma'lumotlarni boshqarish echimlarini integratsiyalash ma'lumotlarni saqlash va GDPR kabi maxfiylik qoidalariga rioya qilish bilan bog'liq muammolarni hal qilishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmood, Z. (2021). Blockchain Technology. Advances in Data Mining and Database Management.
2. Rahmani, M.K. (2022). Blockchain Technology. Blockchain Technology and Computational Excellence for Society 5.0.
3. Kogure, J., Kamakura, K., & Shima, T. (2017). Blockchain Technology for Next Generation ICT.
4. Sharma, S., Rosmin, P., & Bhagat, A. (2021). Blockchain Technology. Blockchain Applications in IoT Security.
5. Oksiiuk, O., & Dmyrieva, I. (2020). Security and privacy issues of blockchain technology. 2020 IEEE 15th International Conference on Advanced Trends in Radioelectronics, Telecommunications and Computer Engineering (TCSET), 1-5.
6. Huynh, T.T., Nguyen, T.D., & Tan, H. (2019). A Survey on Security and Privacy Issues of Blockchain Technology. 2019 International Conference on System Science and Engineering (ICSSE), 362-367.
7. Alsuhaimi, A.H., & Alzahrani, S. (2021). Security and Privacy Issues of Block-Chain Technology.
8. Gupta, N. (2019). Security and Privacy Issues of Blockchain Technology. Studies in Big Data.
9. Zokir Toshtemirovich Mamadiyarov. 2022. Risk Management in the Remote Provision of Banking Services in the Conditions of Digital Transformation of Banks. In The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (ICFNDS 2021). Association for Computing Machinery, New York, NY, USA, 311–317. https://doi.org/10.1145/3508072.3508119

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR STRATEGIYASI TAHLILINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Tursunova Shaxnoza Farxod qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Iqtisodiyotning joriy, uzoq muddatli va strategik moliyaviy rejalashtirish zarurati muhim xususiyatlarga ega. Ushbu holatda har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘zining mustahkam pozitsiyasiga ega bo‘lishi va uni ushlab turishi hamda har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan strategik boshqaruvni tashkil qilish va yuritish dolzarb vazifalardan biridir.

Kalit so‘zlar: Strategiya, prognoz, joriy strategiya, uzoq muddatli strategiya, moliyaviy rejalashtirish, sarflar, chiqimlar, tannarx, aktivlar, joriy aktivlar, budjet daromadlari, strategik boshqarish.

Abstract: The ability of an economy to develop long-term, short-term and strategic financial planning has a significant impact. In this case, it is important for the company to have a strong position and work on it, and the company is responsible for organizing and selling the company.

Key words: strategy, forecast, global strategy, long-term strategy, financial planning, expenses, expenses, cost, assets, working capital, budget revenues, strategic management.

Аннотация: Значительные успехи имеет долгосрочное, краткосрочное и стратегическое финансовое планирование экономики. В этом случае экономической единице важно иметь сильную позицию и работать над ней, организовывать и поддерживать стратегическое партнерство.

Ключевые слова: Стратегия, прогноз, итоговая стратегия, долгосрочная стратегия, финансовое планирование, расходы, стоимость, активы, оборотные средства, доходы бюджета, стратегическое управление.

KIRISH

Iqtisodiyot globallashuvi sharoitida har bir sohaning xususiyatidan kelib chiqib, tarmoqlarni rivojlantirishda uning strategiyasini belgilash muhim. Shu sababli xo‘jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini to‘g‘ri yuritish, maqsadi va vaziflaralarini belgilash asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish faoliyati xarajatlarini strategik boshqarish hisobini tashkil qilish va yuritish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda xarajatlarni tan olish, sarf, chiqimlar talqin qilinishi, shuningdek, ularning ishonchliligini oshirish, tasniflash, tannarx hisoblashning zamonaviy usullaridan foydalanish, xarajatlar moddalarini dasturlash hamda prognozlash va takomillashtirishga erishilmoqda.

Byudjet prognozi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining qisqa va o‘rta muddatga belgilangan ssenariylari prognozining ajralmas muhim qismi hisoblanadi. Aniqlangan davlat byudjeti xarajatlariga asoslanib daromadlar belgilanadi. Mamlakatning yaqin istiqboldagi asosiy rivojlanish yo‘nalishi sifatida mamlakat iqtisodiyoti raqobatdoshligini ta’minlash, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish vazifasi belgilangan.

Dunyo mamlakatlari taraqqiyotida davlat byudjeti sohasida olib boriladigan siyosati iqtisodiyotni tartibga solishda muhim moliyaviy instrumentlardan biri hisoblanadi. Uning samarali faoliyat yuritishi iqtisodiy rivojlanishga va aholi farovonligi oshishiga ijobiy ta’sir etadi. Shu sababli davlat byudjeti daromadlarini istiqbolga prognozlashni davlat zimmasiga olgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur mablag‘lar bilan ta’minlash manbalarini aniqlash imkonini beradi. O‘zbekiston Pespublikasida yuqori o‘sish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalarning bajarilishida byudjetni prognozlashtirishning ahamiyati dolzarb masalalardan biridir. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini samarali boshqarishning hayotiy sharti boshqaruvning mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishi muvaffaqiyatini tahlil qilish va uning rivojlanishini maqsadli harakatlar bilan ta’minlash qobiliyatidir. Iqtisodiyotning har bir tarmog‘idagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning joriy aktivlarini samarali boshqarish omillari ularni shakllantirish va ishlab chiqarishda qo‘llash shartlarini har tomonlama baho-

lashni, shuningdek, ishlab chiqarish siklining barcha bosqichlarini moddiy va moliyaviy resurslar bilan tizimli ravishda ta'minlash, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish strategiyasini prognozlash va amalga oshirish bilan tavsiflangan proporsionallikni saqlab qolish hisoblanadi. Shu bilan birga mahsulot ishlab chiqarish korxonalari aktivlarini strategik boshqarish vazifasi operatsion sikli uzluksiz bajarilishi, doimiy o'zgarib turadigan mamlakat iqtisodiyotida narx va sifat jihatidan raqobatbardosh mahsulotlar bilan istiqbolli va barqaror bozorlarda Ushbu subyektning barqaror mavjudligini ta'minlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasini tanlash masalasi noaniq bo'lib, uni ta'riflashda turlicha yondashuvlar bilan tavsiflanadi.

Xususan, A. Chandler fikricha, "Strategiya korxonaning uzoq muddatli maqsad va vazifalarini belgilash hamda harakatlar yo'nalishini tasdiqlash va ushbu maqsadlarga erishish uchun zarur resurslarni taqsimlash"[1] -deb hisoblaydi [1].

L. Filobokovaning fikriga ko'ra, "Strategik menejmentning konseptual sxemasi ushbu jarayon texnologiyasi sifatida boshqaruvning tizimni tashkil etuvchi elementlar, ya'ni innovatsion muhitni tahlil qilish, innovatsion strategiyani ishlab chiqish, strategiyani amalga oshirish mexanizmlari, baholash va uning bajarilishini nazorat qilishdir. Ushbu sxemada strategik boshqaruv faoliyatining uzluksizligi, takrorlanuvchanligi va samaradorligini ta'minlovchi elementlar strategik fikrlash, strategik axborot va strategik moslashuvchanlikdir" [2].

R. Grantning quyidagi fikrlarini tasdiqlashimiz maqsadga muvofiqdir, ya'ni: "Ma'lumot bazasi hajmi jihatidan qanchalik ulkan bo'lishidan qat'iy nazar, bu ma'lumot emas. Bu ma'lumot rudasi, xolos. Biznes uchun zarur bo'lgan ma'lumot faqatgina birlamchi ko'rinishda mavjud, agarda umuman u mavjud bo'lsa. Aksariyat boshqaruv qarorlari, ayniqsa, strategik qarorlarni qabul qilish uchun rahbariyatga biznes faoliyatining chegarasi ortida bo'lib o'tayotgan jarayonlar haqidagi ma'lumotlar talab etiladi. Natijalar, imkoniyatlar, tahdidlar biznes yoki korxona doirasi tashqarisidagina mavjuddir" [3].

Kasatkina fikricha, "Pul oqimlarini istiqbolli rejalashtirish va modellashtirish sirg'aluvchi rejalashtirish tamoyillari asosida amalga oshiradi. Bunday rejalashtirish gorizonti har yili bittaga siljiganida, rejalashtirishning boshidan asta-sekin joriy yilda amalga oshirishni boshlash to'g'risida qaror qabul qilinadigan loyihalar aniqlanadi. Bunday loyihalarning samaradorligini baholash tizimli ta'sirni hisobga oladi" [4].

I. Frumin va M. Ctepanovaning fikricha, "Joriy aktivlarni boshqarish uchun odatiy ssenariyni bashorat qilish algoritmidan foydalanishni, vazifalarni shakllantirish, atrof-muhitni tahlil qilish, hodisa evolyutsiyasini retrospektiv tahlil qilish, taxminiy ssenariylarni yaratish, ularni takomillashtirish va mazmunli to'ldirish, strategik tanlovlarni ishlab chiqish va individual integratsiyani nazarda tutadi hamda strategik tanlovlarni yagona strategiyaga aylantiradi. Optimal dasturlash ssenariy usuliga foydali qo'shimcha bo'lishi mumkin. Optimallashtirish muammosini aniqlash va hal qilish jarayonida qo'pol ssenariylar aniqlanadi va tafsilotlar bilan to'ldiriladi" [5].

Xususan, V. Mochulaev tomonidan "Xo'jalik yurituvchi subyektning retrospektiv va prognoz davridagi zarur joriy aktivlarini hisoblash modeli va uning yakuniy qiymatini aniqlashda o'z joriy aktivlarining ortiqchaligi (taqchilligi)ni aniqlash modeli taklif etilgan. Ushbu usul pul oqimlarini prognoz qilish va korxonaning yakuniy qiymatini aniqlashning ishonchliligini oshiradi" [6]- deb fikr bildirgan.

T. Degtyareva tomonidan esa "xo'jalik yurituvchi subyekt ishlab chiqarishining mintaqaviy aspektida rivojlanishini bashorat qilish uchun eksponensial tekislash asosida P.Braun ning adaptiv polinom modelidan foydalanish taklif etiladi" [7] - deya fikrlagan.

Pardaev va Z. Pardaevlarning fikriga ko'ra, "Strategik balans ...strategik boshqaruv hisobining ma'lumotlar bazasini ichki tashkiliy bilimlar bilan tezkor integratsiyalashuvini ta'minlagan holda, ma'lumotlar bazasining zarur yaxlitligini va uning strategik boshqaruv qarorlar qabul qilishdagi samarasini keskin oshiradi" [8] – deb hisoblaydi.

U. Kostaevning fikricha, "Boshqaruvning strategik va operativ darajalari orasidagi doimiy moslik ushlab turiladi va joriy operativ va strategik prognozlar va rejalarning muhim moslashuvi ta'minlanadi. Tadqiqot natijalari bo'yicha strategik boshqaruvni amalga oshirishda strategik prognoz balansi tahlili shakllanish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan uch funksional maydon ajratib ko'rsatildi" [9].

Sh. Tojiboevaning fikricha, "Strategik tahlil marketing tizimida korxonani uzoq muddatga mo'ljallangan bozorni prognozlashdagi pozitsiyasidir. Istiqbolli moliyaviy tahlil – amaldagi holatni o'rganish asosida moliyaviy holat va uning alohida birliklari bo'yicha kelajakdagi o'zgarishlarning kutilishlarni baholab beruvchi tahlil turidir" [10].

Ushbu fikrlar mamlakat iqtisodyotining barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarida strategik boshqaruvni tashkil qilish, shuningdek, tahlil tizimini tashkil qilishda muhim deb hisoblaymiz.

1 Chandler A.D. Strategy and Structure: A Chapter in the History of Industrial Enterprises / A.D. Chandler. Cambridge, Mass, MIT Press, 1962. –210 p.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida, tizimli tahlil, statistik guruhlar va taqqoslama tahlil, kompleks tahlil, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning strategik boshqaruv hisobida, shuningdek byudjetlashtirishdan foydalanishda muhim xususiyatlari mavjud bo‘lib: byudjetlashtirish – boshqaruvni tashkil qilishga tizimli yondashuvni shakllantiradi; byudjetlashtirish – boshqaruvning to‘rtta fazasini, ya’ni rejalashtirish, nazorat qilish, tashkil qilish va rag‘batlantirish (motivatsiya)larning barchasini o‘ziga qamrab oladi; uchinchidan, byudjetlashtirish xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini boshqarishdagi boshqaruvning muhim funksiyalari bo‘lgan – vazifalarni aniqlashtirish, resurslarni rejalashtirish, faoliyatni baholash, ishchi-xodimlar faoliyatini baholash orqali rag‘batlantirish, belgilangan ko‘rsatkichlar bajarilishini nazorat qilishni amalga oshiradi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar aktivlarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga aktivlar boshqarishni strategik rejalashtirish operatsion siklning ishlashi jarayonida boshqaruv siyosatini ishlab chiqishda tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonini moddiy resurslar bilan ta’minlash va uni qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonasining keyingi davrlarini ilgari surish uchun zarur bo‘lgan qo‘shilgan qiymatni olish bilan amalga oshirishga qaratilgan bo‘lib, ulardan samarali foydalanishni oldindan belgilaydi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning aktivlarini boshqarish jarayonida yuzaga keladigan strategik maqsadlarni hal qilish nafaqat uzoq muddatli maqsad va vazifalarni belgilashda, balki ularni amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash, o‘zgaruvchan sharoitlarda maqsadli ko‘rsatkichlarni tuzatish usullari bilan ham belgilanadi. Operatsion davrda qabul qilingan strategiyani ishlab chiqish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun zarur natijalar monitoring qilinadi. Aktivlarni boshqarish strategiyasini amalga oshirish qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonasi faoliyatini barqarorlashtirish va biznes tuzilmalari rentabelligini oshirishning eng to‘g‘ri usuli bo‘lgan boshqaruv vositalari va usullarini takomillashtirishni talab etadi. Chunki joriy aktivlar ishlab chiqarishning barcha bosqichlaridan o‘tadi hamda sotish sikli va aylanish davrining davomiyligi bo‘yicha farqlanadi.

Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda aktivlarning etishmasligi ishlab chiqarish va tijorat siklining buzilishiga, likvidlikning yo‘qolishiga va past foyda olishga hamda ortiqcha asossiz ravishda yuqori miqdorda moliyalashtirishga olib keladi. Shuning uchun ham joriy aktivlarni ularning turlari bo‘yicha uzoq muddatli prognozlash zarurati tug‘iladi. Prognozlashtirish iqtisodiyotning rivojlanish yo‘nalishlarini, uning alohida elementlarini kelajakdagi ilmiy bashorat qilish yoki maqsadlarga erishishning optimal usullarini izlash tushuniladi. Ilmiy izlanishlarimizga ko‘ra, amalda prognozlashtirish aniq bir tamoyilga tayangan holda amalga oshirilmaydi. Shu sababli mamlakatning yaqin istiqboldagi rivojlanishini asosiy yo‘nalishi sifatida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlash, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish vazifasi belgilangan.

Aktivlarni boshqarish bo‘yicha tanlangan siyosatga qarab moliya-xo‘jalik faoliyatini prognozlash tizimlari rejalar, smetalar va byudjetlar shakllarining tarkibi, ularni ishlab chiqish va tasdiqlash qoidalari, analitik rejalashtirish yo‘nalishlari jihatidan juda xilma-xildir.

Iqtisodiy adabiyotlarda joriy aktivlarni boshqarishni pronozlashtirishning turli modellari mavjud bo‘lib, ular joriy aktivlar qiymatini istiqbolli baholash usullariga, tarkibi va tuzilishi, joriy aktivlar elementlaridan foydalanish samaradorligi, operatsion siklning biznes jarayonlari uchun joriy aktivlarning mavjudligiga tashqi va ichki omillarning ta’siriga asoslanadi. Aktivlardan foydalanish samaradorligini prognoz qilish mahsulot ishlab chiqarish korxonasi joriy aktivlari aylanmasi, likvidliligi, to‘lov qobiliyati, rentabelligini baholashga asoslanadi. Mahsulot ishlab chiqarish korxonalarida joriy aktivlar tarkibini prognozlash natijalariga ko‘ra, prognoz joriy aktivlarning eng muhim elementlari bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: debitorlik qarzlari, moliyaviy investitsiyalar, pul mablag‘lari, pul mablag‘lari ekvivalentlari va aksiyalar.

XULOSA

This investigation into the export dynamics of Uzbekistan's AIC products underscores the sector's growing contribution to the nation's export mix and its promising outlook. Despite the challenge of declining global prices for key agricultural exports–which impacts export efficiency, earnings, and necessitates higher production and logistics costs–the study highlights the imperative of adopting a holistic strategy to navigate the complexities of agricultural export development.

Emerging opportunities for enhancing Uzbekistan's agricultural exports are linked to shifts in international market preferences, advancements in agricultural technology, and improvements in supply chain logistics. Continuous monitoring and adaptive state support measures are crucial to capitalizing on these opportunities, underlining the need for a cohesive national program aimed at bolstering agricultural export performance and providing targeted assistance to producers throughout the production and distribution processes.

References:

1. Ru-Stat. (2019). Eksport iz Rossii "Vse tovary" "2013-2019" [Export from Russia "All goods" "2013-2019"]. Retrieved from https://ru-stat.com/date-Y2013-2019/RU/export/world
2. Bocharov, S. N., Butakova, M. M., Belyaev, V. I., Borisova, O. V., German, O. I., Goryaninskaya, O. A., Lobova, S. V., Samsonov, R. A., Tatarintsev, V. L., & Fandin, A. (2020). Eksport Produktsii APK Altayskogo Kraya: Perspektivy, Problemy, Tselevyye Rynki [Export of Agricultural Products in the Altai Krai: Prospects, Problems, Target Markets]. Barnaul: ASU.

3. Zhilyakov, D. I. (2021). Rol' gosudarstva v povyshenii effektivnosti sel'skokhozyaystvennykh organizatsiy [The role of the state in improving the efficiency of agricultural organizations]. Ekonomicheskiye nauki [Economic sciences], (194), 74-77.
4. Kotlyarov, I. D. (2018). Razvitiye eksporta rossiyskoy sel'skokhozyaystvennoy produktsii na osnove setevoy kooperatsii v agropromyshlennom komplekse [Development of exports of Russian agricultural products on the basis of network cooperation in the agro-industrial complex]. Ekonomika sel'skogo khozyaystva Rossii [Economics of Agriculture of Russia], (2), 76-84.
5. Mindlin, Yu. B. (2021). Agropromyshlennyy kompleks Rossii na primere klasterov agroprodovol'stvennogo kompleksa v aspekte eksporta produktsii [Agro-industrial complex of Russia on the example of agri-food complex clusters in the aspect of product exports]. Sovremennaya nauka: aktual'nyye problemy teorii i praktiki. Seriya: Ekonomika i pravo [Modern science: actual problems of theory and practice. Series: Economics and Law], (5), 51-56.
6. Mironova, V. N. (2019). Rol' gosudarstva v prodvizhenii eksporta promyshlennoy i sel'skokhozyaystvennoy produktsii, konkurentosposobnoy na mezhdunarodnykh rynkakh [The role of the state in promoting the export of industrial and agricultural products that are competitive on international markets]. Ekonomika i Menedzhment [Economics and Management], 12(4), 50-59. https://doi.org/10.26794/1999-849X-2019-12-4-50-59
7. "International Cooperation and Export" national project. (2019). Retrieved from https://2019.exportcenter.ru/en/expocenter/international-cooperation-and-export-national-project/
8. Otinova, M. E., & Salnikova, E. V. (2019). Teoreticheskiye i metodologicheskiye aspekty razvitiya eksportno oriyentirovannogo agroprodovol'stvennogo rynka [Theoretical and methodological aspects of the development of an export-oriented agri-food market]. Vestnik Kurskoy Gosudarstvennoy Sel'skokhozyaystvennoy Akademii [Bulletin of the Kursk State Agricultural Academy], (6), 113-120.
9. President of the Russian Federation. (2018). Ukaz "O natsional'nykh tselyakh i strategicheskikh zadachakh razvitiya Rossiyskoy Federatsii na period do 2024 goda" [Decree "on national goals and strategic objectives of the development of the Russian Federation for the period up to 2024"]. Retrieved from http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_297432/
10. Presidium of the Council under the President of the Russian Federation for Strategic Development and National Projects. (2018). Pasport natsional'nogo proyekta (programmy) "Mezhdunarodnaya kooperatsiya i eksport" [Passport of the national project (program) "International cooperation and export]. Retrieved from http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_319212/
11. Donnik, I. M., Voronin, B. A., Loretz, O. G., Kot, E. M., & Voronina, Ya. V. (2017). Rossiyskiy APK - ot importa sel'skokhozyaystvennoy produktsii k eksportno-oriyentirovannomu razvitiyu [Russian agro-industrial complex - from agricultural imports to export-oriented development]. Agrarnyy Vestnik Urala [Agrarian Bulletin of the Urals], 3(157), 59-66.
12. Svetlov, N. M. (2020). Kak uluchshit' planirovaniye federal'nogo proyekta "Eksport sel'khozproduktsii" [How to improve the planning of the federal project "Export of agricultural products"]. Agropromyshlennyy kompleks: ekonomika i upravleniye [Agro-industrial complex: Economics and Management], (10), 41-50.
13. Nikulina, Yu. N., Payurova, E. N., Shik, O. V., & Yanbykh, R. G. (2020). Formy gosudarstvennoy podderzhki proizvoditeley moloka i ikh effektivnost' dlya razvitiya otrasli [Forms of state support for milk producers and their effectiveness for the development of the industry]. Agropromyshlennyy kompleks: ekonomika i upravleniye [Agro-industrial complex: Economics and Management], (5), 57-67.
14. Shik, O. V., Serova, E. V., & Yanbykh, R. G. (2020). Issledovaniye sistemy byudzhetnoy podderzhki agropromyshlennogo kompleksa Rossii [Research of the system of budgetary support of the agricultural sector in Russia]. Voprosy gosudarstvennogo i munitsipal'nogo upravleniya [Questions of State and Municipal Administration], (2), 145-167.
15. Svyatova, O. V., Zhilyakov, D. I., Plakhutina, Yu. V., Petrushina, O. V., & Lisitsina, Yu. V. (2021). Eksport kak etap realizatsii politiki importozameshcheniya [Export as a stage of implementation of import substitution policy]. Mezhdunarodnyy sel'skokhozyaystvennyy zhurnal [International Agricultural Journal], 5(383), 41-45.

TIJORAT BANKLARI AKSIYALARINI FOND BOZORIDA HARAKATLANISHINI IQTISODIY TAHLILI



Yuldoshova Manzura Ollashkurovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti Iqtisodiyot fakulteti
“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklari aksiyalar narxini barqarorligini saqlashda muhim rol o‘ynashini belgilab beruvchi SII strategik muhim ko‘rsatkichlar (strategically important indicators) ishlab chiqilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar asosida bank aksiyalar narxini keskin tebranish “Increase-decrease” o‘sish-kamayish mexanizmiga ta’sir qilish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: aksiyalarga to‘g‘ri keladigan daromad (EPS), o‘z kapitalining rentabelligi (ROE), kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti (CAR), sof foiz marjasi (NIM), aktivlar rentabelligi (ROA), kapitalning rentabelligi (ROYE), bank aksiyalari narxi.

Abstract: In this article, SII strategically important indicators (strategically important indicators) have been developed, which determine the important role of commercial banks in maintaining the stability of stock prices. On the basis of these indicators, the possibilities of influencing the mechanism of “Increase-decrease” in the price of bank shares have been revealed.

Key words: earnings per share (EPS), return on equity (ROE), capital adequacy ratio (CAR), net interest margin (NIM), return on assets (ROA), return on equity (ROE), bank share price.

Аннотация: В данной статье разработаны стратегически важные индикаторы СИИ (стратегически важные индикаторы), которые определяют, что коммерческие банки играют важную роль в поддержании стабильности цен на акции. На основе этих показателей выявлена возможность воздействия на механизм повышения-снижения “Увеличение-уменьшение”.

Ключевые слова: прибыль на акцию (EPS), рентабельность капитала (ROE), коэффициент достаточности капитала (CAR), чистая процентная маржа (NIM), рентабельность активов (ROA), рентабельность капитала (ROE), цена акций банка.

KIRISH

Bank hisobotlarini baholashning ahamiyati bank tizimining davlat iqtisodiyotidagi global roli bilan bog‘liq. Bank vaqtincha bo‘sh kapitalga ega bo‘lgan shaxslar va ularning faoliyatini moliyalashtirishga muhtoj bo‘lganlar o‘rtasida moliyaviy vositachi sifatida mamlakatning qon aylanish tizimi funksiyasini bajaradi. Qabul qilingan investitsiya qarorlarining obyektivligi banklar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarning to‘liqligi va ularning ishonchliligiga bog‘liq. Moliyaviy va operatsion ko‘rsatkichlar dinamikasini hisobga olish investitsiya obyekti sifatida bank aksiyalarini xolisona tanlash imkonini beradi. Bank hisobotlarini tahlil qilishda kredit moliya institutlarining (banklarning) moliyaviy bo‘lmagan sanoat va xizmat ko‘rsatish korxonalariga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak. Birinchidan, bu o‘z kapitalining past ulushi bilan balans (moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot) tarkibida qarz kapitalining yuqori ulushi. Bu bank sohasi uchun tabiiydir, chunki moliyaviy vositachining asosiy faoliyati qarz mablag‘larini jalb qilish va ularni keyinchalik kapitalga qiziqish bo‘lgan shaxslarga tezkorlik, to‘lov va to‘lov asosida taqdim etishdir. Bankning o‘z kapitali noqulay biznes sharoitlari va omonatchilar mablag‘larining chiqib ketishi bilan bog‘liq kutilmagan xarajatlar yuzaga kelganda “xavfsizlik yostig‘i” rolini o‘ynaydi. Bankning kapitali (o‘z mablag‘lari) uning majburiyatlari bo‘yicha kafolatlarning chegaraviy qiymati sifatida qaraladi. Moliyaviy bo‘lmagan tashkilotlar uchun qarz mablag‘lari miqdoriga nisbatan o‘z kapitalining bunday past ulushi moliyaviy ahvolning yomonlashishini va tashkilotning bankrotligiga olib kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy barqarorlikning pasayishini anglatadi. Istisno kapitalning yuqori aylanmasi bilan tavsiflangan tarmoqlar bo‘lishi mumkin, masalan, chakana savdo korxonalari.

Ikkinchidan, banklar va sanoat korxonalari o‘rtasidagi sezilarli farq ularning faoliyatini tartibga solish jarayonidir.

Bunday holda, Markaziy bank bank tizimining tartibga soluvchisi sifatida faoliyat yuritishning majburiy standartlarini belgilaydi, ularga rioya qilish kredit tashkiloti faoliyatidagi risklarni kamaytirish va omonatchilar va kontragentlarni mumkin bo‘lgan yo‘qotishlardan himoya qilish uchun mo‘ljallangan.

Markaziy bankning kapital yetarliligi, aktivlarning likvidligi, faol operatsiyalarning maksimal hajmi va har xil turdagi risklar hajmini tavsiflovchi majburiy normalari belgilandi. Ulardan asosiylari kapitalning yetarliligi va likvidlik koeffitsiyentlaridir.

Uchinchidan, bank ishining o‘ziga xos xususiyati buxgalteriya hisobi jarayonidir.

Aylanmalar va hisobvaraqlar qoldiqlarining uzluksiz, kunlik bank hisobi moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni nazorat qilish va bank operatsiyalari risklarini baholash zaruratidan kelib chiqadi. Yuqoridagi holatlar orqali banklarning fond birjasidagi aksiyalari narxlarini o‘zgarishi orqali ularning investorlarga bo‘lgan ishonchli bahosini ko‘rsatish zarur bo‘ladi. Bugungi kunda tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini rivojlantirish orqali ularning davlat ulushini kamaytirish orqali investorlarga sotish masalasi muhim hisoblanadi. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga asosan tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozorida turli xil faoliyat olib borishlari mumkin. Shu bilan bir qatorda, “Qimmatli qog‘ozlar bozorining faoliyat ko‘rsatish mexanizmi to‘g‘risida”gi qonunning 17-moddasiga muvofiq, banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati mazkur qonun, shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi va “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlar bilan tartibga solinishi belgilangan. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga binoan tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozorida:

- qimmatli qog‘ozlar (veksel, aksiya, obligatsiyalar, depozit sertifikatlar va boshqalar)ni chiqarish;
- qimmatli qog‘ozlarni sotib olish, sotish, saqlash, ular bilan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish;
- tovar yetkazib berish va xizmat ko‘rsatishdan kelib chiqadigan talab huquqini olish, bunday talablarni inkassatsiya qilish;
- mijozlar ishonib topshirgan operatsiyalarni; mablag‘larni jalb etish va joylashtirish hamda qimmatli qog‘ozlarni boshqarish va hokazo ishlarni bajarish;
- fond bozori ishtirokchilariga bu borada bank faoliyati yuza-sidan maslahatlar berish kabi operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkinligi belgilab berilgan.

Aynan yuqoridagi jarayonlarni amalga oshirishda tijorat banklarini bozordagi faoliyatini baholashda ularning aksiyalari narxini o‘rganish va ularga ta’sir qiluvchi omillarni to‘liq tavsifini kuzatish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklari aksiyalarini fond bozorida harakatlanishi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, bunda asosiy e’tibor tijorat banklari aksiyalari narxiga ta’sir qiluvchi omillar va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratilgan. Jumladan, ayrim tadqiqotchilar fikricha, “aksiyalarni tadqiq qilish moliya bozoridagi eng qiyin mavzulardan biri hisoblanadi, lekin yangi yaratilgan model asosida ularning narxi barqarorligini takomillashtirishga harakat qilinganda cheksiz tafsilotlar va murakkab jarayonlarga to‘g‘ri kelish mumkin”[1].

Tadqiqotchilar tomonidan, bank aksiyalarini narxlarini muhimligini aniqlashda o‘tish davridagi mamlakatlarda banklarni xususiylashtirishning ta’sirini o‘rganish uchun juda muhimligini aoslab berishgan. Bunda “rivojlanayotgan Bolgariya, Chexiya, Xorvatiya, Vengriya, Polsha va Ruminiya davlatidagi eng yirik banklar tanlab olinib, ularning aksiyaari narxini xussiylashtirish jarayonidagi ijobiy (salbiy) oqibatlari tahlil qilingan”[2].

Olib borilgan tadqiqotlarda bank aksiyalari narxini doimiy tebranib turishi ularning iqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida yuz berish ehtimolligi ham tahlil qilingan. Tadqiqotda, “foiz marjasi aksiyalarga to‘g‘ri keladigan daromad (EPS), o‘z kapitalining rentabelligi (ROE), kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti (CAR) va sof foiz marjasi (NIM) bank aksiyalari narxiga va joriy nisbatga (CR) qo‘shimcha ta’sir qiladi degan xulosaga kelishgan va NPAlar ularga zararli ta’sir ko‘rsatishini asoslab berganlar”[3].

Pradhan va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda (2016) xulosasiga ko‘ra, “aksiya narxini aniqlashda muhim o‘zgaruvchilar aksiyalar uchun daromad, aksiya uchun dividendlar, narx-daromad nisbati, aktivlar rentabelligi va hajmi hisoblanadi deb xulosaga kelishgan”[4].

Xuddi shu nuqtayi nazardan, Almumani (2014) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot “ASEda ro‘yxatga olingan banklar uchun aksiyalar bahosini belgilovchi omillarni ham aniqladi. Ushbu tadqiqot EPS, BV/ ulush, PE nisbati va hajmi bank aksiyalari narxini bashorat qilish uchun muhim belgilovchi omillar ekanligini tahlil qildi”[5].

1 John P. Bonin, Iftekhar Hasan and Paul Wachte. Privatization matters: Bank efficiency in transition countries. Multiprint Oy Helsinki 2004. All opinions expressed are those of the authors and do not necessarily reflect the views of the Bank of Finland.

2 Claessens, Stijn, Demirgüc-Kunt, Asli, and Huizinga, Harry, “How Does Foreign Entry Affect the Domestic Banking Market?” Journal of banking and Finance, 25: 891-911, 2001.

3 Sudhi Sharma, Indira Bhardwaj, Kamal Kishore. Accounting for the Effect of Accounting and Regulatory Variables on Bank Share Prices - An Empirical Study of Indian Banks in Panel Data Modeling. Asian Journal of Accounting Research. ISSN: 2459-9700. Open access. Article publication date: December 27, 2022 Issue publication date: March 22, 2023

4 https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/AJAR-11-2020-0110/full/html

5 https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/AJAR-11-2020-0110/full/html

Odatda, “iqtisodiy masalalar FUBAR (Fouled Up Beyond All Recognition FUBAR tomonidan hal etilganda, kuzatuvchilar yo assimetrik ma’lumot yoki begonalar kabi “bozor muvaffaqiyatsizliklari” ni ayblashadi yoki hukumatni ayblashadi. Haqiqat kamdan-kam hollarda juda oddiy. Ko‘pgina yirik iqtisodiy muvaffaqiyatsizliklar bozor va hukumat muvaffaqiyatsizliklarining kombinatsiyasidan kelib chiqadi, ularni gibrid muvaffaqiyatsizliklar, deb atash zarur. Ularning bu holatga kelishi iqtisodiyotni lokomotivi bo‘lgan banklar aksiyalarining fond bozorida to‘g‘ri baholanmasligi oqibati deb ham izohlash mumkin”[6].

Yuqorida keltirib o‘tilgan nazariy yondashuvlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, bank aksiyalar narxini keskin tebranishi yoki uning barqaror bo‘lishi bu banklarning muhim ko‘rsatkichlari bilan bog‘langanligini ko‘rish mumkin. Ushbu holatlar banklarning fond bozoridagi faoliyatiga to‘g‘ri baho berish zarurligini keltirib chiqaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Banklarning aksiyalar narxini barqarorligini saqlashda muhim rol o‘ynashini belgilab beruvchi SII strategik muhim ko‘rsatkichlar (strategically important indicators) bank aksiyalarini keskin tebranish “o‘sish-kamayish” mexanizmini chuqur tahlil qilishda asosiy rol uynashi mumkinligi asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari aksiyalari narxlarini fond bozoridagi o‘zgarishi, ularning ko‘rsatkichlarini ijobiy (salbiy) tomonga o‘zgarishi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘langan. Shuning uchun bank aksiyalarining fond bozorida keskin ko‘tarilish yoki keskin pasayib ketishi bank strategiyasining to‘g‘ri tashkil etilganligi yoki aksincha tanlangan strategik yo‘l noto‘g‘ri ekanligidan dalolat beradi. Rivojlangan davlatlarda bank aksiyalar narxini keskin o‘zgarishi ularning oxir oqibat inqirozga yoki rivojlanib ketish imkoniyatini belgilaydi. Tadqiotimizda tanklab olingan banklar davlat banklari bo‘lib, ularning aksiyalarini fond birjasida harakat siklini o‘rganish va shu asosida aksiyalari narxini barqarorligini ta’minlash uchun qilinishi zarur bo‘lgan masalalarga bag‘ishlangan. O‘rganilayotgan birinchi bankimiz “O‘zsanoatqurilishbank” ATB bo‘lib bank tomonidan bir necha marta aksiyalar emissiya qilingan. Bizga ma’lumki, bank aksiyalari egasining nomi yozilgan hujjatsiz emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar bo‘lib, ular turiga ko‘ra oddiy va imtiyozli bo‘ladi. Oddiy aksiyalar ovoz beruvchi aksiyalar bo‘lib, ular o‘z egasiga dividendlar olish, bankni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi, o‘z egalariga dividendlarni, shuningdek bank tugatilayotganda aksiyalarga qo‘yilgan mablag‘larni birinchi navbatda olish huquqini beradigan aksiyalar imtiyozli aksiyalardir. Imtiyozli aksiyalar Bank ustav kapitalining 20 (yigirma) foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda, qoida tariqasida jismoniy shaxslar o‘rtasida joylashtiriladi. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB bank aksiyasining nominal qiymati 19 (o‘n to‘qqiz) so‘mni tashkil qilib, bankning ustav kapitali (joylashtirilgan aksiyalar soni) 4.634.513.904.398 (to‘rt trillion olti yuz o‘ttiz to‘rt milliard besh yuz o‘n uch million to‘qqiz yuz to‘rt ming uch yuz to‘qson sakkiz) so‘mni tashkil qilgan va u quyidagi aksiyalarga bo‘lingan:

- umumiy qiymati 4.627.483.904.398 (to‘rt trillion olti yuz yigirma yetti milliard to‘rt yuz sakson uch million to‘qqiz yuz to‘rt ming uch yuz to‘qson sakkiz) so‘m bo‘lgan 243.551.784.442 (ikki yuz qirq uch milliard besh yuz ellik bir million yetti yuz sakson to‘rt ming to‘rt yuz qirq ikki) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar;
- umumiy qiymati 7.030.000.000 (yetti milliard o‘ttiz million) so‘m bo‘lgan 370.000.000 (uch yuz yetmish million) dona egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalar.”

Bankning bir dona aksiya nominal qiymati 19 so‘m va jami chiqarilgan aksiyalar soni 243 921 784 442 donani tashkil etgan.


1-jadval: “O‘zsanoatqurilishbank” tomonidan joylashtirilgan aksiyalar umumiy soni[7]

№	Chiqaruv hajmi (mln.so‘m)	Nominal qiymati (so‘m)	Joylashtirilgan aksiyalar umumiy soni (ming dona)	Shundan, oddiy aksiya (ming dona)	Shundan, imtiyozli aksiya (ming dona)	Joylashtirilgan sana
1	2456358 UZS	19 UZS	129755678	129755678	-	30.10.2019
2	417313 UZS	19 UZS	21963818	21963818	-	25.12.2018
3	300000 UZS	19 UZS	15789474	15789474	-	30.10.2018
4	96723 UZS	19 UZS	5090685	5090685	-	22.12.2017
5	629747 UZS	19 UZS	33144579	33144579	-	05.09.2017
6	27447 UZS	19 UZS	1444556	1430556	14 000	02.08.2017
7	697927 UZS	19 UZS	36732994	36376994	356 000	18.07.2017

6 https://saylordotorg.github.io/text_money-and-banking-v2.0/s14-the-economics-of-financial-reg.html
7 https://sqb.uz/uz/for-investors/shares-and-dividends-uz/

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS


Bank tomonidan 2017-2019-yillar oralig‘ida 7 marta aksiyalar emissiya qilingan. Natijada bank ustav kapitalini oshirib borgan. Bankning aksiyalar narxini uch yillik holati tahlil qilinganda quyidagi ko‘rinishda o‘zgaruvchan chiziqqa ega bo‘lgan.



1-rasm: O‘zsanoatqurilishbankning aksiyalar narxini fond birjasidagi o‘zgarish narxi (3 oylik ko‘rsatkichlar)[8]

Xuddi shunday Mikrokreditbank faoliyatini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2021-yil 28-iyunda nominal qiymati 1 068 (bir ming oltmish sakkiz) co‘m bo‘lgan 148 539 325 (bir yuz qirq sakkiz million besh yuz o‘ttiz to‘qqiz ming uch yuz yigirma besh) dona umumiy qiymati 158 639 999 100 (bir YUZ ELLiyuz ellik sakkiz milliard olti yuz o‘ttiz tuqqiz million to‘qqiz yuz to‘qson to‘qqiz yuz ming yuz) so‘mlik oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi aksiyalar yopiq obuna usuli bilan joylashtirilgan[9].


Mikrokredit bank tomonidan nominal qiymati 1 0b8 (bir ming oltmish , sakkiz) so‘m bo‘lgan, 1264 223 706 (bir milliard ikki yuz oltmish to‘rt million ikki yuz yigirma uch ming yetti yuz olti) dona umumiy qiymati 1350 190 918 008 (bir trillion uch yuz ellik milliard bir yuz to‘qson million to‘qqiz yuz o‘n sakkiz ming sakkiz) so‘mlik oddiy egasining nomi yozilgan xujjatsiz shakldagi aksiyalar 2022-yil 2-fevralda muomalaga kiritilgan.



2-rasm: Mikrokreditbank uch yillik aksiyalar narxini o‘zgarishi[10]


8 https://uzse.uz/isu_infos/STK?isu_cd=UZ7037560008&locale=uz сайти маълумотлари асосида тайёрланди.
9 https://mkbank.uz/upload/medialibrary/4a9/nihb8gqpg3n58fo2h2vxoqqewh3s6rdx/28_Emissiya.pdf
10 Muallif tomonidan tuzilgan.

Bank ustav kapitalining miqdori (so‘m): 2 197 142 422 212 so‘m; ilgari joylashtirilgan aksiyalar soni (turlari bo‘yicha taqsimlangan)da chiqarilgan aksiyalarning umumiy soni 2 057 219 459 dona, shundan, oddiy aksiyalar soni 2 057 114 459 dona; egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalar — 135 000 dona.



3-rasm: Mikrokreditbank aksiyalar narxini o‘zgarishi[11]

Mikrokredit bankning aksiyalar narxini o‘zgarish ya’ni keskin o‘sish-kamayish uchburchagi grafigi faqat birgina holatda kuzatilgan. Ushbu holat 2022-yil dekabr oyi va 2023-yilning yanvar oylarida kuzatilgan. Bunda bankning aksiyalari keskin o‘sish orqali keyinchalik pasayishga kelgan.



4-rasm: Qishloq qurilish bankining aksiyalar narxini o‘zgarishi (3 yillik)[12]

Qishloq qurilish bankining 2017-yil 27-fevraldagi Bank kengashining majlis bayoni asosida egasining nomi yozilgan nominal qiymati 119,25 so‘m bo‘lgan, 216 499 999 900,50 so‘mlik 1 815 513 626 dona oddiy aksiyalar chiqarilgan[13].

11 Muallif tomonidan tuzilgan.
12 https://uzse.uz/isu_infos/STK?isu_cd=UZ7018790004&begin_date=01.01.2020&end_date=
13 https://manage.qishloqqurilishbank.uz/storage/documents/uVDQkOzRhdfAxMv1o9tcq2eJ0o8EdZWNH46Xydfz.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Bankning aksiyalari qiymati 2022-yil iyul oyidan boshlab yuqoriga o‘sish holatini kuzatish mumkin. Bankning aksiyalari narxi o‘z nominal qiymatiga nisbatan 2022-yilning noyabr oyidan boshlab yuqori bo‘lganini. Bank tomonidan emissiya qilingan aksiyalari bo‘yicha to‘lash uchun hisoblangan dividendlar miqdori 2016-2021-yillar oralig‘ida oddiy aksiyalar uchun 2020-2021-yillar uchun to‘lanmagan bo‘lsa, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha har yili 23% dan to‘lab berilgan. Oxirgi ikki yil uchun bank oddiy aksiyalar bo‘yicha dividend to‘lanmaganligi bu bankning ishlab chiqqan strategiyasidan kelib chiqqan holda bankning raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va bank mijozlariga raqamli bank xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida amalga oshirilmagan.

Oliingan tahlillar asosida banklarning aksiyalar narxini barqarorligini saqlashda quyidagi ko‘rsatkichlar muhim rol o‘ynashini belgilab beruvchi SII strategik muhim ko‘rsatkichlar (strategically important indicators) taklif etilmoqda.

- davlat banklarini tezroq xususiy investorlarni jalb etish orqali aksiyalarini fond birjasida erkin harakatini ta’minlash;
- banklarning strategik maqsadlarida – bankni raqobatbardosh, mijozlarga yo‘naltirilgan, bozor mexanizmlari asosida faoliyat yuritadigan, nafaqat mijozlar, balki sarmoyadorlar uchun jozibador bo‘lgan bankka aylantirish va kelgusida bankni xususiylashtirishni kiritish;
- aktivlar — agar tahlil har chorakda o‘tkazilmasa, mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar, foyda taqsimoti, amortizatsiya, tarmoqlararo aylanma va xarajatlar uchun kamroq zaxira ko‘rsatilishi kerak. Agar bank aktivlari bo‘yicha aksiyalar narxiga nisbatan og‘ish 5% dan oshmasa, tendensiya barqaror bo‘ladi;
- o‘z kapitali — bu bank mablag‘lari yig‘indisi, hisobot va o‘tgan davrlar foydasi, daromadlar, agar har chorakda tahlil qilinmasa, hisobot va o‘tgan davrlar foydasidan foydalanish, hisobot va o‘tgan yillardagi zararlar, va har chorakda emas, balki tahlil qilinganda xarajatlar. Agar bank o‘z kapitalini aksiyalar narxiga nisbatan og‘ish 5% dan oshmasa, tendensiya barqaror bo‘ladi;
- yil uchun sof foyda. Agar aksiyalar narxiga nisbatan og‘ish 3% dan oshmasa, tendensiya barqaror hisoblanadi;
- davr uchun sof foyda — chorak uchun ko‘rib chiqish taklif etiladi. Davr uchun sof foyda ko‘rsatkichini taqsimlash zarur, chunki agar bank odatda normal ishlayotgan bo‘lsa, hisobot choragidagi daromad avvalgisiga qaraganda sezilarli darajada past bo‘lsa ham, jami foyda tendensiyasi har doim ijobiy bo‘ladi. Bu davr uchun sof foyda ko‘rsatkichi bo‘lib, vaziyatni davrlar bo‘yicha kuzatishga yordam beradi. Agar aksiyalar narxiga nisbatan og‘ish 3% dan oshmasa, tendensiya barqaror hisoblanadi;
- aktivlar rentabelligi (ROA). Agar aksiyalar narxiga nisbatan og‘ish 1% dan oshmasa, tendensiya barqaror hisoblanadi;
- kapitalning rentabelligi (ROYE). Agar aksiyalar narxiga nisbatan og‘ish og‘ish 1% dan oshmasa, tendensiya barqaror hisoblanadi;
- ustav kapitalining rentabelligi - sof foydaning ustav kapitalining o‘rtacha qiymatiga nisbati. Agar aksiyalar narxiga nisbatan og‘ish og‘ish 1% dan oshmasa, tendensiya barqaror hisoblanadi;
- kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti — o‘z mablag‘larining tavakkalchilik darajasidagi aktivlarga nisbati. Agar aksiyalar narxiga nisbatan og‘ish 1% dan oshmasa, tendensiya barqaror hisoblanadi;
- joylashtirish bahosi (o‘rtacha daromad keltiruvchi aktivlar bo‘yicha daromad) - olingan foiz daromadining operatsion aktivlarga nisbati. Agar aksiyalar narxiga nisbatan og‘ish 1% dan oshmasa, tendensiya barqaror hisoblanadi;
- mablag‘lar bo‘yicha to‘langan stavka - foizli xarajatlarning to‘langan majburiyatlarga nisbati. Agar aksiyalar narxiga nisbatan og‘ish 1% dan oshmasa, tendensiya barqaror hisoblanadi;
- sof foiz spredi — joylashtirish narxi va jalb qilish narxi o‘rtasidagi farq. Agar aksiyalar narxiga nisbatan og‘ish 1% dan oshmasa, tendensiya barqaror hisoblanadi;
- sof foiz marjasi — foiz daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi farq. Agar aksiyalar narxiga nisbatan og‘ish 1% dan oshmasa, tendensiya barqaror hisoblanadi;
- aylanma mablag‘lar — daromad keltiruvchi aktivlar ulushi aktivlarning umumiy miqdoriga bo‘linadi. Agar aksiyalar narxiga nisbatan og‘ish 3% dan oshmasa, tendensiya barqaror hisoblanadi;
- tegishli aktivlardagi zaxiralarning ulushi - aktivlar sifatini tavsiflovchi yig‘ma ko‘rsatkich. U aktivlar uchun zaxiralar miqdori sifatida hisoblab chiqiladi, bu zaxira yaratilgan aktivlar miqdoriga tegishli. Agar aksiyalar narxiga nisbatan og‘ish 1% dan oshmasa, tendensiya barqaror hisoblanadi;
- aktivlar va kapital bo‘yicha reytinglarda o‘rin. Reytinglar muntazam ravishda e’lon qilinmaganligi sababli, bu ko‘rsatkich mavjud bo‘lmasligi mumkin, ammo bozor ko‘rsatkichi sifatida bu ko‘rsatkich va uning tendensiyasi juda muhim hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olingan tahlillar asosida tijorat banklarida bank aksiyalarini fond birjasida erkin harakat qilishi hamda ularning narxini barqarorligini ta'minlash bo'yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Davlat banklarini tezroq xususiy investorlarni jalb etish orqali aksiyalarini fond birjasida erkin harakatini ta'minlash.
2. Tijorat banklari aksiyalari narxlarini fond bozoridagi o'zgarishi, ularning ko'rsatkichlarini ijobiy (salbiy) tomonga o'zgarishi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan. Shuning uchun bank aksiyalarining fond bozorida keskin ko'tarilish yoki keskin pasayib ketishi bank strategiyasining to'g'ri tashkil etilganligi yoki aksincha tanlangan strategik yo'l noto'g'ri ekanligi asoslandi.
3. Tijorat banklari fond bozorida aksiyalar narxini ma'lum bir vaqt oralig'ida o'zgarmay turishi, ularning iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir qilish orqali bank imidjini pasayishiga olib kelishi aoslab berildi.
4. Banklarning aksiyalar narxini barqarorligini saqlashda muhim rol o'ynashini belgilab beruvchi SII strategik muhim ko'rsatkichlar (strategically important indicators) ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Claessens, Stijn, Demirgüc-Kunt, Asli, and Huizinga, Harry, "How Does Foreign Entry Affect the Domestic Banking Market?" Journal of banking and Finance, 25: 891-911, 2001.
2. John P. Bonin, Iftekhar Hasan and Paul Wachte. Privatization matters: Bank efficiency in transition countries. Multiprint Oy Helsinki 2004. All opinions expressed are those of the authors and do not necessarily reflect the views of the Bank of Finland.
3. Sudhi Sharma, Indira Bhardwaj, Kamal Kishore. Accounting for the Effect of Accounting and Regulatory Variables on Bank Share Prices — An Empirical Study of Indian Banks in Panel Data Modeling. Asian Journal of Accounting Research. ISSN: 2459-9700. Open access. Article publication date: December 27, 2022 Issue publication date: March 22, 2023.
4. https://bcs-express.ru/novosti-i-analitika/v-pomoshch-investoru-kak-analizirovat-otchetnost-bankov?ysclid=lgxll.
5. https://discovered.com.ua/glossary/rentabelnost-banka/?ysclid=lgxlh077ur119278123.
6. https://manage.qishloqqurilishbank.uz/storage/documents/uVDQkOzRhdfAxMv1o9tcq2eJ0o8EdZWNH46Xydfz.
7. https://mkbank.uz/upload/medialibrary/4a9/nihb8gqpg3n58fo2h2vxoqqewh3s6rdx/28_Emissiya.pdf.
8. https://mkbank.uz/uz/shareholders/ indicators.
9. https://mkbank.uz/uz/shareholders/bank-shares/charter-capital.
10. https://mkbank.uz/uz/shareholders/bank-shares/dividends.
11. https://saylordotorg.github.io/text_money-and-banking-v2.0/s14-the-economics-of-financial-reg.html.
12. https://sqb.uz/uz/for-investors/key-facts-uz.
13. https://sqb.uz/uz/for-investors/reports-and-presentations-uz.
14. https://sqb.uz/uz/for-investors/shares-and-dividends-uz.
15. https://studbooks.net/784441/bankovskoe_delo/osnovnye_metodiki_otsenki_dohodov_kommerch.
16. https://uzse.uz/isu_infos/STK?isu_cd=UZ7018790004&begin_date=01.01.2020&end_date.
17. https://uzse.uz/isu_infos/STK?isu_cd=UZ7037560008&locale=uz сайти маълумотлари асосида тайёрланди.
18. https://uzse.uz/isu_infos/STK?isu_cd=UZ7047440001&begin_date=01.01.2020&end_date.
19. https://uzse.uz/isu_infos/STK?isu_cd=UZ7054570005&begin_date=02.04.2023&end_date=02.05.2023.
20. https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/AJAR-11-2020-0110/full/html.
21. https://www.ipotekabank.uz/uz/investors/shai_keyf.
22. https://www.ipotekabank.uz/uz/investors/shai_sharad.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION ISHLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI (TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI MISOLIDA)

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti izlanuvchisi

Annotatsiya: Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari samaradorligi yildan-yilga ortib bormoqda. Ushbu ko‘rsatkichlar universitetning xalqaro reytinglari, ilmiy darajasi va talabalar salohiyatida ham o‘z aksini topmoqda. 2023-yilda TDIU QS reytingi bo‘yicha 5 yulduz olgan O‘zbekistonning yagona universiteti hisoblanadi. Lekin, ushbu jarayonni yanada optimizatsiyalash uchun xorijning yetakchi universitetlarining tajribasini o‘rganish kerak hisoblanadi. Ushbu maqolada universitetda olib borilgan ilmiy va innovatsion faoliyat, uning samaradorligi va xorij tajribasidan misollar keltirilgan. Shuningdek, maqolada ilmiy-tadqiqotning universitet iqtisodiy holatiga ta’siri nazariy jihatdan o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: TDIU, ilmiy-tadqiqot, innovatsiya, samaradorlik, loyiha, daromad, xalqaro reyting, xorijiy tajriba.

Abstract: The efficiency of research and innovation work at the Tashkent State University of Economics is increasing every year. These indicators are also reflected in the university’s international rankings, academic level and student potential. In 2023, TSUE became the first and only university in Uzbekistan to receive 5 stars according to the QS rating. However, to further optimize this process, it is necessary to study the experience of leading foreign universities. This article presents examples of scientific and innovative activities carried out at the university, its effectiveness and foreign experience. The article also theoretically examines the impact of scientific research on the economics of a university.

Key words: TSUE, research, innovation, efficiency, project, income, international rating, foreign experience.

Аннотация: Эффективность научно-исследовательской и инновационной работы в Ташкентском государственном экономическом университете возрастает с каждым годом. Эти показатели также отражаются на международных рейтингах университета, академическом уровне и студенческом потенциале. В 2023 году ТГЭУ стал первым и единственным вузом Узбекистана, получившим 5 звезд по рейтингу QS. Однако для дальнейшей оптимизации этого процесса необходимо изучить опыт ведущих зарубежных университетов. В данной статье представлены примеры научной и инновационной деятельности, осуществляемой в университете, ее эффективность и зарубежный опыт. В статье также теоретически исследовано влияние научных исследований на экономику университета.

Ключевые слова: ТГЭУ, исследования, инновации, эффективность, проект, доход, международный рейтинг, зарубежный опыт.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori, 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4958-sonli farmoni, 2017-yil 27-iyundagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli qarori, 2018 yil 7-maydagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3698-sonli qarori, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha

chora-tadbirlar to‘g‘risi”gi PQ-3775-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli qarori, 2017- yil 17-oktyabrdagi “Doktorantlarning ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishlari uchun moddiy shart-sharoitlar yaratish va mehnat faoliyatini yanada rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi 839-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligining ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan buyruqlari asosida olib borildi.

Universitetda 6 ta fakultet, shuningdek 9 ta xalqaro qo‘shma dasturlarini o‘zida mujassamlashtirgan Xalqaro qo‘shma dasturlarini muvofiqlashtirish bo‘limi, 33 ta kafedralar faoliyat ko‘rsatmoqda. Bakalavriatda 36 ta talim yo‘nalishlari bo‘yicha jami 18555 nafar, 37 ta magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha 757 nafar talabalar tahsil olmoqda. Talabalarga bilim va amaliy ko‘nikmalar berish, dars mashg‘ulotlarini olib borish, talabalarning mustaqil ta’lim olishlarini ta’minlash uchun universitetda jami asosiy shtatda 699 nafar professor-o‘qituvchilar faoliyat olib borishmoqda. Ularning 106 nafari fan doktori, professorlar, 278 nafari fan nomzodi, dotsentlardir. Universitetning ilmiy salohiyati 55,45 foizni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi PQ-3151-sonli qaroriga muvofiq universitet tomonidan fan-ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash maqsadida innovatsion-korporativ hamkorlikni samarali tashkil etish borasida respublika darajasidagi vazirlik, qo‘mita, tashkilot va korxonalar bilan hamkorlik shartnomalari imzolangan hamda 156 ta tarkibiy tuzilmalari va tashkilotlari bilan innovatsion hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan. Yirik hamkor tashkilotlarda 77 nafar bosh koordinatorlar hamda hamkorlar tarkibiy tuzilmalar bilan ishlovchi 80 nafar koordinatorlar tayinlangan bo‘lib, ularning vazifalari aniq belgilab berilgan.

Universitetda doktorantlar (DSc) va tayanch doktorantlar (PhD) faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4958-sonli farmoni, 2017-yil 27-iyundagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli qarori, 2017-yil 17-oktyabrdagi “Doktorantlarning ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishlari uchun moddiy shart-sharoitlar yaratish va mehnat faoliyatini yanada rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi 839-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2017-yil 14-sentyabrdagi “Vazirlik tasarrufidagi oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 660-sonli buyrug‘i hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2019-yil 26 iyundagi “Doktorantlar maktabi to‘g‘risidagi nizomi”, “Talabgorlarning yakka tartibdagi rejasi bajarilishini har chorakda monitoring qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomi” to‘g‘risidagi 572-sonli buyrug‘i asosida faoliyat yuritiladi.

Universitetda tayanch doktorantura (PhD)da 136 nafar va doktoranturada (DSc) 10 nafar, 465 nafar mustaqil izlanuvchilar (PhD) hamda 69 nafar mustaqil izlanuvchilar (DSc) faoliyat yuritmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni tashkil etishning asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlar, xususan Prezidentning farmon va qarorlari, nizom va buyruqlar asosida amalga oshirildi. Shuningdek, huquqiy va tashkiliy asos sifatida universitetning yo‘l xaritasidan foydalanildi.

Amalga oshirilgan ishlarning samaradorlik darajasini baholash uchun ilmiy tadqiqotlarini baholashning xorijiy maqolalardagi fikrlar tahlil etildi. Xususan, italiyalik tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqotni tashkil etish samaradorligi va ushbu samaradorlikni baholash haqidagi fikrlari o‘rganib chiqildi [1]. Shuningdek, Athanasios Valavanidis muallifligidagi maqolaga asosan, makroiqtisodiy darajada universitetlardagi ilmiy-tadqiqotlarning o‘rni va innovatsiyalarning turli rivojlangan davlat universitetlaridagi holati haqida tahlil etildi [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarning universitet faoliyatidagi o‘rnini aniqlash, amalga oshirilgan ishlar sarhisobini tahlil etish uchun analiz va sintez usullaridan foydalanildi. Xorij va milliy tajribalardagi farqlarni tahlil etishda kuzatuv va taqqoslash metodlari ishlatildi. Jarayonlarni aniqroq ko‘rsatish uchun grafik, jadval va matematik formulalardan foydalanilgan. Muallif tomonidan ilmiy-tadqiqotning universitet iqtisodiy holatiga ta’sirini nazariy o‘rganish uchun iqtisodiy o‘lchov va mantiqiy yondashuv usullari qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Universitetdagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini tahlil etishda, dastlab qo‘yilgan maqsadlar o‘rganildi. Ushbu maqsadlardagi yo‘nalishlar asosida maqolada tarkibi belgilandi.

Universitetdagi ilmiy tadqiqot faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari:

- ilmiy fundamental tadqiqotlar;
- ilmiy-amaliy tadqiqotlar;
- innovatsion tadqiqotlar;
- yosh olimlarning ilmiy-amaliy tadqiqotlari;
- universitetda ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga olgan 13 ta keng qamrovli mavzu;
- xo‘jalik shartnomasi asosida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, davra suhbatlari va seminarlar;
- ilmiy tadqiqot mahsulotlarini nashr qilish (monografiya, risola, ilmiy maqola, tezislar);
- olingan ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish.

Tahlilning keyingi bosqichi sifatida universitetlardagi ilmiy salohiyat ixtisoslik, olimlarning ilmiy salohiyati bo‘yicha miqdoriy tahlil amalga oshirildi. Universitetda asosiy shtatda jami 605 nafar professor-o‘qituvchilar faoliyat olib borishmoqda. Ularning 74 nafari fan doktori, professorlar, 249 nafari fan nomzodi, dotsentlardir. Universitetning ilmiy salohiyati 55,45 foizni tashkil etadi.

1-jadval: Universitet ilmiy salohiyatining ixtisosliklar kesimidagi kontingenti

Ixtisoslik nomi	Jami	Shulardan	
		Fan doktori	Fan nomzodi/dotsent
01.00.00 – Fizika-matematika fanlari	6	1	5
05.00.00 – Texnika fanlari	8	1	7
07.00.00 – Tarix fanlari	1		1
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlari	275	64	211
09.00.00 – Falsafa fanlari	14	4	10
10.00.00 – Filologiya fanlari	4		4
13.00.00 – Pedagogika fanlari	10	3	7
19.00.00 – Psixologiya fanlari	2		2
23.00.00 – Siyosiy fanlar	3	1	2
Jami	**323**	**74**	**249**

Universitet faoliyatidagi professor-o‘qituvchilarning ilmiy potensialni aniqlash va ular bilan yo‘lga qo‘yilgan hamkorlikni mukammallashtirish uchun ularni yosh bo‘yicha guruhlandi.

2-jadval: Universitet ilmiy salohiyatli professor-o‘qituvchilarining yosh kesimidagi kontingenti

Yosh turlari	Fan doktori		Fan nomzodi		PhD	
	Jami	%	Jami	%	Jami	%
30 yoshgacha	0	0	0	0	18	14
31 – 40 yosh	6	8	14	12	77	59
41 – 50 yosh	23	31	37	31	32	24
51 – 60 yosh	19	26	42	36	4	3
60 yoshdan yuqori	26	35	25	21	0	0
jami	**74**	**100**	**118**	**100**	**131**	**100**

Hisobot davrida universitetda universitetda IFODD doirasida jami 13 ta loyiha, 3 ta amaliy va 1 ta innovatsion, 4 ta fundamental, 3 ta maqsadli-amaliy loyiha, 2 ta xalqaro loyihalar ustida ish olib borilmoqda. 2023 yilda universitetda jami 13 ta loyiha doirasida ilmiy faoliyatga oid davlat dasturi bo‘yicha jami 9.2 mlrd. so‘mlik loyihalar ustida ish olib borilmoqda. Jumladan, 3ta 1.6 mlrd. so‘mlik amaliy, 1 ta 0.761 mlrd. so‘mlik innovatsion loyiha, 4 ta 3.05 mlrd. so‘mlik fundamental, 3 ta 2.26 mlrd. so‘mlik maqsadli-amaliy hamda 2 ta 57 ming dollar va 60 ming yevrolik xalqaro loyihalar bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularning yillik o‘rtacha qiymati 10 mlrd. so‘mni tashkil etadi.

Universitetning kelgusi faoliyatini rejalashtirish, uning joriy holatini aniqlash maqsadida universitetning hisobot davrida erishgan yutuqlari tahlil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasining “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 215-bandi ijrosini ta’minlash hamda mamlakatimizdagi oliy ta’lim muassasalarini xalqaro e’tirof etilgan reyting agentliklari reytingining birinchi 1000 taligiga kiritish bo‘yicha ishlar tizimli ravishda tashkil qilindi.

1. THE (Times Higher Education) xalqaro reytingida erishilgan natijalar:

- THE World University Rankings 2024 reytingida TDIU “Reporter” sifatida qayd etildi va pozitsiyasini mustahkamlab bormoqda. 2023-yil 30-oktyabrda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi tomonidan THE xalqaro reyting agentligi mas’ul xodimlari (Phil Bathy, Lachin Italmazova, Elizabeth Shepherd) o‘tkazilgan seminardagi simulyatsiya bo‘yicha 2027-yilga qadar THE WUR reytingi TOP 1000 talikka kiruvchi 7 ta Respublika universitetlar qatorida qayd etildi.
- THE World University Rankings 2023 Asia reytingida “Reporter” sifatida qayd etildi
- THE Impact Rankings 2023 reytingida 1001+ o‘rinni qayd etdi.

2. QS (Quaquarelli Symonds Times Higher Education) xalqaro reytingida erishilgan natijalar:

